

SAID AHMAD

UFQ





SAID AHMAD

UFQ

TRILOGIYA



“Sano-standart” nashriyoti
Toshkent – 2016

KBK: 84(50')6
UO'K: 821.512.133-3
S-21

Said Ahmad.

Ufq / Qayta nashrga tayyorlovchi Xusan-xodjayeva Nodira Said Ahmad qizi. –T.:
“Sano-standart” nashriyoti, 2016-yil. – 640 b.

“Ufq” trilogiyasi O‘zbekiston xalq yozuvchisi, O‘zbekiston Qahramoni Said Ahmad ijodida alohida o‘rin tutadi. Trilogiya XX asr millat hayotining o‘n yillik davri – ikkinchi jahon urushi, urush va urushdan keyingi yillar voqealarini o‘z ichiga oladi. Trilogiyada o‘sha yillari xalq boshiga tushgan musibatlar, odamlar ko‘ksidagi armonlar, shu munosabatlarni yengishga qodir mislsiz matonat va shijoatlar yozuvchi iste’dodiga xos ehtiros, zo‘r ilhom bilan aks ettirilgan. Asarda Ikromjon, Jannat, Azizxon, Dildor, Asrora kabi teran, xalqchil, yorqin milliy obrazlar yaratilgan.

KBK: 84(50')6
UO'K: 821.512.133-3

ISBN 978-9943-4618-6-4

© “Sano-standart” nashriyoti, 2016.

QIRQ BESH KUN

BIRINCHI KITOB

***Umr yo'llarimning sodiq hamrohi
Saida Zunnunovaning porloq xoti-
rasiga bag'ishlayman.***

Said Ahmad

BIRINCHI BO'LIM

I

Zirillama guzaridan sal nari o'tib chap tarafga tor ko'cha ketadi. Qalin tollar soya tashlagan, chetida tinimsiz jildirab suv oqadigan bu ko'cha, ayniqsa, saraton kezlari juda jimjit bo'ladi. Guvala devorlar orqasida betini chang bosgan behi g'o'ralari, terakka chirmashgan aymoqi uzumlar bu ko'chaga ajib bir husn bag'ishlaydi.

Yaktaginging bariga to'rt-beshta handalak solib olgan ellik yoshlar chamasidagi bir kishi shoshilmay boradi. Qoraga bo'yalgan ko'n etigi tuproqqa zarb bilan tushganidan chang ko'tariladi, qo'njlariga qo'nadi.

Ko'cha betlaridagi katta-kichik eshiklar oldi juda fayzli. Yo'lak oldilarida supachalar. Ariq bo'yida rayhonlar. Tol pinjiga suqilgan supada bir mo'ysafid qiyig'i bilan choynakni o'rab o'y o'ylab o'tiribdi. Uning hassasi tizzasiga ko'ndalang qo'yilgan. Oldiga yozilgan dasturxonda ikkita kulcha, bir likopda maydalab uchirilgan oq qand. Ko'zachada oshrayhon shoxlari.

Handalak ko'targan kishi chol oldidan o'tayotganda qadamini sekinlatdi. Cholning qulog'i og'ir bo'lsa kerak, baland ovoz bilan salom berdi. Chol xayoldan uyg'onib alik oldi.

— Ikrommisan? Tinchmisan, bolam? Arzandaginang o'y-nab-kulib yuribdimi? Ke, bitta choy ich!

Ikrom otli bu kishi cholning gapini qaytarmadi. Asta kelib supa chetiga omonatgina o'tirdi. Chol choy quyib uzatarkan, havoni iskab atrofga alangladi.

— Jonivorning hidini qara! Handalak pishihti-da.

Ikrom etagidagi handalaklardan birini cholning oldiga qo'ydi.

— Ha, topdingiz, buva, handalak chiqibdi. Mana, omonlikka birini oling.

Chol handalakni olib uzoq iskadi. Ko'zlari qisilib, ancha paytgacha jim qoldi. Keyin xo'rsingandek dedi:

– Xudo shu kunlarga ham yetkazdi. Pishiqchilikka yetmay o'lib ketaman, deb o'ylagan edim. O'zingga shukur!

Ikrom belbog'iga osilgan jez poynakli qindan pichoq chiqarib cholning oldiga qo'ydi. Chol pichoqni nari itardi.

– Qo'y, nevaramga so'yib beraman. O'zim juda sog'inib turgan edim. Handalak bahona bir ko'rib kelaman.

Ikrom kuldi.

– Nevarangiz handalak pishig'ini hali ko'p ko'radi. O'zingiz so'yib yeng.

– Nevaram yonimda chuldirab turmasa, tomog'imdan ovqat o'tadimi?

Chol choynak tumshug'ini piyola chetiga tekkizib oxirgi choyni quydi-da, o'zi xo'plab fotiha o'qidi.

– Kun isib ketmay borib kela qolay.

Ikkovlari o'rinlaridan turishdi. Ikrom cholning hassasini olib berib, ariqdan o'tishida belidan tutdi.

Chol ketarkan minnatdorlik bildirdi.

– Zap ish qilding-da, Ikrom. Nevaram bo'ynimga osilib chuldiraydigan bo'ldi.

To u ko'zdan yo'qolguncha Ikrom orqasidan qarab qoldi. Negadir ichidan bir kuchli xo'rsiniq kelib entikib oldi. Bu cholga havasdanmi, yo shunday pokiza bir insonning umri tugab borayotganidanmi, bilmasdi.

Supa chetida qolgan uchta handalakni noxushlik bilan yana etagining bariga tashlab sertuproq yo'ldan boyagidek salmoqli qadamlar bilan yurib ketdi.

Ikrom yashil eshik oldida to'xtab oyoq ostidagi bodring po'choqlariga, chala tishlab tashlangan g'o'ra olmalarga, bir-ikki joyidan timdalangan kungaboqar laganchasiga qaradi. Boshini sarak-sarak qilarkan, betida ajib bir jilmayish paydo bo'ldi. O'zi-cha ovoz chiqazib “bolasi tushmagur-e, bolasi tushmagur-e”, deb yuborganini bilmay qoldi. Ostona hatlab ichkariga kirdi. Hovli jimjit. Hamma yoqqa ko'loblab suv sepilgan. Ikrom handaklarni ayvonga dumalatib, ichkari uyga mo'raladi. O'rin yig'ilmagan. O'n olti yoshlardagi bir yigit dong qotib uxlardi. Derazadan tushgan oftob boshiga kelib qolganidan bo'yinlari terlab ketgan. Ikrom ostonaga tepinib etigining changini tushirdi-da, kirib o'g'lining boshiga choyshab tortib qo'ydi. Onasi qayoqda ekan, deb atrofga qaradi. Yana hovliga tushdi. Xotini

ko'rinmasdi. Ariq bo'yiga kelib yuvinishga endi engashgan ham ediki, tomorqa tarafdin ingragan tovush keldi. O'qdek otilib tomorqaga chopdi.

Qantak o'rik tagida qirq besh yoshlardagi xushro'ygina bir juvon to'lg'anib yotardi. Yonida palyonlangan uch-to'rtta o'rik sarjin. To'nka ustida bolta. Ikrom ildam borib xotinini ko'tardi.

— Jannat, Jannat, senga nima bo'ldi?

Jannat ingradi. Ikrom ariqdan hovuchida suv olib betiga sochdi. Jannat ko'zini ochdi.

— Nima bo'ldi?

Jannat ingragandek javob qildi:

— Tentakkinamga tansiqroq bir nima pishirib beray desam o'tin qolmapti.

Ikromning ikki qoshi oralig'iga tugunchak tushdi. Xotinini suyab hovliga olib o'tdi. Ichkarida hamon o'g'li dong qotib ux-lardi. Ikrom xotinini ko'rpacha ustiga yotqizib, boshiga yosti qo'ydi. Keyin jahl bilan uyga kirib bolasining ustidan choyshabni irg'itib tashladi. Bola cho'chib ko'zini ochdi. Tepasida depsinib turgan dadasiga hayron qaradi.

— Tur! Bu qanaqa ahmoqlik?

Bola umrida bunaqa gap eshitmagan, shekilli, qo'rqib ketdi. Ikrom yana qichqirdi:

— Odamlar ishini qilib tushlikka chiqdi. Sen hali ham bolish-dan boshingni uzmapsan. Ahmoq!

Ayvondan xotininging ingroq tovushi eshitildi:

— Bolamni so'kmang. Bolaginamni g'adablamang!

Ikrom bolaning yuvuqsiz betidan ko'zini olib ayvonga chiqdi. Xotininging boshiga kelib tiz cho'kdi.

— Handalak olib keldim, so'yib beraymi?

Xotin bosh chayqadi.

— Bolaginamga so'yib bering. Yesin. Tursunboy, bolaginam, qanisan? Dadang handalak olib keptilar, yeb olgin, bolaginam.

Tursunboy ko'zlari uyqudan qisilgan bir holda ichkaridan chiqdi. Ayvon chetidagi handalaklarga qaradi. Olmoqchi bo'lib turganda Ikrom zarda bilan dedi:

— Bor, yuvin, keyin yeysan!

Bola bir onasiga, bir dadasiga qarab turib qoldi. Keyin norozi holatda ayvondan tushib nari ketdi. Xotin ingrab eriga qaradi.

— Bolamga qattiq gapirmang. U nimani biladi, yosh bola-ku. Esi kirib qolar, dadasi.

Ikrom indamadi. Xotiniga sovib qolgan choydan quyib tutdi.

— Esing joyidami, og‘ir oyoq odam o‘tin yoradimi?! O‘g‘linga aytsang bo‘lmasmidi.

Er-xotin jim qolishdi. Shu o‘g‘il ularning bitta-yu bitta farzandlari. Jannat yetti bola tug‘di. Turmadi. Shu bittagina Tursunboy ularning quvonchi bo‘lib o‘sardi. Bolaga ular shamolni ham ravo ko‘rmasdilar. Bola ham yolg‘izligini sezib, undan foydalanardi. Uy yumushlariga qarashmas, qarashganda ham ishni o‘yin tariqasida boshlab, ishga aylanganda tashlab ketardi. Ona doimo orqasidan yurib u chala qoldirgan ishlarni bajararkan, ha, bo‘yniginang uzilmagur, ha, og‘zingdan bol tushmagur, deb gapirib yurib ish qilardi. Bola yo‘lga kirganda ham er-xotin uni opichlab yurishdi. Uning o‘zi kech yo‘lga kirdi. Umuman, bola ayyor bo‘ladi. Ko‘p ko‘tarsangiz, oyog‘ini yerga bosmaydigan bo‘lib qoladi. Tursunboy ham oyog‘ini kech yerga bosganlardan edi. Ikrom to‘ylarga borsa bironta qandmi, konfetmi, yaxshi niyat bilan, bolamni ham shu kunlarga yetkazsin, deb kissasiga solib kelardi.

Ona qayerga borsa, uni ergashtirib borardi. Tursun hatto maktabga borganda ham onasini emardi. Katta tanaffusda kelib emib ketar, ona to‘y-hashamlarga borsa, orqasidan ergashib borar, uni imlab yo‘lakkami, panaroq joygami chaqirib emib olardi.

Ular arzanda bolalarini ana shunday, butun umrlarini, rohat-farog‘atlarini bag‘ishlab o‘stirishgan edi. Zero, ularning rohatlari ham, farog‘atlari ham shu bolaning dard ko‘rmay o‘shishi-yu ko‘z oldilarida yurishi edi. Agar Tursunboyning sal isitma olib qolsa, er-xotin uyqu nimaligini unutishar, boshidan nari ketisholmasdi. Tursunboyning sal notob bo‘lishi ikkovini ham oyoqdan yiqitardi.

Tursunboy yuvinib uyga o‘tib ketdi-da, bir ozdan keyin kiyinib chiqdi. U chinakam birov havas qilsa arziydigan yigit bo‘lgandi.

Tursunboy husnda tengsiz yigit edi. Qosh-ko‘zlari popukdek. Ota-ona emas, ko‘rgan kishilar ham to‘xtab bir qaramay ilojlari yo‘q edi.

Tursunboy o‘zining chiroyliligini bilar, shuning uchun bo‘lsa kerak, o‘ziga bino qo‘yardi. O‘z tenglari, ayniqsa, qizlar oldida sal balandroq turib, bepisand gaplashardi.

Tursunboy kelib dadasining oldiga tiz cho‘kdi.

— Bolam, onangga jindek qaynatma sho‘rva qilib ber. Men hozir dalaga ketaman.

– Qo‘ying, – dedi xotini. – Qo‘liga pichoq bermang, et-be-tini kesib olmasin, bolam. U-buni keltirib bering, o‘zim sekin to‘g‘rab beraman.

Ikrom indamadi. Yer ostidan sekin o‘g‘liga qaradi. U onasi himoya qilayotganidan mamnun edi. Ikrom indamay turib o‘choq boshiga ketdi. Jannat o‘g‘lini peshanasidan silab pichirladi:

– Tokchada qaymoq bor, dasturxonga non o‘rab qo‘yganman, choyingni ich, bolaginam.

U shunday dedi-yu, o‘g‘lining javobini ham kutmay inqillab o‘rnidan turdi. Bolasining oldiga dasturxon yozib nonushta qo‘ydi. Keyin unga tikilib o‘tiraverdi.

Oshxonada Ikrom do‘q-do‘q o‘tin yorar, jaz-buz qilib piyozdog‘ qilardi.

Ona hamon bolasidan ko‘z uzmay allaqanday shirin xayollar og‘ushida tebranib-tebranib o‘tirardi.

II

Qalin daraxtlarga burkangan katta hovlining etak tarafida yangigina shuvoqdan chiqqan uy-dahliz, oldi ayvon. Hovli o‘rtasida atrofidan ariq aylanib o‘tadigan supa. Ariq bo‘ylarida rayhonlar qulf urib yashnab turipti. Suvi qochib qoqiga aylana boshlagan suxan o‘rik tagi bilan bitta bo‘lib to‘kilgan. Jannat to‘kilgan o‘riklarni terib laganga solyapti. Supa ustida pashshaxona ichida Tursunboy barq urib uxlab yotipti. Jannat oy-kuni yaqin bo‘lganidan engashib o‘rik terolmaydi. O‘tirgan o‘rnida surilib teradi. Tut tagidagi chog‘roq so‘riga nonushta tayyorlangan. Oshxona oldida sariq samovar parillab qaynab turipti.

Jannat tizzasiga tiralib o‘rnidan turdi. Tergan o‘riklarini ayvon labiga qo‘yib supaga keldi. Pashshaxona chetini ko‘tarib o‘g‘liga allaqanday mehr bilan qaradi.

– Bolam, tura qolgin. Jon bolam, kun yoyilib ketdi. Tura qol, jon bolam, onaginang o‘rgilsin! Dadang nonushta qilmay ishga chiqib ketgan-a. Turgin!

Bolasi u yonboshidan bu yonboshiga ag‘dariladi.

Hali ustara tegmagan iyaklarida yigitlik nishonalari belgi berib qolgan, tush surtilgandek quyuq kipriklari yumuq ko‘zlarini qoplab turardi. Zulukdek qora qoshlari, qirra burni, bejirim iyaklari bolaga alohida bir husn bag‘ishlardi.

Jannat uning boshini silaydi.

– Tursunboy, bolaginam, tursang-chi, nonushtang sovib qoldi. Dadang kutib qoldi.

Tursunboy odeyalni boshiga tortib burkanib oldi.

— Ha, umringdan baraka topkur-a, tursang-ku, bo'lardi-ya. Mening shu ahvolda borib kelishim osonmi. Ha, bolang ko'paygur-a. Qandoq qilaman, boraman-da. Tezroq tur! Dadangning oldiga o'zim boraman. So'ridagi nonushtangni tovuq cho'qib ketmasin.

Jannat o'zidan-o'zi gapirib, chorsiga non, qatlama tuga boshladi. Samovar jo'mragidan katta mis choynakka qaynoq suv quyib samovarga yana suv to'latdi. Quvuriga tarasha tashladi. Keyin qo'lida choynak, tugun bilan supa yoniga keldi.

— Ketyapman. Eshik ochiq qolmasin, tur. Turganingdan keyin chorboqqa chiqib sigirdan xabar olib qo'y. Arqoniga o'ralashib qolmasin.

Jannat gapira-gapira chiqib ketdi.

Kun yoyilib ko'cha serqatnov bo'lib qolgandi. U keksa tollar, qayrag'ochlar bag'ridan o'tgan yo'l bo'ylab ketarkan, qulog'iga xotinlarning yig'isi chalindi. Sergaklanib yig'i kelayotgan tarafga quloq tutdi. Yig'i Rasul buvaning hovlisidan kelardi. Xotin qadamini tezlatdi. Rasul buvaning ko'cha eshigi oldidagi supasi ko'rindi.

Chol har kuni shu supada kunini kech qilardi. Yuzni qoralab qolgan bu chol umrida ko'p voqealarning shohidi bo'lgan. Uvali-juvali bu qariya keyingi yillarda uzoq yaqinga borolmaydigan, nevaralariga supa yasatib cho'g'dek gilamcha soldirib o'tirar, didiga yoqqan yo'lovchini yoniga chorlab achchiq ko'k choy quyib berar, ketayotganda rayhondan bitta shox sindirib qo'liga tutardi.

Mana, hozir supa oldida uch-to'rt kishi o'ralashib turibdi. Ko'cha betiga ko'loblab suv sepilgan. Chol o'tiradigan supa tepasidagi tol poyasini kesib tobutga anbar qilishyapti.

Xotin janozaga to'planayotgan kishilar oldidan bosh egib o'tib ketdi. Ichkaridan o'qtin-o'qtin yig'i tovushi kelib turibdi. Qoragina bir kishi shoshib kelardi. U uzoqdan jadal kelayotgan bo'lsa kerak, terlab, yaktagining yelkalari ho'l bo'lib ketgan edi.

— Jannat, Ikromga o'zing xabar qil. Peshinga chiqazilarmish, deb ayt. Men Zarkent, yakkatutliklarga xabar qilib kelyapman.

U shunday dedi-yu, yana jadallab yurib ketdi.

Bu erining yaqin o'rtog'i, To'lanboy ismli kishi edi. U qiz tanlab-tanlab yoshini o'tqazib qo'ygan, oxiri qirqni qoralab qolganda uylangan, o'zi ochiqqina, har gapiga maqol yo'nal tal qo'shib gapiradigan so'zamol kishi edi. U kirgan davra birdan yashnab ketar, to'y-hashamlarda u bo'lmasa o'rni yo'qlanib

turardi. U o'zini katta olmas, qishloqda azami, biron ma'raka bo'lsa, darrov yetib kelardi. Bironta odam bemahal notob bo'lib qolsa, shuni uyg'otishar, piyoda bo'lsa ham Marg'ilonga — doktor olib kelishga yuborishardi. To'lanboy yo'q demay pildirab ketaverardi. Mana, hozir ham To'lanboy janozaga ikki qishloqni xabarlab kelyapti.

Jannat eriga bu ko'ngilsiz xabarni yetkazish uchun qadamini tezlatdi. Idora oldida qora yengil mashina turardi. Odam ko'p. Hamma ichkaridan kimningdir chiqishini kutyapti. Jannat bir muddat, kim keldi ekan, kattalardan birontasi bo'lsa ajab emas, deb Yakkatut tarafga burildi. Ikromjonning o'zi shu tarafga halloslab kelardi. U xotinini ko'rib achchiqlandi.

— O'zing kelyapsanmi? O'g'lingga aytsang bo'lmasmidi? Necha marta aytaman, yuk ko'tarma, deb.

Jannat, hechqisi yo'q, degandek iljaydi.

— Tursunboyginangiz uxlayapti. Kechasi kech qaytgan edi. Uyg'otgim kelmadi. Rasul buva olamdan o'tibdilar.

— Eshitdim, — dedi Ikrom. — Shunga kelyapman. Sen uyga qayta qol.

— Och nahor borasizmi, qatlama qilgan edim, bir tishlam bo'lsa ham, tamaddi qilib oling.

— Keyin, keyin. O'zim eshikka boraman. Yo'ldosh ota kelibdilar. Meni yo'qlatgan ekanlar, boray.

— Ota atayi janozaga keptilarmi?

— Yo'q, ish bilan yurishipti. Ko'pchilik bo'lib cho'llarni ay-lanib yurishganmish. Qishlog'imiz tepasidan kanal o'tadi, de-yishyapti. Uyi, bog'i ustidan kanal o'tadigan xonadonlar bilan gaplashib yurishipti. Birortasi norozi bo'lib qolmasin, deb Ra-yimberdiga tayinlayaptilar.

— Voy tavba, — dedi Jannat. — Hukumat ham suv keltirsin, ham haqini to'lasin, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan zamonlar bo'lyapti.

Ikrom shoshib turganidan gapni cho'zib o'tirmadi.

— Keyin aytib beraman, xotin. Gap ko'p. Zo'r ishlar bo'la-diganga o'xshaydi. Boray-chi, otaning o'zlari aytib qolarlar. O'z og'zilaridan eshitay.

Ikrom xotinini qoldirib, o'zi idora tarafga qarab ketdi.

Jannat tugunchasi bilan uyga qaytganda so'ri ustidagi nonush-tani musichalar cho'qir, qaymoq solingan piyola yerga tushib chil-chil bo'lgan edi. To'kilgan qaymoqni mushuk yalardi. Tur-sunboy bo'lsa hamon dong qotib uxlab yotibdi. To'rt-besh tovuq dasturxondan olib qochgan qatlamani talashib cho'qilashardi.

Jannat bu besaranjomlikni ko'rib hang-mang bo'lib qoldi.

— **Ha, bolaginang ko'paygur-a, bu nima qiliq, hali ham yotibsanmi? Mana, bormaganingdan dadaginang nonushta kutib-kutib, och-nahor qishloqqa tushib kelibdi. Shunaqa ham bo'ladimi, bolangdan aylanay.**

Onasining tinmay javrashi chakkasiga tekkan Tursunboy noiloj bosh ko'tardi. Pashshaxona ichida bir kerishib odeyalni irg'itdi.

— **Hech uxlatmadingiz-da.**

— **Uxlash ham shunchalik bo'ladi-da. Rasul buvang ham olamdan o'tiptilar.**

Bola beparvogina "shunaqami", deb qo'ya qoldi.

— **Dadang o'shaqqa ketdilar. Sen ham choyingni ichib o'shaqqa bor.**

— **Men nima qilaman. Kun isib ketdi.**

— **Voy bolam, bu odam bolasining bir-biridan qarzi-ya. Buntun uch qishloq buvangnikiga yig'ilyapti. Rahmatli, qandoq tabarruk odam edilar. Yuz yoshga kiraman, deb turgan edilar.**

Onaning gaplari Tursunboyga malol keldi.

— **Bo'ldi, ko'p gapiravermang. Miyamni achitib yubordingiz.**

O'g'lining achchiqlanayotganini ko'rib ona sergaklandi.

— **Xo'p, xo'p, bolam. Endi gapirmayman. Borsang yaxshi bo'lardi. Hamma o'rtoqlaring o'sha yerda. Oxunboboyev ota ham kelibdilar.**

Bola esnab o'rnidan turdi. Ona uyga kirib, dazmollangan yangi dastro'mol, taxtakachdan tushgan marg'ilon nusxa do'ppi olib chiqdi.

U ko'cha eshigiga yo'l olarkan, ona allaqanday, sira ta'riflab bo'lmaydigan mehr bilan orqasidan qarab qoldi.

— **Choy ichmading-ku, choyingangni ichmading-ku, tentagim.**

Tursunboy ko'chaga chiqib qayoqqa borishini bilmay ancha o'ylanib turib qoldi.

Hali janozaga Oxunboboyev ham kelarmish degan gap qulog'iga kirgandek bo'lgandi. U kishi qanaqa odam ekan? Bilgisi keldi. Dadasi Toshkentga borganda Oxunboboyev, o'g'ling nechaga kirdi, kap-katta yigit bo'lib qolgandir, deb so'rganini onasi aytib bergandi.

Tursunboy o'ylab o'tirmay Zirillama tarafga yura boshladi.

Hamma vaqt jimjit bo'ladigan ko'chada bugun odam ko'p. To'rt-besh qishloq shu yerga — dafn marosimiga to'plangan. Ko'cha betida tobut.

To'p-to'p odam orasida shivir-shivir boshlandi. Ota kelayotibdilar. Yo'ldosh ota kelayotibdilar, degan gap og'izdan-og'izga o'tdi.

Uzoqdan mashina motorining gurillagani eshilib darrov so'ndi...

Narida o'n choqli kishi ko'rindi. Oldinda cho'qqi soqol Yo'ldosh Oxunboboyev, uning yonida Tog'a, Ikromjon, Ummatali va to'rt-besh kishi shu tarafga qarab kelishardi... Rayimberdi Rasul buvaning keyingi kunlarini gapirib kelardi:

— Sakkiz o'g'il, bir qiz, o'ttiz sakkiz nevara ko'rgan. Yolg'iz qizini ko'p yaxshi ko'rardi, bechora. O'sha qizining qo'lida jon beripti.

Ikrom kechagi uchrashuvni yana esladi. Demak, buva kecha nevarasiga handalak olib borganicha uyiga qaytmagan. O'sha yerda jon taslim qilgan.

Oxunboboyev uni yaxshi tanirdi. Eslab ketdi.

— Rasul buvaning ukasi bilan biz Eshonto'pi qishlog'ida chorakorlik qilardik. Atayi Zirillamadan bizni yo'qlab borardi. Topganini berib yana piyoda orqasiga qaytib ketardi. O'tgan yili Toshkentga nevarasini yetaklab boripti. Ishga kelsam, eshikda kutib turgan ekan: "Shuni o'qitib, menga odam qilib ber. Bittasi ilmi bo'lsin", deb iltimos qilib qoldi. Joylab qo'ydim.

— Ha, — dedi Rayimberdi, — do'xtirlikka kiritib qo'ygan ekan-siz. Hozir shu yerda, kanikulga kelgan.

Zirillama janozaga ko'chib kelgandek edi. Ko'cha betida birov cho'kkalagan, birov tik turgan, chol o'tiradigan supada ikki-uch qariya bosh egib tek qotishgan edi.

Oxunboboyev bir chetda tizzaladi. Ma'raka egasiga imlab, yuqoriga olinglar, degan ishora qilishdi. Ammo Oxunboboyev joyidan jilmadi. Qo'lini ko'ksiga qo'yib uzr ishorasini qildi.

Bari bir bo'lmadi. Rayimberdi uni qo'ltig'idan olib turg'izdi-da, supaga, qariyalar oldiga o'tqazdi.

Dalaga, g'o'za chopig'iga ketayotgan kolxozchilarning hammasi janozaga kelishgan. Ularning ketmonlari, non tugilgan qi-yiqlari yonlarida.

Kunning tig'iga qolmay janoza o'qilib qabristonga yo'l olishdi. Zirillama guzariga chiqqanlarida o'tkinchi aravadagilar, otliq ketayotganlar yo'ldan to'xtab tobutni yelkaga olishar, yetti qadam yurib dastani boshqasiga berishardi. Yo'llardagi samovarlarda ertalabki nonushtaga chiqqan choyxo'rlar gur etib turishar, sartaroshxonadagilar, do'kondagilar ishlarini, pullari-yu qimmatbaho buyumlarini tashlab, tobut dastasini yelkaga olishardi.

Bu qadim o'zbek odatini, ayniqsa, zirillamaliklar qattiq ush-lashardi. So'nggi yo'lga ketayotgan inson oldidagi buyuk qarz deb bilishardi.

Oxunboboyev ham navbatma-navbat dastani yelkaga olar, marhum siymosida o'z otasini eslardi. Ular bir-birlari bilan qalin do'st bo'lishgan. Rasul buva do'sti Oxunbobo vafot etganda, qab-riga o'z qo'li bilan qo'ygandi. Shunda Yo'ldoshvoy bu odamga alohida bir mehr, alohida yaqinlik sezgan, bu sezgi chol olamdan o'tgunga qadar qalbini tark etmagandi.

Yo'ldoshvoy o'z otasini ikkinchi daf'a dafn qilayotgandek edi. Chunki otasini tanigan, uning tovushini eshitgan, hamnafas bo'lgan kishilardan eng so'nggisi shu Rasul buva edi.

Yuz yoshni qoralab qolgan bu tabarruk cholni u Toshkentda Oliy Sovet Prezidiumining Raisi bo'lib o'tirgan stolida, o'y o'y-lab qolgan choqlarida ham eslardi. Qachon Farg'ona tomonlarga yo'li tushsa, albatta, uni bir ziyorat qilib, duosini olib o'tardi. Mana, otasi bilan hamnafas, uning nafasini tuygan so'nggi kishi ham olamni tark etdi.

Bu cholni butun yurt izzat qilardi. To'y-u ma'rakalar usiz o'tmasdi. Nikoh to'ylarida kelin bilan kuyovni uning oldiga olib kelib salom berdirishardi. Yangi farzand ko'rganlar, albat-ta, chaqaloqni uning tizzasiga qo'yib olishardi. Agar u guzardan hassasini do'qillatib o'tib qolsa, hamma barobar qalqib to o'tib ketguncha ta'zimda turardi.

Had-hisobsiz tobutkash qabriston tomonga burilgan edi. To'lanboy olazarak bo'lib kimnidir qidira boshladi. Ko'pchilik-dan qolib ketmay deb, pildirab borayotgan siyrak soqol bir kishi-ni tirsagidan ushladi.

– Ummatali amaki, tez uyga borarkansiz.

Ummatali hayron bo'lib To'lanboyga qaradi.

– Nima gap?

To'lanboy halloslab gapirardi:

– O'g'lingiz mahallani boshiga ko'tarib aravakashlar bilan mushtlashyapti.

Ummatali bir gap aytmay to'pdan ajralib orqasiga qaytdi. Uning bunaqa ma'rakalar, to'ylardan benasib bo'lib orqaga qayt-gan paytlari ko'p bo'lgan. U bironta to'yda, bironta bazmda odamlarga o'xshab xotirjam o'tirmagan. O'g'li Azizxon janjalni pulga sotib olar, mashmasha boshlab uni mudom notinch qi-lardi. Shuning uchun ham hozir u, nima bo'пти, qachon, nega, degan savol bermay orqasiga qaytyapti.

Savobdan quruq qolmaylik deb o'tkinchi aravakashlar ot-aravalarini tor ko'chada qoldirib, tobut dastasini yelkaga olib, yarim yo'lgacha bo'lsa ham kuzatib qo'yaylik, deb ketgan edilar. Azizxon egasiz qolgan ot-aravalarni ko'rib paytdan foydalanmoqchi bo'lipti. Ikkita otni aravadan chiqazib bolalarni mindiripti. O'zi ko'cha tarafdagi darvozaning bir tavaqasini chiqazib ko'cha o'rtasida qorniga qo'yib yotib opti. Bolalar ot bilan qornidagi darvozaga chiqishipti. Aravakashlar kelishsa ot yo'q. Bolalar ot minib chiqqan darvoza taxtasining bosh tarafida Azizxonning iyagi chiqib turipti. U kuchanib, yana bittang ot minib chiqqaring, deb buyruq qilyapti.

Aravakashlar bolalarni tiriqtirib otlarni tushirishdi. Bittasi Azizxonning yuziga tarsaki tortib yuboripti. Azizxon zabti tez, dev yigit. Unga shapaloq urgan aravakash yigitni belidan ushlab devor oshirib chorboqqa irg'itibdi. Qolgan aravakashlar unga yopirilib kaltaklay ketishibdi. Azizxon unisini u yoqqa, bunisini bu yoqqa otib, to'rt tarafga quvib, ko'cha o'rtasida, qani, mard bo'lsang yaqin kel, deb ikki qo'lini beliga tirab turipti.

Ummatali yetib kelganda ariqning bu betida to'rtta aravakash unga yaqin kelolmay so'kinishardi.

Aravakash zoti urishqoq, so'kishda birovdan orqada qolmaydigan xalq bo'ladi. Ammo Toshlog'-u Marg'ilonga so'z bermay kelayotgan bu zo'ravonlar Azizxonning oldiga borolmay turganlarini ko'rgan Ummatali ularga ermakomuz qarab qo'ydi.

— Uyat-e, shu yosh boladan kaltak yeb o'tirsalaring. Bu gavda savlat ekan-da.

U shunday deb o'g'lini turtib-turtib chetga olib chiqdi.

— Sening dastingdan biron joyda xotirjam bitta piyolagina choy icha olamanmi, yo'qmi? He, senga polvonlikni o'rgatgan Hojimuqondan o'rgildim!

Azizxon dadasiga betma-bet kelolmasdi. Har qanday to'polon qilmasin, har qanday qiliq qilmasin, dadasi ko'ziga qarasa, shashtidan qaytar, churq etib og'iz ochmasdi.

Bu gal ham shunday bo'ldi. Ummatali ko'cha o'rtasida darvozaning bir tavaqasi tuproqqa qorishib yotganini ko'rib o'g'liga xo'mrayib qaragan edi, Azizxon g'iring demay darvozani azot ko'tardi. Lapanglab borib bir intilishda joyiga ilib qo'ydi. Keyin indamay uyga kirib ketdi. Ummatali yig'ilgan bolalarga qichqirdi:

— Borlaring, tuqqanlaringning oldiga jo'nalaring. Tomosha tamom! E, chavandoz pahlavonlar, otlaringni aravaga qo'shinglar. E, sadqayi polvon ketlaring!

Ummatali o'g'lining bir ta'zirini bermoqchi bo'lib hovliga kirdi. Bola ko'rinmadi. Qidirib chorboqqa chiqdi.

Azizxon allaqachon chorbog' devoridan oshib ko'chaga chiqib ketgan edi.

Ota iljayib boshini sarak-sarak qildi.

— Ha, tentak-a! Quyilib qolarmikin, ishqilib!

Ota bolasining taqdiridan tashvishlanardi.

— Minilmagan asov otning o'zi. Bilmay minganni irg'itib tashlaydi. Egar urdirmaydi, hurkovuch. Ha, ishqilib omon bo'lsin! Bir kunmas bir kun zo'r xotinning qo'liga tushsa, yuvosh bo'lib qolar.

Ummatali o'zini shu xil gaplar bilan ovutardi.

III

Zirillama qishlog'ining guzarida g'alati ish bo'ldi.

Azizxonning qo'lini bog'lab guzarga olib chiqishdi. Kaltak zarbidan betlari momataloq bo'lib ketgan, chakkalari g'urra. Kiyim-boshlari yirtilib, yelkalari ochilib qolgan edi.

Ertalab nonushtaga chiqqan choyxo'rlar, Marg'ilon-u, Quva taraflarga ketadigan yo'lovchilar uning atrofini o'rab olgan. Bir davangirdek yigit gal bermay unga musht tushirib turipti. Ammo Azizxon bosh ko'tarib unga bir nima deyolmas, musht va kaltaklarga chidab, miq etmay turardi.

— Hoy, insofing bormi, Akbar, shuncha urding, endi bas! O'ldirib qo'yasan-ku!

Yigit hech kimning gapiga kirmasdi.

— O'ldirish kerak. Tiriklayin ko'mib tashlash kerak buni!

— Esing bormi? — deydi boshqa bir yo'lovchi. — Har qancha yomonligi bo'lsa, melisa jazo beradi. Olomon qiladigan paytlar, o'tib ketgan.

Shu payt, Tog'a kelyapti, Tog'aning o'zi kelyapti, degan shivir-shivir bo'lib qoldi. Davra orasini yorib kolxoz raisi Rayimberdi To'xtaboyev kirdi.

— Nima gap?

Qo'li bog'liq, betlari kaltakdan ko'karib ketgan Azizxonga ko'zi tushdi.

— Yana nima hunar ko'rsatdi, bu tiyilmas!

Yigit aytib bo'lmaydigan gapni tildan chiqazishga istihola qilib, atrofdagilarga qarab oldi. Keyin kaftining orqasiga yo'talib gapira boshladi.

– Bu yaramas tong saharlab devor oshib, qo‘rg‘onga tushipti.

– Nima, o‘g‘rilikkami?

– O‘g‘rilik qilsa ming marta rozi edim-a! Singlimning qo‘y-niga kirmoqchi bo‘lib endi ko‘rpani ko‘tarayotgan ekan. Yaxshiyam toleimga peshobga uyg‘onib qoldim. Kuyovga bo‘lishib qo‘yganmiz-a! To‘rt kundan keyin to‘y. Bu yaramas bizni badnom qilmoqchi ekan.

Rayimberdi o‘qrayib Azizxonga qaradi.

– Shu gap rostmi?

Azizxon indamadi. Qiyiq tuguni ezgan bilagini ishqalab, indamay turaverdi.

– Sendan so‘rayapman! Shu gap rostmi?

Azizxon:

– Rost, – dedi. – Uyg‘otmoqchi edim.

Yigit battar tutaqdi.

– Yomon niyating bo‘lmasa, qora saharda devor osharmiding. Nima, xumor bo‘lib nos so‘ragani devor oshganmiding. Nos so‘rab ko‘rpa-qatini ko‘targanmiding?

– Chekmayman, noskashmasman. O‘zida ishim bor edi.

Uning telba-teskari javoblaridan atrofdagi ermak talablar hiring-hiring kulishardi.

Rayimberdi tog‘a ham o‘zini tutolmay kulib yubordi. Qoq saharda bironing pardali qizida nima ishi bo‘lishi mumkin.

– Nima ishing bor edi? – dedi Rayimberdi atayin uni gapga solish uchun.

Azizxon nima deyishini bilmay bezrayib turaverdi. Rayimberdi ham tutaqib ketdi.

– Hey, til-zaboning bormi, gapirsang-chi!

Azizxon ming‘irladi:

– “Toyir-Zuvra” kitobini beraman degandi.

Yigit yana musht ko‘tarib keldi.

– He, tong saharda “Toyir-Zuvra” o‘qiydigan!

Odamlar uni bilagidan qayirib nari surib qo‘yishdi.

Rayimberdi odamlarga, tarqalinglar, tomosha tamom bo‘ldi, Akbarali, sen ham ketaver. Buni o‘zim tuzlayman, deb Azizxonni ergashtirib idora tarafga yura boshladi. Akbarali ham bormoqchi edi, unga: “Sen qol dedim-ku”, deb qo‘l siltadi. Oldinda Rayimberdi, orqada Azizxon indamay borishardi. Hali ham tarqalishmagan odamlar biri kulib, biri o‘zicha bichib-to‘qib qotib-qotib kulishardi. Sho‘xroq bir o‘spirin Akbaraliga piching aralash dedi:

– Qizni do‘xtirga ko‘rsatish kerak.

Bu gap qizning akasiga malol keldi. Gap aytgan o'spiringa yeb yuborgudek o'qraydi. Keyin hafsalasi pir bo'lgandek qo'l siltab, orqasiga qaytdi.

Azizxon hamon raisga ergashgancha indamay borardi.

U Zirillamaning eng sho'x, o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini oladigan, yerga ursa ko'kka sapchiydigan bo'z bolalaridan. Bola paytida ham shundoq edi. Haligacha quyilmadi. Tomlardan chumchuq uyasiga intilib, tik teraklardan yiqilib sinmagan, chiqmagan joyi qolmagan. Mushtlashishga ishqiboz. Atayin Yakkatut, Toshloq, Zarkent taraflarga borib basma-basga o'z tenglari bilan mushtlashardi. Birini urib, biridan kaltak yeb qaytgan paytlari juda ko'p bo'lgan.

Agar Zirillama qizlaridan falonchiga falon qishloqning yigiti gap qotipti, deb eshitsa, tamom. Atayin o'shaqqa borib gap qotgan yigitning og'zi-burnini qopqora qon qilib kelardi.

Kuchi, g'ayrati taniga sig'maydigan bu yigit ko'cha eshigi oldida o'tirib atayin kuchini ko'rsatib qo'yish uchun eshak qo'shilgan aravaning orqasidan tortib yurgizmay qo'yar, qopdagi bug'doymi, unmi, nima bo'lsa tishi bilan ko'tarib irg'itardi. U qishloqning "ko'ziri" deb nom olgan edi. Shu bolaning ko'ngliga birdan muhabbat otashi tushdi.

Muhabbat o'ti ilashgan yigitlar ko'pincha yuvosh, o'ychan, ingichkaroq ovoz eshitsa xo'rsinadigan bo'lguchi edi. Azizxon bunaqa bo'lmadi. Ishqi ham o'ziga o'xshagan bebosh, hech narsani tan olmaydigan bir ishq edi.

Shuncha yil yonma-yon yurib, birga o'sib, o'zi necha martalab urib, sochidan tortib chirqillatib yuradigan Lutfinisa bir kun kelib uning uyqusini o'g'irlashi, kechalar hammaga eshitirib oh urdirishini sira xayoliga keltirmagan. Uning muhabbati sekin-asta boshlanmadi. Olovdek lov etdi-yu yurak-bag'rini kuydirdi, qo'ydi. Ana o'sha kundan beri Azizxon Lutfinisaning yo'lini poylaydi. Ovloqroq joyda uchratsa iltifot nimaligini unutilib, bag'riga tortadi. Qiz ham unga ortiqcha monelik qilmaydi. Bir chekkasi moyillik bildirib turgandek o'zini qo'yib beradi. Bu orada sirdan voqif bo'lgan akasi Lutfinisani ikki-uch kaltakladi ham. Eplolmadi. Qiz battar o'chakishib Azizxon tarafga intilaverdi. Uy yumushlarini orasta qiladigan qiz o'zini pardozga urdi. Ko'chaga chiqadigan bo'lsa, yo'lakda yuziga upa-eliklarni chaplaydigan bo'ldi. U o'tgan ko'chada atir hidi anqib ketardi. Bu hid Azizxonni jinni qilar, uni ko'rolmagan kezlarida ko'chasini, yo'lagini hidlab kelardi. Nima bo'ldi-yu, Lutfinisa Azizxon

tayin qilgan joyga kelmadi. Ertasi kuni uchrashganda uni ayamay shapaloqladi. Qiz bu kaltakni og'ir olmadi.

Xullas, ikkovining muhabbati biron kitobga yozilmagan, biron shoirning tiliga kelmagan antiqa bir muhabbat edi.

Ularning bu daraja besaranjom, xavfli uchrashuvlaridan tashvishga tushgan qizning akasi Akbarali nima qilishini bilmay ko'p bosh qotirdi. Ota-onasi bo'lganda-ku, ularga maslahat solardi. Lekin, nachora, ular bu foniq dunyodan ko'z yumganlar. Oxiri marg'ilonlik kosib yigitdan kelgan sovchilarga rozilik berib, patir ushatdi. To'y kuni ham tayin qilindi. Singlisini ostonaga hatlab ko'chaga chiqarmay qo'ydi.

To'y taraddudidan xabar topgan Azizxon — jinnining o'zi bo'ldi-qo'ydi. Marg'ilonga tushib kuyovning yo'lini poyladi. Uchratsam bir o'lasini qilib uraman, qizdan aynitaman, deb niyat qildi. Ammo kuyov bolani uchratolmay qaytib keldi. "Agar shunga tegsang so'yaman, pichoq charxlatib keldim", deb Lutfinisaga xat kiritdi. Xat qizning qo'liga tegmadimi, har qalay javob bo'lmadi. Ana shundan keyin Azizxon kechasi bilan Lutfinisalar uyi atrofida g'ingshib yurdi. Oxiri chidamay devor oshib hovliga tushdi. Hamma yoq tinch. Hatto bo'ribosar iti ham tongga yaqin mudrab qolgan edi. Azizxonning niyati qizni olib qochish edi. Asta emaklab ayvonga chiqdi-yu, qiz yotgan to'shakka yaqinlashdi. Tong salqinida Lutfinisa ko'rpani boshiga tortgan ekan. Atir hidi Azizxonni bir necha daqiqa garang qilib qo'ydi. Yostiqdandan oshib tushgan ikki o'rim sochni bir qilib to'yguncha hidladi. Keyin endi qiz boshidagi ko'rpani ko'targan ham, ediki, qorong'ida kimligini bilmagan Lutfinisa qichqirib yubordi. Birpasda hovli qiy-chuv bo'lib ketdi. Qo'ni-qo'shnilar uyg'onib hovlini to'ldirishdi. Qizning akasi Azizxonni g'o'zapoya g'arami orqasidan topib chiqdi. Keksalar hassasi bilan, yoshlar mushti bilan do'pposlashdi. Ammo Azizxon g'iring, deb ovoz chiqarmadi. To'yguningcha uraverlarning, deb turaverdi.

Lutfinisa ayvon ustunini quchoqlab goh yig'lar, goh allaqanday harakatlar bilan Azizxonga dalda berib turardi...

Idoraga yaqin qolganda Rayimberdi hassaga tayangan bir cholning arzini tinglab alahsib qoldi. Azizxon payt topib orqa ko'chaga qarab qochdi.

Akbarali uyiga yetganda qarasa, Azizxon ko'chaning bu betida tol tagida ularning eshigiga tikilib o'tiribdi.

Akbaralining nihoyatda tajangligi oshdi. Endi nima qilish kerak? Bu beta'sir bolaga gap o'tmasa, kaltak kor qilmasa! Oxiri yalinishga qaror qildi. Azizxonning oldiga kelib qo'lini ko'ksiga qo'ydi.

– Menga qara, baraka topkur. Tinch qo‘ygin. Jon uka, tinch qo‘ygin. Bizni sharmanda qilma! Ko‘cha-ko‘yda qandoq bosh ko‘tarib yuraman. Yo ko‘chib ketaymi?

Azizxon bez bo‘lib turib javob qildi:

– Ko‘chadigan bo‘lsang, Lutfini tashlab ketasan.

Akbarali: – E, odam bo‘lmay har narsa bo‘l! Hojimuqonni oldida qolib ketsang bo‘lmasmidi, seni qaytarib olib kelgan o‘zimiz ahmoq. Boshga bitgan balo bo‘lding, yaramas, – dedi-yu, eshikni oyog‘i bilan ochib hovlisiga kirib ketdi.

Sal o‘tmay hovli tarafda uning so‘kingani, Lutfinisaning dod solib yig‘lagani eshitildi. Nimadir sindi. Azizxonning qulog‘iga shunday so‘zlar chalinib qoldi: – G‘unajin ko‘zini suzmasa, buqacha ipini uzmaydi. Sen ablah ko‘z suzmasang, bu yaramas bunchalik suykalmasdi.

– Bari bir topgan kuyovingizga tegmayman. Azizxondan boshqasiga tegadigan bo‘lsam sirka ichib o‘laman.

– Sirka u yoqda tursin, zahar ichmaysanmi. Bari bir aytganimni qilaman.

– Zahar ichishdan oldin besh varaq qilib, zolim akamning dastidan dod, deb xat qoldiraman, keyin zahar ichaman.

Yana nimadir sindi. Birov qochdi. Birov quvdi. Lutfinisaning yana dodlagani, akasining so‘kingani eshitildi.

Bu gaplarga quloq solib iljayib o‘tirgan Azizxon qandaydir g‘alaba qilgan kishidek mag‘rur o‘rnidan turdi. O‘zicha “qoyil, qo-o-yil”, deb qo‘yardi.

Lutfinisaning ham bo‘sh kelmasligidan ko‘ngli tinchigan Azizxon uyga borib bir uyquni urib, qolgan ishni ana shundan keyin o‘ylashni niyat qilib hovlisiga ketdi.

Uning yirtilgan kiyimlari, g‘urra bo‘lgan, ko‘kargan betlarini ko‘rgan mahalla kishilari biri kulib, biri hayron bo‘lib orqasidan qarab qolishardi.

Kimdir: “Manavini oshiq deydi”, dedi.

Orqa tarafdin gurr kulgi ko‘tarildi.

Bu masxaralar, bu gaplar oshiq Azizxonga zarracha ham ta‘sir qilmas edi.

IV

Bugun Akbaralining uyida to‘y. Ko‘chani oshna-og‘aynisi bilan to‘ldirib kuyov keladi. Qishloq qizlari yor-yor aytib Lutfinisani Marg‘ilon tarafga, kuyovnikiga kuzatib boradilar.

Azizxon shularni o'ylaganda ichini it tatalagandek ingrab yuborar edi. Bugun u yotgan to'shagi kuydirgandek erta tongda o'rnidan turdi. Allaqayoqlarda sanqib, oh tortib, peshanasiga shatillatib urib uyga qaytib keldi.

Dadasi Ummatali ohorli yaktagini, taxtakachdan chiqqan do'ppisini kiyib to'yxonaga ketdi. Azizxon ko'ksini zaxga bosib, endi taqdirga tan berish kerak, degan o'ylarga kelar, shunday o'ylarga kelgan kallasiga musht urib sapchib o'rnidan turib ketardi.

Ayniqsa ko'cha boshida qo'sh karnay, qo'sh surnayning vat-vati, nog'ora-chirmandalarning tak-taka-tumini eshitgandan keyin sira chidayolmay qoldi. Eshigini tepib ochib ko'chaga chiqdi. Ko'zlari bejo, duch kelganni do'pposlaydigan qiyofada edi. U o'zidan-o'zi ichki bir tovush bilan, hech bu dunyoda rahm-shafqat degan narsa bormi, adolat degan narsa bormi, deb nido qilardi.

Bu minilmagan asov otdek yigit qanday adolat qidirayotganini o'zi bilmasdi. Qoq yarim tunda birovning uyiga devor oshib, pardadagi qizning yoniga kirsam, ovloqroq joyda uchrasam, belini qayirib bag'riga bossam. Unga yana qanaqa adolat-u, qanaqa rahm-shafqat kerak?

Azizxon bo'y yetib, yigitlikning dunyo meniki, kuch menda deydigan faslini kechirardi.

Kuyovnakarlar olomoni qiyqiriq bilan Akbaralilar ko'chasiga burilib ketdi. Azizxon o'sha tarafga ketayotganini bilmasdi.

Qosh qorayib qolgan. To'y sharofati bilan suv sepilgan ko'chalardan chang ko'tarilmas. Eshik tirqishidan kuyov o'tgan tarafga mo'ralab turgan xotin-xalaj Azizxonning ketishiga kulib, ba'zilari voy bechora, degandek qarab turishardi. Azizxon bu ta'qib qilib turgan ko'zlarni ko'rmas, ko'rsa ham idrok qilmasdi.

Azizxon Akbaralilar darvozasi oldida davra yasab nog'ora-chirmandaga raqs tushayotganlarni tomosha qilayotganlarga chap berib lip etdi-yu devor oshib chorboqqa tushdi. Keyin bog'ma-bog' oshib ketaverdi. Xotinlar, bolalar yo'lakka chiqib to'yni tomosha qilayotganliklari uchun bog'larda, tomorqalarda hech kim yo'q edi. Azizxon to'y bo'ladigan hovli orqasidagi baland nok tupining qiyalab o'sgan shoxiga o'tirib oldi. Qo'ynini kuzgi tosh nok bilan to'ldirdi.

Ko'chada bazm tugab, kuyovni o'ragan yigitlar asta-sekin hovliga kira boshladilar. Xotinlar bosh egib kelayotgan kuyov ustidan tanga, shirinliklar sochishardi. Azizxon zalvarli bir tosh nokni qo'lga olib salmoqlab ko'rdi. Boshiga salla o'rab, jig'a

taqqan kuyovni mo'ljalga oldi. Uning oldini baland bir yigit to'sib qolganidan Azizxon nokni otmadi. Qulayroq paytni kutdi.

Keksalar so'rilarga, yoshlar taxtadan yasalgan uzun stol chetidagi skameykalarga o'tirishdi. Ikki yigit kuyovni qo'ltig'idan olib kunga qaratib solingan uy derazasi oldiga olib keldi. Bir epchil yigit taburetkaga par yostiqlik qo'yib kuyovni o'tqazdi. Tasbeh tutgan cholg'a stul qo'yib berishdi. Nikoh o'qish marosimi boshlanish arafasi edi. Azizxon eng avval mullani mo'ljalga oldi. Nok sallasiga tegib uchirib yubordi. Nima bo'lganini bilmay qolgan kishilar chuvalgan sallani olib qayta o'ray boshlashdi.

Bu payt qorong'i tushib, hovlidagi daraxt shoxiga ilingan to'rtta lampochka charaqlab yongan, kuchli nur odamlar ko'zini olganidan devor naryog'i qop-qorong'i bo'lib ko'rinardi.

Salla yana mullaning boshiga qo'ndi. Azizxon yana mo'ljalga oldi. Nok mullaning quloq-chakkasi aralash tegib uning boshini qiyshaytirib yubordi.

Azizxon nok bo'ronini boshladi. Kuyovning og'zi-burni qop-qora qon bo'ldi. Yonidagi ikki yigit ham nasibasiga yarashasini oldi. Butun hovli qiy-chuv bo'lib ketdi. Noklar qay tarafdin otilayotganini bilisholmasdi. Azizxon qo'ynidagi so'nggi nokni deraza oynasiga otdi. Oyna chil-chil bo'ldi.

Azizxon to'yni buzib, qo'ynini yana nokka to'ldirib, nokdan tushdi-da, qorong'i bog' ichida yo'qoldi.

Yarim soatdan ortiq besaranjomlik bo'ldi. Kuyovning chakkasini doka bilan bog'lashdi. Obdastada issiq suv opkelib izzat bilan betini yuvib qo'yishdi.

Ammo mulla nikoh o'qishga sira unamasdi.

— Menga jon kerak, qo'yinglar, nikohni o'zlaring o'qib qo'ya qolinglar.

Shuncha tavallo qilishsa ham bo'lmadi. Domla etak siltab chiqib keta boshladi.

Uning bu qilig'idan diqqati oshgan Akbarali domlani belidan dast ko'tarib qaytarib olib kirdi.

— Sizga ishonib o'tiribmiz, taqsir. Bu qishloqda bironta eski cha biladigan odam yo'q. Atayin aravada Quvadan olib kelganman-a!

Yurak oldirib qolgan mulla chor-nochor rozi bo'ldi.

— Xo'p, xo'p, bo'tam, hech bo'lmasa nikohni ichkariga kirib o'qiylik. Kuyovni uyga olib kiringlar.

Akbarali, bu boshqa gap, deb uni ichkariga boshladi. Kuyov ham o'rnidan turib ularga ergashdi.

Shu payt charaqlab yonib turgan lampochkalarga g'or noklar qars-qars tegib yorila boshladi. Bir zumda hamma yoq ziston bo'ldi qo'ydi. Nima bo'layotganini bilolmagan to'y ahli vahimaga tushdi. Hamma jon talvasasida o'zini har yoqqa urdi. Idishlar sindi. Samovarlar ag'anadi. Kim qayerda, nima qilyapti, bilib bo'lmasdi... To'polonda mullaning: "Bo'talarim, sallamning uchini kim bosdi, kavushim qani", degan chinqirig'i eshitilardi.

Shu to'polon ichida xotinlarning qichqirig'i hammani hang-mang qilib qo'ydi.

— Voydod, sho'rimiz qurib qoldi. Sharmanda bo'ldik, qizni olib qochdi. Bir yashshamagur, qirchiningdan qiyilgur qizni olib qochdi.

Qorong'ida chiroq, sham ko'targanlar paydo bo'ldi.

Akbarali alamdan lablarini tishladi. Kecha kuyov yuborgan novvosni so'yan qassob pichog'ini qinidan chiqardi.

— So'yaman, o'ldiraman dayus Azizni!

Yorilgan burni bodringdek shishib ketgan kuyov Akbaralini yoqasidan oldi.

— Qizni top, nomard! O'ynashi bor singlingni menga pullamoqchimiding. Xotinimni top!

Keksalardan biri uni turtib zarda bilan dedi:

— Nikoh o'qilmasdan xotinim deyishing shariatga sig'maydi. Uyat bo'ladi.

— Sizlar uyaling, mana bu hezimbash uyalsin, nega men uyalar ekanman. Yetti yuz so'lkavoyini xarjlab qo'rganman. Agar hozir pullarimni qaytib bermasang, uyingga o't qo'yaman.

Akbaralining tishlari g'ichirladi. O'zini arang bosib, til qisqilik bilan gapirdi:

— Sabr qiling, topib kelaman. Osmonga chiqib ketgan bo'lsa, oyog'idan tortib tushiraman, yerga kirib ketgan bo'lsa, qulog'idan tortib chiqazaman.

— Bozor ko'rgan singlingni endi dallolga ber!

Akbarali uncha-muncha achchiq gapni ko'tarolmaydigan, salga qizishib, panjasi mushtga aylanadiganlardan edi. Hozir bir yelkasidagi shayton, qo'lingdagini sol biqiniga, der, bir yelkasidagi rahmon, hoy, o'zingni bos, tiling qisq, chida, derdi.

Bir yigit patronlarga yangi lampochka ilib chiqdi. Hovli boyagidek yorishdi. Paloslar sidirilib ketgan, ovqatlar tuproqqa qorishgan edi. Akbarali qo'lida qindan sug'urilgan pichoq bilan kuyov oldida bosh egib tishini tishiga qo'rganicha fil gavdasini xam qilib turar, ularga hech kim bir nima deb og'iz ocholmas-

di. Akbarali iztirob ichida uzoq egilib turdi-da, birdan boshini ko'tardi. Kuyovning betiga dadil qaradi.

— Menga nojo'ya gap aytdingiz, kuyov. Agar boshqa odam shu gapni aytganda ichagini boshiga salla qilib qo'yardim. Singlim boshimni egib ketdi. Ammo men yigitlik belbog'imni boshimga solganim yo'q. Qaying orqaga. Kiring ichkariga. To'y tarqamaydi. Otam meni o'g'il bola qilib tug'dirgan.

Shunday deb Akbaralining o'zi yo'l boshladi. Kuyov nima bo'layotganini bilmay unga ergashdi.

Ularni tomosha qilib turgan kishilar yana hovliga kirishdi. Hovli to'riga qarab ketayotgan Akbarali bilan kuyovdan ko'z uzishmadi. Akbarali to'xtab u yoq-bu yoqqa qaradi. Bir chetda voyvoylab qulog'iga sho'r paxta bosib o'tirgan mullaning oldiga borib, yuring, taqsir, dedi-yu siltab tortib boya nikoh o'qitmoqchi bo'lgan joyga o'tqazdi. Keyin, hozir chiqaman, deb ichkariga kirib ketdi.

Hamma hayron. U nima qilmoqchi, qizni topib kelishganmikan, shundoq bo'lsa kerak, degan o'y bilan yo'lga ko'z tikib o'tirishardi.

Sal o'tmay Akbarali chiqdi. Hamma hang-mang bo'lib qoldi. Birov sapchib o'rnidan turib ketgan, birov zarda bilan oldinga intilgan, yana birov o'tirgan joyida oyog'i qaltirib turolmay qolgan edi.

Akbarali o'n besh yoshga hali to'lib-to'lmagan o'z qizini sudrab kelardi. Qiz nima gapligidan xabarsiz atrofga javdirar, biron gunoh qildimmikin, ammamning qochishiga meni qarashgan deb o'ylaydimikin, degan fikrda bo'lsa kerak, hadeb dadasiga yolvorib, men emas, men emas, deb chirqillab javrab kelardi. Akbarali uni qo'lidan siltab kuyov oldiga itarib yubordi.

— O'qing, o'qing nikohni, domla!

Odamlar barobar oh urib yuborishdi. Bir keksa hassasini do'qillatib ular oldiga bordi.

— Esingni yig', ahmoq! Bu nima qilganing!

Akbarali siz aralashmang, degan nazar bilan undan yuz o'girdi.

Kuyov o'ttiz beshlarga borib qolgan, ko'k ko'z kishi edi. Uning oldida qiz sher qafasiga tashlangan quyondek qaltirardi. Navniholdek gavdasi dadasiga qarab iltijo bilan egilgan, ko'zlari atrofga madad so'rab boqardi.

Bo'layotgan voqealarni alam bilan kuzatib turgan Ummatali bu ishlarga men gunohkor, degandek chetda, odamlar ko'zi

tushmaydigan panada devorga suyanganicha qimirlamay turardi. Agar Akbaralining ko'zi unga tushsa, albatta yoqasidan oladi. Nomard, o'g'lingni top, deb g'adablaydi. Boya Akbarali pichog'ini qindan chiqarganda Ummatalining oyog'idan darmon ketib yerga o'tirib qolgandi. Ana endi yosh, norasta, hali uy-ro'zg'or nimaligini bilmagan, yalang oyoq yurgan, sochiga tol popuk taqishni tark qilmagan, qo'g'irchoq o'ynashdan chiqmagan ma'sumaning umrini juvonmarg qilyapti. Bularning bariga uning o'g'li, bebosh, betizgin Azizxon sababchi. Butun qishloqda birovga gapini bermagan, o'tirgan o'rnini sotib oladigan, do'ppi-si tushib ketsa pul berib oldiradigan mag'rur yigitning boshi yurt oldida egilib qoldi.

Ummatali ichidan kuyardi. "Bolam, bolaginam, nimalar qilib qo'yding? Yurt oldida yigit boshining egilishi nimaligini bilasanmi, axir. Bu dog' Akbaralining ko'ksida umrbod qolib ketadi-ya. Seni kechirarmikin?! Bir kun sendan xun olsa, men qandoq chidayman. Ertaga tong otadi, odamlar betimga qaraydi. Shundoq o'g'il o'stirgan otaga la'nat demaydimi? Betimga tupurmaydimi?! Bolaginam, meni tiriklay o'ldirib qo'yding-ku, murda qilib qo'yding-ku!"

Ko'cha tarafda mashina gurillagani eshitildi. Sal o'tmay to'yxonaga Rayimberdi tog'a kirdi. Hali Akbarali qizini sudrab chiqayotganida bir bola velosiped bilan shamoldek yelib ravotdan chiqib ketgan edi. O'sha xabar qilgan bo'lsa ajab emas.

To'y ahli Tog'ani ko'rgandan keyin, xayriyat, degandek erkin nafas oldi. Tog'a obro'-e'tiborli, SSSR Oliy Sovetining deputati, Oblast partiya komiteti byurosining a'zosi, har bir aytadigan gapini qonun-qoida tarozisida o'lchaydigan kishi.

U hech kimga qaramay nikoh o'qitishga tayyorlangan joyga bordi.

— Uyal, uyal xaloyiqdan. Hukumat bor, qonun bor.

Tog'a shunday deb xaloyiqqa qaradi.

— Birodarlar, to'y tarqadi. To'y bo'lmadi, deb hisoblanglar.

Uy-uylaringizga tarqashingizni so'rayman.

Kuyov Tog'aga yuzlandi.

— Men nima bo'laman?

Tog'a istehzoli kuldi.

— Qiz bilan avval ro'para bo'lganmisiz? Roziligini olganmisiz?

Kuyov nima deyishini bilmay Akbaraliga qaradi.

— Mana, akam bilan gaplashganmiz. Bu kishi rozi bo'lmasalar to'y qilarmidim.

– Qizning rizoligini olmay to‘y qilib bo‘lmasligini bilmasmingiz?

– Shuncha xarjga kuyib qolaveramanmi? Sudga berib undirib olaman.

Tog‘a keskin javob qildi:

– Sud arzingizni inobatga olmaydi. Qiz rozi bo‘lmay boshlangan to‘y qonunsiz hisoblanadi. Qonunsiz bo‘lgan ishni sud tan olmaydi.

Kuyov bir nima deb gapirolmadi.

To‘y ahli bir-bir tarqay boshladi.

Tog‘a ko‘zlarini bir nuqtaga tikkanicha o‘y o‘ylab qolgan Akbaraliga ich-ichidan kuyinib qarab turardi. Bu yigit hech kimga so‘z bermagan yaydoq yigitlardan edi. Endi zabun, ko‘zlar andishadan yerga boqqan.

– Menga qara. Ko‘p kuyinma! Ayb o‘zingda. Ikkovining boshini qovushtirib qo‘yganingda bunchalik bo‘lmasdi. Singlingni lochin olib qochdi. Bilasanmi, lochin qandoq bo‘ladi. Juftini boshqa qushlarga talatib qo‘ymaydi. Agar shundoq bo‘lsa, u o‘zini tog‘ qoyaloriga urib halok qiladi. Lutfinisani zo‘r lochin olib qochdi. Ketidan quvma! Bir kun bosh egib keladi. Tiz cho‘kib qilmishiga uzr so‘raydi.

Akbarali indamadi. Tog‘a, xo‘p, xayr bo‘lmasa, deb tor ko‘cha bo‘ylab ketdi. Akbarali darvoza tavaqasiga suyanganicha qancha turganini bilmaydi. Uzoq-yaqinda xo‘rozlar chaqira boshladi. Bu nechanchi chaqirishi, u bilmasdi. Ichkarida singan idish-tovoqlarni yig‘ishtirayotgan xotinlarning shivir-shivir gaplari qulog‘iga kirmasdi.

Akbaralining ichida qasos o‘ti borgan sari alanganardi.

Ayol kishining: “Dadasi, kiring, bemahal bo‘lib qoldi”, degan ovozi keldi. Akbarali javob qilmadi.

Hovlida to‘y chiroqlari o‘chdi.

Ko‘cha darvozasi oldida turgan Akbaralining soyasini qorong‘ilik yutdi.

V

Ummatalini tashvish bosdi. Bolani bir balo qilib qo‘ymasa go‘rga edi. Militsiyaga xabar qilsamikin?

Ummatali u yonboshidan bu yonboshiga ag‘darilib to‘lg‘a-nib yotardi. O‘g‘li yo‘lga kiribdiki, har kuni hunar ko‘rsatadi. Boshqalarning bolalariga o‘xshash bo‘sh-bayovgina bo‘lmadi.

Yerga ursa ko'kka sapchiydigan, hatto uxlab yotganda ham qo'l-oyog'ini silkib, nimalardir deb baqirar, qichqirardi. Azizxon o'n to'rt yoshlardamikin, Ummatali tush paytida uyiga qaytsa, hovlidan bolalarning qiyqiriqlari eshitildi. Bolam yana nima baloni boshladiykin, deb hovliga kirganda esi og'ib qoldi.

Azizxon uy eshigini turumidan chiqarib qorniga qo'yipti. Besh bola uning qornidagi eshik ustida o'yin tushishyapti. Ummatali qo'lga tayoq olib bolalarni to'rt tarafga tirqiratdi. O'n besh yoshlarida bo'lsa kerak, Azizxon o'rik shoxiga oyog'i bilan osilib, g'unajinni qornidan katta dasturxonni sirib bog'lab, tugunidan tishlab ko'targandi. Tog'a kolxoz medpunktiga voprovod tushirish uchun ko'cha boshiga yigirmatacha temir quvur keltirib qo'ygan edi. Azizxon o'rtoqlari bilan bahs boylashib, ertalabgacha hamma quvurlarni egib g'ildirak qilib qo'yipti. Ana o'shanda Ummatali quvur haqini to'lashga majbur bo'lgan. Azizxon tog'asinikiga qochib ketib bir haftadan keyin Ummatalining o'zi borib, olib kelgan edi.

Ummatali hayron edi. Bu bolada shuncha kuch, shuncha g'ayrat qaydan paydo bo'ldi ekan? O'zining ham, xotining ham urug'ida bunaqa odam bo'lmagandi.

Yuvoshgina ota-onaning bolasi ajab g'alati chiqdi. O'tganing o'rog'ini, ketganning ketmonini oladi. Aravakashlar undan zirillaydi. Arava orqasidan tortib otini yurgizmay qo'yadi. Oq ko'pikka tushirvoradi.

Ummatali ana shularni o'ylaganda o'g'lining Akbaralidan shikast yeyishiga ishonmasdi. Ammo Akbarali uni uyqusida bossa-chi?! Undoq desa, Azizxon uyquda ham sergak yotadi. Tepasidan kapalak uchib o'tsa ko'zini ochadi.

Bolasi tushmagur, hozir qayerda ekan? Ochmikini, to'qmi-kin? Birovning qizini olib qochib kimnikiga bordi ekan? Tog'alarinikidan xabar olsamikin? Yo'q, u yoqqa bormas. Borsa o'sha zahoti qo'lidan yetaklab qaytarib kelishadi. Bu bola to'qayga qochgan. U yerda nima yeydi, qayda yotadi?

Harna qilsa ham farzand, ota bechoraning joni achiydi. Ko'ngli bolasining bir kun emas, bir kun esi kirib, yurtga nafi tegadigan odam bo'lib ketishiga ishonadi. Axir bolasi ichmaydi, chekmaydi. Faqat bebosh o'ylarini jilovlayolmaydi, xolos! Mol do'xtirining uyiga o't tushganda uning Hasan-Husan chaqaloqlarini olov ichidan olib chiqqan kim edi? Kolxoz chorvasini sel oqizganda o'zini toshqinga otib, mollarni qutqarib qolgan shu Azizxon emasmidi?!

Azixxon toshqin suvga o'xshaydi. Uni jilovlasa, xohlagan to-monga, dalalarga, chorboqlarga boshlab borsa bo'ladi. Agar jilov solmasa, u qirg'oqlarni buzib, ekinlarni payhon qiladi. Ammo uni kim jilovlaydi?!

Ummatali o'ylab o'yiga yetolmasdi.

Tong otdi. Xotini hovli yuzida kuymalanib yurar, tiq etsa ko'cha eshigiga qarardi. Ummatali kechasi bo'lgan voqeani xotiniga aytmagan. Xotini keyingi kunlarda salga boshi aylanib yiqiladigan bo'lib qolgandi. Endi unga yotig'i bilan aytish kerak. Bo'lmasa begonadan eshitsu birdan behuzur bo'lib qolishi mumkin. Begona albatta ikki-uch og'izdan o'tib kelgan gapga o'zi ham jindek qo'shib aytadi. Moshdek gap yong'oqdek bo'lib ketadi.

Ummatali ariqdan yuvinib belbog'iga artinarkan, ko'cha eshigiga tikilib o'tirgan xotiniga yotig'i bilan gapira boshladi.

— Ko'p qarayverma. Tentaging kelmaydi. Besh-o'n kun kelmaydi, xotiring jam bo'lsin.

Xotini yalt etib qaradi.

— Voy, o'lmasam, melisaga tushib qoldimi? Indamay qarab o'tiraverdingizmi?

— Yo'q, yo'q, — dedi xotirjamlik bilan Ummatali. — Hech gap bo'lgani yo'q. O'g'ling sog'-salomat. Arzimagan ish bilan band. Akbaralining singlisini nikoh kiyimi bilan olib qochdi, xolos.

— Voy sharmanda, voy sharmanda!

Ikki tizzasiga shapatilab urib javrayotgan xotining tepasiga kelgan Ummatali yupatishga tushdi.

— Bolangning qilig'ini endi ko'ryapsanmi? A, endi ko'ryapsanmi? Hech gap bo'lgani yo'q. Hamma yoq tinch. Atigi to'y buzildi, kuyovning chakkasi yorildi. Nikoh o'qigani kelgan mul-laning ham bo'ladigani bo'ldi.

Ummatalining qiziqchilikka olib aytayotgan bu jiddiy gaplari uni yana tutaqtirardi.

— Voy, siz nega mening fanor yog'imga o't tutashtirasiz, nega alanga oldirasiz. Endi nima qildim? Bolani siz buzingiz, yoshligida qayirib olmadingiz. Mana, nima bo'ldi?!

Ummatali hamon jiddiy gapni qiziqchilikka aylantirardi.

— Nima bo'пти? Hech gap bo'lgani yo'q. Chiqimsiz kelinli bo'lding, to'y xarjlari boshqalarning bo'ynida. Novvos so'yildi. Osh damlandi. Karnay-surnaylar chalindi. Mana endi bitta ni-koh bilan oydek kelin uyingga o'z oyog'i bilan kirib keladi.

Xotini dod ustiga dod soldi.

– Bunaqa kelinning boridan yo‘g‘i. O‘g‘linga ijroqo‘mlar-ning qizini olib beraman.

– Ha, – dedi Ummatali, – qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan o‘g‘lingga tegaman deb u yog‘i Xorazm, bu yog‘i Toshkent taraf-lardagi ijroqo‘mlarning qizlari sochlarini tarab yo‘liga ko‘z tikib o‘tirishi. Menga qara! Unaqa dod dema! Akbaralining uyidagi dod-voylar yetarli bo‘lyapti. Manavi yerga o‘tirib, kallangni jo-yiga qo‘yib obdan o‘yla. Bolang qizni uyga boshlab kelsa nima qilamiz? Ana shuni o‘yla.

Xotini jimib qoldi. Eri jo‘yali gap aytayotganini payqadi. Rostdanam kelinni boshlab kelsa-ya. Mahalla qiyomat bo‘lib ketmaydimi? Qandoq qilib el-yurt oldida bosh ko‘tarib yurisha-di. Bu nodon bola shularni o‘ylaganmikin?

Azixxon o‘n sakkiz yoshga kirguncha ko‘rsatgan hunarlari orasida bunisi eng o‘tkiri edi. Ota-ona Lutfinisaning akasi-yu, qarindosh-urug‘larini tinchitadigan, xotirjam qiladigan biron tadbirdan ojiz edilar.

Ummatali ikki tizzasiga shapillatib urib o‘rnidan turdi.

– Bo‘ldi, xotin. Ammo g‘iring deb og‘iz ochmaysan. Tur, kiyin, hozir Akbaralinikiga borib, kechagi to‘y xarjini bo‘yni-mizga olamiz. Kelinni uyimizga tushiramiz. Agar yo‘q desang, yuqingni yig‘, qishloqdan ko‘chib ketamiz. Mana, xohlaganingni tanla!

Xotin hang-mang bo‘lib qoldi.

– Jinni-pinni bo‘ldingizmi? To‘y xarjini nima bilan to‘lay-siz. Bosib qo‘ygan pulingiz bormi? Bo‘lsa ayting!

– E, nodon xotin, menda pul nima qiladi. Sigir-buzoqni so-taman.

– Yaqinda tug‘adigan sigirni-ya. Bunga sirayam ko‘nmas-man.

Er-xotin ko‘p tortishdi. Do‘q bilan bo‘lsa ham Ummatali xotinini ko‘ndirdi. Ikkovi kiyinib ham sovchilik, ham bitishuv-chilik, ham yarashuv uchun yo‘lga tushishdi.

Ko‘chada uchraganlar ularga iljayib qarab qo‘yishar, ba‘zi chapani tabiat yigitlar: “Qandingni ur Azixxon, bopladi”, deb ularga dalda berishardi.

Akbarali ko‘chaga chiqolmay, hovliniig u boshidan-bu bo-shiga so‘kinib borib-kelib turardi. Eshikdan kirib kelgan er-xo-tinni ko‘rib bir zum o‘zini yo‘qotdi. He yo‘q, be yo‘q, o‘dag‘ay-lashga tushdi:

– He, muttaham bola o‘stirgan senlardan o‘rgildim. Qani, jo‘na, tuyoqlaringni shiqillatib qollaring!

– Hoy, shoshma bolam. O‘zingni bos!

– Meni shuncha chiqimdor qilib, el-yurt oldida sharmandamni chiqarib, yana qaysi yuz bilan ostona hatlab keldinglar. Uyat, sharmandalik bu! Sizlarda or degan, nomus degan narsa bormi? Diyonat qani?

Ummatali o‘zini bosib turdi. Og‘iz ochishga chog‘langan xotiniga bir xo‘mraygan edi, jimib qoldi.

– Bo‘ldingmi? Gaping bitdimi? Endi mendan eshit! Quyov taraf necha pullik qalin yuborgan bo‘lsa barini to‘laymiz – bu bir. Singlingni o‘zimiz kelin qilamiz – bu ikki. Endi ko‘ngling joyiga tushdimi?

Akbarali nima deyishini bilmay iyagini qashidi. Insofga kelay deb turgan odam birdan aynidi, qoldi. Etagini siltab ayvonga qarab ketdi. Ketarkan qat‘iy dedi:

– Bu ish na nikoh bilan, na pul bilan bitadi. Oraga nomus tushdi. Endi bu dog‘ni qon bilan yuvaman. Ketinglar. Meni hech qanaqa singlim yo‘q. U o‘lgan. Marhum ota-onam nomidan uni oq qildim!

– O‘ylab gapir, bola, – dedi Ummatali. – Til suyaksiz bo‘ladi. Har gapni gap deb gapiraverma. Ataylab seni shu sharmandalikdan qutqaraylik, deb keldik. Bo‘lmasam bizning ham o‘z orzularimiz bor edi. Qandoq qilaylik.

Akbarali ayvon pillapoyasiga oyoq qo‘yarkan to‘xtab orqaga qaradi.

– Meni el-yurt oldida boshimni xam qilgan nomard bilan xilvatda baqam kelmagunimcha xumordan chiqmayman. Bo‘ldi, ketinglar. Bo‘lmasam biron kor-hol bo‘ladi.

Er-xotin bir-birlariga hayron qarashdi.

– Tepa to‘nini teskari kiyib turgan paytda kelibmiz-da! – dedi xotini.

Ummatali javob bermadi, ko‘cha eshigiga qarab yura boshladi. Xotini azalik uydan chiqayotgandek oyoq uchida yurib unga ergashdi. Ular ko‘chaga chiqishganda Akbaralining uyat gap bilan so‘kkanini eshitishdi. Ummatali xotiniga qaradi.

– Xotin, u so‘kmadi, sen eshitmading. Unga oson tutib bo‘lmaydi. Nima desa chidaymiz-da. Boshqa ilojimiz yo‘q. Hamma la‘nat sen bilan menga keladi. Hali bu gap qishloqma-qishloq, og‘izma-og‘iz shishib, semirib tarqaydi. Butun Farg‘onaga doston bo‘ldik.

– Ishqilib Akbarali bolamni bir balo qilib qo‘ymasa go‘rga edi.

Ummatalining o‘zi ham shuni o‘ylab ketayotgan edi. Sir boy bermaslik uchun atayin yolg‘onlali:

– Unchalikka bormas-ov! O‘g‘ling bunaqalarga bo‘sh kelmasligini bilasan-ku, nimadan xavotir olasan?

– Endi, dadasi, falokat-da.

Ikkovi ancha joygacha jim borishdi.

– Bolaginam qayerlarda yurganikin?

Ummatali uni siltab tashladi.

– Qaysi go‘rda bo‘lsa ham yurgandir-da. Och qolarmidi?

– Holidan xabar olish kerak edi.

– Qayda bo‘lsa ham sanqib-sanqib, qaytib keladi. Ammo yonidagi lo‘kidoni bilan qayerga sig‘adi? Uyga kiritsak qishloq xalqi nima deydi! Gapning hali bu tomoni ham bor. Bu sharmandalikni ham bir bo‘yinga olib qo‘yish kerak. Ke, xotin, ko‘chib ketaylik.

Xotin keskin bosh chayqadi.

– Tug‘ilgan qishlog‘imdan o‘ligim chiqadi. Hech qayoqqa ketmayman.

Ummatali bu gapni alam ustida, chorasizlik, ilojsizlikdan aytgan edi. Bu yerdan ketsa qayerga boradi. Bari bir gap-so‘z uni orqama-orqa ta‘qib qilaveradi.

Oldinda Ummatali o‘y o‘ylab tajang bir qiyofada borar, xotini piq-piq yig‘lab orqasidan kelardi. Ko‘cha muyulishiga kelganda Ummatali to‘xtadi. Xotiniga qaradi.

– Sen boraver. Men Tog‘aga bir uchray. Har qalay yurtning boshi shu. Biron jo‘yali gap chiqib qolar. Tog‘a nima desa, shu. Ana o‘shanga qarab ish tutamiz.

U shunday dedi-yu guzar tarafga keta boshladi. Yo‘lda uchragan kishilarning betiga qaramay salom berar, salomiga bilinar-bilinmas alik olardi.

Zirillama, Toshloq, Yakkatut, Zarkent faqat shu to‘g‘rida, Azizxon, Lutfinisa, Ummatali, Akbarali degan gap bilan ovora edi.

Samovarda ham, magazinda ham, dalada, shiyponda, chorahalarda ham faqat shu gap.

“Azizxon Lutfinisani kelinlik libosi bilan devor oshib olib qochibdi”.

Birov: “Boplabdi, qoyil qipti”, – deydi. Birov “bu g‘irt ahmoqlik”, – deydi.

– Qiz rozi bo‘lmasa traktor bilan sudrab ham opqochib bo‘l-maydi.

– Bu rost gap. Tanacha ko‘zini suzmasa, buqacha ipini uzarmidi.

Aytilayotgan gaplarning bari rost, bari haqiqat edi.

VI

Zirillamani alg‘ov-dalg‘ov qilgan Azizxon hech narsa bilma-gandek Lutfinisani yetaklab qamishlar orasida xotirjam borardi. Qamishlar hali sarg‘aymagan. Tun shamolida shovillab charcha-gan to‘qay endi oftob haroratida jimgina mudrardi. Ko‘lmaklarda baqalar tinmay qurillar, o‘rdak jo‘jalar nola qilgandek ayanchli g‘aqillarda.

Lutfinisaning nikoh kiyimlari allaqachon tikanaklarga ilinib pora-pora bo‘lgan. Undan hali ham atir hidi gupillab turardi. Azizxon oldinda qamishlarni qayirib yo‘l boshlarkan, orqasiga o‘girilib, Lutfi, charchamadingmi, deb qo‘yar, dalda bo‘lsin deb, bopladig-a, qoyil qildig-a, deb tinmay javrab borardi.

– Tan berdim, mardlik qilding.

Ba‘zan ovozi tinib qolar, shunda birdan shart burilib Lutfini-saning oldiga kelar, belidan quchib yuz-ko‘zlaridan o‘pib olardi.

Ikki oshiq qayoqqa ketayotganlarini bilishmasdi. Qayoqqa borishadi, endi nima qilishadi? Bundan buyoq tirikchilik nima bo‘ladi? Bu ularning xayollariga ham kelmasdi. Azizxonning kissasida sariq chaqa yo‘q. Ularga na biron boshpana bor, na qo‘narga joy.

Lekin ular bir-birlarining diydorlaridan mast, nafaslaridan to‘q, mehrlaridan koshonalar qurgandek edilar.

Qamish-qiyoqlarga tilinib, kiyimlarini pora-pora qilib, bot-qoqqa tizzalarigacha botib, hamon yo‘l yurishar, ora-sira Azizxon Lutfinisani belidan quchib sochlarini silar, o‘zi ham ma‘nisiga yetmaydigan g‘alati gaplar bilan erkalatardi.

Qiz shod, baxtiyor edi.

Qamishzordan baldoqdek yarim doira yasagan yalanglikka chiqishdi. O‘ng taraf ko‘z ilg‘amas to‘qay, chap taraf sap-sariq cho‘l edi. Na to‘qayning, na cho‘lning poyoni ko‘rinardi.

Yaqin oradan motorning zardali gurillagani eshitildi. Keyin tindi. Yana o‘shqirib tirilladi. Azizxon ovoz kelgan tarafga quloq tutdi. Ovoz yaqin oradan kelardi.

– Sen shattan qimirlamay tur, men hozir bilib kelaman.

– Seni tutib olishsa nima qilaman. Men ham bora qolay.

Azizxon maqtangannamo javob qildi:

– Ovora bo‘ladi. Kutib tur, hozir kelaman.

Azizxon baldoq shaklidagi yalanglikning narigi burchagiga yugurib ketdi. Qamishlarni shitirlatmay ichkari kirdi. Sekin, xuddi ovchi kiyik podasini kuzatayotgandek yalanglikka qaradi.

Yoshi oltmishlarga borib qolgan, soqolini cho‘qqi kuzagan bir rus chol ikki qo‘lini beliga qo‘yganicha oftobda jimirlagan cho‘lga xomush qarab turar, yoshi o‘ttizlardagi gilam do‘ppi kiygan, tojikmi, o‘zbekmi bilib bo‘lmaydigan bir yigit qora mashina motorini titkilardi. Mashinaning orqa g‘ildiragi loyga botgan. Chiqazish uchun ko‘p urinishgan bo‘lsa kerak, ikkovining ham kiyim-boshlari loy, shalabbo edi.

Usti brezent yopqichli mashina yonidan yer o‘lchaydigan apparatning uch oyog‘i chiqib turipti. Kapoti ochiq turgan “Gazik” radiatorining og‘zidan shiddat bilan hovur chiqardi.

Azizxon hech qanday xavf yo‘qligini payqab qamishlar orasidan chiqdi. Oyoq tovushi, qamish shitirini eshitgan rus chol cho‘chib o‘girildi.

Azizxon unga yaqin kelib salom berdi. Nima gap bo‘lganligini so‘radi.

– Erta sahardan beri ovoramiz. Loyga botib qoldik. Chiqazolmaymiz, – dedi chol sof Farg‘ona shevasida.

Azizxon mashina atrofidan aylanib, bir tomoni loyga botib qolgan g‘ildirakka qaradi.

– Nima bo‘pti, bir urinib ko‘raylik-chi. Ko‘pdan quyon qochib qutulmas deganlar-ku.

– E, xap tussinla! – dedi shofyor yigit uning bepisand gapidan ensasi qotib. – Pussatuna bo‘sa tottb ko‘runa.

Azizxon uning gapidan Namangan taraflardan ekanini darrov payqadi. U bilagini shimarib mashina orqasiga o‘tdi.

– Siz motorga zo‘r bering, men bu yoqda yelkam bilan suraman.

Mashina zo‘riqib, bir siltandi. Shundan keyin Azizxon tizzasigacha loyga kirdi. Bari bir yelkasini olib qochmadi. Mashina surilib quruqlikka chiqdi. Uning harakatlarini kuzatib turgan chol, qoyil qolib: voy azamat-e, deb yubordi.

Shofyor yigit sevinganidan shart kelib Azizxonni qo‘lidan ushlab silkitdi:

– Sheddek ekansila, o‘ttoq. Bu mashinada qiq to‘tta ot kuchi bor. Shu qiq to‘tta ot sahaddan, bu loydan chiqolmutti. Ammo

uzunani kuchuna otdan mo'l-mo'l ekan. Qayoqqa ketuttisila? O'zuna bo'masa'na bilma'man ettagacha qolamiduk. Rahmate, o'ttoq.

Injener chol ikki qo'llab uning baquvvat panjalaridan ushladi.

— Agar men padishax bo'lsam, tila tilagingni, derdim. K sojaleniya, padishax emasman. Injener irrigatorman, xolos. Men uchun nihoyatda katta ish qilding, o'g'lim. Respublika hukumati rahbarlari meni hozir Kuyganyorda kutib o'tirishipti.

U shunday dedi-yu, bilagidagi soatini shart yechib unga tutdi.

— Ol buni, o'g'lim. Tortinma, olaver!

Azizxon xijolatdan qizarib ketdi. Injenerning soat uzatgan qo'lini qaytardi.

— Yo'q, otaxon, olmayman. Sizga bu juda zarur buyum. Mening soatga qarab qiladigan ishim yo'q. O'zingizga buyursin.

Injener chol ham qaysargina ekan. Olasan, deb turib oldi.

— Menda boshqasi bor. Yon soatim bor.

Azizxon bari bir olmadi. Chol uni nima bilan xursand qilishini bilmasdi. U mashina kabinasiga bosh suqib chamadonini titkilay boshladi. Azizxon borib uni qaytardi.

— Otaxon, bitta gapim bor. Agar biron buyum bilan xursand qilmoqchi bo'lsangiz xafa bo'laman. Mashinangizni qaytarib yana loyga tiqib qo'yaman.

— Shundaymi, — dedi chol ko'zoynagini qo'lga olib. — Odamliging uchun rahmat. Omading kelsin!

Chol shofyorga qaradi.

— Ketdik bo'lmasam, bolam. Qoratepaga borib nonushta qilamiz-u, Shahrixon oralab Haqqulobod tepasidan Kuyganyorga yo'l olamiz. Sen qayoqqa borasan? — dedi u Azizxonga.

Azizxon shu gapni kutib turgan edi, darrov javob qildi:

— Agar malol kelmasa, bizni Qoratepaga tashlab o'tsangiz.

— Xayriyat, — dedi chol yengil tortib. — Jindekkina bo'lsa ham qarzdan uziladigan bo'ldim. Aytganicha, biz, deganing nima deganing. Axir bir o'zingsan-ku?

— Yana bir odam bor.

— Qani, chaqir!

Azizxon qamish orasiga sho'ng'ib ketdi. Zum o'tmay hansirab Lutfinisani qo'lidan tortib chiqdi. Chol qizni ko'rdi-yu, yana ko'zoynagini taqib u yoq-bu yog'ini to'g'rilagan bo'ldi.

— Oy, kakaya krasivaya. Yey bogu, pryamo... krasavitsa!

Lutfinisa begona kishidan iymanib ro‘molining bir uchini tishlab yuzini yashirib turardi.

Shofyor motorga o‘t berdi. Lutfinisani oldinga o‘tqazib, injener bilan Azizxon orqa o‘rindiqqa chiqishdi. Mashina baqadek bir sapchidi-yu, keyin past-baland yo‘llardan silkinib-silkinib oldinga intildi.

Lutfinisa umrida endi mashinaga tushishi edi. Qo‘rqqanidan damini ichiga yutib o‘rindiqni bor kuchi bilan ushlab olgandi.

Anchagina yo‘l yurishgandan keyin injener Azizxonni gapga sola boshladi.

– Bu taqir cho‘lda biron hamroh bilan gaplashib ketmasa ko‘zni uyqu oladi. Qozoqlar tuyada qanchalab kilometr yo‘l yurishadi. Uxlab qolmaslik uchun yo‘lda ko‘ringan narsalarga atab o‘lan to‘qib ketishadi. Atayin uxlab qolmaslik uchun, uxlab poyonsiz cho‘lda adashib ketmaslik uchun shunday qilishadi. Biz ham uxlab qolmaylik, yigit. Gaplashib ketganimiz durust. Qani gapir. O‘zing kimsan, qamishlar orasida qaroqchiga o‘xshab nima qilib yuribsizlar?

Lutfinisa sekin o‘girilib, aytib qo‘yma, degandek ko‘rsatkich barmog‘ini labiga bosdi. Azizxon begona odamga dostonimni ochib nima qilaman, degan o‘y bilan jim o‘tiraverdi. Ammo kechagi to‘polon, ular qochgandan keyin nimalar bo‘lganiga aqli yetib turar, dadasi bilan onasining holi nima kechganidan ko‘ngli notinchroq edi. Ko‘ngliga tugilib qolgan gaplarni kimgadir aytishi, yuragini bo‘shatishi kerak-ku, axir. Bu odamga aytsa gap shu bilan ketadi. Unutiladi. Ayta qolgani durust. Azizxon injenerga qaradi.

– Otaxon, qishloqdan qochib kelyapmiz. – U Lutfinisaga ishora qildi. – To‘ydan opqochib kelyapman. Kechasi bilan to‘qayda bekinib yotgan edik.

Azizxon bo‘lgan ishlarni bir-bir ayta boshladi. Shofyor ham boshini orqaga tashlab quloq solib borardi. Chol bir kular, bir jiddiylashardi. Azizxon hikoyasini tugatgach, chol o‘ylanib qoldi. Shofyor bo‘lsa boshini siltab-siltab kulardi. Lutfinisa egilib kichkinagina bo‘lib o‘rindiqqa singib ketganga o‘xshardi.

Mashina goh tezlab, goh sekinlab sap-sariq cho‘l giyohlari ni orqada qoldirib borar, begona tovushdan ogohlanib uyasidan chiqqan mallarang echkemarlar mashina yaqinlashganda dumlari bilan tuproqni changitib to‘zon ichida yo‘qolib ketishardi. Kimsasiz cho‘lning tiniq osmonida qanotlarini tarang tortgan cho‘l burgutlari qayiqdek beparvo suzardi.

Mashina ovozidan hurkkan o'rdaklar galasi g'aq-g'aq qilib ko'lchalardan parillab ko'tarilar, jilg'aning shildirashiga o'xshagan ovoz chiqazib xuddi mashina tepasidan havoni kesib o'tardi.

Injener hozirgina Azizxonning o'z og'zidan eshitgan sarguzashtlar ta'siridan qutulolmay, o'ylab jimgina ko'zini yumib bordi.

Cholning kiyim-boshidan, uyqusizlikdan karaxt yuzlaridan bir necha kundan beri cho'l kezayotgani bilinib turardi. Azizxonning oyog'i tagida alyumin qozoncha, qorayib ketgan mis choynak bir-biriga urilib shaqirlardi. Mashina kuzovi tepasidagi arqon bilan chandib bog'langan brezent qop tinimsiz lapanglardi.

Cholning ozg'in gavdasi bukchaygan, ajin bosgan bo'yinlaridan mayda-mayda ter yoqasi ichiga o'rmalar edi. U ko'zini ochmay gapirdi. Uxlamagan ekan. Nimanidir o'ylab kelayotgan ekan.

— Qishloqqa endi qaytmaysizlarmi? Qaytib ham bo'lmaydi. Bu taraflarda urug'laringiz bo'lmasa! Qiyin bo'ladi sizlarga. Shoshma! Biz bilan ketmaysizlarmi? Ish bor, uy-joy bor. Hech narsadan zoriqmaysizlar.

— Qayerga boramiz? — dedi hushyorlanib Azizxon.

— Hozir Andijonning Kuyganyoriga. Kechqurun Uchqo'rg'onga boramiz. Ana o'sha yerda yashaysizlar. Uy bor. Sekin-asta ro'zg'or tiklaysizlar. Senga o'xshagan azamat yigit kerak.

Azizxon o'ylanib qoldi. Qoratepada tushib qolmoqchi edi. Xo'sh, Qoratepada kimi bor? Zirillamadan turib chaqirsa ovoz yetadigan joy. Akbarali hid olsa, ularni sog' qo'yarmidi. Bu odam tayyor ish, tayyor joy deyapti. O'rislar yolg'on aytmaydi. Birovni aldamaydi. Borgani durustdir.

Azizxon engashib Lutfinisaning qulog'iga shivirladi. U yelka qisib, o'zing bilasan, ishorasini qildi.

Chol undan javob kutib ko'zlarini yumganicha mudrab keltardi.

— Bo'пти, otaxon. Mayli, ketganimiz bo'lsin. Ammo-lekin yuzingizni yerga qaratmaymiz. Qanaqa ish bo'lsa yarayman. Tog' qo'por desangiz, qo'poraman.

— Ha, balli, — dedi chol. — Tosh qo'porasan. Norinni yoqasidan bo'g'ib mana shu yoqqa oqizamiz. Qora daryoga jilov solib ikki daryoni qovushtiramiz. Shunaqa ishga yaraysanmi?

Azizxon chehrasi yorishib, qo'lini ko'ksiga qo'ydi.

— Odam qiladigan ish bo'lsa bo'ldi. Eplayman.

Chol kuldi.

— Ba'zan odam qilolmaydigan ishlar ham bo'lib qoladi.

Azizxon kerildi.

— O'shanaqa ishlarni bizga buyurasiz-da, otaxon.

Injener ma'noli jilmayib qo'ydi.

To'qaylar, cho'l-u ko'lchalar tugab qishloqning qorasi ko'ri-na boshladi. Ikki chekkasi guvalak devorlar, tomilariga g'o'zapoya, xashak bosilgan uylar oralab Qoratepa guzariga yetib kelishdi. Sizot suvlaridan avj olgan kekxa tollar pinjidagi choyxona jimjit edi. Tizzasida kir sochiq bilan uxlab qolgan samovarchi mashina ovozidan uyg'onib ketdi.

Bu taraflarda kamdan-kam mashina yurardi. Qishloq bolalari allaqaydan shovqin-suron bilan paydo bo'lishdi. Biri yalang'och, ba'zilari hatto ishtonchan. Ular yaqin oradagi ariqda cho'milayotgan bo'lsalar kerak. Sochlari ho'l. Oftobda tuproqda yotganlarining qorinlari loy. Ular qop-qora munchoq ko'zlarini javdiratib mashinaga tikilardilar. Biri kapalak ushlayotgandek asta kapotga qo'l tegizadi. Biri qo'rqibroq sal naridan vahima bilan qarab turipti.

Samovarchi patnisda non, shaftoli, qand keltirib mehmonlar oldiga qo'ydi. Ruscha bilishini namoyish qilmoqchi bo'ldi shekilli, injenerga: "Izdiras, pajalista, chay kushay", deb atrofga maqtangannamo qarab qo'ydi. Afsuski, bu gapga qoyil qoladigan odam atrofda yo'q edi.

Lutfinisa ular to'dasidan chetroqda samovar so'risiga omnatgina o'tirib notanish qishloq guzarini tomosha qilardi. Har qalay unga belgisiz, hatto tasavvur qilib bo'lmaydigan ertasi endi ravshanlashgandek edi.

Ro'molining bir uchini tishlab Azizxonga qaraydi, ko'ziga u allaqanday afsonaviy pahlavonlarga o'xshab ko'rinadi.

"Afsonaviy pahlavon" nihoyatda ochiqqan ekan, choyni qaynoqligicha xo'rillatib ichar, bir burda nonni bir yamlab yu-tardi.

Shu alpozda ham u Lutfinisiga chiroyli ko'rinardi.

VII

Azizxon bilan Lutfinisa Qoratepadan chiqishdayoq mashinadan tushib qolishdi. Chunki kun yorug'ida Qoratepa atrofi-da yurish xavfli edi. Bu taraflarga Toshloq polizchilari chetanni to'ldirib arava-arava handalak olib kelishar, O'rmonbek, Nas-

riddinbek, Eshonto'pi qishloqlari shu yerdan bozor qilishardi. Birontasi ko'rib qolsa, albatta, Akbaraliga xabar qiladi. Bo'lib o'tgan voqea albatta, atrof qishloqlarga ovoza bo'lganini Azizxon sezib turardi.

Ular mashinadan tushishganda injener ikki oshiq-ma'shuqqa g'alati qarab iljaydi. U bu taraflarning o'ktam yigitlarini, ishq-muhabbat yo'lida hech narsadan toymasliklarini bilardi. Bu xil oshiq-ma'shuqlar to'g'risida juda ko'p ertaklar eshitgan, kitoblar o'qigandi.

– Yigit, – dedi injener chol. – Gapingdan aynading. Ammo chakki qilding. Mayli, agar qo'narga joy topolmasanglar mening oldimga kelinglar. Kuyganyorga yo bo'lmasa Uchqo'rg'onga borib injener Belyavskiyini qaydan topaman, desanglar, darrov aytib berishadi. Shundoq qilinglar.

Shofyor motorni o'chirmagan, silkinib-gurillab turgandi. Mashina bir qalqib joyidan qo'zg'aldi.

Azizxonning niyati qosh qoraygandan keyin Qoratepaga qaytib kirish edi. Qishloqda bir beva xolasi bo'lguchi edi. Bor-mikin? Agar bo'lsa, o'sha yerda tunab, undan keyin nima qilishni o'ylab ko'rmoqchi. Ammo quyosh teppada. Hali-beri kech kiradiganmas. Qorin to'q, qayg'u yo'q. Kechgacha yotarga joy topishsa bo'lgani. Azizxon Lutfinisani qo'lidan ushlab cho'l tarafga boshladi.

Bu yil bahor seryomg'ir bo'lganidan cho'l o'tlari tizzaga urib yashnab turardi. To'rg'aylar xuddi odamning boshiga tekkundek bo'lib chuldirab sayrab o'tadi. Havoda turib ikkitasi bir-biriga yaqin kelolmay, qanotlarini pildiratib ishqibozlik qilishadi. Yengil esayotgan shabada cho'l giyohlarining iliq hidlarini dimoqqa urib o'tadi. Ora-sira shu ko'm-ko'k cho'lning har yer-har yerida kal boshdek sap-sariq tepachalar uchraydi. Qandandir kelib qolgan bahaybat toshlar tepasida chakmonini yelkasiga tashlagan pahlavondek cho'l burguti mudraydi. Gullab, hid taratib yotgan cho'l giyohlariga alam bilan boqadi. Agar bu o'tlar bo'lmaganda o'rmalab yurgan kalamushlar, quyonlar uning o'ljasi bo'lardi.

Hozir shabadada silkinib turgan cho'l giyohlari orasida butun bir hayvonot olami umrguzaronlik qilmoqda.

Cho'l nihoyatda yashnagan payt. Ikki oshiq-ma'shuq giyohlarga, qushlarning chug'ir-chug'iriga mahliyo bo'lib, o'tgan voqealarni bir zum unutishdi.

Oftob yonboshlab qolgan, ufq qizarib, teparog'i feruza tushga kirgandi. Olisdan uchta qora nuqta ko'rindi. Azizxon yo'lni

o'sha tarafga soldi. Anchagina yo'l yurishgandan keyin bu uch nuqta qirg'izlarning qora uyi ekanini bilishdi.

Azizxon qirg'izlar mehmondo'st, qo'noqqa jonini ham beradigan xalq bo'ladi, deb eshitgan edi. Qandaydir umid uchquni xayolida chaqin chaqib o'tgandek bo'ldi. Qadamini tezlatdi.

Sariq do'ngning o'ng tarafida ikki-uch yuz yilqi o'tlab yurar, do'ng etagida o'n choqli tuya cho'kkanicha kavshanyapti. Boshvog'i yechib tashlangan uchta yelin qopli sigir buzog'ini ergashtirib o't chimdib yuripti.

Odam qorasini sezib qora uy orqasidan it yugurib chiqdi. Old oyog'ini tirab, orqa oyog'i bilan yer timdalab vovillay boshladi. Uning hurishidan yana uch-to'rtta it paydo bo'ldi. Ular ham cho'lni ostin-ustin qilib hurishga tushdi. Azizxon ham, Lutfinisa ham turgan joylarida qotib qolishdi. O'rtadagi qora uydan bir qirg'iz kampir chiqdi. Itlarni har tarafga quvib notanish kishilarni yaqinroq kelishga undadi.

Lutfinisa Azizxonning orqasiga yashirinib borardi.

— Kelinglar qo'naqtar? — dedi kampir ularga sinovchan boqarkan.

Azizxon yo'ldan adashganini aytdi.

Kampir ulardan xavfli biron narsa sezmagach, yo'l boshladi. Bu payt ikki qora uydan ikki qirg'iz kelinchagi ularga ko'zlari yashnab qarab turishardi. Biri yangi tushgan kelinchak bo'lsa kerak kiyimlari yap-yangi, tomog'igacha o'ragan yoqalariga uqa tutilgan, bo'yinlarida tangalar, cho'lpilari jaranglardi. Qizil baxmal nimchasining hali ohori to'kilmagandi. Ikkinchisi yigirma besh yoshlarda edi. Uning kiyimlari oddiygina, nimadir qilayotgan bo'lsa kerak, yenglari shimarilgan, etagi lippa urilgan edi.

Ular ko'pdan beri bu cho'lda yilqi boqib yurgan bo'lsalar kerak, tashqi olamdan kelgan kishilarga quvonganlari ko'zlaridan sezilib turardi.

Azizxon tortinmay kampir ketidan qora uy oldiga bordi. Lutfinisa unga ergashib jur'atsizlik bilan qadam tashlardi.

Do'ng orqasidan erkak kishining yo'talgani eshitildi. Qo'li-da jun qirqadigan kattakon qaychi, oltmishlardan oshgan, soqoli siyrak bir kishi chiqdi. Chol mehmonlardan eson-omonlik so'ragandan keyin kelinlarga choy buyurib, ularni o'tov ichiga boshladi.

— Emne jumish men... qo'naqtar? — dedi u savol nazari bilan.

Azizxon nima deyishini bilmay til chaynadi.

Chol ko'pni ko'rgan kishilardan edi. Ularga bir-bir razm so-lib o'tiraverdi. Tashqariga qarab qichqirdi:

— Tamaq dayindanglar qo'naqtarg'a!

Azixxon adashganlarini aytdi.

Chol uning bu gapiga uncha ishonqiramay ko'zlarini qisib gilam popugini o'ynay boshladi. Kelinning kattasi etagi bilan qumg'on bandidan ushlab kirdi.

Qirg'iz bilan qozoq yirtiq choriqda yursa ham choyning asi-lini ichadi. Ichganda ham jaranglaydigan jonon piyolada ichadi. Qirg'izning oyog'i sinsa sinsin, piyolasi sinmasin, degan maqol bekorga chiqmagan. Choy ichadigan piyolada qimiz ichmaydi. Qimizni zarang kosada ichadi. Kichik kelin bir dasta qizil gulli piyola olib kirib cholning oldiga qo'ydi. Chol choyni qaytararkan yana qisiq ko'zlarini ayyorona qisib Azixxonga qaradi.

— Bolam, sen turu javob bermeding, ele. Bosqa jumush ele yurgen shig'arsang.

Azixxon cholni aldab bo'lmasligini bilib ochig'iga ko'chdi. Bo'lgan voqeani birma-bir aytib berdi.

Chol uning gaplariga endi ishongan edi.

— E... jigitshe jumush bo'pti ele, balam. Qirg'iz ben qazaq qiz alip qachishbasa ko'ngli to'lbayt. Emi, emne qilasingdar?

Azixxon uning gaplariga unchalik tushunmay serrayib turar-di.

— Emen, qirg'iz tilini tushunbeysanbu? Unday bo'lsa dag'i o'zbeksha aytag'o'yayin, ele. Kuch-quvvati bor bola ekansan, xor bo'lmayсан. Kuningni ko'rib ketasan.

Tashqaridan otlarning kishnagani, dupuri, yilqichi yigitlar-ning hayt-huyt degan ovozlari eshitildi. Chol o'rnidan turdi. Bu-lar ham uning ketidan tashqariga chiqishdi.

Oftob o'chgan. Cho'lda ajib bir gashtli havo hokim edi. Uzoqda ikki otliq yigit yilqilarni haydab kelar, tuyoqlardan ko'tarilgan chang havoda muallaq turib qolar edi. Chol yo'lga qarab turgan kelinlariga dedi:

— Suv dayindangdar, kuyovingdar juvinib olsin.

Ikki kelin o'choq tarafga ketdi. Kichik kelin ketarkan soch-popugidagi tangalar jiringlardi.

Tol poyalaridan bir-biriga bog'lab qilingan chetan qo'raga otlarni qamab, yigitlar otasiga salom berdi.

— Jilqi omonmi? — dedi chol.

— Omon, omon, ota, biri qulunladi. Quluni omon. Yigitlar mehmon bilan omonlashib xotinlari tomon ketishdi. Kelinchak-

lar ularga suv quyib turishdi. Aka-uka yaxshilab yuvinib bo'lgach, artinib, kiyinishib, dasturxonga kelishdi. Kampir tashqariga joy solib ularni taklif qildi. O'tirishgach, chol zarang kosaga qimiz quyib uzatdi.

Ular o'tirgan joydan sal nariga kigiz yozib, xotinlarga alohida joy qilingan edi. Kelinchaklar Lutfinisani gapga tutishardi. Ora-sira ular bir-birlariga qarab suluv, suluv ekan, deb qo'yishar, bug'i chiqib turgan go'shtdan yeb "ol-ol", deyishardi.

Chol turib ichkaridan fonar olib chiqdi. Uni yoqib o'tov yonboshidagi yog'och uchiga ilib qo'ydi.

Atrof jimjit. Cho'l tarafdin har xil hasharotlarning ojiz ovozlari tinimsiz eshitilib turardi. Yulduzlar birin-ketin ko'z ochaverdi. Cho'l ufqidan oy ko'tarildi. Qayerdadir o'rdak jo'jasining g'aqillagani, yovvoyi bedananing pitbildig'i eshitildi. Oqshomning bu tarovatini buzib bo'ri ulidi. Lutfinisaning eti jimirlab ketdi. Yonida o'tirgan kelinchak darrov sezib, uni alahsita boshladi.

– Qo'rqpa, qo'rqpa. Ishtima bo'lbayt.

Chol tashlagan suyakni kemirib yotgan itning quloqlari dikaydi. Bo'ri uligan tarafga qarab bo'ynini cho'zganча qimirlamay turib qoldi.

Chol ovqatdan keyin dasturxonga fотиha o'qib Azizxonga qaradi.

– Bolam, endi kech bo'ldi. Boradigan joying yo'q ekan. Shu erda qola qol. Ukalaringga qarashib yurasan. Qaylig'ing kampirga qarashadi. Ketging kelganda aytarsan. Bu yerda cho'p ko'p. Biron oy yilqini shu yerga yoyamiz. Qudayim jo'lingni berse, bir kun ketarsan.

Azixon ma'qul ishorasini qildi. Boshqa iloji ham yo'q edi. Qishloqqa qaytolmasa, boshqa boradigan joy bo'lmasa, shu yerdan bo'lak ko'zdan uzoq joy yo'q. Undan tashqari cholning yumushlariga qarashib yegan-ichganini oqlashi mumkin. Axir Lutfinisa ham qarab turmas. Yaxshigina pazanda. Albatta cholga, bolalariga, kelinlariga u pishirgan ovqatlar juda ma'qul tushadi.

Chol katta kelinini chaqirib, mehmon bola bilan menga ochiq havoga joy qilib ber, qiz bilan kampir ichkarida yotadi, deb tayinladi.

Yigitlar ancha charchab kelishgan edi. O'z o'tovlariga kirib jimib ketishdi. Azizxon ochiq cho'lda chol bilan yonma-yon yotarkan cho'lning tiniq osmoniga qarab uzoq uxlayolmadi. Chol bo'lsa birpasda xurрак otishga tushdi.

Ajab odamlar, deb dilidan o'tkazardi Azizxon. Dunyoda shunaqa ochiq qo'l, mehmon uchun bag'rini ochadigan kishilar borligidan ta'sirlanib ketdi. Qachondir bu odamlarga bir yaxshilik qilishni diliga tugib qo'ydi. Uyi, dadasi, kechirgan kunlari ko'z oldidan o'taverdi. U qanchalik bevosh, sho'x bo'lmasin, birinchi marta o'zini taqdir quchog'iga otishi edi. O'zi yolg'iz bo'lsa ham mayli edi-ya, yonida birovning qizi bor. Bir o'zining boshi har qanday kavakka sig'ib ketadi. Ammo ikki kishi, ayniqsa ayol kishi bilan biron joyga suqilishi ancha mushkul edi. Azizxon ana shular to'g'risida endi, tani sovib, boshi bir toshga borib urilganidan keyingina o'ylay boshladi.

U yechib bo'lmas jumboqlar chigaliga o'ralishib uxlab qolganini bilmay qoldi.

Biron tikkaygan daraxt yo'q bu cho'lda, oftob tong oti-shi bilanoq tig'ini sanchadi. Azizxon boshini oftob qizdirganda uyg'ondi. Chol vaqтли turgan, otlardan, sigirlardan xabar olib bo'lgan, o'g'illari o'tovdan chiqmay bir choynak choyni bo'shatgan edi. Kampir kattakon o'choqqa osilgan qozonda sut pishirardi. Azizxonning dimog'iga qaynayotgan sut hidi urilib, yutindi. Boshini ko'tarib atrofiga qaradi. Lutfinisa kampirning oldida alyumin tog'orani oldiga qo'yib xamir qarardi. Chol bo'lsa ikkita tunuka bidon joylangan xurjunni egarga tashlardi.

— O'g'lim, turdingmi? Manov otni min. Anov oq do'ngdan nari o'tsang, Sari jo'ga degan katta ariq bor. Idishlarni to'ldirib suv olib kel. Boraver, o'sha ariqda betingdi yuvib olasan.

Azizxon ot minishni juda yaxshi ko'rardi. Bu gap cholning og'zidan chiqmayoq uzangiga oyoq bosdi. Chol orqasidan javrab qoldi.

— Qaytishda otni choptirma, suvni to'kasan.

Shu payt osmonning bir chetida nimadir gurilladi. Azizxon o'girilib qarasa, bir aeroplan juda pastlab o'tov tepasiga qarab kelardi. Motor shovqinidan o'tovdagi kelinchaklar, yigitlar yugurib chiqishdi. Aeroplan juda pastlab kelardi. O'tov tepasiga kelganda yana pastladi. Ko'zoynak taqqan uchuvchi kabinadan qo'lini chiqarib silkitdi. Keyin nimanidir ularga qarab irg'itdi. Irg'itgan narsasi sochilib ketdi. Osmonda son-sanoqsiz qog'ozlar ucha boshladi.

Ertalabki shamol bu qog'ozlarni cho'l bo'ylab uchira boshladi. Aeroplan o'tov ustida yana bir doira yasab vag'illaganicha cho'l osmonining bag'riga singib ketdi. Otlar bezovta tipirchilar, itlar jazavaga tushib akillardi.

Azizxon bu manzaralarni egarda turib tomosha qilardi. Cholning katta o'g'li qoziqqa bog'langan yaydoq otni yechib mindi-yu, qog'ozlar uchayotgan tarafga qarab shamoldek yelib ketdi.

Azizxon cho'lda zerikib o'larman, deb o'ylagan edi. Mana, ko'zini ochishi bilanoq qancha voqea bo'ldi. Bu yerlarning tiniq havosi tanini yayratsa, beg'ubor kishilarining mehribonligi dilini yayratadi.

U ham otga beozor qamchi bosib do'ng tomonga yo'rttirib ketdi. Chol ko'rsatgan tepalik u aytgancha yaqin emas ekan. Taxminan uch-to'rt chaqirim kelardi. Azizxon otning bir maromda qamishlarni ko'ksi bilan yorib borishiga, yollarini silkib gijinglashiga mahliyo bo'lib yo'l yurganini sira ham sezmedi. Anhor shundoqqina do'ng orqasida ekan, u bidonlarni suvga botirarkan, birdan bolaligi tutib cho'milgisi keldi. Yechinib o'zini suvga otdi. Suv juda sovuq edi. Ot ham suvga intilib asta so'lig'i bilan suv icha boshladi. Azizxon narigi qirg'oqqa suzib o'tib atrofni tomosha qildi. Keyin yana berigi qirg'oqqa qaytib ot yurganini oldi-yu, suvga tortdi. Ot ham shuni kutib turgandek asta suvga tusha boshladi. Azizxon otni suv o'mrovigacha keladigan joyga olib borib hovuchi bilan ustiga suv sochib, yuva boshladi. Otning badanlari dirillar, bo'ynini cho'zib tomog'ining taglarigacha suvga tutib berardi.

Yana boyagi aeroplan gurillab Azizxonning tepasidan o'tdi. Uchuvchi yana qo'l siltab unga nimalardir dedi.

U tanidan sovuq o'tgandan keyingina lablari gezarib suvdan chiqdi. Ot yo'lni yaxshi bilar edi. Azizxon tizginini bo'sh qo'yib berdi. O'tovga yaqin qolganda piyozdog' hidi Azizxonning dimog'iga urildi. Ikki tizzasi bilan otni niqtadi. Ot yo'rtib ketdi.

Kelinlar cholning o'toviga nonushta tayyorlab qo'yishgan. Lutfinisa ajab bir ta'mli qatlama tayyorlagan edi. Hamma dasturxon atrofiga cho'kdi. Ammo cholning katta o'g'lidan hali ham darak yo'q. Chol ikki marta tashqariga chiqib keldi. Bezovtalanib endi joyiga o'tirgan ham ediki, ot dupiri eshitildi. Sal o'tmay yigit bir dasta qog'oz bilan kirib keldi, peshanalaridan marjon-marjon ter quyardi. Yigit olib kelgan qog'ozlarini dasturxon chetiga qo'yib, yuvingani chiqib ketdi. Chol qog'ozlarni qo'lga oldi. U xat tanimasdi. Bir donasini kichik o'g'liga uzatdi. Bola qog'ozning u yoq-bu yog'iga qarab, o'zbekcha ekan, deb Azizxonga uzatdi.

— O'qi, bolam, o'qi, hukumatning gapiga o'xshaydi. Yer islohoti, kolxoz tuzish paytlarda shunaqa qog'ozlarni aeroplardan tashlashar edi. Qani o'qi-chi!

Azixxon qog'ozlarni oldiga tortib qaradi. Qog'ozlar ikki xil edi. Birida "Katta Farg'ona kanali qurilishi boshlandi. Qurilishda ishlashni istaganlar ushbu qog'ozda ko'rsatilgan uchastkalarga kelib yozilishlari mumkin", deyilgan edi. Qog'ozning orqa tarafida kanalning xaritasi chizilgan. Ikkinchi qog'oz kanalda chiqa boshlagan "Stalincha qurilishda" gazetasining birinchi soni edi.

Azixxon gazeta va varaqani yoniga qo'yib, choy ho'pladi.

Chol yana gapga kirdi:

— Bolam, choyingdi ishib bo'lib kazitni o'qib berasan.

Lutfinisa pishirgan qatlama hammaga yoqdi. Maqtab-maqtab yeya boshlashdi.

— O'zbek tamoqqa usta bo'ladi. Bir palov pishirib berasan, qizim, xo'pmi?

Lutfinisa iymanib xo'p ishorasini qildi.

— Kampir, — dedi chol qatlamani u lunjidan bu lunjiga olarkan. — Endi qozon-tavoqdan qutulding. Qudayim menga yana bir kelin jetqazdi. Sho'mishdi qo'lingdan oladi.

Nonushtadan keyin cholning o'g'illari bittadan nonni bel-lariga tugib yilqi haydab ketishdi. Chol Azixxonni, menga kazit o'qib beradi, deb olib qoldi. Kampir bugun bolalarga sarning qizi palov pisirib beradi, deb ot minib sabzi olib kelgani "Eshonto'pi" qishlog'iga qarab ketdi.

O'tovda chol bilan Azixxon qoldi. Chol yonboshlab: "qani, o'qi, bolam", dedi.

Azixxon shoshilmay gazeta o'qishga tushib ketdi. U o'qirdi. Ammo xayoli gazetada yozilgan gaplarga qo'shilib kanal qaziladigan joylarni kezardi. Birdan uning, o'sha taraflarga borgisi, ketmonning belini bukib yer qazigisi, hammani hayratda qoldirib ish ko'rsatgisi keldi. Borgan sari uning bu fikri qat'iylashib borardi. Chol esa shoshilmay choy ichar, ora-sira: "Iya, iya, durust", deb qo'yardi.

Tashqarida kelinchaklar Lutfinisani gapga solib hiring-hiring kulishardi.

VIII

Kuyganyor qadim-qadimlardan beri yoz kunlari gavjum bo'ladi. Mirobod, Haqqulobod, Nayman, Chinobod taraflardagi dehqonlar suvni shu yerdan oladi. Aslida Chinobod Qora daryo bilan Norin qo'shiladigan joyga yaqin bo'lsa ham hamisha tashnalik azobini tortib keladi. Ikki daryo Chinobodga bir tomchi

ham suv bermaydi. Juda pastlikdan, suvi u yoqda tursin, shabadasini ham tegizmay o'tib ketadi. Shuning uchun ham chinobodliklar o'n besh-qirq kilometr yo'l yurib Kuyganyorga sepoya tashlaydi.

Erta bahordan to kech kuzgacha chinobodlik va haqqulobodliklar arava-arava shox-shabba sudrab Kuyganyor tarafga yo'l oladilar. Ketma-ket shox sudrab kelayotgan son-sanoqsiz aravadan ko'tarilgan chang Poytuqdan ko'rinadi. Daryoning yarmigacha sepoya tashlab shox bosadilar. Suv ko'tarilib "Qipchoq ariq"qa chiqadi. Keyin Siza qishlog'ini oralab, necha joydan bo'g'ilib, qancha janjallar, bosh yorilishlarga sabab bo'lib, arang Chinobodga yetib boradi. Ba'zan miroblar yarim yo'lga yetmay turib, sepoyani suv urib ketadi. Ular yana shox-shabba ortib Kuyganyorga qaytishadi.

Kuyganyorni bekorga "Miroblar bozori" deb atashmagan. Yoz bo'yi ellik-oltmish mirob bu yerda ko'rpa-to'shak qilib yotib oladi. Ularning ekin-tikinlari qishloq dehqonlari bo'ynida. O'shalar chopib, o'shalar ekib, sug'orib, hosilni tayyor qilib berishadi. Bu yerda har bir qishloqdan ikkitadan "o'lik mirob" daryo bilan olishib, suvni Yorqul mingboshi qazdirgan ana shu Qipchoq ariqqa oqizadilar.

Kuyganyor yaqin atrofga samovarlari bilan ham mashhur edi. Daryoning u betida ikkita, bu betida ham ikkita samovari bor. Shu samovarlarning biri chinobodlik sepoyachilardan bo'shamas, biri yo'lovchilar qo'nib o'tadigan karvonsaroy vazifasini o'tardi. Daryoning o'ng betidagi samovarni poytuqliklarning o'zlari ochishgan bo'lib, so'rilarga ipak gilamlar to'shalgan, choynak-piyolalari ham, yakandozlari ham yap-yangi edi. Unga umr bo'yi samovarchilik qilib olamdan o'tgan G'ani kal degan mashhur samovarchining o'g'li egalik qilardi. Yana biri andijonlik Berkinboy hofizning samovari. San'at ahli, Andijonning ziyolilari tez-tez kelib shu samovarga tushishadi.

Kuyganyor guzari kunduz kunlari sayilgohga aylanardi.

Berkinboy hofizning samovarida andijonlik hofizlar yig'ilib baliqchiliklar bilan basma-basga avjning eng yuqorisiga chiqishadi. Poytuq, To'rtko'l, Chuvama hofizlari ularni bosib tushishga intilib, faqat katta avjda yurishardi. Qassoblarning qo'llari qo'llariga tegmas, baqqollarning qo'llari tarozidan bo'shamasdi. Dehqonlar arava-arava qovun-tarvuz to'kib to peshingacha sotib bo'lishardi. Ikki novvoyxonada iyagini tang'ib olgan novvoylar kuniga yetti-sakkiz qop unni yopsalar ham yetkazib berolmaydi-

lar. Ana shunday gavjum, qo‘shiqqa, bozorga, shovqin-suronga to‘lgan Kuyganyor kech kirishi bilan birdan suv quygandek jimib qoladi. Faqat poytuqlik samovarchining do‘konida tosh fonar miltirar, uzoq-yaqindan kelgan musofir choyxo‘rlargina chivinga talanib tamaddi qilib o‘tirishardi. Boshqa samovarchilar otlarini ham sayroqi bedanalarini ham pashshaxonaga qamab vaqtlikkina uyquga kiradilar.

Ko‘z ochirmaydigan g‘uv-g‘uv chivinlaru baqalarning tongotar bazmi Kuyganyorga hokim bo‘ladi.

Bu yerning xalqi sodda, do‘lvor kishilar. Quvlik nima, aldamchilik nima bilishmasdi.

Mirobodliklar shuncha azob-uqubat bilan suv chiqazgan joylariga qalampir ekishadi. Boshqalar qovun-tarvuz o‘stirib katta daromad olganlarida, ular bodring ekib qopini yigirma tiyinga ham sotolmay qaytarib oborib qo‘ylarga, mollariga yedirishadi.

Kuyganyor to‘g‘risida ajoyib afsona ham to‘qiganlar.

Bir qipchoq yigiti oqyorlik Oyjamol degan qizga oshiq bo‘lib ishqida kuyib-yonadi. Yigit qipchoq urug‘idan bo‘lganidan qizning ota-onalari rozilik berishmaydi. Yigit Oyjamol ishqida o‘zini yondiradi.

Ana shuning uchun ham bu yerning nomini o‘sha yigit tu-fayli Kuyganyor deb atashgan. Kuyganyor qishlog‘ining biqinida Oyjamol degan qishloq ham bor.

Ammo bu gaplar afsona, xolos.

Kuyganyor qishlog‘idan Qora daryo o‘tadi. Daryo o‘pirgan qirg‘oqlar sonsiz jarliklar hosil qilgan. Unda ot mingan kishini ham ko‘rsatmaydigan qamishlar o‘sadi. Har yili bahorda sholikor dehqonlar jarliklardagi qamishlarni kuydirib sholipoya ochadilar. Ana shundan qishloqning nomi “Kuygan jar” deb atalgan. Turkiy tillarda jar so‘zi ko‘pincha yor so‘zi bilan almashadi. Andijon atroflaridagi Yorboshi, Oqyor qishloqlarining nomlari ham aslida jar boshi, oq jar ma’nosini anglatadi.

Ammo kuyganyorliklar o‘z oyjamollari, o‘z kuygan yorlarini faxr bilan tilga oladilar.

Kuz qirovi tushishi bilan samovarlar yotadi. Kuyganyor huvillab, fayzsiz bo‘lib qoladi. Bittagina karvon saroyda onda-sonda biron yo‘lovchi tunab o‘tadi. Birgina machit mezanasidan muazzinning uch mahal nola qilgandek chaqirig‘i eshitiladi. Bu ovozni kimsasiz jarliklar yutib yuboradi. Shahardan chiqqan ovchilarning onda-sonda o‘rdak galasiga otgan o‘qlari hamma yoqni gumbirlatib jim bo‘ladi.

Kuyganyor yozni shovqin-suron bilan, qishni mudrab o'tkazadi. Bu odat necha yuz yillardan beri hech qanday o'zgarishsiz takrorlanib keladi.

Kuyganyorning asriy jimligi birdan buzildi.

Endi Kuyganyor bekatiga aravalar sig'mas, minglab aravalarda ko'ch-ko'ronini ortib kelayotgan yo'lovchilar bir dam qo'nib o'tar, nima to'g'ridadir qizishib tortishishardi.

Hammaning og'zida Qora daryo, Norin, Uchqo'rg'on degan gaplar. Kuyganyorning oromi buzildi. Bir kunda ming-minglab odam aravalardan yukini tushirdi. Qirq aravada kelgan ustalar o'ttizdan ortiq samovar, besh novvoyxona, yigirmadan ortiq sarta-roshxona, yamoqchilik do'koni, apteka, medpunkt qurishga tushib ketishdi. Temiryo'l yoqasiga arava-arava ketmon, bellar, lomlar, zambillar taxlab tashlandi. Yashil ko'priknining o'ng tarafidan temir yo'lga shaxobcha ulanib, qirg'oq bo'ylab yarim kilometrga tortib borildi. Bu taraflarda hali hech kim ko'rmagan ekskavator ismli uzun xartumi bor bahaybat mashina qaldirab kelib qirg'oqda to'xtadi.

Parovozdek tutun burqsitib turgan bu bahaybat mashina atrofida yuzlab odam hayrat bilan qarab turardi.

Birov uni, polvon, dedi. Birov, yerda yuradigan parovoz, dedi. Yana biri, temir fil, dedi.

Shu payt gupillab poyezd kela boshladi. Parovoz yer-u ko'kni larzaga solib qichqirdi-da, vagonlarni bir-biriga sharaqlatib urib to'xtadi. Vagonlardan ko'rpa orqalagan, ketmon ko'targan kishilar tusha boshladi.

Bugun ertalab Farg'ona oblast partiya komitetining plenumi bo'lib, unda g'o'za parvarishining borishi va Katta Farg'ona kanali qurilishini jadal boshlash, ish boshlanguncha g'o'zalarni beshinchi chopiqdan yalpi chiqazib olish to'g'risida qaror qabul qilingan edi. Uzkompartiya Markaziy komitetining birinchi sekretari Usmon Yusupov plenumda katta nutq so'zlab, g'o'zasini beshinchi chopiqdan chiqarganlarga kanalga borib ishlashga ruxsat berilganligini aytgan edi. Mana, plenumdan chiqiboq poyezdga o'tirgan farg'onaliklarning dastlabki esheloni Kuyganyorga yetib keldi. Kuyganyor xalqi hech qachon bunaqa katta izdihomni ko'rmagan edi. Bir vaqtlar Yorqul mingboshi o'g'lini xatnaga yotqizganda katta bazm bergan, bazmga mingga yaqin odam chaqirgan edi. O'shanda ham katta bedapoyaga o'ttizga yaqin so'ri qurdirib, yigirma ikki qozon tagiga o't qalatgan edi. O'ttiz yildan beri o'sha to'yning ta'rifi tillardan-tillarga o'tib yu-

rardi. Bugun esa kanal, to'g'on sharofati bilan yuzlab chodir tikildi. Besh mingga yaqin odam ko'rpa-to'shagini orqalab to'g'on qurilishiga hasharga yetib keldi.

To'g'on shtabi kelganlarni joylashtirish, kimning qayerda ishlashini, nima ish qilishini aniqlash bilan band.

Maygir qishlog'i tarafdagi usti brezentli kul rang yengil mashina ko'rindi. Mashina Berkinboy samovarchining so'risi oldida to'xtadi. Undan injener Belyavskiy tushdi.

O'tirganlarning ko'pchiligi Belyavskiyga yaxshi tanir edi. Birpasda shivir-shivir gap bo'lib qoldi.

– O'ris mirob keldi.

– Suvto'ra keldilar.

– Guburning suvchisi keldi.

– Xayriyat, hayot ekan. Uni bandalikni bajo keltirgan deb yurar edim.

Belyavskiyga bir chol yaxna choy tutdi. U piyolani qo'liga olarkan, cholga hazil qildi:

– Ilimiliq chol, tirik ekansan-da, a? Men seni o'lib ketgan, deb yurardim. O'lmay yaxshi qipsan. Manavunaqa ishlarni ko'rib, keyin o'lsang, armonda ketmaysan.

Chol tishsiz og'zini ochib kuldi.

– Atayin to'g'on bitishini ko'ray, deb o'lmay turibman. Bitgan kunning ertasiga o'lishga qaror qildim.

Belyavskiy piyolani qaytarib berarkan, yana hazil qildi:

– Bu ishing ham durust. O'lsang o'zim kanal gazetasiga o'rab ko'mib qo'yaman.

Belyavskiy "Ilimiliq" deb atagan chol asli uchqo'rg'onlik bo'lib, keyinchalik Urganji qishlog'iga kelib qolgan. U hozir saksondan oshgan bo'lib, hali ham xotini yo'q. U umrida to'rt marta uylangan, har galgisida ham xotini ikki-uch oy yashamay tashlab ketib qolardi. Ketib qolgan bir xotinidan: "Nega ketding, yaxshi odam edi-ku, ering", deb so'rashganda u: "Kuyov ilimiliq ekan, na issig'i bor, na sovug'i, miroblik qilib badanidagi haroratni suv so'rib qo'yipti", deb javob qilgan ekan. Ana shundan beri uning asli nomi unutilib, "Ilimiliq" bo'lib ketgan edi.

So'rini to'ldirib o'tirganlarning hammasi sepoyachi miroblar edi. Belyavskiy ular bilan ko'p gaplashgan. Farg'ona general-gubernatorligida suv noziri bo'lib ishlagan paytlarda ham u mana shu miroblar bilan bordi-keldi qilar, to'y-hashamlaridan qolmasdi. Belyavskiy ularning hammasi bilan o'ziga yarasha muomala qilib, unutilgan laqabini esga olib, rosa kulishdi. Belyavskiy ku-

la-kula injenerlar projekt muhokama qilayotgan qishloq soveti binosiga qarab ketdi.

Ko'prik tepasida Azizxon bilan Lutfinisa paydo bo'ldi. Ularning ikkovlari ham esankirab, tinimsiz o'tayotgan mashina va ot-aravalarga qarab turishardi. Ayniqsa Lutfinisa shovqin-surondan esankirab qolgan Azizxonni belbog'idan mahkam ushlaganicha sira qo'yib yubormas, yuk mashinasi har signal berganda sapchib tushar, ko'prikning goh u yog'iga, goh bu yog'iga qochib o'tishar, shofyorlardan ketma-ket so'kish eshitishar edi.

Ular bilan hech kimning ishi yo'q. Qayoqqa borishni, kimga uchrashishni bilishmasdi. Ikkovi g'uj-g'uj odam ichida kalovlab choyxona yoniga kelib qolishdi. Bu choyxonaga hozirgina po-yezdda Farg'onadan kelgan quruvchilar to'dasi qo'ngan edi. Biri tugilgan ko'rpasini chatanog'i orasiga olib, biri tugunini bag'riga bosib boshliqning buyrug'ini kutib o'tirardi. Azizxon bittasining oldiga borib cho'chibroq so'radi:

– Tog'a, Toshloqdan ham odam kelganmi?

Tunuka choynak jo'mragidan muzdek buloq suvini simira-yotgan yigit mo'yloviga tomgan suvni kafti bilan artib javob qildi:

– Toshloqliklar kelishmadi. Kanal "Suv kesak", "Toji qishloq" tepasidan o'tarkan, o'sha yerda ishlashadi, uka.

Azizxon, xayriyat-e, devorishiga oz qoldi. Chunki agar toshloqliklar bu yerga kelgudek bo'lsa, Azizxon bilan Lutfinisaning yana qaygadir bosh olib ketishi kerak. Aks holda Akbarali ularni tinch qo'ymaydi. Albatta Lutfinisani undan yulib olib ketadi. Katta janjal ko'taradi. Toshloqliklarning bu yoqqa kelmagani ayni Azizxonning ko'nglidagidek ish bo'lgan edi.

Azizxon nima qilishini bilmay u yoq-bu yoqqa alanglab turgan edi, kimdir bilagidan shart ushladi. U cho'chib orqasiga o'girilganda kattakon tarvuz qo'ltiqlab turgan shofyor bolani ko'rdi. Belyavskiyning shofyori endi ozoda kiyingan, soqollarini ham oldirib bir chiroyli yigit bo'lgandi. Undan gup-gup atir hidi kelardi.

– Polvon pochcha, pussatuna bo'sa bitta choy ichma'mizmi?

Azizxon ko'pdan qidirib yurgan kishisini topib olgandek, yuz-ko'zlari yashnab ketdi.

– Bo'pti, bo'pti, oshnajon. O'zim sizlarni qidirib kelgan edim. Injener tog'am, meni Kuyganyordan topasan, degan edilar. Atayin u kishini izlab keldik.

Shofyor bola ularni ergashtirib oshxona tarafga yura boshladi. Bu oshxona shtab xodimlari uchun qurilgan bo'lib, erta-

azondan to qosh qorayguncha ochiq edi. Oshpaz shofyor bolani tanisa kerak, uning imosi bilan uchta kosaga lag'mon suzib, yo'nilmagan taxtadan omonat yasalgan stol ustiga qo'ydi.

Shofyor bola tashqariga chiqib yangigina tandirdan uzilgan issiq nonni u kaftidan bu kaftiga puflab, tashlab kirib keldi. Non hidi oshxona ichini tutib ketdi. Azizxon ham, Lutfinisa ham o'tgan kechadan beri issiq ovqat yeyishmagandi. Shuning uchun ham oling-oling deyishga ulgurmay kosaga qoshiq solishgan, ish-taha bilan yeya boshlagan edilar.

Ular hali ovqatlanib bo'lmagan edilar hamki, tashqarida shovqin-suron eshitildi. Azizxon kosani bo'shatgan bo'lsa ham, Lutfinisaning imillashini kuzatib turardi. Nima gap bo'ldi ekan, deb tashqariga chiqdi. Odamlar samovar tomon jadal yurib borishardi. Lutfinisa ham chiqdi. Shofyor bola ularga, sizlar bemalol aylanib yuraveringlar, Filip tog'a bo'shaganlaridan keyin sizlarga nima qilishni aytadilar, deb o'zi mashinasini soyaroq joyga olib qo'yish uchun ketdi.

Yigitlik g'ururi bilan hech narsadan tap tortmaydigan, qiz olib qochish allaqanday mardning ishi, deb bilgan Azizxon hozircha nochor edi. Xuddi o'rgatilgan ayiqqa o'xshab o'rgatuvchisining qamchisini kutib turganga o'xshardi. Agar musofirlik gardanida bo'lmaganda, bu joylar va odamlar sinashta kishilar bo'lganda, u albatta biron qiliq qilardi: yo birov bilan mushtlashardi, yo zo'ravonligini ko'rsatish uchun bironta daraxtni sug'urib otardi. Afsuski u, hatto kelgindi itning ham dumi chotiga qisiqlik bo'ladi, deganlaridek, mo'mingina bo'lib, o'z taqdirini kutardi. Taqdiri esa tasodifan cho'l o'rtasida yo'liqqan rus injenerining qo'lida edi.

Ular to'daga ergashib samovar tarafga yura boshladilar.

Novvoyxonaning tomiga chiqib olgan bir yigit grammafon karnayini og'ziga qo'yib qichqirardi:

— Kimda-kim polvonman, desa Berkinboy Fayziyevning samovariga boraversin! Kimda-kim polvonman, desa Berkinboy Fayziyevning samovariga boraversin!

Samovar oldidagi yalanglikka odam sig'may ketgan. Ko'pchilik nima gapligini bilmay bir-biridan so'rardi:

— Tinchlikmi? Polvonlar nima qilisharkan?

— Kurash bo'larmish.

— Shu issiqda kurashga balo bormi? Boshqa gapdir.

— Polvonda nima ishlari bo'lishi mumkin? Xamir qodirib lag'mon cho'zdirisharmidi?

Shu topda davrani yorib yo'g'on gavdali, bo'yni qalinligidan gardani bo'rtib chiqqan qora kishi kirdi. Unga qurilish boshlig'i Teshavoy Mirzayev, Belyavskiy va loyihalash boshlig'i Azizovlar hamroh bo'lib kelishardi. Hamma birdan jimib qoldi. Teshavoy Mirzayev ham davraga kirgan rahbarlar ham o'tirishmadi. Ular hozirgina majlisdan chiqqan edilar.

Mirzayevni hamma tanirdi. Moskvadagi Katta Kreml saroyida o'z ishlari to'g'risida gapirayotganda Molotov luqma tashlab "Chin agronom" degan va unga Stalin qo'shimcha qilib: "... va ajoyib notiqlik" deb atagan edi.

Teshavoy Mirzayev qo'l ko'tarib g'ovurni bosdi. Olomon tinchigandan keyin u salmoqlab gapira boshladi:

– Birodarlar. Hozirgina shtab yig'ilishi bo'ldi. Ertadan butun kanal trassalarida yalpi ish boshlashga qaror qildik. Ikki yuz yetmish kilometrlik kanal trassasi bo'ylab bir yuz oltmish ming kishi barobar ish boshlaydi. Bu faqat Farg'ona vodiysidagina emas, butun o'zbek xalqi tarixida unutilmas kun bo'ladi. Shuni yaxshi bilingki, kanalning hamma joyida ish bir xil emas. Polvonlarga bajarishi mumkin bo'lgan og'ir uchastkalarimiz ham bor. O'zkompartiya Markaziy komiteti va respublika hukumati nomidan Usmon ota sizga qarata bir-ikki og'iz va'z aytishni lozim ko'rdilar. Marhamat, Ota, so'z sizga.

Usmon Yusupov dastro'moli bilan terlagan gardanini arta-arta oldinga chiqdi. U kanalning ahamiyati to'g'risida uzoq gapirdi. Uning nutqidan Farg'ona vodiysining dehqonchilik tartibi, yer va suv sharoitini yaxshi bilgani sezilib turardi. U nutqining oxirida bugun ko'tarilgan xalq oqimi kanal qazishni qirq besh kunda ado etishga ahd qilganini, Kuyganyor to'g'oni to kanal bitguncha suv o'tqazishga tayyor bo'lishi kerakligini lo'nda-lo'nda qilib gapirdi.

– Biz bugun vodiy polvonlarini alohida to'pladik. Besh yuzga yaqin polvon qurilishning alohida uchastkalarida o'z kuchlarini ko'rsatishlari kerak. Uchqo'rg'on to'g'oni, Lug'umbek sharshalari va nihoyat Kuyganyor to'g'oni siz azamatlarning bilak kuchingizga mahtal bo'lib turipti. Kanal qurilishi shtabi polvonlardan uchta katta brigada tuzishga qaror qildi. Uchqo'rg'on uchastkasida ishlaydigan brigadaga Log'on kanali qurilishida nom chiqargan mashhur polvon Do'nan Do'smatov, Lug'umbek sharshara qurilishida ishlaydigan brigadaga buloqboshilik Jo'ra polvon G'oyipov boshchilik qiladi. Kuyganyor to'g'oni qurilishidagi brigadaga izboskanlik Ali polvon boshchilik qiladi.

Azizxon bir chekkada bu gaplarni eshitib o'tirarkan, Yusupovning keyingi gaplari uning hamiyatiga tekkandek bo'ldi. Nahotki Farg'onadan bironta polvon bo'lmasa?! Farg'ona polvonlari hali kurashlarda yelkasini yerga tegizmay sovrin olib kelgan bo'lsa-yu, mana shunday ulug' ma'arakada chetda qolib ketsa!

Yusupov gapini tugatishi bilan Azizxon o'rnidan turdi.

— Mumkinmi? Nega farg'onalik polvonlardan birontasi brigadaga boshliq bo'lmadi? Shuni tushuntirib bersangiz.

Usmon Yusupov o'rniga Teshavoy Mirzayev javob qildi:

— Qizishmang, uka, Farg'ona polvonlari Tolquduq qumlarini kesib o'tadigan kanal qurilishiga yuborilgan. Ular hozir jazirama o'tob tig'ida qizigan qumlar orasida jonbozlik qilishyapti.

Oldingi qatorda o'tirgan miqti Esh polvon piching qildi:

— Uka, Farg'ona polvonlari sal mundoqroq bo'ladi. Uyiga yaqinroq joyda ishlamasa, xotinini sog'inib qoladi.

Bu gap Azizxonning jon-jonidan o'tib ketdi. Shart burildi-yu alohida kursida taltayib bir o'zi o'tirgan Esh polvonning tepasiga keldi.

— Yana bir marta ayting shu gapingizni, Polvon aka.

Esh polvon uni pisand qilmay, o'taver, o'taver, deb masxarali iljaydi.

Azizxon titrab ketdi. Yaktagining yengini ham shimarmay uni kursi bilan qo'shib shart ko'tardi. Pildiragancha davradan olib chiqib ketdi-yu, ko'cha o'rtasiga otdi. Kursi sindi, polvon tuproqqa qorishdi. Azizxon unga qaramadi ham, qaytib kelib o'z o'rniga o'tirdi.

Olomon gurilladi. Bir polvon Esh polvon tushgan joyga yugurdi. Belyavskiy Azizxonga qarab, chakki qilding, bolam, degan ma'noda boshini sarak-sarak qildi,

Keyin Yo'ldosh Oxunboboyevning qulog'iga nimadir deb shivirladi.

Birpasda prezidiumdagilar orasida shivir-shivir bo'lib qoldi. Ammo Esh polvon qaytib davraga kirmadi.

Teshavoy Mirzayev polvonlar endi o'z yotoqlariga borib dam olishlari mumkinligini aytib, brigada boshliqlari shu yerda qolishlarini so'radi. Hamma tarqadi. Azizxon ham chiqib ketayotgan edi, bir yigit kelib Usmon ota so'rayotganlarini aytdi. Azizxon katta odamlar bilan umrida gaplashmagan edi. Tortinibroq oldiga bordi. U, albatta, hozirgi qilgan ishim uchun dashnom eshitsam kerak, deb cho'chigan edi. Yusupov uni kulib qarshiladi. Qo'l olib ko'rishar ekan, uning pishiq jussasiga, bolalarcha iymenib turgan ko'zlariga qaradi.

– Qayerlikсан, bola? – dedi qiziqib.

Azixxon Toshloqning Zirillama qishlog‘idan ekanligini aytdi.

– Rayimberdining kolxozidanmi? Ha, durust. Oriyatli yigit ekansan. Toshloqliklarning bari shunaqa. Birovga na so‘zini beradi, na o‘rmini. Ko‘pchilik keldinglarmi?

Azixxon iymanib ikki kishi kelishganini aytdi. Belyavskiy unga qo‘shimcha qildi:

– Qaylig‘i bilan kelgan, ota. Azamat yigit. To‘g‘on qurilishiga tashlaymizmi?

– O‘zidan so‘raylik, – dedi Yusupov. – Qayerda ishlashni xohlaysan, bola?

– Qayerni lozim topsangiz, o‘shaqda ishlaganim bo‘lsin. Ammo-lekin ishning eng og‘irini bering. Farg‘onaliklarning qanaqaligini bir ko‘rsatib qo‘ymoqchiman.

Yo‘ldosh ota Azixxonning yosh bolalarcha berayotgan javobidan zavqlanib turardi. Kelib yelkasiga qoqdi.

– Menga qara, hamqishloq. Akbaralining singlisini to‘y kuni olib qochgan senmasmisan?

Azixxon indamay boshini egdi. Past ovoz bilan dedi:

– Gunohimdan o‘ting. Bir qoshiq qonimdan o‘ting, ota. O‘sha siz aytgan bola menman.

– Qiz qayerda? – dedi Oxunboboyev.

Azixxon ko‘pchilik orasida yuzini yashirib o‘tirgan Lutfinisa tarafga ishora qildi.

Uchqo‘rg‘onda ham xuddi shunday yig‘in bo‘lishi kerak edi. Rahbarlar o‘shaqqa otlanib turishipti, gapni uzoq cho‘zishmadi. Yusupov Jo‘ra polvonni chaqirib, Azixxon bilan Lutfinisani unga topshirdi.

– Issiq-sovug‘i, yotish-turishi sening gardaningda. Buloq-boshiliklar himmatli bo‘ladi. Otagingga ol. Bu bolada ish ko‘p. – Yusupov Azixxonga qaradi. – O‘g‘lim, fildek kuching bor ekan. Bu kuchni behudaga sarf qilma. Yurt ishiga sarfla. Yurt bir himmatingga o‘n himmat bilan javob qiladi.

Rahbarlar mashinaga o‘tirib Uchqo‘rg‘on tarafga yo‘l olishdi. Ketayotgan mashina orqasidan qarab turgan Azixxonning yelkasiga birov qo‘l tashladi. Azixxon o‘girildi, Jo‘ra polvon ekan.

– Qoyil qilding, uka, – dedi iljanib, – Esh polvon lunjiga sho‘r paxta bog‘lab medpunktida o‘tirti. Hozir oldiga boramiz. Undan uzr so‘ra. Har qalay sen yoshsan. Shundoq qil.

Azixxon qishloqda shuncha sho‘xlik qilib umrida biron marta uzr so‘ramagan edi. Kelib-kelib endi mutlaqo notanish,

uning ustiga yurtdoshlarini ermak qilgan kishidan uzr so'raydmi? Azizxon qo'lini ko'ksiga qo'yib uzr so'rashga borolmasligini aytdi.

— Unaqa qilma, bola. Polvon xalqi yengilgan raqibini belidan olib ko'tarib qo'yadi. Taomil shunaqa.

Azizxon bu odamning ta'rifini juda ko'p eshitgan edi. U yog'i Jalolobod, bu yog'i Chimkentgacha dovruq solgan bu polvon hali biron marta davradan yelkasidan tuproq qoqib chiqib ketmagan edi. Shunday odam undan Esh polvondan uzr so'rashni iltimos qilyapti. Azizxon noiloj ko'ndi. Unga ergashib medpunkt tarafga yurdi.

Medpunkt oldidagi skameykada lunji boylangan Esh polvon qaynoq ko'k choy ichib o'tirardi. U Azizxonga sovuq bir qaradi. Keyin piyolani yoniga qo'yib o'rnidan turdi.

— Esh akang hali biron davrada bunaqa sharmanda bo'lmagan edi. Ammo qoyil qilding, uka.

Esh polvon shunday deb tagiga bosib o'tirgan yangi, hali ohori ketmagan to'nini oldi-yu, bir siltab qoqib, Azizxonning yelkasiga tashladi.

— Bu senga Esh akangdan esdalik. Yasha, omadingni bersin!

Esh polvon boshqa gap aytmadi. Hech kimga hech nima demay to'ppa-to'g'ri ko'prik tarafga qarab ketdi.

— Endi qaytmaydi, — dedi kimdir, — yomon izza bo'ldi. Shu ketgan cha qishlog'iga ketdi. Eshni bilmaysizlar, oriyatli polvon. Yiqilganim — o'lganim deydiganlardan. Ketdi endi, bechora.

To u ko'zdan yo'qolguncha orqasidan qarab qolishdi. U keltarkan samovar so'rilarini to'ldirib o'tirgan choyxo'rlar undan ko'z uzishmas, ana yiqilgan polvon, ana tuproqqa qorishgan polvon, deb shivirlashardi. Esh polvon bu gaplarni eshitmasa ham sezardi. Shuning uchun boshini ko'tarmay, hech qayoqqa qaramay Qora daryo ko'prigidan o'tib borardi.

Azizxonning yuragi jiz etib ketdi. Umrida birinchi marta qilgan ishiga pushaymon bo'ldi. Ich-ichidan kuyindi. Ammo endi kech edi.

Yonida turgan Jo'ra polvon ham Eshning bu ahvolidan ta'sirlangan edi. U indamay Azizxon bilan Lutfinisani ergashtirib buloqboshiliklar tushgan qo'ra tomonga yurdi.

IX

Arslonbob tepasida chaqin chaqib yer-u osmonni larzaga solgudek momaqaldiroq gumbirladi. Odamlar uylaridan chiqib

ana sel keladi, mana do'l yog'adi, deb vahimaga tushib qolishdi. Ammo bir necha soat gumbirlagan momaqaldiroqning kuchi so'nib, bemor yo'talidek asta sekinlasha boshladi. Odamlar xayriyat, yog'ib berganda kanalchilarni tashvishga solib qo'yardi, deb xotirjam bo'lishdi. Ammo bu xotirjamlik ko'pga bormadi. Tog' tarafdin yo'lda uchragan xas-xashakni ko'kka ko'tarib bo'ron turdi. Bo'ron kuchaygandan kuchayib tuproqni osmonga uchirar, baland ko'tarib atrofga to'zg'itardi. Uzunligi ikki, ikki yarim metrlik shox-shabbalar ham osmonda aeroplandek uchib yurar, hech narsani ko'rib bo'lmasdi, quyosh to'zon ichida, osmon xuddi malla to'n kiygandek.

Tabiatning bu telba o'yini bir soatdan ortiq davom etdi. Bet-ko'zlarini chang qoplagan kishilar uylaridan, qo'ralaridan chiqqa boshladilar. Hali to'zoni bosilmagan osmonga qarab turgan bir chol do'ng'illadi:

— Boshlagan ishimiz Ollo taologa yoqmadi, chog'i.

To'zon ichida chaqa puldek qorayib ko'rinayotgan quyoshga qarab turgan qo'sh belbog'li yigit shosha-pisha og'zidagi nosini tupurib javob qildi:

— Naaborot bo'ladi, otam, aksincha, naaborotiga Ollo taologa yoqqani bu. Xudo yorlaqagan bandalariga rahmatini yubordi. Xudoning o'zi kanal qazishga kelolmaganidan pushaymon bo'lib shamolini yubordi. Mana ko'rasiz, ikki yo uch kundan keyin daryoning suvi yarimlaydi. Bu shamol tog' qorini qotiradi. Ikki-uch kun erimay bez bo'lib turib oladi. Sepoyani ana o'shanda tashlaymiz-da, otam. Shuncha yoshga kirib shuni ham bilmabsiz-da, otetsim.

Bu gapni aytgan yigit Abdusamad mirob edi. U o'z umri ni suv yo'llarida, to'g'onlar boshida o'tkazgan edi. Abdusamad mirob Qora daryo va Norinning qutirgan to'lqinlari bilan olishib qanchalab sepoyalar tashlagan, toshqinlarga bas kelgan edi. Abdusamad oblast suv bo'limining boshlig'i Suvto'ra deb nom chiqargan injener Belyavskiyning eng yaqin maslahatchisi. Uncha-muncha ruscha qo'shib gapirish unga Suvto'radan yuqqan.

Shamolning suvga ta'siri to'g'risidagi mulohazasi uning ko'p tajribalari va kuzatishlaridan kelib chiqqan.

Bo'ron turgan kuni kech payti Kuyganyor ko'prigining o'ng qirg'og'iga aravalarda, mashinalarda yog'ochlar tusha boshladi. Shamol qulatgan daraxtlar ildizi bilan traktorda sudrab keltirildi. Ertasi tong paytigacha shox-shabbadan, yog'ochlardan tog' paydo bo'lgandi.

Andijon tarafdin otlitq sepoyachilar kela boshlashdi. Ular ot-larini saroyga kiritib samovarga qo'nishdi. Sepoyachilar orasida soqoli ko'ksiga tushgan, sakson bo'lmasa ham, to'qsondan hat-lab o'tgan bir chol ham bor edi. U bitta choy ichdi-yu, qirg'oq bo'ylab yurib, suv oqishini kuzata boshladi.

U mashhur Hasan sepoyachi edi. Hasan sepoyachi shu uzoq umrida ko'p daryolarga besh mingdan ortiq sepoya qadagan, bu-tun vodiy sepoyachilariga ustozlik qilardi.

Chol hozir keksayib qolishiga qaramay, sepoyachilar qato-rida ot surib Kuyganyorga keldi. U hozir qirg'oq bo'ylab borar-kan, ko'pirib, hayqirib oqayotgan daryo bilan gaplashayotgan-dek, kuch sinashga chog'i kelish-kelmasligini chamalayotgandek ko'rinardi. Uning qoshlari chimirilgan, xayollari bo'z yigit payt-larini izlardi. U o'ylardi: "Kim biladi, bu mening oxirgi jangim-dir. Bu jangda kim yengarkin? Ammo jang chakana bo'lmaydi. Shu paytgacha bo'lgan janglarning eng zo'ri bo'ladi".

Chol jindek xavotir olardi. Keksalik kuchini ko'rsatib chap oyog'idagi bodi tez-tez qo'zg'ab, uncha-muncha tomiri tortib ham qo'yardi. Chol ana shundan notinchroq edi. U samovarga ko'nglida qandaydir g'ashlik bilan kelardi.

Berkinboyning samovari har galgidek gavjum. Mashhur ho-fiz Jo'ra piston likop bilan katta ashula boshlagan. Hamma jim bo'lib uning qo'shig'ini tinglardi.

Poytuqliklar samovarida gurra-gurra kulgi ko'tarilardi. U yerga bir to'da Marg'ilon qiziqchilari tushgan, Yusuf qiziq, Oxunjon qiziqqlar ichak uzdi hikoyalar aytib hammani kuldirishardi.

Maydon o'rtasiga mashina kelib to'xtadi. Undan Suvto'ra-Belyavskiy bilan Teshavoy Mirzayev tushdi.

Suvto'ra yaqinida turgan odamga ham baqirib gapirardi. Chunki sharsharalarda, toshqinlarda, suv shovqinida miroblar bilan ko'p gaplashgan. Shuning uchun ham qattiq gapirishga o'rganib qolgandi. Bilmaganlar uning bu odatidan achchiqla-nishardi. Hatto bir-ikki joyda unga, garang emasmiz, buncha shang'illaysan, deb dashnom ham berishgan edi. Bir kuni Shah-rixonsoy sharsharasida suvni noto'g'ri taqsim qilayotgan mirobga odati bo'yicha baqirib gapirganda u Suvto'rani qattiq haqorat qilgan edi. O'shanda u:

— Gubrga noziklik paytlaring o'tib ketgan. Baqirma. E, gubrnning dumi, generalning arzandasi! — degandi.

Suvto'ra indamay qo'l siltab otiga minib ketavergandi.

Injener Belyavskiy ming to'qqiz yuz ikkinchi yilda Peterburg Irrigatsiya institutini tugatganidan keyin Turkistonga yuboriladi. Farg'ona general-gubernatorligi uni suv ishlari noziri qilib tayinlaydi. Ana o'shandan beri u goh piyoda, goh otliq butun vodiyni kezadi. Xarobaga aylangan suv inshootlarini tiklashga bel bog'laydi. Xalq miroblarining uzoq asrlik boy tajribalarini o'rganadi. Ko'p ilmiy ishlar yozadi. Uning bu asarlari Peterburg, Moskvada nashr qilinadi. Turkiston viloyati gazetalarida e'lon qilinadi.

Belyavskiy juda ko'p miroblar, sepoyachilar bilan do'stlashadi.

Revolyuetsiya bo'lib Farg'ona muzofotida sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyin ham Belyavskiy o'z vazifasini davom ettiraveradi. Ilgari chor Rossiyasi amaldorlari tasdiqlamagan, pul xarj qilishni istamagan loyihalarini qayta amalga oshirish uchun qattiq bel bog'laydi. Uning niyati Uchqo'rg'ondan Norinni bo'g'ib, butun vodiylar bo'ylab katta bir kanal o'tkazish edi.

Belyavskiyning "Asosiy Farg'ona kanali" degan loyihasi bilan markazdagi mutaxassislar ham tanishib chiqqan.

Partiya va sovet apparatlarida uni juda hurmat qilishardi. Xalq uning o'sha eski nomi Suvto'ra, O'ris mirob nomlari bilan ham atay boshlaydi.

Kanal shtabi uni Uchqo'rg'on uchastkasiga boshliq qilib tayinlaydi. Kanalning bosh to'g'oni o'sha yerda, Norinda quriladi. Belyavskiy Qora daryoga sepoya tashlashni kuzatish, yaxshi sepoyachilarni aniqlash uchun atayin kelgan.

Belyavskiy mashinadan tushib darrov shtabga kirib ketmadi. Eski mirob oshnalari, sepoyachi do'stlari bilan hazil aralash salomlashib o'tdi.

— Ha, Cho'tir mirob, omonmisan, Log'onda dumingdi tutqazmagan eding, endi paxtangga suv kerak bo'пти-da.

U bujir yigitning qo'lini qo'yvorib, boshqa baland bo'yli ozg'in qora yigitning qo'lini oladi. Bu yigit asli shahrixonlik uyg'urlardan bo'lib Shahrixonsoyga juda ko'p martalab sepoya tashlagan, o'zi ikki marta oqib arang o'limdan qolgan edi.

— Omonmisila, oxun, keldinglami? Buni Qora daryo deydi-la. Qimiz sovutadigan Xo'tan ariq Anjanda qoldi.

Bu uyg'ur mirobi juda jahldor, birovning gapiga kirmaydigan yigit edi. Boshqa odam to'g'ri maslahat bersa ham o'zinikini ma'qullardi. Faqat Belyavskiyga gap qaytarolmasdi, xolos.

U bir kuni Shahrixon guzaridagi samovarda choy ichib o'tirib oyog'iga kirgan tikanni pichog'ining uchi bilan qidirayotgan

edi. Ermaktalab choyxo'rlar unga tegajaklik qilib maslahat bera boshlaydilar.

– E, oxun, sal berirog'idan kavlang.

– Tikan sal yuqoriroqda.

– O'ng tarafni kavlang, oxun.

U, ishingla bo'lmasin, deb o'zi bilgan joyni kovlayveradi. Ermaktalablar bo'sh kelishmaydi,

– Bu yog'ini kavlang!

– U yog'ini kavlang!

U jahli chiqqanidan pichog'ini g'arch-g'arch qilib tovoniga ikki-uch marta tiqib tashlaydi. Tovonlaridan qon oqarkan, choyxo'rlarga qarab qichqiradi:

– Bo'ldimi? Tinchidinglami?

Ana shundan keyin u ikki-uch kun ko'chaga chiqmay oyog'iga latta bog'lab yotadi.

Belyavskiy o'sha voqeani eslatmoqchi bo'ldi.

– Oxun, to'g'on bitmay oyoqqa latta bog'lab qochmasinla.

Hamma gurillab kuldi.

Ana shundan keyin Belyavskiy shtab tarafga o'tib ketdi.

So'rilarni to'ldirib o'tirgan choyxo'rlar suhbat mavzuini o'zgartirib Belyavskiy ta'riflay boshladilar.

Uning oq podsho vaqtida ham kambag'alga qayishgani, miroblarning qora sho'rvasini irg'anmay ichgani, to'ylarga sovg'a-salomlar olib marjasi bilan kelgani, janozalarga qatnashib tobut ko'targani bormi – hamma-hammasini gapira boshladilar.

– O'ris bo'lsa ham o'zbekday, kofir bo'lsa ham musulmonday o'ris.

– Qizini o'zbekka bergan. Nevarasining otini, Xudoning qudrati bilan Oyposhsha qo'yipti. Anovini qarang-a...

Ko'prik tepasida yengil mashina ko'rindi.

– Usmon otaning mashinasi, – dedi kimdir.

Hamma o'sha tarafga qaradi. Mashina choyxonalar orasidan sekinlab o'tdi. Mashinada Usmon Yusupovning o'zi yo'q edi. Orqa o'rindiqda ko'zoynakli qirra burun yigit bilan o'ttiz yoshlar chamasidagi oppoqqina yigit o'tirardi.

– Uh! – deb yubordi bir yigitcha. – G'afur G'ulom-ku. Yonidagisi kim bo'ldi?

– Tanimadingmi, Hamid Olimjon-ku.

G'afur G'ulom shofyorning yelkasiga qo'l tashlab to'xtashga ishora qildi. Mashina tol soyasiga kelib to'xtadi. Ikki shoir mashinadan tushib to'ppa-to'g'ri Berkinboy hofizning choyxo-

nasiga qarab yura boshlashdi. Hofiz qo‘lidagi choynakni so‘rida qoldirib ular istiqboliga yugurdi.

Choyxo‘rlar ikki shoirdan ko‘z uzmay kuzatib turardilar. G‘afur G‘ulom o‘z odaticha o‘ng yelkasini chapanilarcha sal ko‘tarib, o‘ng oyog‘ini yerga qattiqroq urib borardi. U do‘sti mashhur Hofiz bilan bel olib ko‘rishgandan keyin Hamid Olimjonni unga tanishtirdi.

– Tanishing, Berkinboy aka, Hamid Olimjon degan shoir shu yigit bo‘ladi.

– Bilamiz, bilamiz, o‘zlarini ko‘rmagan bo‘lsak ham she‘r-larini ko‘p o‘qiganmiz. Qani, kelinglar. Bitta choy qilib beray.

G‘afur G‘ulom undan uzr so‘radi. Lug‘umbekda Ota ularni kutayotganlarini aytdi-da, mashinaga qarab yura boshladi.

– Daryoga sepoya tashlaydigan paytda shu yerda bo‘lamiz. O‘shanda O‘zgan guruchidan juvoz yog‘ida bitta anjanча palov qilib berasiz.

Shoirlar mashinaga chiqib jo‘nab ketishdi.

Kimdir, “G‘afur G‘ulomning burni katta ekan-a”, dedi. Boshqasi qo‘shimcha qildi:

– Hamid Olimjonning qulog‘i katta ekan.

Shu kuni kechgacha ko‘prikdan goh yengil mashina, goh avtobus, goh yuk mashina to‘la odamlar o‘ta boshladi. Unda mashhur artistlar, sozandalar, rassomlar o‘tirishardi.

Hamma ular orasidan Halimaxonimi qaysi, Tamaraxonimi qaysi, deb bir-birlaridan so‘rashedi.

Kuyganyor xuddi kattakon vokzalga o‘xshardi. Odam tinmasdi. Bu yerdan o‘tganning ham, qo‘nib qolganning ham son-sanog‘i yo‘q.

Kuyganyor Kuyganyor bo‘lib hali bunaqa sayilni-yu, bunaqa marosimni ko‘rmagan edi. Samovarchilarning qo‘li qo‘liga tegmas, choyxonalardan hofizlarning qo‘shig‘i, sozandalarning mashqlari tinmasdi. Somsapazlar, mantipazlarning shovqin-suronlari, xotin-xalaj, bolalarning shovqini qo‘shiqni ham bosib ketar, yashil ko‘prik ustidan yer-u ko‘kni larzaga solib sement, yog‘och, temir ortgan poyezd qaldirab o‘tib qolardi.

X

Azixon yotish-turishidan ko‘ngli tinchib guzarga bemalol, betashvish chiqadigan bo‘lib qoldi. Jo‘ra polvon uni qo‘shariqlik Orzixon aya degan kampirning uyiga joylab qo‘ydi.

Orzixon aya yolg'iz qizini shaharlik Ergashvoy degan park direktoriga bergan, o'zi kattakon hovlida yolg'iz yashardi.

Lutfinisa kampir bilan birpasda apoq-chapoq bo'lib ketdi. Jo'ra polvon hovliga aravada un-guruch, qovun-tarvuz tushirib berdi.

Azixxon endi xotirjam. Ko'ngli tinch. Ertadan Jo'ra polvon yigitlari bilan Lug'umbekka ko'chadi.

Kunlar ham nihoyatda isib ketdi. Ming-minglab kishilar oftobda qorayib ketmon chopishar, tosh orqalashar edi. Son-sanoqsiz zambillar pastdan yuqoriga tuproq va tosh bilan intilardi.

Ayniqsa, Kuyganyor to'g'oni qurilishida kecha-yu kunduz ish tinmasdi. To tong sahargacha projektorlar daryo ichi, qirg'oqlarni kunduzdek yoritib turar, traktorlarning shovqini, odamlarning u qirg'oqdan-bu qirg'oqqa qarab baqirib-chaqirishlari qishloqlarga ham eshitilar edi.

Daryo oqimi taraflardagi sholi tizza bo'yi bo'lib qolgan, pashsha-chivinlar kuni bilan oftob tig'ida ishlagan quruvchilarni kechasi uxlatmasdi. Oftob kuydirgan yelkalar achishar, pashsha chaqqan yerlar jon-jondan o'tib ketardi. Ertalabgacha qabargan badanni qashib uxlamay chiqqan quruvchilar nonushta paytida ham mudrab o'tirishar, trassaga chiqqandan keyingina ishga qiziqib uyqusizlikni unutaridilar. Ammo chivin chaqqan yerlar izsiz qolmasdi. Kanalchilar orasida bezgak paydo bo'la boshladi. Ana shundan keyingina yuzlab vrachlar, sanitarlar uyma-uy, palatama-palata yurib quruvchilarga majburan akroxin tabletkasini ichira boshlashdi.

Azixxon ikki-uch kundayoq katta-kichikning og'ziga tushib qoldi. Kechqurunlari ishdan bo'shab guzarda choy ichishga chiqqanda so'rining yuqorisidan joy bo'shatadigan, choyxo'rlar uni bir-birlariga imlab ko'rsatadigan bo'lib qolishgandi. Azizxon bundan zavqlanar, yurishi ham allaqanday boshqacha, g'ururini qancha yashiraman desa ham gap-so'zlaridan bilinib turardi. Lutfinisa ham Orzixon aya bilan ishga chiqib zambilda tuproq tashirdi. Azizxon bilan kechqurun ko'rishardi-yu, charchagani-dan darrov yota qolardi.

Bugun Azizxon qosh qoraymay ishdan qaytdi. Havo dim edi.

Kuyganyorning tabiati boshqa joylardan farq qilar edi. Kunduzi oftob haddan tashqari qizdirardi. Kechga yaqin shamol yotib, havo dim bo'ladi. Daraxtlarning uchlari qimirlamay tek qotadi. Ana shu paytda chivinlar yer-u ko'kni to'ldirib g'ing'illab, jondor borki, bir chaqib o'tmasdan qo'ymaydi. Hatto otlar

ham bezovta bo‘lib no‘xtani uzib qochadi. Faqat befahm sigirlargina ma‘rab yotaveradi. Xo‘roz bir chaqirgandan keyingina salqin shamol boshlanadi. Chivin zotini bitta qo‘ymay uchirib ketadi. Qirg‘oqlardagi qizigan toshlarni puflab sovutadi. Saraton oqshomi bo‘lishiga qaramay, qalin ko‘rpa yopinib yotmagan kishi sovqotadi. Toshkentdan kelgan lektor “Oyda hayot bormi?” degan mavzuda leksiya o‘qib: “Oyda kechasi yuz gradus sovuq, kunduzi yuz gradus issiq bo‘ladi”, degandi. Kuyganyorni ham oyga o‘xshatsa bo‘ladi. Kunduzi haddan tashqari issiq, kechasi chidab bo‘lmas sovuq.

Azizxon belbog‘i bilan o‘zini yelpib kirib kelganda Lutfinisa kir chayqab o‘tirgan edi.

– Iya, mendan oldin kelibsan-da, – dedi Azizxon ajablanib.

– Brigadamizni boshqa uchastkaga o‘tkazishyapti. Bu yerdagi topshiriqni bajarib bo‘ldik.

– Uzoqroqmasmi, ishqilib? – dedi u qiziqib.

Lutfinisa yangigina sinkali suvdan chiqqan ko‘ylaklarni dorga yoyarkan: “bilmasam”, deb qo‘ydi.

– Yuvinib ola qoling, paqirda suv isitib qo‘yganman.

Lutfinisa krujkada suv quyib turdi, Azizxon oyog‘ini kerib turib yuvina boshladi. Shu payt tashqaridan kimningdir chaqirgan ovozi keldi. Lutfinisa krujkani paqirdagi qalqib turgan suvga tashlab tashqariga chiqib ketdi. Zum o‘tmay qaytib kirdi.

– Sizni bir kishi so‘rayapti.

– Qanaqa kishi?

– Tanimadim, qorong‘ida betini ko‘rmadim.

Azizxon yelkasida sochiq bilan artina-artina yo‘lakka yurdi. Anchadan keyin bir notanish kishini ergashtirib kirdi. Lutfinisa tosh fonarni yoqib ayvon dahaniga qo‘ygandagina uni tanidi. Bu – Esh polvon edi. Bemahalda bu kishi nima qilib yuripti? Lutfinisaning ko‘ngli g‘ash bo‘la boshladi.

Esh polvon ancha so‘lib qolgan, ilgarigi g‘ururi yo‘q, boshini egib gapini nimadan boshlashini bilmay, etigining uchi bilan yer chizib o‘tirardi. Oxiri u boshini ko‘tarib Azizxonga qaradi.

– Uka, senda ikki og‘iz gapim bor edi.

Azizxon unga, qulog‘im sizda, degan ma‘noda qaradi.

– Yo‘q, yo‘q, uka, xoliroq joyda aytadigan gap.

Azizxon Lutfinisaga sen chiqib tur, gapini eshitaychi, degandek qaradi. Lutfinisa ularni yolg‘iz tashlagisi yo‘q, bu odam yaxshi niyat bilan kelmagan, deb gumonsirardi. Uning qimirlamay o‘tirishini ko‘rib Azizxon yana dedi:

– Sen bir aylanib kel. Biz gaplashib olaylik.

Lutfinisa norozi qiyofada uyga kirib ketdi. Azizxon Esh polvonga yaqinroq surilib o'tirdi.

– Qani, eshitaylik, aka.

Esh polvon darrov gap boshlolmadi. Ancha chaynalib o'tirdi. Yo'taldi. Bir-ikki jur'atsiz qarab, xijolatli iljayib qo'ydi.

– Ukajon, gaplarimni malol olmaysan. O'sha kungi voqeadan beri qishloqqa borolmay yuribman. Kanalga ham kelolmadim. Atayin qoshni qoraytirib, el ko'zidan yashirinib bemahalda oldingga keldim. Sen hali yoshsan, bilmaysan. Yigit kishining boshi egilguncha ho'kizning bo'yni sinsin, deydilar. Mening boshimni sen egib qo'yding. Esh akangning, yelkasi yaqin orada yer iskamagan edi. Meni o'ldirding, bola.

Esh polvonning ko'zlaridan duvva yosh oqib ketdi. Oriyatidan boshini teskari o'girib belbog'ini yechdi. Ko'z yoshlarini arta boshladi.

– O'ldirding meni, bola, o'ldirding...

Azizxon g'alati ahvolga tushdi. Nima qilishini bilmas, uni yupatgudek biron so'z topolmasdi. Kap-katta odam, uning ustiga yelkasi yer ko'rmagan dongdor polvon ho'ng-ho'ng yig'lab o'tirsa, juda xunuk bo'larkan. Azizxon shundoq mag'rur odamni bukib, dunyoni ko'ziga qorong'i qilib qo'yganidan xijolat chekardi. Biron nima bilan ko'nglini ko'tarish qo'lidan kelsaydi, u albatta ikkilanmay qilardi. Nima qilish kerak? Azizxon yelkasiga qo'lini qo'yib achinib so'radi:

– Nima qilsam bo'ladi, Polvon aka, nima qilsam ko'nglingiz joyiga tushadi?

Polvon yoshli ko'zlarini unga qadadi.

– Bittagina yo'l bor. Jon uka, illo-billo yo'q demaysan. Seni hech kim tanimaydi. Taniganda ham ayb qilmaydi. Ertaga Urganjining maydonida Tamaraxonim kansitidan keyin Jo'ra polvon da'voshiligida kurash bo'ladi. Senga talabgor bo'lib chiqaman. Yiqilib berasan. Jon uka, agar shundoq qilmasang, o'zimni o'zim chavaqlab tashlayman. Bola-chaqamning uvoliga qolasan.

Azizxon jahl ustida o'rnidan turib ketdi. Esh polvon ham turdi. U boshlagan gapini sovutmay bosib tushmoqchi bo'ldi.

– Nima desang beray. Xo'p de...

Uning gapi og'zida qoldi. Azizxon tutaqib o'dag'aylagancha uning dahani tagiga keldi.

– Meni kim deb o'yladingiz? Men siz aytgan nomardlardan emasman. Kuchingiz bo'lsa, marhamat, maydonga chiqing, bel-lashamiz.

Esh polvon dovdirab qoldi:

– Ukajon, hech bo‘lmasa ajrim qilmay teng kuch bilan ajrashaylik. Xo‘p degin.

Azizxon o‘ylanib qoldi. Esh polvonning ahvoli og‘ir edi. Agar uning gapiga kirmasa, o‘zini o‘zi bir balo qilib qo‘yishi hech gap emasdi. Avzoyi boshqacha. O‘zini chavaqlashdan toymaydi. Azizxon polvonlarning tabiatini yaxshi biladi. Davradan boshini egib chiqib ketgan ko‘p polvonlar yurtni tashlab begona ellarda sarson-sargardon yurganlarini biladi. Hatto o‘zini osib qo‘yganlar to‘g‘risida ko‘p eshitgan. Azizxon sal shashtidan tushdi.

– Bo‘pti, – dedi u, bo‘lar ish bo‘ldi, degandek qo‘l siltab. – Mayli. Siz aytganча bo‘lsin.

Esh polvon uning ikki yelkasidan ushlab ko‘ksiga bosdi.

– Rahmat, o‘g‘il bola yigit ekansan. Davralardan besovrin qaytgulik qilmasin seni. Gap bitta, a?

– O‘g‘il bolaning gapi bitta bo‘ladi, – dedi qat‘iy qilib Azizxon.

Esh polvon uni duo qilib chiqib ketdi. Ammo Azizxon ancha paytgacha o‘ziga kelolmay hovli betida u yoqdan-bu yoqqa bo‘rib-kelib turdi. Bo‘lib o‘tgan gaplarning barini Lutfinisa eshitib turgan edi. Azizxon to‘g‘ri qilyaptimi, yo adashdimi, deb mulohaza qilardi u.

Azizxon kechasi ko‘kka qarab yotarkan o‘ylardi. Esh polvon menga talabgor bo‘lib chiqadi. Kurash ajrim bo‘lmaydi. Xo‘sh, kim yutgan bo‘ladi? Talabgor bo‘lib chiqqan kishi yengolmagan bo‘ladi. Demak, men yutgan bo‘laman.

Azizxon endi xotirjam bo‘lib uxlab qoldi. Ammo ertasi u to‘g‘onda tosh tashirkan, odamlarning gapi qulog‘iga chalindi.

– Esh polvon talabgor bo‘lib chiqarmish. Azizxon ko‘narmikin? Agar ko‘nmasa kurash qoidasi bo‘yinchа yengilgan bo‘ladi.

Azizxon bu gapdan kulibgina qo‘ya qolgan edi. Gap tagida gap bor ekan. Bu kontsert paytida ma‘lum bo‘lib qoldi. Ikki yigit uni imlab chetga, tut tagiga olib keldi. Qarasa ikkovi ham pichoq yalang‘ochlab turipti. Azizxon zarracha ham cho‘chimadi. Gapingni ayt, deb o‘qraydi.

– Esh polvonga yiqilib berasan. Agar yo‘q desang, hozir tamom qilamiz.

Azizxon kuldi. Bu kulgi yigitlarning hamiyatiga tegdi.

– Yo‘qmi?

U epchillik bilan birining iyagiga musht tushirdi, ikkinchisining pichoq ushlagan qo‘liga etigining uchi bilan tepdi. Pichoq uchib ketdi.

– Qo‘rqadigan nomardni boshqa joydan izla. Borib polvoningga ayt, kechagi gap – gap.

U shunday dedi-yu, kontsert ko‘rayotganlar davrasiga kirib ketdi. Azizxon kontsert paytida ham titrog‘i bosilmay labini tishlab, musht tugib o‘tirdi.

Nihoyat kontsertning so‘nggi nomeri oldidan kurash bo‘lishi e‘lon qilindi. Skameykalar doira shaklida qo‘yib chiqildi. O‘rtaga kattakon brezent palos yozildi. Uch qavat belbog‘ boylagan Jo‘ra polvon G‘oyibov belidan pastini u yoq-bu yoqqa olifta siltab o‘rtaga chiqdi. U bugungi kurashda kanalda ishlayotgan Andijon, Namangan, Farg‘ona, Isfara polvonlari qatnashishini aytib, ularni nomma-nom chaqirdi. Ular orasida Farg‘onaning Zirillamasidan kelgan yosh polvon Azizxonning ham nomini aytib chaqirgan edi, Azizxon davra o‘rtasiga chiqmadi. Jo‘ra polvonga qarab, shattaman, degan ishora qilib qo‘ydi, xolos. Jo‘ra polvon kurash shartlarini ayta boshladi.

– Bir marta yiqitganga qo‘ng‘iroqli soat, ikki marta yiqitganga bitta patifon, “Ro‘molim” plastinkasi bilan. Plastinkani shu qo‘shiqni ijro qilgan Tamaraxonim opamizning o‘zlari taqdim qiladilar. Uch marta yiqitgan yo bir marta yiqitib talabgor chiqmagan polvonga bitta “Ukraina” velosipedi sovrin beriladi.

Davraning oldingi qatorida polvonlar choponlarini taglariga bosib talabgor kutib o‘tirardilar. Odatda kurashni boshlab olish qiyin. Hadeganda o‘zi otilib chiqib men tushaman deydigonlar kam bo‘ladi. Polvonlar raqibim kim bo‘larkin, deb jimgina yer ostidan xaloyiqqa qarab o‘tirishipti. Esh polvon ancha tashvishli ko‘rinardi. Jur‘atsizlik bilan davra ahliga ko‘z yugurtirib undan raqibi Azizxonni izlardi. Azizxon ham boya jahl ustida tugilgan mushtini yozishni ham unutilib, undan ko‘zini uzmay turibdi.

Jo‘ra polvon davrani bir aylanib Azizxonning oldiga keldi. Epchillik bilan bilagidan ushlab o‘rtaga tortdi. Azizxon nima bo‘layotganini bilmay silkinib o‘rtaga tushdi.

– Zarkentning Zirillama qishlog‘idan chiqqan yosh polvon. Talabgor bormi?

Uning jussasi u qadar ko‘zga tashlanmas, bir qarashda polvon ekanligi bilinmas edi. Polvonlar unga beparvogina qarab qo‘yishdi. Esh polvon o‘rnidan turishga chog‘lanayotgan edi, da‘voshilardan biri o‘rtada o‘tirgan miqti gavdali, qop-qora, ko‘ksi ayollarnikiga o‘xshagan o‘rta yashar bir polvonni turg‘izdi. U Azizxonni pisand qilmay iljayib qaradi. Uning bu qarashida, chaynamay yeb qo‘yaman buni, nima qilasizlar yosh bolani uvol qilib, degan ma‘no barq urib turardi.

– Qalay, tushasanmi? – dedi Jo‘ra polvon Azizxonga.

Azizxon bo‘pti, dedi. Ikki tarafning da‘vohisi belbog‘larni boylab tugunini orqa tarafga o‘tkazib ikkovini bel oldirib qo‘yishdi. Qora polvon juda beparvo edi. Bolani bir kuchantiray, mard bo‘lsa ko‘tarib ko‘rsin, deb qo‘yib bermoqchi bo‘ldi. Azizxon ortiqcha mulozamatni bilmas, qaysi tarafdin o‘ng kelsa, o‘sha tarafga otadigan polvonchalardan edi. U bir silkinib Qora polvonning belini tortib qoldi. Polvonning, ih, yeding, bola degan ovozi qulog‘iga kirgandek bo‘ldi. Azizxon parvo qilmay bir intilib uni tizza bo‘yi ko‘tardi-yu, aylantirib o‘tirmay davra o‘rtasiga oborib oyog‘ini yerga tegizmay turib bosdi. Qora polvonning ikki yelkasi yerga qadaldi-qoldi.

Jo‘ra polvon Qora polvonning changini qoqib, Azizxonni belidan olib ikki marta ko‘tarib qo‘ydi-da, davraga qarab, Aziz polvon yengdi, deb e‘lon qildi. Qora polvon hech kimga qaramay davradan etak silkiib chiqib ketdi.

Jo‘ra polvon Azizxonni bilagidan ushlab davra aylantira boshladi. Odamlar unga pul uzata boshlashdi. Azizxon qip-qizarib ketdi. Umrida u bunaqa qilmagan edi. Jo‘ra polvonning qo‘lidan yulqinib chiqib joyiga o‘tirmoqchi bo‘ldi. Bir chol yo‘lini to‘sib chiqdi.

– Jinni bo‘lma, bolam. Bu kurashning taomili. Olmasang, xaloyiqni xafa qilasan.

Azizxon uning gapiga quloq solmay chetga borib o‘tirib oldi. Ammo o‘rtaga pul ko‘tarib tushayotgan yigit-yalanglarni qaytarib bo‘lmasdi. Jo‘ra polvon bir chorsi pulni uning oldiga keltirib qo‘ydi.

– Bu ona sutidek halol.

Azizxon uyatdan boshini egib qimirlamay turardi.

Da‘voshi kurash uzoq cho‘zilmaganidan yosh polvon hali charchamaganligini bilardi. Unga yana talabgor so‘radi. Bu gal birov, men, deb chiqmadi. Azizxon g‘alaba nash‘asini surardi. Endi uning boqishlari ham, o‘rtada lapanglab yurishlari ham boshqacha edi. Butun taqinchoqlari bilan davraning oldingi skameykasida yalt-yult qilib o‘tirgan Tamaraxonimga qarab, salom bergandek iljayib qo‘yardi.

Polvonlar bir-birlarini turtib “sen chiq, sen chiq”, deb shivirlashardi. Butun Farg‘ona vodiysiga yog‘och polvon deb nom chiqargan, saksovludek tanlari bujmayib ketgan novcha polvon bir qo‘li bilan yerga tiralib, yo pirim, deb o‘rnidan turdi. Davra ahli birdan uh tortib yubordi. Tomoshabinlar bu polvonni yaxshi

bilishardi. Shuning uchun ham har yer-har yerdan ovoz chiqa boshladi:

– Hoy Yog‘och, tenging bilan tush. Kuning yosh bolaga qoldimi?

– Essiz shundoq gavda. Qo‘y-e!

– Kenja o‘g‘ling tengi bola bilan bellashgani uyalmaisanmi?

Ammo qator o‘tirgan polvonlar uni ishqab, qaytmaslikka undashardi.

– Bir jig‘ini ezib qo‘y bu tirranchani. Chiranchoqlik qilyapti. Buzoqning yugurgani somonxonagacha. Ikkinchi kurash tushmaydigan qilib, belini qirsillatib qo‘y.

Bu gaplarni Azizxon eshitib turardi. Ko‘nglida shu maqtanchoq bilan bellashsam ham bellashaman, bellashmasam ham bellashaman, deb ahd qildi. Shundan keyin, bas, davradan obro‘yim borida chiqib ketaman.

Jo‘ra polvon Azizxondan rozimisan, deb so‘radi. Azizxon bosh irg‘ab, xo‘p, dedi. Odamlar ikki tarafga bo‘linishdi. Birov tushmasin dedi, birov tushsin deb shovqin ko‘tara boshladi. Boya pul yig‘ishdan qochma, degan chol o‘rnidan turib qo‘lini paxsa qilganicha Jo‘ra polvon tomon baqirib kelardi:

– Esing bormi, Jo‘ra. Bolani mayib qilmoqchimisizlar?

U shunday deb Azizxonning oldiga keldi, he yo‘q, be yo‘q, uni turtib davradan chiqara boshladi. Azizxon ko‘nmadi. Odamlar orasidan, qo‘yib beringlar, bolaning o‘zi turib beryapti-ku, degan ovozlari chiqa boshlagandan keyin chol boshini sarak-sarak qilib o‘rniga borib o‘tirdi.

Azizxon Yog‘och polvonning kurashini Marg‘ilon bog‘ida ko‘rgan edi. Uning bo‘yi, qo‘llari uzun bo‘lganidan raqibiga belini bermay davrada uzoq olib yurardi. Bu polvon ko‘pincha qo‘lining uzunligiga ishonardi. Azizxon bo‘lsa uning yelkasidan kelar, qo‘llari ham kaltagina edi. Bu polvonni faqat kuch bilan, ayniqsa, bilak kuchi bilan olish mumkin edi.

Ikki tomonning belbog‘i tekshirilib bel olishtirishdi. Da‘vo-shilar orqaga chekinib ikkovini qo‘yib berishdi.

Yog‘och polvon Azizxonning belbog‘ini bilagiga ikki o‘rab o‘zidan salkam bir metr narida hadis olardi. Azizxonning qo‘li esa uning belbog‘ini biqin tarafdangina ushlagan edi. Davrada yana shovqin ko‘tarildi,

– Belini bersin, bu qanaqasi!

– Belbog‘ni biqinining orqasidan ushlatsin. Bu qanaqa g‘irromlik!

Yog'och polvon qichqirayotganlarga masxaraomuz qarab il-jayar, bekorga baqiryapsizlar, hozir polvoningniyam xam-xam qilib qo'yaman, degandek ko'zini qisib qo'yardi.

Polvonning qo'li Azizxonni kuch bilan o'ziga tortar, ammo bir qarich ham oldiga siljitolmasdi. Davrani ikki bor hadis olib aylanib chiqishgandan keyin yog'och polvonning peshanalaridan ter quyilib kela boshladi. Ammo Azizxon hamon sal bukchayganicha payt poylab, og'irligini u oyog'idan bu oyog'iga tashlab tebranib uni davra bo'ylab sudrab yurardi. Davrani to'rt aylanishganda Yog'och polvondan ter hidi burqsib kela boshladi. Beshinchi aylanishda yog'och polvonning to'nidan Azizxonning qo'liga ter nami sizib chiqdi. Azizxon ichida, Yog'och polvon endi holdan toydi, deb o'yladi-da, butun kuchini bilagiga olib o'ziga torta boshladi. Yog'och polvon qancha kuchanmasin, be-lini orqaga qaytarolmasdi. Borgan sari Azizxonning bilagiga mixlangandek oldinga surilardi. Azizxon bir silkindi. Shu silkinish Yog'och polvonning oyog'ini sudrab, belbog'ini Azizxonning ko'kragiga olib chiqdi. Endi Azizxon chaqqonlik bilan xuddi bolalar o'ynaydigan pildiroqdek davra o'rtasida chir aylantirib otdi.

Hali Yog'och polvon o'rnidan turmay Esh polvon o'rtaga chiqdi.

– Men tushaman. Men ham bir tushib ko'ray.

Davra gurillab shovqin sola boshladi.

– Tushma, bola! Bo'ldi! Charchading! Ikkitasini charxpalak qilding, yetadi!

– Hoy, Esh, esing bormi? Bir marta ko'cha o'rtasiga uloq-tirgani kammidi?

Azizxon qiziq bir holga tushdi. Agar kurashmay desa, Esh polvonga va'da berib qo'ygan. Tushay desa, o'zi ancha charchagan, undan tashqari, Esh polvon ataylab uning charchashini kutayotgani bilinib qolgandi. Azizxon bir so'zli yigit. So'zidan qaytish nomardlik bo'ladi. Tavakkal, nima bo'lsa bo'ldi, tushaman deb belbog'ini qayta bog'ladi. Davra birdan jimib qoldi. O'z obro'si bilan davradan chiqqani ma'qul edi, deyatganlar ham nima bo'larkin deb qiziqib qolishdi.

Bu orada chaqqon bir yigit davra aylanib uzatilgan sonsiz qo'llardan pullarni olib chorsiga tugdi. Lutfinisa o'tirgan joyga keltirib qo'ydi. Lutfinisa uyalganidan yerga kirib ketay derdi.

Esh polvon yasama odob bilan kelib ikki qo'llab u bilan ko'rishdi. Keyin akalarcha yelkasiga qoqib, atay hammaga eshittirib, balli azamat, dedi. Keyin katta bo'lgani uchun unga belbog'ini tutib berdi.

Azizxon belidan oldi. Hali uning kuchi qanaqa, beli qanday, epchilligi qandoq, bilmasdi. Oldingi janjal jahl ustida bo'lgan ish. Uni hisobga olmasa ham bo'ladi. Haqiqiy kurash bel olishganda bo'ladi. Azizxon bel olib u bilan barobar tebranib borarkan, Esh polvon g'irromlik qilmasmikin, deb o'ylardi.

Kuch sinashib davrani to'rt aylanishdi. Bu orada Esh polvon charchadimi, deb sinash uchun bir-ikki belidan tortib qo'ydi. Azizxonning beli qotib qolgandek na egilardi, na bukilardi. Ikki marta ko'tarmoqchi bo'ldi, raqibi xuddi oyog'iga tosh bog'lagandek yerdan uzilmadi. Beshinchi aylanishganda Esh polvon uni yengishdan umidini uzdi. Azizxonning qulog'iga sekin shivirladi:

– Va'dang esingdami, ukajon?

– Esimda, – dedi Azizxon ham shivirlab.

– Yana ikki aylanamiz-u ajrashamiz.

– Yo'q, Polvon aka, ovora bo'lasiz. Bir yoqli qilmay ajralish yo'q.

– Va'dangni unutibsan-da, bola?

– Agar o'rtaga qo'sh pichoq oralamaganda, o'lay agar, yiqilib ham berardim. Nomardlik qildingiz. Endi mardlikni sizga o'rgatib qo'yganim bo'lsin.

– Ukajon, yosh ekansan. To'yingga qarashib yuboraman. Bitta qo'y mendan. Xohlasang naq ikki yuz so'm beraman.

– Kam!

– Uch yuz beray.

– Kam! Kam! Kam! – dedi baqirib Azizxon.

– Sekinroq! Jinni bo'ldingmi! Xohlasang besh yuz beray.

– Xo'p! – dedi Azizxon na'ra tortib.

U shu xo'p degandayoq Esh polvonni tizza bo'yi ko'tarib olgan, aeroplan parragidek aylantira boshlagan edi. Zum o'tmay Esh polvonni yerga bosdi.

Esh polvon yotgan yerida so'kindi.

– Nomard, yeding-a!

To Jo'ra polvon yetib kelguncha davra ular ustiga yopirildi. Azizxonni ko'tarib ketishdi...

Kurash tugab, hamma har tarafga tarqab ketdi. Esh polvon o'tirgan yerida o'tiraverdi. Yurt oldida shu yaqin orada ikki marta mulzam bo'lish qaddini bukib qo'ygan edi. Bu tirrancha bola va'dasida turmadi. Otasi tengi odamni oyoq osti qildi. Hech bo'lmaganda, ajrim qilmay belbog'idan qo'lini olganda ham boshqa gap edi.

Esh polvon og'ir gavdasini bir qo'liga tashlab tiranib o'rnidan turdi. Yog'och uchlariga ilingan mash'alalar o'chib, so'xtasigina

tutab, qozon tagidagi kuyindidek miltirab turardi. U asta-asta bosib katta yo'l tarafga keta boshladi. Kuyganyor samovarlaridan qo'shiq, qiyqiriq tovushlari eshilib turibdi. Ko'prikning nar-yog'ida — ochiq maydondagi "yashil teatr" deb atalmish joyda Toshkentning Hamza teatri "Boy ila xizmatchi"ni ko'rsatyapti. Hamma o'sha yoqda. Hozir kurashdan tarqaganlar o'zlarini samovarlarga urishgan.

Esh polvon ko'pchilik orasiga borishga beti chidamay, yo'l chetida qayoqqa borishini bilmay turardi.

Qorong'i yo'ldan ikki-uch kishi gaplashib kelishyapti. Tovushidan ularning biri Ali polvon ekanligini darrov bildi. Ali polvon ko'p kurashlarda sovrin olgan chapdast polvonlardan. Boya u ham polvonlar qatorida o'tirgan edi. Nega u eski qadrdoni Esh polvon yengilganida otilib chiqib, kelgindi go'dakni yerga aylantirib urmadi? Esh polvon shu topda bu qilmishi uchun unga achchiq-achchiq gaplar aytib, xumordan chiqmoqchi bo'ldi.

Ali polvon sherigi bilan nimanidir qizishib gaplashib kelardi. Birdan Esh polvonga ko'zi tushdi.

— Eshmisan? Nima qilib turibsan? Hali ham ketmadingmi?

— Ochiq go'rga ketamanmi? — dedi Esh alam bilan, — qoyil-mane sizga.

Ali polvon uning nimadan kuyinganini darrov payqadi. O'lganning ustiga tepgan, degandek gapiga yarasha javob qildi.

— Battar bo'l. Harifining kuchini chamalamay bel olishadigan polvonning ko'radigan kuni shu.

Esh polvonning dami ichiga tushib ketdi. Bir oz til chaynab turganidan keyin jur'atsizgina javob qildi.

— Men sizga ishongan edim, Ali aka. Meni-ku yiqitdi. Nega siz dik etib tura qolmadingiz? Qasdimni olarsiz, deb o'ylagan edim.

Ali polvonning jahli chiqib ketdi.

— Sira esing kirmadi, kirmadi-da. Polvon degan birovning kuchiga ishonib kurash tushadimi hech jahonda?! Avval mundoq bir chamalab ko'r, chog'ing kelsa, ana undan keyin davraga tush.

Esh polvon ming'irladi.

— Esingizdan chiqibdi-da, Ali aka. Siz kuragingizni yerga ishqab qaytgan mahallarda O'sar borib harifingizni chaparasta qilib qolardi-ku. Siz shunaqasiz, o'zingizni o'ylaysiz.

Ali polvon bilan O'sar polvon Izboskanning To'rtko'l qishlog'idan. Ikkovi ham kurash hadisini Ali polvonning otasidan o'rganishgan. Ikkovidan birontasi kurashda yiqilib qolgundek

bo'lsa, ikkinchisi belini bog'lab, qayda kurash bo'lsa boradi. Ali polvon bor joyda hech qachon O'sar polvon davraga oldin tushmasdi. Shuning uchun ham vodiy polvonlari O'sarboyni "Zapasnoy polvon" deb atashardi. Esh polvon shu gaplarga ishora qilmoqchi bo'ldi.

— E, ha, — dedi Ali polvon. — Bu boshqa gap. Shu gapni o'ng qulog'-u chap qulog'ing bilan eshitib qo'y. Men hech qachon arzon obro' olishga intilmaganman. Yengilishiga ko'zim yetgan polvonning belini tutmayman. Chog'im kelmaydigani bilan bellashaman. Eshitganmisan: osilsang ham baland dorga osil, degan gapdi. Sen boshqa, men boshqa. Sen polvonning holdan toyganini qidirasan. Men kuchga to'lganini. O'sarboyni tilga olding. O'sar hech mahal meni yiqitgan polvonni mening ko'zim oldida yiqitmagan. O'zi borib, yangi davra, yangi tomoshabin oldida yengib kelgan.

— Bilaman, bu bola sizni ham charxpalak qilib urardi. Shundan yuragingiz dov bermadi.

— Ehtimol. Lekin shuni bilib qo'yki, bu bola hozir sher bo'lib turipti. Oldidan borsang, oldingdan otadi, yonboshidan borsang, yonboshingdan otadi.

Esh polvon ochiqchasiga o'tdi.

— To'g'risini ayting, Ali aka, shu bolani yiqita olarmidingiz?

— Kurashning boshidami, oxiridami?

— Bu nima deganingiz? Tushunmadim.

Ali polvon kuldi.

— Charchamasdan oldinmi yoki charchab holdan toygan paytidami?

— Bari bir. Qaysi paytda bo'lsa ham.

Ali polvon salmoqlab gap boshladi:

— Birinchidan, charchagan polvonni yiqitish mening taomilimda yo'q. Ikkinchidan, u bilan bel olishmasdim.

— Nega? — jahl bilan so'radi Esh polvon.

— Otamning maslahati ham, vasiyati ham shu bo'lgan. Men o'n yetti yoshimda xuddi shu polvonga o'xshab bir davrada yetti azamat nomdor polvonni alla qilganman. Ishonmasang, mana, Yusufjon aka shu yerda. Borib so'ra, Yusufjon aka o'sha kurashda qiziqchilik qilgandi. Qancha sovrin-u pullar bilan qishloqqa qaytganman. Otam rahmatlik sovringa olgan to'n-u pullarni orqalab Marg'ilonga ketganlar. Yiqilgan polvonlarning yelkasiga o'sha to'n'larni tashlab, bolamni duo qilinglar, saflaringda yelkasi yer ko'rmay yursin, deb katta qozonda osh damlab yedirib kelganlar. Qaytib kelganlarida meni oldilariga o'tqazib bir gap

aytgan edilar. Hali-hali qulog'ında jaranglab turipti bu gap. "E, nodon, ular sendan yiqiladigan anoyi polvonlardan emas, atayin yiqilib berishgan. Azbaroyi oramizga bitta navqiron polvon kirsin, deganlaridan shundoq qilishgan". Ana, eshitdingmi?

Esh polvon hamon o'jarlik qilib o'z gapini mahkam ushlab turardi.

– Yo'q, menga ayting, undan yiqilarmidingiz?

– Ochig'ini bilmocchimisan? Yiqilmasdim. Yiqitardim. Agar shunday qilsam avji kuchga to'lgan, ko'ziga dunyo jilva qilib turgan, g'oliblik nash'asini surayotgan bir navqironning boshini xam qilib qo'yardim. Ana shuning uchun tushmadim. Sen bo'lsang, xafa bo'lib yuribsan. Menga qara, endi yiqilibsanmi? Yiqilib yurgan polvonsan. Ja oriyating zo'r bo'lsa, uzoqroq joyda kurash tush. Yiqilganingni qishloqdagilar bilmasin. Zinhor, bazinhor qishloqda tusha ko'rma.

Esh polvon undan tasalli topadigan biron gap eshitmagan-dan keyin qo'l siltab, zarda bilan jadal yurib ketdi. Ali polvon uning orqasidan, nodon, nodon, deganicha qarab qoldi.

Azizxon kechasi bir qo'lida budilnik soat, velosiped egariga patefon, uning ustiga bir chorsi pul qo'yib uyga qaytdi. Lutfinisa undan oldin yetib kelgan, uning bu bema'ni polvonligidan, ayniqsa pul yig'ishidan achchig'i kelib, choyshabni boshiga yopib yotib olgan edi. Azizxonni xonaga kundek yorishib kirganini ko'rib chiroyi ochildi. Azizxon patefon qulog'ini burab hozirgina Tamaraxonim o'z qo'li bilan bergan plastinkani qo'ydi.

Yarim kechasi, hamma shirin uyquda yotgan saraton tunida "Ro'molim" qo'shig'i yangrardi. Lutfinisa turib patefon membranasini ko'tarib qo'ydi.

– Bo'ldi-e, odamlar uxlayapti.

Azizxon o'zidan-o'zi kular, undan boya Tamaraxonim o'pganda o'rnashib qolgan atir hidi gupillab kelardi.

XI

Mirobboshining gapi rost chiqdi.

Bo'ron bo'lgandan ikki kun keyin daryo suvi pasaya boshladi. O'kirib, qirg'oqqa sapchib oqayotgan daryo boshi yanchilgan ilondek asta holdan ketdi. Tun yaringa borganda o'ng qirg'oq taglaridan loyqa ochilib daryo o'rtaga qocha boshladi.

Sepoyachilar qirg'oqda shay bo'lib turishipti. Temir yo'l tarmog'i uchun do'ng qo'porayotgan polvonlar ham ishni to'xtatib shu tarafga kelishgan.

Soqoli ko'ksiga tushgan bir kekxa yaktagini yechib, yalang oyoq, yelkasida xoda bilan loyqaga tushdi. Sohildagi traktor farasini yoqib unga qaratdi. Cholning oppoq soqollari yanada oqarib ko'rindi. Bu Xirabek qishlog'idan kelgan, umrini sepoya tashlab o'tkazgan Hasan ota Bo'ronboyev edi.

Chol loyqada tizzasigacha botib turarkan, qirg'oqdagilarga qarab qo'lini fotihaga ochdi.

— Qani, bir omin denglar. Yurtimiz suvga serob bo'lsin. Suvga zor bo'lib o'tgan ota-bobolarimizning arvohlari yor bo'lsin. Omin!

Hamma barobar fotihaga qo'l ochdi. Shundan keyin yelkasiga arqon, sim o'ramini tashlagan, xoda, yog'och, shox-shabba qo'ltiqlagan kishilar birin-ketin suvga sakrab tusha boshladilar.

Hasan ota uchta xodaning uchini birlashtirib boshqa sepoyachilar ko'magida sim bilan bog'ladi. Boshqalar ham shunday qila boshlashdi. Chol uchi bog'langan uchta xodaning birini ayirib o'ziga tortdi. Uch kishi kerilgan uchta xodaning uchini yelkalab suvga tushishdi. Hasan ota mo'ljalidagi joygacha oqib borgandan keyin xodaning beliga minib suv tubiga bosa boshladi. Cholning bo'yin tomirlari bo'rtib chiqqani, iyaklari orqaga tortilgani traktor farasida aniq ko'rinib turardi. Xodaning uchi suv tubiga yetib qadaldi. Orqa tarafdagi ikki xoda suv betiga qalqib oldinga intilmoqchi bo'lib turardi. Ikki azamat uni kuch bilan pastga bosar, oqim ularga kuch bermay xodani suv betiga qalqitib olib chiqardi. Loyqada turgan yigitlardan yana ikki kishi suvga tushdi.

Projektor nuriga panjalarini tutib, o'chiringlar, ishorasini qildi. Traktor ovozi tindi.

Tong yorishib qolgan, qirg'oq bimalol ko'rinardi. Chol boshqa sepoyachilarga tashlanglar ishorasini qildi. Uchi bog'langan xodalarni sudrab yigitlar daryoga tusha boshladilar. Ikkinchi sepoyaning oyog'i daryo tagiga yetmay suv tortib ketdi. Xodaga minib olgan yigitlar ham suvda qalqib oqib borishardi. Chol qichqirdi:

— Azamat yigitlar bo'lsa, tushsin. Tez, tezroq. Tez, deya-man!

Chol g'ayratiga chidamay xoda ko'tarib kelayotg'an yigitlardan birini nari itarib oqib kelayotgan xodaga bir sakrab minib oldi. Suv xuddi shu yerga kelganda ko'pirib, charx urib o'tardi. Sepoyachilarga sen tush, sen tura tur, deb turgan Abdusamad mirobboshi kallasini sarak-sarak qildi.

— Ota zrya suvga tushdi. Charchab qolgan. Bo'z bolalar tushishi kerak edi. Chol tushmagur, g'ayratiga chidamadi. Bolalar,

hushyor bo'lib turinglar! Bittang yoniga suzib bor, sepoyaning uchini bosishga cholning chog'i kelmaydi. Pomogay qil!

Uch yigit jadal suvga tushdi. Ammo to'lqin ularni ham pastga surib ketdi.

Chol sepoya uchini tubiga botirdi. Ammo uzoq ushlab turish unga mushkul edi. Yigitlar bo'lsa unga yetolmay oqib ketishyapti.

Azizxon qirg'oqdan anchagina yuqorida tomosha qilib turardi. U shartta yaktagini yechib Lutfinisaga berdi-yu, ot-arava qatnaydigan ko'prikkaga qarab chopdi. Tomoshabin odamlar orasini yorib ko'prikkani panjarasiga chiqdi. U yoq-bu yoqqa qaramay o'zini suvga otdi. Suv sepoya tashlanayotgan tarafga shitob bilan oqardi. Azizxon qulochkashlab oqim tarafga suza boshladi. Zum o'tmay oqim uni sepoyachilar oldiga surib keldi. Azizxon chol qo'llari qaltirab bosib turgan xodaga tirmashib kuch bilan uni quyiga bosa boshladi. Chol unga qichqirdi:

— Narigi oyoqni bos, narigini!

Azizxon sepoya uchiga chiqib, tepadan xodani bosib tushdi. Chol yana qichqirdi:

— Endi bunisini bos, bunisini bos, bolam! Umringdan baraka topkur, tez bos!

Azizxon qulochini kerib uchi suv betida hamon qalqib turgan xodaga minib oldi-da, zarb bilan bosganidan o'zi ham suv tagiga kirib ketdi.

Hamma jim. Nafasini ichiga yutgan miroblaru qirg'oq to'la odamlar nima bo'lishini kutib turishardi. Sal fursat o'tib suv betida Azizxonning boshi ko'rindi. U yelkasigacha suvdan chiqib boshini bir silkidi.

Hamma barobar yengil tin oldi.

Suvning eng hayqirib oqayotgan joyida sepoya uch oyog'ini yerga mustahkam tirab olgan, suv uni qimirlatolmay qolgan edi.

Azizxon cholga qarab iljaydi. Hamon sepoya xodasini quchoqlab turgan cholning peshanalari tirishib, bir tomonga qiyshayib borardi.

— Bolam, oyog'imning tomiri tortib qoldi.

Azizxon suvda tomir tortishining nimaligini yaxshi bilardi. Suvda tomir tortishi — o'lim. Endi cholning o'zi suzib chiqolmaydi. Oyog'i changak bo'lib uni suv tubiga tortadi. Qaytib chiqish mushkul. Azizxon chaqqonlik bilan cholning oldiga intildi.

— Bo'ynimga osiling, osiling, ota!

Chol og'riq azobi ichida unga osildi. Bu uning birinchi marta suvdan yengilishi edi. Hamma vaqt suvdan g'olib chiqqan pahlavon endi atrofda kuzatib turgan minglab ko'zlarga boqolmay,

boshini Azizxonning yelkasiga qo‘yganicha harakatsiz qirg‘oqqa kelardi.

Azizxon Hasan otani opichlab to‘lqinlar betida qalqib-qalqib qirg‘oqqa tomon suza boshladi.

Nihoyat, toshga tarmashib cholni qirg‘oqqa olib chiqdi. Birpasda odamlar ularni o‘rab olishdi. Azizxon cholni hali oftob tegmagan muzdek qumga yotqizib, bukilib qolgan tizzasini uqalay boshladi. Yelkasida sumka bilan sanitar xotin yetib keldi. Nima bo‘lganini surishtirib o‘tirmay paxtaga spirt tomizib, cholning tomiri tortishib qolgan joyini ishqalay boshladi. Chol qanchalik azob tortmasin, qanchalik joni og‘rimasin, tishini tishiga qo‘yib, ingramay turib berdi. Kimdir Azizxonning yelkasiga to‘n tashladi. U to‘nni bir yelka qoqib tushirib yubordi-da, odamlar orasiga kirib ketdi.

Orqadan odamlarning o‘zaro gaplari eshitilib turardi:

– Azamat yigit ekan!

– Qayerdan ekan bu yigit?

– Sherning kuchi bor ekan azamatda.

Azizxon o‘zini kuzatib turgan odamlar orasidan allaqanday g‘urur bilan o‘tib borardi.

Lutfimisaning bo‘ladigani bo‘lgan ekan. Azizxon kelishi bilan unga sal jon kirgandek bo‘ldi. Ammo hamon ikki tizzasi titrar, xuddi ichida bir nimasi uzilib ketgandek, qaddini ko‘tarolmay entikardi.

– Sovqotgandirsiz? Tez kiying, kiying yaktakni.

Azizxon bu ishlar bizga cho‘t emas, degandek beparvo yaktakni kiyib oldi. Shu payt ular oldida Abdusamad mirobboshi paydo bo‘ldi.

– Bu yoqqa yur, brat, seni kattalar so‘rashyapti.

Lutfinisa ro‘molchasi bilan uning ho‘l bo‘lib ketgan sochlari, loyqa o‘rnashib qolgan qoshlarini artib qo‘ydi.

– Etigingizni kiyib olsangiz bo‘lardi, – dedi Lutfinisa kattalar oldiga yalang oyoq borishini ep ko‘rmas.

Azizxon qo‘l siltab olifta yurish bilan mirobboshiga ergashib keta boshladi. Lutfinisa hamon javrardi:

– Hoy, kiyib oling, ayb bo‘ladi.

Azizxon unga baqirib berdi:

– Yana suvga tushaman, bildingmi! Sen aralashmay tur!

Mirobboshi uni do‘ng oldiga boshlab bordi. U yerda hukumat rahbarlari ishni kuzatib turishardi.

– Iya, ana xolos, o‘zimizning polvon bola ekan-ku, – dedi kulib Belyavskiy.

Azizxon kattalar oldida odob bilan qo‘l qovushtirib turaverdi.

Lutfinisa yuzini ro‘moli bilan yashirdi. Yusupov bo‘lgan voqeani Oxunboboyevdan eshitgan, qotib-qotib kulgan edi. Hozir ish tig‘iz bo‘lganidan o‘tgan gapni titkilab o‘tirgisi kelmadidi. Faqat bu azamat yigitning jussasiga yana bir qarash, hozirgi qilgan ishiga ikki og‘iz iliq gap aytish uchun chaqirtirgan edi. Ammo Yusupov hazilkash, oddiy odamlar bilan dehqoncha gaplashmasa, to‘ymay qoladigan odati bor edi, Azizxonni gapga tutdi.

– Nega undoq qilding, o‘g‘lim? – dedi Lutfinisa tomonga ishora qilib.

– Yaxshi ko‘raman-da, – dedi Azizxon bolalarcha soddalik bilan.

– Yaxshi ko‘rgan odam sovchi yuboradi, to‘y qiladi.

– Akasi menga bermasa nima qilay?

– Zo‘rlikni qarang-a! – dedi Yusupov kulib.

Belyavskiy Azizxonni xijolatlikdan qutqarmoqchi bo‘ldi.

– Gunohidan o‘ting, Usmon Yusupovich. Bugungi qilgan ishi uchun har qancha gunohidan o‘tsa bo‘ladi. Bu yigitda traktor kuchi bor. Kanal qurilishiga yana bitta ekskavator keldi desa ham bo‘ladi.

– Bo‘pti, – dedi Yusupov tan berib. – Kanal bitgandan keyin bitta to‘y qilib oshingni yeymiz. Ammo o‘zingni ehtiyot qil, bola. Sen bizga kerak odamsan. Keyin bafurja gaplashamiz.

Azizxon xo‘p degancha qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib sepoyachilar oldiga tushib ketdi. Yusupov uning kuch yog‘ilib turgan jussasiga zavq bilan qarab qoldi.

Sepoya daryo o‘rtasigacha tashlanishi kerak edi. Suvning yarim yo‘li to‘silib to‘g‘on o‘rni qaziladi, beton quyiladi. Ana undan keyin qolgan yarmi to‘silib, suv eski o‘rnidan oqadi.

Sepoyachilar hamon suv bilan olishib sepoya tashlashardi. Azizxon yaktagimi yechib Lutfinisaga berdi-da, hammaning ko‘zi oldida o‘zim suvga otdi. Daryo ichida ellikka yaqin yigit xodalarning uchini suvga botirishga urinishar, ba‘zilari eplayolmay qo‘ldan chiqazib yuborar, ba‘zilari esa sepoya bilan birga oqib daryoning etak tomonidan arang suzib chiqardilar.

Azizxon qaysi sepoyani bostirish qiyin bo‘lsa, o‘sha joyga suzib borar, butun polvonlik kuchini ishlatib xodani suv tagiga sanchardi. Ora-sira tepada turgan hukumat rahbarlariga, ko‘r-yapsizlarmi, qoyil qilyapmanmi, degandek qarab qo‘yardi. Darhaqiqat, ularning ko‘zlari Azizxonning chaqqon harakatlarida, ajib bir epcillik bilan sepoyadan sepoyaga o‘tishiga qadalgan edi.

Qirg'oqda yuzga yaqin yosh-yalang shox-shabballarni bog' qilib sim bilan o'rashardi. Tushga yaqin yigirma uchta sepoya tashlab bo'lindi. Polvonlar suv bilan olishib ancha toliqishgan, tanlaridan sovuq o'tib badanlari ko'karib ketgan edi.

Mirobboshi karnayni og'ziga qo'yib daryo ichidagilarga komanda berdi:

– Bas endi, yigitlar. Dam olishga chiqinglar!

Qirg'oqqa suzib chiqayotgan Azizxon mirobboshining qo'li-dan karnayni olib daryoga qarab qichqirdi:

– Chiqmay turinglar, polvonlar. Hali ish bitgani yo'q. Sepoyalarni bir-biriga sim bilan bog'lashimiz kerak.

U shunday deb chetga tashlab qo'yilgan bir o'ram simning uchini belbog'iga ilib suvga tushdi.

Mirobboshi “hoy bola, jinni-ınni bo'ldingmi, qayt orqangga”, deganicha qichqirib qoldi. Azizxon uning gaplariga parvo qilmay, belida sim uchi bilan eng oxirgi sepoyaga qarab qulochkashlab suza ketdi. Suvdan chiqayotgan sepoyachilar yana orqalariga qayta boshladilar. Ular ham simni har yer-har yeridan ushlab sepoyalarga torta boshladilar. Azizxon so'nggi sepoyaga yetib keldi-da, simning uchini uchta xoda bog'langan joyiga o'ray boshladi. Keyin chaqqonlik bilan berigi sepoyaga o'tdi. Simni tarang tortib uni ham o'radi. Qolgan sepoyalarga to'rt-beshtadan yigit chiqib ulgurgan, ular ham simni tarang tortib o'ray boshlagan edilar.

Bu g'alati ishdan ko'ngil uzolmagan son-sanoqsiz tomoshabinlar qirg'oqdan jilolmas edilar.

Hamma sepoyalarning boshlari bir-birlariga mustahkam bog'lanib bo'ldi. Qirg'oqdan turib mirobboshi: “Bo'ldi! Chiqinglar!” – deb komanda berdi.

Azizxon sepoya uchidan turib suvga kalla tashladi. Endi u qirg'oqqa emas, oqimga qarshi quloch otib suzib borardi.

Ikki qirg'oqdagi ming-minglab tomoshabinlar o'rtasidan suzib borarkan yasha, azamat, qoyil qilding, umringdan baraka top, degan olqishlar qulog'iga chalinib turardi.

U suzarkan shu paytgacha qilgan ishlarining birontasidan yurtga naf tegmagani, endigina, shu bugun, shu soatda yurt ishi-ga yaroqli odam bo'lib qolganini sezar, yana allaqanday ishlar qilib odamlarning olqishini olgisi kelardi.

Tumonat odam ichida Lutfinisa unga qarab ro'mol silkib turibdi.

Azizxon shuncha odam orasidan faqat uni ko'rar, faqat unga qarab intilardi.

XII

Kechasi xo‘roz ikki qichqirmay Ummatali uh tortib, o‘rnidan turib ketdi. Uning bezovta uyg‘onganini xotini bildi. Indamadi. Nima ham derdi? Bir haftadan oshdiki, ikkovining ichini ari talaydi. O‘g‘lidan u xotirjam! O‘g‘il bola qayerga borsa, kunini ko‘rib ketaveradi. Samovardami, daladami yotib-turaveradi. Ammo birovning qizi bilan qaysi kavakka boshini suqadi? Qishloqdagi malomatlar eri bechoraning boshiga kuniga necha marotabalab yog‘ilyapti.

Xotin boshini ko‘tarib qaradi. Ummatali hovli o‘rtasidagi supada xuddi birovning uyiga xijolatli bir ish bilan kirib qolgan odamdek omonat o‘tirdi. Xotinning ham uyqusi qochdi. Lekin o‘rnidan turib erining oldiga chiqmadi. O‘z holiga qo‘yib berdi.

Ummatalini xayoli olib ketgandi. U bolasini tug‘ilgan kundan to qiz olib qochgan kungacha, bari, barini bir-bir eslardi.

Bu bola nega bunaqa chiqdi? Urug‘larida ham, qishloqda ham, mahallada ham bunaqa odam bo‘lmagandi-ku! Kimga tortdi bu bola? Ummatali avval bolasining sho‘xliklaridan zavqlanib yurdi. Biron marta urmadi. Yaxshi gap bilan yo‘lga solishga urindi.

Zarkent guzaridagi kinixonaga “Chapayev” filmi kelganda Azizxon tengi qishloq bolalariga Xudo berib qoldi. O‘n-o‘n besh martadan ko‘rishdi. Ana shundan keyin bolalarning yarmi “oq”, yarmi “qizil” bo‘lib ertadan kechgacha bog‘ qo‘riydigan tartaralni pulemyot qilib, tomtoshlarda hammani jonidan bezor qilishdi. Azizxon ularga bosh-qosh, Chapayev edi. Eski po‘stakni yelkasiga tashlab, jo‘xori popugidan mo‘ylov yopishtirib, yog‘ochdan yasab olgan “qilich”ni havoda o‘ynatib, bolalar oldida urra-urralab yugurardi.

Ummatali bir kuni uyiga kelsa, Azizxon Tursunboyni ostonaga yotqizib, qorniga “qilich” tirab, gapir xoin, deb do‘q ur-yapti.

Ummatali supa chetida omonatgina o‘tirib bolasini o‘ylarkan, uning qiliqlarini eslab goh iljayar, goh qaylarda yuribsan, yolg‘izim, deb xo‘rsinib qo‘yardi.

Uning ichidan kuchli bir xo‘rsinish keldi. Bu xo‘rsinish olov yalab chiqqandek uning bo‘g‘zini kuydirdi.

Derazadan xotining boshi ko‘rindi.

– Dadasi, qo‘ying endi yoting! Bunaqada dardga chalinib qolasiz-ku!

Ummatali indamadi. O'rnidan turib u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi.

Xotin qorong'i hovlida kezib yurgan erining soyasiga ma'yus qarab turardi.

— Tong otay deb qoldi, dadasi.

Ummatali yurishdan to'xtadi. Bir qarorga kelgandek derazadan bosh suqdi.

— Xotin, bir gap miyamni parmalab turipti. Ko'nglim notinch, yomon xayollar vasvasaga solyapti.

Xotin vahimaga tushib eshik qolib derazadan sarpoychang oshib muzdek yerga oyoq bosdi.

— Voy, o'lay, tinchlikmi? Odamni qo'rqitmang.

— Qo'rqma, qo'rqma. Shayton bir yo'ldan urdi. O'tib ketdi. Borib joyingga yot.

Ummatali xotinini bekor vahimaga solganini bilib qoldi. Yuragi yomon-a!

— Xotin, ko'nglingni tinch tut. Bolalarga bir nima bo'ldimikin, degan bema'ni o'y xayolimdan o'tibdi. Nima bo'lardi? Bolangni bilasan-ku!

Xotin o'zini o'ngladi.

— E, vahimangiz ham bor bo'lsin. O'takamni yoray dedingiz-ku! O'ylashimcha, Azizxoningiz Hojimuqonning oldiga qochgan. Boshqa qayoqqa ham borardi.

Ummatali buni o'ylamagan edi. Beixtiyor, xayriyat-e, deb yuborganini bilmay qoldi.

— To'g'ri aytasan, o'shaqqa qochgan bolang.

Ummatali shunday dedi-yu, sal o'tmay bu fikrdan ham aynidi.

— Yo'q, u yoqqa bormagan. Borsa albatta Hojimuqon uni orqasiga qaytarib yuborardi. Ilgari qochganda ukang Turkistonga borib Hojimuqonga, endi kelsa haydab yuboring, deb tayinlagan.

Xotinining jahli chiqib ketdi.

— Voy, erkak kishi bo'la turib, meni ovutish o'rniga nega gulxanimga fonar yog'i sepasiz? Xotin kishi bo'la turib men sabr qilib o'tiribman-ku, nega siz bay-baylaysiz? Sal og'irroq bo'lingda. Do'st bor, dushman bor. Ahvolingizni ko'rib, battar bo'l, demaydimi?!

Hamma — dov-daraxt, qurt-qumursqa orom uyqusida. Faqat shu ikki odam bedor, behalovat.

XIII

Qora daryo suvi endi shox-shabballarga to‘qnash kelib yo‘lini chap tarafga solgan, daryoning yarmida toshlar, qumlar chiqib qolgan. Sepoya tashlab suv yo‘lini o‘zgartgan joyda taxminan o‘n besh-yigirma metr beridan to‘g‘on uchun poydevor boshlanishi kerak. Bu hali ishning hammasi emas. Bu to‘g‘onning yarmi, xolos. Poydevor qo‘yib bo‘lingandan keyin shox-shabballar, sepoyalar olinib daryoning qolgan yarmiga tashlanadi. Suv Ulug‘nor bilan “Qipchoq ariq”dan oqadi.

Hozir berigi qirg‘oq tarafdin poydevor uchun xandaqlar qazish boshlangan. Ming yillab suv bosimi shibbalab tashlagan qum, shag‘al qatlamlarini qazib zambilda yuqoriga tashib chiqish oson ish emasdi. Mana men, degan polvon to‘rt paqir ho‘l qum solingan qopni yuqoriga arang ko‘tarib chiqadi. Dunyoda ho‘l qumdek og‘ir narsa bo‘lmaydi. Ish qanchalik og‘ir bo‘lmasin, bari bir qum, shag‘al yuqoriga chiqazilishi kerak.

Qurilish shtabi poydevor qaziydiganlar masalasida alohida kengash chaqirdi. Bu kengashni Usmon Yusupovning o‘zi olib bordi.

Qurilish boshlangan kundan buyon respublika yuqori organlarining deyarli hamma rahbarlari ish boshida edi. Respublika xalq komissarlarining hammasi kengashga qatnashardilar.

Shtab boshlig‘i Teshavoy Mirzayev ishning borishi to‘g‘risida qisqacha axborot berdi. U so‘zining oxirida uchta katta uchastkada ish nihoyatda og‘irligini alohida qayd qilib o‘tdi. Uchqo‘rg‘on bosh to‘g‘oni, Lug‘umbek sharsharalari hamda Kuyganyor to‘g‘oni qurilishida ish ko‘ngildagidek ketmayotganini aytdi.

— Nima taklif qilasiz? — dedi uning so‘zini bo‘lib Yusupov. Mirzayev bir oz o‘ylanib qoldi.

— Injenerlardan biron maslahat chiqar deyman. Mana, Belyavskiy oqsoqol, — dedi u Suvto‘raga qarab. — U kishi mahalliy sharoitni yaxshi biladilar. Undan tashqari, projekt ishlarida qatnashganlar. Shu kishi biron nima desalar, yaxshi bo‘lardi. Undan tashqari, Belyavskiy Uchqo‘rg‘on uchastkasiga boshliq. Biron nima o‘ylab qo‘ygandir.

Yusupov Belyavskiyga qaradi. U yonidan bloknotini chiqarib ko‘zoynagini taqdi.

— Po-moyemu... — deb gap boshlagan edi, Yusupov luqma tashladi:

– O‘zbekcha gapiravering. Bilasiz-ku.

Belyavskiy sof Andijon shevasida gapira boshladi.

– Usmon ota, gapdi bo‘ladig‘onini aytsam, texnikaga ishonib, vaqtni boy berib qo‘ymaylik. Butun qurilishda atigi besh-ta ekskavator bor. Uning ikkitasi ishlaymaydi. Bittasi bir soat ishlasa, ikki soat tepasidan tutun qaytarib kundi kech qilyapti. Bir smenada og‘an tuprog‘i to‘rt arava ham bo‘lmayapti. Menimcha, odamlarning kuchiga tayanish kerak. Men Teshavoyini bir-ikki turtib o‘tmoqchiman. Odam tanimaydi. Ishlaydig‘anlar qolib, soyaparvarlarga mukofot berib yuripti. Kecha Kuyganyorga borg‘an edim. Usmon ota, o‘zingiz ko‘rgan edingiz-ku, zarkentlik bolani. Lug‘umbekdan kelib to‘g‘onda ishlayapti, bir ko‘targanda ellik-yuz kilo toshdi yelkasida ko‘tarib tepaga oqchiqib tashlayapti. – Belyavskiy bloknotini ochib nimanidir qidirdi. Keyin ko‘zoynagini olib gapini davom etdirdi.

– Azizxon Ummataliyev degan bola. Menimcha, ana shunaqa azamatlarni Kuyganyordagi polvonlar brigadasiga qo‘shib qo‘yish kerak. Bu ishlar zabardast kishilar kuchi bilan bo‘ladi. Uchqo‘rg‘onda bunaqa brigada allaqachon ish boshlag‘an. Unga g‘alati bir polvon yigitni boshliq qilib qo‘ydim. Do‘nan degan yigit. Bir kunda o‘n to‘rt kuboga yetqazib tuproq qaziyapti. Gapim shu. Esimga kelsa, qog‘anini yana gapirarman.

U shunday deb joyiga o‘tirdi. Yusupovga uning maslahati juda yoqib tushgan edi. Kengash bir og‘izdan Kuyganyordagi polvonlar brigadasini kuchaytirishga qaror qildi. Belyavskiyning tanqididan diqqati oshib bir ko‘zini qisib o‘tirgan Mirzayev do‘ng‘illab-do‘ng‘illab polvonlar brigadasiga odam tanlashni o‘z bo‘yniga oldi.

Shu bilan kengash tamom bo‘lishi kerak edi. Sog‘liqni saqlash xalq komissari Mo‘minov, bir og‘iz gap, deb o‘rnidan turdi. Hamma unga qaradi.

– Quruvchilar orasida bezgak boshlanish xavfi bor. Oldini olmasak bo‘lmaydi.

Yusupovning bu gapdan xabari bor edi. Engashib Mo‘minovga tikildi.

– Sholikor joylardagi quruvchilarga akroxin ichiryapmiz. Bari bir bezgak kuchni so‘rib qo‘yadi. Undan tashqari, kuni bilan yer qazigan kanalchilar kechasi chivin azobidan qashinib uxlayolmayaptilar. Uxlamagan odamning ishida unum bo‘ladimi. Shu masalada mening bir taklifim bor edi. Agar hukumat xarjni bo‘yniga olsa, xususiy sholipoyalarni buzdirib egalariga haqini to‘lasa.

Yusupov stolni chertib o‘ylanib qoldi.

– Kanalni oz xarj bilan bitkazish niyatida edik. Bunaqada otdan egar qimmat bo‘lib ketmasmikin?

Belyavskiy uni xotirjam qildi.

– Ota, bu yog‘idan xotirjam bo‘ling. Sizga bitta misol ko‘rsatay. Norindagi Kirov kolxozi territoriyasidan kanal uchun yer tekislashga borganimizda ikki-uch xo‘jalikning tomorqasi, bog‘i buzilishi kerak edi. Har biriga olti yuzdan ming so‘mgacha haq to‘laydigan bo‘ldik. Pulni chorsiga tugib borganimizda olishmadi. “Hukumat bizga suv olib keladi-yu, arzimagan chorbog‘imizga pul olamizmi”, deb qaytarishdi. Bu ham kamlik qig‘andek, bittasi g‘unajinini, ikkitasi bittadan qo‘yni so‘yib uyini buzgan traktorchilarga yedirvordi. Xalq sholipoyasiga pul olmaydi. Mana, ko‘rarsiz, sholipoyasini o‘zi buzib tashlaydi.

Kengash vrach va sanitarlardan iborat zarbdor brigada tuzib, ularga aholi o‘rtasida tushuntirish olib borishni yuklaydigan bo‘ldi.

Respublika rahbarlari, xalq komissarlari, uchastka boshliqlari kengashdan chiqib kelisharkan, ustiga yuk ortilgan uchta tuya og‘zidan ko‘pik chiqazib cho‘kkalab turardi. Undan sal narida uchta ot, yoqalariga zar hoshiya tikilgan, baxmal kamzul kiygan ikki otliq qirg‘iz yigiti, yoshi yetmishlarni yoqalab qolgan siyrak soqol chol turardi.

Chol mashinaga o‘tirayotgan Yusupov oldiga keldi.

– Jusupov osindami?

Yusupov, men, deb u bilan ko‘rishishga qo‘l uzatdi.

– Jusupov o‘zingizbe?

Belyavskiy, shu kishi Usmon Yusupov bo‘ladilar, deb guvohlik berdi.

– Nima ish bilan keldingiz, oqsoqol? – dedi Yusupov qiziqib.

– Kanalda ishlashga ikki o‘g‘limni opkeldim. Ikki o‘tov, bes qo‘y, ikki kelinim ham kelgan. Hu anav jerde.

Ikki aka-uka otdan tushib ular oldiga keldi. Odob bilan salom berib indamay turaverdilar.

Yusupov ularga boshdan-oyoq qarab chiqdi. Darhaqiqat, ikkovi ham polvon yigitlar edi.

– Rahmat, otaxon. Himmatingizga balli. Bu yaxshiligingizga kanal to‘la suv bilan haq to‘laymiz.

Yusupov yigitlar bilan birma-bir qo‘l olishib Mirzayevga qaradi.

– Teshavoy, mana senga ikki qirg‘iz shunqori. Sening ixtiyoringga berdim. Oqsoqol, – deya cholga o‘girildi Yusupov, – endi bizning mehmonimiz bo‘ling.

– Jo‘q, bolam. Jilqilar o‘zinge qoldi. Qudammen ikkovimiz manov ballarning jumushini qilib turamiz. Men ketdim.

Yusupov kuzatgani chiqqanlar bilan xayrlashib mashinaga o‘tirarkan, ikki pahlavon qirg‘iz yigitiga, o‘rtada turgan otasiga maroq bilan qarab qo‘ydi.

Mashina Farg‘onaning chinorlar soya tashlagan serqatnov ko‘chalaridan ketarkan, Yusupov qirg‘iz cholning kelishidan, Norinda uyi buzilgan dehqonlarning haq olishdan voz kechib, uylarini tep-tekis qilib, buzib tashlagan traktorchilarni kaltaklash o‘rniga g‘unajin, qo‘y so‘yib mehmon qilishlaridan nihoyatda ta‘sir lanib borardi. Bu saxiy, tanti xalq bilan juda buyuk ishlar qilish mumkin, bu xalq pul, mol ekan-ku, zarur bo‘lsa jonini ham ayamaydi.

Inson uchun bir qultum suv jahonning eng katta xazinalaridan ham qimmatli edi.

Yusupovning mashinasi yarim soatlarcha yo‘l yurib Gorchakovo stantsiyasi oldida to‘xtadi.

Stansiyaga odam sig‘masdi. Ko‘rpa orqalagan, ketmon ko‘targan kishilar yaqingmada kelgan qizil vagonlardan tushib aravalarga, avtobuslarga o‘tirib qurilishning Marg‘ilon uchastkasi tomon ketishardi. Qo‘qon aravalarning ham tepasiga “Qanalni qirq besh kunda bitqazamiz”, “Azamat quruvchilarga otashin salomlar!” degan shiorlar ilingan edi. Stansiya tepasida ham shu shior.

Yusupov odamlarga, ot-aravalarga bir dam qarab turgandan keyin bo‘yni, iyaklarida paydo bo‘lgan terlarni kattakon dastromoli bilan artib mashinani Marg‘ilon tarafga burishni so‘radi.

Gorchakovdan to Marg‘ilongacha ko‘chaga odam sig‘masdi. Butun xalq ko‘chaga chiqqandek edi. Mashina Uchariq guzarida otda turib ayron ichayotgan Rayimberdi tog‘a yoniga kelib to‘xtadi. Rayimberdi xijolat chekkandan mo‘yloviga tekkan ayron yuqimi ham artishni unutib otdan tushdi-yu, Yusupov bilan ko‘rishishga oshiqdi.

– Chanqabsan-da, Rayim. Ishlaring qalay?

Rayimberdi hol-ahvol so‘rashgandan keyin paxtaning ahvoli, kanal ishlari qanaqa ketayotganini gapirib berdi.

– Odamlaring Nayman uchastkasidami?

Rayimberdi tasdiq ishorasini qildi.

– Erta-indinlarga uchastkangga o‘tib qolarman. Bilishimcha, ishlaring durust emasga o‘xshaydi. Zo‘r-zo‘r polvonlaring qochib ketayotganmish.

– Yo‘g‘-e, unaqa demasinlar, ota.

– Qiz opqochgan bolang Kuyganyorni kuydiryapti. Traktor bilan bellashaman, deydi azamat.

Rayimberdi kuldi.

– Ahmoq, bemaza ish qildi. Butun qishloqning boshini yerga egib ketdi.

– Unaqa dema, – dedi Yusupov jiddiylashib. – Ikki musicha bir-biriga qarab kukulashib tursa-yu, senga o‘xshagan qishloq kattalari o‘zini bilmaganga solib yursa. Opqochishdan boshqa iloji qolmagan-da. Yaqin orada ovozasini eshitib qolarsizlar. Qishloqning boshini yerga egdi emish, boshini ko‘tardi, degin. Xo‘p, mayli, ishingdan qolma.

Yo‘l serqatnov, ot-arava, velosiped, piyodalar ko‘p bo‘lganidan mashina tez yurolmasdi. Shuning uchun ham radiator suvi qaynab ketgan, bir to‘xtagandan keyin o‘t olishi ancha qiyin edi. Bu gal ham shunday bo‘ldi. Mashina ancha vaqtgacha patillab, xo‘rsingandek pishqirib, keyin o‘t oldi.

Tizgini bo‘ynida qolgan ot ariq bo‘yidagi o‘tlarni chimdib ancha nari ketgandi. Rayimberdi otiga yaqin qolganda Uchariq samovaridan ko‘pchilikning xaxolab kulganini eshitdi, hali Marg‘ilon kitob magazini oldida G‘afur G‘ulom bilan farg‘onalik shoir Adham Hamdamni ko‘rgandi. Demak, ular shu samovarga tushishgan. Yusuf qiziq G‘afur kepti, deb paqirda luhchak shaftoli ko‘tarib ketayotgandi.

Rayimberdining ular suhbatidan jindek bahramand bo‘lgisi keldi. Ot jilovidan yetaklab asta samovar tarafga keta boshladi. Samovarning nariyog‘idagi qari tollar quyuq soya tashlagan, ko‘chada Yusupovning mashinasi turipti. U otini tolga bog‘lab soy ustiga o‘rnatilgan so‘rida maykachan o‘tirgan odamlarga qaradi, Bular Toshkentdan kelgan shoirlar edi. Ular ichidan G‘afur G‘ulomni u darrov tanidi. Deyarli hamma suratlarida taqib tushgan muguz gardishli ko‘zoynagi, qirra burni mana men G‘afur G‘ulomman, deb turibdi. Yusuf qiziq yoshi oltmishlarga borib qolgan bo‘lsa ham, qaddi tetik, qadam olishlari chaqqon bir kishi edi. U ko‘ziga surma tortgan, oq jujun yaktak ustidan pushti chorsi bog‘lab olgan edi. Oybolta nusxa qop-qora soqollari o‘ziga yarashgan, gapirganda to‘mtoq qora qoshlarini kerib, hozir seni bir kuldiraman, deganga o‘xshab, tabassum bilan odamga

boqardi. G'afur G'ulomning orqasida o'tirgan Adham Hamdam ularning ichida eng kichigi bo'lganidan xizmatga tayyor, o'ynoqi ko'k ko'zlari yana xizmat bormi, degandek ustozlariga hushyor qarab turardi. Ulfatchilik endi boshlanay deb turgandi, mashinada lop etib Usmon Yusupov kelib qoldi.

Yusupov mashinadan tushar-tushmas G'afur G'ulom ulug' kishi oldida maykachan o'tirish noqulayligini bilib, jujun kite lini shoshib kiya boshladi. U kiyinarkan, chap qo'lini orqasiga o'tqazib kaftlarini silkitardi. Adham uning shamasini fahmlab ko'rpacha yonidagi hali og'zi ochilmagan ikkita shishani etagiga yashirib ildamlik bilan tol orqasiga o'tdi.

Yusupov o'tirishga unamadi. Tik turgancha bir kosa yaxna choy ichdi.

– G'afur, ertadan Kuyganyorga ko'chinglar. U yerda ish og'ir. Shoirlarning yaxshi so'zlari mador bo'ladi. Hamid, sen Vodilga bor. Ashrafiy bilan Yashin o'sha yerda. Operaning borishini bil. Kam-ko'sti bo'lsa menga aytasan.

Yusupov bir chekkada ko'zlarini katta-katta ochib turgan Oybek oldiga bordi. Uni qo'ltiqlab mashina tarafga yura boshladi.

– Kelganingiz yaxshi bo'пти, domla. Qani endi mana shu bo'layotgan ishlar to'g'risida “Qutlug' qon”ga o'xshagan bitta katta narsa yozib bersangiz. Erinmay hamma trassalarga boring, odamlar bilan tanishing. Bu yerda ko'rganlaringizni umringizning oxirigacha ham yozib tugata olmaysiz, domla. Kecha “Qizil”dagi “Otalar” ocherkingizni o'qidim. Juda yaxshi yozibsiz. Iltimos, ko'proq yozing. Quruvchilar uchun sizdek zo'r yozuvchining gapi qanot bo'ladi.

Oybek sal tutilib gapirardi. Hozir Yusupovning salobati bosib, yanada tutilib gapini yo'qotib qo'ygandi. Uning bu holatini sezgan G'afur G'ulomning shaytonligi tutdi.

– Ota, bu bilan tarjimon orqali gaplashish kerak. Gapirsang-chi, zaboning bormi, o'zi?!

Oybek unga yalt etib qaradi. Jahl ustida, “G'o'daygan”, deb yubordi. Oybek umrida bironi so'kmagan, so'kishni bilmasdi ham. Juda jahli chiqib ketsa “G'o'daygan” derdi, xolos. Bu uning bisotidagi yagona achchiq so'kishi edi.

Shoirlarga qo'shib Yusupov ham kulib yubordi. Oybek ham o'zini kulgidan tiyolmadi. Yusupov G'afur G'ulomga o'girildi.

– Kuyganyorga seni bekorga chaqirayotganim yo'q. U yerda bir polvon bola juda g'alati ishlar qilyapti. Zarkentdan chiqqan.

Tosh qazishda, yuqoriga tashib chiqishda hech kim unga teng ke-
lolmayapti. Shuni bir yaxshilab gazetaga yozinglar. Sobir qo'shiq
yozadi. Usta kuy bastalaydi. Sen ocherkmi yo she'rmi yozasan.
Shu bolani bir xalqqa ko'rsatib beringlar. Bo'ptimi?

Yusupov shunday dedi-yu, mashinaga o'tirib jo'nab ketdi.

Rayimberdi bir chetda turib, bo'lib o'tgan gaplarni eshit-
gandi. U hamqishlog'i Azizxon to'g'risidagi gapdan juda xijolat
chekdi. Chunki u boya Yusupovga, bu bola qishloqning boshini
egib ketdi, degandi. U yomonlagan bola qo'shiq bo'lmoqchi.
Respublikaning eng tabarruk shoirlari unga atab g'azallar bitish-
moqchi.

U hozir ham xijolatda, ham allaqanday g'urur og'ushida edi.

Ajab, bir o't, olov, bebosh bola bugun butun xalqning og'zi-
ga tushib o'tirsa-ya! U bu sevinchli xabarni Ummataliga yet-
kazadi. Nomus kuchidan ko'chaga chiqolmay qolgan ota qay
ahvolga tusharkin?

Rayimberdi otiga minib Zirillama tarafga jadal yo'l oldi.

XIV

Qora daryoning suvi saratonga kelib juda pasayib ketdi. Dar-
yo o'rtalaridagi toshlar, shag'allar shundoqqina ochilib qoldi.

Kuyganyor to'g'oni uchun sepoyachilar, suzishga usta yigit-
larning hojati qolmadi. Bunda faqat betonchilar, to'g'on poy-
devorini qaziydigan azamat kishilar kerak. Azizxonni poydevor
qaziyotgan polvonlar brigadasiga qo'ymoqchi bo'lishgan edi,
ko'nmadi. U qandaydir g'ayri tabiiy, odam bolasi bajarishi qiyin
ishlarni istardi. Ilgarigi kuni Belyavskiy uni Uchqo'rg'on to'g'o-
niga olib ketmoqchiligini aytganda Azizxon ko'nmadi. Bunga
sabab Esh polvon o'sha yerda o'z brigadasi bilan daryo yo'lini
to'syapti. U agar Azizxon bu yoqqa kelsa butun brigadam bilan
ishni tashlab ketib qolaman, debdi. U albatta shunday qiladi.
Azizxon ikki marta yurt oldida uning yuzini yerga qaratdi. Ha-
ll-hali u davraga kirmay, kurash bo'layotgan joydan qochadi.
Azizxon o'jarlik qilib boradigan bo'lsa, albatta, unga biron zarar
yetkazishi ham turgan gap. Alamzada polvonning qo'lidan har
ish keladi.

Azizxon Uchqo'rg'onga qo'rqqanidan emas, unga rahm qil-
ganidan, bormayman, dedi. Axir Esh polvon ham kanalga ish-
layman, nom chiqaraman, deb kelgan. Mayli, ishlasin, noumid
bo'lmasin. Buning ustiga Lutfinisa yotganda ham, turganda ham
bitta gapni takrorlaydi:

– Shu Esh o‘lgur bilan o‘chakishmang, tag‘in nomardlik qilib biron kor-hol boshlab yurmasin. O‘shandan sal uzoqroq yuring.

Azizxon nima qilishini bilmay turgan paytda otda Jo‘ra polvon bir bog‘lam gazeta ko‘tarib o‘tib qoldi.

– Ha, polvon bola, ahvollaring qalay? Anchadan beri noming chiqmay qoldi-ku.

Azizxon Kuyganyorda ishlagisi kelmayotganini, Lug‘umbekka borib o‘z brigadasida ishlagisi kelayotganini aytdi.

– Jon deyman. Agar shunga ahd qilgan bo‘lsang, ko‘rpangni ko‘tarib boraver.

– Siz yur desangiz bo‘ldi, ketaveraman.

– Yuraver bo‘lmasam.

Azizxon ertalab yetib borishga va‘da berib u bilan xayrlashdi. Uyga kelsa Orzixon aya trassadan qaytib endi ovqatga unmayotgan ekan. Lutfinisa hali kelmapti. Azizxon Lug‘umbekka ketish niyatini Orzixon ayaga nima deb tushuntirishni bilmay o‘ylanib turardi. Lutfinisa ham unga ancha o‘rganib, ikkovi til topishib qolgandi.

Azizxon Orzixon ayaning hovli betida kuymalanib yurishini kuzatarkan, o‘z onasini o‘ylab ketdi.

Ummatali uyga keldi deguncha xotini, albatta, uning diqqatini oshiradigan gap topib qo‘yardi. Ovqat ustida kech kirib chiroq o‘chganda ham ikkovining janjali bitmasdi. Bu janjallarga mana shu Azizxonning sho‘xligi, beboshligi sabab bo‘lardi.

Bunaqa yuzlab janjallarning biri, zo‘ri o‘tgan yili iyulning o‘rtalarida bo‘lgandi.

Ularning To‘xtavoy degan agronom qo‘shnilari allaqaydan urug‘i yo‘q olma novdasini olib kelib chorbog‘idagi olmasiga ulagan edi, payvand yaxshi amal olib besh-o‘nta g‘o‘ra ham tukan edi. Azizxon o‘rtoqlari bilan bahs boylashib tanasi samovar karnayidek daraxtni bir zarbda ildiz-pildizi bilan sug‘urib tashlagandi. To‘xtavoy qildi janjalni, qildi janjalni, sug‘urib tashlangan daraxtni sudrab idoraga olib chiqdi. Raisga arz qildi. Rais Ummatalini chaqirib ko‘p gaplarni aytdi.

– Axir bu tajriba uchun ulangan narsa, payvandni Prejevalsk degan joydan olib kelgandi. Bu qanday bema‘nilik. Bola deganni mundoq tarbiya ham qilish kerak-da.

Ummatali idoradan qoshlari chimirilib, peshanalaridagi ajinlari taxlanib qaytdi. Esini tanib, kolxozda ishladi, brigadir bo‘ldi, ketmonchi bo‘ldi, dakki yemadi. Endi qarigan chog‘i-

da o'g'lidan yuzi shamgin. Nima qilsin? Ko'zining oq-u qorasi yolg'iz o'g'li. Ursa joni achiydi, urmasa bu dashnom. Kela solib xotiniga o'dag'ayladi:

— Anavi yaramasing qani?

Xotini erining vajohatidan o'g'li bir balo qilganini darrov sezdi.

— Shattaydi, dadasi, hozir sigirni yetaklab chorboqqa kirib ketgandi. Tag'in urib-netib o'tirmang, jon dadasi.

— Xotin, o'g'il bolani urib bo'lmaydi. O'g'il bola Xudoning bir inoyati. Arabistonning allaqaysi viloyatida o'g'il bola tug'ilgan kuni podshoning maxsus farmoni bilan ertalabgacha to'p otilarkan. Hindistonning allaqaysi bir yurtida o'g'il tuqqan xotin bir kuni kechgacha podshoning taxtida bola emizib o'tirarkan. Missisuri degan yurtda o'g'il bola tug'ilsa, podshoning xotini sarpo qilib borib, tuqqan xotinni o'z kajavasida shahar aylantirarkan. Ko'rdingmi, o'g'il bola qanaqa.

Azixxon hozir Orzixon ayaning o'choq boshida kuymalanib yurishiga qarab ota-onasini o'yladi-yu, ko'ngli buzildi. Nima qilib qo'ydim? Endi qishloqqa qaytib borish yo'q... O'rtoqlarim qatori yurtga osh berib, ota-onaning orzusini ushatib uylansam bo'lasmidi? Bechoralar endi nima qilishayotganikin? Hamisha kasaldan boshi chiqmaydigan onam ayvon labida kaftini iyagiga qo'yib eshikka tikilib o'tirgandir. Dadam bechora alamini gazetadan olayotgandir. Yo'q, gazeta o'qish ham ko'ngliga sig'may qolgandir. Gazeta choyxonada. U bechora yurtning ko'ziga qarayolmay uyga qamalib qolgandir-ov. Agar gazeta o'qisa bilardi. O'g'lining kanalda nimalar qilayotganini, albatta, gazetdan bilardi. Agar u Lutfinisani olib qochmaganda bu ishlar bo'lmasdi. Shundoq katta to'yni buzib uni olib qochdim! Lutfinisaning akasi ularning eshigini tepib, to'y xarjlarini to'la, deb qistayotgan bo'lsa-ya!

Azixxon bu to'g'rida endi o'ylashi. Keksayib qolgan, qo'l uchida ro'zg'or tebratadigan ota-onasi bu xarjlarni qanday to'laydi? Agar puli bo'lsa allaqachon to'y qilib o'g'lini uylab qo'y-masmidi?

Azixxon sapchib o'rmidan turdi. Bitta-yu bitta o'g'li ota-onasini tashvishga, boshini janjalga qoldirib bu yerda yurishi qandoq bo'ldi? Yo'q, bu o'g'il bolaning ishi emas!

Azixxon sergaklanib shoshib uyga kirdi. Kurashdan tushgan pullar qiyiqda tugilganicha Orzixon ayaning qutisida turgan edi. U qutichani ochdi-yu, tugunni supaga olib chiqdi. Ochib shol-

cha ustiga yozib yubordi. Qizil o'ttiz so'mliklar, besh so'mlik, o'n so'mliklar aralash-quralash edi. U tizzalab o'tirib oldi-yu, sanashga tushdi. Qo'lida yog'och cho'mich bilan tepasiga kelgan Orzixon aya hayron edi.

— Nima qilyapsan, bolam? — dedi u ajablanib.

— Shoshmang, shoshmang, — dedi Azizxon hisobdan adashmaslik uchun unga qaramay.

Oxiri u qiyiqdagi pullarni taxlab sanab bo'ldi. Keyin ayaga qarab iljaydi.

— Sakkiz yuz o'ttiz ikki so'm.

— Bu pullarni nima qilasan, bolam?

— Kerak, kerak, aya, hozir kelaman.

U shunday dedi-yu, pullarni qayta qiyiqqa tugib ko'chaga o'tildi.

Azizxon to'ppa-to'g'ri Kuyganyor pochta bordsiga bordi. Pochtaxonaning ichi u yoqda tursin koridorlari, zinalarigacha gazeta va xatlarga to'lib ketgan edi. Azizxon gazeta paxkalarini ustidan hatlab tuynukka bosh tiqdi.

— Opa, Zarkentga qanaqa qilib pul jo'natsa bo'ladi.

Ko'zoynakli tatar xotin oldiga sariq qog'oz tashladi.

— Manavini to'ldirib, adreslarni aniq qilib yozing.

Azizxon tez yurib kelganidan hansirar, entikib-entikib gapirardi.

— Jon opa, o'zingiz yoza qoling, men adashub ketaman. Jon opa.

Xotin tuynuk og'ziga tashlangan blankani qaytarib oldi-da, Azizxon aytib turgan adres va pul miqdorini yozdi.

— Voy-bo', shuncha pulni-ya? Yetti yuz so'mni-ya? — dedi hayrat bilan ayol.

— Jo'natavering, jo'natavering, bor yana.

Xotin blanka ustiga dumaloq shtampni tap etib urdi-da, bir nusxasini Azizxonga uzatdi.

— Opa, ikki og'iz-gap qo'shsa bo'ladi-ya? — dedi yalinib Azizxon.

— Ayting, — dedi xotin yashikka tashlangan blankani qayta olarkan. Azizxon o'ylab turib aytdi.

— Dadajon, meni kechiring. Men tinch hraman. Lutfi sog'omon. Bu pullarni Akbaraliga berib qo'ying. To'yning tovonini. Yetmasa, yana yuboraman.

Azizxon pochtdan qushdek yengil bo'lib chiqdi. U go'yo ota-onasini shu pul bilan xijolatdan qutqargandek edi.

U eshikdan hovliga javrab kirdi.

— Lutfi, Lutfi, bo‘ldi, bo‘ldi.

— Nima bo‘ldi? — dedi ariqda bet-qo‘lini yuvayotgan Lutfinisa ajablanib.

— Akangga pul jo‘natdim, pul jo‘natdim. To‘y xarjidan qutuldik.

Lutfinisa, a-a, deb qo‘ya qoldi. Ovqat ustida Azizxon Jo‘ra polvon bilan uchrashganini, ertalab Lug‘umbek uchastkasiga ishga borishlarini aytdi. Orzixon aya jindek ko‘z yoshi qilib oldi.

— O‘rganishib qolgan edik. Shatta ishlayversanglar ham bo‘lardi. Issiq-sovuqlaringdan kim xabar oladi?

— Hammasi taxt, ayajon. Uy ham, ovqat ham bor. Men qiladigan ish ana o‘sha yerda ekan. Bormasam bo‘lmaydi.

— Kanalning bitishiga o‘ttiz to‘rt kun qoldi. Ish ko‘rsatib qolmasak, keyin armon qilib yuramiz. Albatta, kelib sizni ko‘rib ketib turaman. Lutfi hozircha shatta turadi.

Orzixon aya o‘rnidan turib oshxonaga kirib ketdi. Birpasdan keyin tog‘orada un olib chiqdi.

— Ketadigan bo‘lsang quruq ketma, besh-oltita patir yopib beray.

Kech kirib, Lutfinisa chiroq yoqib ayvon tokchasiga qo‘ydi. Ko‘k ko‘prik tarafdin qo‘shiq yangradi.

— Halimaxonim kansit qo‘yyapti, — dedi Lutfinisa.

— Naymanda “Boy ila xizmatchi” bo‘ladi, bormaymizmi, — dedi o‘rnidan turib Azizxon.

Xamir qorayotgan Orzixon aya gapga aralashdi.

— Ertalab yo‘lga chiqasan, vaqtliroq yota qol.

Lutfinisa uyidan chiqqanidan beri Azizxon bilan o‘ziga boshqa-boshqa joy solardi. Azizxon supaga to‘shalgan o‘ringa chiqib yonboshlarkan do‘ng‘illadi:

— Akangning haqidan qutuldim-ku, bo‘ldi-da.

Lutfinisa hovuchini betiga tortib ko‘rsatdi. Bu uning, nikoh o‘qitmasdan yonimga yo‘latmayman degani edi.

Azizxon ko‘rpani boshiga tortdi. Uzoqdan Halimaxonimning ovozi qorong‘i kechani yorib uzoq-uzoqlarga taralardi.

Orzixon aya ham nosini tuflab o‘rniga kirdi. Sal o‘tmay uning pish-pish xurragi eshitila boshladi. Ammo Azizxon uxlayolmasdi. Onasi, dadasi ko‘z oldidan o‘taverardi...

IKKINCHI BO'LIM

I

Lug'umbek uchastkasi qurilishning eng og'ir joylaridan biri hisoblanadi. Bu yerda kanal juda balandlikdan keladi. Agar shu qiyalikdan suv oqadigan bo'lsa uni to'sib ham, burib ham bo'lmaydi. Lug'umbek atrofidagi dalalarga suv chiqmay qoladi.

Loyiha tuzishda bu yerda nihoyatda murakkab kanal yo'li ochilishi ko'zda tutilgan. Suv to'qqizta sharsharadan quyilib keladi. Har ikki-uch kilometr dan keyin kanal sharshara orqali yetti-sakkiz metr pastga birdan tashlanadi. To'qqiz joyda bunaqa chuqur kanal qazish anchagina katta kuch talab qiladi. Qazilgan tuproq balandlikka bir necha kilometr trassa bo'ylab chiqarib borilishi kerak.

Andijon polvonlaridan tashkil topgan o'nlab brigadalar shu yerda ishlayapti.

Azizxonni polvonlar brigadasining boshlig'i Jo'ra polvon G'oyipov yana o'z qanotiga oldi.

Tuproq otayotganlarning betlari changga belangan, pastda ishlayotganlar to'zonda mutlaqo ko'rinmas edilar. Azizxon yaktagini yechib to'zon orasiga sho'ng'ib ketdi. Jo'ra polvon pastlikda edi. U belkurak bilan otgan tuproq to'rt metr balandlikdagi supaga borib tushar, u yerdagi uch yigit pastdan irg'itilgan tuproqni kurak bilan yana uch yarim metr balandlikka otardi. Ikki martadan irg'itilgan tuproq to'zg'ib, shamolsiz dim havoda bulutdek muallaq turib qolardi.

Azizxon ketmonga ham, belkurakka ham qo'l tegizmadi. Chakkasini qashlab o'ylanib turdi-da, kattakon qanor og'zini ochib Jo'ra polvonning belkuragiga to'g'riladi.

— Qani, ustoz, tuproqni bu yoqqa tashlang.

Jo'ra polvon andak o'ylanib turgandan keyin iljaydi. Azizxon tutib turgan qanorga kuraklab tuproq tashlay boshladi. Qanor yarim bo'lgandan keyin, endi bas, dedi. Azizxon, solavering, ustoz, deb kuldi. Qanor bo'g'zigacha tuproqqa to'lgandan keyin Azizxon, qani orqalatvoring, ustoz, dedi.

Ikki kishilashib qanorni uning orqasiga qo'yishdi. Odamlar bola hozir qorni bilan yerga qapishib qoladi, degan gumonda chang o'tirib ho'l bo'lib ketgan og'ir kipriklarini qimirlatmay qarab turishardi.

– Bola, mayib bo'lasan, ko'pam chiranma, – dedi Jo'ra polvon.

Azizxon indamadi. Bir silkinib qanorni orqasiga o'ngladi-da, pildiragancha taxtadan yuqoriga chiqib ketdi.

Hamma hayron. Toyib ketsa ushlab qolamiz, deb ikki-uch polvon yigit yo'lning yarmida uni kutib turishardi. Azizxon ularga qaramay, chang-to'zonga to'lgan qirg'oqqa chiqib ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Odamlar hang-mang bo'lib qolishgan edi.

Bugun ertalabdan beri Yo'ldosh Oxunboboyev do'ng tepasidagi tut tagiga kursi qo'yib o'tirib olgan, ish davomida qanday kamchilik sezsa, tut shoxiga ilib qo'yilgan telefonda shtabga xabar qilib, boshliqlar bilan hal qilardi. Uning yonida yelib-yugurib yurgan shu rayon ijrokomining raisi Eshon aka nomi bilan mashhur bo'lgan Usmonxo'jayev hali u yerda, hali bu yerda paydo bo'lib, ishning borishini kuzatardi.

Oxunboboyev o'zidan katta qanor to'la tuproq tashib chiqayotgan yigitga ko'zi tushdi-yu, o'rnidan turdi.

Bu payt Azizxon yelkada qanor bilan taxta pillapoya ustida shoshilmay, bir maromda qadam tashlab yuqoriga chiqib kelardi. Chang-to'zon orasida uning gavdasi soyadek ko'rinardi.

– Kim bu? – dedi Oxunboboyev hayratda.

O'sha tarafdin ko'zini uzmay turgan Eshon aka, bilmadim, deb bosh chayqadi.

– Kim bo'lsa ham bas qilsin! Tuprog'ini to'kkandan keyin bu yoqqa chaqiringlar.

Sal fursat o'tib Azizxon iljayganча qanorni sudrab Oxunboboyevning oldiga keldi.

– Iya, senmiding? Bu nima qilganing? Bas qil-e!

Azizxon iljaydi.

– Ota, sal kunda kanal bitadi. Ishlab qolaylik-da. Keyin armon qilib yurmaylik.

– Qancha kilo ko‘tarasan?

– Bilmadim, – dedi Azizxon. – Tortib ko‘rmaganman. Qancha ortsangiz ko‘taraveraman.

Oxunboboyev hang-mang bo‘lib qoldi. Keyin hazil aralash, “odammisan, nimasan”, dedi.

– Har qalay bir qanor tuproq juda og‘ir narsa, o‘zingga ehtiyot bo‘lganing ma‘qul.

Azizxon, xo‘p, ota, dedi-yu yana to‘zon orasiga kirib ketdi.

Yuqorida yana ikkita shunaqa qanor olib tushishdi. To Azizxon tuproq to‘la qanorni opchiqib to‘kib kelguncha ikki kishi boshqa qanorni to‘ldirib turishdi. Azizxon shoshilmas, na tez, na sekin yurardi. Xuddi soat strelkasidek bir maromda harakat qilardi.

Ish boshlanganiga biron soat o‘tmay uning ish joyidagi to‘zonlar tarqab ketdi. Yuqorida yer o‘lchab yurgan, o‘yilgan tuproqlarni surayotganlar tez-tez Azizxon tarafga o‘girilib, bu devsfat bolaning pahlavonligiga hayrat bilan qarardilar.

Tushlikka jom chalinganda Azizxon endi qanorni orqalayotgan edi. Hamma ketmon va belkuraklarni tashlab yuqoriga yura boshlagan paytda u yelkada qanor bilan ular orasida tepaga intilardi.

U yuqoriga yetganda birdan odamlar ikki tarafga surilib unga yo‘l ochishdi. Azizxon munkayganicha borib tuproq uyumi ustiga ajib chaqqonlik bilan (jindek maqtanganlik aralash) silkinib qanorni irg‘itdi. Og‘ir qanor tushgan tuproq xuddi portlagandek to‘zib ketdi.

Atrofni o‘rab turgan kishilar qiyqirib chapak chala boshladilar. Davra orasidan hamma yog‘i yalt-yult taqinchoqlarga burkangan Halima Nosirova qo‘lida bir kosa ayron bilan chiqib Azizxonning qarshisida to‘xtadi.

– Iching, polvon ukam!

Azizxon uning qo‘lidan ixlos bilan kosani oldi-da, bitta shimirishda bo‘shatib qaytib berdi. Halima Nosirova o‘tgan yili SSSR xalq artisti degan katta unvonga sazovor bo‘lgan edi. Bu san‘atkorning ovozi bulbulni lol qilardi. Plastinkalarda, radioda ovozini eshitganlar, uzoqdan bo‘lsa ham bir o‘zini ko‘rsam, deb niyat qilardilar. Azizxon bo‘lsa xuddi uning o‘z qo‘lidan ayron olib ichdi. Ochig‘ini aytganda, to tushgacha ellik to‘rt qanor tuproq tashib o‘zi ham anchagina charchagan, beli ham salpal zirqirab qo‘yayotgan edi. Halimaxonimning bu iltifotidan u charchoqni unutdi. Bundan ham og‘irroq qanor ko‘tarib uning qo‘lidan yana bitta ayron ichkisi keldi.

Azizxon odamlar kuzatuvida choyxona tarafga qarab yurarkan, Halimaxonim Jo'ra polvonning boshidagi qirg'izcha qalpog'ini olib ikki bukladi-yu, og'ziga tutib ashulani boshlab yubordi. Birdan hamma jimib qoldi. Azizxon ham yurishdan to'xtab angraygancha unga qarab turardi.

Qo'shiq tog' qaziyotgan Farhod sha'niga aytilayotgan Shirinning yurak dardlari edi. Azizxon xijolatlikdan qizarib ketgan, bu qo'shiq, bu obro' uni chinakamiga mast qilgandi.

O'sha kunni Azizxon xuddi tushida ko'rgandek o'tkazdi. Ovqatdan keyin yana o'n sakkiz qanor tuproqni yuqoriga tashib chiqqanini o'zi bilmay qoldi. Kechqurun Jo'ra polvon aytgandagina bildi.

Lug'umbekning kanal qazilayotgan joyidan — ilgari Moyli suvdan "Oktyabr arig'i" tortib kelingan edi. Bu suv atigi ikkita qishloqni arang sug'orib, tuproqqa shimilib ketardi.

Mana shu ariq hozir kanalchilar xizmatida. Ariq bo'yiga o'nlab choyxona, oshxona va novvoyxonalar qurilgan. Kechki payt ishdan qaytgan quruvchilar shu ariqda cho'milishardi. Ba'zan shunday paytlar ham bo'lardiki, ariq ichiga odam sig'may ketar, bir-birlariga yelkama-yelka turib cho'milishardi.

Azizxon ariqqa tushganda besh-olti yigit oqimga qarshi suvni shaloplatib suzib yurishardi. Azizxonning a'zoyi badani tuproq edi. Terlaganidan taniga o'rnashgan chang-to'zon loyga aylanib ketgan. Azizxon suvda miriqib sho'ng'ib, qulochkashlab suzib yurarkan, do'ng tepasida Jo'ra polvonning qorasi paydo bo'ldi.

— Hoy, bola, qayoqdasan? Bo'ldi, chiq. Seni so'rashyapti.

Azizxonning xayoliga yalt etib dadasi bilan onasi keldi. Qidirib kelishdimikin? Pulni olishgan bo'lsa darrov yetib kelishgan-ov.

Azizxon artinib o'tirmay shoshilib kiyindi. Chakkalaridan, bo'yinlaridan suv tomib choyxona tarafga yugurdi.

Novvoyxona oldida Jo'ra polvon ko'zoynakli bir yigit bilan gaplashib turardi. Yigit ozoda kiyingan, o'chib qolgan papirosini hadeb gugurt chaqib yondirolmasdi. Azizxon bu ko'zoynakli kishini qayerdadir ko'rgandek bo'ldi. Yuzi, ko'zoynagi, qirra burni unga juda tanish edi.

— Keldingmi, — dedi Jo'ra polvon. — Bu kishini taniysanmi, polvon. Bu akang mashhur shoirimiz G'afur aka G'ulomov bo'ladilar. Tanishib qo'y. Sen bilan gaplashgani atayin keptilar.

Azizxon dovdirab qoldi. Shoshib ikki qo'lini baravar cho'zdi. U G'afur G'ulomning she'ru hikoyalari ko'p o'qigan. Maktab-

da darsliklarda uning “Ko‘kan batrak” dostonini alohida dars qilib o‘qitishgan edi. Ayniqsa uning “Dovdirash”, “Yodgor” qissalarini maza qilib qayta-qayta o‘qigan edi. Azizxonning nazarida G‘afur G‘ulom oddiy odam emas, allaqanday g‘aroyib kishi edi. Uni uchratishini sira xayoliga keltirmagandi. Endi bo‘lsa G‘afur G‘ulom uni ataylab yo‘qlab kepti.

G‘afur G‘ulom unga boshdan-oyoq qarab kuldi.

— Jo‘ravoy aka, meni laqillatyapsizmi? Polvon deb yosh bolaga ro‘para qildingiz-ku.

— E, mulla Abdug‘afur, bu bola “Mitti demang bizni, ko‘tarib uramiz sizdi”, deganlardan. Gavdasiga qarab to‘n pichmang. Bolada gap ko‘p.

G‘afur G‘ulom unga yana ko‘z tashlab, ishonqiramagandek iljayib qo‘ydi.

— Kechagi qurilish gazetasini ko‘rdingizmi, — dedi u Jo‘ra polvonga qarab, — Uchqo‘rg‘ondagi polvonni yozishihti. Ana uni polvon desa bo‘ladi.

— E, — dedi Jo‘ra polvon. — O‘qidim. Eshni yozishihti. U ham yaxshi, zo‘r polvonlardan edi. Ammo manavi bola kanalga kelgandan keyin Eshning dami chiqib ketgan. Bu bola Eshni ikki marta tuproqqa qorishtirib tashladi. Esh bu taraflarga kelolmaydi. Uchqo‘rg‘onga kelib, o‘sha Uchqo‘rg‘ondan ketadi.

G‘afur G‘ulom xaxolab kuldi.

— Endi Esh polvonni Uchqo‘rg‘ondan ko‘rarkanmiz-da.

Hammalari barobar kulib yuborishdi.

— Uka, — dedi shoir, — shtabdan tayinlashdi, sen to‘g‘ringda bir g‘alati ocherk yozmoqchiman. Nima deysan? Qilgan ishlarini birma-bir aytib berasanmi?

— Nimani ham aytay, aka. Mana, ustoz nima desalar shu. U kishi aytgan gaplardi yozsangiz durust. Men yelkada tuproq tashishdan boshqa ish qilganim yo‘q.

— Akasi, ichingdagi gapni kavlab chiqarishni o‘zimga qo‘yib ber. Sendaqa polvonlar bilan ko‘p gaplashganman. Jo‘ravoy aka, bizni birona xoliroq joyga olib boring.

Jo‘ra polvon ularni qishloq sho‘rosining binosiga boshladi.

Suv bo‘yiga qurilgan omonat so‘rilarga son-sanoqsiz pashshaxonalar tutilgan. Ochiq maydonga davra qurgan kishilar gurgur kulishardi. Kecha bu yerga Yusuf qiziq bilan Oxunjon qiziq kelgan, ular ochiq maydonda qiziqchilik qilib odamlarni kuldirishardi. “Oktyabr arig‘i”ning narigi betida azamat yong‘oq shoxiga oq chodir ilib kino ko‘rsatishyapti. O‘rtadagi so‘rida

o'ntacha odamni to'plab Toshkentdan kelgan lektor "Pikovaya dama" operasida realistik motivlar degan temada leksiya o'qiyapti. Tinglovchilarning ko'pchiligi pinakka ketgan, ba'zilari leksiya tezroq tugasaydi, deb qiziqchilik bo'layotgan maydonga qarab qo'yishardi. Lektorning yonida raykom sekretari o'tirgani-dan ketolmay noiloj mudrashardi.

Raykom sekretari esa ularga bildirmay og'zini mushti orasiga olib tinmay esnardi.

Poytuq tarafda ketma-ket mushak otildi. Mushakning ko'k, sariq, qizil shu'lalari tuproq uyumlarini, choyxona tomlarini uzoq yoritib turdi-da, keyin asta so'ndi.

II

Kunlar nihoyatda isib ketdi. G'ir etgan shabada yo'q. Kanal chuqurlashgan sari ichi dim bo'lar, yer qaziyotgan yigitlarning tanidan ter quyilardi. "Oq maktab" bolalari tunuka choynaklarda, paqirlarda ketma-ket yaxna tashib ulgurolmasdi. Ichilgan yaxna shu zahoti ter bilan chiqib ketardi. Azizxon issiqqa chidayolmay qoldi. Loyqa ter peshanasidan oqib ko'zlariga kirar, to-mog'i qaqrab, hadeganda o'zini yaxnaga urardi. Ish unumi ham sal pasaygandek ko'rinardi. Chuqurlikdagi ketmonchilar har yarim soatda yuqoriga chiqib o'zlarini yelpib olishardi.

Shu kunlarda tun juda oydin bo'lyapti. Mash'alamasdan ishlash mumkin edi. Jo'ra polvon uchastka boshliqlari bilan kelishib, polvonlar brigadasining ishini kechasisiga o'tkazdi.

— Kechasi chang-to'zon yo'q, havo salqin. Ertaga ertalab ishga chiqmanglar. Uch-to'rt kun kechasi ishlaysizlar.

Azizxon trassadan qaytgandan keyin yuvinib Lutfinisa ishlayotgan "Qirg'iz ovul"ga bormoqchi edi, aynib qoldi. Ertaga kunduzi bo'shman-ku, g'ir etib borib kelaman-da, deb ovqatdan keyin chodirga kirib to'shakka o'zini tashladi. Yelkasining oftobda kuygan joylari achishar, boshi og'irlashib yostiqdand uzolmasdi. U ancha vaqtgacha to'shakda to'lg'anib, uxlab qoldi. Ertalab qirg'iz bolalar nonushtaga uyg'otishganda arang o'rnidan turdi.

Kerishdi-da, yalang'och yelkasiga sochiq solib ariq tarafga keta boshladi. Suvning u betidagi budka oldida Vazira etagini lippa urib, yerga ko'loblatib suv separd. Azizxon unga: "Hormang, singlim!" — deb o'tib ketdi. Vazira qo'lida suv to'la paqir bilan uning orqasidan qarab qoldi.

Vazira Poytuqdagi kasalxonada sanitar bo'lib ishlaydi. Kasalxona Lug'umbek uchastkasida to'rtta medpunkt ochgan, shu-

larning biriga Vazira qaraydi. U yelkasini oftob kuydirganlarga moy berar, quruvchilarga bezgakka qarshi majburan akroxin ichirardi. Ayniqsa yosh juvonlar uning budkasi oldida ko'proq o'ralashishardi. Sepkilni ketqazadigan har xil moy-upalar unda ko'p bo'lardi.

U suv bo'yidagi kursida pardozni joyiga qo'yib, o'tgan-ketgan yigit-yalangning ko'zini o'ynatardi. Hatto G'afur G'ulom ham uning yonidan loqayd o'tib ketolmagan. Sutga chayqalgandek oppoq yuzlariga, anordek qip-qizil lablariga, nildek qora qosh-ko'zlariga tikilib turib birdan she'r aytib yuborgan:

Yuz qizil, lablar qizil,
Barmoq uchi ham qip-qizil,
Qosh qaro, ko'zlar qaro,
Hech bo'lmasin baxting qaro!

Faqat birgina Azizxon unga loqayd qarardi. Yonib turgan ko'zlari bu yigit ko'ksini kuydirmasdi, qo'shiqdek mayin ovozi qulog'iga kirmasdi. Mana, hozir ham u shundoq chiroyli qiz oldidan beparvogina o'tdi, ketdi. Mazza qilib yuvinib, chodirga kirdi-yu, yostiq tagidan yaktagini olib kiymoqchi bo'ldi. Qarasa, tugmasi uzilibdi. Hamma vaqt saranjom-sarishta ish tutadigan qirg'iz bolalar igna bilan g'altak ipni qayga qo'yishganini bilmay ko'p qidirdi. Oxiri toqati toq bo'lib yaktagini tugmasiz kiyib Vaziraning oldiga chiqdi.

— Singlim, tugmam uzilibdi, igna bilan ipingizni berib tursangiz.

Vazira qulog'ida rayhon shoxi bilan selkillab kuldi.

— Voy, polvon aka, igna tutishga qo'lingiz kelishmaydi. O'zim qadab beraman. Yeching, birpasda bo'ladi.

Azizxon unga orqa o'girib turib yaktagini yechib uzatdi. Vazira yaktakni olarkan, baquvvat gavdasiga, muskullari bo'rtib chiqqan bilaklariga, keng yelkalariga mahliyo bo'lib qoldi. Undan zo'rg'a ko'z uzib budka ichiga kirib ketdi.

Azizxon qovushmay kursiga o'tirib, qirg'oqqa shapillab urilayotgan suvga tikilgancha qoldi.

Bu juvon negadir unga juda o'zini yaqin oladi. Agar o'z o'ylari bilan ovora bo'lib, unga qaramay o'tib ketgudek bo'lsa, albatta, juvonning o'zi salom berib, qaratadi. Qaraganda ham ko'zlarini suzib, qandaydir g'alati qaraydi. Gapga solishga urinadi. Yaxna choy uzatib yo'ldan to'xtatadi. Sizni albatta meditsina ko'rigi-

dan o'tkazishim kerak, deb bir qo'lini uning yelkasiga tashlab, yalang'och ko'ksiga qulog'ini bosib, yurak urishini uzoq eshitadi. Shunda Azizxonning bo'yinlariga, yelkalariga iliq nafasi tegib, vujudiga shirin bir huzur qo'zg'aladi. Vazira bo'lsa uning oldida atayin issiqdan nolib "beixtiyor" oq xalatining oldi tugmalarini yechib o'zini yelpiydi. Har xil tasma-yu tugmalardan xoli ko'ksi qalqib-qalqib ketadi. Ovozi titraydi. Shunday kezlarda (bunaqa kezlalar ikki-uch bor bo'lgan) Azizxon ketishga shoshilmaydi. Bu shirin, hushni oluvchi daqiqalar uzoq cho'zilishini istaydi.

Azizxon shunday o'ylar bilan band ekan, budka ichidan Vaziraning ayanchli qichqirgani eshitildi:

— Voy, voy, o'ldim, dod!

Azizxon budkaga yugurdi. Vazira u yoqdan bu yoqqa to'lg'anib yugurardi.

— Ari, qovog'ari ichimga kirib opti.

U shunday deb yonida erkak kishi borligini ham unutib xalatini yechib otdi. Azizxon unga qaraganicha bezrayib qoldi. Vaziraning oppoq badani titrab turardi. Azizxon umrida ayol kishini yalang'och holda birinchi ko'rishi edi. G'alati bo'lib ketdi. Negadir u tomon bir ikki qadam tashladi. Vazira undan qo'rqqandek, to'zib ketgan sochlari bilan qo'kragini berkitdi.

— Kelmang, yaqin kelmang!

Vazira shunday deb ingragandek gapirardi-yu, ammo ovozi-da qat'iylik sezilmasdi. Azizxon hushini yig'ib oldi.

— Qayeringizni chaqdi? — deb so'radi. Uning ham ovozi xuddi yig'layotgandek titrab chiqardi.

— Yelkamni, yelkamni chaqdi, qurib ketkur.

Azizxon yalang'och ayol kishi bilan gaplashib turganidan uyalib orqaga qaytayotgan edi, Vazira to'xtatdi:

— Xalatimni olib bering!

Vazira "jon achchig'ida" xalatini ostonaga irg'itgan edi. Azizxon engashib xalatni oldi. Undan barmoqdek ari g'ing'illab uchib chiqdi. Azizxon xalatni Vaziraga uzatgan edi, Vazira xalatni uning qo'li bilan qo'shib ushladi. Birdan Azizxonning qoni gupurib ketdi. Ayolning bilagiga chang soldi. Vazira siltanib uning bag'riga kelib qolganini bilmay qoldi. Azizxon uning ochiq oppoq ko'ksidan o'par, hansirab yelkalarini silardi, Vazira qarshilik ko'rsatolmasdi.

Tashqarida mashina motorining gurillagani eshitildi. Azizxon juvonne bag'ridan qo'yib yubormoqchi bo'ldi. Ammo Vazira uning bo'yniga ilondek chirmashib olgan, qo'yib yubormasdi.

Azizxon bu juvonning ko'nglida nimalar kechayotganidan bexabar edi. Ayolning nozik bilaklarini osonlikcha bo'ynidan olib tashladi-da, yerga qaragancha yaktagini ko'tarib tashqariga chiqdi.

Suvning u betidan mashina tuproq changitib o'tib ketdi. Azizxon bu bo'lib o'tgan sirdan hech kim voqif bo'lmaganini sezgandan keyin yurak o'ynog'i sal bosilgandek bo'ldi. Budkadan yalang'och chiqqani esida yo'q edi. Qo'lidagi yaktakka ko'zi tushib shoshib kiya boshladi. Ariqdan paqirda suv olayotgan samovarchi unga ma'noli qarab bir ko'zini qisib qo'ydi. Azizxon xijolatlikda ko'zini undan oldi.

Budkadan Vazira chiqdi. U to'zib ketgan sochlarini durra tagiga olgan, ko'zlari yengdimmi, degandek yashnab turardi.

Azizxon yerga qaradi.

— Yomon ekansiz-ku, — dedi Vazira o'pkalangandek lablarini cho'zib.

Azizxon javob topolmay g'udrandi.

— Agar erim bilib qolsa, naq ikkovimizni pichoqlab tashlaydi-ya!

Vaziraning eri o'zidan o'n sakkiz yosh katta bo'lib, avvalgi xotini undan ko'ngilsiz bo'lib ajrashgan. Eri bir ko'zi shishadan, kamgap odam edi. Agar kuni bilan uyda bo'lsa, g'iring degan ovozi chiqmas, biron narsadan diqqati oshsa, to'g'ri gapirmay jahl bilan stolni urardi. Eri yaqin-yaqinlarda ham ko'p ichardi. Stansiya bufetida kunini kech qilib, qoq yarim tunda qaytardi. Shunday ichishlarning birida mushtlashib, nozik joyidan tepki yeb, ikki hafta kasalxonada yotib chiqdi.

Vaziraning yashnagan, gullagan navqiron umri bekor o'tib borardi. U kasalxonada odamlar orasida ovunib qolarman, deb o'ylagan edi. Ayollar o'z tirikchiliklari, erlari, bola-chaqalari to'g'risida gaplashganlarida u jimgina quloq solib o'tirar, ular bilan o'zini solishtirardi. Shunda birdan ko'ngli o'ksib ezilib uyiga qaytardi.

Kanal boshlanib, Lug'umbekda medpunkt ochilgandan ikki-uch kun o'tib u Azizxonga ro'baro' keldi. Bir ko'rishdayoq yuragida ot o'ynagandek bezovtalanib qoldi. Yo'lini poylaydigan bo'ldi. Uzoqdan Azizxonning qorasi ko'rinishi bilan sochlarini tuzatar, biron ishni bahona qilib u o'tadigan yo'l yoqasiga kelib turardi. Oradan uch-to'rt kun o'tib og'zaki salomlashishdan qo'l olib ko'rishishga o'tdi.

Azizxonning qaylig'i bilan kelganini eshitib, hafsalasi pir bo'ldi-yu, umidlari puchga chiqib, uni kutmay qo'ydi. Ammo

u har qancha urinmasin, ko'nglidan chiqazib tashlashga tirishmasin, bari bir Azizxon tomonga ketib qolaverardi. Vazira o'zini o'zi yengolmadi. Qanday bo'lmasin, o'zini pahlavon yigit quchog'iga otib, qaynoq nafasini tuyushni diliga tugdi.

Bugun u shu niyati tomon birinchi qadamni tashladi.

III

Ummatali bilan xotini sudralishib Tog'aning oldiga chiqishdi. Tog'a idora oldida endi "emka"ga o'tiraman, deb turgan edi. Ularni ko'rib mashinadan tushdi.

— E, kelinglar, kelinglar. Xizirni yo'qlasak bo'larkan, sizlarni yo'qlab ketayotgan edim o'zim.

Er-xotin bu gapni eshitib hayron bo'lib qolishdi.

Ummatalining ko'rinishi ancha tashvishli, xotining bo'lsa kipriklarida yosh ilinib turardi.

— Endi, Tog'a uyatga qolishga qoldik. Ammo bu yog'i sal xunukroq ko'rinadiganga o'xshaydi. Shu desang, kecha Azizxondan darak chiqdi. Pul yuboripti. Ancha pul. Bilmadim, bu pullarni u qaydan oldi ekan? Oz emas, yetti yuz. To'y xarjiga to'lab qo'yinglar depti. Etta-mettan bolalarning onasi bilan Akbaralining eshigiga borib pulni oldiga qo'ydik. To'yga qilgan xarjingni ol, bu yog'iga yopiqli qozon yopiqligicha qolsin, dedik. U, bo'lsa pullarni betimga otdi. To'y xarjini kuyovga ber, men to'kilgan obro'yim, oriyatim uchun xun olaman, dedi. Er-xotin sudralishib Marg'ilon tushdik. Kuyovning do'konini qidirib topdik. U bo'lsa sizlarni tanimayman. Puling kerakmas, qizni topib kellaring, bir kun bo'lsa ham xotin qilmasam otimni boshqa qo'yaman, deydi. Nomard o'g'ling bilan baqamti qilasan, deydi. Boshimiz qotib qoldi. Bolamni bir balo qilib qo'ymasalar deb qo'rqyapman.

Tog'a o'rnidan turib ularni tinchitdi:

— Men senga aytsam, Ummat, bolang xavfsiz joyda, o'g'ling yurt og'ziga tushib qoldi. Hukumatning kattalari bu ishdan xabardor. Yo'ldosh ota kanal bitgandan keyin katta to'y qilib bermoqchi. Bugungi "Qizil O'zbekiston"ni ko'rdingmi. Mana, G'afur G'ulom yozibdi. Butun O'zbekistonga doston qilibdi. Menimcha, endi Azizxonga birov churq etmaydi.

— Ilohi aytganingiz kelsin, — dedi Ummatalining xotini.

— Lekin beparvo bo'lish ham kerakmas. Men kolxoz ishi, kanal ishi bilan bo'lib u taraflarga o'tolmayapman. O'zing bilasan-ku, Ummat, g'o'zada odam kam qoldi. Ha bo'l-ha bo'l, deb

turmasang, kuzda yerga qarab qolish hech gapmas. Agar ilojini topsanglar, mashina beray, bir borib bolani muborakbod qilib, ko'rib, aytadigan gaplarni tayinlab kelsanglar yomon bo'lmas.

— Mayli, — dedi Ummatali. — Bor, desang, borganimiz ma'qul.

Er-xotin Tog'aning gapidan ancha taskin topishdi. Ertaga azonlab Tog'aning mashinasi ularni Aziz ishlaydigan joyga olib borib keladigan bo'ldi.

Kampir kechga yaqin xamir qorib oshirgani qo'ydi. Kir tokchadan o'g'lining kiyimlarini olib taxladi. Ummatali dahlizda qo'njiga paytava tiqilgancha turgan etikni olib yarimta piyozni qozon tagiga tegizib "moyladi". Xotini ko'cha boshidagi hovli-dan yangi do'ppi olib chiqib o'zi taxtakachga bosdi.

Tong qorong'isida xotin tandirga o't qalab non yopdi.

Hali kun yoyilmay Tog'aning "emka"si eshik orqasida signal berdi. Er-xotin tugun-tersaklarni ko'tarib mashinaga chiqishdi-yu, jo'nab ketishdi.

Ona-ona ekan. Bolasini ko'rmaganiga o'n besh-yigirma kunlar bo'lib qoldi. Bu orada u ozib, shundog'am so'lg'in yuzlari battar za'faron bo'lib ketdi. Mashina bundan ham tezroq yursa, uchirib bolasining oldiga olib borib qo'ya qolsa!

Shofyor mashinani Quva markazida bir dam to'xtatib suv quyib oldi-yu, Asaka tarafga yeldek uchib ketdi. Ummatali shofyor oldida o'tirib yo'lni tomosha qilib borar, xotini orqa o'rindiqda tugunlarini yoniga qo'yganicha mudrab borardi. Havo qizigan, qora mashina kuzovi battar qizib, uni lohas qilardi. Xotin kechasi bilan uxlamay, bolasining kiyimlarini qayta dazmollab, sahar turib non yopib ancha holdan toygan. Uni uyqu eltdi. Andijon shahrini oralab, Qo'shariq guzariga yaqin qolganda mashina ikki otliq yigitga signal berib o'tdi. Otliqlar signal tovushidan egarda turib orqaga o'girilishdi. Ularning betini ko'rdi-yu, Ummatali-ning yuragi orqasiga tortib ketdi. Otliqlarning biri Akbarali, biri marg'ilonlik kuyov edi. Shofyor yalt etib Ummataliga qaradi. Ummatali xotini sezmasin deb barmog'ini labiga bosdi.

Hozirgina ko'nglini chog' qilgan dala manzaralari, yo'l-yo'lakay uchragan shinam guzarlar endi ko'z oldidan qochdi. Akbaralining g'azabli qiyofasi to'g'risiga kelib turib oldi.

"Nima qilib yuripti? To'ydan keyin ko'chaga ham chiqmay uyida chillaga o'tirgandek yakkalanib qolgandi-ku. Kecha aytgan niyatini amalga oshirgani kelyapti, qasos olgani kelyapti u".

Ummatalining yuragi shig' etib ketdi. Shofyor motorga gaz berib mashinani yana ildamlatdi. Kuyganyor ko'prigi oldiga kel-

ganda shofyor tormoz berib qo‘y yetaklagan kishidan yettinchi uchastka qay tarafdiligini so‘radi. U Lug‘umbek yo‘lini ko‘rsatdi.

Tovar vagonlari shundoqqina Kuyganyor bilan Poytuq yo‘lida to‘xtagan, undan qop-qop sement, temir-tersaklar tushirildirdi. Mashina o‘tishi uchun yo‘l yo‘q. Faqat piyodalar vagon taglaridan munkayib o‘tib turishi. Otiqlar, eshak minganlar sostav oxiridan aylanib o‘tishyapti.

Ummatali betoqatlana boshladi. Shlagbaumning ikki tarafida ot-arava, yukkash mashinalar to‘lib ketgan, ular tinmay signal berib otlarni hurkitishardi. Parovoz mashinisti beparvo, kabina derazasiga tirsagini qo‘yib bemalol papiros tutatardi. Vagonlarda bo‘lsa hali yuk ko‘p. Bir-ikki soatsiz ularni tushirib bo‘lmasdi. Shofyor pastga tushib u yoq-bu yoqqa o‘tib turgan yo‘lovchilardan, Lug‘umbekka boshqa yo‘l bor-yo‘qligini so‘radi. Unga Mayg‘ir orqali o‘tsa bo‘ladi, ammo sal olisroq deb aytishdi.

– Jon bolam, o‘shaqdan yur. Tezroq boraylik, ko‘nglinga yomon xayollar kelyapti.

Shofyor mashinani orqaga qaytarish mushkulligini aytdi. Chunki uning orqasidan qanchalab mashina-yu aravalar tirband bo‘lib ketgan edi.

– Bir balo qil, bolam. Otang o‘rgilsin, bir amalla.

Tog‘aning shofyori anchagina ish ko‘rgan, ko‘pdan beri har xil mashinalarni minib pishib qolgan edi. U ko‘p urinib, baribir eplolmadi. Mashinani qaytarish nihoyatda mushkul edi.

Aravasi temir yo‘lning nariyog‘ida qolgan to‘rt yigit tarvuzlarni berigi tarafga qopda tashib o‘tishayotibdi. Har yigitlarki, yelkasida to‘rttadan kishi o‘tirsas bo‘ladi. Shofyor chakkasini qashib turib ular qoplarini bo‘shatib yana tarvuz olib o‘tishga ketishayotganda yo‘llarini to‘sdi.

– Jon akalar, bitta savobli ish qilinglar. Beshovimiz bo‘lib shu mashinani orqaga qaratib qo‘yaylik.

Yigitlardan biri, pakana, kalladori hayron bo‘lib bir shofyor bolaga, bir mashinaga qaradi. Keyin kulib, qani bir ko‘raylikchi, dedi-yu, qopini chetga otib, sheriklarini yo‘ldan qaytardi. O‘zi “emka”ning orqasiga o‘tib tagiga qo‘l suqdi. Ko‘tarishga urinib bir kuchanib ko‘rdi. Mashina yarim qarichcha o‘rnidan ko‘tarildi.

– Bo‘ladi. Beshovlon bemalol burvoramiz. Kelinglar, akaxonlar!

Yigitlar barobar yopishishdi. Mashina asta ko‘tarildi. Keyin chap tomonga burilib sal o‘tmay ochiq yo‘lga chiqib qoldi. Yi-

gitlardan biri yaktagidagi changni qoqarkan, sheriklarini ermak qilgandek gapirdi.

— Senlar ham polvonman deb yuribsanlar-da. Agar Esh polvonni qulatgan Azizxon bo'lganda, bitta o'zi buni besh metrga otvorardi.

Bu gapni Ummatali ham, shofyor bola ham eshitdi. Ikko-vi bir-biriga ma'noli qarab qo'yishdi. Shofyor yigitlarga astoydil rahmat aytib, yo'lni Siza arig'i yoqalab Mayg'ir tomoniga burdi.

Yo'l-yo'lakay kanal qazishga kelgan kishilarning chodirlari, oshxonalar, ketmon, belkuraklarni peshlaydigan ko'chma ustaxonalar uchrab turardi. Ummatali o'g'lining tashvishi bilan bo'lib kanalda shunchalik katta ishlar bo'layotganini xayoliga keltirmagan ekan. Ayniqsa, Kuyganyordan chiqaverishdagi katta ravot tepasida o'g'lining suratini ko'rib entikdi.

Yaxlit choyshabga jigar rang bo'yoq bilan Azizxonning surati ishlangan bo'lib, tagiga "Do'smatovchi Azizpolvonga tenglashing!" degan chaqiriq yozilgan edi. Ummatalining ko'zlari yashnab ketdi. Xotiniga qaradi. Kampir mashinaning orqa oynasidan hamon suratga qarab kelardi.

Buni qarang-a, sho'x, yerga ursa, osmonga sapchiydigan, bebosh bolasi bugun yurtning og'ziga tushibdi.

Mashina past-baland yo'llarda sakrab-sakrab eski Haqqulobodga yetmay o'ngga burildi. Bu yerdan Maygir mashinada taxminan yarim soatlik yo'l edi. Tuyachi qishlog'iga yetay deganlarida yana boyagi ikki otliqning yo'lini kesib o'tishdi. Mashina jadal yurganidan otliqlar chang-to'zon ichida qolib ketdi.

Eshon qishloq, Oqmozor, Qoryog'di qishloqlarining yo'l-lari nihoyatda serqatnov edi. Ot-aravalar tinimsiz o'tib turipti. Minglab kishilar yalang'och bo'lib ketmon chopishar, zambillarda, qoplarda yuqoriga tuproq bilan intilardilar.

Shofyor mashinani "Qoryog'di mozor" qishlog'ining guzarida to'xtatdi. Chunki u yog'iga mashina borishi mushkul edi.

— Sizlarni shu yerda kutaman. Bemalol borib gaplashib ke-laveringlar. Rais kechgacha ruxsat bergan. Qorong'i tushmay orqaga qaytsak bo'lgani. Men ham bir tomosha qilib kelaman, — deya orqa eshikni kampirga ochib berdi shofyor.

Er-xotin tugun ko'tarib Azizxonni qidirib do'nglardan, tuproq uyumlaridan oshib ketishdi.

Kun peshinga og'ib, quyosh tikkaga kelgan payt. Bunday paytda Lug'umbek taraflarda havo nihoyatda dim bo'ladi. Ayniqsa, pastdan yuqoriga otilgan tuproqlar to'zoni havoda mual-

laq turib qolayotganga o'xshar, odam odamni ovozidan tussol-
lab tanir edi.

Ummatali kimdan Azizxonni so'rasa, hali yurasiz, deb yuqo-
ri tarafni ko'rsatardi. Shunisi ajablanarliki, Ummatali kimdan
o'g'lini so'rasa, u kim, deb o'tirmay darrov qayerdaligini ayta-
di. Ota uchun bundan quvonchli narsa bormi. Besh-olti ming
odam ishlayotgan, uning ustiga vodiyning har burchidan kelgan,
bir-birini tanimaydigan kishilar gap uning og'zidan chiqmayoq,
e Azizxonmi, polvon bolami, palon joyda deb aytadi.

Er-xotin yurib-yurib charchashdi. Kampirning mahsi-kavu-
shi tuproqqa to'ldi. Ummatalining terdan ho'l bo'lgan yaktagi-
ning yelkari changdan loyga aylanib ketdi.

— Sen charchading, xotin, manavi tol tagida o'tirib tur, men
o'g'lingni topib kelay.

Ummatali xotining oyoq olishiga qarab yuradigan bo'lsa,
otliq kelayotgan Akbarali undan oldin Azizxonni topadi, unga
biron shikast yetkazadigan bo'lib tuyulardi. Aksiga olib xotini,
voy, nega charchayman, yuraveraman, deb unga ergashdi. Ak-
barali kelayotganini unga aytgani yo'q. Aytisa hushidan ketib qo-
lishi hech gapmas. Nimjon narsa — yuragi yomon.

Yelkasiga ikkita kattakon sumka osgan yigit ular oldidan pil-
dirab qoldi. U ko'targan sumka ichi gazetaga to'la edi:

— Bolam, Azizxon polvon ishlaydigan joyni ko'rsatib qo'y-
maysanmi? — dedi Ummatali yalingandek.

Yigit to'xtadi. Unga boshdan-oyoq qarab ko'zlarini pirpi-
ratdi.

— Otaxon, siz Aziz polvonning dadasimisiz? Darrov tanidim.
Yuring, ko'rsatib qo'yay.

Yigit ular oldida pildirab borarkan, tinmay Azizxon qilayot-
gan ishlardan so'zlab borardi:

— Kechagi gazitni ko'rdinglarmi? G'afur G'ulom yozgan.
Rosa maqtabdi. Rustam doston depti. Bugun Azizxonni so'ra-
magan, surishtirmagan odam yo'q, desam bo'ladi. Hozir Eshon
qishloqda ham u kishini ikki otliq so'radi. Basharasidan bu yer-
ning odamiga o'xshamaydi. Uzoqdan kelgani shundoqqina bili-
nib turipti.

Ummatalining yuragi shuv etdi. Oyoqlari chalishib ketay
dedi.

Bundan chiqdi, Akbarali ataylab uni izlab kelyapti. Uning
niyati buzuq.

— Tezroq yur, tezroq. Tezroq bolamning oldiga olib bor. Jon
bolam, qadamingni ildamroq tashla.

– Shundog‘am yetolmayapsiz-ku, otaxon.

– Yuraver, yugur. Yetib olaman.

Ummatali xotinini orqada qoldirib, tuproqlarni to‘zitib, gan-diraklab, telbadek kalovlab pochtachi bola ketidan oshiqardi.

IV

Pochtachi yigit Ummatalini “Oq maktab” oldida yangi pay-do bo‘lgan tuproq do‘ngi tepasiga olib chiqdi.

Pastda polvonlar tuproq tashishar, terlagan yelkalari oftobda yaltirar, to‘zonlar orasida g‘oyib bo‘lib, yana yilt etib ko‘rinib qolishardi.

– Mana shu yerda birpas kutib turing, otaxon, o‘g‘lingiz hu anavi taxta ustidan yurib shu tarafga chiqadi. Mana shu turgan tuproq uyumini o‘g‘lingiz olib chiqqan.

Ummatali oyoq ostiga qaradi. U ikki tom bo‘yi tuproq uyumi ustida turardi. Shu tuproqni o‘g‘li ertalabdan beri tashib chiqar-gan edi. U hayratdan yoqasini ushladi.

Taxminan o‘n besh metr chuqurlikda, to‘zonlar orasidan bir yigit yelkasida qanor bilan taxta pillapoyani shoshilmay bosib, yuqoriga intila boshladi.

– Ana shu Aziz polvon bo‘ladi.

Ummatali pastga qaradi. Do‘ngga qiya qo‘yilgan taxta lapanglar, o‘zidan ikki-uch baravar katta ushoq ko‘targan chu-molidek bo‘lib, o‘g‘li yuqoriga shoshilmay chiqib kelar edi.

U bukchayib olganidan basharasi ko‘rinmas, faqat qanorning tagidan teskari uzatilgan qo‘li, taxtaga zarb bilan tushayotgan oyog‘igina ko‘rinardi. “Yaxshiyam onasi orqada qolib ketdi, agar bolasini shu alpozda ko‘rsa, bilmadim, qay ahvolga tushardi”, deb dilidan o‘tkazdi Ummatali.

– Aziz polvon shunaqa do‘ngdan yettitasini tiklab qo‘ydi. Bitta o‘zi o‘n yigitning ishini qilyapti.

Shu payt Azizxon kelayotgan taxtani bosib, bet-ko‘zini to‘proq bosgan ikki yigit iljayib chiqib kela boshladi.

– Qirg‘iz bolalar, Aziz polvonning o‘rtoqlari. Aziz polvon qanordagi qopni do‘ngga to‘kib tushguncha yangisini qanorga joylab turadigan shular.

Bu payt Azizxon yelkada qanor bilan do‘ng tepasiga yetib qolgandi. U oyoq tashlayotgan taxtadan boshqa yoqqa qaramas-di. Ummatali ovoz chiqaray, deb bir-ikki og‘iz juftladi-yu, yana

niyatidan qaytdi. Bolasi unga qarayman deb oyog'i toyib ketsa, pastlikka qulashi yo bo'lmasa tuproq to'la qanor tagida qolishi mumkin. Shuning uchun ham Ummatali damini ichiga yutib, qimir etmay turaverdi.

Azixxon do'ng tepasiga chiqib, bir silkinishda orqasidagi qanorni yonboshiga otdi. Qanor tushgan joyda tuproq ko'kka sapchidi. Keyin u qanorning tag tarafidan yuqoriga ko'tarib, ichida qolganini to'ka boshladi.

Azixxon bo'shagan qanorni silkilab, to'zg'igan changdan o'zini orqaga olarkan, birdan dadasiga ko'zi tushdi. Bu tasodifiy uchrashuvdan esankiragan Azixxon ko'zlarini pipiratib bir muddat turib qoldi. Ummatalining yuragi tuz sepgandek achishdi. Bolasi ozib, qorayib, ko'zlari ham kirtayib, ich-ichiga kirib ketganga o'xshardi.

– Dada, sizmisiz? – dedi Azixxon.

– Menman, menman, bolam.

Ummatali shunday deb bolasi tarafga intildi. Tizzasigacha tuproqqa botib bir yonboshiga qiyshayib qoldi. Azixxon uni qo'lidan tortib chiqazarkan, zap kepsiz-da, dada, zap kepsiz-da. Ayam yaxshi yuriptimi, qishloq tinchmi, deb tinmay javrardi.

– Meni kechirasizlar-da, dada, bir sho'xlik qildim. Xafa bo'lmaysizlar-da.

Ummatali bir so'z aytolmay, o'g'lini bag'riga bosganicha loy bo'lib ketgan yelkalaridan silardi.

– Ayang ham shatta bolam. Hozir yetib keladi. Orqada qolib ketdi. Manavi do'ngga chiqolmay pastda qolgan.

Azixxon taxta pillapoyadan chiqib kelgan ikki yigitga qaradi.

– Ovqatni o'zlaring yeyaveringlar. Men hozir, — deganicha “Oq maktab” tarafga tuproqlarni to'zg'itib tushib ketdi.

– Ha, bo'yniginang uzilmagur-a, sho'x, juda sho'x, bolasi tushmagur...

Ummatali orqasidan shunday deb javrab borardi.

Lug'umbekda ikkita maktab bo'lib, bittasi eski binoda mashg'ulot o'tkazardi. Bundan ikki yil oldin qishloq soveti kolxozlar yordamida yangi bir qavatli yetti yillik maktab qurgan edi. Bu taraflarda uy oqlash odat bo'lmaganidan yangi maktab oqqa bo'yalgandan keyin, xalq uni “Oq maktab” deb atay boshlagandi.

Ummatalining xotini tuproq uyumlaridan, past-balandliklardan, issiqda yurganidan charchab, madori qolmagandi. “Oq maktab”ning soya tarafida o'tirib erini kutardi.

Odamlar orasini yorib yugurib kelayotgan o'g'lini ko'rib kampir o'rnidan turdi. Shuncha yo'ldan avaylab olib kelgan tunganlarini tuproqqa pop etib tashlab o'g'lining istiqboliga yugurdi. Boshidan ro'moli tushdi. Siyraklashib arang bittagina ingichka o'ringa yaraydigan bo'lib qolgan sochiga taqqan so'lkavoy yugurganida u biqini bilan bu biqini orasida arg'imchoq uchib borardi.

Ona bolasini bag'riga bosdi. Terlab, tuproqqa qorishgan yuzlaridan tinmay o'par, yig'lar edi.

– Oh, bolaginam, bolaginam.

– Yig'lamang-da, ayajon, mana, yuripman-ku. Menga jin ham urmaydi.

Ona hamon uni bag'ridan qo'yib yubormas, peshanalaridan silar, yuz-ko'zlaridan tinmay o'pard.

– Rangi-ro'yingni qara, senga nima bo'ldi, bolam. Voy-bo', kiyim-boshlaring ham juldur bo'lib ketibdi. Nima yeb, nima ichib yuribsan, tentakkinam. Menginani kuydirib shaqlarda yuribman degin.

Shu payt Ummatali yetib keldi.

– Qo'y endi, onasi, damini olsin, ishlab turgan joyidan chaqirib kelyapman.

– Voy, shoshmang, diydorginasiga bir to'yvolay.

Kampir birdan lablarini cho'chchaytirdi. Qoshlari chimirildi.

– Menga qara, ahmoq. Bu nima qilganing. Birovning pardadagi qizini qayoqlarga oborib tashlading? Qani u? Yo sen opqochmaganmiding? Yomonlar o'lsin, yomonginalar o'lsin. Lutfinisani sen opqochgan gumon qilib ne-ne mazamatlarni qilishmadi. Ko'rdingizmi, dadasi, bolamda gunoh yo'q ekan. Qizni opqochgan boshqa ekan-ku! – Kampir o'z gapiga o'zi ishonmay qolib, yana o'g'liga jur'atsiz bir qarab oldi. – Yo o'zingmiding? Rostini ayt. Sen opqochmagansan-a?

Azixxon suvsizlikdan qurib shildirab qolgan ko'kat uchidan cho'p sindirib yerga nimanidir chizarkan, xijolatli ovoz bilan dedi:

– Men edim, aya. Men edim.

Ummatali bolasini xijolatlikdan chiqarish uchun gapni bo'lishga urinardi:

– Bolam, yuborgan pulingni oldik. Raisga uchrashgan edim, mashina berdi. Borib ko'rib kelinglar, undan ginamiz yo'q, xijolat chekmay, bermalol ishini qilaversin, deb aytdi.

– Shundoq dedi, bolam. Asti xijolat chekma. Aytganicha, Lutfinisa qayoqda?

– Shatta. Shatta ishlab yuribdi.

Kampir birdan yuzlarini timdaladi.

– Voy sho‘rim, nikohsiz, fotihasisiz-a?

Azizxon yerdan bosh ko‘tarmay javob qildi:

– Muncha vahima qilasiz, aya, hali hech gap bo‘lgani yo‘q-ku. Nahotki sizlarsiz men uylansam. Sizlar fotiha bermasanglar, aslo uylanmayman.

Ummatalining nazarida o‘g‘li ancha esli, mulohazali bo‘lib qolgandek edi. Musofirchilik, yakkalik unga ta’sir qilgan, esini kiritgan, deb o‘ylardi u.

– Bolam, senga aytadigan bir-ikki og‘iz gapim bor. Xoliroq joyda gaplashaylik. Onasi, sen shofyor bolaning oldiga borib damingni olib tursang, o‘g‘ling bilan bir-ikki og‘iz gaplashib olardim.

– Mendan yashiradigan qanaqa gapinglar bor? Gapiravering. Menam eshitay.

Ummatali chakkasini qashidi.

– Erkaklar gaplashadigan gap. Sen boraver. O‘sha yerda birga ovqatlanamiz. Azizxonning o‘zi bizni kuzatib qo‘yadi.

Kampir shu paytgacha erining bir gapini ikki qilmagandi. Bu gal ham, xo‘p, deb o‘rnidan turdi. Tuproqqa belangan tugunni olib tozaladi.

– Etigingni, ko‘ylaklaringni olib kelgandim. Undan keyin patir, somsa yopib kelganman. O‘rtoqlaring bilan baham ko‘rarsan, deb.

– Bo‘pti, bo‘pti, boraversang-chi, endi. Meni muncha diqqat qilasan, onasi. O‘ldirding-ku!

Erining birdan tajangligi tutganidan xotin hayron edi. “Birdaniga tutaqib qoldi-ya!” Kampir indamay o‘rnidan turdi-yu, do‘ng soya tashlagan yo‘lga qarab ketdi.

Ummatali orqasidan, shofyorga ayt, choy-poy tayyorlab tursin, deb qoldi.

Ummatali yaxshilab o‘rnashib o‘tirib olgandan keyin o‘g‘liga qovog‘ini solib ta’nali qaradi.

– Esing kirmadi sen ahmoqning. Boshimizni baloga qo‘yib, o‘zing bu yoqlarda tuproqqa qorishib yuribsan. Ish chatoq, bolam. Bu yerdan ketmasang bo‘lmaydi. Shu bugun, hozirning o‘zida ko‘rpangni ko‘tar. Ketish kerak.

– Nega endi? – dedi Azizxon ajablanib. – Bu yerga qochish uchun kelmaganman. Ishlab, shattan odam bo‘lib ketaman, deb ahd qilib qo‘yganman.

— Orqangdan falokat ergashib yuribdi. Akbarali qasos olaman, deb qasam ichgan. Pichoq charxlab seni poylab yuripti. Atayin, onang vahimaga tushmasin, deb oldida aytmadim. Hozir yo'lda kelaturib Akbarali kuyovi bilan otliq, shu tarafga kelayotganini ko'rdim. Pochtachi boladan seni surishtiribdi. Akbarali oriyatli odam! Qasd olmay qo'ymaydi. Ket bu yerdan, jon bolam. Axir sen peshanamda bittaginamsan. Biron kor-hol bo'lsa onang ham, men ham adoyi tamom bo'lamiz.

Azizxon sapchib o'rnidan turib ketdi.

— Boshga tushganni ko'z ko'radi. Men u o'ylagan anoyildan emasman. Mard bo'lsa, maydonga chiqsin.

— E bolam-e, e bolam-e, mard bo'lsa allaqachon maydonga chiqmasmidi. U alamzada xilvatda pichoq qayrab yuripti, o'chakishib bo'lmaydi. Ehtiyot yaxshi, bolam.

Azizxonga bu gaplar zarracha ham ta'sir qilmadi.

— Siz xotirjam bo'laving, dada. Qo'lidan hemirilik ish kelmaydi. Bunaqalarni ko'pini ko'rganman. Yaqinda bittasining dodini berib qo'ydim.

— Hali bu taraflarda ham ish ko'rsatib yuribman, degin. Nima qilasan o'zingga dushman orttirib. Bir kun payingni qirqadi, ular.

Azizxon beparvo qo'l siltadi.

— Tashvish qilmang, qo'yavering.

Bolasining bu go'daklarcha gaplari otasini battar tashvishga soldi.

— Axir Akbarali chuv tushgan kuyovi bilan yo'lingni poylab yuripti. Axir kechasimi, ovloqroq joydami pand berib qo'yishi mumkin-ku, nega tushunmaysan, ahmoq.

Azizxon dadasining betiga qarab iljayganча turaverdi. Ummatali battar tutaqdi. Ammo unga ta'sir qiladigan bironta ham gap topolmadi. Alam ustida uning betiga bitta shapaloq tushirdi.

O'g'il bolani urish gunoh deb biladigan Ummatali bu gal o'zini tutolmadi. Azizxon kiprik ham qoqmadi. Shapaloqdan oldin qanday iljayib turgan bo'lsa o'shanday turaverdi. Ummatali xuddi kulib turgan haykal betiga shapaloq urgandek, unda biron o'zgarish sezmedi.

Azizxonning betidan kulgi qochdi. Jiddiylashdi.

— Urib bo'ldingizmi? Yo, yana urasizmi? Uradigan bo'lsangiz, urib oling. Undan keyin gapimni aytay.

— E, senga sadqayi kaltak ketsin. Kaltak bilan odam bo'ladigan bo'lsang, gavron bilan urardim. Bari bir foydasi yo'q.

Azizxon bu xil gaplarni dadasidan ko'p eshitgan. Yayrab kuldi.

– Yur, ayangdi oldiga boraylik. Tezda qaytib ketishimiz kerak. Raisning bizdan boshqa ham tashvishi ko'p. Mashina zarur bo'lib qolsa, xijolatli ish bo'lmasin. Bechoraning bir oyog'i Nay-manda, bir oyog'i dalada.

Azizxon tugunlarni orqalab oldinga tushib yo'l boshladi.

– Sizlarni bir mehmon qilay, desam, kutadigan joyim ham yo'q. Bitta chodirda to'rt kishi turamiz.

– Bu gaplarni qo'y, mehmonga kelganimiz yo'q. Lutfinisani chaqirib kel, sog'-salomatligini o'z ko'zimiz bilan ko'rib ketaylik.

– Lutfinisa uzoqda. Hozir uni topib bo'lmaydi. Kechqurun keladi. Bugun kechqurun kelmasligi ham mumkin. Qo'shariqlik bir onaxonimizning uyiga borib bosh yuvib, kir chayqab kelmoqchi edi.

Ummatali, shunaqa degin-a, dedi-yu, indamay ketaverdi. U o'g'li orqasidan borarkan, yo'l-yo'lakay uchragan kishilarning unga salom berishi, orqasidan, “ana Eshni urgan polvon, ana, o'zidan yetti baravar og'ir yuk ko'taradigan”, deb havas bilan qarab qolayotgan kishilarni ko'rib, o'g'lining quyib qo'ygandek gavdasiga qarar, ko'z tegmasin iloyim senga, deb pichirlar, bir zumda yana allaqanday qora o'ylar girdobiga chulg'anib, entikardi.

“Oktyabr arig'i” ustiga o'rnatilgan o'nlab choyxona, oshxonalarda odam qaynar, ashula, qarsak tovushlari quloqni qomatga keltirardi. Choyxonalaridagi xo'randalar, choyxo'rlar Azizxonga o'girilib qarashar, bir-birlarini turtib uni ko'rsatishardi.

Azizxon bo'lsa qo'lida tugun bilan gavdasini g'oz tutib ular oldidan o'tib borardi.

V

Azizxon arqon karavotda u yoqdan-bu yoqqa ag'darilib uxlayolmadi. U bilan yonma-yon yotgan sheriklari Tengdik bilan Beyshenali allaqachon dong qotishgan. Azizxonning ko'z oldidan onasi ketmasdi. Shu o'tgan yigirma to'rt kun ichida so'lib, kichkinagina bo'lib qopti. Bechora.

Azizxon onasini ham, dadasini ham ko'p qiynadi. Diliga alaqancha ozor yetkazdi. Yolg'iz bolam, deb uni koyishmadi. Shu alfozda Azizxon kap-katta yigit bo'ldi. Biron kun na dadasi, na

onasi uyda xotirjam, yayrab o'tirganini biladi. Qilg'iliqni u qilardi-yu azobini dadasi bilan onasi tortishardi.

“Dadam bekorga tashvish tortyapti, — deb o'ylardi Azizxon. — Axir men o'zimni o'zim bilaman-ku. Dushmanlardan pand yeb qarab o'tirmayman-ku. Ammo bu gapni ayam eshitsa bormi, ketmay to'shagimning boshida o'tirib chiqardi”.

Azizxon tamoman uyqusi qochib o'rnidan turdi. Yalang oyoq chodirdan chiqdi. Odamlarning shovqin-suronlari eshilib turipti. Butun kanal trassasi bo'ylab sonsiz mash'alalar yoqilgan, kuni bilan damini olgan quruvchilarning kechki smenasi yer qazirdi.

Azizxon o'zi kunduzi tashib chiqazgan tuproq uyumi ustida cho'nqayib o'tirib oldi. Pastlikda chumolidek uymalanishayotgan kanalchilarning ishlarini kuzatib o'tirarkan, xayoli yana onasi bilan dadasiga ketdi.

U kanalga kelib yurt og'ziga tushib qolganidanmi, kattakichik unga alohida hurmat bilan muomala qilganidanmi, yo atoqli shoir u to'g'rida kattakon ocherk yozib, respublikaga ovoza qilganidanmi, har qalay endi ancha bosiq bo'lib qolgan, shu paytgacha qilgan ishlarini eslaganda o'zidan o'zi xijolat tortardi.

Shuning uchun ham dadasi bilan ayasiga yetkazgan ozorlari esiga tushib, yuragini o'rtadi. Atrofdagi mash'alalar porlab turgan, oying yarim o'rog'i Arslonbob cho'qqilari ustida jim qotgan kechada diliga shirin niyatlar tugib qo'ydi. Albatta ayasi bilan dadasini boshiga ko'tarmoqchi, el-yurt oldida hurmatini joyiga qo'ymoqchi. Ular shundoq o'g'il boqqanlaridan faxrlanadilar. Hamma ularni dasturxonning to'riga o'tqazadi. Falonchining dadasi, falonchining onasi, deb orqalaridan qarab qoladi.

Dadasi bilan ayasi qarib qolishibdi. Qolgan umrlarini undan rozi bo'lib o'tkazishsin, endi...

Pastdan tashib chiqarilgan tuproq derazasigacha ko'tarilgan novvoyxonaning mo'risidan alanga lop-lop ko'tarilar, ojjiz uchqunlari nim qorong'i osmonda birin-ketin so'nardi.

Azizxon tandirdan uzilgan non isidan tamshanib ichkariga bosh suqdi. Iyaklarini, qoshlarini qiyiq bilan tang'ib olgan yetti novvoy xuddi quduqqa sho'ng'igandek tandir to'la olov ichiga bosh suqib loladek qip-qizil nonlarni uzib ustiga suv separ, oppoq choyshab yozilgan so'ri ustiga beozor otardi.

Eshik oldiga qo'yilgan taburetkada maykachan bo'lib o'tirib olgan Eshon aka qaynoq ko'k choyni puflab-puflab ichardi. U novvoy so'riga tashlagan nonlardan birini qo'lga olib u yoqbu yog'ini qararkan, ko'zi tashqaridan mo'ralayotgan Azizxonga tushdi.

– Iya, polvon bola, nima qilib uxlamay dovdirab yuribsan?

– Uyqum qochib, salqinda aylanib yurgan edim.

Azixxon non tashlanayotgan so‘ri chetidan choyshabni qayirib omonatgina o‘tirdi.

– Bola, sen to‘yib uxlashing kerak. Kechqurun shtabga borgan edim. Sen to‘g‘ringda zo‘r gaplar bo‘ldi. Indinga o‘n kunlikning yakuni bo‘ladi. Do‘nan polvonga ot mindirishadi. Senga ham katta mukofot mo‘ljallab turishipty. Ot bo‘lmasa ham, toy mindirishsa ajab emas. Ertaga kanal gazetasida Esh polvonning chaqirig‘i chiqadi. Seni musobaqaga chaqiripti. Qalay, bellasha olasanmi?

Izboskan rayjrokomining raisi Buzruk Usmonxo‘jayev hamma yerda hozir-nozir, obro‘-e‘tiborli odam.

Azixxon kulib chakkasini qashidi.

– Bir urinib ko‘ramiz-da, Eshon aka. Notavon ko‘ngil, men bilan bellashgisi kelayotgan bo‘lsa, mayli. Esh aka kuchanib ko‘rsin. O‘zib ketsa, shundoq qilib qo‘lni ko‘ksimizga qo‘yami-zu, qoyilmiz, aka, deymiz.

– Bu gaping durust, – dedi Eshon aka issiq nonni ushatib uning oldiga qo‘yarkan. – Bu mard odamning gapi.

Eshon aka shunday deb shimining “o‘g‘ri cho‘ntagidan” yon soatini olib qaradi.

– E-ha, ikkidan oshibdi. Manavi choyni ich-da, borib yot. Men qassoblarni uyg‘otay, – Eshon aka novvoylarning keksarog‘iga qaradi. – Zuvalani kattaroq olinglar, bu nima, shaparak qivoribsizlar. Tishlaganda lunj shishib chiqadigan bo‘lsin.

U qaynog‘i sal qaytgan nonlardan o‘ntasini orqa-o‘ngiga qarab qiyiqqa tugdi-da, xayrlashmay chiqib ketdi.

– Eshon aka zap vallomat, hammabop kishi-da. Qayoqdagi kutilmagan gaplarni topib gapiradi. Boyadan beri yoshligida bir lo‘li qizga ishqiy tushib Rishtondan O‘ratepagacha xurjun orqalab piyoda borganini aytib, ichagimizni uzvoray dedi.

Azixxon bir burda issiq non ustidan choy ho‘plab o‘rnidan turdi.

– Men boray. Ertaga ish zo‘r bo‘ladiganga o‘xshaydi. Esh aka musobaqaga chaqirgan bo‘lsa, uyatli bo‘lib qolmay.

U chodirga kirganda qirg‘iz og‘aynilaridan biri choyshabni yelkasiga solib o‘tirib olgan, tinmay qashinardi.

– Qayoqda yurgan edingiz, aka, – dedi u tashvishlanib.

– Bir aylanib keldim. Yot, yotib uxla! Ertaga normani bugungidan ikki barobar oshiramiz.

Beyshenali po'ng'illab-po'ng'illab boshiga choyshab tortib yotib oldi. Azizxon boshqa hech narsani o'ylamaslikni ahd qilib yechinib yotdi. Boshi yostiqa tegmay pish-pish uxladi-qoldi.

Ertalab tong yorishishi bilan hamma yoq shovqin-suron bo'lib ketadi. Hech kim turinglar, deb odamlarni uyg'otmaydi. Shovqindan o'zlari uyg'onishadi. To nonushtagacha kim nima ish qiladi, qayerda ishlaydi — prorablar, desyatniklar tayyor qilib qo'yishadi.

Ayniqsa, komsomol brigadalari to nonushtagacha bir, bir yarim norma ishlab, keyin choyxonaga kelishadi. Toshkentdan qurilish texnikumi, temir yo'l institutidan kelgan desyatnik bolalar qizlar bilan to yarim kechasigacha hiringlashib, yana azonlab ishga chiqib ketaverishadi.

Barvaqt turgan Azizxon Tengdik va Beyshenalini uyg'otib ayasi olib kelgan patir, somsa, bankadagi asalni o'rta qo'yib nonushta qilishdi. Qirg'iz yigitlari xursand bo'lib, maqtab-maqtab dasturxonaga fотиha o'qishdi.

— Gap bundoq, — dedi Azizxon. — Bilib qo'yinglar, ish zo'r bo'ladi. Ammo lekin g'iring demaysizlar. Qanorni uchta qilamiz. To men qanorni to'kib kelgunimcha boshqasi to'lib turishi kerak.

— Joning temirdanmi? Ikkita qanor yetadi.

— Yo'q, — dedi qat'iy qilib Azizxon. — Uchta, vassalom! Tuproqni senlar qazimaysanlar, Jo'ravoy aka ikki yigit beradi. Ular qazib turadi, senlar qanorga solib menga orqalataverasanlar.

Aka-uka qirg'iz yigitlar bir-birlariga ajablanib qarab olishdi. Ularning bu qarashlarida ham hayrat, ham havas bor edi.

Uchovlari tepadan oshib trassaga kelganlarida Jo'ra polvon taxtadan qo'lbola qilib yasalgan metr bilan qaziladigan joyni o'lchab yigitlarga ko'rsatib turgan edi.

— Keldilaringmi? Manavi yerdan manavi yergacha senlarga.

— Sal qo'shing, ustoz. Yana ikki yigitni bizga bering-u, yana shuncha yer qo'shing.

— Bola, mayib bo'lmoqchimisan. Shu yetadi, bas!

— Yo'q, — dedi Azizxon. — Hali ko'rarsiz, Teshavoy aka ishimizni ko'rgani keladi. Esh aka musobaqaga chaqiripti. Bugungi gazetada chiqqan bo'lishi kerak, kechasi Eshon aka shundoq deb qoldilar.

— Shu Eshga ham hayronman-da. Yiqilgan kurashga to'y-mas, degandek nima qiladi sen bilan bellashib. Xo'p, mayli, sen aytganicha bo'lsin. Ammo o'zingga ehtiyot bo'l, bola. Kanaldan keyin ham yashash kerak.

Jo'ra polvon gazcho'p bilan yerni o'lchab, oxiriga qoziq qoqib qo'ydi. Keyin yerga o'tirib olib etigini yechayotgan yigitga qaradi.

— Azizxon bilan ishlaysan. O'zingga yana bitta sherik top. Senlar yer qaziysanlar, qirg'iz bolalar qanorlab turadi. Azizxon tepaga opchiqib to'kadi. Bo'ldimi?

— Bo'пти, aka, polvon bola bilan ishlasak ishlabmiz-da, shu bahona bizning ham suratimiz gazetada chiqib qolsin.

Jo'ra polvon brigadasiga andijonlik polvonlarni tanlab olgan edi. Ammo birontasi Azizxonga yetolmas, uning soyasida qolib ketardi.

U yoqda, Uchqo'rg'onda esa Do'nan polvon hech kimni oldiga tushirmay, kunlik normasini yetti yuz protsentdan oshirib bajarardi. Bundan Esh polvon jizg'inak bo'lardi.

Do'nan polvondan o'zishdan umidini uzgan Esh polvon Azizxon bilan bellashmoqchi bo'ldi.

Butun ikki yuz yetmish kilometrlik kanal trassasida uch kishining — Do'nan polvon, Aziz polvon, Esh polvonlarning nomi og'izdan tushmasdi. Gazeta deyarli har kungi sonida shu uch polvonning qazigan, chiqazgan tuprog'i qancha bo'lganini xabar qilar, agitatorlar suhbatning boshida ularning nomlarini tilga olardi.

Azizxon ikki marta Do'nan polvon ishlayotgan uchastkaga borib ishini ko'rib keldi. Zo'r. Juda zo'r ish qilyapti Do'nan polvon. Azizxon avval uni ko'rmay, kuchini chamalamay turib, Do'nan polvon nima bo'пти, undan o'tib ketaman, deb o'ylagan edi. Ishini ko'rди-yu, bu gapni o'ylamay aytganini bildi. Darhaqiqat, Azizxon Do'nan polvonga teng kelolmasdi. Balki, kurash tushsa uni yiqitar, ammo Do'nan polvon unchalik og'ir yuk ko'tarolmas. Chunki u yer qazishning tilini bilib olgan, rejani to'g'ri olishi, o'zini koyitmay bir me'yorda ketmon urishi boshqa kishining qo'lidan kelmasdi. Chunki Do'nan polvon Log'on kanalida ishlab chiniqqan edi.

Mayli, har kim o'z qo'lidan kelgan ishni qiladi. Azizxon o'zini yupatish uchun bahona topdi. Do'nan polvon ko'p tuproq qazishda birinchi. Ammo lekin tuproqni ko'p ko'tarishda u Azizxondan o'tib bo'пти.

Har qanday kishida ham g'urur bo'ladi. Ayniqsa, polvon kishining g'ururi boshqacha. Azizxon ham ana shu xislatdan bebahra emasdi. U bironta polvonni oldiga o'tkazmaslikka qasd qildi. Mard bo'lsa, qani o'tib ko'rsinchi. Agar o'tib ketgudek

bo'lsa, Azizxon ertasiga bugun ko'targan yukiga barobar yuk qo'shib ko'taradi...

Ish boshlanib ketdi. Taxta pillapoya qanor to'la tuproq tashiyotgan Azizxonning qadami zarbidan tinimsiz lapanglar, egi-lib-bukilar edi.

Azizxon qanordagi tuproqni do'ngga to'kib qaytarkan, tepalik odamga to'lib ketganini ko'rdi. Hamma uning pastdan yuqoriga chiqishini ajib bir ishtiyoq bilan kuzatardi. Bu tomosha uning g'ayratiga yana g'ayrat qo'shdi. Bolalik sho'xligi hali tanidan ketmagan bu o'spirinda yana maqtanishmi, tomoshabinlarga o'zini ko'rsatishmi, ishqilib, allaqanday go'daklik g'ururi alanganib ketdi. Qanorni to'ldirib turgan Tengdik bilan Veyshenaliga iljayib qaradi.

— Anavunisiga ham to'ldir. Ikkitasini orqalatasanlar.

Tengdik ko'zlarini katta-katta ochib qaradi.

— Jindi-mindi bo'ldingmi.

Azizxon o'zinikini ma'qullardi.

— Jilla bo'lmasa ikkinchisini yarimlatib orqalat.

Aka-uka qirg'iz bolalar bu o'jarning gapini ikki qilish mumkinmasligini bilib qolishgan edi. Noiloj tuproq to'la qanorni unga orqalatib, uning ustiga yana yarim qanor tuproqni bo'yni, boshi aralash orqalatishdi. Azizxon turgan joyida bir qalqidi. Beyshenalining yuragi orqasiga tortib ketdi. Ularning bu harakatlarini yuzlab kanal qazuvchilar tashvishlanib kuzatib turishardi. Azizxon oyog'i sal-pal titrayotganini sezdi-yu, ammo sir boy bermay taxta pillapoya tarafga yura boshladi.

Bir yelka qoqib qanorni o'ngladi. Alpon-talpon qadam bosib, pillapoyani belidan oshdi. Shunda uning boshidagi do'ppisi surilib peshanasiga tushdi, keyin ikki ko'zini bekitib qo'ydi. Yuqorida turganlar barobar oh urib yuborishdi. Azizxon oyoq tagidagi taxtani ko'rmay qolgan, sal nojo'ya, bemo'ljal oyoq tashlasa yo'ldan toyishi, pastga qulashi aniq edi. Shu payt birdan yerdanmi, osmondanmi Lutfinisa paydo bo'ldi. Peshanasiga ilinib qolgan do'ppisini yulqib oldi.

— Tashla, tashla qanorni! — dedi u qichqirib.

Azizxon qanor boshi tepasiga kelib qolganidan Lutfinisaga qarayolmasdi. Munkayganicha unga qichqirdi.

— Qoch, qoch yo'ldan!

— Tashla!

Lutfinisaning ovozini atrofda yuragini hovuchlab turganlarning hammasi eshitdi.

– Qoch deyapman! – Ichida, ishqilib sharmanda bo‘lmay, sharmanda bo‘lmay-da, deb pichirlardi. Uning qiyin ahvolda qolganini yuqoridagilar ham sezib qolishdi. Qulog‘iga har xil ovozlari eshitila boshladi:

– Tashla!

– Tashla, qanorni!

– Mayib bo‘lasan, bola!

Bu gaplar uning o‘jarligiga o‘jarlik qo‘shdi. G‘urur, oriyat taniga yashiringan kuchni tashqariga olib chiqdi, Azizxon bir silkindi, go‘yo bu silkinish tanidagi charchoqlikni to‘kkandek bo‘ldi. Shaxdam yurib, tepaga chiqdida, bir intilish bilan ikkala qanorni orqasidan do‘ngga irg‘itdi. Hamma yengil tin oldi. Chetda Azizxonning do‘ppisini ushlab Lutfinisa titrab-qaqshab turardi. Unga Azizxonning ko‘zi tushdi. Birdan yuzida tabassum paydo bo‘ldi. Unga qarab yura boshladi.

– Kelaver, kelaver, dadam ketdilar. Bu yog‘ini boplaymiz.

– E, boplamay ket. Odamlar bo‘lmasa, bitta shapaloq yerding.

Azizxon iljayib unga yuzini tutib berdi.

– Mayli, ura qol.

Shu topda trassaning har yer-har yeridan ketma-ket jom chalinib, odamlarni tushlikka chaqira boshladi.

– Yur, endi bir mazza qilib ovqatlanamiz.

Ikkovi yosh boladek bir-birini quvib yugurishdi.

Fil ko‘tarolmaydigan yuk ko‘tarib yana toychoqdek gijinglab ketayotgan bu yigitga, unga yetib olmoqchi bo‘lib talpinayotgan qizga odamlar ham kulib, ham ajablanib qarashardi.

Ikkovi “Oq maktab” oldidan o‘tishayotganda xotin-xalaj bir joyga to‘planib, tiqilishib nimadir qilishayotgan edi. Azizxon nima gap ekan, deb xotinlar orasiga suqilgan edi, kattakon chamadonni o‘rtaga qo‘yib ro‘mol sotayotgan cholni ko‘rdi. Azizxon uni tanirdi. U chorteraklik Inoyat oqsoqol degan kishi edi. Oqsoqol Zarkent, Zirillama taraflarga ham har xil buyumlar obo-rib sotardi. Eshagini sartaroshxona oldidagi tolga bog‘lab qo‘yib, yelkada xurjun to‘la baxmal, atlas, har xil tugma, zirak, baldoqlar bilan mahalla aylanardi.

Hozir u fanerdan yasalgan qo‘lbola chamadonini ochib qo‘yib, g‘o‘zapo‘choq g‘ijim ro‘mol sotyapti.

Birdan Azizxonning ro‘moldan Lutfinisaga olib bergisi keldi. Yonini kovlab bor pulini cholning oldiga tashladi.

– Kam, – dedi chol. – Bittasi o‘n olti so‘mdan. Puling o‘n besh so‘m-ku.

— Bir so‘m kam bo‘lsa nima bo‘pti. Uzilib ketarmiz, — dedi jahli chiqib Azizxon.

Chol pulni oldiga otib tashladi.

— Bor, go‘xo‘r yo‘q senga.

Azizxon cholni bir do‘pposlagisi keldi-yu, o‘zini bosdi. U otib tashlagan pulni olib cho‘ntagiga tiqdi.

— Ha, chayqovchi. — U shunday deb xotinlar qurshovidan chiqdi-da, indamay Lutfinisani qo‘lidan ushlab, pulim chodirda qolgandi, qo‘yaver, bozordan yaxshisini olamiz, degancha dag‘dag‘a qilib ketaverdi. “Oktyabr arig‘i”ning o‘ng qirg‘og‘ida shoxlari har tarafga tarvaqaylab ketgan kattakon yong‘oq bor edi. Inoyat oqsoqol eshagini shu yong‘oqqa bog‘lab ketgan ekan. Azizxon eshakka qarab bir nimani o‘ylab qoldi.

— Lutfi, sen ketaver, men hozir boraman. Istalavoydan menga ham joy olib tur. Orqangdan yetib boraman.

Lutfinisa indamadi. Azizxon bir eshakka, bir yong‘oqning baland shoxiga qaradi...

Inoyat oqsoqolning bozori chaqqon edi. Xotinlar talashib-tortishib ro‘mol xarid qilishar, chol necha pul so‘rasa savdola-shib o‘tirmay, oldiga pul tashlashardi.

Xotinlarning qiy-chuvi orasidan eshakning mungli hangrashi eshilib qolar, oqsoqol har zamon quloq tutib eshakning nolishini eshitakan, harom o‘lgur munaqa hangramasdi-ku, yo boshqa eshakmikin bu, deb qo‘yar, qizigan bozorni tashlab, eshakdan xabar olishga qo‘li tegmasdi.

Atrofda birdan hiring-hiring kulgi bo‘lib qoldi. Hamma yong‘oq shoxiga qarab tizzasiga urib kular, qiyqirardi.

— Hoy, nima balo bo‘ldi? — deb alangladi Inoyat oqsoqol.

Bir sho‘xroq yigit unga javob qildi:

— Oqsoqol ota, eshagingiz sizni obedga chaqiryapti.

Oqsoqol chamadonini qo‘ltiqlab eshak bog‘langan tomonga yugurdi. Qarasa, eshagi yong‘oqning shoxida qornidan osilib turtipti. Kimdir egarini qorniga tushirib ustidan arqon bog‘labdi-da, yong‘oq shoxiga osib qo‘yipti. Eshak bo‘ynini osiltirib, nafasi qisilganidan g‘ayri tabiiy tovushda chala hangrardi xolos.

Oqsoqol nima qilishini bilmay chamadonini qo‘ltiqlab, javragancha u yoqdan bu yoqqa yugurardi.

— Bu qaysi juvonmargning ishi?

Odamlar askiyaga olishardi.

— Amaki, eshakni rosa o‘rgatibsiz-ku. Qarang, yong‘oq tepasiga chiqib ro‘molaringizga xaridor chaqiryapti.

— Yo‘q, unaqamas. Bozorchi amakim ro‘mollarni sotib bo‘l-gunlaricha eshak qorovullik qilyapti. Melisa kelsa, hangrab xabar qilaman, deb chiqqan.

Oqsoqol bu gaplarga quloq solmas, askiyalarga parvo qilmas, tinmay g‘o‘ldirab so‘kinar edi.

Qilgulikni qilib qo‘ygan Azizxon odamlarga qo‘shilib xaxo-lab kulardi.

Azizxonning boyagi qanor ko‘tarishini kinoga olgan xronika operatorlari asbob-uskunalarini yelkaga ortib qaytishayotgan edi. Ermaktalab yigitlardan biri yong‘oq tepasini ko‘rsatib, ularga gap qotdi:

— Manavi hangamani ham kinoga olib qo‘yinglar, antiqa ta-mosho bo‘ladi.

Inoyat oqsoqol, kinoying boshingdan qolsin, deb yong‘oqqa tirmasha boshladi.

VI

Usmon Yusupov kech paytida Farg‘onaga kirib keldi. U bu-gun kuni bilan Rishton, Oltiariq, Toshloq va Marg‘ilon uchast-kalarida ishning borishini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib kelyapti. Azamat chinorlar bag‘riga burkangan ko‘chalarda yongan chiroqlarga qarab, o‘y o‘ylab kelardi. Ish u o‘ylagandan ham yaxshi edi. Toshloqliklar allaqachon yer qazish ishlarini tamomlab, boshqa uchastkaga yordamga o‘tishgan, bag‘dodliklar bo‘lsa kolxozlariga qaytib, dala ishlariga unnab ketishgan edi.

Yusupov oblast ijroiya komiteti binosi oldida mashinadan tushdi. Kanal shtabi shu binoga o‘rnashgan. Yusupov ertalab Toshkentga jo‘nab ketishi kerak. Shuning uchun ham ishning borishini kuzatib xotirjam bo‘lmoqchi. Shtabga kiraverishda uni ikki kishi kutib turardi. Yusupov ularni ko‘riboq tanidi. Biri — mashhur rus yozuvchisi Petr Pavlenko, ikkinchisi — kinorejissyor Eyzenshteyn edi. Yusupov ular bilan ko‘rishib ichkariga boshladi.

— Charchamadinglarmi, Petr Andreyevich?

— Charchaganimiz yo‘q, Usmon Yusupovich. O‘rtoq Mir-zayev bizga yaxshi yordam beryaptilar. Samolyot berdilar. Ikki marta Uchqo‘rg‘ondan to Konibodomgacha trassa ustida uch-dik. Juda ajoyib manzaralarni ko‘rdik. Endigi uchishimizda ki-nooperatorimiz bilan uchamiz. Hujjatli filmni Toshkent kino-studiyasida montaj qilmoqchimiz. Badiiy film ssenariysi oxirlab qoldi.

– “Pravda Vostoka”da ssenariydan parchani o‘qidim, – dedi Yusupov. – Menimcha, sizlar suv uchun kurashning shu kungi harakatiga ko‘proq e’tibor berishingiz kerak. O‘tmish haqida har qancha gap bo‘lsa tarixdan topaverasizlar. Ammo bugungi qahramonlikni tarixga o‘tmay turib ilg‘ash kerak. Men o‘qigan parchada, toshqin paytida To‘xtasinlarni to‘g‘onga bosish voqeasini olibsizlar.

Yusupov aytmoqchi bo‘lgan gapini o‘ylab qoldi. U qanday so‘z bilan aytsam, mehmonlarga malol kelmas ekan, deb o‘ylarnardi.

– Bu gaplar xalqning hamiyatiga tegadi. Ko‘ryapsizlar-ku, xalq qanday ishlar qilyapti. Xalqimiz ajoyib, ularga malol keladigan gaplarni yozmaslik kerak.

Pavlenko bilan Eyzenshteyn bir-birlariga ma’noli qarab olishdi.

– To‘g‘ri, – dedi Yusupov mumkin qadar ovozigga muloyimlik berishga tirishib, – shunday voqealar bo‘lgandir. Lekin men bu gaplarning haqiqatligiga ishonmayman. Afsona bu. – U shunday deb stol tortmasidan kattakon konvert oldi-da, ular tomon surib qo‘ydi.

– Yaqinda bir fotograf o‘rtoq kelgan edi. O‘zbekiston to‘g‘risida ko‘p tirajli fotoalbom qilmoqchi ekan.

Unga yaxshi sharoit yaratib berdik. Mana olgan suratlari.

Eyzenshteyn konvertni ochib suratlarni oldi. Ularning birida munkillagan bir chol eshak minib ketyapti. Yana birida Buxoro ko‘chalarida suv sotib yurgan, juldir kiyimli meshkobchi. Yana birida bozorning pastqam joyida bir cholni kursiga o‘tqazib, soqolini olayotgan ko‘cha sartaroshi tasvirlangan edi.

Eyzenshteyn bosh chayqab suratlarni stol ustiga qo‘ydi.

– Nahotki fotograf bugungi O‘zbekistondan shularnigina ko‘rdi.

– Men ham mana shunga hayronman. Nahotki bugungi o‘zbek shunaqa bo‘lsa! – Yusupov astoydil qizishib gapirardi, – men hozirgi rassomlardan, kompozitor, yozuvchi, kinochilardan o‘zbek xalqining bugungi porloq taqdirini, mehnat zafarlarini, ilm-fanda, texnika taraqqiyotida erishgan yutuqlarini kuylashlarini istayman. Do‘nan Do‘smatovni ko‘rdinglar-a, gaplashdinglar-a, qilgan ishlaridan xabarlaring bor. Ana shu odamning hayoti bir roman emasmi? Iltimos, kanal to‘g‘risida bo‘ladigan kinoga boshqa gap aralastirmanglar. Siz suratga olayotgan lentalar tarixdan tarixga o‘tadigan buyuk hujjat bo‘lib qolishiga isho-

naman. Kechirasizlar, qizishib ketdim. Hammasiga manavi fotosurat sababchi bo'ldi.

Yusupov uzr so'rab iljaydi.

— Qanday gaplaring bor? Mendan qanday yordam kerak? Sira tortinmay aytaveringlar.

Eyzenshteyn boyadan beri gapga aralashmay o'tirgan edi. Yusupovning chehrasi ochilganini ko'rib bemalol gapira boshladi:

— O'rtoq sekretar, hech narsadan kamligimiz yo'q. Faqat transportdan qiynalyapmiz. Bizga bitta yuk mashinasi kerak. Yetti-sakkiz projektor, ovoz yozish apparatlari, bir nechta assistentlarimiz bor. Yo'lda qolib ketyapmiz. Ayniqsa, tungi smenadagi ishlarni, halq sayillarini projektorsiz lentaga tushirolmay qiynalyapmiz. Agar iloji bo'lsa, uch kunga bitta aeroplan bersangiz. Ish qizigan paytda tepadan butun trassa bo'ylab uchib, suratga tushirib olaylik. Keyin bu manzaralarni topib bo'lmaydi.

Yusupov bloknotiga nimalarnidir yoza boshladi.

Yana nima kerak?

— “Pravda” ust-ustiga ikkita telegramma yubordi, — dedi Pavlenko. — Materiallarni telefon orqali berishimizni so'rabdi. Aloqa bo'limidagi o'rtoqlarga tayinlab qo'ysangiz, ba'zi-ba'zida Moskva bilan bog'lanishimga yordam berishsa.

Yusupov uning iltimosini bloknotiga yozarkan, dedi:

— So'ragan narsalaringizning hammasini bajo keltiramiz. Mashina ham bo'ladi, aeroplan ham bo'ladi, telefon ham. Yana qanday iltimoslaring bor?

Pavlenko bilan Eyzenshteyn o'rinlaridan turishdi. — Rahmat, o'rtoq Yusupov. Boshqa iltimosimiz yo'q. Yusupov ularni eshik oldigacha kuzatib qo'ydi. Keyin xonaning u boshidan bu boshiga yurarkan, o'zini lohas sezib, kiteli tugmalarini yechdi-da, derazani ochib yubordi. Xonaga salqin oqshom shamoli kirdi.

“Pryamoy provod” deb atalmish telefon uzoq, shiddatli jiringladi. Yusupov shoshib trubkani oldi.

— Eshitaman, — dedi Yusupov o'ziga xos bo'g'iq ovoz bilan.

Bu telefon boshqa telefonlardan farqli o'laroq naryoqdagi gaplashayotgan kishining ovozini boshqalar ham bemalol eshita bo'lardi.

— O'rtoq Yusupovmi? Stalinning yordamchisi Poskrebishev gaplashyapti. Hozir siz bilan Iosif Vissarionovich gaplashadilar.

Yusupov qaddini rosladi. Bir muddat jimlik cho'kdi. Qiya ochiq qolgan eshikni Mirzayev orqa tarafdin zichlab qo'ydi. Trubkadan ovoz eshitildi:

– O‘rtoq Yusupov!
– Yusupov eshitadi, o‘rtoq Stalin!
– Sog‘-salomatmisiz? Respublikangizda paxta terimiga tay-yorgarlikning borishini bilmoqchiman.

– Zarafshon vodiysi hamda respublikaning janubidagi kolxozlar yalpi terim boshlash arafasida turipti, o‘rtoq Stalin.

– Farg‘ona vodiysi-chi?

– Farg‘ona vodiysida paxta kechroq yetishadi. Yalpi terim sentyabr o‘rtalarida boshlanadi.

– O‘rtoq Yusupov, kanal ishlari terim sur‘atiga ta‘sir ko‘rsatmasligi kerak. Siyosiy byuro bu masalaga jiddiy qarayapti. Shuning uchun ham qanal qazishni jadallatish maqsadida sizlarga yigirma million so‘m pul ajratdik. Bulardan tashqari tez kun ichida ikki yuzta yuk mashinasi, oltmishta traktor, yigirmata dvijok hamda o‘n ming tonna sement jo‘natgan edik, oldinglarmi?

Yusupovning ko‘zlari yashnab ketdi.

– Sizga katta rahmat, Iosif Vissarionovich! Oldik, siz yuborgan traktor va mashinalar ishga tushib ketgan. Yigirmata dvijok tungi smenalar ishlaydigan joylarga o‘rnatildi.

– Xalqning kayfiyati qanday? Shuni bilmoqchiman.

– Yaxshi. Ota-bobolari suvga tashna o‘tgan xalq bu ishga jon-dili bilan kirishib ketdi. Butun-butun oilalar ishlagani kelyapti. Dam olish kunlari shaharliklar o‘z ixtiyorlari bilan hashar qilishyapti. Kiyev, Xarkov, Moskva, Ural shaharlaridan minglab kishilar kanalga kelib ishlash xohishini bildirib xat yozishyapti.

– Bu yaxshi. Ammo kanal ishlariga boshqa taraflardan odam jalb qilmaslik kerak. Sizdan iltimos, quruvchilarning maishiy ahvoliga alohida e‘tibor bering.

– Xo‘p bo‘ladi, o‘rtoq Stalin.

– To‘qimachilik sanoatimiz paxta ekadigan respublikalarning qo‘liga qarab turibdi. Sizdan bu masalaga jiddiy qarashingizni so‘rayman. Kanal qurilishida ishning borishi haqida gapirib bersangiz.

Yusupov trubkani chap qo‘lida ushlab, o‘ng qo‘li bilan kitelining ko‘krak cho‘ntagini titkilay boshladi. Bloknotini topib stolga qo‘ydi. Keyin qulog‘idagi trubkaning bir uchini yelkasida qisib bloknotini varaqlay boshladi.

– Bugun sakkiz yuz yetmish sakkiz ming kubometr tuproq qazildi. Ish boshlangan kundan buyon o‘n uch million uch yuz to‘qson olti ming kubometr tuproq chiqarildi, o‘rtoq Stalin. Yer qazish ishlari sakson ikki protsentga yetdi.

– Hammasi bo‘lib qancha tuproq chiqarilishi kerak?

– O‘n olti million kubometr, o‘rtoq Stalin.

– Bugun “Pravda” da Do‘smatov degan kishi haqida o‘qiddim. Shu kishi to‘g‘risida batafsilroq gapirib berishingizni so‘rayman.

– Do‘smatov oddiy kolxozchi. Ilgari Log‘on kanalida ishlab nom chiqargan edi. Endi bu yerda katta ishlar qilyapti. Bugun kunlik yer qazish normasini sakkiz yuz oltmish protsent bajardi.

– Kecha vatanimiz Aleksey Staxanovning ajoyib harakati boshlanganining to‘rt yilligini nishonladi. Staxanovchilik harakati mamlakatimiz sanoati hamda qishloq xo‘jaligini yuksaltirishda olamshumul rol o‘ynadi. Kanal qurilishida do‘smatovchilik harakatining qanot yozishiga e‘tibor berishingizni so‘rayman.

– Xuddi shunday qilyapmiz, o‘rtoq Stalin. Do‘smatovchilik harakati yangi qahramonlarni yuzaga chiqazyapti. To‘qson bir yoshli Xidirov bilan o‘n sakkiz yoshli Ummataliyev degan kolxozchilar kunlik topshiriqni yetti yuz protsentdan oshirib ado etishyapti.

– Bu juda yaxshi. Bunday kishilarni avaylash, qadriga yetish kerak.

Trubka ancha vaqtgacha jim turib qoldi. Stalinning yo‘talgani, parket pol g‘ichirlab, oyoq tovushlari eshitildi. – Eshityapsizmi, Yusupov?

– Eshityapman, Iosif Vissarionovich! Qulog‘im sizda!

– Indinga, yigirma sakkizinchi avgust kuni SSSR Oliy Sove-tining sessiyasi ochiladi. Kun tartibini oldingizmi?

– Oldim.

– O‘z mulohazalaringizni yozma ravishda Mixail Ivanovich-ga yuborishingizni so‘rayman. Siz bu galgi sessiyaga kelmasligingiz mumkin. Paxta terimi yaqinlashgani, kanal ishlarining jadalligini nazarda tutib, siyosiy byuro shunday qarorga keldi. Ishlaringizga muvaffaqiyat tilayman. Kanal quruvchilariga mening alangali bolsheviklik salomimni yetkazing. Qurilish ishlari to‘g‘risida kun ora shaxsan o‘zimga xabar qilib turing. Xayr!

– Xayr, sog‘ bo‘ling, Iosif Vissarionovich!

Ovoz tingandan keyin Yusupov trubkani joyiga qo‘ydi. U Toshkentga bir kecha qo‘nib, Moskvaga uchib ketmoqchi edi. Endi borishning hojati qolmadi. Stol yonboshidagi tugmani bosdi. Yordamchisi kirdi.

– Oxunboboyev qayerdalar?

– Marg‘ilon uchastkasidalar. Hozir sizni so‘ragan edilar.

– Telefon qiling!

Yordamchi chiqib ketdi. Zum o'tmay yozuv stoli ustidagi chiroq yondi. Yusupov trubkani oldi.

– Yo'ldosh aka, sizmisiz? Sessiyaga men bormaydigan bo'lib qoldim. Moskvadan shundoq deb aytishdi. Mayli, siz boravering, meni kutmang. Bitta iltimos, qaytguningizcha ish oxirlab qoladi. Toshkentga tushmay, to'ppa-to'g'ri Farg'onaga uchavering. Terimga ketadiganlarni bir xursand qilishimiz kerak. Yorliq topshiramiz. O'zingiz topshirasiz-da. Kelguningizcha tayyor qilib turishadi. Xo'p, yaxshi borib keling.

Yusupov trubkani qo'yib kitel tugmalarini qadadi. Qabulxonaga chiqib bugungi svodkani tekshirayotgan Mirzayev tepasiga keldi.

– Teshavoy, zarur bo'lib qolsam Zarkentdan topasizlar. – U shunday deb, uzun koridor bo'ylab keta boshladi. Qabulxonada ancha vaqtgacha uning gurs-gurs qadam tovushlari eshitilib turdi.

Mirzayev boshini chayqab qo'ydi.

– Bu odam qachon uxlaydi. Hozir u yog'i sakson, bu yog'i sakson kilometr yo'l bosib keldi. Yana ketyapti-ya!

Tashqaridan mashina gurillagani eshitildi. Zum o'tmay uning ovozi uzoqlashib, oqshom qo'yniga singib ketdi.

VII

Akbaralining Lug'umbekda uzoq turgisi yo'q. Odamlarning nazariga chalinmay tezroq "ishini" bitkazsa-yu, suvga tushgan toshdek jimib ketsa. Ana shuning uchun ham u kelganidan beri tushgan qo'rasidan chiqmadi. Kechqurun qosh qorayishi bilan aylanib Azizxonning qayerda yotishi, qayerda ishlashini bilib keldi. Kuyovi yo'lga chiqayotganlarida juda g'azabga mingan, Azizxon uchrab qolgudek bo'lsa g'ajib tashlaydigan bir ahvolda edi. Negadir, bu yerga kelib bo'shshib qoldi. Odamlarning shovqin-suroni uni gangitib qo'ydimikin? Yo Azizxonning dovrug'i esankiratdimi? Har qalay kamgap, u yoqqa boradi, uh tortadi, bu yoqqa keladi, uh tortadi.

– Nima, shashtingizdan qaytib qoldingizmi, kuyov bola? – dedi kesatib Akbarali, – Agar qasdimni olmasam Normat otimni boshqa qo'yaman, demaganmidingiz? Mayli, orqaga qayta qoling, otingiz bugundan boshlab Normat emas, Nomard bo'la qolsin.

Bu gap Normatning nafsoniyatiga tegib o'tdi. Qoshlari chimirilib, bir nafas Akbaralining betiga qarab turdi-da, kinoyali iljaydi.

– Shunaqa deng-a. Mayli, ko‘ramiz, kim mard-u kim no-mard ekan.

U shunday deb o‘rnidan turdi, chetga tashlab qo‘yilgan xurjun ko‘ziga qo‘l tiqib belboqqa o‘ralgan uzun narsani oldi. Belbog‘ni yechib jez poynakli qindan pichoqni chiqazdi. Tig‘ini tirnog‘iga tegizib ko‘rdi-da, etigining qo‘njiga tiqib indamay chiqib ketdi.

Akbarali yo‘lakkacha kuzatib chiqdi.

– Ehtiyot bo‘ling, sizni shatta kutaman.

Normat indamadi, qayrilib qaramadi ham. Muyulishdan burilib katta ko‘cha tarafga keta boshladi.

Kech kirib trassalardan tovush kelmasdi. Kunduzgi sme-na ishdan qaytib kechkisi hali ishga tushmagan. Teraklar uchi zar surtilgandek yiltirab turipti. Ariq tepasiga o‘rnatilgan o‘nlab choyxona-yu oshxonalarda odamlarning gangir-gunguri, oshpazlarning xo‘randa chaqirishlari, ariqni to‘ldirib cho‘milayotgan yuzlab quruvchilarning shovqinlari eshitilib turardi.

Normat Azizxonlar yotadigan chodirga qarab yura boshladi. Chodir oldida Tengdik yerga sholcha yozib chordana qurib o‘tirib olgan, qo‘mizini ko‘ksiga tirab allaqanday bir mungli kuyni chertardi. Besh-o‘n kishi tik turib uning qo‘muzni goh boshidan, goh bo‘ynidan aylantirib chalishiga mahliyo bo‘lib turardi. Normat u yoq-bu yoqqa qarab ular orasida Azizxonni ko‘rmadi. Nima qilishini, uni qaydan qidirib topishini bilmay, birpas hardamxayol turgandan keyin tuproq kechib pastga tushib ketdi. Hamma yoqda odam, biri u yoqqa qarab yuradi, biri bu yoqqa qarab. Tuproq uyumlarini tizza bo‘yi kechib “Oq maktab” oldiga bordi. Ammo uchraganlar orasida u qidirgan kishi yo‘q edi.

Normat uni boya ishlayotgan yeridan topish niyatida ko‘prikdan o‘tib do‘nglik tagiga keldi. Do‘ngning tepasigina yorishib turardi. Mana shu terak bo‘yi do‘ngni Azizxonning bir o‘zi ko‘targan.

Normat yuqoriga qaradi. Ikki kishining soyasiga ko‘zi tushdi. O‘tirganlarning biri erkak, biri ayol edi. Orqa o‘girib o‘tirganlaridan Normat ularning kimligini bilolmadi. Ularga qaragancha turib qoldi. Qo‘l siltab orqasiga qaytmoqchi bo‘lib turgan edi, ayol sharaqlab kuldi. Normat sergak tortdi. Bu Lutfinisaning kulgisi edi. Normatning vujudi titrab ketdi. Bu uning xotini. To‘y-tomosha qilib, qo‘sh karnay, qo‘sh surnay chaldirib, kuyovnakarlar bilan ostonasiga qadam qo‘ygan xotini edi.

Normat engashib etigining qo‘njini paypaslab ko‘rdi.

Atrofda odam ko'p. Hozir biron tadbir ko'rishga noqulay payt. Qorong'i tushishini, o'zi yolg'iz qolishini kutish kerak. Normat orqaga chekinib yong'oq tagiga keldi. Keksa yong'oq tanasiga suyanganicha o'y o'ylay boshladi:

“Shu topda, do'ng tepasida bir-birining pinjiga suqilib o'tirgan mana shu ikki kishi mening baxtinga zomin bo'ldi. Shu ayol, shu benomus ayol mening xasmim edi. Yurt oldida yuzimni yerga qaratib, yor-do'stlaringma ermak qildirib, to'y kuni kelinlik liboslari bilan qochdi. Er kishiga bundan ortiq haqorat bo'ladimi? U mening uyimda, qo'ynimda bo'lishi kerak edi. Hovlimda yoqilgan gulxan o'chdi. Xotinlarning yor-yori og'zida qoldi. Kelinni olib kelgani ketgan aravalar bo'sh qaytdi. Ichkari-tashqari hovlini to'ldirgan mehmonlarning biri kulib, biri bosh chayqab tarqab ketdi. Ertalabgacha qo'shiq, yor-yor aytiladigan hovli tong otguncha o'lik chiqqan uydek sukunat ichida qoldi. Bu alamlar, bu azoblar faqat qon bilan yuviladi. Faqat qon bilan...”

Normat o'ylagan sari niyati qat'iylashib borar, tezroq qorong'i tushishini, odamlar oyog'i tovsalishini betoqat kutardi.

Qorong'i tushdi. Tepadagi soyalar ko'rinmay qoldi. Normat yong'oq shoxlari to'sgan supacha ustida g'ujanak bo'lib, o'ljasini kutgan qoplondok qimirlamay o'tirardi. Do'ngdan tushgan Azizxon Lutfinisa bilan beparvo tuproq kechib shu tarafga qarab kelardi. Lutfinisa qo'lida tol novdasini silkib, taytonglab, qiqirlab kulib kelyapti. Orqada Azizxon uni bilagidan ushlashga intilar, Lutfinisa qo'lini siltab goh o'ngga, goh chapga o'zini tashlardi.

Normat etigining qo'njidan pichog'ini chiqardi. Uni shart qinidan sug'urdi-yu, oldinga bir qadam intildi. Oyog'i tashlagan joyiga tushmay gandaraklab bir qalqib oldi. Shunda u oyog'i, qo'llari qaltirayotganini sezdi. Chap qo'lida turgan pichoq qini titrayotgan barmoqlaridan tushib ketdi. Poynagi tuproqqa beozor sassiz sanchildi. Normat jur'atsizlanib orqaga chekindi. Tanini titroq bosib, ko'z oldida kattakon olovli doira aylana boshladi. Xuddi birov uchi cho'g'ga aylangan kasovni ko'zi oldiga keltirib tinmay aylantirayotganga o'xshardi.

Normat umrida birov bilan yoqalashmagan, hatto uylarida qo'y so'yishganda ham ko'rishga yuragi dov bermay, yo teskari qarab olar, yo bo'lmasa ko'chaga chiqib ketardi. Bugun endi u qo'y emas, odam so'ymoqchi bo'lib pichoq ko'tarib qelgandi. Bo'lmadi, qo'li qaltiradi.

Azizxon xuddi uning oldiginasidan Lutfinisani quvib o'tdi. Sal nari borib tutdi. Tutib bag'riga bosdi. Cho'pillatib o'pdi.

Normat hamon o'ziga kelolmay titroqda edi. Azizxon ancha nariga ketib qolganda u o'ziga keldi. Engashib pichoq qinini oldi. Beixtiyor ularga ergashib keta boshladi. U qayoqqa ketyapti, ergashib nima qiladi, o'zi ham bilmasdi. Ko'prikdan o'tdi, Mash'ala yoqilgan choyxona oldiga kelgandagina qo'lida pichoq borligini sezdi-yu, shoshib qo'yniga tiqdi.

Azizxon bilan Lutfinisa hamon hiringlab oldinda borishardi. Normat ham ulardan qolmay izma-iz ketaverdi. Guvala devorli qo'ra oldiga kelganda Azizxon bilan Lutfinisa to'xtashdi. Azizxon qizni bag'riga bosib uzoq vaqt qo'yib yubormadi. Ikkovi bir-birlariga yopishganlaricha ancha vaqtgacha turib qolishdi. Yonlaridan o'tib ketayotgan kishilarning kulishlariga ham parvo qilishmasdi. Normat ularning bu ahvoliga loqaydgina qarab turardi. Oxiri Lutfinisa Azizxonning bag'ridan yulqinib chiqdi-yu, ochiq eshikka o'zini urdi. Azizxon u kirib ketgan eshikka ancha vaqt qarab turdi. Keyin tilar-tilamas orqasiga qaytib keta boshladi. U yana Normatning oldidan o'tdi. Uning betiga bir qarab qo'ydi. Tanimadi. Normat yana unga ergashdi. Endi Azizxonning qadami tezlashdi. Birpasda chodirlar shaharchasi ichiga kirib ko'zdan yo'qoldi.

Normat boya uni qidirib borganda chodirini ko'rgandi. Qirg'iz yigiti qo'muz chertib o'tirgan chodir ichida endi chiroq miltillardi. Normat chodir oldiga kelib atrofga qaradi. Hech kim yo'q. Hamma "Oq maktab" orqasidagi maydonga kontsert ko'rgani ketgan. Chodir ichidan patefonning g'irillab aylanishi, undan keyin "Ro'molim" qo'shig'i eshitildi. Normat qo'shiqqa quloq solib ichkaridagi odamning chiqishini kuta boshladi.

Chodirning cheti ko'tarilib maykachan bo'lib olgan Azizxonning soyasi ko'rindi. Normat sergaklandi. Azizxon uni ko'rsa ham parvo qilmay yelkada sochiq bilan suv bo'yiga tushib ketdi. Sal o'tmay suv shaloplagini eshitildi. Normat qo'shiqqa quloq solib o'tiraverdi. Patefon ignasi plastinka oxiriga yetib bir xil g'irillay boshladi. Birdan Normatning hushi o'ziga keldi. Bu yerda nima qilib yuribman, deb o'zidan so'radi. Axir bu bola ne-ne polvonlarning belini bukib, yelkasini tuproqqa qorishtiryapti. Axir meni ikki yamlab bir yutib qo'yadi-ku!

— Shoshma, Normat! — dedi o'ziga o'zi. — Lutfinisa senga tegaman deb so'z berganmi? Akasining so'ziga kirib to'y qilding, sharmanda bo'lding. Endi yana uning gapiga kirib qamalmoqchimisan? Kallang bormi, Normat? Xo'sh, orqasidan borib bexosdan pichoq ham urding deydik, undan keyin nima bo'la-

di? Umring qamoqda o'tib ketmaydimi? Qamalsang-ku, mayli-ya, lekin otilasan, qoq peshanangdan otishadi. Ko'zingni och, Normat! Xotin deganni bunaqa qilib olmaydi. Baxting ochilsa, o'zingga munosibi chiqib qolar.

Normat o'zi bilan o'zi gaplashib turarkan, yalang'och ko'kraklarini sochiq bilan ishqab Azizxon chiqib qoldi. Chodir yonida soyadek qorayib turgan kishi oldida to'xtab, engashib uning betiga qaradi. Normatning joni tovoniga tushib ketgandek, ichi shuv etib ketdi. Tili gapga kelmay g'udrandi.

— Kimsiz? Keling!

Normat hamon qimirlamasdi.

— Gap-mapingiz bormi menda?

Azizxon uni tanimadi. To'y kuni uzoqdan, kuyovlik sarpolarida ko'rgan, basharasi esidan chiqib ketgan edi. Esh polvon yuborgan "vakil"lardan birontasidir-da, deb o'yladi. Chodir chetini ko'tarib, kiring, mehmon, deb ichkariga undadi.

Normat sehrlangandek unga ergashib ichkariga kirdi. Chodir ichida tosh fonar yonib turipti. Patefon burovi tugab tingan. Uchta yog'och karavot ustidagi ko'rpa-to'shaklar besaranjom bo'lib ketgan. Normat Azizxon ko'rsatgan karavotga o'tirdi. O'tirdi-yu, boshini egib yerga qadalgancha qoldi. Azizxon uni mastmi, telbaroq odammi deb gumon qildi. Bundan tashqari polvonligini eshitgan Andijon yigitlari ko'rgani kelib orqasidan ergashib yurishar, chodirga qovunmi, tarvuzmi ko'tarib kelib uni tomosha qilishardi. Azizxon o'shanaqalardan bittasi bo'lsa ajabmas, deb o'yladi. Kutilmagan mehmonga tikilgancha o'tiraverdi.

Normat boshini ko'tarib unga qaradi. Azizxon chinakamiga istarali, butun vujudida allaqanday bir joziba o'ynab turardi. Normat uning ko'pchib turgan ko'kraklariga, har biriga bittadan yigit o'tirsa bo'ladigan yelkalariga mahliyo bo'lgancha qotib qoldi. Azizxonni u birinchi marta yaqindan ko'rishi edi. Yosh, juda yosh. Hali ona suti og'zidan ketmagan norasta. Shundoq kuchga, shijoatga to'lgan bolaning qonini to'kish gunoh emasmi.

Normat unga boshdan-oyoq yana bir razm soldi. Beixtiyor yaktaginging qo'yniga qo'l tiqdi. Pichoqni topdi. Tasmollab pichoqning sopini o'nglab ushladi. Shu alpozda o'rnidan turdi-yu, shartta qo'ynidan pichoqni olib Azizxonning oldiga otdi. Pichoq oyog'i yoniga tushdi.

Normat bir so'z demay tashqariga chiqa boshladi. Azizxon nima gap bo'layotganiga tushunmay, bilagidan ushlab qoldi.

— Bu nima qilganingiz, aka. Bu nima qiliq?

Normat o'girildi.

– Seni o'ldirgani kelgandim. Niyatimdan qaytdim. Jonni senga Xudo bergan, kerak bo'lganda o'zi oladi, bandasi Ollohning irodasidan chiqa olmaydi.

Azixxon bilagini qo'yib yubordi. Normat boshqa gap aytmay chiqib ketdi.

VIII

Ketmontepadan bu yog'iga Norin daryosi ming burilishlardan o'tib, ming bir pastliklarga bosh urib, ko'pirib, quturib keladi. Nihoyat, Uchqo'rg'onga kelib holdan toyadi, yuvosh bo'lib qoladi.

Ketmontepada bir kampir Noringa tushib ketgan ekan. Bolalari qirg'oq bo'ylab chirqillab, uni qidirib yurishganda bir chol shunday deydi:

– Bolam, onangni endi Uchqo'rg'onda ko'rasan.

Xalq orasida yurgan “Onangni Uchqo'rg'onda ko'rasan” degan gap o'shandan qolgan.

Katta Farg'ona kanaliga suv beradigan asosiy to'g'on Norinning mana shu Uchqo'rg'onga kelib yoyilib oqadigan joyiga quriladi. Daryoning ikki tarafi qoya toshlari bilan o'ralgan. Suv chiqazilishi kerak bo'lgan kanal bir necha kilometrgacha daryoning eski o'zani bo'ylab borishi kerak. Bunda yer qatlammi tosh, shag'al bilan bosilib yotibdi. Uni qazishga na ketmon, na belkurak chidaydi. Ketmon tekkan joyda chaqmoq chaqadi. Belkuraklar sopi qarsillab sinadi. Ikkitagina ekskavator bir kun ishlasa, uch kun “dam oladi”. Ish qancha og'ir bo'lmasin, bari bir ketmon, belkurak asosiy ish quroli bo'lib qoldi. Ellikdan ortiq duradgor faqat belkurag-u ketmonga sop yasash bilan ovora, yigirmadan ortiq temirchi sandonchasini yerga sanchib tizzalagancha ketmon peshlash bilan band. Bu yer xuddi misgarlar, temirchilar rastasini eslatadi. Kechasi-yu kunduzi taraq-turuq, jarang-jurung quloqlarni qomatga keltiradi.

Bitta ketmon bir kunda ikki-uch marta sop almashtirib, bir-ikki marta temirchi sandoniga tushadi.

Bugun tong qorong'isidan Uchqo'rg'onga Namangan, Andijon taraflardan o'tliq militsiya otryadlari kela boshladi. Ular xarsang toshlar, shag'allar bilan qoplangan bir yarim kilometr masofadagi quruvchilarni daryoning narigi tarafiga o'tkazib o'rab olishdi.

Katta-kichik – hamma kanal qaziladigan joydan uzoqdagi toshlar orqasiga yashirindi.

Toshkentdan kelgan “Uzvrivprom” xodimlari kechasi bilan toshloq yerlarni kovlab, yuzlab joyga portlatgich moddalarini oʻrnatishgan edi. Uch yuz yigirma tonna portlagich bir yarim kilometr masofadagi toshloqqa chuqur oʻrnatilgan. Militsiya otryadlari portlash boʻladigan tomonga hech kimni oʻtkazmaydi. Shtab radiouzelidan tinmay quruvchilardan tartib saqlashni, oʻz-boshimchalik qilmaslikni soʻrashedi.

Nihoyat portlatish otryadi komandirining shiddatli komandasi eshitildi. U qoʻlidagi raketa toʻpponchasidan osmonga qarab oʻq uzdi. Ketma-ket otilgan mushak osmon koʻksiga nurli nayza boʻlib sanchildi. Birin-ketin dahshatli portlash boshlandi.

Yer silkindi. Norin suvi chayqalib, ikki-uch minut qirgʻoqqa sapchib turdi. Tuproq uyumlari togʻ boʻyi koʻtarilib shamolsiz osmonda qimirlamay turib qolganga oʻxshardi. Dahshatli portlash tovushlari, yerning tinmay silkinishi, Norinning chayqalishi odamlarni vahimaga solib qoʻydi. Atrofni halqadek oʻrab turgan militsiya xodimlari ham oʻzlarini panaga olishdi. Portlatish shtabining boshligʻi bezovtalanib katta xarsang orqasidan bosh chiqazdi.

Qoʻyilgan portlagichlardan ikkitasi portlamay qolgan edi. Hozir uning oldiga borish xavfli. U qoʻlidagi sekundomerga qarab nimanidir kutardi. Shunda birdan oldinma-ketin ikki joyda portlash boʻldi. Yana tuproq uyumlari osmonga sapchidi. Yana Norin suvi bezovta chayqaldi. Odamlarning oyoq taglari titradi.

Havo dim boʻlganidan portlash toʻzonlari tarqalmay turardi. Xuddi togʻ tepasidan lava oqib kelayotgandek shoshilmay malla bulut daryo qirgʻogʻi tomon bosib kelardi. Odamlar qirgʻoq boʻylab yana yuqoriga qarab qocha boshladilar.

Besh-olti minutlar chamasi vaqt oʻtgandan keyin shtab binolari, choyxona, oshxonalar tepasiga quyuq toʻzon yopirildi. Hech kimni va hech narsani koʻrib boʻlmay qoldi.

Quyuq toʻzon orasidan otliq militsionerlar jon holatda otga qamchi bosib chiqib kela boshladilar.

Portlash ovozi hali ham togʻ qoyalarga urilib qaldirab turardi.

Biron soat oʻtib toʻzon bosildi. Tomlarda, choyxona soʻrilar-da toʻpiq boʻyi bilq-bilq tuproq edi.

Xarsang toshlar orqasiga yashiringan, qirgʻoqning yuqori tarafiga oʻtib ketgan kishilar asta qaytib kela boshladilar.

Chodirlardagi, chaylaldagilar esa ko' rpa-to'shaklarini tashqariga olib chiqib qoqa boshladilar.

Shu kuni to tushlikkacha trassaga odam chiqmadi. Shtab atroflarini, "Yashil teatr" deb atalmish kino qo'yadigan joyni, oshxona va choyxonalarni tozalashga kirishib ketgan edilar.

Undan tashqari portlash paytida otilib chiqqan tosh-shag'al yaqin atrofdagi mahallalarga suv beradigan ariqlarni bosib qolgan, ot-arava, mashinalar o'tadigan qatnov yo'lida ikki yuz metrcha joy bekilib qolgan edi,

Quruvchilar suv yo'llarini ochish, qatnov yo'lini tozalash bilan band bo'ldilar.

Nihoyat, tushlik tugab hamma trassaga chiqdi. Endi portlatishdan ko'chgan shag'alli yerni qazish, zambilga ortish ancha oson bo'lib qolgandi.

Biroq dov-daraxt to'zon og'irligidan shoxlarini egib ma'yus turardi.

Yana ketmonlarning gurs-gurs yerga urilishi, lomlarning qarsillashi, odamlarning baqirib-chaqirishlari...

* *
*

Cho'qqi soqol, jikkak injener Belyavskiy taxtadan qo'lbola qilib yasalgan metr ko'tarib trassa kezadi. Belyavskiy 1915-yili "Asosiy Farg'ona kanali" loyahasini tuzgan edi. Ammo bu loyiha chinovniklar e'tiboridan chetda qoldi. Bu loyihadan xabar topgan Moskva manufakturachilari o'z vakillarini yuboradilar.

Moskva manufakturachilari paxtani Farg'ona boylaridan sotib olishar, narxning qimmatliligidan o'zlari shu taraflardan yer olib paxta ektirishni dillariga tugib qo'yishgan edi. Ular yuborgan vakillar Uchqo'rg'on adiridan anchagina yer sotib oladilar. Norinni to'sib adirlarga suv chiqarishga urinib ketadilar. Ammo ularning bu urinishlari bekor ketadi. Necha million so'm sarflangan inshoot suv yo'lini to'sishga ojizlik qiladi. Katta nasoslar o'rnatishga, neft bilan harakatga keladigan elektrostansiya quvati yordamida suv chiqarishga urinishadi. U ham bo'lmaydi. Elektr quvvati shu qadar oz ediki, nasos motorlarini aylantirishga ojizlik qilib qoladi.

Manufakturachilar millionlab pulga kuyib nasos stansiyasini, sotib olgan adirlarini tashlab ketishga majbur bo'ladilar.

Belyavskiy mana shu voqealarning barini o'z ko'zi bilan ko'rgan. Yangi kanal loyihasi muhokama qilinayotganda mar-

kazkomda batafsil ma'lumot berib Uchqo'rg'onning yer sharoiti, Norinning tezligi, fasllarda qanchadan suv oqib o'tishini aytib bergan. Kanal shtabi Bosh to'g'on quriladigan joyning yer-suv sharoitini biladigan bu odamni Uchqo'rg'on uchastkasiga boshliq qilib tayinlaydi.

Bulardan tashqari Belyavskiy Farg'ona vodiysida yashaydigan deyarli hamma qishloq shevalarida adashmay gaplashar, ularning urf-odatlarini alohida hurmat qilardi. Hatto ramazon oylari uncha-muncha ro'za tutib qo'yadi, degan gaplar ham bo'lgan edi.

Shu odam kanal trassasining eng og'ir joyiga rahbarlik qilardi.

Oq brezent furajkasini bostirib kiyib olgan Belyavskiy Esh polvon ishlayotgan toshloqqa kelib atrofga bir qarab oldi. Keyin gazeta tarqatib yurgan pochta boladan ikki-uchta gazeta olib, turgan joyida sahifalarga ko'z yugurtira boshladi. Bugun qurilish gazetasida Azizxon to'g'risida maqola chiqqan edi. Belyavskiy oynaksiz xatga tikilganidan ko'zlari jimirlashib ketdi. Kitelining cho'ntaklarini titib oynagini topolmadi. Gazetani buklab cho'ntagiga solib qo'ydi.

Belyavskiyning ko'zi oldiga Azizxonning kulib turgan basharasi keldi. Xuddi ular Nayman to'qayida birinchi marta uchrashgan paytlaridagidek bolalarcha jilmayib turardi.

Belyavskiy uni kanalga chorlagan edi. Keldi, sal kunda ko'pchilik og'ziga tushdi. Minglab kishilar uning tarjimai holi-ni, qilayotgan ishlarini bilishga qiziqadi. Bugun gazeta Azizxon to'g'risida maqola chiqazipti.

Esh polvon kecha uni ko'p tuproq tashib chiqarishda musobaqaga chaqirgan edi. Belyavskiy Esh polvonning Azizxondan yengilganini, alamzada ekanini biladi. Agar u tuproq tashishda ham yengiladigan bo'lsa, kanalni tashlab ketib qoladi. Eshning yagona umidi shu musobaqadan edi. Belyavskiy shularni o'ylab Esh ishlayotgan toshloqqa qaradi. U katta-katta xarsanglarni beliga qo'yib yuqoriga olib chiqar, ajab bir intilish bilan xarsangni yonboshiga irg'itardi.

Belyavskiy hozir gazetani unga ko'rsatmoqchi emas. Ko'rsa hafsalasi pir bo'lib qo'li ishga bormay qoladi. Uchqo'rg'on uchastkasida Do'nan polvon bilan Eshning oldiga tushadigan staxanovchi yo'q. Shu ikkoviga yetishish uchun butun uchastka bo'ylab harakat boshlanib ketgan. Agar u sovib qolsa bu yoqdagilarning sur'atiga ta'sir qilishi turgan gap.

Belyavskiy pastlikka, Esh ishlayotgan joyga toshlar ustidan ehtiyotkorlik bilan qadam tashlab tushib ketdi.

Esh polvon bugungi “Stalincha qurilishda” gazetasini do‘ppi-siga qistirib olib yaxna choy shimirayotgan edi. U Belyavskiy-ni ko‘rib piyolani tosh ustiga qo‘yib, ho‘l mo‘ylovlarini yaktaginging yengi bilan artdi.

– Keling, oqsoqol, – dedi u ko‘rishgani qo‘l uzatarkan. – Qo‘rqmang, og‘zimizdagi oshimizni Aziz polvonga oldirib qo‘y-maymiz. Ko‘rib qo‘ying! – U shunday deb kattakon xarsang tepasiga tirab qo‘yilgan yaxlit fanerdagi yozuvni ko‘rsatdi. Unda ko‘mir bilan yozilgan shunday so‘zlar bor edi:

“Ikkinchi o‘n kunlikda Aziz polvondan oshirib tuproq tashimasam, otimni boshqa qo‘yaman. Esh”.

Belyavskiy kulib yubordi.

– Nega kulasiz, to‘ra? Ishonmaysizmi?

– Har ehtimolga qarshi o‘zingizga yana bitta zapas ot topib tursangiz bo‘lardi, polvon aka.

Bu gapni Belyavskiy yonida gazeta ushlab turgan yigit aytdi. Esh unga yeb yuborgudek bo‘lib qaradi.

– Nega o‘qrayasiz, polvon aka. Gazetani ko‘ring. Do‘ppingizni tagiga soyabon qilib olgan gazetani olib o‘qing. Aziz polvon sizni alla qip qo‘yipti-ku. U kechaning o‘zida o‘n olti kubadan tuproq tashipti. Siz o‘n bittadan oshira olmadingiz. Otingizni qofiyadosh qilib Esh polvon o‘rniga Mesh polvon qo‘ya qoling.

– U tuproq tashipti, men tosh. Farqi bormi, yo‘qmi, nodon. Esh akangni bilmas ekansan.

– Taroza solsa ikkovi ham bir.

Esh polvon gap topolmay boshidan gazetani olib g‘ijimlab otdi.

– Ko‘ramiz hali. Yaxshi ot keyin chopadi.

Belyavskiy Eshga dashnom berayotgan yigitni itarib nari su-rib qo‘ydi.

– Bor, ishingni qil. Senga kim qo‘yipti, polvonlarga gap qo-tishni. – U shunday deb Eshga qaradi. – To‘g‘ri javob qilding. Sening yengib chiqishingga ishonaman. Sen bilan Do‘nanning yutug‘i butun uchastkamizning yutug‘i bo‘ladi. Muxbir chaqir-ganman, seni ham yaxshilab yozadi. Suvratingni ham gazetada chiqazamiz. Aytgancha, bugun ish tugashi bilan kiyinib shtabga kel. Kuyganyorga boramiz. O‘n kunlikning yakunida o‘zini ko‘r-satgan quruvchilarga kanal nishoni topshiriladi. Sen ham muko-fotlanding. Oxunboboyevning qo‘llaridan nishonni olasan.

Belyavskiy uning yelkasiga qoqib: “Bo‘sh kelma, azamat”, deb tepaga chiqib ketdi.

U ketarkan o'ylardi: "Eshda kuch ko'p, oriyati zo'r. Nima bo'lsa ham Azizxonni yengsam, deb urinib yotipti. Kechalari ham oydinga ishga chiqib ketyapti. Azizxon tushmagur u kechgacha qiladigan ishni tushgacha bajarib qo'yyapti. U bola o'ziga birovni yetkazmaydi. Faqat bitta Do'nanvoyni tan oladi. Undan boshqasini oldimga o'tkazib bo'pman, deydi. Ajab g'alati bola. Ish unga pisandmas. Ishni xuddi ermakka qilayotgandek qiynalmay, kuchanmay, kulib turib bajaradi. Bir kunda o'n olti kubo tuproq opchiqishga otning ham chog'i kelmaydi. O'n olti kubometr o'n oltita katta yuk mashinaga yuk bo'ladi-ya!"

Belyavskiy ko'p polvonlarni, azamat miroblarni ko'rgan. Ammo bunaqa vujudi kuchga to'lib ketgan polvonni birinchi ko'rishi. Ulug' knyaz Peterburgdan chaqirgan fransuz polvoni Toshkentdagi Romanovskiy bog'ida o'yin ko'rsatgan edi. U qornida uch yuz ellik kilo yuk ko'targan. Azizxon bo'lsa "Kuygan-yorda qorniga taxta qo'yib yuk mashinasini ko'tardi. Yelkasi-ga uch yashar terak yo'g'onligidagi temirni obkashga o'xshatib qo'yib, u yog'iga yettita, bu yog'iga yettita odam osilib o'sha temirni egishdi. Azizxon qilt etmay turib berdi. Yelkasi sal qizardi, xolos".

To'g'onga beton olib tushgan mashina qaytib chiqayotganda qiyalikda motori o'chib orqaga keta boshladi. Ancha urinib eskib qolgan mashinaning tormozi ishdan chiqqan edi. Agar orqaga qarab shitob g'ildirab ketadigan bo'lsa, poydevor qoliplarini sindirib, o'zi daryoga tushib ketishi aniq. Azizxon shartta sapchib turdi-yu, ildam borib yelkasi bilan mashina kuzoviga tiralib to'xtatib qoldi. Shofyor to qaytadan o't oldirguncha u mashinani qilt ettirmay tutib turdi.

Bu voqealarni Belyavskiy o'z ko'zi bilan ko'rgan. Shundoq polvonni yengish Eshga oson tusharmikin? Agar Esh Azizxon qilgan ishning yarmiga yetsa ham katta gap. Negaki Azizxon g'ayri tabiiy kuchga ega bir yigit. Bunaqasi bu yaqin orada topilishi qiyin.

Qurilish gazetasi redaksiyasiga "Azizxon kim? Kunlik normani yetti yuz-sakkiz yuz protsentsdan bajarayotgani rostmi? Kichkinagina yigitchada shuncha kuch bo'lishiga hayronmiz. Aziz polvon to'g'risida batafsil maqola bosishlaringizni so'raymiz", degan xatlar juda ko'p kelardi. Redaksiya Azizxonning oldiga suhbatlashish uchun yozuvchi Adham Hamdamni yubordi. Ammo Azizxon unga o'zi to'g'risida aniq bir gap aytib berolmagani uchun Adham Zirillamaga borib hamqishloqlari bilan

gaplashdi. Ko'p gaplarni bilib qaytdi. Bugungi gazetada uning Azizxon to'g'risida kattakon maqolasi bosildi.

Maqolada Azizxonning sakkiz yoshidan buyon qilgan ishlari, ko'rsatgan "hunarleri" bitta qoldirmay yozilgan edi.

Azizxon o'n besh yoshlarda edi. Toshkentga Hojimuqon degan qozoq polvoni kelganini eshitib qoladi. Hojimuqon qorniga taxta qo'yib ustidan yuk mashinasini o'tkazarmish, yelkasida temir yo'l relsini obkashga o'xshatib egib-bukarmish. Azizxon bu tomoshalarni o'z ko'zi bilan ko'rgisi kelib uydagilarga bildirmay kechasi Gorchakovodan poyezdga chiqib Toshkentga qochadi. Dadasi bilan onasi bir kun kutishadi, undan darak yo'q, ikki kun kutishadi, darak yo'q. Ikkovi betoqatlanib u yoq-bu yoqdan surishtira boshlashadi. Uni ko'rdim, degan odam bo'lmaydi.

Azizxon shu ketgancha ikki oy yo'q bo'lib ketadi. Ota-onasi qidirmagan joy qolmaydi. Militsiyaga xabar qilishadi, bari bir daragi chiqmaydi. Azizxon Hojimuqonga ergashib, Qozog'iston taraflarga ketadi. Mashhur polvon undan kimsan, ota-onang bormi, deb surishtirganda, hech kimim yo'q, yetimman, detdomda o'sganman, deb javob qiladi. Hojimuqon uni sinab ko'radi. Bolaning kuchiga hayron bo'ladi. O'zi ko'taradigan toshlarni ko'tartirib ko'radi. Azizxon qilt etmay ko'tarib otadi. Shundan keyin Hojimuqon uning qorniga taxta qo'yib avval buzoq, keyin eshak, undan keyin ot chiqazib ko'radi. Azizxon ko'zini pirpiratmay, nimani chiqazsa, ko'taraveradi.

Hojimuqonning o'zi bu hunarni juda ko'p mashq qilib o'rgangan edi. Yangi tug'ilgan buzoqni to sigir bo'lguncha ko'tarib katta qilgan, o'zini og'ir yuk ko'tarishga shu usulda o'rgatgan edi. Ana shundan keyin mashhur polvon uni o'ziga shogird qilib oladi. Og'ir yuk ko'tarish sirlarini o'rgata boshlaydi. Samarqand, Buxoro va Toshkent shaharlaridagi o'yinlarida uni assistent qiladi.

O'sha kezlarda militsiya butun Sovet Ittifoqi bo'ylab qidiruv shu'basiga xabar qilgan edi. Azizxon Turkiston shahrida militsiya qo'liga tushib, alohida odam ta'qibida qishloqqa olib kelinadi.

Dadasi uray desa uni bilmaydi, so'kay desa uni bilmaydi. Bu o'jar bola yana qochib ketmasin, deb yalinishga tushadi. Onasi yig'lab endi qochib ketmayman, degan va'dasini oladi.

Azizxon esa Hojimuqondan olgan ta'limini kecha-yu kunduz chorbog'da mashq qilardi.

Gazetadagi maqolada mana shularning hammasi yozilgan, gazetxonlarning bironta ham savoli javobsiz qolmagandi.

Belyavskiy “kontora” deb atalmish budkasiga kirib stol ustida qolgan ko‘zoynagini oldi. Deraza yaqiniga kelib Azizxon to‘g‘risidagi maqolani o‘qiy boshladi. U maqoladan ko‘z uzmay, voy azamat-e, voy bolasi tushmagur-e, deb yuborar, goh-goh bosh chayqab, “neujeliy”, deb qo‘yardi. U gazetani yoniga qo‘yib, bir necha minut stolni chertib, hozir o‘qigan narsalari ta’siridan chiqolmay turib qoldi.

Bugun u Kuyganyorda bo‘ladigan o‘n kunlik yakunida axborot beradi. Bo‘layotgan ishlarni yana bir bor ko‘zdan kechirish uchun uchastkaning hamma joylarini kezib chiqdi. Qaysi yerda ish yomon ketyapti, qaysi yerda yaxshi. Shtab kattalaridan qanday yordam so‘raydi. Shularni mulohaza qilishi kerak. U gazetani stol tortmasiga solib o‘z ishlari to‘g‘risida o‘ylab ketdi.

U bitta narsaga aminki, butun trassa bo‘ylab o‘rtaga tashlangan shiorda Uchqo‘rg‘on uchastkasi tilga olinadi. Chunki mashhur yer qazuvchi, kunlik yer qazish normasini to‘qqiz yuz protsentga yetkazib bajarayotgan Do‘nan Do‘smatov shu yerda, Uchqo‘rg‘on uchastkasida ishlaydi.

Bugun to‘rt kun bo‘ldiki, kanalning barcha uchastkalarida do‘smatovchilik harakati boshlanib ketgan. Do‘smatovning o‘zi esa bu nomga yarasha mehnat qilib, hamon quruvchilarning oldida borardi.

Azizxon Ummataliyev — lug‘umbekliklarning sardori,
Esh polvon — norinliklar yetakchisi.

Ana shu uch azamat kanal mash‘ali bo‘lib hammaning ko‘z oldida edi. Belyavskiy g‘arbil taxtadan omonatgina qurilgan kontorada o‘tirib, o‘zicha o‘ylardi. Bu uch azamatni kanal yuzaga chiqardi. Kanal bo‘lmaganda bular yurt ko‘zidan chetda, mayda, oddiy ishlar bilan shug‘ullanib yuraverardilar. “Xalq harakati yangi qahramonlar yaratadi”, deb bejiz aytishmagan ekan.

Belyavskiy bloknotini ochib yozuvlariga tikildi.

Tashqarida bo‘layotgan shovqin-suron, ketmon va belkuraklarning ovozi, toshga qadalayotgan lomlarning qarsillashi, ketmon peshlayotgan temirchilarning jarang-juringi taxta devor tirqishidan o‘tib Belyavskiyga aniq eshilib turardi.

Bu chol vodiya suv chiqarishni yigirma besh yil o‘yladi. Mana, nihoyat, u niyatiga yetdi. Qalb qo‘ri, bilimi, g‘ayratini bag‘ishlagan ishining amalga oshayotganidan u nihoyatda xursand edi. Kechalari ham o‘zicha allanimalarni hisoblab chiqar, asosiy loyihadan o‘zi ko‘chirib olgan nusxa ustiga yana belgilar qo‘yardi.

Hozir tashqaridan kelayotgan shovqinlar orasidan u yordam qo‘li bilan barpo bo‘ladigan kanaldan oqajak suvning jildirashini, qirg‘oqqa shapillab urilishini, sharsharalardan guvillab ko‘pik sochib tushishini eshitayotgandek edi.

IX

Lutfinisa ayollar brigadasi bilan “Qirg‘iz ovul” uchastkasida tuproq tashirdi. Azizxonning nomi Do‘nan Do‘smatov bilan barobar tilga tushib turganda Lutfinisa qo‘l uchida ish qilishni ep ko‘rmasdi. Uchastkadagi ayollar Azizxon bilan ikkovlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan gaplardan allaqachon xabar topishgan, polvon bolaning qaylig‘i deb izzat qilishardi. Kechqurun ishdan chiqib chaylaga kelishganida xotinlar uni gapga solishardi. Ayniqsa, ayollar brigadasining boshlig‘i, Izboskanda pilladan ko‘p hosil olib qator-qator ordenlar olgan, O‘zbekiston Oliy Sovetiga deputatlikka saylangan Xayrinisa Boqiboyeva degan ham ko‘hlik, ham erkakshoda ayol uni ko‘proq gapga solardi.

– Menga qara, ikkita erga tekkansan-u, hali ham qiz boladeksan-a! Yo tavba!

– Voy, nega unaqa deysiz, – deydi Lutfinisa astoydil kuyinib. – Bir marta ham kuyovga chiqmaganman.

– Ho, marg‘ilonlik ering esingdan chiqdimi?

Lutfinisa kuyib-pishib bo‘lgan voqeani boshqatdan aytib beradi. Ayollar bu gapni necha martalab eshitgan bo‘lsalar ham yana quloq tutadilar.

– Nikoh o‘qitmasdan qochganmiz-u. Kuyovning betini uzoqdan ham ko‘rmaganman.

– Xo‘p, mayli. Bu gapingga ham xo‘p deylik. Aziz polvon bilan qochib to‘qayda bir kecha, qirg‘izning o‘tovida uch-to‘rt kun qolib ketganlaring-chi. Bizni laqillatmay qo‘ya qol. Shundoq sho‘x, osmonda uchib ketayotgan burgutni bir sapchishda qanotidan tutadigan yigit sen baliqday kilkillab yotganingda indamay tasbeh o‘girib o‘tirganmikin. Yo‘q, bu biron ishonadigan gap emas. Bizni laqillatmay qo‘ya qol.

Lutfinisa bo‘g‘iladi. Kuyib-pishib tushuntirmoqchi bo‘ladi. Xudo ursin, kalomullo ursin, deb qasam ichadi. Baribir Xayrinisa “ishonmaydi”. Shundan keyin Lutfinisa alamiga chidamay yig‘i boshlaydi. Xotin-xalaj o‘rtaga olib arang yupatishadi. Brigadir hazil qildi, atayin kulgi bo‘lsin, deb seni laqillatyapti, deyishadi.

Ertasiga ishdan keyin yana shu gap. Yana qasam, yana yig‘i.

Lutfinisa uch-to'rt kun shunaqa ermak bo'lgandan keyin bu gaplarga e'tibor qilmay qo'ydi. Hatto Xayrinishning gapiga burnini qiyshaytiradigan bo'ldi. Bu ham yetmagandek, ha, rost, yaqinda tug'ib beraman, sizlarga nima, deb gapni cho'rt kesadigan odat chiqardi.

Lutfnisa oppoq, yursa so'lqillaydigan, ikki qoshining uchi bir-biriga tutash, bo'yi sal pastroq, to'lagina qiz. Toshkentlik Bahrom Hamdamiy degan rassom atayin shtabdan suratini ishlagani moyli bo'yoqlarini ko'tarib kelgan edi. Lutfinisa ko'nmedi. U necha martalab fotochilar suratini olmoqchi bo'lganda ro'moli bilan yuzini to'sib qolgan. Uning surat oldirmasligiga Azizxon sababchi. Agar suratingni oldirsang ko'rasan mendan, suratchi ham, sen ham kaltak yeysanlar, deb tayinlab qo'yan.

Bundan bir yil oldin Lutfinisa Marg'ilondagi katta fotoxonada surat oldirgan edi. Surat yaxshi chiqqanidan fotochi bir nusxasini kattakon qilib oynasiga yopishtirib qo'yan edi. Azizxon bu suratni ko'rib qolib, oynani sindirib suratni yirtib tashlagan, katta janjal chiqib, zo'rg'a militsiya qo'lidan qochib qolgan edi.

Azizxon hech kimning Lutfinisa diydoriga to'yib qarashini istamasdi. Agar Lutfinisa birontasi bilan qo'l berishib so'rashib qolsa, uning joni hiqildog'iga kelar, ha, senimi, deb bir yanib qo'yardi.

Azizxonning bu fe'lini bilganidan, surat oldirmasam et-betim kamayib qoladimi, deb suratchini ko'rsa yuzini teskari qiladigan bo'lib qolgandi.

“Stalincha qurilishda” gazetasi Lutfinisa to'g'risida bir marta “Polvon qiz” degan ocherk, yana bir-ikki marta maqola bosib chiqardi. Ammo suratini chiqaza olmadi.

Ko'pincha Azizxon smenadan chiqardi-yu, adir yoqalab “Qirg'iz ovul”ga chopardi. Xotinlar uning qorasi ko'rinishi bilan noq chayladan Lutfinisani chaqirishardi.

— Tura qoling, kelin poshsha, pochcham kelyaptilar.

“Pochcham” ham tortinishni bilmaydigan, xotinlar yotog'iga xuddi o'z uyidek bermalol kirib kelaveradiganlardan edi. Saraton kechida, ayniqsa, oftob o'chib, endi nim qorong'i bo'lib kelayotgan paytda havo bir dim bo'lib olardi. Har qanday jonivor ham chidamaydigan dim havoda xotinlar ust kiyimlarini ham yechib tashlab yotoqdagi o'rinlariga cho'zilib olishardi. Azizxon po'sht deyishni bilmas, hatto yo'talmay ham chaylaga kirib ketaverardi. Xotinlar qiy-chuv bilan ustlariga ko'ylak bormi, choyshab bormi, tortishardi. Shuning uchun ham xotinlar uni “xira

pochcha” deb atashardi. Azizxonning uzoqdan qorasi ko‘rinishi bilan hammasi shoshib-pishib kiyinib olishardi.

– Axir eringga aytsang bo‘lmaydimi, chaylaga kirayotganda hech bo‘lmasa yo‘talib qo‘ysin.

Lutfinisa ham ularning gapiga boplab javob qiladi:

– Meni qancha ermak qilgandinglar. Endi o‘zlaring ham ermak bo‘lish qanaqaligini bilib qo‘yinglar. Atayin qiladi. O‘zim tayinlab qo‘yganman.

Shaddodroq bir kelinchak bo‘sh kelmay gapiga yarasha javob beradi:

– Shunaqa qiladigan bo‘lsa, qo‘lidan ushlab karavotga bosa-miz. Ertalab burnini sho‘ltiratib oyog‘ini sudrab chiqib ketishini tomosha qilasan.

Yotoqda qiyqiriq-kulgi bo‘lib ketadi. Boqiboyeva yostiقدan bosh ko‘tarib bu gapni aytgan kelinchakni jerkib tashlaydi.

– E, aynimay o‘l. Bas qil-e. Hali ering kelsa aytib beraman, xuddi qo‘yvoradi-ya!

Kelinchak yana bo‘sh kelmaydi:

– Tili qisiq, indolmaydi. Kimdandir, qish bo‘lsa burun quturar, yoz bo‘lsa xotin, degan gapni eshitib qolgan ekan. Saratonda mendan qochib tomga chiqib yotadi. Quvib chiqmasin, deb shotini ham tomga tortib qo‘yadi.

Xotinlar uning gaplariga hiring-hiring kulishadi. Kuni bilan oftob tig‘ida ishlab charchaganlariga qaramay, tizzalarining, bilaklarining zirqirashiga qaramay, allapallagacha hangamalashib uxlab qolganlarini sezmay qolishadi.

Lutfinisa Azizxon imlab olib chiqib ketganicha ular uxlaganda kelar, oyoq uchida yurib, jimgina o‘rniga kirib yotardi. Ertalab qiziqchi kelinchak o‘rnidan turishi bilan Lutfinisaning choyshabini ochib tashlar, “Xotinlar, reviziya!” – deb qichqirardi. Lutfinisaning iyagidan ko‘tarib tomog‘ini ko‘rardi. Xotinlar uyqudan kulgi bilan bosh ko‘tarishardi. Lutfinisa uyalganidan boshiga choyshab tortib g‘ujanak bo‘lib olardi.

Chayla yonboshida dushxona bor edi. Xotinlar trassadan qaytishgandan keyin sochiqlarini, toza ko‘ylaklarini olib dush tarafga ketishardi. Bir kuni Lutfinisa boshidan dushning ignadek ingichka yomg‘irini oqizib, yayrab cho‘milayotgan edi. Qiziqchi kelinchak kirib qoldi. Uning quyib qo‘ygandek beg‘ubor, qo‘l tegsa qaytarib tashlaydigan badaniga, hali bola og‘iz solmagan tarang ko‘kraklariga qarab iljaydi.

– Polvon bolaning omadi bor ekan. Ha, joningdan! – dedi-yu belidan quchdi.

Lutfinisa nima qilishini bilmay esankirab qoldi, uning oldida erkak kishi borday, unga tahdid qilayotganday, panjalarini yozib, ko'kraklarini to'sdi.

Kelinchak hamon hazil qilardi:

— Agar erkak kishi bo'lganimda, o'lay agar, opqochib ketardim.

Ana shu voqeadan keyin yana ikki-uch kun Lutfinisaning qaddi-qomati yotoqda doston bo'ldi.

Qiziqchi kelinchak gapga qanchalik chechan, shaddod bo'lsa, ishga ham shundoq edi. Birga zambil ko'tarishganlarni shoshirib qo'yardi. Agar o'zi zambilning old tarafidan ko'tarsa orqadagini sudrar, orqa tarafdin ko'tarsa zambilg'altak qilib itarib olib ketardi. U qaynonasi bilan totuv tursa kerak, qaynonasi uning bo'yniga tumorlar osib tashlagan, nimchasida ham, ko'ylak yoqasida ham ko'zmunchoq yaltirab turardi. Uning qaynonasi kunora "Qirg'iz ovul"ga kelib chaylaga ham, xotinlarga ham isiriq tutatib ketardi. Bu yerda ishlaydigan xotinlarning hammasidan gup-gup isiriq hidi kelardi.

Ba'zan chayla oldi to'yxonaga o'xshab ketadi. Xotinlarning erlari, qaynona-qaynotalari, bolalari, kelin-kuyovlari kelishardi. Hammasining qo'lida tugun, tog'ora. O'rtaga katta dasturxon yozilib, uydin kelgan tansiq ovqatlar qo'yilardi. Faqat birgina Lutfinisaga hech kim hech narsa olib kelmas, boshqalar ovqatiga hadeb sherik bo'laverishga iymajib, o'zini chetga olardi. Boqiboyeva uning iymajibotganini sezib, qayda bo'lsa topib dasturxon to'riga o'tqazardi. Lutfinisa bir kuni Azizxonga shu to'g'rida og'iz ochib qoldi.

— Juda xijolat bo'lyapman. Hammalarining uylaridin ovqatlar keladi, mendan hech kim xabar olmaydi. Ovqatlariga sherik bo'lishga uyalyapman.

Azizxon uni yupatdi.

— Qo'yaver. Ertaga hamma qarzlaringni uzamiz.

Azizxon aytganini qildi. O'sha kuni kechasi chodirda yotmay Orzixon ayanikiga ketdi. Non yoptirdi. Kuyganyordagi do'kondan o'n beshtacha atir, o'n beshtacha "Guljahon" degan sovun, allaqancha dastro'mol oldi. Kabobpazning qo'rasidagi hamma kabobni kattakon tog'oraga sidirtirib boshiga qo'ydi-yu "Qirg'iz ovul"ga olib keldi.

Kabob to'la tog'orani, dasturxondagi nonlarni so'riga qo'yib, bir qiyiq sovun-atirlarni chayladagi karavotga sochib yubordi. Xotinlar qiy-chuv qilib talashib ketishdi. Qiziqchi kelin bunga

ham gap topdi. Atirsovunni Azizxonning oldiga qo'yib o'zi karavotiga borib teskari qarab o'tirib oldi.

— Ha, aya, opkelgan narsam yoqmadimi? Yaxshi sovun-ku.

Kelin lablarini atayin burib ming'illadi:

— Erimning dimog'i hid bilmaydi. To'yimizning ertasiga sovg'aga ikki bo'lak kirsovun olib kelgan. Bir kuni qorong'ida oq yog' o'rniga lampa moyini qozonga quyvorgan ekanman, bilmadi. Mastavani xo'rillatib ichib, boplabsan xotin, juda shirin bo'пти, desa bo'ladimi. Lampa moy bilan oq yog'ni bilmagan odam atirsovunni bilarmidi. Mayli, sovg'angizni olaman, polvon bola. Faqat bitta shart bilan. Shtabdan suratchi chaqirganmiz, hammamiz esdalikka bitta suratga tushib qo'ymoqchimiz. Ertami-indin har tarafga tarqab ketamiz. Shunga rozi bo'lsangiz, sovg'angizni olaman.

Ayollar brigadasining tabelchisi erkak kishi edi. Azizxon unga yer ostidan qarab qo'ydi. Kelinchak buni sezib darrov javob qildi:

— Voy, Latifjonning oldida ich ko'ylakda o'tiramiz-ku. Biram yumshoq, biram ipakdek mayin narsaki. Agar erkak bo'lsa, Lug'umbekka borib yer qazimasmidi. Xotinlarga tabelchi bo'lar-midi. Bu tarafdan xotirjam bo'ling. Boqiboyeva opam unga soch o'rdiradilar-ku.

Kulgi ustiga kulgi bo'lib ketdi. Azizxon ko'pdan beri bunaqa kulmagan edi. Qornini ushlab bukchayib qoldi. Bo'пти, bo'пти, deb yuborganini o'zi ham bilmay qoldi.

Azizxon ketayotganida Lutfinisa adir etagigacha kuzatib bordi. Azizxon uning yelkasiga qo'l tashlab borarkan, hamon iljayardi.

— Juda qiziqchi xotin ekan-ku, a?

— Juda antiqa juvon, — dedi Lutfinisa yelkasidagi qo'lning barmoqlarini o'ynarkan. — Shunaqa qiziq gaplarni topib gapiradiki, kulaverib ichaklarimiz uzilay deydi. Aytgancha, sizga ham laqab qo'ygan.

— Iya, — dedi Azizxon. — Qanaqa laqab?

— "Xira pochcha" deydi. Bir marta ko'ylagini yechib yotganda kirib qolgan ekansiz. Haligacha aytib kuldiradi.

Azizxon ham, Lutfinisa ham baxtiyor edilar. Agar qo'yib bersa to oppoq tong otguncha shundoq, sira to'xtamay ketavergudek edilar. Ammo ertalab ularni zo'r, juda ham zo'r ish kutardi.

Adir orqasida mash'alalar porlaydi. Qaydadir nog'ora-chirmanda taraqlaydi. Yaqin orada chirildoqning bir maqomda chi-

rillashi eshutilib turibdi. Azizxonning qo‘li hamon Lutfinisaning yelkasida.

X

Lutfinisaning ko‘ylaklariga yamoq tushdi. Azizxon ayol kishining kiyim-kechaklari erkakning bo‘ynida ekanidan bexabar edi. Lutfinisa ham kiyimlarim to‘zib ketdi, deb bir og‘iz gapir-madi. Ular ishdan chiqib qorong‘i tushganda uchrashib yurganlari uchun ham Azizxon ko‘ylagi qay ahvoldaligini bilmasdi.

“Oq maktab” oldida Halimaxonimning konserti bo‘ladigan kun xotinlar ishni vaqtli tugatib, bosh yuvib bir-birlariga soch o‘rdirib qolishdi. Tugundan atlas, shohi ko‘ylaklarini olib, cho‘yan dazmolga o‘t qalab yuborishdi.

Azizxon tizzasigacha tuproqqa botib Lutfinisani konsertga olib boraman deb kelib qoldi. Qarasa, Lutfinisa chayla oldida mung‘ayib o‘tiribdi.

– Bo‘lmaysanmi, vohliroq borib oldidan joy olib qo‘yaylik.

Lutfinisa yerdan boshini ko‘tarmay sekin dedi:

– Qiziqsiz-a, shu ahvolda qandoq boraman. Qo‘ylagimni qarang, konsert u yoqda tursin, shatta kiyib yurishga ham yaramay qoldi-ku.

Azizxon bundoq qarasa, Lutfinisaning ustidagi ko‘ylak bir ahvolda. Hayron bo‘lib qoldi.

– Nega shu paytgacha indamading?

– Aytishim shartmidi? Ko‘zingiz bor-ku, axir.

Azizxon tilini tishlab qoldi. Axir dasasiga yuborgan yetti yuz so‘mdan tashqari yana yuz sakson so‘m puli bor. Yotoqda bolish tagida turibdi. Chekmasam, ichmasam, nima qilaman pul yig‘ib, deb o‘zini koyidi.

– Kechir meni, Lutfi. Basharangga, qosh-ko‘zingga qaray-beribman-u, bu yog‘i esimga kelmapti. Bu xatoni darrov tuzatamiz. Men ketdim. Lug‘umbekda “bozori shab” bo‘ladi. Sayyor do‘konlar yarim kechasigacha sovda qilishadi. Bo‘pti, o‘shaqqa ketdim. Sen qimirlamay, meni shatta kutib tur.

Azizxon pildiraganicha orqasiga qaytib ketdi. Lutfinisa umrida birovdan tama‘ qilmagan, kelin ayasining eski-tuskilariga qanoat qilib kelgandi. Akasi shu bechora yetimcha singlim-ku, onaginamdan yodgor-ku, deb boshini silamagandi. Hayit, bayram kunlari ham Lutfinisa o‘ksib qolardi. Bugun Azizxonga ahvolini aytdi-yu, yurak-bag‘ri ezilib ketdi. Azizxon ketgan tarafga

qarab o'tirib, bir-ikki kiprik qoqdi, ko'zlaridan duv yosh to'kildi. Bu vaqt tashqarida xotinlar bir-biriga gap qotib kulishar, dazmol talashib, jiqillashishardi.

Biron soat chamasi vaqt o'tib tashqari jimib qoldi. Yosh juvonlar gajak qo'yib, keksaroqlari soch farqini to'g'ri ochib, odmigina kiyinib konsertga jo'nab ketishdi. Bir gapirib, o'n qiyqi-radigan kelinchak uni qo'lidan tortib, turmaysanmi, nima qilib ivirsib o'tiribsan, deb birga borishga qistadi ham. Lutfinisa charchaganini bahona qilib, o'rnidan turmadi.

Kelinchak:

– “Xira pochcham”ni kutayotgandirsan. Ichingdan pishgansan-a, – deb ma'noli iljayib, chiqib ketdi.

Oshpaz kampir fonar yoqib, o'choq boshiga ketdi. Kuni bilan oftob tig'ida ishlab charchagan keksaroq xotinlar o'rinlarini tashqariga olib chiqib yotib olishdi. Oshpaz xotinning konsertga bormaysizlarmi, degan so'rog'iga: konsertni yosh-yalanglar ko'rishsin, deb qo'ya qolishdi.

Tashqaridan Azizxonning ho kampir ayalar, hormanglar, degan ovozi, gurs-gurs qadam tashlashi eshitildi. Lutfinisa o'rnidan turdi. Chayla og'zida qo'lida tugun bilan Azizxon ko'rindi.

– Lutfi, qayoqdasan, qorong'ida nima qilib o'tiribsan, chiqmaysanmi?

Lutfinisa tashqariga chiqdi. Azizxon tugunni fonar tagida yecha boshladi.

– Mana, mana, topdim.

U shunday deb ikkita shippak, ko'ylak, ro'mollarni unga uzata boshladi.

– Ichkarida kiyib chiqqin. Poytuq do'konida yaxshi ko'ylaklar bor, deyishyapti. Ertaga birga borib olamiz. Hozircha satin bo'lsa ham, shuni kiyib turgin.

Lutfinisaning ko'zlari yashnab ketdi. Azizxon olib kelgan narsalarni bir quchoq qilib ichkariga ko'tarib kirib ketdi. Sal o'tmay kiyinib chiqdi.

– Ana, aytdim-ku, o'zingga loyiq deb. Shippakka g'arch soilingan, deb aytdi. Yurib ko'rgin, rostmikin?

Lutfinisa u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. Sotuvchining gapi rost chiqdi. U yurganda shippak g'arch-g'urch qilardi.

Lutfinisa onasi olamdan o'tgandan buyon endi ohorli kiyim kiyishi edi. To'g'ri, to'yda unga yangi liboslar kiydirishgandi. Ammo u kiyimlar kafandek sovuq tuyulgan edi. Uning ustiga o'sha kiyimlar ertasigayoq to'qay qamishlariga ilinib, tilka-pora

bo'lgan. Bugun chitdan bo'lsa ham satindan bo'lsa ham, bu kiyimlarni unga eng yaqin kishisi olib bergan edi.

Azizxon yangi kiyingan Lutfinisaning qaddi-qomatiga, yuz-ko'zlarida yashnagan quvonchga qarab dili yorishib ketdi.

– Hali qarab tur. Juda g'alati narsalar olamiz. O'h-ho', hali pulim ko'p. Yana yuz qirq so'm bor. Bilasanmi, unga qancha ko'ylak keladi? Rosa kiyintiraman.

Azizxon shunday deb shimining cho'ntagiga qo'l suqib bir qisim pul oldi.

– Manavunga nimani xohlasang, shuni ol! O'zingga nima kerakligini o'zing bilasan.

– O'zingizga hech narsa olmaysizmi? – dedi Lutfinisa xijolatlik bilan.

– E, g'alamatimisan? Mukofot ustiga mukofot olib turibman. Ikki-uchta yangi to'nim, yaktaklarim bor. Bitta g'arch solingan etik olsam bo'ldi. Pul ko'p hali.

Ularning bolalarcha suhbatlariga qarab piyoz to'g'rab o'tirgan oshpaz xotin boshini sarak-sarak qilib kulardi. Arqon karavotlarda yotgan xotinlar boshlarini burkab uxlasholmasdi. Oxiri bittasi boshini ko'tarib baqirib berdi:

– Uxlatasanlarmi, yo'qmi? Ishqivozlik qilishga boshqa joy topolmadinglarmi?

Lutfinisaning dami ichiga tushib ketdi. Azizxonni qo'lidan ushlab oyoq uchida trassa tomonga yura boshladi.

Atrof qorong'i. Hali oy ko'tarilmagan. Do'ng orqasidan op-poq shu'lasigina yoyilib kelardi.

– Sizga bir gap aytmoqchi edim. Kecha Orzixon aya bir gap aytdilar. Hayron bo'lib qoldim.

– Nima deydi? – dedi qiziqib Azizxon.

– Mahallada qo'ni-qo'shnilardan xijolat bo'lyapman. Nikohsiz ostona hatlab kirib-chiqishlaring qandoq bo'larkin, gap-so'zga qo'ymanglar meni, dedilar. Kuyovingga ayt, bitta oshning xarjini chorsiga tugib kelsin. Mahalladan uch-to'rt erkakni chaqirib, oldiga bitta tavoqda osh qo'yib, nikoh o'qitib qo'yaylik, dedilar. Bu gapga nima deysiz?

Azizxonning bu gapdan dili yorishib ketdi.

– Ayaning gaplari to'g'ri. Nikohni o'qitib qo'yaylik, to'y qochmaydi.

Ikkovi shu oqshom oy tikkaga kelguncha aylanib yurishdi. Azizxon kanal bitgandan keyin nimalar qilishini to'lib-toshib gapirardi.

– Eshon aka shatta qolasizlar, deyaptilar. Rayvodxoza ishga olaman, uy bor, maoshi ham yaxshi, kelin bolaga ham ish topiladi. Bog‘chagami, yasligami ishga o‘rnatib qo‘yaman, dedilar. Sovxoz direktori bo‘lsa bizga kel, xohlasang qurilish brigadasida ishlaysan, xohlasang bo‘limga ishga yuboraman, deydi. Xullas, ikkovimiz izboskanlik bo‘lib qoladigan bo‘ldik. Sovxozda qoladigan bo‘lsak ikki oylik maoshni ikkovimizga oldindan berarmish. Sovxoz yangi uylar qurgan, ro‘zg‘or buyumlari ham taxt.

– Oldindan hovliq-mang-da, Eshon aka bilan maslahatlashing. U kishi sizga ota o‘rnida otalik qilyaptilar. Har qanaqa ish bo‘lsa u kishining chizig‘idan chiqmang.

– Bu gaping ham to‘g‘ri, – dedi Azizxon. – Ammo sen bog‘chada ishlayolarmikansan?

– Nahotki shu ishni eplolmasam. Qayoqdagi kampirlar eplashayotgan ish-ku.

Shu payt “Qirg‘iz ovul” tarafdin xotinlarning qiy-chuvi eshitilib qoldi.

– Kontsert tugapti, – dedi tashvishlanib Lutfinisa. – Endi keting, xotinlardan baloga qoldim.

– Shoshma, shoshma, – dedi Azizxon uni qo‘lidan tortib. – Bitta, bittagina o‘pib qolay.

Lutfinisa siltanib uning qo‘lidan chiqdi.

– Bo‘ldi, haddingizdan oshmang.

Azizxon to‘lib turgan edi. Uni qo‘lidan siltab o‘ziga tortdi.

Azizxon uni quchib yuzlaridan, tomoqlari tagidan to‘yib-to‘yib o‘pdi. Ketmon dastasi qabartirgan dag‘al kaftlari bilan sochlarini siladi.

Odatda oshiq-ma‘shuqlar uchrashganda yuvinib-taranib, atirga belanib kelishadi. Qiz sochidan g‘alati xushbo‘y soch moyi, atirsovun isi keladi. Bulardan esa achimsiq ter hidi gupillab kelib turipti. Ammo ularga bu hid sira unutib bo‘lmas balog‘at hidi, yoshlik, navqironlik hidi bo‘lib tuyulardi.

Bir vaqtlar kelib, bola-chaqalik, keksalar aytgan ola xurjun bo‘yinga tushgan paytlar kelganda ham bu hid dimoqda turadi. Ajib xotiralarni uyqudan uyg‘otadi. Xo‘rsintiradi. Bu kunlar ko‘zni tindiradigan allaqanday billuriy nur ichida tushdek, ertakdek olisidan ko‘rinadi. Ko‘zlarni qamashtiradi. Imlab yoshlik ko‘chalariga, qaynoq bag‘riga chaqiradi.

Ularning bu damlari tirik qo‘shiq edi. Bu nurdan, qo‘shiqdan, kamalakning yetti xil rangidan, bahor yomg‘iridan, ko‘z ochgan chechaklar bag‘ridan, toshqin suvlarga to‘sh urib ucha-

yotgan qaldirg'ochning oppoq ko'ksidan, norasta go'dakning nafasidan yaralgan onlar edi.

Biroq bu ikki baxtiyor oshiq-ma'shuq oldinda taqdirning qandoq o'yinlari borligini bilishmas, hozir azim cho'qqilar sari suzib borayotgan bir tovoq qaymoqdek oppoq oy ertaga yana chiqadimi, Lutfinisaning sochlariga, yelkalariga yana kumush yog'dularini sohadimi, bu ularning xayollariga aslo kelmasdi.

Ular bir-birlarining nafaslaridan mast, sarxush edilar.

XI

Qurilish shtabi ayollar brigadalari uchun alohida ko'chma qizil bayroq ta'sis qilgan edi. Boqiboyeva brigadasi qancha urinmasin, bayroq ololmasdi. Shtab Uchqo'rg'ondagi brigadalarining ishiga alohida ahamiyat berar, u yerning tabiiy sharoiti og'irligi sababli tosh-shag'al qazish ishidagilarni tez-tez rag'batlantirib turardi. Boqiboyeva Teshavoy Mirzayevni ko'pchilik o'rtasida o'sal qilib qoldi.

– Ko'zingiz Uchqo'rg'onni ko'rarkan-da. Bu o'n kunlikda ham sizni Uchqo'rg'ondan ko'radigan bo'lsak, naq Usmon o'taning oldilarida po'stagingizni qoqamiz. Qani, ko'ramiz, qaysi brigada oldimizga tusharkan?

Boqiboyeva brigadasi haqiqatan ham bu o'n kunlikda jami ayollar brigadasidan o'zib ketgan, o'n kunlik yer qazish va tuproq tashib chiqish normasini to'rt yuz qirq ikki protsent bajarib qo'ygan edi. Shtab ularning yutug'iga tan bermay iloji yo'q edi. “Stalincha qurilishda” gazetasida “Bayroqdor brigada” degan maqola ham chiqdi.

Bugun tushlik paytida shtab vakillari injener Lebedev, bosh injener Azizov, Izboskan rayjrokomining raisi Usmonxo'jayevlar trassadagi jami quruvchilarni sada tagiga to'plab, ko'p iliq-issiq gaplar bilan bayroqni Boqiboyevaga topshirishdi. Boqiboyeva bayroqni qabul qilib oldi-da, ikki og'izgina gap aytdi:

– Endi bu bayroqni to kanal bitguncha bizdan olaman deganlar noma'qul buzoqning go'shtini yepti. Mana shu joydan Norin suvi Qora daryoga yetib borguncha suvning oldida shu bayroqni ko'tarib kanal ichidan ketamiz. Gap tamom.

U bayroq bilan davra chetiga chiqarkan, Usmonxo'jayevga shama qildi.

– Himmatingiz shumi, Eshon aka? Bu qizlarga sovg'a-povg'a olib kelmadingizmi?

Usmonxo‘jayev hazil bilan qutulmoqchi bo‘ldi.

– Hammasining boshida bittadan eri bor, nega men ularga sovg‘a berarkanman. – Davra ahli qiqirlab kulib yubordi. Eshon aka kattakon qutichani ko‘tarib o‘rtaga chiqdi. – Singlim, sovg‘aning zo‘ri bizda-da.

U shunday deb yonidan bir qog‘oz olib o‘qiy boshladi:

– Katta Farg‘ona kanali qurilishi trassalarida alohida jonbozlik ko‘rsatgani uchun quyidagi o‘rtoqlarni O‘zbekiston Oliy Soveti prezidiumi “BFK” degan kanal nishoni bilan mukofotlaydi.

Usmonxo‘jayev yigirma ayolning nomini aytib chaqirdi. Ehtiyotlik bilan ularning ko‘kraklariga nishon taqa boshladi. Navbat Xayrinisa Boqiboyevaga kelganda u qiziqchilik qilib ikki bilagini shimarib oldi.

– Kurash tushmoqchimisiz, Eshon aka? – dedi qiziqchi kelin.

– Boqiboyeva katta ordenlarga o‘rgangan, buni pisand qilarmikin. Agar meni savalab qolsa, hushyorroq turay, deyaman-da, singlim.

U nishon taqayotganda nimadir qildi, shekilli, Boqiboyeva sapchib orqaga chekindi, uning qo‘lini turtib tashladi.

– Ha, sho‘xligingiz qursin, sira qolmadi-da.

Davrada qiyqiriq, kulgi bo‘lib ketdi. Usmonxo‘jayev kulgidan o‘zini arang tiyib unga qaradi.

– Eski jazmaningizman-da, qo‘lim qaltirab ketibdi, kechirasiz...

Bu brigada ayollarining ishi ham, mitingi ham, ovqati ham kulgi bilan, hazil-mutoyiba bilan o‘tardi. Bu hazillar, kulgilar zumda tandan charchoqni qochirardi. Ayniqsa, Usmonxo‘jayev kelgan paytlarda ular juda-juda yayrab ketishardi. Bu odam Izboskan rayonida ko‘p yillardan beri ijrokomga raislik qilar, aholining kattadan-kichigini xuddi aka-ukalaridek yaxshi tanirdi. U qatnashmagan to‘y, ma‘raka yo‘q edi. Azalarda tobutni yelkaga olar, to‘ylarda bosh bo‘lardi. Birini opa, birini aka, deb siylardi. Eshon aka keldi, degan davraga zumda fayz kirib ketardi. Xotinlar ham daladami, majlisdami u bilan barobar askiya aytishaverishardi. Hech qaysi ayol begonasiramas, eridan shikoyati bormi, qaynonasidan hasrati bormi, idorasiga borib o‘tirmay ko‘cha-ko‘yda ham arz qilaverardi. Bugun bayroq topshirish marosimida Eshon akaning kelishi, o‘zi nishon topshirishi ularni juda “suyiltirib” yuborgan edi.

Xayrinisa Boqiboyeva rayonda kattadan kichikka gapini o'tkazadigan, hatto Oxunboboyev, Usmon Yusupovlar bilan bemalol gaplashadigan shaddod ayol. Bundan uch kun oldin borib kolxoz raisi Abdusamad Tillaboyevni gap bilan uzib-uzib olgan edi.

– Uyalmaysizmi, oqsoqol. Ayollar ro'zg'orini tashlab, bola-chaqasining kir-chiriga qaramay tuproq qaziyapti. Boshqa kolxozlar ishlayotgan ayollarni boshlariga ko'tarishyapti. Siz bo'lsa nimaiki mukofot bo'lsa erkaklarga sochyapsiz. Velosiped bormi, patefon bormi – erkaklarga. Hali qarab turing, kanal ham bitar, undan keyin “Hoy xotinlar, qaydasiz, pillaga qaranglar, chekankaga chiqinglar”, “Ayollar – kolxozda katta kuch, chaqqon-chaqqon qimillanglar”, deb qolarsiz... Siz bilan o'shanda gaplashamiz.

Tillaboyev lom-mim deb og'iz ocholmay qoldi. Uning javobini ham kutmay Boqiboyeva kabinet eshigini qarsillatib yopib chiqib ketdi.

Bugungi marosimga Tillaboyev ham qo'ltig'iga kattakon tungan qistirib kelgan. Navbat kutib turibdi. Boqiboyeva, ha, gapim jon-joningdan o'tib ketgan ekan, deb o'yladi.

Eshon akadan keyin ko'kragiga kanal nishonini taqqan xotinlarning yelkasiga Tillaboyev bittadan atlas tashladi. Qiziqchi kelin yana gap qistirib qoldi:

– Rais buva, bu atlasning nomi nima?

Tillaboyev xotinlar bilan pachakilashishni yoqtirmasdi. Kelinchak atayin uning shu fe'lini bilib gapga tortmoqchi bo'lgandi. Tillaboyev qip-qizarib ketdi. So'zga botir Eshon aka uning o'r-niga javob qildi:

– Bilmaysanmi, puchuq, buni “qichiq atlas” deydilar. Ja, sen bop atlas.

Yana kulgi bo'lib ketdi.

Eshon aka ketish oldida Xayrinisani chetga chaqirdi.

– Polvon bolaning qallig'i qaysi biri? Gapim bor edi.

Boqiboyeva chug'urlashib bir-birining atlasini tortqilab ko'rishayotgan xotinlar orasidan Lutfinisani chaqirdi. Eshon aka unga mahliyo bo'lganicha qarab qoldi.

– Polvon bolaning didi zo'r-ku. Opqochsa arziydigan suluv ekansan. Ehtiyot bo'l, anjan yigitlari sho'x bo'ladi, otga o'ngarib opqochmasin, qizim. E, Xayri, shundoq narsaga tuproq tashitib o'tiribsanmi. Menga qara, qizim, senga bitta sekret gap aytib qo'yay. Bugun brigadir senga ishdan vaqtliroq javob bera-

di. Kechqurun Kuyganyorda metinka bo'ladi. Usmon ota qayllig'ingga ot mindiradilar. Atayin Samarqanddan ikkita qorabayir oldirib kelganlar. Bittasi Do'nanboyga, bittasi Aziz polvonga. Kiyinib, taranib, metinkaga bor, xo'pmi, qizim.

Shundan keyin Usmonxo'jayev Tillaboyevning izvoshiga o'tirib jo'nab ketdi.

Lutfinisaning yuragi gupillab urar, ko'kraklari quvonchdan qalqib turardi.

Xotinlarga sir aytib bo'lmaydi, degan gap rostga o'xshab qoldi. Usmonxo'jayevning sekret, deb aytgan gapi birpasda butun brigadaga tarqadi. Ish ustida ham, dam olish paytida ham Lutfinisaga maslahat beradiganlar ko'payib ketdi.

– Sochingni mayda o'rdir. Uchiga pilik qilmay, namlab turib qalamga o'rasang jingala bo'ladi.

– Farqingni sal chap tarafdin och.

– Baland poshna tufla bo'lsa juda bop bo'lardi-da.

Shu kuni Boqiboyeva, mitingga boradigan bo'lsang, yuvinib-taranib ol, deb unga ishdan javob berdi. Lutfinisa tugunchasini qo'ltiqlab piyoda qizil ko'prik tarafga ketdi. Qizil ko'prikning u yog'i piyoda yarim soatli yo'l edi. Undan tashqari, Kuyganyorga bu taraflardan tinmay ot-arava, mashinalar o'tib turadi. Qo'shariq qochib ketibdimi, birpasda yetib oladi.

Xotinlar yana ishga sho'ng'ib ketishdi. Qiziqchi kelinchak kimga tegajaklik qilishni bilmay erkakcha yurish qilib zambilg'altakda tuproqni yuqoriga opchiqar, bomba, deb baqirib tuproqni ag'darardi. To'kilgan tuproq to'zg'ib, orasida o'zi ko'rinmay ketardi.

Boqiboyeva qizil baxmal bayroqni chayla tepasiga o'rnatgan. Shamol yo'q, havo dim bo'lganidan bayroq hilpiramas, zardan yasalgan og'ir gajimlari uncha-muncha shabadaga hilpiratgani qo'ymasdi. Boqiboyeva tabelchi Latifjonni bayroq tagiga o'tqazib qo'ydi.

– Tabelchi qiladigan ish qolgani yo'q. Bekorga pashsha qo'rib o'tirma, manavi bayroqni qimirlatib tur.

U shunday deb bayroqni oldi-da, manavundoq qil, deb Latifjonning qo'liga berdi. Endi Latifjon do'ng tepasida bayroqni u yoqdan-bu yoqqa siltab hilpirata boshladi. Boqiboyeva ikki-uch ketmon urib bayroqqa qarab qo'yar, chaqqon-chaqqon qimirlanglar, deb ayollarni ishga undardi.

Kechqurun Eshon aka butun Farg'ona vodiysiga mashhur bo'lgan, qo'shiqlari plastinkaga tushgan Bidonxon bilan Rahi-

ma Ermatovani ikki o'yinchisi bilan yuboribdi. Chayla oldidagi yalanglikka gulxan yoqilib allapallagacha bazm bo'ldi. Bidonxon Farg'ona yallarini ajib bir xush ovoz bilan ijro etar, unga Ermatova jo'r bo'lib, qiyqiriqlarga, olqishlarga ko'milib ketardi. Raqqosaga qo'shilib quruvchi juvonlar ham o'yinga tushishar, har xil muqomlar qilib yo'rg'alashardi.

Agar Boqiboyeva, endi bas, tong azondan ishga chiqasizlar, deb bazmni to'xtatmaganda o'yin-kulgi tong otarga ulanib ketishi hech gap emasdi.

Qiziqchi kelinchak o'rniga yotarkan yonidagi arqon karavotga qarab qo'ydi. Bu karavotda Lutfinisa yotardi.

– Bugun kelmaydi, bu o'yinqaroq. Oshig'i bilan hozir daryo bo'yidami, do'ng tepasidami oyga qarab xo'rsinayotgandir.

U javrab-javrab uxlab qolgandi.

Ertalab ko'zini ochganda darrov yoniga qaradi. Lutfinisa kelmagan, o'rni bo'sh edi. Atrofiga qaradi. Endi tong yorishib kelayotganidan chayla ichi g'ira-shira yorug' edi. Boqiboyeva chayla ustuniga suyalib, oqarib kelayotgan ufqqa qarab nimanidir o'ylayapti. Kelinchak unga qaradi.

– Lutfinisa kelmapti-ku! Hali kelsin, tomoqlarining tagini qarayman. Agar ko'kargan joyi bo'lsa gazetaga yozaman.

Uning bemavrid hazilidan Boqiboyevaning qoshlari chimirildi.

XII

Orzixon aya Lutfinisani ginaxonlik bilan kutib oldi.

– Xolaginang o'rgilsin, shunaqayam hayallab ketasanmi? Dovrig'ingni eshitaman, o'zingni ko'rmayman. Polvon bolam-ku qorasini ko'rsatmay, suvga tushgandek g'oyib bo'ldi. Sengina kelib diydoringni ko'rsatib ketsang nima qilardi.

Lutfinisa bu ochiq ko'ngil, borini mehmon oldiga sochib tashlaydigan, bir og'iz gapi bilan begonani ham o'z jigaridek qilib oladigan kampirni onasidek ko'rardi. U bilan gaplashganda olislarda qolib ketgan bolalik onlari birdan jonlangandek bo'lardi. Kampir xolang o'rgilsin, tentakkina, norastagina, deb u bilan gaplasharkan, Lutfinisaning ko'z oldiga lop etib onasi kelar, bir damgina uning ovozi eshutilgandek bo'lardi.

Qurilish ishlari jadallashib ketgandan beri u kelib Orzixon ayaning holidan xabar ololmagan edi. Kampir unga o'rganib qolganidan yo'liga ko'z tikib o'tirgan edi.

– Meni zoriqtirmay lip etib bo‘yingni ko‘rsatib ketsang-ku bo‘ladi-ya. Ertaga o‘zim borib kelmoqchi edim.

Kampir uni bag‘riga bosib ko‘risharkan, ozib ketibsan-ku, cho‘p-ustuxon bo‘lib ketibsan-ku voy bolam-e, hamma yog‘ingdan ter hidi kelyapti-ya, bosh-moshingni yuvib olmasang bo‘lmaydi, dedi.

Lutfinisa uning bag‘ridan chiqib tugunchasini ayvonga uloqtirdi.

– Ayajon, suv isitib bersangiz bosh yuvib olardim. Bugun Kuyganyorda metinka bo‘ladi. Azizxon akamlarga Usmon ota ot mindiradilar. O‘shanga boraman.

– Voy, xo‘p, xo‘p, bolam. Sen bosh yuvasan-u men suv isitib bermaymanmi. – Orzixon aya pildirab o‘choq boshiga ketdi. Samovarga suv quyib tesha bilan tarasha uchira boshladi. – Sochingni o‘zim qirq kokil qilib o‘rib qo‘yaman. Hoy bolam, o‘sma uzib oftobga tashlab qo‘y. So‘lib tursin.

U samovarga tarasha tashlab o‘t oldirarkan, og‘zi gapdan bo‘shamasdi.

– Shu desang, kanal bitgandan keyin hammanglar har tarafga tarqab ketasizlar. Bir ivirsiq enam bor edi, deb eslarmikansizlar?

Lutfinisa sharaqlab kulib yubordi.

– Axir xolajon, biz hech qayoqqa ketmaymiz. Shatta qolamiz.

– Qani endi shundoq bo‘lsa, bittagina qizim ikkita, bittagina kuyovim ikkita bo‘lib bag‘riginam to‘lib qolardi-ya!

Samovar o‘ti gurillab ketdi. Hatto quvuridan ham o‘t lop-lop qilib, bir qarich yuqoriga o‘rladi. Lutfinisa tugunni yechib, bugun kolxoz raisi yelkasiga tashlagan atlasni kampirga ko‘rsatdi. Orzixon aya atlasni yoriqqa solib tovlanishini ko‘rdi, negadir chet tarafini kaftlari orasiga olib uqaladi.

– Yaxshi atlas. Kudungi ham joyida. Yaxshi kunlaringga buyursin.

– Bugun berishdi. Tillaboyev aka topshirdilar. Yigirma uch ayolga shunaqasidan berishdi.

– Buyursin, buyursin, bolaginam. To‘ylaringda kiy, yaxshi kunlaringda kiy. Bu tomonlarga kelmaganingda, yurtga aralashmaganingda senga bu izzat-ikromlar qayoqda edi. O‘tirarding soching supurgi, qo‘ling kosov bo‘lib. Hukumatdan aylanay, hukumatginadan o‘rgilay, sen bilan menga o‘xshagan munglilarni odam qatoriga qo‘shib qo‘ydi. Umriginang uzoq bo‘lsin, to‘ylaringda o‘zim ko‘rpalaringni qaviy.

Samovar vaqirlab qaynab ketdi. Kampir Lutfinisaning o‘zim qilay, deganiga qaramay, ikki paqir chapishtirilgan suvni o‘ra oldiga qo‘yib, piyolada qatiq olib chiqdi.

– Qatiqlab yuvmayman, ayajon, ertaga yana tuproq qaziy-miz, chang yopishib to‘ng‘ib qoladi.

Kampir o‘zing bilasan, bolam, deb qatiqni qaytarib olib ketdi.

Lutfinisa bosh yuvishga tushdi. Uzun sochlari boshidan, yuz-ko‘zlaridan oshib tog‘orani to‘ldirgan edi.

Kampir ayvon labida o‘tirib undan ko‘zlarini uzmasdi. Lutfinisaning suv tegib shalabbo bo‘lgan ko‘ylagi yelkalariga yopishgan, old tugmalari yechib tashlanganidan ochiq yoqalari oralig‘ida ko‘kraklari tebranib turipti. Cho‘kkalab o‘tirib yuvinayotganidan etaklari ko‘tarilib, tirsillagan sonlari tizzalarining bukilishidan taranglashgan. Uning butun vujudidan yoshlik, navqironlik, balog‘at tantanasi aks etib turardi.

Lutfinisaning avji gulga kirgan bahori edi, ko‘zlari ham allaqanday mastona, lablari bo‘saga intilgandek qovushib turar, ovozi titrayotgandek notekis chiqardi. Kimdir o‘n sakkiz yashar qiz o‘tgan ko‘chadan muhabbat hidi keladi, degan edi. Lutfinisa ana shu yoshda, ayni shiraga to‘lgan, yigit-yalang ko‘ksida ishq uyg‘otadigan faslni kechirardi.

Orzixon aya unga tikilib o‘tirib bu go‘zallik, bu tarovat anqib turgan navqironlikni sezmasdi. Ayol kishining ko‘zi bu jozibadan to‘lqinlanmasdi. Mast bo‘lmoq uchun, qonlarni junbushga keltirmoq uchun ayni kuchga to‘lgan yigit ko‘zi kerak edi.

Lutfinisa sochini taroqlab sochiqni boshiga chambar qildi. Orzixon aya sevikli qizi kuyovnikidan kelib o‘z uyida, qadrdon hovlisida yayrab yurgandek quvonardi.

Hali oftobning dami qaytmagan, Qo‘shariqning katta ko‘chasi-dagi azamat teraklar tomdan oshib hovliga to‘rt enlikkina soya tashlagan payt edi. Orzixon aya Lutfinisani ayvonning qoq o‘rtasiga o‘tqazib shoshilmay soch o‘ra boshladi. Kampirning o‘z qizi Saboxon har juma uyga kelib shunaqa bosh yuvaradi. Kampir xuddi shunaqa qilib o‘tqazib hafsala bilan sochlarini o‘rib qo‘yardi. Hozir u qizi kelgandek mehr bilan soch o‘rardi.

– Unaqqa qirqta qilib o‘tirmang, yigirmata bo‘lsa ham mayli, bari bir boshimga chambar qilib olaman, – derdi Lutfinisa.

Soch ham o‘rildi. Oftob teraklar orqasiga o‘tib hovliga beqasam soya tashladi. Kuyganyor tarafdin odamlarni mitingga chaqirib karnay g‘atillab qoldi. Lutfinisa shoshib o‘rnidan tur-

di-yu, kiyingani ichkariga kirib ketdi. Sal o'tmay atlas ko'ylak, amirkon shippak bilan chiqdi.

— Shuni aytadi-da, bolam, odamga libos, deb. Olovdek yon-yapsan-a.

U shunday deb lapanglaganicha oshxonaga kirib ketdi. Kurakchada bir siqim isiriq bilan chiqib uni yerga qo'ydi. Keyin samovarni ko'tarib otashxonasini kurakchaga to'g'rilab silkitdi. Ikki-uchta cho'g' isiriq ustiga tushdi.

— Hozir, hozir, qizim. Yomon ko'zdan asrasin.

U cho'g'ni puflab-puflab Lutfinisaning oldiga keldi. Kurakchadan buralib-buralib tutun chiqardi. Orzixon aya uni Lutfinisa atrofida aylantirdi, etaklari ostiga tiqib tutunga to'ldirdi.

— Ana, endi borsang bo'ladi. Har qandoq yomon nazarni daf qiladi bu isiriq.

Orzixon aya kurakchani yo'lakka qo'ymoqchi bo'lib ketayotgan edi, eshikni kimdir jur'atsizgina taqillatdi. Kampir qo'lida kurakcha bilan ko'cha eshigiga yugurdi. Ko'chadan ot tuyog'ining toshga urilgani, keyin kishnagani eshitildi.

Lutfinisa o'zi bilan ovora bo'lganidan bunga e'tibor qilmadi. Kampirning, voy, shunaqami, undoq bo'lsa xush kelibsiz, kiring, kiring, o'rgilay, deganini eshitib bosh ko'tardi, eshikka qaradi. Qaradi-yu, haykaldek qotib qoldi.

Yo'lakdan Akbarali kirib kelardi. O'z akasini ko'rib joyidan qimirlamay turgan Lutfinisaga kampir ta'na qildi:

— Voy, bolam, akang keldi. Joy qil! Ko'rpacha solmaysanmi?

Akbaralining basharasida biron yomon niyat nishonasi yo'q edi. Ijyayib singlisi tomon kelaverdi.

— Bormisan, Lutfi? Tinch yuribsanmi? Bittagina akangman-a, shunaqa bemehrmisan?!

Lutfinisa birdan bo'shashib ketdi. Tili gapga kelmay bir-ikki qadam oldinga bosdi.

— Atayin yo'qlab keldim, — dedi Akbarali.

Orzixon aya shoshib ayvonga yakandoz soldi. Uni o'tirishga taklif qildi.

— Keling, o'rgilay, keling. Bolaginam musofirlarga o'xshab qolgan edi. Yo'qlab kelib, zap ish qildingiz.

Akbarali kampir solgan yakandoz chetini qayirib omonatgina o'tirdi. Lutfinisa hamon biron gap aytishga tili aylanmay, mo'l-tirab unga qarab turardi.

— O'tir, singlim, — dedi akasi, — senga aytadigan gaplarim bor. Lutfinisa beixtiyor akasining qarshisiga o'tirdi. Akbarali

gapni nimadan boshlashini bilmay ancha vaqtgacha til chaynab o'tirdi. Oxiri boshini ko'tarib singlisiga qaradi.

– Shuncha sanqib yurganing yetar. Tavbangga tayangandir-san. Endi bas. Olib ketgani keldim.

Lutfinisa bosh ko'tarmay dedi:

– Ketolmayman, aka. Endi menga Zirillama harom.

– Unaqamas. Rahmatli onam seni menga tashlab ketgan. El-yurt oldida boshimni xam qilib ketding, orqangdan quvmadim. Marg'ilon yo'lini menga berk qilib ketding, indamadim. Jigarchilik, deb chidadim. Endi esingni yig'.

Lutfinisa akasining betiga tik qaradi.

– Qistamang, aka. Ketolmayman. Biron haftadan keyin kanalga suv ochiladi. Men shu yerda bo'lishim kerak.

Akbarali istehzoli kuldi.

– Tavba, sen bo'lmasang, kanalga suv kelmay qolarkanmi. Ahmoq bo'lma!

Orzixon aya gapga aralashdi:

– Bolam, shuncha ish qilib, endi og'zi oshga yetganda tashlab ketadimi? Bu yerda katta to'y bo'ladi. O'ynab kulsin-da!

Akbarali kampirga yomon qaradi.

– Siz aralashmang, kampir, siz begonasiz, jigar jigar bilan til topishadi. Ikki o'rtada sizning aralashganingiz qoladi. To'yni tashlab ketmasin, deysiz. Bu o'zi shunaqa, to'ylarni tashlab qochishga o'rgangan. Bizni o'z holimizga qo'ying!

Orzixon aya nima deyishini bilmay turib qoldi, keyin aka-singilning gapiga men nima qilib aralashyapman, deb chorboqqa chiqib ketdi. Kampirning oyoq tovushi tingandan keyin Akbarali ko'zlarini olaytirib singlisiga qaradi.

– Ketmaysanmi?

– Yo'q! – dedi Lutfinisa qat'iy qilib.

– Yana bir marta so'rayman, ketmaysanmi?

– Ketmayman!

– Endi o'zingdan ko'r! – dedi-yu, Akbarali shart o'rnidan turib ketdi.

Lutfinisa ham o'rnidan turdi. Akasining avzoyi buzuq edi. Ammo Lutfinisa ham qizishgan, sarson-sargardonliklarining alami butun vujudiga hokimlik qilib qo'llarini mushtga aylantirgan edi.

Akbarali etigining qo'njiga qo'l yuborib pichoq sug'urdi.

– Yigit boshimni egding, onamning arvohini chirqillatding, butun avlodimizni isnodga qo'yding. Mana shular uchun, mana shular uchun...

Akbarali singlisini qo‘lidan burib siltadi, Lutfinisa gandraklab akasining ko‘ksiga yelka tirab qoldi. Akbarali pichoqni zarb bilan uning ko‘kragiga ikki marta sanchdi-yu, qo‘yib yubordi. Lutfinisa buralib-buralib yerga yiqildi.

Akbarali mushukdek sapchib yo‘lakka borib qoldi. Orqasiga o‘girilib qaradi. Lutfinisa mukkasi bilan tushgan, bosh ko‘tarishga urinar, ammo darmoni yetmasdi. U bor kuchini yig‘ib bosh ko‘targanida akasi yo‘lakda yo‘q edi. U alam bilan bir ingradi-da, boshini tashladi. Uning ko‘ksidan sizib chiqayotgan qon yerda xuddi ilondek o‘rmlayotganga o‘xshardi.

XIII

Kuyganyorning “Yashil teatri”da har kuni tomosha qo‘yiladi. Toshkent teatrlari navbatma-navbat spektakllar ko‘rsatishadi. Bugun esa teatr zalida katta tantana. Keyingi o‘n kunda yaxshi ishlab nom chiqargan ikki yuzga yaqin quruvchiga yangi ta‘sis qilingan kanal nishoni topshiriladi. Sahnna tepasiga “Katta Farg‘ona kanali quruvchilariga alangali salom!” degan shiorilingan. Sahnning bir tarafida Do‘nan Do‘smatovning, chap tarafda Azizxon Ummataliyevning surati ikki metr uzunlikdagi oq surpaga ishlab osib qo‘yilgan. Hammaning ko‘zi shu suratda. Zalni to‘ldirib o‘tirganlar bu ikki dongdor quruvchini ko‘rishga bo‘y cho‘zib qarashadi. Sahnada hukumat rahbarlari, xalq komissarlari, injenerlar o‘tirishibdi. Yig‘inni qurilish boshlig‘i Teshavoy Mirzayev ocharkan, zalga qarab kimnidir qidirardi.

– Do‘nan Do‘smatov bilan Azizxon Ummataliyevlarni sahnaga taklif qilamiz.

Do‘nan Do‘smatov o‘rta qatordan, Azizxon orqa qatordan ko‘tarilib sahna tomon yura boshladi. Teatr ichi g‘ovur-g‘uvur bo‘lib ketdi. Ular to sahna pillapoyasiga yetgunlaricha chapak tinmadi. Usmon Yusupov ularga yonidan joy ko‘rsatdi.

Azizxon umrida bunaqa izzat-hurmat ko‘rmagan. Ko‘rish qayoqda, hatto kolxoz klubining sahnasiga hech kim yo‘q paytida ham chiqmagandi. Hammaning ko‘zi unda. Pastdagilarning shivir-shivir gaplari qulog‘iga chalinib qoladi.

“Hali yosh ekan-ku”, “Eshni yiqitganiga odamning ishonigisi kelmaydi”, “Usmon ota yoniga o‘tqazdi-ya!”, “Xudo kuchdan bergan ekan”, “E, gap kuchdamas, omadda, omading kelsa nimjon bo‘lsang ham polvon qatoriga o‘taverasan...”

Azizxon bu gaplardan mast edi. Qulog‘iga o‘zining nomi aralashmagan gap kirmasdi. Qurilish boshlig‘i majlisni ochib nima

dedi, bu o'n kunlikda yettinchi uchastka qaysi o'ringa chiqdi, u yaxshi eshitmadi. Faqat o'z nomi aralashgan joylari qulog'iga kirdi, xolos. U o'tirgan yerida zaldan Lutfinisani qidirardi. Ammo u ko'rinmasdi. Ko'rinib qolsa, albatta, ko'ryapsanmi, degandek bir ishora qilib qo'yardi. Birinchi qatorda o'tirgan Esh polvon har zamon unga o'qrayib qo'yar, sen bola, men o'tirishim kerak bo'lgan joyga chiqib olding, tush pastga, deyayotgandek bo'lardi.

Azixxon Teshavoy akaning gapi tugagandan keyin endi nishon topshirishsa kerak, deb turgan edi, bosh injener Lebedev minbarga chiqib uzoq gapirdi. U kim qanday ishlagani to'g'risida lom-mim deb og'iz ochmadi. Faqat qaysi uchastka loyihadan chiqib ketayotgani, qayerda ishning sifati yomonligi to'g'risida gapirdi. Bu gaplar Azixxonni unchalik qiziqitmasdi. Tezroq ko'kragiga nishon taqishni istardi. Lebedev yarim soatcha gapirib Belyavskiyini bir-ikki turtib o'tdi. Belyavskiy o'tirgan yeridan unga javob qilardi. Ikkovi andak qizishib ham olishdi. Yusupov o'rnidan turib Belyavskiyini tartibga chaqirdi.

— O'rtoq Lebedevning gaplari to'g'ri. Uchqo'rgon loyihadan chiqib ketipti. Sizdan loyihaga aniq amal qilishingizni so'raymiz. Agar e'tirozingiz bo'lsa, marhamat, chiqib gapiring.

Belyavskiy o'rnidan turdi.

— Mayli, gapiray. O'rtoq Yusupov, loyihani hammamiz tasdiqlaganmiz. Men ham qo'l ko'targanman. Ammo mahalliy sharoit bilan hisoblashmay ilojimiz yo'q. Loyiha qog'ozdagi narsa. Ish yerda. Toshloq yerda, shag'alli yer loyihada ko'rsatilgan miqdorda suv o'tkazmaydi. Yigirma protsentdan ortig'ini yer ostiga tortib ketadi. Shuning uchun kanal tagi shibbalanishi kerak. Tuproq bilan shag'al qatlamini tekshirib ko'rish uchun mutaxassislar berishingiz kerak. Undan tashqari, Qoradaryodan loyqa suv keladi. Shag'al joylarga loyqa o'tirib shibbalashi mumkin. Ammo norin suvi buloqdek tiniq. Shag'al betini loyqa bosmaydi.

Sahnaning orqa tarafida o'tirgan injenerlar to'g'ri, to'g'ri, deb Belyavskiyning gaplarini tasdiqlashdi.

Yusupov Lebedevga qaradi.

— Bu gapga nima deysiz?

Lebedev javobga tayyor emas ekan shekilli, andak dovdirab qoldi.

— Buni ish tepasida tekshirib ko'rish kerak, o'rtoq Yusupov. Yusupov Belyavskiyga qaradi.

— Siz nima qilish kerak, deb o'ylaysiz?

Belyavskiy o'ylanib o'tirmay javob qildi:

– Men bir usulni taklif qilmoqchiman. Agar bizga yigirmata kuchli nasos bersangiz, shu nasoslar yordamida bir yarim kilometr masofada toshloq trassalar tagiga loyqa oqizsak. Loyqa oqqan joylarni shibbalaymiz. Keyinchalik suv oqizilganda bu loyqalar shag‘al oralariga kirib suv shimilishidan saqlab qoladi.

Zaldagilar qolib sahnada tortishuv bo‘lib ketdi. Ertadan boshlab Uchqo‘rg‘onda qazilgan kanal yo‘llari alohida o‘rganiladigan, Belyavskiyning taklifi tekshirib ko‘riladigan bo‘ldi. Ana shundan keyin kattagina qutichani sahnaga ko‘tarib chiqishdi. Prezidium stoliga qizil qutichalarni terib tashlashdi. Oxunboboyev birinchi bo‘lib Do‘nan Do‘smatovning ko‘kragiga nishon taqdi. Azizxon hozir meni chaqiradi, deb yuragi dukillab urib turganda Oxunboboyev uni emas, Belyavskiyini chaqirdi. Azizxonga yetti kishidan keyin navbat keldi.

– Do‘nan Do‘smatovning shogirdi, yuk ko‘tarishda hech kimni oldiga o‘tqazmagan, dongdor quruvchi Azizxon Ummataliyev!

Azizxon o‘rnidan turdi. Esankirab Oxunboboyev tomon yura boshladi. Pastda qiyqiriq, chapak tinmasdi. Oliy Sovet raisi uning ko‘ksiga nishon taqarkan, yasha azamat, nishon qulluq bo‘lsin, deb uni bag‘riga bosdi. Azizxon joyiga borib o‘tirarkan, birdan dadasi, onasi esiga keldi. Nega ularga ketaveringlar dedi. Qolishganda bugun ular bu tantanalarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishardi.

Oxunboboyev yuzga yaqin kishiga nishon topshirib charchadi. Keyin u har qaysi uchastka boshliqlari nishonlarni trassada, ish tepasida O‘zbekiston Oliy Soveti nomidan topshirishlarini aytdi. U gapini tugatib joyiga o‘tirayotganida zalga ikkita yasatilgan qora ot olib kirishdi. Hamma birdan jimib qoldi. Usmon Yusupov o‘rnidan turib zalga murojaat qildi.

– Hurmatli do‘stlar. Azamat quruvchilar. Bugun biz kanal qazishda ajoyib harakat boshlab bergan, kanal qazish sur‘atini oshirishga, qazish muddatini tezlatishga tashabbuskor bo‘lgan ikki dongdor quruvchiga ot mindirmoqchimiz. O‘zingizga ma‘lum, qurilishimizning eng dongdor yer qazuvchisi Do‘nan Do‘smatovdir. Qurilish shtabi Do‘smatovga ot mindiradi.

Teshavoy Mirzayev sahnadan tushib ot jilovidan oldi.

– Qani, Do‘nanboy, keling!

Do‘smatov sahnadan tushib kelarkan, hayajonlanayotgani bilinib turardi. Ikki yigit uni bilagidan olib ot minishiga qarashib yuborishdi. Yusupov ajoyib maqtov so‘zlari bilan Azizxonni ot yoniga chaqirdi.

Azizxon bunaqa bo'lishini kutmagan edi. Qo'rqib ketdi. Menmi, boshqa odammi degan o'y bilan yon-veriga qaradi. Orqasida o'tirgan Jo'ra polvon "Turmay-sanmi, tentak", deb turtdi.

Azizxon turay desa, orqasi stulga yopishib qolgandek sira uzilmasdi. Oxiri u turtdi. Mast odamga o'xshab gandraklaganicha sahnadan tushib ot oldiga keldi. Qaydandir paydo bo'lgan Tengdik bilan Beyshenali uni tirsagidan ko'tarib egarga olishdi. Yollariga har xil lentalar taqilgan ot boshini silkib oldinga bir intildi. Azizxon qalqib ketgandan keyingina o'zini o'ngladi.

Zalni to'ldirgan kishilar qiyqirishar, tinmay chapak chali-shardi. Tshavoy Mirzayev ikkala otning jilovini juftlab zalni bir aylantirib chiqdi-da, yana sahna oldiga kelib to'xtadi. Ildam yu-rib sahnaqa chiqdi-da, Yusupovga nimadir dedi. Shundan keyin zalga qarab baland ovoz bilan majlis tamom, ozroq tanaffusdan keyin katta kontsert bo'ladi, deb e'lon qildi.

Azizxon nima bo'layotganini bilmas, tabriklashga uzatilgan son-sanoqsiz qo'llarni siqardi. Ot bosh silkib oldinga intilmoqchi bo'lardi-yu, ammo davradan chiqolmasdi.

Jo'ra polvon odamlarni u yoq-bu yoq qilib otni yetaklab yalanglikka olib chiqdi. Keksa tol tagida ko'pchilikka aralashmay xomush turgan Esh polvonga Azizxonning ko'zi tushdi. Qo'ngli allanechuk bo'lib ketdi. Agar Azizxon bo'lmaganda, albatta, bu otni Esh polvonga mindirishardi, Azizxon uning yo'liga to'g'a-noq bo'ldi. Birdan Azizxonning odamgarchiligi tutib otdan tush-di-yu, ildam borib Esh polvonni belidan ko'tardi.

— Esh aka, xafa bo'lmaysiz. Sizga tan beraman. Siz mening ustozim bo'lasiz...

Azizxonning gapi og'zida qoldi. Esh polvon uni ko'ksidan itarib do'ng'illadi:

— Tirancha, sen hali chuchvarani xom sanabsan. Meni mayna qilyapsanmi?

U shunday dedi-yu, yerni gurs-gurs bosib choyxona tarafga ketdi.

Azizxon o'sal bo'ldi. Esh polvon uning odamgarchiligini pisand qilmadi. Mayli, alam ustida shunday qilyapti. O'rnida Azizxonning o'zi bo'lganda, u ham shunday qilarmidi?

Yashil teatrda kontsert boshlanib odamlar o'sha yoqqa qarab gurra-gura keta boshlashdi. Ot jilovidan hamon ushlab turgan Jo'ra polvon Azizxonga yaqin keldi.

— Qo'yaver, Eshning o'zi shunaqa. Bir kun sovib qoladi. Men kontsert ko'rmoqchiman. Sen uchastkaga ketaver.

Jo'ra polvon ot jilovini tutqazdi. Azizxon nima qilishini bilmay xayol surib qoldi. Uchastkada shu topda nima qiladi. Lutfinisani topishi kerak. Bugun u majlisda ko'rinmadi. Ko'rganda qandoq yaxshi bo'lardi. Nishon taqqanini, ot minganini ko'rganda, bu taraflarga bekorga kelmaganini bilardi. Azizxon uni, albatta, qidirib topishga ahd qildi. Lutfinisa Kuyganyorga kelmagan. Kelganda, albatta, hozir ro'parasida iljayib turib olardi.

Azizxon shartta otga minib, ot boshini Qo'shariq tarafga burdi. Ot yaxshi sovutilgan, yaxshi otboqar qo'ldan chiqqani bilinib turardi. Yurishi ham joyida. Tuyog'ini yerga chirmanda chertganga o'xshatib uradi. Azizxon ko'prikdan o'tib uzangiga oyoq tiraganicha qaddini rostladi-da, toldan novda sindirdi.

Barglari yerga tegay-tegay deb bir o'tov yerni enlab yotgan majnuntol tagida to'rt-besh ulfat sirlangan tog'orani o'rta qo'yib shopirib-shopirib qimiz ichib o'tirishardi. Ulardan biri chinni kosani to'ldirib qimiz uzatdi.

– Ot qulluq bo'lsin, uka. O'zi ham otmisan ot ekan. Poygalarga yarasin, yaxshi yo'ldosh bo'lsin, ukam. Mana shu qimizni bir oq urib bering.

Azizxon qo'lini ko'ksiga qo'yib uzr aytdi.

– Men ichmayman, akalar. Umrinda ichkilikni og'izga olgan bola emasman.

Ulfatlardan yana biri o'rnidan turdi.

– Ukajon, bugungi siz ko'rgan obro'ni Rustami doston ham ko'rmagan. Iching buni. Bu otning suti, otning o'zi halol-u suti harommi? Oling!

Azizxon bugungi obro' garangligi, yoshlik g'ururi qaynab turganidan qamchi o'rniga ushlab turgan navdani taqimiga bosib turib kosani oldi.

– Bo'pti, akalar. Bunaqa kun hadeb bo'lavermaydi. Umrda bitta bo'ladigan gap. Ichsam ichibman-da.

U shunday deb qimizni shimirib, kosani yigitga qaytarib berdi. Yigit kosani olarkan, havas bilan otning bo'ynini siladi. Yag'riniga shapillatib urib ham qo'ydi.

– Omadingiz kelaversin, uka.

Azizxon otga beozor novda tegizdi. Ot asta joyidan qo'zg'aldi. Yo'l-yo'lakay odamlar unga havas bilan qarashar, ayniqsa, "ot jinnilari" undan ko'z uzolmay qarab qolishardi.

Azizxon Qo'shariq yo'lidagi do'ngga chiqqanidan keyin orqasiga o'girildi. Uzoqda odamlarning qiyqiriqlari, baqirgan-chaqirgan tovushlari eshitilib qolardi. Azizxon engashib ot bo'y-

nidan quchoqladi. Yollarini siladi. U o'z baxtiga, o'z obro'siga ishonmasdi. Tushimmi, o'ngimmi, deb o'zidan o'zi ovoz chiqarib so'rardi.

U ot yo'rg'asini, chopishini bilmoqchi bo'lib biqiniga niqtadi. Ot sapchib oldinga intildi. Kimsasiz tosh yo'lda ot tuyoqlari taraq-taraq ovoz chiqazar edi.

Qimiz kayfi, ot minish zavqi unga go'yo qanot paydo qilib uchirardi. Hozir dunyoda undan baxtli odam yo'q. Ot yeldek uchar, yaktaginging barlari shamolda hilpirar, qimizdan qizigan betlariga oqshom salqini tegib yayratardi.

Azixxon Qo'shariq guzarini kesib o'tishi bilan Orzixon ayaning eshigiga ko'zi tushdi. Eshik oldida bir ot yer tepinib turibdi. Kim keldi ekan, deb dilidan o'tkazdi Azizxon. Ayaning kuyovi keldimikan? U hali o'ylab o'yiga ham yetmagan edi, eshikdan bir kishi besaranjom chiqib otga mindi, ikki-uch achchiq qamchi bosdi. Ot jon achchig'ida old oyoqlarini devor baravar ko'tarib sapchidi. Bir zumda g'oyib bo'ldi. Azizxon nima gapligiga tushunmay eshik oldiga keldi. Ichkaridan Orzixon ayaning alamli faryodi eshitildi:

– Voy bolam, bemahal xazon bo'lgan bolam...

Azixxon otdan sakrab tushib ichkariga kirdi. Ayvon oldida Lutfinisa qonga belanib yotardi. Azizxon yugurib borib uni ko'tardi. Lutfinisaning ko'zi hali ochiq, tanasi sovimagandi. U Azixxonga nursiz ko'zlarini qadab nimadir demoqchi bo'ldi. Lablari qimirlamadi. Iyak tashladi.

Azixxon nima qilishini bilmay sherdek o'kirib atrofga qaradi.

– Kim, kim u nomard?!

Orzixon aya titrab-qaqshab javob qildi:

– Akasi, akasi kelgandi. Gaplashib olishsin, deb chorboqqa chiqib ketibman-a. Bir lahza, bir lahzaginada...

Azixxon Lutfinisaning jasadini ko'tarib ayvonga olib chiqdi. Ko'rpachaga yotqizdi. Orzixon aya boshiga yostiq qo'ydi.

Azixxon koptokdek otilib tashqariga chiqdi. Bir sakrab egarga mindi-yu, boya otliq kishi ketgan tarafga ot boshini burib, qamchi bosdi.

XIV

Akbarali har qancha urinsa ham, otni o'ziga bo'ysundirolmasdi. Qon hidini tuygan ot bezovtalanar, orqa oyoqlari bilan sakrab ustidagi egasini silkib tashlamoqchi bo'lardi. Ammo egar-

ga mahkam o‘rnashib o‘tirib olgan Akbarali uni o‘z holiga qo‘ymasdi. Ot kishnar, boshlarini silkib xuddi mast kishidek yo‘ning goh u tarafiga, goh bu tarafiga o‘tib borardi.

Akbarali Soy mahallasiga yetguncha qora terga tushib ketdi. Oldinda shahar chiroqlari yo‘llarni kunduzdek yoritib turibdi. U jahl bilan jilovni tortdi. Shunda u barmoqlarining bir-biriga pilch-pilch yopishayotganini sezdi. Kaftini ko‘zi oldiga keltirib tikildi. Tikildi-yu, birdan butun vujudiga titroq kirib seskandi. Uning qo‘llari, kiyim-boshlarida singlisining hali qotmagan qoni shundoqqina ko‘rinib turardi.

Shu alpozda shahar oralab o‘tish xavfli. Duch kelgan kishi uning nima ish qilganini darrov biladi. U shoshib ot boshini chap tarafga burdi. Bu Xarko‘p yo‘li edi. Bu yo‘l Nayman, Darda, Jalaquduq taraflarga olib borardi. Ammo Akbarali bu taraflarni yaxshi bilmasdi. Nima bo‘lsa ham, shaharga kirmaslik uchun yo‘lni shu tarafga soldi.

Dala yo‘li jimjit. Qo‘rg‘onlarda chiroqlar miltirab yonib turibdi. Onda-sonda o‘t orqalagan kishilarning qorasi ko‘rinib qoladi. Dunyoda itdek qon isini tez payqaydigan jonivor bo‘lmasa kerak. Yo‘l-yo‘lakay necha marta unga it ergashdi. Akillab otni hurkitar, ancha joygacha quvib borib, keyin orqasiga qaytardi. Shundog‘am bezovta yurayotgan ot egasiga bo‘yin bermay ustidan irg‘itib tashlashga urinardi.

Akbarali ming azob bilan dala yo‘liga chiqqandan keyingina ko‘ngli xotirjam bo‘ldi. Hozirgina adir orqasidan ko‘tarilgan katta mis barkashdek qip-qizil oy uning qonga belangan kiyimlarini yanada qizil qilib yoritardi. Bironta ariqmi, soymi uchrasa, yuvinib olish niyatida Akbarali otni o‘z holiga qo‘yib shoshilmay keta boshladi. Aksiga olib yo‘lda na bir ariq, na bir ko‘lmak uchrardi. Akbarali orqasidan hech kim ta‘qib qilmayotganiga ishon-gandan keyin otdan tushib jilovni ushlaganicha bitta-bitta bosib keta boshladi. Hozir u qayoqqa ketayotganini o‘zi bilmasdi. Shu alpozda u ancha yo‘l yurdi. Boya qonga belangandek qizarib chiqqan oy endi sutdek oqarib tepaga kelgan edi.

Akbarali qilib qo‘ygan ishining dahshatini endi sezdi. Lutfinisa uydan qochib ketgan kundan buyon u faqat “yigitlik” nomusini, bu “benomus” singlisini o‘ldirib, egilgan yigitlik qomatini ko‘tarishni o‘ylagandi. Mana, u niyatiga ham yetdi. Ammo qaddi ko‘tariladimi endi? U bu “yigit qaddini” qaysi ko‘chada, qaysi guzarda g‘oz tutib yuradi? Shu paytgacha u o‘ziga o‘zi bunaqa savol berolmagandi. Shu topda kimsasiz qorong‘i kechada,

kiyim-boshi qonga belangan paytda shu savolni o'ziga beryapti. Bu savolning javobi g'oyatda dahshatli, g'oyatda ayanchli edi. Akbarali yo'ldan to'xtadi. Beixtiyor qo'llari ot yolini silashga uzatildi. Qon hidi anqib turgan qo'ldan ot boshini tortib silkindi.

Endi u hech narsani o'ylamay, nima bo'lsa ham uzoqroq manzilga yetib olmoqchi bo'ldi. Bir sakrab egarga qo'ndi. Alam bilan ikki-uch achchiq qamchi bosdi. Ot oldi oyoqlarini osmonga irg'itib sapchidi-da, shamoldek uchib ketdi. Akbarali ko'zlarini chirt yumib olgan, faqat quloqlariga tuproqqa tegayotgan tuyoq tovushigina eshitilar, qo'llari tinmay otga qamchi bosardi. Shu ahvolda u anchagina yo'l bosdi. Olisdan kelayotgan tovushlar hushini o'ziga keltirdi. Ko'zini ochdi.

Yo'l boshida sonsiz chiroqlar porlar, daryo ustidagi Yashil ko'prikan gupillab poyezd sostavi o'tardi.

Akbarali jon-jahdi bilan jilovni tortdi.

Axir bu Kuyganyor-ku! Aylanib yana o'sha, singlisining qonini to'kkan joydan chiqibdi-ku. Odamlarning, qotilni qon tortadi, to'kkan qoni chaqiraveradi, degan gaplari rostga o'xshaydi. Akbarali hozirgina shu yerdan qochgan edi. Yana qaytib kepti. U epchillik bilan ot boshini orqaga burdi.

Terlab ko'pirib ketgan ot endi unga ortiqcha bo'y bermay qo'ydi. Har qancha qamchilamasin, qadamini tezlatmas, ba'zan to'xtab, turib olardi.

Ot goh yurib, goh to'xtab Kuyganyordan anchagina uzoqlashdi.

Qarshidan bir otliq kelardi. Begona yo'lovchi oldida hayajonini sezdirmaslik uchun Akbarali o'zini o'nglashga, xotirjam ko'rsatishga urindi. Otliq borgan sari yaqinlashardi.

Yashil ko'prik tarafdian ketma-ket ikki-uch marta mushak otildi. Qizil, ko'k, yashil nurli chiziq osmoni falakka chiqib pop-pop qilib yorildi. Ko'zni qamashtiradigan nur hamma yoqni yoritib yubordi. Akbarali otliq yo'lovchini tanidi. Bu Azizxon edi.

Ikkovi ham bir-birini tanidi. Akbarali shoshib otning boshko'zi aralash qamchi bosdi. Ammo ot joyidan jilmadi. Azizxon shoshilmay u tarafga bemalol kelardi. Akbarali otni jildirolmaganidan g'azabi toshdi, epchillik bilan etigining qo'njini paypaslab pichog'ini topdi. Pichoq qini bilan chiqdi. Pichoqqa tekkan qon qinda ivib qolgan ekan. Akbarali zarda bilan qinni ajratib uloqtirdi. Azizxon uch-to'rt metr yaqinga kelib qolgan edi.

— Yaqin kelma! O'ldiraman! Ko'ryapsanmi? Qoningga tashna bo'lib turipti.

Akbarali pichoqni gijinglab turgan ot boshi ustiga keltirib unga ko'rsatdi. Ot qon hidini yana tuydi, sapchib ketdi. Akbarali unga yana alamli qamchi bosdi. Ot silkinib-silkinib uni ustidan igr'itib tashladi. Akbarali tuproqqa yonboshi bilan tushdi. Yomon so'kindi. U hozir Azizxon meni qamchi bilan savalaydi, otiga bostiradi, deb o'ylagan edi. Azizxon unday qilmadi. Shoshilmay otdan tushdi. Akbarali emaklab nari ketdi. U epchillik bilan bir sapchib yo'lning narigi tarafiga o'tdi-yu, kuchining boricha chopo boshladi. Azizxon izma-iz quvib boraverdi. Chunki u bu o'tlari qovjirab qolgan dalaning oxiri qayga olib borishini yaxshi bilardi. Orzixon ayanikida yotib yurgan kezlarida u Lutfinisa bilan shu dalaga kelishardi. To daryo bo'yigacha borib o'sha yerda soatlab o'tirishardi. Yo'lda terib kelgan yassi toshlarni daryo to'lqinlariga otib toshni suv ustida kim ko'p sakratish o'ynashardi. Akbarali chamasi o'n besh minutlarcha qochib daryo bo'yidan chiqib qoldi. Endi qochadigan boshqa joy yo'q edi. U suvga orqa o'girib Azizxon kelishini hansirab kutardi.

— Yaqin kelma. Joningdan umiding bo'lsa, yaqinimga kelma!

Azizxon javob bermadi. Yaqin kelaverdi. Akbarali sherdek o'kirib unga tashlandi. Azizxon jon achchig'ida uning qorniga tepdi. Akbarali chalqanchasiga yiqildi. Azizxon epchillik bilan pichoq ushlagan qo'lini oyog'i bilan bosdi. Akbarali ingroq aralash so'kindi. Azizxon ko'kragini chap tizzasi bilan bosib ko'zlariga qaradi. Oy nurida uning ko'zlari mushuk ko'zidek sarg'imitil nurlanib turardi.

— Nomard, jallod! — dedi g'azab bilan Azizxon. — Axir Lutfinisa marhum ota-onangdan yodgor edi-ku! O'z qoningni o'zing to'kdingmi, iflos!

Akbarali xirillab javob qildi:

— Unaqa singlim yo'q! U fohisha!

Azizxon qo'li qanday qilib Akbaralining kekirdagiga borib qolganini bilmay qoldi. Bor kuchi bilan uni bo'g'a boshladi. Keyin birdan o'zi qilayotgan ishidan o'zi cho'chib qo'lini oldi. Yoqasidan tortib o'rnidan turg'izdi.

— Yo'q, yo'-o'-o'q, seni osonlikcha o'ldirmayman. Avval qilgan ishingni ko'zingga ko'rsatib qo'yaman... Qani yur! Yur, oldimga tush!

Akbarali joyidan jilmadi. Azizxon uni yoqasidan olib sudradi. Akbarali yurishga unamay orqaga tisarilar, ammo bu zabardast, butun gavdasida kuch qaynayotgan yigitning temirdek baquvvat qo'llariga monelik ko'rsatishga ojizlik qilardi.

Yashil ko'prik tarafda hamon mushak otilib osmoni falakni ranglarga bo'yar, dala-toshni bir damgina yoritib so'nardi.

Akbarali holdan toyib yerga o'tirib oldi.

— To'xta! — dedi u horg'in tovushda, — Nima qilmoqchisan? Gaplarimga quloq sol. Sen, bola, go'daklik qilyapsan. Lutfi senga munosib emas. O'z akasini yuziga oyoq tiragan qiz senga vafo qilarmidi.

— Yana nima gaping bor, ayt, aytib qol! — dedi alam bilan Azizxon.

— Senga onasi o'pmagan qizlarni topib beraman. Kel, og'agini bo'laylik. Senga qiyomatlik aka bo'lay. Katta to'ylar qilib uylab qo'yaman. Lutfi it o'limini topdi. Istasang, Qashqarga olib ketay. Jiyanim o'sha yoqda. Tish doktori. Shu kuching bilan sen u yoqlarda tillaga botasan. Yur, ketaylik. Ko'p ishlar qilamiz.

Azizxon qahr-g'azab bilan dedi:

— Ovora bo'lasan! Sen o'ylagan xoinlardan emasman!

Azizxon g'azabidan titrab-qaqshab uning duch kelgan joyiga musht tushira boshladi. Akbarali har gal musht tekkanda bir-ikki qadam nariga uchib tushardi. Oxiri u o'rnidan turdi-yu, orqasiga qarab tiraqaylab qocha boshladi. Azizxon uni qirg'oqqa yarim metrcha qolganda tutdi. Epchillik bilan belidan ko'tardi-yu, boshidan oshirib qachondir kesilgan keksa tol to'ngagiga qarab otdi. Akbarali to'ngakning shundoqqina yonginasiga borib tushdi. Shoshib turdi-yu, suvga sapchidi. Azizxon uni tutib qolishga ulgurmasdi. Oyog'idan ushlagan edi, xolos. Bir poy etigi qo'lida qoldi-yu, suvga shaloplab cho'kib ketdi.

Oyning sovuq shu'lasida to'lqinlar muz parchasidek bir chaq nab so'ndi.

Azizxon suv mavjlariga tikilib turdi-da, qandaydir bir jirkani, g'azab, qoniqmay qolgan o'ch alami bilan orqasiga keskin burilib, qurib-qovjirab qolgan giyohlarni shitirlatib orqaga qaytdi.

Oy og'ib qolgan, adirlarning oyga ters tarafi qop-qora devordek bo'lib turardi. Kimsasiz dalada ikki ot bir-biriga yaqin kelolmay o't chimdib yuripti. Azizxon charchagan, asablari birdan bo'shashganidan holsizlanib ot tarafga yurib emas, sudralib borardi. Kanal trassalari jimib qolgan, Kuyganyor tarafdin shovqin-suron eshitilmas, mash'alalar ham so'ngan edi.

Kanal boshlangandan buyon bunaqa tinchlikni Azizxon endi ko'ryapti. Yo bunaqa paytda trassaga chiqmaganidan bilmaganmikan? Balki, tong otarga yaqin har kuni shunaqa bo'lar.

Azizxon otga minmadi. Jilovidan ushlab asta yurib Nayman yo'liga chiqdi. Yashil ko'prik chiroqlari miltirab ko'rina boshladi. U yarim soatcha yurgandan keyin ko'prik ustidan hayqirib poyezd o'tdi. Parovoz oldidagi proyektor kimsasiz dalani qilichdek kesib borardi.

Sal o'tmay yana jimlik boshlandi. Bu jimlik Azizxon uchun nihoyatda dahshatli edi. Qarshisida Lutfinisaning xiralashayotgan ko'zlari paydo bo'lar, Akbaralining xirillashi qulog'iga eshitilardi.

Azizxon har qalay hali hayotning achchiq-chuchugini totmagan, o'lim nima, jon berish nima – ko'rmagan edi. Hozir esa, kech kirib, qorong'ilik tusha boshlagandan tong yorishguncha ikki o'limni ko'ryapti.

Azizxon qandaydir vahima, qo'rqinchli o'ylar girdobida qorong'i kecha qo'ynida kelyapti. Hali Lutfinisa xiralashayotgan ko'zlarini unga tikib, alvido, deyayotgandek, hali Akbarali xirillab o'lim bilan olishayotgan bir holatda ketidan ergashardi.

Bu ahvolda imillab yuradigan bo'lsa, xayollar uni ezg'ilab tashlashi turgan gap. Azizxon otga mindi. Ot ham shuni kutib turgandek oldinga intildi. Yaxshilab sovib, to'yib o't yegan ot endi Azizxon tagida o'ynoqlab yo'rg'alardi.

Tong otar paytda Azizxon Qo'shariq guzariga yetib keldi. Bitta muyulishdan keyin Orzixon ayaning eshigi ko'rinadi. Azizxonning yuragi hapriqib ketdi. Birdan qulog'iga xotin kishining mungli yig'isi eshitildi. Bu Orzixon ayaning tovushi edi. Azizxon ich-ichidan ezilib ketdi. Bo'shshib ot jilovini siltadi. Ot oyog'i ildamlashdi.

Eshik oldida ikki-uch kishining qorasi ko'rindi. Azizxon ot-dan tushib jilovni egar qoshiga tashladi-da, motamsaro bir qiyo-fada eshik tomonga yura boshladi.

Ichkari jimjit. Azizxon yo'lakdan o'tishi bilan ayvon o'rta-sida ustiga oq choyshab yopilgan Lutfinisaning jasadini ko'rdi. O'zini tutolmay ichidan bir olov keldi-yu, tomog'iga qadalib turib qoldi. Birdan bu o't portlagandek tomog'idan yig'i bo'lib otilib chiqib ketdi.

Azizxon alam-sitam bilan Lutfinisa jasadiga o'zini otdi. Kimdir uni tirsagidan olib ko'tarmoqchi bo'lgan edi, Orzixon aya:

– Mayli, qo'yib beringlar, ular bamisoli Layli-Majnun edilar. Mayli, yig'lasin, to'yib yig'lasin. Armonlarini to'kib yig'lasin, – dedi.

Tog'a boshchiligida kelgan hamqishloqlar belini bog'lagan Azizxonga ta'ziya izhor qilib, bir chetga borib turdilar. Ikromjon bo'lgan voqeani Tog'adan eshitgani uchun undan, nima bo'ldi, qachon bo'ldi, deb so'rab o'tirmadi.

Tog'a Azizxonga qarab turib, ko'ngli buzilib ketdi. Simobdek beqaror, kuch-g'ayrati taniga sig'magan o't-olov yigit endi so'lgan, taqdirning bemahal zarbasidan esankirab qolgandi.

Yurtga otalik qiladigan, ko'p azalarda yetimlarning boshini silab, ko'z yoshini tindirgan Tog'a Azizxonni ovutish uchun bisotidan biron jo'yali gap topolmasdi. Nima deydi? Nima desa bu bolaning dardi yengillashadi? Bunday so'zni topish qiyin edi. Tog'a Azizxonning yelkasiga qo'lini tashlab: "Qanday qilasan, bolam, odamning umri shu ekan-da, chidashdan boshqa ilojimiz yo'q", deyishdan boshqa gap topolmadi.

Yo'lakda turgan tobut ustiga sariq atlas yopilgan. Bu atlas Lutfinisaning birinchi mehnatiga kelgan mukofot edi. Tillaboyev uning yelkasiga atlasni tashlarkan: "Yaxshi kunlaringga buyursin, qizim, yayrab-yashnab, to'y-u tomoshalarda kiy", degandi.

Ichkarida Zirillamadan kelgan xotinlar birovga aralasholmay xuddi gunohkordek mung'ayib turishardi. Azizxonning onasi ayvon labida bir nuqtaga tikilgancha qimirlamay o'tiribdi. Chayladami, ish tepasidami, ovqat paytidami Lutfinisaga tinmay tegajaklik qiladigan qiziqchi kelin endi dastro'molini labiga bosib piq-piq yig'laydi.

Tashqarida Esh polvon oftob tig'ida terga botib, og'ir gavdasini arang ko'tarib turibdi. U belbog'i bilan bo'yni, yuzidan quyilayotgan terni dam-badam artadi. Eshning ikki ko'zi jiqqa yoshga to'lgan, tinmay hiqillardi. Ne-ne kurashlarda sovrin olib, ne-ne kurashlardan boshini egib chiqib ketgan, qahri qattiq, birovning dardini bilmaydigan hissiz bo'lib ko'rinadigan bu odam aslida bunaqa emasdi. Salga ko'ziga yosh keladigan, muhtoj-nochor odamlar oldidan o'tganda ko'ngli buzilib, yuraklari ezilib ketadiganlardan edi. Kuyganyor tarafdin odamlar to'da-to'da bo'lib kela boshladilar. To'g'onda ishlayotganlar to'ppa-to'g'ri trassadan chiqib ta'ziyaga kelayotgan edilar. Ularning chang-to'zonga belangan kiyim-boshlari terdan ho'l bo'lib loyga aylanib ketgan edi.

Havo qizigandan qizib, devorlar, tom-u toshlardan lip-lip alanga uchardi.

Bir zumda ko'cha betini odam bosib ketdi. Hamma pichirlab gaplashar, bel bog'lab, bosh egib turgan Azizxonga ezilib qarab qo'yardi. Ichkaridan xotinlarning aytib yig'lashlari bu jimlikni buzar, sukunat bag'rini tilib motamsaro kishilarning yelkasidan ezardi.

Kecha oqshom yurt kattalari oldida, minglab quruvchilar oldida mehnat tantanasidan mast, qorabayir ot minib hammadan balandda ko'ringan Azizxonga hamma havas qilgandi. Unga yaqin kelib qo'lini qisib qo'yishga, bir og'izgina iliq gap bilan muborakbod qilishga intilgan kishilar endi uning g'am-alam ezib tashlagan qomatiga, yig'idan qizarib ketgan yosh to'la ko'zlariga achinib qarab turishardi.

Tobut ko'tarildi.

Motam marosimi Qoradaryoning "Yashil ko'prigi"dan o'tib Poytuq tomon yo'l oldi. Trassalarda ishlayotganlar tuproq do'nglaridan oshib yuqoriga chiqq boshladilar. Yer qo'porayotganlar, qop-zambillarda tuproq tashiyotganlar marosim oldidan chiqib galma-galdan tobut dastasini yelkaga olishar, sal nari borib uzatilgan boshqa qo'llarga berishardi.

Lug'umbekdagi Tuyachi qabristoniga yetguncha tobut o'n mingdan ortiq kishining yelkasidan o'tdi.

Azixon kalovlab qolgan, vujudi karaxt, nimalar bo'layotganini idrok qilolmasdi. Lutfinisani qabrga qo'yib tuproq tortayotganlarida u g'ayri tabiiy bir tovushda faryod urib o'zini qabr do'ngiga otdi. Xaloyiq bir dam jimib qoldi. Qabrni quchib nola qilayotgan Azizxonni Tog'a kelib bilagidan ko'tardi.

— Bo'ldi, bo'ldi, o'g'lim. O'zingni tut. Axir sen mard bolasan-ku!

Azixon boshini chayqar, yulqinib qabrga intilardi. Ummatali bo'lsa esankirab qolgan, o'g'lining orqasidan qaltirab ergashar, atrofdagilardan madad so'rayotgandek ko'zlarini hasratli javdiratardi.

Qabriston darvozasidan chiqishganda Tog'a Ikromjonni yoniga chaqirdi.

— Do'stim, mana, ahvolni ko'rib turibsan. Azizxonni yolg'iz tashlab ketgim kelmayapti. Sen To'lan bilan qol. To kanal bitguncha yonida bo'linglar. O'zing bilasan, bugun-erta terimga tushib ketamiz. Shundog'am kolxozda odam kam. Yigitlarimiz naymanliklarga qarashgani trassaga chiqib ketishgan. Azizxonni shu ahvolda tashlab ketsak qishloq ahlining malomatiga qolamiz. Uni yupatib, ishga chiqarib yubormasanglar bo'lmaydi.

Yolg'izlikda g'am yeb qo'yadi. Bo'ptimi? Uylaringdan xotirjam bo'linglar. O'zim xabar olib turaman, Eshon aka bilan gaplashdim. Jo'ra polvon brigadasiga sizlarni o'tkazib qo'yadigan bo'ldi.

Ikromjon bosh irg'ab xo'p ishorasini qildi. To'lanboy ham rozi edi.

Ana shundan keyin Tog'a Azizxonni bag'riga bosib xayrlashdi-da, zirillamaliklar kelgan avtobusga chiqdi.

Ummatali bolasining oldida qoldi.

Bir odam olamdan ketdi. Ammo hayot o'z oqimidan bir nafas to'xtamasdi. Oftob — o'sha oftob. Kecha qanday bo'lsa bugun ham o'shanday porlab turipti. Daryo hech narsa sezmandek qirg'oqqa bosh urib pishqirib oqyapti.

Biroq birinchi muhabbatini tuproqqa ko'mgan Azizxon kechagi Azizxon emasdi. Uning nazarida quyosh qog'ozdagi yog'tomchisidek xira, bug'doyi o'rib olingan sap-sariq adirlar tobutga yopilgan malladek sovuq, xunuk edi.

UCHINCHI BO'LIM

I

Azizxon kamgap bo'lib qolgan, birov bilan ochilib gaplashmas, erta bilan qopini sudrab trassaga chiqib ketar, kechqurun ishdan qaytib birovga aralashmay, chodiriga kirib ketgancha qaytib chiqmasdi. Uning ichida nimalar bo'layotganini bilib turgan Ikromjon o'z holiga qo'yib berardi. Kechqurun Tengdik qo'mizini tashqariga olib chiqib allaqanday mungli bir kuyni boshlar, Ikromjon ham, To'lanboy ham jimgina o'tirib o'y o'ylab ketishardi.

Ikromjonning ko'ngli notinch. Xotining og'iroyoqligidan xayoli qishloqda, uyida edi. Qaytib ketay desa, Tog'a uni atayin qoldirib ketgan. Qolay desa, xotinidan ko'ngli tinchimaydi. Tursunboy onasini qiynamayotganmikin? Uy ishlariga qarashayotganmikin?

Bu yoqda Azizxonning ilgarigi shashti yo'q. O'z g'ami bilan bo'lib ishga ham qo'li bormay qoldi. Do'nan polvon bilan Tojimat Xidirov qurilish bo'yicha eng oldinda borishardi. Esh polvon ular orqasidan izma-iz quvib boryapti. Har kuni gazetalar shu ikki polvonning qanchadan tuproq qaziganini yozib turipti. Ora-sira Esh polvon ham gazetada ko'rinib qolardi.

Kuniga yangi-yangi qahramonlar paydo bo'lardi. Ertasiga yana yangisi chiqib kechagisini orqada qoldirib ketardi. Faqat birgina Do'nan Do'smatov hech kimni oldiga o'tkazmay, bir maqomda ishlab, kubometr ustiga kubometr jamlab borardi.

Ammo Azizxon bo'layotgan voqealarga beparvo. Kim qancha ishlayapti, radio nimalar deyapti, qiziqmasdi. Chodirning bir chekkasida g'ujanak bo'lib, ikki ko'zini bir nuqtaga tikkanicha qimirlamay o'tirardi. Ikromjon yaxshi gap bilan yo'lga solmoqchi bo'ldi, Azizxon uning gaplarini eshitishga eshitdi-yu, lom-

mim deb javob qaytarmadi. To‘lanboy uning yelkasiga qo‘lini qo‘yib, dil-dilidan chiqazib, nasihat qila boshlagan edi, Azizxon shart o‘rnidan turdi-yu, tashqariga chiqib ketdi. Anhor bo‘yidagi tolga suyanganicha yana qimirlamay turib oldi. Suvning narigi betida o‘tirgan Vazira Azizxonni ko‘rib ko‘zlari yashnab ketdi. Nimadir, deb qo‘l siltadi. Azizxon qaramadi. Vazira qo‘lidagi oynakchasida oftob shu‘lasini qaytarib unga tushirdi. Azizxon yuzini teskari o‘girdi. Vazira jahl bilan chodirga kirib ketdi.

Vazira bari bir, chodirda uzoq o‘tirolmadi. Sochlarini tuza-tib, harir – “rohatibadan” ko‘ylagini kiyib, taqinchoqlar bilan yaltirab chiqdi. Uning atrofini yigit-yalang o‘rab oldi. Vazira bir gapirib, o‘n kular, ko‘z qiri bilan dam-badam Azizxonga qarab qo‘yardi.

Azizxon hamon unga qaramas, hatto shu yaqin orada u borligini bilmasdi ham.

Kursida bemalol o‘tirib olgan Beyshenali allaqanday sho‘x bir kuyini qo‘mizda timdaldardi. Tengdik qoshlarini, yelkalarini uchirib ming xil muqom bilan qo‘shiq aytardi. To‘lanboy e, bo‘ldi-e, deb jerkib yonidan o‘tib ketdi. Aka-uka To‘lanboy orqasidan hayron qarab qolishdi.

Ikromjon Azizxonning ahvolini ko‘rib uni qanday qilib yo‘lga solishni bilmas, qanday bo‘lmasin uni ish bilan ovutish yo‘lini o‘ylardi. Biroq ozib, qorayib ketgan Azizxon shu alpozda ilgari mavqeini tiklab olishi qiyinligini bilganidan keyin o‘zi eng shimarib ishga kirishmoqchi bo‘ldi. Shu niyatda To‘lanboyning chodirdan tashqariga chaqirib chiqib do‘ngda uzoq gaplashishdi.

– To‘lan, bu yurishimizda zirillamaliklarning obro‘cini uch pul qilib qo‘yamiz. Azizxon bu ahvolda. Sen bilan biz uni ovutishdan boshqaga yaramaymiz.

To‘lanboy chakkasini qashib ancha paytgacha indamay o‘tirdi. Keyin bir yo‘talib Ikromjonga qaradi.

– Sen bilan biz yelka tashlab Lug‘umbekka kelganimizda, ana, Aziz polvonning hamqishloqlari kelishdi, polvon zoti endi ularga teng kelib bo‘pti, deyishgan edi. To‘g‘rimi?

Ikromjon tasdiq ishorasini qilib bosh silkib qo‘ydi.

– Uning boshiga tushgan tashvishni bilmaganlar orasida shivir-shivir gap o‘rmlab qoldi. Zirillamadan kelgan polvon qarqinoqdan chiqqan bulbul ekan. Kechagi kelganlari po‘killab qoldi, deyishyapti. Kanal bitishiga jindek qoldi. Nahotki “yo, pirim”, deb bir ketmon urolmaymiz.

– Bitta shart bor. Azizxon Esh polvonni oldiga o‘tkazmagan edi. Azizxon uchun uni quvib yetamiz, oldiga o‘tib olamiz, bo‘ptimi?

– E, “mi”sini olib tashlab gapir, og‘ayni.

Ikki hamqishloq do‘ngda o‘tirib gapni bir joyga qo‘yib chodirga qaytishdi. Tengdik hamon qo‘mizini g‘ing‘illatib past, shirali ovoz bilan xirgoyi qilardi. Tengdik tog‘lar cho‘qqisiga to‘sh urib uchayotgan burgutlar, pastlikka shiddat bilan oqqan sharsharalar, cheksiz yaylovlar-u, so‘ngsiz o‘rmonlar to‘g‘risida kuylardi.

Ikromjon chodir ichiga kirganda Azizxon ikki qo‘lini boshi tagiga qo‘yib ko‘zlarini bir nuqtaga tikkanicha qimirlamay yotar, peshanasiga qo‘ngan pashshani ham kiprik qoqib uchirmasdi. Ikromjon to‘shakka omonatgina o‘tirib unga qaradi.

– Menga qara, polvon. Bunaqada bo‘lmaydi. O‘lim haq. Hech kim undan qochib qutulmaydi. Bir kun kelib hammamiz ham ketamiz. Hech kim dunyoga ustun bo‘lmaydi. Besh kunlik umrni ish bilan, dunyoning nash‘u namosi bilan o‘tkazish kerak. Axir o‘zing tanangga bir o‘ylab ko‘rgin. Lutfi shu kanaldan suv oqishini ko‘rmoqchimidi? Seni jami polvonlar oldiga o‘tib olganingdan, nom chiqarganingdan qandoq quvongan edi-ya. Bu ahvolda suvga tushgan bo‘lka nonga o‘xshab bo‘kib o‘tirganingdan ruhi ranjimaydimi? Arvohi chirqillamaydimi? Qo‘y, bu ishingni. Lutfining arvohi shod bo‘lsin, desang, o‘zingni mehnatga ur! Avval qandoq bo‘lgan bo‘lsang, endi undan o‘n chandon yuqoriga chiq.

Azizxon indamadi. Ammo bir-ikki kiprik qoqib, tomoq qirib qo‘ydi. Bu Ikromjonning gapi mo‘ljalga borib tekkani edi. Gap bilan yana bosib tushmoqchi bo‘ldi.

– Uchqo‘rg‘onda Esh polvon orqangdan jirtak chalib yuribdi. Buzoqning yugurgani somonxonagacha, zirillamaliklar iniga urib ketdi. Endi kavagidan hali-veri chiqolmaydi, deyapti.

Azizxon sapchib o‘rnidan turib ketdi.

– Kim iniga kirib ketgan ekan? Menmi? Yo‘q, men hali u tirriq polvonning yelkasini yana tuproqqa qorishtiraman. Boshimga tushgan g‘am-tashvishlarimdan foydalanmoqchi bo‘ptimi? Ovora bo‘ladi. Azizxon kimligini unga ko‘rsatib qo‘yadi.

Azizxon chodirning u boshidan-bu boshiga ikki-uch asabiy borib kelgandan keyin oyoq ostida turgan bo‘sh paqirni daranglatib tepib tashqariga chiqib ketdi.

Ikromjon bunchalik bo‘lishini bilmagan edi. Esh polvonni o‘rtaga solgani Azizxonning qitiq parini yulgandek bo‘lgan-

di. Uning orqasidan chiqdi. Azizxon do'ng tarafga shitob bilan ketardi. Orqasidan hayron qarab turgan To'lanboy Ikromjonga o'girildi.

— Nima balo qilding?

Ikromjon nimadir dedi. Tengdik kuyning avjini olayotgan edi.

— Nag'mangni tiringlatmay tur! — dedi To'lanboy unga zar-da bilan. Keyin Ikromga yuzlandi: — Nima balo qilding?

— Bo'ldi. Surishtirma, — dedi Ikromjon hamon Azizxon orqasidan qarab turarkan.

Trassa tarafda mash'alalar yondi. Kechki smena allaqachon ish boshlagan. Odamlarning shovqin-suronlari baralla eshilib turibdi. Kunduzi saraton oftobida yag'rinini kuydirib yer qazigan kanalchilar choyxona so'rilarini to'ldirib dam olishardi. Har qaysi choyxonada alohida sozanda-yu, hofizlar konsertlarini boshlashgan edi. Beyshenali kattakon tog'orada lag'mon olib kelib chodir oldiga omonatgina qilib yo'nilgan taxtadan yasalgan stolga dasturxon yozdi. Azizxonni kutib ovqatga qo'l urmay uzoq kutishdi. Ammo Azizxondan darak bo'lmadi. Shundan keyin uning ovqatini alohida chinniga suzib o'zlari oshpazni maqtay-maqtay ovqatlana boshlashdi. Ikromjon boya To'lanboy bilan qilgan maslahatiga ko'ra, erta saharlab ishga chiqishlari, Azizxon darajasida yer qazishlari kerak. Shuning uchun ham vaqtliroq yotmoqchi bo'lishdi. Aslida o'yinqaroq bo'lgan To'lanboy konsertga bormoqchi edi. Ikromjon uni jerkib tashladi.

— Konsertda nima bor, tentak. Yot. Ertaga saharlab ishga chiqamiz.

To'lanboy gapini qaytarolmadi. Yechinib yotarkan to'ng'illadi:

— Tamaraxonim rosa olyapti. Ammo boplaydi-da, shu xotin. Ikromjon indamay boshiga choyshab tortdi.

U ko'zini yumgani bilan darrov uyqu ola qolmadi. Xayoli uyiga qarab uchdi.

— Tentakkinam nima qilayotganikin? Baqqa kelayotganda eshikka kirib o'tolmadim ham. Jannatning holi nima kechdiykin? Ishqilib omon-eson qutulsin-da. Bitta Tursunboyim yoniga qo'chqordek o'g'il qo'shilsa bo'lardi-da. Ishqilib, omon-eson dunyoga kelsin-da!

Ikromjon shunday xayollar bilan uxlab qoldi.

Lug'umbek uyqu nimaligini bilmasdi. Kechasi-yu kunduzi lomlarning gursillashi, ketmonlarning toshga tegib qarsillashi,

odamlarning baqiriq-chaqiriqlari bir zum bo'lsa-da, tinmasdi. Kecha tunga, tun tongga ulanib ketardi.

Ikromjon bezovta uxlar, har zamon To'lanboyning xurrigidan sapchib bosh ko'tarar, andek gangib turib yana uxlab qolardi.

Nimaningdir taraqlashidan u birdan ko'zini ochdi. Azizxon qorong'ida tik turgancha shapillatib sovib qolgan lag'monni yerdi. Undan ter hidi anqirdi. Ikromjon choyshabni yelkasiga ilib o'tirib oldi.

– Qayoqda yurgan eding, tentak? Soat necha bo'ldi?

– Hali zamon tong yorishib qoladi, amaki.

– Qayoqlarda daydib yurgan eding deyaрман?

Azizxon, darrov javob qilmadi. Og'zidagi lag'monni yutib javob qildi:

– Trassada edim. Esh polvonni iniga tiqib kelyapman.

Ikromjon uning javobini boshqacha tushundi. Entikib oldinga intildi.

– Urdingmi? Voy esi yo'g'-e.

Qorong'ida Azizxon otga o'xshab pishqirib javob qildi.

– Tuproq qazib do'ngga tashidim. Yigirma to'rt kubo tuproq o'pirdim. O'pirganimni yuqoriga o'zim tashidim. Texniklar o'lchab ko'rishdi.

Ikromjon o'rnidan turib yelkasidan quchdi.

– Voy azamat-e! Voy esi yo'g'-e!

Azizxon turgan joyida mudrab borardi. Ikromjon gugurt chaqib toshfonarni yoqdi-da, o'rnini solib berdi. Azizxon yechinmay o'zini to'shakka tashladi.

Boshi yostiqqa tegishi bilanoq dong qotib uxlab qoldi. Ikromjon ustiga chophonini tashlab toshfonarni o'chirdi-da, chodirdan tashqariga chiqdi.

Ufq cheti asta yorishib kelardi. Ertalabki salqin shabada ko'k betidagi sonsiz yulduzlarni bir-bir puflab o'chirayotganga o'xshardi. Oy cho'qqilar tomonga og'ib borardi. Trassalarda shovqin tovsilib qolgan. Ish normasini tugatganlar allaqachon chodirlariga, qo'ralariga qaytishgan, kechikkanlarigina tong salqinda so'nggi kubometr tuproqlarni tepaga to'zitib otishardi.

Ikromjon endi Azizxondan ko'ngli tinchigandek bo'ldi. Chunki Azizxon Esh polvon nomini eshitganidan keyin oriyati qo'zib yana o'zini ishga urdi. Bir kechadayoq yigirma to'rt kubo tuproqni qazib chiqaribdi. Bu uncha-muncha odamning qo'lidan keladigan ish emas. Bu bolada sher kuchi bor. Ammo hozir darmondan ketgan, holdan toygan, bu g'ayrati qanchagacha chidab berarkin? Chidaydi! Avji kuchga, g'ayratga to'lgan payti.

II

Tuproq to'la qanorni uch kishilashib Azizxonning orqasiga qo'yisharkan Ikromjon:

— Endi bas, ishni tamom qilaylik, — dedi.

Azizxon o'girilmay javob qildi:

— Yana ikki xodka qilay, shundan keyin bas. Ikki martadan keyin kechagidan to'rt kubo oshadi.

Uning bir gapini ikki qilib bo'lmasligini Ikromjon yaxshi bilardi. Indamay yangi qanorga tuproq sola boshladi. Belkurak bilan Beyshenali qanorga tuproq tashlarkan, gup-gup tushgan tuproq To'lanboyning basharasiga urilar, dam o'tmay aksa urardi.

— Tuproq yalab, guvala tuflaydigan bo'ldim, oshna.

Ikromjon hazil qildi:

— Bugun ertalab og'zingdan balchiq hidi kelayotgan edi. Ichingda loy bijg'ib qolgan shekilli.

Atrofdagilar ishni tugatib yuqoriga chiqib ketishgan, trassada faqat shu besh kishi ishlayapti. Terlagan betida tuproq changlaridan faqat ikki ko'zi-yu og'zigina loy bo'lmay qolgan To'lanboy dod devoray dedi.

— E, rikordingdan o'rgildim. Nima, meni o'ldirmoqchimisən. Bo'ldi-da.

U shunday deb qanorni chetga irg'itdi. Keyin yuqoriga chiqa boshladi.

— To'lan aka, jon To'lan aka, bu oxirgisi. Shu bittani opchiqay, yo'q demang, aka!

To'lanboy to'xtamadi. Qo'lini siltab tuproq uyumi orqasiga o'tib ketdi.

— Mayli, — dedi Ikromjon. — To'lan charchadi. Burnining ikki teshigi tuproqdan bitib qolib, og'zi bilan nafas olyapti, boyaqish. Bu yog'ini o'zimiz to'ldirib beramiz.

Azizxon oxirgi qanorni yuqoriga olib chiqqanda To'lan qilgan ishidan pushaymon bo'lib, ketolmay do'ng orqasida arazlagan boladek hiqillab o'tirardi. Ikromjon kelib uni qo'lidan tortib o'rnidan turg'azdi.

— Yur, yur. Hali ham bolasan-da, To'lan, bilaman, charchading!

To'lanboy indamay uning orqasidan ergashib ketaverdi. Ikromjonning negadir bugun kayfi yaxshi. Yigitlarga hazil qilgani-qilgan edi.

– To‘lan, jinnivoy, Zirillamaga borganda ham piqillayverma. Xotining erim mushuk bo‘lib qopti, deb tayoq bilan urib yurmasin.

To‘lanboy og‘zi bilan nafas olib loy orasida arang ko‘rinib turgan ko‘zlarini yiltiratib, bu gapga kulishni ham, kulmaslikni ham bilmasdi. Ikromjon hazilini qo‘ymasdi.

– To‘lan, ertaga seni oftobda ishlatmaymiz. Agar oftobda yarim soat tursang ichagingga to‘lgan loy qurib qotib qoladi. Egilolmay yurmagin.

Endi Azizxon ham gapga aralashdi:

– Tashvish qilmang, Ikrom amaki, To‘lan tog‘amni quritib qo‘ymaymiz, har yarim soatda suv purkab turamiz.

Bular suv bo‘yiga kelishganda trassadan qaytgan quruvchilar allaqachon yuvinib bo‘lishgan, ariqda faqat bir-ikkita odam qolgandi. Birinchi bo‘lib To‘lanboy kiyim-boshi bilan o‘zini suvga otdi. U sho‘ng‘igan joydan boshlab quyiga loyqa suv oqa boshladi.

– O‘zing ham bir kubodan ortiq tuproqni olib kelgan ekan-san, To‘lan.

Suvdan bosh chiqazgan To‘lanboy endi ilgarigi, ertalab ishga chiqqan To‘lanboyning o‘zi bo‘lib qolgan edi. Ikromjon ham suvga tushdi. U suvni shaloplatib yuvinarkan, bulardan sal oldin yuvingani chiqib ketgan Tengdik qirg‘oqqa keldi.

– Og‘ay, sizga qat bor.

U qo‘ynidan qog‘oz olib Ikromjonning suvdan chiqishini kuta boshladi. Ikromjon shoshib yuvindi-da, suvdan chiqdi. Belbog‘iga artinib Tengdikning qo‘lidan xatni oldi.

“Ikrom, Zirillamaga qayt! Jannatni to‘lg‘oq tutib tug‘ruqxona olib ketishdi. Ummatali”.

Ikromjon hayron bo‘lib qoldi. Uning hisobida Jannatning ko‘zi yorishiga hali vaqt bor edi. Yoki... Jannat yetti bolasini tuproqqa qo‘ygan. Ikkitasi o‘lik tug‘ilgan. Beshtasi bir-ikki yoshga yetib-yetmay olamdan o‘tgan edi. Shuning uchun ham yolg‘izi Tursunboyga shamolni ravo ko‘rmasdilar. Nima bo‘ldi ekan? O‘zi omonmikan? Bola sog‘-omon dunyo yuzini ko‘rganmikin?

Zirillama bu yerdan olis. U yoqqa na poyezd boradi, na avtobus. U nima qilishini bilmay hayron bo‘lib turganda Azizxon uning qo‘lidan xatni olib o‘qidi.

– Menga qarang, amaki, albatta, borishingiz kerak ekan. Hozir Qo‘shariqqa tushing-u, Orzixon ayanikidan mening otimni olib yo‘lga chiqing. Qaytishda otni dadamga tashlab kelarsiz.

Ikromjonning ko'zlari yashnab ketdi. Azizxonning ot mukofot olganini bilardi. Ot yollarini silab yo'rg'asini ham ko'rgan edi. Ammo shu topda ot mutlaqo xayoliga kelmagandi.

— Rahmat, o'g'lim. Oting kunimga yarab qoldi. Bo'lmasam men ketdim. — U shunday dedi-yu, yechinib toza yaktagini kiygani chodirga qarab ketdi.

...Ikromjon kun yoyilmay Zirillamaga yetib keldi. Qishloq har galgidek o'z tashvishlari-yu, o'z tirikchiligi bilan band. Hamma dalaga ketib bo'lgan, samovarlar huvillab yotibdi. Qishloqning bo'z yigitlari Nayman yo'lidan o'tadigan kanal trassasida. Ayollar dalada, bolalar mol-hollarni o'tlatgani olib ketishgan.

Ikromjon o'z ko'chasiga burilganda Rasul buvaning g'arib supasiga ko'zi tushdi-yu, yuragi shuv etib ketdi. Ikromjon o'z tashvishlari, ishlari bilan bo'lib Rasul buvaning olamdan o'tganini esidan chiqazib qo'ygan edi. Supani ko'rib ko'ngli allanechuk bo'lib ketdi. Rasul buva ertalab shu supada nonushta qilar, kun qizib ketgandagina andakkina mizg'ib olish uchun ichkariga kirib ketardi. Supa yon-veriga ko'loblab suv sepilgan, supurilgan, orasta bo'lardi. Endi kampir buvini o'rtancha o'g'li Qopchig'ayga olib ketgan, eshikka qulf tushib, supa usti, atroflarini xazon bosib ketibdi.

Ikromjon ot jilovidan ushlab supa oldidan ezilib o'tdi. Hamma vaqt gavjum bo'ladigan ko'chadan asta yurib uyi ostonasiga keldi. Eshik ochiq, ichkaridan nimaningdir tiqillagani eshitilardi. Ikromjon ot jilovidan pastga tortib, pastak eshikdan engashtirib olib kirdi. Jilovni egar qoshiga tashlab, o'z holiga qo'ydi-da, u yoq-bu yoqqa alangladi.

Tursunboy oshxona oldida yerga o'tirib olib velosipediga inqillab yel berar, orqasiga qaramasdi. — Tursun! — dedi Ikromjon.

Dadasining ovozi eshitib Tursunboy boshini ko'tardi. Hozir, dedi-yu, yana g'ildirakka yel beraverdi. Hozir meni sog'ingan bolam yugurib kelib bo'ynimga osiladi, deb kutib turgan Ikromjon o'g'lining bunaqa niyati yo'qligini bilib, ha, fe'li shunaqa, deb uni koyib o'tirmay tepasiga keldi.

— Nima qilyapsan?

— Kamer teshilib qopti, tuzatyapman.

— Oyingni ahvoli qalay?

— Yaxshi, — dedi Tursunboy ishidan bosh ko'tarmay.

Ikromjon atrofqa qaradi. Hovli supurgi betini ko'rmagan, hamma yoq ivirsib yotibdi. Ikromjon uyga kirdi. Jannatning o'rni hali ham yig'ilmagan. Ovqat yuqi idish-tovoqlar xontaxta ustida.

Ikromjon yana hovliga chiqdi. Devor tagidagi o'choqda qozon tuvog'i ochiq qolganidan ikki-uchta musicha bir-biriga hurpayib qozon ichida qotib qolgan ovqatni cho'qilayapti.

– Ayang qachon kasalxonaga ketdi?

– Besh kunmi, olti kun bo'ldi.

– Sen nima yeb, nima ichib yuribsan?

Tursunboy ishi bitib o'rnidan turdi. Ariqni chatanog'i orasiga olib, qora bo'lib ketgan qo'lini yuvarkan, javob qildi.

– Ummatali amaki ovqat chiqazyaptilar.

Ikromjonning ko'ngli sal tinchigandek bo'ldi.

– Ayangning kasalxonaga ketganiga besh kun bo'пти, nega menga xabar qilmading, esi yo'q?

Tursunboy dadasining betiga qaramay javob qildi:

– Ishim ko'p edi-da.

– E, ishing qursin! Ishing nima bo'lardi, ko'cha changitib velosiped minishmi?

Tursunboy indamadi.

– Bor, qozonni yuv! Biron issiq ovqat qilaylik, ayangga oboramiz.

– Bugun o'zlari keladilar.

Ikromjonning yuragi shig' etib ketdi.

– Nima?.. Tinchlikmi o'zi? – Ikromjon jur'atsizlik bilan sekin so'radi. – Ayang o'zi tinchmi?

– Tinchlar. Ukamni Ummatali amakim bilan qo'shnilar ko'mib kelishdi.

Ikromjon turgan joyida bir qalqib ketdi. Bu bola nimalar deyapti? Nahotki, nahotki, bolasi yana nobud bo'lgan bo'lsa. Ikromjon o'zini tutolmay baqirib yubordi:

– Durustroq gapirsang-chi, nima gap bo'ldi?

O'g'li dovdirab javob berguncha sabri chidamay ko'chaga yugurdi. Ummatalining eshigini qoqdi. Ummatali oyog'ida etik, bir oyog'ida kalish bilan chiqdi.

– Iya, iya, keldingmi? Keldingmi? Etigimning poshnasiga nag'al qoqayotgan edim. Qani kir! Kir! Azizxon tinchmi? Xayriyat, kepsan. Eshitgandirsan, shunaqa ishlar bo'lib ketdi.

Ikromjon ichkari kirmadi. Nima bo'lganini so'radi.

– Jannat og'irroq yuk ko'tarib qo'yiпти. Tursuningga boloxonadan ozroq sholi op tushib, kelida oqlab bergin, desa ko'nmapти. O'zi salkam bir qop sholini shotida yelkasida olib tushib, kelida oqlagan ekan. Kechga borib to'lg'oq tutib qopti. Keling shunaqa xabar topib chiqdi. Darrov arava topib balnisaga o'zim

oborib qo'ydim. Ertalabga borib bola o'lik tug'ilipti. O'zimiz uch-to'rt kishi bo'lib joyiga qo'yib keldik. O'zing nega bunaqa kechikib kelding? Balnisaga jo'natiboq Tursunningga xat yozib bergan edim. Saharlab dadangga yetkaz, degandim.

— Xatni kecha kechqurun oldim. Oldim-u, Azizxonning otni yeldirib kelayotganim shu.

Ikkovi jim qolishdi. Ikromjonning panjalari tugilib mushtga aylandi. Yana yozildi. Ummataliga bir og'iz gap aytmay orqasiga qaytdi. Tursunboy kiyinib velosipediga suyanganicha eshik oldida turardi.

— Dada, men ketdim.

— To'xta! — dedi Ikromjon. — Ummatali amaking xat yozib bergan ekan, nega o'sha kuni menga yetkazmading?

— Ishim bor edi.

— Ahmoq, yaramas. Onang shu ahvolda yotsa-yu. sen... — Ikromjon gapini davom ettirmadi. Agar o'g'li bir eb og'iz ochgudek bo'lsa, quloq-chakkasiga shapaloqlat shi hech gapmasdi.

— Yo'qol. Ket, ko'zimga ko'rinma!

Tursunboy gunohim nima ekan, degandek yelka qisib egarga mindi.

Ikromjon hovliga kirib etigini yechdi. Yaktagini behi shoxiga ilib hovli supurishga tushdi. O'choq kulini oldi. Qozonni yuvib tagiga o't qaladi. Uylarni yig'ishtirdi. Hamma yoqqa ko'loblab suv sepd. Supa yonboshidagi rayhon, qashqar gullar ekilgan gulxonaga ariqdan suv ochdi.

Hovliga fayz kirgandek bo'ldi. Oshxonaga kirib u yoq-bu yoqni titkiladi. Go'sht qolmabdi. Tomorqaga chiqib bir gala bo'lib yurgan tovuqlarni tirqiratib quvib, birini tutdi. So'yib, patlarini yuldi. Qozonga tashlab boyadan beri molxonada ma'rab jag'i tinmayotgan sigir-buzoqqa suv berib, oldiga o't yulib tashladi. Keyin otni yetaklab ko'chaga chiqdi-da, eshikka qulf urdi. Otni Ummataliga topshirib, o'zi kasalxona tarafga qarab ketdi.

Kasalxona hovlisidagi tol tagida Jannat tugunchasini tizzasiga qo'yib eshikdan birontasi kelib qolar, deb kutib o'tirgan ekan. Erini ko'rib quvonib ketdi. U ancha so'lib qolgan, ko'zlari ichiga botib ketgan, ovozi ham allaqanday hazin eshitalayotgandek edi.

Ikromjon bo'lib o'tgan gapdan xabardor bo'lgani uchun ortiqcha surishtirib o'tirmadi. Faqat ahvoning qalay, qiynalmadingmi, men bu gapdan kecha kechqurun xabar topdim, dedi, xolos.

– Bolamning ahvoli qalay? Ichiga issiq kirmay rang-ro‘yi bir holatda bo‘lib qolgandir.

– Bolangga jin ham urmaydi. Ummatali ovqatidan xabar olib turipti.

Ikromjon uning qo‘lidan tugunini olib, katta ko‘chaga olib chiqdi. O‘tkinchi mashinalarga qo‘l ko‘tarib, to‘xtatilmadi. Aslida idoraga kirib Tog‘adan mashina so‘rasa bo‘larkan. Hech bo‘lmaganda izvosh berardi-ku.

Ustiga ikki-uch bog‘ beda tashlagan arava kelib qoldi. Aravakash Ikromjonning iltimosini qaytarmadi. Jannatni aravaga chiqazdi-da, o‘zi piyoda arava orqasidan guzarga qarab keta boshladi.

Ko‘chada odam ko‘payib qolgan. Bu yo‘l Naymanga olib borardi. Kanal trassasi shu tarafda bo‘lganidan ot-arava, mashina tinimsiz qatnab turardi. Arava shag‘al to‘kilgan yo‘lda qaldirab silkinardi. Ikromjon xotining rangiga, ahvoliga qarab ichi ezilib borardi.

Jannat erining avzoyidan nimadandir tajangligini bilib turardi. Nima bo‘ldi, ota-bola o‘rtasida biron gap o‘tdimi? Dadasi bolaginamni koyigani koyigan. Axir Tursunginam bola-ku. Uning nimasidan gina qiladi? Bir kun esi kirib, quyilib qolar axir! O‘g‘il bola degan shunaqa bo‘ladi. Birdan yalt etib, odam bo‘lib qolganini bilmay qolasan.

Arava eshik oldida to‘xtadi. Ikromjon xotining tushishiga yordamlashib eshik qulfini ochdi. Jannat uyim ivirsib ketgandir, hovliga supurgi tegmay hamma yoq xazonga to‘lgandir, deb o‘ylagandi. Kirib hayron bo‘lib qoldi. Eriga ta‘nali qaradi.

– Bolaginamdan xafa bo‘lishingiz chakki, dadasi. Mana, ko‘rdingizmi, hamma yoqni orasta qilib qo‘yipti. O‘ziga qolsa hamma ishni qiladi. Siz bilan biz bor ekanmiz, erkalanadi-da, dadasi. Mana besh kungagina ro‘zg‘or qo‘liga qolganidiki, bino-yidek o‘tiribdi.

Ikromjon xotining quvonchini buzgisi kelmadi. Yechinmay tomorqadan sabzi yulib chiqdi-da, supa labida o‘tirib archa boshladi.

– Jindakkina tovuq sho‘rva tashlab qo‘ygan edim. Hozir tagiga o‘t qalab yuboraman.

Ikromjon archgan sabzilarini ariqda yuvib qozonga tashladi. O‘choq tagiga shox tashlab pufladi. Keyin jambil kertdi.

U hozir nima qilsa ham butun umidlari puchga chiqqan, sal kam to‘qqiz oy bag‘rida asragan bolasidan judo bo‘lgan, iztirob,

alamdan rangi za'faron bo'lgan xotining ko'nglini olish payida edi. Jannat esa erini ayar, uning ko'zlariga tik qarayolmay yerga boqardi. Axir u yetti marta farzand va'da qilib, uyga motam olib keldi. Har gal bolasini tuproqqa qo'yganida, shu xil, bir-birining ko'nglini olib, alamlarini yashirish, yig'idan o'zini tiyib, ich-etini yeyish ularni ezg'ilab tashlardi. Hozir ham ikkovi shunday alam otashida yonishardi. Ikkovi bir-birini ayashardi.

Ikromjon chinni ko'tarib o'choq boshiga ketayotganda Jannat uni to'xtatdi.

– Qo'ying, o'zim suzib kelaman. Siz o'tiring, uzoqdan charchab kelgansiz. Men ancha darmonga kirib qolganman, o'tiring, dadasi!

Ikromjon qo'lida chinni bilan hovli o'rtasida to'xtab qoldi.

– Bolaginamga bitta chinnida olib qo'ying.

– Yetadi, yetadi, hammamizga yetadi, xotin. Nahotki arzandangni esimdan chiqazsam.

Jannat asta yurib kelib chinnilarni Ikromjonning qo'lidan oldi-da, o'choq tarafga ketdi. Eshik orqasida ot kishnadi. Sal o'tmay Ummatali kiyim-boshlari shalabbo bo'lib kirdi.

– E, kel, kel, Ummatali, qaynanang suygan ekan. Ovqat ustiga kelib qolding.

Ummatali ariqdan qo'lini yuvib belbog'iga artina-artina supa yoniga keldi.

– Shu desang, otni anhorga oborib cho'miltirdim. Jonvor yaqin orada suv ko'rmagan shekilli, sira anhordan chiqqisi kelmaydi.

Ikki qo'lida chinni bilan kelayotgan Jannat Ummatalini ko'rib ko'zlari yashnab ketdi. Eri bu odam bilan juda chiqishadi. Kirib qolgani yaxshi bo'ldi. U yoq-bu yoqdan gaplashib yuragining chigilini yozadi.

Ummatali bo'lsa otni ta'riflab Ikromjonni gapirgani qo'ymasdi.

Ularning oldiga ovqat qo'ygan Jannat, Ummatali ot olibdi gumon qilib: “Voy, ot qulluq bo'lsin, qanchaga oldingiz?” – dedi. Ummatali bilan Ikromjon bir-birlariga ma'noli qarab olishdi.

– Menda otga pul qayoqda, singlim, Azizxonimga Usmon ota mindiriptilar. Tumonat ichida, yurt kattalari oldida izzat-ikrom bilan ot mindirishihti.

Jannat eriga yalt etib qaradi.

— Boya sizga nima degandim. O'g'il bola sho'xlik qilib, sho'xlik qilib, birdan quyilib, el qatoriga kirganini bilmay qolasan. Azixongina yerga ursa osmonga sakraydigan bola edi. Mana qarabsizki, lop etib ko'zga ko'rindi-qoldi. Ishqilib Tursunboyginamga ham Xudo insof bersin-da.

— Ha, — dedi Ummatali. — Bolani judayam erka qilib qo'ydinglar.

— Peshanaginamizda bittagina-da, o'rgilay, bittagina. U ham o'rtog'iga o'xshab quyilib qolar.

Ummatali ta'nali ohangda dedi:

— Singlim, sen balnisaga ketishing bilan, dadangga yetkaz, deb xat bitib bergandim. Tursunboy to'rt kundan keyin birovdan bervoripti.

Ikromjon boshini ko'tarolmay dasturxon popugini himarib o'tirardi. Hammalari bir necha daqiqa sukutda qolishdi. Ummatali yana gap boshladi:

— Ikrom, tabib tabib emas, boshidan o'tgan tabib deydilar, bolangni sal tartibga solib qo'y. Hozir qayirib olmasang, keyin o'z'laringni qiynab qo'yadi. Men begona odamman. Ammo aytib qo'yish qarzim. Jigarimdek bo'lib qolgansizlar.

Ummatali chinni tagida qolgan sho'rvani xo'rillatib, yuziga fотиha tortdi.

— Men endi boray.

Ummatali shunday deb ko'chaga chiqib ketdi. Sal o'tmay uning chuh-chuh degani, tuyoq tovushi eshitildi.

Er-xotin bir-birlarining betlariga qarayolmay qolishgandi. Na undan, na bundan sado chiqadi. Bu jimlikni oxiri Jannat buzdi:

— Gapini qarang-a, birovning bolasini undoq-bundoq de-yish oson. Axir Azixonning qilgan ishlari esingizdan chiqdimi? Hammani jonidan bezor qilgan edi-ku!

Ikromjon indamadi.

III

Bugun tushki ovqat paytida yigirma bir agigator choyxona-oshxonalarda, agitpunktlarda dunyo xabarlarini gazetalardan o'qib berdilar.

SSSR bilan Germaniya o'rtasida bir-biriga hujum qilmaslik to'g'risida bitim tuzilibdi. Germaniya tashqi ishlar ministri janob Fon Ribbentrop Moskvaga kelib bitimga qo'l qo'yibdi. 24-avgust

kuni Ribbentrop Moskvadan jo‘nab ketibdi. Uni kuzatib qo‘yuvchilar orasida Germaniyaning Moskvadagi favqulodda va muxtor elchisi graf fon-der Shulenberg va Italiyaning Moskvadagi elchisi Russo janoblari bor ekan.

Birinchi sentyabr ertalab soat o‘nda Berlinda reyxstag majlisi bo‘libdi. Gitler kecha Moskvada German-Sovet bitimi imzolanganligini va bu bitim Germaniya hukumati tomonidan ham rati-fikatsiya qilinganini rasman e‘lon qilibdi.

To‘rtinchi sentyabr kuni Gitler reyxstagda Germaniyada-gi yangi sovet elchisi va harbiy attashe vakili Shkvortsov bilan Purkayevni qabul qilib, Sovet – German bitimi yuzasidan uzoq suhbatlashibdi.

Anqarada chiqadigan “Vaqt” gazetasi Sovet – German biti-mi Turkiyaning sovetlar bilan chegara rayonlarida ham tinchlikni ta‘minlaydi, deb yozibdi. “Nyuyork gerald tribun” gazetasining siyosiy sharhlovchisi Makkenzi bu bitim Yevropada tinchlikka garov, debdi. Germaniya tashqi ishlar ministrligining rasmiy or-gani “Deyche diplomatish politishe korrespondents” gazetasi bu bitim Germaniya aholisida chuqur qoniqish hosil qildi, deb yo-zibdi.

Yuzaki qaraganda dunyo tinch, osoyishta ko‘rinardi.

Ammo yer kurrasining ko‘p qit‘alarida bombalar portlar, minglab qurbonlar ko‘ksidan qon oqardi.

Xitoyning hamma viloyatlarida yapon bosqinchilariga qarshi janglar davom etar, German-Polsha chegaralarida tinimsiz jang-lar bo‘lib turgan edi.

Ammo sovet yurti o‘zining tinch ijodiy mehnati bilan band edi. Donbassda Aleksey Staxanov rekord ustiga rekord qo‘yib, mamlakat mehnatkashlarini yalpi mehnat zafarlariga chorlar, grajdan havo flotining uchuvchilari Shebanov, Matveev va Bay-kulovlar “Stal – 7” aeroplanida yerga qo‘nmay besh ming olt-mish sakkiz kilometrlik masofani 12 soat-u 30 minutda uchib o‘tib jahon rekordini o‘rnatgan, muddatli xizmatda bo‘lgan od-diy askarlar sostavining ishchi-dehqon Qizil Armiyasi saflaridan uzoq muddatli otpuskaga bo‘shatish to‘g‘risida SSSR mudofaa Xalq Komissari Voroshilovning farmoni chiqqan osoyishta kun-lar edi.

O‘zbekistonda mevalar g‘arq pishgan. Polizlarda qovun-tar-vuzlar shiraga to‘lgan, ishkomlar hosildan beli bukilib qolgan – to‘kin, barakali kuz boshi edi. Butun xalq Konibodomdan Uch-

qo'rg'ongacha cho'zilgan qurilishda tinim bilmay mehnat qilar, yer bilan, tosh-u shag'allar bilan olishardi.

Jahonning qayerida o't chaqnayapti, qayerida ofat — o'lat odam bolasini qiyratyapti, qayerda zambaraklarga o'q quyilyapti — hech kimning xayoliga kelmasdi. Ular asrlar bo'yi qaqragan cho'l bilan olishar, suvga qondirish niyatida ter to'kishardi.

Azizxon nima bo'lsa ham atigi bir haftaginada bitadigan qurilishda ish ko'rsatib qolish, Lutfinisa xayolan tasavvur qilgan manzarani chinakamiga barpo qilish niyatida hammadan ko'p ter to'kar, hammadan ko'ra ko'proq g'ayrat qilardi.

Bundan bir oygina oldin kech kirib, atrofni asta qorong'ilik bosib kelayotgan, oy shom yeb adir ustiga endi o'rmalab chiqayotganda ular ikkovlon do'ngga chiqib Nushkon adirlariga jimgina qarab o'tirishgandi. Bolalar qo'lidan chiqib ketgan pufakdek oy asta havolanardi. Sadaqayrag'ochlar orqasidan oy nuri tushib, xuddi kumush hoshiya tutgandek ko'rinardi. Ikkalalari o'z o'ylari bilan band edilar. Ikkalalari ham uzoq istiqbol emas, shu bugun-erta, atigi ikki oy keyingi kunlarini ko'z oldilariga keltirishardi.

Oy tepaga chiqib olib damini olgandek qimirlamay turardi. Qaysidir trassada yer portlatishdi. Uning kuchli ovozi adirlardan adirlarga qaytib, ancha vaqtgacha qaldirab turdi. Ikkovining ham xayoli uzildi.

— Nimani o'ylading? — dedi Azizxon Lutfinisa tomonga surilib.

Lutfinisaning yuzlari oy yorug'ida ajib ko'rinardi. U javob bermadi.

— O'zing nimani o'ylading? — dedi javob o'rniga.

Azizxon gapni orqa-oldiga qaramay aytib yuboraverardi. Darrov javob qildi:

— Esh polvon bilan yana bellashibman...

Lutfinisa undan ishq-muhabbatga aloqali gap kutgan edi. Xuddi menga o'xshash bir xil o'y suriyapti, deb o'ylagandi. Hafsalasi pir bo'lib, e, gapirmay qo'ya qol, degandek qo'l siltadi.

— Yo'q, yo'q, shoshma-da. Bu yog'ini ham eshit. To'yimiz bo'lganiga bir oymi, ikki oymi o'tganmish. Mana shu yerda turib qayerga uy quramiz, deb maslahatlashayotganmishmiz. Sen manavi yerga, — u yerdan kesak olib ikki-uch metr nariga otdi, — uy quramiz, yoniga ayvon solamiz, debsan. Tandirni hu anavi yerga, ayvonni yoniga qurib berganmishman. Sen non yopyapsan. Hidi biram zo'rki.

Lutfinisa sharaqlab kulib yubordi...

...Lutfinisani dafn qilganlaridan buyon u bir daqiqa bo'lsin, uni xayolidan nari ketqizmasdi. Yursa ham, tursa ham, Lutfinisa shundoqqina ro'parasida goh iljayib, goh gina bilan qoshlarini chimirib qarab turadi. O'sha oydin kechadagi sharaqlab kulishi quloqlarida doimiy qolib ketgandek.

Ikromjon yonida bo'lganda har xil gaplar bilan uning xayolini qochirib, alahsitib turardi. U Zirillamaga ketib qolgandan beri, yana o'z xayollari girdobiga sho'ng'ib ketgandi. To'lanboy sergapgina yigit bo'lsa ham Azizxon bilan uncha ishi bo'lmay qo'ydi. Ishdan qaytdi deguncha marg'ilonlik askiyachilar to'plangan joyga ketib qoladi. Qoq yarim kechada kelib uni uyqudan qo'yadi — qo'qonlik askiyachilar marg'ilonliklarni boplagani bormi, masxaraboz Aka Buxorning hikoyalari bormi, hiring-hiring kulib gapirib beradi. Ertalab yana el qatori turadi-yu, ishga tushib ketadi. Mana hozir ham, ayni dam oladigan paytda kino olayotganlarni tomosha qilgani pastlikka tushib ketgan.

Tanaffus tugab hamma o'rnidan turdi. Azizxon sovib qolgan ko'k choyni simirib indamay ish joyiga qarab ketdi. Ikromjon Zirillamadan qaytib kelib chodirda ish kiyimlarini kiyayotgan ekan. Ikromjon amakining qarashlari jiddiy, nimadandir xafaroq ko'rinaradi. Azizxon botinib, nima bo'ldi, deb so'rayolmasdi. Ikromjon ichida gap yashirolmaydigan odam. Bir fursati kelib yoriladi.

— Dadang, ayang salom aytib yuborishdi. Toza ko'ylaklaringni, yangi etik tiktirib qo'yishgan ekan, o'shani berib yuborishdi. Anavi tugundagi tog'orachada somsa bor. Yeb ol!

Azizxon tugundagi etikni olib havas bilan qaradi. Qo'njlarini g'ijimlab ko'rdi.

— Ishlaring qalay, bolam? — dedi Ikromjon qiyig'ini tarang qilib bog'larkan.

— Yomonmas, amaki. Siz ketgan kuni o'n to'qqiz kubo chiqazganmidim? Kecha yigirmadan oshirdim.

— Bu ishing durust, azamat. Qurilishda yer qazish sakson protsentdan oshibdi. Sal kunda ish tugaydi. Otingni qamchilab qol, bolam.

— Bo'sh kelmaymiz, xotirjam bo'ling, amaki. Qishloqda nima gap?

— Qishloq suv quyganday jimjit. Kanalga kelmaganlar paxta bilan olishib yotishibdi. Kunduzi Zirillamada qush ham uch-

maydi. Kechga borib samovarlarda sal-pal odam gavjumlashadi, xolos.

— Tursunboyni ola kelmabsiz-da. O‘rtog‘imni bir ketmonga solardim.

Azizxonning bu gapi Ikromjonning yaralangan joyiga tuz sepgandek bo‘ldi. Ikki qoshining o‘rtasi tugunchak bo‘lib, betida e, uni qo‘ysang-chi, deganga o‘xshash ifoda paydo bo‘ldi. Buni Azizxon darrov sezdi.

Ikromjon sir boy bermay gapida davom etdi:

— Zirillamada hammaning og‘zida sen. Kattakon surupga ishlangan suratingni klub tepasiga ilib qo‘yishi. Tog‘aning gapiga qaraganda, shunaqa surating Shahrixonda, Qo‘qon-u Quvada ko‘chalarga ilingan emish. Aytgancha, dadang ot yuborganingga juda quvonib ketdi. Gijinglatib minib yuripti. Har kuni soyga op tushib cho‘miltiradi. Boyaqish shuncha yoshga kirib otga yetisholmagandi. Bitta ot dardida necha marta pul yig‘ib, necha marta ro‘zg‘orga kirishtirib yuborgan edi. Barakalla, dadangning boshi ko‘kka yetdi.

Ikkovi u yoqdan-bu yoqdan gaplashib trassa tomonga ketishardi. Ikromjon yana bitta gap aytdi.

— Akbaralidan haligacha darak yo‘q. Topisholmayapti.

Azizxon indamadi. Ko‘z oldiga hu o‘sha dahshat va alamga to‘lgan tun, Akbaralining qon qotib qolgan panjalari, oydinda yaltiragan karki sopli pichog‘i ko‘rinib ketdi.

Peshanasini qiyiq bilan bog‘lab belkurakka bag‘rini berib kutib turgan To‘lanboy ularni ko‘rib qichqirdi:

— Muncha imillaysizlar, chaqqon-chaqqon yursanglar-chi. Old odamlar ikki kubodan tuproq qo‘porib qo‘ydi.

Ikromjon ishga mukkasi bilan ketgan To‘lanboyga mamnun qarab qo‘ydi.

— Ha, durust, kanal ishqiyuragingni o‘rtab qopti. Endi odam bo‘lasan, To‘lan.

Ikki tom bo‘yi ko‘tarilgan tuproq do‘ngi tagida yana ish boshlanib ketdi. Tuproq to‘zg‘ib bironvi bironvga ko‘rsatmay qo‘ydi. Xuddi bulut orasidan burgut uchib chiqqandek, chang-to‘zonlar ichidan Azizxon yelkada tuproq to‘la qanor bilan yuqoriga ko‘tarilar, o‘zi to‘kkan tuproq to‘zonida o‘zi ko‘rinmay ketardi.

To‘lanboyning ko‘ksovgaga o‘xshash yo‘tali, Ikromjonning “ha bo‘l, ha bo‘li”, Azizxonning “bos, yana bos”, degan tovushi eshitilardi.

Shu chang, shu to'zon, shu shovqin-suron orasida bugun yana bir yangi rekord tug'ilayotgandi.

Taxta pillapoya og'ir lapanglaydi. Qanor og'zidan quyilayotgan tuproq to'g'onni o'pirgan toshqin suvga o'xshaydi.

IV

Yo'ldosh Oxunboboyev Ikromjonning Lug'umbekda ishlab yurganidan bexabar edi. Bundan o'n kun avval Zarkentga borganida Ikromjon hamqishloqlari bilan Suvkesak uchastkasida ishlayotgan edi. Zarkentliklar yer qazish ishlarini tugatib, allaqachon dalaga chiqib ketganlar. Oxunboboyev Ikromjonni ham terim taraddudida yuripti, deb o'ylagan edi. Bugun uni yalang'och bo'lib yer qaziyotganini ko'rdi-yu, hayron bo'lib qoldi.

— Ha, senga nima bo'ldi? “Suvkesak”da ishlab yurgand-ing-ku?

Ikromjon ter bosgan peshanalarini, bo'yinlarini qiyig'i bilan artarkan, Azizxon tarafga bir qarab qo'ydi.

— Polvon bolani yolg'izlatib qo'ymay, deb kelgandim.

— E, omon bo'l, bu bola yolg'izlaydiganlardan emas. Seni nima jin urdi? Polvonning shuhratiga sherik bo'lging keldimi? Zirillamaliklarning bunaqa odati bo'lmasdi-ku.

Ikromjon “meni Tog'a yubordi, Azizxonning ko'nglini ko'tarib tur, deb tayinlagan”, degan gapni aytolmadi. Oxunboboyevning dashnomi malol kelsa ham, tishini tishiga qo'yib jim turishga majbur bo'ldi.

— Menga qara, Ikrom. Modomiki kanal bitguncha ishlaging keptimi, senga boshqa ish topib beraman. Zirillamaliklarning sha'nini Azizxonning o'zi boplab turadi. Oltinchi shalolaga borib bir ishlab berasan! Gap shu!

Ikromjonning xo'p, deyishdan boshqa iloji qolmadi.

Ikrom oltinchi shalolaning nimaligini biladi. Norin daryosidan qazib kelinayotgan kanal “Qizil ko'prik” orqasiga yetganda Qoradaryoga borib ulanadi. Shu yerda taxminan o'n metr balandlikdan Norin suvi Qoradaryoga quyilishi kerak.

Shalola qurilishi hozir eng orqada. Qurilish gazetasida kun ora “Shalola qurilishi o'pirilishda”, “Sudralganlar”, “Xo'p bo'ladini yeb bo'lmas” degan sarlavhali maqolalar bosilib turardi.

Oxunboboyev ketarkan, to'xtab orqasiga qaradi.

— Tushdan keyin o'shaqqa bor. Senlarga o'zim brigadirlik qilaman.

Ikromjon, xo‘p, dedi. Oxunboboyev tepalikka tizzasiga tayanib chiqib ketgandan keyin To‘lanboy Ikromning oldiga keldi.

– Ota nima deyaptilar?

– Yaxshiyam seni ko‘rmadilar. Qo‘rganlarida seni ham quvlab qolardilar.

To‘lanboy gap nimadaligini bilmay ko‘zlarini pirpiratdi.

– Ikkovimiz ajrashadigan bo‘ldik. Oltinchi shalolaga borasan, deb ketdilar. O‘sha yerda ishlayman, bari bir sizlar bilan yotib-turaman. Orasi ikki qadam, borib kelaveraman-da.

Ikromjon tushlikni chala-chulpa qilib, yaktagini yelkasiga tashlaganicha shalola qurilishi tarafga ketdi.

Keksa qayrag‘och tagida Ali polvon bilan Esh polvon nimanidir qizishib gaplashardilar. Ikromjonni ko‘rib ikkovi ham birdan jim bo‘lib qolishdi.

Ikromjon ular bilan salomlashib, yaktagini so‘riga tashladi.

– Sherigingiz qani, mehmon? – dedi Ali polvon.

– Bir o‘zim keldim, Ota shaqqa bor, dedilar, kelaverdim.

– Polvon bola kelmadimi?

– Yo‘q, Lug‘umbekda ishlayversin, deyishdi, – deb javob qildi Ikromjon.

Ali polvon bilan Esh polvon bir-birlariga ma‘noli qarab olishdi.

– Men senga nima degandim, Esh. Endi xotirjam ishingni qilaverasan.

Ali polvonning bu gapidan xijolat tortgan Esh polvon unga zardali qarab oldi.

– Nega xo‘mrayasan? Aziz polvon keladigan bo‘lsa, men qaytib ketaman, deb hozir obi diyda qilib turgan eding-ku.

Esh polvon etagini qoqib o‘rnidan turib ketdi.

– Hech ichingizda gap yotmaydi-da, usta.

Esh polvon Ikromjonning betiga qarayolmay qoldi. Yaxna ichishni bahona qilib, sabzi to‘g‘rab o‘tirgan oshpaz tomonga ketdi.

– Juda g‘alati fe‘li bor-da, bu Eshning. Gapdi old-orqasiga qaramay aytvoraveradi. Keyin nima degani esidan chiqib ketadi. Dilida g‘ubori yo‘q bola. Fonar yog‘iga o‘xshab lop etib bir yonadi-yu, pis etib yana o‘chadi.

Ali polvon o‘tirgan joyga oftob kelib qolgan edi. U o‘rnidan turib: “Yuring, mehmon, boshqalar kelguncha bitta choyni maydalab turaylik”, dedi-da, chaylaning soya tarafidagi supaga boshladi.

Supa balandlikda bo'lib, shalola qurilishida ishlayotganlar bemalol ko'rinib turardi. Ikkovi supadagi sholchani beri tortib o'tirishdi. Ali polvon o'tirgan joyida qichqirdi:

– Ho, Esh, qaytishingda bitta achchiq choy damlab kel.

Esh polvon ming'irladi:

– Obbo, hali bir ketmon tuproq chiqarmay o'zini choyga urishini qaranglar.

Choy kelguncha ikkovi u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirishdi. Ali polvonning gapiga qaraganda, shalola qurilishi zarbdor uchastka deb e'lon qilinibdi. Oxunboboyevning o'zlari brigadirlik qilarmishlar. Brigadaga Yo'ldosh mirob nomi berilganmish.

Ikromjon, Yo'ldosh mirob kim bo'ldi ekan, degan ma'noda Ali polvonga qaradi.

– Yo'ldosh akani bilmaysizmi? Iya, u kishini bilmaganlar ham bor ekan-ku.

Shundan keyin polvon mirobni ta'riflab ketdi.

– Yo'ldosh akam asli Kampirrovotning Naynavo qishlog'idan bo'ladilar. Butun Farg'ona vodiysida u kishiga teng keladigan mirob bo'lgan emas. Ruschani qiyib qo'yardilar. Peterburgdagi gimnaziyada o'qib, suv texnigi degan shahodatnoma olganlar. U kishining suhbatlarida ko'p bo'lganman. Dono odam edilar. “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan suvchi” degan unvonlari ham bor edi. Xudoning qudrati bilan u kishi Qora daryoga, bu yoqqa yur, desalar yurardi. Har yili Yo'ldosh akam shu daryoga bir yarim ming, ikki mingtadan sepoya tashlardilar. Juda ziyrak mirob edilar, u kishi. Sepoyaga quloq bosib, tagi chirigan, chirimagani-ni darrov aytib berardilar. Suvto'rani ko'rgansiz-a. Belyavskiyni aytyapman. Hatto u ham Yo'ldosh akamning maslahatlari bilan ish tutardi. Hozir miroblarning zo'ri men bo'laman deb yurgan Abdusamad mirobboshilar u kishining oldilarida hech gap emasdi. Yo'ldosh akamni ko'rganda ikki qo'lini qovushtirib turardi. Unaqa mirob bundan keyin dunyoga keladimi, yo'qmi, xudoning o'zi biladi.

Ikromjon uning gaplarini eshitib o'tirar, suv bilan, to'lqinlar bilan olishib daryo o'rtasida sepoya bog'layotgan azamat, pahlavon mirobni ko'z oldiga keltirardi.

Esh polvon ikkita piyola bilan ko'k choy keltirib, supaga chordana qurdi. Endi uning betidan tajanglik, boya aytgan gaplaridan xijolatlik izlari qochgan, iljayib Ali polvonning gaplariga jim quloq solardi.

Aravalarga ko'rupa-to'shaklarini ortgan polvonlar kela boshlashdi. Ular Shahrixon, Asaka, Oltinko'l uchastkalarida ishlab nom chiqazgan edilar. Ikromjon bularga men bas kelarmikanman, Azizxon ham kelganda durust bo'larmidi, harqalay Zar-kent bilan Zirillamaning obro'si oshardi, deb o'ylardi.

Oshpaz yigit qayrag'och tagidagi katta supaga joy qilib dasturxon yozdi. Qovun-tarvuzlarni, uzum-u shaftolilarni to'kib tashladi.

— Qani, ho', polvon akalar, bir tamaddi qilib olinglar. Ota kelganlaridan keyin oshga guruch solaman. Hozircha manavularni yeb chanqov bosti qilib turinglar.

U gapini tugatmagan ham ediki, orqasidan to'zon ko'tarib qora mashina keldi. Undan Oxunboboyev, Teshaboy Mirzayev tushdi.

— O'ho', jamoat jam-ku, — dedi Oxunboboyev iljayib.

Keyin polvonlar bilan birma-bir ko'rishib, oshpaz qo'yib bergan kursiga o'tirdi. Tog'ni ursa talqon qiladigan azamat polvonlarning qomatiga havas bilan bir-bir qarab chiqdi.

— Teshavoy, endi ishing yurishadi. Bu azamatlarning har bittasi bittadan traktorning ishini qiladi.

U shunday deb Ali polvon uzatgan piyoladagi yaxnani bo'shatdi-da, mo'ylovini kafti bilan artib qilinadigan ishlardan gapirib ketdi.

— Birodarlar, sizlarga bir erkalik qildik. Xafa bo'lmaysizlar, ammo ikki yuz yetmish kilometrlik kanalni qazish ham bir bo'lyapti, shu shalolani qazish ham. Prorab bizni aldab yurgan ekan. Uni ishdan oldik. Brigada boshlig'i ham bekor bo'ldi. Gapning ochig'ini aytsam, bu ishda mening ham, Teshaboyning ham aybi bor. Bitta araqxo'rga ish topshirib qo'yib, xotirjam yurgan ekanmiz. Gazetada o'qigan bo'lsanglar kerak, Moskva bizga katta yordam qildi. O'n ming tonna sement yubordi. Yigirma million so'm pul berdi. Ikki yuzta yuk mashinasi bilan oltmish traktor oldik. Partiya hukumat nima desak, yo'q, demay berib turipti. Biron hafta ichida shalolani qazib bitirsak, u yog'i betonchilarga qoladi. Nima deysizlar, shu ishni qilamizmi? Bilaman, charchagansizlar, bola-chaqalarni sog'ingansizlar. Qirqiga chidagan, qirq biriga ham chidab bersanglar yomon bo'lmasdi.

Esh polvon bir qo'zg'alib qo'ydi.

— Bir nima demoqchimidingiz, polvon?

— Nima ham derdim. Biz kanalga ishlagani kelganmiz, qandoqki ish bo'lsa aytavering, yo'q degan nomard. Erta-indin ka-

nal ham bitib ketadi. Ana undan keyin bunaqa ishni qaydan topamiz, Ota.

– Gapning o‘g‘il bolasini aytdingiz, polvon. Sizdan xuddi shunaqa javob kutgan edim. Balli!

Shahrixonlik uyg‘ur yigit gapga aralashdi:

– Ota, menga bir kungina uyga borib kelishga javob bersangiz. Bolalarni juda sog‘indim. Undan tashqari, bolalarning onasiga ham jindek gapim bor edi.

Hamma barobar gurillab kulib yubordi. Ali polvon uning yelkasiga shapillatib bir tushirdi.

– Ha, gaping qursin, qazo bo‘lgan gaplaringni yig‘ib yur, borganda hammasini bir qilib aytasan.

Oxunboboyev tizzasiga urib qotib-qotib kular, boplading, boplading, bu lag‘monxo‘r Oxunni, derdi.

Uyg‘ur mirob, qiziqchilikni bopladimmi, deb yon-veridagilarga maqtanib qarab qo‘yardi.

Polvonlar topshiriqni mo‘ljaldagidan ham ziyoda bajarishlarini aytib, Oxunboboyevni ishontirishdi.

Ikromjon o‘tirganlarning ko‘pchiligini tanimas, bir chekkada yakkalanib jimgina o‘tirardi. Oxunboboyev uning ahvolini sezib turgan ekan:

– Birodarlar, ichingizda mening bitta hamqishloq qadrdo-nim bor. Yolg‘izlatib qo‘ymanglar. U ham ishlaydigan bolalardan. Ayamasdan ishga bosinglar, g‘iring demaydi, – deb tayinladi.

Ikromjon qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, Oxunboboyevga qulluq qildi. Oxunboboyev oshga turmay ketishga otlandi.

– Teshaboy, sen ularning yotar-turarlarini to‘g‘rilab, ish joylarini ko‘rsat. Har kuni bitta qo‘y so‘yasan. Poytuqlik hofizlardan uch-to‘rttasini shu yoqqa yuboraman. Kino ham keladi. Menimcha, Ali polvonni ish boshi qilish kerak. Sen ertaga shtabga qochasan. Ishni kimdan talab qilishimizni bilib olaylik. Rozimisizlar, polvonlar, Alining ish boshi bo‘lishiga.

– Rozimiz, rozimiz, – degan ovozlar chiqdi.

Oxunboboyev ular bilan xayrlashib mashina tomon yurarkan, uyg‘ur mirobning gapini eshitib qoldi. “Hofizlarni nima qilamiz, artistkalardan kelsin-da!”

Oxunboboyev kuldi.

– Oxun, o‘zing xotiningdan qochib bu taraflarda yuribsan-ku, nima qilasan gapni aylantirib.

Teshaboy Mirzayev unga nimadir dedi. Shundan keyin Oxunboboyev orqasiga qaytib trassa tomonga tuproq kechib ketdi. Sal nari borganda Uyg'ur mirobning qo'shig'ini eshitib qoldi:

“Qashqarning bozorinda, jinimo,
Setib og'an qulingman...”

– Zap quvnoq yigit-da, bu Oxun, – dedi Oxunboboyev.
Qiziqchilikka toqati yo'q Teshaboy Mirzayev ming'irladi:
– O'zi yaxshi bola-yu, sal bachkanaligi bor-da.

Oxunboboyev uning fe'lini bilgani uchun, shunaqami, deb qo'ya qoldi. Orqa tarafdin kelayotgan qo'shiq va kulgilarga qu-loq tutib indamay borardi.

O', Guloyim,
Juro'gim kuydi doyim,
Qulingman-u qulingman,
Bog'da bitgan gulingman,
Qashqarning bozorinda, jinimo,
Setib og'an qulingman.

V

Yo'ldosh To'xtaxo'jayev nomidagi zarbdor brigada bir-ikki kundayoq og'izga tushib qoldi. “Stalincha qurilishda” gazetasida deyarli har sonida bu brigada ishlari to'g'risida katta-katta maqolalar beradigan bo'lib qoldi.

Ikromjon shalolada kuni bilan ishlab, kechqurun Lug'um-bekka – hamqishloqlari oldiga kelib yotardi. Azizxonni shaloladagi ishlardan ko'ra Esh polvonning qandoq ishlayotgani qiziqtirardi. Ikromjondan uning qancha tuproq qazigani, qancha kilodan yuk ko'tarib chiqayotganini birma-bir so'rardi.

Ikromjon o'z ishlari qolib Esh polvondan gapirardi, xolos. Azizxon hamon o'sha qaysarligidan tushmagan. Esh polvon uch yuz kilo ko'tarsa, u to'rt yuzga chiqazaman deb urinar, aytganini qilmasdan qo'ymasdi.

Shalolaga kelganda Ikromjonni Esh polvon gapga solardi. Azizxonning qancha tuproq qazigani-yu, qancha ko'targanini surishtiradi. “Sen tiranchaga yuk ko'tarish qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'yaman”, deb inqillab uch yuz kilodan ortiq tuproqni qanorga bosib orqalab yuqoriga intiladi. To'rt-besh metr baland-

ga yetganda inqillab, qanordagi tuproqning yarmini yelkasidan oshirib to'kadi-da, qolganini do'ngga opchiqib ketadi. Ali polvon unga piching qiladi.

– Hoy, Esh, olaqarg'aning yurishini qilaman, deb chumchuqning puti yirilgan ekan, chog'ing keladigan ishni qilsang-chi.

Esh polvon baribir uning gaplariga quloq solmaydi.

Ikromjon bo'lsa uyg'ur yigit bilan birga ishlaydi. Uning asli ismi Ro'zi bo'lsa ham, hech kim otini aytmay, Oxun deb chaqiradi. Agar u biron soat ko'rinmay qolsa, darrov o'rni bilinadi. Ish paytida ham, dam olish soatlarida ham u shirali mayin tovushda o'zi bilgan o'sha bitta ashulani aytgani aytgan. Bu ashula hech kimning ko'ngliga tegmaydi. Agar Oxun jimib qolsa, ishlayotganlar orasidan ovoz chiqadi:

– Ha, Oxun, nega jimib ketding? “Guloyim” bo'lsin.

Oxun “shoshmasinlar!” deydi-yu, do'ppisini buklab og'ziga ko'ndalang qo'yadi-da, “Guloyim”ni boshlaydi:

O', Guloyim,
Juro'gim kuydi doyim,
Qandoq qilamiz Guloyim,
Qashqarning bozoridan, jinimo,
Setib og'an qulingman.

Ikromjon mundoq o'ylab qarasa, bu artistmijoz sherigi bilan ishlaydigan bo'lsa, sira kosasi oqarmaydigan. Axir uni Oxunbo-boyev qancha bayt-u g'azal bilan maqtab Ali polvonning oldiga qo'yib ketdi. Endi kelsa nima deyishadi? “Manavu Oxun qo'shiq aytyapti, zirillamalik polvoningiz unga chirmanda chalib berib turipti”, deyishmaydimi?

Ikromjon og'zi ashuladan bo'shamay qolgan Oxunga gapning ochig'ini aytib qo'ya qoldi:

– Oxun, endi ikkovimiz qozon-tovoqni bo'lak qilamiz. Baqqa ishlagani kelganman.

Oxun nima deyishini bilmay serraygancha qoldi. Bu gap qulog'iga kirgan Ali polvon hamma eshitadigan qilib askiyaga oldi:

– Ha, Guloyim, nima bo'ldi? Yana beva bo'lib qoldingmi?

Oxun ham gapga bo'sh kelmaydigan xilidan edi. Darrov javob qildi:

– Qashqar qizining qo'lidan don yegan chumchuq Makkatullodan sakkiz marta qaytib keladi. Buning chumchuq ham

emas, yuvoshgina musicha ekan, Makkatulloodan qaytib kelish u yoqda tursin, uyini topib ketsa ham jon deyaver.

Ikromjon askiyaga no'noq bo'lganidan javob berolmay odamlarning kulgisidan qip-qizil lavlagi bo'lib ketdi. Ish joyini o'zgartirib ketmonini chopaverdi. Azizxon Zirillamaning boshini osmonga yetkazib turganda men oyoq osti qilmay, deb jon-jahdi bilan ishga sho'ng'ib ketdi. O'zi tuproq qaziydi, o'zi qoplab orqalab yuqoriga opchiqib tashlaydi. Kechga borib qazigan yerini o'lchatganda Oxun bilan ikkovi qazigan, yuqoriga chiqazgan tuproqdan bir yarim barobar ortib ketibdi.

— Bor ekansan-ku, — dedi Ali polvon. — Ish degan mundoq bo'пти. Kuchingni Guloyim so'rib yotgan ekan-da. Eshga yetay deb qopsan. Yasha og'ayni, Otani yerga qaratmaydigan bo'lding.

Bu gap Ikromjonga qanot bo'ldi. Kechqurun Lug'umbekka bormay shu yerda qoldi.

Daryo tepasi ajib bahavo joy. Kechga yaqin havo bir dimlab keyin g'irillab shamol esadi. Qoradaryoning loyqa suvlari qirg'oqqa shaloplab uriladi. Kechasi o'rdaklar bazmi boshlanadi. Tong otguncha g'aq-g'uq tovushlari tinmaydi. Shamol esishi bilan quruvchilar pashshaxonalarini ochib tashlab, kechki salqinda orom oladilar. Kuni bilan oftobda lunjlarini shishirib, bo'yin tomirlarini bo'rttirib katta avjda xonish qilgan hofizlar dong qotib uxlab qoladilar. Faqat Oxunning shirali, shikasta ovozi allapallagacha eshitilib turadi. U hamon qaydadir qolgan, yuragiga o'chmas izlar tashlab ketgan Guloyimni qo'msab, o'rtanib, yonib xirgoyi qilardi. Goho uning ovozi xuddi yig'laganga o'xshab titrab ketadi. Ikromjon qorong'ilik qa'ridan kelayotgan bu nolishga astoydil quloq tutadi. Oy qayrag'och panasiga o'tib ketadi. Bir-biriga ayqash-uyqash bo'lib ketgan qayrag'och shoxida uyqusiragan musicha har zamon bir pitirlab qo'yadi. Daryo shovillaydi. Poytuq bilan Kuyganyor oralig'ida og'ir yuk tortgan parovozning kuchanib qichqirgani, vagonlarning bir-biriga urilib shaqirlagani eshitiladi. Zum o'tmay uning ham ovozi sekin-sekin yo'q bo'lib ketadi. Ikromjonni xayol olib qochadi. Uyini, Janatni, Tursunboyni o'ylaydi. Ularning holi nima kechdi ekan. Daraksiz ketgan Ikromjonni Tog'a nima deb o'yladikin? Surishtirib bilgandir. Ikromjonning xayoli xayoliga ulanadi. Ko'zidan uyquni haydaydi. Endi u ertaga qiladigan ishini, ko'pchilik o'rtasida yuzni yerga qaratmaydigan ish qilish to'g'risida o'ylaydi. Oxiri u ham uxlab qoladi. Kuni bilan chang-to'zonga to'lgan, odamlarning shovqin-suronlari bilan tinchini yo'qotgan sohilda

endi erta kuz shamollari, tuproq uyumlariga o'zini urar, sirpanib daryo oqimi tarafga yo'lini burardi.

Ertalab hamma gangir-gungir bilan o'rnidan turadi.

Shalolada mo'ljaldagi ish yarmidan oshib oxiriga yaqinlashay deb turibdi. Butun shtab, prorablikning ko'zi shu tarafda. Kim qandoq ishlayapti, kim qancha tuproq qazidi, qancha chiqazdi, rahbarlarga ma'lum. Oxunboboyev kelganda Ali polvon Ikromjonni maqtab qoldi.

– Hamqishlog'ingiz durust. Maqtaganingizcha bor ekan. Boyoqish kuchining boricha ishlab, Eshga yetay deb qoldi. Esh hozir Azizxon bilan Ikromjon oralig'ida turibdi. Sal intilsa Azizxonga yetadi, sal bo'shahsa Ikromjondan qolib ketadi. Xullasi, ikkita zirillamalik Eshni iskanjaga olib turipti.

Oxunboboyev mamnun iljaydi-da, choy ichib o'tirgan Esh polvon oldiga kelib yelkasiga qoqdi.

– Oriyatingga balli, Eshmuhammad. Sendan juda xursandmiz.

Oxunboboyev shunday deb cho'ntagidan kaftdek quticha olib ochdi. Bu kumush yon soat edi.

– Atayin Farg'onadan ismingni yozdirib keldim. Bu senga kanal shtabining mukofoti. Azizxon bilan sening musobaqang minglab quruvchini oyoqqa turg'izdi. Rahmat, birodar, kanal suvini ichadigan, ekinini sug'oradiganlar seni sira esdan chiqazmaydi.

Esh polvon faqat ish bilan bo'lib, Azizxondan o'taman deb atrofiga qaramagan edi. Birovdan bunchalik iliq-issiq gap ham eshitmagan edi. Oxunboboyevning bu so'zlaridan keyin bir-ikki marta kiprik qoqdi-yu, ko'ziga yosh qalqib chiqdi, hiqillab gapirolmadi, lablari titrab ketdi.

Uning bu holidan Ali polvon qotib-qotib kulardi.

– E, nodon, nodon, yosh bola desam, bolaga o'xshamaysan, katta odam desam, kattaga o'xshamaysan.

Oxunboboyev uni xijolat qilmaslik uchun Norin suvi quyilishi kerak bo'lgan kanalning so'nggi uchastkasini ko'rgani Qora daryo bo'yiga tushib ketdi.

Yana uch kundan keyin bu yerda beton ishlari boshlanishi kerak. Hozir yer qaziyotganlarning chaylalariga betonchilar ko'chib keladi.

Daryo bo'yiga mashina borolmaydi. Shuning uchun ham arava va brichkalarda taxta, yog'och, qop-qop sement tashil-yapti.

Oxunboboyev ketishi bilan Ali polvon Eshni quchoqlab as-toydil qutladi. Do'stining bu martabasi, obro'si uni chindan ham quvontirgan edi. Eshning qo'lidagi soatni olib buradi, chayla uchiga ilib qo'ygan shimining cho'ntagidan uzun zanjirli soatini olib necha bo'lganligini bildi-da, Eshning soatini unga to'g'rila-di. Keyin qulog'iga tutib ko'rdi.

— Buyursin, oshnam. Bu senga, bola-chaqalaringga bir umr esdalik bo'ladi.

Soat qo'ldan-qo'lga o'tdi. Esh polvon endi o'zini tutib olgan, soatini qulog'iga tutayotganlarga mamnun iljayib qarab turardi.

Ali polvon Ikromjonga imlab qo'ydi.

— Eshning ishlashini endi tomosha qilasan, parovoz bo'lib ketadi, bu.

Darhaqiqat, Esh polvon tushlikdan keyin sher bo'lib ketdi. Otaning yuzlarini yerga qaratmayman, mukofotga yarasha ish qilaman, deb chunonam ishlab ketdiki, qani endi uni to'xta-tib bo'lsa. Xuddi o'zidan katta ushoq ko'targan chumoli singari qanor to'la tuproqni yuqoriga pildiraganicha opchiqib ketar, il-garigidek yo'lda to'xtab tuproqning yarmini to'kib tashlamasdi. Inqillamasdi, qaytishda kaltak yegan odamdek sudralib tushmasdi.

Ikromjon undan ancha uzoqda bo'lganidan uning qilayotgan ishlaridan bexabar, u ham zo'r berib ishlayotgan edi.

Kechqurun qayrag'och tagiga kelishganda hamma Esh pol-vonni tabriklardi.

— Qoyil qilding, Esh. Aziz polvondan o'tgan bo'lishing kerak.

Tizzasiga daftar qo'yib nimalarnidir hisoblab o'tirgan tabel-chi yigit bir gap aytdi. Bu gap go'yo lovillab yonib turgan gulxan-ga suv sepgandek bo'ldi.

— Esh akam bugun o'n to'qqiz yarim kubo tuproq qazib chiqazdilar. Ikromjon amaki chorakam yigirma kubo.

Esh polvon qiziq ahvolga tushib qoldi. Boyatdan beri g'olib-lik nash'asi porlab turgan ko'zleri bejo bo'lib ketdi. G'oz qomati sal bukilgandek, peshanalariga qavat-qavat ajinlar taxlangandek bo'ldi.

— Iya, — dedi Ali polvon, — Azizxonning sherigi seni yasab qo'yipti-ku!

Esh polvon Ali polvonga yeb yuborgudek bo'lib qaradi.

— Ishni siz rasvo qildingiz, Ali aka. Qazib qo'ygan uch qa-nor tuprog'im bor edi. Endi bas, yetar deb meni yo'ldan urdin-giz. Agar o'sha tuproqlarni ham to'kib tushganimda, bu kelgindi mendan o'tib bo'пти edi.

– Og‘zingni chakki qilma, nodon, – dedi zarda bilan Ali polvon. – Kelgindi deganing nima deganing?! Tilim suyaksiz, deb gapiraverasanmi?!

Esh polvon: “E, qo‘ying-e!” – deb o‘rnidan turib ketdi. Ali polvon Ikromjonga uzr bildirgan bo‘ldi.

– Xafa bo‘lmang, mehmon, Esh o‘zi shunaqa.

Ikromjon xafa bo‘lmaganini bildirib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib iljaydi.

VI

Usmon Yusupov muxbirlar iltimosiga ko‘ra matbuot konferensiyasi o‘tkazmoqda edi. Azizxon bilan Ikromjon ham shu yig‘inga taklif qilingan, ammo ular ot-ulov bo‘lmaganidan yo‘lovchi avtobusni kutib, anchagina kechikib kelishgan edi. Bu payt Yusupov prezidium stoli oldiga chiqib, nimanidir qizishib gapirardi. Orqa qatorda o‘tirgan keksaroq bir rus skameyka chetiga surilib Ikromjonga yonidan joy ko‘rsatdi.

Azizxon joy izlab alanglab turarkan, yuqorida o‘tirgan Bel-yavskiy uni imlab yuqoriga chiqishni so‘radi.

Azizxon keyingi paytlarda prezidiumlarda o‘tirib o‘rgangan, pastda qolib ketgan paytlarda majlisga kelgandek bo‘lmasdi. U takalluf qilib o‘tirmay yuqoriga qarab yura boshladi. Odamlar gur etib orqaga o‘girilib qarashdi. Yusupov ham bir dam so‘zni to‘xtatib, uning joy topib o‘tirishini kutib qoldi. Muxbirlar orasida: “Aziz polvon, Aziz polvon shu bo‘ladi”, degan shivir-shivir eshitildi. Azizxon bu gaplarni eshitib sal xijolat bo‘lgandek qaddini bukib o‘ziga joy izlardi. Nihoyat, Do‘nan polvon yonidan joy ko‘rsatdi. Azizxon o‘tirdi. Yusupov kutilmagan bu tanafusdan foydalanib, stol chetida turgan choynakdan yaxna quyib simirdi, keyin qo‘lidagi savol yozilgan qog‘ozga qarab so‘zini davom ettirdi:

– ... Shunday qilib, Suvaysh kanali miloddan oldinroq qazilib asrlar davomida qum tagida qolib ketdi. Fir‘avnlarni boshlagan kanal 1856-yilga kelib Said poshsho davrida qayta qazila boshlandi. Fransuzlar bu kanaldan 99 yil tekin foydalanish sharti bilan qazib beradilar. Kanal qazishda qirq ming falloh ishlagan. O‘n yil mobaynida shulardan yigirma ming kishi og‘ir mehnat azobidan o‘lib ketadi. Yaqinda, ya‘ni yana o‘n yetti yildan keyin fransuzlar bu kanaldan tekin foydalanish huquqini yo‘qotadilar.

Yana ikkinchi misol. Janubiy Amerika bilan Shimoliy Amerika oralig'ida qurilgan mashhur Panama kanali irrigatsiya tarixida katta o'rin egallab kelmoqda. Atigi 81 kilometr masofada qazilgan bu kanal o'ttiz olti yil davomida qurib bitkazilgan edi. To'rt yilning o'zida o'n besh ming quruvchidan 9800 kishi sariq vabo kasalidan qirilib ketgan.

Men bu misollarni nima uchun keltiryapman? Siz matbuot kishilari har qanday dabdabali so'zdan ko'ra haqiqat yuzini ravshan ko'rsatadigan raqamlarni afzal ko'rasiz.

Endi hozirgina men misol qilib aytgan kanallar qurilishini hozir biz qaziyotgan Farg'ona kanali qurilishi bilan taqqoslab ko'raylik.

Katta Farg'ona kanali Panamadan uch yarim baravar, Suvayshdan ikki baravar katta. Suvaysh ikki yarim ming yil davomida qurib bitqazildi, Panama o'ttiz olti yilda, Farg'ona kanali qirq besh kunda... Panamada 9800 kishi, Suvayshda 20000 kishi halok bo'ldi. Katta Farg'ona kanalida bir kishi ham shikastlanmadi. Bunday qurilishni, bunday yalpi ko'tarilishni hali tarix ko'rmagan. Bu Sotsialistik tuzumimizning buyuk g'alabalaridan biri deb bilaman. Marhamat, yana kimda savol bor?

O'rta yashar rus yigiti o'rnidan turdi.

— “Pravda” muxbiri Boris Agapov, — deb tanishtirdi u o'zini. — Marhamat qilib aytib bersangiz, o'rtoq Yusupov. Siz hozir jahonning eng katta kanallari qanday qazilganini, qanchalab qurbonlar berilganini aytib berdingiz. “Hozir biz o'z ko'zimiz bilan ko'rib turgan Katta Farg'ona kanali o'z ko'lami bilan, ekspluatatsiya qudrati bilan ham buyuk deb atalmish o'sha kanallardan o'n barobar buyukdir. Qanday qilib bu ishga jur'at qildingiz? Yo avvalroq bu xil ishlar eksperiment tariqasida sinab ko'rilganmi?”

YUSUPOV. Shunday savolni kutgandim. O'zbek xalqi qadim-qadimlardan buyon hashar usulida juda ko'p inshootlar barpo qilgan. Beva xotinlar, nochor oilalar uchun mahalla kishilari birlashib uy qurib berardilar, ekin yerlarini haydab, don sochib berardilar. Hatto bevalarning qizlarini kuyovga chiqazish ham mahalla ahlining vazifasi hisoblanardi. Xorazmda loyqa bosgan suv inshootlari hashar yo'li bilan tozalanardi.

Biz shunday katta ishga qo'l urishdan avval Log'on kanalini qazib “repetitsiya” qilib ko'rdik. Log'on kanali juda tez muddatda qurilib ishga tushirildi. Xalq juda ulug' ishlarni hashar yo'li bilan bajara olishini namoyish qilgan edi. Biz ana shu ajoyib harakatga suyanib ish boshladik. Natijasini mana, o'zingiz ko'rib

turibsiz. Shuning uchun ham biz buni “Xalq qurilishi” deb atadik.

Tilla ko‘zoynak taqqan oq sariq bir yigit o‘rnidan turdi. U o‘zini “Pravda”ning maxsus muxbiri Petr Pavlenko, deb tanishtirdi. Bu mashhur sovet yozuvchisi Osiyo mamlakatlarini ko‘p kezgan. O‘rta Osiyo respublikalari hayotidan anchagina hikoyalarni yozgan, yaqinda uning atoqli kinorejissyor bilan hamkorlikda yaratgan “Aleksandr Nevskiy” filmi ekranlarga chiqib juda mashhur bo‘lib ketgan edi.

— O‘rtoq Yusupov, quruvchilarga meditsina xizmati to‘g‘risida gapirib bersangiz. Panama kanalida 9800 kishi sariq vabo kasalidan halok bo‘lganini gapirib berdingiz. Janubiy Amerika bilan Shimoliy Amerika oralig‘ida juda ko‘p tropik botqoqliklar bor, chivin, pashshalar turli vabo kasalliklarini tarqatib, quruvchilarning yarmidan ko‘pini qirib tashladi. Hozir biz ko‘rib turgan Farg‘ona kanali trassalari ham juda ko‘p botqoq yerlardan o‘tadi. Sholikor yerlarda pashsha, chivinlar ko‘p. Yalpi bezgak kasali tarqash xavfi ham bo‘lishi mumkin edi. Bunday xavfni qanday bartaraf qildingiz?

YUSUPOV. Biz respublikadagi eng yaxshi meditsina xodimlaridan 700 kishini kanal ishiga jalb qildik. Besh yuz qirq ikki medpunkt ishlab turibdi. Uch yuz sakson ko‘chma apteka bu hisobga kirmaydi. Shoshilinch meditsina yordami uchun 260 “tez yordam” mashinasi trassalardagi medpunktlar ixtiyoriga berilgan. Respublika sog‘liqni saqlash xalq komissari bu ishlarga shaxsan rahbarlik qilib turibdi. Botqoqlik, sholikorlik zonalarida bezgakka qarshi choralar ko‘rildi. Hamma quruvchilarga akroxin tabletkasi berildi. Biz uni “Akroxinlash operatsiyasi” deb atadik.

Past bo‘yli, ko‘zoynak taqqan, qora to‘ridan kelgan yigit o‘rnidan turdi. Bu “Qizil O‘zbekiston” hamda “Stalincha qurilishda” gazetalarining mas‘ul muharriri Sulaymon Azimov edi.

— O‘rtoq Yusupov, qurilishda olib borilayotgan madaniy-maishiy ishlar to‘g‘risida gapirib bersangiz.

Yusupov bloknotini varaqlab bir oz turib qoldi. Keyin shoshilmay gapira boshladi.

— O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘izistonning yetakchi san‘atkorlaridan ikki ming kishi trassalarda o‘z talantlari bilan quruvchilarni mamnun qilishyapti. Bular tashqari, kolxoz va sovxozlarning havaskor san‘atkorlaridan ikki mingdan ortiq sozanda va hofizlar, askiyachi, qiziqchilar tushlik paytlarda, kechqurunlar tomoshalar ko‘rsatib turishi. Toshkentdan kelgan

Hamza nomli Akademik teatrimiz “Boy ila xizmatchi”, “Uyg‘onish”, “Makr va muhabbat” singari dramatik asarlarni, Sverdlov nomli opera va balet teatri “Layli va Majnun”, “Gulsara”, “Arshin mol-olon” singari muzikali asarlarni ochiq sahnalarda namoyish qilmoqdalar. Ayniqsa, SSSR xalq artisti Halima Nosirova, O‘zbekiston Xalq artistlari Tamaraxonim, Qori Yoqubov, Abror Hidoyatov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Lutifxonim Sarimsoqovalar kanalchilarimizni juda mamnun qilishyapti. Uchastkalarda ochilgan savodsizlik va chala savodlikni tugatish kurslarida o‘qib 14 ming 552 kishi to‘la savodli bo‘ldi. Endi maishiy xizmat masalasiga o‘tsak, bu sohada ham aytishga arzirli gaplarimiz bor. 2 ming 509 savdo tarmog‘i quruvchilarga har o‘n kunda 35 million so‘mlik mol sotiyapti. Qurilish boshlangandan beri 1 ming 650 vagon mol sotildi.

Kun isib ketgan, qilt etgan shamol esmasdi. Yusupov issiqdan lohas bo‘lib, tez-tez yaxna ho‘plab turardi. Kattakon ro‘molchasi bilan bo‘yin terlarini artib gapini davom ettirdi.

– Javobimda raqamlar ko‘payib ketdi. Atayin bunday qildim. Bu raqamlar har qanday balandparvoz gaplardan qudratli va rad qilib bo‘lmas faktlardir. Men hatto ikkinchi darajali faktlarni aytmadim. Masalan, qurilishdagi ba‘zi kashandalarning tashvishini ham ko‘rib qo‘ygandik. 75 ta nosvoy do‘koni, 62 papiros do‘koni borligini aytсам hayron bo‘lmang. Har bir quruvchining ehtiyojini oldindan hisobga olganmiz.

Kezi kelganda kutilmagan bir gapni o‘rtaga qistirib qoladigan G‘afur G‘ulom bir ko‘zini qisib gap tashlab qoldi:

– Usmon ota, har bir quruvchining ehtiyojini oldindan hisobga olganmiz, dedingiz. Menimcha, ba‘zi bir ehtiyojlar unutilganga o‘xshaydi.

Hamma barobar gurillab kulib yubordi.

Yusupov bu luqma va kulgining ma‘nosiga tushundi. O‘zi ham silkinib uzoq kuldi.

– Obbo, shayton-e, – dedi Yusupov G‘afur G‘ulomga qarab. – Bunaqa ehtiyojni hisobga olganmiz. Butun Farg‘ona vodiysidagi jami araq-vinolarni vagonlarga ortib tashqariga chiqarib yuborganmiz. Kanalga suv quyadigan kunimiz araq-vinolar qaytib keladi.

Kulgi bilan charchoq ham, issiq eltgan lanjlik ham tarqalgandek bo‘ldi.

Shoir Hamid Olimjon o‘rnidan turdi.

– Usmon aka, Katta Farg‘ona kanali qancha yerni suv bilan ta‘minlashini aytib bersangiz.

Yusupov bunaqa savolni ko‘pdan kutayotgan bo‘lsa kerak, bloknotiga qaramay darrov javob berdi:

– Norin suvi to Qoradaryoga quyilguncha Uchqo‘rg‘on adirlaridan 58 ming 300 gektar yerni, Qoradaryoga qo‘shilib, Kuyganyor to‘g‘onidan ko‘tarilgandan keyin to Konibodomgacha 209 ming 373 gektar yerni sug‘oradi. Bu faqat kanalning dastlabki yillarda sug‘oradigan joylari, xolos. Bir-ikki yildan keyin Tolquduq, Yozyovon, Nayman cho‘llarida ming-minglab gektar yerlar sug‘oriladi. Bu kanal Farg‘ona vodiysida paxtachilikning keskin rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Sergey Eyzenshteyn o‘rnidan turdi. Bu mashhur kinorejissyorni butun dunyo tanirdi. Uning “Oktyabr”, “Potyomkin zirhli kemasi” singari kinofilmlari dunyo ekranlarini aylanib chiqqan edi. Sergey Mixaylovich Katta Farg‘ona kanali qurilishi to‘g‘risida Pyotr Pavlenko bilan badiiy film olish uchun trassalarni kezib yurardi. Hatto u Do‘nan Do‘smatov rolini ijro etish uchun mashhur kinoartist Nikolay Cherkasovni ham olib kelgan edi. Eyzenshteyn kanal ishlari to‘g‘risida Usmon Yusupov bilan ko‘p gaplashgan, undan talay maslahatlar olgan edi.

– O‘rtoq Yusupov, men savolni qahramonimiz Do‘nan Do‘smatovga bermoqchiman. Ruxsat etsangiz.

– Marhamat, marhamat, – dedi Yusupov.

– O‘rtoq Do‘smatov, siz oddiy bir dehqon odamsiz. Hammadan ko‘p yer qazishga, hammadan ko‘p tuproq tashib chiqishga sizni nima majbur qildi? Boshqalar qatori kunlik topshiriqni bir me‘yorda bajarib yuraversangiz bo‘lmasmidi? Men shuni bilmoqchi edim.

Baquvvat gavdali, ammo qarashlari muloyim, yoqimtoy chehrali Do‘smatov o‘ng‘aysiz ahvolga tushib qoldi. Bu odam gapga no‘noq edi. Dovdirab Yusupovga qaradi. Hamid Olimjon Eyzenshteynning savolini tarjima qilib berdi.

– Gapiring, Do‘nanboy, – dedi Yusupov unga dalda berib.

Do‘smatov o‘rnidan turdi. Nima deyishini bilmay esankirab turib qoldi. Avval ikki qo‘lini belbog‘iga suqdi, keyin chiqarib, negadir kaftiga tufladi.

G‘afur G‘ulomning shaytonligi tutib yana gap tashladi.

– Gap ketmonmas, kaftingizga tuflamay aytavering, Do‘nan aka.

Yana kulgi bo‘lib ketdi. Do‘smatov dovdirab butunlay gapini yo‘qotib qo‘ydi. Yusupov bosh barmog‘ini silkitib shoirga tahdid qildi.

– Sen jim turgin, nima qilasan uni gapdan chalg‘itib.

Do‘smatov shundan keyin sal o‘zini o‘nglab oldi. Yana kaf-tini og‘ziga oborib qantarib oldi.

– Biz gapga yo‘qroqmiz-da, Ota. Onamiz ishga tuqqan. Ish-dan boshqasini bilmaymiz. Bu so‘roqqa nima deb javob beri-shimni bilmay qoldim. Gapning ochig‘ini aytsam, nega shunaqa qilayotganimni o‘zim ham bilmayman. Balkim, sabrim chida-may shunday qilayotgandirman. Ota-bobolarim Norin bo‘yida yashashgan. Butun umr yelkalaridan obkash tushmagan. Eshikka yarim bo‘yra eni o‘sma ekan bo‘lsalar shuni ham obkashda suv tashib sug‘orishgan. Hammamiz daryo bo‘yida tashna yasha-ganmiz. Hukumat yeringga suv chiqarib beraman, ekinging endi suvga yolchiydi, ota-bobolaring ichmagan suvni sen ichasan, bo-la-chaqalaring ichadi, ketmoningni ko‘tarib chiq, dedi. Chiq-dim. Mana, ishlayapman. Agar boshqalardan ko‘p ishlayotgan bo‘lsam, bu sevinganimdan, bolalarimning rizqini o‘ylaganim-dan, dalalarimga suv chiqishiga quvonganimdan bo‘lsa, ajabmas. Mening-ku, bitta jonim bor. Agar o‘nta jonim bo‘lganida ham yurtga suv beraman deganga bag‘ishlavoraman. Gapim shu.

Hamid Olimjon uning gaplarini Eyzenshteynga tarjima qi-lib turardi. U engashib Cherkasovning qulog‘iga nimadir dedi. Cherkasov bosh irg‘ab qo‘ydi.

Yusupov yana kimda savol bor, deb atrofqa qaradi. Bo‘yniga bir yo‘la uchta fotoapparat osgan yigit o‘rnidan turdi.

– Georgiy Zelma, “Ogonyok” jurnalining maxsus fotomux-biriman. Ijizat bersangiz, men yosh polvon Azizxon Ummatali-yevga bir-ikkita savol bersam.

Yusupov, marhamat, ma’nosida bosh irg‘ab qo‘ydi.

– O‘rtoq Ummataliyev, – siz endi o‘n yetti-o‘n sakkiz yoshga kirgansiz. Boshingizda ro‘zg‘or tashvishi yo‘q. Suvsizlik azobini ham tortmagansiz. Ochig‘ini aytsam, siz bir go‘daksiz. Ammo kanalda eng ko‘p tuproq qaziganlarning bittasi siz bo‘lib turibsiz. Do‘smatov orqasidan izma-iz kelyapsiz. Xo‘sh, sizni bunday qahramonlikka nima majbur qildi?

Azizxon o‘rnidan turdi. U muxbirlar bilan uchrashaverib pishib qolgan, prezidiumlarda o‘tiraverib, o‘zini tutib olgan edi. Dovdiramay javob bera boshladi:

– Gapingiz to‘g‘ri. Men dunyoning tashvishlarini ko‘rmanman. Suvsizlik nima, tirikchilik nima bilmaganman. Dadamning qaramog‘ida erka o‘g‘il bo‘lib o‘sganlardanman. Ochig‘ini aytsam, kanalga bir kuchimni ko‘rsatib qo‘yay, polvonlarni dog‘da qoldiray, deb kelgandim. Boshida shundoq bo‘ldi ham. Ammo keyinchalik qilayotgan ishimning ma‘nosiga yetib qoldim. Odamlarning zavq-shavq bilan ishlashlarini ko‘rib, kanal bitgandan keyin qanaqa bo‘lishini, bu ish o‘yin emas, juda ulug‘ maqsad bilan qilinayotganini sezdim. O‘zimga o‘zim: “E sen bola chuchvarani xom sanab yurgan ekansan, qilayotgan ishingdan yurtga katta naf tegarkan”, – dedim-u, avvalgidan ham ko‘proq tuproq qazishga tushib ketdim. Gap shuki, shu kanal meni odam qildi. Shu kanal meni yurtga qo‘shdi. Shu kanal menga obro‘ berdi. Mana bu yog‘idan o‘zlaring ma‘ni chiqarib olaveringlar.

Usmon Yusupov uning gaplariga hayron bo‘lib qoldi. Bu bola kanalga yangi kelgan paytlarida gaplari entak-tentak, o‘zi dovdirgina edi. Endi gaplariga ma‘ni kirib qopti. O‘zi bosiq, bir chiroyli yigit bo‘pti.

Muxbir savollariga qanoatlanarli javob olganini bildirib joyiga o‘tirdi.

Konferensiya to tushgacha davom etdi. Muxbirlar injenerlardan Belyavskiy, Askochinskiy, Azizovlarga ham savollar berishdi.

Oxirida Yusupov muxbirlarga kanal qurilishini aktiv va haqqoniy yoritayotganlari uchun Markazkom nomidan tashakkur bildirib konferensiyani yopdi.

Azixon shuncha obro‘, shuncha maqtovlarga sazovor bo‘lsa ham, bari bir bola edi. U Aleksandr Nevskiy rovida o‘ynagan Cherkasovga engashib qarar, qayoqqa borsa, o‘sha yoqqa borardi. Ikromjon qo‘lidan ushlab avtobus tomon yetaklaganda ham u Cherkasovdan ko‘zini uzmasdi.

VII

Bugun 25-sentyabr. Kechqurun Kuyganyor radiouzeli butun trassalarga qilingan ishlar to‘g‘risida axborot eshittiryapti. Uchqo‘rg‘ondan Konibodomgacha bo‘lgan ikki yuz yetmish kilometrlik trassada ish boshlangan kundan buyon qazilgan tuproq hajmi 15 million 734 ming 275 kubometrqa yetdi.

Ko‘p quruvchilar qishloqlariga qaytib terimga tushib ketgan, ba‘zilari hali topshiriqni bajarib ulgurmagan uchastkalarga o‘tib,

jadal ishlamoqda edilar. Uchqo'rg'on trassasida ham ish tugab, besh ming kishiga ziyofat berildi. Lug'umbek uchastkasi to'qqizta shalolani tamom qilib, ot-arava yurishi uchun kanal yoqalab Uchqo'rg'ongacha o'n to'rt kilometrli yo'l ochib, tuproqlarni yotqiza boshladi.

Yo'ldosh To'xtaxo'jayev nomidagi hamda oltinchi Qirg'iz ovul tashlama qurilishi oldingi uchastkalarga yetib olib ishni tugatgan, ajib bir g'ayrat bilan ishlagan polvonlar velosiped, patefon, soat singari mukofotlar bilan o'z uchastkalariga qaytib ketgan edilar. Endi Kuyganyor to'g'oni bilan Lug'umbek sharsharalarida beton ishlari jadal boshlanib ketgan edi.

Boqiboyeva brigadasining ayollari allaqachon ish kiyimlarini yechib o'zlarini pardozga urishgan, bir-biriga soch o'rdirib, gajak qo'yish bilan ovora edilar. Bola-chaqasidan ko'ngil uzolmagan onalargina dugonalari bilan xayr-ma'zur qilib, Izboskanning har tarafiga — o'z qishloqlariga qaytib ketishgan edi.

Bir yuz oltmish ming kishi ajib g'alati to'y bo'lishini sabrsizlik bilan kutardi. Prorablar, texnik va uchastka boshliqlarining gaplariga qaraganda, yana ikki kundan keyin ish butunlay tugaydi.

Azizxon ertalab chodirdan chiqqanda allaqachon kun yoyilib ketgan, atrof jimjit edi. Har kuni shovqin-suron, odamlarning baqirib-chaqirishlaridan uyg'onadigan Azizxon uchun bu jimlik g'alati tuyuldi. "Oq maktab"dan to do'ng orqasigacha chang-to'zonga burkanadigan joylar endi jimjit, yelkada qop bilan terdan sho'ralab ketgan yaktak kiyib, chodir oldidan o'tadiganlarning egnilarida sinkaga solingan oppoq xom surup yaktak, boshlarida yangi do'ppi...

To'lanboy so'rida chordana qurib o'tirib olgan, pichoqni taxtaga taq-taq tegizib sabzi to'g'rayapti. Ikromjon guvaladan omonat yasalgan o'choq tepasida, qo'lida kapgir bilap turipti.

— Kalla pishdimi, Polvon? — dedi To'lanboy sabzi taxtadan bosh ko'tarmay.

Azizxon orqasini o'girib bir kerishdi-yu, ariq tarafga ketdi. "Oktyabr arig'i"ning suvi endi har kungidek loyqalanib oqmas, Maylisoydan qandoq chiqqan bo'lsa, o'shandoq tiniq, o'shandoq sovuq edi. Suv bo'yidagi so'rilarda ozoda kiyingan choyxo'rlar bamaylixotir gaplashib o'tirishipti. Har bir so'rida alohida hofiz, sozanda. Azizxon erinibgina bet-qo'lini yuvib qaytib kelganda, Ikromjon jaz-buz qilib sabzi-piyoz qovurardi.

— To'lan, bu yog'ini o'zim qilaman. Sen polvonni o'tqazib, bir sochini, soqolini qirtishlaysan. Kinochilar, fotochilar uni qidirib yurishipti. Suratga sal odamga o'xshab tushsin.

Azizxon keragi yo‘q, deb chodirga kirib ketdi. U bu jimlikka sira ko‘nikolmasdi. Endi nima qiladi? Qishloqqa-ku qaytib borish niyati yo‘q. Bu yerda u qiladigan ish endi qolmagan. Birdan-bir ovunchog‘i Lutfinisani endi ko‘rmaydi. Agar u bo‘lganda yana qaygadir omad izlab ketardi. Azizxonning buguniga, ertasiga Lutfinisa juda-juda zarur edi. Endi uning ko‘ngli huvulab qolgan, atrofda hokimlik qilayotgan jimlik sovuq, fayzsiz edi.

Otda Jo‘ra polvon kelib Azizxonni so‘radi. Shu yerdaligini bilib egardan tushdi-da, To‘lanboyning yoniga o‘tirdi. Jo‘ra polvonning ovozini eshitib Azizxon chodirdan chiqdi.

– Horma endi, polvon bola. Mana, kanal ham konchil bo‘ldi hisob. Yasha, o‘g‘il bola.

Jo‘ra polvon o‘rnidan turib, Azizxonni otalarcha bag‘riga bosib, qo‘yib yubordi. Azizxon gangib ko‘zlarini pirpiratganicha qimirlamay turardi. Ikromjon qozonga suv quyib, ular oldiga kelib o‘tirdi.

– Polvon, shunday qilib qurilishda kim birinchilikni oldi? Bizning polvoncha nechanchi o‘rinda?

Undan oldin To‘lanboy javob qildi: – Nechanchi bo‘lardi, Azizxon birinchi bo‘ladi-da.

Jo‘ra polvon kuldi.

– Undoqmas. Do‘nan Do‘smatov birinchi o‘rinni egalladi. Tojimat ota bilan Aziz polvon ikkinchi o‘rinda.

Azizxon shoshib so‘radi.

– Esh polvon-chi, Esh polvon?

– U ham yomonmas. Uchinchi o‘rinni yetti kishi barobar egallashdi. Shular ichida Esh ham bor. Ammo lekin Esh qattiq ishladi. Ayniqsa sendan o‘zaman, deb yetti qavat po‘sti shilindi.

To‘lanboy tomog‘ini taqillatdi.

– Voy-voy! Kattalar endi qittak-qittak qilishga ruxsat berishsa ham bo‘lardi.

To‘lanboyning bu gapiga sabab bor edi. Kanalda yalpi ish boshlanishidan uch kun oldin Usmon Yusupov savdo tashkilotlarining rahbarlarini to‘plab, ichkilik sotishni man qilgan, agar biron do‘konda do‘konchi ichkilik sotsa, qattiq jazoga tortilishini uqtirgan edi. Jo‘ra polvon To‘lanboyning gapiga salmoqlab javob qildi:

– Shundaqa sog‘inib qoldingizmi? Ichishga men bilan musobaqa qilaszmi? Bellashaman, desangiz yana ikki-uch kun sabr qilasz. Kuyganyorda yetti ming kishilik bazm bo‘ladi. Ana o‘shanda yayrab qolasz, og‘ayni.

Uchqo'rg'on, Lug'umbek, Kuyganyor, Shahrixon, Asaka, Marg'ilon, u yog'i Konibodomgacha yana o'n to'rt joyda quruvchilar uchun katta ziyofat tayyorgarligi ko'rilayotgandi. Andijon, Marg'ilon, Qo'qonning eng yaxshi pazandalari, yuzlab shogirdlari bilan o'choq tepasida maslahatda edilar.

Jo'ra polvon yonidan daftarchasini olib varaqlay boshladi.

— Kelganingdan beri qancha tuproq qaziganingni aytib beraymi? Hozir aytaman. O'ttiz to'qqiz kun ishlabsan. Shu davr ichida 2874 kubometr tuproq chiqazibsan, akasi. Bu hazil gapmas-a.

— Hisoblab yurgan ekansiz-da, a, polvon aka? — dedi To'lanboy.

— Usmon ota so'ragan edilar. Tabelchilarga hisoblatib, hozir Otaning sekretarlariga berib kelyapman. Indinga bo'ladigan metinkada dakalat qiladilar. O'shanga kerak bo'lgandir-da. O'zlari ertalab Uchqo'rg'onga hamma kattalarni, injener-u narkomlarni olib ketganlar. Hamma trassalarni suv quyishga tayyor-tayyor-masligini ko'rib chiqadilar. Biron soatdan keyin shattan o'tadilar. To Konibodomgacha borishmoqchi. Kuyganyor to'g'onining boshlig'ini qattiq koyidilar. Komsomol uchastkasidagi quruvchilarni ertalab Kamolov olib keldi. Chumolidek ishga yopishib ketishdi. Men atayin seni yo'qlab kelgan edim, Azizxon. Baqqa o'tir!

Jo'ra polvon shunday deb yonidan qog'oz, qalam oldi.

— Menga tug'ilgan yiling, ishlaydigan kolxozing, hammasini aytib ber. Yaxshilab yozib olaman. Familiyangni tochniy qilib ayt! Boshputingda qanaqa yozilgan bo'lsa, o'shandoq qilib ayt. Katta ro'yxatga qo'shiladi bu. Keyin Maskopga ketadi.

Azizxon aytib turdi. Jo'ra polvon shoshilmay, shundoqmi, shundoqmi, deb yozib oldi.

— Bo'пти, shunga kelgandim.

Jo'ra polvon o'rnidan turarkan, To'lanboy so'radi:

— Nimaga yozyapsiz?

— E, uka, shundoq kanal qaziladi-yu, hukumat taqdirlamay qo'yadimi! Hukumat yaxshi ishlaganlarga orden beradi. Shunga ro'yxat tuzilyapti.

Jo'ra polvon otiga beozor qamchi tegizib jilovni siltadi. Azizxonning ko'ngli g'alati bo'lib ketdi. Ko'z oldida dadasi, qishloq ko'chalari, bolalarni to'plab ko'rsatgan "tomosha"lari, yuz-ko'zlari ko'karib mushtlashgan paytlari, Lutfinisa bilan jimjit soy bo'ylarida ko'ngliga erta kelgan muhabbat to'lqini-

ni to'xtatolmay aytgan entak-tentak gaplari, Akbarali qo'lini bog'lab guzarga opchiqqanidan tortib to'qayda Lutfinisani nikoh ko'ylagi bilan yetaklab yurganlarigacha ko'rinib ketdi. Qani edi Lutfinisa shu topda yonida bo'lsa... Azizxonning ko'ngli muzdek bo'lib qoldi. Birdan hamma narsa rangini, shaklini yo'qotdi. U bu kunlarga Lutfinisa bilan birga yetishmoqchi edi. Shunga ahd-paymon qilishgan edi. Lutfinisa yonida ekan, gul ham, gilyohlar ham kuylar, yaproqlarning shitirlashi-yu suvlarning jildirashi unga g'alati, yuraklarni to'lqinlatadigan, entiktiradigan, hislarni tug'yonga keltiradigan ajib bir olam yaratardi. Endi u yo'q. Bu shodliklarga kim sherik bo'ladi? U yuz oltmish ming kishi ichidan ajralib yurt ko'ziga ko'rinib turipti. Butun respublika kattalari uni izzat qilib to'rga chiqazishyapti. Ko'ksiga orden taqishmoqchi. Lutfinisasiz bu obro'-e'tiborlar uning ko'ngliga shodlik olib kirolmasdi.

Ikromjon hali qozonga guruch solmagan edi. Choyxona so'rilarida maishat qilib o'tirgan quruvchilar gurra o'rnilaridan turdilar. Hamma so'ridan tushib "Oq maktab" tarafga qarab turardi. Azizxon ham beixtiyor o'shaqqa qaradi.

Sharshara tepasida o'ttiz choqli kishi u yoq-bu yoqlarga sinchiklab qarab nimalarnidir qizishib gaplashishardi. Azizxon qo'l siltab gapirayotgan kishini darrov tanidi. Bu Usmon Yusupov edi. U Oxunboboyevga nimanidir gapiryapti.

Kanal chetlari tekislanib suv sepilgan, ozoda edi.

Trassani kuzatib kelayotgan rahbarlarning kiyim-boshlariga gard yuqmagani.

Yusupov sharsharani kuzatgandan keyin qanoat hosil qildi, shekilli, yo'lning bu yog'ida turgan Usmonxo'jayev yoniga kelib to'xtadi.

— Ha, Eshon, ishlaring qalay? Horma endi.

Usmonxo'jayev javob qilguncha sabri chidamagan Yusupov so'zini davom ettirdi.

— Yaxnang bormi?

Samovarchi yelkada sochiq bilan sirlangan paqirda yaxna ko'k choyni ko'tarib oldinga intildi. Yusupov u tutgan piyolani paqirga botirib Oxunboboyevga uzatdi.

— Oling, Yo'ldosh aka, cho'llagandirsiz.

Oxunboboyev, oldin siz iching, Usmonali, deb qaytardi. Yusupov unga ma'noli qarab qo'ydi. Usmonxo'jayevning shayton kulgisi qistab qiqirlab kulib yubordi. Yusupov qalqib ketdi. Yon-veridagilar ham birdan kulib yuborishdi.

Yusupov bilan Oxunboboyev o‘zaro askiya qilib turishardi. Ularning laqablaridan Usmonxo‘jayevning xabari bor edi. Ismi Buzruk bo‘lgani uchun uni ham “Tuya” laqabi bilan atashardi. Oxunboboyevniki ham shunaqa edi. Yusupov Usmonxo‘jayevga qarab bosh barmog‘i bilan tahdid qildi.

– Eshon, Yo‘ldosh akam qirq kungacha suvsizlikka chidaydi, demoqchimisani?

Usmonxo‘jayev gap kelganda otangni ham ayama, degan qabilda tilga kelganni shartta aytadiganlardan edi. Yusupovning o‘zini ham askiyaga ilintirib o‘tdi.

– Endi bu bechora ham nima qilsin, to ho‘k, demaguncha ichmaydi-da.

Teshaboy Mirzayev Usmonxo‘jayevga yeb yuborgudek bo‘lib qaradi. Sekin qulog‘iga pichirladi. “Shundoq odamga askiya qilasanmi, nodon!”

Bu gapni Yusupov eshitib qoldi.

– Hoy, Teshavoy, unaqa dema, Eshon hammani bir ko‘zda ko‘radiganlardan.

Qiyqiriq kulgi bo‘lib ketdi. Teshaboy Mirzayevning bir ko‘zi sal qisiqroq bo‘lganidan tengdoshlari askiyada “Ko‘r” deb atashardi. Agar hozirgi gapni Yusupovdan boshqa odam aytganida u, albatta, militsiya chaqirib, berib yuborishdan ham toymasdi. Uning hazilga toqati yo‘q, ko‘z aralashadigan gapni o‘zi sira ishlatmasdi. Hozir qip-qizarib, qisiq ko‘zi battar qisilib ketgandi.

Boyadan beri ular oldiga kelishga jur‘at qilolmay so‘rida turganlar gurra-gurra kulgiga qiziqib, endi ularni o‘rab olishdi. Davra kengayib ketdi. Birpasda uch-to‘rt yuz kishi to‘planib qoldi. Poytuq, Paxtaobod, Haqqulobod askiyachilarini tortib o‘rtaga olib tushishdi. Askia boshlagan Usmonxo‘jayevning o‘zini buydalab ketishdi. Payrovda birovga sovrin oldirmaydigan Oxunboboyev talon bo‘layotgan Usmonxo‘jayevni himoya qilaman, deb o‘zi ilinib qoldi. Eski haqqulobodlik Echki laqabli askiyachi chol ming‘irlab-ming‘irlab turib birdan mo‘ljalga urdi.

– Yo‘ldoshvoy, Buzruk eshonni mahkam ushlang. Bo‘yniga kim qo‘ng‘iroq ossa ketaveradigan bo‘taloqlardan.

Oxunboboyev uni yaxshi tanirdi. Bu taraflarda xalqni jonidan bezor qilgan Azim hoji degan bosmachi yigitlarini tutib berishda boldiridan yaralanib Maygir orqasidagi qamishzorda o‘n to‘rt kun qonga belanib qolib ketgan edi. Tuzalganidan keyin bir oyog‘i oqsaydigan bo‘lib qolgan. Echki laqabi esa unga soqoli-

ning siyrakligi-yu, oqsaganda echkiga o'xshab sakrab-sakrab yurishi uchun qo'yilgandi. Oxunboboyev kulgi bosilishi bilan darrov javob qildi:

– Buzruk eshonga til tegizmang. Buzruk eshonni shamol uchirsa, sizni osmonda ko'ramiz.

Odamlar qotib-qotib kulishar, Teshaboy Mirzayev yana askiyaga tushib qolmay deb o'zini panaga olardi.

Chamasi yarim soatlar askiyadan keyin Yusupov kula-kula mashina to'xtagan tarafga qarab yura boshladi. Birdan chetda, birovga aralashmay turgan Azizxonga ko'zi tushib to'xtadi.

– Beri kel, bolam! Omonmisan?

Azizxon ildam yurib uning istiqboliga keldi. Odob bilan salom berdi. U Yusupov bilan birinchi marta uchrashganda yonida Lutfinisa bor edi. Yusupov uni gapga solib, to'ydan kelin opqochib kelganini bilgan edi. Yusupov kanal bitganda katta to'y qilamiz, deb uni yupatgan edi. Bo'lib o'tgan voqealardan Yusupovning xabari bor, yosh, navqiron qizning o'limidan qattiq qayg'urgan edi. Hozir Azizxonni tasodifan uchratib, shuncha odam oldida uni yupatishni lozim ko'rmadi. Yelkasiga qo'lini qo'yib aytadigan gapini o'ylab, andak turib qoldi.

– Rahmat, o'g'lim. Qilgan ishlaringning hammasidan xabarimiz bor. Yurt, hukumat, aslo bu xizmatlaringni unutmaydi. Insonning boshida ko'p savdolar bo'ladi. Sen endi hayotga kirypasan. Birinchi zarbdayoq beling bukilmasin. Hali oldinda imtihon ko'p, o'g'lim.

Azizxon kiprik qoqmay unga qarab turardi, Yusupov Oxunboboyevga qaradi.

– Yo'ldosh aka, xalqimizning qanaqa azamat o'g'lonlari bor-a! Bunaqa azamatlar bor ekan, yukimiz yerda qolmaydi.

Yusupov Azizxonning yelkasiga qoqib mashina oldiga bordi-yu, hech kimga qaramay eshikni ochib o'rindiqqa chiqdi.

Endi uning yuzi jiddiy, boyagi tabassumdan asar ham qolmagan edi. Oxunboboyev yoniga o'tirgandan keyin mashina joyidan qo'zg'aldi.

VIII

Tog'a odam yuborib To'lanboy bilan Ikromjonni oldirib ketdi. Tengdik bilan Beyshenali otalari boshqa yaylovga ko'chganini eshitib, Azizxon bilan og'a-inilarcha xayrlashdilar.

Chodirda Azizxonning bir o'zi qoldi.

Lug‘umbek choyxonalarida oshxo‘rlik, askiyabozlik alla-pal-lagacha davom qilardi.

Ko‘p vaqtdan beri va‘da qilinib olib kelinmagan kino bugun keldi. Hamma uchastkalarda bu kino ko‘rsatib bo‘lingan, negadir Lug‘umbekka kechikib kelgan edi. Bu kinoniig ta‘rifini Azizxon eshitgan edi. Qurilish boshlangandan beri o‘ralishib yurgan kino-operatorlar Toshkentga borib, hamma olingan lentalarni ishlab yaxlit kino qilib kelgan edilar. Jo‘ra polvon: “Kinoda sen ham borsan, juda antiqa chiqibsan”, deb aytgan edi. O‘shandan beri Azizxon bu kinoni kutardi.

“Oq maktab” devoriga chodir osib kinochi tatar yigit qa-chon qorong‘i tushadi, deb o‘tirardi. Oxirgi pardoiz ishlarini qilib yurgan quruvchilarning biri yerga chordana qurib, biri tik turib, boshqasi o‘zi ko‘tarib kelgan kursiga o‘tirib, kino boshlanishini kutardi.

Azizxon borganda tumonat odam hamma joyni egallab ol-gan, tik turib olganlar pardani ko‘rsatmay qo‘ygan edilar.

Azizxon u yoq-bu yoqqa yurib, oraga kirishga qulay joy qidi-ra boshladi. Sen u yoqqa tur, sen bu yoqqa tur, deb korchalonlik qilib yurgan Mulla Umrzoq uni ko‘rib qoldi.

— E, polvon bola, baqqa yur!

U Azizxonni qo‘lidan ushlab odamlar orasini yorib ichkari-ga boshladi. Egnida oq xalati bilan kursida o‘tirgan novvoyning yelkasiga qoqib turg‘izdi.

— Xah, sen kino ko‘rmasang nima edi. Joyni polvon bolaga ber! — Novvoy norozi bir qiyofada to‘ng‘illab-to‘ng‘illab o‘rni-dan turdi.

— O‘tir, polvon!

Azizxon xijolatlik bilan bir novvoyga, bir Mulla Umrzoqqa qarab kursiga o‘tirdi. Mulla Umrzoq mexanikka qarab qichqirdi.

— Boshla! Davay, boshla!

Apparat avval shipirlab, keyin yong‘oqqa ilingan karnayi g‘i-rilladi. Oppoq chodirda yomg‘ir yog‘ayotgandek tomchilar juda tez o‘ta boshladi. Keyin ekranda ot-aravalar, poyezdlar, mashi-nalar ko‘rindi. Poyezddan, aravalardan, mashinalardan ko‘rpa orqalagan, ketmon yelkalagan kishilar tusha boshladi.

Baland bir tepalik portladi. Chang-to‘zon osmonga sapchidi. Norin daryosi tog‘ oralaridan buralib, ko‘pirib oqib chiqyapti. Qora daryo loyqalanib qirg‘oqlarni o‘pirib oqyapti.

Ekranda yozuv paydo bo‘ldi:

“Azamat xalq mana shu o‘jar daryoga jilov solgani otlandi”.
Son-sanoqsiz kishilar ketmon bilan yer qo‘poryapti. Yuz minglab kishilar zambilda tuproq tashishyapti. Ektranda yana yozuv:

“Uchqo‘rg‘ondan to Konibodomgacha ikki yuz yetmish kilometrlik masofada bir-biriga zanjirdek ulanib ketgan yuz oltmish ming quruvchi kechani kecha, kunduzni kunduz demay yer qaziyapti”.

Kinoning shu joylari samolyotda olingan bo‘lsa kerak. Kuyganyordan boshlab pardada keti uzilmay uzoq vaqtgacha trassadagi odamlar chumolidek bo‘lib ko‘rinaverdi.

Ektranda yana yozuv:

“Kanal qurilishi yangi qahramonlar yaratdi”.

Do‘nan Do‘smatov ko‘rindi. Bo‘yi, eni besh metrdan keladigan oppoq pardada Do‘nan polvonning basharasi. U kulyapti, peshanalaridagi terlari yaltiraydi. Kulganda oppoq tishlari yanada oqarib ko‘rinadi.

Tomoshabinlar birdan qarsak chalib yubordilar. Azizxon ham beixtiyor chapak chalardi. Endi ektranda Tojimat ota Xidirov ko‘rindi. Kino shabada paytida olingan ekan. Uning oppoq soqollari hilpiraydi. Siyraklashib qolgan tishlarini ko‘rsatib kuladi.

Ektranda yozuv:

“Do‘nan Do‘smatov, Tojimat ota Xidirovlar qurilishda kunlik topshiriqni ming protsentdan ado etdilar. Bu ajoyib vatanparvar quruvchilarning oliyanob tashabbuslari qurilish bo‘ylab qanot yozdi”.

Ektranda Azizxon paydo bo‘ldi. Chapak ustiga chapak yangradi. Azizxon o‘zini ko‘rib hayron bo‘lib qoldi. Kinoga changto‘zon ichida olishgan ekan, basharasi g‘alatiroq chiqqanga o‘xshaydi. Kipriklari, qoshlari tuproqdan oqarib, ikki ko‘zi miltirab turipti. Kulganda tishlari yaltiraydi.

Ektranda yana yozuv:

“Do‘nan Do‘smatovning shogirdi, ajoyib polvon Azizxon Ummataliyev kunlik normasini to‘qqiz yuz o‘ttiz protsentdan ado etib, o‘n minglab yosh quruvchilarni ajoyib mehnat namunalari ko‘rsatishga chorladi”.

Yana Azizxon ko‘rindi. Uning yelkasida kattakon qanor to‘la tuproq, ustidan o‘rtacha qopda yana tuproq bilan taxta pillapoyadan yuqoriga ko‘tarilyapti. Atrofdagi odamlar hayrat bilan qarab turishipti. Diktor ovozi yangradi.

– “Siz ko‘rib turgan ushbu damda Aziz polvon butun qurilish bo‘yicha rekord hisoblangan yuk bilan yuqoriga intilmoqda”.

Azizxon shoshilmay yuqorilayapti. Oyog‘i tagidagi taxta lapanglaydi. Ana, u bir qalqib ketdi. Yelkasidagi qanor tepasidan tuproq to‘la qop bir tarafga og‘a boshladi. Azizxon bir yelka qoqib uni o‘nglab oldi. Ammo yelka qoqqanda do‘ppisi peshonasidan sirpanib ikki ko‘zini berkitib qo‘ydi. Atrofdagilar, tashla, yukni tashla, deb qichqirishyapti. Azizxon yo‘lni paypaslab topib yuqoriga chiqyapti. Azizxon oldida Lutfinisa paydo bo‘ldi. Ko‘ziga tushib qolgan do‘ppisini olib kaftiga urib qoqdi-da, yana kiydirib qo‘ydi. U ham Azizxonga nimadir deb qichqirdi. Azizxon unga qaramay yuqoriga ildam chiqib ketdi.

Kinoning bu yog‘ida nimalar bo‘ldi, kimlarni ko‘rsatdi, bilmaydi. Lutfinisa ko‘rinishi bilan yuragi orqaga tortib, ko‘zi tingan, quloqlari hech narsani eshitmay qo‘ygandi.

Lutfinisa tirikday ko‘rindi. U Azizxon oldida orqasi bilan yurib do‘ppisini qayta kiydirdi. Nimadir dedi. O‘shanda unga nima degandi?

Azizxon o‘tirgan joyida yerga singib ketgandek hech narsani sezmasdi. Ko‘z oldida faqat Lutfinisa qolgandi.

Kino tugab chiroq yondi. Hamma o‘rnidan turib Azizxonni qidira boshladi. Azizxon davradan chiqib ketgan, o‘z chodiri oldidagi omonat skameykada panjasini iyagiga tiragancha qimir-lamay o‘tirar edi.

Kinodan qaytayotganlar unga qarab, yasha polvon bola, xuddi o‘zingni tushiripti, deb olqishlaganlarga qaramas, niyatiga yetmay xazon bo‘lgan Lutfinisani o‘ylar edi. Endi uni yupatadigan To‘lanboy ham, Ikromjon ham yo‘q. Ular allaqachon Zirillamaga ketib qolishgan.

Lug‘umbek choyxonalarining so‘rilarida yana o‘yin-kulgi, hofizlarning xonishi boshlandi. Hamma bugungi ko‘rgan kino-si, qilgan ishlari, erta-indin bo‘ladigan katta to‘y to‘g‘risida allaqanday yayrab gaplashardi. Faqat Azizxon bu suhbatlarga, bu shodliklarga aralasholmay bir chetda, chiroq yoqilmagan chodir oldida aftodahol o‘tirardi.

Yana uning ko‘zi oldida Lutfinisani yetaklab chiqqan kuni-dan boshlab bosgan izlari, qilgan ishlari birma-bir o‘tardi.

Ikkovining qanchadan-qancha orzulari bor edi. Ikkovi qandoq baxtiyor edi. Shu kichkinagina, qisqagina vaqt uni bolalikdan, sho‘x, olov, faqat sho‘xlik bilan yomon otliq bo‘lgan, bebosh bolani yurt ko‘zida nomdor kishiga aylantirgan edi.

Mana shu o'tgan qaynoq kunlar, olam shodliklariga teng quvonchi odamlar xotiridan sira o'chmaydigan nom, somon yo'ldek olistarga chorlagan, yigitlik qalbini to'ldirgan sevgi daqiqalari, hammadan ham yurt ishiga yaroqli qilgan zavqli mehnat damlari yurakni o'rtovchi og'ir judolikdan xira tortardi.

Mana u nim qorong'i do'ng ustida yolg'iz o'y surib o'tiripti. Ko'zlaridan oqayotgan alam yoshlarini to'xtatolmas, hech qachon Lutfinisasi tasavvur qilolmagan ertangi kunni qandoq kutib olishni o'ylardi.

Azizxon uzoq vaqt ko'z yoshlariga erk berib qimirlamay o'tirdi. Adir orqasidan oy salmoqlanib ko'tarildi. Avval qip-qizil bo'lib ko'ringan oy asta bo'zarib rangini yo'qota boshladi. Sarg'imtil tusga kirdi, undan keyin ko'm-ko'k shisha tusiga kirib qoldi.

Azizxon ikki tizzasiga tiralib mashaqqat bilan o'rnidan turdi. Qayoqqa borishni o'ylamay do'ngdan tushdi. Asta keta boshladi. Allaqachon chirog'i o'chgan choyxona oldidan o'tdi. So'ri tepasidagi to'rqovoqda bedana tipirchiladi. Qovoq silkindi. Gilamga shitirlab don to'kildi. Novvoyxona tandirining pramonidan lop etib alanga ko'tarildi. Hamma yoqni birdam yoritdi-yu, yana so'ndi.

Azizxon hech qayoqqa qaramay bitta-bitta bosib ketardi. U Tuyachi mahallasidan o'tganda devorlari nuragan jimjit qabriston tepasidagi chinorda boyqush xunuk sayradi.

Azizxonning eti jimirlab ketdi. To'xtadi. Mana shu devorning naryog'ida Lutfinisa yotibdi. Azizxon hozir devor nahrasidan o'tib, hali giyoh o'smagan qabrni quchib o'kirib-o'kirib yig'lamoqchi. Dildagi alamlarini faryod urib chiqazmoqchi.

Muyulishdan chiqqan mashina chirog'i yalt etib uning butun gavdasini yoritib yubordi. Azizxon oldida paydo bo'lgan ikkita nurli doiraga bardosh berolmay qo'llari bilan ko'zlarini to'sdi. Mashina uning yonginasida to'xtadi. Eshik ochilib, baland bo'lyli bir kishi tushdi.

— Nima qilib yuribsan bemahalda?

Bu Usmonxo'jayevning ovozi edi.

Azizxon ko'zlaridan qo'lini oldi. Nima deyishini bilmay esankiradi.

— Chiq, mashinaga!

Azizxon bir so'z demay mashinaning orqa o'rindig'iga chiqdi. Usmonxo'jayev dimog'ida allaqanday bir kuyni xirgoyi qi-

lardi. U orqada Azizxon o'tirganini unutib qo'ygan, hamon o'z qo'shig'i bilan band edi. Birdan esiga tushib qoldi-yu, o'girildi.

– Bunaqa kechalarda devonalarga o'xshab daydib yurmagin.

– U Azizxonning nima niyatda yurganini payqagan edi. Gapi-ning bu yog'ini birdan aytolmay turib qoldi. – Chidamay ilojing yo'q. Qaytib kelsa boshqa gap edi. Sal esingni yig'ib ish tut.

Azizxon indamadi. Yo'lning bu yog'iga ikkovi ham indamay ketishdi. Mashina boya to'rqovoq silkingan choyxona oldida to'xtadi. Ikkovi tushishdi. Usmonxo'jayev shofyorga: “Sen yotib uxlayver”, – dedi-da, Azizxonni yetaklab novvoyxonaga kirdi.

To'rt-besh novvoy tapir-tupur qilib chakich urishar, iyagini qiyiq bilan bog'lab olgan novvoy, ichi laxcha cho'g' bo'lib turgan tandirga boshi bilan sho'ng'ib non uzardi.

– Eshon aka, kechroq yo'qlab qoldingiz? – dedi novvoy uzgan nonini savatga tashlarkan.

Usmonxo'jayev og'zining tanobi qochib javob berdi:

– Yangi mehmon ko'rdim, o'rtoq.

– Iya, iya, qutlug' bo'lsin! O'g'ilmi?

– Salomat bo'l. Qizaloq. Ishqilib umrini bersin. Poytuqdagi tug'ruqxonada, yaxshi gap eshitib ketay, deb kutib qoldim. Bitta achchiq ko'k choy damlanglar. Polvon bola bilan qaymoqlashaylik. Bolalarning onasi bilan ovora bo'lib tuz totiganim yo'q.

Tandir og'ziga qo'yilgan qumg'ondan choy damlab hozirgina uzilgan nonni ushatib qo'yishganda Usmonxo'jayev o'tirgan yerida mudrab xurрак ota boshlagan edi.

– E, turing, Eshon aka, choy sovub qoladi. Tuqqan ayammi yo o'zlarimi?

Novvoyning hazilidan Azizxon piqillab kulib yubordi. Usmonxo'jayev ko'zini ochdi.

– Choydan quy, bola!

Azizxon choy quyib uzatdi. Usmonxo'jayev qaynoq choyni ho'plab-ho'plab uyqusini qochirgandan keyin Azizxonga qaradi.

– Sen bolaning hech gapdan xabaring yo'q. Bugun Qizil Armiya Polsha chegarasidan o'tdi. Polsha hukumati German qo'shinlarining zarbasiga bardosh berolmay qochib ketdi. Hukumatimiz Polshaga o'tib qolgan Ukraina va Belorussiya yerlarini ozod qilish uchun armiyaga farmon berdi. U tarafda juda ko'p ukrainlar, beloruslar yashar ekan. Molotov radioda gapirib hammasini tushuntirib berdi.

Azizxon hushyorlandi. Entikib so'radi.

– Urush boshlandimi?

— Shunaqa desa ham bo‘ladi. Ammo armiyaga qarshilik qiladigan Polsha qo‘shinlari parokanda bo‘lib qolgan. Qo‘mondonni qochgan qo‘shinning qo‘lidan nima ish kelardi.

Azizxonning o‘sha taraflarga borgisi keldi. Shoshib so‘radi:

— Armiyaga odam olishadimi?

— Unisini bilmadim, — dedi Usmonxo‘jayev. — Yana kim biladi, deysan. Bo‘pti, qaynoq-qaynoq choy ich-da, borib yot. Ertaga qurilishda yer qazish tugagani to‘g‘risida raport beriladi. Hamma uchastkalarda miting bo‘ladi. VKP(b) Markaziy Komitetiga shoirlar she‘riy xat yozishgan, mitinglarda G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjonlar o‘qib berishadi. Soqol-poqollaringni olib, yaxshi kiyimlaringni kiyib, tayyor bo‘lib tur. Hamma nom chiqargan polvonlarni minbarga chiqarishadi.

Azizxon qo‘lidagi piyolani bo‘shatib, xayrlashib chiqib ketdi. To‘ppa-to‘g‘ri chodirga keldi-yu, o‘zini to‘shakka tashladi.

Allaqachon oy og‘ib ketgan. Chodir tirqishidan tong yorug‘ligi asta o‘rmalab kirardi.

IX

Azizxon kun bo‘yi yer parchin bo‘lib yotdi. U o‘zini boshi berk ko‘chaga kirib qolgandek sezardi. Bir haftaga qolmay kanalga suv ochiladi. Sharsharalardan, tashlamadan gurillab oqqan suv Qora daryoga quyiladi. Kuyganyorda yana yo‘li to‘silib, asosiy kanal orqali vodiy bo‘ylab oqib ketadi. Oftob tig‘ida yer qo‘porgan kishilar qishloqlariga qaytib, uylariga, bola-chaqalarining bag‘riga boradilar. Azizxon-chi? U qayerga boradi? Endi u Zirillamaga qaytmoqchi emas. Hamqishloqlari, nomard, Lutfini qayga tashlab kelding, deyishmaydimi? Axir Zirillama Lutfinisasiz unga o‘z ma‘nosini yo‘qotgan, bog‘lar, soy bo‘ylari, pastqam ko‘chalar, yulduz to‘la qishloq tunlari endi fayzsiz, ma‘nosiz unga.

Bularning barchasidan ko‘z yumib, nima bo‘lsa bo‘ldi, odamlar ikki-uch kun javrab, jag‘i tolgandan keyin barini unutishadi, deyish ham mumkindir? Ammo nikoh to‘yidan opqochib, osmoni falakdan baland baxt, oftobdan issiq muhabbat va‘da qilgani — Lutfinisa ona qishlog‘idan uzoqda, jimjit qabristonda qoladimi? Axir Lutfinisa Azizxon deb jonidan kechmadimi? Uni tashlab ketish mardlikdan bo‘larmikin?

Azizxon Lug‘umbekdan uzoqqa ketmaslikka ahd qilib qo‘ydi. Lekin bu yerda nima qiladi? Lutfinisa yonida bo‘lganda boshqa gap edi. Ikkovi o‘z xayollari, orzularidan tiklagan nurli qasr ichi-

da yashardilar. Endi u qasr qulagan, vayron bo'lgan. Yolg'iz o'zi qolgan. Yonida Tengdik bilan Beyshenali ham yo'q. Ikromjon bilan To'lanboy kolxozda paxta terimi bilan band. Har zamon kelib turadigan Jo'ra polvon ham hozir Buloqboshida. Birgina Eshon aka har zamon kelib holidan xabar olib turadi.

Azizxon kanalga suv quyilish kunini sabrsizlik bilan kuta boshladi. Kuyganyor to'g'oni tezroq bita qolsa edi, suv quyilardi. Ana undan keyin Azizxon Eshon akadan shu yaqin oradagi kolxozlardan birida qolib ishlashni so'raydi.

Azizxon shunday o'ylar bilan kechqurun chodirdan chiqdi. Hamma yoq jimjit.

Azizxonning yuragi siqilib ketdi. Shunday kezlarda, Lutfinisa yodi o'rtagan, yuragining tub-tubida o't yonayotgan paytlarda samovarlarni to'ldirgan kishilar bilan ovunardi. Qirg'iz bolalar uning dardini sezib qo'mizni qo'lga olib sho'x bir qo'shiqni boshlab yuborishardi. Azizxon ba'zan yuragini alam o'rtaganda uyquasi qochib chodirdan chiqardi. Birgina uyg'oq kishilar novvoylar oldiga borib, ular bilan gaplashib ko'nglini yozardi.

Endi novvoylar ham yo'q. Azizxon o'z alamlari bilan o'zi qolgandi. U kanal bo'ylarida ancha vaqtgacha aylanib yurdi.

Azizxon dunyoda bironta yaqin odami yo'q kishidek ezilib qaytarkan, chodir oldida birovning sharpasini sezdi. Kim bo'lishi mumkin? Ildam chodir oldiga keldi. Kursida tizzasiga tugun qo'yib bir ayol kishi o'tirardi.

— Kim? — dedi Azizxon hayronlikda.

— Men, men, polvon aka.

Bu Vaziraning ovozi edi. Azizxon undan ikki-uch qadam berida to'xtadi. O'zini yo'qotib, tili gapga kelmay qoldi. Bu xotin nima qilib o'tiripti? Unda nima ishi bor?

Chodir atrofi qorong'i. Qalin tollar orqasiga o'tib ketgan oying bu yerga nuri tushmasdi.

— Nima qilib yuribsiz? — deya oldi Azizxon.

Vazira javob qilmadi. Ohista o'rnidan turib tugunini kursiga qo'ydi. Ikkovi anchagacha so'zsiz turib qolishdi. Azizxon zarda bilan orqasiga burilmoqchi bo'lib turgandi, Vazira titrab-qaqshab gapira boshladi.

— Nahotki sezmasangiz? Axir bir oydirki, yurak-bag'rim yonadi. Axir siz yigit kishisiz-ku, qani erlingingiz, qani mardligingiz...

Keyingi so'zlar uning og'zidan yig'i aralash otilib chiqdi. Gapirolmay ho'ngrab yubordi.

Azizxon esankirab qoldi. Ho‘, o‘sha yaktagiga tugma qadagar oqshomdan buyon u Vaziraga ro‘para kelmaslikka, bo‘lib o‘tgar voqeani butunlay unutishga urinardi. Lekin baribir ba‘zi-ba‘zida xayolidan lip etib o‘tib qolardi.

Azizxon o‘zini kuch bilan bosdi. Asta unga yaqin kelib yotig‘i bilan gapira boshladi:

– Opajon, siz uyli-joyli xotinsiz. Unaqa aldamchi xayollarga bormang. Mendan nega umid qilasiz? Kechagina boshimga tog‘dek kulfat tushgan odamman. Bir odam men uchun jonini fido qildi. Nahotki uning xotirasi bir oy bo‘lmay unutilsa. Hali Lutfinisaning tuprog‘i sovugani yo‘g‘-a! O‘zingizni tuting!

Vazira yig‘idan to‘xtab qaddini rosladi.

– Azizxon aka, dunyoda hamma narsa unutiladi. Kim dunyodan toq o‘tibdiki, siz o‘tasiz. Sizni deb uyimni tashlab chiqdim. Hech qaytib bormas bo‘lib chiqqanman. Qayoqqa yur, desangiz – boraman. Dunyoning u burchagigacha borishga roziman. Faqat, faqat siz bilan bo‘lsam bo‘lgani.

Azizxon uning gapini bo‘ldi:

– Men hech qayoqqa ketmayman. Lutfinisani tashlab ketolmayman. Endi umrimni Lug‘umbekda o‘tkazishga qaror qildim.

Vazira unga tomon intildi. Yelkasiga qo‘lini tashladi. Barmoqlaridagi uzuklar tollar orasidan o‘tib tushgan oy tangalariga urilib chaqna ketdi. Azizxonning dimog‘iga qalampir munchoqqa omixta atir hidi urildi. Bir dam o‘zini yo‘qotib esankirab oldi. Yelkasidagi qo‘lni bilagidan ushlab asta olib qo‘ymoqchi bo‘ldi. Vaziraning qo‘llari otashdek qizigan, quloqlari ostida uning qaynoq nafasi ufurib turardi. Undan hiss-u hissiyot ota-shida kuyayotgan ayol isi kelardi. Azizxon qizib turgan yumshoq bilakni darrov qo‘yib yuborolmadi. Nega ushladi, nima qilmoqchi edi, unutib turib qoldi. Shunda ro‘parasiga Lutfinisa kelib turib oldi. Azizxon shoshib Vaziraning bilagini qo‘yib yubordi. Vazira hansirar, qisqa-qisqa nafas olardi. Azizxon seskanib ketdi.

– O‘zingizni bosing, opajon, – dedi u keskin tovushda.

Vazira yana uning yelkasiga qo‘l tashlab, ko‘ksiga boshini qo‘ydi. Uning to‘zg‘ib ketgan sochlari Azizxonning iyagiga urildi. Azizxon asta tirsagidan olib o‘zidan nari itardi. Azizxonning bu harakati ayolning izzat-nafsiga tekkandek bo‘ldi. Koptokdek sapchib nari ketdi. Hurpayib oldi. Endi u alamdand titrab-qaqshab gapirardi:

– Seni deb uyimdan, ro‘zg‘orimdan kechdim. Kechalari uxlamay seni o‘yladim. Yursam ham, tursam ham, ko‘z oldimdan

bir nafas nari ketmading. Endi meni arosatda tashlab ketmoqchimisan. Qayoqqa borsang, orqangdan soyadek ergashaman. Seni deb yo'linga jonini tikkan ne-ne o'ktam yigitlarni tashlab kelyapman. Nega boshingga qo'ngan baxt qushini kaltak olib quvlaysan. Senga vafodor xotin bo'laman degan, boshingga keladigan baxtni ham, kulfatni ham birga baham ko'raman, deb ahd qilgan ayolni, butun ayollik g'ururini oyog'ing tagiga tashlayotgan bir bechoraning ko'krigidan nega itarasan, noshukur banda. Bu ko'z yoshlar, bu nolishlarning uvoli tutmaydimi?!

Azizxon bu juvoning ichida shuncha gap borligiga, o'z niyatlariga yetishmoq uchun har qanday sinovga tayyorligiga hayron bo'lib qolgan edi. Azizxon tabiatan ko'ngilchan yigit, ikki og'iz gapdan yog'dek erib ketadiganlardan edi. Ammo Vaziraning gaplari qanchalik ta'sirchan, toshni ham eritadigan haroratga ega bo'lmasin, Azizxon Lutfinisa xotirasini oyoq osti qilolmasdi. Hozir uning Vazira tomonga bir qadam bosishi Lutfinisaning qabrini bosish bilan teng edi. U ehtiros olovida jizg'inak bo'layotgan juvonga yotig'i bilan tushuntirmoqchi bo'ldi:

— Menga qarang, axir men sizni umidvor qiladigan biron gap aytmagan bo'lsam, nima qilasiz o'zingizni ham meni ham qiynab. Axir men azador odamman.

Oy tollar orasidan o'tib chodirning old tarafini kunduzdek yoritib turardi. Vaziraning yelkalari, boshidagi zar ro'moli, qu-loqlaridagi baldoqlari yaltirardi. Ko'ylak burmalarini turtib turgan ko'kraklari qisqa-qisqa nafas olganidan tinmay qalqirdi.

Azizxon yigitlik hissiyoti girdobiga tushib qolmaslik uchun:

— Qo'ying! — dedi keskin tovushda, — Yaxshilikcha do'st bo'lib xayrlashaylik-da, qayta yuz ko'rishmaslikka so'z beraylik.

Ammo Vazira undan ko'ngil uzolmasdi. Ayollik nazokati, ishvalari bilan yigit qonini ko'pirtirmoqchi, yo'ldan toydirmoqchi bo'ldi.

— Shunaqa deng, — dedi u bo'shshib. — Men sizni yigit deb o'ylagan edim. Onangiz o'g'il bola qilib tug'maganidan bexabar ekanman. Qandoq qilay, peshanam shu ekan. Birovning ko'ngliga zo'rlik bilan ega chiqib bo'lmaydi. Xo'p mayli, xayrlashaylik.

Vazira shunday deb Azizxonning bo'yniga osilib, yuz-ko'zlaridan o'pa boshladi. Azizxon serrayib turar, dimog'iga endi na atir, na qalampir munchoq hidi kirardi. Uning yelkalariga, bo'yinlariga ayolning qaynoq ko'z yoshlari tomar, issiq nafasi iyaklari tagida sezilib turardi. Azizxon yengildi. Baquvvat bilak-

larini ayolning bellaridan o'tkazib o'ziga tortdi. Vazira yelkalari-
ni silar, to'zg'ib ketgan sochlarini uning bo'yniga o'rardi.

Bir payt Azizxon uyqudan uyg'onib ketgandek hushyor tort-
di. Ayolning belidan qo'lini shart oldi-yu, yulqinib bag'ridan
chiqdi. Xuddi mast odamdek gandraklab-gandraklab chodirdan
uzoqlashdi. To'xtadi. Keskin o'girilib Vaziraga qaradi.

– Keting, keting, bo'ldi!

Vazira yolvorgandek iltijo bilan u tomon qo'llarini cho'zdi.
Azizxon unga qaramasdi. Faqat bir so'zni qaytarardi.

– Keting! Keting!

Vazira joyidan qimirlamadi. Azizxon qo'l siltab qorong'ilik
qa'riga kirib ko'zdan yo'qoldi.

Vazira turgan joyida piq-piq yig'lar, rad qilingan, yuzaga
chiqmay xazon bo'lgan sevgi alamidan xo'rliqi kelib, boshi quyi
solinganicha taqdirini qarg'ardi.

Qanchalar ishq dard-alamlari bitilgan, ko'z yoshlari tomgan
maktublarni javobsiz qoldirgan, ne-ne bo'z yigitlarni oppoq tong
otguncha yulduzlarga tikilib oh urdirgan, ne-ne oshiqlarni rad
qilgan bu go'zal juvon, endi bir bo'z bolaning ikki og'izgina shi-
rin so'ziga zor bo'lib, qorong'ilik qa'riga umidsiz tikilib turardi.

Vazira bo'yiga yetib ko'zga ko'rinib qolgan yillari yigitlar
uning eshigi oldidan qo'shiq aytib o'tishardi. Shu topda o'sha
qo'shiqning bir bandi qulog'i ostida yangragandek bo'ldi:

Oh urarman, oh urarman,
Ohlarim tutgay seni.
Ko'z yoshim daryo bo'lib,
Baliqlari yutgay seni.

Bir vaqtlar uning ishqida yigitlarni qon-qon yig'latgan bu
qo'shiq endi o'z tilidan uchayotgandek, bag'rini o'rtayotgandek
bo'lardi.

X

Shahar tarafdin chiqqan bir yuk mashinasi yo'l berkligi uchun
chirog'ini o'chirib to'xtadi. Passajir poyezdi gurillab o'tib ketdi.
Azizxon shofyordan Poytuqqacha olib ketishini so'radi. Shofyor
uni tanir ekan, iljayib yonidan joy ko'rsatdi.

– Ha, polvon bola, hormang endi. Men sizni allaqachon
ketib qolgan, deb o'ylagan edim. Hali shatta ekansiz-da.

Azixxon kanalga suv qo'yilganidan keyin ketishini aytdi.

– Uchqo'rg'ondagi kurashda ko'rinmadingiz. Esli polvon rosa ish ko'rsatdi. Ikki polvonni urdi. O'tirganlar, oh, qani endi Aziz polvon bo'lgandami, Eshning bir jig'ini ezib qo'yardi, deb ko'p kutishdi. Hozir to'ppa-to'g'ri Poytuqqa borasizmi?

– Lug'umbekka boraman. Ayrilishda tashlab o'tsangiz bo'ldi, u yog'iga o'zim ketaveraman.

– Iya, qiziqmisiz, polvon. G'ildirak degan narsa aylanaveradi. Boradigan joyingizgacha oborib qo'yaman. Yo eshikka olib ketaymi? Xohlasangiz yuring. Gaplashib yotamiz. Shiyponga joy qilib beraman. Ertalab bir anjirxo'rlik qilamiz. Anjir rosa bo'lib bergan. Jonvorning shirasi oqib turipti. Asal deysiz, asal.

Azixxon minnatdorchilik bildirdi. Mashina Poytuq ayrilishiga kelganda to'xtadi. Shofyor kabinadan bosh chiqazib, kuzovdagi to'niga o'ralib o'tirgan yo'lovchiga qichqirdi:

– Xo', birodar, yetdingiz. Biz Lug'umbek tarafga ketamiz.

Yo'lovchi yigitning, men ham o'shaqqa, degan ovozi eshildi. Mashina yana silkinib yo'lga tushdi. Shofyor orqavoratdan Azizxon bilan tanishishni, bir yayrab gaplashishni diliga tugib qo'yganlardan ekan. Og'zi gapdan bo'shamadi.

– Hozir turgan joyingizni ko'rib kelaman, keyin bir kelib olib ketaman. Boqib yurgan bitta qo'zim bor, shuni so'yib bir mehmon qilaman. Ammo-lekiniga yo'q demaysiz. Suvratingizni ko'p ko'rganman, dovrug'ingizni ko'p eshitganman. Muni qarang, niyati xolis bolalardanman-da, o'zingizga ro'para kelib turipman. Yo hali ham bo'lsa eshikka qaytamizmi?

Bu payt mashina sovxoz ko'chasidan o'tib Tuyachi mahallasiga kirgan edi.

Azixxon shofyordan mashinani to'xtatishni so'radi.

– Bu yog'iga oyoqning chigilini yozib, piyoda ketay.

Shofyor noiloj tormoz berdi.

– Va'dangizni olib qolay, qachon gaplashamiz?

Azixxon qachon kelsangiz “Oq maktab”dan topasiz, deb u bilan xayrlashdi. Kuzovda mudrab kelayotgan yo'lovchi ham gup etib o'zini yerga otdi. Mashina devor-toshlarni yoritib burildi-da, orqaga qaytib ketdi.

Azixxon ikki qo'lini orqasiga qilib shoshilmay borarkan, notanish yo'lovchi unga ergashib qorama-qora kelardi.

Azixxon uni o'tkazib yubormoqchi bo'lib qadamini sekinlatdi. Yo'lovchi unga yonma-yon kelganda to'xtadi.

– Birodar, Azizxon degan polvon bolani qaydan topsam bo‘ladi?

Qorong‘i bo‘lganidan Azizxon uning betini ko‘rolmadi. Ammo ovozi juda tanish tuyuldi.

– Nima ishingiz bor edi? – dedi Azizxon qiziqib.

– Uchrashmoqchi edim. Atayin Marg‘ilondan kelyapman. Juda zarur gapim bor edi.

Azizxon darrov esladi. Bu Lutfinisaga uylanmoqchi bo‘lib to‘yi buzilgan kuyov Normat edi. Azizxon hushyor tortdi. Nima niyatda keldikin? Lekin uzoq o‘ylanib turmay:

– O‘sha siz yo‘qlab kelayotgan Azizxon men bo‘laman. Nima gapingiz bor edi? – dedi dadil.

Normat tasodifiy uchrashuvdan hayratlanib, darrov gapirolmadi.

– Yo‘g‘-e, muni qarang-a, o‘zingizmi?

– Ha, ha, – dedi Azizxon. – Gapingizni aytavering.

Normat go‘yo ularning gaplarini birov eshitib qoladigandek ovozi pastlatib asta dedi:

– Xotirjam aytadigan gap. Ammo juda zarur gap.

Azizxon Normatning Lug‘umbekka kelganini esladi.

O‘shanda u kattakon pichoqni uning oyog‘i tagiga tashlab, niyatimdan qaytdim, deb chiqib ketgan edi.

– Ha, – dedi Azizxon afsusli ohangda, – ahmoqlik qildim. Lutfinisani asrab qololmadim. O‘zimni o‘ylabman-u, undan xotirjam bo‘lib yuraveribman. Endi qanaqa gapingiz bor? Bo‘lar ish bo‘ldi. Lutfinisa tuproqda yotibdi.

Normat asta kelib uning bilagidan oldi.

– E, uka, hali sizning ko‘p gaplardan xabaringiz yo‘q. Bo‘lar ish bo‘ldi, o‘lgan o‘ldi, qolgan qoldi. Ammo mening boshimni baloga qo‘ydinglar. Shu kecha siz bilan gaplashib olaman-da, orqaga qaytaman. Menga javr bo‘ldi.

Ikkovi qorong‘ida ancha joygacha indamay borishdi.

– Menga qarang, – dedi to‘xtab Normat. – U yog‘iga men bormay qo‘ya qolay. Aytadigan gapimdi shatta aytib orqamga qaytay. Keling, o‘tiraylik.

Ikkovi yo‘l chetidagi ajriqqa o‘tirishdi.

– Bir haftadan beri meni melisa so‘roq qilyapti. Lutfinisani sen o‘ldirgansan, deb ayb qo‘yyapti. Yo‘q, desam sira ishonishmaydi. Bir hafta qamab, tilxat olib qo‘yib yuborishdi. Marg‘ilondan bir qadam ham nariga chiqmaysan, deb tayinlashgan.

Azizxon Lutfinisani u o'ldirmaganini biladi. Undan bekor shubhalanishibdi.

– Agar kerak bo'lsa, meni so'roq qilishsin, shundoq deb aytavering. Uni akasi Akbarali o'ldirdi. O'zi ham jazosini tortdi. Asfaldasofilinga ketdi o'ziyam.

Normat boshini ko'tardi.

– Nima dedingiz? Yo'q, yanglishibsiz. U tirik.

Azizxon sapchib o'rnidan turib ketdi.

– Nima?!

– Shundog', – dedi afsus bilan Normat. – Akbarali tirik. Endi u sizning payingizga tushgan.

– Tirik qolishi mumkin emas, – dedi Azizxon o'zining gapiga o'zi ishonqiramay.

Normatning yelkasiga oy nuri tushib turar, basharasi ko'rinmasdi.

– O'sha xunuk voqeani eshitib nima bo'ladi, deb tashvishlanib yurgan edim. Uch kunmi, to'rt kunmi o'tib, kechasi melisa olib ketdi. So'roq qildi. Men Marg'ilondan chiqmaganimni aytdim. O'sha voqea bo'lgan kuni samovarda edim. Kechasi o'n birlarda eshikka qaytib borgan edim. Samovarchidan, o'sha kuni choyxo'rlik qilgan jo'ralarimdan so'ranglar, dedim. Ulardan so'rashmabdi, paqqos, meni qiynashadi. O'tgan kuni qoq yarim tunda eshik tiqillab qoldi. Yana melisa olib ketgani keldi, deb diqqatim oshib chiqsam, Akbaralining qaynisi olazarak bo'lib turipti. Ichkariga olib kirdim. Qo'limga bir xat tutqizdi. Shoshib chiroqqa solib o'qisam, tezda yetib kel, deb yozipti. Qayoqqa boraman, deb so'ragan edim, qaynisi men bilan yuravering, dedi. Oldiga tushib indamay ketaverdim.

– Xat kimdan ekan? – dedi sabri chidamay Azizxon.

– Kimdan bo'lardi. Akbaralidan-da.

– Undan keyin qayoqqa bordinglar?

Normat entikib-entikib gapira boshladi:

– Katta ko'chaga chiqsak, tol panasida bitta eski emka mashinasi turipti. Ikkita qizil o'ttiz so'mlikka gaplashib qo'ygan ekan. Shu mashina bizni Oltinko'lga tashlab qaytib ketdi. Piyoda allaqanday qishloqlardan o'tib to'qayga kirdik. Qamish oralab ancha yurganimizdan keyin yalanglikka chiqdik. Qaynisi shu yerda qamish buzib qovun ekan. Tong oqarib atrof yorishib qolgan edi. Akbarali qumg'on tagiga o't qalayotgan ekan. Bizni ko'rib o'rnidan turmoqchi bo'ldi. Turolmay ingrab yana o'tirib qoldi. Uning a'zoyi badani ko'karib ketgan, yaktaginging ochiq

yoqasidan yelkalari bog'langani ko'rinib turardi. Birga nonushta qildik. Qaynisi arava qo'shib kechqurun uzib qo'ygan qovunlarini ortib jo'nab ketdi. Chaylada ikkovimiz qoldik. U mendan yorug' jahonda nimalar bo'layotganini so'radi. Men aytib berdim. U betimga qarab turib birdan:

– Sen o'g'il bola emassan, hezalaksan, deb qolsa bo'ladimi? Jon-ponim chiqib ketdi. Yevorgudek bo'lib betiga qaradim.

– Seni deb shu ahvolga tushib o'tiribman. Seni deb, singlimni chavaqlab tashladim. Seni deb qishloq betini, bola-chaqalarimni ko'rolmaydigan bo'ldim. Sen nima qilding? Niyatingdan qaytding. Qo'lingdagi pichoqni tashlading. Uyatsiz! Hezimekash! Bilasanmi, yalang'och suvdan toymas, deydilar. Qo'lga tushsam, peshanamdan otishadi, shundoq ekan, bittasini o'ldirdim nima-yu, ikkitasini o'ldirdim nima. Yaramas Azizni o'ldirmaguncha armonimdan chiqmayman. O'ldirmasam, go'rimda tikka turaman.

Akbaralining-ku, niyati ma'lum. Ammo men unga nega kerak bo'lib qoldim? Bilolmay hayron edim. Xo'sh, siz-ku uni o'ldirmoqchisiz, men nima qilay? Odam o'ldirish qo'limdan kelmaydi, dedim.

U indamadi. Yer chizib o'tirdi. Keyin betimga afsuslangandek qaradi.

– Shundaqami? Chuchvarani xom sanabsan, Azizni sen o'ldirasan. Agar uni o'ldirmasang, seni o'zim o'ldiraman.

Jon-ponim chiqib ketay dedi.

– Sal kuchga kiray, mendan qutulib bo'pti, u yaramas.

Akbaralining ko'zlari chaqnardi. Alamiga chidamay o'rnidan turib ketmoqchi bo'lardi-da, yana ingrab joyiga o'tirib qolaridi. Chaylada ikkovimizdan boshqa hech kim yo'q. Atrof shovillagan to'qay. Qayoqdan ham qaynisiga ergashib keldim, deb o'zimni o'zim so'kaman. Axir men bu ishlarga nega aralashib yuribman? O'z alamim o'zimga yetmasmidi? Qarindosh-urug', mahalla-ko'y, guzarga sharmanda bo'lganim kammidi? Endi bir kamim odam o'ldirishmidi? E, Xudo, qandoq kunlarga qoldim, deyman.

Akbaralining fe'li menga ma'lum. U yaramas, bir kun emas bir kun o'ldirib ketishdan ham toymaydi.

Akbarali boshini ko'tarib qat'iy qilib dedi:

– Uch kun yo to'rt kunda o'zimga kelaman. Odam borishini kutmay shatga kelasan. Ikkovimiz borib uni bir yoqlik qilamiz. Gap shu. Agar yo'q desang, yo sotib qo'ysang, bu dunyo bilan xayrlashaver.

Shu gapni eshitib ko'zlarim tinib ketdi. Unga yolvorish, o'tinib tavba qilishning foydasi yo'q edi. Ko'nishdan boshqa ilojim yo'q. Xo'p, dedim. O'sha kuni tushga qolmay orqaga qaytdim. Ikki kundan beri o'ylayverib boshlarim yorilib ketay dedi. Uxlasam ham, ko'zimni ochsam ham, allaqanday azroillar to'g'rimda turib oladi. Oxiri o'ylab-o'ylab bu gaplardan sizni xabardor qilishga ahd qildim. Kechlatib yo'lga chiqdim, mana, bo'lgan gap shu, akasi.

Azixxon bu gaplardan hang-mang bo'lib qoldi. U yoq-bu yoqqa asabiy yurib so'kindi. Oxiri bir fikrga kelgandek, yurishdan to'xtadi. Normatning to'g'risiga kelib turib oldi.

— Bir yaxshilik qilasiz, aka. Hozir men bilan borasiz. Akbaralining oldiga olib borasiz. Hoziroq olib borasiz.

Normat hayron bo'lib qoldi. U Akbaralining ko'ziga ko'rinmoqchi emasdi. O'zini charchaganga solib ko'rди. Azizxon gapida turib oldi.

Hali tong otishiga ancha bor. Oy ancha og'ib qolgan. Azizxon Normatni qo'lidan ushlaganicha katta yo'l o'rtasida sudragandek shitob bilan borardi.

— Hoy, sekin, sekinroq yuring, uka, men charchaganman. Ikki kundan beri uxlamayman-a!

Azixxon uning gaplariga quloq solmas, ko'zlaridan o't chaqnab, g'azab otashida kuyib-yonib yugurar edi.

XI

Qaynisi bir arava qovun ortib tong qorong'isida bozorga ketib, Akbaralining o'zi chaylada yolg'iz qoldi. U kuni bilan chayladan chiqmas, poxol ustiga to'shlangan eski ko'rpada u yoqdan-bu yoqqa ag'darilib o'ylagani o'ylagan edi. Uning bu yerga kelganiga ham ancha bo'ldi. Gaplashadigan biron odam yo'q. Qaynisi bozorga ketganicha kechlatib yegulik u-bu olib qaytadi. Kechasi ham u bilan gaplashgani qo'li tegmaydi, yetilgan qovunlarni uzadi, yig'adi, jo'yakka suv ochadi, yarim kechasigacha urinib, yotadi-yu, darrov uxlab qoladi. Ertalab nonushta ham qilmay jo'nab ketadi.

Bugun Akbaralining tushiga marhuma onasi kripti. Egnida allaqanday juldur ko'ylak, sochlari to'zg'ib ketgan emish. O'g'liga o'pkali qarab, nega singlingni yubording, endi o'zing kel, de-yarmish.

Akbarali uyqudan juda lanj uyg'ondi. Xuddi onasining arvo-
hi shu atrofda chirqillab aylanib yurganga o'xshayverdi. Yuragi
siqilib tashqariga chiqdi. Atrof jimjit. Bu yurakni siqadigan jim-
likdan u dod deb yuboray dedi. Birdan uyiga, bolalarining oldiga
borgisi keldi. Ular nima qilishayotganikin? Qaynisi opamga xa-
bar qilaymi, deganda u rozi bo'lmagandi. Xotin kishining ko'ngli
bo'sh bo'ladi, ichida sir yotmaydi, deb qo'rqan edi. Endi bo'l-
sa o'sha tarafga borgisi kelib, birpas bo'lsa ham tug'ilib o'sgan
uyini, onasining qo'li tekkan buyumlarni ko'rgisi keldi. Biroq
u taraflarga endi umrbod yo'l berkilgan edi. Akbarali shularni
o'ylaganda siqilib ketar, bu ishlarga sababchi bo'lgan Azizxonni
g'ajib tashlagisi kelardi. Singlisini o'ldirgan tunda u Azizxonga
dush keldi. Nega unga pichoq sanchmadi? Nega qo'li qaltiradi?
O'sha tundagi yegan kaltagini eslaganda tishlari g'ichirlab, tani
larzaga tushardi. Azizxon uni to'nkaga otib urdi. Undan keyin
nima qildi, Akbarali eslayolmasdi. O'ziga kelganda daryo cheti-
dagi qumda yotardi. Og'riq azobidan ingrab ko'zini ochganda,
tong yorishib qamish popuklari oftob tig'ida lov-lov yonayotgan-
ga o'xshab ko'zni olardi. Uning tani zirqirab og'rir, ayniqsa beli
shunday og'rirdiki, aslo chidab bo'lmasdi. Kiyimlari ho'l. Xuddi
yonginasida daryo suvi ko'pirib, buralib-buralib oqardi. Bu yerga
qanday kelib qolgan, buni u bilmasdi.

Pishqirib oqayotgan daryo to'lqinlari uni allaqancha joyga-
cha oqizib kelib qumga irg'itib tashlaganidan bexabar edi.

Akbarali ming mashaqqat bilan o'rnidan turdi. Atrofga qa-
radi. Notanish joylar. Uzoqdan qandaydir kuy eshitalardi. Quloq
soldi. Qanday kuyiligini bilolmay qirg'oqqa chiqishga intildi. Tiz-
zasi bukilmay pastga quladi. Ildizga osilib qoldi.

— Hoy, ehtiyot bo'l, bola. Daryo bilan hazillashib bo'lmay-
di-ya!

Akbarali qo'rqib ketdi. Kim bu? Bu ovoz qaydan keldi?

U ildizlarga osilib-osilib tepaga chiqdi. Yovvoyi jiyda orqasi-
da bir chol belkurak bilan aravaga qum tashlardi. Akbarali unga
hayron bo'lib qaraganicha qoldi.

— Nima qilib bu taraflarda ivirsib yuribsan, bola, — dedi chol
ishidan to'xtamay.

Akbarali indamadi. Chol uni baliqchilardan bo'lsa kerak,
deb gumon qildi shekilli, iljayib so'radi:

— Qalay, ilinaman deydimi? — deb qoldi.

Akbarali uning gapiga tushunmay hamon tikilganicha turar-
di. Shamol to'g'on tarafdin yana boyagi kuyni olib keldi. Chol
o'sha tarafga quloq tutib boshini sarak-sarak qildi.

– Joni jannatda bo‘lsin! Kanalga suv quyilganini ko‘rmay ketdi-ya!

Akbarali uning gaplariga tushunmadi. Chol gapira boshladi:

– Bir istaxanopchi qizni kechasi bitta yaramas o‘ldirib ketibdi.

Akbarali bir chayqaldi, gandraklab-gandraklab jiyda tanasiga suyanib qoldi.

– Bola bechoraning umri qisqa ekan.

Akbarali kecha qilgan ishining butun dahshatini endi sezdi. Tanidagi titroqni yashirish qiyin edi. Asta sirg‘ilib yerga o‘tirib qoldi. Chol uning ahvolini ko‘rib hayron qarab turardi.

– E, yoshlar-a, yoshlar-a, shu ichkilik senlarni bir kunmas, bir kun xarob qiladi. Ichkilikka muncha ruju qilmasalaring. Ik-kita qiltiriq baliq tutish bahona ichishga pana joy qidirasanlar. Mana, sheriklaring mast-alast qilib, tashlab ketibdi-ku. Bo‘ri yeb ketsa nima bo‘lardi? Bilasanmi, bu taraflarda naq eshakdek keladigan bo‘rilar bor-a. Tag‘inam Xudo bir asrabdi. Araq degan o‘lgur shishaning ichida jim turadi. Hamma hunarini shishadan chiqqandan keyin ko‘rsatadi. Sho‘r daryoni ham yutaman, degan ne-ne zo‘rlar shisha tagiga yetolmagan.

Cholning qo‘li belkurakda aravaga qum tashlar, tili gapdan to‘xtamasdi.

– Bilasanmi, bu daryoda yiliga nechta o‘lik oqadi? Sanab sanog‘iga yetolmaysan. Bitta qarmoqni ko‘tarib baliq tutaman deb kelishadi, jindek ichib olgandan keyin zo‘rligi tutib, narigi yoqqa suzib o‘tgisi keladi. E, bunaqalardan qanchasini suv yutgan.

Chol “Yashil ko‘prik” tomonga yana bir qarab oldi.

– Qaysi uying kuygurning qo‘li bordi ekan, tig‘ urishga. Hukumat anoyi emas. Topmay qo‘ymaydi. Topadi. Bunaqa oqpadar, kallakesarlarning peshanasidan otish kerak.

Akbarali ko‘zini undan olib, oyog‘ining tagiga qaradi. Shunda bir poy etigining yo‘qligini bildi. Chol qumni ortib bo‘lgan, cho‘nqayib shaloplab oqayotgan loyqa suvda betini yuva boshlagan edi. Akbarali ovozidan titroqni sezdirmaslikka urinib asta so‘radi.

– Ota, manavi yo‘l qayoqqa olib boradi?

– E, sho‘ring qursin. Rosa piyonista ekansan. Kelgan yo‘lingni ham bilmaysan-a. Manavi yo‘l Kuyganyorga, manavi qirg‘oqdan ketgan yo‘l qamish oralab Oltinko‘lga, Chinobodga olib boradi. Arava yurolmaydigan yo‘l bu. Piyoda qatnaladi.

Mast nima-yu, ko'r nima. Undoq desam, ko'r ham bir mar yurgan yo'lini topib ketadi. Ammo, mast topolmaydi.

Chol ot jilovidan olib, chu, dedi. Ot kuchanib aravani yuq riga tortib ketdi. Akbarali unga angraygancha qarab qoldi.

Yolg'izoyoq yo'l Oltinko'lga olib borsa, Akbarali uchun ayn muddao. Uning qaynisi shu tarafda to'qaydan yer ochib qovu ekkkan. U Kuyganyorga kelishidan ikki kun oldin qaynisining ol diga ot bilan kelgan, chaylada bir kecha yotib qishloqqa ikk xurjun qovun olib ketgan edi. Akbarali sevinganidan bir oyog'i da qolgan etikni yechib tashlashni ham unutib, oqsoqlanganicha qamishlar oralab ketdi.

Kun peshindan oqqanda to'qay tugab, yalanglik boshlan-di. Qamish buzib, ochilgan yerlar bo'lsa kerak, ekilgan g'o'zalai zahkashlik qilib ola chiqqan, bir-ikki qarich bo'lib ko'sak tukkan edi. Uzoqda ikki-uch ayol beliga etak tutib paxta terib yuripti. Akbarali ularning ko'ziga tushmaslik uchun o'zini yana qamish orasiga oldi. Nima qilishini bilmay uzoq turdi. Qayerdandir teztez mashina gurillagani eshitilardi. Demak, yaqin orada katta yo'l bor. Nima bo'lsa ham kech kirishini kutish kerak. U yon so-atini olib qaradi. Ichiga suv kirib to'xtab qolgan ekan. Shimining yon cho'ntagidan charm hamyonini oldi. Ochgan edi, ichidan bir hovuch suv to'kildi. Unda sakson so'mga yaqin pul bor edi. Ivib ketibdi. Akbarali biron kunimga yarab qolar, degan niyatda pullarni olib oftobga yoydi. O'zi pullarga tikilganicha ikki tizza-sini quchoqlab to kun botguncha qimirlamay o'tirdi. Qorni och, tanasi kechqurungi kaltaklardan hamon zirqirab og'rir, uyqusizlikdan vujudi karaxt, ho'l qumda yotib qolganidan bellari chidab bo'lmas darajada og'rirdi. Akbarali bu og'riq, bu karaxtliklarga sabot bilan tishini tishiga qo'yib chidardi. U kechagi bo'lib o'tgan ishlarni o'ylamaslikka, o'zini alahsitishga urinardi.

To'qay ustiga tun qorong'iligi asta bostirib kelayotgan paytda u qamishlar orasidan chiqdi. Boya mashina ovozi kelgan tarafga yura boshladi. Yo'l yaqinginada ekan. Onda-sonda ot yo eshak mingan, goho velosiped egariga bedami, o'tmi ortgan kishilar uchrardi. Qorong'i tushganidan birov-birovni tanimasdi. Akbarali razm solib qarasa, bu Andijondan Oltinko'l orqali Chinobodga o'tadigan katta yo'l ekan. U Oltinko'l guzariga yetmay o'ng tarafga burildi-da, qaynisining polizi tarafga qarab ketdi.

Chaylada fonar miltirardi. Atrofni qovun hidi tutib ketgan. Chayla oldidagi guvala o'choqdan buralib-buralib tutun ko'tariladi. Qaynisi cho'nqayib o'tirib nimadir qilyapti.

Odam sharpasini sezgan kattakon oq it chayla orqasidan o'q-dek otilib chiqdi. Akbarali cho'chib ketdi. Qaynisi o'rnidan turib it yugurib ketgan tarafga qaradi. It Akbaralidan ikki metrcha narida to'xtab, old oyoqlari bilan yer timdalab hura boshladi. Akbarali jon achchig'ida Ali, Ali, deb qichqirdi. Pochchasining ovozi tanigan yigit yugura kelib itni quvib yubordi.

– Iya, pochcha, nima qilib yuribsiz?

Akbarali, ot mashinadan hurkib olib qochdi, deb bahona qildi.

Ana o'sha kundan beri Akbarali chaylada. Qaynisi qishloqqa tushganda nima gapligini bilib chiqdi. Ammo Akbarali unga, mening bu yerdaligimni hech kim bilmasin, opangga ham aytna, deb tayinlagan.

Hozir Akbarali bo'lgan voqealarni eslab endigi ishlariga reja tuzish bilan band. Indinga Normat keladi. Ana unda ikkovi bir bo'lib Azizxonni bir yoqlik qilishadi. Shundagina u alamidanda chiqadi. Keyin boshi oqqan tarafga ketadi. Olam keng, biron joyda rizqini terib yeb yuraveradi.

Akbarali endigi hayotini ana shundan tasavvur qilardi.

U yaktagini yechib chayla orqasidagi oftob qizdirgan tuproqqa haligacha og'rib, jonini qiynayotgan yonboshini bosib yotgan edi, zanjirdagi it bezovta hura boshladi. Akbarali bironta odam kelyapti gumon qilib, jon talvasasida o'rnidan turdi-yu, yo'lga qaradi. Yolg'izoyoq yo'l boshida bir odam kelardi. Akbarali tikilib qaradi. Qaradi-yu, yuragi shuv etib ketdi. Bu Azizxon edi. Akbarali belbog'iga qo'l yubordi. Azizxon shoshilmay kelardi. Akbarali besh-o'n qadam oldinga bosib to'xtadi. Qochsamikin, degan o'y xayolidan yalt etib o'tdi. Biroq u qochishni o'ziga ep ko'rmadi. Nima bo'lsa bo'ldi, bu oxirgi to'qnashuvim bo'ladi, deb qat'iy o'yladi. Azizxon ellik metrcha masofaga kelib qolgan edi. Zanjirdagi it tinmay akillar, yer timdalab tuproqni to'zg'itardi.

Akbarali Azizxonga qarab g'azab bilan qichqirdi:

– Yaqin kelma, kelma, joningdan umiding bo'lsa, yaqin kelma!

Azizxon pinagini buzmay unga tomon kelardi. Akbarali keskin burildi-yu, kelib itni zanjirdan bo'shatdi.

– Bos. Qoplon!

It shamoldek uchib ketdi. Uning orqasidan Akbarali bos, bos, deb ovozi boricha qichqirardi. It bir yarim metrcha beridan Azizxonning betiga sapchidi. Azizxon epchillik bilan

qo'lini oldinga uzatib orqaga sal chekindi. Shunda panjalari itning kekirdagidan qopqondek qisib qoldi. Azizxon ikkinchi qo'li bilan orqa bo'ynidan tutdi. It yag'rini bilan yerga gurs etib tushdi. Azizxon shu topning o'zidayoq etigi bilan itning tomog'idan bosdi. It xirillab to'rt oyog'ini baravar silkita boshladi. Azizxon kuchining boricha tomog'idan bosardi. Akbarali qo'lida pichoq bilan unga yaqinlashib qolgan edi. Azizxon it tomog'idan oyog'ini oldi. It xirilladi. Boshini ko'tarib arang o'ngarildi-yu, xuddi is tekkandek sudralib chayla tarafga keta boshladi. Akbarali Qoplonni ko'rib to'xtadi. Yuragi shuv etib ketdi. Azizxon u tarafga tishlarini g'ichirlatib borardi. Akbarali orqasiga chekindi.

– Kelma, yaqinimga kelma!

Azizxon unga yaqin kelib qoldi. Akbarali birdan shart burildi-yu, orqasiga qarab qocha boshladi. Chayla yaqiniga yetganda qumg'onga qoqilib yiqildi. O'rnidan turib Azizxonga qaradi.

– Bizni xonavayron qilganing yetmaganmidi. Yana nima qasding bor?

Bu gaplar Azizxonning qulog'iga kirmas, alam-sitam bilan u tomon borardi. Birdan Akbaralida kuch paydo bo'lgandek dadil-lashdi. Azizxon tomon bir-ikki qadam bosdi.

– Xo'sh, niyatingni ayt? – dedi butun g'azabini, nafratini to'kib.

Azizxon indamadi. Ko'zlari chaq nab unga tikildi. Uning bu qarashida yaqin bir oy ichida tortgan iztiroblari, to'lg'anib chiqqan uyqusiz tunlari, yetolmagan orzularining alami bor edi.

Akbarali hansirar, panjalari pichoq dastasiga shunday qattiq qisib ushlagan ediki, bo'g'inlari ko'karib, qon talashib ketgan edi.

– Joningdan umidingni uz, jallod! – deb baqirdi Azizxon.

Akbarali pinagini ham buzmadi. Uni ermak qilgandek baq-rayib qarab turaverdi.

– Bir marta qo'limdan omon qutulib ketgan eding. Bu oxirgi uchrashuvimiz.

Akbarali unga yeb yuborgudek bo'lib o'qraydi.

– Chuchvarani xom sanabsan, iflos. Meni onam o'g'il bola qilib tuqqan. Birovning qo'lida jon beradigan anoyilardan emas-man. Meni otam dunyoga keltirgan, ammo bu dunyoda turishim ham, ketishim ham o'z ixtiyorimda!

Azizxon endi gapirmadi. Qo'llarini oldinga cho'zib unga tomon intildi. Shunda birdan Akbarali tutib turgan pichoqni o'zining yalang'och ko'ksiga sanchdi.

– Mana, mana!

U pichoqni shart sugʻurdi-yu, kindigi tepasidan suqib koʻksiga tomon zarba bilan tortdi. Azizxon qon sizib chiqayotgan qoriniga qarayolmay beixtiyor orqaga chekindi. Endi uning qoʻlidan pichoq tushgan, oʻzi chayqalib turardi. Gavdasini tutolmay boshi Azizxon tomonga oʻgirildi.

– Xudoyimga ming marta shukur. Dushmanimga oyoq osti boʻlmay, tigʻini tanimga tegizmay ketyapman...

U shunday dedi-yu, yonboshiga yiqildi.

Azizxonning koʻz oldi qorongʻi boʻlib ketdi. Oyoq-qoʻli boʻshashib gindirakladi. U shu alpozda qancha turdi bilmasdi. Yaqin oradagi toʻqaydan oʻq ovozi eshitildi. Kimsasiz qamish-zorda ovozi qaldirab, ancha vaqtgacha aylanib yurdi. Oʻq ovozidan choʻchigan bir gala oʻrdak hushtak chalgandek chiyillab, chayla tepasidan oʻtib ketdi.

Azizxon asta burildi-yu, boya kelgan tarafga asta keta boshladi. Akbaraliga roʻpara boʻlishga yuragi dov bermay jiyda orqasida qolgan Normat boyadan beri boʻlgan voqealarni koʻrib, oyoq-qoʻlida darmon qolmay, qalt-qalt titrab uni kutib turardi.

Azizxon unga qaramay oʻtib ketdi. Toʻqay orasiga kirganda Normat orqada qolib ketgandi.

Birdan Azizxonning oʻpkasi toʻlib tomogʻiga bir nima qadal-gandek boʻldi. Xoʻrsinib-xoʻrsinib, oʻkirib yigʻlab yubordi.

Qamishlarni qayirib, qulagan jiyda toʻnkalariga qoqilib bo-rarkan, koʻzlaridan duv-duv yosh oqardi.

XII

Suvga toʻymagan daraxtlar tagida xazon oralab qoldi. Ipak-dek yaltiroq mezon iplari shoshilmay uchib keladi-da, daraxtlar boʻyniga osiladi. Tong sahar tushgan shabnam to oftob yalab olguncha maysa qiyoqlarida titrab turadi.

Bogʻlardan behi hidi keladi. Dehqon chaylasi tepasida qip-qizil qalampir shodasi oftob tigʻida lov-lov yonadi. Osmoni falakda hakka yongʻoq otib oʻynaydi. Ogʻzidan tushirib yuborgan yongʻoqni ilib ololmaydi, tunuka tomga taraqlab tushishini alam bilan kuzatib qoladi.

Azizxon shabnamdan ogʻirlashgan tuproqdan asta yurib bo-rardi. Haqqulobodning pastqam koʻchalari sokin. Guvala devor-larga tirsagini qoʻygan olma shoxlari qisirlaydi. Oldi shox-shab-ba bilan toʻsilgan chorboqlardan mevasini koʻtara olmay qaddi

bukilgan anorlar, so‘rilarga terib tashlangan oshqovoq, qirqma qovunlar ko‘rinadi. Bir kampir lippa urib tandirga g‘o‘zapoya qalab gugurt chaqdi. Tandır pramonidan avval ko‘m-ko‘k tutun burqsib, keyin lop etib alanga sapchidi. Yoshgina bir juvon dorga kir yoyadi. O‘rta yashar xotin ko‘ylak yenglarini bilagigacha shi marib, to‘q-to‘q qilib kelida sholi oqlaydi.

Bu uylar, odamlar, chorboqlar Azizxonga qadrdon uyini eslatdi. Dadasi ham unga sholi oqlatib, o‘zi ko‘zoynak bilan kurmak terardi. Onasi tandirga o‘t qalab to u oqarguncha supada kaftlarini iyagiga tiragancha nimalarnidir o‘ylab o‘tirardi. Sholi oqlayotgan xotinga qarab turib Azizxon beixtiyor iljaydi.

U dadasining qiyin-qistovidan keyin, kelini hovliga opchiqib zarda bilan dastani to‘qillatib “sholi” oqlardi. Dadasi uning dastani zarb bilan urishini ko‘rib:

– Hoy, sekin, asta-asta ur. Kelini yorvorasan, – deb yolvordardi.

Azizxon bir gal shunaqa sholi oqlashda dastani shunday kuch bilan urgan ediki, tut to‘nkasidan qilingan keli ikkiga ajralib ketgan edi. Shunda dadasi, qachon odam bo‘lasan, deb uni ostonagacha quvib chiqqandi.

U jimjit qishloq ko‘chasidan shoshilmay kelarkan, hassasi-ning uchi bilan yo‘l chetlaridagi qog‘oz parchalarini titib kelayotgan cholga ko‘zi tushib to‘xtadi. U bukchayib qolgan bo‘lsa ham qo‘lidagi hassaga og‘irligini tashlamas, juda yengil yurardi. Azizxon unga salom berib, Esh akaning uyi qayda, deb so‘radi. Chol yuraver, deb ishora qildi-yu, boyagicha yo‘lda uchragan qog‘ozmi, gugurt qutisimi, hassa uchida titkilab yo‘lida ketaverdi. Muyulishga yetganda hassasi bilan ikki tavaqali eshikning bir qanotini itarib ichkariga qichqirdi:

– Ho, Eshmuhammad! Eshmuhammad hoy, bolam, mehmon keldi, baqqa chiq!

Ichkaridan, labbay, degan ovoz chiqqandan keyin chol yana yo‘liga ketaverdi. Yerda yotgan bir burda nonni olib ko‘ziga surtdi, paxsa devor kovagiga qo‘yarkan, to‘ng‘illadi.

– Ha, bolasi tushmagurlar-a, bolasi tushmagurlar-a!

Eshik orqasida gurs-gurs qadam tovushi keldi, zum o‘tmay ostonada Esh polvon ko‘rindi. U Azizxonni ko‘rib hang-mang bo‘lib qoldi. Nima deyishini bilmay, iya, anavini qarang, iya, iya, deyardi, xolos.

Ikkovi bir muddat hayron qarab turishgandan keyin Esh polvon uni qo‘lidan siqdi:

– Ke, ke, uka? Tinchmisan, omonmisan? Zap kepsan-da. Qani, qani, ichkariga kiraylik.

Azizxon kirishga unamadi. Xayrlashib ketmoqchiligini aytdi.

– Jinni bo‘ldingmi, Esh akangnikiga kelgan mehmon bir piyola choyini ichmay ketgan emas.

Azizxon ko‘nmadi.

– Shatta jindek o‘tirib gaplashaylik, aka, – dedi.

Esh polvon noiloj yo‘lak oldidagi supaga o‘tirdi, yonidan unga joy ko‘rsatdi. U Azizxonning betiga qarab o‘ylanib qoldi. Azizxon u ko‘rgan kundan beri butunlay o‘zgarib ketganga o‘xshab tuyuldi. Yuzlari cho‘zilib, ko‘zlari sal ichkariga cho‘kkandek, iyaklari bo‘rtib qolgandek. Azizxon u ko‘rgandagi norasta bolaga o‘xshamasdi. Bosiq ovozida, o‘ychan boqishlarida yurt ko‘rgan, tirikchilikning achchiq-chuchugini totigan erkak nuqsi sezilib qolgandi.

– Xo‘sh, gapir! – dedi Esh polvon.

Azizxon peshanasini uqalab gapni nimadan boshlashni bilmay andak o‘ylanib turdi-da, gapira boshladi:

– Esh aka! Tentak ukangizni kechira olasizmi?

Esh polvon nimadir demoqchi bo‘lib labini gapga juftlagan ham ediki, Azizxon uni gapirgani qo‘ymadi.

– Yo‘q, avval ayting, kechira olasizmi? Men sizni ko‘p qiyadim. Davra to‘rlarida yurgan, birovgga so‘zini bermagan sizdek odamni yurt oldida uyatga qo‘ydim.

Esh polvon yalt etib unga qaradi.

– Esi yo‘q bola ekansan. Nahotki, Esh akangning kimligini shu paytgacha bilmading. Fe‘lim shundoq, bir pov etib yonaman-u darrov o‘chaman. Aksincha, sen meni kechirishing kerak. Nodonlik qilib qo‘yib, pushaymonim ichimda edi. Mana bugun ko‘zingga qarab turib aytyapman.

Azizxon shu paytgacha Esh polvonni yuragida gina saqlaydigan odam deb yurardi. Uning hozirgi aytgan gaplaridan juda ta’sirlanib ketdi.

– Aka, – dedi u ko‘zlari yashnab, – Men endi ketyapman. Ehtimol qayta yuz ko‘rishmasmiz. Ko‘nglingizda mendan bir xiralik qolmasin, deb atayin xayrlashgani, uzr aytib ketgani keldim.

Esh polvon qayoqqa deb so‘ramadi. Uning yelkasiga qo‘lini qo‘yib, mehribon bir tovushda ta’sirlanib, dedi:

– Ukajon, qayda bo‘lsang omon bo‘l. Boshing toshdan bo‘lsin. Men ko‘p davralarda bel olishganman. Yiqitganman, yiqil-

ganman. Polvonchilik ham bir omad ish. Yiqitsang poshshosan, yiqilsang bir-ikki kun ich-etingni yeb yurasan-u, yana kurashni qo'rsab qolasan.

Azizxon uning gaplarini indamay eshitdi.

– Bir iltimosim bor. Ertaga Maygirda kurash bor. Shunda oxirgi marta bel olishsak. O'lay agar, turib beraman. Bir yiqitib xumordan chiqing. Men ham xotirjam bo'lay. Shunday qiling, aka!

Esh polvon bosh chayqadi.

– Sendek azamatni yiqitadigan polvonning bo'yni uzilsin. Bu gapingni qaytib ol. Aslo yelkang yer iskamasin. Davradan bosh egib chiqqulik qilmasin, Xudoyim. Roziman, ming marta roziman sendan.

Azizxon shart o'rnidan turdi-yu, Esh polvonni supadan yulib oldi. Belidan baquvvat bilaklarini o'tqazib yerdan uzdi. Ikki aylantirib yerga qo'ydi. Qo'ydi-yu, bag'ridan bo'shatmadi. Yuzlarini yelkasiga ishqab turib qoldi. Shunda yaktagiga Azizxonning ikki tomchi ko'z yoshi tushdi.

Esh polvon uning bu bolalarcha qiliqlaridan ta'sirlanib ketdi.

– Bo'ldi, bo'ldi, tentak. Bolamisan, deyman, bo'ldi.

Azizxon uni bag'ridan qo'yib yuborib, yuzini teskari o'girdi.

– Xayr endi, aka.

Azizxon orqasiga qaramay jadal yurib ketdi. Esh polvon nimadir demoqchi bo'ldi, aytishga ulgurmasdi.

Azizxon ko'prikdan o'tib, tut nihollari orqasida ko'rinmay ketgan edi.

Oftob yoyilib, yerdan shudring ko'tarilgan. Ertalab kiyilgan to'nlar endi buklab yelkaga tashlangan payt edi. Azizxon qachonlardan beri dilini ezib yotgan g'amdan qutulgandek, yengil yurib katta yo'ldan ketmoqda edi. U biron odam orqasidan yomonlab gapirishini istamasdi. Hech qayda o'zidan yomon xotira qoldirgisi kelmasdi. Tortgan ozorlar uni shunaqa qilib qo'ygan edi. U shu topda kimning diliga ozor bergan bo'lsa, oyog'iga yiqilib uzr so'rashga tayyor edi.

Haqqulobod – To'rtko'l yo'ldan tinmay paxta ortgan mashinalar o'tib turibdi. Azizxon avtobus bekatiga shoshilmay keldi. Oldidan "Tez yordam" mashinasi shitob bilan o'tdi-yu, birdan zarb bilan to'xtadi. Orqadan ko'tarilgan chang mashina ustiga yopirildi. Azizxon nima bo'ldi ekan, deb qarab turgan edi, mashina eshigi ochilib oq xalat kiygan Vazira tushdi.

Azizxon nima qilishini bilmay serraygancha qoldi. U xuddi o'g'rilik qilib qo'lga tushgan kishidek esankirardi. Vazira ko'pdan

yo'qotgan kishisini tasodifan uchratib qolgandek u tomonga quvonch bilan ko'zlari yashnab kela boshladi. .

– Voy, qayoqlarda yuribsiz? – dedi Vazira ko'rishgani qo' uzatarkan. – Lug'umbekka ikki marta borib topolmadim-a! Shunaqayam bo'ladimi.

Azizxon uning dardini bilganidan sovuqqina javob qildi:

– Yuribman, tuproqdan tashqarida.

– Qayoqqa ketyapsiz, yuring, yuring, oborib qo'yaman. Tayyor mashina bor!

Azizxon qo'lini ko'ksiga qo'yib minnatdorchilik bildirdi.

Vazira oq xalat yengidan bog'ichlarini yechib bilagigacha ko'tardi. Tangadek tilla soatiga qaradi. Uning bilaklari oppoq, er kishining ishtahasini qo'zgaydigan ajib edi.

– O'ho', men hozir...

– U shunday dedi-yu, "Tez yordam" tomonga ketdi. Yumshoq tuproqda tuflisi poshnasidan hassa uchidek izlar qoldi. Vazira xalatini yechib kabinaga uloqtirdi. Shofyorga nimadir dedi. Shundan keyin mashina gurillab jo'nab ketdi. Vazira qaytib keldi.

– Piyoda ketamiz. Smenam tugadi. Endi kechgacha birga bo'lamiz. Xo'p-a?

Azizxon hayron edi! Bu juvon nega bunchalik ishonch bilan gapiradi. Axir Azizxon unga biron marta bo'lsin iliq muomala qilmagan edi-ku!

Azamat qayrag'ochlar soya tashlagan katta yo'l chetidan ikkovi jimgina keta boshlashdi.

Vaziraning egnida shaftoli guliga monand ko'ksi ochiq, yelkasiga paxta qo'yib tikilgan yoqasiz shohi ko'ylak. Yengi tirsagidan to'rt enlik yuqoridan. Mashina kabinasiga motor tafti urib uning yuzlari, bo'yinlari xuddi hozir hammomdan chiqqandek bo'g'riqib ketgan.

Vazira dugonalari bilan Arslonbobga borganini, o'ttiz metrli shovvani borib ko'rganini, tog'dan yovvoyi jambil terganini entikib-entikib gapirardi. Bu gaplar Azizxonni qiziqitmas, u ko'rgan joylarni tasavvur qilib ko'rishga urinmasdi ham.

Kolxoz o'rikzori oldiga kelishganda Vazira to'xtadi. O'n gektarcha keladigan o'rikzor jimjit edi. Iyul o'rtalarida o'riklar terib olingandan keyin bu joyga hech kim kelmasdi. Hozir shoxlari bir-biriga tutashib ketgan, suv quyilmaganidan taglaridan o'tlar qovjirab qolgan bu xilvatgohda endi to'rt-beshta qo'y o't qidirib boshini yerdan ko'tarmay tentirardi.

– Shatta jindak dam olmaymizmi? – dedi Vazira Azizxonni qo‘lidan ushlab.

Uning qo‘llari issiq edi. Azizxon bir lahza o‘zini yo‘qotdi. Vazira paxsa devorning qulagan joyidan uni ichkariga boshladi. Ikkovi endi bir so‘z demay salqin bog‘ ichida ketishardi.

Betini ko‘m-ko‘k baqa to‘ni bosib ketgan hovuz bo‘yidagi so‘ri usti xazon bilan bekilib ketgan. Azizxon xazonlarni qo‘li bilan sidirib ikki kishi o‘tirsas bo‘ladigan sahna ochdi.

– O‘tiring, charchadim deypsiz-ku, – dedi Azizxon beparvo.

Vazira sumkasini xazon ustiga irg‘itib, chambarak qilib olgan sochini yechib yubordi-da, boshini bir silkib, ko‘ksiga tushgan ikki o‘rim sochini yelka oshirib orqasiga tashladi.

Shunda birdan g‘alati, juda ham g‘alati hid, faqat ehtiros qonini gupirtiradigan, navqiron ayol kishidagina bo‘ladigan bir hid atrofni tutib ketdi. Bu hid Azizxonning boshini aylantirdi. Zimdan Vaziraning bo‘ynilariga, yoqasiz ko‘ylagining tugmalarini itarib turgan ko‘kraklariga qaradi. Ko‘zi tinib ketdi.

Vazira uning holatini sezib turardi. U shunday bo‘lishini avvaldan bilar, shu paytgacha o‘zini beparvo tutishga uringan, iltijolarini nazariga ilmay qiynagan yigit yuragiga o‘t solmoqchi, qiynab-qiynab o‘ziga bo‘ysundirmoqchi edi. Azizxon sehrlangandek ko‘zini undan ololmay turardi. Vazira so‘riga o‘tirib bir tizzasini ko‘tardi. Boldirigacha ochib ipak paypoqni tugib turgan rezinkani “Voy, jonim qiynalib ketdi-ye”, deb pastga surib qo‘ydi. Rezinka izlari sonlarini qontalashtirib, qizg‘imtir binafsha iz qoldirgan edi. Vazira etagini beparvo tushirib tizzasini yashirdi. Keyin Azizxonga o‘pkali qarab “boring-e, qarab turganmidingiz, uyatsiz”, deb lablarini burdi. O‘tirgan yerida Azizxonning chap yonboshidagi xazon uyumida yotgan sumkasiga yonboshlab qo‘l uzatdi. Tirsagi Azizxonning tizzasiga tiralib, yelkasi ko‘ksiga to‘g‘ri kelib qoldi. Vaziraning bo‘ynidan yana boyagi iliq hid taraldi. Azizxon ikki qo‘lini orqasidagi taxtaga tiraganicha qimir-layolmasdi. Vazira sumkasini oldi. Ochib ichidan cheti gajimli qulupnaygul ro‘molcha chiqazdi-da, terlagan peshonalarini art-di. Endi atir hidi hamma yoqni tutib ketdi. Azizxon yana qimir etmadi.

Vazira birdan chayon chaqqan kishidek sapchib turib ketdi-da, sochlarini changallab o‘zini xazon uyumi ustiga otdi. U yotgan yerida ilondek to‘lg‘anar, betlarini xazonga ishqab, ingrab yig‘lardi.

Azizxon qo‘rqib ketdi. Tepasiga kelib, sizga nima bo‘ldi, dedi titragan tovushda.

Vazira boshini ko‘tardi. Endi uning sochlari to‘zg‘ib ketgan, ko‘zlarida o‘t chaqnardi.

Shu payt o‘rikzor tepasidan juda pastlab aeroplan uchib o‘tdi. Azizxon osmonga qaradi. Bir-biriga tutashib ketgan quyq, serbarg shoxlar orasidan aeroplanni ko‘rolmadi. Uning qu-loqni qomatga keltiradigan kuchli gurillashi zum o‘tmay tindi. Uzoq-yaqinda yosh-yalanglarning qiy-chuvi boshlandi. Azizxon bir dam hayron bo‘lib qoldi. Hushini yig‘ib yana Vaziraga qaradi. Uning kipriklaridagi surma yoshdan erib qovoqlariga, ko‘z ostlariga surkalib ketgandi.

– Sizga nima bo‘ldi? – dedi past ovoz bilan Azizxon.

Vazira o‘rnidan turdi. Uning betiga afsus-nadomat bilan boqib nari ketdi. Endi u orqasini o‘girib olgan, yelkasi tinmay silkinardi.

– Essiz yigitlik, essiz boshdagi do‘ppi-yu, beldagi qiyiq. E, Xudo, dardi yo‘q kesakka meni muncha zor qilmasang.

Uning bu nidosi niyatiga yetolmagan, armoni ichida qolgan, yurak-bag‘rini o‘rtagan tuyg‘ulari poymol bo‘lgan ayol kishining nidosi edi.

O‘rikzor etagida bolalarning shovqini boshlandi. Ular nimalardir deb qichqirishardi.

Azizxon hurpayib turgan Vaziraga so‘nggi bor bir qaradi-da, oyoq ostidagi ajriqlarni ayamay bosib o‘rikzordan chiqib ketdi. Vazira ikki qo‘lini u tomonga cho‘zganicha iltijo bilan piq-piq yig‘lab qoldi.

Azizxon katta ko‘chaga chiqqanda hammaning ko‘zi osmonda edi. Azizxon ham beixtiyor osmonga qaradi. Kuzning zangori osmoni tip-tiniq, unda son-sanoqsiz oppoq qog‘oz parchalari uchardi. U avval, bu nima ekan, degan o‘y bilan turib qoldi. Keyin xayoliga boya uchib o‘tgan aeroplan keldi.

Aeroplan qishloqlar, shaharlar ustida qog‘oz sochib yurardi. Azizxon Yozyovon cho‘lida, Qirg‘iz o‘tovi oldida turgan paytda aeroplan tashlagan qog‘ozlarni esladi. O‘shanda kanal qurilishiga chorlagan varaqalar cho‘l osmonini to‘ldirgan edi. Endi bu qanaqa varaqa bo‘ldi ekan?

O‘rikzorlardan bolalar yana chuvillashib chiqishdi. Ularning qo‘llarida dasta-dasta qog‘oz. Kimniki ko‘p, deb chug‘urlashardi.

Terak beli balandlikka tushib qolgan bir varaq qog‘oz Azizxonning tepasida qayiqqa o‘xshab chayqalib-chayqalib

yo'l chetiga qarab suzib kelardi. Azizxon do'ppisini qo'lga olib qog'oz tushayotgan tarafga yura boshladi. Nihoyat qog'oz ariq bo'yidagi chim ustiga ohista qo'ndi. Azizxon shoshib uni oldi-yu, u yoq-bu yog'iga qaradi.

Bu kanalda chiqadigan "Stalincha qurilishda" degan gazeta-ning eng so'nggi soni edi. Birinchi sahifada O'zbekiston hukumati rahbarlari imzo chekkan Moskvaga, Markazkomga yozilgan raport bor edi. Azizxon tik turganicha o'qiy boshladi. Raportga ikki yuz yetmish kilometr masofadagi Katta Farg'ona kanalida yer qazish ishlari tamomlangani, qurilish boshlangandan buyon qirq besh kun ichida o'n olti million kubometr tuproq qazib chiqazilgani, Katta Farg'ona kanali Norin daryosidan suv olishga tayyor qilib qo'yilgani yozilgan edi.

Azizxon gazetaning ichki sahifasini ochdi. Unda G'afur G'ulom bilan Hamid Olimjonning quruvchilar nomidan VKP(b) Markaziy Komitetiga yozgan she'riy xatlari bosilgan edi.

Azizxon orqa sahifaga qaradi. Qaradi-yu, g'alati bo'lib ketdi. Sahifa tepasida Do'nan Do'smatov bilan uning surati yonma-yon bosilgan edi. Surat tepasida katta-katta harflar bilan shunday yozuv bor:

"Kanal bahodirlariga shon-sharaflar bo'lsin!"

Azizxonning ko'zlaridan yosh chiqib ketdi. Tiniq, beg'ubor kuz osmoniga qaradi. Qittak ham bulut yo'q. Juda olislarda, dalalarning ufqqa tutashib ketgan joylarida ham oppoq qog'ozlar kapalakdek pildirab uchar, goho yengil shamol bog'lar ustidan ularni ochiq dalalarga qarab surib ketardi.

Shu qog'ozlar betiga surati tushirilgan o'n minglab Azizxon butun vodiy tepasida, bulutlardan ham balandda, olmos cho'qqilar, sap-sariq adirlar, sonsiz jilg'alar ustida suzardi.

Azizxon entikdi. Hamisha iyagini ikki kaftiga tirab o'tiradigan dardchil onasi, qachon odam bo'lasan, tentagim, deb noliydigan dadasi ko'z oldida paydo bo'ldi. "Ayajonim, dadajonim, mana, odam bo'ldim-ku, endi koyimang!" deb qichqirgisi keldi.

Osmoni falakda qog'ozlar uchardi. Bolalar qichqirardi. Butun vodiy og'zida doston bo'lgan Azizxon yo'l chetida yig'idan ko'zlari qizarib, hiqillab borardi.

Kuyganyor, 1974-yil.

HIJRON KUNLARI

IKKINCHI KITOB

BIRINCHI BO'LIM

I

Charosga rang kirib qoldi.

Oftob qizdirgan dala yo'lida chap qo'lini shohi qiyiq bilan bo'yniga osib olgan yigirma yoshlardagi bir yigit sog' qo'li bilan velosipedini yetaklab kelmoqda.

Dala jimjit. Devor-toshlardan lip-lip alanga chiqadi. Qushlarning ham ovozi tingan. Qizigan tuproqqa bag'rini berib yotgan musicha erinib kukulaydi. Paxsa devorga chaplangan qovun urug'ini ari talaydi. Ustiga oftob kelib qolgan sigir orqaga tisarilib arqonni uzmoqchi bo'ladi. Yo'l yoqasidagi qovun poliz chaylasining soya tarafida yotgan kattakon it tilini osiltirib hansiraydi.

Yigit nihoyatda isib ketgan. Peshanasi, yuzlaridan tinmay ter quyiladi. Qulog'iga tegay-tegay deb uchib o'tgan qaldirg'och orqasidan sarg'imtir ufqqa qarab qoladi.

Saraton qizdirgan dala o'rtasida bilqillab yotgan tuproq yo'lidan kelarkan, u tezroq anhorga yetib olishga shoshilardi. Anhor hali olisda.

Yigit velosipedni yonboshlatib turib egarga mindi-da, bir qo'llab rulga tiralib pedalni bosdi.

G'ildirak qaynoq tuproqda sassiz pildirab ketdi. Yigitning ochiq ko'ksiga issiq shamol urildi. U chumchuqlar chirqillagan qayrag'och tagida sariq tumshuq jo'jalarini qanoti tagiga olib yotgan tovuqni qaqalatib o'tdi. Nihoyat, ko'prik oldiga kelib egardan tushdi.

Chetlarida jiydalar, majnuntollar o'sgan anhorga havas bilan qaradi. Suv qirg'oqqa shaloplab urilib, osilib qolgan novdalarni tortqilab oqmoqda.

Yigit velosipedni maysaga yotqizib, suv bo'yiga tushdi. Bo'ynidan shohi qiyiqni olib yuzlarini, bo'yinlarini muzdek suvda yu-

vib oldi-da, anhorning beozor oqishiga havas bilan qarab qoldi.

Birdan nimadir shitirlab ketdi. Yigit u yoq-bu yoqqa alangladi. Uning ko'zi to'nka ustida yotgan chit ko'ylakka tushdi. Bu kimniki ekan? Yana alangladi. O'n-o'n besh minut kutdi, ko'ylak egasidan darak bo'lmadi. U endi ketmoqchi bo'lib burilayotgan edi, majnuntol novdasi silkindi. Yigit beixtiyor o'sha tarafga yura boshladi. Uning qarshisida to'zg'ib ketgan sochlari bilan yalang'och ko'kraklarini to'sib bir qiz turibdi. Qo'rqqanidan qizning ko'zlari dum-dumaloq bo'lib ketgan edi.

— Qarama! Qarama, deyapman, Nizom!

Yigit esankirab yana bir-ikki qadam oldinga yurdi.

— Nizom, Nizomjon, kelma, dod deyman! Qanaqa uyatsiz bolasan!..

Nizomjon turgan joyida qotib qoldi. U nima qilishini, nima deyishini bilmasdi. Qiz tol tagidan chiqib yugurganicha o'zini suvga otdi. Nizomjon uning orqasidan oppoq boldirlarini savalagan to'ziq sochlarini ko'rib qoldi, xolos.

Ana shundan keyingina Nizomjonning hushi o'ziga keldi. Bu qiz uning sinfdoshi Dildor edi. Dildor suvdan boshini chiqarib g'azab bilan unga qaradi. Qizning sochlari suv betida xuddi qora soyabondek doira hosil qilgan edi.

Nizomjon undan xijolat bo'lib, ko'prikning naryog'iga o'tib ketdi.

Dildor bilan Nizomjon orasida ishq-muhabbatga o'xshashroq g'alati munosabat o'ninchida o'qib yurgan paytlaridayoq boshlangan edi. Sodda qishloq bolasi diliga tugilgan gaplarni aytolmay, ko'p vaqt ich-etini yeb, sarosimada yurdi. Uning yuragida bo'layotgan gaplarni qiz sezardi-yu, ammo unga sir boy bermasdi.

Umuman, Dildor uning ma'yus boqishlariga, uchrashib qolgan paytlarida gap topolmay esankirashlariga beparvoroq qarardi. Nizomjon birovga aralashmaydigan, kamgaproq bola bo'lganidan sinfdoshlari uni "Indamas" deb chaqirishardi.

Urush boshlangan kunlariyoq ko'pgina o'rtoqlari frontga ketishdi. Maktabdosh qizlar bitta zveno bo'lib dalaga chiqishdi. Shaddod, gapini birovga bermaydigan erkakshoda Asrora zvenoga boshliq bo'ldi. Dildor zveno qizlari orasida ham eng ko'hligi, ham eng bo'shashgani edi.

U husniga ortiqcha bino qo'yganidanmi, har qalay zvenoda erkaroq edi. Ammo Asrora uning noz-firoqlariga qaramay turtkilab-turtkilab ishga solardi. Nizomjonning eng qalin oshnasi Ka-

rimjon ham frontga ketdi. Sinfdoshlari orasidan bitta o'zi ajralib, Nizomjon qolib ketdi. Bir qo'li mayib bo'lgani uchun uni harbiy xizmatga olishmadi. Nizomjon dalada ketmonini chopib yura-verdi. U dalada kezarkan, o'zidan-o'zi dovdirab qizlar zvenosiga borib qolar, qizlar bir-birlarini turtishib: "Ana pochcha kelyaptilar!" deb kulishlarini bilmas edi. Shunday dovdirab kelishlaridan birida Asrora yo'lini to'sib:

– Sen o'lgur nima qilib xira pashshadek battan ketolmay qolding? – dedi.

Adolat degan qiz unga ko'zini qisib, ma'noli iljayib qo'ydi:

– Hoy opa, unaqa dema, Nizom pochchamiz-ku.

– Hali shunaqami? Unaqa bo'lsa, hu anavi bog'dan shaftoli o'g'irlab kelsang, pochcha qilamiz.

Adolat uni jo'rttaga ermak qildi.

– Pochchani yuraklari sal quyunchasigaroq.

Nizomjonning jahli chiqib ketdi.

– Opchiqolmaymanmi? Opchiqolmaymanmi? Mana ko'rasanlar.

U shunday dedi-yu, g'irillaganicha bog' tarafga qarab chopdi.

Orqadan qarab qolgan qizlar Asroraning bu ishidan sal ranjigandek bo'lishdi.

– Nimaga unaqa qilasan? Bog'bon amaki ushlab olsa, cha-toq qiladi.

– Atayin qildim, – dedi Asrora. – Shaftoli opchiqolmaydi. Bog'bon amaki naq govron bilan tiriqtiradi.

Sal o'tmay bog' tomondan it vovillagani, bog'bonning so'kingani eshitildi. Devordan sakrab tushgan Nizomjon jon holatda terakzorga qarab qochdi. Ombordan chiqqan it uni ancha joygacha quvib bordi. Keyin tilini osiltirib orqaga qaytdi-da, qoyil qildimmi degandek, u yoq-bu yoqqa qarab oldi.

Asrora qotib-qotib kuldi. Dildor qoshlarini chimirib shiy-ponga chiqar ekan, Asroraga ginali qarab oldi.

– Ha, pochchamni xafa qilganimiz sizga yoqmadimi?

– Yaxshi emas-da bironni shunaqa qilish.

– Obbo, – dedi Asrora uni masxara qilib. Shu-shu bo'ldi-yu, Nizomjon qizlar zvenosiga yo'lamay qo'ydi. Bu orada Dildorni ikki-uch marta ko'rib, uyalganidan boshini egib o'tib ketdi.

Mana, bugun qizni juda noqulay paytda, cho'milayotganida ko'rib qoldi. U o'zining behayoligidan juda-juda xijolat bo'ldi.

Nizomjon nima bo'lganini avvaliga esankirab bilolmagan edi. Albatta, undan uzr so'rash kerak, degan o'y bilan orqa-

sig'a qaytganda, Dildor suvdan chiqib kiyinib olgan, xarsangg cho'nqayib oyog'ini yuvayotgan edi. Nizomjon uning yuziga qaramay ming'illadi:

– Kechir, Dildor, bexosdan shunday bo'lib qoldi.

– Uyatsiz, endi betingga qandoq qarayman, – dedi Dildo va indamay katta yo'lga chiqib dala tarafga qarab ketdi.

Ana shu voqeadan keyin Nizomjon bilan Dildor uchrashil qolgudek bo'lsa, bir-birining ko'ziga qarayolmas edi. Umuman Dildor Nizomjonga ko'rinmaslikka harakat qilardi. Ammo Nizomjon uning to'zg'igan qop-qora sochlarini, marmardek oppobilaklarini xayoldan ketkazolmasdi. U dala yo'llarida kezib qizning yo'lini poylar, butun vujudidan yoshlik – balog'at tarovat barq urib turgan qizni tinimsiz qo'msardi.

Olisda qonli urush bormoqda, shaharlar yonmoqda, odamla yovuz dushman bilan jon talashmoqda edilar. Bu osoyishta qishloq ham yurt qatori urush dahshatlarini kechirardi. Qishloqning azamat yigitlari frontda, dala ishlari ayollar-u yosh bolalargaqolgan.

Har qanday sharoitda ham hayot o'z oqimini davom ettiradi O'tdami, suvdami umr o'taveradi. Bolalar balog'atga etaveradi keksalar umrini o'tkazaveradi.

Nizomjonning ham balog'at yoshi urush boshlanib hamqishloqlari olis yurtlarda jon olib, jon berayotgan paytga to'g'ri kelgan.

Yurt boshida tashvish, Nizomjon yuragida tushunib bo'lmaydigan g'alati hislar.

Yigitchaning uyquasi buzildi. Kechalari yulduz to'la osmongatikilib, tunni tongga ulab, qushlar nag'masidan, suvlar shildirashidan ko'ngilga allaqanday yupanch izlardi. Uning ko'ziga butun bir olam Dildor bo'lib ko'rinardi.

Nizomjon chidamadi. Yuragida to'lib-toshgan gaplarni uzil-kesil to'kib solmoqchi bo'lib, qizni izlab yana dalaga qarab ketdi.

Dildor dala shiyponida bir bosh husayni uzumni oldiga qo'yib erinibgina g'ujumlab yeb o'tirardi. Qizlar paykal oralab g'o'za chopiq qilib yurishibdi. Dildor Nizomjonni ko'rib sekin shiypondan tushdi-da, yer suzganча ariq tomonga o'tib ketmoqchi bo'ldi. O'sha anhor bo'yidagi voqeadan keyin u Nizomjonning yuziga qarolmasdi. Nizomjon uni to'xtatdi. Qiz yerdan ko'zini uzmay turib qoldi.

Yigit gapini yo'qotib chaynaldi. Qizga yalingandek javdirab qaradi. Dildor sochini boshiga chamberak qilib olgan. Orqa sochlari yuqoriga tortilib, kishini mast qiluvchi bo'yni allaqanday ko'rinardi.

– Nima ishing bor edi?

– O'zim shundoq... – dedi tutilib Nizomjon.

– Ishing bo'lmasa keta qol. Qizlarning ko'ngliga gap keladi. Nizomjon gapini aytolmay hamon esankirardi.

– Senga bir gap aytmoqchi edim. Bilmadim, aytsam nima derkinsan. Urishmaysanmi, xafa bo'lmaysanmi?

– Yomon gap bo'lmasa, nega xafa bo'lay. Ayt!

– Keyin aytaman. Vaqt topib, kechroq huv o'sha anhor bo'yiga bor. Borasanmi? Rost ayt, borasanmi? Bora qol! – Nizomjon keyingi gaplarni o'pkasi to'lib aytdi.

– Gaping bo'lsa hozir ayta qol.

– Xotirjam aytadigan gap. Borasanmi, a?

Dildor o'ylanib qoldi. Uning boshini bir tomonga sal egibroq, uzun kipriklari juftlashguncha ko'zlarini yumib, o'ylanib turishi biram chiroyli, biram chiroyli!..

Nizomjon unga mahliyo bo'lib, qimirlamay javob kutardi. Oxiri qiz uning ko'ziga emas, tut kesayotganda tesha uzib ketgan barmoqlariga qarab javob berdi:

– Xo'p, mayli, boraman.

Nizomjon ayasidan hayitlik olgan boladek dikonglab kunni kech qildi. U yoqqa bordi, bu yoqqa bordi, kalovlab samovarga kirdi. Choy chaqirib qo'yib chiqib ketib qoldi. U uyga kelganda hali qorong'i tushmagan edi. Akasidan xat kelibdi. Dadasi kimga o'qitishini bilmay turgan ekan. O'qib berdi. Akasi A'zamjon yarador bo'lib gospitalda yotganini, biror oylardan keyin otpuskaga borib qolishini yozgan edi. Nizomjon konvertni dadasining qo'liga berdi-yu, g'izillagancha chiqib ketdi.

Uzoq-yaqindagi chaylalarda chiroq miltirab qolgan. Anhor qirg'og'i g'ira-shira yorug'. Nizomjon u yoqdan-bu yoqqa yuradi, sal tovush kelsa darrov alanglaydi. Mana, nihoyat, Dildorning qorasi ko'rindi. Ikki soya bir-biriga juda ham yaqin turibdi. Na undan, na bundan sado chiqadi. Shoshilmay oy ko'tarildi. Uning oppoq likopchasi anhorga tushib chil-chil sindi.

Shunday shoirona, shunday oshiqona manzaraga "xol" bo'lib, go'yo bu oshiq-ma'shuqlarni masxara qilib yaqinginada bir eshak hangrab yubordi.

Nizomjon yuragida tugilib yotgan gaplarini aytolmay du-duqlanar, gapirish o'rniga nuqul xo'rsinar edi. Negadir yig'lagisi kelardi.

Dildor majnuntol novdasini sindirib bir siqim bargni uning boshidan sochib yubordi-da, qiqirlab kulib qochdi. Nizomjon uni quvib ketdi. Shu bahona bo'ldi-yu, Nizomjon qizni shartta quchoqlab, o'pib oldi.

Shu oqshom Nizomjon diliga tugilib yotgan chigilni yechib tashladi. Shundan keyin qancha bayt-u g'azallar o'qildi. "To o'l-guncha!" degan ahd-u paymonlar bo'ldi. Hatto ular tanish-bilishlardan yashirincha Oltiariqning guzariga tushib boshlarini boshlariga tirab surat oldirib ham kelishdi. Kelayotib Nizomjon qizni qo'ltiq-ladi-da, astoydil ta'kidladi:

— Seni hech kimga bermayman.

Qiz tegajaklik qildi:

— Boshqa odamga tegib ketsam-chi?

— Agar shunaqa qilsang, o'sha odamni bolta bilan chopib tashlayman.

Ikkovlari qotib-qotib kulishdi. Dunyoda ulardan baxtiyor, ulardan zo'r yo'qdek edi. Nimaga uzatsa qo'li yetadigandek, ko'nglilariga kelganning hammasini qila olishadigandek...

Sal kun o'tmay A'zamjondan: yaqinda borib qolaman, degan xat keldi. Nizomjonlar uyi bir kunda shodlikka to'ldi. Dadasi Inoyat oqsoqol bozor-o'charini yig'ishtirib, odamlardagi nasiyalarini undirish bilan ovora bo'lib qoldi.

— O'g'lim frontdan kelyapti. Chiqim ko'p bo'ladi. Pulimni beringlar.

Ko'pchilik stansiyaga chiqib A'zamjonni kutib oldi. Dildor ham chiqdi. Uning egnida o'sha paytlarda endi rasm bo'lgan pushti krepdeshin ko'ylak, oyog'ida baland poshnali tufli. Boshiga sochlarini turmaklab olgan edi. A'zamjon vagondan tushib hamma bilan quchoqlashib ko'rishdi. Nizomjonni bo'lsa yerdan azod ko'tarib oldi-da, bir aylantirib yana yerga qo'ydi.

— O'h-ho', juda azamat bo'lib ketibsan-ku, uylanib olganing yo'qmi? Qo'lingga nima qildi?

U ukasidan javob kutmay, Dildorga qaradi:

— Voy puchug'-ey, barishna bo'p ketibsan-ku!..

U shunday derdi-yu, Dildorning bo'rtib qolgan ko'kraklaridan, tirsillab turgan bilaklaridan ko'zlarini uzmasdi.

Nizomjon o'z boshiga tushadigan savdolarning xuddi shu daqiqadan boshlanishini qayoqdan bilsin. Yigitcha frontchi akasining kelishidan, uyi to'lib qolishidan quvonchi ichiga sig'masdi.

Keldi-ketdi bo‘lib Nizomjon uch-to‘rt kun Dildor bilan bafurja uchrasholmadi. Yo‘l ustida shoshib ko‘rishish, bir-ikki og‘iz so‘rashishlardan nari o‘tisholmadi. Nihoyat, uydan mehmonlarning oyog‘i uzildi. Akasi ham qishloq aylangani chiqib ketadigan bo‘ldi. U o‘zi ishlagan dalalarda, bog‘ va qirlarda kechgacha aylanardi, qaytib kelganda yuzlari, ko‘zlari allaqanday quvonchdan porlab turardi. Albatta, bu sog‘ingan qishlog‘i manzaralariga to‘yishdan, yor-birodarlar bilan diydor ko‘rishishdan.

Mana bugun Nizomjon yana Dildor bilan uchrashdi. Ikkovlari kech salqinda adir etagida bitta-bitta yurib ketishyapti. Nizomjon yig‘ilib qolgan gaplarini entikib, shoshilib gapirar, Dildor bo‘lsa beparvogina uning gaplariga quloq solib borar edi.

Umuman, Dildor keyingi kunlarda sal boshqacharoq bo‘lib qolgan edi. Nizomjonni ko‘rganda bir qizarib olardi-da, pildirab qochib ketardi. Bugun u bunday qilolmadi. Noiloj qoldi. Shu payt juda yaqinda mototsikl patillab tindi. Bir ozdan keyin pastdan A‘zamjon chiqib keldi. U nimadandir hayajonlanar, Dildorga yomon qarar edi.

Nizomjon nima bo‘layotganini bilmay hayron bo‘ldi. Akasi bir unga, bir Dildorga qarab turdi-da, birdan orqasiga burilib pastga qarab chopib tushib ketdi.

Dildor uning orqasidan qarab turarkan, shamol ko‘ylagini badaniga qapishtirdi. Nizomjon dadillanib, uning ikki bilagidan mahkam ushlab o‘ziga qaratdi. Dildorning gavdasi o‘girildi-yu, yuzi, ko‘zlari hamon A‘zamjon ketgan tomonda edi.

— Qo‘y, qo‘y, jinni bo‘lma. — U Nizomjonni ko‘kragidan itarib tashladi.

Dildor uning changalidan yulqinib chiqdi-da, oldinga qarab chopdi. Nizomjon uni quvdi, yetolmadi. Qiz etaklarini hilpiratib oldinda shamoldek yelib borardi.

Nizomjon o‘sha kuni allaqanday lanj kayfiyat bilan uyga qaytdi. Akasi supada etigini yechayotgan edi.

— Baqqa kel, etikni tortib yubor!

Nizomjon xohlanqiramay akasining oldiga bordi-da, etikni tortdi. Akasi unga sinovchan ko‘zlarini tikib turardi.

— Ha, muncha qovoq-tumshug‘ing osilib qoldi?

— Hech-da, — dedi Nizomjon.

Keyin u ko‘zlarini yumib nimanidir o‘ylab ketdi.

— Dildor yaxshi qiz bo‘pti. Ammo...

Nizomjon akasining gapiga tushunmadi. O‘rnidan turdi-da, hardamxayollik bilan ko‘chaga chiqib ketdi.

Kech kirib atrofni qorong'ilik bosgan. Osmonda birin-кетин yulduzlar ko'z ocha boshlagan yoz kechasi. Nizomjon og'ir iztirobli o'ylar bilan jimjit bog' ko'chalardan o'tib dala yo'liga chiqdi. Chigirtkalar tinimsiz chirillaydi. Shabada qurib-qovjirab qolgan o'tlarni yoqimsiz shitirlatadi.

U o'ylardi. Sog'intirgan akasi kelib uyi obod bo'ldi, yor-birodarlari oldida ko'pni ko'rgan akasi bilan faxrlanadi. Bu yaqin orada undan baxtli odam yo'q...

Akasi nima qilmoqchi? Dildor bilan yaqinligi unga yoqmayptimi? Balki Dildorning biror qiligi akasiga o'tirishmayotgandir...

Nizomning kallasiga kutilmaganda bir o'y keldi. Yo akasi Dildorni sevib qoldimikin? Yo'g'-e! Ehtimol, uning sevishini bilmas?

U miyasiga kelgan bu o'ydan qo'rqib ketdi. Bordi-yu, u Dildorni sevgan bo'lsa, eshitganlar nima deydi? Akasi nima deydi? Nizomjon o'ylayverib qiynalib ketdi. O'yining oxiri shu bo'ldi. Uch-to'rt kun akasining ko'ziga ko'rinmay qo'ya qoladi.

Ikki kundan keyin Nizomjon o'roqchilarga qo'shilib qirga ketib qoldi. Qirda odamlarga zor bo'lib turishgan edi. Qora terga botib bug'doy o'rdi. Chodir oldida kechalari yulduzlarga qarab xayolan Dildor bilan gaplashdi. Iliq qir shabadasi unga allaqanday afsonalarni so'zlab berayotganga o'xshar, uni yanada Dildorga yaqin qilib qo'yar edi.

Yigirma kun deganda Nizomjon qorayib, ozib qirdan qaytib keldi. Eshikdan kirib kelishi bilan dadasi uni koyiy boshladi:

– Qanaqa beg'am bolasan? Ertaga to'y bo'lsa-yu, bu tentak allaqayoqlarda daydib yursa.

– Qanaqa to'y?

– Akangni uylantiryapmiz. Kecha to'y yubordik. Ertaga tumonatni boshimizga yig'amiz.

Nizomjon birdan sevinib ketdi, akasi uylansa o'zi bilan o'zi ovora bo'lib uni ortiqcha tergamay qo'yadi. U dadasidan sekin so'radi:

– Akam kimni olyapti?

– Xabaring yo'qmi? Yunusali otaning qizini kelin qilyapmiz...

Bu – Dildor edi! Dadasining gapi og'zida qolib, Nizomjon sapchib o'rnidan turib ketdi-yu, beixtiyor bir-ikki qadam bosdi. Uning bu holatidan Inoyat oqsoqol hayron edi.

– Nima gap o‘zi? Jinni bo‘lib qoldingmi, bola?! Nizomjon gapirolmas, dir-dir titrar edi. Shu payt kuyovlik sarpolarini kiyib olgan A‘zamjon kirib keldi. Ukasining vajohatini ko‘rib hayron bo‘ldi.

– Senga nima bo‘ldi, uka, tobing aynib qolmadimi?

A‘zamjon uning yelkasiga qo‘lini tashlab, mehribonlik bilan yuziga tikildi. Nizomjon zarda bilan uning qo‘llarini olib tashladi.

– Esing joyidami?

Nizomjon uning ko‘zlariga g‘azab bilan tikildi-da, ko‘chaga otildi.

Aka bilan uka bir-birining ko‘nglini bilmasdi. Nizomjon muhabbat bilan nomus o‘tida qovurilardi. A‘zamjon bo‘lsa to‘y, tantana havosida o‘zini qo‘yarga joy topolmasdi. O‘lim yoqasida jon olib, jon bergan yigit bu kunlarni ozmuncha o‘ylaganmidil! U niyatiga yetdi. Qishloqning tamtam qiziga uylanyapti. A‘zamjon ko‘rkam yigit. Hozir u kuyovlik sarpolarida chinakam ochilib ketgan. Uni shu turishida ko‘rgan har qanday qiz ham hushini yo‘qotishi turgan gap.

Ammo ularning to‘ylari bu qadar tezlashib ketishi sababini Nizomjon tushunmasdi. Hamon o‘z yog‘iga o‘zi qovurilar, alamini kimdan olishini bilmas edi. Hatto u akasining ko‘ziga tik qarab: “Dildorni men sevaman, uni o‘z holiga qo‘y!” — deb aytishga tayyor.

U uyidan chiqishi bilan telbadek kalovlab Dildorning uyiga qarab chopdi. Bu beor, bu subutsiz qizni og‘ziga kelgan alamli gaplar bilan haqorat qilmoqchi, birga tushgan suratini ko‘zi oldida burda-burda qilib yirtib tashlamoqchi bo‘ldi.

U jahl bilan ko‘cha eshikni ochganda supani to‘ldirib o‘tirgan keksalarni ko‘rib to‘xtadi. O‘tirganlardan biri:

– E, kel, quda bola, — deb yonidan joy ko‘rsatdi.

Nizomjon nima qilishini bilmay serrayib turib qoldi. Keyin o‘tirganlarni hayron qoldirib yana chiqib ketdi. Birov undan, nega kelding-u, nega ketyapsan, deb so‘ramadi.

U guzarga chiqdi. Hamma o‘z ishi bilan band. Samovarlarda osoyishtalik. Radio qo‘shig‘ini bosh egib tinglayotganlarning ham ichida unikiga o‘xshagan dard bormikan? Birgina Nizomjonning-gina ichini ari talayapti.

II

Asrora Nizomjonning gapini eshitib hayron qoldi.

– Voy, pismiqlik, voy, ichingdan pishmay o'lgur Dildor! Ming'irlab yurib qilgan ishini qaranglar.

Ertalab Asrora pravleniyega ketganida Dildor zvenoga kelib hamma qizlarni to'yga aytib ketgan edi. Dildorning Nizomjon qolib A'zamjonga tegayotganini eshitib jig'ibiyroni chiqdi.

– Hoy, qizlar, – dedi Asrora shiyponda nimchasini kiya turib, – senlar ishlaringni qilaverlaring, hozir borib u beburdning dodini berib qo'yay. Voy, tusingni yel yegur.

U pirillaganicha qishloqqa qarab uchdi.

Dildorning uyida tumonat odam. Birov o'choq kavlayapti. Birov o'tin yoryapti. Novvoy chol peshanasini boylab tandirga o't qalayapti. Asrora hovliga kirishi bilanoq endi ishni to'xtatib bo'lmasligini payqadi. Shunday bo'lsa ham, Dildorni uzib-uzib olmoqchi bo'ldi.

Tomorqadagi supada Nizomjonning opasi Risolat Dildorni tik turgizib qo'yib atlas ko'ylakning yoqasini o'lchayapti. Dildor uni ko'rishi bilan sevinib ketdi:

– O'rtoqjonganamdan aylanib ketay, qarashgani keldingmi?

– To'yingni buzgani keldim.

Uning gapini hazilga olgan Risolat hiringlab kuldi:

– Bitta shunaqa odam topolmay turgan edik.

Asrora to Risolat ko'ylakning beli, yengini o'lchab bo'lguncha qarab turdi. Oxiri Risolat ishini bitkazib chiqib ketdi. Ikki qiz yolg'iz qolishdi.

– Nima qilib qo'yding? – dedi Asrora.

– Nima qilibman!

– Yur, baqqa! Ish bor.

Dildor, zvenoda bir gap bo'пти, deb o'ylab, indamay uning oldiga tushib ko'chaga chiqdi. Yong'oqzorga yetishganda Asrora nimchasini yechib maysaga tashladida, yonboshladi.

– O'tir!

Dildor o'tirdi.

Asrora o'zining sho'xligi, og'zi botirligi bilan butun qishloqda nom chiqargan edi. U xonasi kelganda hech kimni aymasdi. Majlislarda kimning kamchiligi bo'lsa, shartta yuziga aytaverardi. Undan rais ham hayiqardi. Qizlar-ku zirillashardi. Asrora zvenosida biron qiz ishdan kech qolmasdi.

Qizlar Asrora, tur, desa turishardi, o'tir, desa o'tirishardi.

Bu shaddod qizning bilmagan hunari, qilmagan ishi yo'q edi. Rais ba'zan: "O'g'il bola bo'lib tug'ilishingga bir bahya qolgan ekan", deb kulib qo'yardi.

U yoshligida tekkanga tegib, tegmaganga kesak otardi. Atlas ko'ylagini qoramoyga belab traktorchining orqasida ergashib yurar, u tushlikka chiqqanda so'ramay traktorni haydab qolardi. Raisning shofyori sal ko'zi shamg'alat bo'lsa, mashinasini g'izilatib haydab qolardi. Qishloq ko'chalarini changitib, tovuqlarni qaqalatib yana joyiga keltirib qo'yib, g'oyib bo'lardi.

Qiz bolani yomon gap bilan so'kib bo'lmasa, urib bo'lmasa, shofyorlar ichida so'kinib, musht o'qtalib qo'ya qolishardi.

Uning bunaqa ishlarini ko'rganlar:

— Bu qizdan bir balo chiqadi. O'nta o'g'ilning o'rnini bosadi, — deyishardi.

Asrora Nizomjonlar bilan bir sinfda o'qigan. Ular bir-birlari bilan senlashib gaplashishardi. Uning Nizomjonga alohida yaqinligi bor edi.

Asrora Nizomjonning eng yaqin o'rtog'i Karimjon degan bolani yaxshi ko'rardi. Karimjon — bo'sh-bayovgina, o'lgudek sodda, bo'shshagan edi. Hatto qishloqdagilarning o'zlari uni "qishloqi" deb masxara qilishardi. Shu bo'shshagan qishloqi bolani ham Asrora odam qildi. Soch qo'yirdi, galstuk taqadigan qildi. Asrora unga kashta tikilgan dastro'mollar tikib berdi. Dazmolsiz ko'ylak kiysa, egnidan yechib olib ayasiga bildirmay uyida dazmollab chiqib kiydirardi.

Karimjon urushga ketgach, Asrora biron oy telbanamo bo'lib yurdi-yu, darrov o'zini o'nglab oldi. Nizomjon bilan dardlashadigan, kelgan xatlarni birga o'qiydigan bo'lib qolishdi. Chunki Karimjon Asrora odamlar oldida xijolat bo'lmasin, deb unga yozgan xatini ham Nizomjonga jo'natar edi.

Dildor Asroraning yoniga o'tirdi. Ikkovi ancha vaqtgacha indamay qolishdi.

— Gapir, — dedi Dildor. — Nima gaping bor? Nimani cha-toq qilib qo'yibman.

Asrora unga g'azab bilan qaradi:

— A'zamjonga tegyapsanmi?

— Ha.

— Ukasiga o'ptirib, akasiga tegasanmi?

Dildor cho'g'dek qizarib ketdi. Yuzini o'girib oldi. Ammo churq etolmadi.

— Gapirsang-chi, nega unday qilding?

Dildor unga qaramay javob berdi:

– Bilmadim, bilmadim...

– Nizomning yuziga qandoq qaraysan?

Dildor javob bermadi.

– Aka-ukaning bir-biridan begona bo‘lib ketishini o‘yladingmi?

Dildor bir seskandi-yu, gapirolmadi.

– Bu gaplar A‘zamjonning qulog‘iga yetib qolsa turmushing zahar bo‘lishini ham o‘ylaganmisan?

Dildor bu to‘g‘rida o‘ylab ko‘rmagan edi. Ko‘z oldi qorong‘ilashib ketdi.

Asrora nima qilishini bilmay uning tepasida ikki qo‘lini beliga tirab urishishga chog‘langan xo‘rozdek turardi.

– Hozir to‘yni to‘xtatasan. To‘xtatmasang, qishloqni boshimga ko‘tarib shovqin solaman, sharmandangni chiqaraman.

Unga javdirab boqqan Dildorning ko‘zlaridan duv-duv yosh oqardi. Uning bu holini ko‘rgan Asrora qarshisiga cho‘kkaladi.

– Ayt, nima bo‘lgan?

– To‘y bo‘lmasa, sharmanda bo‘laman. Bir hafta bo‘ldi, bir hafta... A‘zamjonga tekkanman...

– Sharmanda!

Nizomjon qirga chiqib ketgan kunlarda, A‘zamjon Dildorning yo‘lini poylaydigan bo‘lib qolgan edi. Qora qosh, ko‘krakdor, xushbichim bu yigit Dildorning ham hushini o‘g‘irlagan edi. Ayniqsa, A‘zamjon harbiy formada juda alomat ko‘rinardi. Dildor A‘zamjonni ko‘rdi-yu, Nizomjon ko‘ziga bir yosh bola, go‘dak bo‘lib ko‘rindi-qo‘ydi.

Qoq tush payti edi. Dildor daladan qaytayotib yo‘lni yaqin qilish uchun ataylab tutzor oralab kelardi. Kela turib tut tagidagi qoq kesakka qonga o‘xshash bir nima tomganini ko‘rdi-da, to‘xtadi. Birontasi chug‘urchiq otgan bo‘lsa, qoni tomgandir, deb o‘yladi. Shu payt tepadan kimningdir yo‘talganini eshitib yuqoriga qaradi. Tut tepasida maykachan bo‘lib olgan A‘zamjon shotut yeb turardi. U bir qo‘li bilan shoxga osilib kaftida shotut uzatdi. Qiz uni iymanib oldi-yu, bitta-bitta og‘ziga sola boshladi.

A‘zamjon pesh terganini unga pesh uzataverdi. Oxiri o‘zini gup etib yerga otdi. Uning maykalari, bilaklari shotut sachraganidan dog‘ bo‘lib ketgan edi. A‘zamjon Dildorga yaqin kelib iljaydi. U shunday qulay uchrashuvni ko‘pdan niyat qilib yurardi. Mana bugun niyatiga yetdi. Titrab-qaqshab qizning bilagiga qo‘l uzatdi. Qiz avvaliga qarshilik ko‘rsatdi. Keyin ikkovi boshlashib

kimsasiz tutzor oralab ketishdi. O'sha kuni ular tutzordan kechga yaqin chiqishdi. Dildorning qovoqlari qizargan, ko'zlari birovga dadil qarayolmasdi. Ertasi A'zamjon yana uning yo'lini poyladi. Qilmishi uchun undan uzr so'radi. Dildor yig'ladi. A'zamjon shu sir sirligicha qolishini, yaqin orada to'y qilib unga uylanishini aytib, qizni tinchitdi.

Asrora olislarga termilib turib allanimalarni o'ylardi. Asrora bir narsa to'g'risida fikr yuritsa darrov qarorga kelardi-yu, shartta aytib qo'ya qolardi. Dildor qilgan ish uni ham o'ylantirib qo'ygan, nima deyishi, nima qilishini bilmasdi. Oxiri u shunday dedi:

– Sharmandalikni bo'yningga olibsan. Aka bilan ukani bir-biridan judo qilibsana.

Dildor o'rnidan turishga turdi-yu, ketolmay unga baqrayib qarab qoldi. Birdan ho'ngrab yig'lab yubordi. Dilidagi gaplarni o'pkasi to'lib ketganidan ayta olmasdi. Asroraning o'tli ko'zlariga boqib turib gapira ketdi:

– Nima qilay, nima qil, deysan? A'zamjonni yaxshi ko'rib qoldim. U frontdan kelgan kundan beri telba bo'lib yuribman. Ko'zimga undan boshqa hech narsa ko'rinmaydi.

– Nizom-chi? – dedi Asrora.

Dildor yerga qaradi.

Asrora o'ylab qarasa, ko'ngil ishi nozik narsa ekan. U Dildorni nima deb ayblaydi? Ikkovi bir-birini sevibdi. Allaqachon er-xotin ham bo'lib olishibdi. Ikki orada Nizomga qiyin...

Asrora Dildor bilan xayrlashmay o'tlarni rahmsiz bosib yong'oqzordan chiqib ketdi.

Shiypon oldida uni Nizomjon kutib o'tirardi. Asrorani ko'rib biron yaxshi gap topib keldi, degan o'y bilan o'rnidan turdi.

Asrora uning yuziga ham qaramay shiyponga chiqib ketdi.

– Ko'rdingmi, gaplashdingmi?

– E, bor-e, – dedi ensasi qotib Asrora. – Og'zingdagi oshni oldirib qo'yib, obidiyda qilasan-a. Otingni ertaroq qamchilasang o'larmiding! Kechikding!

Nizomning boshi egildi.

– Yigit kishi ham shunaqa latta bo'ladimi!

Nizomjon bo'shshib, keta boshladi. Asrora uni to'xtatdi.

– Qayoqqa?

– Ketaman.

– Qayoqqa ketasan? Qochyapsanmi?

– Bilmadim. Bu uyda, bu qishloqda turolmayman.

– Qishloq senga nima gunoh qildi?

Nizomjon nima deyishini bilmay esankiradi. Asrora qarab turib rahmi keldi. “Nima qilsam uning ko‘nglini olarkinman?” deb tikilib qoldi.

– Menga qara, ketma. Qochgan bilan darding yengillashmaydi. O‘zingni ishga ur. Ish bilan ovunasan. Ish kimlarni ovutmagan.

Nizomjon javob bermadi. Boshini egganicha indamay so‘qmoqdan ketdi.

U nima qilishini bilmay, yana dovdirab guzarga kelib qoldi. Keksa qayrag‘och tagidagi ko‘rimsizgina bufetga kirdi. Bu yerda ham hech kim yo‘q. Bufetchi armani chol bir chekkada mudrab o‘tiribdi. U Nizomjon kirishi bilan boshini ko‘tarib hayron bo‘lib qaradi.

– Kel, o‘g‘lon! Akang yubordimi? To‘y vinosini olib ketasanmi?

Nizomjon indamadi. Shisha balondagi vinodan stakanga quya boshladi.

– Ichmoqchimisan?

– Ha, ichmoqchiman.

– Manating vor?

Nizomjon yonidan pul chiqarib stolga tashladi-da, stakandagi vinoni simirib, chiqib ketdi.

U ichkilik degan narsani hali og‘ziga olgan bola emas edi. Ichaklarigacha lovillab ketdi. Birpasda boshi guvillab, ko‘ngli g‘alati bo‘ldi.

Ko‘ringan kishiga dardini aytgisi kelaverdi. Tanishlarini ko‘rsa gandraklab oldiga borar, endi gap ochishi bilan og‘zidan gupillab vino hidi kelardi-da, uchratgan kishi qo‘l siltab ketib qolardi.

– Hech kim dardimni eshitmaydi. Hamma shunaqa.

Hamma o‘zini o‘ylaydi.

Birdan zardasi qaynab, birov bilan urishgisi kelaverdi. G‘ayrati qo‘zg‘ab uyga qarab chopdi. U borib akasining yoqasidan bo‘g‘ib olmoqchi, uni to qo‘li og‘riguncha do‘pposlamochi. Gandiraklay-gandiraklay uyga kirib bordi-yu, supaga yetmay yiqildi.

A‘zamjon ukasining ahvolini ko‘rib dast ko‘tardi-da, ayvonga olib yotqizib qo‘ydi.

– Ahmoq. Senga kim qo‘yibdi ichishni! – Opasiga ta‘na qildi. – Uni rasvo qilibsizlar. Na gapga kiradi, na ish buyursang qiladi. Taltaytirib yuboribsizlar, opa!

Qo'li xamir yuqi Risolat oshxonadan chiqib ayvonda yotgan Nizomjonning tepasiga keldi.

– Buni hech kim taltaytirgani yo'q edi. O'zi uch-to'rt kundan beri g'alatiroq bo'lib yuribdi.

Nizomjon nimadir demoqchi bo'ldi. Gapirolmay g'o'ldiradi. Ana shundan keyin u nima bo'lganini bilmaydi. Ko'zini ochsa, oy tepaga kelgan ekan. Uzoq-yaqinda xo'rozlar bir-birini chaqirishardi. Uydagilar allaqachon dong qotib uxlab qolishgan. Atrof jimjit. Nizomjon o'rnidan turib choynakdan sovub qolgan choyni shimirdi. Ayvonning labida o'y o'ylab ketdi. Nima qilsin? Taqdirga tan berib o'tiraversinmi? Ertaga Dildor shu hovliga kelin bo'lib tushadi. Bundan bu yoq bir umr shu uyda akasi bilan yashaydi. Nizomjon uning yuziga qanday qaraydi?

Nizomjon o'rnidan turib supada uxlab yotgan akasining tepasiga keldi. Hozir uyg'otadi, hammasini aytadi, to'yni to'xtatadi.

Ammo akasini uyg'otish uchun uning yelkasiga qo'l cho'z-ganda jur'atsizlik qilib shashtidan qaytdi. Akasiga qarab turib unga rahmi kelgandek bo'ldi.

Tamom, ketishi kerak. Qishloqdan bosh olib ketishi kerak.

U qorong'ida timirskilanib kiyim-boshlarini yig'ishtirdi-da, ko'cha eshikni lang ochgancha, katta yo'l tomon o'qdek uchib ketdi. U yugurardi. Diliga ozor bergan muhabbat tuyg'ularini orqada qoldirib akasini, opasini, dadasini tashlab qochardi.

Tug'ilib o'sgan qishloq, diliga birinchi muhabbat uchqunini tashlagan soy bo'ylari qolib ketdi.

III

Qirq birinchi yilning qishi kirdi. Janubiy front qo'shinlari shiddatli janglardan keyin Rostov-Don shahrini ozod qildilar. Partizan qiz Zoya Kosmodemyanskayani fashistlar dorga osdi. Bir varaq kepak qog'ozda kechikib chiqadigan respublika gazetasini Marg'ilonga ikki kundan keyin kelardi. Birdan-bir yangilikni radio aytib turibdi. Kombinat darvozasi oldida har kuni ertalab soat sakkiz yarimda odamlar g'uj bo'lib simyog'ochdagi karnayga quloq solishadi. Hamma o'z o'yi bilan bo'lib, jimgina sexlarga kirib ketadi.

Nizomjon shu yerda. Qiladigan ishi pillakashlarning qozoniga o't qalash. U necha marta frontga intildi, bo'lmadi. Yurt

ishida ham, shaxsiy hayotida ham uning omadi kelmadi. Uyi, joyi, izzat qiladigan qishlog'i bo'la turib begona joylarda yuribdi.

Uzun qish kechalari boshlandi. Nizomjon kattakon pechda qoramoy aralashtirilgan ko'mir kukunining lovillab yonishiga qarab jimgina o'tiribdi. Tashqarida qor bo'ralaydi.

Shu payt frontda nimalar bo'layotgan ekan? Sovuq bo'ronlarda okopda yotgan tengqurlari nimalar qilishayotgan ekan? Karimjon nima qilayotgan ekan? Nizomjon bo'lsa issiqqina hujrada, lang'illab yonayotgan pech oldida o'tiribdi. Agar barmoqlari butun bo'lganda shunday qilib o'tirarmidi?

U shunday xayollarga berilgan onlarda vijdoni qiynalib keltardi. Taqdirdan dod deb yuborardi. Uning ustiga deyarli har kuni biron ishchi ayol qora kiyinib kelardi. Nizomjon ularni ko'rib turibdi. Qoraxat olgan xotin bosh egib jimgina dastgohi tepasiga kelar, ko'z yoshini atrofda gilardan yashirib qabr ustiga engashgandek bosh ko'tarmay ishiga unnab ketar edi. Urush, g'am odamlarni bir-biriga hamdard qilib qo'ygan edi. Bugun bolasidan yo eridan qoraxat olgan xotinni ovutgan ayolning o'zi ertasiga o'g'lidan qoraxat olardi. Hamma bir-biridan ko'z yoshini yashirardi.

Shu tariqa qish ham yarimladi. Nizomjon kechasi sex boshlig'ining kabinetida, jildi to'zib ketgan divanda yotardi. Kechalari uxlamay radio karnayga quloq tutib, olis frontda bo'layotgan xabarlarini eshitardi.

Mana, bugun Yangi yil. Odamlar urush nasibasi — g'aribgina dasturxon ustida ko'p umidlar va'da qilgan qirq ikkinchi yilni kutib Moskva radiosiga quloq solmoqdalar.

Qishloqdagilar nima qilishayotgan ekan? Ular ham hozir dasturxon atrofida Moskvani eshitishayotganmikan? Nizomjon o'tgan dam olish kuni etik olgani Marg'ilon bozoriga tushganda qariyalar choyxonasi oldidan o'tib ketayotgan Adolatni uchratgan edi. Adolat A'zamjonning yarasi tuzalib, bundan bir yarim oy oldin yana frontga ketganini aytgan edi.

Radioda tanish diktorning ovozi tantanali yangramoqda edi:

“Qo'shinlarimiz Kavkaz frontida ilgari siljib borib, qattiq janglardan so'ng Feodosiya shahrini hamda Kerch qal'asini ishg'ol qildilar. Kaluga nemis bosqinchilaridan tamomila tozalandi”.

Nizomjon to'nini apil-tapil kiyib sexga yugurdi. Tungi sme-na tanaffusga chiqqan, hamma bir-birini Yangi yil bilan tabriklayotgan edi. Nizomjon u yoqdan-bu yoqqa yugurib radioda

eshitgan gaplarini aytar, ularni o'z quvonchiga sherik qilmoqchi bo'lar edi.

Bu quvonch ham uzoqqa bormadi. Darvoza oldida po'stinga o'ralib o'tirgan qorovul chol unga bir qog'oz tutqazdi:

— Bir shofyor berib ketdi.

Bu yozuv unga tanish. Asroraning dastxati. Nizomjon xatni ko'r-di-yu, quvonchmi, alammi, bilib bo'lmaydigan bir his vujudini qamrab oldi. Xatni o'qirkan, qo'llari qaltirab, ko'zlari bejo bo'lib ketdi.

— Nima gap, tinchlikmi, bolam?

Nizomjon gapirolmadi. Qo'lidagi qog'ozni g'ijimlab elektr lampasi atrofida kapalakdek aylanayotgan qor uchqunlariga tikilganicha turib qoldi.

Chol tashvishlanib yana so'radi:

— Gapirsang-chi, tinchlikmi?

— Akam...

U gapirolmadi. Tomog'iga bir nima tiqildi-yu, entiktirdi. Shu ko'yi ancha turgach, bitta-bitta bosib kombinat darvozasi-dan chiqib ketdi.

Asrora A'zamjonning halok bo'lgani haqida xabar kelganini yozgan edi.

Nizomjon urushda eri, o'g'li halok bo'lgan ayollarni ko'rgan. Ularga ich-ichidan kuyinardi. Ammo bu judolik o'z boshiga tushishini, tushgan taqdirda qandoq qilib chidashini xayoliga keltirmagan ekan. Mana endi akasi yo'q!..

Nizomjon qanday qilib tong ottirganini bilmadi. Nizomjon sex boshlig'idan ijozat olib Oltiariq yo'liga chiqdi-yu, o'tkinchi mashinaga qo'l ko'tardi.

U Chortherakka kun yoyilganda kirib bordi. Tom-toshlarni qor bosib yotibdi. Izg'irin ko'z ochirmaydi. Anhor bo'yidagi majnuntol butunlay qorga ko'milib ketgan. Ko'prik ustidagi qayrag'och novdalarini bulduruq o'rab tanasigacha oppoq qilib qo'yan. Ammo Nizomjon bu sovuq, noxush manzaraga parvo qilmasdi. U uyga, jigarining motamiga shoshardi.

Yo'lda odam uchramasdi. U mahalla ko'chasiga buril-gandagina ora-chora odamlar yo'liqa boshladi. Ular ko'pdan beri ko'rinmay ketgan Nizomjonga sovuqqina qarab qolishardi. Ba'zilarining ko'zida achinishmi, rahmdillikmi, allaqanday ifoda bor edi.

Uning qadami tezlashdi. Muyulishda uyning bir tavaqali eshigi ko'rindi.

Ammo u ostonaga kelganda yerni bosib yotgan qor ustida sanoqsiz oyoq izlari borligini sezmagani edi. O'qdek otilib hovliga kirdi. Kirdi-yu, oshxona oldida beli bog'liq opasiga ko'zi tushdi.

– Voy, akangdan ayrilib qoldik! Jigarimdan ayrilib qoldik!

Risolat yugura kelib uni bag'riga bosdi-yu, to'lib-to'lib yig'ladi. Ichkaridan bukchayib qolgan dadasi Inoyat oqsoqol chiqdi. U Nizomjonga sovuq bir nazar tashlab, joyidan qimirlamay turaverdi.

– Qayoqlarda tentib yuribsan? Arslonimdan judo bo'ldim.

Nizomjon ham karaxt bo'lib qolgandek joyidan qimirlamasdi.

– Akangdan ajraldik. Olis yurtda, begona tuproqda qoldi. O'z qo'ling bilan jigaringni qabrga qo'ymading. Bu kunlar dilingga armon bo'lib qoladi.

Risolat uning yelkasidan qo'lini olib dadasiga qaradi.

– Nima qilasiz, dada, bolaning yuragini ezib. Har qancha gap bo'lsa, mana keldi. Bafurja gaplashasiz.

Nihoyat, oqsoqol bir so'z demay ichkariga kirib ketdi. Sal o'tmay uydan qorining Qur'on tilovat qilgani eshitildi.

Nizomjon hamma narsani unutdi. Xuddi shu soat, xuddi shu daqiqadan boshlab, o'zining bolaligi tamom bo'lganini, birdan katta bo'lib qolganini sezmasdi.

Orqa tomondan oyoq tovushini eshitib Nizomjon beixtiyor o'girildi.

Ostonada sochini yozib, belini bog'lagan Dildor turardi. Uning qovoqlari shishgan, uyqusizlikdan bo'lsa kerak, rangi opoq oqarib ketgan edi.

Nizomjon beixtiyor orqasiga tisarilib unga yo'l berdi. Dildor boshini egib gunohkorona bir vaziyatda yonidan o'tib ketdi.

Qorining ovozi tindi. Uydan kishilarning yo'talishi eshitildi. Nizomjon ichkariga kirdi. Derazalari qirov boylaganidan qorong'i bo'lib qolgan xonada to'rtta chol g'o'ng'ir-g'o'ng'ir gaplashmoqda edilar. Inoyat oqsoqol poygahda choy quyib o'tiribdi. Nizomjon kirishi bilan chollar o'rinlaridan qo'zg'alib qo'yishdi. Kursisi olib tashlangan sandal cho'g'iga qo'lini tovlab o'tirgan chol Nizomjonning dadasini yupartardi:

– Endi, qandoq qilaylik, Inoyat. Peshanaga shundoq bitilgandan keyin ilojimiz qancha? Uch-to'rt oygina bo'lsa ham diydoriga to'ydirib ketdi. To'yini ko'rib qoldingiz. Biz sho'ring qurg'urlarning Ollo taolo oldida shuncha gunohimiz bor ekanmiki, dog'i hasratda yotibmiz. Bolaginamni ko'rmadim. Bolalarimizning qabri qayda, jasadi qayda, bir Olloning o'zi biladi. Shu

bir parcha qog'ozga qarab aza ochib o'tiribmiz. Eh-he, siz bilan mendaqalardan qanchasi qon-qora qaqshab o'tiribdi.

Cholning yuzlari bujmayib, serajin betlari kichkina bo'lib ketdi. Nizomjon cholning o'g'li halok bo'lganidan bexabar edi. Nizomjon uni yaxshi tanirdi. Urushdan oldin MTSda gruzovik haydardi. Juda chiroyli yigit edi. U kirgan uy to'lib ketardi. Samovarda u o'tirgan so'riga odam yopirilardi. U bilmaydigan Afandi latifasi yo'q edi. Ko'chada bironta tanishni uchratib qolsa, mashinani to'xtatib: "Bitta yangisini topib qo'ydim, aytib beraman", deb latifa aytib kuldirib o'tib ketardi. Ashulani ham yaxshi aytardi, ovozi shirali edi. Shunday quvnoq, shunday ko'r-kam yigit ham halok bo'libdi.

Chollar fotiha o'qib o'rinlaridan turishdi. Nizomjon dadasi bilan ularni ostonagacha kuzatib chiqdi. Qaytib dadasi uni uyga boshlab kirdi-yu, o'tqizib tergov qila ketdi.

– Qayoqda yuribsan, ahmoq? Senga nima gunoh qilgan edik? Qani ayt?

Nizom engashib tek o'tiraverdi. Chol boshini sarak-sarak qilib, uning javobini kutardi. O'g'lidan javob bo'lmagach, yana o'zi gap boshladi:

– Xo'sh, shuncha tentib yurib nima orttirding? Ust-boshingning isqirtligidan nima orttirganingni ko'rib turibman. Qariganimda qo'ltig'imga kirarsan, ro'zg'orimning bir chekkasidan ko'tarisharsan, degan edim. E, esiz, esiz bergan tuzim. Sen tengilar pul topib ro'zg'or tebratyapti, bola-chaqa boqyapti. Qani, ayt, endi nima qilmoqchisan?

Shu payt opasi dasturxon yiqqani kirdi. Ota-bola o'rtasida o'tayotgan gapning ma'nosiga tushunib, u ham o'tirdi.

– Opaginang aylansin. Bittangning dog'i hasrating ham yetar. Nimadan, kimdan diling og'rganini bilmayman. Akang dadam bechoraning belini bukib ketdi; endi sen kuydirma. Es-hushingni yig'. Yoniga kir. Bu urush o'lgur hammayoqni qiy-ratyapti. Dadamning ham besh kunligi bormi, yo'qmi, yonida bo'l. Akangning azasi deb bor bud-shuddan ayrildik. Yotib yeganga tog' ham chidamaydi. O'zimizning kolxozda ishla. Dildor – kelin ayang, og'iroyoqli. Ishga yaramay qolgan. Ertami-indin ko'zi yorisa, bir-ikki yil kolxoz ishini qilolmaydi. Dadam o'zingga ma'lum. Mendan umid qilmanglar, bolalarimni o'zim eplab, qo'llaringga qaramay turganimga shukur qilinglar. Jon uka, shu yerda qol. Hozir birovdan gina qiladigan payt emas. Yaxshi gapdan boshqa yordamim yo'q.

Nizomjon opasining gaplarini chin yurakdan eshitib o'tirardi. To'g'ri, qolib shu yerda ishlashi kerak. Ro'zg'orni o'zi qo'lga olishi kerak.

Biroq, biroq Dildor yashayotgan uyda turishni u o'zini-o'zi haqoratlash deb bilardi.

Dildorga ham u bilan bir joyda turish oson bo'larmikan?

Qanchalik qiyin bo'lmasin, Nizomjon qishloqda qolishga, keksayib qolgan dadasiga tirgak bo'lishga ahd qilib qo'ydi.

— Xo'p. Qolaman, opa.

IV

Nizomjon Marg'ilonga tushib, uydagi ahvolni tushuntirib, ishdan bo'shab keldi. Otasi Inoyat oqsoqol yana tirikchilikning payiga tushib, ertadan-kechgacha qo'lga ombur, sim olib surguri boyladi. Eshakka ortib o'zi piyoda qor kechib Marg'ilonga qatnadi. Risolat hamon ta'ziyaning rasm-rusmlarini to'la-to'kis qilaman, deb ro'zg'orda borini barbod bermoqda. "Shunday ukam tuproqda yotaveradimi, hech bo'lmasa o'z topgani o'zining ma'rakasiga yarasin", deb Dildorning bisotidagi borini bit-talab bozorga chiqaryapti. Inoyat oqsoqol yoshligidan bir gapini ikki qilmagan qizini bunaqa xarjlardan tiyolmasdi. Oila izmini butunlay uning qo'lga topshirib qo'ygan edi.

Nizomjon Karimdan kelgan xatni Asroraga olib borgan edi. U bilan ancha gaplashib, tushga yaqin tabiati ravshan tortib uyga keldi.

— Dunyoda nima gaplar bor, bolam? — deb qoldi otasi.

Nizomjon entika-entika gap boshladi:

— O'tgan kuni g'arbiy frontdagi qo'shinlarimiz poytaxt yaqinidagi Mojaysk degan shaharni ozod qilishgan edi. Endi Moskva oblasti dushmandan butunlay tozalanibdi.

Chol bu gapdan og'zini ochganicha angrayib qoldi.

— Shu bilan urush tamom bo'ladimi?

— Yo'q, dada. Nemis hali bizning yerimizda.

Cholning yuzlari yana burushib ketdi. U soqolining uchini barmog'iga o'raganicha tizzasiga tikilib qoldi.

Risolat Nizomjonning oldiga bir kosa mastava keltirib qo'yib, ayvon ustuniga suyanganicha uning xo'rillatib ovqat ichishiga qarab turardi. Oqsoqol hassasini do'qillatib ko'chaga chiqib ketgandan keyin ko'rpachaga o'tirib, ukasiga tikildi.

– Nizomjon, menga qara, ukajon, – dedi u jur'atsizlik bilan, – jigar jigarga yomonlik ravo ko'rmaydi-a?

Nizomjon uning nima demoqchiligini bilolmay hayron bo'ldi. Yelkasini qisdi.

– Yo'q, avval shuni menga ayt. Jigarining jigarga yomonlik ravo ko'rganini eshitganmisan?

Nizomjon bosh chayqadi.

– Balli, uka. Men opangman-a? Men ham senga yomonlik qilmoqchimasman, dadam ham shundoq. Ko'p o'yladik. O'y-lab-o'ylab bir qarorga keldik. Endi gap senda qoldi. Yo'q desang, illo-billo yuz ko'rmas bo'lib ketamiz.

Nizomjon opasining fe'lini yaxshi biladi. U tutgan joyidan kesadigan xotinlardan. Uning dastidan pochchasi dod derdi. Qildan qiyiq topib, janjal chiqarardi. Shu fe'lidan ikki marta qo'y-di-chiqdi bo'lib, uyga ko'chini ortib kelgan, besh bolasini ko'zi qiymagan pochchasi yalinib-yolvorib yana ko'chirib olib ketgan edi.

Albatta, u Dildorga ham ko'p ko'rgiliklarni solgan bo'lishi kerak. U Dildor ko'chaga chiqdimi, darrov uyga kirib qutisini kovlab nimasi bor, nimasi yo'qligini bilib olardi. Unga qaynagachilik qilib ish buyurar, qilgan ishidan, albatta, xato topib, koyir edi.

Nizomjon opasining gapni uzoqdan boshlab, daromad qila-yotganidan biron ko'ngilsiz gap borligini bilib, yuragi shuv etib ketdi. Agar shunchaki gap bo'lganda u bobillab gapirib tashlardi. Yo'q, u yalinganga o'xshab, shartini avval o'rtaga tashlab gap boshlayapti. Nima gap ekan?

Opasi gapdan oldin jindek ko'z yoshi qilib ham oldi.

– A'zamjonginam qandoq yigit bo'lgan edi, qandoq yigit bo'lgan edi-ya. Qarchig'aydek ukamdan ayrilib o'tiribman. Menga oson tutma, uka. Sen hali yoshsan, bittagina bolaga ota bo'lgin, judolikning qanaqa bo'lishini bilasan. U ketdi. Undan nima qoldi? Xuddi dunyoga kelmagandek ketdi. Suqsurdekkina xotini qoldi. Ertami-indin Dildor, albatta, ketadi. Bisot-bag'alni shipirib, uyni shipshiydam qilib ketadi. Yosh umrini bevalikda xazon qilarmidi? Ukamdan homilasi bor. Bola dunyoga kelsa, kimlarning qo'liga qaraydi?

Uning gaplari Nizomjonning jigar-bag'rini ezib yubordi. Boshini eggancha piq-piq yig'lardi u.

– Oydekkina juvon qo'ldan chiqib ketmasa, deyman. Uka-ginamning bolasi birovlarning eshigida xor bo'lmasa, deyman.

Nizomjon opasining gaplaridan, Dildorni ketqizma, shu uyda turaversin, degan ma'no anglab:

— Shu uy uniki, da'vom yo'q, — dedi.

— Yo'q, boshqa gap aytmoqchiman. Shariatda sharm yo'q. Dildor qo'limizdan chiqib ketmasin, deyman. Akangning bolasiga ota bo'lib, peshanasini silasang deyman. Shariat bunga yo'l beradi. Dadam ulamolar bilan gaplashib kitob ko'rib keldi.

Nizomjonning tanasiga elektr toki urgandek vujudi zirqirab ketdi. Opasi nima deyapti? Akangning xotiniga — kelin ayang-uylan, deyapti! Bu qanday gap! Bu gapni birov eshitsa nima deydi? Uning, yurt urushda jon olib, jon berayotgan paytlarida biron xizmati bilan shu kurashga hissa qo'sholmay, mayda ishlar bilan urinib yurgani yetmagandek, endi akasining xotiniga uylanishi qolganmidi? Nahotki, unda vijdon bo'lmasa, nahotki, izzat-nafs degan narsa bo'lmasa! U opasining, dadasining gapiga kirib shu ishga rozi bo'lsa, bir umr vijdon azobida qolib ketmaydimi? Qanday yashaydi? Odamlarning ko'ziga qanday qaraydi? Erta-indin urush ham tugab qoladi. Omon qolganlar qaytib kelishadi. Shunda ular: “Sen nima qilding?”, deb so'rashsa, nima deb javob beradi? “Kelin ayamga uylanib, burchak-burchakda tirikchilik qilib yurdim”, deydimi? Hech kim so'ramasa ham, Karim so'raydi.

Nahotki, opasi Dildorga shunchalik mehribonchilik qilayotgan bo'lsa? Nahotki, akasining hali tug'ilmagan bolasiga shuncha mehribonlik qilsa? Yo'q, uning dardi boshqa. Nizomjon opasining dardini biladi.

Dildor keksayib qolgan Yunusali otaning yolg'iz bolasi. Ota qizini to'kis-tugal mol bilan uzatgan. Uning ustiga dardchil cholning besh kunligi bormi, yo'qmi? Oq tunuka tomli ichkari-tashqarili hovliga Dildordan boshqa merosxo'r yo'q. Opasi ana shularni o'ylab, uni ukasiga ravo ko'ryapti.

Nahotki, Dildor bu gaplarga rozi bo'lgan bo'lsa?

Nizomjonning sukutga ketganini opasi rizo alomati deb o'yladi-da, uning yelkasiga qoqib gapirdi:

— Xo'p deyishingni bilardim. Endi gap shu. Dildorning ko'nglini ol. Uni bundan bu yoq kelin aya, deb chaqirma...

Nizomjon sherdek bo'kirib o'rnidan turib ketdi. U qalt-qalt titrar, ko'zlari qinidan chiqay deb opasiga o'qrayib qarar edi.

— Meni kim deb o'ylayapsiz? Shu gapni nima deb gapirdingiz? Odamgarchilikdan chiqqan, deb o'ylayapsizmi? Vijdon-

siz, deb o'ylayapsizmi? O'zimni osib qo'ysam qutulamanmi?! O'zimni chavaqlab tashlasam qutulamanmi?

Uning bo'g'iq, alamli baqirishidan yo'lakda turgan dadasi hassasiz, engashganicha ariq labiga keldi.

– Nima gap? Nimaga baqiryapsan, ahmoq?

Uning vajohatidan qo'rqib ketgan opasi qochib dadasining orqasiga yashirindi.

– Musulmonman deysiz, dada. Shumi musulmonlik?!

– Baqirma! Bitta-yarimta eshitib qolsa nima deydi?

– Akam go'rida tik turmaydimi? Hech bo'lmasa arvoh xotira qiling!

– Arvoh xotirasi deb shu ishni qilyapmiz. Rahmatlik akangning birgina yodgori yot-begonalar qo'lida xor-zor bo'lsa, maylimi?

– Bu zamonda hech kim xor bo'lmaydi, zor bo'lmaydi.

Shu payt chorbog'dan echki yetaklab Dildor kirib keldi. U ota-bola o'rtasida nima gap bo'layotganini bilolmay eshik oldida to'xtab qoldi. U, Nizomjonning shuncha vaqt yo'q bo'lib ketganiga chol uni endi qiyin-qistoqqa olyapti, deb o'yladi. Inoyat oqsoqol unga yomon o'qraydi.

– Bolam, sen ishingga qarayver. Bu o'zaro gap.

Dildor echkini behiga bog'lab, yana chorboqqa yura boshlagan edi, chol unga o'dag'aylab berdi:

– Hoy, echki behining po'stlog'ini shilib tashlaydi-ku!

Dildor churq etmay, echkini yechib ko'chaga olib chiqib ketdi.

– Bola, shuni yaxshi bilib qo'yki, mening aytganimni qilasan.

Nizomjon shu yoshga kirib dadasining gapini ikki qilgan bola emasdi. Hammavaqt nima desa bosh egib, xo'p, deb kelgan. Inoyat oqsoqol bolalarini ayamasdi. Ularni biron marta iliq-issiq gap aytib erkalatmagan. Akasi A'zamjon gojroq edi. U dadasining gapiga xo'p derdi-yu, keyin o'zi bilganicha ish tutib ketaverardi. Nizomjon unaqa emas, soddaligidan, to'g'riligidan dadasiga chap berolmasdi. Mana, u umrida birinchi marta ota yuziga tik qarayapti.

Uning yomon qarashidan Risolat bezovtalanib qoldi. Biron kori hol bo'lmasin deb, ota-bola o'rtasiga kirdi.

– Hoy bola, jinni bo'lma. Xo'p, de!

– Yo'q! – u dadasiga yuzlandi. – Dada, uyalmaysizmi, andisha qilmaysizmi? Akamning tuprog'i hali sovimay turib-a?

– Dadangga shunaqa deysanmi, yaramas!

Chol unga o‘dag‘aylab yaqin keldi.

– Xo‘p, desang, deganing, bo‘lmasa...

Yuragining allaqayerida bir nima uzilib ketgandek Nizomjon entikdi. Ko‘zlari tinib, olam qop-qora zimistonga aylangandek bo‘ldi. Ikki tizzasida darmon qolmay og‘ir kaltaklardan shalayim bo‘lib yiqilib, o‘rnidan turganga o‘xshardi. Dadasi nima qilmoqchi, oq qilsa-ya?! Unda dunyoda kimi qoladi? Nimasi qoladi? Endi uning odam bo‘lib yashashidan nima ma‘no chiqadi? Nizomjon ko‘zlarini javdiratib dadasiga qaradi.

– Dadajon, o‘ylab ko‘rsangiz-chi? O‘z bolangizga shu kunni ravo ko‘rasizmi? Bunaqada meni tiriklayin ko‘masiz-ku. Akamning o‘rniga men o‘lib ketsam bo‘lmasmidi!

– Koshki edi...

Nizomjon ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

– Jon dada, niyatingizdan qayting. Baribir men bunga ko‘nmayman.

– Shunaqami?

– Durustroq o‘ylab ko‘ring...

– Shunaqami?

Nizomjon iztirob bilan qichqirdi:

– Ha!

– Oq qildim, seni! Sendaqa bolam yo‘q! Oqpadarsan! Yo‘qol bu uydan!

U bir muddat dadasining o‘t chaqnayotgan ko‘zlariga ma‘yus boqib turdi-da, bitta-bitta bosib yo‘lak tomonga yurdi. U birdan to‘xtab orqasiga o‘girildi. Yosh to‘la ko‘zlari bilan tug‘ilgan uyiga, hovliga, bolalik yillarida emaklab borib suv ichgan ariqqa, chumchuq bolasini olaman deb tirmashib chiqqan keksa o‘rik shoxlariga, varrak uchirgan tom bo‘g‘otlariga tikilganicha turib qoldi. Og‘ilxona oldida zanjirlangan Olapar unga qarab dumini likillatar edi. Nizomjon borib uning bo‘ynidan quchoqlab, boshlarini, quloqlarini ezg‘iladi. Ziyrak it bir nima sezgandek, Nizomjonning ezg‘ilashlariga turib berdi. Nizom uning bo‘ynidagi zanjirini yechib yuborganda ham joyidan qimirlamay ma‘yus qarab yotaverdi. Nizomjon uyga kirib onasining ramkaga solingan suratini olib chiqdi-da, ko‘kragiga bosganicha hech qayoqqa qaramay ko‘chaga yugurdi.

U qayrag‘och tagiga yetganda devor raxnasidan oshgan bo‘lsa kerak nimchalari, tirsaklari tuproq bo‘lib ketgan Dildorning yo‘l o‘rtasida turganini ko‘rdi:

– Nima bo‘ldi?

Nizomjon unga yomon qaradi.

– Ayt, nima bo‘ldi?

– Xonadonimizga kulfat olib kelding, shumqadam!

Nizomjon yo‘lini to‘sib turgan Dildorning yuziga qaramay o‘tib ketdi. U alam bilan yig‘lab qolgan Dildorga qayrilib qaramadi. Shamoldek yelib borarkan, qulog‘ida hamon “oqpadar”, “oqpadar”, “oqpadar” so‘zi takrorlanardi.

U mahalla ko‘chasidan chiqib, dala yo‘liga o‘tishi bilan qadami sekinlashdi. Ichidan kelgan kuchli xo‘rsinish tomog‘ini kuydirdi. Bir nima shitirlagandek bo‘ldi. O‘girilib qarasa, orqasida boshini egib Olapar ergashib kelyapti. U yana uning bo‘ynidan quchdi.

– Sen qol, sen qol. Sen oqpadar emassan. Qol! Qol!

It uning gaplariga tushunmadi. Yana ergashaverdi. Nizomjon yerdan kesak olib unga otdi. Tegmadi. It yana ergashdi. Oxiri u kattakon toshni oldi-yu, kuchining boricha unga uloqtirdi. It angillab orqaga qaytdi-da, nariroq borib o‘tirib oldi. Nizomjon ko‘zdan yo‘qolguncha orqasidan ma’yus tikilganча qoldi.

Qishloqdan uzoqlab ketgan Nizomjon qo‘ynidan ona suratini olib tikildi-da, hasrat-nadomat bilan ingradi:

– Aya, ayajon!..

IKKINCHI BO'LIM

I

Yerdan qor ketgan bo'lsa ham, ko'lmak suvlarning beti ertalabga yaqin piyoz po'stidedek muz boylardi.

Bahor bahor ekan. Olisda o't yonishiga qaramay, shaharlar vayron bo'lishiga, odamlar o'qqa uchishiga qaramay, baribir bahor odamlar ko'ngliga allaqanday iliqlik olib kirardi.

Har yakshanba to'n kiyib, etigini moylatib Marg'ilonga tushadigan qishloq yigitlari endi olisda — urushda.

Bu tomonlarga endigina rasm bo'lgan baland poshnali tuffillar sandiqqa tushgan. Kiyganda ko'zni oladigan qichiqatlas endi qizlarning ko'ngliga sig'maydi. Hammaning ko'zi front yo'lida.

Zirillama guzaridagi katta qayrag'och shoxiga ilingan radio-karnay tagiga kuniga to'rt mahal odam yig'iladi. Odamlar jim. Har kim sukut ichida front yo'llaridan, vayron bo'lgan qishloqlardan, olingan shaharlardan o'z bolasini, akasini, ukasini qidiradi. Shunday sukut bilan yana tarqab ketadi.

Mana, tag'in bahor keldi. Huvillab qolgan daraxt shoxlariga qushlar cho'p tashib in qura boshladilar. Zirillama guzari ham sekin-sekin gavjum bo'la boshladi. Bahor odamlarni uydan yetaklab chiqqan, oftob zax uylarning derazasidan mo'ralab qishdan qolgan rutubatni haydamoqda.

Devorlari nurab qolgan hovlining kungay tomonidagi ayvonda keksagina bir xotin kamzuliga tugma qadab o'tiribdi. Oftob qizdirgan qora ko'rpachada hurpayib yotgan mushuk uning qatim tortayotgan qo'llariga qarab xurillaydi, g'altak ipni olib qochishga payt poylaydi.

– Qo‘y, Mosh, bu senga o‘yinchoq emas. Yo‘qotib qo‘y-sang, keyin ipni qayoqdan topaman?

Mushuk uning gaplariga tushungandek, yana xurillaydi.

– Sen o‘lgur gapga tushunarmiding, senga o‘yin bo‘lsa.

Xotin ishini bitkazib o‘rnidan turdi. Ustun oldiga kelib bo‘y cho‘zib ko‘cha tomonga qaradi. Ko‘chadan gupchagiga moy tegmagan arava g‘ichillab o‘tayotgan edi. Egarda o‘tirgan kishi bukchayib nimanidir ming‘illab xirgoyi qiladi. Arava eshik oldiga kelib to‘xtadi. Egardagi kishi arava shotisiga oyoq tirab devordan qarab qichqirdi:

– Ho, Jannat xola, uydamisiz?

– Kiravering, Ummatali, kiravering.

Ummatali gup etib o‘zini yerga tashladi-da, hovliga kirdi.

– Rais yubordi, – dedi u, u yoq-bu yoqqa alanglab.

– Aravangizni devorga to‘g‘rilang. Ana, olib ketavering! – Jannat xola devor tagidagi bug‘i chiqib turgan go‘ng uyumini ko‘rsatdi.

Ummatali tashqariga chiqib aravani to‘g‘riladi-da, qaytib kirib pashaxa bilan raxnadan oshirib aravaga go‘ng ota boshladi. Xotin unga razm solib turib ichi ezilib ketdi. Qandoq yurardi-ya! Qishloqda uni kattadan-kichik “Ummatali paratka” derdi. Kiygan kiyimiga gard yuqmasdi. Chiy baxmal nimchasing ko‘krak cho‘ntagidan soat zanjiri osilib turardi. Endi bukchayib qopti. Kiyimlari ham bir holatda. Azizxoni urushga ketdi-yu, shu ko‘y-ga tushdi.

Jannat xola ayvon labiga o‘tirib unga tikilarkan, ko‘ngli allanechuk bo‘lib ketdi. O‘rnidan turib oldiga keldi.

– Azizxondan xat bormi, o‘rgilay?

Ummatali pashaxa dastasiga bag‘rini berib ancha turib qoldi, unga qaramay, bir xo‘rsinib oldi-da, dedi:

– Ancha bo‘ldi kelmaganiga.

Jannat xola negadir bosh qimirlatdi.

– Menikidan ham xat yo‘q. Qandoq qilamiz, o‘rgulay.

– Ikromjondan-chi? – dedi Ummatali yerga qarab.

– Yaqinda xat kelgan edi. Tinchman, debdilar.

– Xayriyat.

Ummatali boshqa gap so‘ramadi. Ishini bitkazib egarga mindi-yu, xayr ham demay jo‘nab qoldi.

Hovli jimjit. Mushuk hamon xurillaydi. Kampir ayvonda kaftini iyagiga tiraganicha o‘tiribdi.

Bolasi turmay-turmay, yakkayolg'iz arzandasi Tursunboyni shamolni ham ravo ko'rmay avaylab boqib katta qildi. Kechalari uxlamay, shu yolg'izimning umrini uzun qil, deb Xudoga nola qilib chiqardi. Hozir qayerlarda yurgan ekan? Diydorini bir ko'rib, Tursunboyning alpdek qomatini bag'riga bir bosib o'lsa armoni qolmasdi.

Kampirning dilida, tilida kecha-yu kunduz shu gap.

Ammo Tursunboydan xat ham, xabar ham kelmadi. Dadasi har xatida: "Tursun qalay, armiyaga chaqirilmadimi? Kasal-pasal bo'lgani yo'qmi, nega xat yozmaydi?" deb so'radi.

Ota uning armiyaga ketganidan bexabar edi.

Tursunboy ketayotgan kuni onasiga qarab turganda ko'zlarida yosh yiltiragandek bo'lgan edi. Jannat xola haligacha bilmaydi — o'shanda o'g'li yig'laganmidi yo peshanasidan tomgan ter yiltirab shunaqa ko'rganmidi?

Ona ko'zi oldida o'g'lining qop-qora qoshlari, chaqnagan ko'zlari qoldi. Yigirma bir yil atrofida parvona bo'lib, aylanib-o'rgilib boqqan bolasini urush bag'ridan yulib oldi. Hozir u qayoqlarda yurgan ekan? Ochmikan, to'qmikan? Lekin ona ko'ngliga taskin berardi: "Bolam yurt ishiga yarab qoldi. Ko'pga kelgan to'y ekan, qandoq qilay, qirq yil qirg'in bo'lsa, ajali yetgan o'ladi, ishqilib, yolg'izim sog'-omon kelsin!"

Jannat xola o'rnidan turdi-da, bitta-bitta bosib ko'cha eshigidan tashqariga qaradi.

Dala oftobda yashnardi. Kimdir to'q-to'q tesha urib ishkonga poya kesyapti. Katta yerning oxiridagi tosh yo'ldan yuk mashinasi gurillab o'tib ketdi. Kampir avtomobil ovozi eshitmaganiga ham ancha bo'lib qolgan edi. Bu tovush negadir unga urushdan avvalgi paytni eslatdi. U Tursunboy bilan shunaqa mashinada Marg'ilonga tushgan edi. Eri Ikromjon Moskvadan kelayotganda ona-bola uni o'sha yerda kutib olishgan.

Kampir ko'chaga chiqdi-yu, beixtiyor guzarga qarab yura boshladi.

Bugun negadir Zirillama juda gavjum. Idora oldida qora mashina turibdi. Kallaklangan tollarga sakkiz chog'li ot boylan-gan. Kampir hayron bo'lib samovar so'risiga o'tirdi. Choyxo'r-lardan biri:

— Ota ancha ozib qopti-ya, — dedi.

— Yo'ldoshvoyga ham oson tutib bo'lmaydi, — dedi unga bir mo'ysafid. — Boshida yurtning tashvishi, uyqusining mazasi

yo'qdir. O'zimiz misol, kichkinagina ro'zg'or deb ne kunlarni ko'ryapmiz.

Kampir ularning gapidan Zirillamaga Yo'ldosh Oxunboboyev kelganini bildi. U Oxunboboyevni yaxshi tanirdi. Akasi bilan birga katta bo'lishgan. Ikromjon bilan bo'lsa yaqin og'ayni edi. U har gal Marg'ilon kelganida, albatta, Ikromjonni surishtirib, o'zi Zirillamaga kelolmasa, albatta, oldirib ketib, birpas chaq-chaqlashib, Andijonga o'tib ketar edi. Zirillamaga kelgan paytlarida Ikromjonni chaqirtirib o'tirmay, o'zi to'ppa-to'g'ri eshikni ochib kirib kelaverardi. O'tgan yili Jannat xolaning akasi Sodiqjon vafot qildi. Yo'ldosh ota eshitganmikan?

Idoradan Oxunboboyev bilan Rayimberdi tog'a chiqdi. Ularga ergashgan raislar sal orqaroqda qolishdi. Ota Tog'ani qo'ltiqolib choyxona tomonga yura boshladi. Ular qandaydir zarur gapni qizishib so'zlashardi. Oxunboboyev nimadandir jahli chiqqandek, Tog'aga qattiq-qattiq gapirardi.

Ular so'riga yaqinlasharkan, hamma o'rnidan turdi. Birdan otaning ko'zi Jannat xolaga tushdi.

— Iya, iya, singlim, tinchmisan?.. Eshitdim. Ikrom frontda ekan. Xat bormi? Erkatoy qalay, yaxshi yuribdimi?

Ustma-ust savol berganidan Jannat xola nima deb javob berishni bilmasdi.

— Tursunboyingiz ham ketdi.

— Bitta o'zing qolibsanda? Sodiq ham qazo qilibdi... — Oxunboboyevning kulib turgan yuzi birdan jiddiy bo'lib qoldi. Ikki qoshining o'rtasiga tugunchak tushdi. Ko'zlari bir nuqtaga tikilganicha indamay turib qoldi. Keyin dard-alam bilan so'riga kelib o'tirdi. — Ko'pni ko'rgan kishi edi. Yaxshi odam edi.

Boshqa gap aytmadi. Uzatilgan piyolani olib indamay o'tiraverdi.

Kim biladi, u Sodiqjon bilan o'tkazgan yigitlik yillarini eslayotibdimi, yo'qotgan aziz og'aynisi uchun ichidan yig'layaptimi. U shu ko'yi ancha jim o'tirgandan keyin sovib qolgan choyni ho'plab, Jannat xolaga qaradi:

— Yakka qolganing yomon bo'libdi. Ular kelguncha Toshkentga olib ketaymi? Biznikida tura turasan.

Jannat xola bosh tebratdi. Oxunboboyev o'rnidan qo'zg'aldi.

— Mayli, o'zing bilasan. Rayim, xabar olib tur. Zoriqtirib qo'yma. Ikrom kelganda uyatli qilma bizni. Menga gapping yo'qmi, singlim?

— Yo'q. Sizni ko'rib akamni ko'rgandek bo'ldim.

Yo'ldosh ota o'tirganlar bilan hazillashib o'tib ketdi. Ular negadir shahar tomonga emas, dalaga qarab ketishdi.

Jannat xola o'rnidan turdi. Yana uyga qarab yo'l oldi. U endi negadir o'zini sira yolg'iz qolganga o'xshatmasdi. Bu yerda kimidir borga, kimningdir nafasi dimog'iga tegib turganga o'xshayverdi. Xayolidan yomon o'ylar nari ketdi.

Huvillab qolgan uyda yolg'iz yashash qiyin. Hovli yutaman deydi. Ammo Jannat xola yolg'izlikka ko'nikib qolgandi.

Kech kirdi. Chiroq yoqib ayvonda yana kundagi o'tirishi boshlandi. U yolg'iz emas. Xayolida eri bilan, arzanda bolasi Tursunboy bilan xuddi to'g'rima-to'g'ri o'tirgandek gaplashardi.

Oy chiqdi. Yalang'och novdalar orasidan o'tguncha beti timdalangandek horib-charchab terak uchiga chiqib oldida, qimirlamay turib qoldi.

Qo'shni hovlida xo'roz qichqirdi. Qayerdadir it ulidi. Kimningdir bolasi big'illab yig'ladi.

Birdan eshik tagida it vovilladi. U go'yo uyga kirib qolgan notanish kishini talamoqchidek jon-jahdi bilan vovillardi. Jannat xola cho'chib ketdi. Yana eshik tomonga quloq soldi. Eshik halqasini kimdir qoqardi.

— Kim? — dedi Jannat xola bezovtalanib.

— Men, men, Jannat. Och!

Bu eri Ikromjonning tovushi edi. Jannat xola qanday qilib eshik oldiga borganini bilmaydi. Zulfinni topolmay dovdiradi.

— Ochsang-chi, nima bo'ldi?

— Hozir, hozir.

Jannat xola titrab-qaqshab arang zulfinni topdi-da, eshikni lang ochib yubordi.

Yog'och oyoqli Ikromjonning boshi va yelkalarini oy yoritib turardi.

II

Ertalab Rayimberdi tog'a keldi.

U Ikromjonning bir oyog'i yo'qligini ko'rib, yuragi jiz etib ketdi. Ammo buni unga sezdirmadi. Quchoq ochib ko'risharkan: "Xayriyat, xayriyat, tirik ko'rdim!" — dedi.

Hovlida xotin-xalaj ko'p. Erkaklar biri kirib, biri chiqib turishibdi. Hali nami ko'tarilmagan supaga ham bo'yra to'shab, sholcha yozilgan. Erkaklar shu yerda. Samovarga tarasha tashla-

yotgan chol raisga chakkasidagi bir dasta binafshani olib uzatdi. Tog'a olib hidladi-da, Ikromjonga berdi.

– Mana, bahor nishonasi. Hidla, sog'ingandirsan.

Binafsha qo'ldan qo'lga o'tdi. Shu binafsha bahona bo'ldi-yu gap bahor, dala, bu yilgi qilinadigan ishlar to'g'risida ketdi.

– Tog'a, – dedi choy quyib o'tirgan Ummatali Rayimberdiga qarab, – kecha Ota kelgan ekanlar. Tinchlikmi ishqilib?

– Tinchlik. Yozyovonga chiqib keldik. Ish katta bo'ladigan. Bizga Naymandan yer berishyapti.

Nayman – cho'l to'qayining o'rtasida. U tomonlarda dehqonchilik qilish oson ish emas.

– To'qayda nima qilamiz? Paxta bitarmidi? Turgan-bitgani botqoq, pashshaning uyasi!..

Rayimberdi endigina oq oralab kelayotgan mo'ylovini silab iljaydi:

– Hukumat bir ish qilsa bilib qiladi. Cho'lga chiqamiz-u, paxta ekib ketaverarmidik? U joylarda paxta bitishiga ikki qovun pishig'i bor.

Ikromjon gapga aralashmay bir chekkada jimgina o'tiribdi. Rayimberdi choyni shimirib, piyola chetini yengiga artirdi-da, dasturxonga qo'ydi.

– Azbaroyi kolxozchiga madad bo'lsin, yeguligi o'zidan chiqsin, deb shunday qilyapmiz. Avval ikki yilgina sholi ekamiz. Ammo-lekin, Naymanga ko'chish ixtiyoriy. Ota aytdilarki, cho'lga ko'chib chiqqan oilalarga kuzga qolmay boshpana qilib beriladi. Har brigadadan ikki oila ketsa – o'ttiz to'rt xo'jalik bo'ladi. Binoyidek qishloq qurish mumkin. Ammo kuzgacha chaylada yashab turishga to'g'ri keladi. Har bir oilaga o'n olti sotix tomorqa, o'ziga sholi ekib oladi. Daromad taqsimotida qanchadan tushsa, boshqalar qatori yana oladi. Meningcha, bu ishga ko'nmaydigan odam bo'lmasa kerak. Ammo-lekin, boshqa kolxozlar ham shunday qilyapti.

Raisning bu gapini ko'pchilikni o'ylantirib qo'ydi. Choyga fohi o'qilgach, hamma o'rnidan turdi.

Shu kuni keldi-ketdi bo'lib Ikromjon ko'chaga chiqolmadi. U tug'ilib o'sgan dalalariga chiqqisi kelardi. Frontda yurarkan, bu yerlarni tushida ham, o'ngida ham ko'z oldidan nari ketkazolmagan edi. Sal oyoq uzildi deguncha ostonaga chiqib dala tomonga qaradi. Hali barg yozmay so'rraygan yalang'och novdalar dalaning yiroq-yiroqlarini to'solmas, ufqqa aniq ko'rinib turar edi.

Kech kirib, keluvchilarning oyog'i uzilishi bilan, u ko'chaga chiqdi.

Dala jimjit. Tanga yoqadigan erta bahor shabadasi g'ir-g'ir esib, odam ko'ngliga allaqanday tuyg'ular soladi. Ikromjon aylanib yurib anhor oldidan chiqib qolganini sezmedi. Kech g'ira-shirasida suv qo'rg'oshinga o'xshab qorayib oqardi. Ikromjon bu anhorda necha martalab cho'milgan. O'g'li Tursunboy bir nafas ko'zdan yiroq bo'lsa, uni qidirib shu yerdan topardi. Bola kamgap, qiladigan ishini birovga aytmasdi. Ota-bola jimgina uya qaytishardi-da, ikkovi ikki uyga kirib ketishardi. Er-xotin supada o'tirib, yolg'iz bolaga uzoq umr tilab uxlamay tunni tongga ulashardi.

Tursunboy qayoqlarda yurgan ekan? Ketar oldida Ikromjon uni bag'riga bosolmadi. Bu kunlar diliga armon bo'lib qolmasin ishqilib. Ikromjon o'z xayolidan o'zi qo'rqib ketdi.

Qizil barkashdek oy shoshilmay osmonlay boshladi: Ikromjon frontda, okopda yotganida ham oy shunaqa bo'lib chiqardi. O'shanda u allaqanday bola xayollarga berilib, shu oy Zirillama tepasida qanday ko'rinayotganini o'ylardi.

U jimib qolgan dalada yaralanib, qonsirab yotarkan, tepasida dum-dumaloq bo'lib turgan oyga qarab, shunaqa xayollarni ko'p surgan edi. O'shanda ham oy qonga belangandek qip-qizil bo'lib ko'ringan.

Anhor suvi avval qizg'ish bo'lib, keyin bir qorayib oldi-da, jilvalari eritilgan kumushdek oqarib ketdi.

Suv sekin shildiramoqda. Yoshligini, sho'x olov bolaligini oqizib ketgan shu anhor kimlarningdir bolaligini oqizardi. U go'yo: yur, olislarga qarab olib ketay, deb Ikromjonni chaqirayotganga o'xshardi.

Saraton oftobi tanini kuydirgan o't bolalar qiy-chuv, shovqin-suron bilan bu qirg'oqlarda javlon urishardi. Bir-birlariga suv sochib quvlashishardi. Suvdan tez chiqqanlarning tanasiga loy surtib qochib uni boshqatdan cho'milishga majbur qilishardi.

Ularning sho'xlilari ana o'shanda shu to'lqinlarga minib uzoqlarga oqib ketgan. Endi ulg'ayib biri urushda jon olib, jon beryapti. Biri qandaydir yurt ishini qilyapti. Tursunboy-chi? U ham urushda!

Urushning nimaligini Ikromjon yaxshi biladi.

U kamgap, hammavaqt kimningdir rahnamoligi bo'lmasa o'zini eplolmaydigan bolasini sherga aylanib ketganini sezdi.

Tursunboy hammadan oldinda, arslondek na'ra tortib yov ustiga tashlanayotgandek tuyuldi.

Otalar o'z bolalarini dunyodagi bolalarning eng zo'ri, eng xushbichimi, deb bilishadi.

Darhaqiqat, Tursunboy nihoyatda ko'rkam yigit bo'lgan edi. U o'zining shunaqaligini bilib ko'p bino qo'yardi. O'zini sipo tutardi. Qizlarga zimdan nazar tashlab, ularning qarayotganini bilib gerdayibroq, pisand qilmayroq turardi. Unga kiyim juda yarashardi. Hozir shinelda qandoq yurgan ekan? Yarashgandir.

Otaga u savlatli komandirlardek bo'lib ko'rinardi.

Ikromjon bolalik izlari tushgan yo'llardan, tor ko'chalardan yog'och oyoq bilan allavaqtgacha kezib uyiga qaytdi. Xotini uxlamay, tiq etsa, eshikka qarab o'tirgan edi.

Ikromjon yotmadi. Er-xotin choyni maydalab shu bir-ikki yil ichida bo'lib o'tgan voqealarni gaplashib o'tirishdi.

– Ummatalining Azizxoni ham ketdi degin? Cho'kib qopti bechora Ummatali... Aytmoqchi, Qo'chqorning o'g'li mendan oldin ketgan edi, xat-xabar bormi undan?

– Qishda qoraxat kelgan. Aza ochishdi.

Ikrom bir nafas jim qoldi. Keyin yana so'radi:

– Olimdan-chi, Olimdan xabar bormi?

– Yarador bo'lgan ekan, bir oycha turib ketdi.

Ikromjon yog'och oyog'ini chiqarib qo'ygan edi, surilib borib ayvon ustuniga tirab qo'ygan qo'ltiqtayog'ini tushirib yubordi. Uni olib, tut tagiga borib maxorka o'radi-da, joyidan qimir-lamay tek turib qoldi.

Jannat xola erining qo'lidagi qorong'ida nurli chiziq bo'lib qimirlab turgan cho'qqa qarab o'ylanib qoldi. Eri chekmasdi, frontdan chekadigan bo'lib kelibdi. Unga oson emas. Bir yoqda oyog'i bu ahvolda, bolasi urushda. Ne-ne niyatlari bor edi bechoraning, bu yil to'y qilmoqchi edi. Ishqilib, ko'p qatori bolaginamning rizqi uyidan uzilmagan bo'lsin. Voy oting o'chgur urush, ne-ne yostiqlarni ko'z yoshdan ho'l qilmayapsan-a!

Ikromjon chekib bo'lgan maxorkani yerga urdi. Ojiz uchqunlar atrofga sachrab, so'ndi. Keyin Ikromjon ayvonga kelib bir qo'lga tiralib o'tirdi.

– Menga qara, xotin. Bunaqada siqilib ketamiz, bir nimadir qilish kerak.

Jannat xola uning gapiga tushunmadi. Nima qilish kerak ekan? U eriga ko'zlarini katta-katta ochib qaradi.

– Tog'aning gapini eshitdingmi?

Tog‘a, bu – Rayimberdi. Ko‘pchilik uni shunday deb atardi. Jannat xola uning boyagi gaplarini eshitmagan edi. Shuning uchun boshini chayqadi.

– Kolxoz Naymandan yer opti. Yaqinda o‘ttiz to‘rt oilani ko‘chirma qilarmish. Boraylik, xotin. U yerda ish ko‘p, zora ovunsak.

Jannat nima deyishini bilmadi. Qandoq bo‘larkin? Borsa durust bo‘larmikan? U eriga savol nazari bilan qaradi:

– Ne niyat bilan uy qilgan edik. Bolam kelsa qidirib sarson bo‘lib qolasmikan? Shundoq joyni tashlab cho‘lda, to‘qayda nima qilamiz? Yaxshiroq o‘ylab ko‘ring, dadasi.

– E, xotin. Imorat, uy ko‘zga ko‘rinadigan paytmi. Ne-ne saroylarning kul bo‘lganini ko‘rib keldim. Odamlar yerto‘lada och-nahor yashashyapti. Menga qolsa, borganimiz durust. To‘g‘ri, cho‘lda tayyor uy yo‘q. Bu yoz chaylada kun ko‘ramiz. Kuzga borib bitta boshpana tiklab olarmiz. Uying ham turaveradi.

Jannat xola erining ra‘yini qaytarolmay ko‘nsa-da, uyni tashlab ketgisi kelmasdi. Hovlining har burchidan, uyning har xonasidan Tursunboy ko‘rinib turgandek. Sandiqni ochib uning kiyimlariga kuyadori sepgisi kelmasdi. Nazarida, bolasining hidi ketib qolayotgandek. Shuning uchun ham kiyimlarini oftobga yoymay uyning o‘zida qoqib, shamollatib, yana sandiqqa solib qo‘yardi. Oshxona qurganlarida dadasining do‘qi bilan Tursunboy devorga o‘zi loy chaplagan edi. Qo‘lining izi shundoqqina turibdi. Jannat xola uni yaqinda ko‘rdi. Shundan beri har gal shu devor oldiga kelganda: “Qo‘lginangdan o‘rgulay”, deb shuvoqqa yuzlarini surtardi.

O‘g‘lining hidi kelib turgan, devorida bolasining qo‘l izi qolgan uyni tashlab qayoqqa ketadi?

– Yaxshilab o‘ylab qarang. Zirillamadan Tog‘a ish topib berar, – dedi u yalingansimon.

– Ish har yerdan topiladi. Qayoqqa borsang, bag‘rini ochib kutib oladi. Hali Tog‘a unaydimi, unamaydimi. Ishning bu tomoni ham bor. Mayli, yotaylik endi. Ertaga bir maslahat chiqib qolar.

Ikromjon yechinib o‘rniga kirdi-yu, qattiq charchagan ekan, dam o‘tmay xurрак torta boshladi. Ammo Jannat xolaning uyqu-si qochib ketdi. Dam u yonboshiga, dam bu yonboshiga ag‘darilardi.

Oy tomdan hatlab o‘tib, tut soyasini ariq bo‘yiga olib borib qo‘ydi. Ariqda suv qo‘ng‘iroq chalib oqib yotibdi. Behi shoxida mudrayotgan tovuq qanotini bir patillatib, jim bo‘ldi.

Hamma narsa – jonli, jonsiz uyquda. Faqat Jannat xolaning ko‘ziga uyqu kelmaydi. U kiprik qoqmay yalang‘och novdalarining yengil shabadada bir-biriga beozor urilishiga quloq solib yotibdi. Uning xayollari juda olislarda. Yo‘lga kirmay tuproqqa qo‘ygan bolalari, erining bola yetaklaydigan kunlarini kutib o‘tkazgan paytlari, nihoyat, Ikromjon Tursunboyning qo‘lidan yetaklab Zirillamaga olib chiqib ketgani, bolaning guzardan etagi to‘la shirinliklar bilan chug‘illab kirib kelgani, ana o‘shanda erining yuzidagi bir chiroyli tabassum, Tursunboy ertaga maktabga boradi, degan kuni er-xotin kechasi bilan kiyim dazmollab chiqqanlari, o‘sha oqshom erining bolani sartaroshga olib chiqib sochini oldirgani, bola darsdan chiqquncha maktab ostonasida o‘tirganlari, erining frontga ketishi, uning yo‘liga ko‘z tikib o‘tgan kecha-kunduzlari, Tursunboyga povestka kelganda yig‘laganlari, shular hammasi bir-bir ko‘z oldidan o‘taverdi.

O‘z oyog‘i bilan uydan chiqib ketib eri yog‘och oyoqqa suyanib kirib keldi. O‘g‘li nima bo‘ladi? Omonmikan? Butun qaytarmikan? Shu uylarda to‘y-tomosha bo‘larmikan? Bolasini kuvovlik sarposida ko‘rarmikan?

III

Urush chaqmog‘i chaqib, odam o‘lib, shaharlar yonayotgan kunlarning birida kimsasiz Nayman cho‘liga qarab ikki otliq borardi.

Qamishlar orasida ularning boshi goh ko‘rinadi, goh suvga sho‘ng‘igandek yo‘q bo‘lib ketadi.

Bo‘rilarning etni jimirlashtiradigan ulishi, to‘ng‘izlarning ko‘ksov yo‘talidek yoqimsiz tovushi, echkemarlarning murda nigohidek sovuq boqishi, har yer-har yerda qolgan ilon po‘stlarining ojiz yiltirashi va nihoyat, do‘ngliklarda haykaldek qotgan sahro sultoni – cho‘l burgutlarining: bu mening maskanim, odamga yo‘l yo‘q, degandek viqorli boqishi bu ikki yo‘lovchining yuragiga vahm sololmasdi.

Oldingi otda Rayimberdi tog‘a. U yelkasidagi qo‘sh tig‘ni qo‘liga olib olislarga bo‘y cho‘zib qarab qo‘yadi. Orqada ko‘pdan beri sukut ichida allanimalarni o‘ylab, maxorka tutatib kelayotgan Ikromjonga har zamonda bir o‘girilib qaraydi, uning xayolini bo‘lmaslik uchun yana otga beozor qamchi tegizib jimgina ketaveradi. Yo‘l goh quruq, goh botqoq oralab o‘tadi. Ot har botqoq kechganda qorniga sarg‘imtir ko‘lmakning muzdek suvi

sachrab tegayotganidan eti dirillaydi. Quloqlarini silkitadi. Tog'a Ikromjonga qandaydir juda zarur bir gap aytmoqchi, ammo aytgani yuragi dov bermaydi. Shu bir gapi uning butun vujudini larzaga solishi, hatto taqdirini o'sha onda yo u yoqli, yo bu yoqli qilishi mumkin. Aytsinmi?

Yaqinda harbiy komissarlikdan odam kelib unga Tursunboyni frontga jo'nayotgan eshelondan qochganini aytib, bu tomonlarga kelgan-kelmaganini surishtirgan edi.

Aytsa, Ikromjonning holi nima kechadi? Mana shu qochoq – uning bitta-yu bitta bolasi. U faqat shu bolasi uchun yashab yuribdi. U shu o'g'lini yurt ishiga yaroqli mard bola bo'lganidan faxrlanadi. Eh-he, uning ko'nglida hali qancha orzulari bor.

Agar Tog'a shu gapni aytsa... Yo'q, aytmagani durust. Vaqti kelib, mavridi kelib o'zi bilib olar.

Tog'a ot jilovini do'nglikka burdi. Yovvoyi jiyda shoxlarini, qurib qolgan qamishlarni qasir-qusur bosib ot tepaga chiqdi. Do'ngda chakmonini yelkasiga tashlab o'tirgan odamdek turgan vahimali burgut beozor qanot silkib, xuddi suvda suzayotgandek tik osmonga ko'tarildi. U ikki otliq tepasida bir aylandi-yu, qamishzorga sanchilgandek sho'ng'ib ketdi.

Ular turgan do'nglikdan cho'lning uzoq-uzoqlari ko'rinar edi. Yilning bu faslida cho'lning hamma yog'i bir tusda bo'ladi. Qum ham, to'qay ham, botqoq yuzida zardob bo'lib yotgan ko'lmak ham sap-sariq. Sal kun o'tmay bahor jalalari boshlanadi. Qamishzorlar yashillanadi, qirlarda lolaqizg'aldoqlar gulxani yonadi. Ammo qum malla to'nini yechmay tura beradi.

Hozir hammayoq sap-sariq bo'lganidan cho'l qayerdan boshlanib, qayerga tutashishini bilib bo'lmasdi.

Rayimberdi tog'a bu tomonga ko'p kelmagan. Yoshligida bolalar bilan mol boqqani uncha uzoq bormasdi. Bo'ridan, echkemardan qo'rqardi. Keyin kolxoz tuzilgan yillari bu yoqlarga kelishga qo'li ham tegmadi, kelishga zarurat ham yo'q edi. Mana, har ish o'z mavridi bilan bo'larkan. Endi ketyapti. Butun boshli bir qishloq tuzgani ketyapti. Qishloq qayerda bo'ladi, qayerga nima ekiladi, shu bugun hal bo'lishi kerak.

Sog' oyog'ini uzangiga tirab ot ustida tik turib cho'lga tikilayotgan Ikromjon uning xayollarini bo'lgisi kelmay, yana egarga o'tirdi. Xaltachasidan maxorka olib o'ray boshladi. Tog'a o'giri lib unga ma'noli qarab qo'ydi.

– Ikrom, ilgari kelganmisan?

Ikromjon maxorkasini o't oldirib bo'lib bir-ikki tortgach, bafurja javob berdi.

— Kelganman. Ko'p kelganman. Qumga yetmasdan chapga burilsak, katta yalanglik bor. Ana o'sha yerda Yo'ldoshboy akam ikki tup tol ekkanlar. Qurib qolmagan bo'lsa, katta tol bo'lib ketgandir. Kanal qurganimizda, bir kun yur, deb qoldilar. Unda kunlar isib, lolaqizg'aldoqlar qovjirab qolgan payt edi. Ikki kun shu cho'lning u boshidan kirib, bu boshidan chiqqanmiz. O'sha tolni topsak bo'ldi. Agar boshqa kolxozlar bizdan oldin kelib tanlab qo'ymagan bo'lsa, o'sha joy bizniki. Undan tashqari, kanalgaga yaqin joy, suv olib kelish oson bo'ladi.

Kun yoyilib, yelkani oftob qizdira boshladi. Uzoq-yaqindan o'rdaklarning g'aq-g'uqi eshitildi. Qayerdadir bo'ri ulidi.

Rayimberdi otdan tushib, xurjunni ajriqqa tashladi-da, ko'l-makda qo'l yuvib, belbog'iga arta boshladi.

— Tush, Ikrom, nonushta qilib olaylik. Qorning ham ochgandir.

U xurjunni titkilab tunuka choynak bilan krujka olib o'rtaga qo'ydi. Ikromjon ham egardan tushdi. Ikkovlashib jiyda shoxidan uch oyoq yasab choynakni ilishdi. Xurjunning bir ko'zidagi katta shisha ballondagi suvni avaylab olib choynakni suvga to'ldirib, tagiga o't qalab yuborishdi.

— Juda ovbop joylar, — dedi Ikromjon. — O'rdakning koni.

— Baliqni aytmaysanmi!

— Ha. Baliq ham, quyon ham, to'ng'iz ham bor. Qum tomonlarga o'tsang kiyik serob. Avval ko'chib olaylik, go'shtga qiynalasmiz. Suv sal taxchil bo'lar deyman.

Tog'a o'ylab o'tirmay javob qildi:

— Ishni kanaldan ariq ochib kelishdan boshlash kerak.

Choy qaynadi. Ikromjon belbog'ining uchiga tugug'lik choydan bir chimdimginasini choynakka tashladi. Tog'a non ushatar-kan, Ikromjonning yog'och oyog'iga qarab bir muddat nimanidir o'ylab qoldi.

— Ko'p qiynaladingmi? — dedi u allaqanday achinish ohangida.

— Qirt-qirt kesyaptiyamki, tentak Tursunboyim ko'zimga ko'rinadi. Xuddi meni kimga tashlab ketyapsan, deyayotganga o'xshayveradi. Yo'q, yolg'izimning toleiga o'lmadim, omon qoldim. Kelsam, u ham ketibdi. Ketar oldida diydorini ko'rolmay qoldim. Ishqilib, omon qaytsin. Agar Xudo ko'rsatmasin, unga bir nima bo'lsa, tamom bo'laman... — Ikromjonning ovozi titradi.

Tog'a unga qarab turib ich-ichidan yonardi.

Bilmaydi, bilmaydi bechora, Tursunboyning qochganini u bilmaydi. Qidirib yurishganini bilmaydi.

— Ishqilib, men bu yoqlarda yurganimda bolam qaytib kelsa, uydan topolmay sarson bo‘lib qolmasin-da. Kelib qolsa, Tog‘a, o‘zing Naymanga boshlab kelasan-da.

Rayimberdi bosh irg‘ab qo‘ydi.

O‘rnilaridan turishdi. Yana to‘qay, botqoq oralab ketishdi. To‘qay orasiga suqilib kirgan qumlikdan o‘tishgach, olisda hali barg yozmagan daraxtning novdalari chuvalashgan qizg‘imtir ipdek bo‘lib ko‘rindi.

— Tol, o‘sha tol! — dedi Ikromjon. — Yo‘ldoshboy akam ekan tol.

Tog‘a otga qamchi bosdi. Ular yetib kelgan joy olti-yetti gektarlardan mo‘lroq yalanglik edi. Shu sayhonlikning har yer-har yerida to‘dalashib qamishlar o‘sib yotardi. Ikromjon ot jilovini egar qoshiga omonatgina chulg‘ab tol tagiga keldi. Ikkala tolning tanasi ham yo‘g‘onlashib, shoxlari tarvaqaylab ketibdi. Tog‘a tolning bujur tanasiga shapatilab urib qo‘ydi.

— Mana shu yerda qishloq bo‘ladi!

Keyin u yoqdan-bu yoqqa yurib atrofni tomosha qila boshladi. Shu yurishida u ko‘p narsalarni xayolidan o‘tkazardi.

Bu botqoqlarda tirikchilik qilish oson bo‘lmas. Chiviniga chidashni ayting. Boshpana tiklash, uskuna tashib keltirish. Kelishga kelib qo‘yib, qochib ketadiganlar ham chiqib qolar. Qiyini shu bir yil. Bir yilda epaqaga keltirib olishsa marra ularniki! Imorat uskunasini qaydan topsa ekan? Uning xayoliga urush boshlanishi oldidan devori ko‘tarilib, usti yopilmay qolib ketgan madaniyat saroyi keldi. Saroy uchun allaqancha taxta, yog‘och tunuka oldirib qo‘ygan.

— Ikrom, esingda bormi, Novosibirga ikki vagon uzum, bir vagon anor olib borganing?

— Esimda, esimda, — dedi Ikrom. — O‘shanda rosa yog‘och bosib kelgan edik.

— Ha, balli, o‘sha yog‘ochlarning bittasini ham begona qilmaganman. Saroy qurishga asrab yurgan edim. Urush tugasin, saroy ham bo‘lib ketadi. O‘sha yog‘ochlarni shu yoqqa tashitamiz. Nima deysan? Yetmaganiga terak kestiramiz. Tunuka bor-u, yetmaydi. Mayli, tunuka bo‘lmasa ham, hozircha qog‘oz yopib turamiz.

Ikkovlari ham qizishib ketishdi. Qayerdan ko‘cha ochiladi, qayerga uy tushadi, qayerga kontora bo‘ladi, qayerga quduq qazdirish kerak, u yoqdan-bu yoqqa yurib joy tanlashardi.

– Poydevorga semon quymasa, g'isht sho'r bosib uqalanib ketadi. Semonga qalaysan, Tog'a?

Rayimberdi kulib qo'ydi:

– Bu tomonidan xotirjam bo'laver. Quvasoydan tashitamiz. Nima semon ketardi, o'n besh mashina keltirsak bemalol yetadi. Ertagayoq Abduxalilni Quvasoyga jo'nataman. Shartnoma qilib kelsin. Mayli, ishchilarga nima kerak bo'lsa, biz ham yuboraylik. Qovun deyishsa qovun, uzum deyishsa uzum. Yo'q, deyishmas. G'isht kerakmas, semon poydevorning ustiga paxsa ursa juda antiqa chiqadi. Ammo-lekin, hamma o'z devorini o'zi uradi. Bola-chaqasi bilan unnasa, bo'lib ketadi. Bo'ldi. Ish bitdi.

Quyosh tepaga kelgan. Qumlik tomondan iliq shabada esardi.

– Bilyapsanmi, Ikrom, ko'klam shabadasi yurib qoldi. Endi kurtaklar uyg'onadi. Yer urug' so'raydi. Dehqonning ishi endi boshlanadi. Qani, ketdik.

Tog'a uzangiga oyoq qo'ya turib yana qaytdi.

– Bitta ishni chala qilibmiz, shoshma!

U ko'krak cho'ntagidan daftar-qalam olib tizzasiga qo'ydi-da, yo'g'on-yo'g'on harflar bilan shunday deb yozdi: "Bu joy Zarkent kolxozining Nayman uchastkasidir".

Keyin u Ikromjonga qarab, qalay, degandek iljaydi.

– Shunday qilmasak, boshqa kolxozlar ham bugun-erta joy qidirib kelib qolishadi. Olib qo'yishmasin-da. Oxunboboyev otaning gaplariga qaraganda, yuzdan ortiq kolxoz cho'ldan joy olarkan. U tomoni Anjon, bu tomoni Namangan, Qo'qon taraf, xullas, cho'lni doira shaklida o'rab, o'zlashtirib kelinaverarkan. Bizniki shu joy. Tamom!

Xat yozilgan qog'ozni tol kovagiga suqib bir qarashda ko'rinarmikan, degandek orqaroqqa qaytib qaradi. Qog'oz bemalol ko'rinib turibdi. Shundan keyingina xotirjam otga minib orqaga qaytishdi.

Ular yo'lning yarmiga yetmasdanoq, quyosh botib ketgan, osmon-u falakda suzib yurgan uvada bulutlarni qip-qizil cho'qqa aylantirgan edi. Zum o'tmay bu shafaqlar ham so'ndi-yu, butun olam qora chodirga o'ralgandek bo'ldi-qoldi.

– Yo'ldan adashmadikmi? – so'radi Tog'a.

– Yo'q, ot adashmaydi. Kelgan yo'ldan ketyapmiz.

Bolalar qo'lidagi shardek qip-qizarib oy asta ko'tarila boshladi. Bo'rilarning vahimali ulishi avjiga chiqdi. Chirildoqlar temir egovlagandek tovush chiqaradi, qamishlar orasidan chiya-bo'rilarning ko'kintir ko'zlari o'chadi, yonadi...

Rayimberdi vahimali tovushlarga quloq solib borar ekan, al-laqanday g'urur yo ichki bir turtki olib chiqqan tovush bilan dedi:

— Esingda bo'lsin, oshna. Mana shu tovushlar qulog'ingda tursin. Shu joylarda qamish yoqib, botqoq qazib, chivinga talanib qishloq quramiz. Bolalarimiz urushda jon olib, jon berishayotganda biz bekor turganimiz yo'q. Shu esingda tursa bas.

Ikkovlari hamon qamishlarni shitirlatib yo'l bosishar, hali qishloq chiroqlari ko'rinmas edi. Oldinda ham, orqada ham bo'rilarning uvillashi-yu, chirildoqlarning tovushi hokim edi.

Ammo Ikromjon na bo'ri tovushini eshitar, na yuzlariga urilayotgan qamishlarning shitirlashini sezar edi. U fikran o'g'li bilan gaplashar, goh uni yo'qotar, goh olovlar ichidan topib bag'riga bosar edi.

IV

Tumanli osmonda oy xuddi doka chodir orqasida yoqilgan shamdek shaklini yo'qotgan. Zirillama guzaridagi bittagina sim-yog'ochda elektr chiroq yonib turibdi. Dvijokning bir maromda aylanmaganidan u ham ko'z qisayotgandek lipillaydi. Chetlarida teraklar o'sgan ko'chadan ikki otliq chiqdi. Ularning biri Tog'a, biri Ikromjon. Tog'a pravleniye oldida otdan tushdi-da, kutib turgan qorovulga otning jilovini tutqazib Ikromjon bilan xayrlashib qorong'i yo'lka bo'ylab ketdi. Ikromjon sovqotganidan bir piyolagina achchiq ko'k choygga zor bo'lgan edi. Shuning uchun ham u ot jilovini samovar tomonga burdi.

Choyxo'rlar yo'qligidan choyxona barvaqt yotgan, ichkarida samovarchi tog'oraga qaynoq suv quyib jo'mragiga jez qoplagan choynaklarni, chegalana berib olapes bo'lib ketgan piyolalarni yuvayotgan edi. Ikromjon otni tolga boylab ichkariga kirmoqchi bo'lib turgan edi, so'rida mukka tushib g'ujanak bo'lib o'tirgan bir odamga ko'zi tushib to'xtadi. Unga yaqin keldi. Ikromjon biron yo'lovchi bo'lsa kerak, o'tkinchi mashinani kutib uxlab qolgan bo'lsa ajab emas, deb o'yladida, indamay ichkariga kirib ketdi.

— Baxayr, bemahalda yo'qlab qopsan, inim, — dedi samovarchi chol uni ko'rib.

— Bitta achchiqqina qilib damlab bering!

— Xo'p, xo'p, inim! Endigina damlab qo'rga tiqib qo'ygan edim.

U otashxonadagi choynakni olib, tagini kir sochiq bilan ar-tib, Ikromjonning oldiga qo'ydi.

– Sovqotibsan, inim. Ma'longa tushganmiding?

– Naymandan kelayapman, otaxon. Tog'a bilan o'shaqqa borgan edik.

– Ov qildinglarmi? Qashqaldoq serob payt hozir.

Chol o'zining bola paytlarida Nayman cho'liga ko'p borga-nini gapirib ketdi.

– U paytlarda to'qayga odam kirolmasdi. Yovvoyi to'ng'iz demagan qaynab yotardi. O'rdak ov qilaman degan mergan Naymanga borsin. Ma'londa kombinat endi qurilayotgan paytlar edi. O'ris texniklar valasapit minib yelkasida qo'sh miltiq bilan Naymandan to'ng'iz urib kelishardi. Bilmadim, hozir Nayman qandoq bo'lib ketgan ekan. To'qayda o'n qadam oldinroq yur-gan otlarning boshi ko'rinmay ketardi.

Ikromjon choy ho'plar ekan, tashqaridagi so'rida o'tirgan kishi esiga tushdi. Bironta nogiron frontovik bo'lmasin, tag'in.

U piyolani namatga qo'yib, tashqariga chiqdi.

Tuman sal tarqab, g'ira-shira oydin bo'lib qolgan edi. Nota-nish kishi endi ikki tizzasini quchoqlab qorong'ilikka sokin tikil-ganicha qimirlamay o'tirardi.

– Ha, mehmon, yo'l bo'lsin? – dedi Ikromjon unga yaqin kelib.

Notanish kishi boshini ko'tarib unga qaradi: yoshgina yigit.

Bu – Nizomjon edi.

– Marg'ilondan kelayotgan edim. Anjon tomonga mashina bo'lib qolarmikan, deb kutib o'tiribman.

Nizomjonning ovozi titraganidan Ikromjon uni sovqotgan gumon qilib ichkariga taklif qildi.

– Bemahalda bu yerda o'tirma. Ichkariga kir, uka. Biron piyola choy ich!

Nizomjon itoatkorlik bilan o'rnidan turib yonboshidagi tu-gunchasini ko'tarib unga ergashdi. Ikromjon yorug'da bolaning basharasiga qarab qo'rqib ketdi. Bolaning yuzlari sarg'aygan, o'zi titrardi.

– Bola, bezgak tutganga o'xshaydi seni.

Ikromjon uning peshanasiga qo'lini qo'yib ko'rdi.

– Isitmang baland-ku. – Unga qaynoq choy tutdi. Ich, ich buni! Anjonda kimning bor?

– Hech kimim yo'q.

– Qayerliksan?

– Chorterakdanman. Tarixim uzoq, amaki. Boshim oqqan tomonga ketyapman. Akamning ta’ziasidan kelyapman. Undan qoraxat kelgan.

Ikromjon uning bu gaplaridan hech narsa tushunmadi. Shu ahvolda, isitma jazava qilib turgan paytda qayoqqa boradi? Qo’nadigan boshpanasi bo’lmasa.

– Ahvoling chatoq, bola. Qani, tur bo’lmasa, seni uyga olib ketmasam, biron dardga chalinib qolasan.

Nizomjonning ko’pdan beri endi iliq so’z eshitishi edi. Qayga borsa, oyog’ining tagidan biron falokat chiqib turadi. Hali oq-qorani durustgina tanimagan yigitcha bu qiyinchiliklar, vijdon iztiroblari oldida savdoyidek kalovlab, taqdirning ayovsiz o’yinidan garang bo’lib qolardi. O’z uyiga sig’magan, jigarlari bag’ridan joy topolmagan Nizomjon bu notanish kishining uyiga sig’armikan?

U ming xil xayollar bilan kichkinagina tugunchadan iborat bisotini qo’ltiqlab Ikromjonning orqasidan tashqariga chiqdi. Nizomjonni chinakamiga bezgak tutgan edi. U qorong’ida notanish kishi orqasidan borarkan, ikki tizzasida mador qolmagani-dan yurayotganga emas, sudralayotganga o’xshardi.

...Ular bir tavaqali eshik oldida to’xtashdi. Ikromjon qamchi dastasi bilan eshikni beozor taqillata boshladi. Xotin-kishining “Huv!...” degan tovushi eshitildi.

– Keldik, uka, – dedi Ikromjon ot egaridan xurjunni olarkan.

Eshik ochildi.

– Qayoqda qolib ketdingiz, xavotir olib o’ldim.

– Mehmon boshlab keldim, xotin.

Ikromjon shunday dedi-yu, jilovdan tortib, otni yo’lakdan boshlab kirdi.

– Mehmonni uyga olib kir, men otga picha yem tashlab qo’yay.

Ayvonda chiroq yonib turganidan Nizomjon xotinning yuzini aniq ko’rdi. U ellikka yetmagan bo’lsa-da, yuzlarini ajin bosgan edi.

– Qani, yuravering bolam, yuravering.

Oldiga brezent chodir tutilgan ayvon chetida sandal bor edi. Xotin ildam chiqib yangi yakandoz yozdi-da, Nizomjonni yuqoriga undadi. Nizomjon poygahga omonatgina o’tirdi. Hali qorong’ida Nizomjon sezmagani ekan, Ikromjon ayvonga chiqa-

yotganda bir oyog‘i yog‘och ekanini ko‘rdi. Urushda bo‘lganini payqadi.

– Kampir, achchiqqina xo‘rda qilib ber, mehmon bolani bezgak ushlab qolibdi. Ko‘ryapsanmi, a‘zoyi badani qaqshab ketyapti.

Kampir Nizomjonga bir nazar tashlab shoshib oshxona tomonga ketdi. Ikromjon sandal ko‘rpasini ko‘tarib bosh suqdi-da, olovni ochib qo‘ydi.

– Bola, sen unaqa iymanib o‘tirma. Mana bu yoqqa o‘tib joylashib o‘tir. Hozir bezgak ko‘p. Qo‘yaver, tashvish qilma. Davosi oson. Achchiq xo‘rdadan ichib, bitta terlasang, zora tuzalib qolsang.

Sandal issig‘i badaniga o‘tishi bilan Nizomjonning ko‘zi ilinaverdi. To xo‘rda suzilib kelguncha u bir tomonga qiyshayib uxlab qolgan edi.

– Uyg‘otmay qo‘ya qol. Ertalab isitib berarsan. Bola ko‘p uringan ko‘rinadi.

– Kim o‘zi, bu bola, dadasi? – dedi Jannat xola sekingina.

– Bir bandayi mo‘minning bolasi-da, kim bo‘lardi. Bechora ko‘p uringanga o‘xshaydi. Boshidan ko‘p savdolar o‘tgan ko‘rinadi.

– Hali uni tanimaysizmi?

– Guzardagi samovar so‘risida g‘aribgina bo‘lib o‘tirgan ekan. Ko‘rib yuragim ezilib ketdi. Yetimga o‘xshaydi. Akasining ta‘ziyasidan kelayotgan ekan.

Ikromjon kuni bilan to‘qay kezib qattiq charchagan edi. Ovqat ichib turib ham ikki marta esnab oldi.

– Joy qilib bera qol, xotin, yotay.

Jannat xola oyoq tomonini sandalga to‘g‘rilab unga joy so‘lib berdi. Nizomjonning boshini ko‘tarib yostiq qo‘ydi. Ustiga ko‘rpa tashladi. U bolaning boshiga yostiq qo‘yayotganda yuragi jiz etib ketdi. Nazarida, Tursunboyi kelgan-u, charchab sandal chetida yotib qolgan...

Xuddi ayozda hovlida qolgan chelak betidagi muzdek oy ko‘kda tanho, g‘aribgina suzayotgan kechada Jannat xolani xayol allaqayoqlarga sudrab ketdi.

O‘z bolasining nafasi, hidi kelib turgan bu begona bola boshida o‘tirib yolg‘izi Tursunboyini o‘ylardi.

Tursunboyga qizamiq chiqqanda er-xotin kechalari uning boshida ana shunday tong ottirishardi. Yolg‘iz o‘g‘il Tursunboyini yer-ko‘kka ishonishmasdi. U salgina isitma chiqazsa, er-xo-

inning rangida qon qolmas, yegan-ichganlari ichlariga tushmas edi. Tursunboy qizamiq chiqqanda ularni ko'p qiynagan edi. Erka o'sgan bolani parhezda tutish juda qiyin bo'lgan. U tufayli er-xotin ko'p urishishardi. Dadasi koyisa, onasi uni puf-puflab ovutar, onasi koyisa, dadasi bola qolib onasiga yopishar edi.

Tursunboy sog'lom o'sdi. Ularning toleiga u har qanday dardni ham yengil o'tkazardi. To ko'kyo'tal bo'lguncha Ikromjon dalama-dala kezib ko'kqarg'a ovladi. Ona, bolam hali xom, shu ko'kyo'taldan ham omon-eson o'tib olsa edi, deb tashvish tortardi. Tursunboy bir-ikki kun yo'talish bilan bu dardni ham o'tkazdi. Ko'kqarganing pati ham darkor bo'lmay qoldi.

Peshanadagi bitta-yu bitta bolani er-xotin ana shunday tashvish, ana shunday mehribonchilik bilan katta qilishdi. Urush bo'lmaganda allaqachonoq uylantirib qo'yishardi. Mana, shamolni ham ravo ko'rmagan yolg'izlari urushda. O'qlar portlagan, har daqiqa o'lim tahdid qilib turgan frontda holi nima kechdi ekan?

Jannat xola begona, notob bola tepasida o'tirib o'z bolasini o'ylarkan, ko'zlaridan dumalab tushayotgan qaynoq yoshlari ajinli yuzlarini kuydirardi.

Nizomjon ingradi. Jannat xolaning hushi o'ziga keldi. Beixtiyor peshanasiga oriq panjalarini qo'ydi. Hali ham kuyib-yonyapti.

Nizomjon alahlay boshladi.

— Dildor, Dildor! Qanday chiroylisan! Kasofat Dildor! Sen bizni xonavayron qilding. Aka, ana Dildor! Dadamga ayting, aka, dadamni yo'lga soling. Opamni urishib qo'ying. Ayting, Dildor ko'nmasin! Dildor. Dildor... Oqpadar! Kim oqpadar? Ket, ket, Olapar! Ket, ket, Olapar! Qayt uyga, sen oqpadarmassan!.. Qayt! Yo'limni to'sma, Dildor...

Jannat xola uning gaplaridan hech narsa tushunmadi. Darrov o'rnidan turib sochiqni ho'llab peshanasiga bosdi. Nizomjon yana nimalardir deb jim bo'ldi. Ingrad.

U har ingraganda Jannat xolaning yuragi ezilar, ko'ziga Tursunboy bo'lib ko'rinib ketar edi. Tursunboy qonga belanib begona kishining uyida yotibdi. Notanish xotin uning boshida o'tirib yarasiga malham qo'yyapti.

Onalar shunday bo'ladi. Ular uchun bolaning begonasi bo'lmaydi. Bola zotiki bor, ona ko'nglini eritadi. Onalar bolasini chertgan kishini, "qo'ling singur", deb qarg'aydi.

Bola hatto keksayib necha-necha bolaning otasi, bobosi bo'lganda ham boshi yostiqqa yetgundek bo'lsa, tani sal og'rigudek bo'lsa dastavval, "ona" deb chaqiradi. Allaqachon qabrga qo'yilib, tuprog'i sovugan onasini chaqiradi.

Nizomjon u yonboshidan bu yonboshiga ag'darilarkan, "aya, ayajon!" deb ingradi.

Jannat xola, beixtiyor:

— Enaginang aylansin, bo'tam, senga nima bo'ldi? — deb yuborganini sezmadi.

V

Nizomjon ko'zini ochganda ayvonda hech kim yo'q edi. Brezent chodir orqasida kimdir to'q-to'q qilib o'tin yorardi.

U qayerda yotganini, bu yerga qanday kelib qolganini bilmasdi. Sandal chetida ko'zini ochmay uyg'oq yotganicha shu yaqin kunlarda ko'rgan-kechirganlarini unutib, avvalgidek o'z uyimdaman, deb o'ylagan edi. Ko'zini ochsa, begona uyda ekan. Darhol, tanini zirqiratgan, yuragini burda-burda qilgan kechmishini esladi. Tushiga uyi, dadasi, akasi, Dildor kiribdi.

A'zamjon hovlida o'rikka suyanib, ma'yus turganmish. Dadasi bilan opasi uning yuziga qarasholmasmish. Dildor deraza oldida piq-piq yig'layapti. Onasi ko'cha eshigida turib ostonadan o'tishga unamay A'zamjonni chaqiryapti.

— Yur, yur, bolam, ketaylik, kech bo'lib qoldi.

U ota bilan aka o'rtasida nima qilishini bilmay turgan Nizomjonga tashvishli bir qarab qo'ydi.

— Endi senga jabr bo'ladi, bolam, o'z yo'lingni o'zing top, ketimizdan borma!

Nizomjon marhum onasi va akasining yuzlarini shundoqqina ko'rdi. O'zgarmagan, ammo negadir ikkovining ham bo'yi juda uzun bo'lib ketganmish.

Nizomjon xomush o'tirib onasini eslab ketdi. Nazarida onasi hozir oshxonada o'tin yoryapti. Nega o'zi o'tin yoradi? O'tinni hamisha Nizomjon yorib berardi-ku? Shu payt ko'ylagini lippa urgan Jannat xola xokandozda lang'illab turgan cho'g' olib keldi.

— Voy, ko'zingni ochibsan-ku, bolam. Hozir sandalni bozillatib beraman. — U olov solayotib, sandal ichidan g'o'ng'illab gapirardi. — Kechasi juda qo'rqitvording, isitmang baland edi. Kasaling bezgak, bolam. Men ham bu o'lgurning dardini ko'p tortganman. Amaking guzarga chiqib ketdi, hozir dori olib keladi.

Amaki, kim bo'ldi? Nizomjon u odamni ko'rmagan, eshitmagan-ku!

Kecha Ikromjon uni samovar so'risida g'ujanak bo'lib o'tirganda olib kelganini eslayolmaydi. Marg'ilondan Zirillamagacha uzoq yo'lni isitma aralash piyoda bosib kelganidan qattiq charchagan, kechadan beri tuz totmagani ham o'z kuchini ko'rsatgan edi. O'shanda Nizomjon o'zini bilmasdi.

Hozir u shu o'tirishda o'ylab o'yiga yetolmadi. Bu mehribon kishilarning kimligini bilolmadi.

— Kechasi xo'rda-mastava pishguncha uxlab qolding. O'shani isityapman, serqalampir qilib ichib olsang, terlab tuzalib qolasan. Bezgakning davosi shu, bolam. Nega amaking hayallab qoldi-ya. Bu aptekdan topolmagan bo'lsa narigisiga ketdimikan?!

Jannat xola tokchadan kosa olib, bir ozdan keyin mastava ko'tarib keldi.

— Murchini ko'proq sepib qo'yibman, mayli, foyda qiladi.

Nizomjon iymanib kosani qo'lidan oldi. Kampir, bola tortinmasin, deb o'zi tashqariga chiqib ketdi. Nizomjon qoshiq solib mastavani xo'r-xo'r icharkan, tishiga qumga o'xshash bir nima tegib g'ichirlardi. U, guruchida mayda tosh ko'proq ekan, deb o'yladi. Shunga qaramay xo'rdani tagigacha ichdi.

Nizomjonning xabari yo'q, bu oddiy xo'rda emas edi. Jannat xola qoraqo'ng'izni otashkurakda kuydirib kukunini murchga aralastirib sepgan. Buni Nizomjonga bildirmagan edi.

Nizomjon birdan lohas bo'lib yana yostiqa bosh qo'ydi. Badani go'yo kuyib ketayotgandek bo'ldi. Bu odamlarga ortiqcha tashvish bo'ldi-ku. Endi ko'rmagani shu qoldimi?

Ko'zi ilinib uyquga ketdi. Jannat xola uning ustiga Ikromjonning to'nini yopib yostig'ini tuzatdi. Nizomjon g'arq terga pishgan, chakkalaridan marjon-marjon ter quyayпти.

Ertalab shoshganidan yog'och oyog'ini kiymay, qo'ltiqtayog'i bilan chiqib ketgan Ikromjon chap tomoniga zarb bilan tashlab ariqdan hatlab o'tdi. Hali nami ketmagan yerga qo'ltiqtayoqning uchi botib eshikdan to ayvongacha chuqur izlar qoldirdi.

— Muncha hayallab ketdingiz? — dedi Jannat xola pichirlab.

— Isitmasi qaytdimikan?

Jannat xola erining tashvishli ko'zlariga qaradi.

— Xotirjam bo'ling, hozir dori qildim. Endi tuzaladi.

Ikromjon sholcha ustida emaklab borib Nizomjonning peshanasidan ushladi. Labini tishlaganicha ancha vaqtgacha bir qo'lga tiralib turib qoldi.

– Birovning arzandasi, ishqilib, shifo topib ketsin-da, xotin. Er-xotin ayvon labida pichirlab gaplashib o‘tirishardi.

– Bilaman, – dedi Ikromjon, – sen boshqa narsani o‘ylayapsan. Qanaqa bola, biron nobop odam emasmikin, deb gumonsirayapsan.

Jannat xola yana indamadi.

– Yomon yo‘lga kirgan bola bo‘lsa ham, odamga o‘xshab gapirsang, odamga o‘xshab muomala qilsang, yomonligini qilmaydi. Zada bo‘lgan odam yomonlik qiladi. Bilasanmi, frontda ko‘rganlarimni aytсам, og‘zing ochilib qoladi. Nemisning qo‘lida qolib ketgan yurtlardagi xotinlar nimalar qilishayotganini sen bilmaysan, xotin. Qurshovda qolib ketgan askarlarimizni, sen kimsan, millating qanaqa, kimning bolasisan, deb so‘ramay uylariga yashirishyapti. O‘limdan, dordan qo‘rqmay eski qo‘rg‘onlarga yashiringan askar bolalarimizga ovqat tashib berishyapti. O‘q-dori tashib berishyapti. Yaradorlarni yerto‘lalariga yashirib parvarish qilishyapti. Ana shunaqa, xotin. Boshiga mushkul tushgan kishilarning qo‘lidan tutish kerak. Bu bolaning ham boshida og‘ir mushkuli bor. Keyinchalik bilib olarmiz, bilishimiz ham shart emasdir. Bir kun o‘zi ham aytib qolar.

Eshik qattiq taqillab Ikromjonning gapi bo‘lindi.

Jannat xola shoshib yo‘lakka yugurdi. Bir ozdan keyin ko‘chadan erkak kishining tovushi eshitildi:

– Kechqurun idorada majlis bor, soat yettida. Albatta, boringlar. Jamiki a‘zolarining borishi majburmish.

Jannat xola qaytib keldi.

– Eshitdingizmi? Tinchlikmikin?

– Tinchlik, xotin. Naymanga ko‘chadiganlar masalasi bo‘lsa kerak. Keyin, frontdan kolxozimizga xat bor, deyishadi, shuni o‘qib berishsa kerak. Hay, mayli, Tog‘a yo‘qlatgan ekan, idoraga bir chiqib kelay, bolaning isitmasi tushmasa, menga xabar qil, doktor chaqirish kerak bo‘lib qolar. Sening turkana doringdan bir ish chiqadimi, yo‘qmi. Bu doring bir tavakkal gap.

Ikromjon taxmon chetiga tirab qo‘yilgan yog‘och oyog‘ini kiyib ko‘chaga chiqib ketdi.

Sal o‘tmay eshikdan Ummatalining xotini uch burchak xat bilan ko‘zoynakni qo‘shib ushlaganicha kirdi.

– Azizxonginamdan xat oldim.

Jannat xola ko‘z qiri bilan sandal chetida yotgan Nizomjonni ko‘rsatdi.

Ummatalining xotini shoshib-pishib shivirladi:

– Xat keldi, xat keldi, aylanay!

Jannat xola so‘rining sholcha yozilmagan taxtasiga ko‘rpa-cha yozib uni o‘tqizdi.

– Nimalar deпти Azizxon? Ishqilib, omon-eson bo‘lsin. Bolaginangizga qasd qilgan past bo‘lsin, To‘tixon. Ummataligina ham kutaverib adoyi tamom bo‘ldi. Yaqinda ko‘rgan edim, ozib cho‘p bo‘lib ketibdi. Shundoq rind, shundoq paratka odam go‘ng tashiyapti. O‘qing, o‘qing, Azixxonning xatini.

To‘tixon ko‘zoynagini taqib xatni qo‘liga oldi.

Azixxon xatda ular xizmat qilayotgan qism uch oydan ortiq qurshovda qolib ketgani, qurshovdan chiqish uchun ko‘p janglar bo‘lganini yozardi.

To‘tixon xatni o‘qishdan ko‘ra ko‘proq yig‘lardi. Olis yo‘l bosgan bu uch burchak xat unga bolasining nafasini, bo‘yini olib kelgan edi. Shu uringan, sarg‘ayib ketgan g‘ijim qog‘ozdan o‘g‘li ko‘rinib turardi. To‘tixon xatni ko‘zlariga surtar, o‘par, hidlar edi.

Ikki hijronzada xotinning ko‘zlari jiqqa yoshga to‘ldi. To‘tixon ko‘z yoshlarini artib, Jannat xolaga taskin bera boshladi.

– Ko‘p tashvish qilmang, aylanay, Tursunboyingizdan ham xat-xabar kelib qoladi. Mana, meni aytdi, dersiz.

– Aytganingiz kelsin, yolg‘izginamning to‘yini ko‘rib o‘lsam degan niyatim bor. Oh, o‘sha kunlarni ko‘rarmikanman.

– Ko‘rasiz, ko‘rasiz, o‘rgilay. Hali nevara-chevaralar orasida qolib ketasiz.

Ularning har ikkovi ham indamay qolishdi. To‘tixon Azizxonini, Jannat xola Tursunboyini o‘ylab ketgan edi. Bu jimlikni To‘tixon buzdi:

– Eshitdingizmi, aylanay, rayonimizdan armiyaga ketgan bir bola qochib kelganmish.

– Xabarim yo‘q. Kim ekan?

– Bilmadim. Kimligini aytishmadi. Shunaqasidan Xudo as-rasin. Ota-onasiniyam, butun qishlog‘iniyam sharmanda qiladi-ya. Ummatalingiz kecha shu gapni topib keldi. Ummatalingizning gapiga qaraganda, qochganlarni otishga hukm qilarmish. Ha, nomard bola! Ota-onangning yuzini yerga qaratib qo‘yding-a!

VI

Urushdan oldin Tog‘a soqolini oldirmay, ish kiyimi bilan kelganlarni klubga kiritmasdi. Mabodo shunaqalardan bironta-

si kirib qolgudek bo'lsa, ko'pchilik o'rtasida uyaltirib chiqarib yuborardi. Endi Tog'aning o'zi soqol-mo'ylovi o'sgan, tirsaklari qirilib ketgan misr to'nda o'tiribdi.

Zaldagilar to'ppa-to'g'ri daladan kelishgani uchun loy bo'lib ketgan etik, taqir quloqchin, telpaklarda o'tirishardi.

Zal jimjit. Tog'a haligacha majlisni ochmay, yon soatini dam-badam olib chiroqqa solib qarar, kimnidir kutmoqda edi.

Eshikdan leytenant formasini kiygan yigit kirdi, hamma o'g'irilib unga qarab oldi. Leytenant sahnaga qarab yurdi. U Tog'aning oldiga kelib o'tirarkan, uzr so'ragandek qo'lini ko'ksiga qo'yib, nimadir dedi. Tog'a o'rnidan turib zalga qaradi:

– Ummatali shu yerda bo'lsa sahnaga chiqsin! Ikromjon, sen ham chiq!

Ikromjon old qatorni aylanib sahnaga chiqdi. Ummatali zalda yo'q ekan, kimdir uni tashqaridan chaqirib keldi. U ham chiqib prezidium stolining chetiga omonatgina o'tirdi. Tog'a yana o'rnidan turdi.

– O'rtoqlar, majlisimizni boshlashdan oldin rayon harbiy komissarligimizning xodimi leytenant o'rtoq Ismoilov front ahvolaridan gapirib berishlarini so'raymiz.

Leytenant o'rnidan turib shinelini yechdi-da, o'tirgan stulining suyanchig'iga tashlab qo'yib, qog'ozga o'rog'liq bir narsani ko'tarib minbarga chiqdi.

U so'zini G'arbiy-Shimoliy front qo'shinlari Staraya-Russa rayonida dushmanning o'n oltinchi armiyasini qurshab olganidan boshladi. Hamma jim bo'lib qoldi. Notiq sovet jangchilarining Smolensk oblasti shaharlarini ozod qilishda ko'rsatgan mislsiz qahramonliklari haqida gapirar ekan, tinglovchilar nafaslarini ichlariga yutib tek qotib turishardi. Leytenant endi Leningrad fronti to'g'risida gapirardi. U qurshovda qolgan azamat shahar aholisining ahvoli, ularning eng dahshatli kunlarda ham jonajon shahar uchun jon olib, jon berib kurashayotganlarini batafsil aytib berardi.

– Qurshovda qolgan shahar ahlining bolalari O'zbekistonga keltirildi. O'zbek xalqi Leningrad uchun oziq-ovqat esheloni yubordi.

Leytenant frontning boshqa uchastkalaridagi ahvol haqida ham gapira boshladi.

– Kerch yarimoroli atrofida ham shiddatli janglar bormoqda. Bu janglarda boshqa qardosh xalqlar qatori o'zbek xalqining farzandlari ham jasurlik namunalari ko'rsatmoqdalar.

Leytenant frontda nom chiqargan bir necha qahramon o'zbek jangchilarining nomini sanab o'tdi. U so'zining oxirida shunday dedi:

– Bu azamat jangchilar orasida sizning kolxozingizdan ketgan yigitlar ham ko'p. Ulardan biri – Azizxon Ummataliyev.

Hamma baravariga Ummataliga qaradi. Ummatalining o'zi bu kutilmagan gapdan esankirab o'rnidan turib ketdi. Chapak ustiga chapak. Odamlarga qo'shib Ummatalining o'zi ham chapak chalardi. Leytenant qo'lini ko'tarib shovqinni bosdi.

– Kalugani ozod qilishda ko'rsatgan mardligi, jasorati uchun Azizxon Ummataliyevga Sovet Ittifoqi Qahramoni degan faxriy unvon berildi. U Lenin ordeni hamda “Oltin Yulduz” medali bilan mukofotlandi. – Leytenant minbardan tushib Ummatalining oldiga keldi-da: – Shunday qahramon o'g'il o'stirganingiz uchun rahmat! – deb uni quchoqladi.

Bir necha kishi sahnaga chiqib Ummatalini o'rab oldi. Ular Ummatalini birma-bir o'pib, quchoqlashishgandan keyin, Tog'a ularni haydagandek qilib sahnadan tushirib yubordi. Leytenant yana minbarga chiqdi.

– O'rtoqlar, kolxozimizning keksa a'zosi, Vatan urushining qatnashchisi Ikromjon Usmonov Moskva ostonalaridagi janglarda ko'rsatgan mardligi uchun “Qizil Bayroq” ordeni bilan mukofotlangan edi. U yarador bo'lib qaytib kelgani sababli, qism unga mukofotni topshirolmagan. Ruksat etasiz, o'rtoq Ikromjon Usmonovga mukofot topshirishni.

Ikromjon mukofotlanganidan bexabar edi. Hayron bo'lib o'rnidan turdi. Leytenant qizil qutichadan ordenni olib unga tomon kela boshladi. Ikromjon bo'lsa sahna o'rtasida to'xtab, mengamikan, adashayotgani yo'qmikin, degandek ikkilanib turardi. Leytenant kelib uning ko'kragiga ordenni taqib qo'ydi.

Zalda yana g'ovur-g'uvur, to'polon, qarsak bo'lib ketdi.

Ikromjonning ko'zlaridan yosh dumaladi. Shu qisqagina muddat ichida bolaligidan to shu kungacha ko'rgan-kechirganlari ko'z oldidan o'tdi. Urush ko'chalarida qolib ketgan bir oyog'i yana o'rniga bitgandek, to'kilgan qonlari yana tomirlariga qaytib kelgandek bo'ldi. Mana, do'stlari, bolalik o'rtoqlari, birga ketmon chopishgan jo'ralari unga qarab chapak chalishyapti.

Zal sal tinchigandan keyin Tog'a Ummatali bilan Ikromjonni tabriklab, so'zni bahorgi ishlarga burdi:

– Birodarlar, dalaga qo'sh chiqarishdan oldin qiladigan ishlarimiz bor. Yozyovonning Naymanidan yer oldik. Shunga o'ttiz

xo'jalik ko'chirma qilishimiz kerak. O'z ixtiyori bilan yozilganlar ellik to'rt xo'jalikka yetdi. Shuncha xo'jalikni bu yil yuborolmaymiz. Kolxoz ishi orqaga surilmasligi kerak. Ekishni vaqtida boshlamasak, keyingi ko'radigan rohatlarimiz tatimay qoladi. Men pravleniye bilan kelishib yigirma to'rt xo'jalikni ro'yxatdan o'chirdim. Indinga Naymanga yurish boshlaymiz. Hozircha bola-chaqani olib ketish shart emas. Erkaklarning o'zlari borishadi. Yotar-turar joyni eplashtirganimizdan keyin bola-chaqani olib ketamiz. Shu masala yuzasidan so'raydigan gaplaring bo'lsa, so'ranglar.

Orqa qatordan o'rta yashar kishi qo'l ko'tardi.

— Nayman to'qayiga bu yil sholi ekiladi, degan gap bo'lgan edi. Shu gap rost bo'lsa, omborda urug'lik bormi? Tomorqaga ekadigan a'zolar urug'likni qayoqdan olishadi? Shuni tushuntirib ber, Tog'a!

— Bu juda to'g'ri savol, — dedi Tog'a. — Yer to'qay, botqoq bo'lgani sababli bu yilcha unga paxta ekib bo'lmaydi. Sholi ekamiz. O'rtoq Oxunboboyev kelganlarida shunday deganlar. Har bir a'zoga qirq sotixdan yer beriladi. Urug'lik sholi to' hosil olguncha a'zolariga qarz beriladi. Bundan tashqari, a'zolar mehnat kunlariga ham sholi oladilar. Pravleniyeda o'tirib xomcho't qilib ko'rdik. Tomorqasidan olgan hosildan tashqari, mehnat kuniga olgan sholining choragi qarzga bemalol yetarkan. Tomorqadan olingan hosil uchun hech qanday qishloq xo'jaligi solig'i to'lanmaydi. Yana qanday savollar bor?

Bolasining chophonini boshiga yopinib olgan xotin o'tirgan yerida so'radi:

— Naymanga ko'chganlarning bu yerdagi uy-joyi nima bo'ladi?

— O'zida turaveradi. Hech kim tegmaydi. Xohlasa sotib ketishi ham mumkin. Kolxoz haqini to'lab oladi. Agar boshqa savollaring bo'lmasa majlisni yopamiz.

Eshik oldida turgan qorasoqol kishi gap tashladi:

— Bitta gap chala qoldi, Tog'a. Ikki-uch kundan beri qishloqda duv-duv gap yuribdi. Rayonimizdan bir odam armiyadan qochib kelganmish. Mana, voyenkomat ukamiz shu yerdalar, aytsinlar, kim ekan o'sha qochgan yaramas?

Tog'aning qoshlari chimirilib ketdi. U hech kimdan bunaqa savol kutmagan edi. Nima qilishini bilmay, ancha vaqtgacha jim turib qoldi. Butun zal go'yo bitta quloqqa aylanib uning og'ziga qarab turardi.

— Bunaqa gap yo‘q! — dedi Tog‘a qat‘iy.
Tog‘a shunday dedi-yu, qizarib ketdi...

* * *

Baxtiyor odam hammani o‘ziga o‘xshatadi. Ikromjon hozir shunday kayfiyatda edi. Yor-birodarlari oldida yuzi yorug‘ bo‘ldi. Vatan uchun qilgan xizmatlari oliy mukofot bilan taqdirlandi. U bu mukofotni o‘z qishlog‘ida, birga mehnat qilgan, birga ter to‘kkan jo‘ralari oldida ko‘kragiga taqdi. Hozir uning ko‘ziga boshqalar ham xuddi shunday baxtiyor, shunday shod tuyulardi. Hali majlisda qandaydir yaramas bir bola to‘g‘risida gap bo‘ldi. U yaramas bola armiyadan qochgan. Qishlog‘ini, ota-onasini xijolatga qo‘ygan. Negadir Ikromjon bunga uncha parvo qilmadi. Bu gaplarning unga mutlaqo aloqasi yo‘q. U taqdirlangan, zoye ketmagan mehnatlarining gashti bilan mast edi.

Klubdan chiqqan kishilar to‘da-to‘da bo‘lib simyog‘och tagida gaplashib turishibdi. Xotin-xalaj allaqachon tarqab ketgan. Tog‘a harbiy komissarlikdan kelgan leytenant bilan pachog‘i chiqqan qora “emka” mashina oldida nimanidir shivir-shivir gaplashib turibdi.

Ikromjon ularning gapiga xalal bermaslik uchun yonlaridan tez o‘tib ketdi. U hozir samovarga kirib bitta choy ichmoqchi. Klub ichi dim bo‘lib ketganidan terlab, chanqagan edi. Sholcha yozilmagan yaydoq so‘rida choy ichib o‘tirganlar oldidan o‘tib ichkariga kirayotgan edi, g‘alati bir gap eshitib to‘xtadi. Deraza tarafga qarab o‘tirgan yigit nimadir deyapti. Ikromjon tarafga qarab o‘tirgan keksaroq kishi unga yuz-ko‘zi bilan qandaydir ishora qildi. Yigit uning ishorasiga tushunmadi, gapini davom ettiraverdi:

— ...Dunyoning ishlari qiziq ekan-da, lekiniga Tog‘a malades, aytmadi. Aytganda Ikrom po‘st tashlavorardi. Bitta-yu bitta bolasi qochoq bo‘lib o‘tirsaya. Voy, mening bolam shunaqa qilsa, shartta kallasini uzib tashlardim...

Yigit gapini to‘xtatmaganidan diqqati oshib ketgan hamsuhbati jahl bilan:

— E, qo‘ysang-chi, qanaqa befahm odamsan, — deb o‘rnidan turib ketdi.

Shundagina yigit o‘girilib orqasiga qaradi-da, Ikromjonni ko‘rib qizarib ketdi, juda katta gunoh qilib qo‘yganini bilib boshini egib o‘tiraverdi.

Ikromjon garang bo‘lib qolgan edi. Yelkasida og‘ir yuk bordek mashaqqat bilan uning oldiga keldi.

– Nima deding? Ayt, aytaver!

Yigit gap topolmay uning yuziga qarab angraygancha tura-verdi.

– Senga aytyapman, – dedi Ikromjon baqirib. – Ayt, nima deding, ayt!

Ikromjon uning yoqasidan bo‘g‘ib oldi. Birpasda ularning atrofini odam o‘radi. Bu mojaro ustiga yetib kelgan Tog‘a yigitning tirsagidan tortib Ikromjonning qo‘lidan bo‘shatdi-da, uni koyidi.

Ikromjon javdirab Tog‘aga qaradi:

– Rostmi, Rayim... bu qanaqa gap?

Tog‘a unga juda ham bosiq javob qildi.

– Rost gap, do‘stim, rost gap.

Birpasda Ikromjonning qaddi bukildi-qoldi. Tog‘a atrofnı o‘raganlarga jahl bilan qaradi. Uning bu qarashidan nima demoqchiligini anglagan kishilar sekin-sekin tarqab ketishdi. Birgina Ummatali Ikromjonning yelkasidan omonat ushlab turardi.

Tog‘a Ummataliga qaradi.

– Siz borib kampirni suyintiring, Ummatali.

Ummatali ikkilanib turdi-da, og‘ir-og‘ir qadam bosib nari ketdi.

– Bo‘ldi, oshnam, – dedi Tog‘a titroq tovushda. – Shunaqa bo‘lishini bilganimdan aytmagan edim-da. Qandoq qilasan, chidaysan, chidaysan-da, og‘ayni!.. – Tog‘a shundan boshqa gap topolmadi.

Ikromjon boshini sarak-sarak qildi, jahl bilan ko‘kragiga mushtladi. Mushti qattiq bir nimaga tegib og‘ridi. Engashib ko‘kragidagi ordenni ko‘rdi. U orden olganini unutib qo‘ygan edi. Jonholatda ordenini ko‘ksidan yulib oldi.

– Ol, olib qo‘y, Tog‘a. Taqishga haqqim yo‘q.

– Jinni bo‘lma!

– Ha, shunday. Bosh ko‘tarib qishloqda yurishga ham haqqim yo‘q. Odamlarning yuziga qanday qarayman? Nima dagan odam bo‘ldim endi? I-ix! Qani endi, u yaramas shu topda oldimda bo‘lsa, tilka-tilka qilsam. Bo‘g‘ib o‘ldirsam.

– Yur, yur, Ikrom, bas endi, ketaylik.

Tog‘a uning tirsagidan ushlab yo‘l boshladi. Ikromjon bir silkinib undan tirsagini bo‘shatdi.

– Qo‘yaver, o‘zim ketaman.

– Birga ketaylik, unaqa qilma, oshna.

– Yo‘q, o‘zim ketaman.

Ikromjon dadil yurib qorong‘i ko‘chaga kirib ketdi. U eshigiga yetganda to‘xtadi. “Xotininga nima deyman?” degan o‘y boshidan yalt etib o‘tdi-yu, u yoq-bu yog‘ini tuzatdi. Qaddini rostlab ostonadan hatladi.

Ayvonda Jannat xola bilan Nizomjon gaplashib o‘tirishardi. Jannat xola sandal ustida turgan suratni qo‘liga olib Nizomjonga ko‘rsatar, o‘g‘lining bolalikdagi sho‘xliklarini kulib, yig‘lab gapirar edi.

Ikromjon ayvon labiga o‘tirib yog‘och oyog‘ini yecha boshladi. U o‘tirganda qizil qutichani yoniga qo‘ygan edi. Nizomjon buning nimaligini bilardi. Hamqishlog‘i Asrora orden olganda ko‘rgandi. Jannat xola erini charchagan bilib sekin so‘radi:

– Maylisinglar uzoq cho‘zildi, chog‘i. Charchabsiz. Mehmon bola ham, Xudoga shukur, tuzalib qoldi. Aytdim-ku, mening dorim darrov tuzatadi deb. Unga Tursunboyginamning suratini ko‘rsatayotgan edim.

Ikromjon undan ko‘zini yashirdi.

– Bolaginam, shundoq erka edi, shundoq erka edi, to maktabga borguncha ham dadasining yelkasidan tushmadi. Opichib guzarga olib chiqardilar, opichib magazinga olib kirardilar.

Ikromjon g‘ayritabiiy intilish bilan bir oyoqlab o‘rnidan turib ketdi.

– Bas qil! Ovozingni o‘chir!

Jannat xola qo‘rqib ketdi. U o‘ttiz yil birga yashab eridan birinchi marta bu xil gap eshitishi edi.

– Bunaqa o‘g‘lim yo‘q! Befarzand odamman!

– Voy, nega unaqa deysiz! Tavba deng! Sizga nima bo‘ldi? Sizga nima bo‘ldi?

Jannat xola nima bo‘lganini bilolmay, devorga suyanganicha dag‘-dag‘ titrab turardi.

Ikromjon bir oyoqlab uzoq turolmadi. Gandiraklab ayvon oldiga terib qo‘yilgan g‘ishtga yonboshi bilan yiqildi. Nizomjon sapchib turib uning oldiga keldi-da, azod ko‘tarib ko‘rpachaga yotqizdi. U behush edi.

Jannat xola nima gapligini bilmay devorga suyanib rangi qum-qum oqarib turardi.

VII

Zirillama qishlog'i bu tong uch voqeaning shohidi bo'lib uyg'ondi: Azizxon — Sovet Ittifoqi Qahramoni, Tursunboy — qochoq, o'ttiz xo'jalik — Naymanga ko'chadi.

Hammaning og'zida shu gap. Azizxonning jasorati qishloq ahlini qanchalar quvontirgan bo'lsa, Tursunboyning qilmishi shuncha xafa qilgan edi.

Erta bilan dalaga ketish oldidan Ummatalining uyiga uni muborakbod qilgani hamqishloqlar turnaqator bo'lib oqib keli-shardi.

Ikromjonning uyidan ikki hovli naridagi bu uyda to'y.

Tog'a ham shu yerda. Tut tagidagi so'rida sozandalar, hofizlar o'tirishibdi. Olma shoxiga oyog'idan osilgan qo'yning terisini qassob shilib olmoqda. Yero'choqdan g'o'zapoyaning alangasi gurillab ko'tariladi. To'ti xola hali u uyga kiradi, hali bu uyga kiradi. Kirgan-chiqqanlarga: "Qulluq, aylanay! Qulluq, o'rgilay!" deb yana oshxonaga o'tib ketadi.

Supada respublika gazetasining Farg'ona muxbiri tizzasiga daftarchasini qo'yib Ummatalini gapga solmoqda.

Ummatali ko'zlarini yumib Azizxonning bolaligini ko'rayot-gandek sekin-sekin gapirmoqda. Muxbir tez-tez yozib turibdi.

Tashqaridan mashina ovozi keldi. Hamma gurr etib ko'cha eshigiga qaradi. Eshik oldida obkomning moylanaverib toshbaqa nusxasiga kirib qolgan eski "emka"si turardi. Undan bo'yniga apparat osgan "foto Penson", g'ilof kiydirilgan tanburini ko'tarib Ma'murjon hofiz tushdi.

Tog'a ularni eshik oldida kutib oldi.

Ko'pchilik o'rnidan turib ularga so'ridan joy ko'rsatdi. Ma'murjon hofiz sozandalar to'dasiga qo'shildi.

Shu payt pochталon kirib odamlar orasidan Tog'ani topib telegramma uzatdi.

Tog'a telegramma qatini shoshib ochib o'qiy boshladi. Hamma unga qarab turardi.

— Ummatali, seni o'rtoq Oxunboboyev tabriklab telegramma yuboribdilar. Ma, ol, o'qi!

Ummatali undan qog'ozni olarkan, qo'llari qaltirardi.

Penson paytdan foydalanib uning har bir harakatini chiq-chiq suratga olib turardi.

Hofizlar qo'shiq boshlashdi. Odamlar jimgina bosh egib tinglashardi. Qo'shiqning avjini shirali ovoz bilan Ma'murjon hofiz yakka aytardi:

Ur, deganda nomard qochur,
Mard qolur maydon ichinda...

Bu qo'shiq, hammadan ham Ummatalining yuragini ezib yubordi. Uning ko'ziga hovlisidan chiqolmay g'aribgina bo'lib o'tirgan Ikromjon ko'rinib ketdi. Chunki qo'shiq xuddi shu qishloqdan chiqqan bugungi to'y va bugungi xijolatlik haqidadek edi. Mard maydonda qoldi, nomard qochdi. Bu Azizxon, bu Tursunboy.

Hofizlarning ovozi Ikromjonlar uyigacha eshitilmoqda. Ikromjon o'sha o'zi doim o'tiradigan ayvon labida qo'ltiqta-yog'ini tizzasiga qayiq eshkagiga o'xshatib qo'yib olganicha, yog'och oyog'iga belini ko'tarib suykalayotgan mushukning shikoyatli miyovlashiga loqayd qarab o'tiribdi.

Nizomjon supa oldida tik turibdi. U sal darmonga kirsam, bu yaxshi, mehribon odamlarga mingdan-ming rahmat aytib yana boshi oqqan tomonga qarab ketmoqchi edi. U ketishini o'ylaganda xotiriga darrov GES qurilishi kelardi. Qurilish odamga zor. U borsa, jon deb qabul qilishadi. Balki, Nizomjon baxtini o'sha yerdan topar. Ammo bu ikki alamzada, yakka-yu yagona bolasi yetkazgan alamdan bukchayib qolgan qariyalarni tashlab qayoqqa boradi? Ularning yonida bo'lishi, hamdard bo'lishi kerak. Begonaga uyidan joy bergan, xasta joniga jonini payvand qilgan kishilarni shu ahvolda tashlab ketish insofdan bo'lmas, deb o'ylardi u.

Hofizlar hamon qo'shiqni balandlatishardi. Ular ishq, vafo, mardlik haqida kuylashardi. Ko'chadan Ummatalining uyiga qarab oqayotgan kishilarning gaplari, oyoq tovushlari eshilib turibdi.

Ikromjonning nazarida, ular uning eshigi oldidan o'tayotganlarida nechundir ovozlarni pasaytib gaplashayotgandek tuyulardi. Hatto bu yerdan oyoq uchida yurib o'tishayotgandek.

Yigirma bir yil surgan eng ezgu o'ylari, har soatini baxt tilab o'tkazgan kunlari shu kecha tugaganday. Ikromjon adoyi tamom bo'lgan edi. U bir kechadayoq qarib qolganga o'xshardi.

Bu kecha u ko'z yummedi. Tursunboyning bolalik yillaridan tortib o'zi frontga ketayotganida stansiyada qo'llarini silkib qarab qolganicha hammasi ko'z o'ngidan o'tdi.

U bolasini mard bo'ladi, deb o'ylardi. Yuzimni yerga qarattadi, deb hech o'ylamagan edi.

Mana, yor-do'stlarining yuziga qarolmay qoldi. Uy ostonasidan hatlab ko'chaga chiqolmay qoldi. Nega, nima uchun?

Sen uchun, sen uchun, yaramas bola! Sen juvonmargni bo-laligingda akalaring qatori dard olib ketsa bo'lmasmidi! Seni opichlab ko'targan otangning bellari qarsillab sinib ketsa bo'lmasmidi! Qandoq qiladi, qandoq qiladi? Endi qandoq yashaydi? Sen juvonmargni yaxshi yashasin, deb urush ko'chalariga bir oyog'ini tashlab keldi! Laxta-laxta qon yutdi. Muzlar ustida emaklab dushmanning yoqasidan bo'g'di! Sen juvonmarg tug'ilgan kuningdan boshlab nimaiki qilgan bo'lsa hammasi sen uchun, seni odam qilish uchun urindi. Har bir tomchi peshana teri sen juvonmargning baxting bo'larmikan deb qilindi. Mana, mehnatlarining mukofoti!

Ikromjon ich-ichidan, ovozini chiqarmay yig'lardi. Yig'lar-di-yu, bu bedavo darddan qutulish ilojini ham qidirib ko'rardi.

Sen juvonmargning dog'ingni nima bilan yuvadi? Qani, oyoqlari butun bo'lsa-yu, shamoldek uchib urush bo'ronlariga kirsas, fashist uyasiga olov bo'lib otilsa, gazandalarning kekirdagidan tishlab, miyasini majaqlab xumordan chiqsa. Afsus, bunday qilolmaydi. Endi u yigitlik qayda, endi u oyoqlar qayda! Keksayganida tiriklay go'rga tiqding-a! Go'rga tiqding-a! Evoh, evoh, bevafo dunyo, birgina boshiga shuncha tosh otasanmi?

Uning ko'zlari hovli yuzini ma'nosiz kezardi. Birdan oshxonada devoriga tikilganicha to'xtab qoldi.

Unda Tursunboyning loy chaplaganidagi besh panjasining izi qolgan edi. Jannat xola kuniga necha marta bu barmoq izlarini tabarruk narsadek qo'llari bilan siypab ko'zlariga, yuzlariga surtardi.

Ikromjon shahd o'rnidan turib o'sha yerga bordi. Barmoq izlariga uzoq tikilib turdi. Keyin burilib tandir tagida yotgan ketmonni oldi-yu, devorni gursillatib chopa boshladi. Jannat xola o'qdek otilib kelib uning qo'llariga yopishdi:

– Nima qilyapsiz, nima qilyapsiz?..

– Tegma menga, tegma menga! Bu uyda uning iziga ham o'rin yo'q. Izlarini qirib tashlayman! Sidirib tashlayman!..

U siltaganda Jannat xola yarim metr joyga otilib borib o'tirib qoldi. Birpasda devor o'pirilib oshxonaning ichi ko'rindi. Ikromjon ketmonni chetga otib joyiga borib o'tirdi.

Nizomjon nimalar bo'layotganiga tushunolmay, hamon supa oldida garang turardi.

Ikromjonning alami bosilmasdi. U endi nima qilishini bilmay, ayvon tokchalariga ko'z yugurtira boshladi. Birdan sandal ustida turgan Tursunboyning suratiga ko'zi tushdi. Yana sap-

chib turib suratni qo‘liga oldi. Oyna solingan ramka ichidan qora qosh, yuzlari xuddi mohir haykaltarosh bor san‘atini ishga solib yasagan haykaliga o‘xshash juda ham ko‘rkam Tursunboy kulimsirab turardi. Ikromjon suratni yuzlariga surtib ho‘ng-ho‘ng yig‘ladi. Oynada uning ko‘z yoshlari dumalab ramka chetida halqob bo‘lib turdi-da, pildirab pastga oqib ketdi. Uning mayin tabassumi Ikromjonni ermak qilayotganga o‘xshardi. Suratni yuz tomoni bilan yog‘och oyog‘ining tizzasiga bir urdi. Oyna chil-chil bo‘lib ketdi. Jannat xola dodlab kelib uning qo‘lidan suratni tortib oldi. U tortayotganda shisha sinig‘i Ikromjonning qo‘lini qonatib yuborgan edi. Alamiga chidayolmay peshanasiga shapillatib uraverdi. Qonli panjalar yuzini ham qonga belab, qizartirib yuborgan edi. Jannat xola suratni olib, dag‘-dag‘ titrab turardi. Oxiri Ikromjon charchab sandal kursisiga o‘tirib qoldi.

Jannat xola suratni ko‘ksidan olib tikildi.

Ota qoni Tursunboyning betlariga ham sachragan edi. U singan, parcha-parcha bo‘lib ketgan oyna orasidan hamon iljayib qarab turardi. Uning bu qarashi vayron bo‘lgan, qonga belangan uyning siniq derazasidan mo‘ralab ermak qilayotganga o‘xshardi.

Harna qilganda ham ona — ona. U o‘z bolasini bir parcha etdan katta qilguncha ne mashaqqatlar tortmagan! Bolasining yaxshiligi ham, yomonligi ham unga unchalik bilinmaydi. Ona hamma narsani unutsa unutadiki, bolasini unutmaydi. O‘z bolasini o‘limidan, baxtsizligidan quvongan ona hali dunyoga kelmagan, kelmaydi ham.

Eshik taraqlab ochilib sochlari to‘zg‘ib nimchasining ustidan bellarigacha osilib tushgan bir qiz kirdi. U uzoq joydan yugurib kelganidan bo‘lsa kerak, nafasini rostlayolmay hansirardi. Qiz ariqdan hatlab o‘tib to‘xtadi. Avval sandal ustida yuzini panjalari orasiga olib o‘tirgan Ikromjonga, supa oldida tik turgan Nizomjonga, devorga qapishib suratga tikilib qolgan Jannat xolaga qarab nima qilishini bilmay qoldi. Keyin uxlab yotgan odamlarni uyg‘otib yuborishdan qo‘rqqandek, oyoq uchida yurib Jannat xolaning oldiga bordi.

Bu Tursunboyning sevgilisi — Zebixon edi.

Bu xunuk xabarni eshitganda qiz butun borlig‘ini unutgan, esankirab nima qilishini bilmay tong otguncha yurib chiqqan edi. Ertalab u bekitib qo‘ygan joydan Tursunboyning bir yarim oy burun yozgan xatini olib dalaga chiqib ketdi-da, soy bo‘yiga tushib yig‘lay-yig‘lay yana o‘qib chiqdi.

Bu xatda Tursunboy samimiy yurak dardlarini izhor etgan edi. Bu xatlarga samimiy, insoniy tuyg'ular bitilgan edi. Bu xat Zebixonga anhor bo'ylarida teraklarning allaqanday sirli shitirlashlariga quloq solib jimgina kechirgan oydin kechalarni eslatdi. O'shanda oy xuddi oq qog'ozdan doira qilib qirqilgandek ko'rinardi. Saraton kuydirgan kunlarda anhor yoqalab qamishlar orasidan oqimga qarshi qirg'oq bo'ylab ketganlarida Tursunboy uni birinchi marta bag'riga bosib o'pgan. "Sevaman, sendan boshqaga qayrilib qaramayman!" degan edi. U armiyaga jo'nab ketarkan, Zebi bilan yana shu ko'm-ko'k qamishlar orasida uchrashgan edi. Ehtimol, hozir shunday tuyulyaptimi, negadir o'shanda Tursunboyning ko'zlari bejo edi. Ilgarigi qaynoq so'zlar o'rniga sovuq, juda sovuq gaplar aytar edi. Ko'zlari ilgarigidek chaqnamagan edi o'shanda. U Zebixonning bilagini ushlaganda ilgarigidek qo'llari qaynoq emasdi. Xuddi g'assol qo'lidek sovuq edi. O'shanda Tursunboy bir gapni qayta-qayta takrorlagan edi:

— Kelaman, qaytib kelaman. Meni kut, Zebi. Sen uchun qaytib kelaman.

Zebixon o'shanda bu gaplarning ma'nosiga tushunmagan ekan. Zebi uning bu gaplarini, g'olib bo'lib qaytib keladi, deb anglagan ekan. Tursunboyning o'shandayoq armiyaga jur'atsizlik bilan ketayotganini, yurt uchun jonbozlik qilgani ketayotgan emasligini sezmagani ekan.

Zebixon endi bu gaplarning chin ma'nosini chaqdi. Tursunboy o'zining qo'rqqoqligini sevgi niqobiga yashirmoqchi. Qo'rqqoqlikdan emas, Zebixonning visoliga yetishmoq uchun qaytishi kerak emish. Yo'q, u qochoq! Bu xil nomardlar sevgi qadriga yetmaydi. O'z ota-onasini, yurtini sevmagan odam muhabbat hislarini ardoqlay olarmidi?

Zebixon bu uyga, nomard bola tuqqan onaga, xoin bola o'stirgan otaga alamli so'zlar aytgani kelgan edi.

Hozir u o'z yog'iga o'zi qovurilib yotgan bu baxtsiz, bolasi tufayli sharmandai sharmisor bo'lgan oilaning iztiroblarini ko'rib shashtidan qaytdi. Bir so'z demay orqasiga burildi-da, eshikka qarab yura boshladi.

U ostonaga yetganda to'xtadi. Cho'ntagidan buklangan qog'oz olib burda-burda qilib yirtib tashladi. Bu Tursunboyning xati edi.

Shamol qog'oz burdalarini hovli tomonga supurib ketdi.

VIII

Rayimberdi tog'a Ummatalining uyida hofizlarning xoni-shiga quloq solib tizzasiga urib tebranib o'tirardi. Goh baland, goh past pardalarda faryod qilayotgan ohanglar urush olovlarini, tinch-osuda kunlarni ko'z oldida gavalantirardi.

Rayimberdi tog'aning ham o'g'li urushning boshidayoq frontga ketgan.

O'g'li Toshkentda universitetning ikkinchi kursida o'qirdi. Noyabrning boshlarida undan ketdim, degan xat keldi-yu, ikki oy o'tib, jangga kiryapman, degan ikkinchi xatni oldi. Tog'a o'g'lidan, yaralandim, gospitalda davolanyapman, degan mazmunda oxirgi xatni qishda olgan edi. Sal kun o'tmay, harbiy komissarlikdan, o'g'lingiz Vatan uchun janglarda qahramonlarcha halok bo'ldi, degan xat oldi. Tog'a o'z yog'iga o'zi qovurildi. Ozib, cho'p bo'lib ketdi. Ammo bu sirni xotiniga bildirmadi. Xotini, xat-xabar kelmay qoldi-ya, deb bezovta bo'la boshlashi bilan u birovg'a o'g'li nomidan xat yozdirib eski konvertga solar-di-da, kelib o'qib berardi. Qishdan beri ahvol shu.

Hozir u kuy maqomiga tebranib o'tirarkan, ich-ichidan ezilib o'g'lini o'ylardi. Bolaginasining bir siqim tuprog'i qayerlarda qolib ketdi ekan?..

Urushdan oldin tikdirgan sheviot kostyumni, yangigina taxtakachdan chiqqan do'ppisini kiyib olgan Ummatali kelib uning qulog'iga shivirladi:

— Obkomdan aytishibdi, birinchi sekretarning o'ziga telefon qilarmishsiz.

Tog'a o'rnidan turdi. Qo'lini ko'ksiga qo'yib, ashula paytida turib ketayotganiga sozandalardan uzr so'radi-da, hech qayoqqa qaramay chiqib ketdi. U Ikromjonning uyi oldidan o'tib ketayotganda eshikka kelib quloq soldi. Jimjit. Nima bo'ldi? Birdan uning yuragini vahm bosdi, ostona hatlab ichkariga kirdi.

Bu payt Nizomjon oshxonada o'choqqa o't qalab, nimadir pishirayotgan edi. Ikromjon hali ham sandal ustida bir qo'lini peshanasiga tiragancha o'tiribdi. Jannat xola supada bir tizzasiga boshini qo'yib, devor tagida don talashayotgan musichalarga xomush tikilib qolgan edi. U Tog'ani ko'rib boshini ko'tardi-da, orqasiga yig'ilib qolgan etaklarini tushirib o'rnidan turdi.

Tog'a o'n bir yildirki, kolxozga rais. U ko'p to'ylarga boshchilik qilgan. Ko'p azalarda oldinga tushib tobut ko'targan. Qanchadan-qancha yetimlarning boshini silab ovutgan. Adashganlarni yo'lga solgan.

Ammo Ikromjonni ovutishga u o'zlik qilardi. Uni nima deb yupatadi? Odamzodning bisotida bu dardni yengillatadigan gap bormi?

Ikromjonning yagona tayanchi, yagona umidi shu bola edi. Endi u yo'q. Mabodo u dardga chalinib o'lganda, unda yupatish uchun biron so'z topilib qolishi mumkin edi. Bu yaramas bola o'z otasini sharmandalikka tashlab ketdi. U bir umr bu dog'dan qutulolmaydi. Shuning uchun ham Tog'a garang edi.

Jannat xola unga salom berib, eriga qaradi.

– Dadasi, turing, Tog'a keldilar.

Ikromjon boshini ko'tarib uni ko'rdi-yu, mashaqqat bilan o'rnidan turdi. U charchaganidan, uyqusizligidan darmonsiz edi. Ammo o'zini tutdi. Hovliga tushib Tog'aning istiqboliga chiqdi.

Tog'a uning kechadan beri uxlamaganini, o'sha mudhish xabarni eshitgandan beri shu ahvolda telba bo'lib yurganini sezdi-da, boshqa biron narsaga alahsitmoqchi bo'ldi.

– Yur, senda gapim bor, – dedi, o'zi eshikka qarab yurdi. Ammo unga nima demoqchi, qayoqqa olib bormoqchi – buni hali bilmasdi.

Ikromjon ariqda betini yuvib, qiyig'iga arta-arta unga itoatkorlik bilan ergashdi.

Ko'chaga chiqishdi. Havo toza. Osmonda qittak ham bulut ko'rinmaydi. Paxsa devor kovagida baqa qurillayapti.

Tog'a oldinda, Ikromjon keyinda bir-biri bilan gaplashmay katta ko'chaga yetishdi. Tog'a to'xtadi.

– Ertaga Naymanga odamlarni o'zing olib ketasan!

Ikromjon darrov javob bermadi. U o'ylardi. Borgani durust bo'larmikan? Yo qishloqdan boshini olib ketsinmi? Qayoqqa boradi? Qayoqqa bormasin, bari bir, bu alam uni tinch qo'ymaydi. Naymanga borgani ma'qul bo'lar. Har qalay, odamlarning ko'zidan, ta'nasidan uzoqroq bo'ladi-ku.

– Mayli, Tog'a, sen bir narsani bilib aytayotgandirsan. Menga yomonlikni ravo ko'rmaysan-ku. Xo'p.

Ikkovlari boshlashib idoraga kirishdi. Tog'a stol tortmasidan ro'yxatni olib unga uzatdi.

– Boradiganlar shular.

U shunday dedi-yu, trubkani olib kommutatordan Farg'onaga ulashni so'radi. To Farg'ona javob berguncha Ikromjonga qancha odam borishi, ishni avval nimadan boshlashini tushuntirdi.

— Ishni novvoyxonadan boshlaysan. Har kuni qishloqdan non tashishga arava topib berolmayman. Ikkitagina mashinaning boshqa ishlari ko‘p. Qurilish brigadasidan o‘n besh kishini oldinroq olib ketasan. Oshxona, novvoyxona, choyxona qurasizlar. O‘ttizta palatka-chodir toptirib qo‘ydim. Uni ham ola ketasizlar. Xotinlar hozir borishmaydi. Bordon to‘qishga besh kishi ajratdim, boboylardan. Oziq-ovqat masalasi ham hal bo‘lgan... — Telefon jiringlab, Tog‘aning gapi og‘zida qoldi. U shoshib trubkani oldi. — Men, salom. Rahmat, yaxshi. Ha, endi xursand bo‘lmaymizmi? Kolxozimizdan geroy chiqadi-yu, biz xursand bo‘lmay, kim xursand bo‘lsin! Ha, albatta. Qachon? E, otaning o‘zlarini o‘tkazadilarmi? Xo‘p, xo‘p. Albatta boraman. Ha, boraman. Kim keladi, deysiz? Bugunmi? Bo‘pti... Bo‘pti. Kutib olamiz. Idoradan jilmay turaman. Albatta, shunday qilamiz, xotirjam bo‘ling! — Tog‘a trubkani joyiga qo‘yib Ikromjonga qaradi. — Ro‘yxat bilan tanishib chiqdingmi? Qalay, bo‘ladimi? Hammasini olib ketarsan-a? Yo yoqmaydiganlari ham bormi?

Ikromjonning odam tanlaydigan holi yo‘q edi. O‘zimdanda boshqa shumshuk odam atrofda yo‘q, deb o‘ylardi.

— Agar ro‘yxat ma‘qul bo‘lgan bo‘lsa, kechqurun Abduxalilning oldiga borasan. Topshiriq olgan. Hamma narsani taxt qilib qo‘y. Aravalar ham ertalab idora oldida bo‘ladi. Ketadiganlar hozir dalada.

Ishdan qaytganlarida uylariga borib ertaga ketishlarini bildirib qo‘y. Idish-tovoq, bir sidra kiyimdan boshqa narsa olishmasin. — Tog‘a o‘ylanib turib qoldi. U nimanidir unutgandek barmog‘i bilan stolni chertib o‘tirardi. — Ro‘yxatga qo‘shdig‘i borlardan ham qo‘shganman. Ov qilishlaring mumkin. O‘zing ham berdakangni ola ket. Xafa bo‘lmasang, senga bitta ish buyurmoqchiman.

— Buyur, Tog‘a. Nima xizmat?

— Bizning eshikka aytib o‘tib ketsang, mehmon kelarmish, tayyorlik ko‘rib qo‘ysin. Gap shu. Boraver, oshnam. To‘xta, ketadiganlar bilan gaplashib bo‘lganingdan keyin, qay mahal bo‘lsa ham meni topib uchrash.

Ikromjon idoradan chiqib to‘ppa-to‘g‘ri Tog‘aning uyiga qarab ketdi. Tog‘a unga shuncha ko‘p ish topshirgan ediki, boshiga tushgan tashvishni ham unutayozdi. Uning fikri zikri Nayman cho‘lida bo‘lib qoldi. Ishni nimadan boshlash kerak? Oldin to‘qayga o‘t qo‘yishdanmi, zovur qazishdanmi? Palatka qurgan bilan zax yerda yotib bo‘larmikan? Aytgancha, Tog‘a, qariyalar-

dan besh kishini bordon to‘qishga qo‘shib beraman, dedi. Tog‘a tadbirli odam. Har baloga aqli yetadi. Olisni ko‘radigan odam bu Tog‘a!

Ikromjon raisning uyiga mehmon kelishini tayinlagach, to‘ppa-to‘g‘ri kolxoz saroyiga kirdi. Omborchi Abduxalil qayoq-qadir chiqib ketgan ekan, uni kutib, saroy ichida aylanib yurdi. Bundan uch-to‘rt kun oldin Tog‘a bilan Naymanga borishganda, u madaniyat saroyiga atab Sibirdan olib kelgan yog‘ochlarni tildirmay asrab qo‘yganini aytgan edi. Shu gap esiga kelib Ikromjon temir-tersak uyib tashlangan maydonga o‘tdi. Haqiqatdan ham, o‘sha yog‘ochlar qanday taxlab qo‘yilgan bo‘lsa o‘shanday turibdi. Ikromjon bu yog‘ochlardan qancha taxta tildirish mumkinligini chamalab ko‘rdi. Boradigan xo‘jaliklarga quriladigan uylardan ortib qoladi. Yo‘g‘-e, taxta bo‘ladi-yu, ortib qoladimi? Ko‘prik, otxona, molxonaga ham kerak bo‘ladi. Gap hali Tog‘aning bu yog‘ochlarning hammasini berishida qolgan. Beradi. Bermaganga qo‘ymaydi Ikromjon.

Otlarning yemi nima bo‘ladi? Tog‘a bu maslada hech gap aytmadi-ku. Hali uyga borganda eslatish kerak. Yerdan giyoh qiyoh cho‘zib chiqquncha yetadigan yem olib ketishmasa bo‘lmaydi.

U saroyini aylanib kelsa, Abduxalil omborni endi ochayotgan ekan. U omborga boshlab kirib ertaga cho‘lga olib ketiladigan narsalarni ko‘rsatdi.

– Tandır yo‘q. O‘zingiz toping, xarajatini buxgalteriya to‘laydi. Qozon bor, samovar bor. Quruq choy yo‘q. Olmachoy beraman. Boshqa hamma narsa bor. Xotirjam bo‘ling. Ertaga hammasini aravaga ortamiz-u, ketaverasizlar.

Ikromjon uning oldidan ancha ko‘ngli xotirjam bo‘lib chiqdi. Endi ketadigan a‘zolarini ogohlantirish kerak. Tayyor bo‘lib turishsin.

Ancha kech kirib, salqin shabada etni junjita boshlagan edi. Ikromjon samovarga kirib bitta choy ichdi-da, qo‘lidagi ro‘yxatga qarab ketadiganlarning uylariga jo‘nadi.

To ishini bitkazib qaytguncha qorong‘i tushib qolgan edi. Ro‘yxatdagilarning birontasi ham “yo‘q” demadi. Buning sababi bor edi. U kim bilan gaplashmasin, bechora alahsib qopti. Tog‘a ishga sho‘ng‘itib qo‘yibdi, yo‘q, desak ko‘ngli ranjiydi, deb “xo‘p” deyaverishgan edi.

U ishlarning yaxshi yurishganidan tabiati ravshan tortib Tog‘aning uyiga keldi.

Katta uyda notanish bir kishi stolga qo'lda yasalgan xaritani yozib Tog'aga nimalarnidir ko'rsatardi. Ikromjon ichkariga kirishga istihola qilib, derazani chertdi. Tog'aning o'zi eshikni ochdi.

— Keldingmi, kir, kiraver!

— Yo'q, shettan qayta qolay.

— Jinni bo'ldingmi, kiraver.

Tog'a uni qo'yarda-qo'ymay ichkariga boshladi. Mehmon unga o'girilib qaradi. Ikromjon u bilan salomlashib bir chekkaga o'tirdi. Mehmon Ikromjon kirib uzilib qolgan so'zini davom ettirdi. Uning gaplaridan Oxunboboyev hozir Farg'onada ekanini, bir-ikki kundan keyin Yozyovon masalasida katta yig'in bo'lishi kerakligini angladi. Tog'a Ikromjonga choy quyib uzatdi-da, eshikka chiqib ketib ancha hayallab qoldi. Mehmon Ikromjonga qaradi.

— O'zlari ham shu kolxozdan bo'ladilarmi?

— Shundoq, — dedi Ikromjon.

— Sizlarga qoyilman. Kolxozlaringdan qahramon chiqdi. Butun respublikaga dovrug'lar ketdi. Ertaga gazetani ko'rasizlar, hammasi sizlarga bag'ishlanib chiqadi. Qiziq, biri qahramon, biri qochoq.

Ikromjonning yuragi shuv etib ketdi. Uni kimdir go'yo elektr toki bilan urgandek bo'ldi. Tili gapga kelmay, nimalardir deb g'o'ldiradi. Keyin qizarib ketdi.

Ikromjon qanday qilib eshikka chiqib qolganini bilmaydi. Osh olib kirayotgan Tog'aga urilib ketdi. O'girilib unga bir qaradi-yu, o'qdek otilib ko'chaga yugurdi.

Atrof qorong'i. Osmonda na oy, na yulduz bor.

Nazarida, bu qora kecha bir umr oqarmaydigandek edi.

IX

Ikromjon har qancha iztirob chekmasin, er kishi sifatida xotini oldida o'zini dadil tutishi, ko'z yoshini yashirishi, biron harakati bilan alam chekayotganini bildirib qo'ymasligi kerak. Bu qiyin. Ammo iloji qancha?

Ikromjon eshikdan chehrasini ochib kirdi. Jannat xola kechadan beri supurgi tegmay ivirsib ketgan uyni yig'ishtirayotgan edi. Erining avzoyini ko'rib ko'ngli sal taskin topgandek bo'ldi-da, ayvon labiga kelib, yakandozni qoqqi.

— Kech haddida nima qilasan uy supurib, — dedi Ikromjon uning ko'zlariga qarashga botinolmay. — Bu ishlarini qo'y, xo-

tin. O'tir, ishdan gaplashaylik. Tayyormisan? Ertaga Naymanga ketamiz.

Jannat xola erining yoniga kelib o'tirdi-da, hardamxayollik bilan javob berdi:

– Qandoq bo'larkin? Durustroq o'ylab ko'rdingizmi?

– Durustroqmi, durustroqmasmi, ishqilib, o'shaqqa ketsak yomon bo'lmaydi. Meni aytdi dersan. Shu ish menga ma'qul tushib turibdi. Endi ko'nglingga kelmasin-u, gapning sirasini aytib qo'yganim durust. – Ikromjon gapining davomini o'ylab bir muddat jim qoldi. Keyin Jannat xolaning ko'ziga tik qaradi. – Urushda har nima bo'ladi. Birov o'qqa uchadi, birov yarimjon – mayib bo'lib qaytadi. To'rtserkalik muallim oshnam bor ediku, taniysan, oti G'anijon, o'shaning o'g'lidan qoraxat kelganda bechora yig'lab-siqtab aza ochgan edi. Yo'q, yaqinda o'g'lining o'zidan xat kepti. Ko'rdingmi, urushda shunaqa chalkashliklar bo'lib turadi. Ajab emaski, Tursunboy masalasi ham shundoq bo'lib chiqsa.

Jannat xolaning ko'zlari chaq nab, allaqanday umid uchqunlari yongandek bo'ldi. Yalt etib eriga qaradi.

– Aytganingiz kelsin, aytganingiz kelsin, iloyim.

– Endi gapning bu yog'ini eshit. Rostmi, yolg'onmi, shu gap bo'lib turganda el oldida bosh ko'tarib yurishga qiynalyapmiz. Naymanga ketsak, shu ta'nalardan sal uzoqroq turarmikanmiz, deyman-da.

– Mayli, – dedi Jannat xola.

Ikromjon bir chekkada g'arib bo'lib o'tirgan Nizomjonga qaradi:

– Bu yoqqa kel, bola. O'z tashvishlarimiz bilan bo'lib, holingdan xabar ololmay qoldik. Xo'sh, endi sen nima qilmoqchisan?

Nizomjon o'rnidan turdi. Sekin kelib boshini egib javob berdi:

– Tuzingizni ichdim. Hech kim qilmagan mehribonchiliklarni qildinglar.

– Bu gaplarni qo'y. Nima qilmoqchisan, shuni ayt.

Nizomjonning ovozi titradi. U qattiq hayajonga tushganidan gapini yo'qotib, turgan joyida og'irligini goh o'ng oyog'iga, goh so'l oyog'iga tashlab entikardi.

– O'tir, o'tirib gapiraver, bolam.

Nizomjon ular qatoriga qo'shilib ayvon labiga o'tirdi.

– Kimligimni aytib beray, ketib qolsam, u kim edi, nima qilib yurgan edi, deb o'ylab yurmanglar. Mening ham boshimda

sizlarnikicha bo'lmasa ham anchagina ko'rgiliklar bor. Uyimdan qochib kelyapman.

U boshidan o'tgan voqealarni ipga tizgandek birma-bir gapira boshladi. Dildorni sevgani bormi, unga akasini uylangani bormi, jahl bilan uydan ketib qolib, akasi o'lgandan keyin qishloqqa qaytib kelgani bormi, hammasini gapirdi.

Uning sarguzashtlarini kampir hayajon bilan tinglardi. Ikromjonga bu voqealar qanchalik ta'sir qilmasin, yuzida, ko'zida ortiqcha ajablanish sezilmasdi. Nizomjon opasi va dadasi-ning Dildorga, o'z kelin ayasiga uylantirish niyatida uni qiyinqistoqqa olganlarini aytganda Ikromjon yagona tizzasiga shapatilab urib o'rnidan turib ketdi.

– Oq qildimi, a? Dadang oq qildimi, a? Yo tavba bu qandog sharmandalik! Nima uchun bunday qiladi? Yo yaxshi kelinni qo'ldan chiqarib yuborgisi kelmaganmi?

– Gap unda emas, amaki. Dadam bilan opam Dildorning mulkiga ega chiqishmoqchi.

– E-ha, gap hali bu yoqda degin. Xo'sh, endi nima qilmoqchisan?

Nizom peshanasini uqalab, birpas jim turdi-da, javob berdi:

– GES qurilishiga borsam deyman. U yerda odamga zor bo'lib turishibdi, deb eshitdim.

– To'g'ri, bizning Zirillamamizdan ham yigirma odam ketgan. O'sha yoqqa borsang yomon bo'lmaydi. Buni yaxshilab o'ylab ko'rishimiz kerak. Menga qara, biz bilan Naymanga keta qolmaysanmi? Yaxshi yigit ekansan, yolg'izlatib qo'ymaymiz. Baxting ochilsa, shu yerda uy-joyli bo'lib ketarsan.

Jannat xola gapga qo'shildi:

– Shunaqa qila qol. Amakinglar bilan bo'lsang, bir-birlaringa dalda bo'lasizlar. Issiq-sovug'ingdan ham xabar olib turadiganlar bor bu joyda. Shu ma'qul gap, bolam.

Nizomjon o'ylab qarasa, darhaqiqat, bu jo'yali gap ekan. Har qalay, bu odamlar bilan ancha sirdosh bo'ldi. Birov, shu yerda qol, deb qo'ynini, ko'nglini ochib tursa-yu, u qayoqqa ketadi? Bormagan, ko'rmagan olis joyda hali nima gap-u nima so'z. Undan tashqari, o'zidek dili shikast bu oilani tashlab ketishi ham insofdan emas.

– Xo'p, amaki, qolaman. Sizlar sabab bo'lib zora yo'limni topib ketsam. Illo, yuzlaringizni yerga qaratmayman.

Ikromjon unga qarab iljaydi.

– Halitdan to‘n bichma, bola. Birga turgandan keyin ach-chiq-tizziq gaplar bo‘lmay iloji yo‘q. Urishamiz, so‘kishamiz, yarashamiz. Hammasi ham bo‘ladi. Ish bor joyda janjal ham bo‘lib turadi. Odamlar hozir juda asabiy bo‘lib ketishgan. Ularga ikkita gap ko‘plik qiladi, bitta gap kamlik qiladi. Chidamay choramiz yo‘q. Senga ham maslahat shu. – Ikromjon Jannat xolaga qaradi. – Ovqat-povqating bormi, opkelsangchi, o‘ldirding-ku, sirib.

Jannat xola o‘rnidan turib oshxonaga ketdi. Chiroq yoqib, o‘choqqa o‘t qaladi. Oshxona eshigidan bosh chiqazib dedi:

– Shavla qilgan edim, sovib qopti. Hozir isitib beraman, jindek sabr qilib turing, dadasi.

Ikromjon ariqdan qo‘l yuvdi-da, yakka-yu yagona oyog‘ini sandalga tiqib o‘tirib oldi. Nizomjon qaynog‘i o‘lgan samovarni silkib otashxonada kul bosib qolgan cho‘g‘ni alangalatib yubordi. Zum o‘tmay samovar surnay chalayotgandek nola qilib jig‘illadi. Jannat xola tovoqqa shavla suzib keldi.

Bu oilaning ikki kundan beri endi dasturxon atrofiga yig‘ilishi edi.

Ikromjonga charchoq bilindi. Sandal issig‘i badaniga o‘tib ko‘zi ilina boshladi. U ovqatdan keyin ikki piyola choyni qaynoq-qaynoq ho‘pladi-da, mudrab ketdi. Orqasidagi yostiqni yoniga tortib birpasda uxladi-qoldi. Jannat xola Nizomjonga ham o‘rin solib berdi-da, chiroqni o‘chirib ichkari uyga kirib ketdi.

Ammo Nizomjonning ko‘ziga uyqu kelmasdi. Xayoli uni hali u yoqqa, hali bu yoqqa sudrab ketaverdi.

U o‘z taqdirini o‘ylardi. O‘lmasa, dardga chalinib qolmasa, bu saxovatli kishilarga bir yaxshilik qilsin, shunday yaxshilik qilsinki, bu nogiron – xasta kishi diliga o‘chmas alam solgan bolaning dog‘ini unutsin. Unga bolasidan afzal yaxshiliklar qiladi. Hech kim unga xoinning otasi deb ta‘na qilmasin. Unga otiladigan ta‘na toshlariga Nizomjon ko‘ksini tutib beradi. Shunda u, o‘g‘lim bor ekan, u mana, deya olsin.

Nizomjon boshiga kelgan bu o‘ydan ruhlanib ketdi. Boshini bolishdan sekin ko‘tarib Ikromjon yotgan tomonga qaradi. Kecha qorong‘i bo‘lganidan u ko‘rinmasdi. Faqat pish-pish nafas olayotgani aniq eshitilib turardi.

Nizomjon yana bolishga bosh qo‘ydi. Esiga qishlog‘i, uyi, dadasi keldi. Ular nima qilishayotgan ekan. Uni eslashayotganmikan? Dildor ketib qolmadimikan?

Birga katta bo‘lgan o‘rtoqlari bir-bir ko‘z oldidan o‘tardi. O‘qigan maktabi, oxirgi imtihon, urush boshlangan kundagi

qishloqdagilarning hayajonli ko'zlari, dadasining o'sha kuniyoq magazindan ikki qop shakar, besh qop un, oltmish litr paxta moyi olib kelgani, opasi omonat kassaga qo'ygan hamma pul-larini qaytarib olgani, hammasi, hammasi xayoliga keldi. Ayniqsa, o'sha kuni Karimjon degan o'rtog'i uyga kelganda choy damlab patnisda ikkita non olib chiqib oldiga qo'yganda, dadasi uni chetga chaqirib, yuziga ikki tarsaki urib, patnisdagi nonni qaytarib uyga olib kirib ketgani sira esidan chiqmaydi. "Endi ocharchilik bo'ladi. Oshxonada qattiq non bor, ikki burda olib chiqib qo'y!" degan edi dadasi. O'shanda Nizomjon xo'rliги kelib ko'z yoshini oqizmay yig'lagan. Bu hangomani ko'rib turgan Karimjon sekingina kulib qo'ya qolgan edi.

Do'sti Karimjon frontda. Nizomjon uni Asrora bilan harbiy komissarlikda gruzovoyga chiqib jo'nab ketguncha kuzatib qolgan. Undan Nizomjon olti marta xat oldi. Boshqa o'rtoqlari qayoqda? Hammasi frontda. Bitta Nizomjon qilar ishining tayini bo'lmay tentib yuribdi. Yo'q, endi u tentimaydi. Frontga borib dushman bilan olishishga yaramasa ham shu yerda, mehnat frontida jang qiladi. O'rtoqlari qaytib kelishganda ular oldida yerga qaragulik bo'lmaydi. Ishlaydi. Bor kuchi bilan ishlaydi. Rohatidan kechadi, uyqusidan kechadi. Ishlaydi, ishlaydi...

Nizomjon ana shunday xayollar bilan uxlab qoldi.

... Ayasi boshini silaydi. "O'kinma, bolam, yo'lingni topib yur!" deydi. Allaqaydan Dildor paydo bo'ladi, unga qarab jirtak chalayotgandek iljayadi. Nizomjon tikilib qarasa bu iljayayotgan Dildor emas, bugun ertalab ko'rgan qiz... U mototsikl ushlab turibdi...

Nimaningdir pat-patlaganidan uyg'onib ketdi.

Ariq bo'yida bo'ynini cho'zib turgan xo'roz ikki qanotini sil-kib, birdan qichqirib yubordi. Nizomjon boshini ko'tarib hovlida ivirsib yurgan Jannat xolaga qaradi. Uning onasi ham shunaqa barvaqt turib hovli supurardi. Nizomjon tushida onasini ko'rdi. Uning bolalik xotirasida qolgan uzuq-yuluq qiyofasi ravshan-lashib ko'z oldida namoyon bo'ldi. Nizomjon sapchib o'rnidan turdi-yu, uyga kirib tugunchakdan onasining suratini olib deraza oldiga keldi. Alam, xo'rlik, iztirob bilan unga tikildi.

Nizomjonlar oilasi juda nochor yashardi. Inoyat oqsoqol ro'zg'orni, oila a'zolarini xuddi qisimlab ushlab turgandek sira panjasini yozib erkin qo'yib yubormasdi. Birgina Nizomjon o'zi-ni erkinroq tutardi, xolos. U sho'xlik qilgan, so'ziga kirmagan kezlarda dadasi tutaqib ketardi. Xotiniga o'dag'aylardi:

— Bolani rasvo qilyapsan. Ko‘rarsan, buning bola emas, balo bo‘ladi!..

Marhum onasi har jihatdan dadasiga mute edi. Uning bir gapini ikki qilishga qo‘rqardi. Nizomjonning onasi rangsizgina, yuzlariga juda erta ajin tushib, qaddi bukilgan xotin edi. U erining fe‘lini yaxshi bilgandan achchiq gaplarni eshitganda ham chidab turaverardi. Oqsoqol ko‘chadan kelib omborxonaga kalit solib ovqatga masalliq olib bermaguncha, ayvon labida ma‘yus o‘tiraverardi. Oqsoqolning izmisiz bu ro‘zg‘orda o‘choqqa o‘t yoqilmasdi. U doimo eshak minib, qishloqma-qishloq chorbozorchilik qilardi. Hech qachon birovnikida yotib qolgan emas. Qayerda bo‘lsa ham, uyga yetib kelardi.

Oqsoqol faqat hovlidagi ashtarxon gilos bilan oq o‘rik pishib tugamaguncha uydan ko‘chaga chiqmasdi. Ularni terib, savatga bittalab joylab, irigan-chiriganlarini uydagilarga qoldirib bozorga olib ketardi.

Lekin ro‘zg‘orda har qanday qiyinchilik paytida ham ularning qozoni qaynab turardi. Omborxonada hamisha bir-ikki oyga yetadigan masalliq bo‘lardi. U doimo bir gapni takrorlashni yaxshi ko‘rardi:

— Oziqlik ot horimas. Nafsini tiygan uzoqqa boradi. Toma-toma ko‘l bo‘lur, bugun bir burda tejasang, ertaga noning ikki burda bo‘ladi.

Oqsoqolning deyarli har kuni omborxonadan shisha bankada mosh yo no‘xat o‘lchab berayotganda aytadigan gapi xotining jon-jonidan o‘tib ketardi. Hatto bir kuni chidamay nolib ham qoldi:

— E, tejalmay o‘lsin. Dunyoga odam ikki marta keladimi? Eshikdan birov kirsam yuragim o‘ynab ketadigan bo‘pti, odamlarga o‘xshab birovning oldiga ikkita non qo‘yolmasam. Bu qanaqa tirikchilik bo‘ldi. Boshqalar binoyidek to‘kin-sochin yashashyapti. E, osh avliyo-yu, non payg‘ambar bo‘lmay qurib ketsin.

Oqsoqol o‘shanda xotining gapiga javob topolmay o‘shqirgan edi.

— Hoy, ahmoq xotin, hoy, nodon xotin, azizlarga til tegizma! Bu kuningni ham ko‘p ko‘rib qo‘ymasin!..

Mahallada to‘y yo aza bo‘lsa o‘sha kuni ularning uyida qozon osilmasdi. Oqsoqol ma‘raka o‘tguncha qozonning tepasidan ketmasdi, bolalardan uyga bir-ikki tovoq osh chiqarardi. O‘zi qaytishda qiyig‘iga ushatilgan burda nonlarni tugib kelardi.

Nizomjon ana shu oilada, hamisha tarang ro'zg'or ichida o'sgan.

Shu topda u suratga qarab o'tirib, munis, hammavaqt ko'zida hayotidan nolish sezilib turgan onasini eslab ketdi. Onasi kamdan-kam kulardi. Kulganda ham ichida kulardi. Ba'zan u Nizomjonni yetaklab tog'alarinikiga olib borardi. Nizomjon o'sha yoqlarga borganda sira uyiga qaytib kelgisi kelmasdi.

Mana hozir ona suratiga tikilarkan, uning yuzidagi tanish, ko'p voqealarning shohidi bo'lgan ajinlar, hech qachon kulmagan qisq lablar, hasrat to'la ko'zlar Nizomjonga: "Bolaginam, mensiz holing ne kechayotgan ekan, yo'lingni topguningcha bag'rimda tutolmadim. Qayda bo'lsang omon bo'l. Yomonga yondashma!", deyayotgandek.

Osmon xuddi yangigina ohak surtilgan devordek sekin-sekin oqarib kelardi. Ko'kka bo'y cho'zgan yalang'och teraklarning uchi birdan xuddi o'tda qizdirilgan simdek qip-qizil bo'lib ketdi.

Ko'chadan oyoq tovushlari ham eshilib qoldi. Atlasdek tovlangan osmon, beg'ubor havo Nizomjon ko'ksidagi og'ir, hazin o'ylarni tarqatib yuborgandek bo'ldi.

X

Zebixon u qadar chiroyli emasdi. Ammo uning ikki ko'zi... Bu ko'zlar qaraganni kuydirardi. Zirillamalik yigit borki, uning eshigi oldidan tegajaklik qilmasdan o'tolmasdi:

Surma qo'ymay muncha ham, jonon qarodir ko'zlaring,
Har biri jon qasdiga boqqan balodir ko'zlaring.
Oshno begonalariga, bir umr xush-xush nigoh,
Oshnolarga g'araz nooshnodur ko'zlaring...

Zebixon supada bu qo'shiqlarni eshitib yotardi. Opasi uning tepasiga kelib bir yostiq bo'lib to'zib ketgan sochlarini yig'ishtirib unga mehr bilan tikilardi-da, hamisha bir gapni aytardi:

— Sen o'lgur, noz qilavermay bittasini tanlasang bo'lardi. Pochchangni bilasan-ku, gap ko'tarmaydi.

Zebixon pochchasining fe'lini juda yaxshi biladi. U opasi aytgandek tajang odam emas, juda muloyim. Opasi unga tegib ikki bolalik bo'ldi hamki, ularning orasida bironta sovuq gap o'tganini bilmaydi. Jahli chiqib turganda ham gapiga matl qo'shib gapirardi. Opasi bir kuni o'rtog'i erga tegayotganida

to'yga ketib yarim kechasigacha qolib ketdi. Aksiga olib Zebixon ham majlisda edi, kelsa pochchasi qo'liga hali yo'lga kirmagan bolani ko'tarib olib hovlida alla aytib yuribdi. Erkak kishiga alla aytish shunaqayam yarashmas ekanki, Zebixon hiringlab kulib yubordi. Katta o'g'li — to'rt yashar Omonjon dadasining etagidan ushlab ergashib yuribdi. U dod deydi, chaqaloq chirillab yig'laydi, pochchasi do'rillab alla aytadi.

— Nima gap, tinchlikmi, pochcha?

Pochchasi indamadi. Bir ozdan keyin to'ng'illadi:

— Egachim ovga chiqdi, ketidan g'ovg'a chiqdi. Qilgan ishini qarang, bolalarga ovqat-povqat qilmay ketaveribdi. Qozonga o't qalay desam, manavi qo'limdan tushmaydi. Bunisi etaginga yopishib oldi. Jonimdan to'yib ketdim.

Zebixon darrov ovqat pishirib, jyanlariga yedirdi. Bolalar ochiqqanlaridan yig'lashayotgan ekan. To'yib darrov uxlab qolishdi. Opasi ikki xo'roz chaqirganda keldi.

— Qayoqda qolib ketding, opa, pochcham bechora qiynalib ketibdi-ku?

Opasi bo'ynidan marvaridini, quloqlaridan isirg'alarini ola turib hiringlab kuldi.

— Qo'yaver, bola boqishning qanaqaligini bir bilib qo'ysin.

Pochchasi yotgan yerida to'ng'illadi. Uyqusi juda pishib turgan ekan, aytgan matali uncha kelishmadi:

— Bir dono odam, kichkinagina, ozg'ingina xotinga uylanibdi. Odamlar nega kichkina xotinga uylanding, deb so'rashganda, janjalning kichikrog'i durust, degan ekan.

Bu gapdan hayron bo'lib qolishdi. Zebixonning opasi unchalik kichik emas, to'lagina, lo'ppigina juvon edi.

— Bu nima deganingiz? — dedi kulib.

Pochchasi gapini yopishtirolmaganidan o'ng'aysizlanib, ko'zini yumib yolg'ondan xurрак tortgan edi.

Pochchasi To'lanboy mo'ylov eski kitoblarni ko'p o'qigan. Shuning uchun ham ikki gapning biriga yo bayt, yo bo'lmasa ibratli bir hikoyat qistirib o'tmasa, ko'ngli joyiga tushmaydi. Qaynotasi o'lganda ko'p yaxshiliklar qilgan. Uning bu yaxshiliklari Zebixonning dilida turibdi. Shu pochchasi uni o'qitdi, gap-so'zga qoldirmay otadek qanotiga oldi. Ba'zan Zebixon yo'q paytlari er-xotin pichirlab gaplashib, tengi chiqsa Zebixonni biron yigitga berishni maslahatlashishardi.

— Zebixon yomon emas, esli-hushli chiqdi. Qiz bola nozik narsa, tengi chiqsa tekin ber, degandek, vaqtida egasiga topshir-sak, yomon bo'lmasdi.

Xotini bu mehribon, hamiyatli erining odamgarchiligidan ko'z yoshi ham qilib olardi.

– Bu zamonning qizlariga bir nima deb bo'larmidi? O'zi topmasa, biz topganni nazarga ilmaydi.

Ammo Zebixon o'ziga munosib yigit izlardi. Oyog'i tagida o'ralashayotganlarini pisand qilmas, yo'lini to'sib, yig'lab dardini aytadiganlarni elamas edi. U mag'rur, uni oyoq uchida ko'rsatadigan, ko'rkiga bino qo'ygan Tursunboyning yuragiga o't tashlamoqchi, uning ko'zini ochib qo'ymoqchi edi.

Qizlarning hammasi ham shunaqa bo'ladi. Ular suykalganga emas, o'zini olib qochganga qarashadi. Tursunboy ana shunaqalardan edi.

U chiroyli, qomati quyib qo'ygandek pahlavon yigit. Biron marta soqoli o'sib yurganini hech kim ko'rmagan. Kiyimlari hamisha toza. Etigi oynadek yiltirab turadi. O'zi bo'lsa, qizlar oldidan atayin gerdayib, pisand qilmay o'tadi. Hatto u o'rtoqlariga maqtanib, falon qizni bir laqillataman ko'rib qo'yanlar, derdi-da, garov boylashib, qizlar bilan biron joyga va'dalashardi. Keyin u va'dalashgan joyga bormay og'aynilarini tomosha qilgani yuborardi. Sochini mayda o'rib, yasanib kelgan bechora qiz uni kuta-kuta qaytib ketardi. Tursunboyning o'rtoqlari uni ermak qilib orqasidan qarab qolishardi. Tursunboy shunaqa garovlarda necha marta o'rtoqlarini araqqa tushirgan.

Zebixon mana shu Tursunboyning ishqida kuyardi. Tursunboy bo'lsa unga qayrilib ham qaramasdi.

Qiz bola shayton bo'ladi. Agar u astoydil qasd qilsa, har qanday erkakning ham yuragini yondira oladi. Bir tasodif ro'y berdi-yu, Tursunboy o'q yegan kaptardek tipirchilab qoldi.

Bayram kunlari Zarkent guzari juda gavjum bo'ladi. Katta klubda oblast teatri har xil tomoshalar qo'yadi. Gajak qo'ygan kelinchaklar, g'ijim ro'mol o'ragan qizlar fotografiya oldida o'ralashib qolishadi. Faner budka oldida yigitlar krujka chetidan ko'pik puflab pivo ichishadi. Morojenoyexona bolalarning qiy-chuviga to'lib ketadi.

Zebixon ikkinchi may kuni Yakkatutdagi o'rtog'inikidan ziyofatdan kelayotgan edi. Etaginging ikki yonida pechak ochilgan sorochna ko'ylagini yelkasiga tashlab olgan Tursunboyning pivo ichib turganini ko'rib ko'channing narigi betiga o'tib ketmoqchi bo'ldi. Tursunboy qizil etigining qo'njini boldiriga burma qilib tushirib, galife shimi ustidan jez to'qasiga yurak tasviri tushirilgan enlik kamar taqib olgan edi.

U o'rtog'lariga Zebixonni ko'rsatib nimadir dedi. Shirakayf yigitlar yalt etib unga qarashdi. Keyin ular o'rtasida qandaydir tortishuv boshlandi. Tursunboy ikki barmog'ini og'ziga tiqib hushtak chaldi. Zebixon nima gap, deb orqasiga qaragan edi, Tursunboy uni imlab chaqirdi. Qiz pisand qilmay ketaverdi. Jahli chiqqan Tursunboy yana hushtak chaldi:

– Hoy, menga qara deyaрман!

Qiz to'xtadi.

– Nima deysan?

– Baqqa kel!

– Men itmanmi, nega hushtak chalib chaqirasan? Ishing bo'lsa o'zing kel!

Tursunboy, “Obbo!” deganicha unga qarab yurdi. Yigitlar Tursunboyini ermak qilib, qah-qah urib kulib yuborishdi. Ularning biri:

“O'la, o'l, o'salning qadog'i necha puldan tushdi?” deb hiringladi.

Tursunboy ikki qulog'igacha qizarib Zebixonning oldiga keldi.

– Sharmanda qilding-ku, kela qolsang et-beting kamayib qolarmidi?

Zebixon unga g'azab bilan qaradi. Tursunboy oyoq ustida arang turar, har gandiraklaganida yelkasidagi g'ijim bo'lib ketgan ko'ylagi yerga tushib ketardi. Uni olaman deb ikki marta o'tirib ham qoldi.

– Meni o'rtog'larim oldida sharmanda qilding.

– Odamning har nima bo'lgani yaxshi. Sen faqat o'zingni o'ylaysan. Bir pullik manfaating uchun boshqa odamning obro'sini oyoq ostiga olib tepkilashdan ham toymaysan. Bilib turibman. Og'aynilaring bilan garov baylashib meni chaqirding. Uyalmayсанmi? Vijdoning bormi o'zi?

Qo'lida krujkasi bilan ularga yaqinlashayotgan yigit labini yalab qichqirdi.

– Yasha, qizcha, boplading. Gushnani yarimtaga tushirding.

Tursunboy o'rtog'iga yeb yuborgudek o'qrayib qaradi. Zebixon Tursunboyga achinibmi, g'azablanibmi, bir qaradi-da, indamay yo'lga ketaverdi. Tursunboy qo'llarini mushtlab orqasidan qarab turgach, keyin qo'l siltab, qizning orqasidan ketdi.

Zebixon Tursunboyning bu qiligidan nihoyatda g'azablangan edi. Xo'rliги kelib, o'pkasini tutolmadi. Ko'zlaridan yosh dumalayverdi, dumalayverdi... Zirillamaga shu vajohatda kirib borishdan istihola qilib, yo'l chetidagi terak tagiga kelib o'tirdi.

U hozir Tursunboy yaqiniga kelsa, yumdalab tashlashga, og'ziga kelgan so'zlar bilan qarq'ashga tayyor edi.

Qizargan qovoqlarini etagiga artib o'rnidan turmoqchi edi, yaqin kelib qolgan Tursunboyni ko'rib yana o'tirdi.

— Sen yaramas, qarab turgin, dadangga aytib bermasam!..

Tursunboy qilgiliklarini ko'pincha dadasidan yashirardi. Zebixonning gapi uni bir oz sarosimaga solib qo'ydi.

— Jinni bo'ldingmi! Hazilni ham bilmaysan-a. Hazillashdim.

— Hazil shunaqa bo'ladimi? Meni sharmanda qilib, araq yutmoqchi bo'ldingmi? Ma, ma pul. Pul kerakmi senga? — Zebixon ro'molchasiga tugilgan pulni unga irg'itdi. — Uyati yo'q, nomard!

— Og'zingga qarab gapir. Kaltak yemagin, tag'in.

— Qani, ur. Ur, mard bo'lsang!

Tursunboy unga yaqin kelolmadi. Tishini g'ichirlatib tura-verdi. Zebixon o'rnidan turdi-da, etaklarini qoqib, uni masxara qilayotgandek jo'rttaga ming turlanib ko'chani o'rtasidan jo'nab qoldi.

Shu-shu bo'ldi-yu, Tursunboy Zebixonga ro'para kelolmaydigan bo'lib qoldi. Qiz oldidan chiqib qolgan paytlarda Tursunboy bir nimani bahona qilib burilib ketadi yo bo'lmasa lavlagidek qip-qizarib turaveradi.

Tursunboy hammavaqt xohishiga yetgan, nimani xohlasa o'shanga erishgan bola edi. Zebixon birinchi bo'lib uning yuziga tik qaradi. Birinchi bo'lib uning ta'zirini berib qo'ydi.

Tursunboy undan o'ch olishga intilardi. Ba'zan esa insofga kelib, astoydil uzr so'ramoqchi bo'lardi. Lekin o'ch ham ololmadi, uzr ham so'rolmadi. Oraga uchinchi bir savdo suqildi.

U Zebixonni yaxshi ko'rib qoldi. U bu qizning nimasini yaxshi ko'rib qolganini o'zi ham bilmasdi. Kim biladi, u Zebixonning Marg'ilon suratxonasi devoridagi, soat taqqan qo'lini iyagiga tirab tushgan suratini ko'rganidami, havaskorlar to'garagi "Tohir va Zuhra" dan parcha qo'yganda Zuhra bo'lib chiqqanini ko'rganidami, qachon, qanday qilib yaxshi ko'rib qolganini bilmaydi. Darhaqiqat, Zebixonning surati juda yaxshi chiqqan edi.

Tursunboy o'shanda suratga mahliyo bo'lib qarab qolgan, faqat: "Anavini qara-ya, o'zimizning to'pori Zebimi shu? Yuziga tuzukroq qaramagan ekanman-da. Voy, munaqasi bo'lmaydi!.. Tavba-ye! Rostdan Zebimi..." — deya olgan edi.

Havaskorlar teatrining tomoshasi bo'ladigan kuni Tursunboy klubga pisand qilmay kirgan edi. Zebixon shunaqayam qiliqlar

qildiki, Tursunboy angrayib qoldi. Zebi “Otmagay tong”ni juda olarkan. Tog‘a: “Voy puchug‘-ey”, deb yuborganini Tursunboy o‘z qulog‘i bilan eshitdi. Ashula tamom bo‘lgandan keyin klub ichi chapakdan larzaga keldi. Tomosha tomoshaligida qolib o‘sha ashulani yana aytirishdi. Parda yopilganda To‘lanboy sahnaga chiqib, tushuntirdi:

— O‘rtoqlar, spektaklda ashula ikki marta aytilmaydi, shunga rioya qilinglar!

Tursunboy luqma tashladi:

— Katta teatrlarda shunaqa bo‘lsa bordir, bu o‘zimizning teatr. Qancha xohlasak, shuncha aytiramiz. Sendaqa rejissorni qara-yu!..

Spektakl tamom bo‘lgandan keyin janjal chiqdi.

— Bu yog‘ini ham ko‘rsatsin.

To‘lanboy yana sahnaga chiqdi.

— O‘rtoqlar, davomini ikki oydan keyin ko‘rsatamiz. Bu tomoshadan bir parcha, xolos.

Yoshlar qiy-chuv ko‘tarishdi.

— Chorakta tomoshaga odam yig‘ib o‘tiribsanmi?

Odamlar Zebixonning san‘atiga qoyil qolib, tomoshadan ko‘ngillari to‘lmay tarqashdi. Ana shundan keyin To‘lanboy, as-toydil kirishib pyesaning hammasini ko‘rsatish niyatida kunora havaskorlar bilan shug‘ullana boshladi. Ammo urush boshlanib, bu ishlar qolib ketdi. Havaskorlar frontga ketdi. Tohir rolida chiqadigan, Qora botir bo‘ladiganlar frontda dushmanga qarshi jang qilgani otlanishdi.

Shu-shu bo‘ldi-yu, Tursunboyning qulog‘idan Zebixonning ovozi nari ketmay qoldi. Ko‘zini ochsa, qashqar baldoq taqqan surati, ko‘zini yumsa ashulasi uni notinch qilaverdi. U juda ko‘p garang bo‘lib yurgach, qizning yo‘lini to‘sib, g‘o‘ldirab muhabbat izhor qildi.

Zebixon ariq bo‘yida tolga o‘rashib chiqqan chirmovuqning karnay gulidan bittasini uzib ko‘kragiga, pastga qaratib taqib oldi-da:

— Tushundingmi? — dedi:

Tursunboy tushundi. Tushundi-yu, yuragi o‘rtanib ketganini bildirish uchun otga o‘xshab pishqirib xo‘rsindi.

Ayol qalbi tosh bo‘lsa ham allaqayeri paxtadan yumshoq, ipakdan mayin bo‘ladi. Aytilgan gap o‘sha joyga borib tegsa, bekor ketmaydi. Tursunboyning shu qalbaki xo‘rsinishi Zebixon ko‘ksidagi o‘sha har narsani kechira oluvchi, har qanday darddan

o'sha larzaga tushuvchi joyga borib qadalgan edi. Zebixon unga yon berdi. Hech kimga so'zini bermagan, hali egar urilmagan, jilov solinmagan asov jiyrondek shataloq otib yurgan bo'z bolaning bosh egib titrab turishi Zebixonning ko'nglini yumshatdi. U beixtiyor uning qo'llaridan ushladi. Tursunboy uning qo'llarini olib qizib turgan betlariga ishqadi.

Tursunboy harbiy xizmatga ketar oldida ular oxirgi marta qirga chiqishdi. O'shanda ularning yulduzlari porlab turardi. Tursunboy qovjirab qolgan ariqqa chalqancha yotib osmonga tikildi. Yulduzlar milt-milt qilib imlashadi. Yigitning ko'zlarida yosh yiltirayotganini Zebixon sezmasdi. Ikkovlari ham o'z yulduzlariga tikilib nimalarnidir o'ylashardi...

— O'sha yerlarda ham shu yulduz ko'rinarmikin? — dedi Zebixon.

— Ko'rinadi. Hamma joydan ko'rinadi, — dedi Tursunboy yig'lamsirab.

Tursunboyning dard bilan, alam bilan gapirayotganini Zebixon sezib qoldi. Boshidan quchoqlab ko'kragiga bosdi. Tursunboy yig'lardi. Zebixon uning sochlarini siladi.

O'sha kecha Zebixon uxlayolmadi. Keng supada to'lg'anib chiqdi. U opasining qimmatbaho bezaklarini taqib, yuzlariga bilinar-bilinmas qizil surtib, atirga cho'milgandek bo'lib Tursunboyning oldidan o'tgani, unga doimo beparvo qaraydigan Tursunboy ketidan angrayib qarab qolganini esladi. Tursunboy olisga, qon to'kilayotgan, bombalar portlayotgan joyga ketdi, deb o'ylagan edi Zebixon. Ammo Tursunboy qochibdi. Frontga yetmayoq yigitlar jon olib, jon berayotgan joylarga qadami yetmayoq qochibdi.

Bu shum xabar Zebixonni tamoman esankiratib qo'ydi. Avvaliga nimalar bo'layotganini bilolmay gangib yurdi. Keyin bu dahshatni odamlar ko'zida, muomalasida ko'rib, birdan yuragi o'ynab ketdi.

Shu kunlar "Azixxon qahramon bo'ldi" degan xabar kelgan edi. Bir qishloqning ikki bolasidan bir kunda ikki xil xabar keldi. Biri qahramon, biri qochoq!

Zebixon to'lg'anib-to'lg'anib yig'ladi. Oxiri bu nomard, ah-dini buzgan yigitni qalbidan sidirib tashlashga ahd qildi.

Bu Zebixon o'ylaganacha oson ish emasdi. Ularning birga kechirgan, ahd-paymon qilgan onlariga guvoh yulduzlar hamon porlab turishibdi. Ular kechgan kunlarni esga solib, biri Tursun-

boy bo'lib, biri Zebixon bo'lib har kecha hali barg yozmagan novdalar orasidan qarashmoqda.

Adirlar-chi! Ularning ilk sevgisiga guvoh bo'lgan qirlarni qo'porib tashlab bo'lmaydi-ku! Ovoz yetmas osmonda hamon mildirab turgan yulduzlarni uzib olib o'ngirlarga uloqtirolmay-san-ku! Ularni ko'k yuzidan sidirib tashlab bo'lmaydi-ku!

Zebixon qalbida to'lib-toshgan alamlarni kimga to'kishini, laxcha cho'g' bo'lib yonayotgan o'tni kimga sochishini bilmasdi.

Zebixon o'ylab-o'ylab, Tursunboyni eslatadigan ko'chalaridan, soy bo'ylaridan nari ketishga ahd qildi.

U Tog'a ko'nsa Naymanga ketadi. Shu niyatda o'rnidan turib, bir varaq qog'ozni oldiga qo'yib qalamni tishlagancha o'ylanib qoldi.

XI

Ikromjon ertalab shamolning guvillashidan uyg'onib ketdi. Apil-tapil kiyinib o'rnidan turdi-da, hovliga tushdi. Hamon shamol novdalarni bir-biriga ayqash-uyqash qilib, hovli yuzidagi qog'oz parchalarini u yoqdan-bu yoqqa uchirib yurardi.

Kunbotar tomondan qo'rg'oshindek qop-qora bulut shu tomonga sudralib kelmoqda. Ikromjonni tashvish bosdi. Axir bugun odamlar cho'lga ketishadi. To'qaydan, botqoqlardan busiz ham o'tish qiyin, yomg'ir quyib bersa otlarga jabr bo'lmasmikan? Jala quyib tursa ochiq dalada qanday qilib boshpana qurib bo'ladi? Agar havo shu xilda aynib tursa ertaga jo'nashsamikan?

Nizomjon ham turdi. U Ikromjonning nimadan tashvishlanayotganini sezgani uchun indamay borib samovarga o't tashladi.

— Menga qara, jiyan, — dedi Ikromjon uning oldiga kelib. — Har ehtimolga qarshi ko'ch-ko'ronlarni to'g'rilab turinglar, men bir guzarga chiqib kelaman. Agar o'zim kelolmasam arava yuboraman. Pravleniye oldiga chiqaveringlar.

Tog'a, xotin-xalaj turar joy bitganda boradi, hozircha o'zinglar ketaveringlar, degan edi. Ammo Ikromjon xotini yolg'iz tashlab ketgani ko'ngli bo'lmadi. Olib ketishga qaror qildi. Agar xotini huvillab yotgan uyda bir o'zi qolsa ich-etini yeb qo'yadi.

Ikromjon osmonga qaray-qaray ko'chaga chiqib ketdi. Jan-nat xola sigirni chorboqqa arqonlayotgan edi. Chelakda sut ko'tarib kirdi.

– Amaking qani? – dedi u chelakni oshxona ostonasiga qo‘ya turib.

– Tayinlab, idoraga chiqib ketdilar, ko‘chlarni tayyorlab turarmishmiz.

– Eshikni qulflab ketaverarkanmizmi?

– Unisini aytmadilar.

Jannat xola Naymanga ketamiz, degan gapni eshitganda, bunchalik bo‘lar, deb o‘ylamagan edi. Bu gapning butun dahshati shu topda bilindi. U shu uyga kelin bo‘lib yor-yor bilan kirib kelgan. Shu uyda necha bola ko‘rib, nechasini tuproqqa bergan. Bu uy uning eng baxtiyor, eng azobli kunlariga guvoh. Eh-he, bu uy devorlari orasida uning qancha-qancha umri o‘tgan. Shu uyda yig‘lagan, shu uyda kulgan...

Endi bu uyni tashlab, to‘qayga ketyapti.

Jannat xola birdan bo‘shashib o‘tirib qoldi. Rangi o‘zgardi. Yuragi ezilib, birpasda xayoli allaqayoqlarga uchdi.

Ko‘p xotinlarda jindek molparastlik, lattaga o‘chlik bo‘ladi. Bu xislatdan Jannat xola ham xoli emasdi. U, o‘g‘il uylantiraman, kelin tushiraman, deb qachonlardan beri mol yig‘adi. Eriga bildirib-bildirmay, magazinga qanday yaxshi mato kelsa uyiga tashib kelaverardi. Hali Ikromjon ko‘rmagan bisotlari ham bor edi Jannat xolaning.

U to‘y qilsam birovdan so‘rarlik bo‘lmasin, deb chinni asboblarni ham yetarli qilib qo‘ygan edi. Kelinning en kiyimliklari taxt. Hatto bo‘lg‘usi kelin nechanchi tufli kiyishini bilmasa ham, poshnasi baland tuflilardan ham uch-to‘rttasini olib qo‘ygan. Bulardan tashqari, bir sandiq to‘la Tursunboyning kiyimlari.

Hamma onalar shu. Bolasining kamolini ko‘rguncha, kelin tushirguncha shunaqa tinib-tinchishmaydi.

Kunbotardan ko‘tarilgan bulutni shamol haydab keldi-da, shatir-shutur qilib jala quya boshladi. Jannat xola sutni ko‘tarib ayvonga qochdi. Samovar parillab qaynardi. Nizomjon karnayini olib tashlab samovarni ayvonning poygahiga keltirib qo‘ydi, tutayotgan chalasini otashkurak bilan olib ariqdagi bo‘tana suvga botirdi.

– Menga qara, bolam, – dedi Jannat xola Nizomjonga hasratli boqib. – Shu yog‘ingarchilikda ketmoqchimisizlar?

Nizomjon hayron bo‘ldi.

– Iya, siz ketmaysizmi, aya?

Jannat xola bosh tebratdi:

— Yo‘q, bolam. Avval bironta boshpana tiklab olinglar, keyin meni olib ketarsizlar. Manavi yerga o‘tir, senga aytadigan bir-ikki og‘iz gapim bor. Yaxshilab eshitib, qulog‘ingga quyib ol. Amakingning ko‘ngli yarimta. Yonidan jilma, hozir o‘zi yer-u ko‘kka sig‘may yuribdi.

Ajab! Ikromjon yursa ham, tursa ham, biron harakati bilan xotining vayron bo‘lgan ko‘ngliga ozor berib qo‘ymaslikka urinadi. Ichi yig‘lab turganda ham unga kulib qaraydi. O‘zini keng qo‘yib unga dalda beradi.

Xotini-chi? U ham shu!

Er-xotin ichdagini tashiga chiqazmay bir-birini aldardi. Go‘yo ularning oilasida hech gap bo‘lmagandek. Go‘yo Tursunboy ularning dilini og‘ritmagandek.

Ikromjon xotini yolg‘iz qoldirishga, xotini bo‘lsa uni yolg‘iz yuborishga ko‘ngli bo‘lmasdi. Ularning shu kunlardagi muomalasi xuddi bir-biridan aybini yashirayotgan qudalarga o‘xshab ketardi.

Shamol kuchaygandan kuchayib, bulutni surib ketdi. Bulut chetlari xuddi yonayotgan qog‘oz chetiga o‘xshardi. Shu zar bulutlar orasidan ko‘k shishadek bo‘lib osmon ko‘rindi.

Mo‘rilarda jon saqlagan musichalar kukkulab tarnovlarga qo‘nib olishdi. Beg‘ubor, juda ham beg‘ubor shabada esdi. Bu shabadalar qanotida qirlarda ungan pista mag‘izdek och yashil giyohlarning tarovatli hidini olib ketdi. Ivigan serraxna devorlardan bug‘ ko‘tarila boshladi. Birpasda hammayoq yashnab ketdi.

Jannat xola shoshib-pishib bir-ikki piyola choy ichdi-da, uy yig‘ishtirishga tushdi. U taxmondan ko‘rpa, yakandoz olib, sandiq ostiga taxlab qo‘ygan yangigina sholchani tortib ayvonga olib chiqdi. Ikki kishiga yetarli anjomni bir joyga to‘plagandan keyin, Nizomjonga bularni sholchaga o‘rashni buyurdi. Keyin o‘zi oshxonadan qumg‘on, dekcha olib chiqdi. Yana nima esimdan chiqdi ekan, deb o‘ylab turgandan keyin, unutgan narsasi esiga tushib, yana oshxonaga kirib ketdi. Savatda non, tuz, qoshiq, choy olib chiqdi.

— Bo‘ldi. Yana biron narsadan kamchilik bo‘lsa qishloqqa odam tushib turar, albatta, tayinlab yuboringlar. Hammasini yuboraman.

Devor raxnasidan egarda o‘tirgan Ikromjonning boshi ko‘rindi. U egardan gup etib o‘zini yerga tashladi-yu, hovliga kirdi.

— Tayyormisizlar? Qani jiyan, yuklarni aravaga olib chiqaver!

– Dadasi, men borolmaydigan bo‘lib qoldim.

Ikromjon xotiniga qaradi.

– Nega aynib qolding, xotin? Yuraver, Tog‘aga aytdim, mayli, dedi.

– Keyinroq borarman. Hozir borsam, sizlarga tashvish bo‘lishdan boshqa foydam tegmaydi. Boraveringlar, mendan xavotir olmang, menga jin ham tegmaydi.

Ikromjon chakkasini qashib, nima qilishini bilmay turib qoldi.

Birga ketgani durust edi. Yolg‘iz uyda nima qiladi? O‘ylayverib adoyi tamom bo‘ladi-ku.

– Hoy, xotin, yuraver, jinnilik qilma.

Jannat xola qat‘iy javob qildi.

– Ketavering, dadasi. Meni yig‘laydi, o‘zini-o‘zi yeb qo‘yadi, deb o‘ylamang, xotirjam ketavering. Bir boshpana tiklang. Bu uyni birontaga topshirib, ro‘zg‘orni saranjom qilib keyin boraman.

– E, – dedi Ikromjon, – esi yo‘q, xotin-ey, shu paytda ro‘zg‘orni o‘ylab o‘tiribsanni, hech kim tegmaydi! Joning salomat bo‘lsa, hammasi topilib ketadi.

Ikromjon u desa, bu dedi, xullas, Jannat xola bormaydigan bo‘ldi.

Yuklarni aravaga ortib Ikromjon endi uzangiga oyoq qo‘yaman deb turgan edi. Jannat xola eshikka qulf urib uning oldiga keldi.

– Shoshmang, hech bo‘lmasa guzargacha kuzatib qo‘yay.

Ikromjon egarga minmadi. Ot jilovidan yetaklab yo‘l boshladi. Er-xotin oldinda jimgina ketishyapti. Nizomjon bo‘lsa arava orqasida ularga xomush qarab borardi.

Ikromjon aravani choyxona oldidagi ustiga ko‘ch ortilgan aravalar qatoriga olib borib to‘xtatdi.

Tog‘a kelganlarni alohida ro‘yxatga yozib turardi.

Ikromjon qishloqda shuncha odam borligini bilmas ekan. U hamma frontga ketgan-u qishloqda hech kim qolmagan, deb yurardi. Hozir ko‘chaning ikki betiga tizilib turgan, samovar so‘risini to‘ldirib o‘tirgan kishilarni ko‘rib hayron bo‘ldi. Butun qishloq cho‘lga ketayotganlarni kuzatishga chiqqan edi. Bundan tashqari, kecha qorovul xonadonlarning eshigini qoqib, ertalab hammaning idora oldiga to‘planishini aytgan edi.

Tog‘a oxirgi arava kelib to‘xtagach, ichkariga kirib ketdi. Bir ozdan keyin u kecha oblastdan kelgan muxbir yigit bilan chiqdi.

Ulardan keyin hali ham o'sha yangi kostyumi, yangi etigini kiyib yurgan Ummatali chiqib atrofdan kimnidir qidira boshladi. Qidirgan kishisini topdi, shekilli, qo'li bilan imlab chaqirdi. To'ti xola to'dadan chiqib oldiga keldi.

Ularning har bir harakatini Ikromjon qimirlamay kuzatib turardi.

Kimdir uni turtgandek bo'ldi. O'girilib qaragan edi, yonidagi bola idora tomonni ko'rsatdi.

– Sizni rais tog'am chaqiryaptilar.

Ikromjonning ikki ko'zi Ummatalida bo'lganidan rais chaqirayotganini ko'rmay qolgan edi. Tez-tez yurib uning oldiga bordi.

– Qalay, tayyormisizlar? Tayyor bo'lsang, hozir jo'naysizlar. Sen manavi yerda tur!

Tog'a qo'lini ko'tarib g'ala-g'ovurni bosdi. Hammaning ko'zi unda. Tog'a baland ovoz bilan gap boshladi.

– Hurmatli o'rtoqlar! Bugun biz shu soatdan boshlab oblastda birinchi bo'lib Nayman cho'liga yurish boshlaymiz. O'z-laringizga ma'lum, urush ketyapti. Yurtni to'ydirish, kiyintirish, urushdagi bolalarimizni toliqtirmay vaqtida oziq-ovqat bilan ta'minlab turish bizning zimmamizga tushgan. Shuning uchun g'alaba kunlarini tezroq yaqinlashtirish niyatida partiyamizning bekor yotgan cho'llarni o'zlashtirib, uni hosil berishga majbur qiling, degan chaqirig'iga, labbay, deb javob berdik. Mana bugun yo'lga chiqyapmiz. Birinchi hosilimizni frontga, azamat o'g'illarimizga ataymiz. Rozimisizlar?

Olomon guvillab uning gapini ma'qulladi. Tog'a qo'lini ko'targan edi, xaloyiq yana jim bo'lib qoldi.

– Pravleniyeda kelishib, kolxozimizning ilg'or kishilari nomidan Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan hamqishlog'imiz Azizxon Ummataliyevga xat yo'llashga qaror qildik. Ruxsat etsanglar, shu xatni o'qib bersak.

Tog'a qo'ltiqlab turgan qizil papkadan ikki-uch varaq qog'ozni ehtiyotlab olib sal oldinroqqa chiqdi. Avval xalqqa bir qarab olgandan keyin, shoshilmay o'qiy boshladi:

– “Aziz farzandimiz, jigargo'shamiz Azizxon! Sening sevikli Vatanimizni yovuz dushmandan himoya qilish uchun frontda ko'rsatgan qahramonligingni eshitib boshimiz ko'kka yetdi. Dillarimiz quvonchga to'ldi. Vatan uchun fidokorona jang qilayotgan azamatlar safida ekanligingdan faxrlanamiz. Hamisha mana shunday mard bo'! Biz hamqishloqlaring dushmanni Berlin-

gacha quvib borishingni, uni o'z uyasida yanchib tashlashingni istaymiz. Chekinma! Dushman galalariga sherdek tashlan! Uni yanch! Xonavayron bo'lgan oilalarning, yetim qolgan bolalarning qasosini ol! Onalarning ko'z yoshlari esingda tursin! Kul bo'lgan koshonalarning gulxanlari esingda tursin! Dorga osilgan, bo'g'ziga xanjar qadalgan jigarbandlarimiz esingda tursin! Shularning hammasi, hammasi uchun qasos ol, azamat lochinimiz!..” – Tog'a xatning shu yeriga kelganda yonidan ro'molchasini chiqazib, ko'z milklarini artib oldi.

Xalq sukut ichida uni tinglardi. Ikromjon esa boshini quyi egib odamlarga qarayolmay titrab turardi. Tog'a o'qishda davom etdi:

– “... Senga shu xatni yo'llayotgan paytimizda butun qishloq xalqi bir yerga to'plandik. Frontdagi bolalarimizni zoriqtirmaslik uchun yangi yer ochib, ekin maydonlarini kengaytirishga qasamyod qildik. Biz bu yerda mehnat frontini ochyapmiz. Cho'l bilan olishmoqchimiz. To'qay bilan olishmoqchimiz. Shu xat o'qilayotganda mehnat frontimizning gvardiyachilari jangga otlanib, shaylanib turishibdi. Senga butun qishloq ahli sihat-salomatlik, jangda g'alaba tilaydi!” – Tog'a xatni o'qib bo'lib yana dastro'molini oldi-da, peshana terlarini artdi. – Kimda-kim shu xatni ma'qullasa, kelib imzosini cheksin.

Birinchi bo'lib Ummatali, undan keyin To'ti xola imzo chekdi. Ana shundan keyin birin-ketin odamlar kelib imzo chekaverdilar. Ko'pchilik Ikromjonni zimdan kuzatib turardi.

Ikromjon kelib, ikkilanmay qalamni qo'liga oldi-yu, engashib qo'l qo'ydi. Shundan keyin u dadil yurib arava oldiga bordi, ajib bir chaqqonlik bilan egarga minib oldi.

Tog'a xatni papkasiga solgandan keyin aravalar taxtmi, degandek, atrofga alanglab oldi.

– Oq yo'l! Oq yo'l, sizlarga, yaxshilar!

Aravalar joyidan qo'zg'alishdi. Ikromjon otga bir-ikki achchiq qamchi bosib, oldinga o'tib ketdi. Jannat xola pildirab unga yetib olishga harakat qilardi.

Karvon odamlar to'dasidan chiqib, tosh yo'l bo'ylab keta boshladi. Nizomjon aravadagi yuklar ustida o'tirib orqada qolayotgan odamlarga qarab qo'l silkitardi. Zebixon to'rtinchi arava bilan yonma-yon kelardi. U egarda qiyshiq o'tirib olgan pochchasiga nimalardir deb gapirardi.

Tosh yo'lda g'ildirakning qaldirashidan uning nima deyayotganini Nizomjon eshitolmasdi.

Jannat xola to to‘ppayrag‘och tagigacha ergashib keldi-da, oxiri u ham qo‘lini silkitib orqada qolib ketdi.

Nizomjon uning qorasi ko‘rinmay ketguncha yuragi ezilib qarab borardi.

Ikromjonning qovog‘i soliq. Orqasiga qaramaydi. Ot yollarining silkinishiga qarab o‘y o‘ylab ketadi.

Uning nima uchun tajang bo‘layotganini Nizomjon biladi.

UCHINCHI BO'LIM

I

Nayman to'qaylari yonardi.

Qurib-qovjirab qolgan qamishlarni olov bir chekkadan yamlab boradi. Pag'a-pag'a qurumlarni shamol olis-olislarga quvib ketmoqda. To'ng'izlarning besaranjom xur-xuri, o'rdak va qash-qaldoqlarning g'aq-g'uqi olamni tutgan.

Ikromjon baland do'ng tepasida qo'ltiqtayog'iga tiralib o'tning to'qay ichkarisiga o'rmalashini kuzatmoqda.

Havo salqin. Izg'irin jonni achitadi, ammo shamol alanga taftini Ikromjon turgan do'nggacha olib kelmoqda. Goh qop-qora tutun bulutlari orasida ko'rinmay ketadi. Shunda u xuddi bulut o'ragan qoyaga o'xshab arang ko'zga tashlanib qoladi.

Aravadan chiqarilgan otlar tutun achchig'idan bezovta bo'lib, boshlarini o'qtin-o'qtin silkitib qo'yishadi.

Nizomjon bola bo'lib bunaqa katta yong'inni ko'rmagan edi. U buralib ko'tarilayotgan tutunlarga jimgina tikilmoqda. Tutun buralayotgan joydan ozib, junlari osilib qolgan bir bo'ri otilib chiqib qum tarafga qochdi. Ammo sal nariroqqa borib yana orqaga qaytdi. Tutun orasiga kirib ketdi. Nizomjon uning o'zini o'tga urishidan ajablanib turgan edi, miltiqni o'qlayotgan Ikromjon o'zicha gapirdi:

— Modasini chaqiryapti.

Ikromjonning gapi rost chiqdi. Sal o'tmay o'sha alanga orasidan boyagi bo'ri emchaklari osilgan modasini ergashtirib chiqdi. Ikromjon mo'ljalga olib o'q uzdi. O'q yegan bo'ri oqsoqlanib uch oyoqlab yugurganicha tepalik orqasiga o'tib ketdi.

Modasi esa yong'inda qolib yonboshi kuygan ekan, qumga yetmay yiqildi. Turolmay uch-to'rt metr sudralib bordi. Keyin qimirlamay qoldi.

Shamol kuchayib olovning tili yana ham uzunlashdi. U yashin tezligida qamishlarni yamlab borardi. Ammo cho'l shamolidek telba shamol bo'lmaydi. Hozirgina old tarafdin esayotgan shabada saldan keyin orqa tarafdin esadi. Bu gal ham shunday bo'ldi. Nizomjon, o'tning bu xil yonishi bo'lsa biron hafta ichi o'chmasa kerak, deb o'ylagan edi. Yo'q, shamol oldindan esa boshladi-da, o'tni orqaga purkadi. O'n besh minutlarda alanga so'ndi-qo'ydi.

Ikki qo'lini beliga tirab turgan To'lanboy:

— Ikromjon, qo'shtig'ni bolaga bering, — dedi. — Bo'rini quvsin. Oyog'i yaralangan, uzoq ketolmaydi.

Ikromjon miltiqni Nizomjonga uzatarkan, ta'kidladi:

— O'qni isrof qilma! Ehtiyot bo'!

Nizomjon miltiqni oldi-yu, qumlikka qarab chopdi. U to'xtab, oyoq ostida yotgan bo'rini miltiq qo'ndog'i bilan ag'dardi. Bo'ri sap-sariq ko'zlari baqraygancha o'lib qolgan edi. Nizomjon tepaga qarab chopdi. To'lanboy rost aytgan ekan, yaralangan bo'ri oldingi chap oyog'ini ko'targancha savag'ich uyumi oldida unga yomon tikilib turardi. Nizomjon umrida bo'riga duch kelmagan edi. Qo'rqib ketdi. To'xtadi-yu, qimirlamay qoldi. Bo'ri unga tomon uch oyoqlab kelaverdi. Nizomjon nima qilishini bilmasdi. Oz bo'lmasa miltiqni tashlab yuboray dedi. Shundagina u qo'lida miltiq borligini bilib qoldi. Shoshib mo'ljalga oldi-da, ketma-ket ikkala tepkini bosdi. O'q tovushi tinganda savagichning qurigan qiyohlari to'zib ketganini ko'rdi. Tutun tarqadi. Qonga belangan bo'ri qumda bezovta dumalab, oxiri bir-ikki marta oyoq siltadi-da, jim bo'ldi.

Nizomjon bo'rining o'lgan-o'lmaganini bilolmay bir oz qarab turdi. Bo'ri boshqa qimirlamadi. Shundan keyingina yaqiniga borib tepib ko'rdi.

Nizomjon ikkala bo'rini oyog'idan sudrab kelganda qator palatkalar oldida uch-to'rt kishi bordon to'qib o'tirardi. Nizomjon bo'rilarni ular oldiga tashlab ketmonini oldi-da, o'choq kovlashga tushib ketdi. Ikromjon ham, To'lanboy ham Nizomjonga bir so'z deyishmadi. Faqat bir-birlariga ma'noli qarab olishdi.

Kimsasiz cho'l bir kundayoq gavjum bo'lib qolgan edi. Qo'shaloq tol tagida ikki kishi yerga qoziq qoqib so'ri yasamoqda. Oq tunukadan yasalgan bakni yero'choqqa o'rnatib, atrofiga loy chaplashmoqda. Bir chol bochkadan rezinka ichak bilan kerosin so'rib, toshfonarlarga quymoqda.

Nizomjon o'zining qobilligi bilan bu yerdagilarga darrov ma'qul bo'la qoldi. Undan hech kim qayerdan kelganini, bu yerda nima qilib yurganini surishtirmadi. Ehtimol, Ikromjonning qarindoshi deb o'ylashgan bo'lsa kerak. Har qalay, Nizomjon ularga tez el bo'lib ketdi.

Butun kun qamish kuydirish, o'choq qurish bilan o'tdi. Kech kirib, qorong'ilik boshlanganda hamma jam bo'lib, katta chodir ichida, toshfonar yorug'ida choyxo'rlik qilib, u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirardi.

Choy ichib o'tirgan odamlarning dilida qandaydir og'ir o'y-lar bor edi. Ammo hech kim og'iz ochib urushdan gapirmasdi. Ularning nima uchun shunday qilayotganlarini Nizomjon sezib o'tirardi. Agar urushdan, urushga ketgan bolalardan gap ochilsa, Ikromjonning dili og'rishini o'ylab, gapni boshqa yoqqa chalg'i-tishyapti.

To'lanboy amaki hammadan ko'p gapirardi:

— Bola malades, bo'rini qoyil qildi. Ayniqsa, modasi tirik qolsa sal kunda hamma yoqni bo'ri bostirvorardi. Qo'yaver, bola, Tog'adan mukofot olib beraman.

Nizomjon indamadi.

— Ertaga Zirillamadan arava kelmasa, ishimiz to'xtab qoladi, — dedi To'lanboy ancha jim o'tirgandan keyin. — Tog'a to'rtta temir plug yubormoqchi edi.

— Traktor-chi? — dedi Nizomjon gapga aralashib.

To'lanboy uni ermak qildi.

— Voy bolasi tushmagur, bu botqoqda pardek yengil odam yurolmaydi-yu, og'irligi necha tonna keladigan traktorga yo'l bo'lsin! Botib qoladi, jiyani, botib qoladi. — U Ikromjonga o'g'rildi. — Aravalar bugun yetib borishsa, ertaga qaytib kelishlari mumkin. Kech ketishdi. Ishqilib, biron joyda botib qolishgan bo'lmasin.

— Yo'g'-e, — deb unga e'tiroz bildirdi Ikromjon, — kelgan yo'limizdan ketishsa bermalol yetib olishadi. Ko'rding-ku, yo'l yomon emasdi. Endigi gap bizda qoldi. Mayning yettilariga borib urug' sochish kerak. O'shangacha mana shu kuygan to'qayda shudgor ochib taxt qilib qo'yishimiz kerak. Qilolamizmi, shuni?

Uning gaplariga jim quloq solib o'tirgan To'lanboy javob berdi:

— Urinib ko'ramiz, oqsoqol. Agar traktor kelolsa-ku, ko'p ishlarni eplashtirardik-a, iloji yo'q-da. Tog'a va'dasida turib,

kanaldan ariq tortib kelishga odam yubormasa ishimiz chatoq bo'ladi. Sizot suviga ishonib bo'lmaydi.

— Tog'a qattiq va'da qilgan, — dedi Ikromjon. — Suv haydab kelishdan tashvish qilma. U yog'ini rais eplashtiradi. Undan tashqari, yer qotishi bilan bitta traktorni ham bizga yuboradi. Chigitdan qutulishi bilan yuboradi. Yana yer ochamiz. Qovun ektirmoqchi Tog'a.

Shu gapdan keyin hamma xotirjam bo'lib, ertangi ishning maslahati boshlandi. Kim qayerdan ish boshlaydi, kim qurilishda bo'ladi — hammasiga reja tuzildi. Katta qurilishlar keyin bo'ladi. Hozir oshxona, yoniga bitta chog'roq tandir quriladi. Ikromjon kanaldan suv tashib kelishni Nizomjonga yuklayotgan edi, u rozi bo'lmadi.

— Yo'q dema, bola. Bitta eshak beraman, fermadan sut tashiydigan ikkita bidon ola kelganmiz. Qo'sh bidonlab tashiyverasan.

Nizomjon unga yolvorgandek qaradi:

— Meni eng og'ir ishga qo'ying, iltimos qilaman. El qatori ishlab ter to'kay. Meni kichkina, nimjon demang. O'zlaring qatori ko'raveringlar. Dalada o'sganman. Ketmonda suyagim qotgan. Bir ishlay.

Ikromjon bilan To'lanboy bir-birlariga qarab olishdi.

— Hech qanaqa shartim yo'q. Ishlab u-bu orttirish niyatim ham yo'q, menga hech narsa kerakmas. Boshpana bo'lsa, qornim to'q, ustim but bo'lsa bas. Nimaiki ishlab topsam kolxozga. Mehnat haqi ham kerakmas!

Nizomjon ko'p gapirmoqchi edi, o'pkasi to'lib, gapi tomog'idan chiqmay, hiqillab qoldi. U entikib gapini tamom qildi.

— Chap qo'ling cho'ltoq ekan, deb urushga olishmadi. Uyimga sig'madim. Erta-indin og'aynilarim urushdan qaytib kelishadi. Shularning ko'ziga qandoq qarayman. Nima qilding, qaysi kovakda mog'or bosib yotgan eding, deyishsa nima deymen? Eshakda suv tashib, tirikchilik qilib yurdim, deymanmi? Yo'q, to'qay buzdim, bola-chaqalaringga ovqat topib berdim, ularni boqdim, deydigan ish qilmoqchiman. Jon akalar, meni ayamadan ishga tashlayveringlar.

U shunday yalinib gapirardiki, ra'yini qaytarishning sira iloji qolmagan edi.

— Xo'p, — dedi Ikromjon. — Aytganing bo'la qolsin.

Oldi odamlarni uyqu bosib, kaftlariga esnay boshlagan edilar. Qariyalar dasturxonga fotiha o'qishgach, hamma o'rnidan turdi.

Nizomjon bilan Ikromjon palatkadan chiqishganda qumlik tomondan allaqanday iliq shamol esayotgan edi. Ikromjon olchalpoq bulutlar orasiga dam kirib, dam chiqib suzayotgan oyga ichki bir iztirob bilan tikilib turdi-da, uh tortib palatkasiga qarab ketdi. Nizomjon indamay ergashdi. Palatkaga kirgan Ikromjon fonar yoqdi-da, boya Nizomjon to'shagan qamishlar ustiga ko'rasini yozdi.

– Joyingni sol, bolam, yotaylik endi.

Negadir uning ovozi titrardi.

– Amaki, yotavering, uyqum kelmayapti. Bir oz oydinda yuraman.

– Ha, mayli, o'zing bilasan. Ertaga ish zo'r bo'ladi, yota qolganing ma'qul edi.

U shunday deb, yog'och oyog'ining tasmalarini bo'shatib ko'rpaga kirarkan, yana og'ir uh tortdi. Nizomjon uning ahvol-ruhiyasini sezib turganidan fonar piligini pasaytirib, tashqariga chiqib keta qoldi.

Ikromjonning yuragi kuyardi. Ota o'z bolasini ming marta oq qilganda ham yuragining bir chekkasida shu bolaga atab ardoqlagan, uning kamolini ko'rishga asragan mehrining zarralari yotadi. Bu zarralar vaqti-vaqti bilan alanga olib, yana so'nadi. Hozir Ikromjon yigirma bir yil qalbidan nari ketkizmagan, har bir daqiqasi katta umidlar va'da qilgan niyatlari bilan keyingi bir hafta orasida bolasini olislarga olib ketgan, porloq niyatlarini kuydirib jizg'anak qilgan hodisalar orasida o'rtanardi.

Ikromjonni bir narsa ko'proq qiynardi.

Nega shunday bo'ldi? Nega uning bolasi qo'rqqoq chiqdi?

U o'ylab-o'ylab, o'yiga yetolmasdi.

Yemay yedirdi, kiymay kiydirdi...

Ikromjonning birdan ko'zlarini ochilib ketdi.

Ha, ha, hamma gap ana shunda. Qo'lini sovuq suvga urdirmadi. Og'ir ish qildirmadi. Yig'laganda qo'shilishib yig'ladi. Kalishini ham yuvib qo'yardi. Kasal paytida ham uni toyloqdek qilib opichib yurardi. Betini yuvganda o'zi suv quyib turardi...

Ikromjon peshanasiga shatillatib bir tushirdi.

– Jazangni tort, jazangni tort, Ikrom. Uni o'zing shu ko'yg'a solding. Endi ming yig'la, befoyda. Senga bu jazo kam!

Ikromjon o'g'lining shu ko'yg'a tushishini sira o'zidan ko'r-magan edi. Endi bunga iqror bo'ldi. Iqror bo'ldi-yu, alamiga chidolmay ingrab yubordi.

Shunday iztiroblar girdobida qolgan kishini hech narsa bilan yupatib bo'lmaydi. Bunday paytlarda uni o'zidan boshqa ovuta olmaydi. Ikromjon shuning uchun ham o'zini o'tga-cho'qqa urib, o'tli xayollar yolqinidan chiqishga intilardi.

Mana, Nizomjon, kuyib kulga aylangan to'qayda tanho kezib, umidlar sarobga yetaklagan shu kishi to'g'risida o'ylamoqda. Huvillab qolgan cho'l go'yo Ikromjonning qalbiga cho'kkandek. Bo'sh, uning xayollaridek, uning istaklaridek bo'sh cho'l oydinga o'liksimon sokin yotibdi.

Shu huvillab yotgan sokin cho'lni uyg'otish uchun bilak shimargan kishilar zora Ikromjonning ham yuragiga qo'l solib unda yangi umidlar uyg'ota olishsa, zora Ikromjon cho'l bilan baravar yashnab ketsa. Nizomjon uning qo'ltig'iga tirak bo'ladi. Yuragidan iztirobli o'ylarni quvib chiqaradi. Atrofga umid bilan, odamlarga ochiq yuz bilan qaraydigan bo'lguncha yonidan jilmaydi.

Yulduzlar miltirab turgan cho'l kechasida Nizomjon diliga ana shunday beg'ubor niyatni tugib qo'ydi.

Olidan deraza pardasini shamol silkitgandek g'alati ovoz keldi. Nizomjon quloq tutdi. Bu ovoz bora-bora bukungi ketmagan atlas ko'ylak etagining yelpinishiga o'xshab eshitilaveradi. Nizomjon ufqqa qaradi. Olidan bir gala o'rdak uchib kelayotgan edi. O'rdaklar galasi palatkalar tepasiga kelib, g'aqillab aylana boshladi.

Nizomjon ularning tinimsiz aylanishi sababiga tushunolmadi. O'rdaklar o'tgan yili tashlab ketgan inlarini olis yurtlardan izlab kelishgan edi. Ular tark etgan to'qayning bir cheti endi yo'q edi. O'rdaklar karvoni pastlab uchib qorayib yotgan yer ustida yana bir aylandi-yu, g'aqillab qumlik chetida sokin shovullagan qamishlar ustiga sho'ng'ib ketdi.

Nizomjon qaytib kelganda Ikromjon qo'lini boshiga qo'yib palatka tepasidagi tuynukdan tushib turgan nurga tikilganча kiprik qoqmay yotardi. Nizomjon fonar piligini balandlatganda uning ajinli yuzlaridan ko'z yoshlari dumalayotganini ko'rib darrov pilikni pastlatdi. Fonar ikki-uch marta lipillab o'chdi.

U yechinib ko'rpaga kirgach, Ikromjonga nimadir demoqchi bo'lib boshini ko'tardi. Ko'tardi-yu, nima deyishini bilmay tirsagiga tiralganicha ancha turib qoldi. Nizomjon biron gap aytib unga juda-juda taskin bergisi kelardi. Ammo nima deydi? Qanday gap aytsa, Ikromjon amakining ko'ngli taskin toparkin? Nizomjon shuncha o'ylab arzigulik gap topolmadi, nihoyat:

— Meni o'g'lim deysizmi? — dedi.

Ikromjon indamadi.

Sal o'tmay qorong'ida Nizomjonning ham piq-piq yig'lagani eshitildi.

II

Oblast ijroiya komitetining majlislar zalida cho'ldan yer olgan kolxoz rahbarlari ishtirokida kengash bo'layotgan edi. Respublika Oliy Sovetining raisi Yo'ldosh Oxunboboyev Yozyovon cho'llarining istiqboli to'g'risida gapirmoqda. U yaqin yigirma besh yil ichida cho'l butunlay o'zlashtirilib, O'rta Osiyoning yirik paxta bazasiga aylanishi, hozir kolxozlar ayrim uchastka tartibida qo'riq ochayotgan yerlar vaqti kelib alohida kolxoz, sovxoz bo'lib ajralib chiqishi, urush tugashi bilan Katta Farg'ona kanali kengaytirilib butun cho'l bo'ylab aylanib o'tishini sodda, dehqonchasiga tushuntirardi.

— Yolg'iz kanal suvi bilan cheklanib qolmaymiz. Mingdan ortiq artezian quduqlari qaziymiz. Har bir quduqdan ikki tegirmon suv otilib chiqadi. Har bir zvenoning o'z artezian qudug'i bo'ladi. Hozir geologlarimiz cho'lda razvedka ishlari olib borishyapti. Yozyovon Farg'ona vodiysining markaziga aylanishi kerak. Shu kunlarda Namangan, Qo'qon, Shahrixon, Chimyon, Toshloq tarafdin cho'lga hujum boshlandi. Bir umr qaqrab yotgan cho'ldan olgan birinchi hosilni frontchi bolalarimizga sovg'a qilamiz... Ittifoqdoshlarimizning imillashlarini kutib o'tirmay ikkinchi frontni Yozyovondan ochamiz. Endigi gap o'zlaringda qoldi. Bir yoqadan bosh chiqaringlar. Front taraflardan yaxshi xabarlar kelib turibdi. Nemisning kavushiga qurt tushib, chiqib kelgan tarafga qarab tiraqaylab qochyapti. G'alaba kunini Yozyovon guruchidan osh damlab kutib olamiz. Kimdakim, fashistga shu yerdan turib o'q uzaman desa, kimdakim dushman qo'lida qolgan shaharlarimizni ozod qilaman desa, Yozyovonga chiqsin!

Oxunboboyev shunday gapirardiki, u minbarda emas, bir piyola choy ustida gaplashib o'tirganga o'xshardi. U o'zidan kattalarni sizlab, o'zi tengilarni senlab, kichiklarni bolam-bo'tamlab gapirardi. U gapining oxirida zalda o'tirganlarga birma-bir qarab oldi. Go'yo shu o'tirganlar orasidan kimnidir qidirayotganga o'xshardi.

— Kanal qaziganimizda hammani qoyil qoldirgan Do'smat polvon qani?

Pastda kimdir javob berdi:

– Frontda halok bo‘ldi!

Oxunboboyev ovoz chiqqan joyga tikilib qoldi. Qo‘lidagi qalami qog‘oz ustiga tushib dumalab ketdi-da, stol qirg‘og‘iga kelib to‘xtadi.

– Omon polvon shu yerdami? – dedi u yana boshini ko‘tarib.

O‘rta qatorda o‘tirgan qora soqol, yag‘rindor kishi o‘rnidan turdi:

– Shu yerdaman, Ota.

– Omonmisan, polvon. Majlisga soqolingni oldirib kelmasan-da. Senga necha marta aytganman, soqolni oldirib yur, deb.

Zalda qiyqiriq, kulgi bo‘lib ketdi. Omon polvon qo‘pol gavasini tebratib turib o‘zi ham kulib yubordi.

– Ota, endi shu paytda tanbehni qo‘ying. Po‘rimlik ko‘ngilga sig‘adimi.

– Urushdan oldin ham shunaqa eding. – Oxunboboyev g‘ovurni bosib o‘rnidan turdi-da, sahna chetiga kelib kula-kula gap boshladi: – Polvon bilan yoshimiz teng. Bolaligida ham shunaqa beparvoroq edi...

Polvon ham o‘rnidan turib sahna yaqiniga kelib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi-da, yalindi:

– Jon birodar, bu yog‘ini aytmay qo‘ya qol.

– Yo‘q, aytaman. Shu deng, Omonni uylantirayotgan edik. To‘y kuni ham soqolni oldirmagan ekan. Rayim ikkovimiz chilmidiq oldiga o‘tqazib, rosa ivitib soqolini olganmiz. Kelinning oldiga ikki lunjiga sho‘r paxta yopishtirib kirgan. To‘g‘rimi, Rayimberdi?

Sahna chetida o‘tirgan Tog‘a kulib bosh qimirlatdi.

– To‘pponcha polvon bormi?

– Bor, – deb pakanagina, serharakat, ko‘k ko‘z yigit o‘rnidan turdi.

– Bu yoqqa kel! – dedi Oxunboboyev.

To‘pponcha polvon pildirab Omon polvonning oldiga keldi.

Oxunboboyev unga bir zum zavq bilan, havas bilan tikilib turgandan keyin pastga tushib, har ikki polvonni oldinma-кетин quchoqladi.

– Yozyovonga ikkovning komandirlik qilasan. Ikkovning cho‘l marshallari bo‘lasan. Qani, rozimisizlar?

– Rozimiz, Ota. Sen buyur, biz nima desang tayyormiz.

Omon polvonning gapidan Oxunboboyev zavqlanib ketdi.

– Balli, azamatlar! Cho‘l jilovini qo‘llaringga berdik.

Ko'm-ko'k ko'zlarini o'ynatib turgan To'pponcha polvon miyig'ida kulib qo'ydi:

— Bir gap aytsam maylimi? Xafa bo'lmaysizmi, Ota?

— Ayt, ayt, To'pponcha.

— Tavba, sira kattalarga o'xshamaysiz-a. Shundoq odam o'zimizga o'xshab jo'ngina gaplashasiz-a. Raispolkomimiz bilan gaplashish uchun eng kamida bir hafta ovora bo'lamiz. Arizani pochtadan yuboramiz.

Oxunboboyevning chehrasi jiddiylashdi:

— Shunaqa degin?

U yana sahnaga chiqib joyiga o'tirdi. Rayimberdi zirillama-liklarning cho'lga birinchi bo'lib yurish boshlaganlarini gapirdi. Ota jimgina o'tirib, uning gaplariga quloq soldi. Rayimberdi gapini tugatib endi o'tirayotgan edi, Oxunboboyev to'xtatdi.

— To kunlar isib, yog'ingarchiliklar o'tib ketguncha xotinlar chiqmasin deyilgan edi. Nega xotinlarni cho'lga olib chiqding?

Tog'a nima deyishini bilmay turib qoldi.

— Qandoq qilay, Ota? O'zlari kelishyapti. O'tiraveraymi?

— Shoshma! — dedi Oxunboboyev. — Ish shunaqasiga ko'chgan bo'lsa, bu yog'ini to'g'rila. Imoratlarni tezlat. Bir oydan keyin xabar olaman. Agar eng kamida yigirmata uy bitmagan bo'lsa, xafa bo'lib qolasan.

Oblast partiya komitetining sekretari cho'ldan yer olgan kolxozlarga, kolxozchilarga beriladigan yordam haqida gapirgach, kengash tugadi.

Oxunboboyev zaldan chiqishda Tog'ani qo'ltiq lab oldi. Ko'chada keta turib undan hol-ahvol, qishloqdagi qariyalarning tirikchiligini so'radi. Tog'a hammasini bitta-bitta gapirib berdi.

— Hammasi joyida, oshnam. Xotirjam bo'l.

— Ikrom kepti, deb eshitdim. Qalay, tinchmi?

— Tinch, tinch.

Tog'a shunday dedi-yu, ko'zini yashirolmay javdiradi.

— Bir gap bormi?

— Yo'q, o'zim...

— Aytaver. Yashirma!

Tog'a noiloj gap boshladi:

— Ikrom bir oyoqsiz bo'lib kelgan. Bu ham yetmagandek, o'g'li...

— Nima? Halok bo'lganmi?

— Halok bo'lsa koshki edi. Armiyadan qochgan. Ikrom boshini ko'tarolmay qoldi. Odamlarning yuziga qarayolmayapti. Naymanga chiqarib yubordim. Zora dardi yengillasha.

Oxunboboyev nima deyishini bilmay to'xtab qoldi.

Uni kuzatib chiqqanlar sal narida uning iztirob bilan uh tortganini ko'rib turishardi.

— Yomon bo'пти, — dedi u anchadan keyin. — Jannatning ahvoli qanday?

— Telbaga o'xshab qolgan.

— Bolasi frontdan qochibdimi-ya?

— Nazarimda, frontdan emas, yo'lda poyezddan tushib qolgan bo'lsa kerak.

Tog'a qiynala-qiynala so'radi:

— O'z bolam bo'lsa oraga tushmasdim. Bolam tuproqda yotibdi. Shu Ikrom uchun, urushda oyog'ini yo'qotib kelgan bolshevik o'rtog'im hurmati oraga tushmoqchiman. Afv qilib bo'lmaydimi? Dadasi o'z qo'li bilan olib borib topshirsa. Oraga tushing. Urushga borib, qoni bilan oqlasin. Oraga tushing!

Oxunboboyev yana jim qoldi.

— Qiyin, qiyin, do'stim. Xalq bor. Xalq biladi. Uni xalq sud qiladi. Ammo... — Oxunboboyev yana o'ylanib qoldi. — Ikrom adoyi tomom bo'ladi. Butun borlig'ini, umrini Sovet hukumati-ga bag'ishlagan kishi shu bola tufayli yerparchin bo'ladi. Mayli, kelsin! Ikrom kelsin! Bir maslahat chiqib qolar. E, attang...

Tog'a u bilan xayrlashib, otda Zirillamaga qarab ketdi. Shu kuniyoq Naymanga bormoqchi, Ikromni topib u bilan o'g'li to'g'risida gaplashmoqchi bo'ldi.

U yo'l-yo'lakay o'ylab borardi. Bu gaplarni Otaga aytib to'g'ri qildimi? Yurt ishi bilan band, usiz ham boshida qanchadan qancha tashvishi bor odamga bu gapni aytgani durust chiqdimikan? Eh, yaramas bola, hammani xijolat qilding. O'z bolasi bo'lganida iltimos qilib o'tirarmidi? Bahridan o'tardi-qo'yardi. Na qilsinki, bir beg'ubor, toza yurak do'stining arzandasi. Shuncha yoshga kirib birinchi marta yomonning yonini olyapti! Tog'ani ham qiynab tashlading, yaramas bola.

Shu kuniyoq Tog'a havoning aynib qolganiga qaramay Naymanga qarab ketdi. Kech qorong'isida horib-charchab tol tagiga yetib borib, Ikromjonni to'qaydan chaqirtirib keldi.

Ikromjon avvaliga Tog'a biron ish bilan chaqirtirgandir-da, deb o'ylagan edi. Ikkovi chodir ichiga kirgandan keyin uning jiddiy gapi borligini bilib qoldi.

— Tinchlikmi, Tog'a? — dedi bezovtalanib.

— Tinchlik, tinchlik, oshnam. Seni bir quvontiray, deb keldim. Shu bugun Yo'ldosh ota bilan gaplashdim. Tursunboyingni

afv etishni o'ylab ko'radi chog'i. Ertalab Farg'onaga borasan. Tayinladilar.

Ikromjonning boshi egildi. Yog'och oyog'ining tasmasini chertib indamay qoldi.

– Ha, nega indamaysan?

– Bormayman, do'stim. Bormayman. Nima deb boraman? Qay yuz bilan boraman? Yo'q. Meni kechir. Men uchun yuzingni sidirib, ming xijolat bilan iltimos qilganing uchun rahmat. Rahmat, do'stim. Ammo borolmayman. Do'stim bo'lsang, ikkinchi bu to'g'rida menga og'iz ochma. Mening unaqa bolam yo'q.

– Katta ketma, og'ayni. Harna qilsa ham bolang. Mayli, frontga borsin, o'zini oqlasin. Sening ham yuzing yorug' bo'ladi.

Ikromjon qat'iy bosh chayqadi:

– Frontga mard boradi!..

Tog'a Ikromjonning umrida hech kimga hech qanday iltimos qilmaganligini, sha'niga dog' tushiradigan ishga qo'l urmasligini bilardi. Shunday bo'lsa ham, uni shu og'ir iztiroblardan qutqarish uchun ataylab kelgan edi. Yo'q. Bo'lmadi. Bir so'zli Ikromjon uning maslahatlarini rad qildi.

– Yana o'zing bilasan. O'ylab ko'r. Tanangga yaxshilab o'ylab ko'r. Bordi-yu, gaplarim ma'qul bo'lsa, Yo'ldosh ota Toshkentga ketib qolmaslaridan Farg'onaga yetib bor.

Tol tagida chiroq yonib, so'rida odamlar gavjumlashib qolgan edi. Ular ikkovlashib o'sha tarafga qarab ketishdi.

Ikromjon hech kimga aralashmay, bir chekkada bosh egib o'tirardi.

Ertalab Tog'a Zirillamaga qaytayotganda Ikromjonning og'zini ko'p poyladi. U bir so'z demay nonushtadan keyin Tog'a bilan xayrlashib to'qayga kirib ketdi.

Ikromjonning so'zidan qaytmaganiga ishongan Tog'a noiloj otni egarladi-da, qishloqqa yolg'iz jo'nadi.

Tushga yaqin qishloqdan to'qqizta arava keldi. Tog'a beshta plug, tandir, oshqovoq, lavlagi yuboribdi. To'lanboyning xotini Zebixon bilan birgalikda ko'ch-ko'ronni aravaga ortib keldi.

Nizomjon kuygan to'qayda terlab-pishib ketmon chopayotgan edi. Palatka tomondan odamlarning g'ovur-g'uvurini eshitib qaddini rostlab qaragan edi, To'lanboyning aravadan ko'ch tushirayotganini ko'rdi. Arava ustida o'tgan kuni yo'lda qo'lini silkitib qolgan qiz turardi. Nizomjon ketmon dastasiga ko'ksini tirab unga qarab qoldi. Zebixon pochchasi yukni tashlab qaytgun-

cha, qo'lini peshanasiga soyabon qilib, olislarga tikilardi. Cho'li shabadasi sochlarini to'zg'itaverganidan qiz zarda bilan orqasiga otib tashlardi. Qizga angrayib qarab qolgan Nizomjon yo'tal tovushini eshitib orqasiga o'girildi. Sarpoychan oyog'iga eski kalish kiyib, ko'ylagini lippa urib olgan qirq besh yoshlardagi bir xotin chelakda suv olib kelayotibdi. Nizomjon qizga tikilib turganimni ko'rgan bo'lsa kerak, degan andisha bilan yerga qaradi-da, salom berdi. Xotin alik oldimi, yo'qmi, Nizomjon eshitmadi. Ketmonini qo'liga olib qora ildizlarni palaxsa qilib ko'chiraverdi.

Qor suviga to'ygan yer xamirdek yumshoq edi. Ammo Nizomjonning qo'li ketmondan chiqib ketganidan salga charchab qolardi. U peshana terini dam-badam sidirib to'xtamay ketmon urardi. U yarim soat chamasi tinimsiz ishlab, juda holdan toydi. Qaddini rostlab orqasiga qaramoqchi bo'lganida beli qotib o'zini o'nglayolmadi, ketmonga osilgandek arang yerga o'tirdi.

Palatka tomonda jom chalinganda ham u o'rnidan turolmay o'tirardi. Odamlar birin-ketin ovqatga kela boshlashdi. Choponini yelkasiga tashlab olgan Ikromjon kelganda o'rnidan turmoqchi edi, bo'lmadi. Belida bir nima tortishib qolgandek basharasi tirishib yana o'tirdi.

– Nima bo'ldi? Charchadingmi?

Ikromjon shunday dedi-yu, orqasiga qaradi. Ag'darilgan yerdan hovur ko'tarilardi.

– Bir o'zing ag'dardingmi?

Nizomjon bosh silkitdi.

– Obbo, azamat-ey! To'rt yarim sotix kelib qoladi. Bunaqa qilma, o'g'lim. Bunaqada o'zingni chaqib qo'yasan. Har qanaqa dehqon ham qishdan chiqib qo'liga ketmon olganida ishga bunchalik zo'r bermaydi. Ketmon yomon narsa, chaqib qo'yadi. Bir-ikki kun belni, qo'lni ishga o'rgatib olib, keyin zo'r beriladi. Qani tur, o'g'lim, tushlik qilib kelamiz.

Nizomjon ketmon dastasiga osilib arang o'rnidan turdi-da, belining zirqirashini Ikromjonga sezdirmay, sekin-asta yura boshladi.

Hamma ovqatga kelib bo'lgan edi. Randalanmagan taxtadan yasalgan omonat uzun stol atrofida kishilar chaqchaqlashib o'tirishibdi. Ular ikkovi ham bir chekkaga kelib suqilishdi.

Nizomjon uydan chiqqanidan beri birovning ovqatiga sherik bo'lib yegan-ichgani tatimay kelardi. Bugun u o'z haqini, mehnat haqini kutib o'tiribdi. Bugun u bemalol, xijolatsiz ovqatlansa bo'ladi. Oshpaz sopol kosada ichiga mushtumdek lavlagi solin-

gan sho'ruva keltirib qo'ydi. U qozon tepasiga qaytarkan, baland ovoz bilan shang'illadi:

– Bolalar, shoshilmasdan tushiraveringlar. Bugun pervoy-iptaravoy. Yangam qo'sh oshiga palov damlab keptilar.

Nizomjon kosaga qoshiq solarkan, oshpaz oldida dasturxon-ga o'ralgan tog'orani ochayotgan Zebiga bir qarab qo'ydi. Zebixon unga qaramasdi. O'z ishi bilan band edi.

Ovqat ustida bugungi ish to'g'risida gap ketdi. To'lanboy odati bo'yicha maqol qo'shib gap boshladi:

– Sholi dehqonga aytgan ekan: to'qson kun loy kechasan, keyin moy ichasan. Bugun ish boshlandi. Loy kechib boshladik. "Po'sht, moy bo'lasan"ga sakson to'qqiz kun bor, hali. Men bugun uch yarim sotixni urib qo'ydim.

– Tushgacha uch yarimni yasab qo'ygan bo'lsang, kechgacha yerni timalab tashlamasang, deyman, – dedi Ikromjon.

– Yo'q, bu yog'i unchalik bo'lmasov. Bel qotib qoldi. Bu yog'i sekin-asta. Belni aldab-aldab ishga solmasak bo'lmas. Qishda sandalda yotaverib dangasa bo'lib ketgan ekanmiz, og'ayni.

Ikromjon unga piching qildi:

– Shu soqi-sumbat bilan uch yarimta deb maqtanib o'tiribsanmi! Manavi bola to'rt yarim sotixni bajarib qo'ydi.

Hamma o'girilib Nizomjonga qaradi. Uning bu tomonlarda birinchi marta ish bilan odamlar e'tiboriga tushishi edi. Ko'ngli yayrab ketdi. Sekin Zebixonga qaradi. Zebixon hamon unga qaramas, mushtini iyagiga tirab o'ng qo'lidagi qamishni yerga urib o'tirardi. To'lanboy o'zini oqlay boshladi:

– Biz qarib qoldik, oshnam. Navbat endi kadr bolalarga. Bularga tenglashib bo'larmidi!..

Ikromjon so'radi:

– Yangam qishloqdan nima gap topib kelibdi? Yaxshi xabarlar bormi?

– Yangi maktab binosini shoshilinch gospital qilishayotganmish. Ertaga yaradorlarni olib kelishadi, degan gaplar bor, deyapti. Evakuatsiya bo'lganlardan sakkiz xonadon kelibdi. Tog'a shularga joy topib berish bilan ovoramish.

Ikromjonning miyasidan, shulardan birini uyga ko'chirib kela qolsammikan, degan o'y o'tdi. Jannat xotirjam bu yoqqa kelaverardi.

– Joy topganmikin? – dedi u To'lanboyga qarab.

U, bilmasam, degandek yelkasini qisdi. Tushlikdan keyin hamma o'z ishiga ketdi. Ikromjon Nizomjonning qo'lidan ushlab to'xtatdi.

– Endi bas, ichkariga kirib bir oz orom ol. Bugungi ishing yetadi. Qolganini ertaga qilasan.

Nizomjon yotsa yotgudek edi. Hammayog‘i hali ham zirqirab og‘rib turibdi. Uning ustiga ishlayotganida to‘nini yechib tashlaganidan terlab dam olganida biqinini shabada olib qo‘yibdi. Biroq u ko‘pchilikdan ajralib qolishga yuzi chidamadi. O‘zini charchamagan ko‘rsatib:

– Yo‘g‘-e, hali-veri charchamayman, amaki, – dedi.

Ikromjon unga qarab turib:

– Mayli, o‘zing bilasan, – dedi-da, oldiga tushib ketaverdi.

Bu yog‘iga Nizomjonning ishi uncha yurishmadi. Kechgacha arang bir yarim sotix yer ag‘dardi. Borib yotay desa, odamlardan uyaladi. Ketmonni tashladi-da, qamish g‘aramiga yonboshladi. Ozroq mizg‘ib olmoqchi bo‘ldi-yu, tanasining zirqirab og‘rishidan ko‘zi ilinmadi. Chalqancha yotib osmonga tikilganicha o‘y surib ketdi.

Osmon ko‘m-ko‘k. Onda-sonda salmoqlanib suzib yurgan oppoq bulutlar chetiga og‘ib qolgan quyosh nuri tushib turibdi. Uzoq-yaqindan odamlarning ovozi quloqqa chalinib qoladi. Birdan shabada unga g‘alati bir ovoz olib keldi. Qayerdadir ayol kishi kuylardi. Uning qo‘shig‘i dam eshitilib, dam yo‘q bo‘lib ketadi. Nizomjon boshini ko‘tarib u yoq-bu yoqqa qaradi. Hech kim yo‘q. Bu atrofda Zebixon bilan uning opasidan boshqa ayol yo‘q. Albatta, Zebixon qo‘shiq aytayotgan bo‘lsa kerak. Ovozi biram shirali ekanki.

Nizomjon o‘rnidan turdi-da, ketmonni yelkasiga tashlab bir dam atrofga quloq solib turdi. Qo‘shiq to‘qay tomondan eshitilardi. U beixtiyor o‘sha tomonga qarab yura boshladi. Kuygan yerlar tugab, g‘uj-g‘uj bo‘lib o‘sgan savag‘ichzor boshlandi. Nizomjon savag‘ichning bunaqa o‘shisini bilmasdi. U ham vaqtida varrak uchirib yurgan kezlarida o‘zidan katta bolalar qamish o‘rniga savag‘ich ishlatishardi. Demak, ular savag‘ichni shu tarafdardan olib ketishar ekan-da.

U engashib ikkita savag‘ichni pichog‘i bilan kesib oldi. Shu payt birdan qo‘shiq tindi. Nimadir shitirladi.

Zebixon o‘ralashib qolgan etaklarini tuzatib savag‘ich orqasida o‘rnidan turayotgan edi.

Ikkovlari bir-birlariga so‘zsiz qarab qolishdi. Qizning ko‘zlarida allaqanday g‘am, so‘lg‘inlik bor edi. U Nizomjondan ko‘zlarini olib nari keta boshladi. Nizomjon nima qilishini bilmay turib qoldi. Oxiri duduqlanib gap boshladi:

– Ashulani juda yaxshi aytar ekansiz. Bugun keldingizmi?
Qiz bosh qimirlatdi. Nizomjon gapning bu yog‘ini qanday davom ettirishni bilmay tutildi.

– Bu yerda mening bitta ham tanishim yo‘q.
Qiz to‘xtab unga boshdan-oyoq qarab chiqdi.

– Nega?

– Keyin aytib beraman.

– Iya, – dedi Zebixon, – siz Ikromjon amakining jiyanlari emasmisiz? Shunaqa deyishgan edi-ku!

Demak, bu qiz uni surishtirgan, kimligini bilmoqchi bo‘lgan. Nizomjonda kutilmagan allaqanday ishonchga o‘xshash bir narsa paydo bo‘ldi.

– Jiyanlari emasman. U kishiga o‘g‘il bo‘ldim.

– Hech kimingiz yo‘qmidi? – Zebixon achinishga o‘xshash bir qarash qildi.

Nizomjon xo‘rsindi. Nima deyishini bilmay ikkilanib qoldi.

– Bor, dadam, opam bor. Dostonim uzoq. Qo‘shiqni yaxshi aytar ekansiz.

Zebixon unga qarab turib, keyin savag‘ichlar orasiga kirib ketdi. Nizomjon uning orqasidan qarab qolarkan, yurishiga, engashib o‘ziga yo‘l ochayotganida belining chiroyli egilishiga mahliyo bo‘lib qolgan edi.

“Bu qiz kim bo‘ldi ekan?” deb o‘ylardi u. Ko‘zlari g‘amli, gaplari ham xuddi yig‘idan bo‘shagan odamning ovozidek titrab chiqadi.

Nizomjon uning xayolidan bo‘shamay qoldi. To quyosh botguncha yana o‘z joyiga kelib, ketmon chopdi. Ajab, bu gal negadir beli ham, bilaklari ham og‘rimadi. Salkam bir sotix yerni qanday qilib ag‘darib qo‘yganini sezmay qoldi. U palatkaga fonarlar miltirab qolgan paytda qaytdi. Ikromjon yalanglikdagi bordonda yonboshlab yotardi.

– Endi qaytishingmi, bolam? – dedi u boshini ko‘tarmay.

Nizomjon uning qattiq charchaganini sezdi. Yog‘och oyoq bilan yurib ketmon chopish osonmi? Tag‘in ham bu odamning joni po‘lat ekan. Ishlamay uyida yotsa, birov bir nima dermidi?

Nizomjon yelkasiga sochiq tashlab tashqariga chiqqanda, Zebixon shu tarafga kelayotgan edi. U Nizomjonga sirli bir qarab qo‘ydi-da, Ikromjonning tepasiga keldi.

– Ovqatga borarmishsizlar.

Ikromjon o‘rnidan turdi. Nizomjonning kelishini kutib u yoqdan-bu yoqqa yurib turdi.

— Qani, yur, — dedi Nizomjon artinib kelayotganda. — Chaqirishyapti.

Ikkovlari boshlashib boyagi oshxonaga kelishdi. Ikki tol oraliq'iga tortilgan simga mash'ala osib, yondirib yuborishdi. Hamma yoq birdan yorishib ketdi. Mash'ala yorug'ida yurgan kishilarning soyasi cho'lning olis-olislarida sudralardi. Tog'a bugun kelganlardan bir dasta gazeta berib yuborgan edi. Zebixon o'rtaga tushib o'qishdan iymanib gazetalarni Nizomjonga berdi.

— Siz o'qib bering!

Nizomjon buni Zebixonning unga ko'rsatgan zo'r iltifoti bilib darrov o'rnidan turdi. Gazetaning birinchi betida Azizxonning surati bosilgan edi. Surat tagiga uning frontda ko'rsatgan qahramonligi batafsil yozilgan. Unda yana zirillamaliklarning Azizxonga yuborgan maktublari ham bor. Nizomjon dona-dona qilib hammasini o'qib berdi. Tinglovchilarning yuzlaridagi fikr, hayajon mash'al nurida aniq ko'rinib turardi. Gazeta qo'ldan-qo'lga o'tdi. Azizxonning hammaga tanish ko'zlari kulib turardi.

— Uchta tankni yondirib, oltita nemisni asir olibdi. Voy joningdan, jigar! — deb yubordi To'lanboy. Yuraging ham otning kallasiday bor ekan.

— Xo'sh, yana qanaqa xabarlar bor? — dedi allaqachon sovib qolgan choyni xayol ichida puflayotgan chol. — O'qi, bolam, o'qi!

Nizomjon gazetani yana qo'lga olib, Sovet Informbyuro-sining axborotlarini o'qiy boshladi.

Unda Leningrad qurshovdan chiqishga intilayotgani yozilgan edi.

Gazeta, olis cho'l bag'rida yer bilan olishgan kishilar yuragiga allaqanday yorug'lik olib kirgandek, uzoqda, to'plar guldurosi ostida emaklab ketayotgan bolalarni ko'rish damlarini yaqinlash-tirgandek bo'ldi.

Odamlar ishlab charchaganlaridan kechagidek yarim tungacha o'tirisholmadi. Mash'ala so'nib, mushtdek cho'qqa aylanganda hamma o'z palatkasiga kirib ketgan edi. Ikromjon ko'rpa-ga burkanayotganda:

— Bolam, ertaga erta bilan qishloqqa xat yozib ber. Ketadiganlardan berib yuboraman. Uyda batareyali priyomnigim bor. Frontdan olib kelganman. Ayang jo'natvorsin. Bu yerda zarur buyum ekan, — dedi, Nizomjondan javob bo'lmadi — u allaqachon uxlab qolgan edi.

III

Bahor seryomg'ir keldi. To oy oyoqlaguncha olti marta jala quydi. Shunday yog'ingarchilik kunlari odamlar chodirdan chopon yopinib chiqib bir-birlarinikiga chopardilar. Jannat xola berib yuborgan priyomnik hammaning ermagi edi. Ikromjon priyomnikda faqat front xabarlarini eshitishgagina ruxsat berar, konsert paytida Nizomjonning qo'lidan olib o'chirib qo'yar edi.

— Batareyasi topilmaydi. Tugab qolsa, olamdan bexabar qolamiz.

Bir vaqt gapdan gap chiqib, u priyomnikni qanday qo'lga tushirganini hikoya qilib berdi:

— Olti tankni majaqlab tashlaganmiz. Kuygan tank orqada qolib ketdi. Dushmanni hu anavi ko'rinib turgan do'ngchalik joyga quvib borgan yerimizda o'rnashib olganmiz. Kech kirib shtabga xat tashlab qaytayotgan edim. O'zimiz dabdala qilgan tank yonidan o'tayotsam, ichidan odam ovozi kelyapti. Nemischa gapiryapti. Obbo, dedim, padarla'natlar o'lmay qolgan ekan, chiqib juftakni rostlashni maslahat qilishyapti, deb o'yladim. Avtomatni bo'ynimdan olib, sekin tank yoniga o'rmalab bordim. Yana quloq soldim. Rost, bitta nemis o'zining tilida rosa vaysayapti. Kayfi bo'lsa kerak, bo'lmasa qurshovda yotib shang'illab gapiradimi! Nima qilishimni bilmay ancha turdim. O'q chiqaray desam komandirdan baloga qolaman. Raz gaplashyaptimi, iznachit yonida sherigi ham bor. Tavakkal, dedim-u tankka emaklab chiqib qopqog'ini ko'tardim. Avtomatning uchini lyukka tiqib, xalt, dedim. Yana boyagicha, o'sha shang'ining ovozi tinmayapti. Bor, nima bo'lsa bo'ldi, deb ichkariga bitta o'q uzib qo'ydim. Nemis parvo qilmaydi, gapini bo'lmay, ezmalanayapti. O'zbekchalab qotirib bitta so'kdim-u, tavakkalchining ishini Xudo o'nglasin, deb o'zimni ichkariga tashladim. Yonimdan zajigalkani olib chaqib qarasam, ikkita nemis tarashadek qotib yotibdi. Ammo hali ham ovoz tingani yo'q. Yana u yoq-bu yoqqa qaradim. To'nqayib qotib qolgan nemisning ikki puti orasida manavi priyomnik gapirib yotibdi. Darrov oldim. Qayeridan o'chirishni bilmayman. Shinelimga o'rab okopga qarab chopdim. Qani bu ovozing o'chkur sekinroq gapirsa. Blindajda "Allo! Allo!" qilib o'tirgan aloqachiga ko'rsatgan edim, o'chirib berdi. "Bu hech narsaga yaramaydi, batareyasi tugagandan keyin bahosi bir tiyin buning, — dedi. Keyin o'ylab turib qo'shib qo'ydi. — O'sha joyni qara, nemis mumsik xalq bo'ladi, zapasi bo'lmasa buyum tut-

maydi". Orqamga qaytib, yana tankka kirdim. Nemisning bo'y-nidagi sumkasini ochib qarasam, choy qutiga o'xshagan to'rtta narsa bor ekan, batareyasi shu bo'lsa kerak deb oldim. Yo'q, adashmagan ekanman. Opkelib, sumkamga tashlab qo'ydim. Bitta batareya gospitalda ermak bo'ldi. Uchta qolgan. Ehtiyot qilib tutaylik. Bittasi uch oyga yetadi.

Bugun ham yomg'ir quyib turgandan odamlar ishga chiqish-madi. Katta palatada yana shu radio ermak bo'ldi.

Frontdan necha ming kilometr olisdagi cho'lda, bahor yomg'iri savalab turgan chodir ichida odamlar go'yo o'z bolalarining yonayotgan shaharlarda tutunda qorayib oldinga intilayotganlarini ko'rib turgandek, jimgina radioga quloq tutib o'tirardilar.

Radio endi Toshkentdan axborot eshittira boshladi. Qorasuv rayonidagi kolxoz o'z bo'linmas fondidan ajratib samolyot qurish uchun Davlat mudofaa komitetiga pul yuboribdi. San'at arboblari laureatlik pullarini, ko'p korxonalarining ishchilari bir oylik maoshlari, zayom obligatsiyalarini topshirishibdi. Samarqand pionerlari temir-tersak yig'ish oyligi e'lon qilishibdi.

Nizomjon radioga quloq solib o'tirarkan, o'zi qilayotgan va endi qiladigan ishlari to'g'risida o'y surardi. "Yosh bolalar ham frontga madad beryapti. Qurol ushlolmaganlarga ham ish topilyapti!" deya pichirlab qo'ydi.

Bu fikr uning qarorini yanada qat'iy lashtirib yubordi. Ishlashi kerak. Juda ko'p ishlashi kerak. Toki qiladigan ishi jangchiga mador bo'lsin. Qilgan mehnatidan jangchining qorni to'q, usti but bo'lsin, Nizomjon xuddi shunday qiladi. Ishlaydi, ishlab charchamaydi. Charchasa ham, ishlaydi. Yotib qolsa ham ishlaydi. Shovqinsiz, pisandasiz ishlaydi.

Nizomjon safda turgan yangi jangchidek qasamyod qildi. Endi u o'zini katta qo'shinning sodiq jangchisi deb biladi!..

* * *

Ikromjon Zirillamaga yetib kelganda otining chovi ko'pirib ketgan, hamma yog'idan bug' ko'tarilar edi. U otni samovar-chiga qoldirib idoraga kirdi. Tog'a qayoqqadir telefon qilayotgan edi. Uni ko'rib, boshini silkitdi-da, shoshib gapini tugatdi.

— Leningradga sovg'a jo'natilyapti. Oblastimiz sovg'asini Toshkentgacha o'zing kuzatab kelasan. Tog'a bir yutinib oldi-da, Ikromjonning yuziga emas, to'ning qo'ltiq tayoq teshib yubor-

gan joyiga qarab gapni davom ettirdi: — Uyga borib kiyinib kel. Kechqurun Gorchakovdan eshelon jo' naydi. Sendan boshqalar ham bor. Kechikma, oshnam.

Ikromjon hech narsa demadi. Nima ham deydi. Indamay chiqib, uyga qarab ketdi. Rais bugun Jannat xolani ko'rgan, Ikromjonning Toshkentga ketishini aytgan edi. Shuning uchun ham u erining shunday yog'ingarchilikda kelganiga ajablanmadi. Kiyim-boshlarini tayyorlab qo'ygan ekan. To eri kiyinib bo'l-guncha qozonda qanchadan beri qaynab yotgan mastavani suzib keldi. Ikromjon tik turganicha bir-ikki qoshiq ichgan bo'ldi.

— Xotin, men ketyapman. Xavotir olmay o'tir. Kelganimdan keyin cho'lga birga chiqib ketasan. Xayr, yaxshi qol.

Jannat xolaning cho'lga ketishiga hali ham ko'ngli yo'q edi. Erining safarga ketayotganida ko'nglini alag'da qilgisi kelmay:

— Avval keling, cho'lga borish bir gap bo'lar, — deb qo'ya qoldi.

Idora oldida yuk mashinasi turibdi. Tog'a kuzovga chiqib Ikromjonga qo'lini cho'zyapti.

Jannat xola erining mashina kuzoviga qiynalib chiqayotganini ko'rib turardi. Agar Tog'a qo'lidan tortib olmaganda albatta, chiqolmasdi — o'ng tizzasi bukilmaydi-da!

Ikromjon chiqib olishi bilan mashina gurillab, joyidan qo'zg'aldi. U orqasiga o'girilib, xotiniga qo'l silkib qo'ydi. Jannat xola uning orqasidan ma'yus qarab qoldi.

U Ikromjonni, Tursunboyni frontga ana shunday kuza-tib qolgan edi. Biri nogiron qaytdi. Biri qochdi. O'lik-tirikligi noma'lum... Bormikan? Bormikan? Bor bo'lsa, qayerlarda sar-son-sargardon bo'lib yurgan ekan?

Ona xayoli yana bolaga ketdi. U Ikromjon cho'lga ket-gandan beri yolg'iz uyda o'ylayverib qon bo'lib ketdi. Erining Toshkentga ketishi yana yuragiga allaqanday ayriliq solayotgan-day bo'ldi.

— Tog'a ham qiziq, muncha endi bu odamga yopishib olma-sa? Bitta bolasini tiyib ololmaganga butun boshli brigadani berib qo'yibdi. Oy chiqsa ham shunga, kun chiqsa ham...

Jannat xola mashina ketgan tomonga qarab turgan xo'jalik mudiri Abduxalilni ko'rdi. Abduxalil yonidagilardan tap tortmay gapirardi:

— Avval bolangni epla, keyin bizga vatanparvarlikdan dars ber.

Jannat xolaning ichi kuyib ketgandek bo'ldi.

U ko'chada el ko'zida telbaga o'xshab yurishdan istihola qilib uyiga qaytdi. O'sha-o'sha jimjit uy. Xuddi yutaman, deydi.

Yomg'ir tingan bo'lsa ham, tarnovlardan chak-chak suv tomib turibdi. Ariqdan ayqirib bo'tana suv oqyapti.

Shamol bulutlarni to'zg'itib allaqayoqlarga olib ketdi. Yaltirab oftob chiqdi. Teraklarning yalang'och novdalariga zar surtgandek bo'lib ketdi. Tomlardan, ivigan devorlardan bug' ko'tarila boshladi.

Charaqlagan oftob Jannat xolaning dilini sal yoritgandek bo'ldi.

IV

Oy chiqdi. Serbulut osmon xuddi siyoh sachragan zangori ko'ylakka o'xshardi. Hovli betidagi chuqurchalarda hosil bo'lgan ko'lmaklar beti oydinga shishadek yiltirardi.

Jannat xola yuraverib charchadi. Tinkasi qurib odati bo'yicha ayvon labiga kelib endi o'tirgan ham ediki, eshikni kimdir juda sekin, jur'atsizlik bilan taqillata boshladi.

– Kim?

Eshik yana taqilladi-yu, hech kim ovoz bermadi. Jannat xola hayron bo'lib eshik yaqiniga borib yana:

– Kim? – dedi. Javob bo'lmadi.

– Kim deyapman?!

– Oching, oching, men.

Jannat xola titrab ketdi.

Jannat xola eshik halqasini qanday tushirganini bilmaydi. O'g'lining achimsiq hidi buruqsab turgan bo'yniga osilib tinmay gapirardi:

– Voy bolaginam, bolajonginam. Bormisan? Qayoqlarda qolib ketding? Yomonlar o'lsin, yomonlarni qora yer yutsin! Ne-ne gaplarni tarqatishmadi. Bor ekansan, omon ekansan.

Tursunboy ona gaplariga parvo qilmay uning qo'llarini bo'ynidan olib tashladi-yu, orqasi bilan eshikni to'sdi.

– Sekin, sekin, aya, birov eshitib qoladi.

– Eshitsin, bilsin! Ne-ne gaplar qilishmadi. Ertalab boshimga tumonatni yig'aman. Dadaginang bechora boshini ko'tarolmay qoldi.

– Bo'ldi, bo'ldi!

Tursunboy eshik halqasini shoshib ildi-da, jonsaraklik bilan ichkari uyga qarab yugurdi. Jannat xola esankiraganicha uning

orqasidan chopdi. Shoshib chiroq piligini ko'tardi. Tursunboy uy o'rtasida qimirlamay turardi. Ona bolasining yuziga qaradi. Bu o'sha Tursunboy mi? Yo boshqa odammi?

Ona qarshisida yuz-ko'zlarini soqol bosib ketgan, ozib, qorayib, tanib bo'lmas holga yetgan Tursunboy turardi. Uning yuziga ko'pdan sovun tegmagan, to'yib ovqat yemagan. Onaning yuragi jiz etib ketdi. Bitta-yu bitta bolasi-ya! Shu holga yetdimi? Yemay yedirgan, kiymay kiydirgan erkasi, shamolni ravo ko'rmagan yolg'izi shu ko'nga tushdimi?

– Senga nima bo'ldi, bolam?

– Qo'yaver, aya.

– Qayerlarda yuribsan?

– So'rama, so'rama. Ovqating bormi? Qornim och.

Jannat xola hozir, hozir dedi-yu, bolasi oldidan ketmay unga tikilganicha turaverdi.

– Ovqat deyaрман, olib kelsang-chi!

Ona bo'shshib tashqariga chiqdi. Nima qilishini bilmay oshxona eshigi oldida birdan xayol surib turib qoldi. Keyin qorong'ida timirskilani b qozon tagida quyilib qolgan mastavani ko-saga suzdi-da, yig'lab-yig'lab uyga olib kirdi.

– Bolam, shuni yeb turgin, hozir boshqa ovqat qilib bera-man.

Tursunboy deraza rafiga o'tirib kosa chetidan xo'rillatib icha boshladi. Ona tik turganicha undan ko'zini uzmasdi.

Tursunboy boshini ko'tarib onaga tanbehlovchi ohangda dedi:

– Kelganimni birov bilmasin!

– Qochganing rostmi?

Tursunboy darrov javob bermadi. Lablarini ancha vaqtgacha yalab turib dedi:

– Poyezddan qolib ketdim.

– Qochganing rost ekan-da?

– Ha. Gap tamom!

Onaning vujudi qaqshab ketdi. Tizzalarida darmon qolmay, sholchaga o'tirib qoldi. Ko'zlari javdirab, birpasda kipriklari pir-piradi-da, ho'ngrab yig'lab yubordi.

Tursunboy ni qochoq deyishganda, Jannat xola ishonqirama-gan edi. Ko'nglining bir chekkasida, bu gap yolg'on, deb o'ylar-di. Endi bu gapni bolasining o'z og'zidan eshitib hushi boshidan uchdi. Butun istaklari, orzu-umidlari shamolda to'zib ketgan-dek, kimsasiz cho'l-u biyobonlarda qolib ketgandek, chorasiz

bir ahvolda dunyo ko'ziga qorong'i bo'lib turardi. Yosh dumalab turgan ko'zlarini bolasiga qadadi.

— Kuch-quvvatdan qolgan otang ham qo'liga miltiq olib urushga bordi-ya! Bir oyog'ini urushga tashlab keldi-ya! Sen shu gavgang, shu kuching bilan qochdingmi? Otangni tiriklay o'ldirding-ku, meni adoyi tamom qilding-ku! Ertaga yurtning ko'ziga qanday qarayman? Dadang qanday qilib ko'chaga chiqadi? Shuni o'ylamadingmi?

Tursunboy dadasining frontdan qaytganini, bir oyoqsiz bo'lib kelganini eshitmagan edi. U uyga qaytarkan: “To urush tamom bo'lguncha yerto'ladami, o'radami kun kechiraman”, degan o'y-da edi. U qochishga qochib qo'yib, endi oftob ko'rmay yashashga ham rozi bo'lib qolgan edi. Dadasi kelgan bo'lsa, endi uyda qololmaydi. Dadasining fe'lini biladi. Ertagayoq qo'lidan yetaklab chiqib topshiradi. Shu topda onasi: “Dadang bir oyoqdan ajrab keldi!” deganida, u seskanmadi ham, yuragi ham achimadi. Aksincha, uning qaytib kelganidan ranjidi. Unga ota urushdan qaytib kelmagani durust edi. Uyda jon saqlab, kunduzi yerto'ladami, boloxonadami, shox-shabbalar orasidami yashirib, kechasi tomorqada yotib kunini o'tkazardi. Endi rejasi buzildi. Ketishi kerak. Qayoqqa? Tursunboy shoshib so'radi:

— Dadam qani? Kelib qolmasidan ketay.
— Dada dema!..
— Kiyimlarimni topib ber. Ketaman.
— Qayoqqa? Hech qayoqqa ketmaysan. Dadang kelsin.
— Ikkovlaring bir bo'lib meni tutib bermoqchimisizlar?
— Esingni yig', bolam. Ona o'z bolasiga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Maslahatlashib, biron chorasini topaylik. Axir dadang ko'pni ko'rgan odam. Bir maslahat chiqib qolar.

Tursunboy umidsiz qo'l silkidi:

— Dadamni bilaman.
— Bilsang, bo'pti-da. Jon bolam, gapimga kir. Egilgan boshni qilich kesmaydi. Hali ham bo'lsa borib tavba qil. O'zingni urushda oqla. Dadangning o'zi borib, uzr aytadi. Uning gapini yerda qoldirishmas. Hukumatga ko'p ish qilgan odam. Gapi inobatga o'tadi.

Tursunboyning ko'zlaridan o't chaqnadi.

— Nima? Nima? — u o'rta barmog'ini peshanasiga nuqib ko'rsatdi. — Mana shu yerimdan otib tashlashingmi?!

Jannat xola qo'rqib ketdi.

– Unaqa qilishmaydi, bolam. Sen fashistmidinki, shunaqa qilishsa. Tavba qil, yalin, frontga borib o‘zimni oqlayman, deb yalin.

Tursunboy yana qo‘l silkib yuzini teskari o‘girdi.

– Ketaman.

– Qayoqqa ketasan?

U qayoqqa borishini bilmasdi. Ona so‘rog‘iga javob topolmay, bo‘shagan kosaga qaragancha indamay qoldi.

– Kim senga joy beradi? Kim senga ovqat beradi? Qaroqchilik qilasanmi? Qay kovakka sig‘asan? Tirik o‘lik bo‘lib yurasanmi? Yaxshisi, gapimga kir. Dadang bilan Tog‘a borib tushuntirib topshirsin. Tog‘a obro‘li odam. Deputat odam, gapini qaytarishmaydi. Tog‘aga yalinaman. Yig‘lab-yig‘lab yalinaman. Jon bolam, dadang kelguncha ketma. Shunday qil, jon bolam, o‘rgilay bolam, yo‘q dema.

Jannat xola shunday dedi-yu, shoshib hovliga chiqib ketdi. Katta samovarni ayvondan olib tushib suv quydi. O‘t tashladi. Oshxonaning orqasiga sovun olib borib sochiqni behiga ilib qo‘ydi. Sandiqni ochib Tursunboyning ko‘ylaklarini oldi.

– Yuvin. Soqollaringni qirib, boshqa kiyimlaringni kiyib ol. Juda kir bo‘lib ketibsan.

Ona tokchadagi qutichadan Ikromjonning ustarasini, oynakchani olib chiroq oldiga keltirib qo‘ydi.

– Mana, bolam. Bo‘la qol.

Tursunboy xontaxta oldiga tiz cho‘kib oynaga qaradi. U o‘z aksini ko‘rib birdan hayron bo‘lib qoldi. U rosa isqirt bo‘lib ketganini endi bilgan edi. Ilgarigi Tursunboydan endi faqat chaq nab turgan ikkita ko‘zgina qolgan edi. U onasi keltirgan bir piyola suvga cho‘tkani botirib sovun qutida ko‘pirtirdi-da, betlariga surtdi.

Ona uning qirt-qirt qilib soqol qirishiga qarab ich-etini yeb o‘tirardi.

Endi bolasining holi nima kecharkin? Tog‘a oraga tushishga ko‘narmikan? O‘zi olib borib topshirsa yaxshi bo‘lardi. Zora frontga yuborishsa. Ko‘nmasa nima bo‘ladi? Bordi-yu ko‘nsa, ko‘nsa-yu, gapi inobatga o‘tmasa, unda nima bo‘ladi? E, Xudo, qandoq kunlarga qoldi-ya!

Tursunboy soqolini olib bo‘lgach, oshxonaning orqasiga o‘tib ketdi.

Tursunboy yuvinib, kiyinib keldi. Uning diydoriga qarab ona yuragidan boyagi vahimalar nari ketgandek bo‘ldi. Tursunboy

yangi, toza liboslarda begunoh, pokiza bo‘lib ko‘rinib ketdi. U kelishgan, yuzlari, ko‘zlari yashnagan yigit edi. Shu topda ona ko‘nglida ham mehr, ham tashvish, ham g‘azab bor edi. Shu uch his orasida qolgan ona qalbi qay tarafga yon bosishni bilmasdi.

Tursunboy o‘tirgan yerida mudray boshladi. Ona uning yonboshiga bolish keltirib qo‘ydi. Tursunboy bolishni nari surib boshini qo‘ydi-da, dam o‘tmay uyquga ketdi. Ona uning ustiga ko‘rpa tashlab bosh tomoniga tiz cho‘kkanicha yuragida bir dunyo tashvish bilan kiprik qoqmay tikilib o‘tiraverdi.

Qop-qora osmonning bir cheti bilinar-bilinmas oqarib kelayotganini, saharxez xo‘rozlarning olis-olislardan qichqirayotganini sezmasdi. U hamon yolg‘iz bolasining diydoriga to‘ymay tikilardi.

Qalbi vayron bo‘lgan, umidlari sovun ko‘pigidek sassizgina o‘chgan onaning xayollari so‘ngsiz edi. Samarasiz edi...

V

Toshkent stansiyasida odam qaynaydi.

Platformalarda ustiga brezent yopilgan tanklar, yuk mashinalari. Qizil vagonlarning ochiq eshiklaridan jangchilar ko‘rinadi. Qo‘ltiqtayoqqa tiralgan, qo‘lini, boshini bog‘lab olgan yaradorlar u yoqdan-bu yoqqa o‘tib turibdi.

Ikromjon farg‘onaliklar olib kelgan to‘rt vagon sovg‘ani topshirish uchun stansiya boshlig‘ining oldiga kirmoqchi bo‘lib yo‘lakka bosh suqqan edi, tumonat odam... Shu payt radio karnayi xirillab, e‘lon qildi:

— Farg‘ona vakili komendant yordamchisiga kelib uchrashsin. Qaytaraman...

Ikromjon komendantni qidirib ketdi. Oldingi vagon yonida bir necha harbiylar bilan qizil furajka kiygan stansiya navbatchisi turardi. Ikromjon unga o‘zini tanitdi. Navbatchi uning qo‘lidagi qog‘ozlarni olib o‘qiy boshladi:

— Yigirma qop turshak, o‘ttiz qop mayiz, qirq qop olma qoqi. Sakson yashik qand, qirq qop yong‘oq, ming banka behi murabnosi, uch yuz banka qulupnay murabnosi... Hammasi shumi? — navbatchi boshqa qog‘ozga ko‘z tashladi. — Ha, yana olti yuz paxtalik nimcha, sakkiz yuz quloqchin, besh yuz kirza etik. Mana bu boshqa gap. — Navbatchi Ikromjonga qaradi. — Kuzatuvchi bormi?

Ikromjon ikkilanib o‘tirmay, javob berdi:

– Men o‘zim kuzatib boraman.

– Bo‘pti, – dedi navbatchi. – Harbiy komendantga uchra-
shib hujjatlarni rasmiylashtiring. Bilib qo‘ying, front liniyasiga-
cha kuzatib borasiz.

– Xo‘p.

Komendant yordamchisi unga boshdan-oyoq razm solib,
boshini sarak-sarak qildi:

– Yo‘q, sizni yubora olmaymiz. Kuzatuvchilarimiz bor.

– Oyog‘imga qarab shunday deyapsizmi?

– Ha.

– Front ko‘rgan odamman.

– Baribir, – dedi komendant yordamchisi.

Harbiylar bir so‘zli bo‘ladi. Ikromjon yalinib-yolvorishdan
foйда yo‘qligini bilib boshqa gap aytmadi. Mayibligiga achinib,
ko‘ngli allanechuk bo‘lib ketdi. Navbatchi u bilan vagonga kel-
di-da, bor narsalarni bir-bir ko‘zdan kechirib, unga javob berdi:

– Ertangi poyezdda qaytib ketishingiz mumkin. Komandirov-
ka guvohnomangizga bir ozdan keyin kelib, belgi qo‘ydiring-da,
qaysi poyezdda ketishingizni bilib oling.

Ikromjon asta yurib perrondan katta maydonga chiqdi.

Havo ochiq edi. Tramvay bekatidan sal berida ellikka yaqin
kishi negadir g‘uj bo‘lib uymalashishyapti. Ikromjon ham beixti-
yor o‘sha tarafga yura boshladi.

Davra o‘rtasida yarador ofitser turardi. Uning ko‘kragida
“Oltin Yulduz”. Armiyaga chaqirilgan yigitlar uni o‘rab olib ke-
tishga yo‘l berishmasdi. Tinmay so‘roqqa tutishardi.

Yo‘l chetidagi skameykada bir chol bilan kampir harbiy for-
ma kiygan yigitga termilib o‘tirishibdi. Ular o‘z bolalarini front-
ga jo‘natayotgan bo‘lsalar kerak. Kampir dam-badam bolaning
peshanasini silaydi. Ulardan sal narida o‘rta yashar bir kishi
to‘rt yoshlardagi bolani tizzasida olib o‘tiribdi. Uning yonida
homilador xotini boshini yerga egganicha churq etmaydi. Bola
dadasining yulduz taqilgan furajkasini kiyib olib nimalardir deb
javraydi.

Suv do‘koni oldida – qiz bilan yigit. Qizning egnida daz-
mollanmagan krepdeshin ko‘ylak. Labiga bilinar-bilinmas elik
surgan. Yigit unga o‘pkasi to‘lib tikiladi.

Ikromjon hammaga bir-bir qarab aylanib yurardi. Birdan u
urushga ketayotganida xotini, bolasi Zirillamada mashina keti-
shini kutib ana shunday o‘tirganlarini esladi.

Kechagina edi. Darrov shuncha vaqt o‘tib ketibdi. Bu orada

u jangga kirdi. Yaralanib gospitalda yotdi. Qishloqqa qaytib keldi. Cho'lga chiqdi... Umr o'tib ketaverarkan.

Eshelon jo'nashini bildirib parovoz qichqirdi. Hamma o'zini stansiya ichiga urdi. Ikromjon ham odamlar orqasida zinalardan hatlab chiqib borardi...

Ikromjon qattiq charchagan, kuni bilan stansiyada eshelon poylab holdan toygan edi. Shuning uchun eshelon jo'nashi bilan yotoqqa qayta qoldi.

Yotoq eshigi oldida uni Tog'a kutib turardi.

— Seni qidirib stansiyaga ham borib keldim.

— O'zing qachon kelding, Tog'a? — dedi hayron bo'lib Ikromjon.

— Kecha kelgan edim. Plenumga chaqirishgan edi. Hozir tamom bo'ldi. Ertaga birga ketaylik deb qidirib keldim. Ishlaring bitdimi?

— Bitdi, Tog'a.

Ikkovlashib yotoqqa kirishdi. Ikromjon karavotga cho'zilishi bilan isitmasi oshib ketganini bildi. Tog'a uni bezovta qilmaslik uchun devordagi radio karnayini o'chirmoqchi edi. Ikromjon ko'nmadi. *Radio Tashqi ishlar xalq komissarligining nemis bosqinchilar vaqtincha bosib olgan sovet yerlaridagi aholiga qilinayotgan zulm, vahshiylik, yoppasiga qirg'inlar haqidagi axbototini eshittirmoqda edi.*

Ikromjon isitmasini ham, tanining zirqirab og'rishini ham unutilib, o'tirib oldi. Tog'aning lablari titrab turibdi. U mushtini tugib, ko'zini bir nuqtaga tikkanicha qimirlamasdi. Oxiri u alam bilan dedi:

— Ablah Gitler hali bu qilmishlariga javob beradi!

— Qancha shahar vayron bo'ldi. Qancha bola yetim qoldi. Qancha odam qon ichida kezyapti. — Ikromjon gap topolmay stolga mushtlab yubordi. — Mayli, qasos olamiz. Qani endi oyoqlarim butun bo'lsa. Shu bugun ketardim. Bu oyoq bilan endi qayoqqa boraman?

Tog'a unga tasalli berardi:

— Sen borib dushmanga o'q uzib kelgansan, oshnam. Endi frontni o'ylamay qo'ya qol. Sen jang qiladigan front endi Yoz-yovonda, Naymanda.

Ikromjon unga tik qarab dedi:

— Yuragimda urush yoqqan o'tni hech kim o'chirolmaydi. U o't tutashib o'zimni kuydiradi. U o't — o'chirib bo'lmaydigan o't.

– Jinni bo‘lma, – uni jerkib tashladi Tog‘a.

– Bugun o‘zimga o‘zim savol berdim. Istansada u yoqdan-bu yoqqa yurib o‘zimdanda o‘zim so‘radim. “Ikrom, dunyoga kelib nima ish qilding?” – dedim. So‘rog‘imga javob topolmadim. Hech narsa qilmabman, og‘ayni, hech narsa! Hech narsa qilmay, o‘lib ketadiganga o‘xshayman.

– Ko‘p ishlar qilding. Sen bo‘lmasang, Zirillamada kolxoz qurishimiz qiyin bo‘lardi. Farg‘ona kanalida, oblastda eng ko‘p tuproq qazigan kim edi? Sen eding! O‘sha suvni ichayotganlar, ekinini sug‘orayotganlar kimga minnatdorchilik bildirishni o‘zlari bilishadi. Bir oyoqni qayga tashlab kelding? Shu bir oyog‘ing uchun necha fashistning kallasini uzding. Shu hech narsa qilmaganingmi? Gapingni qara-ya! O‘ladigan bo‘lsang, o‘zim belimni boylab, “voy otam”lab tovutingning oldiga tushaman. Sen hali-beri o‘lmaysan. Ahmoqona gapni qo‘y. Yashashimiz kerak. Ko‘p ishlar qilishimiz kerak. Urush tugaganini ko‘raylik. Urush nuratgan devorlarimizni uraylik. Eh-he, qiladigan ishimiz ko‘p. O‘limdanda gapirma. Ishni chala qoldirib o‘lish nomardlik bo‘ladi... Xo‘p, bo‘lmasa, sen yotib damingni ol. Ertaga ketadigan bo‘lsak, chala ishlarimni bitkazib kelay.

Tog‘a bir oz ikkilanib turgach, chiqib ketdi. Sal o‘tmay, eshikni taqillatmay mo‘ylovdor bir yigit kirdi. U Ikromjonning qo‘lini siqib ko‘risharkan, ma‘noli iljayib qo‘ydi. Uning bu iljayishiga Ikromjon tushunmadi. Bu odamni Ikromjon uncha xush ko‘rmasdi. Ilgari Zarkent selposida kassirlik qilardi. Keyingi yillarda ko‘rinmay qolgan edi. Atlas artelida ekspeditorlik qilyapti, deb eshitgan edi.

– Mol olib kelgan edik, zinadan chiqib kelayotsam, Tog‘aga duch kelib qoldim, sizni shu yerda, deb qoldilar. Bir ko‘rishib o‘tay, deb kirdim.

Ikromjon bu jini sevmagan odam bilan qanday qilib, nima to‘g‘risida gaplashishini bilmasdi. Ko‘ngil uchun: “Bola-chaqa tinchmi?” – deb so‘ragan bo‘ldi.

– Mixdek, mixdek. Hammasi tinch. Qirq yil qirg‘in bo‘lsa, ajali yetgan o‘ladi, deydilar. Nasibamiz front tomonlarga sochilmagan ekan, rizqimizni Ma‘londan terib yeb yuribmiz. Aytgancha, sevinib qoldingizmi? Tursunboy kelib sevinib qolgandirsizlar. Xayriyat, butun qaytibdi.

Bu odam nimalar deyapti. Mastmi? Ikromjon unga qarab angraygancha turardi.

– Uch kun bo‘ldimi, ha, uch kun bo‘ldi shekilli. Garchakopda pivo ichib turgan edim. Bir mahal qarasam, Tursunboy

yonimdan o'tib qoldi. Chaqirsam eshitmadi. Orqasidan bora-yotgan edim, ko'pchilikning orasiga kirib birpasda qayoqqadir g'oyib bo'ldi. O'zi shunaqa, fe'li shunaqa bolangizning. Odamga aralashmaydi. Shu odati front ko'rib ham qolmabdi, deb qo'ya qoldim.

Uning har bir gapi Ikromjon yuragiga xanjar bo'lib botardi...

Demak, Tursunboy Marg'ilon atroflarida yashirib yuribdi. Zirillamaga borishga yuragi dov bermagan u yaramasning. Qochib qayoqqa boradi? Sharmandaligini, xoinligini kimdan yashirmoqchi? Qachongacha qochib yuradi.

Mo'ylovdor yigit g'oz patidan qilingan tish kovlagichi bilan mo'ylovini tarab yana iljaydi:

— To'yni boshlavoravering. Ha, bu kunlar g'animat. To'yni ko'rib qoling. Xudo xohlasa, o'zim samovar qo'yib chorsi bog'layman.

— Qachongacha shunaqa qilib yurasan. Yurt boshida urush, sen nimani o'ylaysan, nimalar qilyapsan. O'z foydangni ko'zlab, o'z joningni ayab yuribsan.

Mo'ylovdor yigitning qalin qoshlari ma'noli kerildi.

— G'imirsib bo'lsa ham, xalqning ko'zida yuribmiz, aka, qochqlikdan Xudo saqlasin. Ha, nomard qochadi...

Ikromjon sapchib o'rnidan turdi. Turdi-yu, yiqilgandek shilq etib yana o'tirdi.

Mo'ylovdor yigit uning bu o'tirishini ko'rib, qoyil qildim, degandek tars-tars yurib chiqib ketdi.

Ikromjon ko'kragini changallab qattiq uh tortdi. U to qishloqqa yetib kelguncha Tog'a bilan ochilib gaplashmadi. Tog'a ham avzoyini bilib turgani uchun indamay qo'ya qoldi. Bunday paytlarda odamni o'z holiga qo'yib berish kerak.

Endigina tong yorishib kelardi. Tog'a qayrag'och tagiga yetgach, unga qo'lini uzatdi.

— Jindak mizg'ib olganingdan keyin idoraga chiqarsan. Xayr.

Tog'a ketdi. Ikromjon o'z xayollari bilan o'zi qoldi. Vujudini dard g'ijimlab tashlagandek bukchayib, o'z ko'chasiga burildi.

Odamning ishi bir orqaga ketmasin. Ketma-ket falokat oyog'ining tagidan o'rmalab chiqaveradi.

Mana, Ikromjon shuncha yil yashab, shuncha savdolarni boshidan kechirib hali bu xil dahshatga ro'para kelmagan edi. O'z uyi oldida, o'z devorida unga eng og'ir, eng dahshatli hukm bitilgan edi.

Devorga kimdir ohak bilan "Xoinning uyi!" deb yozib ketibdi.

Ikromjon o‘z ko‘zlariga ishonmay qoldi. Nazarida, bugun tong har galgidan ko‘ra barvaqtroq yorishayotgandek, shu yozuvni tezroq odamlarga ko‘rsatishga oshiqib vaqtli yorishayotgandek edi.

U bir muddat turgan yerida esankirab qimirlamay qoldi.

Qishloq jimjit. El hali uyquda. Faqat erinchoq xo‘rozlargina har zamonda olis-olislardan ovoz berib qo‘yishadi.

Olamga nur taratayotgan, kurtaklar bag‘riga bahor shabadasini quyayotgan bu tongda hamma narsa: jonli-jonsiz miriqib orom olardi-yu, faqat bir kishi – Ikromjongina alam, dahshat, iztirob olovida kuyib yonardi.

Nima uchun?

Boshiga bu falokatlarni solgan nomard bola qani endi shu topda oldida bo‘lsa... O‘ldirardi! Qariligini harom qilgan, dunyoni ko‘ziga qorong‘i qilgan bolaning bahridan o‘tardi! U qanday bola boqdi o‘zi? O‘z boshiga balo qilib bola boqdi. Endi uni qo‘liga tushgan kuni it bolasidek o‘ldiradi.

Oppoq bo‘lib otayotgan shu tongda ota o‘z bolasini o‘limga hukm qildi.

VI

Nayman cho‘llariga, to‘qaylariga chinakam bahor kirdi. Qamishzorlardan, botqoqliklardan qurbaqalarning tinimsiz vaqillashi eshitilardi. Tiniq feruza osmondan ikki marta arg‘imchoq solib turna o‘tdi. Qish ichi bo‘ronlarni ko‘krak bilan to‘sgan ikki tup tolning nozik novdalari och pista mag‘zidek bargchalarga o‘raldi.

Qumli tarafdin badanga xush yoqadigan ilimiliq shabadalar esib qoldi.

Zebixon ham shu bahor bilan birga yashnab borardi. Uning chehrasidagi so‘lg‘inlik o‘rnini allaqanday qizlik tarovati egalagan edi. U har kuni el uyg‘onmasdan chodirdan chiqardi-da, xuddi quyoshni qarshilayotgandek cho‘l tarafga, qizarib-bo‘zarib yorishayotgan ufq tarafga qarab ketardi.

Hammayoq jimjit. Cho‘l qushlari beozorgina chug‘urlashadi. Shabada yangigina qiyoy cho‘zgan maysalar betidan shudringni silkib to‘kadi. Qiz shu fayzsiz cho‘lda ochilgan tanho loladek o‘zini ko‘z-ko‘z qilib boradi.

Balog‘at ostonasidan allaqachon hatlab o‘tgan, birinchi sevgisiga og‘u tushgan bu qiz qalbida pinhoni o‘t yonardi. Bu o‘t

uning bagʻrini kuydirmas, oʻrtamas, aksincha, ehtiros tuygʻularini tugʻyonga keltirardi.

Qiz qalbiga yupanch, oʻziga hamdard kishi izlardi. U goho maysaga chalqancha yotib, oppoq begʻubor bulutlar suzayotgan soʻngsiz osmonga uzoq-uzoq tikilib yotardi. Bu zangori boʻshliqlar unga allaqanday ertaklar soʻylagandek. Shu olislardan u hali oʻzi kimligini bilmagan bir dilovar yigit chehrasini izlardi. U nomaʼlum yigit goh afsonaviy pahlavon, goh Tursunboydek nomard boʻlib koʻrinardi.

Zebixon har gal Tursunboyni eslab qolganda yuzlari andishadan qizarib ketardi. Koʻzlarida oʻt chaqnardi. Qoʻllari beixtiyor musht tugardi.

U Tursunboyni tabiat yanglish yaratgan, tabiat odamlarni masxara qilish uchun, odamlarni haqorat qilish uchun yaratgan bir narsa deb bilardi. Bu tabiatning qoʻpol qoʻli bilan yaratilgan narsa eng avval uni yaraladi. Uning qalbiga zahar soldi. Zebixon uning zahrini juda tez badanidan sitib chiqarib tashladi. Ammo vaqti-vaqti bilan yara oʻrni uni qiynar, tanasini bir muddat zirqiratardi.

Zebixon oʻzini Tursunboy yetkizgan alamlardan ozod his qilardi. Endi uning koʻksiga sof tuygʻular shabadasi kirgan. Shu choʻl havosidek begʻubor hislar uni allalardi. Qalbi bahorgi musichadek kukulab, muhabbat chaqirardi.

U muhabbat izlardi-yu, “boshidan koʻp savdolar oʻtgan” Nizomjonning maʼyus boqishlariga tob berolmasdi. U bolaning koʻzlarida qandaydir ogʻir alamlar koʻlankasi kechardi. Zebixon u bilan gaplashganda yuragini tirnagan alamlarni qoʻzgʻatishdan qoʻrqardi. U oʻlgan ilonning boshini qoʻzgʻatmaslik kerak, deb oʻylardi.

Mana, bugun Zebixon odaticha tong qorongʻisida turib sahar shamolida tebranayotgan tol oldidan oʻtarkan, soʻrida ikki tizzasini quchoqlab, olis boʻshliqlarga tikilib oʻtirgan Nizomjonga roʻpara kelib qoldi. Nizomjon oyoq sharpasini eshitib oʻgirildi. Qarshisida koʻkrakburma koʻylagini shamol buydalayotgan qizni koʻrib, hayron boʻldi. Keyin hushini oʻnglab, oʻrnidan turdi.

Zebixon badanni qiynagan qish kiyimlarini yechgan. Uning nihoyatda kelishgan qomati goʻyo bahor havosidan yanada koʻrkamlashgandek, rangi yanada tiniqlashgandek edi.

Nizomjon Ikromjonga bildirmay har oqshom qoq yarim kechada ketmonni olib toʻqayga kirib ketardi-da, to tong yorishguncha ikki sotix yerni achitma — chopiq qilib qoʻyardi. Hozir

u ishini bitkazib endigina so'riga kelib o'tirgan edi. Shu yerdan turib tong otishini tomosha qilishni u juda yaxshi ko'rardi. Toza havo, kishiga yorug', iliq kun va'da qilayotgan tongning yorishib kelishini kuzatayotgan odamning xayoliga yaxshi o'ylar keladi. Odamning yashagisi, allaqanday xayrli ishlar qilgisi keladi bunday paytlarda. Odam kallasidan yomon o'ylarni, bad niyatlarni tong shamoli supurib ketadi, deyishadi. Bu rost.

Zebixon Nizomjon o'rnidan turganda etiklari loy ekanini ko'rib hayron qoldi.

– Nima qilib yuribsiz, muncha erta turdingiz? – dedi.

Nizomjon nima deyishini bilmay, o'zim, shunday, uyqum qochib ketdi, deb qo'ya qoldi.

– Necha kundan beri shu mahalda sizni ko'raman. Biron yeringiz og'rib uxlayolmayapsizmi?

– Yo'q, yo'q, sog'man.

Nizomjon, bu qizning hamma gapdan xabari bor ekan, deb o'yladi-da, ochig'ini aytdi.

– Bilasizmi, Zebixon, hammadan ko'p ishlagim keladi. Menga juda ko'p yaxshiliklar qilgan Ikromjon akaning yuzini yerga qaratmasam deyman. Axir meni o'sha kishi bu tomonlarga olib kelganlar. Qoq yarim kechada uyg'onaman-da, to odamlar uyqudan turishguncha bir-ikki sotix yerni ag'darib qo'yaman.

Zebixon bu gapdan bexabar edi. Qoshlari chimirildi.

– Bunday qilmang. Shundog'am hammadan ko'p ish qilyapsiz. Rangingizni qarang, ahvolingizni qarang. Ko'zlaringiz ich-ichiga kirib ketibdi. Bunaqada biron dardga chalinib qolasiz.

Nizomjon bosh chayqadi.

– Kim ishlab dardga chalinibdi. Ish odamni ovutadi. Urushga ketgan o'rtoqlarim qiynalmayotganmikin? Shu yumshoq yerni ketmonlash muz bitib ketgan yerda okop qazishdan qiyinmikin? Har qalay, tepamdan birov o'q yog'dirib turgani yo'q-ku. Erta-mi-indin urush tugab, ular qaytib kelishadi. O'shalarning ko'ziga qandoq qarayman? Sen nima qilding, deyishsa nima deyman? Siz bu bola o'ziga shuncha tomorqa ekib boyimoqchi, deb o'ylamang. Menga bir dona ham guruch kerakmas. Nimaiki hosil olsam, Zirillamaga ko'chib kelgan gospital oshxonasiga oborib to'kaman. Mana shu mening zora urushga borganim, zora otgan o'qim bo'lsa, deb niyat qilganman. Nemis bilan shu yerda turib urushmoqchiman...

Zebixon bu pachoqqina, ko'rimsizgina, kamgap bolaning ichida shuncha gap borligini bilmagan edi. Uning to'lib-toshib

gapirishidan, soʻzlaridan bironta ham qalbakilik yoʻqligi qizga bilinib turardi. Toʻmtoq barmoqlar bilan ketmonga yopishgan bu yigit bir yoʻla uch ishni bajarardi. Shu mehnat bilan yurtning mushkulini oson qilmoqchi, shu mehnat bilan ezilib darddan adoyi tamom boʻlgan Ikromjonning yuzini yorugʻ qilmoqchi, shu mehnat bilan oʻz boshidan oʻtgan “savdolar”ni nari quvmoqchi.

Zebixon unga qarab turib, uning gaplarini eshitib turib birdan uni Tursunboyga solishtirdi. Tursunboy qoʻliga yurt ishonib bergan qurolni tashlab qochdi. Bu boʻlsa peshana terini oʻq qilib dushmanga otmoqchi...

Nizomjon toʻlqinlanib ketib ortiqcha gapirib yubordim, shekilli, deb undan kechirim soʻradi.

– Aybga buyurmaysiz, qizishib ketibman.

– Yoʻq, yoʻq, – dedi Zebixon unga allaqanday tikilib. – Menga qarang, siz negadir odamga aralashmaysiz. Hamisha bir chekkada maʼyus yurasiz. Qoʻying, bunaqa qilmang. Bu yerdagilarning hammasi yaxshi odamlar. Tortinmang.

Birdan Zebixonning shoʻxligi tutib ketdi. Biron gap bilan uni ovutgisi keldi-da, ayyorcha kulib qaradi.

– Yuring, choʻl aylanib kelamiz. To odamlar turishguncha, hu qungacha borib qaytamiz. Men har kuni oʻshoqqa boraman. Kecha oldimdan ikkita kiyik chopib oʻtib ketdi. Koʻzi qurmagur biram qoraki.

Nizomjon bu yerdagilarning qanaqaligini yaxshi bilmaganidan, birontasi koʻrib qolsa, xijolatli ish boʻlmasmikin, degan andisha bilan jurʼatsizroq javob qildi.

– Qandoq boʻlarkin. Pochchangiz koʻrib qolsalar...

– E, qoʻysangiz-chi bunaqa gaplarni. Yuring, yuring, oʻsha uzoq dostoningizni endi aytib berasiz.

Zebixon uning bilagidan ushlab oldinga boshladi. Qoʻllari biram yumshoq, biram issiq, Nizomjonning badani seskanib ketdi. Beixtiyor u yetaklagan tomonga qarab yura boshladi.

Ikkovi soʻzsiz ancha yoʻl bosishdi. Kuygan yalanglikdan oʻtib savagʻichzor orasiga kirishdi.

Nizomjon maxorka oʻrab gilzadan yasalgan zajigalkasini yoqayotgan edi, Zebixon qoʻlidan olib savagʻichga oʻt tutashtirdi.

Qurib qovjirab qolgan qiyochlar bir gurillab alangasi savagʻich uchidagi popukni oʻt oldirdi. Qiyochlar yonib boʻldi-yu, faqat uchidagi popuk xuddi sham tilidek ancha vaqtgacha lovillab turib qoldi.

G'ira-shira yorishib kelayotgan cho'l tongida bu alanga juda g'alati bo'lib ko'rinardi. Zebixon sho'xlik qilib u yoqdan-bu yoqqa yugurar, hali u, hali bu savag'ich to'piga o't tutashtirardi.

Nizomjon Zebixonning qo'lidan zajigalkani olmoqchi bo'lgan edi, u qochdi. Nizomjon quvdi. Qumga yetay deb qolganlarida uni ushlab oldi. Qiz hansirar, har hansiraganida tirsillagan ko'kraklari qalqib-qalqib tushardi. Nizomjonni bir dam ehtiros otashi o'rab olgandek bo'ldi. O'zini tutdi.

Zebixon bahor yomg'irlari chang, g'uborlarini yuvib, top-toza qilib qo'ygan qumga o'tirib oldi.

– Qani, endi ayting, o'sha uzoq dostoningizni.

Nizomjon qizning tepasida tik turardi. Qiz qanday doston to'g'risida gapirayotganini bilmasdi.

– Qanaqa doston? – dedi u ham o'tirarkan.

– Hu, tunov kuni, Ikromjon amakining jiyanimisiz, deganimda, yo'q, begonaman, dostonim uzoq, keyin aytib beraman, degandingiz. Qani, endi ayting.

Nizomjon nima deyishini bilmay ko'zlari javdirab, malla g'i-jim baxmaldek tovlanib yotgan qumlarga qaradi. Bu qiz uning unutgan kunlarini esiga solib qo'ygan edi. Nizomjon, u kunlarni sira eslamasam, derdi. Endi o'zi istamagan holda o'sha kunlar bilan yuzma-yuz kelib turibdi.

Boshidan o'tgan voqealarni Nizomjon bu qizga aytib bersamikin? Bu o'zi qanaqa qiz? Unga hammasini aytish shartmi? Axir, u boya, tol tagida qizishib ketib ko'ngliga tugilgan gaplarni yonib-o'rtanib gapirib berdi-ku. U Zirillamada Ikromjonga, Jannat xolaga aytib berganda boshqa gap edi. Ular bu notanish bolaning kimligini bilib qo'yishlari kerak edi. Bu qiz-chi? Bu unga kim bo'ladi?

Nizomjon qizga qaradi. Zebixonning ko'zlari o'tdek chaqnab unga tikilib turardi. Bu ko'zlarga Nizomjon tob berolmadi. Bu olov ko'zlar uni o'ziga tobe qilib qo'ygan edi.

Nizomjon hikoyani qovushtirolmay boshladi-yu, akasining to'y kuniga kelganda qizishib ketdi. Zebixon uning og'ziga tikilib, hayron qarab turardi. U ko'zlarini goh pirpiratar, goh peshanalarini tirishtirib tinglardi.

Bu dostoni uzoq yigitning gaplari yuragini o'rtardi. Ko'rim-sizgina, kichkinagina jussasiga shuncha alamlarni sig'dirolgan yigitning bardoshiga qoyil qolardi.

– Shunaqa gaplar, tuz-nasiba ekan, mana, sizlar bilan hamxona bo'lib qoldim, – deb hikoyasini tamom qildi Nizomjon.

Zebixon shoshib so‘radi:

– Bu gaplardan Dildorning xabari bormidi?

Nizomjonning ko‘zlari birdan chaq nab ketdi. U o‘zi bilan bo‘lib bu to‘g‘rida sira o‘ylab ko‘rmagan edi. Rost, bordi-yu, dadasining, opasining niyatlaridan Dildorning xabari bo‘lmasa, unda nima bo‘ladi? Nega u bilan gaplashmadi. U so‘nggi mar-ta qishloqni tashlab chiqib kelayotganda Dildor ko‘chada uning yo‘lini to‘sgan edi. Shunda u nima degandi?

Nizomjon o‘sha aytgan gaplarini eslamoqchi bo‘ldi. O‘yladi, o‘yladi, esladi.

– Boyqush! Xonadonimizga kulfat olib kelding, shumqadam!

O‘z gapini o‘zi eslab Nizomjon o‘rnidan turib ketdi. Ikki panjasi bilan yuzlarini changalladi.

– Men qanday noinsof, yuzsiz odamman! O‘z o‘tiga o‘zi yonib yotgan bir bechoraga nimalar deb keldim. Aytsam bo‘l-masmidi, sen akamning xotinisan, dadam endi menga olib ber-moqchi, shu gapdan xabaring bormi, deb so‘rasam bo‘lmasmidi? Yo o‘zi ham bilarmidi? Bilsa nega indamadi? Balki, shu gapni aytmoqchi bo‘lib yo‘limni to‘sganmikin?

Zebixon ham o‘rnidan turdi.

– Mayli, bo‘lar ish bo‘pti. Endi uni tuzatib bo‘lmaydi. Dil-dor bilmagan bo‘lsa, vaqti bilan bilib oladi.

Zebixon kalishiga kirgan qumni to‘kmoqchi bo‘lib oyog‘idan chiqarayotgan edi, birdan ko‘zi qumdagi oyoq iziga tushdi. Iz to‘qay tomondan chiqib qum oralab kuygan yergacha kelgan, yana orqaga qaytgan. Zebixon izning qaytgan yo‘liga tikildi. Iz juda ham uzoqqa bormay chap tomonga burilib to‘qayga kirib ketgan. Kim bo‘lishi mumkin?

Nizomjon Zebixonning nimaga qarayotganini bilmoqchi bo‘lib, u tikilib turgan tomonga qaradi.

– To‘qaydan birov chiqib yana qaytib kirib ketibdi. Iz yangi. Kechagi iz bo‘lganda shamol ko‘mib ketardi.

Nizomjon bunga parvo qilmadi. Birontasidir-da, deb qo‘ya qoldi. Darhaqiqat, Marg‘ilon ipak kombinatidan to‘ng‘iz ovla-gani velosipedda injenerlar bu taraflarga tez-tez kelib turishardi. O‘shalardan biri bo‘lsa kerak.

Orqaga qaytishdi. Zebixon endi Nizomjonning kimligi-ni yaxshi bilib oldi. Unga yuragining allaqayerida achinishmi, mehmi bir nima paydo bo‘lgan edi. Yo‘l-yo‘lakay u Nizomjon haqida, alam o‘tida qolgan Dildor haqida o‘ylab borardi.

Oftob allaqachon chiqib ikki tup tolning soyasini kuyib qop-qora bo'lib ketgan yeriga, oshxonaning chodiriga o'z nurini tashlagan edi.

Shodmon bobo bak tagiga o't qalayolmay, hadeb tutundan achishgan ko'zlarini ishqardi.

— Sabilning cho'g'i qolmabdi. Oh, urushdan avval selponing do'konida gugurt qalashib yotardi-ya.

Nizomjon zajigalkasini yoqib, tutayotgan tarasha tagiga tutdi. O't gurillab ketdi.

Chodirdan yelkasiga sochiq tashlagan kishilar chiqa boshlashdi.

Cho'lga jon kirgan edi.

VII

Aprelning boshlarida Jannat xola Naymanga arava orqasi-ga sigirini boylab ko'chini olib keldi. U endi ancha rang olib qolgan. Ammo u nihoyatda bezovta edi. Osh ustida ham, choy ustida ham parishon bir qiyofada o'tiradi.

Ikromjon bo'lsa ozib, cho'p bo'lib ketgan edi. Cho'l shamoli uning badanini habashdek qoraytirgan. Yuzlari xuddi saksovuldek burushib ketganga o'xshardi. U avvalgicha odamlar bilan ochilib gaplashmas, aytadigan gapni aytib bo'lgandan keyin, ketmonini yelkasiga tashlab to'qayga kirib ketar, ishi bo'lmasa chodirga kirib ketganicha ertalab chiqardi.

Nizomjon o'z ishi bilan, axloqi bilan ko'pchilikning og'ziga tushib qolgandi. Keksalar uni umringdan baraka top, deb duo qilishardi.

Faqat Ikromjongina indamasdi. Uning qilayotgan ishlarini ko'rib na yaxshi, na yomon derdi. Qarab-qarab o'tib ketaverardi.

Jannat xola kelishi bilan Ikromjonni chodirdan olib chiqdi. Bu chaqqon, tinib-tinchimas xotin cho'lga birdan fayz kiritib yuborgandek edi. Bu orada boshqalarning xotin, bola-chaqalari ko'chib chiqishdi. Bolalarning qiy-chuvi, xotinlarning baqirib-chaqirishlari bu jimjit to'qayzorga mahalla tusini berib qo'ydi.

Jannat xola kelgandan beri ularga chodir torlik qilib qoldi. Nizomjon qamish o'rib kelib o'ziga kapa qurib oldi-da, ko'rupa-to'shagini ko'tarib chiqib ketdi.

Uning kapasi o'zi ishlayotgan uchastkaga yaqin joyda edi. Ikromjon kelib kapaning u yoq-bu yog'idan qarab turdi-da, boshini chayqab qo'ydi.

– Chakki qilibsən. Mahalladan uzoq ketmasliging kerak edi, o'g'lim. Hali ham bo'lsa, palatkalar qatoriga kapa tik.

Nizomjon odamlarning, yolg'iz yotishdan qo'rqib ko'chib keldi, deyishlarini o'ylab indamay ishga chiqib ketaverdi.

U tinim bilmasdan ishlardi. Ketmon chopayotganda sira orqasiga qaramasdi. Agar orqaga qararasam, ag'dargan yerimni ko'rib ishlagim kelmay qoladi, deb o'ylandi-da, indamay ketmonni uraverardi. U shu alfozda bir o'zi uch yarim gektar yerni ug'darib qo'ygan edi.

Kun peshindan oqqan payt edi. Palatka tomondan sigir-buzoqlarning, qo'y-echkilarning ovozi eshitilib turardi. Bu tovushlar Nizomjonga qishlog'ini eslatgandek bo'ldi. Sekin burilib o'sha tarafga qaramoqchi bo'lib qaddini rostlayotganda, Zebixonning pochchasi o'g'lini opichlab kelayotganini ko'rdi.

Nizomjon kecha bolaga varrak qilib bergan, ikkovi uni rosa uchirishgan edi. Hali Nizomjon choy ichayotganda o'sha varrakning tolga ilinib qolganini ko'rib, obbo, boshqa yasab berish kerak, deb dilidan o'tkazgan edi.

To'lanboy uning oldiga kelib bolani yerga qo'ydi.

– E, jiyən, boshimni baloga qo'yding-ku. Varragi tolga ilinib qolgan ekan, ishlab turgan joyimdan dod deb olib ketdi. Qiztaloqni olaman deb yirtib qo'ysam bo'ladimi. Qoldim baloga, qoldim baloga. O'zing bir chorasini qilmasang, meni tinch qo'ymaydiganga o'xshaydi.

Bola dadasining qo'lidan mahkam ushlaganicha, hurpayib qovog'ini solib turardi.

– Shunga janjal qildingmi. O'zimga ayta qolmabsən-da! Hali borganimda boshqasini yasab beraman. Rosa uchiramiz. Bo'ptimi?

– Hozir yasab berasiz. Hozir, hozir!

– Ko'rdingmi? Poshsho mendan ham zo'r odam bormi, deganda, bitta chaqaloqni qo'lga berib qo'yib, shu sendan zo'r degan hikoyani eshitganmisan? Ha, bola – poshsho. Undan zo'ri olamjahonda bo'lmaydi.

To'lanboy Nizomjon ag'dargan yerga razm solib boshini sarak-sarak qilib qo'ydi.

– Endi yer ag'darishni bas qil, bola. Traktormisan, nima balo. Yer ag'darishning o'zi bilan ish bitmaydi. Bor ohanjamasi keyin chiqadi. Yozi bilan suv kechasan hali. Pol tortaver, bag'ini bir o'zing eplolmaysən.

To'lanboyning gapi to'g'ri edi. Nizomjon ikki qo'lini beliga tirab ag'darilgan yerga qarab, endi bas qilsam ham bo'lar ekan, degan fikrga keldi.

Hali past-balandlik, notekis joylar bor edi. Endi o'sha joylarga tuproq surilsa, pol tortish mumkin. Bola uni tuzukroq o'ylab ko'rishga qo'ymadi. Xiralik qilib etagidan tortavergandan keyin ketmonini marzaga uloqtirib, mahallaga qaytishga majbur bo'ldi.

Zebixon opasi bilan non yasayotgan edi. Nizomjonni ko'rib orqasiga yig'ilib qolgan etaklarini tortib o'rnidan turdi.

— Aytdim-ku, pochcha, ustasi shu kishi deb, — Zebixon shunday dedi-yu, Nizomjonga ma'noli kulib qo'ydi. — Bitta varrak yasab bering shunga!

— Xo'p, xo'p, — dedi Nizomjon.

U yonidan pichoqchasini chiqarib qamish tilishga tushdi. Bola yelib-yugurib u nima desa, shuni topib kelib turardi. Nizomjonning ham bolaligi tutib astoydil urinib ketgan edi. To'lanboy tepasida varrakning bitishiga qarab turardi. Bola sevinganidan Nizomjonning ko'nglini olish uchun tinmay javrardi.

— Mushugimni ham olib kelaman desam, ayam qo'limga bir urganlar. Ismoilning ayasi tug'di. Jannat xolamlarnikiga o'ris xotin ko'chib keldi. O'g'li ja o'rischaga usta ekan.

To'lanboy o'g'lining gaplariga zavq bilan kulib turardi. Bola juda ham sirli gap aytmoqchidek Nizomjonning qulog'iga og'zini tutdi.

— Jannat xolamning o'g'li qochoq, a?

Bolaning gapi og'zida qoldi. To'lanboy uning bir qulog'ini ikki buklab cho'zib qo'yib yubordi. Bola ko'z yoshini yutib dasiga qaradi.

— He, sizga men nima qildim?

— Ovozingni o'chir, yaramas!

Bola qizarib ketgan qulog'ini ushlab, burnini torta-torta o'rnidan turdi.

— Ikkinchi qayta shu gapni aytsang, qulog'ingning tagidan shartta uzib tashlayman. Aytmayman, de!

— Aytmayman.

Shundan keyin To'lanboy jahl bilan tishining orasidan chir-tillatib tuflab nari ketdi. Ikki lunjini shishirib pixillab turgan bolaga qarab Nizomjonning rahmi keldi.

— Unaqa gapni aytmagin-da.

— Nima, o'zi qochoq bo'lgandan keyin aytaman-da. Hamma o'rtoqlarim aytishadi-ku. Azizxon akam geroy, Tursunboy qochoq.

– Bo‘ldi, bo‘ldi, – dedi Nizomjon. – Agar yana aysang varrakni bitkazmayoq yirtib tashlayman. Agar endi hech shunaqa demayman, desang, har kuni varrak yasab beraveraman.

– Bo‘pti.

Varrak bitdi. Bola chillakka o‘ralgan ming uloq ipni shimini cho‘ntagidan olib varrakning qovog‘iga uladi.

– Bitta gapirsam maylimi? Bitta gapiray, boshqa gapirmayman.

Nizomjon u nima demoqchiligini bilmay, mayli, ayta qol, dedi.

– Zebi opamchi, Zebi opam, endi Tursunboy akaga tegmaydilar. Ayamga aytayotganlarida eshitib qoldim. Nimaga tegmaydilar?

Nizomjonning hushi boshidan uchib ketdi. Demak, Zebixonni Tursunboyga bo‘lishib qo‘yishgan ekan-da.

Bola varrakni olib ketgan, tolning nari yog‘iga borib uchirayotgan edi. Ikromjon chodir oldida varrakning lapanglab havoga ko‘tarilayotganini kuzatib turardi. Nizomjon unga yer ostidan qarab yuragi jiz etib ketdi. Bechora! Hatto yosh bola ham unga ta‘na qilyapti. Zebixon ham undan yuz o‘g‘irgan. U kelin bo‘lmoqchi edi. Endi Ikromjonning o‘g‘li ham, kelini ham yo‘q. Uning yuragi bo‘shab qolgan. Kim biladi, u hozir bolaning varrak uchirishiga qarab turib nimalarni o‘ylab ketdi ekan?

Jannat xola sigir yetaklab oldidan o‘tib ketdi. Shabada Nizomjonning dimog‘iga g‘alati hid olib keldi. Issiq non hidi kelardi. Beixtiyor o‘sha yoqqa qaradi. Zebixon etagini lippa urib, tandirdan non uzib savatga tashlardi. Tandir alangasidan uning yuzlari bo‘rtib ketibdi. Tirsagigacha yengini shimarib olganidan oppoq bilaklari ko‘rinib turardi. U qo‘liga yenglik kiyib olganidan oldiga tushib qolgan sochini silkitib orqasiga tashlayolmay u yoq-bu yoqqa alanglardi. Birdan ko‘zi Nizomjonga tushib qoldi-yu, iljaydi.

– Baraka topgur, sochimni orqaga tashlab qo‘ying!

Nizomjon juda ham tabarruk odam ish buyurayotgandek yugurib bordi. Bir o‘rim sochni emas, to‘lg‘anib turgan ilonni ushlayotgandek ehtiyotlik bilan ushladi-da, asta yelkasidan oshirib orqasiga tashlab qo‘ydi. Shunda uning dimog‘iga qizning bo‘ynidan juda ham g‘alati, odamni mast qiladigan bir hid kelgandek bo‘ldi. Nizomjon bu hidga to‘ymay qolganidan shoshib yana uning orqa bo‘yniga qaradi. Biram g‘alati, biram g‘alati...

Zebixon nonlarni uzib tandirga g‘o‘zapoya tashladi-da, Nizomjonga kulib qaradi.

– Qani, nonga qarang.

– Nima?

Nizomjon hali ham o‘ziga kelmagan edi.

– Nondan ushatib yeng, deyaрман.

Nizomjon savatdan orqasi kuygan kulchani olib bir chekka-sidan ushatdi-da, og‘ziga soldi.

– Novvoylikka ham usta ekansiz. Juda maza bo‘pti.

To‘lanboy qumg‘onda suv keltirib tandir og‘ziga qo‘yib ketdi. U bularning gapiga ham, holatiga ham razm solmadi. Nizomjon xijolat chekib turgan edi, To‘lanboyning beparvoligidan ko‘ngli joyiga tushib Zebixonning oldidan nari ketdi. U kapasiga ketmoqchi bo‘lib turganda, to‘qay tarafga sigir yetaklab ketayotgan Jannat xolaga ko‘zi tushib qoldi.

Bemahalda to‘qayga sigir oborib nima qiladi? Kech kirib qoldi-ku?

U Jannat xolaning ketidan bormoqchi bo‘lib turgan edi, motor gurillaganini eshitib to‘xtadi. Kelganidan beri bu taraflarda birinchi marta mashina ovozi eshutilishi edi. Bu tovushdan boshqalar ham yo‘lga qarab turishardi.

Qamishlar orasidan yuk mashinasi ko‘rindi. U lapanglab-lapanglab tol tagiga kelib to‘xtadi.

Mashina kuzovida o‘n choqli xotin, yosh bolalar va uchta sigir bor edi. Kabinadan Tog‘a tushdi. Kuzovdagilar birin-ketin o‘zlarini tappa-tappa yerga tashlayverishdi. Nizomjon Tog‘adan boshqasini tanimaganidan uzoqdan qarab turaverdi.

Ikromjon Tog‘a bilan ko‘rishib, uni so‘riga boshladi.

– Ishlar qalay? – dedi Tog‘a so‘riga o‘tirarkan.

– Mana, yo‘lni ham ochib oldik. Biron haftadan keyin traktor yuboraman. Gospital shu tarafga yordamchi xo‘jalik qilmoqchi. Har hafta o‘zlarining mashinalari bilan hasharga chiqib turishadi. Qovun-tarvuz ekishmoqchi.

Ikromjon qilingan ishlarni gapirib berayotgan edi, Tog‘a o‘rnidan turib, gapirib nima qilasan, ko‘rsatib qo‘ya qolmaysanmi, deb qoldi.

Ikkovi shudgor qilingan yerga qarab ketishayotganda Tog‘aning ko‘zi Nizomjonga tushib qoldi.

– Yaxshi yuribsanmi, bola? Seni qiynab qo‘yishgani yo‘qmi? – deb so‘radi.

Nizomjon nima deyishini bilmay turgan edi, Ikromjon javob qildi.

– Yigitcha malades, yaxshi ishlayapti. Qani yur, yeringni Tog‘aga ko‘rsatasan.

Nizomjon ularning orqasidan yura boshladi. Tog‘a, ham-mayoqni aylanib ishdan ancha mamnun ekanligini aytdi. Nizomjonning kapasi oldiga kelganda Ikromjon Tog‘aning bilagidan ushlab to‘xtatdi.

– Mana, shu yerlarning hammasini Nizomjon ag‘dardi.

Tog‘a shudgorga qarab, yo‘g‘-e, deb yubordi.

– Rost. Kechasi ham bizga bildirmay yer chopyapti, azamat.

Tog‘a Nizomjonning yelkasiga qoqib qo‘ydi:

– Rahmat, jiyan, rahmat. Frontchasiga ish qipsan.

Tog‘a Nizomjonning dilidagini topib gapirgan edi.

U cho‘lga kelib qo‘liga ketmon olgan kunidan boshlab shu niyat bilan, frontchasiga ishlash niyati bilan yonardi. Demak, Nizomjon o‘ylagan ishining uddasidan chiqyapti.

Tog‘a uning bo‘ynidan quchoqlab oldi-da, yelkasidan bir-ikki silkib qo‘ydi. Nizomjon gandiraklamadi. Oyog‘i joyidan qo‘zg‘almadi.

– Ha, durust, – dedi Tog‘a. – Sendan ish chiqadi. Bo‘shashma, bola.

Ular yana juft tol tarafga keta boshlashdi.

Shu payt Jannat xola to‘qaydan sigir yetaklab chiqib kela boshladi. To u yetib kelguncha Nizomjon kutib turdi. Darrov qo‘lidan arqonni oldi.

Jannat xolaning ko‘zlari qizargan. Yig‘laganga o‘xshaydi. Uning yuzlarida ertalabki kulgidan nishon qolmagandi. Qaddi ham bukilib qolgandek.

Nizomjon, nima bo‘ldi ekan, xoliroq joy topib yig‘lab-yig‘lab alamini bosib kelayotganmikin, deb o‘yladi.

Ammo ertasiga tushlikdan keyin yana o‘sha tarafga qarab qo‘lida tuguncha bilan xuddi odamlardan yashiringandek alanglab ketayotganini ko‘rib hayron bo‘lib qoldi. Qayoqqa boradi? To‘qayda nima qiladi?

Bu savolga Nizomjon javob topolmasdi.

VIII

Tog‘a shu kecha Naymanda qoldi.

Kechasi Ikromjonning radiosini o‘rtaga qo‘yib alla-pallagacha eshitib o‘tirishdi. So‘nggi axborotdan keyin Ikromjon, bo‘ldi, batareyasi tugab qoladi, deb olib qo‘yayotgan edi, Tog‘a yana burab qo‘ydi.

– Eshitaylik-da, muncha mumsik bo‘lmasang. Batareyasidan tashvish qilma, gospitaldagi askar bolalarda serob. Qancha kerak bo‘lsa toptirib beraman.

Shundan keyin Ikromjon indayolmay qoldi. Bu yerdagilar ko‘pdan beri konsert eshitishmagan edi.

Nizomjon saharlab ishga chiqib ketishi kerak. Shuning uchun ham hammadan vaqtli yotib olardi. Konsertni tashlab ketgisi kelmay o‘tirib qoldi.

Hofizlar Navoiy g‘azallaridan o‘qishardi. Bu qo‘shiqlar o‘tirganlarning xayolini allaqayoqlarga olib ketib qoldi. Ayniqsa, Tog‘a chordana qurib olib chodirning shiftiga tikilganicha qimirlamasdi.

Bu ashulalar qanchalik ta‘sirli bo‘lmasin, Nizomjon konsertning oxirigacha o‘tirolmadi. Tashqariga chiqib tol shoxiga qator ilib qo‘yilgan fonarlardan birini oldi-da, o‘choq tagida lipillab turgan o‘tga qamish tutib yondirdi, fonarni yoqdi.

Bu yerda har kuni ertalab chodirdagi fonarlarni olib chiqib tol shoxiga ilib qo‘yish odat tusiga kirib qolgan edi. Bir chol ularga lampamoy quyib, piligini qirqib tayyorlab qo‘yardi. Nizomjon fonarni ko‘tarib ketayotganda To‘lanboyning chodiri oldida Zebixon bilan opasining shivirlashib gaplashib o‘tirganlarini ko‘rib qoldi.

– Ha, inim, – dedi Zebixonning opasi, – uxlagani ketyapsizmi? Vohli-ku? Chaylani juda chetga quribsiz. Qo‘rqmaysizmi?

Nizomjon to‘xtashga to‘xtadi-yu, nima deyishini bilmay turib qoldi. Bu xotinning mehribonchiligidan kechagi gapni albatta, unga Zebixon aytib bergan bo‘lsa kerak, deb o‘yladi. Nizomjon u bilan sira gaplashmagan, qanaqa xotin ekanligini yaxshi bilmasdi. To u bir nima deb javob berguncha xotin unga choy uzatib qoldi.

– O‘tiring, To‘lanboy akangiz hali-beri chodirdan chiqmaydilar. Tog‘a bilan gaplashib o‘tiribdilar.

Nizomjon u ko‘rsatgan ko‘rpacha chetiga emas, ajriqqa o‘tirdi.

– Zebi aytdi, boshingizga tushgan kunlarning barini eshitdim. Endi nima qilmoqchisiz?

Nizomjon yalt etib Zebixonga qaradi. U, men opamdan hech gapni yashirmayman, degandek unga dadil qarab turardi. Xotin yana so‘radi:

– Endi dadangizning oldiga qaytib bormaysizmi?

– Bu to‘g‘rida o‘ylab ko‘rganim yo‘q. Har holda, bormasam kerak. Yuragim betlamaydi. Borsam, albatta, yana ko‘nglimni

buzadigan biron gap aytadi. Endi nima qilmoqchisan, dedingiz. Nima qilmoqchiligimni ko'rmayapsizmi. Shu yerda qolaman. Sizlar nima bo'lsangiz, men ham shu. Endi bu yerdan hech qayoqqa ketmayman. Butunlay qolib ketaman.

Nizomjon shunday dedi-yu, bo'shagan piyolani unga uzatib o'rnidan turdi.

Chodir ichida bola ijirg'alandi, xotin shoshib kirib ketdi. Zebixon Nizomjon orqasidan sekin dedi:

– Shoshmang, men ham o'shaqqa boraman.

Ikkovi sekin-sekin yurib Nizomjonning uzoqda qorayib turgan chaylasiga qarab keta boshlashdi. Hali oy chiqmaganidan cho'l qorong'i edi. Ayniqsa, Nizomjon qo'liga fonar ushlab olganidan oyoq ostini ko'rardi-yu, sal nariroqni ko'rolmasdi.

– Sizdan bitta gapni so'ramoqchi edim.

Zebixonning ovozi negadir titragandek tuyuldi.

Nizomjon unga tashvishli qaradi.

– Jannat xola sizga hech narsa demadilarmi?

Nizomjon hayron bo'ldi. Yelkasini qisib bosh chayqadi.

– Bir nima deyishlari kerakmidi?

– Bilmadim. Har holda, men to'g'rimda biron gap aytmadilarmi deyapman-da!

Yana ancha joygacha jim ketishdi. Birdan Nizomjonning yodiga ertalab uning jiyaniga varrak qilib berayotganda eshitgan gapi keldi. O'shanda bola, Zebi opam Tursunboy akaga tegmaydilar, ayamga shunaqa deganlarini eshitdim, degan edi. Hozir Zebixon undan shu gapga Jannat xola nima degan ekanini bilmoqchi bo'lib so'rayotgan bo'lsa kerak.

Chaylaga yetib kelishdi. Nizomjon Zebixonga tikilib turib, uning qop-qora qoshlariga, quyib qo'ygandek kelishimli qomatiga mahliyo bo'lib qoldi. Qizning gavdasini fonar g'ira-shira yoritib turardi. Qorong'i cho'l fonida u xuddi ertaklarda tasvirlangan allaqanday farishtalarga o'xshab ko'rinardi. Nizomjon o'zini tutolmadi. Ko'ngliga kelgan gapni aytib yubordi:

– Jannat xolaning nima deganini bilmoqchimidingiz? Siz Tursunboyini sevardingiz. Ammo Tursunboy...

Zebixonning ko'zlari chaq nab ketdi.

– Siz bu gapni qayoqdan bildingiz?

– Bitta men emas, hatto mushtdek keladigan jiyaningiz ham biladi. Hamma bilib ketgan. Men o'zimning kimligimni sizga o'zim aytib berdim. Ammo siz o'zingizning kimligingizni aytib bermadingiz. O'zim bilib oldim.

– Bilishingiz shunaqa zarurmidi? – dedi Zebixon uning ko‘zlariga tikilib.

Nizomjon yana yelka qisib qo‘ydi.

– Bola bo‘lib birovlarining taqdiriga qiziqmagan edim. Bilmadim, o‘lay agar, nima uchun sizning kimligingizga qiziqib qolganimni o‘zim ham bilmayman.

Nizomjon bir oz o‘ylab turib yana dedi:

– Meni kechiring, endi qiziqmayman. Iloji bo‘lsa, ko‘zingizga ko‘rinmaslikka harakat qilaman. O‘zim shunaqa omadi kelmagan bola ekanman. Hech ishim yurishmaydi. Agar xafa bo‘lmasangiz, aytib qo‘yay. Endi bir-birimizdan uzoqroq yuraylik. Oramizda hech gap yo‘q. Bekorga gap-so‘z bo‘lib yurmaylik.

Uning gaplari Zebixonni tamomila hayron qilib qo‘ygan edi.

– Ochiqroq ayting, sizga nima bo‘ldi? Nimalar deyapsiz? Tushunmayapman!

Ko‘ngliga kelgan gapni ochiq aytishga Nizomjonning sira tili bormasdi. Ochig‘ini aytsa, albatta, qiz ranjiydi. Kim biladi, balki, ranjimas. Axir haqiqatan ham ularning oralarida tirnoqcha ham gap o‘tmagan. Hatto tuzukkina to‘g‘ri gapni ham gapirishmagan-ku.

– Xafa bo‘lmaysizmi? Xafa bo‘lmasangiz, aytaman.

Qiz hayron qarab turardi.

– Ikromjon aka bilan Jannat xola menga boshpana berishdi. Hech kim qilmagan yaxshiliklar qilishdi. Shu odamlarning dilini og‘ritmasam, deyman.

– Ularni xafa qiladigan biron ish qilib qo‘ydingizmi?

– Hozircha yo‘q. Keling, ochig‘ini aytib qo‘ya qolay. Sizingning Tursunboyga bo‘lishib qo‘yilganingizni shu bugun eshitdim. – Nizomjon gapirishga qiynalib tez-tez yutinib olardi. – Bu xil-da boshlashib yurishimizni Ikromjon amaki bilan Jannat xola bilib qolishsa, mendan ranjishadi. Axir, ular sizni kelin qilishmoqchi ekan-ku!

Zebixon o‘ylamay javob qildi:

– E-ha, hali shunaqamidi? Siz meni o‘ylagan bo‘lsangiz, men sizni xayolimga ham keltirmagandim.

Zebixonning yolg‘on gapirayotgani ko‘zidan bilinib turardi. Bu gap Nizomjonni dadillantirdi.

– Bu gap yaxshi bo‘ldi. Shu gapdan keyin, albatta, sizni o‘ylamayman. Rahmat.

Zebixon o‘ylamay aytib qo‘ygan gapini to‘g‘rilash uchun boshqa gap qidirardi. Uning qoshlari chimirildi. Peshanasida tungunchak paydo bo‘ldi.

– Biroq chumchuqdan qo‘rqan tariq ekmaydi, shu gapni eshitganmisiz?

– Eshitganman, – dedi Nizomjon. – Ikromjon aka chumchuq emas-da.

– Albatta, Ikromjon amaki chumchuq emas, ammo Tursunboy chumchuq. Chumchuq ham undan xijolat bo‘ladi.

– Sut ichib og‘zimiz kuygan, endi qatiqni ham puflab ichmoqchimiz-da, – dedi Nizomjon. U bu gapi bilan Dildorga ilakishib zada bo‘lganini aytmoqchi edi. Buni Zebixon u o‘ylagandan ham ziyod tushungan edi. Kinoyali qilib javob berdi:

– O‘sha Dildoringiz qaynoq sut-u, biz achigan qatiq ekanmiz-da.

– Yo‘q, yo‘q, – dedi Nizomjon shoshib. – Men butunlay boshqa gap aytmoqchi edim. Bu bir maqol-da. O‘zimni aytyapman.

Zebixonning qizlik g‘ururi baland keldi. Ayollar hech qachon o‘zlarini pastga urishmaydi. Hammavaqt balandda turishni istashadi. Nizomjonning gaplari uning g‘ururiga tekkanga o‘xshaydi. Ayollarga qancha suykalsang, shuncha yoqmaysan. Qancha o‘zingni olib qochsang, unga shuncha sirli tuyulasan. Zebixon bu bir so‘zli yigitning qat‘iyatini, g‘ururini sindirmoqchi, uni o‘z orqasidan soyadek ergashtirib yurib tomosha qilmoqchi bo‘ldi.

Bu ish uning qo‘lidan kelardi.

U shu niyat bilan birinchi qadamni bosdi. Cho‘l shamoli esib qamishzorlarda uvladi, qiz sochlarini to‘zg‘itdi, buydalab ko‘zlarini, qoshlarini berkitib tashladi. Qiz bir chiroyli burilib Nizomjondan nari ketdi.

Qashqar tovoqdek bo‘lib oy ko‘tarilib kelardi. Oy xuddi Zebixonning yelkasiga qo‘nib turib qolgandek edi.

Uning gavdasi oppoq chodirga tushgan soyadek ko‘rinardi.

Qirra burni, bo‘rtib turgan ko‘kraklari, nimcha siqib turgan bellari Nizomjonni mahliyo qilib qo‘ygan edi.

Zebixon shu tariqa o‘zini olisroqdan bir muddat namoyish qilib turgandan keyin gavdasini g‘alatiroq egib keskin burildi-da, shamoldek yelib chodirlar tomonga qarab ketdi.

Nizomjon tushida ko‘rib, o‘ngida hayron qolgandek gangib turardi.

U kapaga kirib o‘rniga cho‘zildi-da, qo‘lini uzatib fonar pigini pasaytirdi. Shabada kapa qamishlarini shitirlatadi. Allaqayda bo‘ri uliydi. Chodir tarafdin odamlarning shov-shuvi arang eshitiladi. Faqat qurbaqalarning tinimsiz vaqillashigina cho‘lga hokimlik qiladi.

Nizomjon dam u yonboshiga, dam bu yonboshiga ag'darilib bedor yotardi. Ko'ziga hadeb Zebixon ko'rinaverdi. U, nima qilardim shu gapni aytib, deb o'zini-o'zi koyidi. Nizomjon yotib yotolmadi, uxlab uxlolmadi. Oxiri o'rnidan turib boshqatdan kiyindi-da, ketmonini yelkasiga tashlab shudgorga qarab ketdi.

U ag'darilgan yerning past-balandini kuzatib chiqqandan keyin, do'nglikdan tuproqni pastga qarab sura boshladi.

Kecha ancha salqin edi. Avvalgi uyqu karaxtligidan, salqinda ishga qovushmaganidan ketmoni urgan yeriga borib tushmayotgan edi. Yarim soatcha shu ko'yi ishlagandan keyin, badani qizib terladi. Ustidagi fufaykasini marzaga uloqtirib astoydil ishga berilib ketdi. U ishlarkan, hech narsani o'ylamasdi. U Zebixonni ham, Ikromjonni ham, bundan uch soatlarcha oldin Zebixon bilan bo'lgan gaplarni ham unutgan. Tong otishiga yaqin uch yarim sotixcha joyning past-balandini tekislab bo'lgandi.

Asta-asta ufq oqarib kela boshladi. Nizomjon ketmon dastasiga tirsagini qo'yib onda-sonda suzib yurgan ukpardek yengil bulutlarni tomosha qilayotganda nimadir shitirlagandek bo'ldi. Orqasiga o'girilib qaragan edi, Jannat xolaning to'qay tarafga jadal yurib ketayotganini ko'rib qoldi.

El uyquda. Bu xotin tong qorong'isida to'qayda nima qiladi? Nizomjon beixtiyor:

– Ho, xola! – deb qichqirganini o'zi ham bilmay qoldi.

Jannat xola orqasiga o'girildi. U yoq-bu yoqqa qarab hech kimni ko'rmagandan keyin shoshib qamishlar orasiga kirib ketdi.

Nizomjon hayron bo'ldi. Orqasidan bormoqchi bo'lib bir-ikki qadam yurdi ham. Keyin negadir to'xtadi. Uni kutib turishga jazm qildi. Chaylasining oldiga kelib yerga bir bog'lam qamishni yozib yonboshladi. Sekin-sekin tong yorishishini kuzatib yotaverdi. Ko'zi ilingan ekan, Ikromjonning ovozidan uyg'onib ketdi.

Ko'zini ochganda Ikromjon tepasida turardi.

– Nima qilib yotibsang? O'ringda yotsang bo'lmaydimi?

Nizomjon ko'zlarini ishqab o'rnidan turdi.

– Qishloqqa tushib ketyapman. Bugun kechqurun partiya majlisi bor. Tog'a bilan mashinada ketaman. Ustarani olganmiding? Olgan bo'lsang ber, soqolimni qirib olay. Shu ahvolda qishloqqa qanday tushaman.

Nizomjon ustarani olmaganini aytdi.

– Kim oldi? Ertalabdan beri qidiraman. Hech qayda yo'q.

Nizomjon atrofga qaramagan ekan. Kun yoyilib ketibdi. Nonushta qilgani Ikromjonning orqasidan yurib chodirga keldi. Jannat xola o'choq oldida bolta bilan o'tin maydalab o'tirgan ekan. Nizomjon uning oldiga keldi.

– Azonlab to'qayda nima qilib yurgan edingiz, xola?

Jannat xola qo'rqib ketdi. Bu gapni birov eshitmadimikin, degan shubha bilan atrofga alanglab oldi.

– O'tin terгани borgandim. O'sha tarafda ildiz ko'p. Ildiz saksovuldan ham og'ir yonadi, bolam. Bor, choyingni ichib ol. Bitta o'zing qolding.

Haqiqatdan ham Jannat xola ildizlarni to'nkaga qo'yib maydalayotgan edi. Tog'a mashinaga chiqib oldi hamki, Ikromjon chodir ichida ustarasini qidirib, o'zidan-o'zi g'o'ldirab yurardi. Tog'a mashina signalini bosdi.

– Chiqa qolsang-chi, seni qishloqda birov kuyov qilarmidi, yuraver, guzarda qirtishlab olasan.

Ikromjon noiloj chodirdan chiqib mashina oldiga keldi. Xotiniga qarab to'xtadi.

– Qishloqqa tushaman degan eding, yurmaysanmi!

Jannat xola unga qaramay javob berdi:

– Ketavering, qishloqda men nima qilaman.

U negadir erining ko'ziga qarayolmasdi. Qumlik tarafdin ikki otliq kelardi. Tog'a qo'lini peshanasiga soyabon qilib qarab turdi-da, gup etib o'zini yerga otdi.

– Marshallar kelishyapti, – dedi u Ikromjonning oldiga kelib. Ikromjon ham otliqlar kelayotgan tomonga qaradi. Keyin ikkovlashib qumlikka tomon keta boshlashdi.

Tog'a, marshallar kelishyapti, deganida Nizomjon hayron bo'lgan edi. Shuning uchun ham otliqlar to yetib kelishguncha ko'zini uzmay qarab turdi.

Otliqlarning biri, boshiga qirg'izcha qalpoq kiyib olgan, yaktagining ochiq yoqasidan ko'krak yollari chiqib turgan ellik besh yoshlardagi yag'rindor, boshqasi, yoshi nechadaligini bilib bo'lmaydigan pakana, ko'k ko'z kishi edi.

Ularning har ikkovi ham otdan tushib, avval Tog'a bilan, keyin Ikromjon bilan qo'l olib ko'rishishdi. Ular tik turishganicha ancha vaqtgacha nimanidir qizishib gaplashishdi. Tog'a yon soatini olib qaradi. Pakana kishi qo'lini ikki tomonga yozib yelkasini qisdi. Ular oldiga borolmay chodir yonida qarab turgan To'lanboyni Tog'a imlab chaqirdi.

To'lanboy ikkala otni jilovidan ushlab tolning nariyog'iga olib o'tib ketdi.

Tog'a mehmonlarni so'riga olib kelib o'tirishga taklif qildi. Birdan ko'zi Nizomjonga tushib:

— Ana shu yigit-da! — dedi.

Mehmonlar Nizomjonga qarab olishdi. To'lanboy ham qaytib keldi.

— To'lan, — dedi Tog'a. — Marshallarga o'zing qarab tursan. Ertalab yetib kelaman. Qolgan gapni bafurja gaplashamiz. Qani, Ikrom, bo'lmasa biz ketdik.

U mehmonlarga uzr aytgandek, qo'lini ko'ksiga qo'yib jilmaydi.

Nizomjon nima uchun Tog'a uni mehmonlarga ko'rsatdi, nima uchun bu oddiygina kishilarni marshal dedi, tushunolmasdi. Zebixon patnisda non, turshak opchiqib, ular oldiga qo'ydi. Opasi o'choqqa o't qalab yubordi.

Tog'a bilan Ikromjon xotirjam bo'lib jo'nab ketishdi.

Mehmonlar kechgacha cho'l kezishdi. Piyoda qumlik tarafga ketishganicha kechqurun qaytib kelishdi. Soqoli o'sib ketgani qattiq charchabdi. So'riga chalqancha yotdi-yu, traktorga o'xshab tarillab xurrak ota boshladi. Uni ovqat pishganda To'lanboy uyg'otdi.

Nizomjon ularning suhbatiga xalal bermaslik uchun vaqtlikkina chaylasiga qarab ketdi. Charchaganidan yotdi-yu, uxlab qoldi. Ertalab uyg'onsa, Tog'a bilan Ikromjon ikkala mehmonga chopilgan yerlarni ko'rsatib yurishipti. Qirg'izcha qalpoq kiygani qamchi dastasini ag'darilgan yerga suqib ko'rdi. Pakanasi tuproqni qisimlab uqalab Tog'aga nimalardir deb to'qay va qumlikni ko'rsatdi.

Nizomjonning chaylasi oldiga kelib Tog'a yonidan buklangan qog'ozni olib yerga yozdi. Hammalari cho'kkalashdi. Bu Yozyovon kartasi ekan. Qalpoqli kishi karta ustidan qamchi dastasi bilan doira yasab bir nima dedi. Tog'a iyagini qashib o'ylanib qoldi. Oxiri:

— Xo'p, xo'p, marshal. Shunday qilamiz, — dedi.

Nizomjon ularning gaplariga quloq solib turardi.

Pakana kishi ikki qo'li bilan go'yo cho'lni qamrab olmoqchidek harakat qildi.

— Olti kundan beri cho'l kezamiz. Bu yoqdan Oltiariq, Quva, Toshloq, u yoqdan Buvayda, Rishton, Bag'dod kolxozlari bir ming gektar yerni o'zlashtirib bo'lishdi. Biron oydan keyin

sizlarga navbat keladi. Neftpromdan kelib artezian qazib berishadi. Semun zavodida uch yuzta shiferingiz bor. Shtabdan borib naryad olinglar. Yana nima zarur bo'lsa, ro'yxat qilib yuboringlar. Hammasini to'g'rilaymiz.

U gapidan to'xtab Nizomjonga qaradi.

— Shu yaxshi emas-da. Tog'a, sen ziyrak odam eding-ku! Shundoq yaxshi ishlayotgan odamning kiyim-boshini qara. Ro'yxatga etik ham yoz. Beramiz.

Nizomjon shu turqi-tarovati bilan mehmonlar oldida turganidan, Tog'ani xijolat qilib qo'yanidan o'ng'aysizlanib yerga qaradi. Tog'a kartani yana taxlab, yoniga solib qo'ydi.

Ular ketishayotganida pakana bo'yli kishi Nizomjonning oldiga kelib yelkasiga qoqib qo'ydi.

— Shunaqa bo'lish kerak, uka. Rahmat, rahmat!

Nizomjon nima deganini bilmaydi. To ular tol tagiga borishguncha joyidan qimirlamay turaverdi. Ikki mehmon yana otga minib qumlikka qarab ketishdi.

Ular ko'zdan yo'q bo'lib ketishguncha Tog'a orqadan qarab turdi-da, kerosin olib kelgan gruzovoyga chiqib qishloq tarafga ketdi. Ikromjon so'riga o'tirib yog'och oyog'ini yecha boshladi. Nizomjon yoniga keldi.

— Bular kim, amaki?

— Ularmi? Ular cho'l marshallari. Oxunboboyev ota ularni ana shunday deb atagan. Biri Yozyovonni o'zlashtirish shtabining boshlig'i. Biri jamiki quriladigan imoratlarga boshliq. Bildingmi? Ular ko'pni ko'rgan, kanal qaziganimizda hammani qoyil qoldirgan kishilar. Shunaqa, bolam. Omon polvon deganni eshitganmisan? To'pponcha polvonni-chi?

Nizomjon nima deyishini bilmay:

— Ikkalasining ham mingan oti yaxshi ekan. Sirkdagi otlarga o'xshaydi-ya! — deb yubordi.

Ikromjon uning gaplaridan huzur qilib kuldi.

IX

Jannat xola endi cho'ldan bir qadam ham boshqa yoqqa jila olmasdi. Uning yuragi shu cho'lda. To'qayga pinhoni qatnab yurishiga, chodirdan ustara yo'qolishiga sabab bor edi.

Tursunboy shu to'qayda. Uning qamishlar orasida yashirinib yurishini Jannat xoladan boshqa hech kim bilmasdi.

Kecha Jannat xola o'g'lining oldiga borganda soqoli o'sib ketganini, sochlari quloqlaridan osilib vahshiy qiyofasiga kirib qolganini ko'rgan edi. Shuning uchun ham u erining ustarasini oborib bergandi.

Ikromjon qishloqqa ketdi. Endi tushlik paytida ham o'g'liga ovqat olib borsa bo'ladi.

Hamma shudgorga chiqib ketgan. Chodirlar oldida hech kim yo'q. Jannat xola shoshib un chalib quymoq soldi-da, boltani qo'liga olib to'qayga qarab ketdi.

Tursunboy qamish kapa oldida tizzasini quchoqlab darvish qiyofasida o'tirardi. U turgan joyiga odam qadami yetmagan edi. U ko'pdan beri birov bilan gaplashmagan, dunyoda nimalar bo'layotganidan bexabar edi. Sovun tegmagan betlari kir, ham ko'rpa, ham to'shak o'rnini bosgan to'ninging yenglari titilib, etaklari balchiqqa belanganidan dog' bosib ketgandi. Uning bir vaqtlar qizlarni shaydo qilgan qop-qora ko'zlari endi ma'yus, atrofga ma'nosiz boqardi.

Kecha sahar paytida osmoni falakda turna o'tdi. Tursunboy o'shanda ham uyg'oq edi. Turna ovozi unga juda ko'p narsalarni eslatib ketgan edi.

Turna qanotida bu cho'llarga bahor olib keldi-yu, ammo Tursunboyning qalbida uyilib, muz bitib yotgan qorni eritolmadi. Unga bahor kelmadi.

U har kuni to'qay kezib qamishlar orasidan ishlayotgan hamqishloqlarini ko'rib o'tiradi. Ularning bari tanish odamlar. Faqat bittasi begona. Bu yigit kim bo'ldi ekan?

Ikki kun bo'ldi, Tursunboy Zebini shu yigit bilan ko'rdi. Qum yoqasida u bilan ancha gaplashib o'tirdi.

Tursunboy Zebining ovozini ham eshitdi. Eshitdi-yu, o'zi ovoz chiqazolmadi. Agar yolg'iz uchratolsa edi, albatta, ovqat keltirishni yalinib so'rardi. Yo'q, yolg'iz uchratolmayapti. U kimdandir moxovlar yashaydigan orol haqida eshitgandi. Moxovlar oroliga hech kim kiritilmaydi, hech kim u yerdan chiqarilmaydi. Nahotki, Tursunboy ham o'sha moxovlardek tanho yashasa?

Uning qamish chaylasi oldidan o'rdaklar uchadi, yaqinginasidan to'ng'izlar o'tadi. U bu joyda xuddi o'shalardek yashirib yashashga, odamlar ko'ziga ko'rinmay yashashga majbur.

U qachongacha shu xil yashashini bilmasdi. Bu to'g'rida o'zidan so'ramasdi ham. Mabodo, shunaqa xayol boshiga kelsa, o'zidan-o'zi qo'rqib ketardi. U nimanidir kutardi. Nimani kuta-yotganini o'zi bilmasdi.

U ko'pincha ertani emas, taqdirini emas, onasining olib keladigan ovqatini kutardi. Shundan boshqa hayotdan ilinji qolmagandi.

Jannat xola chayla oldiga kelganda Tursunboy qimirlamay o'tirardi. U shoshib ona qo'lidan tugunchani oldi-yu, hech qayoqqa qaramasdan, hech narsa demasdan o'zini ovqatga urdi.

U bir umr ovqat ko'rmagandek pishillab, shaloplatib quy-moqni yeb bo'ldi. Yog' bo'lib ketgan qo'llarini yaladi. Unga qarab turgan onaning yurak-bag'ri ezilib, ko'zlaridan mo'lt-mo'lt yosh dumalardi.

Tursunboy qo'llarini to'ninging etagiga artib onasiga qaradi.

— Shattaligimni dadam biladimi? Unga aytma. Naq tutib beradi.

— Dadang bir oyoqdan ajrab kelgan.

— Bilaman, bilaman, — dedi Tursunboy yana labini yalab.

— Tog'aning o'g'lidan qoraxat kelgan, xotiniga bildirmayapti.

Tursunboy boshini egib qimirlamay o'tirib qoldi. U raisning o'g'li bilan o'rtoq edi. Ikkovi birga o'qishgan, birga katta bo'lishgan edi.

— Azizxon qahramon bo'ldi.

Tursunboy qo'l siltab teskari qaradi. Birdan boshini egdi-yu, uzoq sukutda qoldi.

— Shunaqa, bolam. Seni ham shunaqa qahramon bo'ladi, deb o'ylagan edik.

Tursunboy indamadi. Boyagi o'tirishida o'tiraverdi. Keyin bosh ko'tarib ma'yus dedi:

— Bir piyola achchiqqina ko'k choy bo'larmidi-ya!

— Qandoq qilib olib kelaman, bolam. Birov bilib qoladi. Sen sho'ring qurg'urga qumg'on olib kelay desam, o't yoqolmaysan. Tutunidan bilib qolishadi.

Tursunboy o'rnidan turib kerishdi. U kerishganda to'ninging oldi ochilib, yalang'och ko'kraklari ko'rinib ketdi.

— Yaktaging ham kir bo'lib ketibdi.

Birdan achimsiq ter hidi kelib ona dimog'iga urildi. U bur-nini jiyirib yuzini teskari o'girdi.

— Ko'ylak olib kelmapsan-da.

— Qandoq olib kelaman. Dadang bilib qolsa nima bo'ladi? Shu kunda o'zimning ham ancha mazam yo'q. Bezgak tutyapti. Dadangga bildirmayapman. Bilib qolsa, qishloqqa tushirib yuboradi. Men ketib qolsam holing nima kechadi? Kechalari tanam

zirqirab og'risa ham, tishimni tishimga qo'yib chidayapman. Peshanam qursin, buncha sho'r bo'lmasa.

Bola onaning dardiga parvo qilmadi. Hamon labini yalab, boshqa o'ylar bilan ovora edi.

– Shunaqa, bolam, kasalman. Ishqilib, toleingga o'lib qolmay-da.

– Anovi bola kim?

– Dadang boshlab kelgan. Yaxshi ishlayapti. Tizzalarimda darmon qilmadi.

– Ertaga ovqatni ko'proq olib kel!

– Xo'p, bolam, xo'p. Ishqilib, kasalimni dadang bilib qolmasin-da, darrov qishloqqa jo'natvoradi.

– Etik topib kelmasang, oyoqlarimni qamish tilib tashladi.

– Etikni qaydan olaman. Dadang bir poy etik kiyadi. Bir oyog'i yo'q uning. Bugun ustarasini qidirib meni juda qiynavordi. Umrimda qilmagan ishim. Qaychi opkelgan edim. Sochingni olib qo'yaymi?

– Kerak emas. Etik topib kel!

Ona-bola uzoq gaplasholmadilar. Jannat xola, bolasini qabriga qo'yib kelayotgandek yuragida og'ir dard bilan orqasiga qaytdi.

Tursunboy yana yolg'iz qoldi. Yana qamishlarning sovuq shitirlashi, yana baqalarning kishi me'dasiga tegadigan bir xil qurillashi.

Tepada ko'm-ko'k osmon, atrofda qovjiragan sap-sariq qamish...

Tursunboy onasi ketgan yo'ldan asta yurib yalanglikka yaqin keldi. Atrofga asta razm solib, sekin qamishlar orasidan bosh chiqardi.

Notanish bola hamon ketmon uryapti. Yalang'och badani terlab ketganidan yangi yuvilgan samovardek yaltiraydi.

Marza chetida ikki qo'lini beliga qo'yib Zebi turibdi. Bola unga qaramaydi. Zebi xaxolab kuladi.

Uning kulgisi Tursunboyning qulog'iga o'qdek botdi.

Zebining boshidagi ro'molini shamol uchiryapti, bo'yinlariga o'rab tashlayapti. Tursunboy uning shu bo'yinlariga bilagini tashlagan. Kulgi toshib chiqayotgan lablaridan o'pgan.

Qani endi, shu kunlar qaytib kelsa. Kelarmikin?

Shu topda ularning orasi ikki yuz metrcha ham kelmaydi. Chaqirsa eshitadi. Yugursa yetadi. Ammo chaqirishning ham, yugurib yetishning ham iloji yo'q. Ularning orasi millionlarcha

kilometr, unga na yurib yetib bo'ladi, na uchib. Balki, bir umr yetib bo'lmas.

Zebi qumg'ondan sopol piyolaga choy quyib yigitga olib bordi. Yigit bir dam ketmonini yerga tashlab qo'lidan piyolani oldi. Zebiga qarab-qarab simira boshladi.

Tursunboy tamshandi. Sho'r ko'lmak ichaverib, Tursunboy choy ta'mini unutayozgan edi. Shu topda unga Zebidan ko'ra qo'lidagi qumg'on a'lo tuyulib ketdi.

To'qayning aylana joyidan Jannat xola bir quchoq ildiz orqalab chiqdi. U betobligidan ildizlarni arang ko'tarib kelardi. Orqasidagi yukdan munkayib burni yerga tegay-tegay derdi. Notanish yigit shudgordan yugurib chiqib orqasidan yukni oldi. Kampir qotib ketgan belini silab, yerga o'tirib qoldi. Tursunboy bu manzarani ko'rib turardi. Shu topda uning ko'ziga bu notanish bola nihoyatda badbashara, nihoyatda yovuz bo'lib ko'rindi.

Go'yo onasining mehrini shu bola undan tortib olib qo'ya-yotgandek. Uni onasidan begona qilayotgandek tuyuldi.

Notanish bola ildiz boylamini yelkasida azod ko'tarib chodir tarafga qarab pildirab ketdi. Shudgorda Jannat xola bilan Zebixon qoldi.

Tursunboy bir intilish bilan qamish orasidan chiqdi-yu, yuragi dov bermay orqasiga tisarildi.

Uning ko'ksida Zebiga nisbatan qandaydir alamli o'ch yonardi. Zebixon Jannat xolani suyab marzaga olib chiqdi. Kapa oldidagi qamish g'aramiga o'tqazdi. Qumg'ondan choy quyib tutdi. Kampir quruqshab qolgan lablarini piyolaga tutdi-yu, negadir ichmay to'qay tomonga qaradi.

U qo'lidagi choyni ham bolasiga ilinardi. Tursunboy tupugini yutdi. U o'z onasini yaxshi biladi. Agar u shu topda uning yonida bo'lganda, albatta, qo'lidan olib shu choyni ichardi. Ona bir qultum suvga zor bo'lib turgan bo'lsa ham baribir olib ichardi. Chunki onasi o'zi yemay, unga yedirgan, o'zi ichmay, unga ichirgan.

Yigit o'tinni tashlab qaytib keldi. Jannat xolaga nimadir dedi. Kampir boshini sarak-sarak qilib o'rnidan turdi. Munkayganicha chodir tarafga qarab ketdi.

Zebi bilan notanish bola orqasidan qarab qolishdi. Zebi qamish ustida yotgan fufaykani olib yigitning yelkasiga tashlab qo'ydi.

Tursunboy titrab ketdi. Qo'llari mushtga aylandi. Tishlari g'ichirladi.

Tol shoxiga ilingan temirni kimdir tosh bilan urdi. Uning zalvorli ovozi cho'l bo'ylab yangrab ketdi.

Oshpaz odamlarni tushlikka chaqirayotgan edi. Zebi bilan notanish yigit o'sha yoqqa qarab keta boshladi. Yo'lda Zebi yigitning bilagiga osilib oldi.

Bu manzarani Tursunboy g'azab bilan kuzatib qoldi.

U ochlikni ham, tanholikni ham unutdi. Telbadek dovdirab balchiq kechib, bo'ri uyasidek sovuq chaylasiga ketardi.

Tursunboy hamma narsadan kechganda ham birgina shu Zebidan kechmas edi. Shu tanholikda ham ko'nglining bir chekkasida qachonlardir u bilan topishish ilinji yashardi. Endi u shu ilinjidandan ham mahrum bo'lganiga ishondi. Zebixon uning oxirgi ilinji edi. Uning jarangli kulgilari hamon quloqlari ostida yangrab turardi. Uning san'at asaridek ko'rkam qomati ko'z oldida turardi. Birinchi bor o'pgandagi labida umrbod qolgan allaqanday totli maza hamon uni tamshantirardi.

Endi-chi? Endi bu gaplar bir xayol, bir ro'yo bo'lib qoldi.

Tursunboyni hayotda ushlab turadigan hech narsa qolmadi.

Tursunboy hissiz ham yashay olardi. Yigitlik qasamidan kecha olgan, ona vujudini kemirayotgan dardni pisand qilmagan, sharmandalikda yashashga rozi bo'la olgan yigitda yana qanday his bo'lishi mumkin?

Shularning bariga ko'ngan odam sevgisiz ham yashashi mumkin.

Tursunboy ana shunday bo'lib qolgandi.

X

Cho'l bahorini hech qayerning bahoriga o'xshatib bo'lmaydi. Hozirgina yashnab turgan osmonni bir zumda qo'rg'oshinddek bulut o'raydi. Shatir-shutur yomg'ir quyadi. Momaqaldiraq yer-u ko'kni larzaga solib qaldiraydi. Shamshirdek yaltiragan chaqin cho'lning olislarigacha yoritadi.

Hamma o'zini panaga oladi. Ko'plar yomg'irdan qochib ulgurmayoq, oftob yana charaqlab ketadi. Tanni yayratadigan biram g'alati shabada esadi. U qirlarda to'piqqa yetib qolgan maysalarning tarovatli isini olib keladi.

Cho'l osmonida nurli ishkomb bo'lib kamalak paydo bo'ladi. Uning beqasam rangi ancha vaqtgacha o'chmay turib qoladi.

Ba'zan oftob ham charaqlayveradi, jala ham quyaveradi. Bunaqa paytda odamlar, bo'ri bolalayapti, deyishadi.

Naymanliklar bahorning ana shunday kunlarini kechirishayotgan edi. Ularning bu yerga kelishganiga ikki yarim oydan oshib qoldi. Shu paytgacha to'qayda allaqancha yerni shudgor qilib qo'yishdi.

O'z uchastkasini ag'darib bo'lgan Nizomjon endi qo'sh ot qo'shilgan sixmola ketida tinimsiz yer tekislaydi. Molaning taroq sixlariga ilashgan qamish ildizlarini yig'ib, g'aram qiladi. Uning qo'llari ishda, ko'zi shudgorda, ammo xayoli Zebixonda edi.

Zebixon sakkiz kun bo'ldi Zirillamaga ketgan. Qurt tutyapti. Jannat xola yarimjon bo'lib yotib qolgan. U goh hud, goh behud. Ikromjon bir oyoqlab shudgor kezadi.

Jannat xola shu ahvolda ham sudralib ishlayotganlar oldiga keladi. G'imirsib ularga choy tashiydi. Eri qancha koyisa ham, parvo qilmaydi. Ikki kungina yotadi-da, yana qumg'on ko'tarib shudgorga keladi, yo bo'lmasa to'qayga kirib o'tinbop ildiz teradi.

— O'tinning sira zarurligi yo'q. Po'k ildizdan o'tin chiqmas, bu o'tindan tutun chiqmas. Nima qilasiz ildiz yig'ib.

To'lanboyning gapi unga kor qilmaydi. Bari bir ildiz yig'ib kelaveradi.

Jannat xola butunlay yotib qolishdan qo'rqardi. Yotib qolsam, Tursunboyning holi nima kechadi, deb tashvishlanadi.

U bir haftadan beri o'g'lini ko'rgani yo'q. Tursunboy bilan bundan yetti kun oldin uchrashganda:

— Bolam, odamlardan ajralib chiqolmayapman. Ovqatingni zovur orqasiga qo'yib ketaman, — deb tayinlagan edi.

Shundan beri ikki marta ovqat oborib qo'ydi. Har borganda bo'shagan tovoqni olib kelardi.

Bugun hamma barobar shudgorga chiqqan. Har yer-har yerdan bo'g'ib pol olishyapti. Uch kun ichida pol tortib bo'lishsa, kanaldan ariq ochib kelishadi. Hammaning dalada bo'lishi Jannat xolaning ayni muddaosi edi. U kechadan beri o'rnidan turolmay yotgan bo'lishiga qaramay vaqtini g'animat topib, chodir orqasiga o'tib qozon osdi. Go'shtsiz bo'lsa ham palov damladi-da, erining kelib qolishidan qo'rqib, dam yedirmay suzib oldi. Qumg'onda qaynab turgan suvni grelkaga quyib bir kaft ko'k choy soldi-da, munkillab orqa yo'l bilan to'qayga ketdi. Beliga boylab olgan grelka paxtali nimchadan o'tib biqinini kuydirardi. Ammo u munkayganicha alamga tishini tishiga qo'yib chidab borardi.

— Peshanam qursin, ne kunlarga qoldim.

U to'qay ichiga kirib tashqaridan qaragan kishining nazari tushmaydigan bo'lgandan keyingina grelkani belidan oldi. Terlagan ekan, bahor shabadasi tanini yayratib yubordi. Ko'ylak yoqalarini yechib rohatlandi.

Jannat xola ko'p o'yladi. Bolasining, erining, o'zining taqdiri to'g'risida juda ko'p o'yladi, o'yining oxiri shu bo'ldi: "Bu xilda yashab bo'lmaydi, endi bas! Tursunboyni insofga keltirish kerak. Egilgan boshni qilich kesmaydi. Urushga borsin. O'zini oqlasin. Yagona yo'l shu! Agar Tursunboy ko'nmasa, uni o'zim tutib beraman. Shunday qilaman!"

Onaning qarori qat'iy edi.

U Tursunboyning chaylasiga yaqin borganda birdan yuragi hovriqib ketdi. Bolasi doimo chayla oldida tizzasini quchoqlab o'tirardi. Nega ko'rinmaydi? Kampir shoshib chayla ichiga bosh suqdi. Tursunboy qamish ustida ko'zlarini yumib yotibdi. Ona qo'rqib ketdi. O'zini uning ustiga tashladi. Tursunboy ko'zini ochdi, unga alamli qaradi.

– Senga nima bo'ldi, bolaginam?

Tursunboyda allaqanday sher kuchi paydo bo'ldi-yu, sapchib o'rnidan turib ketdi. Keyin darmonsizlanib yana yonboshiga yiqildi.

– Nima bo'ldi? Tobing yo'qmi?

Tursunboy arang javob berdi:

– Bir haftadan beri tuz totganim yo'q.

– Axir ikki marta ovqat keltirib qo'ygandim-ku.

– Bo'sh tovoqdan boshqa narsa ko'rganim yo'q.

Jannat xola har gal tovoqni olgani borganda tovoq tuproqqa qorishib yotganini ko'rardi. Biroq, u o'g'lining fe'lini bilganidan, o'zi shunaqa, u yerdagi cho'pni bu yerga olib qo'ymasdi, deb qo'ya qolardi! Bolaning aybi qachon onasiga bilinibdi, deysiz! Qancha xavf-xatarda pishirgan ovqati bolasiga buyurmayotgan ekan, uni itlar talashib yeyishayotgan ekan.

Jannat xola ro'molga o'ralgan tovoqni shoshib o'g'lining oldiga qo'ydi. Tursunboy kir bo'lib ketgan panjalarini barobar tovoqqa tiqib g'ijimlab og'ziga solardi. Ikki-uch oshamdayoq tovoq bo'shadi. Ona grelkadan sopol piyolaga choy quyib bolasiga tutdi. Tursunboy ola turib qo'li qaltirab piyolani tushirib yubordi. Ko'zlari olayib ona tizzasiga boshini tashladi.

Badanidan achimsiq ter hidi kelib turgan bolani ona bag'riga bosib boshlaridan siladi.

Tursunboyning isitmasi baland edi.

— Bezgak tutyapti seni, bolam. Yur, yur, ketaylik. Seni olib ketgani keldim.

Tursunboy javob o‘rniga ingradi.

Shu topda Jannat xolaning ko‘ziga dunyo qop-qorong‘i bo‘lib ketdi. O‘z dardini unutdi. Boshidagi ro‘molini yechib ko‘lmakdan ho‘llab kelib, o‘g‘lining peshanasiga bosdi. Bolasi ko‘zini ochmay ingradi.

Jannat xola oriq barmoqlari bilan o‘g‘lining yuzlaridan silab, ko‘zlarini bir nuqtaga tikkanicha ovoz chiqazmay yig‘lardi.

Orzular shamolga uchdi. Homilalikdan to shu kungacha qilgan umidlari tamom bo‘ldi. Bolasining yo‘lga kirgan kundagi quvonch, tili chiqib, birinchi marta aya, degandagi olam saltanatiga teng shodliklar, dadasi opichlab guzarga olib chiqib ketayotganda eshik oldida orqasidan qarab qolgandagi hech narsaga teng ko‘rib bo‘lmaydigan baxt, birinchi bor maktabga kuzatganda oppoq ko‘ylak, g‘arch solib tikilgan etik kiyib chopqillab ketayotgandagi tongdek, hech qachon ko‘rmagan tong... Hammasi, hammasi ona ko‘z oldidan bir-bir o‘taverdi.

Tursunboy alahsirardi.

— Yangi to‘nim qani, etigim... Zebi, Zebi! Zebi! Eshikni kim taqillatyapti, ochma! Olma pishib qopti-ku. Kelyapti, kelyapti! Velosipedimga tegmasin! Etigimni tort! Oshingni yemayman! Zebi qani?!

Jannat xolaning yurak-bag‘ri ezilib ketdi. Nima qilsin? Nima qilsa, bolasining dardiga em bo‘ladi? Chorasiz! Uning dardini yengillatishga hech qanday imkon yo‘q. Bolasi quvg‘in. Hamma eshik berk. Ochiq havo ham unga berk. Shu torgina to‘qaydan boshqa makoni yo‘q uning. Bu joy ham uni umrbod saqlayolmaydi. Ona ikki qo‘lini osmonga ko‘tarib faryod chekdi.

— E, Xudo, menda shuncha qasding bormidi!

Uning havoga ko‘tarilgan qo‘llari shaloplalab ikki tizzasiga tushdi. U shu ko‘yi qancha o‘tirganini bilmaydi. Atrofni qorong‘ilik bosgan, qamishlar shamolda sovuq guvullaydi. Yonida yotgan bolasi o‘qtin-o‘qtin ayanchli ingraydi. Shu paytda olisdan kimningdir, “Jannnaaaat”, deb qichqirgani eshitildi. Ona hushiga kelib quloq tutdi. O‘sha ovoz yana bir necha bor takrorlandi.

Jannat xola o‘rnidan turdi. Qorong‘ida bolasining basharasi ko‘rinmasdi. Yana o‘tirib timirskilanib peshanasini topdi. Hamon issiq.

Ona ikki o‘t orasida qoldi. Ketsa, bolasidan ko‘ngli tinchi olmaydi. Kim biladi, holi nima kechadi? Ketmasa, hozir uni qidirib kelib qolishadi. Unda nima bo‘ladi?

U bolasining peshanasidan qo‘lini olmay turaverdi. Uni chaqirayotgan ovoz borgan sari yaqinlashaverdi. Ona shoshib chayladan chiqdi.

Qamishlar orasidan bir necha joyda mash‘ala ko‘rindi. Har tarafdin “Jannat! Jannat!” degan tovushlar kelardi.

Uni adashgan, yo bo‘lmasa biron falokatga yo‘liqqan gumon qilib, hamma baravar oyoqqa turgan edi.

Jannat xola jon holatda shudgor olingan tarafga yugura boshladi. U qamish orasidan chiqishi bilanoq Nizomjon yo‘liqdi.

– Qayoqda yuribsiz, aya, tinchmisiz?

Jannat xola uning Nizomjonligini ovozidan tanidi. Nima deyishini bilmay g‘o‘ldiradi.

Nizomjon ovozining boricha to‘qayga qarab qichqirdi:

– Kelaveringlar! Jannat ayam bu yoqdalard!

U bir necha marta atrofga shunday deb qichqirgandan keyin mash‘alalar shu tarafga qarab kela boshladi. Birinchi bo‘lib oqsoqlanib Ikromjon keldi. Birpasda uni mash‘ala ko‘targanlar o‘rab olishdi.

– Qayoqda yuribsan?

Jannat xola javob berolmadi. Uning ko‘zlari bejo. Faqat qo‘llarini muttasil silkitib to‘qay tarafga qarab qichqirardi. Ona aql-dan ozgan edi. Nizomjon uni suyab chodir oldiga olib kelguncha terga pishib ketdi. Jannat xola hamon to‘qayga qarab qichqirar, uning qo‘lidan chiqib o‘sha yoqqa yugurmoqchi bo‘lardi. Chodir ichiga kirishganda, u birdan jimib qoldi. Holdan toyib to‘shakka o‘zini tashladi-yu, qimirlamay shiftga tikilib yotaverdi.

Odamlar birin-ketin tarqab ketishdi. Ikromjon Jannat xolaning og‘ziga choy tutdi. U boshini sarak-sarak qilib ichmadi. Darmonsiz qo‘llari bilan ko‘rpani boshiga tortib ko‘zini yumdi.

U shu yotganicha ertalab ham ko‘zini ochmadi.

U yagona farzandidan umid uzolmay, uning baxtini ko‘rolmay armon bilan chodirda jon bergan edi.

Erta azonda Nizomjon Tog‘aga xabar bergani Zirillamaga ot choptirib ketdi. Tushga qolmay Ikromjonning yor-birodarlari gruzovoyda tobut bilan yetib kelishdi. Cho‘l ufqi qizarib turgan kech paytida marhumaning jasadi solingan tobutni yelkaga olishdi. Nizomjon unga o‘g‘il bo‘lib, hassa tutib, tobut oldiga tushdi.

Uning o‘z bolasi to‘qayda, qamishlar orasidan marosimni kuzatib turardi. U kim vafot topganini bilmadi. Dadasining tobut oldida bel bog‘lab yig‘lab ketayotganini ko‘rdi-yu, ko‘zla-

ri bejo bo‘lib ketdi. Axir, u kuni bilan onasini kutayotgan edi. Unga ovqat olib kelmoqchi edi. Nima bo‘ldi? Nahotki, o‘lgan bo‘lsa? Endi uning holi nima kechadi? Endi unga kim ovqat olib keladi?

Ona unga faqat kiydirish, yedirish uchun ona edi, xolos. Ona uning firoqida, dardida ado bo‘ldi. Bolasi esa bu to‘g‘rida o‘ylamasdi.

Ona, qazoyim yetib olamdan o‘tsam, bolam o‘z qo‘li bilan qabrga qo‘yadi, deb umid qilardi.

Bolasi qabrga yaqin kelmay, bo‘riga o‘xshab to‘qaydan xunuk qarab turardi.

Ona, bolam orqamda qoladi, chirog‘imni yoqadi, deb niyat qilardi.

Bolasi bunday o‘ylarni boshiga keltirmasdi. U tug‘ib katta qilgan onasining jasadini begonalar yelkada tabarruk qilib ko‘tarib ketayotganlarini ko‘ra turib ham bir qadam oldinga jilmasdi.

Quyosh qip-qizil cho‘g‘ bo‘lib botayotgan cho‘l oqshomida hijronzada, alamzada, farzand dog‘ida kuyib ado bo‘lgan onani tuproqqa qo‘yishdi.

Hammaning boshi quyi egilgan.

Ikromjonni Tog‘a suyab turardi. Nizomjon qabr yonida cho‘kkalab bosh egib o‘tirganicha hamma qo‘zg‘alganda ham boshini ko‘tarmadi.

Oftob o‘chdi. Ufqda olovli bulutlar qoldi. Nizomjon boshini ko‘targanda yaltirab turgan parcha bulutlar kuygan qog‘oz cho‘g‘idek birpasda o‘chdi. Cho‘l jimjit bo‘lib qoldi. U hasrat-nadomat bilan bitta-bitta bosib chodir tomonga yura boshladi.

Qishloqdan kelganlar gruzovoyga chiqib olishgan. Tog‘a Nizomjonni kutib turgan edi, yoniga chaqirdi.

— Inim, chaylada yotma! Ko‘rpa-to‘shagingni ko‘tarib amakingning chodiriga kel. Yolg‘iz qolmasin, — deb tayinladi.

Nizomjon uning aytganini qildi. Chodirda fonar yoqmay, Ikromjon tizzasini quchoqlaganicha qimirlamay o‘tirardi. Nizomjon nima deyishini bilmay bordon ustiga o‘rin sola boshladi. Ikromjon unga qayrilib qaramadi ham. Nizomjon qattiq charchaganidan yonboshlashi bilan uxlab qoldi. U ertalab tong qorong‘isida uyg‘ondi. Ikromjon hali ham o‘shanday qimirlamay o‘tirardi. Nizomjon nima deb ovutishni bilmasdi. Nima deydi? Bola bo‘lib birovni yupatmagan. U Ikromjonning yoniga tiz cho‘kib yelkasiga qo‘lini tashladi. Ikromjon unga o‘girilib qaradi.

Uning oq oralab qolgan soqollarida yosh tomchilari titrab turardi.

Nizomjon o'zini tutolmadi. Ho'ngrab yig'lab yubordi.

Chodir teshigidan yorishib ketgan osmonning bir parchasi ko'rinib turardi.

TO'RTINCHI BO'LIM

I

Chorterakning oq o'riklari pishdi.

Inoyat oqsoqol Marg'ilon bilan Chorterak orasiga tanda qo'yib qolgan. Qishloqdagilar: "Oq o'rik pishdi, endi it tinsa tinadi, qush tinsa tinadi, ammo Inoyat oqsoqol tinmaydi", deyishardi.

Darhaqiqat, oqsoqolning qo'li qo'liga tegmasdi. Kolxozchilarning hovlilaridagi, chorbog'laridagi o'riklar pishib yotibdi. Uni bozorga oborib sotadigan erkaklar qani? Hammasi urushda. Borlari ham daladan bo'shamaydi. G'o'za yaganaga kirgan, pilla hammani shoshirib qo'ygan. Xotinlar erta azonda dalaga chiqib ketishganicha kun botganda qaytishadi. Kampirlar qurt bilan ovora.

Butun qishloqda bitta bekorchi shu Inoyat oqsoqol. Kolxozchilarning o'riklarini tupi bilan sotib oladi. Tong saharda o'rik terib oftob yoyilmay, eshakka ortganicha Marg'ilon bozoriga qarab ketadi. Kechalari eshikni tanbalab pul sanaydi. G'ijimlangan bir so'mliklarni ho'llab, samovarning qorniga yopishtirib dazmollab, obdan chiroyli qilib taxlab oladi. Ishi bitgandan keyin ham darrov cho'zilib yota qolmaydi. Sotib olingan o'riklarni egalari qoqib yemayotganmikan, deb mahallani mahsichan aylanib devor nahralaridan qarab yuradi (kalish kiyib yursa shaloplatib bildirib qo'yishi mumkin).

Bugun Oqsoqol bozordan kech qaytdi. O'zi ham nihoyatda charchagan edi. Shuncha yo'lga eshak orqasidan yurib ikki marta borib kelish osonmi! O'rtasidan yirtilgan qizil o'ttiz so'mlikni papiros qog'oz bilan tishining kirida yelimlab yopishtirayotgan edi, birdan eshik taqillab qoldi. U shoshib dasturxon ustidagi pullarga choponini yopdi-da, eshikka bordi.

Pochtalon ekan, xat berdi-yu, indamay ketaverdi. Inoyat oqsoqol savodsiz edi. Xatning kimdan kelganini bilolmay chiroqqa

solib u yoq-bu yog'iga qaradi. Keyin yoniga qo'yib, tag'in pul sanashga tushib ketdi. Birdan yuragi hovriqib yana xatni qo'liga oldi.

– Moliyadan emasmikin? Bozorkom pattachisi yomon qarab yurgan edi, bir balo qilib nalog chiqazgan bo'lmasin. Nima ko'p, bu zamonda g'alamis ko'p.

Dildor ketib qolgandan beri Inoyat oqsoqol kechasi sira uyni tashlab chiqib ketmasdi. Samovarga-ku, o'rik pishgandan beri oyoq bosmay qo'ygan. Nima qilsin? U pullarini qiyig'iga tugib to'ningning ichidan beliga sirib bog'ladi-da, ko'chaga chiqdi. Sim-yog'och tagida bekinmachoq o'ynayotgan bolalar oldiga kelib qaysi biriga o'qitsam ekan, deb andak o'ylanib turdi-da, bittasini tanlab chetga chaqirdi.

– Menga qara. Hojakbarri o'g'lisan-a, ertaga bir do'ppi o'rik beraman, mana shu xatti o'qib ber. Avval qara-chi, kimdan kelganakan?

Bola xatni olib, elektrga solib, konvert ustidagi yozuvni o'qidi.

– Dildor opamlarga kelgan-ku.

– Kimdan kepti? – dedi shoshib Oqsoqol.

– Nizomjon akam yozibdilar.

Oqsoqol bolaning qo'lidan konvertni tortib oldi. Shipillaganicha orqasiga qaytib eshik oldiga keldi.

– Ahmoq! Endi esing kiribdi. Musofirlik, daydilik joningga tegibdi-da. Men bir ish qilsam bilib qiladigan odamman.

Oqsoqolning ko'ziga Dildorlarning oq tunukali ichkari-tashqarili hovlisi, sigiri, ichkari uyga to'shab qo'yilgan qashqar gilami ko'rinib ketdi.

Oqsoqol soqolini tutamlab o'yoldi.

Xatni ochmaslik kerak. Bularning ishiga aralashmaganim ma'qul. Hurkitib qo'yaman. Xatni indamay Dildorga oborib beraman-u, o'zim hech narsa bilmagan bo'lib turaveraman. Bu gal o'zlari don olishib topishganlari durust. Men faqat puflab alangalatib turaman.

Oqsoqol shunday xayol bilan shoshib hovliga kirdi.

Supa oldidagi o'rikni bir tepgan edi, duv etib to'kildi. Ayvondan tog'oracha olib munkayganicha bitta qo'ymay terib soldi.

U eshikka kishan qulf urib qudasinikiga qarab ketdi. Eshik ochiq edi. U taqillatmay o'z uyidek kirib boraverdi. Dildor ayvonda, belanchakda uxlab qolgan bolasi yonida kitob o'qib o'tirardi. U Oqsoqolni ko'rib o'rnidan turdi.

Dildor uydan chiqib ketgandan beri Oqsoqolni ko'rmagan-
di. Chol ham nevarasini ko'rgani aqalli biron marta kelmadi.
Kuniga ming aylanib, ming o'rgiladigan qizi bo'lsa Dildorning
ko'zi yoriganini eshitib ham biron marta holidan xabar olmadi.
Shuning uchun ham Dildor qaynotasini sovuqqina qarshi oldi.

Chol ayvon labiga o'tirib fotiha o'qidi. Hol-ahvol so'radi.

– Nevaraginamni bir ko'ray deb keldim. Bolaginamdan qol-
gan tuyoqni bir ko'ray deb keldim. Aytgancha, o'riging pishgan
edi. (Oqsoqol hali ham uning ko'nglini shunaqa gaplar bilan
yumshatish payida edi.) Og'zing tegsin deb olib kelgan edim. –
Chol shunday deb belboqqa tugilgan tog'orachani surib qo'ydi.
– Qudam ko'rinmaydilar?

Dildor ma'yus javob berdi.

– O'tgan kuni kasalxonaga oborib qo'ydik. Sal og'irlashib
goldilar.

Oqsoqol attang, attang, deb boshini sarak-sarak qildi. U at-
tang, deyardi-yu, ichida bu gapning aksini o'ylardi.

– Tirikchiliging qalay, bolam?

– Binoyidek o'tib turibdi.

– Biron nimadan siqilayotgan bo'lsang, tortinmay aytaver.

Oqsoqol shunday deya turib belbog'iga qo'l uzatdi. Qo'li
buklangan konvertga tegib uni atayin beixtiyor olgandek qilib
ko'zi yaqiniga olib keldi.

– Iya, esim qursin, shu topda pochtachi manavi xatni tash-
lab ketgandi. Kimdan ekan, o'qib bermaysanmi?

Dildor tilar-tilamas konvertni qo'liga oldi. Xatga qarab rangi
oqardi. Uning harakatlarini chol zimdan kuzatib turardi.

– Xat menga ekan.

– Kimdan? – chol bu gapni beparvo aytishga urindi.

Dildor xatni yoniga qo'ydi.

– Bir odamdan ekan.

Oqsoqol hovliga, keksa tut shoxlari engashib turgan tunuka
tomga suqlanib birma-bir qarab chiqdi. Ko'nglidan, jindek re-
mont qilsa ellik mingga ketadi, degan o'y o'tkazdi.

– Hay, mayli, bolam, bo'lmasam men ketay. Siqilib qol-
sang, aytarsan.

Oqsoqol tog'orani ustunga tirab qo'yilgan patnisga o'zi
bo'shatib o'rnidan turdi. Dildor uni kuzatib eshik oldiga ham
chiqmadi. Qanday o'tirgan bo'lsa, shunday o'tiraverdi.

Oqsoqol boya, nevaraginamni, bolaginamdan qolgan tuyoq-
ni ko'rgani keldim, degan edi. U belanchakda yotgan nevarasiga

qaramadi ham. Buva bo'lib u nevarasining yuzini ham ko'rmagan.

Dildor bu oilada salkam bir yil yashab cholning kimligini bilib olgan edi. Ularning ichida bittagina odamshavandasi Nizomjon edi. U otasining, opasining yuzsizligiga chidolmay ketib qolgan. Faqat shular uchunmi? Dildor o'ziga bunday savol berolmasdi. Agar shunday deb so'ragudek bo'lsa, Nizomjonning ketib qolishiga eng asosiy sababchi o'zi ekanini bilardi. Ana shuning uchun ham bu to'g'rida o'ylamaslikka harakat qilardi.

Oqsoqol ko'chaga chiqqandan keyin sal nari borib yana orqasiga qaradi. Oydinda tunukasi yaltirab turgan imoratga ancha qarab turdi. Keyin uyiga emas, qizirikiga qarab ketdi. U Yakkatutga yetmasdanoq qiziga yo'liqdi.

– Qayoqda yuribsiz, dada? Ikki marta nevarangizni yubordim, yo'qlar, eshik berk, deb qaytib keldi. Xavotir olib kelayotgan edim.

– Kelingning oldiga bordim. Gap ko'p, qizim. Hali aytib beraman.

Ota-bola indamay ketaverishdi. Sal yurgandan keyin chol tilga kirdi:

– Risol, ertaga Dildornikiga borib jiyaningni ko'rib kel.

Risolatning yuragi shuv etib ketdi. Dildor bironta nag'ma chiqazayotgan bo'lsa kerak, deb o'yladi. Uning shunday o'ylashga asosi ham bor edi.

Dildor o'zini Nizomjonga mo'ljallashayotganini bilib qolgandan keyin yig'lab boshiga odam to'plagan edi. U ana o'shandagina Nizomjonning yo'lda unga aytgan: “Boyqush! Xonadonimizga kulfat olib kelding, shumqadam”, degan gaplarining ma'nosiga yetgan edi.

Dildor ularning niyatlarini ham bilib qolgandi. Ularga Dildordan ham uning mulki kerak, shu mulk deb ularning joni halak.

Dildor otasinikidan olib kelgan jamiki mollarini ularga tashlab, egnidagi kiyim bilan chiqib ketgan edi. Oqsoqol uning uyidagi narsalarni sandiqqa joylab, eshikka qulf urgan.

Shu topda Risolatning xayolidan uning o'sha mollari o'tgan edi. Dildor mollarini da'vo qildimikan? Dadam, uyga borib ko'nglini ol demoqchimi? Ikkovi oldinma-ketin hovliga kirishdi. Bolalar hali ham uxlamay bir-birini turtib yotishardi. Oqsoqolni ko'rib ko'rpaga burkanib olishdi. Kattasi ko'rpadan bosh chiqarib buvasiga maqtangannamo qaradi.

— Dadamdan xat keldi. Ikkita orden optilar.

— Shunaqami, — dedi chol. — Juda binoyi ish bo‘pti, ordiri borlarga poyiz tekin emish. Kelsa Sibirga olma oborib sotamiz. Qani, qizim, ovqatingni olib kel.

Risolat likopda shavla olib kelib oldiga qo‘ydi. Oqsoqol qo‘li bilan shavla yeyarkan, qiziga tanbeh bera boshladi.

— Bunaqada tilladan tog‘ing bo‘lsa ham, bir haftada tamom qilasan. Shavlaga ham shuncha go‘sht solasanmi. Yog‘ini qara, jonvor yuziga chiqib ketibdi. Yog‘ deganni tupukdekkinasini qozonga yalatvorsa bo‘ladi. Xo‘ja mahalladagi kabobchi bolaga tayinlab qo‘yganman, suyak beradi. Qaynatsang, ana yog‘-u mana yog‘. Bolam, rejalik bo‘lish kerak, rejalik. Zamon shunaqa.

Oqsoqol barmoqlarining orasigacha tilini tiqib yalab mahsisiga qo‘lini surtdi.

— Xo‘sh, endi, manavi gapdi eshit. Sayoq ukangdan xat keldi.

— Qani? — shoshib so‘radi Risolat.

— Xat menga emas, Dildorga.

— Voy ado bo‘lsin, — dedi cho‘zib Risolat. — Qirg‘in kegur kennoyisi jigaridan ham aziz bo‘pti-da.

— Shoshma, shoshma, gap tagida gap bor. Xatni bolalarga o‘qitmoqchi bo‘lgan edim. Konvertda, Dildorga tegsin, deyilgan ekan. Ochmadim. Ukangning endi aqli kirgan. Dildorga suyukanmoqchi. Bizga bir nima deyishga yuzi chidamagan. Mayli, o‘zlari topishgani durust. Xatni hozir Dildorga oborib berdim. U pismig‘ing ilgari ham xat olib turganga o‘xshaydi, qo‘limdan olib bir qaradi-yu, yoniga qo‘yib qo‘ydi. Hozir o‘qiyotgan bo‘lsa kerak. Atayin senga maslahatga keldim. Kishi bilmas biz ham gijgijlab turishimiz kerak. Bu tarafi silliq ko‘chsa, ukangning oldiga borib kelasan.

— O‘zi qayoqda ekan?

— Unisini bilmadim. O‘sha xatga bitgandir axir, qayerdaligini. Oqsoqol yonini kavlab to‘rtta o‘n so‘mlikni olib qiziga uzatdi.

— Chaqaloqqa u-bu ol. Miyoncha qil. Yo‘qlab borib ko‘nglini bilib kelasan. Ana undan keyin ukang qayoqda bo‘lsa, o‘shaqqa borib ishni pishitasan. O‘zim borardim-u, o‘n yetti tup o‘rik olib qo‘yganman. Vaqtida terib sotib olmasam, pishib, qoqi bo‘lib qoladi.

— Men ham qurt tutganman-ku, dada.

Chol jerkib berdi.

— Ha, kolxoz sendan minnatdor bo‘larmidi? Tilingni sal shirinroq qil. Bo‘lar-bo‘lmasga lovillayverma. Quda buvang ham kasalxonada emish. Pishib, hilvirab, ana ketaman, mana ketaman, deb turibdi. Hovlisini naq ellik mingdan ko‘pga sotsa bo‘ladi. Tayinlab ayt, muhtoj bo‘lsa, ro‘zg‘ordan narsa chiqarib sotmasin. Nima kerak bo‘lsa, o‘zim xabar olib turaman.

Risolat dadasiga ma‘noli qarab qoldi. U shu qarashidayoq dadasining ichidagi bor gapni bilib olgan edi.

Oqsoqol, o‘likni o‘zim ko‘maman, demoqchi. U qudasining o‘lishiga qattiq ishongan. U ko‘pdan beri shuni kutardi.

Oqsoqol soqolini selkillatib pichirlardi:

— O‘lik ko‘mishning o‘zi bo‘lmaydi. O‘lgan o‘lib ketaveradi, qolganga qiyin. O‘lik go‘rga kirmasdan xarajat boshlanadi. Bunaqada reja bilan ish tutmasa, bor bud-shuddan ajralib qolish hech gapmas. — Oqsoqol qiziga qaradi. — Kattang ertaga men bilan bozorga boradi. Bitta o‘zim shoshib qolyapman.

— Voy, dada, o‘qishi bor-ku.

— Bir kun keyin mulla bo‘ladi. Zehni o‘tkir bola. Bir-ikki kun bormasa ham bo‘laveradi.

Oqsoqol dasturxonga fотиha o‘qib o‘rnidan turdi. Chiqib ketayotganda oldidagi tutga qarab to‘xtadi.

— Kesgani kelisha quvlab sol. Qurt tutishni bildimi, tut ekishni ham bilsin. Chaqasini bermasa kestirma.

Chol ketdi. Qorong‘ida ancha vaqtgacha uning yo haq, yo hu, degani eshitilib turdi.

II

Dildor Inoyat oqsoqol chiqib ketishi bilan darrov xatni qo‘liga oldi. Ochib o‘qishga yuragi dov bermay, bir muddat konvertga tikilgancha turib qoldi. Dildor o‘rnidan turib bolaning ustini yopdi-da, konvertni ochdi. Qora qalam bilan yozilgan xatni o‘qish ancha qiyin edi, shuning uchun ham o‘rnidan turib chiroqqa yaqin keldi.

“Salom, Dildor!

Senga shu xatni yozib to‘g‘ri qilyapmanmi, bilmayman. Yozmasam, tinch yasholmaydiganga o‘xshayman. Chorakterdan chiqib ketayotganimda senga aytgan achchiq gaplarim uchun qachonlardir uzr aytishim kerak edi. O‘sha gap dilimda tosh bo‘lib yotmasin uchun vaqtlitiroq aytib tinchib olmoqchiman. Bilmadim, men sening oldingda gunohkormanmi, yo sen mening ol-

dimda gunohkorsanmi? Nazarimda, ikkovimiz ham kattakon anglashilmovchilikning qurboni bo'lganga o'xshaymiz.

Esingdami? Qanchadan-qancha orzularimiz bor edi. Anhor bo'ylab yarim tungacha gaplashmay o'z xayollarimiz bilan bo'lib, suvning shaloplashiga quloq solib ketaverardik. O'shanda mening baxtim olamga sig'maydigan bo'lib tuyulardi. Qo'limni uzatsam, oyni ushlab olgudek edim... ”

Dildor xatdan ko'zini olib qorong'ilikka tikilganicha turib qoldi. U shu qora kecha qa'ridan o'sha yoshligini qidirayotganga o'xshardi. Terakning oq astarli barglari milt-milt qilib birlashib ketdi-da, kattakon anhora aylandi. Erigan qo'rg'oshin betidek sovuq miltirayotgan suv yuzida qip-qizil olmalar oqib kelyapti. Nizomjon bir qo'li bilan tol novdasiga osilib, bir qo'lini olmaga uzatyapti. Qirg'oqqa urilib qaytgan suv to'lqin yasab olmani nari surib ketdi. Nizomjon bir qo'lga osilganicha qoldi...

Belanchakdagi bola yig'lab uning xayolini bo'ldi. Bola tepasiga kelguncha yana jimidi. Dildor xatga tikildi.

“... O'shanda boshimga shuncha savdolar tushishini sira xayolimga keltirmagan ekanman. Ikkovimiz ham bola edik. Anhor bo'yida, majnuntol orasida cho'milmoqchi bo'lib yechinib turganingni, mendan qochib o'zingni qo'rquv bilan suvga tashlaganingni ko'rganimda bolaligim tugagan edi. O'shanda sen to'zg'ib ketgan sochlaring bilan ko'kragingni bekitib turgan eding. Bir jurnalda mashhur italyan rassomi ishlagan farishtaning suratini ko'rganimda, darrov sen esimga kelding. O'sha suratda farish-ta xuddi senga o'xshab sochlari bilan ko'ksini to'sib turibdi. O'shanda seni farishtaga o'xshatganman. Qandoq eding, qandoq eding. Baland tepaga chiqib temir yo'lda ketayotgan poyezdga qarab qochganimiz esingdadir. O'shanda olis yurtlarga borishni xayol qilgandik. Poyezd orqasidagi qizil chiroq bizni o'zi bilan uzoqlarga olib ketgandek edi. Tushimda ham, o'ngimda ham sen eding. Adirlarga chirmashib chiqardik. Soylardan tap tortmay kechib o'tardik.

Jala quygan kunni sira unutilmayman. O'shanda adirning narigi tarafida oftob charaqlab turgan edi, biz tarafga jala quyardi. Osmonda esa Marg'ilon beqasamidek kamalak tovlanardi. Ikkalamiz ham yalang oyoq yugurganmiz. Kamalak ishkomining tagidan o'tamiz deb yugurganmiz. Qancha yugursak ham yetolmaganmiz. Akam keldi-yu, bir-birimizga begona bo'lib qoldik. Dunyo ko'zimga qorong'i bo'lib ketdi. Ikki marta o'zimni o'ldirmoqchi ham bo'ldim. Qo'rroq ekanman. O'ldirolmadim.

Kim biladi, balki bu qo'rqoqlik emasdir. Qachonlardir sendan qasd olish uchun yashashim kerak bo'lgandir.

Sen uyimizga kelin bo'lib tushding. Bu uyda men ortiq...

Uzoqda gupillab turgan dvijokning ovozi pasaya boshladi. Shiftga osig'liq lampochka lip-lip qilib sekin o'chdi.

Gugurt yo'q edi. Chorakerak xalqi boshqalar qatori qiyoy cho'p ishlatardi. Dildor nima qilishini bilmay qo'lida xat bilan tik turganicha qimirlamasdi. Nizomjonning xati uni bolalik ko'chalariga yetaklab, yo'lning o'rtasiga tashlab ketib qolgandek edi. U shu bir necha minut ichida bolaligini, ko'ngliga muhabbat o'ti tushgan eng shirin damlarni ko'rgan edi.

Qani endi o'sha kunlar qaytib kelsa. O'sha kunlarni qaytarishning iloji bo'lsa edi. Dildor o'z hayotini butunlay boshqacha qurardi. Hozirgidek zabunlikda aftodahol o'tirmasdi. Afsuski, yashash huquqi odam bolasiga bir marta berilgan. Hech qachon hayot ortga qaytmagan. Hamma vaqt oldinga qarab ketavergan. Yanglishgan yanglishib qolaveradi, yo'lni to'g'ri olgan hayot jomini oxirigacha sipqorib yashadim, armonsiz yashadim, deb ketadi. Hayotning yaltiroq, jilvali, aldanchi o'yinlari ko'p. Bu aldanchi jilvalar sarobdek aldab bag'riga chaqiradi-yu, kimsasiz cho'l o'rtasida bir qultum suvga zor qilib tashlab ketadi. Tanni tilka-pora qilib, qo'llarni tilib, baland cho'qqiga chiqqanlarga o'tloqlarni, olis ufqlarni ko'radi. Mana, buni yashash deb aytadilar.

Hayotda inson uchun ilojsiz narsa ham yo'q. U umrini boy bermagan bo'lsa, ketayotgan yo'li jarga olib borayotganini bilib qolsa va undan qaytish xohishi bo'lsa, to'g'ri yo'lni topib olishi muqarrar. Dildorning oldida hali juda katta hayot bor. U yashashi kerak. Yashaganda ham o'tmishini tandan bir parchasini kesib tashlagandek unutib yashashi kerak. Yo'l shu. Bundan boshqa yo'l yo'q.

Dildorning ko'ksida xuddi ana shunday his, ana shunday qaror hokim edi.

Ko'chadan qizlarning qiy-chuvi eshitildi. Eshik tirqishidan yo'lakka ipdek ingichka nur tushdi.

Dildor yugurib borib eshikni ochdi. Fonar ko'targan to'rt qiz ichkari kirishdi.

Dildorning uyi ko'p bo'lganidan dadasi hammasini yig'ishtirib qurt boqishga ruxsat bergan edi. Elektr o'chganidan qizlar qurtga barg solishga Dildor qiynalmasin, deb fonar olib kelishgan edi.

– Samovarga o‘t tashlang, Dildor opa. Bugun shatta yotib qolamiz.

Qizlar chuvir-chuvir qilib qurt tutilgan uyga kirib ketishdi. Dildor lampani olib chiqib fonardan o‘t oldirib yoqdi-da, ayvon tokchasiga qo‘ydi. Keyin qizlarning ketidan kirdi. U hali ham xatning ta‘siridan chiqmagani bilinib turardi. Ko‘zlari qizargan, ovozi ham titrardi.

Qizlar barg solib bo‘lib ayvonga chiqishdi.

– Qo‘rqmang, opa, yotib qolmaymiz.

– Yotib qolsanglar jonkoshki edi-ya. Gaplashib yotardik. Bir o‘zimman.

Dildorning dadasi kasalxonaga ketganidan qizlar bexabar edi. Uni yolg‘iz tashlab ketgilari kelmadi. Oyog‘iga etik kiygan Asrora to‘rga chiqib o‘tirib oldi.

– Adol, etikni tort!

– Ha, erimmisan?

– Seni er olsa jon derding-a. Burningni qara!

– Burnimga nima qipti?

– Oynakka qaraganmisan o‘zing. Bu burun emas, Xalcha xolam kovush yechib qo‘yganga o‘xshaydi. Etikni tort!

Adol ham bo‘sh kelmadi:

– Sen o‘lgurni er olmaydi. Er senga xotin bo‘lib tegadi. Pri-kaz berishini qaranglar-a! Ovozing o‘lgur ham mo‘ridan chiqqan-dek gumburlaydi. Oting o‘lgur ham erkakcha, Asror. Basharang habashga o‘xshagan qop-qora, yurishing ayiqqa o‘xshaydi. Bitta mo‘ylov kam. Mo‘ylov qo‘ysang, sen bilan kechqurun yurgan qiz gap-so‘z bo‘ladi.

Qizlar qotib-qotib kulishdi.

– Ha, bo‘sh kelma, Adol. U bittani gapirsa sen o‘ntani qo‘n-dirasan-a.

– Ke, bo‘ldi, etikni tort. Men shatta qolaman. Biznikiga kirib ayamga aytib qo‘yasizlar. Dildor opaning oldida qoldi, deb qo‘yarsizlar. Bo‘ptimi?!

Adol rozi bo‘ldi. Uning etigini tortib qo‘ydi-da:

– Bo‘ldimi, dadasi, o‘rningizni solib beraymi? – dedi.

Yana qotib-qotib kulishdi.

Dildor ham ularga qo‘shilib kulardi. Uning yuzidagi boyagi so‘lg‘inlikdan nishon qolmagandi.

Dildor, Asrora qizlarni fonar ko‘tarib ko‘chaga kuzatib qo‘yishdi.

Asrora charchagan ekan, yostiqa bosh qo'ydi-yu, uxlab qoldi. Dildor taxmondan ko'rsa olib ustiga yopib qo'ydi. O'zi oyoq tomonda uning pish-pish uxlashiga qarab o'tirardi.

Asroraning yuzlari shamolda qorayib ketibdi. Ovozi ham boya Adolat aytganicha erkaklarnikiga o'xshaydi. Yurishi ham shunaqa.

Urushdan avval qanaqaydi? Nozikkina edi, shekilli. Dalada eng og'ir ishni shu qiladi. Zovur qaziydi, ketmon chopadi. Qirga chiqib ketib oftobda kuyib, shamolda dildirab o'roq o'radi. Ayasi qarib qolgan, ro'zg'or ishiga ham shu qaraydi. Ukalari-ning kir-chiri ham uning bo'ynida. Sigir sog'adi, non yopadi, tomorqaga qaraydi.

Shuncha ish, shuncha tashvish bilan yuragida sevgi yonadi. Karimjon xayoli bilan yashaydi. Qo'shiq aytadi, o'yinga tushadi. Qiziqchilik qilib hammani kuldiradi. O'zi xunukkina. Hech kim uni xunuk demaydi. Yuragi chiroyli, qilig'i chiroyli. U kirgan uy yashnab ketadi.

Mana, u uxlayapti. Biram chiroyli uxlayapti. Uyqusi ham chiroyli uning!

Dildor unga qarab turib havasi keldi. Karimjonning sog'omon kelishini astoydil tiladi. Ularning qovushgan baxtli kunlarini ko'rgisi keldi.

Birdan xat esiga keldi-da, cho'ntagidan olib fonar shishasiga engashdi.

"... Bu uyda men ortiq yashayolmasligimni bildim. Seni kunda ko'rib o'lgandan, bir umr bosh olib ketishni afzal bildim. Ketdim. Ketib ham sendan qutulmadim. Akam o'ldi. Endi sen yelkamda juda ham og'ir yukka aylanib qolding. Dadam, opam seni menga olib bermocchi bo'lishdi. Bu benomuslikka chidayolmadim. Kelin ayasiga uylandi, degan nomusni ko'tarib yurishdan ko'ra o'lgan afzal. Bu bir meni, bir seni emas, frontda jon olib, jon bergan bir qahramon xotirasini haqoratlash bo'lardi.

Faqat bir narsa haligacha meni qiynaydi. Shu gapdan sen xabardormiding? Men sen bilasan, deb yo'limni to'sganingda eng qabih gaplar bilan haqorat qildim. Shunday demasligim kerak edi. Bu gapdan xabaring bo'lganda ham shu gapni aytmasligim kerak edi. O'shanda egingda qora ko'ylak edi. Ha, motam ko'ylagi edi. O'z o'tingga o'zing yonib turgan payting edi. O'sha gapim uchun haligacha o'zimni kechirolmayman. Shu xatni yozishga majbur qilgan ham o'sha narsa bo'ldi. Mana aytdim. Tinchidim. Biz bir-birimizga mutlaqo begona kishilar

bo'lib qolganmiz. Bizni bog'lab turgan yagona narsa — akamdan xotira, mabodo omon-eson dunyoga kelgan bo'lsa — bolang, xolos. Sendan bittagina iltimos. Asroradan Karimning adresini olib menga yubor. Uning adresi uyda qolgan. Uyga xat yozmoqchi ham, bormoqchi ham emasman. Otam oq qilgan.

O'zing nima qilib yuribsan dersan. Buni — senga qizig'i bo'lmasa ham aytaman. Cho'lda ishlab yuribman. Yaxshi odamlar orasidaman. Ish bilan ovunyapman. Sen, dadam, opam yetkazgan ozorlarni unutish uchun birdan-bir ovunchoq ish bo'lyapti. O'rtoqlarim frontda. Bitta men bu taraflarda daydib yuribman. Cho'lda yigirma sotix joyga o'zim uchun sholi ekdim. Hosilni olishim bilan uni qoplab mudofaa fondiga yuboraman. Hech bo'lmasa shu mening dushmanga otgan o'qim bo'lsin.

Xayr. Endi sira xat yozmayman. Shu bilan oramizda nima bo'lsa bari tamom bo'ldi. Nizom”.

Dildor xatni o'qib bo'lib ham undan ko'zini uzolmay turib qoldi. Xatning chetida ustidan o'chirilgan ikki qator yozuv bor edi. Dildor yana chiroqqa yaqin kelib uni o'qishga urinib ko'rdi. O'qidi.

“Birga tushgan suratimizni yirtib tashla!”

Dildorning ko'zlaridan shashqator yosh oqib ketdi. Uning bir necha tomchisi xatga tushdi. Xat binafsha qalam bilan yozilgan ekan, ko'z yosh tomgan joyida dog' paydo bo'ldi.

Asrora hech narsadan xabarsiz pish-pish uxlayapti.

Dildor bu erkakshoda, dali-g'uli qizga qarab turib astoydil havasi keldi. Qanday baxtli qiz u? Uning yuragida qanchadan-qancha orzular bor. U shu orzulariga, albatta, yetadi.

III

Tushga yaqin qo'lida tugun, og'zi to'la kulgi bilan Risolat keldi. U bir gapirib o'n kular, gap orasida Dildordan gina ham qilib qo'yardi. U gina qilayotganda astoydil lablari burilib ketardi.

— Voy, opaginasini qoqindiq. Omon-eson qutulib olibsiz hamki, bir og'iz xabar bermapsiz. O'zim yonginangizda turardim. Mendan boshqa kimingiz bor, o'rgilay. Har qancha qilsam arziydi, ukaginam hurmati doyalik qilsam ham arzirdi. Keyingi paytlarda shunaqayam tushlarimga kirasiz, tushlarimga kirasiz. Shu bugun kechasi eshitdim.

Risolat javray-javray tugunni Dildorning qo‘liga berdi. Dildor tortinibroq oldi-da, chetga qo‘ya qoldi.

– Voy, oching, kechasi bilan o‘tirib tikib chiqdim. Jiyanginamga, ukaginamdan qolgan yodgorginamga tikib keldim.

Risolatning o‘zi o‘rnidan turib tugunni oldi-da, yechib ichidan chaqaloqbop sal uringan atlas ko‘ylak olib Dildorning qo‘liga berdi. Dildor ko‘ylakka qarab uning yangi emasligini, bir-ikki kiyilganini darrov payqadi.

– Manavi do‘ppicha, manavi oshxo‘rak, manavi choyshab... Hammasini kechasi bilan tikib chiqdim.

Dildor qayin egachisining dog‘uliligini bilardi. U bilan olishib baraka topib bo‘lmasdi. U gapda o‘nta erkakni qochirardi. Shuning uchun ham indamay qo‘yaqoldi.

– Endi eshitdingizmi? – dedi u sekin, ammo kinoyali ohangda.

– Ha, o‘rgilay, kechasi dadam aytdilar. Eshitdim-u, yuragim yorilay dedi.

Dildor, ha quv, tug‘ruqxona derazasi yonida turganingda ko‘rgan eding-ku. O‘shanda o‘zingni ko‘rmaganga solib atayin yuzingni teskari o‘giringanding, deb ijirg‘anib qo‘ydi.

To‘g‘ri, Risolat tug‘ruqxona oldiga borib qatiq, bodring sotardi. O‘shanda Dildorni ko‘rib yuzini teskari o‘giringandi. Hozir u hech narsa bo‘lmagandek ochilib-sochilib unga o‘zini yaqin ko‘rsatmoqchi. Uydan chiqib ketayotganida u Dildorga nimalar demagandi. O‘sha gaplari uchun ham betiga tupursa kamlik qilardi. O‘shanda Risolat unga:

– Ukamga o‘ynashib qo‘yib tekkansan, – degandi.

Dildor o‘sha gapni eslab titrab ketdi. Ammo kechadan beri ota-bolaning bu uyga serqatnov bo‘lib qolganlarini bilolmay hayron edi. Risolat uni o‘ylashiga gal bermay belanchakda yuziga to‘r yopib qo‘yilgan bolani qo‘liga oldi.

– O‘zim aylanay, jiyanginamdan o‘rgilay. Voy, Dildorxon, buningiz o‘g‘il bola-ku. Nega aytmadingiz? Men qizaloq deb yuribman.

Dildor kulib yubordi. Risolat bolaning u yuzidan, bu yuzidan cho‘lpillatib o‘pib yana belanchakka qo‘ydi.

– Ha, aytganча, kecha dadam Nizomdan Dildorga xat keldi, deb aytib qoldilar, tinch ekanmi?

– Tinch ekan, – dedi Dildor xushlamay.

– Ilgarilari ham xat olib turarmidingiz?

Dildor javob bermadi. Uning bu holatidan Risolat oralarida bir gap bor ekan, aytgani xijolat bo'lyapti, deb o'yladi. Sekin uni gapga solib ko'rmoqchi bo'ldi.

— O'zi yaxshi bola-yu, sal o'jarroq-da. Yaxshi xotinning qo'liga tushsa, binoyidek bo'lib ketadi. Mo'min-qobil bola qaysi qizga yoqmaydi, deysiz. Bitta-yarimtasi o'lgur o'shaqlarda ilib ketmasa edi. Hozir nima ko'p, qari qiz ko'p. Hozir qizlar yangi uchastkasi bilan, bisot-bag'ali bilan, qo'sha-qo'sha tilla asbobi bilan chollarga tegib olyapti. Nizomni, albatta, bittasi ilib ketadi. Shu bola begonaga ketmasa degandim.

Risolat gapini bo'lib, yer ostidan Dildorga qaradi. Dildorning peshanalari tirishib, gaplari malol kelayotgani shundoqqina bilinib turardi.

— Gapirsangiz-chi, nima deпти xatda, — dedi oxiri Risolat.

Dildor Nizomjondan kelgan xatni unga ko'rsatgisi kelmasdi. Shuning uchun ham tinchligini yozipti, deb qo'yaqoldi.

— Hech bo'lmasa adresini yozib bering, o'rgilay.

Dildor uyga kirib boshqa qog'ozga adres yozib olib chiqdi-da, qo'liga berib, o'tirmay tik turaverdi. U shu harakati bilan, endi ketaversang ham bo'ladi, demoqchi edi. Buni Risolat tushundi. U ham o'rnidan turdi.

— Bo'lmasa keta qolay. Xotirjam bo'ling, tez-tez kelib holingizdan xabar olib turaman. Yangi bo'shangan narsasiz. Og'ir ish qilmang. Kir-chirlaringizga o'zim qarab turaman.

Risolat erga tegib, uch bolali bo'lganda ham kirlarini bir bo'xcha qilib onasinikiga keltirib tashlardi. O'zi qo'lini sovuq suvga urmay pardozdan bo'shamasdi. Uyiga xotinlarni yig'ib patefon qo'ygani qo'ygan edi. Uyi hamma vaqt ivirsib yotardi. Eri daladan qaytganda ham qozonga o't qalamasdi. Bo'sh-bayovgina eri o'zi o'tin yorib ovqatga unnab ketardi. Shu xotin kelib Dildorning kirini yuvib beradimi?

Risolat chiqib ketayotganda Dildor orqasidan borib tugunchasini qo'liga berdi.

— Voy, ha?

— O'zim yangisini tikib beraman, opa. Tug'ilishi bilan birovning eskisini kiymasin.

— Eskimas, qizimga kiydirib pasonini ko'rdim, xolos.

U har qancha qilsa ham, Dildor tugunchani olmadi. Risolat ham unga qarshilik ko'rsatmadi. Bitta ko'ylak palon pul. Muh-toj emasdirki, olmadi. Eski bozorga oborib sotsa bo'ladi. Hozir nima ko'p, eski matoga xaridor ko'p.

Dildor uning orqasidan eshikni qarsillatib yopdi-da, alam bilan yig'ladi.

— Bular meni muncha xor qilishadi? Menda nima qasdlari bor?

Dildor haligacha ularning niyatlarini bilolmasdi.

Aksiga olgandek bugun havo ham bulut. Odamning ko'nglini xira qiladigan darajada tund. Dildor uyda o'tirib zerikib xunob bo'lib ketganidan, dalaga chiqib Asroralar oldiga bormoqchi bo'ldi. Ertalab Adolat aravada olib kelgan barglarni qurtlarga soldi-da, bolasini yo'rgaklab dalaga qarab ketdi.

Hammayoq ko'm-ko'k.

Dildor oy-kuni yaqin qolgan kunlarda o'zi bilan o'zi bo'lib atrofiga tuzukkina qaramagan edi. U go'yo yashilliklarni birinchi marta ko'rayotgandek ko'ngli yashnab ketdi. Bu qadrdon, har bir daraxti, har bir so'qmog'i yoshlikdan, sho'xlik yillaridan hikoya aytuvchi dala bahor libosida yashnab turardi. Dildor kelin bo'lib Inoyat oqsoqolning uyiga tushgan kunidan boshlab bu dalalarga begona bo'lib qolgan edi. Endi yana shu kengliklar quchog'i uni o'ziga chorlayotganga o'xshardi.

Qaldirg'ochlar unga tegay-tegay deb yonidan uchib o'tish-yapti. Havo bulut bo'lsa, osmondagi uchar hasharotlar pastlab uchishadi. Bu yomg'irdan darak. Shuning uchun ham qaldirg'och past uchib hasharot tutadi. Dildor shuncha yil dalada yashab buni bilmasdi...

Dildor atrofga mast odamdek nazar tashlab borarkan, oldidan qop-qora habashdek bir yigit chiqib qoldi. Uning oyog'idagi qizil etigi, jujun kitelidan kolxoz sekretariga o'xshaydi. Ha, xuddi o'zi. Unga nima jin urdi? Basharasiga nega qoramoy surtib olibdi.

Sekretar yigit yuzini teskari o'girib Dildor oldidan yugurib o'tib ketdi. Tut orqasidan qizlarning xandon tashlab kulishgani eshitildi. Dildor o'sha tarafga qarab ketdi.

Ariq bo'yida Asrora ikki qo'lini beliga qo'yib erkaklardek chiranib turardi. Adolat yerga o'tirib olib piq-piq yig'layapti. Dildor nima gap bo'lganini bilolmay bir unisiga, bir bunisiga qaradi.

— Pochchangni ko'rdingmi? — dedi Asrora.

— Qanaqa pochcha? — dedi hayron bo'lib Dildor.

— A'zamxo'ja pochchangni ko'rmadingmi?

— Nega u mening pochcham bo'larkan?

Asrora o'dag'aylab Adolatning oldiga keldi.

– Tur, bo‘ldi! Hadeb piqillab ensamni qotiraverma. Bor, ketmoningni chop!

Adolat onasiga zarda qilayotgandek o‘rmidan turmay, bir yelkasini qattiq silkib qo‘ydi.

Asrora birdan mehri tovlanib ketib, Dildorning qo‘lidan bolani oldi-da, u yuzidan, bu yuzidan cho‘pillatib o‘pib oldi.

– Voy-e, menam bitta shunaqa tug‘ib olsam.

Boyadan beri piqillab yig‘lab o‘tirgan Adolat birdan hiringlab kulib yubordi.

– E, o‘l-e, birov eshitsa nima deydi? Erga tegmagan narsa nega tug‘asan?

– Xudo beraman desa, erga tegmasang ham tug‘averasan. Beshkapadagi Oyshaxon tug‘ib olibdi-ku.

Qizlar qotib-qotib kulishdi. Oradan o‘tgan boyagi ko‘ngilsizlik ham birpasda unutildi. Hammasi chuvillashib shiyponga chiqishdi. Asrora qo‘lida bola bilan to‘rga chiqib chordana qurib o‘tirib oldi. Erkaklarnikiga o‘xshash yo‘g‘on tovush bilan oshpaz qizga qichqirdi:

– Palovxon to‘rani opke!

Bugun palovxon to‘ra – jo‘xori go‘ja edi. Ovqat ustida boya-gi voqeani Asrora gapirib berdi.

– Haligi hebbem o‘lgur Adolga aylanishib qopti. U yoqqa o‘tsa ham yo‘lini poylaydi, bu yoqqa o‘tsa ham yo‘lini poylaydi. Adol o‘lgurda ham ayb bor.

Adolat jahl bilan go‘jani issiq yutib yubordi.

– Senga o‘zim aytdim-ku. Qo‘ymayotibdi, bir balo qilib do-dini berib qo‘y, deb aytdim-ku!

– Ha, aytgansan. Tilingni qisib tur. Gapning beliga tepma. Adolga aytdim. Chakalakka va‘dalash, dedim. Aytgan vaqtda kepti. U yoqdan Adolni yuborib, o‘zimiz bu yoqdan poylab bordik. Xotining tilla soatini olib kelgan ekan, Adolning bilagiga taqayotganda shartta ushlavoldik. Avval rosa do‘pposladik. Keyin basharasiga traktorning yog‘ini surtdik. Soati mana! Yara-shiptimi?

Dildor bu yaqin orada bunaqa kulmagan edi. Qotib-qotib kuldi. Astoydil kuldi.

– Asrora, qo‘y, xotini bilib qolmasin. Turmushi buziladi-ya!

– Yo‘q, xotiniga aytmaymiz. – U qizlarga buyruq ohangida dedi: – Senlar ham og‘izlaringdan gullab qo‘ymalaring.

Ovqatdan keyin patefon qo‘yib o‘yinga tushishdi. Asrora beliga qiyiq bog‘lab, erkakcha o‘ynadi. Adolat boshiga ro‘molcha tashlab uning yonida noz bilan yo‘rg‘alardi.

– Tamaraxon bo‘pket-e!

Shu payt sertuproq yo‘ldan eshak minib Inoyat oqsoqol o‘tib qoldi. U qizlarning bu “behayo” o‘yinidan ensasi qotib soqollarini tutamladi. Asrora atayin ermak qilib unga qarab qoshini qoqib, yelkasini uchirdi. Oqsoqol “astag‘firullo”, deganicha yuzini teskari o‘girdi.

Qizlar yana qiyqirib kulishdi. Adolat, qo‘y, keksa odamni ermak qilma, degan edi, Asrora bobillab berdi.

– E, odam bo‘lmay o‘lsin, Jinoyat oqsoqol. Kuniga bir marta jinoyat qilmasa kechasi uyqusi kelmaydi, bu o‘lgurning. Shu ham odam bo‘ldimi-yu...

Tushlik tugab, qizlar ketmonlarini ko‘tarib paykallarga tarqab ketishdi. Asrora ketayotganida Dildor uni to‘xtatdi.

– Nizomdan xat oldim. Senga salom deпти. Karimjonning adresini yuborsin, deb tayinlabdi.

– O‘zi qayerdaykan?

– Nayman cho‘lida ishlayotganmish. Mana adresi, xat yozib yubor.

Asroraning yuzidagi boyatdan beri yashnab turgan tabassum so‘ndi. U Karimjonni o‘ylab ketgan edi. Uni qandoq yaxshi ko‘rardi. Kuniga undan xat kutadi. Ammo anchadan beri Karimjondan xat yo‘q. Tinchmikin?

Asrora har qanday g‘amni tez yenga olardi. Boshini bir silkib Dildor bergan qog‘ozni nimchasingning cho‘ntagiga solib indamay paykalga kirib keta boshladi. Sal nari borib to‘xtadi.

– Indinga komsomol majlisi bor-a, esingdan chiqmasin.

– Xo‘p! – dedi Dildor. – Menga qara, Asrora. Meni zvenongga ol. Uyda siqilib ketdim. Kel, birga ishlaylik.

Asrora ketmonini jo‘yakda qoldirib orqaga qaytdi. Kelib uning belidan quchoqladi.

– Mayli. Bolangga ko‘pchilik bo‘lib qaraymiz. Sal darmonga kir, undan keyin ishga chiqaverasan.

U shunday dedi-yu, yugurib tizza bo‘yi bo‘lib qolgan g‘o‘zalar orasiga kirib ketdi. Dildor uning orqasidan qarab turib o‘ylardi.

– Faqat erkaklarning ishini qiladi. O‘zi ham erkaklarga o‘xshab ketibdi. Urush bo‘limganda bunday bo‘lmasmidi...

Dildor uyga chehrasi ochilib qaytdi. Endi u sira yolg‘izga o‘xshamasdi. O‘zini boyagi quvnoq qizlar qatorida o‘shalarning biri deb bilardi.

Endi Dildor uchun yolg‘izlik azoblari tugagandek edi.

IV

Risolat Dildordan ish chiqmasligini bilsa ham, dadasini bunga ishontirolmasdi. Oqsoqol katta nevarasini urib-so'kib o'qishdan olib qoldi-da, qo'shni hovlidagi tupi bilan sotib olgan o'rikni unga terdira boshladi. Uning shu hovlidan ish boshlashiga sabab o'rik egasining bolasi ko'p. Ikki kun kechiksam, terib yeb qo'yadi, deb uyqusi kelmagan edi. Kun yoyilmasdan u o'rik solingan chelaklarni eshakka yuklab o'zi ham, nevarasi ham boshiga bitadan savatni qo'yishib, eshak ketidan Marg'ilonga jo'nashdi. Risolat eshik oldida ularni kutib turardi.

— Ketmadingmi? — dedi xo'mrayib Inoyat oqsoqol.

Risolatning Naymanga borishga uncha xushi yo'q edi. Chol o'g'lining yigirma sotixga sholi ekkanini eshitib ko'p narsalarni diliga tugib qo'yan. Undan tashqari, bola yaxshi ishlayotgan bo'lsa mo'maygina pul ham topayotgan bo'lishi kerak. U ertalab nevarasini uyg'otgani borganda Risolatning, Dildordan ish chiqmaydiganga o'xshaydi, degan gapini cho'rt kesib shunday degan edi:

— Sen nima deb o'tiribsan. Yigitlar urushda shunaqa qirilib tursa, jamiki qizlar tul qolib ketadi. Hozir qizlar dilgirof simiga qo'ngan qaldirg'ochdek vijirlab yotibdi. Nizom olaman, deydi-yu, yo'q, deydimi? Ularning oralarida bir gap bor. Boshida yo'q, deb qo'yib, endi aytishga yuzlari chidamayotibdi. Boraver.

Risolat hozir dadasining o'grayishidan, bormasam bo'lmaydiganga o'xshaydi, deb Nizomjonning oldiga borishni bo'yniga olib qo'ydi.

— Ikki chelakkina o'rik ola ket. Cho'lda yaxshi ketadi. Ha, bozor bahosidan sal yuqoriroq ayt.

Dadasi aytmasa ham, Risolat shunday qilmoqchi edi. Iloji bo'lsa bitta qiyiqda bodring ham ola ketishni diliga tugib qo'ydi.

Ota-bola ayniqsa, shu kezlarda pulga tuzoq qo'yishgan edi. Risolat ertalab tug'ruqxona eshigi oldida qatiq sotadi. Tushlikda Chorterak guzariga zog'ora non olib chiqadi. Kechqurun o'rtancha o'g'lini yoniga olib, yozlik kino zalida pista sotadi. Kontrolyor chol, pistang qursin, zalni bulg'atyapsan, deb quvlayverganidan u tomoshadan keyin supurib berishni ham bo'yniga olgan.

Inoyat oqsoqolda-ku, tinim yo'q. Qo'liga nima tushsa, bozorga chopadi. Gohida sotadigan narsasi bo'lmay qolsa, bozor darvozasida turib olib muhtojlikdan sotgani olib chiqilgan narsa-

larni arzon-garovga olib, ichkariga opkirib, ikki baravariga sota-di. Xullasi, u qimirlasa pul tushib turipti.

Bundan bir yarim yillarcha muqaddam Inoyat oqsoqol taqiqlangan mol bilan qo'lg'a tushib qoldi-yu, militsiya molini olib qo'ydi. O'zini omon-eson qutqarganiga shukur qilib bir-ikki hafta bozorga chiqmadi. Bor-yo'q dastmoyasi o'sha mol bilan tamom bo'lgandi. O'zi ham shoshib qolib g'animatga uchradi, deb qirq kilo ipak, yigirma beshta amirkon olgan edi. "Chaquv-dan bo'ldimi, Xudodan bo'ldimi", ishqilib, militsiya darak topib uyini bosdi. Moli bilan o'zini ham olib ketdi. Qariligini nazarda tutib kechasi qo'yib yubordi.

O'sha pulsiz qolgan kezlarida bir gap tarqalgan edi. Chorte-rakliklar gap-gashtaklarda, to'y-hashamlarda eslab kulib yurisha-di. Inoyat oqsoqol puldan siqilib eshigining ostonasida yo Xudo, deb o'tirgan ekan, chorshanba bozorida sigirini sotib kelayot-gan narigi qishloqlik yigitning ariq bo'yida pul sanab o'tirganini ko'rib qoladi. Inoyat oqsoqolning ko'zlari o'ynab ketadi. Chida-masdan o'rnidan turadi-da, yigitning tepasiga keladi. Yigit ellik so'mliklarni bir tarafga, o'ttiz so'mliklarni bir tarafga qilib taxlar edi. Oqsoqol bir muddat pullarga suq bilan qarab turgandan ke-yin sekin yigitning yoniga cho'kkalaydi.

— Pulingni sanashib beraymi, uka?

— Nima, o'zim sanayolmaymanmi?

Oqsoqol yalinib so'raydi:

— Jon uka, ko'pdan beri pul sanaganim yo'q. Ke, bitta sanab beray. Juda sog'indim.

Yigit ham tantigina ekan, pul solingan qiyig'ini uning ol-diga surib qo'yadi. Oqsoqol pullarni bir-biriga qorishtirib yu-boradi-da, bismillo, deb o'ntalikni alohida, o'ttiztalikni alohi-da, elliklikni alohida qilib shoshilmay ajrata boshlaydi. U pul ushlaganda xuddi pashsha tutayotgandek nafasini ichiga yutib, birdan tap etib, panjasi bilan bosardi.

Inoyat oqsoqol pulning maydasi bilan yirigini bir xil ko'rar-di. Xoh bir so'mlik bo'lsin, xoh yuz so'mlik bo'lsin, bari bir, juda ehtiyot qilib ushlardi. U ko'pincha somsapazlardan nolib qolardi.

— Ha, pul ko'r qilgurlar, yog'li qo'l bilan pul ushlaydimi? Rasvo qipti-ya, shundoq aziz narsani kir qipti-ya.

Uni ko'pincha Marg'ilon bankasining eshigida uchratish mumkin edi. U yirtiq pullarni yarim bahoga olib bankadan bu-tuniga almashtirib olardi. Oqsoqol pulga aloqador qonunlarni suvdek ichib olgan edi. Nomeri butun bo'lsa bas, bank oladi.

Inoyat oqsoqol juda ixlos bilan yigitning pulini sanab bo‘ladi. Har qaysinisini yuz so‘m-yuz so‘m qilib ustidan belbog‘ qiladi. Xuddi g‘isht taxlayotgandek qilib chiqadi-da, merganga o‘xshab, bir ko‘zini qisib qaraydi. Yigit uning qilayotgan ishlarini zavq bilan tomosha qilib turardi.

Oqsoqol pullarni bir qilib qo‘yniga tiqadi. Yigitning rangi oqarib ketadi. Chol bermay to‘polon qilsa nima bo‘ladi? Guvohi bo‘lmasa. U jon holatda Oqsoqolga tashlanadi.

– Nima qilyapsiz? Nega yoningizga solyapsiz? Bering!

– Beraman, beraman, uka. Sabr qil. Jindek bag‘rimga bosay!

Oqsoqol pullarni bag‘riga bosib ko‘zlarini yumadi. Uning bu holati xuddi sevikli yorini bag‘riga bosgan oshiqning ahvolini eslatardi. Oqsoqol bir necha minut shu ko‘yda turgandan keyin, pullarni olib yigitga beradi.

– Mana, bo‘ldi, uka, bo‘ldi. Ammo maza qildim.

Oqsoqol yo‘l-yo‘riq bilgan odam bo‘lganidan juda bo‘lmasa ham sekin-sekin o‘zini o‘nglab oldi. Pulning chaqasi ham pul, so‘mi ham pul deb ishni maydadan boshladi. Eski do‘ppilarni tiyinga olib, siyohga bo‘yab, so‘mga sotdi. Undan guzarda qovun tilib sotish ham qolmadi. Kasalxonalarda chiqindi bo‘lgan eski choyshablarni uyga olib kelib, bo‘lak-bo‘lak qildirib, qiziga mashinada chetini bostirdi. Yuvdirib, dazmollatib chetiga qizil siyohda chiziq tortib dastro‘mol qilib bozorga olib chiqdi.

Selitrдан bo‘shagan kepak qog‘oz qoplardan paket yasab Marg‘ilon, Gorchakovodagi guruch bozorlarida sotdi. Moli kasod paytlarda bozor chetidagi hojatxona oldida suxaridan bo‘shagan yashikka ushatilgan kesak solib, oldiga bir qumg‘on iliq suv qo‘yib savobli ishdan ham pul topdi.

U shu tariqa militsiyaga oldirgan amirkon bilan ipakning pulini butlab oldi. Oqsoqol o‘sha pullarni jamg‘arib olgan bo‘lsa ham, ko‘ngli tinchimasdi.

– Bu ketganning o‘rniga kelgani. O‘limlik pulni xarjlab bo‘lmaydi, endigi tushadigani tirikchilikka, – derdi.

Hozir Inoyat oqsoqolning bozorda degani degan, aytgani aytgan. Undan bozorkom ham, pattachilar ham qo‘rqishadi. U mol qo‘yadigan joyni birov egallashga haddi yo‘q. U patta ham olmaydi.

– Bir emas, ikkita o‘g‘limni Vatan uchun qurbon berib qo‘yganman. Frontchining otasiga hurmat shumi? Gaplashib qo‘yaman.

U bir shovqin ko'targanda, hatto xaridorlar ham qochib ketishardi. Oqsoqol o'tmas molini ham xaridorga ishqab sotishni bilardi.

— Muhtojlikdan olib chiqdim, singlim. Urushda dadasi o'lgan nevaralarimning og'zidan yulib olib chiqdim. Azbaroyi shularga yegulik bo'lsin, deb. Men manavilarga o'xshash ispikulon emasman. Meniki xappayi halol.

Xaridorlar bu notavon cholga rahmlari kelib narxini surishtirmay olib ketaverishardi. Oqsoqol ham toshdan, ham tiyindan urib qolganini bilmay qolishardi. Mabodo bozorda moliya odami paydo bo'lib qolsa, u marhum o'g'li A'zamjonni o'rtaga solardi.

— Shundoq odamning dadasiman. Senlarga qahramon ham, ordiri ham inobatga o'tmas ekan-da. Senlar bu yerda xotinlarning issiqqina qo'ynida maza qilib yotibsanlar, mening bolam senlar uchun jonini berib qo'yi.

Oqsoqol shunday deb turgandan keyin uni tekshirishga kimning yuragi dov berardi. Undan qutulganlariga shukur qilib oldidan tezroq o'tib keta qolishardi.

Inoyat oqsoqolning yana bitta g'alati odati bor edi. U ko'pchilikka o'zini saxovatli, xayrli ishlarga ixlosmand qilib ko'rsatishga urinardi.

U devonaga yo'liqib qolsa, to odamlar o'tib ketguncha kisasini kovlab devonani umidvor qilib turaverardi. Odamlar ketib bo'lgandan keyin yonidan nosqovog'ini olib bir chekimni tiling tagiga tashlab ketaverardi. Uni bilmaganlar, Oqsoqol ko'p saxovatli-da, deb o'ylashardi.

Inoyat oqsoqol kuniga yarab turgan eshagini ham yolchitib boqmasdi. Faqat kechqurun oldiga cho'p tashlaydi. Ko'p ovqatga o'rgansa semirib dangasa bo'lib ketadi, derdi. Bozorga borganda oldiga beda tashlangan birona eshakning qozig'iga bog'lab qo'yadi.

Bozordagilar: Jinoyat amakimdi eshagining ham aytgani aytgan, degani degan, deyishsa, qishloqdagilar: Jinoyat oqsoqol eshagiga xalacho'pdi ham birovning toolidan sindirib oladi, deyishardi.

Xullas, Inoyat oqsoqol tili bilan birovga ozor bermasa ham qilg'i bilan, yurish-turishi bilan hammaning me'dasiga tegardi. Ana shuning uchun ham chorterakliklar o'g'li Nizomjon ketib qolganda sira ajablanishmagan edi.

— Ketgani durust bo'пти. Bu chol bolani sil qilib qo'yardi. Esi borida ketib qoldi.

Oqsoqol odamlar o'zi to'g'risida nimalar deyayotganini bilardi. Bilardi-yu, til suyaksiz, ko'rolmaganidan aljiydi, deb qo'ya qolardi.

Mana, bugun u nevarasini o'qishdan qoldirib bozorga olib ketyapti. Bola eshak orqasida indamay boshini yelkasiga suqib ketyapti. U bobosini yomon ko'rardi. U bobosi bilan necha marta bozorga borgan bo'lsa, biron marta unga kitob-daftar olib bermagan. Yalinib-yolvorganda ham u:

– Kitobni nima qilasan, o'rtoqlaringnikini o'qiyver, – deb jerkib tashlardi.

Bozorda bolalarning ko'zini o'ynatadigan narsalar ko'p. Chol olib bermaydi. Tush paytida bitta choynakda choy opkelib, belbog'idagi zog'ora nonni olib ushatib qo'yadi.

Hammadan ham bolaga alam qiladigani, ular bozordan bo'shagan chelak va savatlarni eshakka ortib kelayotganlarida bobosi yo'lda to'xtab, uning yonini tintib ko'radi.

– Yanglishib bironta tangani kissangga solib qo'yganing yo'qmi?

Bola ont ichsa ham, baribir tintib ko'raveradi.

Bir kuni ana shunday tintuv paytida bolaning kissasidan ikkita yigirma tiyinlik chiqib qoldi. Chol g'azabdan ko'karib ketdi.

– Xo'sh, bu qanaqasi? Hali o'g'rilikni ham o'rgandingmi?

Bola yig'lab, pulni ayasi berganini aytsa ham, chol ishonmadi.

– Ayam kitob olgin, deb berganlar.

– Meni aldab bo'psan.

Inoyat oqsoqol bolaning yuziga teskari shapaloq tushirib qoldi. Bola chirqillab yig'laganicha eshakning oldiga tushib chopib ketdi.

Kechqurun Oqsoqol qizidan surishtirgan edi, u pulni o'zi berganini aytdi.

– Esingni yeb qo'yibsan, ahmoq. Bolaning qo'liga shuncha pul berasanmi? Ikki tanga pulning yoniga uch tanga qo'shsa bir so'm bo'ladi-ya!

Ana shundan keyin Oqsoqol qiziga pulning qadri, puli bor odamning qo'li uzun bo'lishi, qayerga borsa ham xor bo'lmasligidan va'z-nasihati o'qib ketdi.

– Pul odamga darmon. Beli og'rigan kishi beliga ikkita yuztalikni bog'lab yotsa, og'rig'i taqqa qoladi. Puli yo'q odam tez qariydi. Nekalay vaqtidagi pullarni sen ko'rmagansan. Har pullar ediki, ushlang qo'ling yayraydi. Zolim pulni ipak qog'ozdan

chiqazardi. Bu pullar ham pulmi. Salga yirtiladi. So'lkavoyini g'ishtga tashlasang, jiring qilib ketardi. Rahmatlik dadam o'lganida meros taqsim bo'lib, menga bitta chervon tekkan edi. Tishimda tishlab yurib o'sha chervonni juvonmarg qilganman. Inqilob bo'lib, o'tmaydigan bo'lib qolgan. Esimga tushsa hali-hali yuragim ezilib ketadi.

Risolat dadasidan bu xil gaplarni ko'p eshitgan. Ko'p eshitaverganidan qulog'i pishib qolgan edi. U ham dadasidek qo'liga pul tushsa, tuflab hamyoniga tugardi.

Inoyat oqsoqol eshak ketidan yurib, bozor yo'liga chiqib oldi. Nevarasi boshida savati bilan o'tgan-ketganga angrayib goh orqada qoladi, goh undan o'zib ketadi.

Ko'cha betidagi go'ng uyib qo'yilgan joyda ikkita xo'roz qanotini yerga sudrab bir-biriga tashlanmoqchi bo'lib turibdi. Bolaning ikki ko'zi o'shanda. Tomog'ining tagidagi patlari hurpayib ketgan qizil xo'roz ko'kragini yerga tegizay-tegizay deb oldinga sapchimoqchi.

Bola yonlomasiga yurib keta turib undan ko'zini uzmaydi. Birdan nima balo bo'ldi-yu, boshidagi savat behining engashgan shoxiga tegib ketdi. Bola o'zini o'nglayolmay qoldi. Savat boshidan uchib balchiqqa to'nkarilib tushdi. O'riklar loyga qorishdi.

Inoyat oqsoqolning ko'zlari qinidan chiqib ketayozdi. Yugurib kelib nevarasining orqasiga tepdi. Bola munkib ko'kragi bilan yerga yiqildi.

— Haromi! O'ldiraman! Ter, hozir terib ol!

Bola ko'zlarni javdiratib, balchiq kechib o'riklarni tera boshladi.

Oqsoqol jahldan ko'karib, bolaga hamon o'shqirardi.

— Attang, attang, yetmish so'mli mol edi-ya. Hali qarab tur!

V

Risolat cho'l deganda ko'chma qum burgutdek uchib yurgan, bo'rilar, ajdaholar kelsang yutaman, deb turgan joyni tasavvur qilardi. U ertaklarda eshitgan borsa kelmasini Nayman taraflarda bo'lsa kerak, deb o'ylab yurar edi. U shuncha quvligi bilan hali ko'p narsalarni bilmasdi. Samolyot u yoqda tursin, hali poyezdga ham tushmagan edi. Risolat uchun butun dunyo shu Chortherak bilan Marg'ilon atroflaridan iborat edi. Eri frontga ketdi. Undan xat-xabar kelib turardi. Eri xatlarini o'qiganda urush bo'layotgan joylar nazarida Naymanning orqa taraflarida bo'lib tuyulardi.

U bugun Naymanga, Chortrakdan turib chaqirsa ovozi yetadigan joyga gruzovoyda ming marta yo ollo, deb yetib keldi.

Nayman sira cho'lga o'xshamasdi. Qani, qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan cho'l? Hammayoq g'isht, sement, yog'och.

Qulog'iga qalam qistirgan duradgor chollar payrahaga ko'milib taxta randalashyapti. Oldiga klyonka fartuk tutib olgan qizlar g'isht terishyapti. Bir juft tol tagidagi so'rida odam ko'p. Patefon tinmay "Bog' aro"ni olib turibdi. Mashina to'kkan shag'alning qaldirashidan uning ovozi eshitilmay ketadi.

Nayman borgan sari gavjum bo'lib borardi. Harbiy gospital ham shu yoqqa yordamchi xo'jalik uchun joy olib, bir haftadan beri to'qay buzdiradi. Yarasi yengilroq askar bolalar tol tagidagi so'rini to'ldirib urushda ko'rganlari, qaysi shaharda nima bo'lganini to'g'risida gapirib berishardi.

Askar bolalar uchun bu yoqda alohida qozon qaynatilmasdi. Zarkentdan kuniga uch mahal mashina qatnab, ularga ovqat tashirdi. Shu bahona bo'lib Zirillama bilan Nayman orasi ikki qadam bo'lib qoldi.

Sholi sepib bo'lingan. Bahor jalalari pollarni suvga to'ldirib sholi qiyog'ining qulog'idan tortib chiqardi. Endi ko'pchilikning qo'li bo'shab imoratga urinib ketgandi. Tog'a Zirillama qishlog'idagi azim teraklarni kestirib, imoratlariga yaratinglar, deb gospital mashinasida olti marta yog'och yubordi.

Nizomjon ham imoratga unnab ketgandi. O'zi g'isht quyib, o'zi devor ko'tardi. Bir uy, bir ayvon. Ayvonidan to'qay shundoqqina ko'rinib turadi. Tepasiga to'sin terib, shox-shabba bostirib lo'mboz qo'yishga tayyorladi. Tog'a yuborgan yog'ochlardan Nizomjonga tegmadi. Ikromjon uni atayin ro'yxatga kiritmadi. Avvaliga Nizomjon hayron bo'lib yurgan edi, Ikromjonning o'zi yorilib qoldi.

— Uka, sen shoshmasang ham bo'ladi. Avval bola-chaqasi qishloqda qolganlarning ishi bitsin. Yarim ro'zg'ori qishloqda qolib juda besaranjom bo'lib ketishdi. Ortib qolsa, albatta, senga beraman.

Nizomjon uning gapidan ranjimadi. To'g'ri, deb o'z ishini qilib yuraverdi. Vaqt bekor o'tmasin deb, loy qorib tepasi yopil-magan uy devorini suvamoqchi bo'ldi.

Risolat mashinada birovni biylatmay olib kelgan ikki chelak o'rik bilan bir qiyiq bodringni oldiga qo'yib savdoni boshlab yubordi. U qo'sh palla tarozida elektr chanog'idan posangi

qilingan tosh bilan o'rik tortardi. Kimsan, qaydan kelding, deb hech kim so'ramadi. Qaytaga cho'lga shundoq tansiq narsani olib kelgani uchun duo qilishardi.

— Kep qoling, bodringning ikkitasi uch so'm, o'rikning kilosi olti so'm. Chorterakning oq o'rigidan quruq qolmang...

Nizomjon chodir orqasida sement qorayotgan edi. Odamlarning g'ovur-g'uvuri orasida qulog'iga o'qtin-o'qtin allaqanday tanish ovoz eshitilib qolardi. Kim bo'ldi bu, deb quloq soldi Nizomjon. Ovoz tanish, juda tanish. U belkurakni tashlab chodir orqasidan chiqdi. Xoda uyib qo'yilgan joyning oldida odamlar to'dalanib nimadir qilishyapti. Nizomjon beixtiyor o'sha tarafga qarab yura boshladi. To'dani yorib qaradi-yu, esi oqqancha turib qoldi. Opasi. Qo'sha-qo'sha bilaguzuklar taqilgan bilagini shimarib, o'rik tortyapti. U chelak tagida qolgan oxirgi ezilgan o'riklarni tortmay, boring-e, bir kilo chiqsayam sizniki, chiqmay sayam sizniki, deb duradgor cholning fartug'iga to'kdi.

Nizomjon qishlog'ining ta'rifli o'rigini juda sog'ingan edi. Tol popuk chiqazgandan beri kun sanardi. O'rik gullagan bo'lsa kerak, g'o'ra tukkandir, rang olib qolgandir. Tagiga tapillab to'kilayotgandir...

Risolat duradgor choldan pulni olib, yoqasiga qo'l suqib, ko'kragiga joylarkan, birdan Nizomjonga ko'zi tushib qoldi.

— Voy, opaginang aylansin, qayoqlarda yuribsan? Muncha bemehr bo'lmasang, muncha toshbag'ir bo'lmasang!..

U tura solib Nizomjonning bo'yniga osilib oldi. Yig'lab uning hammayog'ini shilta qilib yubordi. Ularga hayron bo'lib qarab turgan kishilar sekin-sekin tarqab ketishdi. Risolat uni bag'ridan bo'shatib xodaga o'tirdi.

— Biz tomonlarda nima qilib yuribsan, opa? — dedi Nizomjon hayron bo'lib.

Risolat unga o'pkali qarab qo'ydi.

— Shunaqasan-da. Jigar jigarni qo'msaydi. Sendan boshqa kimim bor. Dadam qarib hassaga tayanib qolgan. Kechalari tushimga kirasan, biram ko'rgim keladi. Osh yesam ham senga ilinaman, suv ichsam ham. O'rigimiz boshini yeb pishib yotibdi, og'zing tegsin, deb olib kelgan edim. Seni topolmay sotvoraqoldim. Hech bo'lmasa yo'lkiramni ko'tarar-ku, dedim.

Nizomjon, opam menga o'rikdan olib qolgandir, deb o'y-lagan edi. U shunday xayol qilgandi, Zebixonni bir o'rik bilan siylab qo'yay, deb ham ko'nglidan o'tkazgan edi. Suv ichsa ham

ilinadigan opasi o'riklarni sotib bo'lgan ekan. Nizomjon tamshanib tanglayiga yig'ilgan suvni qult etib yutib qo'ydi.

— Ahvoling qalay? — dedi Risolat uning eskib, yog'i chiqib ketgan kiyimlariga ta'nali qarab.

— Yaxshi, — dedi Nizomjon.

— Hm, yaxshiligini ko'rib turibman.

Nizomjon shundagina o'ziga razm solib, kiyim-boshining tutdek to'kilib ketganini bildi. Darrov o'zini oqlashga urina boshladi.

— Gap kiyimdami, opa. Kiyim topiladigan narsa.

— Bo'lmasa shuncha yurib nima topding? — Risolat qovog'ini solib gapirdi. U shu gap bilan Nizomjonni tamoman mot qilmoqchi bo'lgandi.

Nizomjon boshini ko'tarib g'urur bilan gapirdi.

— Odamligimni topdim, opa, odamligimni.

Risolat nima deyishini bilmay uning og'ziga qarab angrayib qoldi.

Opa-uka ancha vaqtgacha biri biriga aytadigan gap topolmay indamay o'tirishdi. Jimlikni Risolat buzdi.

— Dildorga xat yozgan ekansan.

U shu gapni aytdi-yu, ukasining yuzida, ko'zida qanaqa o'zgarishlar bo'lishini bilmoqchi bo'lib tikilib turdi. Rostdan ham Nizomjon g'alati bo'lib ketdi. Risolat ichida: tamom, qo'lga tushdi, deb xulosa chiqardi.

— Xatni o'qidingmi?

Har qanday ayyorga bir soddalik kifoya qiladi, degandek bita soddalik bilan Risolat sirni boy berib qo'ydi.

— Menga xatini o'qitarmidi. Men unaqa oshiq-ma'shuqlarning xatlarini o'qimayman. Menga qara, bola. O'z opangdan yashirib nima qilasan. Axir, bir kun bo'ladigan ish bo'lgandan keyin aytaver. Nima qilasan, bayti g'azal yozib ovora bo'lib. Menga aytib qo'ysang, hammasini sarishta qilaman. Qani, aytchi, o'zi nima deydi?

Nizomjon opasining gapni burib ketganidan hayron bo'lib uni to'xtatishga urinib ko'rdi hamki bo'lmadi. U to'xtamay gapirardi.

— Dadamning ham niyati shu edi. O'zing ahmoqlik qilib qo'yib, endi borishga beting chidamayapti. Hali ham bo'lsa to-morqangdagi sholini o'rib olgandan keyin qishloqqa ket. To'yni qilaylik.

Nizomjon xandon tashlab kulib yubordi. Yigirma sotix joydagi sholidan ham xabar topishi-da!

— Menga qara, opa, — dedi Nizomjon kinoyali kulib. — Bu savdoni boshingdan chiqarib tashla. Dildorga uylanish niyatim ham yo‘q. Undan Karimning adresini so‘rab xat yozganman. Agar bu yog‘ini ham bilging kelayotgan bo‘lsa, sen bilan dadam yetkazgan ozorlar uchun Dildordan uzr so‘radim. Qishloqqa qaytib bormayman. Ishonaver. Qarorim qat‘iy. Uylanmoqchi bo‘lsam shu yerda uylanib, uy-joyli bo‘lib qolib ketaman. Gapning ochig‘ini aytsam, kimga uylanishim ham tayinli.

Nizomjon yonboshiga burilib havozadagi cholga g‘isht uzatayotgan Zebixonni ko‘rsatdi. Zebixonning egnida rangini oftob ko‘targan chit ko‘ylak. Sochini boshiga chambarak qilib olgan. Oyog‘idagi brezent etigining qo‘njarigacha loy bo‘lib ketgan edi. U shu ahvolda ham chiroyli ko‘rinardi. Har engashib chelakdagi loyni olayotganda bellari juda ham nozik egilib ketardi. Risolat unga qarab mahliyo bo‘lib qoldi. Ammo sir boy bermadi.

— Sovuqqina ekan. Diding qursin. Kelib-kelib shuni topdingmi. Dildor qayoqda-yu, bu turqi sovuq qayoqda!

Chinakamiga Dildor Zebiga qaraganda ko‘rkamroq edi. Risolat ukasini o‘ylashga ham qo‘ymay, bidirlashdan to‘xtamasdi:

— Butun topgan-tutganingni shunga yedirib yuborgandirsan? Arzisa ham go‘rga edi.

— To‘xta, to‘xta, opa, durustroq qaragin, juda chiroyli. Aqlililigini aytmaysanmi.

— Xotin kishiga aqlning nima keragi bor? Uyim desa, ro‘zg‘orim desa, erining izmidan chiqmasa, bo‘ldi. Shu aqlli bo‘lgani.

— Voy-bo‘, opa, dadamdan ham o‘tib ketibsan-a! Nazarimda, yigirma-o‘ttiz yil orqaga qaytib ketganga o‘xshaysan.

— Orqada qolgan bo‘lsam ham ro‘zg‘orim but, pochchang kelguncha bolalarni zoriqtirmay boqib turibmanmi? Bundan boshqa menga nima kerak? Sochimni kesib, kalta ko‘ylak kiysam durustmidi?

Nizomjon opasining fe‘lini yaxshi bilardi. Unga gap bilan bas kelish qiyin. U ham dunyoni puldan, moldan iborat, deb biladiganlardan.

Nizomjon tizzasiga tiralib o‘rnidan turdi.

— O‘zing nimaga kelganding?

— Seni ko‘rgani, dedim-ku.

— Qo‘ysang-chi, o‘rik sotgani kelgansan.

U shunday dedi-yu, bir qorindan talashib tushgan opasi jigari bo'lishiga qaramay dangal gapirdi:

– Menda boshqa gaping bo'lmasa, keta qol. Boshqa kelib ovora bo'lib yurma!

– Haydayapsanmi, hali? – dedi Risolat ko'ziga yosh olib.
– O'z opangni, uzoqdan diydoringni ko'rgani kelgan opangni quvlayapsanmi? Voydod, bu qanaqa bemehr bola chiqdi!

– Sekin gapir, baqirma. Odamlar eshitadi.

– Eshitsin, eshitib sening kimligingni bilib qo'yishsin.

Nizomjon sal yon berdi. Yana cho'nqayib opasining qarshisiga o'tirdi.

– Xo'sh, nima deysan? Ochig'ini aytaver.

Risolat xodadan turib to'nkarib qo'yg'an chelakka o'rnashib o'tirib oldi.

– Dadam qarib qoldi. Sen o'ylagan ilgarigi topishlar yo'q endi. Bir tiyinsiz, uyga qamalib o'tiripti. Xotin boshim bilan o'rik sotib, bodring sotib ovqatga qarayapman. Sendek o'g'li bo'la turib och o'tiripti. Xudo ko'rsatmasin, o'lib-netib qolsa og'ziga suv tomizadigan odam ham yo'q.

Nizomjon opasining gapiga ishondi.

– Xo'p, ozroq pulim bor. Beraman. Ko'ylak, etik olishga yig'ib yurgan edim. Mayli, keyinroq olarman.

U yonidan uch yuz so'mcha pul olib opasiga berdi.

– Dadam bechora Birinchi May bayramida ham oqlik kiy-madi. Bu puling nima bo'ladi?

– Boshqa yo'q-da. Keyin yana yuborarman.

Risolat o'rnidan turdi.

– Mayli, bo'lmasam men ketay. Shag'al opkelgan mashina qaytmoqchi bo'lib turibdi. Shundan qolmay. U mashina tomon-ga keta turib Zebixonga yer ostidan nazar tashladi. Havozadan tushayotgan Zebixonning ko'zi Risolatning ko'zi bilan to'qnashib qoldi. Risolat uni yeb yuborgudek bo'lib o'qraygan edi, Zebixon esankirab oz bo'lmasa havozadan ag'darilib ketay dedi.

Chelak-pelaklari bilan Nizomjon opasini mashinaga chiqazib qo'ydi. Jigar ekan, mashina orqasidan yuragi uvushib qarab qoldi.

Yo'l boshida xomush turgan Nizomjonning oldiga Zebixon keldi.

– Nizomjon, bugun o'rikxo'rlik qilarkanmiz-da. Opangiz o'rik olib keptilar, deb eshitdim.

Nizomjon noiloj iljayib qo'ydi.

– O‘rikni ikkalamiz ham kelasi o‘rik pishig‘ida yeydigan bo‘ldik. Men ham danagini ko‘rib qoldim, xolos.

U Zebixonga opasining ta‘rifini qilib bergan edi. Uning boshidan o‘tgan savdolarning barini bilgan Zebixon indamay kulibgina qo‘ya qoldi. Ikkovi asta yurib duradgorlar oldidan o‘tishayotganda bir chol o‘rikning ta‘rifini qilardi.

– Dunyoda Chortherakning o‘rigiga yetadigan o‘rik bo‘lmaydi. Shirasi danagiga ham urib ketadi-ya, jonivorning. Danagini ekib ko‘paytirish kerak.

Zebixon qilt etib tupuk yutdi. Uning o‘rik yegisi kelganini Nizomjon bilib turardi. Ko‘nglidan: “Noinsof opam, to‘rttagina opqo‘ymapti-ya”, degan gap o‘tdi.

VI

Asroradan xat keldi.

U konvert ichiga Karimjonning adresini ham solib yuboripti. Xatda shunday gaplar bor edi:

“Hozir zvenomizda katta to‘y. O‘tgan yili mudofaa fondi uchun plandan tashqari yuborgan ikki yuz oltmish kilo pilla uchun SSSR Mudofaa Komitetidan zvenomizning a‘zolariga nommanom tashakkurnoma keldi. Senga ham bor. Tabriklayman. Vaqting bo‘lsa kelib olib ket. Komsomollik salomi bilan Asrora”.

Nizomjonning chehrasi yorishib ketdi. Shu payt qadrdon do‘stlari, maktabdoshlari orasida bo‘lmaganiga achindi.

U o‘tgan yili pilla hosilini yaxshi eslaydi. Nizomjon yaxshi ishlagan. O‘shanda u barg kesar, qurt tutgan qizlarning uyiga oborib berardi. Azon paytlarida turib, to barg oftobda ilib qolmasdan kesib, ishiga chiqquncha taxt qilib qo‘yardi. Bir kun juda vaqtli uyg‘ondi-da, teshani belbog‘iga qistirib, tut kesgani ketdi. Kechqurun o‘rtoqlari bilan ko‘proq o‘tirib qolganidan uyquga to‘ymagandi. Barg kesayotib ko‘zi yumilib ketaverdi. Dovdirib shox qolib teshani qo‘liga urib yubordi. Ikkita panjasi shartta uzilib tushdi-yu, jonholatda bir qo‘li bilan osilib tutdan tushdi.

Shu uzilib tushgan ikkita barmoq tufayli u armiyadan qolib ketdi. Mana shu ikkita barmoq tufayli u bu tomonlarda yuripti. Agar o‘sha beparvolik bo‘lmaganda u Karimjon qatori frontda bo‘lardi. Asroraning xati Nizomjonni ancha ruhlantirib qo‘ygandi. U shu arzimas ishi uchun bunday katta mukofot bo‘lishini sira o‘ylamagan edi. Mudofaa Komiteti unga tashakkur e‘lon qipti. Bu juda katta mukofot. Bu katta baxt.

Shu kuni Nizomjon o'zida yo'q bir kayfiyatda iljayib yurdi. Sal xoliroq joy topsa darrov xatni oladi-da, o'qiydi. O'qigan sari ich-ichidan quvonadi. Uning bu kayfiyatidan hayron bo'lgan Ikromjon, nima gap, deb so'raganda u:

— O'zim, shunday... — deb qo'ya qoldi.

Keyin u o'zi-o'ziga, nima uchun yashiraman, deb savol berdi-da, xatdagi gaplarni unga aytib berdi.

— Barakalla, bolam. Tabriklayman, — dedi Ikromjon. — Astoydil qilingan mehnat zoye ketmaydi, shunaqa.

— Bir kungina qishloqqa borib kelsam, shunga nima deysiz?

— Bir kun emas, ikki kunoq bora qol. Hamqishloqlaringni ham sog'ingandirsan. Mayli, mayli, bolam.

Kechga borib jala quyib, tong otguncha momaqaldiraq gumburlab chiqdi. Yomg'ir palatadan o'tib, ko'rpa-yostiqlarni ham shalabbo qilib yubordi. Ikromjon bilan Nizomjon chopon yopinib mijja qoqmay chiqishdi. Ertalab ham havo qovog'ini solib turgan edi. Xayriyat, bir shamol bo'ldi-yu, bulutni haydab ketdi. Charaqlab oftob chiqib, sholikorlik pollarini to'ldirgan yomg'ir suvlarini oynadek yaltiratdi.

— Endi bo'lmadi. Ertaga borasan. Hozir sholikorlikni bir shaloplatmasak bo'lmaydi.

Odatda sholikorlik botqog'ida qancha ko'p shaloplatib yurilsa, shuncha qiyog'i ko'p bo'ladi. Oyoq tagida bukilib qolgan sholi poyasi bag'ri yerga tekkan joyidan ildiz otib, qo'shaloq shox chiqazadi. Shuning uchun ham sholikorlar suvni loyqalatib sholipoyadan chiqishmay kechib yuraverishadi.

Ikromjon yakka oyoqda kezishdan foyda yo'q, deb yog'och oyog'ining uchiga eski etikning tag charmini qoqib olgandi. U endi qo'sh tovon bilan sholi kezishni mo'ljallab turardi.

Nizomjon uning gapini qaytarolmadi. Ikkovlab o'z uchastkalariga qarab ketishdi. Nizomjon Ikromjonning shimini tizzasigacha shimarib suvga tushishini kuzatib turarkan, bu odamdagi bardoshga qoyil qolardi. Uning endi hech kimi yo'q. U yolg'iz boshiga muncha urinishning nima zarurligi bor, deb o'tirmay tun-u kun sholipoyadan chiqmaydi. Hamma o'ziga imorat uchun joy olib, g'isht terib tiklab qo'yganda bu odam hech narsa qilmadi. Nizomjon keyin bilsa, u o'ziga tekkan joyni unga bergan ekan. Ayniqsa, Ikromjon Jannat xola o'lgandan keyin o'zini ishga urdi. Hali uni qilar, hali buni qilar, ishqilib, tinmasdi.

Kechqurunlari horib-charchab chodiri oldida yakka o'zi choy ichib o'tirardi. Tol tagidagi so'rida gurunglashib o'tirgan-

larning oldiga bormaydi. Ular suhbatiga aralashmasligining sababini Nizomjon biladi.

Ko'pchilikning yo akasi, yo o'g'li urushda. Ular, albatta, bolalaridan kelgan xatni o'qishadi, urushdan, olingan shahardan gaplashib o'tirishadi. Agar Ikromjon ular yonida bo'lsa, ochilib gaplasha olmaydi. Uni ayab butunlay boshqa gaplardan ezmalanib qolishadi. Ikromjon ular suhbatiga tushib qolganda chodirga tabiati bir tarz bo'lib qaytardi. O'shanday kezlarda to yarim kechagacha chodir oldida qop-qora osmonga tikilib o'tiradi, keyin o'rniga kirib yotadi. Yotib ham darrov uxlay qolmasdi. Hali u yonboshiga, hali bu yonboshiga ag'darilib to'lg'anib chiqadi.

Nizomjon uning yog'och oyoq bilan sholipoyani shaloplatib, suvni loyqalatib yurishini ko'rib irodasiga qoyil bo'lardi. Odamning joni po'latdan qattiq, deb shuni aytarkanlar-da, deb dilidan o'tkazib qo'yadi. Bolasi boshiga solgan sharmandalik, xotining dog'i hasratda o'lib ketishi ham uning qaddini bukolmadi. Bu odam po'latdan ham qattiq.

Nizomjon ham shimini tizzasiga shimarib suvga tushdi. Suvni shaloplatib uning qatoriga o'tdi. Endi ularning ikkovlari yonma-yon borishardi.

— Kechagi yomg'irning sharofati, uka. Yomg'ir emas, osmondan osh, non yog'di. Qut-baraka yog'di. — Ikromjon zarur bir gap esiga tushib qolgandek birdan yurishdan to'xtadi. — E, uka, sigirni arqonlash esimdan chiqibdi-ku. Malol kelmasa, birrov borib qozig'ini sero'troq joyga qoqib kelgin.

Nizomjon darrov suvdan chiqdi. U ertalab Ikromjon sigirni olib ketayotgan joyini ko'rgan edi. O'sha yoqqa qarab yura boshladi.

Ikromjon xotini o'lgandan keyin sigirga ham qaramay qo'ygandi. Sigir bo'lsa o'n kundan beri sutdan qolgan. Uning sutdan qolishiga sira sabab yo'q edi. Xuddi kechasi birov kelib sog'ib qo'yayotganga o'xshaydi. Kim sog'ishi mumkin? Ikromjon shundoq ham sog'ilgan sutni chelakka solib so'riga opchiqib qo'yadi. Bolasi borlar keragicha chinnisiga solib ketaverishadi. Birovdan gumon qilishga Ikromjonning dili og'rirdi.

Nizomjon to'da-to'da bo'lib o'sib yotgan savag'ich uyumlari orasidan aylanib yalanglikka chiqdi. Sigir boya boylangan joyida turibdi. Har zamon engashib orqa oyog'iga qarab qo'yardi. Nizomjon bunga parvo qilmadi. Yaqiniga borganda birdan qo'rqib ketdi. Jonholatda orqasiga besh-olti qadam tisarilganini bilmay qoldi.

Sigirning yeliniga qo‘ydan kattaroq echkemar yopishib olgan edi. Echkemarning baqanikiga o‘xshash lablaridan qon aralash oppoq sut tomardi. U odam sharpasini sezib yelindan og‘zini olib, o‘ng yonboshiga qaradi-da, shoshib uzun dumi bilan xascho‘plarni to‘zitib qamishlar orasiga kirib ketdi.

Nizomjon rangi qum oqarib serraygancha turardi.

U hushiga kelib unga mo‘ltirab turgan sigirga qaradi. Keyin yelinidan qon oqayotganini ko‘rib darrov oldiga bordi. Echkemar bir emchakni so‘rib, momataloq qilib yuborgan edi. Nizomjon unga rahmi kelib darrov qoziqni sug‘urdi-da, Ikromjon ishlayotgan joyga yetaklab keldi.

– Sigirning ahvolini qarang, amaki. Echkemar so‘rib ketibdi.

Ikromjon shoshib suvdan chiqdi. Engashib yelininga qaradi. Boshini sarak-sarak qilib sigirning bo‘yinlaridan, sag‘risidan siladi.

– Jonivor, joningni qiynabdi-ku. Echkemarga yo‘liqibsan-da. Jonivor, jonivor.

Nizomjonga sigirning sutdan qolganligini Ikromjon aytgan edi. Kimdir sog‘ib qo‘yyapti, degandi.

– Sigirning sutdan qolishi endi ma‘lum, – dedi Nizomjon.

Ikromjon boshini sarak-sarak qildi.

– Yo‘q, uka. Echkemar emsa, manavunaqa yelinni yara qiladi. Sutdan qolishining sababi boshqa bo‘lishi kerak. Jonivor, endi bolasini qandoq emizadi. Menga bu tashvish ham bor edimi?

Ikromjon sigirni yetaklab ketarkan, orqasiga o‘girildi.

– Uka, bu yog‘ini o‘zing eplashtirib turasan-da. Mashina ketadigan bo‘lsa, sigirni qishloqqa berib yubormasam bo‘lmaydi. Ozroq podada yurmasa, biz bunda eplolmaydiganga o‘xshaymiz.

Nizomjon qurilish bo‘layotgan joyda mashina gurillaganini eshitgan edi. Hali qaytib ketmagan bo‘lsa kerak, ketsa ovozi chiqib qolardi, deb o‘yladi-da:

– Bo‘lmasa, tezroq boring, mashina ketib qolmasin, – dedi.

Ikromjon ketishi bilan u yana suvga tushdi. Botqoqni shaloplatib kecharkan, Ikromjon haqida o‘ylardi. Yaqin to‘rt oy hamxona bo‘lib uning dardini, yuragidagi hamma gapini bilib olgan edi. Har gal Ikromjonni o‘ylaganida sabri bardoshiga qoyil qolardi. Qani men ham shunga o‘xshasam, deb niyat qilardi. Hatto bir kun uning o‘ziga, men ham sizga o‘xshagan bo‘lsam, deb gap boshlaganda, Ikromjon gapini bo‘lib qo‘ygan edi.

– Qo‘y, qo‘y, bolam, menga o‘xshama. Sen menga o‘xshagan bo‘lmaysan. Men juda baxtsiz odamman.

U shu gapni aytib yuzini teskari o'girib, etagiga ko'zini artgandi.

O'shanda Nizomjon bo'yniga osilib yuzini o'ziga qaratgan edi. Ikromjon hech narsa bo'lmagandek, ko'z yoshini qilt etib yutib o'girilgandi. U Nizomjonga shunday o'rganib qolgan ediki, ovqatdan sal kechiksa, tovoqda ovqatini ko'tarib orqasidan qidirib yurar edi. Bir kun ertalab kiyinib ketayotganida cho'ntagida bir narsa do'mbayib turganini sezib, darrov qo'lini soldi. Bir chaqmoq qand.

Ular bir-birlariga juda o'rganishib qolishgan edi.

Nizomjon shunday xayollar bilan botqoq kecharkan, mashina gurillaganini eshitdi. Boshini ko'targan edi, qo'lida gazetaga o'roqlik bir narsa ko'tarib turgan Zebixonni ko'rdi.

— Nima qilib loy kechib yuribsiz? — dedi Zebixon.

Nizomjon unga nima deb javob qaytarishini bilmay suvdan chiqdi.

— Opangiz opketgan o'rikka bizni biylatmagan edingiz. Mana, siz xasislik qilgan bo'lsangiz, biz saxiylik qilamiz.

Zebixon ko'kat ustiga qog'ozga o'roqlik ikki kilocha o'rikni yozib qo'ydi.

— Iya, qaydan oldingiz?

— Uzumini yeng-u bog'ini surishtirmang. Ikkovi o'rik tepasiga cho'nqayib o'tirishdi.

— Oling! — dedi Zebixon.

— Avval siz oling, — dedi o'rikka qo'l urmay Nizomjon.

— Men yeganman. Sizga olib keldim.

— Shundoq bo'lsa ham siz avval oling.

— Yo'q, siz avval oling.

Nizomjon noiloj tuxumdek oppoq o'rikni qo'lga olib tomosha qildi. Keyin yeyishga ko'zi qiymagandek avaylab og'ziga soldi. Zebixon ham bittasini oldi.

— Voy, muncha shirin!

— Iya, — dedi Nizomjon, — hozir, men o'rik yeganman, degandingiz-ku?!

Zebixon yolg'oni fosh bo'lib qolganidan gapni hazilga burib yubordi.

— Boya yeganim sal g'o'rroq edi-da.

— Rostini ayting, qayerdan oldingiz? Xuddi qishlog'imizning o'rigiga o'xshaydi. Butun Farg'ona vodiysida Chortherakdan oldin o'rik pishmaydi. Boshqa joylarda endi rang olayotgan bo'lsa ajab emas.

Zebixon hali qishloqdan kelgan mashinada bir chol ikki yashik o'rik opkelib sotganini aytib berdi.

— Juda g'alati chol ekan. Surishtirmagan gapi qolmadi. Ikromjon amakim bilan bir balolarni g'ijillashib ham oldi. Sizing bitmagan uyingiz devorlarini silkitib ham ko'rdi. O'rik olayotganimda menga shunaqayam yomon qaradiki, qo'rqib ketdim.

Nizomjon uning gapiga uncha parvo qilmadi. Bironta bezbet chayqovchidir-da, deb qo'ya qoldi.

Nizomjon suvga qaytib tushmadi. Zebixon bilan orqaga qaytdi. U yo'lda ertaga qishlog'iga borib kelmoqchiligini aytgan edi. Zebixonning rangi qum oqarib ketdi.

— Qishloqda nima qilasiz? Dildorxonni sog'inib qolgandirsiz-da.

Nizomjon undan bu xil gapni kutmagan edi. Shoshib yonidan xatni chiqazib qo'liga berdi. Zebixon xatni o'qimay qaytib berdi.

— Men unaga birovlarining xatini o'qiydiganlardan emasman. Sirli gap bo'lmasa, shundoq aytib qo'yavering. Ishonaman, — dedi.

Nizomjon borishining sababini aytgan edi, Zebixon, shunday demaysizmi, deb yuborganini o'zi bilmay qoldi. U shaytonlik qilib qiqirlab kuldi.

— Menga nima olib kelasiz? Suyunchisiga nima sovg'a qilasiz?

— Sizgami? Sizga... — Nizomjon nima opkelishini o'zi ham bilmasdi. Nima opkelishi mumkin? U ham gapni hazilga burdi. — Sizga jonimni salomat qaytarib olib kelaman. Eshityapsizmi? Sizga o'zimni butunlay opkelib beraman.

Mana shu gapni Nizomjon ikki oydan beri ochiq aytolmay garang edi. Hazil-hazil bilan, uncha urintirib o'tirmay, o'ylatib o'tirmay og'zidan chiqdi-ketdi.

Zebixon o'zini bilmaganga, tushunmaganga soldi.

— E, atlas olib kelarmikansiz depman.

— Atlas hozir otliqqa yo'q-ku, biz piyodalarga yo'l bo'lsin.

— Sizga piyoda bo'lsin, deb kim aytdi, otliq bo'ling-da. Hazillashdim. Hazillashdim. Shu mahalda atlasga balo bormi, Nizomjon aka.

Nizomjon paytdan foydalanib uning bilagidan ushladi. Zebixon o'zini sal olib qochgandek bo'ldi-yu, ammo bilagini tortib olmadi. Nizomjon qo'liga uncha erk bermadi. Bu uning boyagi

aytgan gapiga qizlik iffati bilan qaytarilgan javob ekanini tushundi. Shu ahvolda yigirma-o'ttiz qadam bosishgandan keyin, Zebixon uning ko'ziga qarab g'alati, g'amzaga o'xshash tabassum bilan bilagini uning qo'lidan bo'shatdi.

— Yetar, a? Bo'lmasa suyilib ketasiz.

Nizomjon shu topda shunday kuchli bo'lib ketgan ediki, bir o'zi mana shu poyoni yo'q cho'lni ag'dar-to'ntar qilib tashlashga qodirdek edi.

Osmon ham sap-sariq cho'l ham ko'ziga ajoyib chaman bo'lib ko'rina ketdi. Qulog'iga allaqanday yoqimli tovushlar eshitila boshladi. Uydan chiqqandan beri taniga hokimlik qilib kelayotgan karaxtlik shu onning o'zidayoq allaqayga g'oyib bo'ldi qo'ydi, bir ko'ngli: hozir Zebini ikki qo'limga ko'tarib olaymi, desa, bir ko'ngli: qo'y, qo'y, muncha shoshasan, derdi.

Ikkovi oldinma-ketin, ochiq-oshkora tol tagiga kelishdi. Nizomjon yuragida tug'yon qilayotgan hislarni hamma bilib turibdi, deb o'ylagan edi. Yo'q, odamlar ilgarigicha o'z ishlari bilan ovora. U o'zini tunda chiroq ko'targan odamday hammaning ko'zi menda bo'ladi, deb o'ylagan edi. Yo'q, hech kim qaramadi. Chodir oldida ko'k choy ichib o'tirgan Ikromjon ham bosh ko'tarib hasratli boqdi-da:

— Dadang kelib ketdi, — dedi.

Nizomjon betini ham artmay uning oldiga keldi. Darrov Zebixonning boyagi gapini esladi. Demak, hali o'rik sotib ketgan, Zebixonga sovuq qaragan, Ikromjon amaki bilan g'ijillashgan, imoratning devorini ushlab ko'rgan dadasi ekan-da! U Ikromjon amakiga nima dediykin? Xafa qilmadimikin?

— Betlaringni artib ol! — dedi Ikromjon mehribon tovushda, keyin yonidan uchta yuz so'mlikni olib uzatdi. U bu pulni ilgaridan tayyorlab qo'ygan bo'lsa kerak, yonidan oldi-yu, sanamay uzatdi. — Dadang qiynalib qopdi. Sen bechorada pul yo'qdir. Manavini oborib ber.

Nizomjon pulni sekin uning tizzasiga qo'ydi.

— Olmayman. Kecha opam olib ketgan. Uch yuz so'm berib yuborganman.

Ikromjon boshini ko'tarmay gapirdi:

— Dadang bilan yarashganing durust bo'larmidi.

Nizomjon boshini qat'iy silkidi.

— Yo'q, amaki, uyga endi bir umr qadam bosmayman. Shu yerda butunlay qolaman, deb ahd qilganman.

Ikromjon boshqa gapirmadi. Faqat, o'zing bilasan, bolam, dedi xolos. Inoyat oqsoqol uni ko'pchilik o'rtasida yomon haqorat qilgan edi. Uni xoindan olib, xoinga soldi. Mening bolamga ham xoinlikni o'rgatmoqchimisan, dedi. Bolamga sholi ektirib o'zing pullamoqchimisan, deb o'dag'ayladi.

— Otasiman. Uning topgani meniki, qani, bitta sholini u yoq-bu yoq qilib ko'r-chi, gaplashib qo'yaman. Ko'zimning nuri, jigarbandimni Vatan yo'liga qurbon qilib qo'yibman. Mening sovunimga kir yuvmabsan hali.

Ikromjon bosh ko'tarmadi. Churq etmay o'tiraverdi. Odamlar cholning hamma gaplarini eshitishdi. Ikromjon bosh ko'tarib ularning ko'ziga qarolmay qolgandi. Nizomjon hali kelganda, u o'sha o'tirganicha, boshini ekkancha o'tirgan edi.

Nizomjon uning avzoyidan juda xunuk ish bo'lganini fahmladi-da, yoniga o'tirdi.

— Dadam sizni xafa qildimi?

— Yo'q, uka, yo'q, hech nima demadi. Qiynalib qoldim, dedi xolos.

— Ochig'ini ayting, amaki, bilay axir.

Ikromjon gapni boshqa yoqqa burvordi.

— Ertaga qishlog'ingga shu ahvolda borma. Anavi tugunda yangi etigim bor. Etikni qaysi oyog'imga kiyaman, o'g'lim. Sen kiyaver. Gimnastyorkam sal kengroq kelsa, hechqisi yo'q. Sal odamga o'xshab bor. Xor bo'pqopti, deyishmasin, bolam.

Tolga osig'liq ketmonni tosh bilan urib odamlarni kechki ovqatga chaqirishdi.

Ikkovi ham o'rnilaridan turishdi.

Tagida tutun buruqsayotgan bak oldida tunov kungi marshallarning kichigi — To'pponcha polvon shalag'i chiqib ketgan mototsiklning g'ildiragiga yel berayotgan edi. Nizomjon to'xtab unga salom berdi.

— Mullo bo'ling, inim. Ishlar qalay?

— Yomonmas, polvon amaki. Otingiz qani?

To'pponcha polvon gardanini qashib unga ma'noli qarab qo'ydi.

— Otmi? Ot frontga ketdi. Otlar ham urushishyapti, inim. Sen bilan biz baqlarda yuribmiz, xolos. Qani, bekor turgandan, bekor ishla, deydilar. To'rttagina yel urib yubor!

Nizomjon nasosni olib chaqqon-chaqqon yel bera boshladi. Qo'lida tog'oracha bilan bolasini opichlab oshxonaga o'tib ketayotgan To'lanboy uni ko'rib to'xtadi.

— Ha, boja, ishlar kataysa deyman?

U o'z gapidan o'zi ta'sirlanib tog'orachani chirmanda qilib, yor-yor aytib oshxonaga kirib ketdi.

VII

Nizomjon Chorterakka soat o'nlarda kirib bordi. U tug'ilib o'sgan qishlog'ining har bir devoriga, tanish daraxtlarda yashnab turgan ko'm-ko'k yaproqlarga suq bilan tikilib borardi. Kechagi yomg'ir o't-o'lanlar betidagi changlarni yuvib ketgan. Ariq chetlarida tizza bo'yi kelib qolgan o'tlar yomg'irda yerga yetib qolgan ekan, oftob bag'riga o'tib endi qaddini rostlab kelayotibdi. Tom bo'g'otlaridan, paxsa devorlaridan bug' ko'tarilyapti. Tarnovga qo'nib olgan musichalar ham ho'l. Ular juda xunuk bo'lib ketishgandi. Har yoz qip-qizil bo'lib pishib, Nizomjonning ko'zini o'ynatadigan Niyoz amakining olmasi belidan cho'rt sinib devorga yonboshlab qopti. Uning yong'oqdek bo'lib qolgan g'o'ralari xuddi ko'chadan o'tgan-ketganning rahmini keltirib, mo'ltirab turganga o'xshaydi. O'rikzorning nari yog'idagi yolg'izoyoq yo'ldan bir to'da qariyalar boshlariga salla o'rniga qiyiq tang'ib asta ketishyapti. Bu chollar ko'pincha to'y-ma'rakalarga, azalarga shu tariqa jimgina tizilishib ketishardi. Kallaklangan tutzor orqasidan Dildorlarning oq tunuka tomli uyi ko'ringanda Nizomjon bir dam ma'yus nazar tashladi-yu, ortiqcha hislarga berilishdan o'zini saqlab jadal yurib ketdi.

Yo'l loy bo'lib ketganidan chetdan, chimlar ustidan borardi. Yo'llardan arava qatnayverib uzun-uzun izlar qoldirgan. Bu chuqur izlarda hali rangi aynimagan yomg'ir ko'lobi yiltirab turrardi. Nizomjon etigini ayab ko'lmaklardan ehtiyot qilib pravleniye yo'liga chiqib oldi.

Ana idora. Chap tarafdagi ochiq deraza komsomol komite-tining kabineti. Asrora kabinetdamikin? Yo dalaga chiqib ketganmikin. Albatta, uni koyib beradi. U yaxshi qiz, urishadi, urishadi, keyin yumshaydi. Asrora Karimjon bilan ham avval urishib, yumdalashib, keyin uni yaxshi ko'rib qolgan. Uni jonidan yaxshi ko'rardi-yu, bari bir urishaverardi. Fe'li shunaqa uning. U Karimjon bilan yoqalashaverib, papiros chekishni tashlatdi. Karimjon oldin sochini yuqoriga taramay chakkasiga tushirib yurardi. Asrora, munaqasini yomon ko'raman, deb uni yuqoriga tarashga majbur qildi. U Karimjon bilan har ko'rishganda tirnog'igacha qarardi. Kishi bilmas qulog'ining ichiga ham ko'z

tashlab olardi. Agar tirnog'i olinmagan bo'lsa, qulog'i kir bo'lsa, naq uni baloga qo'yardi. Agar Karimjon uning gapini elamasa, ko'pchilik yig'ilib turgan joyda payt poylab turib yuziga solardi. Karimjon bir qizarib, bir bo'zarib tishini g'ichirlatardi-yu, inda-yolmasdi. Aytganiga ko'nmasam ko'pchilik o'rtasida sharmanda qiladi, deb u yoq-bu yog'ini tuzatib, keyin uning ko'ziga ko'rinaradi. Asrora to'pori qishloq bolasini sal kunda ko'pchilikning ko'ziga ko'rsatib qo'ygan edi, Karimjonning onasi Asrorani duo qilardi.

— Voy, baraka topkur-e, hammom desa labiga uchuq toshadigan bolamni odam qilib qo'ydi-ya.

Nizomjon ana shularni eslab kulib qo'ydi. Pravleniye oldida Adolat turardi. U Nizomjonni ko'rib qoshlarini kerib qarab qoldi.

— Ha, qochoq, qayoqlarda yuribsan?

Nizomjon gap topolmay chaynaldi. Uning xijolat bo'layotganini sezgan Adolat boshdan-oyoq bir qarab chiqdi-da:

— Juda po'rim bo'lib ketibsan-ku, — dedi.

Nizomjon nima deyishini bilmay iljaydi.

Adolat u bilan qo'l berishib ko'risharkan:

— Qani yur! — dedi. — Asrora opamni ko'rib kelamiz. Shoshma, kabinetga bir kirib chiqaylik-chi.

Adolat ichkariga yura boshladi. Nizomjon unga ergashdi. Komitet kabineti o'sha Nizomjon ko'rgan paytidan o'zgarmapti. Hamma narsa joy-joyida. Faqat devorda qizil ramkaga solingan yorliq. U yaqinroq borib qaradi. Bu VLKSM Markaziy Komitetining paxtadan mo'l hosil yetishtirgani uchun zvenoga yuborgan Faxriy yorlig'i edi. Adolat stol tortmasidan qog'ozga o'ralgan narsani oldi.

— Yur, ketdik!

Ikkovi yana tashqariga chiqishdi.

— Qayoqqa boramiz? — dedi Nizomjon yurishdan to'xtab.

— Asrora opamni ko'rib kelamiz, deyapman-ku senga.

— Asrora qayoqda?

— Hali xabaring yo'qmi? Asrora opam kasalxonadalar-ku.

— Nima qildi? Kasalmi?

Adolat nima deyishini, gapni nimadan boshlashini bilmay uning basharasiga qarab turdi-da:

— Yuraver, yo'lda aytib beraman, — dedi.

Ikkovi yo'lga tushishdi. Adolat katta yo'lga chiqib olishgandan keyin bo'lgan voqeani gapirib berdi.

Asroraning zvenosi g'ozalarini yaganadan chiqarib, birinchi qurtni ham tutib tamom qilgan. Terilgan pillalarni aravalarga ortib punktga jo'natib bo'lgan edi. Rais opa soyning berigi tomondagi g'ozalar hali ham yaganadan chiqmaganini aytib qoldi.

— G'ozaga to'piqdan oshib qoldi. Xotinlar eplasholmayapti. Hammasi yosh bolali xotinlar. Xayoli bolasida, bir oyog'i yasilda, bir oyog'i dalada. Jon singlim, qizlaringni hasharga obormasang, bo'lmaydiganga o'xshaydi.

Darhaqiqat, yettinchi zvenoda faqat frontga ketganlarning xotinlari ishlashardi. Soyning narigi tarafidagi yaqinda Asroraning qizlari kallaklab ketgan tutlarga arqondan belanchak qilib, ularning bolalariga Oysha amma degan kampirni enaga qilib qo'yishgan. Ertasiga Asrora qizlarni ishga solib ularga yordamga bordi. Havoning qovog'i soliq. Adir orqasida zalvarli qo'rg'oshindek bulut ko'tarilib kelardi. Adolat qo'lini ko'ziga soyabon qilib o'sha tarafga qaradi-da:

— Voy-bo', Maymanaga rosa jala quyayapti, — dedi.

Hamma bulut ko'tarilayotgan adir tepasiga qaradi. Haqiqatan ham, o'sha tarafga jala quyayotgani shundoqqina bilinib turardi. Birdan shamol esib birpasda bo'ronga aylanib ketdi. Shamol zveno yerini aylanma qilib o'rab olgan teraklarning belini bukib, shaftolilarning shoxlarini qarsillatib sindirardi. Bo'ron Adolatning boshidagi ro'molini yulib uchirib ketdi. U ro'molni quvib soy yoqasiga kelganda birdan to'xtadi. Soy quturib, loyqalanib, ko'pirib oqardi. Maymanaga kelgan sel adirlardan quyilib shu soyga tushayotgan edi. Xotinlar qiy-chuv ko'tarishdi. Soyning narigi betidan enaga kampir tashvishli qo'l siltadi. Xotinlar chuvillashib soy yoqasiga kelishdi. O'tishning iloji yo'q. Quturgan suv yakkacho'pni chil-chil qilib, oqizib ketgan. Nima qilish kerak? Bulut shu tarafga yopirilib kelyapti. Saldan keyin tutzor ustiga yetib keladi. Bolalarning ahvoli nima bo'ladi? Bu joyda boshpana bo'lmasa.

Asrora, shoshmanglar, dedi-da, orqasiga qarab yugurib ketdi. Bedazor orqasida dala uchastkasining ustaxonasi bor. Unda kolxozning yuk mashinasi dalonda turibdi. Shu bilan o'tmasa boshqa iloji yo'q. Shofyorning armiyaga ketganiga olti kun bo'ldi. Asrora traktor haydashni o'rganib yurgan paytlarida unchamuncha mashina haydashni ham mashq qilib ko'rgandi. U shamoldek yelib ustaxona darvozasiga yetib keldi. Duradgor chol oftobga qo'yg'an romlarni yomg'irda ivimasin, deb ayvonga tashiyotgan edi. Asrora kira solib unga qichqirdi:

– Mashinaning kaliti kimda?
– Menda, nima edi?
– Bering. Tez, tez bering. Bolalar halok bo‘ladi. Bolalar sel-
da qolyapti.

Usta shoshib ichkariga kirdi-da, kalit opchiqib berdi.

Asrora o‘zini mashinaga urdi. Rulga o‘tirib harchand urinadi, qani endi yursa. Motor ishlaymaydi. U kabinadan chiqib kopotni ko‘tardi. Shofyor akkumulyator o‘tirib qolmasin, deb tokini uzib qo‘ygan edi. Asrora darrov ulab yana kabinaga kirdi. Motor uncha tixirlik qilmay, bir-ikki urinishdayoq gurillab ketdi. Asrora uni darvozadan avaylab olib chiqdi-da, o‘qdek otilib soy tarafga ketdi. Mashina do‘ng yerda goh lapanglab, goh sapchib uchib borardi. Orqadan qarab qolgan kishilar Asrora haydayotganini bilmay shofyor ichib olganga o‘xshaydi, ishqilib Xudo asrasin-da, deb qarab qolishardi.

Xotinlar soy bo‘yida hamon chirqillab turishardi. Kampir qo‘llarini silkitib nimalardir deb qichqirardi. Osmondan yomg‘ir chelaklab quygandek yog‘ardi. Asrora mashinani qirg‘oqqa keltirib to‘xtatdi. Kabina eshigidan boshini chiqarib suvga qaradi. Adolat eshikka osildi.

– Suvga tushma, opa. Yomon oqyapti, quturib oqyapti.

Asroraning qulog‘iga uning gapi kirmasdi. U qaysi tarafdin kechish mumkinligini qidirardi. U Adolatning ko‘krigidan itarib yubordi. Adolat orqasi bilan yerga o‘tirib qoldi. Asrora motorga o‘t berib, mashinani tikka soyga soldi. Xotinlar biron dahshat bo‘lishini kutgandek churq etmay suvda g‘ildiragi botib borayotgan mashinaga qarab turishardi.

Mashina g‘ildiragi orqasiga suv purkab sekin-sekin kuzoviga botdi. Suv kabinaga chiqdi. U xuddi bahaybat baliqdek suvni ikki tomonga yorib shitob bilan ilgariga suzib boryapti. Ana, o‘rtasiga keldi...

Mashina bir lapangladi-da, yana ilgariladi. Suv birdan kabinaga tomni ko‘mib yubordi. Sal o‘tmay kuzovning to‘nkarilayotganini ko‘rib qolishdi.

Ana shundan keyin nima bo‘lganini bilolmay qolishdi. Mashina ham, Asrora ham suvda yo‘q bo‘lib ketgan edi.

Xotinlar birdan qiy-chuv ko‘tarishdi. Mashina to‘nkarilgan joy shunday bilinib turibdi. Suv o‘sha yerdan sapchib o‘tyapti. Bir mahal qarajak, Asrora narigi qirg‘oqqa qarab suzib ketyapti. Suv dam oqizib ketadi, dam chetga otadi. Yo‘q, narigi yoqqa chiqib oldi. Gandiraklab borib bolalarni ko‘tarib o‘zimiz kallak-

lab olgan tut tepasiga chiqazib qo'yaverdi. Bola bechoralar kallaklarni quchoqlab bizga qarab baqirishadi. Asrora opam qolgan ikki bolaning bittasini opichlab, bittasini ko'tarib tutga yopishib turaverdi. Suv oyoqlari orasidan oqib o'tyapti. Sel quturgandan quturadi, bolalar baqirishadi. Bu yoqda qolgan xotinlar damlarini ichlariga yutib, churq etmay turishihti. Xayriyat, voqeadan fermadagilar xabar topishgan ekan, qir tarafdin aylanib to'rt otliq yetib keldi. Otliqlar egar oldiga, orqasiga bola mindirib, birini opichlab, birini qo'lida ko'tarib olib ketishdi.

Nizomjon Adolatning gaplarini hayajon bilan eshitib borardi.

— Asrora opam qattiq shamollagan ekan. Isitmasi tushmaypti. Kechasi yonida edim, juda ko'p alahladi.

Ikkovlari kasalxonaga yetib kelishdi. Nizomjonni navbatchi xotin ichkariga kiritmadi. Adolat xalat kiya turib:

— Sen tashqarida, deraza tagida tur, — deb tayinladi.

Nizomjon Asroraning shaddodligini, hech narsadan tap tortmasligini bilardi-yu, ammo mana shunday qahramonlik qila oladi, deb sira o'ylamagan edi. U bu qahramon qizning jasurligiga qoyil qolib, u yoq-bu yoqqa qarab turarkan, birdan yong'oq tagida o'tirgan opasiga ko'zi tushib qoldi. Bormoqchi bo'lib turgan edi, to'xtadi. Opasi oldiga bir chelak qatiq, savatda bodring qo'yib sotayotgan edi. Nizomjon qip-qizarib ketdi. Uning oldiga borishdan xijolat tortdi. Beixtiyor u opasi bilan Asrorani solishtira boshladi.

Asrora bilan uni sira tenglashtirilmadi. Opasining pastkashligi shu topda juda aniq bilinib ketdi.

Deraza pardasi ko'tarilib Adolatning boshi ko'rindi.

— Uxlaypti, — deb shivirladi u. — Bugun javob berisharkan. Isitmasi tushipti. Sen ketaver, kechqurun pravleniyega kelsang, uchrashamiz.

Nizomjon opasiga ko'rinmay yong'oq orqasidan aylanib o'tib ketdi. U qayoqqa borishini bilmasdi. O'ylab-netib o'tirmay qishloq tarafga qarab yura boshladi.

Tug'ilib o'sgan qishlog'ining har bir qarichi tanish, qadrdon ko'chalaridan o'tib guzarga keldi. Samovarda unchalik odam ko'p emasdi. U choy chaqirib tol tagidagi palos solinmagan so'riga omonatgina o'tirdi. Choyxo'rlar Asrora to'g'risida gaplashib o'tirishardi.

— Baraka topkur, azamat qiz ekan. Agar shu bo'lmaganda allaqancha bola nobud bo'lib ketardi-ya!

- Rahmatli dadasi, o‘g‘lim yo‘q, deb o‘ksinardi. Tirik bo‘lganda o‘nta o‘g‘ilning o‘rnini bosadigan qizi borligini ko‘rardi.
- Nizomjon ularning gaplariga jimgina quloq solib o‘tiraverdi.
- Bugun oblastdan ulug‘lar kelisharmishmi?
- Ha. Maskopdan pillachilarimizga rahmatnoma kelgan. Shuni oblvoyenkomning o‘zi topshirarmish.
- Rosa qiyqiriq bo‘larkan-da, a?! Ilgari shunaqa yaxshi xabar bo‘lganda artistlar kelib o‘yin ko‘rsatishardi.
- Ishqilib, qizlarimiz baraka topishsin. Shular obro‘ olib turishipti. Azamatlarimizning yo‘qligini bildirmay turishipti.
- Nizomjon choyni qaynoq-qaynoq ho‘plab o‘rnidan turdi. Kechqurun yig‘in bo‘lguncha dalalarni aylanib kelmoqchi bo‘ldi. U endi o‘rikzor tomonga burilgan ham ediki, oldidan eshagiga xalacho‘p nuqib dadasi chiqib qoldi.
- Oqsoqol bir muddat ko‘zlarini pirpiratib turdi-da, xalacho‘pni belbog‘iga suqib, qoshlarini chimirdi.
- Ahmoq!
- Nizomjon boshini egib turaverdi.
- Yur! – deb buyurdi Oqsoqol. Nizomjon joyidan qimirlamadi.
- Yur, deyapman senga!
- Nizomjon boshini ko‘tarib uning betiga qaradi. Chol yomon o‘grayib turardi.
- Qayoqqa boraman?
- Uyga!
- Yo‘q, bormayman!
- Oqsoqol eshakdan tushib yoniga keldi-da, tirsagidan siltab oldinga itarib yubordi.
- Hozir uyga borasan. Qayoqqa gumdon bo‘lsang ham, orani ochiq qilib ketasan. Sen mendan osonlikcha qutulmaysan.
- Nizomjon uning oldiga tushib jadal yurib ketdi. Chol yana eshakka mindi. To uyga kelgunlaricha na u, na bu gapirdi. Oqsoqol eshikka urilgan kishan qulfni ishtonbog‘iga bog‘langan kalit bilan ochdi. Hovliga kirishdi.
- Qayoqlarda sanqib yuribsan? – chol unga o‘dag‘ayladi.
- Qayoqdaligimni borib ko‘rib kelibsiz-ku.
- Endi ketib bo‘psan.
- Ketaman!
- Yo‘q, ketolmaysan!
- Meni oq qilgansiz. Oqpadar bola bu uyda turishga haqsiz.
- Oq qilgan bo‘lsam, jahl ustida aytganman.

Nizomjon qat'iy javob qildi.

— Onamni sil qilib o'ldirdingiz. Bu zindon uyda qololmayman.

Oqsoqol o'dag'aylab kelib uning yuziga bir shapaloq tushirdi.

— Onangni men o'ldiribmanmi, yaramas! U o'z ajali bilan o'ldi.

— Siz Dildorni baxtsiz qildingiz, meni darbadarlikka majbur qildingiz. Onamni o'ldirdingiz. Urushda qon to'kkan akamning xotirasini oyoqosti qildingiz. Sizga yana nima kerak?

Oqsoqolning tizzasidan darmon ketib supa chetiga o'tirib qoldi. Uning oyoqlari titrayotganini Nizomjon ko'rib turardi. U otasiga kimligini ko'z oldiga keltirib qo'ygan edi. Oqsoqol shuncha yoshga kirib hali hech kimdan bunaqa ta'na eshitmagan edi. Bu gaplarni o'z bolasi aytyapti. Ko'zini baqraytirib turib aytyapti. Bu qandoq zamon bo'ldi.

Chol o'rnidan turib omborxonaning eshigini ochdi. Ancha vaqtgacha nimalarnidir taraqlatib so'kindi. Keyin xuddi jinniga o'xshab yugurib chiqdi-da, Nizomjonning qo'lidan sudrab olib kirdi.

Titrab turgan qo'llari bilan gugurt chaqib chiroq yoqdi. Qorong'i hujra yorishgandek bo'ldi. Nizomjon turgan joyida dong qotib qolgan edi. Chol hali u narsani, hali bu narsani u yoqdan-bu yoqqa otardi.

— Kim uchun, kim uchun yig'dim bu narsalarni...

Hujra ichi anvoyi narsalarga to'lib ketgan. Tuya sandiq ichi atlas, shohilarga, to'p-to'p baxmallarga to'la edi. Tokchada besh yuz qutidan ortiq gugurt sochilib yergacha to'kilib yotardi. Chol chamadonga o'xshash qutini olib unga ham shoshib kalit soldi-da, ochib bir dam qarab turgach, Nizomjonning oyog'i tagiga irg'itdi. Tilla bilaguzuklar, marvaridlar, qo'sha-qo'sha soatlar yerga sochilib ketdi. Chol telbalanib qo'liga tushgan narsalarni unga irg'itaverdi. Bunda kumush shamdondan tortib, juft-juft qilib bog'lab qo'yilgan qorako'l terigacha, yashik-yashik kir sovundan tortib, yuzta-yuzta qilib boylangan tagcharmgacha bor edi.

— Mana, mana! Bularni kim uchun yig'dim? Kim uchun yig'dim?

Oqsoqolning jazavasi tutib kleyonka dasturxonga tugilgan bir nimani olib cho'nqayib o'tirib yechdi-da, ichidan yuz so'mliklarni olib boshidan oshirib sochaverdi.

— Kim uchun! Kimga deb yig'dim bularni? Ko'r bo'lgur, basir bo'lgur. Xudoyo xudovando ikki ko'zing sitilib oqsin seni.

Urush odamlarning tinkasini quritgan. Kim ro'zg'orida nima bo'lsa, opchiqib eri, o'g'li frontdan kelguncha bola-chaqasini omon saqlash payida sotardi. Ular urush tugasa, bu narsalarning o'rni to'lib ketadi, deb ishonardi. Asroraga o'xshaganlar eng yaxshi ko'rgan buyumlarini sotmadi ham, qizlar bilan bir bo'lib davlatga topshirdi. Hech bo'lmasa dushmandan to'rt enlik erimizni qaytarib olishga mador bo'ladi, deb topshirdi. Odamlar shunday qilib turgan paytda Oqsoqol mulk yig'di. Ularning muhtojligidan foydalandi. Mana, qoziqqa ilig'lik turgan po'stinini Karimjonning dadasi qish kunlari kiyib yurardi. Demak, Oqsoqol arzimagan pul bilan uning egnidan yechib olibdi. Urush boshlangan kuni Oqsoqol magazinda nima bo'lsa tashib kelavergan edi. O'sha gugurtlar hali ham turibdi. Tuzning o'zidan necha pachkasi bor bu hujrada. O'n besh qopga yaqin unni taxlab qo'yibdi. Shu ahvolda och qoldim, deb Naymanda to'polon qilib keldi. Opamdan ochdan o'lyapman, yordam bersin, deb yalang'och tanamga ko'ylak olish uchun yiqqan oxirgi pulimni ham oldirib ketdi. Mana pul! Hamma pul unda!

Chol hamon telba tovush bilan baqirardi.

— Bularni kimga atab yig'dim? Sendan so'rayapman, oqqadar?!

— Bilmadim, — dedi yelkasini qisib Nizomjon.

— Bilmaysanmi? Bilmaysanmi? Hozir hammasiga o't qo'yib kulini sovuraman.

— Ixtiyor sizda! Mayli, yondiring! Kuyib ketgani ma'qul.

— Bilasanmi, bu narsalarni qanday qilib yiqqanimni?

— Bilaman, — dedi Nizomjon sovuqqonlik bilan.

— Bilmaysan. Bilmaysan! Hojatxonalar oldida kesak ushatib o'tirib, birovlarining qo'liga suv quyib topganman. Sen yaramas, odamga o'xshab yashagin, deb o'zim qattiq non yeb, sovuq suv ichib to'plaganman. Kechalari uxlamaganman.

Nizomjonning kallasi g'uvillab, qo'llari mushtga aylandi.

— Onamning rizqidan yulib qolib orttirgan noningiz menga kerakmas. Onamga yamoq bo'z kiydirib orttirgan atlasingiz menga kerakmas. Men bu mollaringizga tupuraman! Kerak bo'lsa, ishlab o'zim topaman. Sizga o'xshab haromdan emas, peshana terim bilan topaman.

Oqsoqol po'stakka o'tirib qoldi. Boshi quyi egildi. Nizomjon titrab-qaqshab unga qarab turardi.

Otasi endi qarib kuchdan qolgan edi. Qo'l tomirlari ko'karib, terisi turtib chiqib qopti. Eski mahsi qo'njidan irkit paytava osilib yotibdi. Nizomjon unga qarab turib alam bilan o'ylardi:

“Qani edi, boshqa otalardek bo‘lsa, boshimga ko‘tarmasmidim. Qariganda izzatda yashamasmidi. Shu ahvolda ham u mening tashvishimni qilayotgani yo‘q. Topgan xazinasi har qayerlarda qolib ketmasin, deb bezovta bo‘lyapti”.

Nizomjon shart burildi-yu, eshikka otildi.

Oqsoqol orqasidan qarg‘ab qoldi:

– Juvonmarg bo‘l! U dunyo, bu dunyo kosang oqarmasin!

Nizomjon onasi jon bergan uyga ma‘yus qarab turdi. Yuragi ezilib sekin-sekin yurib ko‘cha tarafga chiqa boshladi.

Bu uyga qaytib kelish endi yo‘q. Kindik qoni to‘kilgan uy, ona izlari tushgan hovli, ona ko‘z yoshlarini shimgan tuproq, xayr! Bolang endi bu dargohga kelmas bo‘lib ketyapti. Bolalik qilib biron ozor yetkazgan bo‘lsa, o‘zing kechir! Onasan, onalar bolasini hammavaqt kechirgan. Sen ham kechir, bolangni!

Nizomjon ko‘zida yosh bilan ostonadan hatladi.

Botayotgan oftob daraxt barglarini cho‘g‘dek chaqnatardi. Nizomjon zax, kuyadori hidiga to‘lgan hujradan chiqib, ko‘ksini to‘ldirib nafas oldi.

Klub tarafdandamnlarning g‘ovur-g‘uvuri eshitilardi. Nizomjon o‘sha tomonga qarab dadil yurib ketdi...

U Naymanga kelishi bilan ko‘ngilsiz voqeaning ustidan chiqdi.

Ariq qaziyotganlarga choy olib borayotgan edi, qum tarafga ketayotgan Zebixonni ko‘rib qoldi, unga qo‘l siltab, hozir kelaman, deb ketdi. Qaytishda qulog‘iga g‘alati tovush eshilib to‘xtadi. Quloq solsa Zebixonning ovozi.

U dodlardi. Nizomjon qumg‘onni uloqtirib ovoz kelgan tarafga chopaboshladi. Zebixon savag‘ich uyumiga o‘tirib olib bir oyog‘ini tizzasiga olganicha chinqirardi.

– Nima bo‘ldi? – dedi shoshib Nizomjon.

– Chayon, chayon!

– Chayon chaqdimi?

U Zebixonning javobini ham kutmay, dastro‘molini shartta yirtib engashib o‘ng oyog‘ining ko‘karib ketgan bosh barmog‘ini siqib bog‘lay boshladi. Zebixon oyog‘ini tortib olishga urinardi, ammo Nizomjon kuchining boricha mahkam ushlab olganidan qimirlatishga kuchi yetmasdi.

Joni bir oz tinchidi shekilli, Zebixon chinqirmay qo‘ydi.

Nizomjon uning qavat-qavat bo‘lib ketgan peshanasiga, muttasil titrab turgan iyaklariga qaradi.

– Hali ham og‘riyaptimi?

Zebixon boshini qimirlatib qo‘ydi. Gapirishga unda mador yo‘q edi.

— Oh, bir tomchigina odekolon bo‘larmidi-ya! — deb yubordi Nizomjon.

Ammo qishloqda yo‘q odekolon cho‘lda nima qiladi.

Ikkovi shu ko‘yi ancha vaqtgacha bir-biriga mo‘ltirab qarab o‘tirishdi.

— Ketaylik, yurolasizmi?

Zebixon o‘rnidan turayotib voy-voylab yana o‘tirib qoldi. Uning oyog‘i to‘pig‘igacha shishib ketgan edi. Nizomjon uni azod ko‘tarib oldi-da, gandraklab chodir tarafga yura boshladi. Zebixon, qo‘ying, o‘zim yuraman, deb uning quchog‘idan chiqishga urinardi. Ammo Nizomjon bag‘ridan bo‘shatmay chayqalib-chayqalib ko‘tarib kelaverdi.

So‘rida sabzi to‘g‘rab o‘tirgan chol shoshib turdi-yu, Zebixonning chayon chaqqan barmog‘iga pichoqning kahrabo sopini ishqadi.

Zebixon ertasiga ham oyoq bosolmay chodirda yotdi. Kechga yaqin avaylab sekin tashqariga chiqdi. Yo‘q, og‘riq sezmad. Faqat chayon chaqqan joyning o‘rni har zamon jiz etib qo‘yardi, xolos.

To‘qay chivinlari jon olib qolgandi. Kech bo‘ldi, quloq tagida g‘ingillab uchardi-da, payt poylab turib yo burunni, yo quloqni chaqib qochadi. Chaqqani uchib ketib bo‘lgandan keyin bilinadi. Chaqqan joyi bir soatgacha achishib turadi. Qizdirilgan yog‘ sachragandek bo‘lib shishib chiqadi. Pashshaxonasiz yotib bo‘lmaydigan paytlar boshlanib ketdi. To‘lanboy atayin kechalari tezak tutatardi. Chivin tezak tutunidan qocharkan. Shundoq ochiq havoda odamlar tutun hidlab uxlaydigan bo‘lishdi.

Shunday tutun buruqsab turgan kechada Nizomjon chodirga kelsa, Ikromjon gilzaga pitra joylab o‘tirganini ko‘rdi.

— Ov qilmoqchimisiz, amaki? — dedi hayron bo‘lib Nizomjon.

Ikromjon uning bu so‘rog‘iga javob bermadi. Gapni chalg‘itdi.

— Bolam, Mudofaa Komitetidan olgan yorliqni ko‘rsatmading ham. Qani, ko‘rsat.

Nizomjon chodir chetidagi Jannat xoladan qolgan qutini ochib, gazetaga o‘ralgan yorliqni oldi. Ikromjon yorliqqa tikilib turib qoldi.

— Barakalla, o‘g‘lim. Barakalla, — dedi Ikromjon yorliqni ehtiyot qilib unga qaytarib berarkan.

Nizomjon ham o'tirib gilzalarga miltiq dori joylay boshladi.

Ikromjon ilgarigicha birov bilan ortiqcha gaplashmasdi. Chodir oldida ham xayol surib o'tirmasdi. U ham chivindan qochib chodir ichiga kirib ketgan edi.

— Bolam, qishlog'ingga borib kelding-u hech nima demading. Xo'sh, qalay bo'ldi? Uyingga kirdingmi? Dadangni ko'rdingmi? Uni tinchitib qo'ydingmi?

Qachon bo'lsa ham Ikromjon amaki shu gapni so'rab qoladi, deb yurgan edi. U qishlog'idagi gaplarning hammasini birma-bir gapirib berdi. Ikromjon Asrora voqeasini eshitganda ko'zlarini pirpiratib qo'ydi.

— Shunaqa ekan, bolam. Bu urush hammani notinch qilyapti. Dadang bilan qattiq aytishib qopsan-da.

— Shunday qilmasam bo'lmasdi. Juda haddidan oshib ketgandi.

— Yana o'zing bilasan, o'g'lim. Jigarchilik, bir kun kelib afsus qilib yurmasang bo'lgani. Yoshsan, bolasan, bilmaysan. Otaga farzand dog'i qanaqa bo'lishini bilmaysan. Bu gaplarni ota bo'lganingda bilasan! Mayli, bas, yotaylik endi.

Nizomjon o'rniga cho'zilar ekan, Ikromjonning gaplarini yana bir marta tanasiga o'ylab ko'rdi.

— Pushaymon bo'larmikanman?

U o'zidan-o'zi javob kutib indamay ancha yotdi. Yuragida pushaymonga o'rin topolmaganidan keyingina xotirjam ko'zini yumdi.

VIII

Ikromjon ertalab miltiqni yelkasiga tashlab chodirdan chiqib ketayotganda To'lanboy tol tagida xotini bilan qandaydir sirli bir gapni shivirlashib turganini ko'rib qoldi. To'lanboy uning yog'och oyog'ini kiymay qo'ltiqtayoqda ketayotganini ko'rib hayron qoldi.

— Ha, aka, ov qilmoqchimisan? To'qayga kirsang qo'ltiqtayoq bilan qiynalib qolmasmikansan?

— Tizzamni qavartirvoripti. Sal dam beray, yurishga qiynal-yapman.

To'lanboy uni to'xtatdi.

— Jindek maslahatli gapimiz bor edi. Chodirga birpas kirsang bo'lardi.

Ikromjon qanaqa maslahatli gap ekan, deb uning orqasidan kirdi. Sholcha ustiga ko'rpacha solinib, patnisdagi non, qand, turshak ustiga sochiq yopib qo'yilgan edi. Ikromjon uni ko'rib, ular anchadan beri kutib o'tirgan ekan, deb o'yladi. To'lanboy xotini olib kirgan tunuka choynakni yoniga qo'yib to'ning bariga o'radi. Xotini ham bir chetga o'tirdi.

To'lanboy gapni nimadan boshlashini bilmay mo'ylovining bir uchini so'rib o'ylanib turardi. Oxiri u Ikromjonning ko'ziga botinmayroq qaradi.

— Endi, do'stim, dunyoning ishlari shunaqa ekan. Qiz bola bo'yiga yetganda tengi bilan topishtirib qo'yish bizga o'xshagan kattalarning ishi. Zebixonga ota o'rnida bo'lib qoldim. Qarzimni uzay degandim. Opasi ham rozi.

To'lanboy gapning bu yog'ini ayto olmay chaynaldi. Ikromjon yo'talib chodirning ochiq pardasidan cho'lga qarab oldi. To'lanboy sal dadillanib gapini davom ettirdi.

— Xafa bo'lmaysan-da, do'stim, Zebixonni Tursunboyga qilamiz degan umidimiz bor edi.

Ikromjon seskanib ketdi. U Tursunboy bilan Zebixon o'rtasidagi gaplarni bilardi. Uning ham ko'nglida katta niyatlari bor edi. To'y qilsam, qishloqqa osh bersam, yurtdan qarzimni uzsam, degan o'ylari bor edi uning. Bo'lmadi. Niyatiga yetmadi. To'lanboyning xotini "peshana ekan, taqdir ekan, buyurmadi", deb qo'ydi.

— Shu, sening roziligingni olmoqchi edik.

Ikromjon darrov javob qilmadi. Uzoq o'yladi.

Keyin boshini ko'tarib so'radi:

— Kuyov bo'lmish o'z qishlog'imizdanmi?

— O'z hamqishlog'imiz desak ham bo'laveradi. U ham o'z bolangdek gap. Zebixon Nizomjonningni ko'ngillapti. Yoshlarning ishiga biz nima ham derdik. Qishloq joy, munaqa qilib yuraverishsa, gap-so'z ko'payib qolmasmikin deb qo'rquyapmiz. Rozilik bersang, shu ishning shundoq bo'lganini hamqishloqlarga bildirib qo'ysak-da, pishiqchilikka borib to'y bo'lmasa ham to'ychiq qilib tinchitib qo'ysak.

— Nizomjon durust bola chiqdi. Avvaliga qandoq bo'larkin, deb cho'lga yuragim betlamayroq olib kelgan edim. Xayriyat, yuzimni yerga qaratmadi. Bunaqa bolalar o'z yo'lini o'zi topib yuradi. Mana, qishlog'iga borib katta obro' bilan qaytib keldi. Yorliq olganini eshitgandirsizlar. Ammo uning bu tomonlarga qandoq kelib qolganidan xabaringiz bormi?

To'lanboy bosh irg'ab, xabarimiz bor, hammasini Zebi aytib bergan, dedi.

— Hammasini bilmasanglar kerak. Kechagi Chorterakka bo-rishida otasi bilan orani ochiq qilib kelipti. Shu ish xunukroq chiqipti-da. Bolalik qilib qizishib ketmaganmikan? Har nima qilsa ham ota, axir. Undan kechib bo'ladimi?

To'lanboy o'ylanib qoldi. Ikromjon yana gapirdi.

— Endi bu masalada ham chuqurroq o'ylab ko'rish kerakdir. Kim biladi. Balki otasi shunday qilishga arziydigan odamdir. Uni Nizomjonning o'zi biladi. Agar ikkovi til topishib qolgan bo'lsa, men nima deyman? Mayli, Nizomjon yomon yigit emas. Kuymaysizlar. Jo'yali bola. Ammo onasi qandoq tuqqan bo'lsa shunday shir yalang'och. Dadasining topgan-tutganini tashlab kelipti. Bu ishi ham durust. Peshana teri bilan topganga nima yetsin. O'zlaring o'rab-chirmab olasizlar.

Ikromjon shunday dedi-yu, izzat qilib chaqirganlariga rahmat aytib, o'rnidan turdi.

Havo ochiq edi. Oftob charaqlab turipti. Tumshug'iga ilon tishlab olgan laylak qo'nishga joy izlab ko'm-ko'k osmonda aylanib yuribdi. Ikkita to'rg'ay qanotini pirpiratib tinimsiz sayraydi. Ikromjon cho'lda shuncha yurib to'rg'ayning uchib yurib sayrashini ko'rmagan ekan. Balki ko'rgan bo'lsa ham bunga e'tibor bermagandir. Ikkala to'rg'ay taxminan bir-biridan ellik metrcha narida uchib sayrashyapti. Sayrashadi-yu, bir-biriga yaqin keli-sholmaydi.

Ikromjon negadir Nizomjon bilan Zebixonni shularga qiyos qildi. Bir-biriga yaqin kelolmay yurgan ekan. Bunga mendan andisha qilishgan. Zebixonni Tursunboyga bo'lishib qo'ygan edik. Ko'nglimga keladi, deb o'ylashgandir. Qandoq qilay? Qandoq qilay? To'y qilish buyurmagan ekan? Menda na xotin bor, na bola bor. Uylanib o'ttiz yil birga yashadim, yashamagandekman. Yigirma bir yil bolam bor, deb quvondim. Quvonmagandekman! Quvonch qayoqda, azobda qolib ketdim. Bu yorug' dunyoda nima qilib sho'ppayib yuribman? Kimga keragim bor? Yarim jon bo'lib sudralib yurishdan nima foyda bor?

Ikromjon kallasiga kelgan bu sovuq o'ydan seskanib ketdi. Shabadada ko'l mavjidek silkinib turgan sholikorlikka qarab yurdi.

— Yo'q, hali bilagimda kuch bor. Yuragimda o't so'ngani yo'q. Bu alamlarni, bu xo'rliklarni oyoq ostiga olib toptamagunimcha yashashim shart. Yashayman!

Boshimga tuganmas savdolar solgan urush olovi o'chganini o'z ko'zim bilan ko'rishim shart. Shu yerda turib nemisga o'q otaman. O'qim qolmasa qo'ltiqtayog'im bilan boshini yanchaman. O'lish yo'q. O'lish nomardlik. Nomard bo'lib o'lishni istamayman, istamayman!

Ikromjon o'zidan-o'zi gapirib borardi. Qamish orasidan chiqqan yuk mashinasi oz bo'lmasa uni urib yuborardi. Shofyor qattiq signal berib to'xtadi.

— Sizga nima bo'ldi, amaki? Signal bersam eshitmaysiz?

Ikromjon yo'l chetiga chiqdi. Shofyor yonidan qog'oz olib unga uzatdi.

Xat. Unda Tog'a Naymandagi jamiki odamlarni Zirillamaga yetkazib kelishni buyurgan edi.

— Soat uchda Azizxon keladi. Katta miting bo'larmish. Hamma kelsin, deb tayinladi. Odamlarni to'plab bering, hozir olib ketaman.

Ikromjon orqasiga qaytdi. Tol shoxiga ilingan ketmonni tosh bilan daranglatib uraverdi. Bu bemahal chalingan zang tovushidan uzoq-yaqindagilar tol tagiga yig'ilib kelaverishdi. Ikromjon Tog'a tayinlangan gapni aytib yo'lga chiqish kerakligini aytdi. Ammo o'zi so'rida yagona tizzasini quchoqlaganicha mashinaga chiqayotganlarga qarab o'tiraverdi. Nizomjon ham ketmonini chodir oldiga tashlab, chelakning chetidan suv quyib qo'l yuvishga qiynalayotgan Zebixonga krujkada quyib bera boshladi. Ikromjon ularga ham hasad, ham mehr bilan boqardi.

Zebixon o'z chodiriga kirib rangi ko'tarilib, gullari bilinmay ketgan satin ko'ylagini kiyib chiqdi-da, mashina g'ildiragiga oyoq qo'ydi. Nizomjon ildam kelib uning tirsagidan ko'tarib yubordi. Uning o'zi ham chiqayotgan edi, birdan yana pastga tushdi. U yoq-bu yoqqa qaradi. Ikromjonga ko'zi tushib qolib oldiga keldi.

— Qani, yurmaysizmi? Nima qilib o'tiribsiz?

— Sen boraver, bolam, boraver! Men keyinchalik boraman.

— Siz bormasangiz men ham bormayman, amaki!

Ikromjon unga mehr bilan qaradi.

— Boraver. Ko'pchilik bilan sal ko'nglingni yozib kelasan.

— Ko'nglim shundoq ham yorug'. Yuring, yuring.

Ikromjon qat'iy bosh chayqadi. Hatto asabdan uning lablari ucha boshladi. Nizomjon uning jahli chiqayotganidan hayron bo'lib boshqa qistamadi. Ammo uni shu ahvolda tashlab ketgisi kelmay mashina bilan uning oralig'ida turib qoldi. Hamma

mashinaga chiqib bo'lgan. Faqat ularning ikkovi qolishgan edi. To'lanboy qo'l siltadi.

— Qani, chiqmaysizlarmi?

Ikromjon Nizomjonning hali ham turganini ko'rib jahli chiqib ketdi. Tizzasini quchog'idan qo'yib yuborib unga o'shqirdi.

— Qanaqa bolasan? Meni tinch qo'yasanmi, yo'qmi? Bor deyapman. Bor, ko'zimga ko'rinma!

Nizomjon battar sarosimaga tushdi. U Ikromjonni sira bu ahvolda ko'rmagan edi. U beixtiyor kuzovga chiqdi. To'lanboy Ikromjonning ahvolini ko'rib turganidan u ham qistamadi-da, ketdik, deb kabina tomini mushtladi. Motor gurillab oldinga silkindi. Nizomjon mashina to qamishlar orasiga kirguncha so'rida telbaga o'xshab o'tirgan Ikromjondan ko'zini uzmasdi.

— Nima bo'ldi unga? Kim xafa qildi ekan?

Nizomjon uning qishloqqa tusholmaslik sirini bilmasdi. Ikromjon Azizxonning ko'ziga qarashdan qo'rqardi. Birdan u Tursunboyni so'rab qolsa, nima deydi? Axir ular tepkilashib katta bo'lishgan. Albatta, so'raydi.

Ikromjon erta bahor Naymanga ko'chib chiqayotganlarida Azizxonga kolxoz nomidan yozilgan xatga el qatori qo'l qo'ydi. O'shanda odamlarning ikki ko'zi unga qadalganini hali unutmamasdi.

Bugun ham qishloqqa borganda, Azizxon bilan ko'rishayotganida yana shunday bo'ladi. Hamma unga tikiladi. Xoinning dadasi qahramon bilan ko'rishayotganida qo'llari titrarmikin, ko'zini undan yashirmasmikin, deb qarab turadiganlar topilib qolar.

Ikromjonni nomus o'ti kuydirardi.

Haligina odamlarning shovqiniga to'lgan cho'l bir zumda huvillab qoldi. Qamishlar shovillagan, shamol guvillagan Naymanda Ikromjonning bir o'zi qolgandi. Ikromjon necha kundan beri yolg'izlikni qo'msardi. Atayin qilgandek uni hech yolg'iz qoldirishmasdi. Kim biladi, balki atayin qilishar?

U yolg'izlikni qanchalik xohlamasin, bari bir undan qo'rqardi. Baxtli odam, yuragi shodlikka to'lib ketgan odam yolg'iz qolsa rohat qiladi. Butun shodligini, baxtini yoniga chorlaydi. Ikromjon yolg'izlikda nima qiladi?

Hozir huvillab turgan cho'l uni yutaman deyayotganga o'xshardi. Hatto u, nega ular bilan birga ketmadim, deb dilidan o'tkazdi ham.

Oʻrnidan turdi. Miltigʻini yelkasiga olib bir dam nima qilishini bilmay turdi-da, qoʻltiqtayoqqa tiralib toʻqay tarafga keta boshladi.

U bironta boʻrimi, toʻngʻizni otsa alamidan chiqarmidi. U boshida hech qanday oʻy, hech qanday niyatsiz toʻqay ichiga kirib borardi.

IX

Ikromjon shovillab turgan kimsasiz toʻqay ichida ancha uzoqlab ketgan edi. Aksiga olib u na boʻri, na quyon, na oʻrdak uroldi. To u qoʻltiqtayoqqa suyanib moʻljalga olguncha oʻrdak uchib ketar, quyon iniga yetib boʻlardi. Toʻqay yalangligida oʻzini oftobga solib yotgan bahaybat echkamar uning qorasini koʻriboq dumi bilan qamishlarni shitirlatib chayqatib, birpasda gʻoyib boʻldi.

Ikromjon yura-yura charchadi. Miltiqni yerga qoʻyib chalqancha yotib oldi. Begʻubor koʻm-koʻk osmonga tikilganicha qimirlamay yotaverdi. Qattiq charchaganidan koʻzi ilingan ekan, nimadir shitirlab uygʻotib yubordi. Ikromjon biron hayvon boʻlmasin, deb sapchib oʻrnidan turdi. U yoq-bu yoqqa alangladi.

Undan oʻn besh qadamlar narida, qamishlar orasida bir odam osmonda pildirab uchib ketayotgan oʻrdaklarga qarab turardi. Notanish kishi unga orqasini oʻgirib turganidan basharasini Ikromjon koʻrolmadi. Qoʻltiqtayogʻiga osilib oʻrnidan turdi. Notanish kishidan koʻzini uzmay engashib miltigʻini olayotgan edi, u chap tomonga yura boshladi. Ikromjon beixtiyor unga ergasha boshladi. Oyoq tagida quruq qamish shitirladi. Notanish oʻgirilib orqasiga qaradi. Qaradi-yu, qoʻrquvdan koʻzlari dum-dumaloq boʻlib ketdi. Ikromjon uni tanimadi.

Sochlari oʻsib yelkasiga tushgan, kiyimlarining juldiri chiqqan, yuzlari chivin chaqqandan yara boʻlib ketgan bu odam Tursunboy edi. U ozib, qorayib, darmonsizlikdan arang sudralgandek yurardi.

Odam qiyofasi yillar oʻtishi bilan, sharoit taʼsiri bilan oʻzgarib ketishi mumkin. Faqat odamning koʻzi oʻzgarmaydi.

Ikromjon uning Tursunboyligini koʻzidan tanib qoldi. Qichqirib yubordi.

— Tursun!

Tursunboy qimirlamadi. Ikromjon tayoq bilan sakrab-sakrab oldiga kelayotgan edi, Tursunboy yana nari ketdi. Uning bu harakatlari xuddi allaqanday yovvoyi hayvonlarni eslatardi.

Chinakamiga u vahshiylashib qolgan edi. Yaqin olti oy birov bilan gaplashmay, odamsifat yotib-turmay, issiq tatimay shu ahvolga tushgan edi.

– Tursun, Tursunboy, bolam! – dedi jonholatda Ikromjon.

Tursunboy bu gal joyidan qimirlamay turib qoldi. Ikromjon bora solib uning bo‘yniga osildi. Qo‘ltiqtayog‘i yerga tushdi. Bir oyoqlab turib uning yelkalarini silar, peshanalaridan o‘pard.

Birdan dimog‘iga qo‘lansa hid urilib Tursunboyning bag‘ridan qo‘yib yubordi-da, yakka oyoqlab turib qoldi. Muvozanatini saqlayolmay orqasiga chalqancha ag‘darilib tushdi. Bolasi uni turg‘azib qo‘ymadi. O‘zi bir qo‘liga tiralib yana o‘rnidan turdi. O‘g‘lining yuziga qaradi.

Tursunboyning yuziga ko‘pdan suv tegmagan. Butun vujudidan achimsiq ter hidi buruqsab turardi.

Ikromjon bu nogahon uchrashuvdan tamomila esankirab qolgan edi. Nima qilishini, o‘g‘liga nima deyishini bilmasdi. U shu bir oyoqlab turgancha juda oz fursat ichida ko‘p narsalarni o‘yladi. Ko‘p narsalarni xotiriga keltirdi.

Xotining to‘qayga ildiz terishga borishi shu bir necha minut ichida ayon bo‘ldi.

Ikromjon butun borlig‘ini, bugunini, ertasini bag‘ishlagan yolg‘iz farzandiga qarab birdan jirkandi. Qoshlari chimirilib, peshanalari tirishdi.

Uning oldida o‘z bolasi emas, bir yirtqich turgandek bo‘ldi.

– O‘tir! – deb buyurdi Ikromjon. Tursunboy itoatkorlik bilan yerga cho‘kkaladi.

– To‘qayga qachon kelding?

Tursunboyning tili gapga kelmadi. U go‘yo gaplashish qobiliyatini yo‘qotgandek javobga so‘z axtarayotganga o‘xshardi. Oxiri u qiynala-qiynala javob berdi:

– To‘rt oy bo‘ldi.

Tursunboy boshini egib yerdan cho‘p olib tishlab o‘tiraverdi.

– Onang o‘ldi, – dedi Ikromjon.

– Bilaman. Ko‘mishga olib ketayotganinglarda ko‘rib turgan edim.

Ikromjon o‘zini yo‘qotib qo‘ydi. Qarshisida o‘tirgan bolasini yagona oyog‘i bilan tepib yubordi. Tursunboy orqasiga ag‘darilib tushdi. U to‘rnidan turguncha Ikromjon emaklab borib bo-

shiga, yuziga uraverdi. Bola otasiga musht ko'tarolmadi. Uning bunday qilishga darmoni yo'q. Ochlik o'z kuchini ko'rsatib, uni holdan toydirgan. Ikromjon hamon uning duch kelgan joyiga musht solardi. U mushtlardi-yu, allaqanday xunuk ovoz bilan baqirardi.

— Onang qandoq xotin edi! Qandoq xotin edi! Nomard! Ona qabrga qo'yilayotganda ko'rib turib yoniga borolmagan, oq-padar! O'z qo'li bilan tuproqqa qo'yishdan qochgan yaramas! Onang qandoq xotin edi-ya! Sen juvonmargga qandoq mehr qo'yan edi-ya! Sen uni o'ldirding! O'zing o'ldirib, yana o'zing uni tuproqqa qo'yanlarini tomosha qildingmi? Iflos!

Ikromjon musht urib charchadi. So'kib ovozi bo'g'ildi.

U Tursunboyning bo'g'zini qo'ldan bo'shatib basharasiga qarab tupurdi.

— Mana senga!

U bunga ham qanoat qilmay qo'ltiqtayog'ini olib uning yelkasiga ikki marta zarb bilan urdi. Tursunboy alamdand ingradi. Orqasi bilan sudralib nari ketdi.

— Yot-begonalar tobutni yelkaga olib ketayotganlarini ko'rib chidab turdingmi? Yo'lingga termilib ko'r bo'lgan onaga shumi mukofot? Butun umrini, jonini, rohatini bag'ishlagan onaga shumi mukofot? Alifdek qomatini sen bukding, yuzlariga ajinlarni sen solding, ko'zlaridan nurni sen o'g'irlading, shu yorug' dunyoni qorong'i zindon qilding! Sen juvonmargdan qandoq umidlari bor edi onangning. Sening o'rningga it boqsak bo'lmasmidi?! Yelkamda ko'tarib katta qilganman. Shu yelkalarimda katta qilganman. Og'irimni yengil qilarsan, deb o'ylagan edim. Mushku-limni oson qilarsan, deb o'ylagan edim. Oq sut bergan onangni go'rga qo'yishga yaramading. Onaga vafo qilmagan bola, kimga vafo qiladi?! Yurt ishiga yaramagan bola, qay ishga yaraydi?!

Ikromjon unga qarab qahr-g'azab bilan qichqirardi:

— Xoin! Qochoq! Nomard! Hezalak! Iflos! It! Tur o'rningdan!

Tursunboy o'rnidan turdi. Ikromjon yana qo'ltiqtayog'iga osilib qaddini rostlab oldi-da, unga buyurdi:

— Yur!

Tursunboy qimirlamadi. Ikromjonda qandaydir hech to'xtatib bo'lmas kuch paydo bo'lgandi. Hozir u har qanday ishni qilishga qodir. Har qanday vahshiy kuch bilan olishishga tayyor edi.

Tursunboy bezovtalik bilan tutilib so'radi:

– Qayoqqa?

– Qishloqqa. Yurt oldiga. Sen yaramasning jazoingni yurt bersin.

– Dada, dadajon!

– Dada dema. Sendek bolam yo‘q. Seni allaqachon o‘ldiga chiqazib qo‘yganman. Ko‘zlaring o‘yilsin, o‘qraygan ko‘zlaringni quzgu‘nlar cho‘qisin! Yur, deya pman senga!

Tursunboy unga vahima bilan qarab turdi-da, birdan orqasiga burildi. Ikromjon uni ushlab qolmoqchi edi, siltab tashladi. Ikromjon yonboshi bilan yiqildi. U o‘rnidan turganda Tursunboy ancha nariga ketib qolgan edi. Ikromjon shoshib yelkasi-dan qo‘sh-tig‘ni oldi. Tirsagini qo‘ltiq-tayoq charmiga tirab turib mo‘ljalga oldi. O‘q ovozi xuddi cho‘l ustida allaqanday vahimali hayvon o‘kir-gandek bir necha daqiqa aks-sado berib turdi. Tutun tarqaganda Ikromjon o‘g‘lining qamishlarni qayirib hamon chopib ketayotganini ko‘rdi. Xayriyat, tegmabdi, dedi. Yana miltiqni o‘qladi. Bu gal bolani mo‘ljalga olmadi. Jahl bilan duch kelgan tarafga qarab tepkini bosdi.

O‘q tovushidan cho‘chigan qushlar osmonni to‘ldirib bezovta qanot silkitishardi.

X

Kunlar isib ketdi. Oltiariqning bodringi, Quvaning handal-laklari Nayman tomonlarga ham keldi.

Kunduzi qum tarafdin iliq, nafasni qaytaradigan shamol esadi. Kechqurunlari xuddi kuz havosidek muzdek shamol qamishlarni shovillatib, odamlarni sovg‘otirib izg‘ib yuradi.

Naymanliklarning, ayniqsa, shu kezlarda ishlari ko‘payib ketgan edi. Sholikorliklar tizza bo‘yi kelib qolgan, odamlar kechani kecha, kunduzni kunduz demay o‘toq qilishadi.

Qamish hali u yerdan, hali bu yerdan qaynab chiqadi, uni ildizi bilan sug‘urib tashlayman desang, o‘zi bilan bir bog‘ sholini ilashtirib chiqadi.

Nizomjon ertalab ham, kechqurun ham sholikorlikda.

Tinmay suv kechaverganidan yana bezgak tutdi. Rangi sarg‘ayib kechalari badani titrab-qaqshab og‘riydi. Shu ahvolda ham suvdan chiqmaydi.

Ikromjon hamon kamgap. Odamlarga aralashmay qo‘ygan. Chodiri oldida o‘tirishi ham yo‘q bo‘lgan. Sholikorlikdan kelishi

bilan ichkariga kirib ketadi-da, yagona tizzasini quchoqlab, bir nuqtaga tikilganicha qimirlamay o'tiraveradi.

Nizomjon sholikorlikka kiraman deb shimining pochasini shimarayotgan edi, To'lanboyning o'g'li kelib qoldi.

– Sizni bir xotin chaqiryapti.

Nizomjon hayron bo'ldi:

– Qanaqa xotin?

– Chaqaloq bolasi ham bor.

Nizomjon kim bo'ldi u xotin, deb hayronlikda tol tagiga kelsa, so'rida bolasini tizzasiga qo'yib Dildor o'tiribdi.

Nizomjonning yuragi orqasiga tortib ketdi. Obbo endi sen bilan turaman, Chortrakka ketmayman, desa-ya! Opam uni ishga solib qishloqqa olib kel, deb yuborgan bo'lsa-ya!

Nizomjon uning oldiga yetib kelguncha ming xil xayolga bordi.

Dildor bolani tizzasidan olib yerga qo'ydi. Bola maysalar ustida emaklab ketdi.

Ikkovi ancha vaqtgacha bir-birlarining betlariga qarayolmay jim turib qolishdi.

– Yaxshi yuribsanmi? Rangingga nima bo'ldi?

Nizomjonga uning dabdurustdan aytgan bu gapi malol keldi. Javob o'rniga yelkasini uchirib qo'ydi.

Chodir ichidan chiqib kelayotgan Zebixon ularni ko'rib bir dam to'xtadi. Dildorga boshdan-oyoq nazar tashlab oldi-da, indamay yurib o'tib ketdi. U to yangi uylar oldiga kelib burilib ketguncha Dildor uni kuzatib qoldi.

– Shumi? – dedi Dildor. Nizomjon bosh qimirlatdi.

– Qaddi-qomati kelishgangina ekan.

Nizomjon uning nima maqsadda kelganini bilolmay hamon hayron edi.

– Qishloqda nima gaplar bor?

– Qishloq o'sha-o'shaligicha. Nimaga kelganimga hayron bo'lyapsan-a. Seni xursand qilgani, senga minnatdorchilik bildirgani keldim.

U shunday dedi-yu, nimchasining kissasidan uch burchak ikkita xat oldi. Birini Nizomjonga uzatar ekan:

– Manavinisi senga, – dedi.

Nizomjon xatni Karimjondan deb o'ylagan edi. Qarasa akasidan. U qorong'i-zimistondan birdan chiqqandek hech narsani ko'rolmay qoldi. Ko'z oldida kattakon doira gir-gir aylanaverdi. Boshi aylanib so'riga o'tirib qolganini o'zi ham sezmedi.

– Nima, nima? Akamdan? Tirik ekanmi? Tirik ekanmi?..

Dildor A'zamjondan yaqinda xat kelgani, u xatda ancha vaqt qurshovda qolib ketib zo'r janglardan keyin qurshovni yorib, o'z qo'shinlarimizga qo'shilganini yozib, shu xatiga tezda javob qaytarishlarini so'raganini aytib berdi.

– Javob yozdik. Xatda uyda nima bo'lgan bo'lsa, barini ochiq yozdim. Hech narsani yashirmadim. Sening ketib qolganingni ham, dadang bilan Risolat opaning qilgan ishlarini ham yozdim. Kecha, mana, xatimga javob keldi. Ichiga senga ham xat solib qo'yan ekan. O'qi!

Nizomjon shoshib xatni o'qiy boshladi:

“Nizomjon, uka!

Men sog'man. Ahvollaringni Dildor yozgan xatdan bildim. Men seni shu paytgacha esini tanimagan bola, deb yurardim. Meni kechir, uka. Ko'p savdolar boshimdan o'tdi. Urushdim, yaralandim. Yana urushdim, yana yaralandim. Gospital koykasidan shiftga qarab yotib butun ko'rgan-kechirganlarimni o'yladim. Meni koyima, senga ozor berganimni o'zim bilmayman. Endi ko'zim ochildi. O'ylab qaragam, tarbiyaga qonmagan bola ekanman. Bilasanmi, hammaning ayvoniga qaldirg'och uya qurib bola ochardi-yu, bizning ayvonimiz shiftiga hatto mo'min-laqma musicha ham uya qurmasdi. Bu uya dadamdan boshqa hech kim sig'maydi. Sen ham ketibsan. Dildor ham ketibdi. Shunday bo'lishi kerak ham edi.

Dadam bilan opam qilgan yuzsizliklarni Dildor xatida yozibdi. Agar sen dadam bilan opamning gapiga kirganingda, bilmadim, ahvolim nima bo'lardi? Agar sen ham men qilgan xatoni takrorlaganingda bir-birimiz bilan yuz ko'rmas bo'lib ketardik. Dildor ham, bolam ham begona bo'lardi. Esi bor bola ekansan. Rahmat, uka. Naymanga ketib qolgan emishsan. Mayli, qayda bo'lsang omon bo'l. O'z baxtingni o'zing top. Hozir gospitaldaman. Sog'ayib yana jangga kiraman. Baxtingga sen omon bo'l, uka. Borsam, bu qilgan yaxshiliklaring uchun boshimga ko'taraman...”

Nizomjon xatni o'qirdi-yu, ko'zlaridan yum-yum yosh oqardi. U xatni tizzasiga qo'yib, bir muddat qimirlamay to'qayga tikilganicha turib qoldi. Maysada emaklab yurgan bola uning oyog'iga osildi. Nizomjon bir seskandi. Shoshib engashib bolani qo'lga oldi-da, u yuzidan, bu yuzidan cho'pillatib o'pa boshladi.

– Dadang bilan opang uya olib ketaman, deb kelishdi. Bor-madim.

Nizomjon nima deyishini bilmay uning betiga qaradi.

Dildor hamon chiroyli edi. Bola tug'ib yana ochilib, to'lishib ketibdi. Bu gal Nizomjon uning betiga, qomatiga hirs, his bilan emas, allaqanday mehr bilan qaradi. U ortiqcha xotiralarga berilishdan saqlanish uchun Dildorni gapga tutdi.

– Tirikchiliging, tirikchiligingiz qalay? Qiynalmayapsizmi? Qiynalayotgan bo'lsangiz, ayting.

– Qiynalayotganim yo'q. Bolam katta bo'lib qoldi. Ishga chiqyapman. Asrora frontga sovg'a-salom olib borayotgan delegatlar bilan ketdi. Asroraning o'rniga vaqtincha zveno boshlig'i qilishdi. Dadam sog'ayib ketdilar. Opang bilan dadang u bechoraning o'limini ko'p kutishdi. Opang dadamning bisoti ko'p, deb o'ylaydi. Ular o'ylagan boylik yo'q bizda.

Nizomjon: “Dildor Asroraning o'rniga vaqtincha bo'lsa ham loyiq topilibdi, demak, durust ishlayotgan ekan-da! Dildor bir ish qilsa astoydil qiladi. Akamning gapi to'g'ri. Bizning uyda musicha yolchimaydi-yu, Dildor yolchirmidi. Yana ozroq uyda turganida odamgarchilikdan chiqardi. Ketgani durust bo'lgan ekan. Yana safga, tengdoshlarining safiga kripti. Akamning daragi chiqishi ham unga qanot bo'пти”, – deb o'yladi.

Shu payt Zebixon to'rsavatda handalak, bodring olib o'tayotgan edi, Nizomjon uni to'xtatdi:

– Zebixon, baqqa keling, tanishib qo'ying Dildor bilan.

Zebixon kelib qo'lidagilarini so'riga qo'ydi-da, Dildor bilan ko'rishdi.

Dildor unga ajablanib qaradi-da, kulib yubordi. Uning kulgisidan xijolat bo'lgan Zebixon qoshlarini chimirdi.

– Sizni boshqacha o'ylardim.

– Qanaqa o'ylardingiz?

– Boshqacha deb tushuntirishgan edi.

Nizomjon gapga aralashdi.

– Agar opam tushuntirgan bo'lsa, alvasti qilib tushuntirgandir-da.

Dildor xaxolab kulib yubordi.

– Judayam unchalik bo'lmasa ham, har qalay undan sal be-riroq qilib tushuntirgan edi.

– Alvasti bo'lmasa ham, ajina deb tushuntirgandirlar-da.

– Topdingiz, topdingiz.

Kulgi bahona ular orasidagi begonalik nari ketgandek bo'ldi.

To'lanboy yelkasida ketmon bilan kelib qoldi. U Nizomjonni ko'rib qovog'ini soldi.

— Qanaqa beg'am bolasan? Ikromjon tong qorong'isida to'qayga kirib ketganicha hali ham daragi yo'q. Biron joyda yiqilib qolgan bo'lmasin. Bir qarab qo'yish kerak edi.

Nizomjon ertalab ham Ikromjon amakini ko'rmagan edi. Kechasi kech yotgan, kech uyg'ongan edi. U uyg'onganda Ikromjon o'rnida yo'q edi. Nizomjonning yuragini vahm bosdi.

— Zebixon, Dildorga u yoq-bu yoqni ko'rsatib turing, Ikromjon amakidan bir xabar olib kelay.

U shunday dedi-yu, yugurganicha to'qay tarafga qarab ketdi...

* * *

Ikromjon Tursunboyni uchratgan kundan beri tinchini yo'qotgan edi. Bolasi ekan-da, ahvoli nima bo'ldi, deb o'yladi. Uning qilmishlarini eslab qahr-g'azab ichida qovurilgandi. U o'sha kundan beri to'qay kezib uni izlaydi. Topolmaydi. U endi Tursunboyni uchratsa, uning diliga insof solmoqchi, afv so'ratmoqchi. Jangga yuborishlarini, qonli urushda dog'ni yuvishni so'rashga unatmoqchi.

U bu tong ham to'qayga qarab ketdi. Bu gal u miltiq olmadi. Otalik jur'ati bilan uni ko'ndirishni niyat qilgan edi. G'ira-shira tong yorishib kelayotgan edi. Ikromjon qamishlar orasida uzoq kezdi. Ovoz chiqarib o'g'lini chaqirdi. Hech qanday javob bo'lmadi.

Birdan qamish kapaga ko'zi tushib to'xtadi. Sekin borib kapa ichiga mo'raladi. Tursunboy to'zib ketgan to'nini boshiga qo'yib qimirlamay yotardi. Ikromjon ajib bir hayajon bilan tepasiga keladi. Engashib:

— Bolam, bolam, — deb chaqirdi.

Ammo Tursunboy javob bermadi. U ota diydoridan, ona mehridan, yor-birodarlar davrasidan olisda, chaqirsa ovoz yetmaydigan joyda quvg'in bo'lib olamdan o'tgan edi.

Ikromjon sovuq tanani bag'riga bosib, qotib qolgan yelkalaridan siladi. Peshanalaridan o'pdi. Uning ko'z yoshlari Tursunboyning muzdek sovuq yuzlarini yuvdi. Ikromjon kimsasiz to'qay orasida amlarini, ichini kuydirgan dardlarini tanidan chiqarib yuborgudek bo'lib o'kirib-o'kirib yig'lardi.

Tursunboyning bari qilmishlari endi joni bilan birga tanini tark qilgan edi. Endi u yolg'iz tana bo'lib ota bag'rida qolgan edi. Endi bu tana otaniki edi. U yoshlik paytlaridagidek bezor

uxlayotganga o'xshardi. Yuzlari norasida yuzdek pok edi uning. Yigirma bir yil ardoqlab boqqan, shamolni ravo ko'rmay joniga o'rab o'stirgan bolasi xoinlikdan, qo'rqoqlikdan, ona oldidagi hech qachon yuvib bo'lmaydigan gunohlardan pok bo'lolmay, ota quchog'ida begonadek yotardi.

Ikromjon yig'ladi, yig'ladi, yig'idan ko'z yoshlari quridi. Bolasining boshiga xashak to'plab yostiq qildi-da, uni asta yerga yotqizdi.

Atrofda oftob yashnayapti. Yangi popuk chiqazgan qamishlar yel bilan o'ynashyapti. Osmoni zaminda qaychiga o'xshab turna karvoni qo'y haydagan cho'pondek qurelab o'tyapti. Osmon shu qadar so'ngsizmi? Uning ortida nimalar bor? Bu zangori yo'l qay tomonga olib boradi? Qiziq! Turnalar qayga uchayotganikin?

Ikromjon telbaga o'xshab to turnalar ufqqa singib ketguncha qarab turdi. Birdan seskanib yana yerda yotgan bolasiga qaradi. To'nini yechib ustiga yopdi-da, bir tizzalab cho'kka tushdi-yu, qo'ltiqtayog'i bilan yer o'ya boshladi.

U o'g'liga, yagona o'g'liga go'r qazirdi.

Bolasi uyda umrini yashab o'lsa bo'lmasmidi? Yurt izzat bilan uni so'nggi yo'lga kuzatardi. Odamlar davra qurib ko'z yosh to'kib qabrga qo'yardi. Endi u to'qaydan chiqolmay, sharmandalik, yuzi qoralik bilan jon berdi. Uning go'ri ham boshqalar-nikiga o'xshamasdi. Go'ri ketmon bilan emas, qo'ltiqtayoq bilan qazilardi.

Ikromjon ham alam, ham nafrat bilan go'r qazirdi. Bahor sellari mag'zi-mag'ziga ingan yer qo'ltiqtayoq uchiga bir kaftdan ilinib chiqardi. Ikromjon qora terga tushib ketdi. U qabrni tizza bo'yi qaziganda hali oftob o'chmagandi. U qaddini rostlab yana osmonga qaradi. Osmon toza. Unda na qush uchar, na bulut suzardi. Yoniga qaradi. Uning choponi tagida Tursunboy yotardi. Ikromjon bir dam unga hasratli boqib turdi-da, yana yer o'yishga tushib ketdi.

Oftob so'ndi, ufqda qip-qizil shafaq yondi. Qamishlar uchi o'chayotgan sham so'xtasiga o'xshab qoldi. Ikromjon qabrdan chiqib terlab turgan tanidan yaktagini yechdi-da, Tursunboyini o'radi. Allaqanday g'ayritabiiy kuch bilan uni ikki qo'llab ko'tardi-da, bir tizzalab surilib qabr oldiga keltirdi,

Cho'l ustini asta qorong'ilik bosib kelayotgan yoz oqshomida ota o'z bolasini shonsiz, sharafsiz, marosimsiz qabrga qo'ydi. Loy aralash tuproq tortdi.

Oy singan qizil lagandek bo'lib bo'zarib chiqdi. U sekin-sekin havolanib terak bo'yi ko'tarildi-da, qimirlamay osilib qoldi. Birin-ketin yulduzlar ko'zi ravshanlana boshladi. Osmoni zaminda arava orqasidan ko'tarilgan to'zondek bo'lib somonchi yo'li ko'rindi.

Ikromjon qabr tepasidan ketolmadi. Har gal o'rnidan turib ketmoqchi bo'lardi-da, yana faryod urib o'zini qabr ustiga otardi.

Oy yoritib turgan to'qay yalangligida Ikromjon qabrini quchoqlab yotarkan, kimdir uning yelkasidan ko'tardi.

— Dada, dada, turing, ketamiz.

Nizomjon ko'pdan beri uning ahvolini kuzatib turardi. Faryodiga chidayolmay oxiri zo'rlab bo'lsa ham olib ketishga ahd qilgan edi.

— Yuring, yuring, ketamiz. Endi bas. Ketaylik.

Ikromjon bosh ko'tarib unga qaradi. Hech narsa demay sudralib borib qo'ltiqtayog'ini oldi-da, chayqala-chayqala oldinga tushib ketaverdi.

To to'qaydan chiqishguncha ham ular bir-birlariga churq etib og'iz ochishmadi.

Nizomjon nima deya olardi?

Ikromjon nima deya olardi?

Ikromjonning bag'rini kuydirayotgan alam bu poyonsiz to'qaylarga, oy nuri ojiz yoritib turgan so'ngsiz cho'llarga sig'masdi...

Nizomjon allamahalgacha Ikromjon amakini, Jannat xolani o'ylab uxlamay yotganidan ertalab juda kech uyg'ondi.

Chodir tuynugidan oftob o'tib, uning dumaloq nuri bordon ustida piyoladagi choydek qalqib turardi. Ikromjon hali ham pishillab uxlayapti. Uning bunaqa odati yo'q edi.

Ikromjon hamisha tong yorishmay uyg'onib, bir tizzasini quchoqlaganicha qimirlamay o'tirardi. Nima bo'ldi? Nizomjon buning sirini biladi. U charchagan. Holdan toygan. Ayniqsa, kechagi dahshatli hodisa uni oyoqdan yiqayozgan edi. Mayli, uxlasin. Miriqib uxlasin. Unga osonmi?

Nizomjon bordonni shitirlatmay ohista kiyinib chodirdan chiqdi.

Osmonda qittak ham bulut yo'q. Shamol ham esmaydi. Bak tagidan ko'tarilayotgan ko'm-ko'k tutun buralmay tikka osmonga o'rlayapti. Xuddi so'ngsiz osmonga kulrang yumshoq ustun tirab qo'yganga o'xshaydi.

So'rida To'lanboy bolasini yoniga o'tqizib nimalardir deyapti. Bola burnini torta-torta ko'zini ishqab hiqillaydi. Tol tagida

o'tirgan Zebixon bilan Dildor qotib-qotib kulishardi.

Nizomjon ular oldiga yuvuqsiz borishdan andisha qilib, krujkada suv olib chodir orqasiga o'tib ketdi-da, belbog'iga artina-artina so'riga yaqinlashdi.

— Nima gap, nimaga yig'layapti bu? — dedi Nizomjon To'lanboyga.

— So'rama, boja. Jiyaningni birpas ko'targan edim, naq manavi qiyomat qilvordi. Qizg'anyapti.

Nizomjon bolaga qarab iljayib qo'ydi.

— Yig'lama, o'g'lim. Urush tamom bo'lganda Nizom pochchang bir do'ppi holva olib beradi. Maza qilasan. Ertaga o'zim senga bitta voyvoyakning bolasini tutib beraman.

Bolaning ko'zlari yashnab ketdi.

— Urush qachon tamom bo'ladi?

— Yaqinda tamom bo'ladi. Askarlikka ketganlarning hammasi holva olib kelishadi. Hu, bir marta senga ikkita pechine bergan edim-ku, o'shanaqa pechinedan ancha olib kelishadi. Menam yeyman, senam yeysan.

Bola Dildorning qo'lidagi o'g'liga o'qrayib qarab qo'ydi.

— Unga bermaymiz-a?

— Ozgina beramiz. Bo'ptimi?

Nizomjon ota-bolaning gaplariga kula-kula tol tagiga qarab ketdi. Dildorning qo'lidan jiyanini olib osmonga tashlab o'ynatdi.

To'lanboyning xotini dasturxon yozib choy damlab keldi. To'lanboy qo'lini yuvib yuqoriga chiqarkan, u yoq-bu yoqqa qarab oldi.

— Amaking ko'rinmaydi. Dalaga chiqib ketganmi?

— Yo'q, uxlayaptilar.

— E, uyg'otmaysanmi. G'aflat bosib yotaveradimi?

— Mayli, uxlasinlar.

— Halizamon Tog'a kelib qoladilar, uyg'otib chiq.

Nizomjon o'rnidan turishga turib qo'ydi-ku, uni qandoq qilib uyg'otish kerakligini bilmay o'ylanib qoldi. Keyin bolani qo'lga olib chodir ichiga kirib ketdi.

Ikromjon hamon uxlardi. Nizomjon bolani uning yostig'iga o'tqazib qo'ydi. Bola Ikromjon har pishillaganida qimirlayotgan mo'yloviga qarab turdi-da, birdan ikki qo'li bilan ushlab tortdi. Ikromjon cho'chib ko'zini ochdi.

Avvaliga hayron bo'lib bolaga qarab turdi-yu, keyin iljayib o'zi unga mo'ylovini tutib berdi. Bola mo'ylovidan, qulog'idan tortib rosa qiyqirib o'yin qildi.

Ikromjon boshini ko'tarib, bolani xuddi ukparni ushlayotgandek avaylab qo'liga ko'tardi-da, surilib qo'ltiqtayog'ini oldi.

Nizomjon ularga qarab qimirlamay turardi. Ikromjon bolani bag'riga bosganicha tashqariga chiqdi.

Dildorning cho'lga kelganiga ikki kun bo'lgan bo'lsa, shu ikki kundan beri uning bolasi kattaning ham, kichikning ham ermagi bo'lib qolgan edi. To'lanboyning o'g'li bu yerdagilarning mehrini shu bola olib qo'yayotgandek hamon dadasining pinjiga kirib, unga xo'mrayib qarab turardi.

Ikromjon so'riga o'tirarkan, bolani to'niga yaxshilab o'rab oldi-da, afsuslangandek dedi:

— Senga beradigan bironta qand ham yo'q.

To'lanboyning pinjiga tiqilib o'tirgan bola sekin sug'urilib chiqdi-da, Ikromjonning tolga tirab qo'ygan qo'ltiqtayog'ini olib qochdi.

— Mana bo'lmasam, mana bo'lmasam. — Bola shunday deb qocharkan, chodir oldiga yetganda uni ot qilib minib oldi. — Chu, ha, chu!

Hamma barobar kulib yubordi.

To'lanboyning xotini unga musht o'qtaldi. Bola tilini chiqarib masxara qildi.

— Bu o'lgur hammani o'ziniki qilib olgan edi-da. Ichi kuyib ketyapti.

To'lanboy odati bo'yicha salmoqlanib gap boshladi:

— E, xotin, sen buni aytasan, bu bola-ku. Men kap-katta, lo'mbozdek paytimda, akam uylanganda uni kelindan qizg'onganman. To'yda, chimildiqqa kelin-kuyov oldiga kirib olib ertalabgacha chiqmaganman. Akam rahmatlik chimchilayverib sonimni momataloq qilib yuborgan. Uxlab qolganimda yangalar ayvonga opchiqib qo'yishipti. Ertasiga ham kirmoqchi edim, dadam bir shapaloq urganlar. O'shanda kelin ayamni bir oygacha yomon ko'rib yurganman.

Bu gap hammadan ham Ikromjonga ta'sir qildi. Kulaverib ko'zlari yoshlanib ketdi. To'lanboyning xotini o'pkali ohangda dedi:

— Gapingiz qursin, qayoqdagi bo'lmagan gaplarni to'qiysiz.

— E, rost, xotin, rost. Samovardagi akamning ulfatlari meni gapga solishardi. Akam kelin ayamni qancha o'pganini tochniy aytib berardim. Qip-qizil jinni ekanman.

— Jinnilikka jinni eding. Juda shum eding, To'lan. Esingda bormi, hamma sendan bezor edi. Ko'p rasvo ishlar qilarding.

Bir kun nima qipti, deng. Masjidga kirib tahorat obdastalarga bir hovuchdan qalampir tashlab chiqipti. Kechqurun masjidga qiyomat bo'lib ketdi. So'fi dod deydi, domla-imom dod deydi. Namozxonlarning birontasi yerga o'tirolmaydi. Masjidni boshga ko'tarib baqirib u yoqdan-bu yoqqa yugurishadi.

To'lanboy dumalab-dumalab kuldi.

— O'shanda birovga aytmagansan-a, Ikrom. Malades odamsan.

— Shu bolang ham o'zingga o'xshagan chiqadiganga o'xshaydi.

To'lanboy kerilib kuldi.

— O'zingga o'xshamaganiga qo'ymayman ham-da. Buni o'zim tuqqanman.

Kulgi, hazil bilan nonushta ham tugadi. Nizomjon chodir orqasida qo'ltiqayoqni ot qilib minib yurgan bolani to'qaygacha quvib borib tayoqni olib keldi.

Hamma o'z ishiga qarab ketdi. Hamma ketdi-yu, Ikromjon bolaga alahsib o'tiraverdi. Oxiri Dildor kelib bolani oldi.

— Amaki, bera qoling, sizni charchatib qo'yadi. Buvasiga o'rganib qolgan-da, ishga ketganimda dadam bilan qoladi. Soqoli bor kishini ko'rsa o'zini otaveradi.

Dildor uni olib ketayotibdi hamki, u kallasini qiyshaytirib Ikromjonga qarab qiyqiradi. U har qiyqirganda lablaridan so'lak oqib, og'zi bir tarafga qiyshayib ketadi.

Ikromjon to'nini tuzatmoqchi bo'lgan edi, ko'pdan unutilgan, ammo qarddon bir hid dimog'iga urildi.

Bu ona suti, murg'ak bola hidi edi. Bu hid yasharib kelayotgan olam, otayotgan tong, erta ko'klamda qirdan keladigan iliq shabada, yangi novda qo'ygan tol po'stlog'i, tosh urilib tutashayotgan suv to'zoni, yomg'irdan keyin charaqlagan oftob hidiga o'xshardi.

Ikromjon bir dam ko'zlarini yumdi-yu, huzur qilib nafas oldi.

Boyatdan beri tol shoxida chug'urlashayotgan chumchuqlar gurr etib dasturxonga yopirildi.

Chodir ichidan bola yig'isi keldi. Ikromjon beixtiyor o'rni-dan turdi-yu, o'sha tarafga yura boshladi. Dildor bola ko'tarib chiqdi. Bola yig'idan to'xtab Ikromjonga talpindi.

Ikromjonning yuzlarida, ko'zlarida bir chiroyli tabassum porlab ketdi.

XOTIMA

Inson bolasi ne kunlarni ko'rmaydi?!

Har bir odam o'z g'ami bilan bo'lsa, hayotdan ko'z yumib ketganlarga umr bo'yi motam tutib o'tsa, bu moddiy olam shu kunlarga yetolarmidi?

Hayot to'liqini ojizlarni qirg'oqqa irg'itib tashlaydi. Oqimga qarshi suza olganlar, to'liqinni egarlaganlargina ertangi kunga yetib keladi.

Yer kurrasida chumolidek mehnat qilayotganlardan ko'ra, tuproq tagida yotganlar ko'p. Yer qatlami odam suyaklariga to'lib ketgan.

Ammo hech bir inson oyoq tagiga qarab yashamaydi. Olis ufqlarni mo'ljalga olib yo'l yuradi. Uni hamisha ertangi kun, yashash, yosharish, yaratish ishtiyoqi oyoqqa turg'izgan.

Inson ko'zidan oqqan yoshlarni jamlasa, ummonlar paydo bo'lardi. Bu ummonlar jahonni g'arq qilardi.

Yerni ko'z yoshi emas, peshana teri yashnatgan.

Insonlarning hayotdan ilinji ko'p. Noumid shayton, deydi-lar. Ko'ngilga tasalli beruvchi, odamni hamisha oyoqqa turg'izuvchi, o'ylatuvchi, kurashga chorlovchi chigil jumboqlar ko'p bu olamda.

Hayotning jami achchiq-chuchugini tatigan, ayriliqlarga fil bo'lib bardosh bergan Ikromjon uchun hayotning ham chigil, ham porloq sahifalari bor edi.

Nizomjon!

U Ikromjonga o'g'il bo'ldi. Uning qo'sh qanoti bo'ldi. Ikromjon bu baquvvat qanotlarda burgut parvozi bilan olis, nurdek tiniq beg'ubor ufqlarga ucha oladi. Bu qanotlar uni hayotning yangi manzillariga olib boradi...

Bugun ham havo ochiq.

Nizomjon bilan Zebixon Dildorni kuzatib arava izi tushgan cho'l bo'ylab ketishyapti.

Ikromjon yo'l boshida qo'ltiqtayog'iga suyanib ularning orqasidan qarab qoldi.

Ufqda uch nuqta qoldi.


Bu — Nizomjon, bu — Dildor, bu — Zebixon.

Pardek yengil oppoq bulutlar cheti botayotgan oftob tig'ida xuddi kimxob parchadek lov-lov yonadi. Ikromjonning ko'zlari-ni qamashtiradi. Yonadi, yolqinlanadi.

Toshkent — Farg'ona
1964-yil

UFQ BO‘SAG‘ASIDA

UCHINCHI KITOB



BIRINCHI BO'LIM

I

Gorchakovo stansiyasiga odam sig'maydi.

Vokzal oldidagi maydonda yuzlab yuk mashinalari. Chollar, kelinchaklar, hassaga tayanib qolgan kampirlar stansiya binosi tepasidagi radiokarnayga tikilishgan. Farg'ona, Marg'ilon, atrof qishloqlardan kelgan mashinalar tepasida gajak qo'ygan kelinchaklar. To'rt yil sandiqda yotaverib, kuyadori isi o'rnashib qolgan atlaslar, baxmal nimchalar, siyohga bo'yalgan durrachalar oftobda anvoyi rang bilan tovlanadi.

Bahor oftobi tom-toshlarni qizdiradi. Yonoqlarini, bo'yinlarini ter bosgan juvonlardan arzon atir, qalampirmunchoq hidi keladi.

To'rt yil mehnatdan uzilmagan qo'llarga uzuk yarashmagandek, bilaguzuklar birovnikidek erish tuyuladi. Ipak paypoq boldirlaridan sidirilib tushib ketayotgandek. Tuflining baland poshnasi hali u yoqqa, hali bu yoqqa qiyshayib ketadi. Arqonda yurgan dorbozdek yo'lni mo'ljalga olib qadam bosishadi.

Dildor ham shu yerda. U o'g'lini ko'tarib olgan. Issiqda tiqilinch orasidan Nizomjonni qidiradi. Yangi etikchasi oyog'ini siqqanidan bola yerga tushishga unamaydi. Usti bordon bilan yopilgan so'rida Inoyat oqsoqol bilan Risolat o'tirishihti. Dildor qaynatasining oldiga borgisi kelmay beriroqdan o'tirishga joy izlardi. Shu payt kimdir uning ikki ko'zini berkitib oldi.

– Nizom, Nizomjon. Bo'ldi, qo'yib yubor, o'zi qo'lim tolib turipti.

– E, o'le, hali ham Nizom desa, yuraging tutdek to'kiladi-ya. Menman. – Bu Asrora edi. Asrora uning ko'zlarini bo'shatib, hirlinglab kuldi.

Dildor Asrorani urush tugagan kundan beri ko'rmagan edi. Binoyidek bo'lib qopti. Labida qizil. Qizil surtishni ham eplolmapti. Pamadani ikki lunjigacha surtvoripti. Qora yuziga upa uncha yarashmapti.

– Upa surtishni ham boplabsan. Sal evi bilan-da.

– Qo'yaver, – dedi Asrora, – Bo'laveradi. Nima qilib batta turibsan. Yur, u yoqqa boraylik.

Asrora Risolatlar o'tirgan so'rini ko'rsatdi. Dildor qoshlarini chimirdi.

– Qo'y, o'sha Jinoyat o'lgurning oldiga boramanmi. Shatda o'tiramiz.

– Bo'lmasa Nizom o'lgurni topib kelaman.

Asrora shunday dedi-yu, odamlar orasiga kirib yo'q bo'lib ketdi. Dildor uning orqasidan qarab qolarkan, yuzida, ko'zida allaqanday havasga o'xshash bir nima porlagandek bo'ldi. Asrora Karimjonning kelishini kutib dunyodagi jami tashvishlarni unutgan, gaplari ham allaqanday poyma-poy, qiliqlari o'ziga yarashmagandek, yerda yurayotganga emas, osmonda uchib yurganga o'xshardi. Kuniga pardozini necha marta yangilar, qanaqaki kiyimi bo'lsa hammasini bir kunda kiyib, bir kunda yechardi.

Dildor bo'lsa A'zamjondan, yo'lga chiqdim, degan telegramma kelgan kundan boshlab uy yig'ishtiradi. Devor oqlaydi, kir yuvadi. Kechasi bolani uxlatib ish tikadi. A'zamjonning kiyimlarini Risolat bermagan edi. Dildorning o'zi yelib-yugurib to'n tikirdi, etik buyurtirdi. Hozir tut tagidagi supaga gilam solib, xontaxta ustiga topgan-tutganini terib, katta samovarga o't tashlab kelgan. Pillaga olgan oq shohini poyonoz qilish uchun dazmollab, ayvon qozig'iga ilib qo'ygan. Ayniqsa, o'g'li shoshirib tinchitmaydi. Soqovlanib, dadam keladi, deb qo'ni-qo'shnilarga hammadan oldin xabar berib chiqdi. Hozir ham har parovoz qichqirganda «dadda», deb qiyqiradi.

Stansiyaga odam yig'ilib ketdi. Shuncha odam osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi, bilib bo'lmasdi. Shuncha odam qa-yerda ekan?

Dildor shunday xayollar bilan band ekan, birdan shovqin-suron bo'lib ketdi. Hamma perronga yopirildi.

Dildor olomon orasiga kirolmay turgan edi, odamlar yana orqaga qaytishdi. Hammayoqni shovqinga to'ldirib kelgan sostav tovar poyezdi ekan. To'xtamay o'tib ketdi.

Asrora bilan Nizomjon keldi. Endi Asroraning yuzida boyagi quvnoqlik qolmagandi. U xomush. Ko'zlari namli. Nima bo'ldi?

Nizomjon Dildor bilan so‘rashib, jiyani qo‘liga oldi.

– O‘ho‘, katta yigit bo‘lib qopsan-ku.

Dildor hayron bo‘lib Asroraga qaradi. U g‘ijimlangan qog‘ozni uzatdi. Telegramma. Karimjon Uzoq Sharqdan yuborgan edi. Axir urush tugagan bo‘lsa, Karimjon Uzoq Sharqda nima qilib yuribdi?

Radiokarnay g‘irillab turib birdan gapira boshladi.

– Poyezd birinchi yo‘ldan keladi. Tartib saqlashlaringizni so‘raymiz.

Parovozning kuchli qichqirig‘i radio tovushini bosib ketdi. To‘g‘onni buzgan seldek odamlar perronga oqa boshladi. Bir qo‘lida jiyani, bir qo‘li bilan Dildorni sudrab Nizomjon ham o‘sha tarafga yugura boshladi.

Vagon tomlarida ham odam. Derazalardan yarim beligacha chiqqan maykachan yigitlar qichqirishadi. Parovoz, vagonlarga gul ilinib qolgan. Poyezd Toshkentdan chiqqandan beri yo‘l-yo‘lakay razyezd, har stansiyada vagonlarga gul otaverishgan edi.

Hamma perronda. Faqat Asroragina vokzal maydonida yolg‘iz qolgan. U bilan hech kimning ishi yo‘q. Hamma o‘z jigarini qidiradi. Inoyat oqsoqol hassasi bilan odamlarni turtib, vagonlardan vagonga yuguradi. Eng oxirgi vagon eshigidan A‘zamjon ko‘rindi. U parovoz to‘xtamayoq o‘zini yerga otdi. Birinchi bo‘lib uni Risolat bag‘riga bosdi. Oqsoqol ham yetib keldi. U ko‘zida yosh bilan o‘g‘lining peshanasidan o‘pdi-da, hassasini yerga tashlab, uni quchoqlab oldi. Chol yig‘lardi. A‘zamjon ota bag‘ridan chiqib javdirab Dildorni qidirardi. Dildor ularga yaqin qolganda hamon qo‘ldan sudrab kelayotgan Nizomjonni bir siltab, qo‘lini bo‘shatdi-da, orqada qoldi. To‘xtadi. Nizomjon akasining bo‘yniga osildi. A‘zamjon u bilan shoshib ko‘rishdi-yu, o‘g‘lini ko‘tarib olib, cho‘pillatib o‘paverdi. Dildor yaqin bormadi. U Risolat oldida, boshiga shuncha ko‘rgiliklar solgan Oqsoqol oldida erining bo‘yniga osilishni istamasdi. A‘zamjon Dildorga ko‘zi tushdi-yu, bolani bag‘ridan qo‘yib yubormay unga qarab yura boshladi. Oqsoqol uning bu harakatini sovuq kuzatib qoldi. Dildor erining bo‘yniga osilmadi ham, yig‘lamadi ham. Uning o‘ng yelkasiga qo‘lini tashlab omonlashdi, xolos.

– Tinch-omonmisan, Dildor? – dedi A‘zamjon.

U shunday derdi-yu, ovozi titrardi. Dildor bosh irg‘ab javob qildi. Poyezd yuzdan ortiq jangchini olib kelgan edi. Ko‘kraklari orden va medallarga to‘lgan andijonlik, namanganlik yigitlar va-

gon oynasidan o'z ota-onalari bilan topishgan quoldoshlariga zavq bilan tikilishardi. Sal o'tmay ular ham o'z jigarlari, yor-bi-rodarlari bilan shu xil topishishlarini o'ylab entikishardi.

Oqsoqol oldinga tushib yo'l boshladi. Maydonga chiqishdi. Shundagina Dildor Asrorani esladi. U yoq-bu yoqqa alangladi. U yo'q edi. Dildorning yuragi «jiz» etib ketdi.

Chorterakdan kelgan mashina ularni kutib turardi. Oqsoqol-ni kabinaga o'tqazishdi, Risolat, A'zamjon, Dildor, Nizomjon yuqoriga chiqishdi.

Marg'ilonga olib boradigan yo'l gavjum edi. Ko'chalar-da odam serob. Daraxtlar, eshik tepalariga bayroqlar tikilgan. Ketma-ket o'tayotgan mashinalar to ko'zdan yo'qolguncha ko'-chadagilar qarab qolishadi. Birining ko'zida yosh, birining yuzi-da tabassum. Har bir uchragan kishining yuziga, ko'ziga qarab, dilida nima borligini bilib olish mumkin edi. Qoraxat bag'rini kuydirgan, qaddini bukkan chollar, kampirlar ko'zda yosh bilan boqishardi.

Oqsoqol Marg'ilon bozori darvozasi oldida mashinani to'x-tatib, shoshib ichkariga kirib ketdi. Zum o'tmay eski xaltasini ko'tarib qaytib chiqdi.

Risolat stansiyadan chiqqandan beri piching qilib Dildorni tishlab-tishlab olishni poylardi. Dadasi bozorga kirib ketganda Risolat nashtarini qattiqroq sanchdi.

– Odamlarga hayronman, yil, o'n ikki oy qorasini ko'rsat-may bugun paydo bo'lib qoldi. Er shirin-da, er.

Dildor zarda bilan o'girildi.

– Menga tegizib aytayotgan bo'lsangiz kerak-a?

– Yaxshi odam o'zi bilib olaveradi.

Dildor sal past keldi.

– Qo'ying, opa. Shundoq yaxshi kunni zimiston qilmang.

A'zamjon nima gapligini bilmay opasiga qaradi.

– Opa, nima qilyapsizlar?

– Sen aralashma! Sening gaplardan xabaring yo'q, Bu man-jalaqi bilan ikki og'iz gaplashib qo'yadigan payt keldi.

Dildor shuncha bo'lib o'tgan gaplarni orqaga tashlab, eri-ning uyiga borib har qancha achchiq gapni yutib kechgacha keldi-ketdini kutmoqchi edi. Mana, hali mahallasiga yetmayoq turtkilashyapti. Bunaqa bo'ladigan bo'lsa bormaganiyam ma'qul.

Mashina Chorterakka qarab yo'l oldi. Uzoqdan qishloq imo-ratlari ko'rina boshladi. Do'ngdan o'tishdi. Yo'l ikkiga ayriladi.

Dildor kabina tomini shapillatib ura boshladi. Shofyor tormoz berib derazadan bosh chiqardi.

– Nima gap?

– Birpas to‘xtang, – dedi Dildor.

U shunday dedi-yu, yerga gurs etib sakradi.

– Yuring, yuring, A‘zamjon aka. Uyimiz bu yoqda.

A‘zamjon hayron bo‘ldi.

– Qayoqqa?

– Bilmaysizmi? Axir uyimiz allaqachon bo‘lak bo‘lgan.

Risolat shovqin soldi.

– Qandoq turqi sovuq xotinsan. Jigarni jigardan begona qilmoqchimisan? – Dildor javob qilmadi. Risolatning betiga qarashni ham xohlamasdi. Kabinadan Oqsoqol chiqdi.

– Nima gap?

Risolat bidirlab ketdi.

– Voy, bu tirnoqni etdan judo qilmoqchi. Asti qoni qo‘shilmadi buning. – Oqsoqol janjalning ma‘nisiga tushunib, muloyim gapga aralashdi:

– Axir, jon bolam, qancha gina-kudurating bo‘lsa, bafurja gapirarsan. Bugun unaqa qilma. Uyga borsin. Undan keyin sen ham ko‘chingni olib kelasan. Mana ering. Er degan izvoshning oldingi g‘ildiragi bo‘lsa, xotin keyingi g‘ildiragi.

Dildor unga ham javob bermadi. Og‘irlik bilan dedi:

– A‘zamjon aka, uyingizdan bir umr qaytmas bo‘lib chiqib ketganman. Men ilgari mushtipar Dildor emasman. O‘z yo‘limni topib oldim. Agar bolam desangiz, xotinim desangiz, yuring. Uyga boraylik.

Oqsoqol o‘g‘liga bo‘ri qarash qildi. A‘zamjon ikki o‘t orasida qolgan edi. Nima qilsin? Ota so‘zini qaytarsinmi? Uning Dildor-ga yon bosgulik holi bor edi. Oqsoqol buni payqab qoldi.

– Ichkuyov bo‘ladigan bolam yo‘q. Nomard yigit ichkuyov bo‘ladi. Xotin zotining urug‘i Hirotdan kelgani yo‘q. Yosh-yosh qizlar chollarga tegyapti. O‘zingni bozorga solma.

Dildor yana A‘zamjonga qaradi. Oqsoqol qat‘iy buyurdi:

– Chiq, mashinaga. Er kerak bo‘lsa, yalinib boradi.

A‘zamjon beixtiyor mashinaga intildi-yu, yana to‘xtadi. Endi Risolat gapga aralashdi.

– Ukasiga o‘ynash bo‘lgan xotin, xotin bo‘larmidi?

A‘zamjonning tishlari g‘ijirlab ketdi. Dildor qaltiradi, ko‘zlaridan o‘t chaqnadi. Shart burildi-yu, qo‘lidan bolani yulib oldi-da, pildiragancha ketdi. Nizomjon ham o‘zini yerga otdi.

Oqsoqol kabina eshigini qarsillatib yopib shofyorga: — Hayda, — dedi.

Kabina tepasida A'zamjon, Risolat notekis yo'ldan chayqala-chayqala ketisharkan, A'zamjon yo'l o'rtasida hayron turib qolgan ukasiga, sertuproq yo'ldan orqasiga qaramay pildirab ketayotgan Dildorga qarardi.

Ukasiga o'ynash bo'lgan xotin so'zi uning yigitlik izzat-nafasiga tekkan edi. Uning ko'z oldida go'zal, vafodor Dildor emas, harom, alvasti Dildor sochlarini yozib turgandek edi.

II

To uy ostonasiga yetguncha bola «dada» deb Dildorning sochlarini to'zitib, yuzlarini timdalab tashladi. Bola necha kunlardan beri sira ko'rmagan dadasini kutardi. Uning orzulari, xayollari bir zumda shamolga uchib ketganini bilmasdi. Yulduz pogonli dada, yulduzli shapka kiygan dada bir ko'rindi-yu, yana yo'q bo'ldi.

Bola uygaham dodlab kirdi. Ariq bo'yida ketmon yuvayotgan Yunusali ota nevarasining bu xil tovushidan hayron qolib, ketmonni joyida qoldirganicha eshikka chopdi.

— Nima gap?

Dildor javob bermadi. Bolani yerga qo'ydi, o'zini ayvonga otib, kulcha bo'lib oldi. Bola ko'chaga «dada»lab yugurdi. Chol yo'lakdan uni tutib keldi. Bola oyoqlarini tipirchilatib unga so'z bermasdi.

Yunusali ota qizi bir nima demagan bo'lsa ham, uning ahvolidan nima gap bo'lganini bilib olgan edi. Ota bir zum o'ylanib qoldi. Endi nevarasi ham hurpayib olgan, qaltirayotgan bobosiga, ayvonda to'lg'anib yotgan onasiga qarab, barmog'ini og'ziga solganicha javdirab turardi.

Oxiri Yunusali ota qizining tepasiga keldi.

— Qo'y, qizim, qo'y. Bu kunlar ham o'tib ketar. Shundoq bo'lishini bilgan edim. Ammo ering urush ko'rdi, musofirchilik ko'rdi, yo'lini topib olgandir, deb o'ylagan edim. Bo'lmapti-da.

Dildor bosh ko'tarib dadasiga qaramadi. Chol endi nevarasiga o'girildi. U hamon qo'lidan pufagi uchib ketgandek hayron hiqillab turibdi.

— Qizim, mayli. Bolada nima ayb, dadasining oldiga oborish kerak. Axir bola sho'rlik uni qachondan beri kutadi. Kutaverib ko'zlari to'rt bo'ldi sho'rlikning.

Dildor sapchib o'rnidan turdi-yu, bolasini quchoqlab oldi.

– Yo'q, yo'q. Bormaydi, unga bermayman bolamni.

Ota bosiq turib dedi:

– Undoq o'ylama. Bolaning dilini vayron qilma.

Bola yana xarxasha qila boshladi.

– Dadamga, dadamga boraman.

– Ana ko'rdingmi. Hozir oboray, bu kecha dadasi bilan yotsin. Yupansin. Ko'nglini sindirma go'dakning.

Dildor bolasini bag'ridan qo'yib yubordi. Bola chopganicha yo'lakdan chiqib ketdi. Yunusali ota qiziga bir dam qarab turdi-da, og'ir, yurakda bir dunyo alam bilan nevarasining orqasidan ketdi. Eshikka yetganda to'xtadi.

– Bolam, qandoq qilamiz, asli peshanang shundoq bo'lsa, ilojimiz qancha!

Dildor hovlida yolg'iz qoldi.

Hali oftob o'chmagan. Boya Dildor stansiyaga ketganida dadasi rayhonlarga suv ochib, hovlini yog' tushsa yalagudek qilib supuribdi, suv sepibdi. Poyondoza olingan oq shohini darvozaxona ustunidagi kalit iladigan mixga osib qo'yibdi. Patnisdagi guruchni tozalabdi. Yonida ko'zoynagi, qog'ozda bir kaftgina kurmak... Samovar irakisiga qog'oz kiydirib bosib qo'yibdi. Qoziqda yangi to'n, taxtakachdan chiqqan do'ppi.

Bularning bari A'zamjon uchun edi.

Uch yildan oshdi. Dildor biron kunni ro'shnolik bilan o'tkazmadi. O'tgan har bir kun unga alam, iztirob tashlab ketardi. Mana shu o'tgan alamli kunlarning nihoyasiga yetdim, endi bari unutiladi, bari tushdek elas-elas esda qoladi, deb o'ylagan edi. Bugun o'tgan alamli kunlar jam bo'lib uning yuragini changallab oldi. Butun orzularini yulib tashladi. Bu alamlarga shu birgina A'zamjon barham berishi kerak edi. Dildor zambarak og'zida bola ochgan chumchuqdek yashab kelganini bilmagandi. O'sha zambarak endi otildi. Otildi-yu, uning ne-ne mashaqqatlar bilan tiklagan inini, ro'zg'orini ko'kka sovurgandagina bildi.

Dildor alamini ko'z yoshidan olardi. Yig'ladi, yig'ladi, oxiri ko'zida yosh qolmadi. Holsizlanib ayvon labiga o'tirdi-da, at-rofiga telbadek nazar tashladi. Atrof jimjit. Faqat olisdan chirmandaning taraqlagani, yosh-yalangning qiyqirig'i eshitiladi. Bu A'zamjonlar uyida. Uning kelishiga qishloqning uzoq-yaqinlari yig'ilishgan. U yerda o'yin-kulgi. Bu to'ydan faqat Dildor benasib, xolos. Shu bazm, bu qiyqiriqlar bu yerda, mana shu hovlida bo'lishi kerak edi. Bo'lmadi. Nega?

Dala-toshni kuydirgan saraton haroratini bag'riga yashirgan o'sha mash'um tutzor, azamat yigitning pahlavon ko'ksiga bosh qo'ygan qoq tush pallasi...

U kunlar Dildorga katta baxt, tush kabi shirin hayot va'da qilgandi. Aldangan qiz hamon o'sha tush pallasi o'zini unutgan daqiqalarning dardini tortardi.

Ayol kishiga vafo degan narsa qanchalar qimmatga tushishini ko'plar hali bilmaydi.

Dildor hech kimni qoralayolmasdi. Hammasiga birgina o'zim aybliman, deb bilardi. Agar u Nizomjonga bevafoqlik qilmaganda bu kunlar boshiga tushmasdi. Ammo Nizomjon qanchalar azob chekkan bo'lmasin, bir marta ham uning yuziga solmadi. Oxiri Dildor o'yinchoqqa aylandi. Uni erining ukasiga olib bermoqchi bo'ldilar. Bunga Dildor qanchalik qarshi turmasin, baribir yana ozgina kuch bilan rozi bo'lishi mumkin edi. Dildor shunaqa irodasiz edi. Bu gal ham uni Nizomjon saqlab qoldi. Dildor har gal irodasizlik qilib jar yoqasiga borib qolardi-yu, azobini Nizomjon tortardi.

Hozir Dildor boya stansiyadan qaytib kelayotganlarida aka bilan uning o'rtasida qolgan Nizomjonni esladi. Nizomjon mana shu Dildor tufayli o'z uyidan, dadasidan, opasidan, akasidan judo bo'ldi. Otasi uni oq qildi. Nima uchun? Kim uchun? Albat-ta, Dildorning nomusini saqlab qolish uchun. Dildor bir o'zini emas, Nizomjonni ham iztirobga soldi. Nahotki, shularning bari uning ko'zini ochmagan bo'lsa?! Yo'q, Dildor endi tavbasiga tayandi.

Ostonada bola opichlagan dadasi ko'rindi. Bola uxlab qopti. Dadasi uni avaylab supaga yotqizdi-da, bir chetga borib o'tirdi. Boshini ikki panjasi orasiga olib, uxlagandek qimirlamay qoldi.

Olisda hamon chirmanda qarsillaydi. Mast yigitlarning qiyqirig'i, qarsak tovushlari baralla eshitilib turibdi. Dildor o'zini qo'lga oldi. Dadasining tepasiga kelib asta shivirladi:

– Meni kechiring, dada. Tavba qildim. Qariganingizda meni deb tashvishga qoldingiz. Qo'ying, bir amallab kunimizni ko'rib ketarmiz.

Ota bosh ko'tardi. U qiziga shunday qaradiki, bu qarash go'yo hech nima bo'lmagandek, shunchaki dam olib o'tirgan kishining loqayd qarashiga o'xshardi.

– Joyingizga borib yoting. Charchagandirsiz. – Dildor ta-nidagi butun og'irlikni tashlagandek, yengil borib eshik ilgagini solib keldi. Chol ham o'rniga borib yotdi. Dildor bolasini ye-

chintirib o'rniga yotqizdi. Bolaning cho'ntagida otilgan o'qning to'rtta gilzasi. Ko'ylagining ko'kragida yulduz.

Dildor gilzalarni qo'liga olib tikilib qoldi. Balki bu A'zamjonning dushmanga otgan oxirgi o'qlarining gilzasidir. A'zamjon dushmanga o'q otib, o'z xotinini yaralagandek tuyuldi.

Bu kecha eri jangdan g'olib qaytgan xotinning uyida chiroq yonmadi. Tiq etgan tovush ham chiqmadi. Qor uchqunidek mayda, sovuq yulduzchalar qora baxmal osmonda birin-ketin miltirab qoldi. Yoshlik, sevgi to'la balog'at yillarini oqizib ketgan anhor guvillaydi. Bu anhor endi sevgi sirlarini emas, umrni olib ketayotgandek noxush, sovuq shovullaydi. Uzoq-uzoqlarda bazmdan qaytgan mast yigitlarning poyma-poy qo'shiqlari eshilib qolardi. Bu tovushlarning endi Dildorga sira aloqasi yo'q. Aksincha, bu tovushlar uni masxara qilayotgandek.

Birdan eshik zarb bilan taqilladi. Dildor seskanib ketdi.

– Kim?

Kimdir yo'taldi. Mast bo'lsa kerak, otga o'xshab pishqirdi.

– Men, men A'zamman. Och, Dildor. Och! Ochsang-chi!

Dildor yeldek uchib eshikka yugurdi. Birdan hovli o'rtasida to'xtab qoldi.

Uning yuragi gupillab urar, baxtdanmi, cho'chiganidanmi o'zi ham bilmasdi.

– Dildor, Dildorim, och!

Dildordan sado chiqmadi. Orqasiga qaytib yana supaga o'tirmoqchi edi, eshik zarb bilan tag'in taraqldi.

Dildor bu gal hech ikkilanmay eshik oldiga bordi.

– Nima deysiz? Nima qilasiz meni?

– Och, och, Dildorim! Diydingga bir to'yay.

Ayol qalbidek yumshoq, har narsani oson kechiradigan qalb bo'lmaydi. Yig'lab, yalinib aytilgan so'z har qanday xotin qalbini eritmay qo'ymaydi.

Dildor titrab ketdi. Qo'llari beixtiyor eshik halqasiga bordi. Bordi-yu, allaqanday kuch qo'lini halqadan uzib oldi.

Dildorda qandaydir kuch paydo bo'ldi. Tanidagi titroq ham allaqayga g'oyib bo'ldi.

– Keting!

Dildor bu gapni sira ikkilanmay aytdi. O'z tovushining qat'iyligi unga yana kuch bag'ishlagandek bo'ldi.

A'zamjonning kayf aralash uni pisand qilmagani va ayni vaqtda hayratda qolganini ifoda qiladigan tovushi keldi:

– Nima?!

Ikkovi ham jim qolishdi. Saldan keyin A'zamjon dedi:

– Esingni yig'!

Dildor indamadi.

– Keyin pushaymon bo'lasan. O'rtada bolamiz bor.

Dildor yana indamadi.

Dildorning yuragi uzilib ketgandek bo'ldi. Ammo yana o'zini bosdi.

Sal o'tmay A'zamjonning piqillab yig'lagani eshitildi. Dildor kuchining boricha o'zini bosishga urindi. Erining gaplaridan ta'sirlanmaslik uchun ikki qulog'ini kaftlari orasiga oldi.

A'zamjon ancha paytgacha jim qoldi. Tishlari g'ichirladi. Nimalardir deb kimnidir so'kdi. Kimni so'kayotganini Dildor eshitmadi. Oxiri A'zamjon jahl bilan eshikni tepdi. Dildor sal orqaga chekindi-da, ovozining boricha butun qahr-u g'azabini yig'ib qichqirdi:

– Keting! Keting! Keting!

A'zamjon qahr bilan dedi:

– Uch taloqsan! Qo'ydim!

Ko'cha tarafda notekis tashlangan qadam uzoqlashdi. Dildor hamon qimirlamay yo'lakda turardi. U shu turganicha qancha turganini bilmasdi. Supada yotgan dadasi yo'taldi. Shundagina Dildor esini yig'ib orqasiga qaytdi. U supa yonidan o'tib ketayotganda chol boshini ko'tardi.

– To'g'ri qilding, bolam. Shundoq qilishing kerak edi.

Dildor indamadi. Bir og'iz gap aytgudek bo'lsa, tomog'idan gap emas, yig'i otilib chiqib ketardi. U o'zini tutdi. Biroq bolasining yoniga yotarkan, o'zini tutolmadi. O'ksib-o'ksib yig'ladi. Ko'z yoshlaridan yostiqlik shalabbo bo'lib ketdi.

Uning ahvolini dadasi bilib yotardi.

Qay ota o'z bolasining baxtsizligidan, azobidan bexabar qoladi, deysiz.

III

Nizomjon yo'l o'rtasida ancha turib qoldi.

Mashina orqasidan chang purkab zumda g'oyib bo'ldi. Ammo bola ko'targan Dildorning shitob bilan o'rikzordan o'tib so'qmoqqa chiqishi, hali odam bo'yi kelmagan sariq tollar orasidan ketishi uning diliga allaqanday og'ir, ko'ngilni ezuvchi bir mung tashlab ketgan edi.

Nizomjon shu yoshga kirib biron marta shodlikka to‘ymagan edi. Bugun akasi o‘lim joyidan omon kelganda, uni sog‘ingan, yarimta bo‘lgan oila butun bo‘lgan kunda, ko‘rgan-kechirgan azoblar unutiladi, gina-qudurat oradan ko‘tarilib ketadi, deb o‘ylagan edi. Otasini, opasini shu shodlik bahona kechirgan edi. Ammo bu shodlik ham unga tatimadi.

Kindik qoni to‘kilgan uy, ona tobuti lopillab chiqqan ostona hamisha uni bag‘riga chaqirardi. Oq qilingan bo‘lsa-da, quvilgan bo‘lsa-da, bari bir bu uy uning uyi edi.

Hech bir bola o‘z otasini, jigarlarini yomon deymaydi. Har qancha alam o‘tgan bo‘lsa ham, ichiga tashlaydi. Alamlarini, azoblarini ko‘krigiga ko‘madi. Nizomjon ham barcha alamlarni ko‘ksiga ko‘mib, akasi keladigan kun hech narsa bo‘lmagandek quvilgan ostonadan o‘ynab-kulib kirib kelgan edi.

Zum o‘tmay u yana o‘z uyiga begona bo‘ldi-ko‘ydi.

Otasi bir og‘iz bo‘lsa-da, yur demadi-ya!

Risolat bo‘lsa uning dilini vayron qilib A‘zamjonga: ukang xotiningning o‘ynashi, dedi, A‘zamjon unga yov bo‘lib qaradi.

Endi Nizomjonning bu uyda qanaqa ilinji bor? Kimi bor, nimasi bor? Tamom!

Nizomjon ayrilish yo‘lda nima qilarni bilmay turardi.

Shu topda uning dunyoda hech kimi qolmagandi.

U asta joyidan qo‘zg‘aldi. Jigar ekan, allaqanday ilinj uni uyi tarafga qaratdi. Ko‘nglida hozir kimdir kelib qo‘lidan tortadigandek, uyiga sudraydigandek bo‘lardi. Shuning uchun ham u dadil qadam tashlamas, uzoq ketib qolsa, topolmay qolishadigandek tuyilardi. U asta-asta qadam tashlab anchagina nari ketib qoldi. Hech kim uni izlab kelmadi. Chaqirmadi.

Nizomjon og‘ir xo‘rsinib qadamini tezlashtirdi. Marg‘ilon yo‘liga qarab ildam yurib ketdi. Guzardan o‘tdi. Yo‘l chetlariga xarsang yotqizilgan ko‘chaga burilishi bilan orqadan yengil oyoq tovushi eshitib o‘girildi. Brezent shippakda yengil yer bosib Adolat kelardi. Nizomjon to‘xtadi. U o‘z qiyofasining qay ahvoldaligini endi bildi. Adolatning hayron bo‘lib qarab turganidan bildi.

– Nima bo‘ldi? – dedi cho‘chib Adolat.

Nizomjon javobga og‘iz ochdi-yu, iyagi qimirladi, xolos. Tomog‘idan ovoz chiqmadi.

– Qo‘y, qo‘y, gapirma. Yur! Asroralarnikiga kelyapsanmi? Yaxshi qipsan. Yur.

Nizomjonning ko‘zidan tirqirab yosh chiqib ketdi. U bola bo‘lib yig‘lamagan edi. Yig‘laganda ham ko‘z yoshini yashirgan edi. Hozir u o‘zini tutolmadi. Nega yig‘ladi?

Muttasil ruhiy azob chekkan odam hamisha yangi zarbalarga chog'lanib turardi. Butun asabini, kuchini boshiga yog'iladigan kulfatlarini daf qilishga tayyorlab turadi. Ana shunday paytda bir og'iz mehribon so'z, bir og'iz iliq kalima asablar ostida yotgan ko'z yoshini siqib olib chiqadi.

Nizomjon ham shunday bo'ldi. Taqdirning necha yillardan beri boshiga solayotgan berahm o'yinlari diydasini qotirib qo'ygan edi. Shu sodda, shu to'pori qishloq qizining bir og'izgina so'zi uni ona tovushidek unutilgan, unutilgan-u g'uborsizligi, mayinligi, mehribonligi bilan birdamgina gangitib qo'ygan edi.

Nizomjon qachonlardan beri ana shunday bir iliq so'zning gadosi edi. Balki shu iliq so'z uning ko'z milklariga yosh tortib chiqdimikin?

Ostonaga yetishganda Adolat unga tanbeh berdi:

— Karim to'g'risida g'iring deb og'iz ochmaysan.

Nizomjon hayron bo'ldi.

— Nega?

— Hali xabaring yo'qmi? Karimdan xat keldi. U hozir Manjuriya chegarasida turibdi.

Nizomjonning ko'ngli allanechuk bo'lib ketdi. U Manjuriyaning qayerdaligini biladi. Nahotki, yana urush bo'lsa? Nahotki, yana qon to'kish, portlashlar.

— Menga qara, — dedi Adolat. — Yaxshisi, sen kirma. Hozir Asrora telbadan battar bo'lib o'tiribdi. Rais opa ham shu yerda bo'lsalar kerak. Sen ketaver.

Nizomjon katta tosh yo'lga chiqqandagina o'zining qilgan ishidan pushaymon bo'ldi. Nega Asroraning oldiga kirmadim, nega ikki og'iz iliq so'z bilan uni ovutmadim, deb o'zini o'zi koyidi.

Ko'ziga boya stansiyada bir gapirib o'n kulib yurgan Asrora ko'rindi.

Chorterakda ikki alamzada qoldi. Zirillama yo'lida dili vayron bo'lgan bir yigit o'z yog'iga o'zi qovurilib borardi.

Nizomjon Zirillamaga kelganda qosh qorayib qolgan, sim-yog'ochlarda endi chiroq yona boshlagan edi. So'rilarida gurunglashib o'tirgan choyxo'rlarga bir-bir salom berib Naymanga ketadigan biron mashina bormikin, deb alanglab turgan edi, sarta-roshxona oldida etigining qo'nji ustidan boldirini uqalab o'tirgan Ummatali amakini ko'rib to'xtadi,

— Dadangni ko'rdingmi? — dedi Ummatali amaki.

Nizomjon uning gapidan, qishloqqa borib dadangni ko'rib keldingmi, degan ma'no angladi. Ha, dedi-yu, boshqa gap ayt-may serrayib turib qoldi.

— Ko'rgan bo'lsang, yaxshi. Boya eshikka o'tib ketgan edi, — dedi Ummatali amaki.

Ana shundan keyingina u gap Ikromjon to'g'risida ekanini tushundi-yu, uyga shoshildi.

Hovlida chiroq yongan. Xayriyat, Ikromjon uyda ekan.

Nizomjon yo'lakdan kirishi bilan o'choqda miltirab turgan cho'qqa tikilganicha qimirlamay o'tirgan Ikromjonni ko'rdi. Ikromjon xayolga cho'mganidan uning kirganini sezmedi. U hamon yuzini asta-sekin kul bosib kelayotgan cho'qqa tikilganicha qimirlamasdi.

Nizomjonning uni ko'rmaganiga ikki haftacha bo'lib qolgandi. Tog'a ko'richagini operatsiya qildirgandan keyin u vaqtincha raislik qilayotgan edi. Ota-bola kam ko'rishishardi. Ikromjon uyga kelmay idorada yotib yurardi. Ovqatni ham samovarda yerdidi. Nima bo'lib bugun uyga kelib qopti.

Ikromjonning rangi ketib, ozib qopti. Yelkasiga elektr nuri tushib turganidan do'ppi chetidan ko'rinib turgan sochlari oppoq bo'lib ketibdi. Nizomjonning ko'ngli buzilib ketdi.

Nizomjon yo'taldi. Ikromjon boshini ko'tarib unga bir oz tikilib qolgandan keyingina xayollaridan bo'shab uni tanidi.

— Keldingmi, bolam. Qayoqlarda yuribsan?

Ikromjon yog'och oyog'ini yechib qo'ygan ekan, yerda yotgan qo'ltiqtayog'ini olguncha Nizomjon borib tiz cho'kib bo'y-niga osildi.

— Obbo tentagim-e, obbo tentagim-e — Nizomjonning ichidan olov otilib keldi-yu, tomog'iga kelganda bu yoqqa o'tolmay tiqilib qoldi.

Ikromjon uni bag'ridan bo'shatib boshini siladi.

— Bojangdan so'ragan edim. Chortherakka ketdi, dedi. Keldimi, akang keldimi?

Nizomjon zo'rg'a, ha deyoldi.

Ikromjon boshqa gap so'ramadi. Bo'lib o'tgan gapga darrov tushundi. Agar akasi kelgan bo'lsa, bu bola nega qaytib keladi? Otasi bir baloni boshlagan. Xafa qilgan. Akasi urushdan omon qaytib keladi-yu, kech qorong'ida ukasi shuncha yo'l bosib qaytib keladimi? Bir balo bo'lgan.

Ikromjon uni alahsitmoqchi bo'ldi.

– Tovoqni olib chiq. Osh damlab qo‘yganman. Uch kundan beri yo‘q edim. Kelib hovli supurdim, uy yig‘ishtirdim. Juda ivir-sib ketibdi. Bir siqimgina osh qilib suzib eyishga hayron bo‘lib o‘tirgan edim. Kelganing juda soz bo‘ldi.

Ikromjon supaga kelib o‘tirdi. Shakarob to‘g‘rab chinni ustiga bitta kulchani qopqoq qilib yopib qo‘ygan ekan.

– Bolam, o‘zing suzib kel. Ota-bola bir oshxo‘rlik qilaylik.

Osh ustida ikkovi ham biron og‘iz so‘z aytishmadi. Nizomjonning tomog‘idan ovqat o‘tmasa ham, Ikromjonning ishtahasini buzmaslik uchun chimdib olib turdi.

Choy ustida Ikromjonning o‘zi gap ochdi.

– Sen aytmasang ham, avzoying nima bo‘lganini aytib turibdi. Qo‘y, xafa bo‘lma. Ikkovimiz bir-birimizdan beshbattar badbaxt odamlar ekanmiz. Bunaqa kunlarni endi ko‘rayotganimiz yo‘q. Bolam, ko‘nglingga kelmasin-ku, dadang mazasi yo‘q odam ekan.

Nizomjon bo‘lgan voqeani oqizmay-tomizmay aytib berishga majbur bo‘ldi.

Ikromjon choy ho‘plab o‘tirib, goh boshini sarak-sarak qilib, goh qoshlarini chimirib eshitardi.

– Sen-ku kuningni ko‘rib ketding. Mana, yaqinda dada ham bo‘lib qolasan. Dildorga qiyin bo‘pti. Qayoqqa boradi? Ayol kishining ko‘zida yosh ko‘rsam, asti chidamayman. O‘tli-shudli bo‘lsa u ham yo‘lini topib ketar. Ha, mayli, supaga joy qil. Oy-dinda bir uxlaylik. Zap kelding-da. Bir o‘zim uyga sig‘mayman. Xuddi yutvoraman, deydi. Shuning uchun ham har yerlarda yotib yuribman. Xo‘sh, Naymanda ishlar qalay?

– Yomonmas, ota. Bormaganingizga ham ancha bo‘lib qoldi. Bir boring.

– To‘lanni ko‘rgandim. Juda vahima qilib yubordi. Undoq qildik, bundoq qildik, deb rosa ko‘pirdi.

– Ha, u kishiga gap bo‘lsa.

Ikromjon charchagan ekan, yostiqqa bosh qo‘ydi-yu, ux-ladi-qoldi. Ammo Nizomjonni hadeganda uyqu olavermadi. Ko‘ziga Jannat xola ko‘rinaverdi. Hali uydan choynak ko‘tarib chiqayotgan, hali ayvon labida iyagiga qo‘lini tirab xayol surib o‘tirgan bo‘laverdi.

Shundoq hovli huvillab qoldi-ya!

Tanholik dardini tortayotgan Ikromjon uyiga odam kelishi bilan tirilgandek bo‘ldi. Odam taftini odam ko‘taradi degandek,

Nizomjon kelib uy to'lib qolgandek bo'ldi. Uyquasi ham joyiga tushdi.

Ana, u pish-pish uxlayotibdi. Bu jussasi kichkina, bir oyog'ini urush uzib olgan kishining ko'ksida qanchalab armonlari qoldi. Qamishlari shig'illab yotgan to'qayda do'mbaygan ikkita qabrda uning jigarlari yotibdi. U ana shunday katta alamlarga ham chidadi.

Inson bolasidek sabr-qanoatlik hech narsa bo'lmas ekan.

Nizomjon bu azamat kishining sabr-u bardoshiga qarab o'z dardlarini unutdi. Bu odam u uchun kattakon bir maktabga o'xshardi. Uning har bir qadami, har bir so'zi unga kattakon saboqdek edi.

Nizomjon qattiq charchagan ekan, boshiga oftob kelganda uyg'ondi.

Ikromjon amaki ko'rinmaydi. Nizomjon bosh ko'tarib, u yoq-bu yoqqa alanglab quloq soldi. Chorbog' tarafdun uning yo'talganini eshitib, apil-tapil kiyinib chorboqqa chiqdi. Ikromjonning qo'lida ketmon, ko'pdan sug'orilmay suvsab ketgan behilarga suv ochyapti.

— Samovarga ikkitagina tarasha tashlab qo'ygin, bolam.

Nizomjon orqaga qaytdi. Samovar cho'g'i allaqachon kul bo'lgan, pashshaga o'xshab g'ing'illab turibdi. U silkib kulini tushirdi-da, otashxonada qolgan bir-ikki cho'g' ustiga kecha osh damlaganda o'choq oldiga surib suv sepib o'chirilgan ko'mirdan bir hovuch tashladi. Nizomjon to betini yuvib kelguncha, samovar surnay chalib, dam o'tmay vaqirlab qaynab ketdi.

U so'riga joy tayyorlab, Ikromjonning kelishini kutib o'tirdi.

Hovli jimjit. Erkak kishi qanchalik mirishkor bo'lmasin hovli tutishni eplolmas ekan. Ilgari bu hovli qandoq orasta bo'lardi. Hamma narsa saranjom-sarishta. Devorlar nurabdi. Bahor jallari tushirib yuborgan tarnov tagidan bo'g'ot o'pirilibdi. Rayhon, gultojixo'rozlar yashnab turadigan gulzorda o'tgan yili bel bo'yi o'sgan giyohlar qovjiragancha hali ham turibdi. Tagidan chiqqanlari ham sug'orilmaganidan sarg'ayishga kepti.

Kungay tarafda ikki uy, bir ayvon. Ikromjon bu uyni o'g'lini uylantirish uchun qurdirgan edi. Chorboqqa orqa o'g'irgan ikki uy, bir dahliz. Darvozaxona yonida ikkita kichik uy. Bu uyda Ikromjon qish kechalari allamahalgacha o'rtoqlari bilan gaplashib o'tirardi. Jannat ularga choy tashib charchardi. Mana shuncha uy bo'sh, huvillab yotibdi. Ikromjon hovliga oyda bir kelsa keladi, kelmasa yo'q. U bu hovliga xotiniga aza tutish uchungi-

na kelsa kerak. U har kelganida hamma xonalarga kirar, dera-za chetiga o'tirib bu uyda bo'lib o'tgan voqealarni bir-bir eslar, yana boshqasiga kirib, yana o'shanday qimirlamay o'tirardi.

Jannat unga shu hovlida to'qqiz marta olam quvonchiga teng baxt berdi. Ikromjon shu ostonadan to'qqiz marta bola ko'tarib oftobdek yarqirab kirdi. Sakkiz marta quvonchini kafanlab shu ostonadan olib chiqib tuproqqa ko'mib keldi. Uning jami quvonch-u alamlarini teng bo'lishgan xotini qamishlar sovuq shovillagan to'qay yoqasida yakka qabr bo'lib yotibdi. Unga shodliklar, tuganmas baxt va'da qilgan yolg'izi odam oyog'i yetmagan changalzorlar orasida botqoqda qolib ketdi.

Bu odam shuncha bola ko'rib qum qisimlagan qo'ldek bo'shab qoldi.

Ikromjon chorbog'dan chiqib ketmonni ariqqa tashladi-da, qo'lini belbog'iga arta-arta so'riga kelib o'tirdi.

Nizomjon unga choy quyib uzatdi.

– Dada, tunukani moylatmasa bo'lmas, narigi uyning tomini ham shuvatish kerak ekan.

Ikromjon qo'l siltadi.

– Nima qilasan? Moylatib nima qilasan?

Nizomjon hayron bo'ldi.

– Nurab ketyapti. O'rtoqlarimni olib kelsam, ikki kunda u yoq-bu yog'ini eplashtirib qo'yardik.

– Hojati yo'q, bolam. Hojati yo'q. Kechadan beri bir narsa ko'nglinga kelib turibdi. Tog'aga aytsam, shu uyni olsa. Bolalarga boqcha qilib bersin. Senga uy kerakmas. Naymanda uying bor. Men har qayda yotib yuradigan odamman.

U bir gapni aytolmay peshanasini uqalab iyagini qashladi.

– Mening bolalarim yayramadi bu uyda. Boshqalarning bolasi yayrasin, hech bo'lmasa.

Uning bu tovushida shunchalar o'kinch, shunchalar dard bor ediki, buni faqat Ikromjonning kechmishidan xabardor odamgina sezishi mumkin edi. Nizomjonning bag'ri o'rtanib ketdi. Bo'yniga osilib soqollaridan silagisi keldi.

Ota-bola jimgina o'tirib choy ichishdi-yu, Ikromjon darrov o'rnidan tura qoldi.

– Naymanga ketasanmi? – dedi u Nizomjonning betiga qaramay.

– Ketsam deyman. Yumushingiz yo'qmi?

– Mayli, boraver. Bugun-erta o'zim ham o'tib qolarman.

Ota-bola eshikka qulf urib ko'chaga chiqishdi. Ummatali tut tagida oyog'ini uqalab o'tirardi.

– Yana oyoqni uqalab qopsan, oshna, nima bo'ldi?

– Bo'lmayapti. Bu kecha mijja qoqmadim. Yomon qiynayapti. Idoradan telefon qilgan edim, bolam boyoqish Azizxon kechasi Farg'onadan doktor olib keldi. Chortoqqa borsin, deyapti. Bormasam bo'lmaydi. Bolam bechorani yana ovora qiladigan bo'ldim. O'zi oborib tashlamoqchi. Tog'aning ahvoli qalay?

– Kecha borgan edim, yaxshi. Bir-ikki kunda chiqib qolar.

Ummatali qoldi. Ota-bola guzarda ajralishdi. Ikromjon idoraga kirib keta turib nimadir demoqchi bo'lib qoldi, bir oz o'ylanib turib yana eshikni ochib kirib ketdi.

Naymanga ketadigan mashina bo'lavermagandan Nizomjon betoqat bo'lib turgan edi, idora orqasidagi saroydan temir bochka yuklagan mashina chiqdi. Hamma yog'i moyga qorishgan To'lanboy kuzovda u yoq-bu yoqqa alanglab kimnidir qidirardi.

To'lanboyning xotini klub oldidagi skameykada tugun ko'tarib o'tirgan ekan, mashinaga qo'l ko'tarib o'rtaqa tushganda ko'rib qoldi. To'lanboy o'zini yerga otib xotining qo'lidagi tuginni oldi.

Nizomjon ildam yurib ular oldiga bordi. Er-xotin uni ko'rib hayron bo'lib qolishdi.

– Ha, nima qilib yuribsan, boja? Qachon kelding? Qishlog'ingga bordingmi o'zi?

Nizomjon bordim, dedi-yu, boshqa gap aytmadi.

– Kelganing yaxshi bo'пти. Hozir yuvinib olay, birga ketamiz.

To'lanboy tolzor tarafga o'tib ketdi. To'lanboyning xotini to'yga ketayotgandek kiyinib olgan, qo'lida qo'sha-qo'sha tilla uzuk, qulog'ida qashqar baldoq. Tizzasidagi tog'oradan hali sovumagan somsa hidi kelib turibdi.

Zebixonning opasi kiyinishni juda o'rniga qo'yardi. Yoshi ellikka yaqinlashib qolgan bo'lsa ham yuzida bitta ajin yo'q. Shuncha urush yillari ham qoshidan o'sma uzmadi. Erkaklar bilan barobar sholi chopig'ida ham, o'tog'ida ham – bari bir qoshida o'sma, yuzida elik edi.

To'lanboy ham o'ziga yetarcha tabiatli kishi. Biron mahal soqoli o'sganini hech kim ko'rmagan. Xullas, er-xotin ishni ham, oliftagarchilikni ham o'rniga qo'yishardi. To'lanboy bozor kunlari Marg'ilonga tushib xotiniga yarashadigan narsalarni qi-

dirib yurardi. To‘y-hashamga boradigan bo‘lsa xotining kiyinishiga ham aralashardi. Uni kiyma, buni kiy, unisi yarashmaydi, bunisini kiy.

IV

Dildor azonlab dalaga chiqib ketgan edi. Bola uyg‘onib yana dadamga boraman deb xarxasha qila boshladi, choy ham ichmadi. Yunusali ota uni kiyintirib ko‘chaga olib chiqib ketayotganda Asrora kelib qoldi.

U ancha ozib qolgan, kechasi bilan yig‘lab chiqqan bo‘lsa kerak, ko‘zlari qizarib, qovoqlari shishib ketibdi.

U kecha bo‘lib o‘tgan gaplardan xabardor bo‘lsa kerak, otadan hech gap so‘ramadi. Dildorning qayoqqa ketganini so‘radi, xolos.

– Ertalab azonlab chiqib ketgan edi, bolam.

Asrora indamay qaytib chiqib ketdi. Yunusali ota tashvishda qoldi. Qizi dalaga chiqqan bo‘lsa, Asrora bilardi. Qayoqqa ketgan bo‘lishi mumkin.

Ota eshikka qulf urib, bolani opichlaganicha idora tarafga keta boshladi. Katta yo‘lga burilayotganda eshagiga xalacho‘p niqtab kelayotgan qudasiga duch keldi. Yunusali ota oradan shuncha gaplar o‘tib unga bir og‘iz bo‘lsin churq etib gapirmagan edi. Endi ham gapirmoqchi emas. Qudasining fe‘lini biladi.

Odamzodning birovdan bir marta ko‘ngli qolmasin. Iltish qiyin bo‘ladi. Inoyat oqsoqolning, o‘g‘lim Dildor bilan o‘ynashib qo‘yib, zakundan qo‘rqib uylangan, bolasi ham haromi, deganini eshitgan. U shu gapni eshitganda dunyo ko‘ziga qorong‘i bo‘lib ketgan edi. Ota tabiatan yuvosh odam bo‘lganidan shu gapni ham ichiga yutib ketgan edi. Bu gapni kuyovim aytmagan-ku, deb indamay qo‘ya qolgan edi. Kechagi voqea uni o‘tsiz tutatib yubordi. Qizi bilan barobar tortgan azoblari, alamlari uchun Oqsoqolni tishlab-tishlab olmoqchi bo‘ldi. Darrov bu niyatidan qaytdi. Avval kuyovim bilan gaplashay, qani u nima deydi.

Yunusali ota qudasining betiga ham qaramay, indamay o‘tib ketayotgan edi, Oqsoqolning o‘zi eshak no‘xtasini tortib to‘xtadi.

– Ha, quda, bolalarga qo‘shilib arazlab yuribsizmi? Ayb bo‘ladi. Shundoq bolam o‘lim og‘zidan qaytib keladi-yu, sevinish o‘rniga to‘rsayib yurish sizga yarashmaydi. Axir, A‘zam sizning ham bolangiz. Yuring, uyga, bolalarning oldida gaplashaylik. Nima qilasiz, go‘dakni ota diydoridan mahrum qilib.

Yunusali ota indamadi. Bola yotsirab Oqsoqol olib ketmoqchiday buvasining orqasiga bekinib oldi.

– Shundoq bo‘lsin, quda.

Oqsoqol shunday dedi-yu, eshakka xalacho‘p niqtadi. Eshak pildirab o‘tib ketdi. Yunusali ota qayoqqa borishini bilmay, hardamxayol bo‘lib turgandan keyin idora tarafga yo‘l oldi.

Ular yonidan gurillab o‘tib ketgan yuk mashinasi sal nariga o‘tib to‘xtadi. Shofyor kabinadan tushib cho‘ntagidan ikkita qip-qizil olma chiqazdi-da, bolaning qo‘liga berib yelkasiga qoqdi.

– Voy-bo‘, malades bo‘p ketibsan-ku. Dadang manavunaqa geroy, frontdan senga nima olib keldi?

Bola ko‘kragidagi yulduzni, ikkita gilzani cho‘ntagidan olib ko‘rsatdi.

– Iya, maza qipsan-ku. Meniyam shunaqa geroy dadam bo‘lsa qilardim.

Shofyor uni erkab, mashinasiga yana o‘tirdi-yu, gurillatib haydab ketdi.

Dadasi sha‘niga aytilgan maqtovlardan bola quvonib ketdi. Buvasining oldiga tushib dadam manavunaqa yuradi, dadam manavunaqa chopadi, deb u yoqdan-bu yoqqa chopar, to‘xtab buvasiga xuddi askarlardek chest berib qimirlamay turib qolaradi. Yunusali ota nevarasining qiliqlarini ko‘rib ich-ichidan ezilib ketardi.

Nahotki, Dildor eridan ajrab ketadi. Unda bola nima bo‘ladi? Axir, bu bola tili chiqqandan beri dadasini yo‘qlaydi, keli-shini kutib yo‘l poylaydi. Yo‘q, nima bo‘lsa ham ularning boshini bir joyga qovushtirib qo‘yish kerak. Hech bo‘lmasa mana shu bola uchun ular birga yashashlari kerak. Har qancha og‘irchilikka chidab birlashishlari kerak.

Yunusali ota nevarasini opichlab Oqsoqolnikiga yo‘l oldi. Ko‘prikning naryog‘ida ishkonga poyasi kesib olingan keksa tol yonida Dildor bilan A‘zamjon turardi. A‘zamjon nimadir deb tinmay gapiradi. Dildor yerga qaragancha qimirlamay turibdi.

Yunusali ota to‘xtadi. Ularning gaplariga xalaqit bermaslik uchun o‘rikzor tarafga burilayotganda, nevarasi ularni ko‘rib qoldi-yu, qiyqirib yubordi.

– Dada, da-aa-da!

Ota bolani yerga qo‘yishga majbur bo‘ldi. Uning hay-haylashiga qaramay bola pildiraganicha ular tarafga uchib ketdi.

– Azimjon, Azimjon!

Bola orqasiga qaramadi. Zumda ko'prikdan o'tib dadasiga otildi. Bo'yniga osilib furajkasini olib kiydi.

Dada-bolaning bu holatiga ham havas, ham tashvish bilan qarab turgan Yunusali ota orqasiga qaytib ketdi.

A'zamjon Dildorning ko'nglini ovlamoqchi bo'lardi.

– Axir, o'ylasang-chi, Dildor, dadam qarib qolgan narsa. Besh kunligi bormi, yo'qmi, nima qilay, tashlab ketaymi?

Dildor indamasdi.

– O'zing g'alati bo'lib qopsan. Axir, dadam bilan opam senga nima yomonlik qildi? Uyim-joyim bo'la turib, qarib, hassaga tayanib qolgan dadamni tashlab senikiga ko'chib ketaymi? Bormayman. Xotin kishi uyidan chiqib ketadi.

A'zamjon erkaklik sha'ni to'g'risida uzoq gapirdi. Dildor churq etmay, uning bari gaplarini eshitdi.

– Mana shu. Bor gapim shu. Xohlasang shundoq bo'ladi. Xohlamasang o'zing bilasan.

Dildor boshini ko'tarib dedi:

– Bor gapingiz shumi?

– Shu, – dedi A'zamjon.

– Bo'lmasa endi mendan eshiting. – Dildor birdam tek qoldi.

Mana shu bir necha daqiqada A'zamjon bilan uchrashgan birinchi kundan to shu topdagi uchrashuvgacha bo'lgan voqealarni esladi. Shu o'tgan davr uni ko'p narsaga o'rgatgan, bo'shahgan qishloq qizini o'z so'zli, cho'rtkesar qilib qo'ydi. Kuchga, g'ayratga to'lib gapira boshladi.

– Dadam bilan opam nima yomonlik qildi, deb so'ratingiz. Men javob beray, siz eshiting. Opangiz bilan dadangiz uchun siz allaqachon o'lgan edingiz. Allaqachon sizning janozangizni o'qib bo'lishgan ular. Meni ukangizga olib bermoqchi bo'lishdi. Ko'p olishishdi men bilan. Yaxshiyam, Nizom insofli ekan, hamma narsadan kechdi-yu, o'zini, sizni, mening nomusimni saqlab qoldi. Agar dadangiz bilan opangizning gapiga kirganda kecha siz ona qishlog'ingizga kelmasdingiz. Ukasiga xotin bo'lgan xotiningizning betiga tuflardingiz. Gunohim sizga xiyonat qilmaganimmi? Nizom sizga nima yomonlik qildi? Kecha ko'rdingizmi, yetti yot begonadek ko'cha o'rtasida qoldi. Na dadangiz, na opangiz uni yur dedi. Siz-chi, siz nega uni uyga chaqirmadingiz? Sizga qilgan yaxshiligiga bu mukofotingizmi? Erkaklik sha'ningizni gapiryapsiz. Sizning shu erkaklik sha'ningizni kim saqladi? Ayol boshim bilan men saqladimmi? Xo'sh,

mening ayollik sha'nimni kim saqlaydi? Sizga yo'liqqan kunimni qarg'ab yashayapman. Dadam qarib qolgan, besh kunligi qolgan dadamning deyapsiz. O'sha uchun yashamoqchisiz. Manavu, kechagina beshikdan chiqqan, hali dunyoning nimaligini bilmaydigan bola uchun yashamoqchimassiz. Siz tobutga qarab emas, beshikka qarab yashashingiz kerak edi. Ne deb urushga borib keldingiz? Latta-puttaga to'lgan dadangizning hujrasini mudofaa qilgani borganmidingiz? Boshqalar bolalarining umrini saqlashga borib kelganda, siz okopda yotib shu hujrani o'ylabsiz.

Dildor o'rtanib, kuyib-yonib gapirardi. Uning har bir gapi A'zamjon ko'ksiga o'q bo'lib qadalardi. Bu gaplarni unga o'z xotini aytyapti. Boshqa odam aytganda uning boya o'zi aytgan erkaklik sha'ni ikki panjasidan musht tugardi. Uning tishlari g'ichirladi, ko'zlaridan o't chaqnadi.

Ammo Dildor uning bu holatidan zarracha cho'chimadi. Gapini qanday gapirayotgan bo'lsa o'shandoq davom ettirdi.

— Siz bir meni emas, uch kishini baxtsiz qildingiz. Manavu go'dak, jigaringiz Nizomni ham badbaxt qilgan odamsiz. Ochi-g'ini aytoy, men Nizomni sevardim. Oraga siz suqildingiz-u, bir-birimizdan begona qildingiz. Frontdan yozgan xatingiz esingizdami? Ukangizning odamgarchiligiga ming marta ta'zim qilgan edingiz. «Bizning uyimizda yuvosh, befahm musicha ham bola ochmaydi», deb yozganingiz esingizdami? Qani endi ham shu gapni aytib ko'ring-chi?!

A'zamjonning oyog'ida darmon qolmadi. Hamon bo'yniga osilib turgan bolani asta yerga qo'ydi-yu, holsizlanib to'nkaga o'tirdi. Shu o'tirganicha qimirlamay uzoq jim qoldi.

Dildorning bari gaplari haqiqat edi. Bu gaplarga biron javob topishga A'zamjonda so'z yo'q edi.

Hozir u ikki o't orasida kalovlab qolgan edi. Dadasining fe'lini biladi. Agar u Dildor bilan bo'ladigan bo'lsa uni, albatta, oq qiladi. Butun qishloqqa dod solib, nomard bolani la'natlaydi. Bordi-yu, ota uyida qolsa, bolasi, qancha jabr-u jafolarga bardosh berib uni kutgan xotini nima bo'ladi? Odamlar nima deyishadi? Shumi uning yigitlik sha'ni?

Dildor hamon tik turganicha undan javob kutyapti. A'zamjon bo'lsa shu o'tirganicha xuddi yerga singib ketayotgandek borgan sari cho'kib borardi.

Shuncha yil urush kezgan, o'qqa uchgan murdalar yonidan emaklab o'tgan, kuniga yuz o'lib, yuz tirilgan, sovuqqa ham,

olovga ham chidagan pahlavon yigitning aftodahol o'tirishi, iloj-siz, zabun o'tirishi Dildorning yurak-bag'rini ezib yubordi.

Ayollar qalbi toshdan bo'lsa ham, ulardagi onalik hissi tug'yon urisa bas. Suv bo'lib erib ketadi. Ayollardek, ayniqsa, ona bo'lgan ayollardek har bir gunohni osonlikcha kechiradigan inson bo'lmaydi.

Dildorning ichidan kuchli bir xo'rsinish keldi. Xo'rsinish emas, olov keldi. Bu olov butun vujudini o'rtadi. Kiprikleri tez-tez qalqidi-yu, ko'zidan yosh chiqib ketdi. U o'zini tutolmadi, engashib, erining boshidan quchoqlab oldi-da, sochlarini g'ijimlab ho'ngrab yubordi.

Shu payt yaqin orada eshak hangradi. Dildor o'girilib qaragan edi, ko'prik ustida hangrayotgan eshagining ikki biqiniga kavshi bilan niqtayotgan Oqsoqolni ko'rdi. Ko'rdi-yu, unga parvo qilmay eriga yopishganicha turaverdi. Sal o'tmay Oqsoqolning zardali tovushi keldi.

— Bu qanaqasi? Er-xotinmisanlar yo o'ynashmisanlar? Uyat, uyat kerak!

Dildor bilan A'zamjon o'rinlaridan turishdi. Oqsoqol ularga hamon yomon o'qrayib turardi.

— Ersiragan xotin bunaqa ko'cha-ko'yda erkak kishining bo'yniga osilib yurmaydi. Er kerak bo'lsa uyga bor. Ko'ch-ko'roningni ko'tarib bor. Ana o'shanda seni erlik xotin deyman. He, benomus!

Bu gap A'zamjonga ham malol keldi.

— Dada, og'zingizga qarab gapiring.

Oqsoqolning ko'zlaridan o't chaqnab ketdi.

— Nima, nima deding? Yana bir gapir! Ahmoq! Jo'na uyga! A'zamjon joyidan qimirlamadi.

— Jo'na, deyapman!

A'zamjon otasining o'tli ko'zlariga bardosh berolmadi. Ito-atkorlik bilan bir necha qadam oldinga bosdi. To'xtadi. Dildorga qarab nimadir demoqchi bo'ldi. Oqsoqol yana o'shqirdi.

— Qachongacha kutib turaman. Yurmaysanmi?

A'zamjon ohista dedi:

— Siz ketavering, hozir boraman.

— Yo'q, shu topda, men bilan ketasan.

Endi A'zamjonning ham o'jarligi tutdi.

— Bormayman, bormayman, ketavering.

— Nima-a-a?!

Oqsoqol eshakdan tushib unga o'dag'aylab kela boshladi.

– Juvonmarg, o'z otangga shundoq deysanmi?

U g'azab bilan o'g'liga qamchi ko'tardi. A'zamjon uning biligidan ushlab qayirib tashladi.

– Men sizga Nizom emasman. Sizga men qo'y emasman.

– Sen juvonmargni shu niyatda kutib o'tirganmidim? Sen juvonmarg deb kechadan beri keldi-kettiga pul sarf qilib o'tiribmanmi? Voydod, musulmonlar, bormisizlar, bolam menga musht ko'taryapti. Musulmonlar, qarab qo'yinglar, otasiga musht ko'targan otabezorini ko'rib qo'yinglar.

Dildor oraga tushdi.

– Baqirmang. Shuncha yil zulukdek so'rganingiz yetar.

– Sen, manjalaqi, aralashma. Sen xotinlikka emas, o'ynashlikka yaraydigan narsasan.

A'zamjon chidab turolmadi. Shartta bolasini ko'tardi-yu, bir qo'li bilan Dildorning tirsagidan ushlab ildam yurgancha ketdi.

– To'xta, to'xta, nomard bola. Qarg'ayman. – A'zamjon to'xtamadi. Oqsoqol panjalarini teskari fotihaga ochdi. – Qarg'ayman, yomon qarg'ayman, qayt. Yo'lingdan qayt!

A'zamjon qaytmadi.

V

A'zamjon kechga yaqin uyga qaytdi.

Hali ham keldi-ketdi bo'lib turibdi. Inoyat oqsoqol to'rsayib olgan. Undan qayoqqa bording, nima qilding, deb so'ramadi. Oshxonada g'imirsib yurgan Risolat ukasining oldiga bir choy-nak choy keltirib, o'zi ham yoniga o'tirdi.

– Sen bola, nima qilib qo'yding.

– Nima qipman? – dedi o'zini bilmaslikka solib A'zamjon.

Risolat gapni nimadan boshlashini bilmay birpas chaynalib turdi.

– O'shaqqa bordingmi? O'sha benomusnikiga-ya? Yuzingga oyoq tirab ketgan o'sha beti qattiq xotiningnikiga bordingmi?

A'zamjon qizarib ketdi.

– Bo'ldi! Bitta frontdan kelib, yana boshqa frontga yo'liq-yapmanmi?

Risolat yana bo'sh kelmadi.

– Menga baribir, yashaydigan sen. Mening uyim boshqa, ro'zg'orim boshqa.

– Shunaqa ekan, nega aralashasiz?

– O‘rtada qari dadamiz bor. Bittang undoq qilib ketding, endi sen ham cholning yuziga oyoq tiramoqchimisan? Mayli. Qanaqa o‘g‘illigingni yurt bilsin. Bilib qo‘ysin. O‘tirishini qara. Bukchayib, qaltiroq bo‘lib qolganini qara.

A‘zamjon bu gal indamadi. Risolat gapim joyiga borib tegdi, deb o‘yladi. Ust-ustiga bosib tushmoqchi bo‘ldi.

– Dadamni hurmat qilmasang, onam rahmatlikning arvohini ranjitma. Onam bo‘lganda dadam shu alfozga tusharmidi?

A‘zamjon sapchib o‘rnidan turib ketdi.

– Onamni gapirmalaring. Onamni sil qilib o‘ldirgansanlar. Onam bechoraning yuzida biron marta quvonch ko‘rmaganman. Dadam, sen, uni adoyi-tamom qilgansanlar. O‘ldirgansanlar.

Risolat undan bu xil gaplarni kutmagan edi, qo‘rqib o‘rnidan turib ketdi. Bo‘layotgan gaplarni Oqsoqol eshitib o‘tirgan edi. Hassasini do‘qillatib o‘dag‘aylab o‘g‘lining tepasiga keldi.

– Urushdan shunaqa zo‘r bo‘lib keldingmi? Nemisdan ortgan o‘qingni dadang bilan opangga otgani keldingmi? Bu uyda mening aytganim bo‘ladi.

A‘zamjon istehzoli kuldi.

– Bu gaplar hu, bola paytimda o‘tardi. Endi o‘tib ketdi u gaplar. Dada, men yo‘q paytlarda bo‘lgan gaplarni bir eslab ko‘ring. Hech jahonda bola ham ota uyidan ketib qoladimi? Hech jahonda ota tirik o‘g‘lining xotinini boshqa o‘g‘liga ravo ko‘radimi? Qay ota shu ishni qilyapti. Sizni nima qaritdi. Bola-chaqani boqaman deb qariganingiz yo‘q. Sizni pul, mol qaritdi.

– Ovozingni o‘chir, ablah, birov eshitadi.

– Mayli, eshitsin. Agar xotiningga yana biron og‘iz gap aytadigan bo‘lsangiz, men ham Nizomning ishini qilaman.

Birdan Oqsoqol o‘rnidan turib ketdi. Uning rangi oqargan, soqollari tinmay silkinardi.

– Mayli, tashlab ket, tashlab ket, nomard bola. Qarib bir oyog‘idan go‘r tortayotgan dadangni tashlab ket. Bitta qanjiqqa iliqib boshing oqqan tarafga ketaver.

Oqsoqol yerga o‘tirib olib ikki tizzasiga shapillatib ura boshladi.

– Dod, voydod, musulmonlar, bormisizlar, bola emas balo boqqan ekanman. O‘rdakning tuxumini ochgan ekanman.

– E, baqirmang-e, – dedi zardasi qaynab A‘zamjon.

– Qayoqqa borsang ham topaman. Osmonga chiqsang oyog‘ingdan, yerga kirsang, qulog‘ingdan tortib olaman.

A'zamjon bu gaplarga chidamadi. Shart o'rnidan turdi-yu, uyga kirib opasi kecha boshiga kiydirgan do'ppi bilan dadasi yelkasiga tashlagan to'nni uloqtirib qoziqdagi kitelini oldi. Qaytib chiqib xuddi orqasidan ergashayotgan mushukka qaragandek beparvo qaradi.

— Mana uy, mana joy, pishirib yenglar.

U boshqa gap aytmay, so'rida choy ichib o'tirgan kishilarni hayron qoldirib chiqdi-ketdi.

A'zamjon ukasiga o'xshagan ko'ngilchan emas edi. U aytgan joyidan kesadigan xilidan edi. Ukasi har gal uydan chiqib ketayotganida ko'ngli allanechuk bo'lib ketar, kimdir bir og'iz iliq gap aytsa, qaytib kelgudek bo'lardi. Ammo A'zamjonning uydan chiqib ketayotganida eti jimirlashmadi ham.

Nizomjon bo'lsa hatto zanjirdagi itning ham bo'yniga osilib yig'lamoqdan beri bo'lgandi. A'zamjon jahl ustida har qanday ishdan toymasdi. Oradan uch-to'rt kun o'tib qilgan ishdan pushaymon bo'lib yurgan paytlari ko'p bo'lgan. U kecha stansiyadan qaytar ekan, opasining bir og'iz gapi bilan uch yil yo'lga ko'z tikkan xotinini yo'l o'rtasiga tashlab ketdi. Xotiniga nisbatan yuragida yongan o'tni sira o'chmasa kerak deb o'ylagan A'zamjon yarim kechasi xotining eshigiga yig'lab keldi. U jangda kezarkan, bu uyni xayolan necha martalab ko'rgan, sog'ingan edi. Har qalay, kecha xunuk ish bo'ldi. Xotini shunday qilishi kerakmidi. Albatta, Dildor andak yengillik qilib qo'ydi. Nima bo'lganda ham eri bilan uyga kelishi, har qancha gapi bo'lsa xotirjam gaplashishi mumkin edi-ku.

A'zamjon bu gaplar shunchalik gazak olib ketishini o'ylamagan edi. Yo'l o'rtasida o'g'li ko'zlarini javdiratib qarab qoldi. Tug'ilganida ham, yo'lga kirib tili chiqqanida ham ko'rmagan ota o'z bolasini bir necha minut bag'riga bosdi, xolos. Aft-basharasiga ham durustgina qarab ulgurganicha yo'q. Ko'zlari qanaqa, qoshlari qanaqa, o'ziga o'xshaydimi?

Mana shunday xayollar kechasi mehmonlar tarqaguncha ham ko'nglidan ketmadi. Qaynatasi bolani olib kelgan edi. U payt A'zamjon ancha kayf qilib qolgan, uning ustiga opasi ukamning mehri bolasiga tushib qolmasin, deb unga biylatmadi. Bolada nima gunoh? Sog'ingan dadasiga yaqin kelolmay atrofida aylanishib yurdi. Oxiri bo'lmadi. Bola dadasiga borib suykaldi.

A'zamjon kayf bilan uni o'par, yelkasiga mindirib u yoqdan-bu yoqqa chopardi.

Umrida bilmagan qo'lansa araq hidi bolani behuzur qildi-yu, dadasining yelkasidan tushib uyimga ketaman, deb xarxasha qila boshladi. Shundagina Yunusali ota uni opichib uyiga qaytarib olib ketdi. To uyga yetguncha bola buvasining yelkasida uxlab qolgan edi.

A'zamjonning dimog'ida bola hidi qoldi. Chidamadi. Dadasining, opasining hay-haylashiga qaramay ular ketidan ketdi.

Ammo Dildor unga eshikni ochmadi. Kayf va hirs uni boshlab kelgandek tuyulgan edi. Bu xil muomala A'zamjonga malol keldi. Uning yigitlik hissini haqoratlash bo'lib tuyuldi-yu, og'ziga nima kelsa shuni dedi.

Dildor eshik ochmagan tun A'zamjon alam-sitam bilan uyga qaytdi. Yechinmay supadagi ko'rpachaga o'zini tashladi. Ertalab tong saharda uyg'ongan A'zamjon kechasi bo'lib o'tgan hodisalarni bir-bir eslab o'z qilmishidan o'zi uyaldi.

Beg'ubor tong nafasini shimirarkan, bolalik yillari qaytib kelgandek bo'lardi. Hammayoq sokin, daraxtlar ham shitirlamaydi. Endi ko'z ochgan qushlar olamni uyg'otmoqchidek chug'urlashadi. Tinmagur anhor hamon shovillaydi.

Bunday sokin va tarovat to'la tong kishilar ko'ngliga faqat yaxshilik soladi. Ikki qo'li qonga belangan jallod ham bu xil nafis tongda hayotida kechgan eng lazzatli, eng mo'tabar onlarni eslaydi.

A'zamjon xuddi yoqimli kuy tinglayotgandek goh ko'zlarini yumar, goh yuzlarida ajib bir tabassum bilan azim teraklar uchiga zar surkayotgan quyosh shu'lasiga tikilib qolardi.

Shu tongda, shu ezgu ertada u umrining buyog'ini Dildorsiz, o'g'lisiz o'tkazish mumkin emasligini tuydi.

To'ppa-to'g'ri Dildorlarnikiga qarab ketdi. Qo'rg'on jimjit. A'zamjon kecha quvilgan ostona oldida ancha kutib turdi. Kecha tepganida darvozaning bir qanotiga poshnasining izi tushib qopti. Shundagina u kecha qilgan ishi Dildorga qanchalik ta'sir qilganini bildi.

Andisha bilan darvozani itargan edi, ochilib ketdi. Dildor bolasining dorga yoyib qo'yilgan ko'ylakchalarini olayotgan ekan, uni ko'rib joyidan qimirlayolmay qoldi. Kel ham demadi, ket ham demadi. U o'zini butunlay yo'qotib qo'ygan edi.

Ikkovlari shu alfozda bir-birlariga tikilganlaricha ancha turib qolishdi. Oxiri A'zamjon darvozani bekitib orqaga chekindi. Dildorni allaqanday kuch oldinga itardi-yu, yugurganicha ko'chaga otildi. A'zamjon ancha uzoqlashib qolgan edi. Oyoq tovushi-

ni eshitib, qadami sekinlashdi. Dildor unga ko'prik ustida yetib oldi.

Sog'ingan, xo'rangan, yuragini alam o'rtagan xotin shu izti-roblarning sababchisi bo'lgan eri qarshisida uch yil deganda endi ro'baro' turardi.

A'zamjon uning qo'lidan ushlab suvning naryog'iga olib o'tdi. Dildorning vujudi seskanib ketdi. Bu qo'l birinchi mar-ta uni tutzorda, saraton oftobi dala-toshni olov seliga ko'mgan choshgohda ushlagan edi. Uning tanidagi bu titroq sevinchdan-mi, qo'rquvdanmi Dildor bilmasdi. U mast edi. U kechalari be-dor, kunlarni intizorlik bilan o'tkazganiga mukofotmi yo yana bir bor aldamchi hislarga qurbon bo'lishmi, bilmasdi, bilmasdi...

* * *

A'zamjon mana endi ota uyidan uzil-kesil chiqib ketdi. Frontdan qanday kelgan bo'lsa shunday uydan chiqdi.

Qayoqqa boradi?

U bu to'g'rida o'ylamasdi. Yigit kishi har qanday kovak-ka sig'averadi. Ammo Dildorsiz u hech qayoqqa bormaydi. Qa-yoqqa borsa olib ketadi. Nahotki, bo'sh-bayov Nizomchalik o'ziga makon topolmasa? Topadi. Bilagi kuchga to'lgan, tanidan g'ayrat, oyog'idan o't chaqnab turgan yigitning kuchiga zor bo'l-gan joylar ko'p.

A'zamjon uyiga qayrilib qaramadi. Chunki u besh yil sog'in-gan uyiga bir kun sig'madi. U frontdan qaytarkan, uy, bolasi, xotini, yor-birodarlari bilan faqat osuda hayot, tinch tirikchi-lik qilishni o'ylagan edi. Bo'lmadi. Oldinda allaqancha mushkul ishlar borligini, otalik burchi hamma narsadan zo'rligini, Dildor oldidagi kechirib bo'lmas gunohlarni yuvish, mehnat, ro'zg'or, har qanday mayda kechinmalardan, mayda havaslardan yuqori tura bilish kabi kattakon ishlar borligini endi tushundi. U o'zini shunga bag'ishlashga ahd qildi.

Mana shu niyat uni ota uyidan olib chiqdi. Shu niyat o'z otasining g'azabli ko'zlariga tik qarashga chaqirdi.

A'zamjon bu gal Dildorlar eshigini ikkilanmasdan ochdi. Xuddi o'z uyiga kirib kelayotgandek to'ppa-to'g'ri ayvon labiga keldi-yu, kitelini so'riga uloqtirib tut tagida begonasirab turgan o'g'lini dast ko'tarib oldi.

Yunusali ota nima gap ekanini bilmay hayron edi. Uydan ko'zlarini ishqab Dildor chiqdi. Bolaning dadasiga yopishishini ko'rib chiroyli jilmaydi. Qizlik yillarida Dildor shunaqa jilmayar-

di. Uning shu jilmayishi, balki A'zamjonning yuragiga o'shanda o't solgandir.

Bolani qo'yib A'zamjon ochiq yuz bilan qaynatasiga salom berdi.

– Keldim, keldim, ota. O'z bolamga o'zim ota bo'lmoqchiman. Shunga qaror qildim. Mendan o'tgan bo'lsa, kechiring. Shundoq bo'lib qoldi.

Dildor uning qaroriga tushundi. Kecha qoziqda qolgan oq shohini uning oyog'i tagiga yozdi. A'zamjon qo'lida bola bilan poyonoz ustidan yurib ayvonga chiqdi. Bu uy endi uning uyi edi. Biroq otasi bilan yonma-yon turish unga qandoq kulfatlar keltirishini hali bilmasdi.

Inoyat oqsoqol osonlikcha jon beradiganlardan emasligini u bilardi.

A'zamjon avvaliga bu yerdan ketish, Dildorni ham, bolasini ham olib uzoqroq joyga ketishni niyat qilgandi. O'ylab qarasa, bu qochish, nomardlarcha qochish bo'ladi. Shuning uchun ham o'z qishlog'ida, o'z kolxozida qolib otaga so'z bermay yashashi kerak.

A'zamjon nima bo'lsa, tosh kelsa kemirib, suv kelsa shimirib yashashga, ammo tanlagan yo'lidan qaytmaslikka ahd qildi.

A'zamjon esini tanib yigit bo'lgan yillardan buyon qanchadan-qancha niyatlar qilgan. U shu niyatlarining birontasini yuzaga chiqazmagan, chiqazish qayoqda, barini unutib yuborgan edi.

Har qalay, u ayriliq ko'rdi, o'lim ko'rdi, ota bo'ldi. Ahdini unutmas endi...

VI

Charosga yana rang kirib qoldi. Chorlerak bog'larida shaf-tolilar g'arq pishgan. Bolalar qo'lida dum bermay uzilgan handalakarlar.

Qishloqda har kuni bir xushxabar. Kimningdir eri, kimningdir bolasi urushdan kelyapti. Chollarning kuni tug'di. Kuniga ikki-uch xonadonda ziyofat yeydilar. Qoraxat olganlarning uyi jimjit. Ularning yetim bolalari to'y bo'layotgan uylar eshigi oldida yelkalarini qisib allaqanday havas, o'kinch bilan o'yin-kulgiga qarab turadilar. Dadalarining medallarini taqib, yulduzli shapkalari kiyib olgan bolalar orqasidan ergashadilar, bir marta bo'lsa ham ushlab ko'rishni so'raydilar.

Birovning uyida to'y, birovnikida aza.

Inoyat oqsoqolning ishi ko'payib ketgan, bir oyog'i Marg'ionda, bir oyog'i Chorterakda. Ora-sira vaqt topib arslondek o'g'lini tortib olgan qudasi bilan so'kishib ham keladi. Risolatning ham eri keldi. U uyida keldi-ketdini kutish bilan ovora. Hovlisida pishib tap-tap to'kilib yotgan shaftolilar uvol bo'layotganidan nolib qoladi. Na birovga beradi, na vaqt topib bozorga chiqaza oladi.

Rais opa butun qishloq to'y-to'ylashib paxta ishlovsiz qolayotganidan nolib nima qilishini bilmaydi. Kimni so'kadi, kimni dalaga haydab chiqadi.

Axir, odamlar bu kunni to'rt yil entikib kutishgan. Mayli, bir-ikki kun yayrab olishsin, bolalarining diydoriga to'yib olishsin.

Opa bugun idoraga kechroq keldi. Asrora uni kutib o'tirgan edi. Ikkovlashib ichkariga kirishdi. Ikkovining ham rangi ketgan, ozib, qovoqlari solqib qolgan.

Opa qarib qoldi. Sochlarida bitta ham qorasi qolmadi. Eridan urushning ikkinchi yilidayoq qoraxat kelgan. Uch bolani ham ona, ham ota bo'lib boqdi. O'ksitmay katta qildi. Ayniqsa, urush tugab hammaning dadasi qaytib kelayotgan paytda uning bolalari ham ko'chaga chiqishadi, pochtaoning yo'lini poylashadi. Bola, bola-da. Nima deb bo'ladi. Opa ularni ovutardi-yu, o'zini ovutishga chora topolmasdi. Shu o'tgan judolik yillari uni qaritdi. Ko'zi ham xiralashib, ko'zoynak taqmasa, xat o'qiyolmaydigan bo'lib qoldi.

Asrora undan o'ttiz yosh kichik. Avji kuchga, g'ayratga to'lgan yillari urush paytiga to'g'ri keldi. U butun kuchini, g'ayratini kolxozga berdi. Ko'proq hosil bo'lsa urushga, askarlarimizga darmon bo'ladi, dedi. Karimjonning tezroq kelishiga madad bo'ladi, deb o'yladi. Ammo Karimjondan darak yo'q. Undan na xat, na xabar bor. Urushning tugaganiga ikki oy bo'lay deb qoldi. Karimjon oxirgi xatni to'qqizinchi may kuni, g'alaba qildik, deb yozgan edi. Ana shundan keyin tushunib bo'lmaydigan telegramma.

Urush qiynoqlari qaddini bukolmagan bu ikki ayol el oldida o'zlarini tutib turishar, ammo tanholik chog'larida ko'z yoshlaridan alamlarini olardilar.

Opa kecha Asrorani chaqirtirgan edi. O'zi kechqurun raykomga ketib qolganidan u bilan uchrasholmadi. Kechqurun

unga qorovul yuborib dalaga ketmasdan to'ppa-to'g'ri pravleniyega kelishini tayinladi.

— Menga qara, singlim, qizlaringni dalaga opchiqma. Hoziroq boqqa bor. Hamma yog'ini o't bosib, juda xunuk bo'lib ketibdi, o'tlarni yulib tashlanglar, gullarning tagini yumshatib, ariqlarga suv ochinglar. Kechgacha shu bog'ni orasta qilib qo'yish kerak. Bog'da katta ziyofat qilamiz. Frontdan kelganlarga osh tortamiz.

Hali u gapini tugatmagan ham ediki, ombor mudiri — bir qo'li yo'q yigit kirdi.

— Shoshmay tur. Sen ham eshit. Chorvaga odam yuborib, bitta kattaroq qo'y opkeltir. Novvoyga bir qop un yubor. Uzum, shaftoli olib kelinglar. Klubdagi jamiki stullarni, stollarni o'shoqqa olib bor. Asroraning qizlari sening ixtiyoringda. Endi boringlar. Tushdan keyin o'zim xabar olaman.

Asrora bilan ombor mudiri chiqib ketishdi. Ulardan keyin opa tashqariga chiqib qorovulni chaqirdi.

— Manavi ro'yxatdagi kishilarni kechqurun soat oltiga boqqa chaqiring.

Opa buxgalteriyaga kirdi.

Bugungi marosim oddiy marosimlardan emasdi. Opa shu masalada kecha raykomga borib, qishloq odamlari to'y-to'y-lashib dala ishlari qolib ketayotgani, ularga bir nima deyishga ko'ngli bo'lmayotganini aytgan edi. Raykom sekretari yaxshi bir maslahatni o'rta tashladi. Bu opaga juda ma'qul tushdi.

— Frontdan qaytganlarni bir joyga to'plab, ularga osh-tuz tortib dala ishlariga yordam berishlarini so'raydigan bo'ldi.

Asrora opa aytgandan ham ziyoda qilib bog'ni tozalatdi. Supurib suv sepilgan bog' elektr yorug'ida judayam ajoyib bo'lib ketdi. Stollar yasatilgan. Alvonrang shaftolilar, uzum, olmalar, handalaklar stolni yashnatib yuborgan edi. Kabobchining ko'rasidan ko'tarilgan oqish tutun daraxtlar orasida suzib yuradi. Uning hidi unutilgan, urushdan oldin bo'ladigan kolxoz to'ylarini esga solardi.

Ko'ksi orden-medallarga to'lgan yigitlar g'ijim ro'molga o'rangan xotinlarini yetaklab, bolalarini opichlab bog' darvozasidan kirib kelishardi.

Opa ham kiyingan. Uning ham ko'kragida bir emas, ikki Lenin ordeni. Asroraning ham pardozi joyiga kelib qolgan. Uning ham ko'kragida «Hurmat belgisi», bir medal. Brigada qizlarining hammasi ikki-uch martadan hukumat mukofotiga sazovor bo'l-

gan edilar. Faqat o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qolgan Dildorgina bu hurmatlardan chetda edi.

Bog' ichi odamga to'ldi. Opa mehmonlarni dasturxonga taklif qildi. Hamma stol atrofiga birin-ketin o'rinish oldi. Opa to'rga chiqib o'tirganlarga birma-bir qarab, po'kagi ochilmagan vino shishasiga vilka bilan urib shovqinni bosdi-da, gapira boshladi.

— Ruxsat eting, aziz qahramonlarimiz sharafiga atalgan ziyofatimizni ochiq deb e'lon qilishga. — Opa chapaklar bosilguncha kutib turdi. — Aziz birodarlar, hamqishloq qahramon jangchilar, omon-eson g'alaba bilan qaytib kelishingizni butun qishloq, kolxoz a'zolari nomidan tabriklayman. Siz chinakam qahramonlarcha jang qildingiz. Dushmanni, yovuz fashistni o'z uyasigacha quvib borib, tor-mor qildingiz. Rahmat. Siz bilan birga ketgan hamqishloqlarimizdan qirq uch kishi qahramonlarcha shahid bo'ldilar. Biz ularning nomini unutmaymiz. Hamisha eslab turamiz. Ularning sag'irlarining boshini silaymiz. Yetimliklarini bildirmaymiz.

Opaning ko'zlari yiltirab, ovozi titradi. Hamma birdan jimib qoldi. Xo'rsingan, piqillab yig'lagan tovushlar eshitila boshladi. Opa o'zini o'nglab yana gapira boshladi.

— Urush qurbonsiz bo'lmaydi, deydilar. Fashist qanchalab onalarga, kelinlarga qora kiydirdi. Qanchalab shaharlarimizni vayron qildi. Biz yovuz fashistdan qasos oldik. Ammo qurbonlarimizni hech qanday qasos qaytarib bermaydi. Shaharlarimizni qayta qurib olamiz, ammo qurbonlarimizni qayta tiriltirolmaymiz. Ko'ksimizda alam, achchiq alam qoldi.

Bog' ichi suv quygandek jim. Opa ancha vaqtgacha qolgan gapini aytolmay, ko'zini bir nuqtaga tikkanicha turib qoldi. Keyin past, juda ham past ovoz bilan dedi:

— Shahidlar qabrida tinch yotsin. Biz ularning xotirasini unutmaymiz, ular nima uchun jonlarini fido qilgan bo'lsalar, uni ko'z qorachig'imizdek asraymiz, avaylaymiz. Ukalar, qahramon ukalarim, siz frontda paytlaringizda xotinlaringiz, singillaringiz, qizlaringiz sizlarning yo'qliklaringizni bildirmadilar. Astoydil ishladilar. Ishlaganda ham butun kuchlarini, butun g'ayratlarini ayamay ishladilar. Yeb turgan nonlarining yarmini ushatib frontga uzatdilar. Qaranglar, o'sha o'zingiz ko'rgan nozik barmoqlarga qaranglar, bu qo'llar dag'allashib ketdi, necha martalab qavarib, necha martalab qadoq bo'ldi. Xatlaringizda oy yuzligim, deb yozgan xotinlaringizning yuzlariga qarang, dala shamollari

qoraytirib, dag'allashtirib qo'ydi. Ular shu to'rt yil mobaynida miriqib uxlamadilar, yayrab kulmadilar, hammavaqt ikki ko'zlari, ikki quloqlari front yo'lga qadalib turdi. Qish sovuqlarida ham, saraton jazirasida ham daladan beri kelmadilar. Siz keldingiz-u, u kunlar unut bo'ldi. Mana shu kunni keltirish uchun siz u tarafdin, biz bu tarafdin front ochib kurashdik.

Opa unchalik gapga usta emasdi. Bugun sevinganidanmi, hayajonlanganidanmi, unga gap quyilib kelar, sira gapining poyoniga yetolmasdi. Gapirgan sari yana gapirgisi kelardi. Mehmonlar ham churq etmay, unga quloq solishardi.

— Xush kelibsizlar, tug'ilgan qishloqqa! Poy-ostonalaringga xush kelibsizlar, jigarlarim! Qani, endi dasturxonga qaranglar!

To opaning o'zi non ushatib og'ziga solmaguncha hech kim dasturxonga qo'l urmadi. Kabobpaz tarelkalarga kabob uyib keltirib stolga qo'ygandagina yigitlar shishalarni ocha boshlashdi.

Temir o'choq oldida qizdirilgan doira taraqladi. Adolat avvaliga uyalib, keyin qizishib o'yinga tushib ketdi. Opa o'rnidan turib, A'zamjonni tortdi. A'zamjon ilgaridan o'yinga usta edi. U ko'p tarang qilib o'tirmay, medallarini jaranglatib o'yinga tushib ketdi. Qarsak, qiyqiriq boshlandi. Ozroq ichib tanasi qizib qolgan yigitlar birov tortmasa ham o'zlari turib davraga tusha boshladilar.

Kech salqinida chirmanda so'lib po'killab qolguncha o'yin to'xtamadi. Oxiri chirmandaning ip ilgagi qo'lini qavartirib yuborgan doirachi barmog'ini so'rib o'choq oldiga ketdi-yu, o'yin to'xtadi. Hamma yana joyiga o'tirdi. Endi ilgarigi jimlik yo'q. Keldi-ketdiga alahsib uyidan chiqolmagan yigitlar bir-birlari bilan, sen qaysi frontda eding, sen qachon yaralanding, deb surish-tira boshlagan edilar.

— Ukalar, yana bir gap bor. Mana, omon-eson qaytib keldinglar. Bir maslahatni o'rtaga tashlamoqchi edim. Agar uyni sog'inib qolgan bo'lsanglar, mayli, uch-to'rt kun dam olinglar. Ammo keldi-ketdini o'zlaring kutasizlar. Xotinlaring dalaga chiqishi kerak. Ish qolib ketdi, — dedi opa.

Opa atayin shunday dedi. Yigitlarning izzat-nafsini qo'zg'atmoqchi bo'lib aytdi. Uning otgan o'qi xuddi mo'ljalning o'zginasiga borib tekkan edi. Yigitlar shivir-shivir qilib qolishdi. Biri o'rnidan turib ketdi.

— Nima deyapsiz, opa? Uyni qancha sog'ingan bo'lsak, manavi qo'llar ham ketmonni shuncha sog'ingan. Gapni aylantir-

may, shama qilmay aytavering. Endi ayollar dam olishsin. O'zimiz ishlaymiz.

Opa kulib yubordi.

– Durust, qizim, senga aytaman desam, kelinlarim tushunib qolishdi.

– Iya, iya, biz hali kelin bo'ldikmi?!

Opa ikki qo'lini ko'tarib xuddi taslim bo'layotgandek ularga qaradi.

– Tavba qildim, hazil qilib aytdim.

Kulgi ko'tarildi.

– Ha, agar tavba qilmaganingizda naq uchinchi frontni ochvorardik.

Opa yana shovqinni bosdi.

– Rahmat, ukalarim. O'zim ham xuddi shunday bo'ladi, deb o'ylagan edim. Bo'ldi, boshqa gapim yo'q. Bu yog'i to'y, o'yin-kulgi. Hoy, doirachi bola, opke doirangni, o'zim o'ynayman.

Chirmanda gumburladi. Opa keksalarga xos salobat bilan shoshilmay, ammo juda chiroyli muqomlar qilib yo'rg'alardi.

Bu o'yinlarga aralasholmay turgan Asrora sekin o'rnidan turdi-yu, darvoza tomonga yura boshladi. Uni ko'rib qolgan Dildor yugurgancha borib qaytarib olib keldi. Endi ularning ikkovini ham o'yinga tortib tushirishdi. Asrora qo'lini ko'tarib o'yinga bir chog'landi, o'ynolmadi, darrov davradan chiqdi.

Dildor astoydil o'ynardi. U endi nihoyatda ochilib ketgan, uni ko'rgan odam bolali xotin deb o'ylamasdi. Chaqnagan ohu ko'zlari suzilar, sambitdek nozik bellari egilib, buralib hammani mahliyo qilgandi. Uning qoshi ham, ko'zi ham, jamiki a'zoyi badani silkinib o'ynardi. Dildor urushdan oldin shunaqa edi. O'tgan alamli yillar, ayniqsa, Oqsoqol uning boshiga kulfat solgan vaqtlarda u mutlaqo o'zgarib ketgandi. Husni ham, vujudidan taralib turadigan allaqanday, yigit kishini mast qiladigan, uyqusini o'g'irlyadigan tarovat ham allaqayga g'oyib bo'lgandi. Tashvish qiz bolaning husnini olarkan, sho'xligini ham, ovozidagi latofatini ham quvarkan. Dildor ana shunaqa bo'lib qolgandi.

Bugun u yo'qotgan hamma narsa qaytib keldi. Eri, baxti, husni, sho'xligi yana u bilan birga.

A'zamjon uning o'yinlarini ko'rmagan edi, frontga ketayotganda u sochlari jamalak qizcha edi. Otpuskaga kelganda Dildor to'lishib qolgan, yuziga bilinar-bilinmas husnbuzar toshgan, qarashlari ishq qidirgandek allaqanday sarmast, qomatiga, husni-

ga andak bino qo‘ygan payti edi. Ana o‘shanda A‘zamjon uni ko‘rib, tinchini yo‘qotdi. Unga uylandi, yana ketdi. O‘sha tongdek beg‘ubor, tushdek allaqanday xotirada saqlab bo‘lmaydigan kunlar jangda yurgan, baxtga to‘ymagan yigitni shu paytgacha tamshantirib kelardi. O‘sha ko‘z ochib yumguncha o‘tgan kunlarda A‘zamjon Dildorning husniga ham, sho‘xligiga ham to‘yolmay qolgandi. Keldi, kelib uning ko‘zida yosh, yuzida so‘lg‘inlik g‘ijimlarini ko‘rdi.

Bu yaqin ora qishloqda Dildordan go‘zal, Dildordek lozar juvon bo‘lmasa kerak.

A‘zamjon baxtiyor, o‘z xotining husnidan mast edi.

Dildor yo‘rg‘alar, muqom ustiga muqom qilardi. Yigitlar qiyqirib chapak chalishardi.

Hatto tumsayib o‘tirgan Asrora ham beixtiyor chapak chalar, o‘rtog‘ining husni latofatiga mahliyo edi.

Bazm alla-pallagacha tinmadi. Chirmandaning taraqlashi, yigit-qizlarning qiyqirig‘i Chortherakning uzoq-uzoqlarigacha eshitalardi.

Chortherak bu kunlarni qachonlardan beri orziqib kutardi.

VII

Ming to‘qqiz yuz qirq beshinchi yilning butun yoz oylari temir yo‘l liniyalarida passajir poyezdlari jadvaldan tashqari harakat qila boshlagan edi.

Frontdan keluvchilar, urush bo‘lib o‘tgan yerlarga qaytib ketayotgan xaloyiqning son-sanog‘i yo‘q.

Gorchakovo stansiyasiga Toshkent tarafdin faqat kechasi soat uch yarimda keladigan passajir poyezdi endi kuniga uchto‘rt mahal o‘tadi. Poyezdning qachon kelishi, qachon Namanagan tarafdin qaytib o‘tishini stansiya boshliqlari ham aniq bilishmaydi. Shuning uchun ham frontdan qaytayotgan bolalarini kutganlar erta-yu kech stansiyada. Harbiy komissariat xodimlari, raykom, raispolkom vakillari vokzal binosidan alohida xona ajratib navbatchilik qilishadi. Vokzal maydoni atrofida omonat qurilgan choyxona-oshxonalarda odam ko‘p. Yero‘choq, temir o‘choqlar tagidan tutun buruqsiydi. Samovarchilarning qo‘li qo‘liga tegmaydi. Hammayoq qizil alvon, hammayoq gul.

Ikki-uch kunlab shu so‘rilarda bolasini kutib yotganlarning son-sanog‘i yo‘q. Poyezd kelishi bilan hamma ichib turgan cho-

yini, yeb turgan oshini tashlab, perronga yuguradi. Birov quvnab, birov g'amgin qaytib chiqadi. Mana shunday quvonchli kunlarning birida Gorchakovoga kelgan passajir poyezdidan o'n choqli yigit tushdi. Birpasda perron shovqin-suronga, kulgi, yig'i-sig'iga to'ldi. Bir zumda yuk mashinalari kelganlarni Farg'onaning to'rt tarafiga olib ketdi. Perronda bir yigit qoldi. Uning ko'ksida yigirma oltita orden, medal. Uni hech kim kutgani chiqmadi.

Yigit yuk xaltasini yerga qo'yib, birdam u yoq-bu yoqqa alanglab turdi-da, xaltasini sekin yana yelkasiga olib, asta vokzal maydoniga yura boshladi.

Oblast harbiy komissariatining vakili uning harakatlarini kuzatib turgandi. Ikki soldat bilan istiqboliga chiqdi.

– Salom, o'rtoq serjant, – dedi u. – Qayerga borasiz?

Yigit Chortrakka borishini aytdi. Komissariat vakili uning yelkasidagi yuk xaltasini olib chetda turgan qora «emka» mashinasi oldiga oborib eshikni ochdi.

– Marhamat, mana, olib borib qo'yadi.

Yigit gangib qolganidanmi, bunaqa bo'lishini kutmaganidanmi, unga nima deyishini bilmay, mashinaga chiqdi. Mashina gurillab, Marg'ilon tarafga yo'l oldi.

Qorong'i tushishiga xiyla bor. Marg'ilon yo'li urushdan oldin qandoq bo'lsa, hali ham o'shandoq. Birona yangi imorat tushmabdi. Tosh yo'l ancha nurab qopti.

Mashina sartaroshxona oldidan o'tayotganda yigitning ko'zi yo'lkada to'rxaltani to'latib bolalar o'yinchog'i olib ketayotgan kampirga tushdi-yu, shofyordan to'xtatishni so'radi. To mashina to'xtashiga ham sabr qilmay o'zini pastga otdi. Kampir choyxonada oldiga borib qolgan edi. Yigit halloslaganicha unga yetib oldi.

– Buvi, buvijon.

Kampir o'girildi.

Yigit turgan joyida qotib qoldi.

– Nima deysan, bolam? Buvingga o'xshatdingmi?

Yigit hamon qimirlamay turardi.

– Odam odamga o'xshaydi, bolam. Buvingga o'xshasam, o'xshagandirman.

Yigit xijolatlikdan qip-qizarib ketdi. Kampir muloyim iljayib, hechqisi yo'q, bolam, deb nari ketdi.

So'rida choy ichib o'tirgan ikki-uch kishi ularning gapidan xabardor edi. Ulardan biri gap qotdi.

– Uka, bu qoratepalik Malika degan kampir. O'zing qayoqning bolasisan?

Yigit javob berolmadi. Hamon kampir ketgan tomonga mahliyo qarab turardi.

Yigit to Chortrakka yetguncha churq etib og'iz ochmadi.

Qorong'i tushgan. Qishloq uylaridan chiroqlar miltirab ko'rib turibdi. Qayerdadir yigitlar qiyqiradi, chirmanda taraklaydi.

Yigit mashinadan tushib tor ko'chaga jadal burildi-yu, entikib yugura boshladi. Ana, uyiga yaqin qoldi. Ayvon shiftida yonib turgan chiroq devor osha ko'rinib turibdi. Demak, buvisi uxlamay uni kutyapti.

Yigit jonholatda eshik qoqa boshladi. Javob bo'lmadi. Yana qattiqroq taqillatdi. Yana jimjit. Buvimning qulog'i og'irroq edi, balki eshitmayotgandir, deb devorga tirmashib hovliga qaradi. Hammayoq supurilgan, suv sepilgan. Ariq chetlarida namozshom gullari ochilib yotibdi.

Qo'shni hovlining eshigi ochilib birov bosh chiqazdi. Qorong'i bo'lganidan kimligini bilib bo'lmadi.

— Kimsiz? — dedi ayol kishi.

— Men, menman, Xolmatjonman, — dedi yigit.

Ayol yugura kelib unga o'zini otdi.

— Voy, bo'yginangdan xolang o'rgilsin, keldingmi, omoneson keldingmi?

Xolmatjon shoshib so'radi.

— Buvim qani?

Xotin javob bermadi. Qorong'ida og'ir xo'rsingani eshitildi. Xolmatjonning yuragi shuv etib ketdi.

— Nima gap? Tinchlikmi?

— Oh, xolaginang aylansin, buviginang bundan to'rt yil oldin olamdan o'tgan.

Xolmatjonning yelkasidagi xalta tushib ketdi. Bu xaltada buvisiga atab olgan to'rt metr qora baxmal, ro'mol, kalish bor edi. Buvisi qora baxmaldan kamzul kiyishni juda yaxshi ko'rardi. To'rt yil bo'pti olamdan o'tganiga. Axir yaqin-yaqinlarda ham undan xat kelib turardi-ku. Bu xatlarni kim yozgan?

— Voy bolam, yur, biznikiga. Men darrov borib Asrordan uyingning kalitini olib kelaman. Kolxozning bog'ida qiyoamat bazm bo'lyapti. Hamma o'rtoqlaring o'sha yoqda. Urushdan kelganlarga opa osh qilib beryapti. Boraqol sen ham o'sha yoqqa, bolam. Asroragina baraka topsin, har kuni qizlar bilan kelib uyingni yig'ishtirib, supurib-sidirib, kechqurun chirog'ingni yoqib ketadi. Umridan baraka topsin. U bechora ham kuyib-yonib yuribdi. Karimjon yana allaqayoqqa ketganmish.

Xolmatjon bo'shshib ketdi. Qayoqqa boradi? Endi qandoy yashaydi?

— Bu yoqqa kir, bolam. Choy-poy qilib beraman. Sen damingni olib turguningcha men yugurib borib Asroradan kalitni olib kelaman.

— Yo'q, ovora bo'lmang. O'zim borib kelaman.

Xolmatjon og'ir-og'ir qadam tashlab kolxoz bog'i tarafga yura boshladi. Kampir uning orqasidan boshini sarak-sarak qilib achinib qarab qoldi.

Kecha nihoyatda oydin edi. Quyuq daraxtlar orasidan yo'lga oppoq tangachalar sochilgan. Jo'jasi ko'payib iniga sig'may qolgan qushlar har zamon bir patirlab qo'yishadi. Yo'lni kesib o'tgan ariqchalardan suvlar chuldirab ombor tagiga kirib ketadi. Devorlardan osilgan olchalar oydinga chaqnaydi. Paxsa devor kovaklarida yiltiroq qurtning chirog'i miltiraydi. Qayerdadir bola yig'laydi. Xolmatjonning tepasidan bo'g'otni changitib mushuk o'zini yerga otdi. Yaqin o'rtada chuchitilgan zig'ir yog'ining hidi anqib ketdi. Chap tarafdagi devorda lop etib olov sakradi-yu, zum o'tmay so'ndi. Daraxt uchlari, tom bo'g'otlari bir damgina yorishdi. Birov tandirga g'o'zapoya tashladi, shekilli.

Bularning bari ko'pdan unutilgan ona qishloq manzarasi, bolalik tuyg'ularini uyg'otadigan qadrdon hidlar edi.

Xolmatjon bu manzara-yu bu islarga parvo qilmasdi. Hozir uning ko'nglini hech narsa bilan yoritib bo'lmasdi.

Tug'ilishi bilan ona diydoridan benasib bo'lgan, esini tani-may otadan judo bo'lgan, onadek bo'lib qolgan qadrdoni, meh-riboni, dunyodagi jami odamlardan yaxshi, hammasidan a'lo bu-visidan judo bo'lishi uni tamoman gangitib qo'ygan edi.

Ona qabriga tuproq tortilganda hali unga ism qo'yilmagan edi. Ona uni tug'di-yu, o'ldi. Ota uzoqda, fin o'rmonlarida jon berdi. Unda Xolmatjon hali yosh bola edi. Endi o'zi voyaga yetib, yurt ishiga yaragan, qo'liga qurol olib jangga kirganida buvisi ko'z yumdi. U farzand bo'lib onasini ham, dadasini ham, buvasini ham qabrga o'z qo'li bilan qo'yolmadi. Bu judoliklar, yo'qo-tishlar Xolmatjon qalbida hech o'chmas dog', armon-u afsus bo'lib qoldi. U endi butun umr bo'yi bu armon dardini tortadi. Shu uch muhtaram kishilarning qarzi bo'ynida qoldi.

Xolmatjon atrof oy nuriga burkangan, butun dala, butun yurt yoz og'ushida yayragan tunda dog'-u hasratda o'rtanib bo-rardi. Osmonda asta suzayotgan oyning gardishi unga nurli bar-kash emas, qishda chelak betida qotgan muz kulchasi xolos. Tun

qushlarining nag'masi unga tasalli bermaydi. Aksincha, farzandlik burchini o'tamagan bolaga ta'nadek bo'lib tuyuladi.

Xolmatjon bog' darvozasi oldida to'xtadi. Ichkaridan kabob hidi kelardi. Qiyqiriq, o'yin-kulgi. Hech kim orqasiga qaramaydi. Davra olib o'rtada o'ynayotganga qiyqirib xushomad qilishadi.

Xolmatjon birdan ko'nglidagi og'ir hislarni quvib shu quvnoq, shu bearmon odamlarga mahliyo bo'lganicha turib qoldi.

Darvoza orqasiga o'tirib, ko'ksidagi o'n olti orden, o'n medalni bitta-bitta bo'shatib oldi-da, xaltachasiga solib qo'ydi. Kim biladi, balki odamlar jarang-jurunglarini pisanda qilib keldingmi, deb o'ylashlari mumkin, dedimi. Har qalay, Xolmatjon odamlarga yaltirab ko'rinishni istamadi. Ichkariga kirdi. A'zamjon uch medalini atayin bir-biriga tegib jaranglasin deb silkinib, tebranib o'ynardi. Dildor bo'lsa undan qochgandek har turli muqom bilan o'ynardi.

Xolmatjon to'xtadi. Yuragi shig' etib ketdi. U Dildorni sevardi. Sevardi-yu, yuragini unga ochishdan qo'rqardi. Urushga ketayotganida ataylab Dildorlar eshigi oldidan ikki-uch marta aylanib o'tgandi. Dildor chiqmagan o'shanda. Uni uzoqdan bo'lsa ham bir ko'rsam, deb tol tagida qancha kutib o'tirgan edi. Kim bilibdi deysiz, urush tugaguncha bu qiz Nizomni sevib, undan keyin sevmagan kishisiga tegishini. Endi u A'zamjonning xotini. Axir A'zam juda bema'ni bola-ku. Dildorning bundan keyingi hayoti nima bo'ladi? A'zam uni, albatta, xo'rlaydi.

Xolmatjon gospitalda yaralanib yotarkan, A'zamjon tasodifan uchrashib qolgandi. O'shanda Dildor sha'niga aytgan juda ham xunuk, og'izga olib bo'lmaydigan gapni esladi.

O'shandan beri Xolmat uni yomon ko'radi. Ko'rishga ko'zi yo'q. U jangda yurib ham, o'z xotinini yomon gaplar bilan haqorat qilgan.

Endi bo'lsa yurt ko'zida o'zi haqoratlagan, o'zi xo'rlagan xotini bilan o'yinga tushyapti. Bu qandoq gap bo'ldi?!

Vaqt ancha kech bo'lib qolgan. Shirakayf yigitlar bolalarini yetaklab qayta boshlagan edilar. Daraxt soyasida o'tirgan Xolmatjonga hech kim parvo qilmasdi. A'zamjonning kayfi joyida, to'rt-besh yigit davrasida chiqib kelyapti. U baxtli edi. Bir gapi-rib, o'n kulardi.

— Nemis leytenantining hiqildog'idan g'ibba bo'g'ib oldim-u, boshini devorga manavunaqa qilib, manavunaqa qilib uraveribman. Bir mahal qaragam, o'lib qolgan ekan. O'lsa ham boshini uraveribman.

Xolmatjon miyig'ida kulib qo'ydi. Axir, A'zamjon xo'jalik batalyonida aravakash edi-ku. Nemisni uzoqdan ko'rgan bo'l-masa, umuman, tirik nemisni ko'rmagan.

A'zamjon xuddi Xolmatjonning oldidan o'tib ketdi. Ular orqasidan Dildor, Asrora, Adolat o'tishdi. Dildor hamon chiroyli, hamon o'shanday jozibali edi. Xolmatjonning yuragi gupillab urib ketdi. Oldinga bir-ikki qadam tashladi. Ammo qizlar uni payqashmadi.

Xolmatjon ham bog'dan chiqib, asta-asta uyiga yo'l oldi. U shoshmasdi. Qayoqqa shoshadi? Uyida uni kim kutib o'tiribdi?

U ostonaga kelganda eshikni ochiq ko'rib hayron bo'ldi. Endi ichkariga oyoq bosgan ham ediki, chiroq o'chdi. Hali ham oydin bo'lganidan chiqib kelayotgan odamni tanidi. Bu Asrora edi.

– Asroramisan?

– Voy, Xolmatsan-ku. Voy, o'lgure, qachon kelding? Shu topda kelishingmi? Yur, yur, telegramma bersang o'larmiding?
– Asrora yugurib borib chiroqni yoqdi.

Xolmatjon u bilan o'sha bolalik yillarida qandoq gaplashishsa o'shandoq samimiy, o'shandoq yotsiramay ko'rishdi.

Xolmatjon unga tikilib turib, buvisi nomidan kelgan xatlarni esladi. Har kuni chiroq yoqib, hovli supurishini bildi. Yuragi to'la hayajon bilan, chin yuragidan, juda samimiy, juda beg'ubor qilib rahmat, dedi.

Xolmatjon yuragida bu olijanob insonga nisbatan, uning qilgan jami yaxshiliklariga qaytaradigan shu birgina qalb so'zidan boshqa mukofoti yo'q edi.

Asrora juda hushyor qiz edi. Xolmatjonning aytgan shu bir og'iz gapini u o'ylagancha tushundi. Samimiy jilmayib qo'ya qoldi.

Hovlini qo'ni-qo'shni bosib ketdi. Qo'shni kampir yetimcha o'ksimasin, deb osh damlab qo'ygan ekan, dasturxon yozdi. Xolmatjonning boshiga yangi do'ppi kiydirib, yelkasiga chorsi tashladi. O'sha kezlari qoq yarim kechasimi, tongotar pallasimi, qishloqlarda o'zidan-o'zi to'y bo'lib ketardi. Armiyadan qaytuvchilar kechasimi, azondami uylariga kelaverardilar. Bu xil ziyofatlarga xalq o'rganib qolgandi.

Xolmatjonning uyi birpasda to'yga aylanib qoldi. Bir qariya Xolmatjonning buvisiga Qur'on bag'ishladi. Hamma bir necha daqiqa bosh egib jim qoldi.

Ertasiga Xolmatjon yurtga osh berib buvisiga ta'ziya ochdi. Chortherakning jimjit qabristonidan buvisining qabrini topib kechgacha tiz cho'kib o'tirdi. Yig'ladi, ovundi. Yig'ladi, ovundi.

Giyohlari qovjiragan g'arib mozorga tikilib o'tirib o'tgan bolaligini, yetimligini bildirmagan mushfiq buvisining hamisha yoshlanib turadigan xira ko'zlarini ajib bir mayin, mehribon to'vushini esladi. Esladi-yu, yana yig'ladi.

Qorong'i tushib, shoxlari qovjirab qolgan terak uchida boyqush sayraganda Xolmatjon o'rnidan turdi. Qabriston darvozasida o'tirgan go'rkovga pul berib, tashqariga chiqdi.

Xolmatjon katta yo'ldan kelarkan, negadir hovlisi tarafga emas, Marg'ilon yo'liga qarab ketardi.

Xolmatjon uchun Chortherakning sira qizig'i qolmagandi. Na ota, na ona, na buvisi bor uning bu qishloqda. Na akasi, na ukasi bor uning Chortherakda.

Chortherak deganda ko'z oldiga Dildor kelardi. Endi u ham yo'q. Xolmatjonning Chortherakda sira yashagisi kelmasdi.

VIII

Inoyat oqsoqol keyingi kunlarda juda ozib ketdi. Ish ko'p. Erta bahordan beri tinmaydi. Yoshi yetmishga yetay deb qolgan odamga o'n ikki kilometr yo'l bosib, kuniga ikki mahal Marg'ilonga qatnash osonmi? Bozor odamlarini ham xudo urib qo'ygan. Sal beparvo qolsang, molingni suv tekinga yo'q qilishadi. Militsiya-ku, juda haddidan oshib ketgan. Bir chelak shaftoliga ham kolxoz spravkasini ko'rsat, deb so'raydi. Kolxoz paxta ekadimi, shaftoli sotadimi? Sborchi bolalar bozorda ham xon, ham bek. Har gal bozor darvozasidan kirishing bilan patta olasan, deb turib oladi. Doktorlarning boshqa ishi yo'q, shekilli, kutkilagani kutkilagan. Xo'p, mayli, shaftolini hidlab ko'rsin, nega sotadigan odamni yechintirib qaraydi?!

Oqsoqol mana shunaqa bozor mashmashalari bilan ovora. U medalli o'g'lini yoniga olib bozor kattalarining nafasini ichiga tushirib yubormoqchi edi. Bolasi noqobillik qildi. Nevaralarining ham bo'yi cho'zilib bozor desa qochadi. Ayniqsa, kuyovi frontdan qaytib kelib bolalarini qaynatasi bilan bozorga borishini xohlamadi. Shu tufayli qaynata-kuyov san-manga borib qolishdi.

A'zamjon kelgan kunlarda Oqsoqol keldi-ketdini kutish uchun uch-to'rt so'm chiqimdor bo'lib, o'limlik puli buzilgan edi. Shuning o'rnini to'ldirish niyatida Oqsoqol bozor tarafga serqat-

novroq bo'lib qoldi. Albatta, supurgi, pomidor bilan yo'qolgan pulning o'rni to'lmaydi. Kattaroq bir ish qilishni diliga tugib qo'ygan edi. O'sha katta ish kecha oyog'ining ostidan chiqib qoldi. Ellik metr qizil baxmal qo'lga tushdi. Oqsoqol ikki soat savdolashib suv tekin qilib oldi. O'g'li noqobillik qilib xotini-nikiga ketib qolganida Oqsoqol shu narsani yo'q qilishga ovora bo'lib turgan edi. O'g'lining ketidan yuray desa, nozik molni uyda uzoq saqlab bo'lmaydi. Shuning uchun avval molni sotib, keyin o'g'li bilan janjallashmoqchi bo'ldi.

Bugun Oqsoqol o'sha baxmalni eshagining to'qimi tagiga solib, ustidan xurjun tashlab bozorga yo'l oldi. Xurjunning ikki ko'zida chillaki uzum to'ldirilgan ikkita chelak bo'lganidan o'zi avvalgidek yana eshak ketidan piyoda ketyapti.

Shaharga kiraverishda qator choyxonalar bor. Bu choyxonalarining so'rilar hammasi choyxo'rlar bilan to'la bo'ladi. Oqsoqol ko'pincha bozordan qaytishda shu so'rilarning biriga o'tirib belidan nonni olib, belbog'ini dasturxon qilib yozadi. So'ri ustida qolgan choynaklarning qopqog'ini ochib qaraydi. Choynaklar tagida qolgan bir piyola-yarim piyola choylarni bittasiga quyib samovardan o'zi qaynagan suv quyib keladi. Samovarchi pul so'rasa, bobillab beradi:

– Shuning uchun ham sen samovarchi xalqining biring ikki bo'lmaydi. Sen ablahlar xudoning suviga ham haq so'raysanlar. Bor, toshingni ter.

Oqsoqol xuddi shu guzarga yetganda kimdir: «Oqsoqol buva», – deb chaqirdi.

Oqsoqolning ishi tig'iz. Bozor tarqalmasdan molni yo'q qilishi kerak.

U ovoz kelgan tarafga alangladi. Qarasa, frontdan kelgan uch-to'rt qishloq bolalari choy ichib o'tirishibdi. Ulardan biri yugurib uning oldiga keldi.

– A'zamjon akam kebdilar, deb eshitdim. Sevinib qoldingizmi?

Oqsoqol unga rahmat aytdi, ammo o'zi shoshib turardi. Yigitning sherigi unga choy tutdi. Oqsoqol eshagini simyog'och oldida qoldirib, so'riga omonatgina o'tirishga majbur bo'ldi. Chunki patnisda pashmak, qaymoq, shirmoyi non bor edi. Shundoq narsalardan tanavvul qilmaslik, noshukurchilik bo'ladi, albatta.

Quyosh tepaga kelgan. Tuproq oyoqni kuydiraman deydi. Oqsoqol to tekin nonushta qilib olguncha eshak ham bir rohat

qilmoqchi bo'ldi. Qizigan tuproqni hidlab pishqirgan edi, tuproq to'zib ketdi. Bundan rohatlangan eshak ikki marta hiqillab, keyin kuchining boricha hangrab yubordi-da, tuproqqa o'zini tashladi. Hammayoqni changitib u yoqdan-bu yoqqa ag'anay boshladi. Chelak ustidan otilib ketib uzumlar tuproqqa qorishdi. Qorinbog' uzilib, to'qim bir yoqqa, egar bir yoqqa otilib ketdi. Har biri o'n metrdan qilib o'ralgan besh bo'lak qizil duxoba eshak tagida qoldi. Eshak har ag'anaganda duxobaning taxi buzilib yozilib ketar, battar tuproqqa qorishardi.

Oqsoqol choyni tashlab o'shaqqa yugurdi. Eshakni tepdi. Eshak parvo qilmadi. O'z ishini qilaverdi. Dumidan tortdi. Qari odamning tortgani qayoqqa borardi. Eshak uni hatto sezmedi. Dumalayverdi. Kim ko'p, bozor atrofida bekorchi ko'p. Ayniqsa, bolalar qiyqirib eshak atrofini o'rab olishdi.

Tushlik qilgani kelgan uchastka militsiyasi ham so'rida o'tirardi. U bu hangomani kuzatib turarkan, eshak tagida ezilayotgan duxobalarni ko'rib hushyor tortib ketdi. Shuncha narsa... Chol shuncha baxmalni qayoqdan oldi? Bu xil molni kombinat endi chiqazyapti. Kombinatning moli dastgohdan chiqmayoq, bu cholning qo'liga tushibdi-da? Militsioner shoshilmay Oqsoqolning oldiga keldi.

Bu payt eshak ishini qilib bo'lgan, o'rnidan turib silkinayotgan edi.

Oqsoqol choyga chaqirgan bolani qarg'ay-qarg'ay baxmallarini yig'ishtirar edi. U shoshganidan mollarning tuprog'ini ham qoqmay xurjunga tiqdi. Chelakni ham, uzumni ham olmadi, jahl bilan eshagini bir tepib joyidan qo'zg'atdi-yu, orqasidan pildiraganicha ketdi.

Choyga chaqirgan yigit orqasidan qichqirdi:

— Ota, chelak qoldi, uzumlar qoldi-ku?!

Oqsoqol unga qaramay alamli javob qildi:

— Pishirib e, katta xolang bilan pishirib e, juvonmarg...

Militsioner unga ergashib borardi. Balki, u shu to'polonda tekshirsam odamlar o'rab oladi, gapni gapga qovushtirmaydi, deb o'yladimi yo bo'lmasa o'rtaga tushib ko'nglini yumshatadiganlar chiqib qoladimi, har qalay, u cholni sal nariga borib to'xtatmoqchi bo'ldi.

Jahldan ham ko'karib, ham terlab ketgan Oqsoqol sal nari borgandan keyin xoliroq tor ko'chaga burildi. To'xtab eshagini qorinbog'ini tortaman deb turganda militsionerning qorasi

ko'rindi. Oqsoqol shoshib eshakka mindi. Qorinbog' yaxshi tortilmaganidan uzangi sirpanib yerga tegib qoldi. Oqsoqol shoshib eshagini yana bir tepdi. U pildiraganicha ketdi. Oqsoqol yugurdi. Ammo militsioner shoshilmasdi. Ilgari bu ko'chadan Oqsoqol yurmagan edi. Ko'chani boshi berk ekan. To'xtashga majbur bo'ldi. A'zoyi badanidan ter chiqib, kiyim-boshi shalabbo bo'lib ketdi. Oqsoqol shuncha yoshga kirib bugungidaqa ishi yurishmagan kunni ko'rmagan edi. Ikki chelak po'sti tors yorilaman deb turgan uzumdan ayrildi. Ne-ne og'ir kunlarini ko'tarishgan eshagi bugun unga xiyonat qildi. Arzimagan issiq tuproqni bir hidlashdayoq uni militsiyaga tutib berdi.

Oqsoqol bundan ham nozik joylardan osonlikcha qutulib ketgan edi. Ammo bugungisi u qadar nozik bo'lmasa-da, qutulishning iloji yo'q edi. Chunki qochadigan, molini yashiradigan joy yo'q.

Militsioner hamon shoshilmay kelar, Oqsoqol bo'lsa nima uchunligini o'zi ham bilmagan holda iljayardi. Nihoyat, militsioner unga yaqin keldi. Oqsoqol uning basharasiga qaramagan ekan, o'tgan yili kuzda ikki yashik to'qson beshinchi ko'k choy bilan qo'lga tushganda shu melisa uning qariligini nazarda tutib qo'yib yuborgan edi. Har qalay, insofi bor ekan... Oqsoqolda allaqanday umid uchquni paydo bo'ldi. Tanasiga jon kirdi. «Darvoqe, shu melisa nos chekuvchi edi». Oqsoqol shoshib belbog'ining qatidan nosqovog'ini oldi. Atayin tutayotganini bildirmaslik uchun o'zi chekib havasini keltirmoqchi bo'ldi. Shunday qildi. Oqsoqolning aytgani keldi. Militsioner iljaydi.

– Qani, Oqsoqol ota, bitta otaylik. Juda xumorisi tutib ketdi.

– Xo'p, xo'p, bolangdan aylanay, xo'p. Nos kerak bo'lsa o'zimga ayt. Mendan boshqaning nosini chekma.

Militsioner kaftiga to'ldirib nos to'kdi-da, tilining tagiga tashladi.

– Yo'l bo'lsin, otaxon?

– Shundoq, shundoq, eshakni sovutib yuribman.

Shu payt to'g'ridagi eshikdan bir bola chiqib militsionerga o'zini urdi.

– Dada, dada, nima olib keldingiz?

Militsioner yonidan bitta bodring chiqarib o'g'liga berdi. Bola yana yugurganicha eshikka kirib ketdi.

Oqsoqol umrida bunaqa qo'lga tushmagan edi. Shuncha yil bozorga aylanishib, shuncha taqiq molni qo'ldan o'tqazib bu-

naqa bo'lmagan edi. Tumonat oldida eshagi molini ko'rsatib qo'ydi, o'zi boshi berk ko'chaga kirib qoldi, o'z oyog'i bilan militsiyaning eshigiga kelib to'xtadi.

Oqsoqol darrov tilga kirdi.

— Ko'changni topishga topib, uyingni topolmay turgan edim. Yaxshiyam o'zing kelib qolding,

— Ishingiz bormidi, ota?

— Judayam unaqa zarur ishim yo'q edi-ku, bir ko'rib qo'yi-shim kerak edi. Ukang keldi, ukagingang frontdan omon-esson keldi. Shuni aytib qo'ymoqchi edim. Ukagingang ordenlarini jaranglatib keldi. Keldi-ketdi bilan ancha chiqimdor bo'lyapman, bisotda ozroq baxmal bor edi, bolangni to'y qilsang, ko'rpa qavitarsan, begonaga ketmasin deb senga olib kelayotgan edim.

Militsioner kulib yubordi.

— Oqsoqol ota, bu gapni qo'ying, baxmalni qayerdan oldingiz? Shuni ayting!

— Bisotdan, bisotdan chiqdi, uka.

— Qani, bo'lmasam, o'sha bisotdan chiqqan molni bir ko'rib qo'yay.

Oqsoqol o'zini u yoq-bu yoqqa tashlab ko'rди, bo'lmadi. Oxiri eshakning to'qimini ko'tarib baxmalni ko'rsatdi.

— Obbo, Oqsoqol ota-e, otingizni Inoyat oqsoqol emas, Jinoyat oqsoqol deb bekorga aytishmagan ekan, axir bu o'zimizning kombinatdan yaqinda chiqqan baxmal-ku?!

Oqsoqol indamay turaverdi.

— Operpunktga boramiz, o'sha yerda qayerning moli ekanligini aniqlab berishadi.

Oqsoqol shoshib qoldi.

— Qo'y, ukajon, qo'y bolangdan aylanay, qo'y. Shatta o'zing bir balo qilib qo'ya qol. Mayli, ozrog'ini ol, o'sha turqi sovuqlaringning oldiga olib borma.

— Nima deyapsiz? Pora bermoqchimisiz?

— Pora emas, padarka. Ha, padarka, uka.

Militsionerning endi astoydil jahli chiqib ketdi.

— Bo'ldi, maynabozchilikni bas qiling, ketdik.

Oqsoqol joyidan qimirlamay turardi.

— Rost aytyapsanmi? Esing bormi, uka?! Sal miyasi yo'qrog melisa ekansan... Tayyor shuncha pullik baxmalni olmasang ko'r bo'lasan.

— Yuring deyapman!

U yonidan hushtagini olib og'ziga soldi.

— Qo'y, qo'y, chalma, nima qilasan odam yig'ib. O'zimiz til topishib ketamiz.

Militsioner jahl bilan eshakni bir tepdi. Eshak Oqsoqoldan boshqaga ko'nmas ekan, joyidan jilmadi.

— Ko'nmadimgi? Pushaymon bo'lasan, bola. Hozir dod solaman, boshimga odam yig'ib, melisa meni pasqamga opkelib pora so'rayapti deyman.

— Undan battarini aytsangiz ham qo'rqmayman. Ketdik.

Oqsoqol yurishga majbur bo'ldi. Sal nariga borib yana to'xtadi.

— Vey, rostdan olib ketyapsanmi?

Militsioner javob qilmadi, ketaverdi.

— Qarg'ayman, — dedi Oqsoqol.

— Bari bir qarg'ishingiz o'zingizga uradi.

— Yomon qarg'ayman.

— Qanaqa qarg'asangiz ham baribir.

Oqsoqol nima qilishini bilmasdi. Nima desa bu o'jar militsioner uni qo'yib yuborarkin?

— Menga qara...

— Ha, nima deysiz?

— Bolang o'lsin, deb qarg'ayman.

Militsioner titrab ketdi. Uning bir bolasi frontda o'lib, didan hali alami ketmagandi. Peshanasida bittagina olti yashar bolasi bor edi, xolos. U shu bolasini yer-u ko'kka ishonmas, bola ham otasiga o'rganib qolganidan kechasi u bilan yotardi. Tungi smenaga ketgan paytlarda bola necha marta uyg'onib dadasini so'rardi. Oqsoqol shu bolani qarg'amoqchi.

— Nima dedingiz?

— Bolang o'lsin, deb qarg'ayman. Tobuti shu ko'chadan lo-pillab chiqsin, deb qarg'ayman.

Militsionerning a'zoi badanidan ter chiqib ketdi, ko'z oldi xiralashdi. Gandiraklab yelkasini devorga urib oldi.

Oqsoqol aytgan gapi qanchalik ta'sir qilganini ko'rib yana avjga chiqdi.

— Ha, shunaqa deb qarg'ayman, qo'yib yuborsang, duo qilaman.

Militsioner unga o'qrayib qaradi.

— Rasvo odam ekansiz. Boring, yo'qoling.

— Xo'p, xo'p. Baxmalni olasanmi?

— Yo'qol, iflos!

Oqsoqol yigitlardek chaqqonlik bilan eshakka mindi-yu, kavushining uchi bilan ikki biqiniga nuqdi. Eshak ham shuni kutib turgan ekan, pildiraganicha ketdi.

Ko'cha boshiga yetganda Oqsoqol orqasiga qaradi. Militsioner hamon qimirlamay turardi. U necha yillardan beri militsiyada ishlab hali bunaqa muttahamni ko'rmagan edi. U nechalab jinoyatchilarni tutgan, hech kim uni gapga ko'ndirolmagan edi. Oqsoqol uning yuragini changallab oldi. Noiloj qoldi. Umrida birinchi marta jinoyatchini qo'ldan chiqardi.

U qilib qo'ygan ishiga o'zi ham hayron edi. Jahl bilan yerga bir tupurdi-yu, orqasiga burilib ketdi. U yo'l-yo'lakay so'kinib borardi:

– Ablah, iflos, yaramas, muttaham, haromxo'r, o'g'ri...

IX

Pravleniye majlisi ertalab soat sakkizga chaqirilgan edi.

Odamlar birin-ketin idora oldiga, so'riga yig'ilisha boshlashgan. Soldatlik kiyimlarini yechib yaktak, do'ppi kiygan jangchi yigitlar ketmonni ariqqa tashlab narigi so'rida o'tirishibdi. A'zamjon ham o'shalar to'dasida.

Pravleniye ikki masalani muhokama qilmoqchi. Opaning arizasi va jangdan qaytgan yigitlarni alohida brigada qilish yoki ularni boshqa brigadalarga taqsimlash.

Zinada opa paydo bo'ldi, u yoq-bu yoqqa qarab A'zamjonni topdi-da, uni imlab ichkariga chaqirdi. A'zamjon nima gapligiga hayron bo'lib ketidan ichkariga kirdi. Idorada Asrora, Qishloq sovetining raisi va rayijrokom vakili o'tirishardi.

A'zamjon ular bilan ko'rishib, bir chetga borib o'tirdi. Opa bir-ikki marta gapga og'iz juftladi-yu, gapirolmadi. A'zamjon hayron bo'ldi. Oxiri opa o'rnidan turib, uni yana tashqariga imladi, koridorga chiqishdi.

– Menga qara, uka, dadangning ishi chatoq, militsiya qamab qo'yibdi. Kecha bozordan olib ketishgan ekan.

A'zamjonning eti jimirlashib, ko'zi tindi,

– Shu gapni aytib qo'ymoqchi edim. Marg'ilonga tushib bir xabar olib qo'y.

A'zamjon bugun pravleniye majlisiga katta umidlar, allaqancha rejalar bilan kelgan edi. U shuncha yoshga kirgan bo'lsa, uning biron yaxshi kunini dadasi tatitmagan. Hammavaqt nimadir qiladi-yu, to'yni azaga aylantiradi. Axir, to'rt yil urush-

da yurib sog'ingan ostonasiga intilib kelayotganida ham eshigiga yetmasdan uni qon qildi. Uyining qorasi ko'rinmasdanoq xotini-dan, bolasidan, ukasidan judo qildi.

Etni tandan judo qilib bo'lmas ekan. Nima qilsa ham dadasi. Boqib o'stirgan dadasi axir. Urushib bo'lmasa, so'kib bo'lmasa.

A'zamjon bo'shshib tashqariga chiqdi. Odamlarga ham aralashmay bir chekkaga borib, boshini egib o'tiraverdi. Uning bu holati frontdan qaytgan jangchidan ko'ra, qamoqdan qaytgan mahbusga o'xshardi. U odamlar ko'ziga qarayolmasdi. Uni shu topda ikki narsa ezardi. Qari odamning qamoqda yotishi, shu qamalgan odamning bolasi ekanligi.

Qorovul chiqib hammani choyxona orqasida tayyorlangan joyga taklif qildi.

Keng maydonga skameykalar qo'yilgan, yuqoridagi stolga qizil alvon yozilgan.

Qishloq sovetining raisi majlisni ochdi. U kolxozga yangi kuchlar kelgani, dalalar ularning kuchiga zoriqib turganini uzoq, shoshilmay gapirdi. Shundan keyin pravleniye jangchi o'rtoqlar-ni brigadalarga taqsimlaganini aytdi.

Opa o'rnidan turib kim qaysi brigadaga qo'yilganini e'lon qildi. Ajab, A'zamjonni hech qaysi brigadaga kiritishmabdi. Nega? Balki, dadasining qamalGANI uchundir. Yer yorilmadi-yu, A'zamjon yerga kirib ketmadi. O'tirgan yerida cho'kib ketayot-gandek, borgan sari kichrayib ketayotganga o'xshardi.

Qishloq sovetining raisi yana o'rnidan turdi. Uning qo'lida qog'oz. Hamma jimib qoldi.

— O'rtoqlar, opa raislikdan bo'shatishimizni so'rab ariza berdilar. Shu masalani sizning muhokamangizga tashlayman.

G'ovur-g'uvur gap boshlandi. Birov tushmasin, birov o'zi yaxshi edi, deb luqma tashlay boshladi. Kimdir:

— O'rniga kim bo'ladi? — deb qichqirdi.

— Shuni gaplashmoqchimiz-da, — dedi Qishloq sovetining raisi. — Avval opaning arizasini muhokama qilaylik. Opa arizada qarib qolganlarini, katta xo'jalikka rahbarlik qilish og'irlik qilayotganini aytibdilar. Biz maslahatlashib opaning iltimosini qondirish kerakligini o'yladik. Mana, yigitlarimiz qaytib kelish-di. Endi bundan bu yoq odamga yolchib qolamiz. Yangi yerlar ochish masalasi oldimizda turibdi. Xo'sh, nima deymiz, arizaga xo'p deymizmi, yo yo'q.

Odamlar baravariga yo'q, deb qichqirishdi.

– O‘zi yaxshi.

– Opa yaxshi rais.

– Opa biz yo‘g‘imizda bolalarimizga ham ona, ham ota bo‘lgan.

– O‘zimiz ishiga qarashamiz. Qiynamaymiz.

Hammayoq ola-g‘ovur bo‘lib ketdi. Oxiri opa o‘rnidan turdi.

– Rahmat, ukajonlar. Shunchalik iliq-issiq gaplaring uchun kattakon rahmat. Endi bu yog‘i bo‘lmaydi. Charchadim, tobim ham yo‘q. Kolxoz katta, ish ko‘p, bu yog‘iga kuchim yetmay, sizlarni uyaltirib qo‘yaman. Yoshlardan qo‘yaylik. Xo‘p, denglar. Menga qiyin bo‘ladi. Urush payti boshqa gap edi. Qimirlagan jonki bor, nimadir qilishi kerak edi. Vijdonim buyurganicha, kuchim yetganicha ishladim. Bu yog‘iga endi yiqilib qolaman. Xo‘p, denglar, ukajonlar.

Opaning astoydil yalinib aytgan gaplari odamlarga ta‘sir qildi.

– Undoq bo‘lsa, mayli, qiynamanglar qari narsani.

– Ammo pravleniye ro‘yxatida qolsin, tajribasi bor, insofi bor.

Har yer-har yerdan chiqayotgan bu luqmalarga opa goh iljayib, goh jiddiy qarab quloq solib o‘tirardi.

Raislikka yangi nomzod e‘lon qilindi.

– Asrora Hakimova.

Birdan jimlik cho‘kdi. Keyin old qatorga o‘tirib olgan qizlar, xotinlar chapakni boshlab berishdi. Kimdir, rais erkaklardan bo‘lsa yaxshi bo‘lardi, degandi, unga boshqasi javob qildi.

– Asrorani erkak desa ham bo‘ladi. O‘nta yigitga teng keldi.

Yaktaginging ustidan to‘rtta medal taqib olgan shop mo‘ylovli jangchi yigit o‘rnidan turdi. Boya rais erkaklardan bo‘lsin degan odamni to‘da orasidan topib javob qildi.

– Iya, shu gapni sen aytдингmi. Esingda bormi, Asrora bilan kurash tushganingda yiqilib tuproqqa qorishib ketganing.

Qiyqiriq bo‘lib ketdi.

– Mard bo‘lsang chiq. Yana kurashga solamiz. – Medalli yigit xo‘rozga o‘xshab bo‘ynini cho‘zib qoyil qildimmi, degan ma‘noda atrofga qaradi. – Asrora raislikka juda bop qiz. Agar rozi bo‘lsanglar, jangchi o‘rtoqlar, men frontoviklar nomidan shu nomzodni quvvatlayman. Qani, frontoviklarning gapini ikkita qiladiganni ko‘rib qo‘yaylik.

A'zamjon gapga ham aralashmas, chapak ham chalmasdi. Boshini egib o'tirganicha hech qachon omadga yo'l bermagan o'z taqdirini qarg'ardi. Agar dadam qamalib qolmaganda, albat-ta, meni rais qilishardi, deb afsuslanib o'tirardi.

Rayijrokom vakili so'z oldi. U Farg'ona oblast partiya komiteti va oblast ijroiya komiteti Yozyovon cho'llarini o'zlashtirish uchun umumxalq yurishi boshlaganini xabar qildi.

— Hozir Yozyovon to'rt tarafdin siqib kelinyapti. Bir tarafdin Andijon, bir tarafdin Namangan yoshlari yurish boshlashdi. Toshloqlik kolxozchilarning cho'lga birinchi yurishi bu cho'ldin yaxshi hosil olish mumkinligini isbot qilib berdi. Hozir Nay-manda ochilgan yerdin oblastda eng ko'p paxta hosili olinyapti. Shuning uchun ham oblast tashkilotlari yoshlarni shu cho'lga chaqiryapti. Istaganlar kolxoz pravleniyesiga uchrashib, xohish-larini bildirishlari mumkin.

Shundan keyin u Naymandagi yerlarga paxta ekilgani, hozir bu g'o'zalar parvarishsiz yotganini aytib berdi.

— Deyarli hamma ishni texnika bajaradi. Turkiston harbiy okrugi o'z ixtiyoridagi mashinalarni cho'lni o'zlashtirishga ber-yapti. Frontchi o'rtoqlar bu mashinalarni boshqarishda aktiv qatnashishlari kerak.

Boya Asrorani yoqlab chiqqan medalli yigit yana o'rnidan turdi.

— O'zimizning kolxoz nima bo'ladi?

— Jang bo'lgan joylardan tinmay eshelonlar kelib turibdi. Kuniga rayonimiz bo'yicha ellikdan ortiq jangchi qaytyapti. Yi-gitlarimiz hali ko'p kelishadi. Kolxozimizga ham, cho'lga ham odam yetarli bo'ladi. Bu tarafdin xotirjam bo'ling.

A'zamjonning ko'nglida umid uchquni yilt etib qoldi. U ham shu cho'lga ketsa nima qilarkin. Bu yerda uning qadriga yetishmayapti, xo'rlashyapti.

U kallasiga kelgan fikrni aniq o'ylab ko'rmayoq, o'rnidan turib qichqirdi.

— Men boraman. Meni yozing.

Hamma gurr etib orqaga o'girildi.

Asrora undan bu xil gapni kutmagan edi.

— Siz bormaysiz. Pravleniye sizni mexanizatsiya bo'yicha in-jenerlikka tayinlamoqchi.

— Istamayman, — dedi A'zamjon qat'iy. — Ketaman. Xotin kishi rais bo'lgan kolxozda ishlamayman.

Orqada, xotinlar orasida o'tirgan Dildor seskanib ketdi. A'zamjon nima qilmoqchi. Uyini, bola-chaqalarini tashlab ketmoqchimi. Nega undan, o'z xotinidan bir og'iz so'ramadi. Nima, A'zamjon ilgarigicha uni pisand qilmoqchi emasmi, uni yuvosh, bo'sh-bayov xotin deb o'ylayaptimi. Yo'q, Dildor u o'ylaganlardan emas. U o'z haqini tanigan, endi o'zini birovga oyoqosti qildirib qo'ymaydi.

Dildor ham o'rnidan turdi.

– Men bormayman.

A'zamjon hali joyiga o'tirmagan edi. Xotining o'rnidan turib unga ters gap aytganidan g'azabi keldi. Nahotki, o'z xotini ham unga qarshi bo'lsa, nahotki, u o'z eriga yaxshi kunni ravo ko'rmasa. Bu qandoq gap.

– Sen bormasang, o'zim ketaman.

U shunday dedi-yu, to'nini qo'ltiqlab yig'indan chiqib ketdi. Kallada ming xil o'ylar bilan dala kezarkan, o'zidan-o'zi goh Dildor bilan, goh dadasi bilan urishardi. Ba'zan olisda yongan cho'g'dek milt etib Nizomjon esiga kelib qolardi. Nahotki, shu kichkinagina, nimjongina ukasichalik bir so'zli bo'lolmasa. Axir, u aytgan joyidan kesdi. Dadasining zulmidan, qarg'ishlaridan qo'rqmadi. Ketdi. Ketib baxtini topib oldi. A'zamjon ukasichalik bo'lolmaydimi?

Nizomjon unga qat'iylik berdi. Uning ishlari, bir so'zliligi unga qanot bo'ldi-yu, agar Dildor ko'nmagan taqdirda ham, o'zi yo'lga chiqishga ahd qilib qo'ydi.

– Ko'nsa-ku, ha-ya, ko'nmasa etagimni qoqib, chiqaman-ketaman.

U o'ylab-o'ylab, yurib-yurib charchadi. Tegirmon oldiga kelib xarsangga o'tirdi.

Tegirmon guvillaydi. Suv to'zonlari uning betlariga sachraydi. Devorlardan, un to'zoniga belangan oppoq tol tanasidan achigan xamir isi keladi.

Qosh-ko'zi un gardiga belangan tegirmonchi chol chiqdi. Etagiga yuz-ko'zini artib uning yoniga kelib o'tirdi. Cholning qovog'i soliq. Yig'lagan bo'lsa kerak, ko'zlari qizarib ketgan edi. U o'tirarkan, o'zidan-o'zi gapirardi:

– E, Xudo, bandalaringda shuncha qasding bormidi? Muncha qiynamasang, muncha qiynamasang.

A'zamjonning eti seskanib ketdi. Cholning o'g'liga bir gap bo'lgan, deb o'yladi. Qoraxat keldimikin. Cholning lochindek o'g'li bor edi. Nahotki, nahotki...

Chol qimirlamay o'tirar, oftobda don talashayotgan chumchuqlardan, musichalardan ko'zini uzmasdi.

Tegirmonchining o'g'li urushdan oldin kolxozda suvchi edi. A'zamjon o'rtoqlari bilan quloq boshiga borib baliq tutishardi. Tegirmonchining o'g'li sarimsoq piyoz bilan baliq qovurib berardi. Tol shoxida doimo dutor ilig'liq bo'lar, suvning namidan ipi bo'shashib ketaverganidan u bir marshning yarmiga yetmay yana sozlardi.

Demak, shu bola ham o'qqa uchibdi-da. Shu topda A'zamjonning xayolidan ming xil o'y o'tdi.

Chol boshini ko'tardi. G'amgin ko'zlarini A'zamjonga uzoq tikib xo'rsindi.

— Qandoq qilasan endi, bolam. Ko'rgilik ekan. Kelmasingdan yana ketadigan bo'lib qolding.

A'zamjon uning gapiga tushunmadi. Yo chol uning Yozyovonga ketishini eshitdimikin.

— Gitleri o'lib, yaponi chiqibdi endi.

A'zamjon cholning gaplariga tushunmadi.

— Nima deyapsiz, ota?

— Iya, xabaring yo'qmi? Urushdan kelgan bolalar gurra-gurra voyenkomatga ketishyapti-ku. Yapon degani bilan urush boshlanibdi.

A'zamjonning vujudi karaxt bo'lib qoldi. Nima deyishini, nima qilishini bilmay esankiradi. Chol yana gapirdi:

— Usmonginamdan xat olgan edim, bugun-erta borib qolaman, deb yozgan edi. Yana qon, yana o'q. E, Xudo, bu qanaqasi bo'ldi.

A'zamjon o'rnidan turdi. Demak, urush boshlangan, eski frontchilar yana safarga o'tlanishgan.

A'zamjon malol kelib o'rnidan turdi. Endi cho'lga ketish kerak. Yangi yer ochayotganlarni voyenkomat chaqirmaydi. Tezroq cho'lga jo'nab qolish kerak. U orqaga qaytar ekan, qishloq yigitlariga duch keldi. Nima gapligini tashvishlanib so'radi.

— Qo'rqma, oshnam, bizni olmas ekan, sen bilan bizsiz bir yoqlik qilishar ekan. Borib ketmoningni chopaver.

— Rostdan urushmi?

— Yapon bilan yolg'ondakasi urushib bo'ladimi?

Yigitlar o'tib ketishdi. A'zamjon qayoqqa borishini bilmay yo'l o'rtasida turib qoldi.

A'zamjon Yozyovonda nima qilishini hali bilmasdi. Agar u yerda ham uni xafa qilishsa, «qo'riq yeringni onangga ber-e», deydi-yu, choponini yelkasiga tashlab ketaveradi.

A'zamjon hali ko'chib bormagan joyida halitdan o'zini omonat sezardi.

X

Dildor nima bo'layotganini bilolmasdi.

U boshidan shuncha og'ir kunlar o'tgan bo'lishiga qaramasdan, haligacha pishmagan edi. Darrov jahli chiqar, bir lov etib, yana o'chib qolardi. Ana shu xususiyati unga qancha qora kunlar soldi.

Bugun ertalabki tumonat orasida erining yuziga oyoq tirab, u boraman degan joyga, bormayman, deganida fikrida qat'iy edi. Endi u bu fikridan qaytdi. Er qayoqqa boshlasa, xotin o'shaqqa borishi kerak.

Dildor shu yoshga kirib birovning dilini og'ritmagan. Uning dilini og'ritganlar ko'p bo'lgan. Dildor aqalli javob uchun, alamini bosish uchun biron og'iz achchiq javob qilmagan. Uyiga kelganda, nega alamini olmaganidan o'zini-o'zi koyirdi. Bugun ham shundoq bo'ldi. O'zini unutib, A'zamjonni o'ylab ketdi.

Bechora, xotini yo'q demaydi, deb shu gapni aytgandir. Mening ters javobim ko'ngliga qattiq botgandir. Yigit boshini xam qilib qo'ydim. Nega bunaqa qildim, axir!

Dildor ana shunday ko'ngilni buzadigan o'ylar bilan band edi. Birdan urush xabari keldi. Bu sovuq xabar xalqni bir chayqatdi. Hammaning yuzida, ko'zida tashvish. Diydor ko'rishganlar, hijron azoblarini orqaga tashlab baxtdan mast bo'lgan kishilar yana hushyor tortib ketishdi. Hammaning ko'ziga olovlar, qonsirab yotgan askarlar ko'rindi, bombalarning portlashi, ajal urug'ini sochayotgan samolyotlar gurillashi eshitilib qoldi...

Dildor o'zini unutdi. Eri yana shinel kiyadimi, yana bolasini tirik yetim qilib tashlab ketadimi? Nega uni xafa qildim, nega dilini og'ritdim. Atrofida parvona bo'lib aylansam bo'lmasmidi? U, albatta, ketadi. Shuncha olis yo'ldan sog'-omon kelib nima ro'shnolik ko'rди. Bir yoqda dadasining xarxashasi, opasining alamli gaplari. Dildorning o'zi unga nimalar demadi, nimalar qilmadi? Ostonadan quvladi. Tumonat o'rtasida uning betiga sapchidi.

Urush xabari. Dildorning ko'ziga dunyoni qop-qorong'i qilib qo'ydi. A'zamjon qayoqqa borsa boraman. Istasa jangga ham birga ketaman. Undan bir qadam ham jilmayman. U nima bo'lsa, men ham shu...

Dildor uyga keldi. Dadasi nevarasini tizzasiga o'tqazib qimirlamay o'tiribdi. Bola uxlab qolgan.

– Kuyovingiz kelmadimi?

Dadasi bolani uyg'otib yubormaslik uchun yo'q ishorasini qildi. Yunusali ota urush xabarini eshitmagan bo'lsa kerak, xotirjam o'tirardi. Nevarasini bag'riga bosib, pish-pish uxlashini eshitar, bola hididan mast bir holda olamning lazzatini surayotgandek edi. U Dildor yuzidagi hayajonni sezmedi.

Dildor yana ko'chaga yugurdi. Guzarga chiqdi, samovarda ham yo'q. Tanish-bilishlardan so'radi, ko'rdim degan odam bo'lmadi. Birdan Dildorning yuragini vahm bosdi. «Ketgan, albatta, ketgan. Yo frontga, yo cho'lga...»

Uning tarvuzi qo'ltig'idan tushdi. Yuragi siqilib yo'l chetida o'tirgancha qoldi. Katta yo'ldan gur-gur mashinalar o'tib turibdi. Birov hayajonda, birov xotirjam. Eskirib, toshbaqa qiyofasiga kirgan «emka» mashinasi orqasidan ko'tarilgan changni ustiga shopirib to'xtadi. Undan Asrora tushdi.

– Nima qilib o'tiribsan?

Dildor etagini qoqib o'rnidan turdi.

– A'zam qani?

Dildor bosh chayqadi.

– Qani, chiq mashinaga.

Dildor bir so'z demay mashinaning orqasiga chiqdi.

Asrora ham bezovta ko'rinaradi. Mashina pravleniye oldida to'xtab, ularni tashlab o'tib ketdi. Ikkovi ichkariga kirishdi. Asrora o'ychan ko'zlarini o'rtog'iga ma'yus tikdi.

– E, o'rtoqjon, senga havasim keladi. Seni qara-yu...

Uning nimasiga havasi keladi. Ahvolini ko'rib turibdi-ku! Dildor hayron bo'lib yelkasini qisdi.

– Ering bor, bolang bor. Mening nimam bor, kimim bor.

Dildor nima deyishini bilmay, dedi:

– Axir sen ham Karimni kutyapsan.

– Karim uzoqda. Yapon bilan olishyapti. Bir urushdan chiqib boshqa urushga kirdi.

– A'zam akam ham bekor turmas, u ham ketar urushga.

– Yo'q, – dedi Asrora, – hozir rayonga tushdim. Frontga hech kimni olishmashmish. Frontchilar dalaga chiqishsin, Yozyovonni o'zlashtirishsin, deyishyapti. Bir-ikki kundan keyin rayonimizdan yuz o'ttiz kishi Yozyovonga ketishadi. Uy-joy, hamma narsa tayyor ekan. Agar borging kelsa, mayli, kolxoz rozi.

— Nima, bizni haydayapsizlarmi? Sen rais bo‘lib birinchi ishni meni haydashdan boshlamoqchimisani? Durust. Yaxshi o‘r-toq ekansan.

Asrora unga yotig‘i bilan tushuntirmoqchi bo‘ldi. Uning yoniga borib o‘tirdi.

— Menga qara. Sen o‘zing odammisan, nimasan? Butun urush ichi o‘z tashvishimiz qolib sening ko‘nglingni ko‘tarish bilan ovora bo‘ldik. Ochiq aytaman, xafa bo‘lsang ham o‘zing bilasan, xafa bo‘lmasang ham. Ukasi bilan yurib, akasiga tegding — bu bir. Seni deb Nizom tug‘ilgan qishlog‘idan bosh olib ketdi — bu ikki. Aka-uka yuz ko‘rmas bo‘lib ketishdi — bu uch. Butun zveno bo‘lib bolangni boqishdi — bu to‘rt. Seni deb ota-bola, opa-uka bir-biriga teskari bo‘lishdi — bu besh. Xo‘sh, sendan boshqa tashvishimiz yo‘qmi? Hammasi sening erkalingingdan, ko‘zing ochilmaganidan. Agar ketsang, ro‘zg‘or boshingga tushib odam bo‘lasan. Ko‘zing ochiladi.

Dildorning ko‘zi tinib ketdi. Asrora hamisha unga shunaqa qo‘pol gapiradi, yotig‘i bilan gapirishni bilmaydi. Alam bilan unga qaradi:

— Qishloqqa sig‘may qoldikmi? Qutulolmay yurganmidinglar? Hali o‘zim boqqanman, yedirganman, ichirganman ham dersan?

Asrora jiddiy dedi:

— Shunaqaligini haliyam bilmaysanmi? Kolxoz boqmay, kim boqdi? Zveno qizlari bo‘lmasa, opa o‘rtaga tushmasa, ochdan o‘lib ketarding. Qani, ayt-chi, urush ichi kolxozda ishlab nimani qoyil qilding? Qizlar ham o‘zi uchun, ham urushdagilar uchun ikki-uch normadan ishlashdi. Sen aqalli o‘zing uchun ham ishlolmading-ku! Mayli, ko‘ngli yarimta, boshida kulfat, deb ayadik. Yig‘laganingda ovutdik. Sen kimni ovutding? Kimning boshini silading? Uyat kerak. Seni erkalatib qo‘ydik. Chiroylisan dedik, noziksan dedik, eringning urushdagiligini andisha qildik, qaynatangning pastligini hisobga oldik, qaynagachingning xudorganligini hisobga oldik, umuman, o‘zing o‘lgur suqsurdeksan, ayol kishining ham kinnasi kiradigan chiroyingni andisha qildik.

Dildor kulib yubordi:

— E, o‘le, qayoqdagi gaplarni gapirasana?

— Kuladigan gapmi, shu. To‘g‘ri aytyapman. Bu yerda tursalaring senlarga ro‘shnolik yo‘q. Qaynatang bilan qaynagaching kun bermaydi. Shartta ko‘rpa ko‘tarib qolsalaring, qutulasanlar. Nima, Yozyovon qochib ketibdimi, chaqirsa ovoz etadigan joy.

Sizlarni hech kim majbur qilayotgani yo'q. O'ylab, yaxshilab o'ylab ko'ringlar. Menimcha, A'zamjon to'g'ri o'ylayapti. O'sha yerda ikkovlarningning ham baxt topib ketishlariga ko'zim yetib turibdi. Agar Karimjon omon-eson qaytib kelsa, raisligini ham tashlayman, ketaman, ketamiz. Ana o'sha yerda o'zimizni ko'rsatamiz. Ming'ayib yuradigan ammamning buzog'i Nizom nima bo'ldi? Yo'lini topib ketdi. Necha marta gazetaga yozildi. Kecha radioda ham gapirishdi.

Bu yerda devoriy gazetaga ham oti yozilmagan edi. Xo'sh, nima deysan?

Dildor indamadi. U Asroraning gaplarini taniga singdirishga urinardi. Aytgan gaplari rost. Urush ichi boshqalarga tovon bo'lib yashadi. Inoyat oqsoqolga o'yinchoq bo'ldi. Ukasiga o'ptirib, akasiga tegdi. Eridan qoraxat kelganda yana ukasiga tegmoqchi bo'ldi. Dildor shu paytgacha o'z qilmishini muhokama qilmagan, qilgan ishini dilga solmagan edi, boshqalar dilga solib yurishgan ekan. Dillaridan endi tillariga chiqdi.

U shu bir necha minut ichida yashab o'tqazgan umrining to'rt yilini ko'z oldiga keltirdi. Asroraning gaplarini rad qilishga urinib ko'rdi. Uni yolg'onchi qilishga bahonalar qidirdi. Ammo bironta bahona topolmasdi. Topgan bahonalari shu qadar asossiz ediki, gapirishga og'iz juftlashi bilanoq ichida uqalanib ketardi. U faqat birgina gap ayta oldi, xolos:

– Hammasini ichingga tashlab yurgan ekansan-da!..

– Bo'lmasam-chi. Urushga borgan ham, bormagan ham hisob beradi. Sen nima deysan? Agar bironta bahona topolsang, hamma gunohingni kechishlari uchun o'zim kafil turib beraman. Qani, ayt?

Dildorning boshi egildi. Asrora uni bosib-bosib, ezib-yanchib gapirardi. Karimjonning bu urushdan u urushga ketishiga ham shu Dildor sababchidek alamini undan olmoqchi bo'lardi.

– Menga qara, A'zam durust bola ekan. Bilmadim, durustligidanmi, bitta bolasini o'ylaganidanmi, sen bilan yashab ketdi. Agar men uning o'rnida bo'lsam, orqangga bitta tepib, bor, aravangni tort, menga sendaqa xotin kerakmas, derdim.

Dildor unga yoshli ko'zlari bilan zardali qaradi.

– Ha, sen shunaqa qilasan, sening qo'lingdan bunaqa ish keladi. Seni rais qilishayotganda men o'lgur nega qo'l ko'tardim. Boshimga balo kelsin deb, qo'l ko'targan ekanman.

– Sen qo'l ko'tarmasang ham, rais qilishaverardi. Sening qo'ling ko'tarildi nima-yu, ko'tarilmadi nima. Sen kolxoz uchun

hech gap emassan. — Asrora derazadan uchib tushgan chumchuq parini stoldan puflab uchirib yubordi. — Mana, shunaqa narsasan.

Dildor chidamadi. Ovozining boricha, g'azabi, nafrati, asabining boricha qichqirdi.

— Bo'ldi. Bo'ldi, bas! Ketaman. Mutlaqo ketaman. Qoralaringni ko'rmaydigan bo'lib ketaman.

— Juda yaxshi qilasan, — dedi Asrora xotirjamlik bilan.

Dildor shart o'rnidan turdi-yu, eshikni qarsillatib yopib chiqib ketdi. U uyiga ko'z yoshlarini shashqator to'kib yig'lab borardi. U nega yig'layapti, o'z qilmishigami, Asroraning to'ppa-to'g'ri yurakka borib sanchiladigan nayzadek tig'dor gaplarigami, o'zi bilmasdi. Har qalay, Asrora unga kimligini aytdi. Oyna tutib o'z basharasiga qarashga majbur qildi. Dildor hali ham o'zini-o'zi tanimasdi. Qandaydir o'ch, nimaningdir alami deb bilardi. Axir u Asroraga biron og'iz gap bilan javob qilolmadi. Ana shunisi unga alam qilardi.

Dildor uyga yig'lab kirdi. Ariqqa olma oqizib o'ynayotgan o'g'li onasining vajohatini ko'rib har galgicha unga otilmadi. Turgan joyida qora tugmadek ko'zlarini qimirlatmay qaragancha turaverdi. A'zamjon ayvon dahanida iyagiga qo'lini tirab o'tirar, sochlari boshidan oshib, peshanalarini, qosh-ko'zlarini to'sgan. U tinimsiz chayqalar, goh-gohda otga o'xshab pishqirardi.

A'zamjon mast edi. Samovarning otashxonasiga mahsi kiydirib, o't oldirayotgan dadasi hayronlikda turib qoldi. Nima bo'ldi? Kuyovi frontdan kelgandan beri bu uyning osoyishtaligi buzildi. Har kuni urush, har kuni yig'i. Bugun kuyovi g'irt mast bo'lib keldi. Ketidan qizi yig'lab kirdi. Nima gap?

Yunusali ota shu kungacha ularni bordi-keldi gaplariga aralashmay, chidab kelardi. Endi chidamadi. U ohista yurib kuyovining tepasiga keldi.

— Nima gap, bolam? Tinchinglar buzilib qoldi?

A'zamjon bosh ko'tarmadi. Javob o'rniga boshini chayqab pishqirdi. Chol javob kutib uzoq turdi.

— Bunaqada turmushlarningning shirasi ketadi. Avji o'ynab-kuladigan paytlaringda janjaldan bo'shamasanglar, keyini qiyin bo'ladi. Erkak odam bir so'zli bo'ladi. Xotiningiz yengillik qilayotgan bo'lsa, siz og'irlik qiling. Kelganingizda bag'rimiz butun bo'lib qoldi, deb boshimiz ko'kka yetgan edi. Men-ku mayli, bola notinch bo'lib qoldi. Sizga qarab bir javdiraydi, ayasiga qarab bir javdiraydi. Bo'lmaydi bunaqada, bolam. O'zingizni

ushlang. Ro'zg'orchilikda har gap o'tadi. Biringlar yengil bo'lsanglar, biringlar og'ir bo'linglar. Qarsakni ikki qo'ldan chiqarish kerak.

A'zamjon yana indamadi. Undan javob bo'lavermagach, chol ularni o'z hollariga tashlab chiqib ketmoqchi bo'ldi. Nevarasini endi opichlayotgan edi, Dildor chiqdi.

– Dada, bolani qo'yib keting.

Chol qiziga hayron bo'lib bir qaradi. Keyin, hay, mayli, degandek hardamxayol ko'chaga chiqib ketdi. Bola xomush borib supaga o'tirdi. Dildor kelib erining yoniga o'tirdi-da, yelkasiga qo'lini qo'ydi. A'zamjon qo'lini olib tashladi.

– Menga qarang, menga qarang, deypman.

A'zamjon qaramadi. Dildor uni majburan o'ziga qaratdi. A'zamjonning ko'zlari qizargan, iyagiga tiralib o'tirganidan dahaning chetlari burushib qolgan edi.

– Xo'p, mayli, ketamiz. Men ham birga ketaman. Siz qayoqqa borsangiz, men ham qolmayman. Tamom.

A'zamjon tizzasiga tayanib o'rnidan turdi-da, nimalarnidir o'ylab u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi.

– Qayoqda edingiz? – dedi Dildor.

A'zamjon darrov javob bermadi. Malol kelgandek qiynalib javob qildi:

– Dadamning oldiga bordim. Qamalib yotibdi. Baxmal bilan qo'lga tushibdi.

Dildor hayronlikda qotib qoldi. A'zamjon dadil kelib uning ikki qo'lidan ushladi.

– Tezroq ketish kerak. Tezroq. Bilasanmi, melisadan dadamning eshagini haydab kelayotganimni hamma ko'rdi. Odamlar urush tashvishida, men otamning eshagini haydab yuribman. Sharmandalik, bu qandoq sharmandalik. Guzardagilar meni ermak qilishdi. Oqsoqolning merosxo'ri kelyapti, merosga eshak tegipti, deb askiya qilishdi. Orqamdan ancha paytgacha kulgi eshutilib turdi. Ketaylik, jon Dildor, ketaylik.

– Dadangizning ishi bir yoqlik bo'lmay turib-a?

– Nima bo'lsa bo'ldi, jazasini tortsin. O'zi javob bersin. Ketamiz. Dadamning ovozi, qilmishi eshutilmaydigan joyga ketamiz.

– Xo'p. Xo'p, A'zamjon aka. Siz nima desangiz shu.

A'zamjonni otasining qilmishi ko'zini ochgan bo'lsa, Dildorning ko'zini Asrora ochdi. Agar Asrora unga boyagi gaplarni

aytmaganda u o'z qishlog'idan qimirlamas edi. Tinch, bejanjal yashash uchun ketishlari, albatta, kerak.

Dildor bu gapga endi tushundi. Qayoqqa boradi, nima qiladi, qandoq yashaydi, bu hali noma'lum edi. Yonida arslondek, tog'ni ursa tolqon qiladigan azamat eri turganda tashvish qilishga hojat yo'q edi.

XI

A'zamjon frontdan qaytaman-u, uch-to'rt oy qishloqda medallarimni jaranglatib yuraman, deb o'ylagan edi. Xayolida butun qishloq tomga chiqib uni kutib turibdi. Biri qo'liga suv quygan, biri sochiq tutgan...

Undoq bo'lmadi. Xotin tepa to'nini teskari kiyib uyiga kelmadi. Ota er-xotin o'rtasiga qora botir bo'lib tushdi. Opasi ikkovini gij-gijlashdan bo'shamadi.

Ustiga chiqib tepkilasa ham jigarniki o'tmas ekan. Ammo xotinning bemavrid chimirilgani ro'zg'orda ko'p achchiq-chuchukka sabab bo'ladi.

A'zamjon qo'lini yuvib qo'ltiqqa urgandi. U hozir alam otashida yonardi. O'zini qishloqda — tug'ilib o'sgan qishlog'idan quvilgan hisoblardi. Nahotki, to'rt yil qon ichida kezib, ne o'limlardan omon qolgan soldat o'z uyiga sig'masa. Unga cho'l yo'lini ko'rsatib qo'yishdi. Mana ketyapti. Hali ko'rmagan, bilmagan yoqlarga ketyapti. Bir o'zi bo'lsa ham mayli edi. Xotini, bolasi bilan quvilib ketyapti. Qaysi gunohi uchun?

A'zamjon kecha ertalab Yozyovonga borib, qayerda turadi, qay vazifada ishlaydi, shuni bilib kelishi kerak edi. O'jarlik qilib bormadi. Xayolida kimdir: A'zamjon bormasin, qishlog'imizga A'zamjon kerak, A'zamjon ketsa qishlog'imizning holi nima kechadi, deydigandek edi. Ammo hech kim bu gapni aytmadi. Mana, u yuk mashinasining tepasida bir o'zi ko'rpa quchoqlab tebranib-tebranib ketyapti. Xotini bolasi bilan kabinada — shofyor yonida.

Bir palakda necha xil qovun, degandek A'zamjon o'sgan oilaning bolalari bir-biriga o'xshamagan chiqdi. Ota mol-dunyo oldida har qanday pastkashlikdan toymaydi. Onasi rahmatlik mungli, qobil xotin edi. Opasi faqat otaga tortdi. Nizom bo'lsa to'ng, kechgacha og'zini poylasang ham bir so'z chiqmaydigan kamgap bola bo'ldi. A'zamjon o'jar, sal gapdan qizishib ketadigan, ish qilsa, oxiri nima bilan tugashini bilmaydigan, qilgan

ishidan, aytgan gapidan kimdir ozor chekishi mumkinligini xayoliga keltirmaydiganlardan edi.

Hozir cho'lga bola-chaqasi bilan ketyapti. Cho'lda nima qiladi? Qayerda turadi? Bir gap bo'lar!

Cho'l osmoni bir xil turmaydi. Bir nafasda ming xil rangda tovlanadi. Kim biladi, yerda ko'zni ovlaydigan biron rang bo'l-maganidan osmon shundoq ko'rinar. Cho'l buluti ham boshqa-charoq. Qop-qora. Og'ir, juda og'ir. Xuddi qo'rg'oshindek. Olishda ko'rinadigan bir-ikki tup qayrag'och ham odamga qandaydir umid tug'diradi.

A'zamjon tushgan mashina olishda paranji yopingan xotindek ko'ringan bir tup qayrag'och tomonga intilardi. A'zam unga ham qaramas. U o'z o'ylari bilan band. Ko'zlari lip-lip o'tayotgan tuz bosgan yerlarga ma'nosiz tikilganicha, alamda o'rtanib borardi.

Agar Dildor bo'l-maganida u allaqachon uzoq joylarga ketib qolardi. U oyog'iga kishan bo'lib yopishib olgan...

Yo'l-yo'lakay qamish bo'yi nihollar uchray boshladi. Bu daraxtlar shu bahor o'tqazilgan bo'lsa kerak, ko'plari hali barg yozmay so'rrayib turibdi. Ahyon-ahyonda ko'k choyning shamasidek yaproqchalar ham ko'rinib qoladi. Ko'chatlar tagi qor yoqqandek tuz bosgan. Umuman, sho'r qoplagan keng cho'l ovqati chala yeyilib yuvilmay oftobda qolgan laganga o'xshardi. Yo'l chetlarida ahyon-ahyonda uchragan artezian quduqlaridan otilib chiqayotgan shaffof suv osmonga uchib ketayotibdimi, yerga kirib ketayotibdimi, bilib bo'lmasdi. Aqalli, bir bo'yra yerni namlasa-chi.

A'zamjon, bu yerlar qachon suv ichadi-yu, qachon bir giyoh unadi, deb dilidan o'tkazardi. U yo'lga chiqqanda shamollar, bo'ronlar quturgan cho'lda yo bo'rilar bilan olishib, yo toshqinlarni to'sib ikki kundayoq kimligimni ko'rsataman, deb o'ylagan edi. Hozirgi manzara tamoman hafsalasini pir qildi. Agar xotini bilan bolasini olakelmaganda allaqachon orqaga qaytardi.

Mashina shu ko'yi taqirliklardan, qorako'l terisidek jivir-jivir qumliklardan olib o'tib kanal bo'yiga chiqdi. Ko'prik ustida baland poshnali tuflisini yechib olgan bir ayol mashinaga qo'l ko'tardi. Shofyor to'satdan tormoz bergan edi, orqadan ko'chgan to'zon A'zamjonning ustiga yopirildi. Mashina joyidan qo'zg'algandagina to'zon tarqaldi. Yonida boyagi ayol o'tirardi. A'zamjon zimdan unga ko'z qirini tashladi. U qo'rqibmi, yotsirabmi unga qaramasdi. Sumkasini quchoqlaganicha suv yoqasidagi tanlari bujmaygan tollarga tikilib borardi. Uning egnida qora

ko'ylak. Shundoq issiq kunda qora ko'ylak kiyishidan azadorligi bilinib turardi. Yoshi o'n to'qqiz-yigirmalardan oshmagan. Bola og'iz solmagan ko'kraklari mashina tebranishidan erkak zotini bezovta qiladigan g'alati silkinardi. Ayol A'zamjonning ko'ksidagi medallari jiringlaganidanmi yo boshqa sababdanmi beixtiyor o'girildi. Shunda A'zamjon uning ko'zlarini ko'rdi. Bu ko'zlar... uncha-muncha ko'zlardan emasdi. A'zamjon birinchi marta vokzalda Dildorning ko'zlarini ko'rganda ham bunchalik bo'lmagandi. Yuragi shuv etib ketdi-yu, nafas ham ololmay qoldi. Oppoq tomoqlarga shamolda tegib o'ynayotgan o'ringa ko'nmagan sochlar. Shamol yoqasini har silkiganda ochilib yopilayotgan yelkalar, hamon titrab turgan ko'kraklar, hozirgina yig'idan bo'shagandek nam tortib turgan kipriklaru chimchilab qo'ygandek bejirim burun, ayniqsa, oq o'rik po'stidek bilinar-bilinmas sepkili bor tomoqlari A'zamjonning yigitlik qonini ko'pirtirib yubordi. Qaydadir yashiringan bo'ydoq vahshiyliги yuzaga chiqdi. Mashina yo'lni kesib o'tayotgan podaga signal berganda cho'chib o'ziga keldi-yu, atrofga qaradi. Mashina qishloqcha o'rtasida borardi. Ayol kishi har narsani biladi. Ayniqsa, yonida begona erkak o'tirganda uning ko'nglida nimalar bo'layotganini va nimalar bo'lishini avvaldan biladi. Ko'zidan, ovozidan biladi.

Mashina suvsizlikdan daraxtga yolchimagan qishloqni oralab yana cho'l qo'yniga kirdi. Biy dala. Zog' uchmaydi. Ayol A'zamjonning ko'zidagi vahshiy o'tni ko'rgandayoq, kuzovning bir chetiga tiqilib olgan, unga qaramaslikka urinardi. Uzoq yo'l. Tokay shunday ketadi. Ayol o'girilib bir qaradi. Zum o'tmay yana qaradi. Yana...

Keng yag'rin, furajka chetidan chiqib turgan jingalak soch, har qanday qizni bir qarashda o'z yo'liga soladigan g'ar ko'z. Bilaklarda kuch toshib turibdi.

Ayol bekorga qo'rqqan ekanman, degandek muloyim bir boqish qildi. A'zamjon beixtiyor iljaydi. Bu iljayish oralaridagi sovuqlik va qo'rqinchni quvgandek bo'ldi. Ayol hamon tufisini ushlab turganini endi sezdi. Bu holidan xijolat bo'lib tufisini kiymoqchi edi, mashina silkinishidan kuzov oxirigacha munkib ketdi. Agar A'zamjon uni quchoqlab qolmaganda boshi bilan borib taxtaga urilardi. A'zamjon uni ancha vaqtgacha quchog'idan qo'yib yubormadi. Ayol zardali qaragandagina qo'yib yubordi. Ayol tufisini kiyib, xijolatlikda indamay pastga qarab o'tirardi. A'zamjon esa yana shunday tasodifni kutardi. Yo'l tekis, mashina silkinmasdi.

Ayol o'rnidan turib kabina tepasini urmoqchi bo'lganda, A'zamjon uning bilagidan ushladi.

— Shoshmang. Otingizni aytib keting!

— Nima qilasiz, otimni? Yomon kishi ekansiz-ku!

— Aytib keting. Kim bilan birga kelganimni bilib qolay.

Ayol tubsiz ummonlarni bag'riga singdirgan nildek qora ko'zlarini unga tikkancha birdam turib qoldi. A'zamjon o'zini tutolmadi. Yigitlik o'ti qaynab turgan ko'ksini uning ko'ksiga bosib tomoqlarining tagiga boshini suqdi. Ayol undan qutulish uchun harchand urinsa ham, baquvvat bilaklarni belidan ayirib ololmasdi. Ayol oxiri zarb bilan kabina tomini shapillatib ura boshladi. Hansiragan A'zamjon uni bag'ridan bo'shatib alamdanni, ehtirosdanni tepib turgan ko'ksiga qaradi.

— Otingizni, kimligingizni aytib keting. Qidirib topaman. Albatta, topaman.

Mashina to'xtadi. Ayol sakrab pastga tushdi-da, sumkasini kovlab pul qidira boshladi. To u pul chiqazguncha mashina joyidan qo'zg'aldi. Bir zumda ayolning qorayib, kichrayib ortda qolayotgan gavdasini chang bosib ketdi.

Kun tepadan tig' urayotganda mashina obodgina bir qishloqqa kirib keldi.

Usti shifer bilan yopilgan pishiq g'isht uylar, tanasi etik qo'n-jidek bo'lib qolgan tollar qishloqqa binoyidek husn berib turardi.

A'zamjon o'zini pastga otib, kabina eshigini ochdi-yu, qiy-nalmadingmi, jonim, deb Dildorning qo'lidan bolani oldi.

Chorterakdan kelganlar samovarni to'ldirib gurunglashib o'tirishardi, A'zamjon ham yuklarini tushirib ular to'dasiga qo'shildi. Kelganlarning ko'pchiligi erkaklar edi. Dildor ulardan sal nariga borib A'zamjon orqalab tushirgan ko'rpa-to'shaklar yoniga o'tirdi.

So'rilarni to'ldirgan chorterakliklar A'zamjon kelishi bilan sal jonlangandek bo'lishdi. Uni darrov davraga olib askiyaga tutishdi. A'zamjon gapga aralasholmas, hamon o'sha qop-qora chaqnoq ko'zlar unga arazli qarab turar, oq o'rikdek bag'baqarlardan ajib g'alati hid dimog'iga urilib turar edi.

Odamlar orasidan, rais kelyapti, rais kelyapti, degan gap chiqib qoldi. Jussasi kichik, ancha so'lib qolgan oltmish yoshlardagi kishi kelib odamlar bilan omonlasha boshladi. Yo'lda qiy-nalmay keldinglarmi, xush kelibsiz, degan gaplardan keyin rais maqsadga ko'chdi.

– Oralaringdan bir kishini vaqtincha brigadir qilib ko‘tar-sak. Kim qandayligi o‘zlaringga ma‘lum. Chor-terakliklarga aj-ratgan uylarimiz bor. Sizlar uchun ekib qo‘ygan paxtamiz ham bor. Sira kamlik ko‘rmaysizlar. Brigadirlikka ko‘taradigan o‘rtoq bilan yangi uylarni borib ko‘rsak-da, kim qaysi uyda turishini aniqlasak, nima deysizlar?

Raisning gapi chor-terakliklarga ma‘qul tushdi. Kimdir Xol-matjon brigadir bo‘lsin, yana birov A‘zamjon bo‘lsin, degan tak-lifni o‘rtaga tashladi.

Rais har ikkala taklifni o‘rtaga tashlaganda Xolmatjon sakkiz ovoz ortiq oldi.

Birpasda kimning nechta bolasi bor, oila a‘zosi qanchaligi ro‘yxat ham qilindi-da, Xolmatjon bilan rais ikkovi mototsiklda jo‘nab ketishdi.

A‘zamjon qip-qizarib ketdi. U hamqishloqlarining bunchalik qilishlarini o‘ylamagan edi. U o‘zini kelganlar ichida eng udda-burosi, ishbilarmoni deb bilardi. Yo‘q, unday emas ekan, ko‘p-chilikning ko‘ngli Xolmatjonda ekan. Bu gaplarni xotini Dildor eshitib o‘tirmaganda ham boshqa gap edi. Nega keldim, ko‘tarib kelgan ko‘rpmanni hali yerga qo‘ymasimdan dilimni og‘ritishdi, deb o‘kinardi.

A‘zamjon yer ostidan xotiniga qaradi. Dildor jo‘jasining og‘ziga don solayotgan musichaga qarab o‘tirar, bo‘layotgan gaplarni eshitmaganga o‘xshardi.

Pishiq g‘ishtdan qurilgan qator uylar, yo‘lning ikki cheti-da allaqachon tanasini tutib olgan tollar, orasidan odam bo‘yi qamishlar o‘sib ketgan bo‘lsa ham, har yer-har yerda gulzorlar uchrab qolardi. Ajib did bilan qurilgan bu shaharchada odam yashamagani shundoqqina bilinib turardi. Odam yashamagan joy fayzsiz bo‘ladi.

Odam bir kecha tunab o‘tgan g‘orga ham fayz kiradi. Ham-ma narsa odam bilan.

– Ismingiz Xolmatjon-a, – dedi rais. – Mening ismim Me-livoy. Siz endi chor-terakliklarning pravleniyedagi vakilisiz. Ni-maga zoriqsalar, nima istaklari bo‘lsa menga aytib turasiz. Nima gapimiz bo‘lsa, biz ham sizga aytamiz. Yangi joy, o‘rganib, bir-birimizga singishib ketgunimizcha shundoq bo‘lib turadi-da, akasi.

Melivoy aka mototsiklni ko‘cha boshida qoldirib kolyaska-dan olgan bir xalta kalitni arang ko‘targanicha birinchi uyning eshigini ochdi. Ichkariga kirishdi.

Ikki uy, bir ayvon. Orqasida ro'zg'orxonona. Ayvon tagi pod-val.

— Qani, bu uyni kimga beramiz?

Oila a'zosi to'rt kishilikni qidirib ro'yxat yoniga uy nomerini yozib qo'yishdi.

Shu yo'sin bir soat chamasi o'ttiz oilaga uy taqsim qilishdi. Xolmatjon o'ziga tekkan uch xonali uyni olmadi.

— Men binoyidek o'rnashib olganman. Malika ayamning uyi menga juda bop-da. Shu uyni A'zamjonga beraylik. Boya brigadirlikka nomzodi qo'yilgan yigit. Nazarimda, sal dili og'rib qolganday tuyuldi. Zora uy bahonasi bilan dilining chigili yozilib ketsa.

Ikkovlari kalit bandidagi karton qog'ozlarga uy egalarining nomlarini yozib chiqishdi.

Chorterakliklar hamon gurunglashib o'tirishardi. Samovar-chi tol tagidagi stolga qizil alvon yozib, atrofga ko'loblatib suv sepib qo'ygan edi. Xolmatjon kalitlarni shaldiratib stolga ag'dardi. Melivoy aka, qani, brigadirlikingizni boshlang, degan ishora qildi. Xolmatjon stolga ikki qo'lini tirab gap boshladi:

— Birodarlar, andek quloq beringlar. Hozir rais buva bilan turadigan uylarimizni ko'rib keldik. Ochig'ini aytsam, kelib yomon ish qilmabmiz. O'zimiz bir mahalla bo'ldik. Imoratlar yangi. Pishiq g'ishtdan qurilgan. Hali borganda o'zlaringiz ko'rasizlar. Illo qishloqqa xat yozganda ko'chib kirgan uyingizni maqtamanglar, chorterakliklar ko'rpa ko'tarib gurra-gurra ko'chib kelivorishmasin.

Kimdir luqma tashladi.

— Inoyat oqsoqol hammi?

A'zamjonning dami ichiga tushib ketdi. G'ozga o'xshab bo'ynini cho'zib qaradi. Kim aytganini bilolmadi. Gurr etib kulgi ko'tarildi. Gap Oqsoqol to'g'risida bo'ldi-yu, hamma A'zamjonga qaradi.

A'zamjonni shayton g'alaba qilib, tur, Chorteragingga jo'na, bu yerda seni xor qilishadi, ko'ryapsan-ku, bir piyola choy ichmay tepkilashyapti, deb turib oldi. A'zamjon o'rnidan turishga bir hezlandi-yu, nomus kuchi yana yerga singib o'tiraverdi.

Xolmatjon qo'liga chiqqan kalit bandidagi yozuvni o'qib chaqira boshladi.

— Asqar akaga uch xonali, Fattohga ikki xonali, A'zamga uch xonali...

Uy egalari o‘rnilaridan turib kalitni ola boshladilar. A‘zamjon arzimagan narsaga qo‘l uzatayotgandek kalitni oldi-yu, pisand qilmay Dildorning oldiga tashladi.

Olti yuk mashinasi yo‘l chetida qator turardi. Kimdir: «Omin», – dedi. Kimdir: «Shu joyda o‘tib-uninglar, tomir yo‘yinglar!» – deb fotiha berdi.

Ko‘rpa-to‘shak yuklangan olti mashina birin-ketin yo‘lga tushdi. Yomg‘irda qolgandek boshini qisib A‘zamjon eng keyingi mashinada borardi.

Shu oqshom cho‘l bag‘rida yangi qad ko‘targan yangi uylarda birinchi marotaba chiroqlar yondi. O‘choqlarga yoqilgan birinchi o‘tinning tutunini cho‘l shamollari olis-olislariga uchirib ketardi. Baland simyog‘ochlardagi radiokarnaylardan to yarim kechagacha qo‘shiq tinmadi.

A‘zamjon jihozsiz qup-quruq uch xonali uyning unisidan bunisiga kirib papiros chekar, uyiga, qishlog‘iga qaytib ketgisi kelardi. Bir chekkada bolasini bag‘riga bosib mungligina bo‘lib o‘tirgan xotining tepasiga kelib o‘dag‘ayladi:

– Sen qilding, sen shundoq qilmaganingda men kelmasdim. Izzat-nafsimni mana shu pastkashlar oyog‘i tagiga tashlading.

Dildor indamadi.

– Hali shoshma, kimligimni ularga ko‘rsatib qo‘yaman.

Dildor uning gaplariga parvo qilmay, ayvondagi tugunni yechib ko‘rpalarni oldi-yu, bolasi bilan o‘ziga joy solib ichkari uyga kirib ketdi.

A‘zamjon ayvoyga chiqdi. Qo‘shnilar uyida ham chiroq o‘chgan. Faqat ko‘cha betidagi simyog‘ochda radio cho‘lni boshiga ko‘tarib gapirardi. Shamol uning ovozi cho‘l bo‘ylab aylantirib yana olib kelar, derazalarga urardi.

A‘zamjon ostonaga o‘tirib olib papiros chekar, tutun buruqsatib cho‘l shamollari haydab kelgan tunning sirli, sehrli tovushlariga quloq tutardi.

Tun qorong‘iligi qora kiygan notanish ayolni yodiga soldi. Uning shu tunde qora, shu yulduzlardek chaqnoq ko‘zlari bir lip etib uning qalbini yoritib o‘tdi.

A‘zamjon butun borliqni unutib xayol bilan cho‘llarni kezar, go‘zallikda tengi yo‘q o‘sha motamsaro ayolni izlardi.

– Kim bo‘ldi u?

XII

Ertalab kun yoyilganda A'zamjonni Dildor uyg'otdi.

– Turing, Xolmatjon sizni so'rayapti.

A'zamjon apil-tapil kiyinib hovliga chiqdi. Xolmatjon hovlida o'ynab turgan Azimjonni gapga solib o'tirardi. Xolmatjon gapni lo'nda qilib qo'ya qoldi.

– Nima qilasan, ketmonga tushasanmi, traktor minasanmi? A'zamjon yelkasini qisdi.

– Agar xo'p desang, menga yordamchi bo'l.

Bu gap A'zamjonning izzat-nafsiga tekkandek bo'ldi. Qo'rslik bilan javob qildi:

– Boshqa brigadaga o'tib ketaman.

– Jinnilik qilma. Men ham vaqtincha brigadirman. Kim qanaqa ish qilishini pravleniye majlisi hal qiladi.

A'zamjon tinchlik yillarida ham undan o'zini bir pog'ona yuqori qo'yib yurardi. Umuman, A'zamjon boshqalarni og'ziga qaratahni yaxshi ko'rardi. Hozir ham Xolmatjonni nazar-pisand qilmagandek, beparvo javob qildi:

– Bitta gruzovoy bersa minaman. Kasbim shu. Agar yo'q desa, Choraterakdagi ko'rpam hali sovigani yo'q.

Xolmatjon Dildorga qaradi.

– A'zamjon aka minmayman degan traktorni men minaman. Bolamni boqchaga olishsa, shundoq qilaman.

Bu gap erining izzat-nafsiga tegdi. Yelkasidagi sochiqni qamchidek havoda bir silkib ayvondan pastga tushdi.

– Nima deding?

– Eshitgandirsiz, nima deganimni?

– Odatda, er-xotin orasida gap qochganda, begona yonida bo'lsa, danakdek janjal yong'oqdek bo'lib ketadi. O'zlaring bir qarorga kelarsizlar, – deb Xolmatjon chiqib ketdi. U chiqishi bilan A'zamjon xo'rozga o'xshab bo'ynini cho'zib xotining oldiga keldi.

– Traktor minasizmi? Men xotin kishidan qora moy hidi emas, atir hidi kelishini yaxshi ko'raman.

Dildor ham uning gapiga munosib javob qildi.

– Men ham soqoli chiqqanda otaga bola bo'lib yurgan yigitni emas, bolasiga ota bo'lgan yigitni yaxshi ko'raman. Atir hidi emish-a...

A'zamjon o'dag'aylab yana xotining tepasiga keldi.

– Men yigitman deb bosh ko‘tarib yurgan odamman. Bularga pochinaysa qilmayman. Qayoqqa borsam, ish topiladi. Xotin ham topiladi. Nimam bor? Shundoq chiqib ketaveraman.

– Hech narsangiz yo‘qmi? Yo‘qmi? Bolangiz-chi?

A‘zamjonning ko‘targan qo‘li havoda muallaq qoldi.

– Bitta bola deb shu taraflarga kelib yuribman. Faqat shu bola.

Dildor o‘t chaqnab turgan ko‘zlarini erining betiga tik qadadi.

– Bola oyog‘imga kishan bo‘ladi deb o‘ylamang. Uch yil sizensiz yashadik, yana bu yog‘iga ham yashayveramiz.

– Shunaqami?

– Shunaqa!

– Bo‘pti, bo‘lmasam.

A‘zamjon shunday dedi-yu, shart burilib uyga kirib ketdi. Kitelini yelkasiga tashlab, zum o‘tmay chiqdi-da, orqa-o‘ngiga qaramay ko‘chaga otildi.

Dildorning ichidan bir nima uzilib ketgandek bo‘ldi. Kiprik qoqmay turib qoldi.

Ko‘chada mashina motorining gurillagani eshitildi. Kimlardir g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir gaplashishdi. Sal o‘tmay oyoq tovushi keldi.

– Qizim, qayerga bo‘shatay?

Dildor o‘girilib qaragan edi, qop orqalagan o‘rta yoshlardagi kishini ko‘rdi.

– Manavi narsalarni qayerga bo‘shatay?

Dildor nima deyishini bilmay bir zum javobsiz turib qoldi. Mashina bir-ikki zardali signal berdi. Kelgan kishi imorat soya tashlagan tomonga qopni bo‘shatdi. Sabzi, piyoz, kartoshka, bita karam, ikkita handalak. U qopni silkita-silkita chiqib ketdi-da, yana kirdi. Bu gal kichkinagina yashikchada bodring, pomidor, bir hovuchgina gilos, uchta non olib kirgan edi. Yashikni ayvon dahaniga qo‘yib chiqib ketdi. Sal o‘tmay mashina gurillab ovozi uzoqlashdi.

Dildorning birinchi bor uydan uzoqlashishi. Ota uyidan, qishlog‘idan nari ketgan birinchi tongi ana shundoq otdi. Bu cho‘lda, ota uyidan uzoqda, eri bilan birinchi bor mustaqil ro‘zg‘or tutishi. Bu uning birinchi bor yangi uyida nonushta qilishi.

Negadir Dildorning ko‘ziga yosh kelmadi. Yig‘lamadi. Kuchanib handalak ko‘tarib turgan o‘g‘liga bir qaradi-da, uyga kirib choynak olib chiqdi.

Yangi uylar bir-biriga tutashgan bo‘lib devori, darvozaxonasi yo‘q edi. Kimning hovlisida nima qilayotgani shundoqqina bilinib turardi.

Qo‘shni hovlilarda xotinlar g‘imirsib yurishar, nonushtaga tayyorlik ko‘rishardi. Dildor allaqachon qo‘ygan qumg‘on necha qaynab, necha sovugan, ostidagi cho‘g‘ ham o‘chib bo‘lgan edi. U imorat qurilganda to‘planib qolgan payrahallarni yoqib yana qumg‘on osdi. Ona-bola hech narsa bo‘lmagandek nonushta qilishdi-da, indamay kecha yig‘in bo‘lgan tarafga yo‘l olishdi.

Katta tol tagidan Abdulla baqiroqning ovozi kelardi:

– Yangi kelgan chor-te-rak-lik-lar, maj-lis-ga!!!

Hali telefon bo‘lmagani uchun bir mehnat kuni hisobi shu Abdulla baqiroq telefon o‘rnini bosib odamlarni majlisga, ishga chaqirardi.

Abdulla baqiroq hamon qichqirardi.

– A‘zam Inoyaa-aa-too-oov, Dil-dor Yuuu-unuuu-soo-va-va! Rais Me-li-vo-o-voy aka-aga-aa uchrashinglaaar!

Dildorning qadami tezlashdi. Bola orqada qolib ketaverganidan Dildor uni ko‘tarib oldi-da, pildiraganicha katta tol tagiga ketdi.

Kechagi kelganlarning ko‘pchiligi shu yerda edi. Bular orasida eri ko‘rinmadi, Xolmatjon uni boshlab rais Melivoy aka oldiga olib bordi.

– A‘zam qani? – dedi Xolmatjon u yoq-bu yoqqa alanglab.

Dildor javob bermadi. Xotin kishi uydagi sirni ko‘chaga chiqarmasligi kerakligini u yaxshi biladi.

– Singlim, – dedi rais. – Ilgarilari ham traktor minganmimiz?

– Ha, – dedi qat‘iy Dildor. – Minganman. Yer haydaganman, kultivatsiya qilganman. Judayam unchalik bo‘lmasa ham kam-ko‘stini yana bilib olaman.

Shu paytgacha bu atrofda traktor haydagan xotin kishi bo‘lmagandi. Rais ishonqiramay unga qaradi.

Nahotki, shundoq chiroyli, shundoq nozik juvon traktor minsa?

– Rostdanmi? – dedi ajablanib rais.

– Voy, ishonmayapsizmi?

Rais chakkasini qashidi. Pisanda qilib dedi:

– MTS uzoqda. Remont zarur bo‘lganda Zarkentga tushish kerak bo‘ladi.

Dildor ham bo'sh kelmadi.

– Zarkentda bo'lsa nima qipti?

– Bir aytdim-da, – u shunday dedi-yu, Dildorning oppoq bilaklariga, faqat qatim tortishga yaratilgandek nozik barmoqlariga qaradi.

Atrofni odam o'rab qoldi. Hamma rais bilan Dildorning gaplariga quloq solardi.

– Xo'p, ko'ramiz, – dedi rais xulosa qilib.

– Ishonmayapsiz-a, rais buva. Ishonavering. Manaman degan traktorhilaringiz bilan musobaqa o'ynashim mumkin.

Boshqa gap topolmagan rais ikki kafti bilan stolni bosib o'rnidan turarkan:

– E, bo'pti-e, bo'lmasa! – deb yuborganini bilmay qoldi.

U Dildorning o'g'lini azod ko'tarib osmonga bir irg'itdi-da, ko'targancha narigi so'riga olib o'tdi.

Bunda yoshi oltmishlardan oshgan bir kampir yangi kelganlarning bolalarini o'ynatib o'tirardi.

– Mana, aya, – dedi rais, – sizga yana bitta o'g'il.

– Voy, onaginang aylansin, kel, kel, bo'yingdan.

Kampir Azimjonni raisning qo'lidan olib ikki yuzidan cho'pillatib o'pdi-da, boshidan do'ppisini olib bir bosh chillaki uzum solib berdi.

Bu yerga to'plangan bolalarning hammasi chorterakliklar edi. Hammasi bir-birini tanishar, qishloqda ham birga o'ynashardi. Shuning uchun ham Azimjon yotsirab o'tirmay, bolalarga aralashib ketdi.

Rais ko'krak cho'ntagidan daftarcha olib nimadir yozdi-da, Dildorga berdi.

– Shuni mexanikka berasiz. Traktor beradi. Yaxshilab ko'ring. Kam-ko'sti bo'lsa o'zimga ayting. Qaysi uchastkada ishlashingizni o'zim aytaman.

Mexanik kim, qayerda, Dildor bilmasdi. Qog'ozni ushlab hayron bo'lib turganini sezgan Melivoy aka mototsiklga suyanib turgan yoshgina yigitni imlab chaqirdi.

– Iskandarning oldiga obor. Rais tayinladi, deb ayt.

Dildor mototsiklga mingashib ketdi. Garaj shundoqqina tolzorning orqasida ekan, rais bekorga mototsiklni ovora qipti. Pi-yoda kelsa ham bo'laverar ekan.

Mexanik o'ziga zeb bergan og'zi to'la qoplama tish, atayin odamlar ko'rsin deb soat taqilgan qo'li yengini bilagigacha shimarib olgan, ozg'in, ingichka beliga xanjar ilgakli jez to'qasi

bor qalin kamar bog'lagan o'spirin edi. U Dildor kirishi bilan birpas mahliyo bo'lib turdi-da, og'zidagi qoplama jez tishlarining hammasi ko'rinadigan qilib iljaydi. Dildor unga raisning xatini uzatdi. Mexanik xatni o'qirkan, tez-tez bosh ko'tarib unga g'alati qarab qo'yardi.

– Traktorni sizga beramanmi?

– Ha, menga, – dedi Dildor.

Mexanik yigit u yoqdan bu yoqqa yurdi.

– Qayoqqa oborasizlar? Kim haydaydi? Kinoxronikagami?

– Gapni aylantirmang. Qani traktor, ko'rsating.

Mexanik yigit uning traktor haydashidan ham husniga mahliyo bo'lib qolgan edi. Dildorni olib kelgan yigit gapga aralashdi.

– Melivoy akam tayinladilar. Bu opam endi sizda ishlaydilar. Traktor haydaydilar. Men ketdim.

U shunday deb orqasiga qaytdi.

Garajda Dildor bilan mexanik ikkovi qoldi. U o'zining bilag'onligini isbot qilish uchun traktor detallaridan gap boshlagan edi, Dildorning ensasi qotdi.

– Bu gaplarni bilaman. Traktor dalaga chiqishi kerak. Ko'rsating, axir.

Mexanik bolaning ko'zlari yashnab ketdi. Shundoq juvon uning qo'l ostida ishlaydi. Qandoq yaxshi.

Ustiga brezent tashlab qo'yilgan traktor yoniga kelishdi.

– Hali yangi, o'zim istansadan haydab kelganman. Mana.

U brezentni tushirdi. Yashil rangli XTZning ustiga hali g'ubor qo'nmagan edi.

– Qalay, yoqadimi?

Dildor indamadi. Yigit o'zini ma'qul qilish uchun traktor atrofida aylanar, yog'ini ko'rar, o'rindiqni artib, barankani u yoqdan-bu yoqqa burib ko'rardi.

– Yaxshi qiz, kechirasiz, otingizni bilmayman, siz xotirjam bo'ling, biron joyi bir nima bo'lsa, o'zim tuzatib beraveraman. Siz xotirjam bo'ling.

U shunday deb egarga mindi. Motorni o't oldirdi. Motor patillab yuqori trubasidan hovuch-hovuch qora tutun chiqardi-da, varillab ketdi.

Yigit o'zini yerga otib shovqinda gapini eshittirmagandan keyin, Dildorning qulog'i tagiga kelib qichqirdi.

– Jiyron tayyor, marhamat!

Shunda uning dimog'iga faqat balog'at yoshini bir marta ko'rib bo'lgan ayol bosh qo'ygan yostiq hidi urildi.

Dildor ikki o'rim uzun sochini uchini nimchasing cho'ntagiga solib egarga intilgan edi, yigit avval bilagidan, keyin belidan ushlab chiqishga ko'maklashdi.

Shundan keyin u Dildor qandoq qilib traktorni yurgizdi, qandoq qilib darvozadan olib chiqib ketdi, bilolmadi. Ko'kdan bir farishta uchib tushdi-yu, og'ir, zildek og'ir traktorni yumshoq qanotlari orasiga olib uchib ketgandek edi.

Olisda traktor bir maqomda gurillar, yigit temir-tersaklar orasida turib bu ovozni tushida eshitayotgandek esankirar edi.

XIII

A'zamjon nima qilib qo'rganini o'zi bilmasdi, jahl kelsa, aql ketadi. U uydan o'qdek otilib chiqqanicha to'xtamay jadal yurib qishloqdan ancha nari ketib qolganda to'xtadi. Qayoqqa boradi. Chortherakkami?

Chortherakliklar kecha uni karnay-surnay bilan uzatib qolgan edilar-ku! Xo'sh, Chortherakka borsin ham. Qaysi uyga kiradi? Dadasi militsiyada yotibdi. Opasinikigami? O'la, Dildor orqangga bir tepib haydabdi-ku, deyishi turgan gap. Yunusali otanikigami? Qizimni qayoqqa tashlab kelding, nomard, yo'lingga shuncha ko'z tutib qon bo'lgani kammidi, demaydimi? Deydi!

Chortherak yo'li unga berk edi.

Bir tomonda qamishlar shovillagan, bir tomonda etagi ufqqa tutashib ketgan cho'l oralig'ida u tanho turardi. Har zamon yonida shamoldek elib mashina o'tib ketadi. Qovjiragan giyohlar orasidan bosh chiqazib haykaldek qotgan kaltakesaklar unga sovuq nazar tashlaydi. Boya uydan o'qdek otilib chiqqan yigit endi birovni kutayotgandek sekin qadam tashlar, tashlagan qadami uni qayoqqa olib ketayotganini bilmasdi. Goh o'jarligi tutib qadamini tezlashtirar, goh bo'shshib to'xtab qolardi. U shu alfozda to kun tepaga kelguncha yurdi.

Oxiri oftob tig'iga tob berolmay to'xtadi. Bir tupgina yovvoyi jiyda soyasiga chalqancha tushib yotib oldi. U o'ylardi. Har qancha o'ylamasin, tepadan qizdirayotgan oftob miyasiga kelgan fikrni bug'ga aylantirib uchirib yuborayotgandek, tayinli bir fikrga kelolmasdi. U shuncha o'ylasa ham, orqaga qaytishni sira xayoliga keltirolmasdi. Axir, uydan chiqib ketgulik hech gap bo'lgani yo'q-ku! Erkak boshimni egib qaytib boramanmi, unaqada xotim bo'ynimga minib oladi, derdi. Har qancha bema'nilik bo'lsa-da, u erkaklik nomini sira pastga tushirgisi kelmasdi.

Tokaygacha qumda ag'anab yotish mumkin?

A'zamjon o'rnidan turdi. Qayoqqa bo'lsa ham bari bir borish kerak. Yana yurdi. Olisda sarobdek bo'lib daraxtlar ko'zga tashlandi. Endi uning qadami tezlasha boshladi. Biron soatlar chamasini yo'l yurgandan keyin, pastlikda ko'm-ko'k dala boshlandi. Sharillab otilib chiqayotgan artezian suviga boshini tutib yayradi. Mashina izi tushgan yo'ldan ozroq yurgandan keyin shinamgina qishloq boshlandi.

Qarshisidan velosiped minib kelayotgan bolani to'xtatib, qaysi qishloqligini so'radi. Shundagina u Quva yo'liga chiqqanini bildi. Endi oftob peshanasiga qadaldirdi.

Quva atrofidagi cho'lga tutash qishloqlar urushdan avvalroq obod bo'la boshlagan, bir tekis yangi imoratlar tusha boshlagan edi. Ochiq eshiklardan qip-qizil anor gullari ko'rinib turibdi. Ko'chani ikki beti azamat teraklar bilan o'ralgan. Ariqlarda suvlar shildirab oqib yotibdi.

A'zamjon shunday ko'chalarning birida qayoqqa borishini bilmay bitta-bitta qadam tashlab boradi. U qayerga borsa ham o'ziga bir boshpana topishga, nima ish qilsa ham bitta qornini to'ydira olishiga ishonadi. Ammo shu fe'li bilan borgan joyida tinib-tinchib ketishi mumkin-mumkinmasligini o'ylamasdi, Uni faqat bir narsa qiynardi: Chorakterakda ikki uyi bo'la turib ko'chada sanqib yurishiga sira chidamasdi.

Orqadan kelgan avtobus signal berib o'tib ketdi. Yuz-yuz ellik metrcha nariga borib to'xtadi. Undan bir qo'lida chamadonga o'xshash og'ir narsa, bir qo'lida chipta savat ko'targan xotin tushdi. Yuki og'irligidan xotin bir tarafga qiyshayib, qiynalib borardi. A'zamjon qancha sekin yurmasin unga zum o'tmay yetib oldi. Xotin yukini yerga qo'yib orqasiga qaradi. A'zamjonga ko'zi tushishi bilan qip-qizarib ketdi. U kecha cho'lda uchrashgan, ismini aytmay A'zamjonni dog'da qoldirib ketgan juvon edi. Ikkovi bir-birga tikilganicha turib qolishdi. Uzoq jimlikdan keyin A'zamjon tilga kirdi.

— Keling, ko'tarishib yuboray.

— Voy, nega? — dedi xotin nima deyishini bilmay.

To undan javob chiqquncha A'zamjon yukni qo'liga oldi. Boya uzoqdan chamadonga o'xshab ko'ringan narsa tikuv mashinasi edi.

— Qo'ying, qo'ying, bunisini o'zim ko'taraman, — dedi xotin savatga qo'l uzatarkan.

A'zamjon savatni ham oldi. Ikkovi indamay azim teraklar uzun-uzun beqasam soya tashlagan qishloq ko'chasidan bori-shardi. Na undan, na bundan sado chiqardi.

— Qo'lingiz tolib ketdi-ku, birpas yerga qo'ying, — dedi xotin.

Uning ovozi biram mayin, biram yoqimli ediki, A'zamjon qo'li tolganini ham unutki. Go'yo bu tovush unga kuch bag'ishlagandek edi.

A'zamjonning yigitlik qoni ko'pirdi. Ayolga ishqibozlik qilgisi keldi.

— Kecha sizni xafa qilib qo'ydim, uzr.

Xotin bu gapning ma'nosiga yetmay:

— Voy, nega, — dedi. Keyin gapining ma'nosiga tushunib qolib unga yalt etib qaradi. — Qo'lingiz tolib ketdi-ku!

A'zamjon charchaganligini sezdirmay oldinda egilmay, qiyshaymay adl borardi. Ayol uning orqasidan qomatiga, soldat furajkasi tagidan bulutdek toshib chiqqan jingalak sochlariga tikilardi. Shundoq yigitga yuk ko'tartirib borayotanidan xijolat bo'lib:

— Yaqin qoldik, — dedi sekingina.

Ikkovi ham kunning issiqligidan terga pishib ketishgan edi. Qarshilaridan kelayotgan yuk mashinasi aravaga yo'l beraman deb chetlab o'tayotgan edi, orqa g'ildiragi ariqqa shaloplab tushib ketdi. Ularning ikkoviga ham loy sachradi.

Ayolga-ku, hech narsa bo'lmadi, ammo A'zamjonning aft-basharasini bilib bo'lmasdi.

— Voy, meni deb loyga belandigiz, — dedi ayol xijolat bilan.

— Hechqisi yo'q, — deb yonidan ro'molcha olib bet-ko'zlarini arta boshladi.

— Yetib qoldik, hozir yetamiz, voy men o'lay, mengina o'lay.

Sal yurishgandan keyin, ayol yetdik, deb ko'chaning chap betidagi eshik oldida to'xtadi. A'zamjon yerga qo'ygan savat ichini titkilab kalit topdi.

U to eshikka kalit solib ochguncha, A'zamjon unga qarab turaverdi. Mana, hozir ular ajralishadi. A'zamjon uning kimligini, ismi nimaligini yana bilolmaydi. Boshqa iloj yo'q. Ajralishdan boshqa iloj yo'q.

— Xo'p, bo'lmasam, — dedi A'zamjon afsuslanish ohangida.

— Voy, nega, — dedi ayol. — Shu ahvolda-ya. Basharangizni qarang. Shu ahvolda, shu bashara bilan qayoqqa borasiz. Yuvinib oling.

A'zamjon dovdirab qoldi. Bu gapni kim aytdi. Shu ayol aytdimi yo qulog'iga shunaqa eshitildimi. Ayol serrayib turgan A'zamjonga kulib qaradi.

— Yuring!

A'zamjon yana yukni qo'liga oldi. Ayolga ergashib ichkariga kirdi.

Anorlar gullagan, shaftolilar ariq bo'ylariga to'kilgan bir chiroyli hovli. Gultojixo'rozlar yelpig'ichdek bo'lib oftobda yonadi. Gulzor chetidagi yashil so'ri ustidagi gilam oftob rangini ko'tarmasin degan niyatda bo'lsa kerak, buklab qo'yilgan. Hovli to'rida ikki uy, ayvon. Pastda yana chog'roq bir uy, dahliz.

A'zamjon yukni ayvonga qo'yib, qaddini rostladi.

— Birpas nafasingizni rostlab turing, hozir suv qilib beraman.

— Yo'q, ovora bo'lmang. Ariq bor ekan-ku.

— Ha, rostdan-a, — dedi xotin. Keyin uyga kirib ketib yangi sochiq bilan hali ustidagi qog'ozi ochilmagan sovun olib chiqdi-da, ariq bo'yiga qo'ydi.

— Bemalol yuvinavering, men qaramayman.

Ayol hovli etagidagi uychaga kirib ketdi.

A'zamjon ariq bo'yida nima qilishini bilmay andak serrayib turib qoldi. Keyin egnidagi kitelini yechib medallarini jaranglatib behi shoxiga ildi-da, ariqni ikki oyog'i orasiga olib suvni hovuchlab bo'yni, betlarini yuva boshladi.

Suv muzdek. Tanni yayratadi.

A'zamjon o'z qadrini biladigan yigitlardan edi. Qomati ko'z-ko'z qilsa arziydiganligini ham biladi. Shuning uchun ham hozir ayol kirib ketgan uydan meni tomosha qilayotibdi, deb o'ylab obdan yuvindi, shoshilmay artindi. Ho'l bo'lib ketgan jingalak sochlarini shoshilmay taradi. U kiyinib bo'lgandan keyingina ayol uydan chiqdi. Qo'lida katta patnis. Unda qand-qurs, shaftoli. Ayol yelkasidagi dasturxonni xontaxtaga yozib, ustiga patnis qo'ydi.

— Hozir choy qaynaydi.

Ayolning bu holatini tashqaridan ko'rgan kishi shundoq o'ylashi mumkin: «Yukini ko'tarishib kelganiga minnatdorchilik qilyapti. Urushdan kelgan qahramonga choy qo'yib beryapti».

Ammo A'zamjon boshqacha o'ylardi:

«Tayyor narsaga o'xshaydi. O'lib turgan ekan».

Ammo ayolning o'zi nima deb o'ylaydi, bu birgina uning o'ziga ma'lum edi. Har qalay, odamgarchilik ham ayol kishiga ko'p qimmatga tushadigan narsa.

U choy damlab A'zamjonni dasturxonga taklif qildi. Nima bo'layotganiga tushunolmagan A'zamjon sehrlangandek ayvon labiga kelib o'tirdi.

– Voy, durustroq o'tiring, – dedi u choy quyib uzatar ekan. – Hayron bo'lmang. Siz bu xotin kim, nega uyiga olib kirdi, deb o'ylamang.

Ayol fikrini to'plash uchun bir oz tek qolgandan keyin, yana tilga kirdi:

– Qani, ayting-chi, qayoqqa ketyapsiz?

A'zamjon nima deyishini bilmay yelka qisdi.

– Ko'rdingizmi, to'g'ri o'ylagan ekanman. Endi sizning kimligingizni men aytib beray. Siz frontdan qaytib keldingiz. Kelsangiz, uyingizda hech kim yo'q. Qarindosh-urug'laringiz yo tarqab ketishgan, yo... bilmadim. Har qalay, siz ularni topolmadingiz. Endi butun Farg'ona qishloqlarini kezib urug'laringizni qidiraysiz. To'g'rimi?

A'zamjon indamadi. Ayol chuqur uh tortib o'ylanib qoldi. Uning zulukdek qoshlari chimirildi. Bir boqishda yigitlar qalbining eng teran joylariga borib qadaladigan ko'zlari o'ychan bo'lib qoldi. Nimpushti lablari bilinar-bilinmas titradi.

– O, bu urush kimlarning uyida aza ochmadi.

Quyuq kipriklar nam tortib, bir-biriga juftlashdi.

– Shu urush bo'lmaganda siz sarson-sargardon bo'larmidingiz?! Men qora kiyarmidim?!

A'zamjon oradagi begonalik sal nari ketgandek dadillashdi.

– Meni kechiring. Bir-birimizni tanimaymiz. Kecha sizga xiralik qildim. Agar shu qilmishimni kechirsangiz, kimligimni aytaman.

Ayol tasdiq ishorasini qildi. A'zam gap boshladi.

– Kimligimni bilaman dedingiz, topolmadingiz. Men siz o'ylagancha urush urug'larini har yoqqa sochgan sargardon odammasman. Uyim, joyim, dadam, opam, xotinim, bolam bor. Asli omadi kelmagan yigit ekanman. Frontdan kelib ota uyiga sig'madim. Sevgan xotinim ukamga o'ynash bo'ldi. Mana, men bosh suqadigan kovak topolmay sarson bo'lib yuribman. Erkak kishi qayerga borsa, sig'adi. Shuning uchun ham o'z taqdirimdan xavotir olmayman.

Ayol labini tishlaganicha qimirlamay o'tirardi.

– Ayting, o'zingiz kimsiz? Begona erkakni uyingizga olib kirgani qo'shnilaringizdan andisha qilmaysizmi?

— Begona erkak, — deb pichirladi ayol. — Andisha qilishga arziydigan nima ish qildim. Begona erkak ko'rpamga oyoq qo'ygani yo'q-ku. Axir men ham ro'zg'or ko'rgan edim. Erim bor edi. Uch yil yo'liga ko'z tikdim. Kelmadi. Bir yil bo'ldi aza ochganimga.

Ayol goh mijjasidan yosh o'rmalab, goh o'yg'a tolib gapirardi.

— Hech kimi yo'q, yetim qiz edim. Urush boshlangan kezlari o'n oltiga kirgan edim. Bilmadim, sal ko'zga yaqin bo'lganimdanmi atrofimda o'ralashadiganlar ko'payib qoldi. O'zim tarbiyalangan bolalar uyida ishda qolgan edim, mudirimiz kechalari yotog'imga kirib uzoq o'tiradigan, har xil sovg'alar olib keladigan bo'lib qoldi. Men buni sira istamasdim. Bir kun kayf bilan kirib xiralik qila boshladi. Men bolalar orasiga qochib chiqib ketdim. Oradan uch-to'rt kun o'tib meni ishdan bo'shatib yubordi. Maorif mudiriga arz qilsam, allaqachon meni badnom qilib qo'ygan ekan, gapimni inobatga olishmadi. Qayoqqa boraman, qoralangan mehnat daftarchasi bilan meni kim ishga oladi. Qiyinalib qoldim. Ammo buzuqlik qilmadim. Zarkentda uzoq bir qarindoshimiz bo'lguvchi edi, yo'qlab keldim. Avvaliga kelishim ularga yoqmadi. Urush, qiyinchilik, ortiqcha nonxo'rni kim ham chiqishtirardi. Xolavachchamning o'ziga to'q, toparmon-tutarmon o'g'li bor edi, menga elakishib qoldi. O'gay singlisiga uylantirmoqchi bo'lib to'y tadorigini ko'rib qo'yishgan ekan. Uylanmayman, deb turib oldi. Uylansam Mahbubaga uylanaman, bo'lmasa frontga ariza berib ketaman, deb ikki oyog'ini bir etikka tiqib turib oldi. Bunga otasi ham, onasi ham ko'nishmadi.

O'shanda men selsovetda sekretar edim. Idorada o'tirsam Kozimjon kirib keldi. U mast edi. O'tirib olib xo'p yig'ladi. Keyin yonidan bir qog'oz olib stolga tashladi. Qarasam, harbiy komissariatdan chaqiriq qog'ozi.

Kozimjon uch kun oldin ariza bergan ekan. Arizasini komissariat inobatga olibdi. Yuragim allanechuk bo'lib ketdi. Men uchun shunday qilgan. Agar men shumqadam bu dargohga kelmaganimda u bunday qilmasdi. To'y bo'lardi. Tinch yashardi. Demak, u meni astoydil yaxshi ko'rgan...

O'sha kuni kechqurun ikkalamiz uchrashdik. O'rikzorlarda, ishkomlar orasida tong ottirdik. Ertasiga, indiniga, qatorasiga uch oqshomni birga o'tkazdik.

Rayimberdi tog'am bosh bo'lib kichkinagina to'ycha qilib berdilar. To'ydan to'rt kun o'tib erimni kuzatdik. Shu ketganicha undan atigi ikki marta xat oldim. Uchinchisi qoraxat edi.

Bir yildan oshdi aza ochganimga. Kecha Zarkentga borib yil oshi berdim. Kecha egnimda qora ko'ylak edi. Bugun oq kiydim. Mana men ko'rgan ro'zg'or, mana men ko'rgan oila.

A'zamjonni xayol olib ketdi. Bordi-yu, u ham jangda halok bo'lganda Dildor ham shunday qilarmidi? Dildor busiz ham ne mashaqqatlarda yashaganini u sira tan olgisi kelmasdi. Hozir unga begona ayolning dardi o'z xotining baxtidan shirin edi.

Xotin xotiralar og'ushidan chiqolmay, ancha paytgacha iyagiga qo'lini tirab o'tirdi-da, xijolatlik bilan iljaydi.

– Siz nima g'amda yuribsiz-ku, men o'z dardimni ustizga ortyapman-a. Qo'ying, o'tgan o'tdi, ketgan ketdi. Endi nima qilasiz, qayoqqa borasiz?

A'zamjon yelkasini qisdi, keyin sekingina, o'lmasman, deb qo'ydi.

– Xotiningizning oldiga qaytmaysizmi?

A'zamjon bunday savolni kutmagan edi. Nima deyishini bilmay unga baqrayib qarab qoldi. Boya «xotim ukamga o'ynash bo'ldi» demaganida ham mayli edi. Endi shunga yarasha javob qilishi kerak.

– Yo'q, bormayman. Uzil-kesil orani ochiq qilib keldim.

Xotin mehribonchilik bilan dedi:

– Mayli, baxtingizni sinab ko'ring. Bu kunlar ham o'tib ketadi. Biron yorug' kun bordir, axir.

Uning bu gapi endi ketaver, ma'nosini anglatardi. A'zamjon o'rnidan turdi. Ketayotganda eshik oldigacha kelgan xotin nima-dir demoqchi bo'lib og'zini juftladi-yu, aytmadi. A'zamjon shart o'girilib uning beliga qo'l tashlab o'ziga qaratdi.

– Voy, jinni bo'lmang, jinni bo'lmang...

Xotin ovozinu baland chiqazishga qo'ni-qo'shnilardan andisha qilardi.

– Voy, sizga nima bo'ldi, nima bo'ldi?

A'zamjon hansirar, tomog'idan, yuzlaridan, lablaridan tinmay o'pard...

Ertalab A'zamjon ko'zini ochganda yonida yotgan Mahbubaning ilondek uzun qora sochlari yostiqdanda pastga osilib yotardi. A'zamjon bir-biriga jiplashgan kipriklarga tikilib qoldi.

Uning ko'zi stul suyanchig'iga ilingan kiteliga, shimiga tushdi. Qachon yuvib, qachon dazmol qilganikin, deb dilidan o'tkazdi. U juftlik baxti, oila, ro'zg'or, onalik tashnasi bo'lgan ayol kishining nimalarga qodir ekanligini hali bilmadi.

Dildor Asrora bilan traktorhiga qarashib yurib uncha-muncha yurgizishni bilib olgan edi. Uning bu qiziqishini bilgan mexanik dalada ba'zan uni traktorga o'tqazib qo'yib, past-baland yerdan o'tayotganda silkinishiga ishqiboz edi. Balog'atga yetgan qizning aravada silkinib o'tirishidan qay yigit zavqlanmagan. Butun gavdasi silkinadi, ko'ksi dirkillaydi. Mexanik ba'zan ruldagi Dildorning yoniga o'tirib qo'liga qo'lini bexosdan tegizib qo'yar, undoq emas, pedalni bundoq bosadi, deb sonini nari-beri surardi. Gohida ko'zi tinib uning orqasidan qo'lini o'tqazib richagni tortardi.

Dildor uning bu qiliqlarini payqamas, e'tibor ham bermasdi.

Shunday qilib yurib Dildor traktorni binoyidek yurgizadigan bo'lib olgan edi. Qishloq qizlari orasida eng ko'hligi bo'lganidan o'ziga zeb berib ko'pchilik o'rtasida traktorga yaqin kelmasdi. Ayniqsa, o'zi serjahl bo'lishiga qaramay, Asrora uni erkalatib qo'ygandi. Uning nozikligi, ko'hlikligi hurmati ayab yengil-yelpi ishlarni buyurardi.

Endi Dildor o'zining ko'hlikligini ham, nozikligini ham unutdi. Hozir erigami, taqdirigami zarda qilib eng shimarib maydonga chiqdi. Uni bu yerda hech kim erkalamaydi. Yig'lasa yupatmaydi. Yiqilsa turg'izib qo'ymaydi. Dildor uchun kurashish, tirishish, ko'z yoshini birovga ko'rsatmaslik kerak edi. U shunday qilishga bel bog'ladi.

Dildor garajdan traktorni minib chiqqanda bunchalik chaqqon hayday olishini o'ylamagan edi. Ayol kishining traktor minib kelayotganiga hayrat bilan qarab qolgan kishilarning ko'zlari, holatlari unga kuch, zavq, ishonch bag'ishlardi. Qo'llari o'zidan-o'zi kerakli murvatlarga borib qolar, oyoqlari ham o'zidan-o'zi pedallarga tegardi.

Dildor guzarga chorterakliklar to'planishib turgan choyxona oldiga kelganda motorni o'chirib, chaqqonlik bilan pastga sakradi.

— Balli, ona qizim, — dedi Melivoy aka zavqlanib. — Mana, bitta chavandoz uloqqa kirdi.

Melivoy aka zavqlanganidan Dildorning yelkasiga qoqar, voy ona qizim-ey, voy otang joningdan, deb iljayardi.

Bu taraflarda hali biron ayol traktor minmagan, minishi mumkinligini o'ylab ham ko'rmagan edi. Shuning uchun ham Dildorning rulga o'tirishi hammani hayratga solgan edi.

Melivoy aka hammani o'rnidan turg'izib samovarchi oldida hassasiga tayanib o'tirgan cholni yetaklab keldi. Cholning ko'zi ko'rmas edi. Melivoy aka ayol kishi traktor minganini, yangi kelganlar dalaga otlanayotganini aytdi.

– Qani, otaxon, bir fотиha bering!

Chol hassasini oyoqlari orasiga olib qo'lini fotihaga ochdi.

– Bolalarim, xush kelibsizlar Yozyovonga. Shu yerda o'singlar, o'z'laringdan ko'payinglar. Yozyovon tuprog'ida gap ko'p. Timdalagan odam rizqini topadi. Shu joyda to'ylar qilinglar. Tuproq olsanglar oltin bo'lsin, omin!

Chol ikki qo'lini yuziga surtdi.

– Qani, qizim, – dedi Melivoy aka. – Traktoringga min. Boshla!

Dildor ajib bir chaqqonlik bilan egarga sakradi. Motor guril-lab odamlarning shovqinini bosib ketdi. Oldinda Dildor boshidagi durrani cho'l shamolida yelpitib borar, orqada ellik chog'li ketmon ko'targan yigit ergashardi. Shu topda bu tantanali yurishda A'zamjonning yo'qligi hech kimga bilinmasdi. Hatto Dildor ham uni o'ylamasdi...

Tizza bo'yi bo'lib qolgan g'o'zalar qarovsizlikdan o't bosib ketgan, ba'zi joylardan odam bo'yi qamish o'sib chiqqan edi.

Bu g'o'zalarga bir qaragan odam, essiz shuncha mehnat, es-siz shundoq yer, deb yuborishi aniq edi.

Erta bahorda traktor bilan chigit qadalganu nari-beri yagana qilinganicha qolib ketgan.

– Mana, ko'rdingmi, o'g'lim, – dedi Melivoy aka Xolmatjonga. – Bechora g'o'zalar sizlarga intizor bo'lib qaqrab yotibdi. Bu yog'i sizlarga. Shuni rosmana g'o'za qilib berasizlar. Odamimiz yo'q edi. Sizlarni qachondan beri kutayotgan edik. Mana dala, mana traktor, mana suv, mana o'g'it. Ish boshlanglar, ukajonlarim.

Xolmatjon suvsizlikdan qorayib ketgan bir tup niholni sug'urib olmoqchi edi, ildizi bilan chiqmay bo'g'zidan uzildi.

– Yer qotib ketibdi. Ildizni siqib tashlabdi. Uvol, uvol-e, jonvorlar.

Maslahat bilan chopiqdan oldin yerni yumshatish uchun bir marta yengilgina sug'orishga qaror qilishdi.

– Siz, qizim, narigi qartadan tushavering, uch-to'rt kun bo'lgan sug'organimizga. Ayni ob-tobiga kelib turibdi.

Dildor bu mehribon, otasidek muloyim kishiga allaqanday mehr bilan boqdi-da, xo'p bo'ladi dedi-yu, haligacha motori

o'chmay patillab turgan traktoriga o'tirib mashina izi tushgan yo'ldan rais ko'rsatgan qartaga qarab ketdi.

Oftob qizdirgandan qizdirib turibdi. U yer boshiga kelganda ko'tarib qo'yilgan kultivator tishini tushirib bir chekkadan qartaga kirdi.

Ishqilib, sharmanda bo'lmay-da, deb o'ylardi u. Axir shu paytgacha traktor mingan bo'lsam ishqibozlikka, havasga minganman.

To'g'ri, u g'o'za kultivatsiyasida ham traktor mingan. Unda mexanik yigit yonida bo'lardi. Yonida husni oydek bir qiz bo'lganiga qiziqib erinmay o'rgatar, to Dildor bo'ldi demaguncha, yonidan tushmasdi. Bilagi bilagiga tegib ketganiga mast edi.

Mexanik Asrorani xush ko'rmas edi. U bo'lar-bo'lmasga shang'illayverar, uning ustiga Asrora chiroyli emas, yonida erkak odam o'tirganga o'xshayverardi. Ozroq yurishgandan keyin, bo'ldi, deb uni tushirib yuborardi. Ammo Dildorga gal kelganda judayam muloyim bo'lib ketar, qancha xohlasa, shuncha qo'yib berardi.

Mexanikning Dildorga muloyim gapirishi, unga ko'proq o'rgatishi alam qilgan Asrora ulardan qasdini oldi. Bir gapi bilan Dildor traktorga yo'lamay qo'ydi. Asrora qizlarga shunday debdi: «Chapayev» kinosini ko'rganmisizlar, Natasha degan qizga pulemyot o'rgataman deb Misha degan yigit manavuni schyotchik deydi, deb uning ko'kragiga chang soladi. Bu mexanik o'lgur ham Dildorga schyotchikni o'rgatayotgan bo'lmasin».

Ana shundan keyin orqavoratdan mexanikni Misha, Dildorni Natasha deydigan bo'lishdi.

Hozir Dildorning bir o'zi. Ishqilib, biron joyi buzilib qolmasin-da. Umrda biron murvatni buraganmas, qo'liga moy yuqtirmagan...

Paykalda o'ttiz-qirq qadamcha yurgandan keyin orqasiga qaradi. Qaradi-yu, qo'rqqanidan rangi qum oqarib ketdi.

Kultivatorning tishi ariqqa emas, jo'yakka tushgan ekan. Uch qator g'o'zani ildiz-pildizi bilan o'ttiz metrgacha qo'porib tashlabdi.

Shoshilib kultivatorni ariqqa solgunicha yana allaqancha g'o'zani qo'porib qo'ydi. Endi uning qo'li qaltirar, rul go'yo sovun surtilgandek qo'lidan sirpanib chiqib ketardi.

Birdan ko'ziga A'zamjon ko'rinib ketdi. U, senga kim qo'yibdi traktor haydashni, degandek xunuk iljayyapti. Dildor jahl

bilan yana rulga yopishdi. Kuchining boricha ushlab oldinga surdi. Kultivator tishi ariqda ilon izidek chuqurcha o'yib borardi.

Shu alfozda ancha joygacha goh undoq, goh bundoq bo'lib yetib keldi-yu, o'zini o'ngladi. Yana oldinga ketdi. Yana o'sha ahvol. To yarim yo'lga yetguncha orqada qo'porilgan g'o'zalar shalpayib qolgan edi.

Dildor yerga tushib, xarob bo'lgan g'o'zalar tepasiga keldi. Bir traktorga, bir g'o'zalarga qarab ko'zidan yosh chiqib ketdi. Yerga o'tirib olib ovoz chiqarmay, piqillab yig'lay boshladi. Unga jilovini bergisi kelmagan o'jar traktor qarta o'rtasida patilab turibdi. Dildor bo'lsa hamon piqillab yig'laydi.

Kimdir yelkasiga qo'lini tegizdi. Dildor qo'rqib bosh ko'targanda qo'lida bir dasta so'ligan g'o'za ushlab turgan Melivoy akani ko'rdi. Undan sal narida Xolmatjon hayronlikdan qimir-lamay turibdi.

Dildor raisning ko'ziga qarayolmay o'rnidan turdi.

Durrasining uchi bilan ko'z yoshlarini artib oldi-da, engashib churq etmay turaverdi.

— Bu qanaqasi bo'ldi, qizim? — dedi Melivoy aka. — Axir, shuncha g'o'za...

Dildor nima deyishini bilmay hamon sukut saqladi.

— Hech kultivatsiya qilmaganmiding?

— Qilganman, — dedi Dildor bo'shashib.

— Undoq bo'lsa nechukkim bu...

Melivoy aka gapining bu yog'ini aytmadi, yur baqqa, deganicha traktor tarafga uni boshladi.

— Qani, chiq!

Melivoy aka sakrab traktorga chiqdi-da, yonidan Dildorga joy ko'rsatdi.

— Qara, yaxshilab qarab tur. Mana!

Traktor joyidan qo'zg'aldi. Dildor bir Melivoy akaning rul ushlashiga, bir orqasiga qarab nihollar tagini timdalab borayotgan kultivator tishiga qarardi. Traktor chayqalmas, tishlari jazvar bilan chiziq tortgandek bir tekis o'yib borardi.

— Traktorni joyidan qo'zg'otganingda oyoq ostiga qarama. Velosiped minganmisan?

— Yo'q, — deb boshini chayqadi Dildor.

— Mingan bo'lsang bilarding. Velosiped mingan odam oyoq tagiga qarasa o'sha zahoti yiqiladi. To'rt-besh metr oldinga qarash kerak. Shunda tekis yuradi. Mana, ko'rdingmi, men hu

anavi qamish o'sgan joyini mo'ljalga olib ketyapman. Ko'ryap-sanmi?

Melivoy aka joyini Dildorga berib o'zi uning o'rniga o'tirdi.

– Mo'ljalni to'g'ri ol. Bir joyga qara. Ko'zingni chalg'itma.

Darhaqiqat, Dildor shuni bilmas ekan. Unga traktor o'rgatgan mexanikning xayoli Dildorda bo'lib bunaqasini aytishni unutgan ekan.

Traktor bir maqomda silkinib tikka borardi.

– Ha, balli. Orqangga qarama. Old tarafni to'g'ri mo'ljalga olsang, bu yog'i to'g'ri chiqaveradi. Tishni necha santimetr qo'yding?

– Yigirma besh shekilli.

– Buning to'g'ri. Yigirma beshdan ortiq chuqur olib bo'lmaydi. Ildiz hali yuzada.

Rais yurib ketayotgan traktordan sakrab tushdi-da, Dildor to'paykal boshidan aylanib kelguncha boya u payhon qilgan g'o'zalarni bir quchoq qilib terib oldi. Unga ko'zi tushgan Dildorning yuragini vahima bosdi. Hozir oborib, mana, hamqishlog'ingizning qilgani, deb ko'rsatadi. Sharmanda qiladi meni.

Rais chetga chiqib brezent etigidagi changlarni depsib tushirdi-da, Xolmatjonni boshlab narigi qartaga o'tib ketdi.

Dildorning ko'ngli buzildi. Boya samovar oldidagi shon-shuh-rat qayoqda-yu, kechqurun bo'ladigan gap qayoqda. Albatta, uning qilmishi doston bo'ladi. Ayol kishiga traktor minishni kim qo'ygan edi, deyishadi. Albatta, deyishadi.

Dildorning o'jarligi tutdi. Yo'q, mayli, aytishsin, bari bir bir kun o'zlari qizarib qolishadi. Novvoy ham birinchi tandirni kuydiradi, oshpaz birinchi oshni tagiga oldiradi, chevar birinchi ko'ylakni yo tor, yo keng qilib qo'yadi. Shunday qilib usta bo'ladi. Ha, boshqalar onasining qornidan traktorchi bo'lib tushishiptimi? Hali qarab turishsin. Raisni men durust odam desam, sharmanda qilmoqchi-ya!

Shunday xayollar bilan Dildor ishini qilaverdi. Ikki o'qariqni aylanib kelgandan keyin pastga tushib qilgan ishini ko'rdi. Bino-yidek. Bitta-yarimta yiqilgan niholni hisobga olmasa, ishi silliq ketyapti. Ana shundan keyingina Dildorning chehrasi ochildi. «Boqsa odam bo'lasan», dedi yo'g'on ovoz bilan. Asrora ko'pincha unga shunaqa derdi.

Hozir u Asrorani o'ylab ketdi. Qani endi kelib ko'rsa. Am-manning buzog'isan, erka toyloqsan, birov yetaklamasa yurol-maydigan ko'rsan, deydigan Asrora qani? Kelib ko'rsin!

Dildoringni bir ko‘rib qo‘y, Asrora. Bir o‘zi cho‘lning qoq o‘rtasida cho‘l qushlarini har tarafga to‘zitib gurillatib traktor haydayapti. Sizlarga ishonib erkalanardi.

Tushlikka jom chalinganda Dildor allaqancha joyni kultivatsiya qilib bo‘lgan edi. U paykal oxiriga kelib motorni o‘chirdida, boya payhon qilgan o‘qariq oldiga kelib so‘lib qolgan g‘o‘zalarni topolmadi.

Rais hammasini, bitta qo‘ymay olib ketgan edi. Endi nima bo‘ladi. Hozir tushlik paytida hamqishloqlaring oldida uni izza qiladi.

Dildorning qorni ochgan edi. Tushlikka qandoq boradi. Qay yuz bilan boradi.

Dildor tushlikka bormay shu yerning o‘zida damini oladigan bo‘ldi. O‘tirib dam olay desa, tangadek soya yo‘q. Tepadan oftob urib turibdi. U traktor soyasiga borib chalqancha yotib oldi. Betinim ishlaganidan issiqlab terlagan edi. Hozir ko‘kka boqib yotar ekan, ho‘l bo‘lib ketgan oq batist ko‘ylagi tanasiga yopishgan edi. Ichki kiyim rasm bo‘lmagan qishloq qizlarining har xil tasmalardan xoli bo‘lgan badani oq batist ko‘ylak ichida ajib bir latofat bilan to‘lg‘anardi. Har nafas olganda qalqigan ko‘kraklaridan yoshlik, go‘zallik nafasoti barq urib turardi.

Shu to‘lg‘anib turgan, yoshlik latofati barq urib turgan vujud hozir qizib ketgan traktorning nim soyasida, ajriqda yotar, qani endi qaynoqqina bir kosa sho‘rva bo‘lsa, deb lablarini yalardi. Narigi qartadan:

– Dil-doo-or! – degan tovush keldi.

Dildor boshini ko‘tarmadi. Yonginasida bitta qiyoyoq o‘tni yulib olib yotgan joyida so‘ra boshladi.

Oftob og‘ib qolgan, tiniq, so‘ngsiz beg‘ubor osmonda burgut yangi uchishga o‘rgangan bolasining goh oldiga, goh orqasiga o‘tib uchardi.

– Dil-doo-or! Ovqatga-a-aa!

XV

Dildorning oyoq-qo‘li qaqshab og‘rirdi. Soyabonsiz traktorda kuni bilan quyosh tig‘ida ishlaganidan, tushlikka chiqmay och-nahor qolganidan sillasi qurigan edi. Boshiga yostiqlik ham qo‘ymay, ayvonda sholcha ustida to‘lg‘anib yotibdi.

Bola ovqatsiz qoldi.

Oʻrnidan turib unga biron nima pishirib berishga unda mador yoʻq. Qani endi Aʼzamjon boʻlsa-yu, bir piyolagina issiq choyni uning ogʻziga tutsa.

Ona oyoq-qoʻli kesib tashlangan boʻlsa ham sudralib borib iyagi bilan gugurt chaqadi, iyagi bilan oʻt qalab bolasiga ovqat pishiradi. Dildor butun aʼzoyi badani qaqshab ogʻrishiga qaramay oʻrnidan turdi. Payraha qalab oʻchoqqa oʻt yoqdi. Lip-lip yonayotgan oʻtga qarab oʻtirarkan, Aʼzamjonni oʻylardi. Qayoqlarda yurgan ekan u daydi? Aʼzamjon boʻlmaganda Dildor bu taraflarga kelarmidi? Zarda, oʻjarlik ham evi bilan-da!

Eri frontdan qaytgandan beri u notinch. Ilgarilari erim kelar, bu koʻrgan kunlarim tushdek boʻlib qolar, deb oʻzini ovutar, Risolat bilan Inoyat oqsoqolning zugʻumlarini erimning bitta yupatishi esimdan chiqazib yuborar, deb oʻylardi. Qaytaga eri kelib uning tinchi buzildi. Har kuni bir dilsiyohlik, har kuni bir xarxasha.

Dildor qishloqdan ketib choʻlda oʻrnashib olsak, qulogʻim tinchir deb oʻzini oʻzi yupatdi. Goʻyo Dildor erining orqasidan kelmagan-u, eri uning orqasidan ergashib kelgandek.

Chiqdi, ketdi. Yot yerga, shamollar gʻuvillagan choʻl oʻrtasiga tashladi, ketdi. Shu qilmishini kechirib boʻladimi? Yaxshi er shunday qiladimi?

Chirsillab yonayotgan oʻtga tikilib Dildor mana shularni oʻylardi. Lekin bolada nima gunoh. Tili chiqqandan beri dada deb xarxasha qilgan bola har kuni boʻlayotgan janjaldan bir onasiga, bir dadasiga qarab javdiraydi. Bolaga oʻxshab shoʻxligi ham yoʻq. Bola boʻla turib kattalardek oʻy suradigan boʻlib qolyapti.

Dildor nimasi bilandir qishloq ahlining mehrini olgandi. Uni yolgʻiz dadasigina emas, butun qishloq erkalar, hech kim unga qattiq gapirmasdi. Faqat Asroragina uni jerkib tashlashga, turtkilashga botinardi. Shuning uchun ham u biron marta ogʻir ish qilmagan, qilsa ham qoʻl uchida qilardi. Bugun birinchi marta terga pishib ishladi. Bugun birinchi marta dala mehnatining mashaqqatini sezdi.

Har bir qiyin ish to unga duch kelmaguncha qiyin. Odam bolasi qiyinchilikka duch kelgandagina oʻzida uni yengishga jurʼat sezadi, uni yengib boʻlgandan keyingina oʻz kuchiga oʻzi baho beradi. Bugun Dildor oʻzining kimligini bildi. Dildor eri toʻgʻrisida oʻylaganda, oʻzi shunaqa oʻjar, qaysar, ammo meni oʻlarcha sevadi, har qanaqa boʻlganda ham meni tashlab ketmaydi, deb oʻylardi. U oʻzining shu fikrida qatʼiy edi.

Dildor o'ylamagan, o'ylab tushiga ham kirmagan ikki qi-yinchilikka ro'baro' keldi. Umrda qilmagan og'ir ishga kirishdi. Butun umidini, umrini bag'ishlagan eri tashlab ketdi.

Qo'shni hovlilarda chiroq yonib odamlarning gangir-gungur ovozlari kelyapti. Kimdir plastinka qo'ydi. Og'ir, yurakni ezuvchi kuy shamollar qanotida u yoqdan-bu yoqqa suzib yuribdi.

Kimdir yangi uyni «yuvyapti». Shirakayf tovushlar, qiyqiriq, kulgi ovozlari eshitilyapti. Birgina Dildorlar uyi jimjit. Ayvon chirog'i ham yoqilmagan. Faqat o'choqda lovillab yonayotgan o'tning shamolda silkingan tili devor, ayvon shiftini lip-lip yoritadi. Bola allaqachon uxlab qolgan.

Dildor mashaqqat bilan o'rnidan turib ayvon ustunida-gi elektr kalitini buradi. G'am-alamlarni bosib yotgan tun qorong'isini quvib birdan atrof yorishib ketdi. Dildor ovqat suzib kelib bolasini uyg'otdi.

– Tur, tur, Azimjon, tura qol.

Bola talmovsirab ko'zini ochdi.

– Ovqatingni yeb olgin. Mana, shirin ovqat pishirib keldim.

Bola o'tirgan joyida mudrar, ko'zlari yumilib ketardi. Dildor uni ming nom bilan erkalab og'ziga ovqat solardi.

– Ertaga dalaga opchiqaman, traktorga mindirib o'ynataman, qo'zim, o'zing polvon bolasan-ku, yana bitta qoshiq yegin. Ertak aytib turaman, sen yeb turgin.

Bola hamon mudrar, nima eyayotganini bilmasdi.

– Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir ayyor tulki bor ekan. O'sha tulkini-chi, uzun dumi bor ekan. O'sha ayyor tulki... yana bir qoshiq yegin, ha, barakalla. Ayyor tulki inidan chiqib oftobda o'tirsa, tepasidagi daraxtga bitta olaqarg'a qo'nibdi. Olaver, olaver, yutvorgin. Yutvor. Og'zingda olib o'tirma-da? Yana uxlayapsan-a?

Azimjon og'zidagi ovqat bilan uxlab qoldi. Dildor yuragi ezilib uni yechintirdi-da, o'rniga yotqizib tikilganча qimirlamay o'tirdi. Endi uning ham ishtahasi bo'g'ilgan, qozondagi ovqat tagidagi cho'g'i so'nib, allaqachon sovib qolgan edi.

Bugungi ko'rgan, kechirgan qi-yinchiliklari ham bir bo'ldi-yu, bolasining ovqatsiz uxlab qolgani ham bir bo'ldi. Unga tikilib o'tirarkan, ichidan allaqanday o't otilib chiqib bo'g'zini kuydirdi. Dard-alam bilan xo'rsindi. Ko'ksi bir-ikki qalqidi-yu, ko'zidan yum-yum yosh dumalayverdi.

Yo'lakdan oyoq tovushi keldi. Bu gurs-gurs tovush bir dam to'xtab erkak kishining yo'talgani eshitildi. Odatda, ayol kishi

bor uyga erkak kiradigan bo'lsa, shunday qiladi. Kim biladi, ayol kishi qay ahvolda bo'lsaykin, erkak oldida xijolatlik bo'lmasin, deb atayin yo'taladi.

Dildor shoshib o'rnidan turdi-yu, ko'zlarini artib ko'tarilib qolgan etagini tushirdi, yoqa tugmalarini soldi.

Xolmatjon kirdi.

Dildor Xolmatjonnikiga u frontdan kelgan kunining ertasiga kirgandi. O'shanda negadir u qip-qizarib, turgan yerida qimirlamay qolgandi.

Xolmatjonning aka-ukasi yo'q. Birgina kampir buvisi bor edi. Xolmatjon kelishi bilanoq buvisiga ta'ziya ochdi. O'zi qopda somon orqalab borib onasining, buvisining qabrini suvab keldi, yurtga osh berdi.

Dildor uni ko'cha betida ko'rganicha boshqa ko'rmagan edi. Ertalab eri unga qattiq gapirdi. A'zamjonning qilig'iga yarasha yaxshilab javob qilishi mumkin edi, Xolmatjon og'irlik qildi.

Bugun dalada Dildor kultivatsiya qilayotgan joyga borgan-da nimadir demoqchi bo'lib og'iz juftladi-yu, aytolmadi. Dildor g'o'zalarni payhon qilgani uchun raisning ancha ta'bi olingan, uning oldida boshqa gap aytish o'ng'aysiz bo'lgan edi. Shuning uchun ham Xolmatjon og'iz ochmagandi. Mana, endi o'zi keldi. Raisning nima deganini aytadi. O'lganning ustiga tepgan qilib raisning achchiq gaplarini unga yetqazadi.

— Singlim, — dedi Xolmatjon, yolg'iz ayolning oldiga kelishga botinolmay. — Tushlikka kelmadingiz?

Xolmatjonning aytadigan gapi bu emasligini Dildor sezdi. U hozir boshqa gap aytadi. Bu daromadi. Avji keyin chiqadi.

— O'tiring, Xolmatjon aka, — dedi Dildor ayvon dahaniga yakandoz yozar ekan. — Meni koyigani keldingiz, bilaman.

— Yo'g'-e, unchalik emas. Shunchaki bir xabar olib qo'yay devdim.

— Rais buva payhon bo'lgan g'o'zalarni hammaga ko'rsatib rosa doston qilgan bo'lsalar kerak-a?

Ertalabki voqea esida yo'qdek, Xolmatjon ko'zlarini shiftga qadab, ostki labini so'rib andak turgandan keyin kuldi.

— U kishidan bekorga tashvish qilibsiz, Dildor. Rais yaxshi odam ekan. Siz payhon qilgan nihollarni birov ko'rmasin, deb kanalga tashlab yubordilar.

Dildor beixtiyor: «Men o'lay, mengina o'lay, qo'rqib yurgan edim-a!» — deb yuborganini bilmay qoldi.

– To‘g‘ri, avvaliga rosa jahllari chiqdi. Keyin bilmadim, darrov jahldan tushdilar. Muni qarang-a, traktorni ham o‘rganib olgan ekansiz.

– Qayoqda, o‘rganganim shumi? Sharmanda bo‘ldim-ku.

– Asta-asta-da. Sizdan, ko‘rarsiz, yaxshi traktorchi chiqadi, lekin bir o‘zingizga qiyinlik qiladi. Rais bilan gaplashdim. Sizga bitta yordamchi beradi.

Dildor o‘ylanib qoldi. Yordamchi, albatta, erkak odam bo‘ladi. Dala-toshda yolg‘iz-yashin qolganda, kim biladi, odamlarning ko‘ngliga nima gap keladi. A‘zamjon nima deydi? Shundog‘am sal narsaga ro‘zg‘orga achchiq tashlayapti.

– Kimni bermoqchisizlar?

– Bunisini rais hali aytganlari yo‘q.

– Agar erkak odam bo‘lsa, keragi yo‘q.

Xolmatjon bu to‘g‘rida boshqa gap aytmadi. Baribir boya aytmoqchi bo‘lgan gapi bu emasligi bilinib turardi.

– A‘zam kelmadimi?

Uning aytmoqchi bo‘lgan gapi shu edi.

Dildor indamay yerga qaradi. Xolmatjon ham indamay turib qoldi. Oxiri tilga kirdi:

– Bu tomonga endi transport kelmaydi. Bemahal bo‘lib qoldi. A‘zam keladigan bo‘lsa shu paytgacha kelardi. Yolg‘iz yotasizmi, a?

Dildor shu gapni o‘ylamagan ekan. Darhaqiqat, ko‘nikmagan joyda bir o‘zi qandoq yotadi. Go‘yo Xolmatjon, men shu yerda qolaman, deyayotgandek shoshib javob qildi:

– Nima bo‘lardi, meni bo‘ri yermidi, – deb yubordi.

– Bo‘ri-ku emaydi-ya, ayol kishining yolg‘iz qolishi qandoq bo‘larkin. Shuni o‘ylab xabar olgani kelgandim. Ko‘nglingizga kelmasin-u, men A‘zamni yaxshi bilaman. U birovga bo‘yin berishni yomon ko‘radi. Gunohni u qilgan bo‘lsa ham, baribir undan uzr so‘rashlarini yaxshi ko‘radi. Menimcha, u o‘z holicha qaytib kelmaydi. Olib kelish kerak. Bu yog‘ini o‘zingiz bilasiz. Qayoqqa ketganini sizga aytmadimi? Qishloqqa-ku bormas. Borishga bet kerak.

Dildor yelkasini qisdi.

– Hay, mayli, – dedi Xolmatjon o‘rmidan turarkan. – Yolg‘iz yotmang, hozir borib Malika ayani yuboraman. Birga yotinglar.

Dildor unga bir nima deb javob qaytarmadi. U chiqib ketgandan keyin ayvon ustuniga suyanib, son-sanoqsiz yulduzlar charaqlagan cho‘l osmoniga tikilganicha turib qoldi.

Charchagan odamni uyqu elitadi, deyishardi. Dildor bu gapning unchalik to'g'ri emasligini endi bildi. Butun tani zirqirab og'risa ham, ko'ziga uyqu kelmasdi. Yo ko'ngli notinchligidan-mikin?

Qo'ni-qo'shnilarnikida chiroq o'chdi. Vaqt alla-palla bo'lib qoldi. Ertaga azonlab dalaga chiqish kerakligini eslab Dildor ayvonga Malika aya uchun ham joy qilib chiroqni o'chirmay yotdi.

Yaqin o'rtada bo'ri ulidi. Dildorning eti jimirlab ketdi. Alo-hida yotgan o'g'lini ko'tarib yoniga oldi. Uzoqdan yana bo'ri ulidi. Xonadonlarning birida it vovilladi. Birpasda itlarning akil-lashi avjga chiqdi. Dildor vahima ichida uxlayolmay to'lg'amib yotardi.

A'zamjon! Yolg'iz bolangni bo'rilar uvlagan dashtga tashlab qayoqlarga ketding? Hozir qayoqdasan? Ochmisan, to'qmisan? Bittagina bolangni qandoq ko'zing qiydi?

Dildor erini o'ylab goh g'azablanar, goh unga rahmi kelib xo'rsinardi.

A'zamjon shu paytda, yulduzlar osmoni zaminni to'ldirib jimirlayotgan yoz oqshomida anorlar gullagan, rayhonlar hid sochgan, arig'idan qo'ng'iroq chalib suv oqayotgan sokin hovlida o'zga yor og'ushida barq urib uxlardi.

Xo'rozlar ikki martadan bir-birini chaqirishdi. Xolmatjon aytgan ayadan darak yo'q.

Dildor pish-pish uxlayotgan o'g'li tepasida mijja qoqmay o'tirar, allaqanday qo'rqinch va dahshat ichida bo'rilarining olis-larda ulishiga quloq solardi.

Oy tepaga keldi. Cho'l kishilari allaqachon uxlab qolishgan. Ammo Dildorning ko'zini uyqu ololmasdi.

XVI

Deraza orqasida it akillab Dildorni uyg'otib yubordi. Bemah-hal chakagi ochilgan itdan diqqat bo'lib boshini ko'rpaga burkab oldi. It hamon vovillar, ko'z yumgani qo'ymasdi. Diqqat bo'lgan Dildor kamzulini yelkasiga tashlab hovliga tushdi. O'choq oldida qalashib yotgan shoxlardan bitta novdani sug'urib oldi-da, itni haydash uchun tashqariga chiqdi.

Laycha it ko'cha o'rtasida turib Dildorlar derazasi tarafga qarab ulirdi. Dildor uni kaltak bilan quvdi. Endi orqasiga qayt-ganda it yana joyiga kelib ulishni boshladi. Nega undoq qilayot-ganikin, deb u yoq-bu yoqqa alangladi.

Uyining derazasi qarshisidagi tol tagida kimdir yotardi. Birona mast emasmikin, degan xayolda qoʻrqa-pisa yaqinlashdi. Tol tagidagi qurib qolgan ajriq ustida kimdir gʻujanak boʻlib toʻniga oʻranib yotar, sovqotganidan tizzalarini quchoqlab, boshini boʻyni ichiga tortib olgandi. Aʼzamjon boʻlsa-ya, deb dilidan oʻtkazdi Dildor. Kelgan-u, kirishga, roʻpara kelishga yuzi chidamay shu yerda yotib qolgan. Kayfi boʻlsa ajabmas.

Shu xayol bilan Dildor yotgan kishining tepasiga keldi. Uning betiga oy nuri tushib turardi. Dildor seskanib ketdi. Bu — Xolmatjon edi. Dildor esankirab qoldi. U bu yerda nima qilib yotibdi? Nahotki, ichib uchib qolgan boʻlsa? Unaqa odati yoʻq edi-ku! U nima qilishini bilmay serrayib turardi. Yoʻl chetlarida papiros qoldiqlari oqarib koʻrinardi. Ayniqsa, yotgan joyida gʻijimlab tashlangan papiros pachkasi, atrofida allaqancha chala chekib tashlangan papiroslar.

Bu ahvolda shamollab qolishi hech gapmas. Nimadir qilish kerak. Dildor orqasiga qaytib uydan bitta yakandoz olib chiqdi-da, ustiga yopib kirib ketdi. Xolmatjon buni sezmedi. Nimadir deb gʻudrandi.

Dildor to yarim kechasigacha boʻri ulishidan qoʻrqib uxlamaganidan, oʻrniga yotdi-yu, dong qotib uxlab qoldi.

Ertalab oʻrnidan turganda ayvon labida taxlogʻliq oʻsha yakandozni koʻrdi. Xolmatjon qoʻyib ketibdi. Dildor bunga ham uncha parvo qilmadi. Demak, Xolmatjon ustiga kim yakandoz yopganini bilibdi.

Ona-bola nonushta qilayotganlarida guzar tarafdin Abdulla baqiroqning ovozi keldi.

— Eshitmadim demanglar, chorterakliklar bugun ham kechagi uchastkada chopiqqa chiqadilar. Oralaringda miroblar boʻlsa, choyxonaga kelishsin. Traktorchi qiz rais buvaga uchrashsin.

Dildorning yuragi shuv etib ketdi. Rais endi uni boplaydi. Kechagi payhon qilingan gʻoʻzalar uchun koʻpchilik oʻrtasida tanbeh beradi. Yo boʻlmasam: «Qoʻya qol, qizim, chopiqqa chiq, traktor yurgizishni bilmas ekansan», deydi.

U shoshib nonushta qildi-yu, bolasini kiyintirib koʻchaga chiqdi. Ostonada Malika ayaga duch keldi.

— Voy, bolam, yaxshi yotib turdingmi? Xolmatjon kechasi borgan edi, ilojim boʻlmadi, rais kecha bir qop un tashlab ketgan edi, kechasi bilan yopdim. Miyam qursin, asli Xolmatjonga aytsam boʻlarkan, oʻzi kela qolsin, menikida yota qolsin desam boʻlarkan. Voy, yoshgina narsa bir oʻzing yotdingmi?

Dildor kuldi.

– Nega yolg‘iz bo‘larkanman. Yonimda manavu polvon bor edi.

Kampir Azimjonning peshanasidan o‘pib qo‘ydi.

– Sen boraver, rais guzarda suvchilarni, traktorчилarni yig‘yapti. Qani, polvon, biz bu yoqqa boramiz.

U shunday deb Azimjonning qo‘lidan yetaklab ketdi.

Dildor guzarga kelganda, Melivoy aka oldiga choynak qo‘yib, Chorterakdan kelgan ikki kishi bilan gaplashib o‘tirardi.

– Keldingmi, qizim, – dedi Melivoy aka Dildorga choy tutib. – Kecha ishingni ko‘rdim.

Dildor qip-qizarib ketdi. Endi boshlaydi, boplaydi meni, degan o‘y yalt etib ko‘nglidan o‘tdi.

Rais narigi so‘rida o‘tirgan sariq qizni imlab chaqirdi.

«Obbo, – dedi Dildor ichida. – O‘rnimga boshqa traktorchi topibdi. Boya o‘ylaganim to‘g‘ri chiqdi».

Sariq soch qiz raisning oldiga keldi. Rais Dildorga yuzlandi.

– Tanishib qo‘y, bu mening qizim, oti Shura.

Dildor beixtiyor unga ko‘rishgani qo‘l uzatdi. Ammo nimalar bo‘layotganini bilmasdi.

– Bir o‘zingga ish og‘irlik qiladi. Shura bilan ikkoving XTZ-da ishlaysizlar. Sen traktorchi, bu yordamchi. Nima kerak bo‘lsa, o‘zinga aytinglar. Shura qishloqning jami past-balandini biladi. Ayamay ishga buyuraver. Tushlikka chiqqanda ko‘rpa-to‘shagini senikiga opkelib qo‘yadi. Birga turasizlar, xo‘pmi? Unaqa yolg‘iz yotma. Yosh ekansan. Shum bolalar yana kechasi bezovta qilib o‘tirmasin. Xo‘pmi?

Dildor labini tishlab turib qoldi. Demak, rais hamma gapdan xabardor. Erining ketib qolganini ham, bu kecha yolg‘iz yotganini ham biladi.

– Xo‘p, buva. Aytganingizni qilaman, – dedi minnatdor ohangda.

– Shundoq bo‘lsin, – dedi rais va yonidagilarga qarab gapini davom ettiraverdi.

Shura bilan odam bo‘yi kelib qolgan makkajo‘xorilar orasidan borishar ekan, gapni nimadan boshlashini bilmay turgan Dildor Shuraga o‘ng‘aysiz, xijolatli qaradi.

– O‘zbekcha bilasizmi?

– Bilaman, – dedi Shura maqtangannamo. – Juda yaxshi bilaman.

– Unaqa bo‘lsa, yaxshi. Men o‘richcha bilmayman.

– Nichego, o‘zim o‘rgatib qo‘yaman.

Dildorning chehrasi ochildi. Yo‘l-yo‘lakay u yoq-bu yoqdan gaplashib ketishdi.

– Rostdan, rais buvaning qizlarimisiz?

– Ha, qizlariman. Familiyam Meliyeva-ku.

Dildor unga hayrat bilan qaradi.

– Ayangiz o‘rismilar?

Dildor bergan savolidan xijolat bo‘lib gapni darrov, u javob qaytarguncha boshqa yoqqa burvordi.

– Bu cho‘lda biram bo‘ri ko‘p ekanki, kechasi bilan qo‘rqib chiqdim.

– Bu joylarni uch yil oldin ko‘rmagansiz. Bo‘rining koni edi. Bu ozayib qolgani-ku. Dadam bilan ko‘p kelganman. U paytda bunaqa imoratlar qayoqda edi.

Gap bilan bo‘lib paykalga yetib qolganlarini bilmay qolishdi. Do‘nglik tagida bochka paydo bo‘lib qopti. Kerosin bo‘lsa kerak. Traktor kecha Dildor qo‘yib ketgan joydan sal nariga jilib qol-ganga o‘xshaydi. Dildor sinchiklab qarasa, traktor g‘o‘za orasiga bir-ikki kirib chiqqanga o‘xshaydi. Kecha manavi kartaga Dildor traktor solmagan edi. Demak, kimdir kelib ozroq ishlatganga o‘xshaydi. Kerosin opkelgan garaj mudiri shunday qilgan bo‘lsa ajab emas.

Shura traktorga yog‘ quyib shamlarini bir-bir qarab chiqqan-dan keyin Dildorga qaradi.

– Siz boshlaysizmi yo men.

– Baribir, – dedi Dildor.

– Mayli, siz boshlay qoling.

Dildor motorni o‘t oldirib sal qiziguncha egarda tik turgani-cha dalaning uzoq-uzoqlariga qaradi.

Olisda chopiqchilarning ovozlari eshitilardi. Kecha yolg‘izlik uni ko‘p qiynoqqa olgan edi. Baribir ko‘ngilsiz o‘ylar qancha yo-pirilib kelmasin, qandaydir g‘urur kuchi uni tushkunlik girdobiga yo‘latmas edi. Oldida kattakon maqsadi bor odam, shu maqsad uchun, ayniqsa, uzoqdan minglab ko‘z kuzatib turganda hamma narsani unutadi-yu, shu maqsad ketidan quvadi. Dildor kecha ana shunday holatni boshidan kechirgan edi.

Kecha Dildor birdaniga ikki imtihondan o‘tdi. Biri, ko‘pchilik o‘rtasida tantana bilan mingan traktorni qanchalik qiyin bo‘l-sa-da, ayol boshi bilan jilovlay oldi. Ikkinchisi, ne umidlar bilan yo‘lga chiqib, endi tinch, osuda yashamoqchi bo‘lib turganda

notanish cho'lga eri tashlab ketdi. Bo'rilar uvlagan tunni o'sha tinch hayot va'da qilgan erisiz o'tkazdi. Bu kecha, ayniqsa, shu paytgacha ayriliqda, visol damlarida kechirgan iztiroblari orasida eng og'iri edi. Dildor bu imtihonga ham bardosh berdi. Bu yog'i endi u qadar og'ir bo'lmaydi. Birinchi tunde og'ir bo'lmaydi, bo'lolmaydi. Bunday erdan yorug'lik chiqmasligini ham Dildor shu tunda sezdi. Sezdi-yu, yuragini muz qoplagandek butun ehtirosi, har daqiqa o'ziga chorlab turgan o'sha chaqnoq ko'zlari endi behayo, sharmsiz bo'lib qoldi. Yonib turgan cho'g' ustini kul bosdi. Kim biladi, bu cho'g' ustidagi kulni kim va qachon supurib tashlaydi. Bu yurak yana yolqinlanarmikin? Kim biladi? Har qalay, A'zamjon bu cho'g'ni qayta alangalata olmasa kerak. Yana kim biladi, deysiz. Ayol qalbini bilish qiyin.

Traktor paykal boshiga yetti-sakkiz borib kelguncha ham Dildor xayoldan bo'shamadi. Kimdir uning yelkasidan turtgandagina u o'ziga keldi.

Yonida Shura turar, bir qo'li bilan rulga yopishib, o'ng tarafga burmoqchi bo'lardi.

– Sizga nima bo'ldi, opa? Faqat ariqning o'zini kovlab ket-yapsiz-ku.

Dildor qarasa, o'qariqning yarmigacha ariqning o'ziga kultivator tishini botirib kelayotgan ekan.

– Charchabsiz, damingizni oling. Endi men yurgizaman.

Dildor unga monelik qilmay pastga sakradi. G'o'zalar orasida turib Shuraning rul boshqarishiga qaradi. Balo ekan bu qiz. O'tirishini qarang. Usta shofyorlarga o'xshaydi.

Dildor uning yurgizishidan zavqlanib ketdi. Horg'in qadam tashlab chetga chiqdi-da, oyog'idan shippagini chiqazib ajriqqa o'tirdi.

Velosipedda Xolmatjon keldi. U Dildorga kelib salom berib g'o'za orasiga kirib ketdi. Har yer-har yerda engashib g'o'za tagidan kesak olar, kaftiga qo'yib ezib ko'rardi. U shu ko'yi ozroq kultivatsiya sifatini tekshirib ko'rgandan keyin, yana qaytib chiqdi.

– Yomon emas. Durust. Omborga kombinezon keldi. Kechqurun borib olinglar. Tushlikda yangi kelganlarga avans beriladi. Omborchi ham bo'ladi. Kechqurun nima kerak bo'lsa, mehnat kuni hisobidan un, don-dun beriladi. Albatta, borib olinglar, xo'pmi?

Dildor boshi bilan xo'p ishorasini qildi. Xolmatjon ketar oldida:

– Rahmat, – dedi.

U nimaga rahmat, dedi Dildor tushunmadi. Velosiped tuproqda ilon izi qoldirib ancha nari ketib qolgandagina uning nima uchun rahmat deganiga tushundi. Xolmatjon kechasi ustiga yopib qo‘ygan yakandoz uchun rahmat aytdi. Ha, shuning uchun.

Xolmatjonni onasining qornidan yorib olingan deyishadi. Buni Dildor yaxshi biladi. Jangda yurgan yetimchanning ko‘nglini buzmaslik uchun Asroraning zvenosidagi qizlar Xolmatjonga buvisi nomidan xat yozib turishardi. Buvisi savodsiz bo‘lgani uchun ham boshqalar xat yozishi Xolmatjonni shubhaga solmadi. Olisdan, okoplardan Xolmatjon buvisiga uzundan uzoq duoyi salom yozar, yaqin orada sog‘-omon qaytib kelishini bildirib sevin-tirmoqchi bo‘lardi. Bu xatlar to‘ppa-to‘g‘ri Asroraning qo‘liga tegardi, qizlar birga o‘qib, unga javob yozishardi. To urush tugab, qishloqqa qaytib kelgunicha Xolmatjon buvisining olamdan o‘tganini bilmadi.

Shuning uchun ham hamqishloq qizlarning bu odamgarchiligi uning dilida bir qarz bo‘lib yotardi. Qachondir ularga bir yaxshilik qilishni diliga tugib qo‘ygandi. Kecha A‘zamjon uydan zarda bilan chiqib ketganda, Xolmatjonning ko‘ngli allanechuk bo‘lib ketgandi. Chunki u A‘zamning kimligini, nimalar qila olishini yaxshi bilardi. Dildordan ko‘ngli tinchimagan Xolmatjon kechqurun kelib A‘zamning qaytmaganini ko‘rib, Malika ayani yubormoqchi bo‘ldi. Aya raisning topshirig‘i bilan non yopayotganini ko‘rib noiloj qoldi. O‘zi Dildorning uyi atrofida aylanib yurdi. Tinch uxlasin, qo‘rqmasin, deb shunday qildi. U kechasi bilan uy atrofida yurarkan, Dildorning boshiga tushgan voqealarni o‘yladi. Bu gaplarni u frontdan kelgandan keyin eshitgan edi. Urushga ketmasdan oldin ham Xolmatjon uni bilardi. Do‘mboqqina qiz edi Dildor.

Asrora uning buvisi nomidan yozgan xatida qishloq qizlarining birga tushgan suratini ham qo‘shib jo‘natgan edi. Ko‘ngli ko‘tarilsin, yigitlar qizlardan kelgan surat-u xatlarni yaxshi ko‘radilar, deb atayin shunday qilgandi. Xolmatjon o‘sha qizlar orasida Dildorni darrov tanigan edi. Bo‘yi cho‘zilib, yigit kishining suqi kiradigan bo‘lib qolganiga hayron bo‘lib suratga uzoq tikilgan edi.

Farg‘ona yigitlarining bir xususiyati bor. Qishlog‘imizning qiziga palon qishloqning yigiti gap tashlabdi, deb eshitsa atayin mushtlashgani uch-to‘rt yigit o‘shaqqa borib, biron janjal boshlamay qaytishmaydi. Albatta, Xolmatjon ham bu xislatdan xoli

emasdi. Cho'lga kelgan kunlaridan boshlab qishloq qizlarining «sha'ni»ni himoya qilish payida edi.

Bu oqshomgi uyqusizligi hamqishloq qizlarning yaxshiligiga yaxshilik bilan javob berish bo'lsa, ikkinchidan, o'sha Farg'ona yigiti oriyati edi.

Dildorning bu gapdan xabari yo'q. U nega bundoq bo'lgani-ni bilolmay hayron edi.

Dildor bu gal charchaganini bilmadi. Shura qiziq ekan, qa-yoqdagi kuladigan gaplarni topib gapirardi. Birpasda kolxozdagi odamlarni ta'rif-tavsifini qilib berdi.

Bosh buxgalterning xotinidan qo'rqishidan tortib, agronom yigit doimo xotinlarning paypog'ini kiyib yurishigacha aytib berdi.

— Rost, xotinlarning paypog'i erkaklarga juda mos keladi. Uchi yirtilsa, qiyib tashlab, chatib oladi-da, yana kiyaveradi. Bitta paypoqni erkaklar bir yil, to bir qarich qolguncha kiysa bo'larkan. Kallasining ishlaganini qarang-a.

Dildor uning gaplaridan qotib-qotib kular, shundoq quvnoq qiz bilan birga ishlab, bir uyda birga turishidan quvonar edi.

— Kelin ayamning sirayam ruschaga tili kelmaydi. Pochemu, degin deb necha marta aytaman, baribir esidan chiqib qolib, zachemu, deydi. Raykomdan telefon qilishsa, rais ne prishla, deydi. To'g'ri gapirsangiz-chi, desam, tushunsa bo'ldi-da, deb kuladi.

Birdan tushlikka jom chalindi. Shura traktordan sakrab tushib, ayda, Dilya, dedi. Dildor bormasligini, ovqatni shatga opkelib yeyishini aytganda, Shura uni jerkib tashladi:

— Odamlardan nega qochasiz, opa. Yuring, yuring. Hango-malashib kelamiz. Hovuz bo'yi salqin. Tol tagida o'tirib bir oz dam olamiz. Batta do'ppichalik soya joy yo'q! Oftobda qovjirab nima zarur. Yuring, yuring!

Shura uni qo'yarda-qo'ymay sudrab olib ketdi.

Dildor shiyponni ko'rmagan edi. Salqin joy ekan. Bir to-monda katta qozon. Bakda vaqirlab suv qaynab turibdi. Tollar tagiga to'shlagan sholchalarda birov yonboshlagan, birov chor-dana qurib choy ichar, Xolmatjon esa oldiga bitta choynakni qo'yib tolga suyanganicha mudrardi.

— Bechora, uxlamagan-da, — deb achindi Dildor.

— Po'sht, tankchilarga yo'l beringlar! — dedi Shura shiypon-ga ko'tarilar ekan. Uning ovozidan ko'zini ochgan Xolmatjon Dildorga ko'zi tushdi-yu, nima qilishini bilmay bo'sh piyolani og'ziga olib bordi.

XVII

Dildor kechqurun kombinezon olgani garajga ketgan edi. Kelsa, Shura uydan o'qdek otilib chiqib ketdi. Uning ko'zlarini qizargan, ko'p yig'laganidan bo'lsa kerak, qovoqlari shishib ketgan edi. Dildor olib kelgan narsalarini ayvonga uloqtirdi-yu, orqasidan yugurdi. Guzarda odam ko'p. Choyxona so'rilarida ko'rpa-yostiqlik, tugunlar. Yana odamlar kelganga o'xshaydi. Chortherakdan odam olib kelgan o'sha kundagi yuk mashinalari qator bo'lib turibdi. Odamlar orasidan Dildor Shurani izlardi. U yo'q. Motor gurilladi. Qarasa, yuk mashinasi tepasida Shura turibdi. Dildor unga yugurgan edi, mashina joyidan qo'zg'aldi. Yetolmadi.

Nima gap ekan? Nima gapligini bu odamlar bilmaydi. Bular yangi kelgan kishilar. Dildor nima qilishini bilmay hayron bo'lib turgan edi, Malika aya Azimjonni yetaklab kelib qoldi.

— Eshitdingmi, bolam, Melivoyning o'g'lini yapon o'ldiribdi.

Dildor turgan joyida qotib qoldi. Buning nimaligini Dildor biladi. U bir marta shunday shum xabarning dardini tortgan. A'zamjondan qoraxat kelganda dunyo ko'ziga qorong'i bo'lib ketgan, og'iroyoqli holi bilan qahraton qishda qora kiyib telbaga o'xshab yurgandi. O'shanda hammayoqni oppoq qor bosgan. Dov-daraxt, tom-tosh, dala-yu qirlar oppoq edi. Faqat Dildorning dili qorong'i, libosi qora edi.

— Bolam, bugun Shura kelmas, kechasi yoningga o'zim boraman.

Dildor indamadi. Bolasini yetaklab ketarkan, o'ylardi:

«Men baxti qaroga yana bitta baxti qaroshirik bo'ldi. Bittagina boshimga shuncha tashvish. Bu dunyoda bironta betashvish odam bormi? Kimga suyansam, dardimni ochsam, u ham menga o'xshagan chiqadi...»

Negadir Dildor shuncha yaxshiliklar qilgan Asrorani, Adolatni, notanish joyga kelgandan beri atrofini o'ragan bu mehribon odamlarni o'ylamasdi. Kulfatda qolgan kishi faqat yomon kunlarini o'ylaydi. Dildor hozir shunday ahvolda edi.

Kechadan beri ancha ko'ngli to'lib, uyi obod bo'lib qolgan Dildor yana yakkalikda, zabunlikda qoldi. U aftodahol bir kayfiyatda hovliga kirdi. Atrofda hamma shod. Qo'shnilar uyida bola-chaqalari bilan kechki taom ustida chaqchaqlashayotgan kishilarga uning havasi keldi. Shu A'zamjonga ro'para kelgan kundan boshlab biron kunni ro'shnolik bilan o'tkazmadi. Umr

bo'yi tiniq, juda ham tiniq nur ichida porlab turishi kerak bo'lgan to'y kunini ham u yig'lab o'tkazdi. Haligacha bu yig'i, ko'z yoshi tingani yo'q. Yig'layverib diydasi qotib ketdi. Ko'ziga yosh kelmay qo'ydi.

Bechora dadasi to'y qilsam, ichkuyov bo'lsa, bag'rim butun, uyim obod bo'lib qolardi, deb niyat qilardi. Bo'lmadi. Nainki ichkuyov nurab qolgan uyning shikast-rextlariga qaradi. Butun oila boshiga kulfat soldi. Mana hozir kelin bo'lib bir nafas kelinlik rohatini ko'rmagan Dildor bolasini bag'riga bosib chiroq yoqilmagan notanish uyda g'am-anduh ichida o'rtanib qoldi. Qishloqda dadasi qang'illab yotgan katta hovlida qariganda o'zi kirini yuvib, o'zi tomoq pishirib o'tiribdi.

Shu ishlarni qilgan, kulfatlarni boshiga solgan A'zamjonning o'zi qayoqda?

Shipillab yengil oyoq tovushi keldi. Dildor bosh ko'tarib qaragan edi, ayvon oldiga kelib qolgan Malika ayaga ko'zi tushdi.

– Voy bolam, nega chiroq yoqmay o'tiribsan. Voy, g'alati ekansan-ku.

Aya elektrni yoqib qo'ydi.

– Choy ham qo'ymabsan, ovqat ham qilmabsan.

Bu kampir unga shunday mehribonlik bilan gapirardiki, xuddi uning ichida yonayotgan o'tni ko'rayotgandek, nima bilandir bu o'tni o'chirishga urinayotgandek edi.

Bu kampirning allaqayeri Dildorning ayasini eslatardi. Bittayu-bitta bolasi bo'lganidanmi onasi uni sira jerkimasdi. Har qanaqa jahli chiqib turganda ham ovozdagi mayinlikni buzmasdi. Ba'zan er-xotin aytishib qolishardi.

– Bolani buzyapsan, erka qilib qo'yyapsan, – deb dadasi aytsa, onasi pinagini buzmay javob qilardi:

– Bittayu-bitta bolamni nega urisharkanman.

Shundoq ona Dildor to'qqizga yetmasdanoq tuproqqa kirgan edi. Mana, o'n uch yildirkim, ota-bola uning chirog'ini yoqib kelishadi. Unga baxt va'da qilgan eri ona yotgan shu tuproqdan olisga tashlab qochdi.

Malika aya Dildorning iztirob otashida yonayotganini bilib turardi. Shuning uchun bu benavo juvonning mushkulini oson qilish, bir dam bo'lsa-da uni yolg'izlikka tashlamaslik uchun atayin kelgan edi.

U chaqqongina xotin edi. Birpasda piyoz to'g'rab, masal-liqlarni tayyorlab qozon osdi. Ko'ngilni ko'taradigan gaplarni gapirib uni alahsitishga urindi.

– Bolam, o‘zingni unaqa siqaverma. Dunyoning ishlari hamisha mirkam ikki bo‘lgan. Senga ham Xudoning atab qo‘ygan yorug‘ kuni bordir, axir. Nima bo‘pti, hali o‘n gulingdan bir guling ochilmagan. Qo‘y, kuyma. Bu erkaklarning hammasi shunaqa. Menam vaqtida e, kuyganman. Kuyaverib adoyi tamom bo‘lganman. Hozir eslasam, ahmoq ekanman, deb o‘zimni-o‘zim koyiyman. Esi bo‘lsa, seni bo‘lmasa ham bolasini sog‘inib keladi. Kelmasa sadqai sar. O‘lim bo‘lmasin, bolam. O‘limdan boshqa hamma narsaning chorasi bor. O‘lim qursin, o‘lim! Bechora Melivoy otashda kuyib yotibdi. Bir o‘g‘il ediki, arslon derding. Shundoq bola o‘qqa uchib ketdi. Bechora Melivoy bolam kelsa, Shurani kelin qilaman, deb u-bularini tayyorlab qo‘ygan edi. Mana, Shura to‘y ko‘rmay tul bo‘lib o‘tiribdi. Hali senga nima bo‘pti.

Dildor Shurani Melivoy akaning qizi deb o‘ylagan edi. Xotini rus bo‘lsa kerak degan xayolda edi. Demak, Shura uning qizi emas, o‘g‘lining qalig‘i.

Ovqat ustida kampir Dildor ko‘nglidagi jumboqni yechib yubordi. Melivoy akaning ikki qiz, bir o‘g‘li bor ekan. Qizlari chiqib ketgach, o‘g‘li bilan qoladi. Urush avjiga chiqqan paytda Marg‘ilonga tushib front tarafdin kelgan ota-onasiz qolganlardan shu qizni olib keladi. Shura o‘shanda o‘n to‘rt yoshlarda edi. Ozib-to‘zib ketgan, rangi-ro‘yi bir holatda edi. Melivoy akaning xotini uni yuvib-tarab sal kunda oyoqqa turg‘izib qo‘yadi. Shura o‘zbek tilini mutlaqo bilmasdi. Melivoy akaning xotini bilan imlab gaplashishardi. Shura do‘mboqqina bo‘lib qoladi. Sal kunda qo‘ni-qo‘shnilarning mehrini tortadi. Melivoy akaning o‘g‘li Turdivoy bilan birga maktabga boradi. Birga dalaga chiqib ishlaydi. Turdivoy urush oxirlab qolganda frontga ketadi. Ana keladi, mana keladi deb turishganda yapon tarafga ketib qopti deb darak eshitishadi. Muni qarangki, nemisning o‘qi o‘tmagan bola yaponning o‘qiga giriftor bo‘ladi.

– Bugun ilojim bo‘lmadi, ertalab qishloqqa tushib fotiha o‘qib kelaman. Qo‘rmaysanmi, atigi to‘rtta bolaga boqcha ochib o‘tiribman. To‘rtta bola ham, bola-da. Hali bir gurzavoy bo‘lib fotihaga ketishdi. Men goldim.

Dildor charchaganidan o‘tirgan joyida mudray boshladi.

– Yota qol, bolam, yota qol. O‘zing ham erkaklar qiladigan ishga qo‘l urib o‘tiribsan. O‘zingga munosib ish qilishing kerak edi.

Dildor indamay turib joy sola boshladi. Kampir idish-tovoqlarni yuvayotganda Xolmatjon kelib qoldi.

– Men bugun ham kelolmadingizmi deb xavotir olgan edim. Kelganingiz yaxshi bo‘pti, ayajon.

– Kelmay, qayoqqa borardim. Kelaman-da. Bolamni yolg‘izlatib qo‘yarmidim. Choy damlab beraymi?

– Yo‘q, buvijon. Endi qaytaman. – Xolmatjon shunday deyarkan, bolasining ustini yopayotgan Dildorga qaradi. – Shura ertaga kelmaydi. O‘zingiz ishlaysiz. Biron odam qo‘shib beraymi, Dildor.

Dildor yo‘q, dedi. Xolmatjon o‘zingiz bilasiz, degandek qilib keta boshladi. Kampir orqasidan: «Ovqatingni chinniga solib, dasturxonga o‘rab qo‘yganman. Sovumasdan eb ol, bolam», – deb javrab qoldi.

Kampir yechinib o‘rniga kirarkan, Dildor bosh ko‘tarib undan so‘radi.

– Aya, Xolmatjonni anchadan beri taniysizmi?

– Nega tanimay, o‘z nevaramni tanimaymanmi, gaping qizig‘-a, – dedi tilar-tilamas.

Dildor hayron bo‘lib yana so‘radi:

– Axir Xolmatjonning buvisi bundan to‘rt yil oldin qazo qilgan edi-ku.

Kampir javob bermadi. Alamli xo‘rsindi. Oxiri zarda bilan javob qildi:

– Bundan keyin bu to‘g‘rida mendan bir og‘iz ham gap so‘rama. Agar so‘rasang, ostonangga qadam bosmay qo‘yaman.

Kampir yana yostiqa bosh qo‘ydi. Qorong‘ida allavaqtgacha uxlayolmay u yoqdan-bu yoqqa bezovta ag‘darilib chiqdi. Xo‘rsindi, yonboshiga ag‘darildi. Yostiq tagini titkilab nos olib chekdi.

Dildor uning diliga og‘ir botadigan biron gap aytib qo‘ydim, shekilli, deb, xijolatdan uxlayolmasdi. Oxiri kampir o‘rnidan turib qoq yarim kechada hovlidan chiqib ketdi.

Nima bo‘ldi? Kampirning dili nimadan og‘ridi? Dildor bilolmasdi.

Kampirning bemahalda chiqib ketganini Dildor biron ishi esiga kelib qolgandir deb o‘yladi-yu, ko‘zini yumdi. Baribir xayoli qochib, ko‘ziga uyqu kelmadi.

Endi Xolmatjonni o‘ylardi. Bu yigit ko‘pdan unga allaqanday iztirob to‘la ko‘zlarini tikadi. Allaqanday mehribonchiliklar qiladi. Dildor uni yaxshi biladi. Uning ko‘ngli so‘nik. Kam kuladigan, kulganda ham ichida dardi bor odamdek astoydil kulmaydi. Ilgari u qishloqda bormi, yo‘qmi, biron e‘tibor bermasdi. Endi

boshqacha bo'lib ketibdi. Hammaga mehribon, har qanday ishni ham uddalaydigan, harakatchan, ishbilarmon bo'lib ketibdi. Qani endi, A'zamjon ham shunday bo'la qolsa edi. Yo'q. Ikkovining orasida tog'cha farq bor. Xolmatjonning A'zamjondan alaqancha afzalliklari bo'lishiga qaramay, u A'zamjon bo'lolmasdi. Birinchi muhabbatdek ezgu his bormi dunyoda? A'zamjon Dildorning birinchi sevgisimi? Unday desa, Nizomjon unga bir ermak qatori gap bo'lgan ekan-da. Yo'q. Uning birinchi sevgisi Nizomjon edi. Aksincha, A'zamjon ermak qatori uning qalbiga kirgan edi. Nahotki, Dildor uchinchi sevgiga yuragidan joy topa olsa. Shunday bo'lishi ham mumkinmi?

Dildor shunday deb o'ylardi-yu, o'z xayolidan o'zi qo'rqib ketardi. U bu masalalarni aql bilan hal qilib bo'lmasligini bilmasdi. Bu yurak ishi. Yurak o'rtanib otashiga olsa, uning ixtiyori qo'ldan ketishiga aqli yetmasdi. Dildor endi sevishga qo'rqardi. Kim biladi. A'zamjonga tekkan, Nizomjonni sevgan Dildor boshqa, bo'shshagan, birov yetaklamasa, o'zi yurolmaydigan erka Dildor edi. Cho'lda yolg'iz yashashga ko'ngan, bo'rilar uvlagan sahroda uxlaydigan, erkak qilolmaydigan ishga qo'l urgan Dildor boshqa edi. Boshqa Dildorning boshqacha sevgisi bo'lishi mumkindir. Dildor o'ylab-o'ylab o'yiga yetolmadi-yu, oy tarnov uchiga qo'nganda uyquga ketdi.

Cho'lning daydi shamollari o't-o'lanlarni silkib yugurar, yulduzlar bir-birini imlab chaqirardi.

Eri tahqirlagan, tashlandiq Dildorning ikkinchi og'ir tuni ham tongga ulanib borardi.

XVIII

Xolmatjon tunuka choynakning jo'mragiga krujka ilib Dildor ishlayotgan joyga choy olib keldi.

— Ovqatga bormadingiz. Bu qanaqasi bo'ldi? Hech bo'lmasa choy ichib oling deb olib keldim.

Dildor nimchasining tagiga bostirib qo'ygan tugunchani yechib non, mayiz olib ko'katga yozib qo'ydi.

— Ko'pchilik o'rtasida tomoq yeyolmayman. O'rganmaganman, — dedi u non ushatib Xolmatjonning oldiga qo'yarkan.

Xolmatjon nimadir deyayotgan edi, Dildor gapni boshqa yoqqa burib yubordi.

— Malika ayamni xafa qilib qo'ydim. Bir gap so'ragan edim, juda xafa bo'ldilar.

– Nima degan edingiz?

– Xolmatjon kimingiz bo‘ladi degan edim, xafa bo‘lib qoq yarim kechasi uydan chiqib ketdilar.

Xolmatjon gardanini qashidi.

– Shu gapni bekor so‘rabsiz. U kishi mening buvim bo‘ladilar!

Dildor boshqa gap so‘ramadi. Ammo Malika ayaga bergan savoli hali ham tilining uchida turgandi. Buni Xolmatjon sezdi.

– Siz choy ichib turing, men bir chekkadan aytib beraman. Siz o‘zimning buvimni ko‘rgansiz-a?

– Ha, ko‘rganman. Siz frontda vaqtingizda u kishi menga ikki marta ko‘ylak tikib berganlar. Juda chevar xotin edilar.

Xolmatjon Dildorning ko‘ziga qarab turib so‘radi.

– Malika aya buvimga o‘xshaydilarmi?

– Voy, xuddi o‘zlari. Birinchi ko‘rganimda tirilib kepqoptilarmi, deb hayron bo‘lib qolgan edim.

– Men ham shundoq bo‘lganman. Marg‘ilonda bir ko‘rganimdan keyin yana ko‘rgim kelib xo‘p qidirdim. Bu yoqqa kelganimizda uchratib qoldim. Har kuni yo‘lini poylayman. Ko‘rdim deguncha gapga solaman. Xuddi buvim rahmatlik bilan gaplashgandek bo‘laman. Uyiga bordim. Meni o‘g‘il qiling, deb o‘tinib so‘radim. Kampir boshimni silab xo‘p yig‘ladi, kimligimni so‘radi. Aytib berdim. Battar yig‘i boshladi. O‘g‘lim bo‘l, ena-bola bo‘laylik dedi. Ana o‘shandan beri, u kishining uylarida turaman. Astoydil ena-bola bo‘lganmiz.

Dildor uning gaplarini bosh egib hayronlikda tinglardi.

– So‘rasam nega xafa bo‘ladilar?

– So‘ramang. Sira so‘ramang. Men ham so‘ramaganman. Menga Melivoy aka aytib berganlar. Bu xotinning boshidan juda ham og‘ir savdolar kechgan. Hech kimi yo‘q. Melivoy aka holidan xabar olib turadi. Biz ena-bola bo‘lganimizdan keyin Melivoy aka bir kuni idoraga chaqirib, uning kimligini aytib berdi. Shundan beri ko‘ngliga qarayman. Sira xafa qilmasam deb, ayab turaman.

Ana shundan keyin Xolmatjon Malika ayaning boshidan o‘tgan savdolarni shoshilmay gapirib bera boshladi.

Malika aya asli toshloqlik bo‘lib, eri o‘rtahol dehqonlardan bo‘lgan. Ularning peshanalarida Xudodan tilab-tilab olgan bittayu-bitta qizlari bo‘lgan. Qiz bo‘yiga yetib, endi kuyovga uzatamiz deb turganlarida Ko‘rshermat Toshloqni bosadi. Qishloqning yuvindixo‘rlari unga chiroyli bir qiz borligini aytishadi. Ko‘r-

shermat yigit yuborib qizni olib kelishni buyuradi. Ota qarshilik ko'rsatgani uchun hovlining o'zida otib tashlaydilar. Malika aya sochini yulib dod solishiga qaramay, qizini otga bosib olib ketishadi. Qo'rboshi nikoh o'qitib qizni o'sha tunda zo'rlaydi-yu, ertalab tong otmay qochadi. Zo'rlangan, sharmanda bo'lgan qiz qon yig'lab uyga qaytib keladi.

Ona-bola qon-qon yig'lab qolishadi. Kunlar o'tib qiz homilador bo'lib qoladi. Oy-kuni yaqinlashgan sari ona-bola tashvishga tushadilar. Ko'zi yorigandan keyin qiz telba bo'lib qoladi. Bolani emizmay qo'yadi. Bolani bo'g'ishga payt poylaydi. Malika aya kecha-yu kunduz bolaga qo'riqchilik qiladi. Bolani qo'liga bersa, bo'g'ishga payt poylaydi, bermasa, dodlab qishloqni boshiga ko'taradi. Malika aya juda qiynalib ketadi. Bola olti oylik bo'lganda onasi o'zini hovuzga tashlaydi. Malika aya qizini ham dafn qilib chaqaloq bilan yolg'iz qoladi.

Malika aya uchun Toshloqda yashash qiyin bo'ladi. Hovlijoyini sotib Qoratepaga ko'chib keladi. Ming azoblar bilan bolani katta qiladi. Bola o'n yetti yoshga to'lganda ham dadasi kimligini bilmaydi. Buvisi unga dadangni bosmachilar o'ldirgan deb aytgan edi. U partizan o'g'li ekanidan doimo g'ururlanib yurardi. Ming to'qqiz yuz o'ttiz sakkizinchi yilda bola komsomol safiga o'tish uchun ariza beradi. Komitetda arizasi ko'rilayotganda undan tarjimai holini aytib berishlarini so'raydilar. Bola to'lib-toshib dadasi to'g'risida, uning bosmachilar bilan kurashganini, ular qo'lida halok bo'lganini aytadi. Shunda majlisda o'tirganlardan biri o'rnidan turadi-yu, bolaning betiga qarab turib uni xoin, deydi.

— Sen xalqni qiyratgan bosmachining o'g'lisan. Sen qo'rboshining o'g'lisan. Sendaqa bosmachi bolalariga oramizda o'rin yo'q, — deydi. Bola harchand unday emasligini tushuntirmoqchi bo'ladi. Hech kim uning gaplariga ishonmaydi.

Ertalab yuvinib-taranib chiqib ketgan bola kechqurun qorayib, so'lib kirib keladi. Buvisining betiga tik qarab:

— Dadam kim bo'lgan? — deb so'raydi.

Malika aya uning ko'ziga qarab turib yolg'on gapiradi.

— Dadang partizan bo'lgan, bolam, — deydi.

— Yo'q. Dadam bosmachi bo'lgan. Qo'rboshi bo'lgan. Qishloqlarni talagan. Odamlarni qilichdan o'tkazgan.

— Yo'q, yo'q. Yolg'on gap. Bo'lmagan gap, — deb qichqiradi Malika aya.

Nevarasini bag'riga bosib peshanasidan silamoqchi bo'lib yaqinlashganda bola uning qo'lini siltab tashlaydi. Malika aya yum-yum yig'lab orqasidan qarab qoladi.

Bola ko'chaga chiqib ketgandan keyin bechora kampir bola bir qizishdi, sovub qolar, hovridan tushar, deb o'ylaydi. Ammo ko'nglining bir cheti g'ash bo'laveradi. Kech bo'ladi, boladan darak bo'lmaydi. Yarim kecha bo'ladi, undan darak bo'lmaydi. Kampir bezovtalanib ko'chaga chiqadi, u yoq-bu yoqni surishtiradi, ko'rdim degan odam bo'lmaydi. Tong otguncha uxlamay qishloq uylarini kezib chiqadi. Ammo daragini topolmaydi.

Ertalab daragi chiqadi.

Bola chorbog'dagi tutga o'zini osib qo'ygan ekan. Malika aya bu dardga chidolmay yotib qoladi. Oradan bir oy o'tib bolaning cho'ntagidan bir xat chiqadi. Xat Melivoyning qizi Nafisaga yozilgan edi.

«Jondan aziz, mehribon Nafisa!

Men nomardni kechir. Men senga munosib emasligimni bugun bildim. Bildim-u bu yorug' dunyoda yashashdan kechdim. Sizdek sof odamlar orasida bosmachining bolasiga joy yo'qligini bilaman. Yashashga, sevishga haqqim yo'q. Xayr, sevgilim. Qo'llaringni g'oyibona o'paman. Eshiging oldidan ikki-uch marta o'tdim. Chiqmading. Oxirgi marta bir ko'rib, to'yib-to'yib ko'zlaringga tikilsam degan edim. Bo'lmadi. Xayr, xayr. Nafisa! Xayr, bu yorug' jahon».

Xat hali ham Melivoy akada saqlanarkan. Menga o'qib berdi. Ana shundan beri Malika aya yolg'iz. Uni bundan uch yil oldin Melivoy aka Qoratepadan ko'chirib bu taraflarga olib kelgan ekan.

Men buvimni, dadamni, ayamni gapirib bergan edim, sen sho'rlik ham menga o'xshagan ekansan, deb rosa yig'ladi. Ammo boshidan o'tganlarni o'zi aytmadi.

Dildor bu gaplarni eshitib titrab ketdi. Kampir ko'ziga juda ayanchli bo'lib ko'rindi.

— Shuning uchun so'rog'im malol kelgan ekan-da. Bechora qizi, nevarasi esiga kelib kechasi uxlayolmagan ekan-da. Voy bechora-e. Uni sira xafa qila ko'rmang.

Xolmatjon o'zi aytib bergan gaplaridan o'zi ta'sirlanib ketgan edi. Ona diydorini ko'rmagani, dadasining erkalatishlariga to'ymagani, buvisini so'nggi yo'lga uzatolmagani esiga kelib ko'z milklariga yosh qalqib qolgandi. Dildor o'rnidan turib uning peshanasini silagisi, ovutgisi keldi-yu, o'zini tutdi.

Xolmatjon choynakni olib ketayotganda Dildor traktorga minayotib yo'lga qaradi. Xolmatjon ajriqlar o'sgan cho'lining so'qmog'idan boshini egib, sekin-sekin qadam tashlab ketishini ko'rib yuragi ezildi.

Bu bola dunyoga kelib nima rohat ko'rdi. Yetimlik bilan o'sib endi oyoqqa turganda urushga ketdi. Kelib bironta urug'ini topolmadi. Bu yerga kelib o'ziga o'xshagan dili vayron bilan hamxona bo'ldi. Bu bola baxtga tashna. Ko'nglini yoritish kerak. Diliga chiroq yoqish kerak. Shunday chiroq yoqish kerakki, yorqin nurida g'am-alamlari kuyib ketsin.

Dildor, Xolmatjonning diliga chiroq yoqa olarmikansan, deb o'zidan-o'zi so'rardi.

— Koshki edi, shundoq bo'lolsam. Men endi chiroq bo'lib yona olarmikanman. So'nib qolmaganmikanman? Oh, qani endi, shundoq bo'lolsam.

XIX

Bundan uch kun oldin sug'orilgan qarta allaqachon suvni shimib ketgan. Badaniga nam tekkan g'o'zalar ancha jon olib qolgan. Chortrakliklar peshanalarini tang'ib chopiqqa tushib ketishgan edi. Oftob tepadan ayovsiz olov tig'ini sanchar, atrofni halqadek o'rab yotgan sho'r yerlardan lip-lip alanga ko'tarilardi. Olisda traktor tinimsiz patillaydi. Bu Dildorning traktori. Chopiq qilayotganlar ertalabdan beri traktor motorining bir damgina tinganini bilmaydilar. Charchamadimikin? Oftobda qandog' chidaypti bu o'jar qiz, deb o'ylab qo'yardilar.

Tushlikka ham u kelmadi, Xolmatjon oshpazga ovqat suzdrib endi jo'nataman deb turganida xurjuni handalakka to'la otliq keldi. Uning ko'zlari besaranjom, oti ham terlab ketgan edi.

— Qanaqa odamsizlar, nima qilib angrayib turibsizlar, yuguringlar, yuguringlar traktorchi qizlaringiz o'lib qopti.

Xolmatjon qo'lidagi mis tovoqni tashlab yubordi. Shiypondagilar barobar o'rinlaridan turib ketishdi.

— Nima? Nima dedingiz?

Xolmatjon hayajon ichida ham undan javob kutar, ham hamon patillab turgan traktor shovqiniga quloq solardi. Nega undog' deydi, traktori ishlab turipti-ku!

Otliq kishi tili og'ziga sig'may duduqlanardi.

— Kelayotsam traktor do'ngga tiralib qopti. Nima bo'ldiykin deb yaqin kelsam, tepasida ayol kishi belidan pastga osilib yotibdi. Qo'rqib ketdim. O'lib yotibdi.

O'nga yaqin erkak barobariga traktor shovqini kelayotgan tarafga yugurishdi. Xolmatjon ovqatga chiqqanda oyog'im birpas orom olsin deb etigini yechib qo'ygan edi. Tikanlarni bosib, qizigan qumlarni to'zitib oldinga yugurar ekan, o'zidan-o'zi gapirib borardi:

– Bir kun rohat ko'rmading-a, bir kun ham yayramading-a, ha, nomard A'zam, nomard...

Yigitlar oldinma-ketin traktorga yetib kelishdi.

Motor hamon patillar, Dildor belidan pastga osilib qolgan uzun qop-qora sochlari ilondek to'lg'anib g'ildirak osha yerga tegib turardi.

Xolmatjon uning belidan ko'tarib asta yerga oldi. Bilagini ushladi. Qo'rqib ketganidan tomirini topolmadi. Andishani ham unutib uning yoqasini sharillatib yirtdi-yu, ko'kragiga qulog'ini tutdi.

Dildorning yuragi bilinar-bilinmas tepib turardi.

– Tirik, tirik, birodarlar. Dildor tirik. Suv bormi, suv, suv?!

Bu yaqin orada suv yo'q edi. Kimdir o'qdek uchib ortga yugurdi.

Xolmatjon Dildorni ko'tardi. Atrofga birdam alangladi. Ko'zlarida qandaydir umidsizlikka o'xshash ayanchli bir ifoda bor edi.

Xolmatjon bir qo'lini uning ikki taqimidan, bir qo'lini ikki kuragi tagidan o'tqazib ko'tarib kelardi. Hozir boya yugurganida tikanlar tilgan oyog'idan qon oqayotganini bilmasdi. Dildorning ikki qo'li, sochlari osilib, butun gavdasi to'lg'anardi.

Yarim yo'lga kelishganda boya yugurib ketgan yigit chelakda suv bilan yo'lni kesib chiqdi. Kimdir Dildorning betiga suv sochdi, kimdir hovuchlab og'ziga suv quydi. Dildor ko'zini ochmadi. Lablari bir-ikki qimtindi, xolos.

Uning shu birgina qimtinishi atrofida nafas olmay haykaldek tek qotgan kishilar chehrasiga allaqanday jonlanish paydo qildi. Uning shu qimtinishi hayot nishonasi edi.

Chopiqdagilarning hammasi yo'lga chiqib ularni sukut ichida kutib turishardi.

Xolmatjon uni yerga qo'ymay ko'tarib turganicha buyurdi:

– Aravaga to'n sol, bolish qo'y.

U bu gapni kimga aytayotganining ahamiyati yo'q edi. Ikki-uch kishi barobar aravaga chiqishdi. Biri to'n soldi, biri to'ni bolish qilib qo'ydi. Xolmatjon arava ustiga chiqqan oshpaz

xotinga Dildorni uzatdi. O'zi chaqqonlik bilan egarga minarkan, orqasiga qarab bo'g'iq tovush bilan dedi:

– Ishlaringni qilaveringlar!

Otga achchiq bir qamchi bosdi. Ot bexosdan tushgan qamchi alamidan shiddatli intildi. Arava g'ildiraklaridan shov-shov tuproq to'kib yo'lga tushdi. Oshpaz xotin oftob bezovta qilmasin deb, Dildorning yuzini ro'moli bilan to'sib borardi.

– Ishqilib, bechora shifo topsin-da, norasta go'dagi bor-a...

Dildor kechasi soat o'n ikkilardan keyin ko'zini ochdi. Tepasida qovoqlari qizargan Asrora turibdi. Uyning allaqayeridan Adolatning piq-piq yig'lagan tovushi kelardi.

Deraza zihida Xolmatjon qimirlamay o'tiribdi. Dildor ko'zini ochmasdan oldin qulog'iga juda ham uzoqdan Xolmatjonning ovozi kelayotgan edi. Ko'zini ochishi bilan ovoz tindi.

Asrora yengil tin oldi-da, uning peshanasiga qo'lini tegizdi.

– O'rtoqjon, senga nima bo'ldi? Qo'rqitvording-ku.

Dildorning ko'ziga Asroraning basharasi xira parda ichidan ko'rinayotganga o'xshardi. Nima deganini tushunmadi. Lablari nimadir deb pichirladi. A'zamjon dedimi, Azimjon dedimi Asrora bilolmadi. Asrora tasmollab bolasini so'rayotibdi, deb o'yladi-da, sekin Dildorning boshiga engashib:

– Uxlayapti, xotirjam bo'l, o'rtoq, – dedi.

Dildorning labi jilmayganga o'xshash sal-pal qimirlagandek bo'ldi.

Xolmatjon oyoq uchida yurib hovliga chiqdi. Malika aya yechinmay ayvonda Azimjonni bag'riga olganча uxlab yotardi. Dildordan ko'ngli ancha tinchigan Asrora ham Xolmatjon ketidan hovliga chiqdi. Xolmatjon ayvon ustuniga suyanganicha papiros chekar, allaqayerda tinimsiz g'aqillayotgan o'rdaklar ovozigа quloq solardi. Asrora yoniga keldi.

– Hali sizlarga ishonib yuribmizmi. Toza bo'lgan ekan.

Shu ishlarning bariga bir o'zi sababchidek, Xolmatjon gap qaytarolmay yutindi.

– Juda qo'rqib ketgan edim. Xayriyat...

Asrora boshqa gap aytmadi. Usti ochilib qolgan Azimjonning yelkasiga ko'rpa tortib qo'ydi.

– A'zam odam emas ekan. Hayvon!

Asrora bu gapni shunday bir ohangda aytdiki, unda ham jirkanish, ham nafrat bor edi.

Xolmatjon tilga kirdi:

– Sen bilmaysan, Asrora. Dildor juda siqilib ketdi. Bir yoqda bolasi, ish, er jonivor bu ahvolda cho‘lning qoq o‘rtasiga tashlab ketgan bo‘lsa...

Asrora gapini bo‘ldi:

– Bilasanmi, Xolmat? Dildor men uchun, Adol uchun, umuman, qizlarimiz uchun qanaqa odam edi. Uni nainki yigitlar, hatto qizlardan ham qizg‘anardik. Dildor, nazarimizda, Chortherakning fayzi, jamoli edi. Uni guldek avaylardik. Mana shu sho‘rtumshuq A‘zam oraga suquldi-yu, bechoraning tinchi buzildi. Halovati ketdi. O‘lmay turib bir marta qora kiydirdi ham. Ne kunlarni ko‘rmadi, bechora.

– Bilaman, bilganim bilan qandoq qilaman, – dedi nochor bir ohangda Xolmatjon. – Rahmim kelgani bilan qo‘limdan nima ish kelardi. Erkak narsa bo‘lganda ham kechalari oldiga kelib alahsitardim. Samovarga opchiqib odamlarga qo‘shardim. Nima qilay? Ayol kishining oldiga bemahal kelib bo‘lmasa. Bilgan undoq deydi, bilmagan bundoq. Shunaqa bo‘lsa ham, xabar olib turdim.

– Xabar olib turganing shumi?

Xolmatjon yerga qaradi. Etigining uchiga qarab javob berdi.

– Sen bilmaysan-da, Asrora, Dildor cho‘lga kelib boshqacha bo‘lib qolgan. Bu yerda u sen bo‘lmoqchi edi. Sening yo‘lingni tutmoqchi bo‘ldi. O‘jarlik qildi. Birovning gapiga kirmadi. Shu saraton jiziramasida soyabonsiz traktorni minib bo‘ladimi? Bir yoqda oftobning tig‘i, bir yoqda motorning issig‘i, temirlarning qizishi. Albatta, Dildorga o‘xshagan nozik odamga og‘irlik qiladi-da. Eriga o‘chakishib shunday qildi.

– Chortherakka olib ketaman. Senlarga xor qilib qo‘ymayman, uni.

– Ketmaydi. Mana ko‘rarsan, ketmaydi. U shu joyda oyoqqa turmoqchi. Suyanchiqsiz, yordamchisiz bir o‘zi qaddini ko‘tarmoqchi. Sen endi ilgarigi Dildorni topolmaysan. Shu uch kun uni boshqa Dildor qilib qo‘ydi.

Xolmatjonning bu gapidan, Dildor ketsa, men ham ketaman, degan ma‘no ham chiqazsa bo‘lardi. Buni Asrora sezmedi.

Ko‘cha tarafda mototsikl patilladi. Uning tovushi uy orqasiga kelganda birdan tindi. Sal o‘tmay yo‘lakda notekis tashlangan oyoq dupuri keldi.

Xolmatjon ham, Asrora ham beixtiyor o‘girilishdi.

Gandiraklab A‘zamjon kirdi. Uning ko‘zlari bejo, kayfining zo‘rligidan soat kaftgiridek chayqalib kelardi. Ko‘zi Asrora bilan

Xolmatjonga tushishi bilan bir qalqib to'xtadi. Orqaga tisarilib ketgan edi, arang o'zini o'nlab oldi. Hovlining jimjiligi, Asrora bilan Xolmatjonning qandaydir tashvish bilan turganlarini ko'rishi bilan ho'ngrab yig'lab yubordi.

— Yetib kelolmadimmi? Dildorim, meni kimlarga tashlab ketding?!

Asroraning ko'zlaridan o't chaqnab ketdi. Qo'llari mushtga aylandi-yu, telbadek bir hamla bilan uning yo'lini to'sib chiqdi.

— O'chir ovozingni, nomard!

Asroraning musht tugilgan qo'li havoga ko'tarildi.

— Yo'qol!

A'zamjon bir qadam orqaga chekindi. Xolmatjonga qaradi. Uning ko'zidan ham o't chaqnardi.

— Bir ko'ray, Dildorimni bir ko'ray!

Endi A'zamjonning ovozi past, juda ham past, pinhoni yig'idek quloqqa chalinmasdi.

A'zamjon ayvonga chiqdi. Uyga tomon burilayotgan edi, Xolmatjon yo'lini to'sdi. Endi u Asroradan madad kutgandek iltijo bilan qaradi.

— Mayli, kirsin! — dedi Asrora buyruq ohangida.

Uning ketidan Asrora ham kirdi.

Dildor ancha o'ziga kelib qolgan, Adolat orqasiga qo'yib bergan bolishga suyanib choy ho'plardi. Oyoq tovushidan o'girildi.

Eshik oldida A'zamjon kayfdan chayqalib turardi.

A'zamjon tamoman o'zini yo'qotdi. Eshik kesakisiga suyan-ganicha qimirlamay turib qoldi.

Mahbuba ishga ketgan, uyda A'zamjonning o'zi yolg'iz edi. Yotaverib juda zerikib ketdi. Bir aylanib kelay deb Quva bozoriga chiqdi. Obdan aylandi. Somsaxona orqasiga o'tib vino budka-sidan stakan so'rab oldi-da, do'kondan olib chiqqan chorak-ta araqni qulqillatib quyib ichdi. Shirakayf bo'lib qaytayotgan-da eshigi oldida terakka ot boyliqli turganini ko'rdi. Dimog'iga handalak hidi keldi. Qarasa, otlq kishi xurjunining ikki ko'zini ochib qo'yib handalak sotyapti. A'zamjonning handalakni bu yil endi ko'rishi edi. Bittasini olib hidladi.

— Qayerning handalagi, amak? — dedi u oliftagarchilik qilib.

— Yozyovonniki, uka.

— Yozyovonning qayerida bitgan?

— Naymanida. Eshitganmisan? Chorterakliklar ko'chirma bo'lgan uchastkaning orqasida. Bugun Chorterakdan kelgan bitta juvon o'lib qoldi. O'zim ko'rdim.

A'zamjon bu gapga uncha ahamiyat bermadi. Qo'lidagi handalakni joyiga qo'yarkan, shoshib so'radi:

– Kim dedingiz?

– Chorterakdan kelgan ko'chirmalardan bittasi. Ayol kishi. Yoshgina ekan. Traktor ustida o'lib qopti. Ko'rib qo'rqib ketdim. Oydek juvon ekan. O'ligini qo'lda ko'tarib olib ketishdi.

– Qayoqqa? Chorterakkami?

– Unisini bilmadim.

– Oti nima ekan, bilmadingizmi?

Otliq o'ylanib qoldi.

– Dilbarmi, Lobarmi, anig'i esimda yo'q. Shunga o'xshaganroq edi.

A'zamjonning ko'zi tinib, boshi aylandi. Bu o'sha, Dildor. Uning xotini Dildor! Traktor minadigan ayol faqat shu.

A'zamjon hayajonda qanday qilib uyga kirganini, qanday qilib devorga suyoqli turgan mototsiklni yetaklab chiqqanini bilmaydi. Bir mahal qarasa, Nayman yo'lida ilonizi qilib mototsikl haydab kelyapti. U Dildorni o'lgan deb o'ylagan edi. Ko'rolmay qoldim, so'nggi so'zlarini eshitolmay qoldim, deb dog'da edi.

Mana, u tirik ekan. Unga hech qanday ma'no anglab bo'lmaydigan ko'zlarini tikib turibdi.

Hamma jim. Faqat A'zamjonning hansirashi eshitiladi. Undan gup-gup aroq hidi kelardi.

Dildor tilga kirdi. Past ovoz bilan zo'rg'a dedi:

– Keting!

A'zamjon yolvorgandek bir qadam Dildor tomon bosdi.

– Ket!

U birinchi marta erini sansirashi edi. U shunday dedi-yu, yuzini teskari o'girdi. A'zamjon g'azabga keldi. Ovozini baland ko'tardi.

– Keyin pushaymon bo'lasan. Ko'z yoshlaringning foydasi bo'lmaydi.

Dildor unga qaramay, boshini sarak-sarak qildi. Gaplarini eshitmaslik uchun, darmonsiz qo'llarini arang ko'tarib quloqlarini berkitdi.

Asrora A'zamjonning yelkasidan turtdi.

– Eshitmadingmi? Jo'na!

– Nima?!

– Jo'na! – dedi gapini takrorlab Asrora.

– Vey, o'zing kimsan? Xotinimisan? Men frontda qon to'kib kelganman. Olovlar orasidan chiqqanman.

— Baqirma. Nima, sen urushayotganingda bu yoqdagilar holva yeb o'tirganmidi. Manavi ham, — u Xolmatjonni ko'rsatdi, — sen borgan joydan kelgan. Odamga o'xshab yuribdi-ku. Qo'li-da miltig'i borlar yapon bilan urushyapti, bilagida kuchi borlar ketmon chopiyapti. E, bor-e, senam odam bo'lding-u... Bemor yotgan uyni atir bilan araq aralash hid qilib yubording, chiq.

Asrora uni turtib ayvonga olib chiqdi,

— Hammangni tillaring bir.

— Albatta, tilimiz bir-da. Hammamizning dilimiz bir. Bitta sening tiling boshqa. Diling ham boshqa. Qazisan, qartasan, asli naslingga tortasan. Inoyat oqsoqoldan o'tib qayoqqa borarding!

Bu gap A'zamjonning yurak-yuragidan o'tib ketdi. Asroraga musht o'qalib kela boshladi. Agar Xolmatjon uni yelkasi bilan surib yubormaganda, albatta, Asroraning og'iz-burni qon bo'lardi. Xolmatjonniki ham tutib ketdi. Ayol kishiga qo'l ko'targanining ta'zirini berib qo'ymoqchi bo'ldi-yu, yoqasidan bo'g'ib orqasiga tislantirgancha ko'chaga opchiqdi. Bir siltab qo'yib yuborgan edi, bir oyog'i ariqqa tushib yonboshiga og'ib ketdi. Ammo yiqilmadi.

— Yaxshilikcha ket, — dedi xotirjam tovushda Xolmatjon.

A'zamjon hamon bezlik qilib eshik to'g'risida qalqib turardi.

— Axir, men nima yomonlik qildim, gunohim nima, axir?

Xolmatjon uning gapiga quloq solmay suv yoqalab guzar tarafga yo'l oldi. Sal nari borib to'xtadi.

Qaytib kirib ularni bezovta qilmasmikin?

Xolmatjon papiros tutatib anchagina kutib turdi. A'zamjon chayqalib o'n-o'n besh minutlarcha turgandan keyin qo'lini keskin bir siltadi-da, mototsikliga minib cho'l qo'yniga kirib ketdi. Ko'chaga Asrora chiqdi. Xolmatjonni chaqirdi.

— Shattaman. Nima edi?

— Idora tarafga borsang, Chortrakka telefon qilib qo'y. Qorovulga ayt, ertalab mashina to'ppa-to'g'ri shatga kelaversin.

— Bo'пти, aytaman. Bu A'zamjon g'irt mast edi. Yo'lda mototsikl bilan chuqur-puqurga tushib falokat qilib o'tirmasa go'rga edi.

Asrora qo'l siltadi.

— O'lib ketmaydimi.

Asrora uyga qaytib kirganda Dildor ko'zlarini yumib yotar, kipriklari orasidan sizib chiqqan tomchilarni o'zi sezmasdi.

Asrora uning tepasida birpas hardamxayol bo'lib turgandan keyin ayvonga chiqib ko'rpachaga o'zini tashladi.

Juda olisdan mototsikl ovozi kelar, u borgan sari uzoqlashardi. Oxiri bu ojiz ovozni cho‘l qorong‘iligi yutib ketgandek birdan hammayoq jimidi-qoldi.

Shu yo‘q bo‘lib ketgan ovoz bilan birga bu uy, bu odamlar uchun A‘zamjon ham uzoqlashib yo‘q bo‘lib ketgandek edi.

IKKINCHI BO'LIM

I

Cho'l qovunlari pishay-pishay deb turibdi.

Naymanning ko'm-ko'k to'qaylari saraton og'ishi bilan sarg'ayib qog'ozdek shaldiray boshladi. Kechagina ketmon das-tasidek tol poyalari bugun shox otib, tagiga soya tashlagan. Hozir o'sha tolzorlarda chumchuqlar chirqillaydi. G'ozapoya bosilgan tomlar, hovlilarda lab-dahani qora tandirlar, chorbog'larda tel-pak kiygan yog'ochoyoq «qo'riqchi»lar...

Nayman oqshomidek nash'ali oqshom jahonning hech yerida bo'lmasa kerak.

Kun botgani bilan darrov qorong'i tusha qolmaydi. Botib ketgan oftobning shu'lasi osmonga goh qizil, goh sariq, goh binafsha rang purkaydi. Shunday paytlarda Nayman imoratlari ham bir qizil, bir sariq, bir binafsha tusga kiradi.

Mana shunday beqasam oqshom etagini yamlab tun sudralib, shoshilmay cho'lning past tarafidan kirib keladi. Uning kelishini naymanliklar bemalol ko'rib turishadi. Naymanga kelib oftob o'chishini, ufq qizarishini, tun o'z oyog'i bilan yurib kelishini ko'rmagan odamga tushuntirish qiyin. Oqshom cho'kadi. Uylarda birin-ketin chiroqlar yonadi. Hovlilardan chuchitilgan yog', qovurilgan sabzi-piyoz, issiq non hidi keladi. To'qaydan o'rdag-u qashqaldoqlarning g'aq-g'uqi, cho'ldan chigirtkalar-ning bir maqomda chirillashi eshitiladi. Shamol olis cho'llardan o't-o'lanlar hidini dovon oshirib olib o'tadi. Ayniqsa, katta tol tagidagi so'rida o'tirib oy chiqishini ko'rish juda gashtli bo'ladi. Yulduz to'la qop-qora osmon xuddi tagidagi qurumi kuygan qozonni to'nkarib qo'ygandek jimir-jimir qiladi. Biri yonib, biri o'chadi.

Ikromjon shu soʻrida nevarasini toʻniga oʻrab, qamishlarning shitirlashiga, qorongʻida inini topolmagan qushlarning bezovta chirqillashlariga quloq soladi, yo Zebixon, yo Nizomjon ovqatga chaqirib kelmaguncha shu alfozda oʻtiraveradi. Baʼzan qoʻynida bola uxlab qolganidan qimirlamay oʻtiradi. Koʻksiga bola tanidagi harorat tekkanida koʻngli allanechuk boʻlib ketadi. Shu bola uning ermagi, ovunchogʻi. Shu fayzli soʻriga Toʻlanboy «Ikromning taxti» deb nom qoʻygan. Kechqurun Ikromjon choynak koʻtarib oʻsha yoqqa ketayotganida Toʻlanboy: «Xorun ar-Rashid taxtga chiqyapti», deb kulardi. Ikromjon nevarasini koʻtarib kelayotganda: «Olampanoh shahzodani taxtga oʻrgat-yaptilar», deb gap qotadi. Ikromjon uning bu gaplariga kulib qoʻya qolar, ammo javob qaytarmasdi.

Uch kundan beri shu «Olampanoh»ning taxti boʻsh turardi. Toʻlanboy har oʻtganida, bu Ikrom tushmagur qayoqqa ketib qoldi, deb hayron boʻlardi. Tomorqasiga ekan kuzgi «qirqma»-larini chopiq qilib qaytarkan, soʻrida nevarasini toʻniga oʻrab oʻtirgan Ikromjonni koʻrib toʻxtadi.

– Qayoqlarda yuribsan? Nayman huvillab qoldi-ku!

Ikromjon yonidan joy koʻrsatdi. Toʻlanboy ketmonini yelkadan olib soʻri chetiga oʻtirdi.

– Ishlar qalay?

– Qalay emas, kumush. Tilla boʻlishiga sal bor.

Toʻlanboy shu uch kun ichida boʻlib oʻtgan yangiliklarni birpasda gapirib tashladi.

Uchinchi uchastkaning gʻoʻzalarini kechasi suv bosib ketgan. Allaqaydan har biri mushukdek keladigan suv kalamushi paydo boʻlipti. Kanal tagidan teshib, qamish orasida bola ochayotganmish. U teshgan joydan suv urib ketyapti.

Bu narsa koʻpdan beri Ikromjonni ham tashvishga solib yurardi. Kalamush bolalaydigan payt kelgan boʻlsa, bu ancha xavfli boʻladi. Chunki kalamush bolalariga ovqat qidirib qamishdan kanalga, kanaldan qamishga serqatnov boʻlib qoladi. U har qatnaganda kanal dambasini teshadi. U teshgan joyni suv oʻpirib, bir tegirmon suv dalani bosaveradi.

– Xolmatliklar uchastkasida ham shu ahvol. Melivoy aka kalamush otganlarga mukofot chiqazibdi. Oʻnta urib kelganga bir qop un, oʻn beshta urib kelganga bitta echki. Modasini urib, inidan bolalarini topsa, qoʻy vaʼda qipti. Togʻaga aytib biz ham shunaqa qilsak qandoq boʻlarkin?

Ikromjon gaplashib ko'rishni aytdi.

To'lanboy Ikromjonning dilida nimadir borligi, nimadandir diqqati oshganini sezib turardi.

— Nima gap bo'ldi, oshna, sal unaqaroq ko'rinasan?

Ikromjon uf tortib nevarasini to'niga yaxshilab o'rab oldi.

— Nima bo'lardi. Menga jin ham tekkani yo'q. Ba'zi odamlarning qilig'idan xunob bo'lasan-da! Quvaga to'yga borib keldim.

— Qanaqa to'y?

— Tanirding-ku, Zarkentda selsovetga sekretar bo'lgan Mahbuba degan yaxshigina bir juvon bor edi.

— Taniyman, — dedi To'lanboy. — Zebixonlar bilan o'qigan Kozimjonga tekkan edi-da. Boyoqish uch kungina birga bo'lib urushga ketgan edi. Esingdan chiqdimi, yaqinda Mahbuba Quvadan kelib Kozimjonga yil oshi qilib bergan edi-ku. Borgan eding, Ikrom. Mahbuba yaxshi juvon. Bechora, erini e kutdi-ya. Oydek narsa edi. Bir ko'rganimda ancha so'lib qopti.

— Tunov kuni Zirillamaga tushsam, Tog'aning oldida o'tiribdi. Boyoqishni necha marta ko'rgan bo'lsam, egnida qora kiyim bo'lardi. Hartugul bu gal oq kiyipti. Kirishim bilan gaplari to'xtab qoldi. Mahbuba jindek ko'z yoshi qilib olgan ekan, shekilli, men kirishim bilan ko'zini yashirdi. — Yaxshi kelding, Ikrom, — deb qoldi Tog'a. — Mana, qizim, Ikrom amaking, men, yana besh-o'n kishi bo'lib yaxshilab o'tkazib beramiz.

— Baraka toping, Tog'a. Meni sizlardan boshqa kimim bor, — dedi Mahbuba.

— Yig'lama, yig'lama, — dedi Tog'a uning boshini silab. — Men-chi, Ikrom-chi? Sen xotirjam ketaver. Ishqilib, kuyoving esli-hushligina bolami? Turmush mushkul narsa, murosai madora degan gaplar bo'ladi. Mayli, sen ketaver. Xotinlar ertalab borishadi, biz kechga yaqin boramiz. Kam-ko'sting bo'lsa, uyalmay aytaver...

Mahbuba bosh chayqadi.

U ketgandan keyin Tog'a stol chetini chertib, ancha xomush o'tirib qoldi.

— Bechora betoleni qara. Uch yil kuyovini kutdi, bir bevalik dardini tortdi. Endi er qilay, deb o'zing uchun o'l yetim bo'lib yuribdi. Qayishadigan na akasi bor, na ukasi. Ertaga borib to'yini yaxshilab o'tkazib beramiz. Nima deysan?

— Mayli, Tog'a, sen nima desang shu-da. Borganimiz bo'lsin. Bir g'aribning ko'nglini olish Sulaymon taxtiga o'tirgandan afzal deyishadi-ku.

Biz Mahbubani bolaligidan bilardik. Boyoqish yetimlikning nimaiki mahrumligi bo'lsa, barini ko'rgan. Ko'zga yaqin bo'lgan sari unga suykaldiganlar ko'payib qoldi. O'ziga dog' yuqtirmadi. Bilasan-ku, buning yarim husniga teng kelmaydiganlar ne ishlar qilishdi. Yaxshi bola edi. Shu desang, Tog'aning ham tantiligi tutib, bitta qo'y bilan un-guruch degandek to'y xarajatlari, sarpo-suruq bilan xotinlarni bir mashina qilib jo'natvordi. Kechqurun besh-o'n erkak gruzavoyda Quvaga jo'nadik.

To'y allaqachon boshlanib ketibdi. Quvaliklar, o'zing bilasan, to'y bo'lsa, bor narsani dasturxonga to'kishadi. Qoragina bir bola o'rtaga tushib shunaqayam g'alati ashulalar qilyapti. Yangicha to'y ajoyib bo'lar ekan. Yuqorida kelin boshiga oq ro'mol solib yerga qarab o'tiribdi. Yonida ko'krakdor, jingalak soch kuyov. O'tirayotib zavqlanib yana bir qaradim. Qaradim-u, angraygancha qoldim. Kuyov kim, degin, kuyov, Nizomjonning akasi A'zam.

— A! — dedi To'lanboy sapchib. — A'zam?

— Ha, A'zamjon.

— Axir, uning xotini, bolasi bor-ku.

— Na o'tirganimni bilaman, na turganimni.

— Dadasi, opasi bormi?

— Ko'rinmadi, — dedi Ikromjon. — Ularning ham xabari yo'qqa o'xshaydi.

— Axir, Nizom kechagina aytayotgan edi-ku, akam xotini bilan cho'lga ko'chib kepti, deb.

— Menga ham aytgan edi. Demak, A'zamjon nomardlik qilib xotinini cho'lga tashlab qochgan yo bo'lmasa bildirmay ustiga xotin olgan. Shu desang, jinniligim tutib bir-ikki hezlanib o'rnimdan turmoqchi bo'ldim, bir sharmandasini chiqazay dedim, yo'q, shaytonga hay berib yana o'tirdim. Hammadan ham Mahbubaga ichim kuyib ketyapti. Shundoq yaxshi bola yana o'tda kuyib qoladimi? Bir uyni obod qiladigan, ne-ne yaxshi yigitlarga munosib shundoq bola o'tda qovurilib qoladimi? Axir, Tog'a, men o'sha kuni Mahbubani ko'rganimizda kuyovning kimligini yaxshilab surishtirmaganimizdan jahlim chiqib ketdi. Nahotki, bitta yetimcha ro'zg'or qilaman, deb bosh egib oldimizga kelganda shunaqa beparvolik qilsak. Voy, bu odamlarda insof degan padarlar'nat bormi? Qachon odam bo'lamiz? Qachon birovning dardiga kuyadigan bo'lamiz?

Ikromjonning bir qoshi ko'tarilib, ko'zlari pирpiradi. Se-kin-asta bosib kelayotgan nimqorong'ilikka tikilganicha turib qoldi.

To‘lanboy boshini sarak-sarak qilib indamay o‘tirardi. Oxiri u:
– Nizom bilmaydi-a? – deb qo‘ydi.
– Bilmasa kerak. O‘zim shu topda keldim. Hali uni ko‘rganim yo‘q.

– Tog‘a sezdimi?

– Aytmadim. Qandoq aytaman. Sal tobim aynib turibdi, degan edim, Tog‘a, mayli, keta qolaylik, deb o‘rnidan turdi. Kelin bilan kuyovni tabriklagani boraylik, deb yuqoriga meni ham sudradi. U kuyovning qo‘lini mahkam siqib keyin bag‘riga tortdi. Azamatim, qizimizni senga topshirdik, uni ko‘z qorachig‘ingdek asra, dedi. Ko‘pchilikning ko‘zi bizda edi. Men Mahbubani tabriklayapman-u, tomog‘im o‘lgurga nimadir tiqilib, aytadigan gapim bo‘g‘zimdan o‘tmaydi. A‘zamning betiga ham qaramadim, uni tabriklamadim ham. Agar bir og‘iz bir nima deganda bomba bo‘lib portlab ketardim, azbaroyi xudo. Yo‘q, indamadi.

Tog‘a bilan ikkovimiz kelyapmiz, degin, men indamayman, Tog‘a gapiradi:

– Yaxshi bolaga o‘xshaydi, front ko‘rgan bola ekan. Ikkovi bir-biriga juda munosib. Ishqilib, qo‘sha qarisin. Yetimchagina-ning tolei bor ekan.

Tog‘a gapiryapti, men dod devoray deyapman. Bilmadim, bu yog‘i nima bo‘ladi endi.

Zebixon kelib ularning gapi bo‘lindi. Zebixon ancha o‘z-gargan, xotinlik nuqsi urib, to‘lishib qolgan edi. U Ikromjondan uxlab qolgan bolani olib, ovqat pishganini aytdi. Pochchasini ham ovqatga taklif qildi.

– Yuring, pochcha, dadam bilan birga ovqatlanasiz. Kuyov-ingiz tushda Zirillamaga tushib ketgan edi. Yuring.

To‘lanboy rozi bo‘ldi.

– Sen boraver, Zebi, eshikka kirib yuvinib, opangga aytib chiqay.

Qaynata-kelin ketisharkan, bola uyg‘ondi. Onasining qo‘li-daligini bilib xarxasha boshladi.

– Bobomga, bobomga boraman.

Bola bobosini ikki-uch kun ko‘rmay, ichikib qolgan. Kelganidan beri tizzasidan tushmay yopishib olgandi.

– Bobomga, bobomga boraman.

Bu gap, go‘dak gapi, uning bobom, degan gapi Ikromjon-ning ich-ichiga kirib ketdi. Tomirlari jimirlab, tanlari yayradi.

Basharalarida, ko‘zlarida qandoq ifoda bor ekan shu topda. Qorong‘ilikda uning basharasi, qosh-ko‘zlari ko‘rinmasdi.

– Kel, o‘zimga kel, bolam, – dedi u.

Titragan va ayni paytda qo‘shiqdek eng nozik pardalarni tirnab chiqqan bu ovozdun uning yuzlari, ko‘zlari qandoqligini bilish qiyin emasdi.

Ikromjon baxtidan entikardi.

Osmonda yulduzlar birin-ketin ko‘z ochaverdi, ko‘z ochaverdi.

II

Tong otishiga xiyla bor.

Oy daydi qum tarafga botay-botay deb turibdi. Cho‘g‘dek qizigan qumtepalar ustidan iliq-miliq bo‘lib keladigan shamol endi tanni junjitadi. Qumlar ham, tepaliklar ham sovugan.

Bu kecha Dildor uchun juda og‘ir tun bo‘ldi. Bu kecha u o‘zi, o‘g‘li endi nima qilishi to‘g‘risida o‘yladi. U o‘ylardi-yu, negadir tez-tez Xolmatjonning basharasi lip etib ko‘z oldidan o‘tib qolardi. Shunday paytlarda Dildor xayoldan uzilib, nega bundoq bo‘lyapti, deb o‘zidan-o‘zi so‘rardi. Nahotki, Xolmatjon uchun yuragining qatida biron joy topilsa? Axir, u bir marta sevdi, sevgini pisand qilmay tupurdi. Yana sevdi, bir necha kun shu sevgidan entikdi. Sevgani unga tupurdi. Endi yana sevmochimi?

Mana shu uchta jumboq uni tong otguncha uxlatmadi.

Endi u o‘z qilmishlariga uzil-kesil javob topmoqchi. Agar o‘z hayotidan kir dog‘lar topsa, o‘zini-o‘zi qarg‘aydi. Agar yangi nurli yo‘llarga so‘qmoq topolsa, o‘z o‘tmishiga, kechmishlariga xotima berib, shu tanlagan yangi so‘qmoqdan dadil ketmoqchi.

Tun yarmidan oqqanda birinchi savoliga javob izlardi.

Nizomjonni u sevarmidi?

– Ha, sevardim, – dedi pichirlab.

Dildor o‘ylab ketdi. U bilan birga kechirgan ajib nur pardasi orasida hamisha porlab turadigan qaynoq sevgi, entikishlar, o‘tga chalqancha yotib ertangi kun, istiqbol tonglarini kutishlar...

Birinchi so‘roqda Dildor gunohkor sanadi o‘zini. U shundoq tiniq sevgining betiga kul sochdi. Bu bevafoqlikning oqibati nimalarga sabab bo‘lishini o‘ylamadi. Nizom darbadar bo‘ldi. Dildorning o‘zi tengsiz xo‘rliklarga nishon bo‘ldi.

– Gunohkorman, gunohkorman, – deya yana pichirladi Dildorning lablari. U o‘zini-o‘zi yana so‘roqqa tutdi:

– A'zamjonni sevarmidim? Qachon sevdim? U meni sevarmidim?

Dildor bu so'roqqa javob topolmay ancha turib qoldi.

– Sevarmiding? – deb yana so'radi o'zidan.

– Bilmadim.

U o'ylardi.

– U sevgi emasdir. Nima bo'lmasa? Sevgi emas, ehtiros. Ha, ana endi topdim.

Saraton kuydirgan dala. Barglari iligan tutzor...

Dildor A'zamjon bilan birinchi uchrashgan saraton qizdirgan kunni eslab ketdi. G'urrakning yoqimsiz g'urillashi, chigirtkalarining kishini behuzur qiluvchi chirillashi. Yoqutdek tovlanagan shotut tagida hansirab turgan pahlavon yigitning besaranjom ko'zlari. Va nihoyat uning og'ushida erib ketishlar...

Dildor o'sha saraton kunini hamon qarg'aydi. Qiz hayotida eng yorqin, eng ohangdor bo'lib qoluvchi qovushish onlarini u qarg'ab o'tyapti. Koshki edi, u kunlar shu bilan bitgan bo'lsa. O'sha saraton kuni unga har kuni, har soat nayza sanchadi. Haholatini, yoshligini, sog'ligini yemiradi.

Ikkinchi savol ham uni yupatmadi. O'zi aybdor bo'lib chiqdi.

– Gunohkorman. Men aybliman.

Mana, tong otay-otay deb turibdi. U endi o'ziga uchinchi savol tashlayapti.

– Xolmatjon senga kim bo'ladi? Qalbingda uchinchi sevgiga joy bormi?

Bu savol avvalgi ikkita savoldan og'irroq edi. Dildor har ishga og'ir, bosiq bo'lsa ham, sevgi ishiga dangalchi edi. Ikki bor qilgan dangalchiligi tanidan allaqancha jarohat ochib ketgan bo'lishiga qaramay yana o'ziga, ko'ziga tikilgan yigit boqishlari oldida esankirardi.

Dildor qanchalik aql-idrokini ishga solmoqchi bo'lsa-da, unda o'zi sezmaganda holda A'zamdan o'ch olish, uni kuydirish niyati borga o'xshardi.

Dildor bir narsani yaxshi tushungan edi. Bir marta sevgida yanglishgan odam o'sha adashuvning dardini umrbod tortadi. Mana, u tortyapti-ku. Dildor birdan o'rnidan turib devor osha qirga qaradi. Tong oppoq bo'lib yorishib kelardi. Shu oppoq nur uning ichiga kirgandek qat'iylashdi.

– Xolmatjon yomon bola emas. Balki, men uni sevmasman. Nega sevmayman? Yo'q. Sevishim mumkin! Sevmasam, nega kechasi bilan uni o'ylab chiqdim. Albatta, endi yosh bola emas-

man. Oyga qarab entikadigan, qushlar nag' masini eshitib yig'laydigan yoshdan o'tdim. Endigi sevgi boshqacharoq bo'lsamikan.

– Xolmatjon o'g'limga ota bo'la olarmikan? Uni siqishtirmasmikan?

Bu savol uni o'ylatib qo'ydi. To'g'ri javob topish uchun xayolan bo'lsa ham Xolmatjonning o'tmishi, hoziri, ertasini ko'rish kerak.

Sutdek bo'lib tong yorishayotgan paytda Dildor berilib, qandaydir entikish, ko'z yoshi, tabassum, xomushlik bilan Xolmatjonni ko'rib turardi.

U shuncha o'ylab Xolmatjondan bironta dog' topolmadi. O'yining oxiri shu bo'ldiki, nega avval uni sevmadim, bundan ortiq yigit yo'q edi-ku qishlog'imda? U menga emas, men unga munosib emasman. U menga yolvormasligi kerak, men ko'z yoshi qilib yalinisim kerak. U meni emas, men uni baxtli qilishim kerak.

Balki, Xolmatjon menga rahmi kelib odamgarchilik qilayotgandir. Balki, uning mungli boqishlari menga achinishdir? Sevginasdir? Xoh sevsin, xoh sevmasin, Xolmatjon boshqalardan yaxshi.

Malika aya yo'talib o'rnidan turdi.

– Bolam, muncha vaqtli turding.

Dildor unga javob bermay, yoniga tizzaladi.

– Bitta gap so'rasam, astoydil javob qilasizmi?

Malika aya yana joyiga o'tirdi-yu, ko'rparasini yelkasiga tortdi.

– Gapir, bolam.

Dildor avvaliga gapirolmay entikdi. U bu mehribon xotinni yaxshi ko'rib qolgandi. Ko'nglida kiri yo'q, butun onalik mehrini hammaga barobar sohadigan, yaxshilikdan boshqani bilmagan bu xotin bilan dardlashishni ko'ngli tusab qoldi.

– Ayajon, ahvolimni ko'rib turibsiz-a? Nimalar bo'layotgani, nimalar bo'lganini bilasiz. Endi nima bo'lishini bilasizmi?

– Aytasang, bilaman, bolam. Sen ayt, men bilib qo'yay.

– Endi nima qilay? Shundoq o'taveraymi?

Kampirning uyquasi qochmagan ekan, bu uzuq-yuluq gaplardan hech narsa tushunolmay, tishsiz og'zini ochganicha unga qarab turardi.

– Erim tashlab ketganini bilasizmi?

– Hah, shunga shunchami? – dedi o'ziga kelib kampir. Ketsa sadqayi sar. Yoshsan, seni kimlar olmaydi. Bir uyni obod qiladigan qizsan. Bir yigit baxtini beradigan qizsan.

Dildor titrab so'radi.

– Meni kim oladi?

– Voy, jinni-e, voy, tentagim-e, senimi, seni yigitning guli oladi. Rostini ayt, erga tegmoqchimisan? Nima, er topib beraymi? Sendaqalarga er topib berilmaydi. Er o'z oyog'i bilan keladi.

Dildor hamon titrardi.

– Kim o'z oyog'i bilan keladigan? Kim? Bilsangiz ayting.

– Seni Xolmatjongina oladi. Xolmatjongina seni boshiga ko'taradi.

– Rostmi?

Kampir qo'l siltadi.

– Tentak ekansan. O'zingning kimligingni o'zing bilmas ekansan. Qo'y endi, birpas mizg'ib olay.

Kampir ko'rpani boshiga tortib oldi. Dildor ajib bir yengillik bilan o'rnidan turdi. Endi u qushdek edi. Kechasi bilan yelkasi-dan bosgan yuk gursillab yerga tushgandek, endi uning o'tmishi yo'q, faqat ertasi bor edi.

Ertasi mana shu tong bilan birga oqarib, ravshanlashib kelmoqda edi.

Qo'shni hovlidan o'tin yorgan tovush keldi. Odamlar uyg'onib, nonushta harakatiga kirib qolishgan edi.

Kampir uxlolmadi shekilli, u yoqdan-bu yoqqa ag'darilaverib oxiri o'rnidan turdi. O'choqqa o't qalab qumg'on osdi. Eshikni kimdir qamchi bilan taqillata boshladi. Novvoy aravada non olib kelgan edi. Faner yashikdagi bug'i chiqib turgan nondan to'rttasini berib ketdi. Choy ustida Dildor bilan kampir tuzuk-quruq gaplashishmadi. Dildor shoshilmay choy ichib ish kiyimlarini kiydi-yu, chiqib ketdi. Kampir Azimjonning uyg'onishini kutib uyda qoldi.

Ko'chada harakat boshlangan, tol tagidagi samovarda choyxo'rlar radio eshitib, nonushta qilishardi. Dildor yengil yurib ular oldidan o'tib ketdi.

Xolmatjon ham shu yerda edi, u Dildorni ko'rib bir qo'zg'al-di-yu, yana joyiga o'tirdi. Dildor saroydan traktorini olib o'z uchastkasiga qarab rulni burdi. Hali dala jimjit. Bu jimlikni Dildor mingan traktor shovqini uyg'otib yuborgan edi. Traktor ham bugun negadir yengil yurayotgandek, motori ham bir maqomda gurillar, do'nglardan, ariqlardan yengil sakrab o'tayotgandek edi.

Dildor o'sha issiq kunda ko'ngli ketib qolgandan beri endi dalaga chiqishi edi. Shura to'rtta qartani kultivatsiya qilib bo'lgan ekan, Dildor berigi qartaga kirdi.

Ertalabki shabada uning sochlarini, boshidagi durralarini yelpir, silkitib yuz-ko'zlarini savalar, tomog'i tagiga urilib qitiqlagandek bo'lardi.

U cho'lga kelib hech kimga qaram bo'lmay, mustaqil yashay boshlagan bo'lsa, bugun butun vujudini bosib yotgan alam yuklaridan xalos bo'lib yangi tuyg'ular, yangi orzular bilan entikar, ishlar, o'ylar, o'ylagan sari, ishlagan sari, entikkan sari bir yaxshilik tomonga ketayotgandek bo'lardi.

G'am bo'yniga boylangan tosh bo'lsa, quvonch yelkadan o'sib chiqqan qanot.

G'am pastga, quvonch yuqoriga tortadi. Bugun Dildor bo'ynidagi og'ir toshni irg'itib tashladi-yu, quvonch qanotida ko'kka intildi.

U bir dam motorni o'chirib, hozirgina haydab o'tgan yerni aylanib chiqar, tizza bo'yi g'o'zalar orasida kezarkan, qushlar jivir-jiviriga mahliyo bo'lib turib qolar, go'yo bu tovushlarni endi eshitayotgandek bo'lardi.

Chindan ham u shu paytgacha qushlar nag'masini eshitmasdi. Qulog'iga bu tovushlar kirmasdi.

Atrof ufqqacha ko'm-ko'k. Havo beg'ubor. Qovun po'chog'i yerga tushganda shundoq bo'ladi. Suvlar ham tiniqadi. Chang-g'uborlar ham bosiladi. Saraton oxirlab, asad ostonasida havo, tabiat, o't-o'lan ajib bir qiyofa kasb etadi.

Olamning bu xil o'zgarishlarini Dildor unutgan edi. Endi u boshqatdan tabiat qo'shiqlarini tinglayapti. Ko'zlari alvonrang manzaralardan yashnayapti.

Ko'ngil xotirjamligi, ezgu orzular insonga qanchalar go'zal tuyg'ular solishga qodir.

To tushgacha Dildor shu kayfiyatda goh iljayib, goh qoshlari chimirilib jiddiy ish qildi. Oftob tepaga kelganda, motorga dam berish uchun traktorni to'xtatib, o'zi do'ng orqasidagi soyaga yonboshlab, ro'moliga tugilgan non, chillakini oldi.

Butun dala jimib qolgan. Hech qanday sharpa sezilmas. Qushlar ham issiqda qaydadir mudrashar, faqat tinmagur g'urрак erinib sayrar, har zamon ko'k qarg'a qar-qar qilib qo'yardi.

Ot tuyog'ining dupuri eshitilgandek bo'ldi. Dildor qaddini ko'tarib, atrofqa qaragan edi, olisda otliq kelayotganini ko'r-di. Yo'lovchilardan birontasi bo'lsa kerak dedi-yu, maysaga chalqancha yotib, ko'zlarini yumdi. U yotgan do'ng arava yo'lidan chetda bo'lganidan ancha xoli edi. Dildor shuning uchun ham bemalol yotaverdi.

Charchagan, buning ustiga motorning issig'i uni ancha lohas qilgan ekan. Bu kecha uxlamaganidan ko'zini uyqu oldi. Kiprik-lari beixtiyor jipslashdi-yu, uxladi-qoldi.

Qir shabadasi sochlarini to'zg'itar, etaklarini tizzalaridan oshirib ochib o'ynardi.

Dildor shirin uyquda barq urib yotardi.

Dildor ko'zini ochganda boshiga oftob kelib qolgan edi. Soya oyoq tomonga sudralib, oftob ko'kraklarini qizdirgan, bo'yinlaridan marjon ter oqardi. U erinibgina ko'zini ochdi. Shamol etagini beligacha ochib yuborganidan, biron begonaning ko'zi tushmadimikin, degan andisha bilan shoshib yopdi-yu, alanglab atrofqa qaradi. Yaqin orada ot kishnadi. Dildor sapchib o'rnidan turib, bo'y cho'zib u yoq-bu yoqqa qaradi. Do'ngning narigi tomonida ot jilovini ushlaganicha Xolmatjon cho'nqayib o'tirar, yerga qamchi bilan nimalarnidir chizardi.

Dildorning rangi oqarib ketdi. Shu alfozda yotganimni ko'rgan bo'lsa-ya, ko'rgan, albatta ko'rgan, shuning uchun ham yonimga kelolmay panada o'tiribdi. Voy, sharmanda, endi uning betiga qandoq qarayman.

Dildorning uyg'onganini sezgan Xolmatjon ham o'rnidan turib, otini yetaklaganicha oldiga kela boshladi. Dildorning yuragi urar, andishadan ikki yuzi qip-qizil bo'lib ketgan edi.

Xolmatjon hech narsa bilmagandek, hech narsa ko'rmagandek beparvo yaqin keldi.

– Yettinchining yeriga ketayotgan edim. Motor tovushi tinganidan keyin xavotir bo'ldim. Hozir keldim, rost, hozir keldim.

Xolmatjon yolg'on aytayotgani shundoqqina bilinib turardi. Qay alfozda yotganimni ko'rganini yashirish uchun yolg'onlaypti, deb battar qizardi Dildor.

Xolmatjon ot xurjunidan bitta qovun olib Dildorga uzatdi.

– Iya, oq qovun pishiymimi? – dedi ajablangan Dildor.

– Endi ko'rishingizimi, voy-bo'!

Dildor qovunni olib hidladi.

– O'lmay qovun pishig'ini ham ko'rdik.

Shu bahona bo'ldi-yu, oradan begonalik qochdi. Ajriqqa o'tirib, u yoq-bu yoqdan gaplashib qolishdi. Xolmatjon yonidan pichoq olib qovunni so'ydi. Birinchi tilikni Dildorga uzatdi.

– Shirin chiqdi-ya. Cho'l qovuni shirin bo'larkan.

– Hali astoydil yetilgani yo'q. Shakar bo'lib ketadi hali.

Xolmatjon ilgarilari uchrashganda gapini topolmay duduqla-

nardi. Bu gal u ancha dadil, boqishlari ham, o'zini tutishi ham qandaydir qat'iy edi.

Kampir aya bir nima demaganmikin, degan o'y o'tdi Dildorning boshidan.

— Ayamni ko'rmaganmidingiz? — Dildor shunday dedi-yu, ko'zini yashirishga joy topolmay qoldi.

Xolmatjon yerga qarab sekin javob qildi:

— Ko'rdim.

Tamom. Shu birgina gap bilan Dildor fosh bo'lgan edi. U sapchib o'rnidan turdi-yu, ro'moli bilan yuzini yashirib Xolmatjonga teskari qarab turib qoldi.

— Dildorxon, — dedi Xolmatjon.

Dildor indamadi. Ammo uning yana bir marta shunday, ismining orqasiga xon qo'shib chaqirishini xohlardi.

Xolmatjon xuddi shunday qildi. Dildor o'girildi. Ikkovining ko'zlari bir-birlariga moyillik bilan boqar, ammo yaqin kelishga na unda, na bunda jur'at bor edi.

Ot kishnadi. Xolmatjon qo'lidagi tizgin sirg'alib chiqib ketdi. Ammo o'zi hamon qimirlamasdi.

Shu alfozda ikkovlari ancha vaqtgacha qimirlamay turib qolishdi. Xolmatjon birdan depsindi-yu, dadil yurib Dildorning qarshisiga keldi. Uning ikki bilagidan mahkam ushlagancha ko'zlariga tikildi. Yigitlik ehtirosini bosolmay, Dildorning ko'zlaridan — o'sha tunde k qora, yulduzdek chaqnagan ko'zlaridan o'pa boshladi.

Dildor anchadan keyingina uni ko'krigidan itardi.

Yigit shart burildi-yu, yugurganicha o'tlab yurgan otining jilovidan ham tutmay bir sakragancha mindi. Otning yollariga betlarini ishqalab, oyog'i bilan biqiniga turtki berdi. Ot bir sapchidi-yu, oldinga o'qdek otilib ketdi. Ot egasining kayfiyatini sezgandek cho'l o'rtasida o'ynoqlab goh aylanib, goh old oyoqlarini ko'kka irg'itib, asad tuprog'ini changitib borardi.

Dildor hamon qimirlamas, cho'l ufqida nuqtadek ko'rinayotgan otliqdan ko'z uzmasdi.

Otliq to'zon ichida ko'rinmay ketdi. Dildor shundagina yo'ldan ko'zini oldi.

Boshidan tushgan ro'molini olmoqchi bo'lgan edi, ikki bilagidagi barmoq izlarini ko'rdi.

Bu chinakam kuchga to'lgan yigit barmoqlarining izi edi.

Dildor beixtiyor barmoq izlarini silay boshladi.

Boya u uyg'onganda Xolmatjon o'tirgan joyiga bordi. Engashib qaradi.

Xolmatjon tuproqqa qamchi bilan «DILDOR» deb yozib qo'yibdi.

Dildor entikdi. Bu entikish faqat shodlikdan, faqat baxtdan.

Dildorning ko'p yillardan beri endi ana shunday ich-ichidan entikishi edi.

III

– Sizga bir gap aytib bo'lmas ekan, – dedi Dildor kechqurun Malika ayaga.

– Ha, nega undoq deysan, bolam, – dedi ajablangan kampir.

Dildor e, qo'ying-e, degandek yuzini burdi.

Kampir u nega bundoq dedi, bilolmadi. Azimjonning ovqatini oldiga qo'yayotganda qo'rqibroq so'radi:

– Bir gap o'tdimi, bolam?

– Xolmatjonga nima dedingiz?

– E, shu gapmidi. Men nima balo bo'pti, deb o'ylabman. Aytдим. Men aytmasam, kim aytadi. Ikkoving ikki tarafda musichadek ku-kulab yuraverasanlarmi? Xolmatjon boyoqish ozib-to'zib ketdi-ku. Bir odam sababchi bo'lib ikki tomon tinchiydi. Ha, yomon ish qipmanmi? Ayt-chi, yomon ish qipmanmi?

Dildor past ovoz bilan istar-istamas dedi:

– Har gapni ham mavridi bor-da.

– Hoy, bola, mavridini kutsang, soching paxta, beling obkash bo'ladi.

Azimjon ovqat emay, kampirni ancha xunob qildi.

– Bolajonim, agar shu shavlanning hammasini yesang, bir joyga oborib o'ynatib kelaman.

Azimjon o'rtoq yo'qligidan juda zerikkan edi. Bu gapni eshitib, apil-tapil ovqatini yeb bo'ldi. Keyin, obormaysizmi, deb turib oldi.

– Endi bo'lmaydi, bolani bir aylantirib kelmasam bo'lmas. Sen u yoq-bu yoqlaringga qara. Kir yuvasanmi, uy yig'ishtirasanmi, o'zing bilasan.

Kampir bolani yetaklab chiqib ketdi. Dildor o'zi yolg'iz qoldi. U xuddi shunday tanholikni tusab turgan edi. Qirdagi uch-rashuv, o'sha paytdagi ahvoli, Xolmatjon nima dedi, unga nima

javob qildi, shular to'g'risida bafurja o'ylab ko'rmoqchi edi. Bunday kezlarda kishi tanholikni istaydi.

Dildor ayvon ustuniga suyanib, podadan qaytayotgan mol-larning shovqin-suroniga quloq solib o'y o'ylardi. Nima qilib qo'ydim? Yana o'sha saraton qizdirgan tutzordagi ishni takrorlab qo'ydimmi? Nahotki, men shunchalik irodasiz, yigit og'ushida har narsani unutadigan, bor ixtiyorini topshirib qo'yadigan odamman? Bu uchrashuvning oqibati qandoq bo'larkan? Qoqilmasmikinman? Keyin yig'lab yurmasmikanman? Yana uylanmagan yigit bilan-a... Bu gal ham pand esam... Xudo asrasin. Ishqilib, o'shandoq bo'lmasin! U holda o'zimni-o'zim bir balo qilib qo'yaman. Ko'r ham hassasini bir marta yo'qotadi. Men ikki marta yo'qotdim. Uchinchisi nima bo'larkin? Yana tavakkal qildim-a. O'ptirib qo'ydim-a. Ishqilib, aldanmagan bo'lay.

U shunday xayollar bilan band ekan, Xolmatjon ostonaga kelib qolganini ham sezmay qoldi. Xolmatjon yo'talgandagina o'ziga keldi.

— Keling, — dedi sekingina. Ammo ikki yuzi qip-qizil bo'lib ketdi.

Xolmatjon mayin jilmayib ostonaga o'tirdi.

— Bir xabar olib o'tay, degan edim. Xafa qilib qo'ydim, shekilli.

Dildor javob bermadi. Tokchadan choynak olishni bahona qilib yuzini yashirdi. Xolmatjon hamon iljayib turardi. Dildor qumg'ondan choynakka qaynoq suv quyar ekan, uning g'alati iljayib turganini ko'rib bir xil bo'lib ketdi.

— Endi kulaverasiz. Biz sho'ring qurg'ur xotinlar sizlarga ermaklikdan boshqaga yaramaymiz.

Xolmatjonning yuzidan tabassum qochib jiddiylashdi.

— Nega unaqa deysiz, Dildorxon. Men astoydil kirishganman bu ishga. Bilaman, sizni zada qilib qo'yishgan. Siz erkak zotidan yurak oldirib qo'ygansiz. Sizni ko'p xafa qilishdi. Yaqin to'rt yil ichida biron marta astoydil kulmadingiz. Kulgan paytlaringizda ham ichingizni nimadir kemirib turardi. Bilib qo'ying, men sizni aslo xafa qilmayman. Sizga tog'dek baxt va'da qilolmayman-u, ammo o'zimizga, o'zingizga yarasha kichkinagina baxtcha va'da qilolaman.

Dildor uning gaplaridan ta'sirlanib ketdi. Yoniga kelib omonatgina o'tirdi.

– Menga hech narsa kerakmas. Ikki og‘izgina iliq gap kifo-ya. Ikki og‘izgina, ammo yurakdan chiqqan gap bo‘lsa bas. Ko‘p narsalarni ko‘rdim, ammo yaxshi gapni kam eshitdim.

Dildorning ko‘zlari jiqqa yoshga to‘ldi:

– Meni ko‘p xo‘rlashgan.

Xolmatjon o‘rnidan turib uning boshini silagisi keldi. Biroq boyagidek o‘zini tutolmay qolishidan, ehtiros kuchiga taslim bo‘lib qolishdan qo‘rqib Dildorning yosh to‘la ko‘zlariga ma’yus boqdi.

– Bilaman. Hammasini bilaman. Nahotki, shularning barini bilaturib, sizni xo‘rlasam.

A’zamjonning uylanganini hamma eshitgan, ammo Dildorning bundan xabari bormi-yo‘qmi Xolmatjon bilmasdi. Hozir shu haqda og‘iz ochmoqchi bo‘ldi-yu, o‘zini tiydi. Agar aytgudek bo‘lsa, boyatdan beri aytgan samimiy so‘zlari Dildorni eridan sovutish uchun aytilgan bo‘lib chiqishini tushunib qoldi-da, aytmadi. Ammo buni Dildor eshitgan, butun alamlarini ichiga tashlagan edi.

Xolmatjon chakkasini qashlab ancha vaqtgacha indamay o‘tirdi. Dildor quyib uzatgan choy sovib qoldi. Xolmatjon o‘rnidan turarkan, jur’atsizlik bilan dedi:

– Bunaqa qilib bir-birimizni uzoqdan poylab yurmaylik. Bo‘ladigan ishni bo‘ldirib qo‘ya qolaylik, Dildorxon.

Dildor yalt etib unga qaradi. Uning bu boqishida ham ajablanish, ham hayrat, ham allaqanday mehr ifodasi bor edi.

Nahotki, bu yigit astoydil aytayotgan bo‘lsa? Uylanmagan, qiz olmagan yigit shu gapni aytsa?

– Keyin pushaymon bo‘lib yurmang, Xolmatjon aka. Axir, men bir marta to‘y ko‘rgan xotinman. Bolam bor. Sizning o‘n gulingizdan bir gulingiz ochilmagan. O‘rtoqlaringizning malomatidan qo‘rqmaysizmi? Yigitlik sha’ningizni oyoqosti qilayotganingizni bilasizmi? Axir, men...

Xolmatjon uning gapini kesib qo‘ydi.

– Men bir ishni qilsam, bilib qiladiganlardanman. Men na malomatdan, na ta’nalardan qo‘rqaman. Gapim qat’iy. Ishoning, Dildorxon.

Dildor unga tik qarab turardi.

– Bir oz vaqt bering, Xolmatjon aka. Jon aka, shunday qiling. Axir odamlar nima deydi, erining uylanganiga zarda qilib, o‘chakishib erga tegyapti, deyishmaydimi. Sevmasa ham, to‘y ko‘rmagan yigitga tegib oldi, deyishmaydimi? Andek sabr qiling.

– Yo‘q, yo‘q. Bu ishga na zarda, na o‘chakish aralashgan. Bu ikkovimizning xohishimiz bilan bo‘lyapti.

– Shundoq bo‘lsa ham andek sabr qiling.

– Agar tezda to‘y qilmasak, odamlar yana unda gap qilishadi. Mendan ham sizga og‘ir bo‘ladi. Baribir yo‘lingizni poylab tinchitmayman.

– Mayli. Mayli, yo‘limni to‘sing. Gaplashaylik. Uchra-shaylik, nima bo‘lsa ham, ozroq vaqt o‘tsin. Men sal o‘zimga kelay. Es-hushimni yig‘ib olay. Axir, mening ham do‘stlarim, dugonalarim bor. Shularga aytay, maslahatini olay. Bir marta o‘zboshimcha ish qilib, ularning ta‘nasiga qolganman. Hali-hali armon qilaman.

– Endi armon qilmaysiz. Boshimga ko‘taraman. Aslo ranjitmayman.

– Shundoq bo‘lsa ham, sabr qiling. Ozginagina vaqt o‘tsin. Shundoq qiling.

Xolmatjon turib-turib, hay, mayli, siz aytganga ko‘nmay ilojim qancha, dedi. Boshqa aytadigan gapi yo‘q ekan, tabiati ravshan bo‘lib chiqib ketdi. Ancha kech kirib qolgan edi. Malika aya uxlab qolgan Azimjonni opichlab olib keldi.

– Bolam, yolg‘iz yotgani qo‘rqmaysanmi? Yakkatutga tushib chiqadigan ishim chiqib qoldi. Jiyanimning tobi qochib qopti. Hozir odam keldi. Bormasam bo‘lmaydi. Shuradan ham darak bo‘lmadi.

Dildor bolani olib o‘rniga yotqizarkan:

– Mayli, boravering, meni bo‘ri yermidi, – dedi.

Kampir shoshib chiqib ketdi.

Dildor bolaning bosh tarafiga o‘tirib tikildi.

– Xuddi dadasining o‘zi. Qosh-ko‘zi ham, yuz tuzilishlari ham...

Dildor endi erini, bolasini o‘ylab ketdi.

Shundoq bolasini tashlab ketdi-ya. Bola nima bo‘ladi. Hozir-ku, u hech narsani bilmaydi. Katta bo‘lganda kimni qarg‘aydi? Ikkita kap-katta odam shu norastaning ko‘nglini yarimta qilib o‘stirsak. Dadasining qilmishlarini unga tushuntirib bo‘larmidi. Bola qachon bo‘lmasin, dadam, deydi. Katta bo‘lganda o‘ksimasmikin? Shu birgina bolam uchun qanchalik xo‘rlik bo‘lsa, bariga chidardim. Qandoq qilay, tashlab ketdi. Tashlab ketgani ham mayliga-ya, uylandi. Uylanmaganda ham, qaydadir sanqib yurgan erim bor derdim. U endi menga hech kim. U yot, begona. Boshqa xotin bilan o‘z toleini baham ko‘ryapti. U bechora

kim bo'ldi? Aldanmaganmikin? Bir kun tashlab ketib kuydirmas-
mikin uni ham?

— Bolam, endi dadang yo'q.

Dildor bu gapni pichirlab aytdi. Aytgan gapi o'ziga ta'sir qilib ich-ichidan bir o't chiqib bo'g'ziga yopishdi-yu, butun vujudini larzaga soldi. Bu eridan ajralib qolganidan emas, bolasining tirik dadasidan mahrum bo'lganidan edi.

Kunduz oftob tig'ida kuyib traktor haydash, kechalari iztirobli o'ylar girdobida o'rtanish Dildorning yuzlarini so'ldirgan, faqat hamisha chaq nab turadigan chiroyli ko'zlarigina undagi bu so'lg'inlikni yashirib turardi.

Qo'shni hovlilarda chiroqlar yondi. Kimdir radioni baland qilib qo'ydi. Og'ir, yurakni ezg'ilovchi mungli kuy oqardi. Goh tanbur nola qilar, goh g'ijjak yig'lab fig'on qilardi.

Dildor boshini sarak-sarak qilib o'rnidan turdi. Go'yo u boshidagi og'ir o'ylarini bir silkishda to'kib tashlamoqchidek edi. Chiroqni yoqdi. Bolaning sholcha ustida qolgan kiyimlarini olib qoqdi, qoziqqa ildi.

Shu payt motor gurillab eshigi oldiga kelganda tindi. Ochiq qolgan eshikdan notanish bir yigit kirdi. U besaranjom edi. U yoq-bu yoqqa qarab A'zamjonni so'radi.

— Qani?

— Yo'q, — dedi Dildor. — A'zamjon bu yerdan ketib qolgan.

— Qayoqqa? — ajablanib so'radi yigit.

— Bilmayman. Ikki haftadan oshdi.

— E, attang, — dedi yigit afsuslanib. — Dadasi o'lim to'shagida yotibdi. Uyiga o't tushib ketdi. Dadasi kuyib qoldi. Kasalxonada bolalariga ilhaq bo'lib o'lolmay yotibdi.

Yigit shunday dedi-yu, shoshib chiqib ketdi. Sal o'tmay, yana motor gurilladi, mashina tovushi sekin-sekin uzoqlashib tindi.

Dildor turgan joyida qotib qoldi. Uning bu holati cholga achinishimi, Nizomga achinishimi, o'zi ham bilmasdi. Har qalay, yomon bo'lsa ham, odam o'lyapti.

Dildor kelin bo'lib tushgan uy yonib ketgan. Uning boshiga kulfatlar solgan, yoshligini, muhabbatini yondirgan uy yongan.

Dildor bu kecha ming xil tush ko'rib, to'lg'anib chiqdi. Hali o'zini yong'in ichida ko'rar, hali Nizom o'tda qolib, Dildorga qutqar, deb qo'l cho'zar, hali Xolmatjon uni ko'tarib olovdan olib chiqar, negadir A'zamjon sira ko'rinmasdi.

Bu kecha Dildor uchun eng notinch kecha bo'ldi.

Ertalab turib oynakka qaraganda o'zini bir holatda ko'rdi. Ko'z taglari ko'karib ketgan, qovoqlari osilgan edi.

— Menga nima bo'lyapti? Bunaqada adoyi tamom bo'lamanku.

Birdan fikri ravshanlashib ketdi. Xolmatjonni ko'rgisi, uning ko'kragiga boshini qo'yib to'yib-to'yib yig'lagisi keldi.

Birgina tayanch, birgina yupanch unga shu Xolmatjon edi.

— Qayerdasan? Kela qolsang-chi! Ahvolimni qara! Xo'rlamaysanmi? Yig'latmaysanmi? Ranjitmaysanmi? Sendan boshqa kimim bor. Xo'p. Nima desang hammasiga, xo'p. Chizgan chizig'ingdan chiqmayman, Xolmatjon!

Xayoli, fikri Xolmatjonda, ikki ko'zi eshikda edi Dildorning.

IV

Nizomjon qattiq uxlab qolgan ekan, vaqt qay mahal bo'lganini bilmaydi. Ikromjon amaki kim bilandir bezovta gaplashayotgani qulog'iga chalinganini biladi, xolos. Shundan keyin yuk mashinasi bir o'kirib, gurillab nari ketdi. Zirillamadan birontasi ish bilan kelgandir, degan o'y bilan yana uxlab qoldi. Ikromjonning tepasiga kelganini, uy ichida u yoqdan-bu yoqqa besaranjom yurganini bilmadi.

Iliqqina bir narsa peshanasiga tekkanidan yana ko'zini ochdi. Tong g'ira-shira yorishib kelayotgan ekan. Ikromjon uning boshida turib peshanasini silardi. To yarim kechagacha bolaning kir-chirini yuvib, ertalabki ovqatga tayyorgarlik ko'rib hammadan keyin yotadigan Zebixon ham hovlida ivirsib yuribdi. Ota qo'li peshanasini silagani xush yoqib erinchoqlik bilan Nizomjon ko'zini ochdi.

— Tura qol, bolam. Tur.

— Hali vahli-ku, dada.

Ikromjon, turaver, turaver, deb nari ketdi.

Nizomjon tong yorishmay uydagilarning turib olganlaridan hayron bo'lib, kiyinib hovliga chiqdi.

— Darrov choyingni ich, bolam, Quvaga boradigan ish chiqib qoldi.

Nizomjon Quvada nima qiladi, u yerda nima ishi bo'lishi mumkin, hayron edi.

Choy paytida Ikromjon gapning ochig'ini aytib qo'yaqoldi.

– Bolam, dunyoda har ish bo‘ladi. Sabrli, bardoshli bo‘lish kerak. Agar astoydil bolam bo‘ladigan bo‘lsang, o‘zingni bosa-san.

Nizomjon qo‘rqib ketdi. Endi ho‘plagan choyi tomog‘idan o‘tmay turib qoldi.

– Uyingga o‘t tushibdi. Dadang kuyibdi. Kasalxonada yot-ganmish. Akangni topib, darrov Chortherakka yetib bor. Akang uyida. Avval Quvaga borasan.

Nizomjon entikib-entikib so‘radi:

– Akam Quvada nima qilib yuribdi? Cho‘lda emasmi?

Ikromjon chaynalmay, ikkilanmay dadil gapirdi.

U qattiqchiliklar, mahrumiyatlarni ko‘raverib har qanday ishtibo oldida o‘zini yo‘qotmaydigan bo‘lib qolgan edi. U Ni-zomjonni ham bir so‘zlikka, qat‘iylikka o‘rgatardi.

– Akang rasvo odam ekan. Dildorni cho‘l o‘rtasiga tashlab ketgan. Quvaga borib bir bechora, mungli ayolga uylanib olgan. Hozir oldiga borasan. Dadang ikkovingga vasiyat qilmoqchi.

Nizomjon o‘rnidan turib ketdi. Demak, dadasi o‘lim oldida. Bolalarini ko‘rishga ilhaq bo‘lib yotibdi.

– Akamning oldiga bormayman.

– Yo‘q, borasan! – dedi qat‘iy qilib Ikromjon.

Nizom Ikromjonning bir gapini ikki qilmasdi,

U bir gap aytsa, bilib aytadi. Demak, xohlaydimi, xohlamay-dimi, bari bir borishi kerak. Bu gapni u uchun dunyodagi eng to‘g‘ri, eng odil odam aytdi. Boradi.

Nizomjon shoshib etigini kiya boshladi. Zebixon bir chekka-da unga allaqanday achinish, allaqanday ma‘yuslik bilan qarab turardi.

– Ketaver, odamlarni dalaga chiqazib bo‘lib, To‘lanboy bi-lan biz ham Chortherakka yetib boramiz. Otinni minib ketaver, egarlab qo‘yganman. Quvaga borib, Mahbubaxonning uyi qaysi desang, hamma aytib beradi.

Shundoq telefon stansiyasining orqasida. Endi jo‘na, ammo hovliqma, bolam.

Nizomjon tol orqasida egarli turgan otga shoshib mindi-yu, Qoratepa tarafga jilov burdi.

U Quvaga kun yoyilganda yetib keldi. Mahbubalarning uyini topish qiyin bo‘lmadi. Akasi omonat taxta ko‘prik oldida chelak-lab eski «Villis» mashinasini yuvayotgan ekan. Ukasini ko‘rib hayron bo‘lib qoldi.

– Bu yoqda nima qilib yuribsan, uka?

Nizomjon nima deyshini bilmas, ot choptirib kelganidan hansirar, akasining betiga qarashni ham istamasdi.

– Tinchlikmi? – dedi tashvishlanib A'zamjon.

Nizom undan yuzini o'girdi. A'zamjon endi chindan tashvishda qolgan edi. Dildorga bir balo bo'lgan. O'lgan. O'sha kechasi borgandayoq ketadigan holi bor edi. Bolasi nima bo'ladi? Bolani olib kelsa, Mahbuba nima derkin. Shu bola deb ro'zg'ori buzilib ketmasa go'rga edi.

– O'ldimi?

Nizomjon yalt etib akasiga qaradi. Ikkovi bir-birlariga so'zsiz tikilib qolishdi.

– Nima deyapsan, aka? – Bu Nizomjonning akasini birinchi bor senlashi edi. Ko'pdan ichki begonalik bugun, shu topda dildan tilga chiqdi-yu, uni senladi.

– Dildor, Dildor o'ldimi?

Nizomjon nafrat bilan betini o'girdi.

– Uyimizga o't tushgan, dadam kuyib ketgan. Dadam kasalxonada, sen bilan meni yo'qlayapti.

Nizomjon otga minmoqchi edi. A'zamjon jahl bilan kelib jilovni uning qo'lidan yulib oldi-da, otni yetaklab eshikdan opkrib ketdi. Nizom nima qilishini bilmay turib qoldi, eshikdan juda ham chiroyli bir juvon chiqdi. Nizomjon uni Zirillamada bir-ikki ko'rgan edi. Tog'a ham, To'lanboy pochcha ham uni, ko'p yaxshi juvon, deb maqtashgan edi. Demak, akasi bu bechorani ham yo'ldan urgan.

Bu go'zal juvonning chiroyli qora ko'zlari ham, oppoq yuzlari ham, peshanasida silkinib turgan o'rimdan qochgan kokillari ham Nizomjonning ko'ziga hozir juda xunuk, juda sovuq ko'rinardi.

– Qani, eshikka kiring. Tinchlikmi?

Nizomjon indamadi. So'roqlariga javob berish u yoqda tur-sin, betiga ham qaragisi kelmasdi.

A'zamjon kiyinib chiqdi. Rulga o'tirib, ukasiga yonidan joy ko'rsatdi. Noiloj qolgan Nizomjonning o'tirishdan boshqa iloji qolmagan edi. Yo'l-yo'lakay akasining so'roqlariga kalta-kalta javob berar, o'zi biron og'iz so'z aytmasdi.

A'zamjon tovuqlarni ko'chaning ikki tomoniga tirqiratib, mashinani o'qdek uchirib borardi.

Nizomjon bola bo'lib yengil mashinaga tushmagan edi. Quva bilan Marg'ilon orasi shunchalik yaqinligini bilmas ekan. Ko'z

ochib yumguncha mashina Marg'ilonning katta ko'chasini kesib o'tib, Chorterak tarafga burildi.

U Chorterak kasalxonasiga ilgari ikki marta kelgan. Onasi shu joyda olamdan o'tgan edi. Keyin Asrora toshqinda qolib kasal bo'lganda kelgan. Mashina kasalxona eshigi oldida to'xtadi. Zina oldida pochchasi u yoqdan-bu yoqqa betoqat yurardi. Qaynilarining kelganini ko'rib, bosiq yurib oldilariga keldi.

— Keldinglarmi, kira qolinglar. Yuqorida.

Aka-uka bir-birlariga qaramay, jadal yurib yuqori qavatga chiqishdi. Risolat palata eshigi oldidagi oq taburetkada ko'z yoshi qilib o'tirardi. Ukalariga ham bo'ri qarash qilib eshikni ko'rsatdi-yu, ko'ziga ro'molchasini bosib piq-piq yig'lay boshladi.

Nizomjon dadasini tanimadi. Oqsoqolning soqollari, qosh-kipriklari kuyib ketgan. Yelkalari, bo'yni va qo'llari bint bilan tang'ib tashlangan edi. Oqsoqol bolalarini ko'rib, boshini sal ko'tardi.

Uning sanoqli daqiqalari qolgandi. Bolalaridan ko'ngil uzolmay, yo'liga ko'z tikib yotgandi. Chol ko'zi bilan ularni yoniga chaqirdi. Ikki o'g'il ota tepasiga kelishdi.

Oqsoqol qizidan ham, kuyovidan ham hafsalasi pir bo'lgan, ular bilan bordi-keldini to'xtatgan edi. Kuyovi urushdan kelib xotinini, bolalarini cholning oldiga yubormay qo'ygan. Bolalari chol bilan bozorga qaytnayverib o'qishdan qolib ketishgan, kitob-daftardan ko'ra pul sanashga, savdo-sotiqqa berilib ketishgan edi. Bolalarning har birida alohida xaltacha, mayda pulga alohida, yirik pulga alohida xonalari bor edi. Dadasi avvaliga hayron bo'ldi. Bu bolalarning bunaqa bo'lishiga nima sabab bo'lganiga tushunolmay yurdi. Keyin bilsa, bobosi ularni pulga o'rgatib qo'ygan ekan.

Dada bolalarining bir-biridan yashirib tutadigan o'sha xaltachalarini o'choqqa irg'itdi. Kaltakladi. So'kdi. Buvasinikiga mutlaqo bormaydigan qilib qo'ydi. Chayqovchilikka mukkasidan ketgan xotini Risolatni ham bir-ikki shapaloqladi. Agar dadasinikiga boradigan bo'lsa, bozor ishiga qo'l uradigan bo'lsa, uch taloq qo'yadigan bo'ldi.

Baribir Risolat eriga bildirmay u-bu olib sotar, ba'zan dadasidan xabar olib kelardi. Bu gaplardan Oqsoqolning xabari bor edi. Qiziga ro'yxush bermay qo'ydi. Kelsa sovuq kutib olar, erini, bolalarini so'ramasdi. Cholga yolg'izlik, tanholik yoqardi. Kechalari hujradagi mollarini oydinga yoyar, pullarini shamollatardi.

Oqsoqol tanholikda yana uzoq yashayman deb o'ylardi. Sira ko'ngliga o'lim kelmasdi. Go'yo dunyoga umrbod kelgandek edi. Oxiri tanholik uning boshini edi.

Kecha ertalab u shu tanholikning gashtini surayotgan edi. Ko'cha eshigini ichkaridan tambalab, oftobga mollarini yoydi. Tulki po'stinni kuya uch-to'rt joyidan taqir qilib qo'yibdi. Chol kuyalarni qarg'ay-qarg'ay, po'stinni arqonga tashladi. To'p-to'p atlaslar zax hujrada rangi qavat-qavatiga o'tib ketibdi. Ipak bo'yagan bo'yoqchini, qo'ling singur, olgan puling kafaningga yarasin, deb qarg'adi. Archa taxtasidan yasalgan sandiqni hovliga sudrab chiqib, ichidagi olamda topilmaydigan asil toshlarni bir-bir ko'zdan kechirdi. Nam tortgan yuz so'mliklarning taxini buzib oftobga yoydi. Shamol uchirib ketmasin, deb har birining ustiga bittadan piyoz qo'yib chiqdi. Bir qop piyoz yetmadi. Qadoq tosh bormi, kalish bormi, tasha bormi, kelichaning sopi bormi, bostirib chiqdi. O'zi xuddi cho'ponning itidek mollarning hali u boshida, hali bu boshida devor nahralariga xunuk qarab aylanib yurdi. Yana o'tirib olib yuztaliklarni yig'ib, o'rniga ellik so'mliklarni yoydi. Yana piyozlarni ustiga bostirib chiqdi. Kechgacha shu ish bilan ovora bo'ldi. Qorong'i tushishi bilan narsalarini yana archa sandiqqa joylab, tut tagiga ko'mdi. Po'stin-u atlaslar, qorako'l terilar, charmlarni yaxshilab taxlab hujrasiga kiritib qo'ydi-da, elektr plitani tokka tiqib, tunuka bankada elim eritishga qo'ydi. Ayvonda yonboshlab, qattiq nonni qaynagan suvga botirib yeb o'tirganda lip etib elektr o'chdi.

Chorterak kolxozlarida hali elektr yo'q edi. Dvijokdan tok olinardi. Yaxshi mutaxassislar bo'lmaganidan dvijok bir o'chib bir yonar, ba'zan bir o'chganicha ertalabgacha yonmasdi.

Oqsoqolning chiroq yonishini kuta-kuta toqati toq bo'ldi. Oxiri qorong'ida timirskilanib supaga joy soldi-yu, Xudodan ertangi kunni so'rab uyquga ketdi.

Oqsoqol achchiq tutun hididan dimog'i achib uyg'ondi. Tun yarimdan oqqan, hovlidagi elektr chiroqlari charaqlab yonib turibdi. Oqsoqol achchiq tutunning qayoqdan kelayotganini bilish uchun havoni iskab ko'rdi. Hid hujra tarafdin kelardi. Oqsoqolning jon-poni chiqib ketdi. Shundagina u elektr plitani tokka qo'ygani esiga tushdi. Jon achchig'ida o'zini hujraga urdi. Tarki odat bo'lib umrida birinchi marta hujrani qulfsiz qoldirgan edi. Eshik ochilishi bilan lov etib bir tandir olov Oqsoqolga yopirildi. Chol orqasiga chekindi. Mol achchig'i — jon achchig'i. Oqsoqol yana ichkariga intildi. Soqollarining kuyishiga, ko'zining achi-

shiga qaramay, duch kelgan buyumni hovliga otaverdi. Namatga o'ralgan charmlarni sudrab chiqayotganda ostonada o'zidan ketib yiqildi.

Oqsoqol ko'zini ochganda kasalxona karavotida yotardi.

A'zamjon dadasining boshiga engashib hol so'radi. Chol Nizomjonga qarab, sen ham beri kel ishorasini qildi. Butun kuchini sarf qilib gapirishga urinardi. Oxiri zo'r kuch bilan tovush chiqardi.

— Tut tagida sandiq ko'milgan. Ikkoving bo'lib ol. Isrof qilma. Yoniga qo'sh. Opangga hech narsa berma. Yaramas eri bor. Hukumatga aytib qo'yadi.

Oqsoqol shu gapni aytdi-yu, tildan qoldi. To'rt soat nimadir deyishga chog'landi. Aytolmadi.

Go'dak bolalari ko'p odamning jon berishi qiyin bo'ladi, deyishardi. Yo'q, unday odam oson jon taslim qiladi. Har qalay, dunyoga odam qoldirdi. Go'daklar yiqiladi, turadi, qoqiladi, yuradi, yo'lini topib ketadi. Mol-dunyo orttirib, o'z merosxo'riga topshirolmay ketayotgan kishining o'lishi qiyin bo'ladi. Yemay, ichmay, yedirmay, ichirmay yiqqan boyligi, cheksiz davlati begonalarga qolayotganini sezgan kishi o'lim oldida qattiq qiynaladi.

Oqsoqolning ham jon berishi qiyin bo'ldi. Yashab yashayolmasdi, o'lib o'lolmasdi. Kechga yaqin ko'karib, bo'zarib, ko'zda alam, achchiq alam yoshi bilan engak tashladi.

U o'ttiz yil yiqqan mollaridan ko'ngil uzolmay, qiynalib jon taslim qilgan edi.

Buyuk xasis, tengsiz mumsik olamdan o'tdi. Bu dunyodan kuyib, yonib, o'tda changak bo'lib ketgan qo'llari bilan u dunyoga ketgan edi.

Aka-uka jasad tepasida qimirlamay turishar, Nizomjon piq-piq yig'lardi.

Bu ota jasadi tepasidagi alamli ko'z yoshimidi, onasini zor qaqshatgan, bolalarining boshiga so'ngsiz kulfatlar solgan ota o'tkazgan sitamlardan silqigan yoshlarning davomimidi, bilish qiyin edi. Har qalay, u Nizomjonni dunyoga keltirgan. Harna qilsa ham, u ota. Har qalay, shu ota unga tuz bergan.

Nizomjon piq-piq yig'lar, A'zamjon serrayib turardi.

A'zamjonning diydasi qattiq, ko'ziga yosh kelishi qiyin edi.

Kuyib kul bo'lgan, har tarafidan achimsiq kuyindi hidi bu-ruqsab turgan hovlida aka-uka uch kun keldi-ketdini kutishdi. Risolat o'likka araz qilib, voy otam, deb sochini yozib yig'lama-di. Dadamning davlatini bo'lib oladiganlar bel bog'lab yig'lasin, otamdan menga nima qoptiki, yig'layman, deb marosimga or-tiqcha aralashmadi.

Nizomjonga hammadan ham alam qilgani shu bo'ldi. Oq-soqolni qabrga qo'yib, ustiga tuproq tortayotganlarida kimdir, marhum qandoq odam edi, deb so'radi.

Olomon bir nafas jim qoldi. Qabr sukunati ham bir bo'ldi, bu sukunat ham bir bo'ldi. Oxiri birov past ovoz bilan yaxshi odam edi, deb aytdi. Piq etgan tovush keldi.

Bu dadasining dunyoga kelib qilgan ishiga, yashagan umriga berilgan sovuqqina baho edi.

Fotihaga kelib-ketganlar orasida o'ziga o'xshagan irkit kishi-lar ham bor. Nizomjon birovga aralashmay bir chekkada o'tirar, choy tashib supaning chetida sovuqqina o'qilgan fotihaga qo'l ko'taradi.

Qanday yashamaslik, umrini qanday o'tkazmaslik to'g'risida kattakon teatr qo'yilayotibdi-yu, odamlar kelib bu tomoshadan o'zlariga xulosa chiqazib ketayotganga o'xshashardi.

Marosimning uchinchi kuni kech payti paranjili bir xotin kelib Nizomjonni chetga chaqirdi.

– Dadangiz sotib beraman deb oltin boldog'imni olgan edi-lar, shuni bersanglar.

Nizomjon hayron bo'ldi. Hali shu uch-to'rt kun ichida bir og'iz ham gaplashmagan akasining oldiga bordi.

– Manavi xotinning gapi bor ekan.

A'zamjon xotinni yo'lakka opchiqib gaplashdi. Ular qandoq gaplashishdi, akasi nimalar dedi, Nizomjon bilmaydi. Ammo xo-tinning qarg'ab chiqib ketayotganini hamma eshitdi.

– Xudoyo go'ringda to'ng'iz qo'p, do'zaxda kuyib, kul bo'li! Bolalaringning azasiga buyursin, juvonmarg!

Nizomjon titrab ketdi. Odamlar birdan jim bo'lib qolishdi. A'zam xotin orqasidan musht o'qtalib yugurdi. Nizomjon bo'lsa boshini quyi eggancha etigining uchidan ko'z uzolmay qoldi.

Odamlar tarqab ketishdi. Qorong'i tushdi. Qo'shni uyda chi-roqlar yondi. Aka-uka ham bir-biriga churq etolmay yarim qo-rong'i, kuygan, kul bo'lgan hovlida qimirlamay o'tirishardi:

Eshikdan qo'shni xotin kirdi.

— Voy, nima qilib chiroq yoqmay o'tiribsizlar. O'lik chiqqan uy bu. Arvohlar chirqillab aylanib yuradigan shom-u g'aribon, zavol payti-ya! Chiroqni yoqib qo'yinglar. Risolat o'lgur bilmaydimi, shuni.

Xotin qamishga pilik o'rab, moy tomizdi, keyin gugurtdan o't oldirib, ayvon chetiga qo'ydi.

Alla-pallagacha aka-uka shu alfozda qimirlamay o'tirishdi. Oxiri A'zamjon o'rnidan turdi.

— Uka, menda qancha ginang bo'lsa, u o'z yo'liga. Bafurja gaplasharmiz. Sen bilan biz shu otaning bolasimiz. Ota vasiyati sen bilan menga qonun. Tur o'rningdan, ketmonni olib kel!

Nizomjon qimirlamadi.

— Bor, olib kel, deyaрман, nodon!

Nizomjon hamon qimirlamasdi.

A'zamjon yarmi nurab turgan o'tinxonadan ketmon olib keldi-da, tut tagiga kelib hali tuprog'i uncha qotmagan yerga qaradi. Qaradi-yu, yuragi shuv etib ketdi. Nazarida bu xazinani kimdir ochgandek tuyuldi. Oqsoqol bundan to'rt kun avval ochib ichidagilarni shamollatganidan u xabarsiz edi. Opam kelib kavlab olib ketgan bo'lmasin, degan vahima bilan shoshib ketmon urdi. Yumshoq yerdan besh-olti ketmon tuproq tortgandan keyin, ketmon tig'i nimagadir qirs etib tegdi. A'zamjon jinchiroqni olib kelib qo'li bilan tuproqni timirskilab o'ntacha musulmon g'isht oldi. Birpasdan keyin o'rtacha bir sandiqni sudrab chiqdi.

— Kel, ko'tarishib yubor. — A'zamjon terlab ketgan, hansirardi. Ukasidan sado chiqmagach, kuchanib sandiqni sudrab ayvonga olib chiqdi. Sandiq og'zida kavshdek kishan qulf bor ekan. Shoshib borib samovar oldidan tesha olib keldi-yu, ikki-uch urishda zulfinni sug'urib tashladi. Qopqoqni ochib, tepasiga chiroq tutdi.

A'zamjonning chiroq tutgan qo'llari qaltirar, o'zi gandiraklardi.

— Nizom, Nizom, — dedi hayrat va qo'rqinchda. U shunday derdi-yu, sandiqdan ko'zini uzolmasdi.

Shu ahvolda A'zamjon besh-o'n daqiqa turib qoldi. Oxiri o'zini o'nglab sandiq tutqichidan sudrab, ichkari uyga olib kirdi.

Tom yong'inda o'pirilib tushgan, janozaga kelganlar o'tirishi uchun ichi tozalanib qurum aralash somonli tuproq ketmonda yotqizilgan edi.

A'zamjon yugurib hovliga tushdi, hech qayoqqa qaramay ko'cha eshikni zanjirlab, ichidan tamba qo'yib keldi. Keyin Nizomni qo'lidan sudrab ichkariga olib kirdi. Ayvonda qolgan jin-chiroqni tokchaga qo'ydi.

— Qara, manavilarni qara, uka!

Nizomjon sandiq ichiga qaradi. Tepadan tushib turgan oy nurida, lipillayotgan jinchiroyq shu'lasida sandiq ichi qandaydir sirli manzara kashf etgan edi.

Aka-uka shu ota bilan bir uyda yashab shunchalik katta xazina borligini bilishmagan edi. Ota kuygandan keyin hujradan sudrab chiqilgan, yarmi kuyib hech narsaga arzimaydigan bo'lib qolgan buyumlar katta bir magazinda ham topilmas edi. Ota bu mollarni urush yillari ro'zg'orda tanglik ko'rgan kishilardan suv-tekni tushirib olgandi. Hovli chetida yarmi, o'rtasi, cheti kuygan sakkiz qashqar gilami, tunukaga o'xshab qolgan o'ttizdan ortiq mol terisi, yigirmagacha xrom, amirkon, o't o'chiruvchilar suv sepganda bo'yog'i bir-biriga o'tib ketgan ellik to'pga yaqin atlas, qorako'l terilar... hammasi endi yaroqsiz buyumga aylangan. Mana bu sandiqda qishloq ahli u yoqda tursin, butun shahar hayratda qoladigan oltin-kumushlar, qimmatbaho toshlar, marvaridlar, pachka-pachka pullar.

A'zamjon shoshib pullarni sandiqdan chiqazardi. Yuz so'mliklar, ellik so'mliklar yuztadan qilib beli boylangan. Sandiqda salkam bir million so'm pul bor edi. Nizomjon pullarga sovuq nazar tashlab turardi. A'zamjon shoda-shoda marvaridlarini, paxtaga o'ralgan brilliantlarni ola boshladi. Akasi ketma-ket qimmatbaho tilla ziraklar, bilaguzuklarni olarkan, Nizomjon beixtiyor sandiqqa engashdi. Sandiq chetida ikkita ingichka tilla bilaguzuk turardi. Nizomjon shoshib uni qo'lga oldi. Oldi-yu, ko'ngli allanechuk bo'lib ketdi. Bilaguzuklarni ko'zi oldiga olib kelib tikildi. Negadir hidladi. Bu bilaguzuklardan onasining hidi kelayotganga o'xshadi.

Bu bilaguzuk onasiniki edi. Nizomjon birdan bolaligini esladi. Hali endi yo'lga kirgan go'dak ekan, ona bag'rida erkalonar, uning qo'lidagi shu bilaguzuklarni o'ynardi. Ona qo'lida uxlab qolgan paytlarida boldiriga, kuraklariga shu bilaguzuklarning izi tushib qolardi. Oradan qancha yillar o'tib Nizomjon maktabga qatnay boshlaganida negadir o'sha bilaguzuklarni eslab ona bilagiga qaradi. O'shalardan faqat bittasigina qolgan edi. Nizomjonning bilgisi kelib so'radi:

— Aya, bilaguzugingizning bittasi qayoqda?

Ayasi afsusli bir ohangda degan edi:

— Bolam, sen yosh paytingda qahatchilik bo'lgan edi, dang sotib bir qop un olib kelgan. O'lmay qahatchilikdan o'tib olganmiz.

Ikkinchi bilaguzukni dadasi o'ttiz ikkinchi yilning boshida onasining bilagidan chiqazib bozorga oborib sotib kelgan edi. Buni Nizomjon yaxshi eslaydi. Mana, o'sha bilaguzuklar. Demak, dadasi ularni sotmagan. Yonida shuncha puli bo'la turib xotining bilagidagi uzukka qasd qilgan.

Shu topda, kuyib kul bo'lgan uy xarobalari ichida, oltin-kumushlar tepasida turib Nizomjon onasining mungli, tirikchilik azoblari g'ijimlab tashlagan yuzlarini, hamisha o'ychan, hamisha g'amgin ko'zlarini, to'y-hashamlarga, ma'raka-yu ziyofatlarga kiyadigan atigi bittagina satin ko'ylagini esladi.

Mana, xotinini yamoq-yasqoqqa o'rab yiqqan atlas-u kimxoblar kuyib yotibdi. Mana onasining bilaguzuklari...

Nizomjonning ko'zidan tirqirab yosh otilib chiqdi. O'zini tutolmay alam-sitam bilan yig'lab yubordi.

A'zamjon hech narsani o'ylamas, esankiragan, o'zini unutgan edi. Unda shu topda ota qoni gupirgan, pullar oldida, oltin-u kumushlar, marvarid-u yoqutlar oldida jinniga o'xshab goh iljayar, goh allaqanday vahshiy tovush chiqarardi.

Oxiri A'zamjon charchab, sandiq chetiga o'tirdi. Kuyadori bo'lib ketgan qo'llarini shimiga artib, bilagi bilan peshana terlarini sidirdi.

Aka-uka bir-birlariga qaramay ancha vaqtgacha indamay o'tirishdi. Chetlaridan qamishlari osilib qolgan qora devordan oy nari ketdi. Jinchiroq ham lip-lip qilib so'ndi. Nizomjon qo'lidagi ona bilaguzugini qisimlaganicha o'tiraverdi. Uzoq-yaqindan xo'rozlar chaqira boshladi. Osmoni zaminda uzun, kuygan simdek nurli chiziq tortib yulduz chiqdi.

A'zamjon tashqariga chiqib ketdi, nimalarnidir taraqlatib ancha vaqtgacha ovora bo'ldi.

Nizomjon o'tirgan yerida iztirob olovida kuyib, jizg'inak bo'lib bolaligini, onasini, shu hovlida kechgan ham alamli, ham go'dak shodliklarini esladi.

Nizomjon ota bag'rida yayramagan edi. Dadasi kechqurun bozordan qandaydir asabiy kirib kelardi. Nizomjon erkalanib is-tiqboliga otilgan paytlarda dadasining birinchi aytgan gapi shu bo'lardi:

— Nari tur!

Shunda marhum onasi:

— Beri kel, bolam, dadang charchab kelganlar.

Nizomjon boshini ikki yelkasi orasiga bosganicha onasining oldiga qaytib kelardi-da, mung'ayib o'tirganichia uxlab qolardi. Ertalab uyg'onganda dadasi eski-tuski to'la qopini orqalab chiqib ketayotgan bo'lardi. Bo'yi cho'zilib tengqurlari qatori kiyigisi, yasangisi kelgan paytlarda ham dadasiga kiyim to'g'risida og'iz ochmasdi. Dadasining fe'lini bilardi. Shunda onasi: «Qo'y, bolam, dadangning qattiqligi qursin, yamoq bo'lsa ham usting but-ku, shukur qilgin», derdi. Mana, Nizomjon kap-katta yigit bo'ldi, o'z yo'lini o'zi topib ketdi. Pul topib, ro'zg'or tebrata boshladi. Haligacha yangi shim, yangi etik kiygani yo'q. Har oyning boshida opasi borib, dadam ochdan o'lyapti, qari otangni shundoq zor qaqshatib qo'yanami, deb topgan-tutganini yulib keladi.

Uylanganiga ikki yildan oshdi, orttirib Zebixonga hali biron-ta yangi ko'ylak olib berolgani yo'q. Bechora Nizomjon topganini shularga yedirib, shularga kiydirib o'tiribdi.

Bu uyda ikki kishi pul topardi. Biri dadasi Inoyat oqsoqol, biri opasi Risolat. Risolat topganini sandiqchasiga yashirardi. Dadasining pulini hech kim, hatto onasi ham ko'rmagan.

A'zamjon dadasiga ham so'z bermasdi. Topganini uyga olib kelmay, o'rtoqlari bilan guzarda yo'q qilardi. Nizomjonning esida, dadasi bir kun qoq yarim kechada tutqanoq tutgandek qo'l-lari, oyoqlari tortishib qoldi. Og'zidan ko'pik chiqdi. Nizomjon oyog'ini, onasi yelkasini uqaladi. Chol o'ziga kelishi bilan sanchib o'rnidan turdi-yu, A'zamjonni yotgan yeridan sudrab chiqib, hovuzcha labiga opkelib orqasiga bir tepdi. Bola uyqusi qochmaganidan dovdirab hovuzchaga tushib ketdi. Chol toldan xivich sindirib, uning boshi, ko'ziga solaverdi. A'zamjon hovuzning qay tarafidan chiqib qochmoqchi bo'lsa, dadasi o'sha tarafga o'tib savalardi. Onasi chirqillab eri orqasidan aylanar, chol ora-sira uning ham boshiga chiviq tushirardi. Oqsoqol to charchaguncha bolani savaladi. Charchab o'tirib qoldi. A'zamjonning basharasi-ni tanib bo'lmasdi. Burun ustlari, yuzlari, peshanalari ko'karib, qon talashib ketgandi.

A'zamjon keyingi kunlarda sal boyvachcharoq yurish boshlagan edi. U dadasining pul bekitadigan joyini ko'rib qolgan, har kuni bildirmay bitta qizil o'ttiz so'mlikni sug'urib olib chiqib ketar ekan. Bu oqshom Oqsoqol poylagan edi. A'zamjon hamma

uxlaganda sekin ichkari uyga kirib, o'zi bilgan o'sha joydan o'ttiz so'mlikni sug'urib, etigining qo'njiga yashirib, o'rniga xotirjam kelib yotgan. Ana shundan keyin chol o'rnidan turib etik qo'njidan pulni olgan-u, uxlab yotgan o'g'lini sudrab olib chiqqan.

Shundan keyin A'zamjon ancha vaqtgacha dadasining puliga tegmay qo'ygandi. Pulga o'rgangan bolaning ishi qiyin. U keyinchalik opasini chirqillatadigan bo'ldi. Opasi yig'lar, ammo ona bechora dadang bilmasin, ukangni o'ldirib qo'yadi, deb yalindirdi.

Nizomjon hozir mana shularni o'ylab o'tiribdi. O'ylab qarasam, bu uyda, u tug'ilib o'sgan shu uyda faqat pul janjali, mol janjalini ko'ribdi. Muhtojlikdan boshqa narsani bilmabdi.

Nizomjon atrofga qaradi. Tong otib kelardi. Alam, ko'z yoshlari, muhtojliklar, xo'rliklar, haqoratlar bilan birga kuyib tamom bo'lgan bu ko'hna uy tepasida subhi sodiqning yengil, juda ham yengil shabadasi esib o'tardi.

Kuyib kul bo'lgan uy xarobasi ustida oppoq tong otib kelardi.

Tashqarida mashina ovozi eshitildi. A'zamjon bundan uch kun oldin Quvadan minib kelgan «Villis»ni kolxoz saroyiga kiritib qo'ygan edi. Olib keldi, shekilli. A'zamjon shoshib kirdi-yu, kechasi sandiqdan chiqazgan pul-u mollarni qopga sola boshladi.

— Ko'tar! — deb buyurdi A'zamjon.

Nizom o'rnidan turdi-yu, qopni ko'tarmadi. Hovliga chiqib ketdi.

— Ahmoq! — dedi A'zamjon. Keyin bitta qopni yelkaga olib, bittasini sudrab ko'chaga chiqdi.

U yoq-bu yoqqa qaradi. Ukasi ko'rinmasdi. Jahl bilan eshikka gulf urib mashinaga o'tirdi.

Hali ko'chada odam yo'q edi. Saharhez chollar ham hali uyg'onmagan. Ko'prik oldiga yetganda mashina Nizomjonning yoniga kelib to'xtadi.

— Chiq! — dedi A'zamjon amirona tovush bilan. Uning ovozi xunuk, juda ham xunuk edi.

A'zamjon ukasining yelkasidan turtib mashinaga olib chiqdi.

— Jinni-minni bo'ldingmi, bola. Qachongacha cho'lda pashshaga yem bo'lib, ketmon chopib, balchiq kechasan. Mana pul, butun umringga, bola-chaqalaringga yetadi. Qoq o'rtasidan bo'lamiz. Bu pullar o'g'rilik bilan topilgan emas. Bu halol pul. Dadam bu pullarni mening, sening, onamning rizqidan yulib topgan. O'zi sen bilan menga vasiyat qildi-ku.

– Menga kerak emas, – dedi sovuqonlik bilan Nizomjon.
– Voy, ahmog‘-e, – deb ermak qildi akasi. – Jinnivoy, axir tushunsang-chi, hozir biznikiga borib bo‘lishamiz. Bab-baravar bo‘lishamiz. Ana undan keyin qayerni xohlasang, o‘sha yerga borib maza qilib yashaysan.

Nizomjon akasining ko‘ziga tik qaradi.

– Bu pullarga sen ham, men ham tegmaymiz. Hozir to‘ppa-to‘g‘ri bankka borib topshiramiz.

– Nima-aa?!

Nizomjonning hali-hali esida. Urush yili zveno qizlari mudofaa fondi uchun bo‘ynilaridagi marvaridlari bormi, barmoqlaridagi uzuklari bormi topshirishgan edi. O‘shanda Nizomjon bir chekkada bez bo‘lib o‘tirgan, boshini ko‘tarolmagan edi. Adolat, ha, Nizom, sen ham biron nima topshirmaysanmi, deganida, Asrora, Nizom Inoyat oqsoqolning bitini topshiradimi, deb ermak qilgan edi. O‘shanda yer yorilmadi-yu, Nizomjon kirib ketmadi. Ana shu xijolatni yuvadigan payt keldi. Hozir urush yo‘q. Ammo urush vayron qilgan yerlarni tiklashga har kim qo‘lidan kelgan yordamini berishi kerak. Mana, Nizomjon bilan akasining yordami.

Nizomjon akasiga yalingan ohangda dedi:

– Aka, bir mard bo‘ling. Yigit kishining moli yerda, deydi-lar. Bilagimizda kuchimiz bor ekan, o‘z toleimizni o‘zimiz yarataylik. Keling, shu pullar buzilgan shaharlarni tiklashga yordam bo‘lsin. Hukumatga qarashaylik.

– Hukumatdan qarzim yo‘q, – deb do‘ng‘illadi A‘zamjon.
– Hukumat deb qon to‘kib kelganman. Hukumatni devori yiqilgan bo‘lsa, o‘zi ursin.

Nizomjon shu odam bilan bir qorindan tushganiga ishongisi kelmasdi.

– Urushda qon to‘kib keldim, deding. Shu gaping, shu fikru o‘ying bo‘lsa, qanaqa qilib urushganing shundoqqina bilinib turibdi. Bilib qo‘y, men bor ekanman, bu pullarning bir tiyinini ham tomog‘ingdan o‘tkazolmaysan.

A‘zamjon uni ermak qilib kuldi.

– MVD o‘z uyimizda ekan-ku, bilmay yurgan ekanmiz. Ahmoq, eshshak.

Mashina Marg‘ilonga kelib qolgandi. Nizomjon mashina rugliga yopishdi.

– Bu yoqqa bur. Bur deyapman!

A'zamjon ukasini tirsagi bilan turtib yubordi.

– Hayvonlik qilma!

– Bur deyaqman!

A'zamjon chaqqonlik bilan rul burar, oyog'i bilan kuchining boricha motorga gaz berardi. Mashina o'qdek uchib Toshloq yo'liga burilib ketdi.

Eshik oldini supurayotgan chollar, namozga ketayotganlar besaranjom kelayotgan mashinaga chetlanib yo'l berishardi.

Nizomjon tirsak tegib ko'kargan ko'zini ishqab akasiga yovqarash qildi. Payt poylab mashina kalitiga chang soldi-yu, sug'urib oldi.

– Nima qilyapsan? Nima qilyapsan?

Mashina yo'l chetiga chiqib sekinlay boshladi. Nizomjon qulochkashlab turib kalitni yo'l chetiga otdi. Motori o'chgan mashina yuvoshgina to'xtadi.

Bu Marg'ilon bilan Toshloq o'rtasidagi ovloq yer edi. Na odam ko'rinadi va na biron arava.

A'zamjon o'zini gup etib yerga otdi-yu, ukasini sudrab tushirdi.

– Xo'sh, nima qilmoqchisan!

Javobsiz bezrayib turgan ukasining betiga shapaloq tortib yubordi. Nizomjon akasiga musht ko'tarmadi. Turib berdi.

– Ketolmaysan! – dedi Nizomjon. – To biron mashina o'tguncha shu alfozda olib turaman.

– Voy, ahmog'-e, bu mashina kalitsiz ham yuraveradi. Qulfining simini bir-biriga ulasang vassalom.

– Bari bir ketolmaysan.

A'zamjon mana, mana, deb uning betiga shapaloq soldi-yu, kabinaga kirib, qulfni sug'irib oldi. To Nizomjon kelib yopishguncha simni uladi-qo'ydi. Yana motor gurilladi.

Nizomjonga qaydan kuch paydo bo'ldi, o'zi ham bilmasdi. Akasining yoqasidan bo'g'ib pastga tortib tushirdi. Ko'kragiga kalla soldi. Qorniga tepdi. Ammo bu kalla urishlar, tepishlar barzangidek baquvvat yigitga chumoli chaqqancha ham ta'sir qilmasdi. Oxiri A'zamjon urish manavunaqa bo'ladi, deb ukasini savalab ketdi. Nizom boshini qo'llari bilan bekitar, o'zini uning changalidan qutqarishga urinardi. Ammo akasi hayvondek o'kirib uni savalashdan to'xtamasdi. Nizomjon yiqildi. Yiqildi-yu, bir ingrab qimirlamay qoldi. Akasi uning qovug'iga yomon tepgan edi. A'zamjon hansiraganicha kabinaga yugurib borib sakradi. Boyatdan beri motori gurillab turgan mashina jo-

yidan qo'zg'aldi, oldida do'nglik borligidan orqaga tisarilishi kerak edi. Qimirlamay qolgan Nizomjon motor tovushidan yana sapchib turdi, jonholatda mashina yo'lini to'smoqchi bo'ldi-yu, ko'chani qoq o'rtasida mast odamdek turib qoldi. Kishnagan otdek sapchib joyidan qo'zg'algan mashina Nizomning yelkasi-dan urib o'tib ketdi.

Nizomjon yo'l chetidagi changga belangan maysa ustiga ona bilaguzugini changallaganicha holsiz yiqildi-yu, hushidan ketdi...

VI

Iyulning yigirma oltinchi kuni edi.

Havo ochiq. Oftob tepadan olov purkardi. Kolxoz raisi Melivoy aka otda keldi. U oftobda qizarib ketgan, peshanalaridan, bo'yinlaridan ter oqardi. U otdan tushiboq Xolmatjonni so'radi. Ot Toshloqdan Naymangacha to'xtamay yo'rtib kelganidan ko'pirib ketgan edi. Samovarchi unga yaxna ko'k choy tutdi. Xolmatjonni hozir chaqirishini aytib, non ushoqlari to'kilgan sholchani qoqib yangitdan yozdi-da, uni o'tirishga taklif qildi. Dastyor bola eshagini minib Xolmatjonning dalasiga ketdi.

– Ishlar qanaqa ketyapti, – dedi Melivoy aka samovarchiga.

– Xolmatjon baraka topsin, zo'r bola ekan. Og'zidan biron beodob gap chiqsa-chi. Unisini aka deb, bunisini uka deb ishga solyapti. Chortherakning qizlari ham chakana emas ekan. Dildor degani bor ekan, tavba qildim, deb gapiray-ku, ikkita erkakning ishini bir o'zi qilyapti. Oftobni oftob demaydi, jazirama-ni jazirama demaydi. Ishlagani ishlagan. Ertalab samovarga o't tashlayotganimda traktor minib o'tganicha, kechqurun so'rini supurayotganimda qaytadi. Bitta baxti bor yigitning uyini obod qiladigan juvon ekan, baraka topgur. Shu husn, shu qaddi-qomat boshqa juvonda bo'lsa, qoshiga o'sma, ko'ziga surma tortib oyna oldidan jilmaydi. Bu unaqasidan emas ekan. Nomard eri tashlab ketdi. Boshqa xotin oldi.

Samovarchi tinmay gapirardi. Melivoy aka o'tirgan yerida mudrardi.

Melivoy aka o'g'li o'lgandan keyin so'lib, ozib, bo'yinlaridagi ajinlari ko'payib qolgandi.

Melivoy akaga qarilik endi kuchini ko'rsatib qo'yan edi.

To'rt yillik urush qiyinchiliklaridan odamlarni toliqtirmay, qoqiltirmay olib chiqish, bolalari kelguncha asrab-avaylash oson bo'lmadi. Shu to'rt yilning ikki yili kolxoz planini bajarolma-

di. Planki bajarilmadi, kolxozchining noni yarimta bo'ldi, degan gap. Urush ham tugadi, hammaning bo'lmasa ham, ko'pchilikning bolasi biri yarador, biri butun qaytib keldi. Ammo uning yolg'izi qaytmadi. Shundoq katta urushdan sog' chiqqan bola yaponning o'qiga uchradi. Melivoy aka yig'lab yig'lolmasdi, kulib kulolmasdi. Yig'lasa, bunaqa judolikka uchragan bir u emas-ku. Kulsa, qandoq qilib kuladi, ko'zining oq-u-qorasi qaylarda, begona tuproqda kafansiz yotibdi.

Melivoy aka pinhoni yig'lardi. Uning ko'zi kulardi-yu, ichi yig'lardi.

Yurt ko'zidagi odamga qiyin bo'ladi. Bu xil odamlar shaxsiy hayotini unutishi, yurt ishiga zid keladigan jami manfaatlardan voz kechishi kerak. Ammo judolik, ayniqsa, farzand dog'i har qanday irodasi po'lat kishini ham bukadi, yuziga ajin soladi, ko'zini namlaydi.

Melivoy aka ana shundoq alam otashida qovurilardi.

Xolmatjon ot choptirib keldi. Egardan tushiboq rais bilan omonlashib, yoniga o'tirdi. Xolmatjonning Melivoy akani ko'r-maganiga ham ikki haftacha bo'lib qolgan. Dala ishlari qizigan, bu joylar to'qay o'rni bo'lganidan o't hammani shoshirib qo'yan edi. Xolmatjon cho'lning hali u yerida, hali bu yerida paydo bo'lar. Ishlayotganlarni sen yaxshi, sen undan yaxshi deb aldab-suldab ishga solardi. Melivoy aka qarib, kuchdan qolganidan dalaning uzoq joylariga yetib borolmas, charchab qolib yarmidan qaytardi. U necha marta pravleniye majlisida qarib qolganini, ishga yaramayotganligini aytib, raislikdan tushirishlarini so'radi. Kolxozchilar ko'nishmadi. Urush qiyinchiliklarida yurtga ota bo'lgan odamni, tinchlik paytida chetga chiqazib qo'yamizmi, deb yana o'zini raislikda qoldirishdi.

– Ota, siz xotirjam bo'ling. Shoshilmay, kuchingiz yetgan-cha raislik qilavering. Aslo sizni xijolatga qo'ymaymiz. Daladan bitta ortiqcha o't topolmaysiz, plan to'ldirmagan zveno u yoqda tursin, bitta ham odam qolmaydi. Agar pensiyaga chiqib ketadigan bo'lsangiz, orqangizdan yuzdan ortiq kishi pensiyaga chiqib ketadi. Biz sizning bolalaringiz. Buyuravering. Biz g'iring demay bajaravering. Siz kolxozimizning doimiy raisisiz.

Bu gaplar Melivoy akaga quvvat bo'lar, yana dala kezish, yer titkilash, yana paxta tashvishi boshlanib ketardi.

Baribir u qarib kuchdan qolgan, ilgari g'ayrati qolmagan edi.

Mana hozir o'n besh yil shu xo'jalikka ota bo'lgan, o'zi kolxoz tuzib, o'zi yo'rgaklagan, o'zi og'ir kunlardan opichlab olib o'tgan odam issiqda hansirab o'tiribdi. Boshida yurt tashvishi, ko'nglida bir dunyo alam.

Xolmatjon unga qarab turib achinib ketdi. Xolmatjon uni yaxshi tanimas edi. Axir uning to'rt yil umri urushda o'tdi. Undan naryog'i Chorterakda kechgan. Boqcha aya Melivoy akaning kimligini, qandoq odamligini aytib bergan edi. Xolmatjon uning sarguzashtlarini eshitib qoyil qolgan. Shu topda qarshisida har ishda o'rnak olsa bo'ladigan, hatto taqlid qilib yashasa arziydigan odam o'tiribdi. Go'yo yonida tirik bir maktab turgandek edi.

Raisning ko'zidan mudroqlik qochdi. Xolmatjonning yelkasi qo'lini tashlab, mehr bilan boqdi.

– Barakalla, o'g'lim. Dalangni ko'rib keldim. Yo'ldagi paxtalar juda yaxshi. G'ayrat qipsan, bolam.

Xolmatjon uning gaplariga rahmat, hali kamchiligi ko'p, degan javob berib turdi. Melivoy aka sovib qolgan choyni ho'plarkan, dedi:

– Ertaga besh-olti yigit dalaga chiqmasin. Manavi yerlarni tozalab, o'tlarni qirishsin. O'zing ham shatta bo'l. Klubdan skameykalar olib kelishadi. Manavi so'rilarga yangi gilam berib yuboraman. Ikkita katta o'choq kavlat. Aravada qozon, samovar, choynak-piyola olib kelishadi. O'zing bosh bo'lib tushirib ol.

– Majlis bormi? – dedi Xolmat qiziqib.

– Usmon ota keladilar. Miting bo'ladi. Urush davrida yaxshi mehnat qilganlarning hammasiga «Vatan urushi davridagi shavkatli mehnati uchun» degan medal topshiriladi. Ertalab obkomdan telefon qilib seni so'rashdi. Sen Oder daryosidan kechib o'tganlar orasida bormiding?

– Shundoq bo'lgan edi, – dedi Xolmatjon.

– Shu to'g'risida so'rashdi. Keyin Xarkovdan bir general kelgan, kolxozingizni ko'rmoqchi, deyishdi. Ertaga mitingda u ham bo'lsa ajab emas, deyishdi.

Xolmatjon yarq etib Melivoy akaga qaradi. Melivoy aka bu qarashning ma'nosiga yetmadi. O'rnidan turib yana otiga mindi-yu, xayr-xo'shlab qaytib ketdi.

General kelyapti. Xolmatjon kim kelayotgani, nima uchun kelayotganini yaxshi biladi. General Zaychenko bilan Xolmatjon ming to'qqiz yuz qirq birinchi yilning dekabridan beri tanish. Xolmatjon uning qo'lida uch yarim yil xizmat qildi. Ne-ne jang-

larda birga bo'lmadi. Oxiri Oderdan kechib o'tishda yaralanganidan keyin hospitalda bir ko'rishdi-yu, shundan keyin bir-birlarining izlarini yo'qotishdi.

Oder uchun bo'lgan jang ayovsiz janglarning biri edi. Bu jang, bu kechuv ikkinchi jahon urushi tarixida alohida bir sahifadan joy olgan.

Zaychenko diviziyasining jangchilari qirg'oq tomon tunda emaklab kelishardi. Orqada artilleriya, tank qo'shinlari...

Birinchi kechib o'tadiganlar qatorida Xolmatjon yo'q edi. Sakkiz jangchi kechib o'tib, nemislarning o'q otish nuqtasini vayron qilishlari kerak edi. Vasiliy Jirnov bo'linmasi endi suvga tushmoqchi bo'lib turganda narigi qirg'oqdan o't ochib qolishdi. Ikki kishi shu yerning o'zida qonga belanib yiqiladi. Bu payt kechib o'tuvchilarning hujjatlarini sumkasiga solayotgan Xolmatjon buta orasida durbin bilan narigi qirg'oqni kuzatayotgan Zaychenkoga murojaat qildi.

– Ruxsat eting, o'rtoq general, men boray?

General o'ylab turib:

– Ruxsat, – dedi.

Xolmatjon o'zini suvga otdi. Daryoning qoq beliga kelganda, oldinma-ketin goh sho'ng'ib, goh ko'rinib suzayotganlarni o'qqa tutishdi. Berigi qirg'oqdan javob o'qlar yangradi. Oder ustidan u yoqdan-bu yoqqa olovli iplar tortilgandek bo'lib ketdi.

Xolmatjon yoshligida qishloq masjididagi hovuzda bolalar bilan cho'milarkan, suv tagida kim uzoq turish o'ynab yutib chiqardi. U barmoqlari bilan burni va qulog'ini berkitib suv tagida uzoq-uzoq tizzalab o'tira olardi.

Uning bu mashqi shu kuni, katta jang oldidan ish berib qoldi. Xolmatjon to'rt sho'ng'ishda narigi qirg'oqda paydo bo'lgandi. Atrof qorong'i. Suv betida projektorlar, o'q yolqinlari yalt-yult qilib so'nadi. Xolmatjon buta orasidan daryoga razm soldi. Daryoning ko'z ilg'aydigan joylaridan to'rt-besh jangchilar suzib o'tishyapti. U sheriklari suvdan chiqquncha kutib turdi. Keyin to'rtovi to'rt tarafga qarab emaklab ketishdi. Xolmatjon ikki granata bilan pulemyot uyasini yakson qildi. Yana emaklab ketdi. Orqa tarafdin kelayotgan sakkiz choqli nemis soldatiga qarata avtomatdan bir qator o't ochib yer tishlatdi.

Daryo tepasidan artilleriya o'qlari olov purkab o'ta boshladi. Berigi qirg'oqda sarosima boshlandi. Xolmatjon hali u yoqqa yugurar, hali bu yoqqa yugurar, qoqilar, yiqilar, oldidan chiqqanni avtomat qo'ndog'i bilan urib ag'darardi.

To'rt nemis minomyot og'zini berigi qirg'oqqa to'g'rilayotgani tepasidan chiqib qolgan Xolmatjon bir dam esankirab qoldi. Granata irg'itay desa, minomyotchilar undan atigi to'rt metr narida, portlasa, o'zi ham shikastlanishi mumkin. Nari ketay desa, o'rtada do'ng bor, mo'ljalni to'g'ri ololmasligi mumkin. Avtomatni ishga solishdan boshqa iloj yo'q edi. Shunday qildi. Uchtasini qulatti-yu, to'rtinchisi uning o'zini yiqitdi. Xolmatjon hushidan ketdi. U dala gospitalining yuk mashinasida o'ziga keldi. Boldiri zirqirab og'rir, o'ng yelkasi achishardi. O'qlar, bombalar o'ydim-chuqur qilib tashlagan front yo'lida mashina bezovta silkinib borarkan, yonginasida kimdir ingradi. Xolmatjon mashaqqat bilan boshini burdi. Ko'zi tanish ko'zlar bilan duch keldi.

— O'rtoq general!

Uning yonida chap qo'li yelkasigacha boylab tashlangan general Zaychenko yotardi. Zaychenko chekayotgan og'rig'ini sezdirmaslikka urinib mashaqqat bilan iljaydi. Bir qoshi sal ko'tarildi. U soldatlarga, bardam bo'linglar, bolalarim, deganda bir qoshi shunaqa qilib ko'tarilib qo'yardi. Bu gal ham shundoq bo'ldi. Ichida shu gapni aytgan bo'lishi kerak.

Xolmatjon gospital palatasida ko'kka boqib yotar ekan, koridordan qulog'iga tanish ovoz eshitildi. Qo'ltiqtayog'i bilan eshikni itarib ochib qo'ydi. Deraza oldida kichik serjant kiyimida A'zamjon kim bilandir gaplashib turardi. Xolmatjon ovoz chiqazib uni chaqirdi. Ikki hamqishloq do'st diydor ko'rishganlaridan nihoyatda shod edilar. A'zamjon xo'jalik bo'limida aravakash ekanini, yaqinda otdan yiqilib qo'li chiqqanini aytdi.

— Olti kun davolandim. Endi qismimga ketyapman. Chortekdan xat bormi?

Xolmatjon bosh egib ma'yus javob qildi.

— Asroradan xat oldim.

— Asrora xat yozgan bo'lsa, meni rosa yomonlagandir.

— Nega? — dedi hayron bo'lib Xolmatjon.

— Sening xabaring yo'q. Men otpuskaga borib o'n sakkiz kun dam olib keldim. Ammo rosa maza qildim. Urush bunaqa ketadigan bo'lsa, qishloqni yana ko'ramanmi, yo'qmi. Bir gasht qilay dedim. Bilasan-ku, hu Yunusali otaning qizi bor edi-ku, oti Dildor. O'shani yo'ldan urmaysanmi, deb shayton g'alaba qilib qoldi. Tutzorda yo'lini poylab tashlab qoldim. Yo'q demadi. Yo'q dermidi. Ertasiga janjal chiqadigan. Bor-e dedim-u, bezaks to'y qilib uylanvordim. Qaytib borsam, boshqasini olaman. Menga unaqa tovuqqa o'xshab pas desa yotadigani kerakmas.

Avvaliga Asroralaring menga hujum qiladigan edi. Ishni bitqazib qo'yganimdan keyin qo'llaridan nima ish keladi.

Xolmatjonning shu topda oldida qo'lga yaxshi niyat bilan qurol ushlagan haqiqiy soldat emas, sovet soldati qiyofasidagi bir mal'un turardi. U oyog'ining qaqshatishiga qaramay, qaddini ko'tardi.

– Ket, ket bu yerdan.

– Ha, nega? Sening ham pulingni yutdimmi. Ammo bu yerdagi ofitserlaringni qartada rosa yutdim. O'lmasam Chorterakka bir qop pul olib boraman.

– Ket deyapman senga, – deb qichqirdi Xolmatjon.

Uning vujudi titrar, tani temirdek qizib ketgan edi.

Xolmatjonning bezovta tovushidan koridordagilar eshikka bosh suqishdi.

A'zamjon istehzoli kulib o'rnidan turdi.

– Xayr bo'lmasam.

Xolmatjon javob qaytarmadi. Yuzini teskari o'girdi.

Xolmatjon o'n besh kundan ortiq palata shiftiga termilib yotdi. Oftob charaqlab turgan, erta bahorning beg'ubor shabada-si deraza pardalarini silkib o'ynayotgan bir ertada palata eshigi ochilib general Zaychenkning jiddiy qiyofasi ko'rindi.

Uning yelkasida xalat, bir qo'lida gazeta. U asta kelib Xolmatjon yotgan karavotning oyoq tomoniga o'tirdi.

– Qalay, ahvoling durustmi, Qoravoy?

Zaychenko uni erkab Chernyaviy – Qoravoy deb atardi.

Xolmatjon o'rnidan turmoqchi edi, u gazetasini tashlab o'ng qo'li bilan uning yelkasidan bosdi. Shunda Xolmatjon generalning chap qo'li yo'qligini bilib qoldi. Rangi oqarib, yuragi shuv etib ketdi. Demak, uning bir qo'lini kesib tashlashgan. Xolmatjonning rangi oqarganligini sezgan Zaychenko o'zini bosib gapirdi.

– Nichego. Bari bir chap qo'lni qo'l demasa ham bo'ladi. Bor bo'ldi nima-yu, yo'q bo'ldi nima.

Xolmatjon bilib turibdi. Zaychenko o'zini sovutish, boshqalarning rahmi kelmasligi uchun atayin aytyapti.

– Manavi gazetani ko'rdingmi? O'rtoqlaring qahramon bo'lishdi. Agar men yaralanmaganimda sen ham qahramon bo'larding. Ro'yxatni mensiz tuzishgan. Axir sen kechib o'tuvchilar ro'yxatida yo'q eding-da. Keyin qo'shilganding. Ah, yarador bo'lmaganimda... Bari bir tuzalib chiqay. Axir, sen eng muhim vazifani a'lo bajarding. Eng katta o'q ochish nuqtasini vayron

qilib diviziyaning kechib o'tishiga yo'l ochib berding. Yo'q, yo'q, sen qahramonsan. Men buni shu ahvolda tashlab qo'ymayman. Armiya shtabiga yozaman, Oliy Bosh Qo'mondonga yozaman. Albatta qahramon bo'lasan.

Shu gapga ham mana ikki yildan oshdi. Xolmatjon Zaychenko bilan gospitalda xayrlashganicha qayta uchrashmadi. Davolanib yana jangga jo'nadi. Ammo jangni quvib yetolmadi. Ularning diviziyalari allaqachon Berlinga kirgan, zambaraklarning og'ziga g'ilof kiydirilgan, Zaychenko o'rniga yangi qo'mondon tayinlangan edi.

Xolmatjon Melivoy aka ketgandan keyin oldiga bir piyola ko'k choy quyib, o'sha voqealarni bir-bir eslab o'tdi.

Ertaga Zaychenko keladi. Uning otadek aziz, mehribon qo'mondoni, jangovar generali keladi.

Xolmatjon o'zini qayga qo'yishini bilmasdi.

U bu xushxabarni birinchi bo'lib Dildorga yetkazdi.

VII

Ertalab A'zamjon «Villis»da Naymanga keldi. U shu paytgacha ukasining uyini ko'rmagandi. Ko'chada o'ynab yurgan bolalardan surishtirib uyini topgandan keyin, yuragi orqasiga tortib ketdi. Nizomjon o'lib-netib qolgan bo'lsa-ya. O'sha kuni jahl ustida har ish bo'ldi. Nega o'zi o'qdek uchib ketayotgan mashinaning yo'lini to'sadi. Bordi-yu, tirik bo'lsa, hozir chiqadi-yu, boshiga odam yig'adi. Hamma bo'lgan gaplarni aytib beradi.

A'zamjon shunday xayollar bilan eshik oldida turgan edi, bola ko'tarib Zebixon chiqib qoldi. A'zamjon kelinini ham tanimadi. Ko'rmagan. Ammo Zebixon uning suratini ko'rgan. Undan tashqari bir qaragan kishi qosh-ko'zidan, qaddi-qomatidan Nizomjonning akasi ekanini darrov payqab oladi.

— Keling, — dedi Zebixon sal esankirab.

A'zamjon nima deyishini bilmay bir entikib oldi.

— Nizomjonning uyi shumi?

— Ha, shu. Kiring, aka.

— O'zi uydami? — dedi past ovoz bilan A'zamjon. Uning bu tovushidan nimadandir qo'rqayotgani shundoqqina sezilib turardi.

— Yo'qlar. Dadam Zarkentga, do'xtirga olib ketdilar.

A'zamjonning boyatdan beri tarang bo'lib turgan asablari birdan bo'shashdi. O'zini o'nglab oldi. Ukasining kasalligini bilgan-u, ko'rgani kelgandek o'zini tutishga urindi.

– Zarkent kasalxonasiga ketishdimi? Mayli, o‘shaqqa bora qolay. Manavi omonatni o‘ziga berib qo‘yasiz-da.

– Eshikka kiring, aka, choy-poy ichib keting.

– Keyin, keyin, – dedi A‘zamjon hozir ukasi kelib qolayotgandek shoshilib.

U tugunni Zebixonning qo‘liga berdi-yu, shoshilib, xayrma‘zur qilmay mashinasiga o‘tirib jo‘nab qoldi.

Zebixon A‘zamjonning besaranjomligini ukasining notobligidan deb o‘yladi-yu, tugunni tokchaga tashladi. Nizomjon bo‘lgan voqealarni xotiniga ham, Ikromjonga ham aytmagan edi. Nima bo‘ldi, deb so‘rashganlarida, Marg‘ilon bozori oldida mastlar talashdi, deb qo‘ya qolgan edi. Zebixon, har qalay akada, yuragi achib ko‘rgani kepti, deb A‘zamjonga mehri tovlanib ketdi.

Nizomjon bo‘lsa bugun to‘rt kundirki, qattiq og‘riq azobidan sal yengil tortib Ikromjonning qistovi bilan vrachga ko‘rsatgani ketgandi.

A‘zamjon ketdi-yu, orqama-orqa Ikromjon bilan Nizomjon kelishdi.

Nizomjon oqsoqlanmay o‘z oyog‘i bilan kirib keldi. Yotaverib rangi siniqib, soqollari o‘sib ketganidan g‘alati bo‘lib qolgan edi. Endi dada-bola soqol oldirishibdi.

– Akangiz kelib ketdilar, yo‘lda uchrashgandirsizlar, – dedi Zebixon.

Ikromjon ko‘rmaganini aytdi. Nizomjon beparvogina, shunaqami, deb qo‘ya qoldi.

– Manavi tugunchani berib ketdilar.

Zebixon tugunni Nizomjonning oldiga qo‘ydi. Nizomjon bo‘lsa, uni beparvogina olib yoniga tashladi. Nizomjon bu tugunda nima borligini biladi. Otasidan qolgan merosdan tekkan ulush. Shuncha narsani u nima qiladi.

Ikromjon shoshib choy ho‘pladi-yu, o‘rnidan turdi.

– Bolam, sen damingni olib yot. Men odamlarni imitingga xabar qilay. Sen boraman, deb ovora bo‘lib o‘tirma, uzilib qolasan. Sal darmonga kirgin, undan keyin, qayoqqa desang, o‘zim oboraman.

Ikromjon chiqib ketdi. Zebixon qo‘lida mudrayotgan bolasini ko‘tarib hovliga olib chiqdi-da, tok so‘risiga osilgan belanchakka yotqizib alla ayta boshladi.

Nizomjon surilib tugunni oldi. Yechib matolarga qaradi. Pul. Tilla, kumush asboblari. U chorsini yana tugib yoniga qo‘ydi.

Keyingi kunlarda Nizomjon ham ruhan, ham jismonan charchagan edi. Otasining o'limi, akasining pastkashligi, opasining bezbetligi uni qattiq ezgan bo'lsa, akasining kaltaklari, mashinaga urib o'tishi uni tamoman holdan toydirgan edi. Yaxshiyam Ikromjon bor ekan, atrofida girdikapalak bo'lib oyoqqa turg'izdi. Uch kun qimirlamay boshida o'tirdi.

Dunyoda pastkash odamlar qancha ko'p bo'lmasin, asil odamlar undan ko'p ekaniga Nizomjon ko'pdan iqror bo'lgandi. Endi buni yana bir marta tan olyapti.

Ikromjon kiyingani keldi. Nizomjon har qancha yalinsa ham, yo'q, sen borma, bolam, urinib qolasan, deb ko'nmadi. Kiyinib, taranib chiqib ketgan Ikromjon orqasidan Nizomjon ham ko'chaga chiqdi. Katta tol tagida tepasiga qizil alvon taqilgan ikkita yuk mashinasi turibdi. Yasangan, ko'kragiga orden, medallarini taqqan frontchi yigitlar, boshlariga g'ijim ro'mol o'rab, atlas kiygan juvonlar mashina atrofida turishibdi. Hamma yig'ilib bo'lgandan keyin, Tog'a oldingi mashina kabinasiga o'tirdi. Oldinma-ketin ikki mashina yo'lga tushdi. Mashina tepasidagilar qiyqirishib Nizomjon oldidan o'tib ketishdi. Birdan Nayman jimib qoldi. Ichkaridan Zebixonning mayin tovush bilan aytayotgan allasi-yu, tol shoxidagi qushlarning vijir-vijiri eshitilardi, xolos.

Nizomjon akasi tashlab ketgan pullarni nima qilishini bilmay boshi garang edi. Shuncha pulni u nima qiladi? Mana, bugun hamma mitingga ketdi. Nizomjon shu paytdan foydalanib militsiyaga oborib topshirsinmi? Shundoq qilgani ma'qul. Bugun rayonning kattalari shu yerda. Dadasi bilan militsiya boshlig'iga uchrashib, uch-to'rt kishining guvohligida topshiradi. Ana shundoq qilsa durust bo'lar. Dadasi, sen borma, deb tayinlab ketishiga qaramay, o'sha tarafga borgisi keldi. U bola bo'lib hali bunaqa tantanalarni ko'rmagan. Mudofaa ministrining tashakkurnomasini topshirishda ham bo'lmay uni Asroraning qo'lidan olgandi. Ko'ngli allanechuk bo'lib uyga qaytib kirdi. Erining avzoyini ko'rgan Zebixon qarab turib, borgingiz kelyaptimi, deb so'radi.

Zebixon juda ziyrak juvon edi. Ko'ziga qarab erining dilidagisini bilib olardi. U Marg'ilonda kaltak yeb kelgandan beri ichini nimadir timdalayotganini ham bilgan. Kaltaklanishida ham bir sir borligini payqab yuribdi. Ammo so'ramadi. Nizomjon bir kuni aytib berishini ham u biladi. Er-xotin orasida hech qanday sir bo'lmasligini ular allaqachon g'plashib olishgan. Modomiki,

Nizomjon sirini aytmayotibdimi, demak, jiddiyroq bir ish bo'lgan.

Belanchakdagi bolaning ko'zi ilindi. Pishillab uxlab qoldi. Zebixon o'rnidan turib qoziqdagi Nizomjonning yuvilgan ko'y-lagini, latta ho'llab artib-surtib qo'yilgan, eskiroq bo'lsa ham hali kiysa bo'ladigan shimini olib kursi ustiga qo'ydi.

— Mayli, boring. Sal yozilib kelasiz.

Nizomjon shuni kutib turgan ekan, indamay borib kiyina boshladi. Erining yuvilaverib suzilib qolgan ko'y-lagiga, rangi un-nab ketgan shimiga, ikki marta tagi yangilangan etigiga qarab Zebixonning ko'ngli buzilib ketdi. Topgan-tutganini bundan bir hafta oldin, dadam och o'tiribdi, deb opasi qo'lidan yulib olib ketgan edi. Har oyning boshida opasi shunday qiladi. Bechora o'ziga bironta shim ololmaydi. Bu — Nizomjonga bilinmasa-da, xotiniga yomon ta'sir qilardi. Xotirlarning obro'si erining ko'chada yaxshi kiyinib yurishi, deb bilardi Zebixon. Opasi unga shunday o'rgatgandi. Pochchasi hamisha toza, dazmollangan kiyim kiyardi. Bedazmol kiyim bilan To'lanboyni opasi ko'chaga chiqazmasdi. Bechora Nizomjonning dazmolga ilinadigan kiyimi ham yo'q.

Nizomjon tugun ko'tarib chiqib ketarkan, Zebixon orqasidan ezilib qarab qoldi.

Mashinalar ketib bo'lgan. Faqat aravalar o'tib turardi, xolos. Nizomjon bitta-bitta qadam tashlab piyoda yo'lga tushdi. U bu yo'ldan juda ko'p marta qatnagan. Dildor kasal bo'lib qolganda Zebixon biron tansiq ovqat qilsa, piyoda oborib tashlab kelardi. Biroq bu gal u sal jadallabroq borishi kerak. Miting tugab qolsa, bo'lgan gaplarni eshitmay qolishi mumkin.

Toshloq kolxozining Nayman uchastkasiga chaqirsa, ovoz yetadi. Biroq bu taraflarga tikka yo'l yo'q. Qamishlar qoplab yotgan botqoqni aylanib o'tish kerak. Shu kattakon to'qaylik yo'lni uzoq qilib turardi. Nizomjon to'qay ichini kesib o'tmoqchi bo'ldi. Qamishlar qurib botqoq suvi ancha selgib qopti. Nizomjon bu taraflarga yangi kelganda hammayoq xuddi mana shunday edi. Ot kirsam, otliqning boshi ko'rinmaydigan qamishlar orasida to'ng'izdan tortib o'rdag-u qashqaldoqlar to'lib-toshib yotardi.

Bahor, kuz paytlarida hali ham o'rdaklar keladi. To'qayning u yer-bu yerida kechalari, azon paytlarida o'q tovushlari eshilib qoladi.

Nizomjon qamishlar orasida kezarkan, beixtiyor Jannat xolani esladi. Bechora shu qamishlar orasida beliga non tugib

o'g'lini qidirib yurardi. Bu xotin unga qancha yaxshiliklar qilgan. Nizomjon Jannat xolaning keyingi kunlarini ko'z oldiga keltirdi. Ozib, beli bukchayib qolgan edi bechoraning. Og'ir xasta edi. Xastaligini eridan yashirardi. Ikromjon uning biron marta ingraganini eshitmadi. Og'ir tan og'rig'ini ingroqsiz o'tkazdi, boyoqish. Agar Ikromjon uning kasalligini bilsa, o'sha zahotiy oq Zirillamaga tushirib yuborardi. Yo'q, Jannat xola dardga mard bo'lib chidadi. Aqalli biron marta ingramasdan, oh-voh qilmasdan jon berdi. O'g'lining firoqida, dard-u alamida shu to'qaylarda jon taslim qildi.

Nizomjonning ko'ziga Ikromjonning o'g'lini qo'ltiq tayoq bilan go'r qazib ko'mgani ko'rinib ketdi. Taniga beixtiyor titroq kirdi. U kunni, o'sha manzarani eslash naqadar dahshat. Har qanday dahshatlar oldida qaddini g'oz tutgan Ikromjon, bolasining go'ri tepasida kichkinagina bo'lib, bukchayib, basharalari mushtumdekkina bo'lib qolgandi.

Nizomjonni g'amgin o'ylar o'rab oldi. Boshini quyi solib qamishlarni shitirlatib borarkan, dunyodan chiqib ketgisi kelardi. Yashashning oxiri shumi, shu bir siqim tuproqmi?

Olidan qamishlar orqasidan karnaylarning vatillashi, surnaylarning echkiga o'xshab cho'zishi, nog'ora, chirmandalarning taraqlashi eshitilib qoldi.

Nizomjonning qadam olishi tezlashgandek bo'ldi. Ko'z oldiga Ikromjonning sira bukilmaz qaddi, g'amni elamaydigan chaqnoq ko'zlari, eng og'ir dahshatlar oldida ham titramagan ovozi keldi.

Birgina shu odamning qiyofasi uni yana oyoqqa turg'izdi. O'lim istagi bir zumda nari chekingandek bo'ldi. Nizomjon endi karnay-surnaylar tovushi kelayotgan tarafdagi jadal qadam tashlardi.

U bir zumda to'qaydan chiqib shag'al yotqizilgan yo'lga o'tib oldi. Yo'l serqatnov, otlarining bo'yinlariga, yollariga har xil lenta taqqan chavandozlar, brichkani to'ldirgan xotin-xalaj tolzor tarafdagi o'tib turishardi. Ora-sira «Villis», «Emka» mashinalari ham o'sha tarafdagi shitob bilan o'tib qolardi.

Nizomjon ko'cha o'rtasida qaldirab ketayotgan brichka aravaga yugurdi. Unda yigirma choqli qiz qo'shiq aytib qiyqirishib borishardi. Nizomjon ularga yaqin qolganda biri qo'lini uzatdi, biri uni itardi, Nizomjon qo'lidagi tugunchakni arava o'rtasiga otib, o'zi qo'l cho'zgan qizlar yordamida aravaga chiqib oldi. Qizlar sho'xlik qilib tugunni unga bermay, koptokdek bir-bir-

lariga otib o'ynashardi. Bu qizlar hozir beparvo otib o'ynayotgan tugunchakda sal kam yarim million so'm pul, qanchalab oltin-kumushlar borligini bilishmasdi. Qizlar oxiri rahmlari kelib tugunni Nizomjonga qaytib berishdi. Ayniqsa, bir sho'xrog'i hazil qilib unga tegajaklik qilardi.

– Kelinchakka bozorlik olib ketyapsanmi? Agar ichida atlas ko'ylak bo'lsa, o'zim tegaman.

Bu sho'x qizning qiliqlari unga Asrorani eslatar, yana hazil qilishini istardi. Qiz hamon bo'sh kelmasdi,

– Noz qilma. Urush paytida qizlar achib-sasib yotgan paytdaki uylanolmabsan, endi ovora bo'lasan. Yigitlar qaytib kelishdi. Ilgari qishloqda qolgan bironta maymoq ham o'nta qizni chertib bittasini olardi. Endi navbat bizga, biz endi yigirmatasini chertib bittasiga tegamiz. Chertib ko'raymi, qizlar. Qani po'killaydimi, taraqlaydimi.

Qiz barmoqlarini chertmakka moslab Nizomjonning peshanasiga olib keldi, boshqasi uni turtib yubordi.

Qizlar kulishar, qiyqirishardi.

Shunday o'yin-kulgi bilan miting bo'layotgan maydonga yaqin kelib qolishdi. Miting boshlanib hammayoq suv quygandek jimjit ekan, qizlarning qiyqirig'idan hamma o'tirgan o'rnida o'girilib qaradi. Qizlar bir-birlarini turtishib, uyalib, sekingina tol panasiga o'tib ketishdi.

Nizomjon mashinalar, aravalar orasidan o'tib borarkan, «Villis»da «Kazbek» tutatib o'tirgan akasini ko'rib qoldi. U Quva rayispolkomining raisini olib kelgan edi. Nizomjon akasining betiga qaramay o'tib ketdi. Ukasining qo'lida bugun oborib bergan tugunni ko'rgan A'zamjon mashinadan tushib unga ergashdi. Biroq Nizomjon odamlar orasidan o'tib oldingi qatorga borib qolgan edi. Noiloj qolgan A'zamjon orqaroqda bo'sh joy topib asta o'tirdi.

Minbarda Usmon Yusupov gapirardi. Uning gapi oxirlab qolgan ekan, charchaganidan bo'ynilaridan, peshanalaridan ter oqardi. Tez-tez yonidan dastro'molini olib artar, yana gapirardi.

– ...Yozyovon cho'llarida barpo bo'lgan ekin maydoni paxtachiligimizning asosiy bazasiga aylanish arafasida turibdi. Endilikda bu xo'jaliklar mustaqil kolxoz bo'lib ajralib chiqishlari mumkin. Markaziy komitet byurosi Yozyovonda tashkil bo'lgan yangi xo'jaliklarning iltimoslarini ko'rib chiqib, Naymanda birinchi bo'lib ikkita katta kolxoz tuzish tashabbusini ma'qulladi.

Bu kolxozlar Zarkent kolxozi bilan Toshloq kolxozi bazalarida vujudga keladi.

Usmon Yusupov shu kunlarda respublika mehnatkashlari oldida, jumladan, Farg'ona oblast mehnatkashlari oldida turgan vazifalarga to'xtalib o'tdi.

– Biz to'rt yil fashizm bilan olishdik. Yurtimizdan bu baloni quvib chiqarib o'z uyasida yakson qildik. Bu ishlar, bu g'alaba bizga osonlikcha tushmadi. Ko'p shaharlarimiz, zavod-fabrikalarimiz vayron bo'ldi. Ro'zg'orimiz izdan chiqdi. Endi biz vayronalikka qarshi kurash boshlashimiz kerak. Shaharlarni tiklash, zavodlarni qayta yurgizish, dalalarimizda ter to'kib mehnat qilishimiz kerak. Vazifa, izdan chiqqan xo'jalikni izga solib yuborish, tirikchiligimizni, maishatimizni urushdan oldingi darajadan ham yuqori ko'tarish. Men siz aziz cho'lquvar do'stlarimni paxta frontida jonbozlik qilishga chaqiraman!

Yusupovning so'zi qarsaklarga ko'milib ketdi.

Nizomjon Usmon Yusupov to'g'risida juda ko'p eshitgan edi. Ikromjon Yusupov mana shu Katta Farg'ona kanali qurilganda boshdan-oyoq o'zi turib bergani, quruvchilar bilan ota-boladek bo'lib ketganini ko'p gapirib bergan edi. Bugun Nizomjon Yusupovni birinchi marta ko'ryapti. Yusupov yonida o'tirganlarga nimalardir deb g'o'ldirar, ba'zan zalga tikilganicha o'ylardi.

Uning gavdasi bo'lalik, sochlarini ustarada tekis qirdirgan, egnida kalaminka kitel, issiqdan yoqasini yelpib, bezovtalanardi. Mana shu odam Begovotda Farhod GESga bosh bo'lgan, metall kombinati qurilishiga tashabbuskor bo'lgan, Oxunboboyevdan keyin yurtga bosh bo'lib qolgandi.

Undan keyin Melivoy aka salmoqlanib minbarga chiqdi-da, Toshloq kolxozining Nayman uchastkasi alohida kolxoz bo'lishga tayyor ekanini, yangi kolxoz uchun yetarli ot-ulov, inventar, uy-joy borligini aytib, yangi tug'ilajak kolxozni to oyoqqa turib ketguncha otaliqqa olishini aytdi.

Undan keyin Rayimberdi tog'a o'rnidan turib, u ham xuddi o'shanday gapirdi. U gapiga qo'shimcha qilib:

– Raislikka mo'ljallab qo'yan kishimiz ham bor, – dedi.

– Bizda ham bor, – deb unga qo'shimcha qildi Melivoy aka va iljayib Xolmatjonga qaradi.

Raislik qiluvchi Toshloq raykomining sekretari Xorunboy aka, yana kim gapiradi, deb olomonga qaradi. Birpas suv quy-gandek jimlik cho'kdi.

Boya Yusupov to'lib-toshib gapirganda Nizomjonning xayoliga bir gap yalt etib kelgan edi. Yozyovonni o'zlashtirishga mablag' zarur ekan, axir menda shu mablag' uchun xamirturush qilsa bo'ladigan pul bor-ku. Shu yerda topshirib qo'ya qolsam bo'lmaydimi?

Nizomjon o'rnidan turib qo'l ko'tardi. Tog'a Yusupovning qulog'iga nimadir dedi. Yusupov Nizomjonga allaqanday qiziqish bilan boshdan-oyoq qarab chiqdi.

Ruxsat tekkandan keyin Nizomjon chaqqonlik bilan taxtadan omonat yasalgan sahna chetiga chiqib atrofga qarab oldi. Gapini nimadan boshlashini bilmay andak o'ylanib qoldi.

— Hurmatli o'rtoqlar. Hurmatli o'rtoqlar. Men... — Nizomjon esankirab gapini yo'qotib qo'ydi. Keyin sal o'zini o'nglagandek bo'lib prezidiumdagilarga qaradi. Tog'a gapiraver, degandek qilib unga dalda berdi. Nizomjon qistamasa ham ikki-uch yo'talib gapini boshladi. — O'rtoqlar, bundan bir hafta oldin dadam o'ldi. Dadamni hamma taniydi. Menga dadamdan katta meros qoldi. Mana!

Nizomjon tugunni prezidium stoliga qo'yib yechdi. Ichidan oltin-kumushlarni olib qizil alvonga qo'yaverdi. Pachka-pachka pullarni terib tashladi.

— To'rt yuz ellik ming so'm pul. Yana shunday bahoga teng keladigan qimmatbaho buyumlar... Bu boyliklar onamning ko'z yoshi, mening rizqimdan yulib yig'ilgan. Men shu pullarni, shu qimmatbaho buyumlarni Yozyovonimizda tashkil bo'layotgan yangi kolxozlar xo'jaligini tiklashga topshiraman. Qabul qilib olishlaringizni so'rayman.

Besh yuzga yaqin miting ahli jimib qolgan edi. Egni yupun, o'zi kichkinagina bolada shunchalik odamiylik borligiga hamma hayron edi.

Orqa qatorda o'tirgan akasi A'zamjon yerga bir tupurib, davradan chiqib ketdi.

Boya shu tugunni to'p qilib o'ynagan qizlarning og'zilari ochilib qolgan edi.

Markazkom sekretari Yusupov o'rnidan turib Nizomjonning oldiga keldi. Miting ahlining ko'z oldida uni bag'riga bosib, peshanasidan o'pdi.

— Rahmat, bolam, himmatingga balli. Sen bergan bu pullarga Yozyovonda yangi klub, yangi kino zali, maktab quramiz. Yetmaganiga o'zimiz qo'shamiz. Barakalla, bolam.

Yusupov pullarni qayta tugib Tog'a bilan Melivoy aqaning oldiga qo'ydi.

— Mana, yangi kolxozlarning dastlabki byudjeti. Ehtiyotlab sarflanglar.

Keyin Yusupov Nizomjonning qo'lidan yetaklab oborib o'z yoniga o'tqazdi. Sahnaga chetiga ikkita sandiq olib chiqishdi. Oblast ijroiya komitetining raisi bilan sekretari ham sahnadan joy olishdi.

Oblast ijrokomining raisi o'rnidan turib Moskvadan kelgan mehmonni sahnaga taklif qildi. Bir qo'li yo'q general chiqdi.

— O'rtoqlar, — dedi majlis raisi. — Yozyovonlik quroldosh do'stlarini yo'qlab kelgan qahramon generalimizni yangi obod bo'lgan qishlog'imizga qadam ranjida qilishlari bilan tabriklaymiz. Xush kelibsiz, aziz qahramonimiz, deymiz.

Qarsak, qiyqiriq bo'lib ketdi.

— Hozirgi so'zni general-leytenant o'rtoq Zaychenkoga beramiz.

Qo'lsiz general minbarga chiqdi. U shu balandlikdan turib cho'lining olis-olislariga ko'z tikib, bir oz jim qolgach, shoshilmay gapira boshladi.

— Aziz birodarlar. Men harbiy odamman. Esimni taniganimdan beri armiya safidaman. Shundoq bo'lsa ham, dehqon mehnatining nimaligini bilaman. Asli o'zim dehqon bolasiman. Otam omoch ketida umrini o'tkazgan. Bugun o'rtoq Yusupov bilan dalalaringizni aylanib chiqarkanmiz, bu dalalarda, cho'l-larda chinakamiga harbiy intizom borligini ko'rdim. Biz jangda shahar olayotgan paytimizda siz tikanzordan, qamishzorlardan shahar olgan ekansizlar. Bu chinakam qahramonlik. Bu g'alabamizga katta ishonch.

Meni bu yerga chorlagan ikki narsa bo'ldi. Biri biz bilan yonma-yon turib dushmanga qarshi kurashgan do'stlarimiz tinchlik paytida, mehnat frontida qanday ishlayotganlarini o'z ko'zimiz bilan ko'rish. Ikkinchidan, mana shu quroldosh do'stlarimizni sog'inganimiz bo'ldi. Orangizda mening eng yaqin quroldosh do'stim Xolmatjon Matkarimov bor.

Hamma gurr etib o'rta qatorda o'tirgan Xolmatjonga qaradi. Xolmatjon qip-qizarib ketdi. General so'zini davom qildi.

— Xolmatjon bilan biz hamisha faxrlanib yuramiz. Yosh jangchilarga uni namuna qilib ko'rsatamiz. Jangovar yo'lini misol qilib aytamiz. Biz bugun Xolmatjon Matkarimovning ko'ksiga «Oltin Yulduz» taqqani keldik.

Hamma o'rnidan turib ketdi. Generalning ovozi eshitilmasdi. Majlis raisi qo'l ko'tarib to'polonni bosdi. General kulib gapini davom ettirdi:

— Hozirgina sizni armiya intizomi bor ekan, deb maqtagan edim. General gapirganda soldat qimirlamay turishi kerak.

Hamma gurr etib kulib yubordi.

— Jangovar do'stim Xolmatjon, marhamat qilib sahnaga chiq!

Xolmatjon asta o'rnidan turdi. Boshini egib tez-tez yurgan-cha sahnaga chiqdi. Usmon Yusupov qog'ozga o'rog'liq katta qutichani ochib, ichidan yorliqni oldi-da, o'qiy boshladi:

«SSSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoni. Nemis-fashistlarga qarshi Vatan urushi frontlarida ko'rsatgan jasorati uchun starshiy serjant Xolmat Matkarimovga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berilsin va u «Oltin Yulduz» medali hamda Lenin ordeni bilan mukofotlansin.

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi M. I. Kalinin.

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining sekretari Gorkin.

Usmon Yusupov Xolmatjonning ko'kragiga «Oltin Yulduz» va Lenin ordenini taqib qo'ydi. General Xolmatjonni bag'riga bosib o'pdi. Pastda chapak-qiyqiriq davom etardi.

Ana shundan keyin front orqasida alohida namuna ko'rsatib ishlaganlarga «Vatan urushidagi shavkatli mehnati uchun» medallari topshirila boshlandi.

Kechqurun Nizomjon ham uyga medal taqib kelgandi.

VIII

Dildor chinakamiga baxtiyor edi. U Xolmatjon to'g'risida o'ylaganda qandoq bo'larkin, yana qoqilmasmikinman, yana yiqilmasmikinman, degan tashvish dilini xira qilib turardi. Endi u Xolmatjonning kimligini juda yaxshi bilib oldi. Shu paytgacha hech kimning ko'ziga ilinmagan, hammavaqt bir chekkada ishini qilib yurgan bu kamgap bola birdaniga butun qishloq oldida buyuk odamga aylandi. Shundoq odam Dildorni tanlabdi. Yana qandoq Dildorni deng, bir marta sevgiga oyoq tiragan, bir marta sevgi deb cho'g' ushlagan, ro'zg'or ko'rib bolali bo'lgan Dildorga dilini ochibdi.

Avvaliga Dildor Xolmatjonni unchalik pisand qilmagan bo'lsa, endi Xolmatjonga munosibmanmi, deb o'zidan-o'zi so'radi.

Xolmatjonning ko'krigidagi ordenlarning har biri qon evaziga, jon evaziga kelganini Dildor yaxshi biladi. A'zamjon uchtagina medalni jaranglatib butun qishloqni taka-taka qilgan. Xolmatjon bo'lsa ordenini ham, frontda qilgan qahramonliklarini ham oraga solmasdan tinchgina ishini qilib yurdi.

Zo'rovonda miting bo'lishi, olis joydan generalning kelishi shu birgina Xolmatjon hurmati uchun ekani hammaga ma'lum. Mana shunday tantanadan keyin ham, ko'krigiga qahramonlik «Oltin Yulduz»ni taqqandan keyin ham Xolmatjon o'sha Xolmatjonligicha qolaverdi.

Dildor bundan o'n besh kun narida eri tashlab ketgan kechasi uyda yolg'iz qolgani, o'shanda Xolmatjon uni qo'riqlab to sahargacha uyi atrofida aylanib chiqqanini, tol tagidagi ajriqda uxlab qolganini eslab, o'zidan-o'zi xijolat bo'lib ketdi. Shundoq odamni, shundoq qahramon odamni ovora qilganiga endi uyarlardi.

— E, nodon Dildor, — dedi o'ziga-o'zi, — senga yana nima kerak? Ozmuncha xo'rliklar ko'rmadingmi? Shundoq yigit yo'lingni poylasa, joni-jahonini yo'lingga sochaman deb tursa, ikkilanasan? Senga qanaqasi kerak? Bo'yniga osilmaysanmi! Yo'lini poylamaysanmi?!

Yo'qolgan, qalb qa'riga chuqur ko'milib tashlangan muhabbat tuyg'ulari Dildor ko'ksida yana balqib chiqdi. Endigina balog'at ostonasiga yetgan qiz boladek entikar, goh yig'lagisi, goh kulgisi kelardi. Osmonda ko'z ochgan yulduz ham, oftobda erinib yotgan musichaning kukusi ham, hamma-hammasi uning dilini yoritir, ko'ngliga qandaydir quvonch, qandaydir yupanch solardi.

Dildor kecha Asroradan kelgan xatni yana qo'liga oldi. Xolmatjon umidvor bo'lib yurganini yozgan, undan maslahat so'ragan edi. Kecha shu xatga javob keldi. Asrora shunday deb yozgan edi:

«Sen o'lgurning biron yeringda mehrigiyoing bormi deyman, hadeb atrofingda yigitlar o'ralashaverishadi. Ko'zing o'lgurni suzsang kerakki, shundoq qilishadi. Nega menga birov qaramaydi? Nega Adolga qaramaydi? Mushtdek boshing bilan uchinchi yigitning boshini aylantirishing. Erdan chiqqan xotindan isitgan oshning hidi keladi deyishardi, sen o'lgurdan nega kelmaydi?

Ha, sen chinakamiga chiroyli juvonsan. Zuvalang pishiq ekan. Sira aynamaysan. Men unaqamasman. Dala, oftob tig'idagi ish meni juda xunuk qilib qo'ygan. Undoq desam, o'zim o'lgurda yigitlarning ko'zini o'ynatadigan hech narsam yo'q. Otam rahmatlik o'g'ilga zor bo'lib, kuta-kuta o'g'il ko'rmagandan keyin meni o'g'il bola qilib o'stirdi. Esingda bormi, to bo'yim cho'zilguncha ham shim kiyardim. Belimga chorsi bog'lab maktabga kelardim. O'g'il bolalar bilan kurash tushardim. Qaynatang o'lgur meni nima deganini bilasanmi? Jig'iga tegaverganimda, sen ot qizsan, degan. O'shanda qon-qon yig'laganman. Qanday qilay, o'rtoq, yuzimga upa sursam yarashmasa, labimga qizil sursam yarashmasa. Xuddi sirkdagi masxarabozlarga o'xshab qolaman.

Mayli, men uchun ham sen yigitlarga yoqaver.

Albatta, sen xursand bo'lg'in deb, kelishmagan gaplarni yozdim. O'zi hozir nastroyenam yaxshi. Kuladigan gaplarni yozgim keldi.

Xolmatjon to'g'risida yozibsan. Senga tayinli biron maslahat berishga hayronman. Ko'ngil ishiga birov aralasholmaydi. Ayniqsa, uzoqdan turib fotiha berish qiyin. Umuman olganda, Xolmat yaxshi bola. Sal pismiqroq, ichimdagini top deydiganlardan edi. Hozir qanaqa bo'lib ketgan bilmayman. Sut ichib, og'zi kuygan odamsan. Qatiqni ham puflab ichishing kerak. O'zing bilasan. Hozir sen birovning maslahatisiz ham bir ish qila oladigan yoshdasan. Sevgi, oila qurish to'g'risida gapiryapman. Bir marta ro'zg'or ko'rgan odam pishib qoladi. Yaxshilab o'yla. Qirq o'lchab, bir kes. Menimcha, Xolmat seni xor qilmasa kerak. Xullas, o'zing bilasan.

Senga Adoldan salom. Sog' bo'l. Dala ishlari sal yurishib ketgandan keyin Adol bilan bir borib kelsak ham ajabmas.

Senga hurmat bilan Asrora. O'g'lingni o'pib qo'y.

Nizom o'lgur qayoqlarda sanqib yuribdi?

Xayr.

Dildor bu sodda, bir qop yong'oqdek shaldir-shuldur dugonasining xuddi yonida turib gapirayotgandek qilib yozgan bo'yoqsiz xatini o'qib yayrab ketdi. Asrora uchrashib qolganda ham, hatto uzoqdan turib yozgan xatida ham uni urishardi.

Xatning mag'zini chaqib qaraganda Asrora ularning qovu-shishiga qarshi emas. Dildor bu masalada bir marta yurak oldirgan bo'lgani uchun Asrora uni o'ylab ish qilishga undardi.

Dildorning fikri qat'iylashdi. U faqat shu Asroraning dash-nomlaridan qo'rqardi. Endi qo'rqmasa ham bo'ladi. U rozi.

Dildor cho'lga kelgandan beri biron marta ham kiymagan yangi atlas ko'ylagini kiydi, bir chekkada gazetaga o'ralganicha yotgan amirkon tufisini oyog'iga ilib bir parcha oynaga qaradi. Hali kunduzi qo'ygan o'smasi chap qoshidan sal qulog'i tomonga oqqan ekan, izi tushib qolibdi. Dastro'molini ho'llab ishqadi, ketmadi, qaytaga ishqalangan joyi qontalashib qizarib qoldi.

Oynakdan bir-biriga tikilib qolgan ko'zlar qimirlamasdi.

Dildor chinakam chiroyli edi. Xotinlarning ta'biri bilan aytganda, bitta tuqqandan keyin husni yanada ochilib ketgandi. Bu husn, bu qaddi-qomat har qanday yigitni ham o'ziga qarata olardi. Dildor oynada o'z husniga o'zi mahliyo bo'lib turgandan keyin, mamnun bir qiyofada ko'chaga chiqdi. Hozir u qayoqqa boradi, nimaga bunaqa yasanib yuribdi, bilmasdi. Cho'lning kechki shabadasi shu bahor yerga qadalgan tol novdalarini silkitar, olislardan sahro giyohlarining allaqanday hidlarini olib kelardi. Dildor shu topda oldidan Xolmatjon chiqib qolishini istardi. Ammo u ko'rinmasdi. Dildor uni o'sha miting kuni minbarda ko'ksiga «Oltin Yulduz» taqayotganlarida ko'rganicha uchratmadi.

Bugun bo'lsa, tamoman bir qarorga kelgan Dildor atayin uni ko'rishga, agar yana o'sha gapni qaytarsa, ikkilanmay, «ha» javobini berishga chiqqan.

Dildor ancha vaqtgacha cho'lning yangi ko'chalarida aylanib yurdi. U o'g'li, Xolmatjon, bo'lajak turmushlari to'g'risida o'y-lardi. Uzoq o'ylash oqibati shu bo'ldiki, u ertangi kunidan biron xiralik ko'rmadi.

Ko'ngilda qoniqish, taskin va yana allaqanday to'liqlatuvchi hislar bilan uyiga qaytdi. Malika aya kelmagan, qo'shni hovlilarda yoqilgan chiroqlarning nurlari daraxtlarning bo'yniga tushib turibdi. Dildor nimqorong'i hovlida bir dam u yoqdan-bu yoqqa yurib, keyin ayvon dahaniga o'tirdi.

Bu yolg'izlik, bu nimqorong'ilik unga yoqardi. Jimjit hovli-da o'z o'ying, o'z orzularing bilan tanho qolish qandoq yaxshi. Dildor ana shunday halovat og'ushiga olgan hovlida kuy tinglayotgandek tebranib-tebranib o'tirardi.

Suv kechgandek tovush keldi. Dildor erinibgina orqasiga qaradi. Ayvonning u boshida oyog'iga rezinka etik kiygan, yelkasiga ov miltiq osgan Xolmatjon unga hayron boqib turardi. Xolmatjonning belidagi qiyig'ida to'rt-beshta o'rdak va bir quyon osilib turardi.

– Voy, – dedi hayron bo‘lib o‘rnidan turarkan Dildor, – Kelganingizni bilmay qopman.

– Ovga chiqqan edim. Uncha bo‘lmadi. – Xolmatjon shunday deyarkan, belidagi o‘ljalari ayvon chetiga qo‘ydi, – Bir piyolagina qaynoq choyingiz bormi? Juda chanqadim.

– Hozir, hozir. Hozir qumg‘onni o‘choqqa qo‘yaman.

Dildor, shox-shabballarni o‘choqqa tiqib o‘t qalab yubordi. Birpasda yarim qorong‘i hovli devorlarini, daraxt tanalarini o‘tning shu‘lari yalay boshladi. Xolmatjon ust ko‘ylagini yechib shaftoli butog‘iga ilib, ariqni oyoqlari orasiga oldi-da, shopillatib yuvina boshladi. U yuvinarkan, Dildor sochiq ushlab yuzini teskari qilib turardi. Xolmatjon shoshilmay yuvinib, Dildor uzatgan sochiqqa artinib yana ayvon oldiga keldi.

– Endi, xafa bo‘lmaysiz-da, Dildorxon. Idoraga shu ahvolda borgim kelmadi. Soat to‘qqizga pravleniye chaqirib qo‘ygandim.

Dildor javob o‘rniga muloyim kulib qo‘ydi.

Ikkovi bir-biriga qarolmay yer chizib ancha o‘tirib qolishdi. Qumg‘on vaqirlab qaynadi. Dildor choy damlab kelguncha uning chaqqon harakatlarini, engashganda, chambarakdagi qaymoqni olayotganda gavdasini bir g‘alati egilishi, cho‘zilishi Xolmatjonning yigitlik torlariga tegib ketdi. O‘zida ajib bir botirlik sezib beixtiyor o‘rnidan turdi-yu, dadil yurib Dildorning oldiga keldi. Qanday qilib bilagidan ushlaganini, bir qo‘li uning nozik bellariga chirmashganini sezmay qoldi. Dildor faqat bir so‘z aytardi:

– Voy, voy, kuyasiz, choynakni qo‘yay. Voy, yelkangizga choy to‘kilib ketadi.

Xolmatjon uni qo‘yib yubordi. Dildor dasturxon chetiga choynakni qo‘yarkan, Xolmatjon yana uni tortib o‘ziga qaratdi.

Xolmatjonning avvalgi tolpinishi Dildorga kutilmagan bir hol edi. Bu galgisini o‘zi istagandek mayl bildirdi.

Xolmatjon hansirab uning yuzlaridan, lablaridan yigit kishini mast qiladigan g‘alati, judayam g‘alati, yoshlik hidi, faqat balog‘at hidi deb aytish mumkin bo‘lgan bir hid taratib turgan tomoqlarining tagidan o‘pard.

Bu yarim qorong‘i hovlida ikki yosh, bir-biriga intilgan ikki yurakning gupillab urishi hokim edi.

Dildor baxtiyor edi.

Xolmatjon mast kishidek o‘zini unutmadi.

Dildor uning bag‘ridan uzilib chiqishni istamasdi. Ammo qandaydir hayo, qandaydir andisha sekin-asta ongiga quyilib kela boshladi.

Ikki qo'lini Xolmatjonning gupillab urib turgan ko'kragiga qo'yib, asta, beozor itardi.

— Qo'ying, qo'ying, Xolmatjon aka. Bitta-yarimta kelib qolmasin.

Xolmatjonning yigit bo'lib birinchi marotaba ayol kishini bag'riga tortishi edi. Dildorni bag'ridan qo'yib yuborishi juda qiyin bo'ldi.

Dildor Xolmatjonning tushib ketgan do'ppisini yerdan olib tizzasiga urib qoqib uzatdi.

— Sho'x ekansiz.

— Endi bo'ldimi? — dedi Xolmatjon hamon hansirab.

— Nima bo'ldimi? — dedi ajablanib Dildor.

— O'ylab ko'ray, ozroq fursat ber, degan edingiz. O'sha fursat o'tdi. O'ylab ko'rgandirsiz?

Dildor Xolmatjonning bundan bir-ikki hafta oldin ikki bi-lagidan ushlab yolvorganini esladi. O'shanda u o'ylab ko'rishini aytgandi.

Bunday gap til bilan aytilmaydi. Bugun uning Xolmatjonga o'ptirishi, bag'rida monelik bildirmay xo'rsinishi o'ylab ko'rgani, xo'p degani emasmi? Ammo Xolmatjon bu gapni o'z og'zidan eshitmoqchi, eshitib huzur qilmoqchi.

— Xo'sh, nima deysiz?

— E, boring-e, — dedi erkalanib Dildor. — Til bilan aytish shartmi. Yo'q desam, siz bilan qorong'i hovlida gaplashib turar-midim.

Xolmatjon endi o'zini ancha o'nglab olgan, boyagi qilmishi qanchalik unga rohat bag'ishlagan bo'lsa-da, har qalay xijolatli-roq ish bo'lib o'tgan edi.

— Kechiring, Dildor, sal o'zimni eplashtirolmay qoldim. Rahmat, meni xotirjam qildingiz. Bir yetimning ko'nglini ko'tar-dingiz. Endi tayyorgarligimni ko'raversam bo'lar-a. Xo'pmi?

Dildor boshi bilan xo'p ishorasini qildi. Xolmatjon onasidan hayitlik tanga olgan boladek ko'chaga otildi.

— Hoy, hoy, o'rdaklaringiz qoldi-ku! — dedi orqasidan qich-qirib.

— Sizga, sizga olib kelganman. Hammasi sizga.

Xolmatjonning ovozi uzoqdan eshitildi. U ancha nari ketib qolgan edi.

Dildor chiroqni yoqdi. Xolmatjon tashlab ketgan o'rdaklarni qo'liga olib gunafsharang bo'yinlarini siladi. Ayvon chetida qol-gan miltig'ini ko'tarib ustunga ildi.

Endi Dildor qalbidan A'zamjon nari ketib, Xolmatjon ismli bo'z yigit beri kelgan edi.

Dildor endi o'z taqdiridan, ertasidan umidvor edi.

IX

Nayman alohida kolxoz bo'lib ajralib chiqishga tayyor ko'ringani bilan tashkiliy tomondan hali ko'p ishlar qilinishi kerak edi. «Zarkent» pravleniyesi bu masalani muhokama qilib bir brigadadan kolxoz vujudga keltirish uchun nimalar qilish kerakligini ko'rib chiqdi.

Yangi kolxozga qancha chorva ajratiladi? Inventar, transport, bo'linmas fondan qancha so'm beriladi? Urug'lik fondi, yo'llar qurish uchun necha so'm, qurilish fondidan qancha yog'och, qancha g'isht, sement berish kerak? Bu masalalar ko'p vaqt talab qilardi. Shuning uchun ham pravleniye olti kishilik tashkilot komiteti tuzishga qaror qildi. Komitetga Tog'a, Ikromjon, bosh buxgalterning o'zi, agronom, chorva brigadiri hamda Qishloq sovetining raisi kirdi.

Ikromjon Naymandagi bari ishlarni To'lanboyga topshirib o'zi besh kundan beri Zarkentda olishib yotibdi. U pravleniye majlisida kolxoz bo'lib ajralib chiqish masalasini yig'im-terimdan keyinga qoldirish to'g'risida ko'p gapirdi, ammo gapini o'tkazolmadi. Hozir Naymaning ham g'o'zalari ko'sak tugib, bugun-erta terimga kiraman deb turibdi. Cho'l sharoiti og'ir. Yog'in-sochinga qolmay yangi yerlarga traktor solish kerak. Havo ko'z yoshi qilib bersa, to'qayga kirib bo'lmay qoladi. Hozir qamish yoqishning ayni payti. Kuyindi ham haydalgan yerga o'g'it bo'ladi. Qishi bilan chirib yerni qo'pchitadi. Shu ishlarni terim boshlanguncha qilib olish kerak. Ammo Ikromjon tashkiliy ishlardan bo'shayolmaydi. Kecha To'lanboy kelganda shu to'g'rida hasrat qilgan edi, To'lanboy uni xotirjam qildi: «Sen unaqa vahima qilavermay, ishlaringni bitkaz. Bu yog'ini bizga qo'yaver. To'qay buzishga professor bo'lib ketganmiz. Qamish degan narsa bamisoli fonar yog'i. Bitta gugurt chaqsang pov etadi, yonadi ketadi. Shunga shuncha tashvishmi? Sen traktor undiraver, men to'qayni yondirib tayyor qilib qo'yaman».

To'lanboyning gapi bir hisobda to'g'ri. Qamish yoqish qiyin emas. Ammo butun bir kolxoz bo'lish uchun shu yongan to'qayni traktorda ag'darib, avval sholi ekib yerni yer qilib olish kerak. Bo'lajak kolxoz sholi yetishtiradimi, paxtami? Hozirgi yuz

sakson gektardan olinadigan paxta yaxlit kolxoz bo'lish uchun ozlik qiladi. Qo'shimcha ochiladigan yerdan ikki yilsiz paxta olib bo'lmaydi.

Yangi kolxoz bir-ikki yil ham paxta, ham sholi, ham poliz ekinlari yetishtiradi. Yangi bog' tashkil qilish kerak.

Bu masalalar Ikromjonni butunlay band qilib qo'ygan edi.

Buxgalter kim bo'ladi, kimni omborchi qilish kerak? O'g'itga joy tayyorlash kerak. Chorva qishloviga qo'ra tayyorlamasa, ertami-indin, Tog'a hayda mollaringni, deb qoladi. Qayoqqa oboradi?

Ikromjonning bir oyog'i rayijrokomda, bir oyog'i raykomda bo'lib qoldi. Nogiron odamni tinch qo'ymagan Tog'adan xafa bo'lib ketadi. U yoqda nevarasi ko'ziga ko'rinib bor-e, deb Naymanga ketvorgisi kelib qoladi.

Xullasi, u talashib-tortishib yangi kolxozga uch yuk mashinasi, ikki traktor, yettita arava, oti bilan uch brichka, to'rtta eshak arava undirdi. Bular «Zarkent» hisobidan. Endi rayijrokomning himmati qanaqa bo'larkin? Tog'a buning ham yo'lini o'rgatdi.

— Ijrokom raisining eshigiga yotib olasan. Yangi kolxoz vakilisan. Bermay iloji yo'q. Bilib qo'y, bizdan olgan mashinalar eski mashina. Seni ko'p urintiradi. Yangisidan ikkita undirmay kabinetidan chiqmaysan. Bu yoqdan men ham ha-halab turaman.

Ikromjon shunday qildi. Avvaliga yaxshi gapirdi. Keyin sal balandroqdan keldi. Sekaga boraman, Usmon otaning oldiga kiraman, deb do'q qildi. Ana shundan keyingina, mashina yo'q, o'lay agar bir dona bo'lsa deb turgan rais xo'p, dedi. Bitta yap-yangi, bitta sal uringanroq yuk mashinasiga qog'oz qilib berdi.

Kechqurun Ikromjon Tog'aning oldiga gul-gul ochilib keldi.

— Aytdim-ku senga, ijrokom raisi sal baland kelsang, past tushadi. Men uning fe'lini bilib olganman. Endi traktorni raykomdan undirasan. Xorunboy akaning ixtiyoriga oltita traktor kelgan. Obkomdan telefon qilmasa, bermaydi. Buni o'zim gaplashib beraman.

Davlatdan uzoq muddatli kredit olish kerak. Pulni ko'proq so'ra. Qancha so'rasang ham, ozmi, ko'pmi, bari bir oblupravleniye yarmini qirqadi. Shuning uchun birdaniga katta pul so'raymiz. Yarmini qirqsa ham, ancha qoladi.

U shunday deb Ikromjonning yuziga qaradi. Qaradi-yu, undan ko'zini ololmay turib qoldi.

Tog'a ish bilan bo'lib do'stining ahvoliga nazar solmagan ekan. Bir haftadan oshdi Zirillamada yurganiga. Qayerda yot-yapti, nima yeb, nima ichyapti, xabari yo'q edi. Ikromjon ozib, ko'zlari ich-ichiga kirib ketibdi. Uning ahvolini ko'rib Tog'aning ko'ngli buzilib ketdi. Xotini, bolalari bo'lganda shunaqa bo'lib yurarmidi, deb dilidan o'tkazdi.

— Menga qara, — dedi Tog'a. — Ishlaringni qo'y. Men ham bugun idoradan qochaman. Ikkovimiz bir maishat qilaylik.

Tog'a o'rnidan turib stol ustidagi qog'ozlarni yig'ishtirib g'aladonga tiqdi-da, derazani bekita turib Ikromjonga qaradi.

— Odam topolmaydiganroq joyga borib otamlashamiz.

Ikkovi tashqariga chiqishdi. Kun botishiga sal bor. Tog'a samovarchini chaqirib qulog'iga nimadir dedi. Keyin, bo'пти, deb saroyga kirib ketdi. Sal o'tmay qog'ozga o'rog'liq narsa ko'tarib chiqib ichkariga opkirib ketdi. Saroydan velosiped minib chiqqan yigit Tog'aga qarab, bo'пти, deganicha o'qdek uchib ketdi.

Ikki oshna bitta-bitta qadam tashlab yangi tushayotgan klub oldidan aylanib o'tib bog' tarafga yo'l olishdi. Ularning yo'lini buxgalter to'sib chiqdi.

— O'rtoq Yonbo'latov telefon qildilar, yangi kolxozga traktor beradigan bo'lishibdi, doverennost bilan odam kelsin, dedilar.

— Nechta berarkan? — dedi Tog'a.

— Bitta, dedilar.

— Ha-ha. Bitta bo'lsa, bermay qo'ya qolsin. Kerakmas. Ikkitaga doverennost yozaver. Bermasin-chi, Toshloqdan ko'chirvorarman.

Buxgalter, ixtiyoringiz, deganicha orqasiga qaytdi.

Tog'a nima bo'lsa ham, Ikromjonga yengil bo'lsin, ko'ngli ko'tarilsin, derdi. Yangi kolxoz qancha tez oyoqqa tursa, Ikrom ham shuncha qaddini rostlaydi.

Tog'a butun Farg'ona oblasti bo'yicha erka raislardan hisoblanardi. Qilaman degan ishini qilmay qo'ymasdi. Rayonda bitmagan ishini oblastdan bitkazardi. Shuning uchun ham rayon rahbarlari uni xush ko'rishmas edi. Bu ustimizdan hatlab oblastga yuguradi, deb nolishardi. Hozir bitta ajratilgan traktorni ikkita qilib olaman deyishi ham, o'sha qo'li uzunligiga ishonishi edi.

Boya velosipedda ketgan yigit bog'ning etagiga suv sepib, so'riga sholcha solib qo'ygan ekan. Ikkovi kelishganda yigit ariq bo'yiga cho'nqayib likopga shakarob to'g'rab o'tirardi.

– Baqa ber, sen boplolmaysan, Ikrom qiladi, sen orqanga qaytib, oshni tezlat. Menga qara, birov so‘rasa, rais cho‘lga chiqib ketgan, deb ayt.

Yigit patnisda piyoz, pomidor, qalampir keltirib so‘riga qo‘ydi. Pichog‘ini qiniga solayotgan edi, Tog‘a, tashlab ket, yo‘qolmaydi, dedi.

Farg‘ona xalqi o‘z pichog‘ini otasiga ham ishonmaydi. Agar birov olib biron narsa to‘g‘rasa, ikki ko‘zi pichog‘ida bo‘ladi. Agar suyakka soladigan bo‘lsa, joni hiqildog‘iga keladi-yu, pichog‘ini qo‘lidan tortib oladi. Bu qishloq kishilariga Tog‘a otadan afzal edi. Yigit pichog‘ini qaytarib olishga jur‘at qilolmadi. Indamay velosipediga minib ketdi.

Ikromjon pichoqni qo‘liga olib tomosha qildi.

– Shahrixonning pichog‘i deyman-a, – dedi zavqlanib.

Tog‘a pichoqqa qaramay javob qildi.

– Qorasuvniki, O‘sh Qorasuvniki.

Ikromjon hafsala bilan shakarob to‘g‘radi. Tog‘a yaktagini ham yechib tashlab maykachan bo‘lib oldi. U endi ancha qarigan, bo‘yinlari salqib, bilaklaridagi tomirlari ko‘karib ko‘rinib turardi. Ammo o‘zi hali baquvvat ko‘rinardi. U ariqqa tashlab qo‘ygan shishani olib, so‘riga chordana qurib o‘tirib oldi.

– Toshkentdagi armanlar do‘konidan olgan edim. Tanishim bor. Dunyoda arman konyagidan zo‘ri bo‘lmaydi.

Ikromjon umrida konyak ichmagan edi. Qanaqa bo‘larkan, deb yurardi. Ayniqsa, xotini o‘lib, bolasi kuydirib ketgandan keyin bunaqa ishlar esiga ham kelmagandi. Toleiga o‘g‘li Nizomjon ham ichmaydigan, chekmaydigan chiqdi.

– Ichmaganimga ham ko‘p bo‘ldi, – dedi Ikromjon beparvo.
– Ikki yildan oshdi, chog‘imda.

– Ichmagan bo‘lsang, endi ichasan. Yangi kolxoz uchun, salomatligimiz uchun ichvorasan-da, oshna.

Bolaligi, yigitligi birga o‘tgan, keksaligi ham barobar boshlangan bu ikki qadrdon shu bugun bir yayrashmoqchi, to‘yib-to‘yib gaplashmoqchi. O‘tgan yoshlikni, ko‘rgan ham shodlig-u ham alamli kunlarini esga olishmoqchi.

Bog‘ cheti odamdan xoli. Qurilayotgan shiyponning tomi hali yopilmagan, hovuz qazilgan-u, suv quyilmagan. Shuning uchun bu tarafga hali mehmonlarning qadami tegmagan edi.

Velosipedli yigit g‘irillab kelib chorsida non, uzum olib keldi.

– Oshning zirvagini bostirib qo‘ydik. Ketma-ket guruch solaveraylikmi yo turaturaylikmi, deb so‘radi.

– Chaqqon-chaqqon bo‘linglar, – dedi Tog‘a.

Yigit ketdi. Tog‘a shishani ochdi.

Piyolani qo‘liga olgan Ikromjon, Tog‘aning ko‘ziga qarab allaqanday mehrmi, butun qilgan yaxshiliklariga minnatdorlikmi, bilib bo‘lmaydigan bir ohangda dedi:

– Seni salomatligingga, Rayimberdi.

Uning ovozi titrardi. Tog‘a iljaydi.

– Ichmasdan mast bo‘lyapsanmi, tentak. Unaqa qiladigan bo‘lsang ichmay qo‘ya qolamiz.

Ikromjon ko‘zini yummay ichib yubordi.

– Yig‘lasak yig‘labmiz-da, og‘ayni. Ko‘z yoshimizni birov ko‘rmasa bo‘lgani. Mayli, senam yig‘la, menam yig‘lay. Axir yig‘lolmay ko‘z yoshlarimiz qurib ketdi-ku.

– Ha-aa, – dedi cho‘zib Tog‘a. – Dod deb yig‘lasa bo‘ladigan ishlar o‘tdi boshimizdan. Qandoq qilaylikki, sen bilan bizning yig‘lashga haqqimiz yo‘q. Biz milt etib yosh chiqazsak, boshqalar faryod urib yig‘i boshlashadi. Xalqning ko‘zidagi odammiz.

Ikromjon ochiqqan edi. U yoqdan-bu yoqqa qatnab tushlik ham qilmagan edi. Ikki piyola konyak ichini sidirib ketdi. Kallasi g‘uvillab, ko‘ngli lohas bo‘la boshladi. Tog‘a ham to‘y-hashamlarda bo‘lmasa boshqa vaqtda ichmas edi. Konyak uni ham shirakayf qilib qo‘ygandi.

Ikromjon boshini egib qimirlamay o‘tiribdi. U shu paytgacha o‘zini o‘tga-cho‘qqa urib ovutar, bo‘lib o‘tgan gaplarni birovga yorilib gapirolmasdi. U o‘tgan kunlarini eslamaslikka tirishardi. Axir, o‘tmishsiz odam bo‘ladimi? O‘tmishi yo‘q odam yarim odam hisoblanadi. Nahotki, Ikromjon yarim odam? U o‘zi to‘g‘rida o‘ylaganda dod deb yuborgudek bo‘lardi. Xotiralar uyg‘onganda dard-alamlar yopirilib taningni o‘raydi. Ana o‘shanday paytlarda bir diltortar kishing bo‘lsa-yu, yig‘lab-yig‘lab xumordan chiqsang. Ikromjonning shu Rayimberdidan bo‘lak kishisi yo‘q edi. To‘lanboy ham durust yigit. Ammo sal yengiltakroq. Dard-alam tortmagan. Unga o‘yin-kulgi, vaqtichog‘lik bo‘lsa bas. Ana shuning uchun ham Ikromjon unga dilini ochmasdi.

Ikromjonning ichidan kuchli bir xo‘rsinish chiqdi-yu. to‘lg‘andi. U raisga yuzlanib:

– Tog‘a, – dedi. – Meni bilasan-a?

– Bilaman, bilaman, Ikrom. Nahotki, bilmasam.

– Rahmat. Senga ming rahmat. Sen meni jar yoqasidan olib qolgansan.

– Jinni bo‘lma, – dedi Tog‘a beparvo. Ammo u Ikromning bu ichki iztiroblarini sezib turar, o‘zini bilmaganga solardi.

– Shundoq xotinimdan ajraldim. Cho‘lda, mushtdekkinna, g‘aribgina qabrda yolg‘iz yotibdi. Jannat bir kun bo‘lsa-da, ro‘shnolik ko‘rmay ketdi. Shunisi alam qiladi.

– Hammamiz ham bir kun oldin, bir kun keyin tuproqqa kiramiz, – dedi Tog‘a yana beparvo.

– Yo‘q. O‘lishda o‘lish bor. Bu dunyoning rohatidan jindek bo‘lsa ham tatib o‘lish kerak. Men bu rohatlardan benasib bo‘lgan odamman.

– Hali ko‘p rohat ko‘rasan.

Ikromjon telbaga o‘xshab boshini sarak-sarak qildi.

– Sen bilmaysan, sen bilmaysan, ichimni kemiryotgan ilonni. Mana shu yerimni ilon-chayonlar kemirib yotibdi.

Tog‘aning kayfi tarqab ketdi. Shishani olib so‘ri tagiga uloqtirdi. Qayoqdan ham ichirdim, deb o‘kindi.

– Hali ishing ko‘p, oshna. O‘limni, alamni o‘ylama. Yig‘im-terimni tamomlab olaylik, seni o‘zim uzoq joylarga o‘y-natgani olib boraman.

– Hech qayoqqa bormayman. Naymandan ketolmayman. Jannatimni yolg‘iz tashlab ketolmayman, bilasanmi. Bu cho‘lda, bu to‘qayda ikki jigarimni ko‘mganman. Ularni tashlab qayoqqa boraman. Ey, sen bilmaysan, o‘rtoq. Bu qamishlar orasida yolg‘izim yotibdi. Tursunimni botqoqqa ko‘mganman. Shonsiz, sharafsiz o‘lim topgan u. Qo‘ltiqtayoq bilan go‘r qaziganman unga. Uning janozasiga na odam keldi, uni ko‘mishga na bir ketmon topildi. Tag‘in ham yashab yuribman-da. Nimaga yashayotganimga o‘zim ham hayronman.

Ikromjon Tog‘adan sir yashirmasdi. Ammo o‘g‘lining halok bo‘lganini undan yashirgandi. Aytmagandi. Qandoq qilib aytadi. Nima deb aytadi. Bu sirni bir Ikrom, bir Nizomjon bilgandi. Hozir bu gapni eshitib Tog‘aning qoshlari chimirildi. Yuragi jiz etib ketdi. Qarshisida turgan kishi unga allaqanday pahlavon, yuragi tog‘dek dardni dast ko‘taradigan dev bo‘lib ko‘rindi. Bu odam shuncha dardni yuragida ko‘tarib yuribdi. Odam bolasidek sabrli, dardga chidamli narsa bo‘lmas ekan. Tog‘a uning ko‘nglini nima bilan ko‘tarishni bilmasdi. Do‘stining eng og‘ir, vijdon azobi qovurib tashlagan paytlarda hamdam bo‘lolgan, ko‘nglini ko‘tarib, qalbidan dardni quvlay olgan odam hozir uni yupatishga biron og‘iz bo‘lsin so‘z topolmasdi.

— Mayli, yig‘la, — dedi Tog‘a. — Odamning ichida yongan o‘t ko‘zidan yosh bo‘lib chiqib ketadi. Ichida qolsa, tanni kuydirib tashlaydi. Yig‘la. Yig‘layver!

— Yo‘q, — dedi qat‘iy qilib Ikromjon. — Men yiqilmaydiganlardanman. Mabodo yiqilgudek bo‘lsam, emaklab, sudralib yo‘limni topaman. Men o‘lmayman ham, yiqilmayman ham. Shunaqa odamman.

— Manavi gaping gap bo‘ldi. Endi mendan eshit.

Tog‘a birpas tek qoldi. Aytmoqchi bo‘lgan gaplarini tartibga solish uchun mo‘ylovining bir uchini so‘rib, terak uchida shamdek lipillab turgan oftob shu‘lasiga qaradi. Qoshlari chimirildi. Ko‘zlari g‘amgin qisildi.

— O‘g‘lim urushda o‘ldi. — Tog‘a yutindi. Ko‘z yoshi to-mog‘iga oqqan edi. — Xotinimdan yashirib yurdim. To‘rt yil yashirdim. Mana, bilib qoldi. Uyga kirishga yuragim betlamaydi. Uyim fayzsiz. Nursiz. Bilasanmi, qadrdonim, xotinim jinni bo‘lib qolgan. Ha, jinni bo‘lib qolgan. Uni na yolg‘iz qoldirib bo‘ladi, na yonida turib bo‘ladi. Menga jin ham tekkani yo‘q. Yashab yuribman. Xotinlarga qiyin. Onasiga qiyin.

Tog‘a so‘ridan tushib boya uloqtirib tashlagan shishani topdi. To‘kilib ketgan ekan, yana uloqtirdi. Shisha to‘nkaga tegib chil-chil sindi.

Yigit bir qo‘lida velosiped rulini, bir qo‘lida gazetaga o‘ralgan laganda osh olib keldi. U oshni o‘rtaga qo‘yganda, ikki keksa tizzasini quchoqlab jimgina o‘tirishardi. Yigit asta oyoq uchida yurib bog‘ning pastiga ketdi.

Osh sovidi.

Ikromjon alamda o‘rtanayotgan Tog‘ani o‘ylardi.

Tog‘a bo‘lsa, dard-alamlarga fil bo‘lib chidayotgan do‘stini o‘ylardi.

Osh oshligida qoldi. Qorong‘i tushib kelardi.

X

To‘yga chorterakliklar bir mashina bo‘lib kelishdi. Adolat bilan Asrora ikki kun oldin kelib olishgan edi. Malika aya g‘o‘zapoya yoqib ikki kundan beri tinmay non yopadi. Bir hafta oldin kelgan Yunusali ota oppoq yaktak kiyib sog‘inib qolgan nevarasini yetaklab hali ko‘chaga chiqadi, hali uyga kiradi.

Miting bo‘lganda opkelingan stol-stullarni Melivoy aka yangi kolxozga berdim, ehtiyot qilib tutinglar, deb cho‘lda qoldir-

gan edi. O'sha stol-stullar Malika ayanikiga opkelingan. Yigitlar hovlini tekislab, ko'katlarini ketmonda qirib, joy tayyorlashdi. Tol tagidagi samovar olib kelingan. Samovarchi bugun choy tekin deb choynaklarini taxtaga terib qo'ygan. Melivoy akaning mashinasida artistlar kelishdi. So'riga qilingan joyga chiqib o'tirib olishdi. Raqqosa juvon chivindan nolib o'zini dam o'tmay yelpirdi.

– Pashshaxonada to'y qiladigan ekan bu joyda.

Samovarchi unga piching qildi:

– Raisning otiga topilmagan pashshaxona sizga topilarmidi.

Raqqosa juvon ham askiyachigina ekan, gap bilan samovarchini qoqib tashladi:

– Odam tutadigan pashshaxonani aytyapman. Otniki o'zingizga buyursin.

Marg'ilon qizlariga bir gap aytgin-u qochgin. Bo'lmasa gap bilan shundoq boplaydiki, o'rningdan turolmay qolasan.

Hali oftob o'chmay ikki yuz shamli chiroqlar yondi. O'rtaga gulxan yoqildi. Hovliga odam to'lib ketdi. Melivoy aka Xolmatjonni chaqirib chiqdi. Uning egnida oq jujun kitel. Boshida yangi taxtakachdan chiqqan Marg'ilonning qalampir nusxa do'ppisi. Melivoy aka unga bosh-oyoq qarab chiqib urishib berdi.

– Nega ordenlaringni taqmading?

– Endi qandoq bo'lar ekan, hamma biladi-ku.

– Voy nodon-e, – dedi uni ermak qilib. – Bugun taqmasang, qachon taqasan. Bor, olib chiq. O'zim taqib qo'yaman.

Malika aya uyga kirib ketib quticha olib chiqdi. Melivoy akaning qo'liga berarkan:

– Mana, bolaginamning ordirlari, – dedi.

Melivoy aka so'riga, artistlar yoniga o'tirib qutini ochdi. Quticha ichi orden-medallarga to'la edi. Melivoy aka Xolmatjonda shuncha orden, shuncha medal borligini bilmagan ekan. U faqat tunov kuni mitingda taqilgan «Oltin Yulduz» bilan bitta Lenin ordeni bor deb o'ylagan edi. Quti ichida ikkita Lenin ordeni, yettita «Qizil Bayroq» ordeni bilan birga bitta «Vatan urushi», «Aleksandr Nevskiy» ordeni va har xil o'n oltita medal bor edi. Artistlar bu qimmatbaho mukofotlarga zavqlanib qarashardi. Orden-medallar qo'lma-qo'l o'tib ketdi.

– Joyiga qo'yinglar, yo'qolmasin, – derdi Melivoy aka. U Xolmatjonni tik turg'izib qo'yib hammasini qoidalik qilib taqib qo'ydi.

– General bo‘lib ketding-ku, azamat, – dedi uning ko‘ksiga zavq bilan tikilarkan, Melivoy aka. – Endi yigitlar bilan borib kelinni olib kelinglar.

Xolmatjon o‘rtoqlari bilan ketdi. Melivoy aka hovlini aylanib dasturxonlarni ko‘zdan kechirib chiqdi. Hamma narsa yetarli. Somsa, varaqi, qovurilgan o‘rdak go‘shiti. Hatto quyon go‘shiti ham bor edi dasturxonda. Melivoy aka to‘ydan ikki kun oldin to‘rtta yigitning yelkasiga qo‘shstig‘ miltiq ilib to‘qayga kiritib yuborgan edi. Bir arava o‘rdak bilan quyon urib chiqishgandi. Hammasi dasturxonga tortildi.

Naymandan ham mehmonlar yetib kelishdi. Ikromjon, Tog‘a, To‘lanboy, Nizomjon, Zebixon, To‘tixon... Melivoy aka mehmonlarni alohida qilib yasatilgan dasturxonga o‘tqazdi.

Ko‘chadan bolalarning chuvillab, kelishyapti, kelishyapti, degan tovushlari eshinishi bilan artistlar so‘ridan tushib sozlari-ni qo‘lga olishdi.

Qizlarning yor-yori eshitildi. Ular orasida Adolatning mayin, jarangli tovushi eshitiladi. Bu tovushlar orasida har zamon Asroraning do‘rillagan ovozi alohida ajralib turardi.

Artistlarga gap bermay kelin-kuyovlar yor-yor bilan kirib kelishdi. Oldinda Adolat, orqasidan Asrora biri olib, biri qo‘yib yor-yor aytishardi:

Adolat: Uzun-uzun arg‘amchi halinchakka, yor-yor.

Chakan ko‘ylak yarashadi kelinchakka, yor-yor.

Asrora: Chakan ko‘ylak yenglarida tut qoqaylik, yor-yor,

Kuyov pochcham yuragiga o‘t yoqaylik, yor-yor.

Adolat: Baland-baland teraklarga qo‘ndi hakka, yor-yor,

Singlim juda yarashadi Chortherakka, yor-yor.

Asrora: Kuyov pochcha, pul chiqazing belanchakka, yor-yor,

Kelin poshsha tug‘ib berar shu kuzakka, yor-yor.

Qiyqiriq, kulgi bo‘lib ketdi. Betiga to‘r tutilgan Dildor Asroraning biqinidan chimchilab oldi. Kulgi bosilishi bilan Adolat yana avjiga chiqdi:

Adolat: Chortherakning yigitlarin kuydirgan qiz, yor-yor,

Cho‘lga kelib mehnatni ham do‘ndirgan qiz, yor-yor.

Asrora: Guldiragan ovoz kelar yaqin soydan, yor-yor,

Bu indamas pochchamizni topding qaydan, yor-yor.

Adolat: Tol shoxida parpiraydi osma fonar, yor-yor,

Kelinchakning oq yuzlari lov-lov yonar, yor-yor.

- Asrora: Qir ustida ko‘ringan u o‘tovmikan, yor-yor,
Kuyov pochcham gapirmaydi soqovmikan, yor-yor.
- Adolat: Singilchamni olib keldim yor-yor aytib, yor-yor,
Qovoq ochib kutmasangiz ketay qaytib, yor-yor.
- Asrora: G‘irchillagan kelinchakning kovushimi, yor-yor,
Yangasining ming‘illagan tovushimi, yor-yor.
- Adolat: Yor-yor bitdi kelinchakka baxt tilaylik, yor-yor,
Ikkoviga qo‘sh o‘rinlik taxt tilaylik, yor-yor.
- Asrora: Yostug‘ingga sepilgan gul atir ekan, yor-yor,
Yonginangda yotgan yigit cho‘tir ekan, yor-yor.

Xolmatjon qip-qizarib ketdi. Darhaqiqat, uning betida juda bilinar-bilinmas chechak izi bor edi. Dildor yana Asrorani chimchiladi. Qiyqiriq, kulgi bosilmayoq hofizlar «To‘ylar muborak»ni boshlashdi.

Boshiga to‘r yopgan Dildor yonida ko‘ksi ordenga to‘la Xolmatjon iljayib kelardi. Malika aya ular boshidan tanga sochdi. Bolalar bilan kattalar ham oyoq ostida o‘ralashib tanga tera boshlashdi.

– Biz ham shunaqa to‘ylar ko‘raylik.

– Olinglar, sizlarni hiam to‘ylarga yetkazsin.

Melivoy aka Yunusali otani boshlab keldi.

– Ota, kelin-kuyovga fotiha bering!

Yunusali ota kelin-kuyov qarshisiga kelib qo‘lini fotihaga ochdi:

– Xudoyo xudovando qo‘sha qaringlar. Uvali-juvali bo‘linglar. Kam bo‘lmanglar.

Yunusali otaning ovozi titrab gapining oxirini aytmadi. Asta borib kuyovining peshanasidan o‘pdi.

– Bolam, bitta-yu bitta farzandimni, ko‘zimning oq-u qorasini qo‘lingizga topshirdim. Xafa qilmang. Bolam zada bo‘lgan. Ko‘ngli yarimta.

Yunusali ota yig‘lab yubordi. Melivoy aka uning tirsagidan ushlab nari olib ketdi.

Xolmatjon ta‘sir lanib ketgan edi. U yoq-bu yoqqa alanglab bir chekkada yelkasini qisib mung‘ayib turgan Azimjonni topdi-yu, ildam yugurib bolani dast ko‘tarib oldi. Bolaning ko‘zlari yashnab ketdi.

Xolmatjonning tantiligi hammani hayron qoldirgan edi. Hammani dasturxonga taklif qilishganda ham, kelin-kuyov to‘rga o‘tib o‘tirishayotganlarida ham Xolmatjon bolani qo‘yib

yubormadi. Yoniga o'tqazdi. Yupqa, harir to'r parda tagida o'tirgan Dildorning ham ko'zlariga yosh qalqib chiqdi. U to'y yaqinlashgan sari bolasidan tashvishlanardi. Bola o'ksimasmikin, Xolmatjon bolamni turtkilamasmikin, degan o'y bir dam nari ketmagan edi. Endi uning ko'ngli tinch. Xolmatjon bolasiga chinakam ota bo'ladi.

O'yin-kulgi avjga chiqib ketdi. Qadahlar jaranglaydi. Kelin-kuyovning salomatliklari uchun ko'tarilgan qadahlar o'z kuchini ko'rsatdi. Yigitlar yelka uchirib gulxan atrofidan gir aylanishar, nog'ora, chirmandaning bakabangi cho'lning uzoq-uzoqlariga eshitilardi. Gulxan alangasi shirakayf yuzlarni qip-qizil qilib yashnatardi.

Asrora Dildorning betidagi to'rni olib tashladi.

Dildor endi chinakamiga dildor bo'lib ketgan edi. Zuluk qoshlar, ikkita cho'g' bo'lib yonayotgan ko'zlar, bilinar-bilinmas qilib kiprikka tortilgan surma, xuddi haykaltarosh umr bo'yi mehnat qilib, mana endi bitdi, deb ko'rsatayotgandek mukammal bir san'at asariga o'xshardi Dildor. Hammaning ko'zi unda edi.

Urush yillari qizlar ham xunuk bo'lib ketishgandi. Mehnat, ayriliq iztiroblari ularning betidan husnni yulib tashlagan ekan, mana endi o'sha go'zal husn, o'sha latofat o'z o'rniga kelgan.

Nizomjon Dildorga qarab yonida o'tirgan xotinini ham unutil tikilganча qolgandi.

— Chiroyli ekan, judayam chiroyli ekan, — dedi Zebixon zavqlanib.

Nizomjon indamadi. Asrora jindek kayf qilib qolgan ekan, o'ynab kelib Xolmatjonning to'g'risida turib qoldi.

— O'rtog'imni xafa qilsang, bilasanmi nima qilaman. Geroyligingga qaramay jig'ingni ezib qo'yaman.

Qiyqiriq bo'lib ketdi. Dildor sekingina dedi:

— Bo'ldi. Bachkanalik qilma. Joyingga o'tir!

Tashqarida shovqin bo'lib qoldi. Hamma darvoza tarafga qaradi. Melivoy aka chiqib ketdi. Bir ozdan keyin Asrorani imlab chaqirdi.

Asrora chiqib ketgandan keyin ham shovqin ancha vaqtgacha bo'lib turdi. Kimdir mast tovushda Dildorni uyat gap bilan so'kdi. Undan keyin Xolmatjonni ham so'kdi. Ana shundan keyin sal o'tmay shovqin bosildi. G'azabdan ko'karib ketgan Asrora kirib joyiga o'tirdi. U qattiq hayajonlanganidan ancha vaqtgacha o'zini bosolmay o'tirdi. Dildor, nima gap deb so'ragan edi, qo'yaver, ishing bo'lmasin, deb qo'l siltadi.

O'yin-kulgi yana boshlanib ketdi. Kimdir Melivoy akani o'yinga tortdi.

Rais uncha noz qilib o'tirmay o'yinga tushib ketdi. Chol yaxshi o'ynar ekan. Gulxan atrofida shoshilmay, goh yelka qoqib, goh oyoqlarini bir-biriga urib, bir qoshining o'zini uchirib aylanarkan, qiyqiriq avjga chiqdi. Melivoy aka ikki aylaniboq charchab qoldi. Tog'aning to'g'risiga kelib muqom qilib turib qoldi. Ammo Tog'a qo'lini ko'ksiga qo'yib undan uzr so'rar, harchand qilsa ham o'rnidan turmasdi. Ikromjon To'lanboyini imlab ko'rsatgan edi, yigitlar uni sudrab davraga olib chiqishdi.

O'yinni To'lanboyga chiqazgan edi. Belbog'ini atayin dumbasi ustiga tushirib, yaktagining yoqasini keng ochib qo'yib yo'rg'alab ketdi. U yoshi ellikdan oshgan bo'lishiga qaramay, shunday chir aylanib o'ynardiki, qaragan odamning ko'zi tinib, boshi aylanib ketardi. Xotini yuzini teskari o'girib, qariganda bachkana bo'lmay o'l, deb qo'ydi. Zebixon opasini urishib berdi:

— Yaxshi-da, o'ynayversinlar.

To'lanboyini davradan chiqarmay uch marta o'ynatishdi. Dasturxonga osh tortilayotgandagina uni qo'yib yuborishdi.

Vaqt alla-palla bo'lib qolgandi. Tog'a uzoqqa ketishlarini aytib Naymandan kelganlarga Melivoy akadan ruxsat so'radi. Yo'l yomonligi sababli Melivoy aka ularni ortiqcha qistamay javob berdi.

Nizom chiqib ketayotganlarida kelin-kuyov oldiga borib ularni chin yurakdan tabrikladi. Asrora uning etagidan ushlab yoniga o'tqazdi.

— Sen pismiq o'lgur xotining bilan bizni tanishtirmading-a.

— Hozir, — dedi Nizomjon o'rnidan turarkan.

U yo'lakka yetib qolgan Zebixonni chaqirib qaytarib keldi.

— Tanishib qo'yinglar. Mana shu kishi kelininglar Zebixon bo'ladilar.

Asrora u bilan ko'rishar ekan, suqlanib qaradi.

— Juda chiroyli ekansiz-ku. Nizom o'lgur, diding joyida, — deb qo'ydi.

Zebixon ularni Naymanga taklif qilib, keyin yo'lakka chiqdi.

Yuk mashinasining kabinasiga To'lanboyning xotini o'tqazib, qolganlarning hammasi tepaga chiqishdi.

Mashina chirog'ini parpiratib yo'lga tushdi. Tolzordan o'tishlari bilan mashina bir silkindi. Yo'l chetida ikki tizzasini quchoqlab o'tirgan bir odamni yoritdi. Bu A'zamjon edi.

Shundagina Nizomjon boya to'yga kelib shovqin qilgan, Dildorni, Xolmatjonni so'kkan, to'yni buzmoqchi bo'lgan shu A'zamjon ekanini bildi.

Endi u g'irt mast bo'lib yo'l chetida beshiktervatarga o'xshab o'tirgan joyida tebranib o'tiribdi.

Nizomjonning akasiga yuragi achishib ketdi.

Ammo akasi uni do'pposlab, mashina bilan urib ketganda yuragi achimagan edi.

Nizomjon to Naymanga yetguncha ham churq yetmadi.

Uzoqdan hali ham chirmanda va yigitlarning qiyqirig'i qu-loqqa chalinib turardi.

XI

Mahbuba erining fe'lini tushunolmasdi. Goh xursand, goh tajang. Kechalari o'rnidan turib ketadi. Hovli burchaklarini aylanib tong otguncha nimadir qilib yuradi. Bundan to'rt kun oldin qayoqqadir borib tong otar mahalda keldi. Negadir yig'ildi. Yig'layverib qovoqlari shishib ketdi. Ariza berib, ishdan ham bo'shab oldi. Mana, bugun bir aylanib kelaman deb Toshkentga ketganicha undan darak yo'q. Besh kun bo'ldi. Na xat yozadi, na telefon qiladi.

Mahbuba bugun, balki kelgandir deb ishdan vaqtliroq qaytdi. Yo'q. Kelmabdi. U ovqat qilishni ham, qilmaslikni ham bilmay ayvon dahanida qimirlamay o'tirardi. Qachongacha shundoq o'tirish mumkin? Nimadir qilish kerak. Naymanga borib ukasidan surishtirsamikin? U shunday o'ylar bilan ichkariga kirib kiyinmoqchi bo'ldi-yu, taxmon oldiga borganda oyoq tagida pol lopillagandek bo'ldi. Yangi pol nega lopilladi ekan, deb oyoq tagiga qaradi. Bu xonani o'tgan yili Mahbubaning o'zi pol qildirgan edi. Darrov tagidagi to'sini chiridimikin? Mahbuba gilam chetini qayirib qaragan edi, pol taxtasining mixi yo'q. Gilamni yana nari surdi. Pol ochilgan-u, qayta mixlanmagan. Hayron bo'ldi. Axir, uni o'zi shu yil erta bahorda o'z qo'li bilan moylaganda mixlangan edi. Taxtalarning bir-biriga ulangan joyi qirilgan, bolta bilan ko'chirilganligi shundoqqina bilinib turibdi.

Mahbuba hovliga chiqib tesha olib keldi-da, taxta oralig'iga teshaning betini tiqib ko'targan edi, darrov ochila qoldi. U shunday qilib uchta taxtani ko'tardi. Engashib bosh suqib qaragan edi, qandaydir bir narsaning do'mbayib turganini ko'rdi. Timirskilagan edi, qopning bo'g'ziga qo'li tegdi. Tortdi. Anchagina

og'ir tuyuldi. Kuchanib tortib oldi. Yorug'ga sudrab olib keldi. Ochdi. Qopni polga ag'dargan edi, bir nimalar taraqlab, jaranglab tushdi. Deraza pardasini ko'tarib qo'yib qaradi-yu, qo'rquvdan ko'zlari dum-dumaloq bo'lib ketdi. Pachka-pachka pullar, tilla buyumlar, qimmatbaho toshlar... Mahbuba o'zini yo'qotib qo'ydi.

U bolalar uylarida tarbiyalangan. U yerdagi tarbiyachilarning qulog'ida hatto jez zirak ham ko'rmagan. Bunaqa katta pulni faqat magazinlarda sanashayotganda ko'rgan bo'lmasa, boshqa joyda ko'rmagan.

U engashib paxtaga o'ralgan narsalarni ocha boshladi. Har biri no'xotdek keladigan brilliantlar, yoqutlar. Xaltachalarda shoda-shoda marvaridlar. Polda tilla uzuklar, tilla soatlar sochilib yotibdi.

Mahbubani qo'rquv bosdi. Yalt etib xayoliga, erim kim, degan savol keldi. O'g'rimi? O'g'ri u. Bo'lmasa shuncha narsalarni, shuncha pullarni qayoqdan oladi. Faqat o'g'rilik bilan topish mumkin bu narsalarni. Demak, erim o'g'ri. O'g'riga tekkan ekanman. Sho'rim qursin.

Mahbuba oltin-kumushlar, brilliant-u marvaridlar, pachka-pachka pullar tepasida o'tirib yum-yum yig'lardi.

U shu alfozda qancha o'tirdi, bilmaydi. Kech kirib, qorong'i tushdi. Eshik taraqlab ochildi. Mashina motori gurillab hovliga kirdi. Motor tovushi o'chib qorong'ida A'zamjonning shodlik to'la ovozi eshitildi.

— Mahbuba, Mahbubaxon, qayoqdasan?

Mahbuba parishon bir ahvolda hovliga chiqdi.

— Nega chiroq yoqmay o'tiribsan?

A'zamjon uning javobini ham kutmay ayvon chirog'ini yoqib yubordi.

— Mana, ko'rib qo'y. Ko'rib qo'y. Mashina oldim. Juda antiqasini olib keldim. Endi seni o'z mashinamda har yoqlarga oboraman. Birovlarning mashinasiga zor bo'lmaymiz.

Bo'yog'i anchagina ko'tarilib qolgan mashina turardi.

— Bu neimis mashinasi. «Opel-kapitan» deydi buni. Qirq mingga oldim. Bir qaragin. Nima, kasalmisan?

A'zamjon mashina eshigini ochib chamadon oldi. Ayvonga kelib chamadonni ochdi.

— Senga ajoyib tufli, antiqa jemper opkeldim. Nega qaramaysan? Kiyib ko'rgin. O'zingning razmering.

Mahbuba u olib kelgan matolarga qiyo boqmadi ham.

– Xotin kishidek arazchisi bo‘lmas ekan-da. Telefon qilmanimga shunaqa qilyapsanmi? Qo‘lim tegmadi. Mashina olish qiyin bo‘ldi. Ancha ovora bo‘ldim, yo opkelgan narsalarim senga yoqmadimi?

– Mashinaga pulni qayoqdan oldingiz? – dedi uning ko‘ziga tikilib Mahbuba.

A‘zamjon undan bunaqa savol kutmagan edi. Dovdirab qoldi.

– O‘zimda ozroq bor edi. Ukamdan, opamdan qarz ko‘tardim. Jigarchilik, uzilishib ketarmiz.

– Shunaqami? – dedi Mahbuba kinoya bilan. – Manavi narsalarni qayoqdan oldingiz? Buni ham opangiz bilan ukangiz berdimi?

– Qaysini? – dedi A‘zamjon hayron bo‘lib.

– Uyga kiring, bilasiz.

Yuragini vahima bosgan A‘zamjon o‘qdek otilib uyga kirdi. Bundan o‘n kuncha oldin pol tagiga yashirgan matolari sochilib yotardi.

– Kim tegdi bu narsalarga?

A‘zamjonning ovozi qandaydir vahshiy hayvon ovozini eslatardi.

– Kim tegdi deyapman!

– Men, – dedi Mahbuba. – Sen, – bu Mahbubaning birinchi marotaba erini senlashi edi. – Sen o‘g‘risan. Qaroqchisan. Mening uyimga o‘g‘rilik mollarni nega olib kelding. Yo‘qol! Ket uyimdan.

– Nima?! – dedi ko‘zlarini olaytirib A‘zamjon. – Nima deding!

– Yo‘qol. Ket!

– Voy yaxshilik yoqmagan-e. Sen meni kim deb o‘ylayapsan? Axir, bu pullar, bu buyumlar o‘g‘irlikdan topilmagan. Dadamdan tekkan meros bu.

Birdan Mahbubaning esiga, erining ukasi katta mitingda sal kam yarim million pul va allaqancha qimmatbaho buyumlarni Yozyovonni o‘zlashtirish fondiga topshirgani keldi. Demak, aka-siga ham shuncha tekkan. Mahbuba sal yon berdi.

– Shuncha narsani topshirmay nima qilib olib yuribsiz?

– Hukumatga deysanmi? Yarmini topshirdik-ku. Xabaring yo‘qmi, ukam bilan ikkovimiz topshirdik-ku.

– Yolg‘on. U ukangizning ulushi. U o‘z ulushini topshirgan. Siz yashirib yuribsiz.

A'zamjon gap topolmay dovdiradi.

— Ukam topshirdi nima-yu, men topshirdim nima. Yarmini topshirdik, bo'ldi-da.

— Agar bu narsalarni topshirmas ekansiz, keting bu yerdan. Siz bilan yashamayman.

A'zamjon uning gaplarini elamadi. Ermak qilib kuldi.

— Yashamaysizmi? Bilasizmi, xonim, bu pullarga, bu buyumlarga sizdaqalardan yuztasiga uylansa bo'ladi.

Mahbuba titrab ketdi. Ko'zlaridan yosh tirqirab otilib chiqdi. A'zamjon unga qaramas, chamadondan shisha olib quldiratib shishaning o'zidan ichardi.

U uyga kirib shoshib pul-u buyumlarni qopga tiqdi-da, mashina bagajinigiga uloqtirdi, qopqog'ini yopib qulflab qo'ydi.

— Yashamaysizmi?

— Yashamayman, — dedi qat'iy Mahbuba.

— Bo'lmasa men ham sen bilan yashamayman.

A'zamjon jahl bilan darvozani ochdi. Kabinaga o'tirib orqasiga yurg'izib darvozadan mashinani opchiqdi. Mashina burilganda chirog'i bir dam Mahbubaning yuz-ko'zini yoritdi. Uning ko'zlaridan o't chaqnardi.

Mashina gurullab birpasda qorong'ilik qa'rida yo'q bo'lib ketdi.

Mahbuba hovlida yolg'iz qoldi.

U garang edi. U qattiq uxlagan-u, yomon tush ko'rib uyg'on-gan. Hozirgi voqealarni u tushida ko'rgan.

Darvoza ochiq. Ayvonda boya eri chamadondan olgan tufli bilan jemper yotibdi. Demak, ko'rganlari tushi emas, o'ngi. Rost. Hammasi rost. Mahbuba hali ham ishongisi kelmay uyga kirdi. Pol taxtasi ko'chgan. Gilam qayrilgan.

Ana shundan keyin Mahbubaning bo'g'ziga yig'i kelib tiqildi-yu, o'zini tutolmay yig'lab yubordi.

Bu erining tashlab ketganidan emasdi. Bu o'z qadriga, o'zining betoleligidan edi.

Axir, uning bu yorug' dunyoda hech kimi yo'q. Erim siniq ko'nglimni ko'tarar, yetimligimni bildirmas, dunyoning tashvishlarini endi unutilib, bearmon yasharman deb o'ylagan edi bu yetim qiz. Bo'lmadi. Yana uning yaralangan dili qayta timdalandi.

Pushaymon-u armonlar endi foydasiz edi. Kim biladi, eri qilmishiga tushunar, esi o'ziga kelib qaytib kelar-u qilmishlaridan uzr so'rar. Balki u qizishib shunday qilgandir. Uzr so'rab, xotini aytgancha ish tutar.

Mahbuba shunday o'ylar bilan o'zini yupatmoqchi bo'ldi. Xotirjam borib darvozani omonatgina yopib keldi. Atayin ilgagini solmadi. Qaytib kelsa, ovora bo'lib qolmasin deb shunday qildi. Uzoq yo'ldan kelgan, qorni ochgandir, deb qozon osdi. Choy qo'ydi.

Tun yarmidan og'di hamki, eridan darak bo'lmadi. Tong otishiga ham oz qoldi. Hamon Mahbubaning uyida chiroq o'chmasdi. Tong ham otdi. Eri kelmasdi. Bari bir hovridan tushgandan keyin, qilmishidan o'kinib qaytib keladi, deb poylardi u.

Ammo u A'zamjonning fe'lini bilmasdi. Shu pullar uchun ukasini do'pposlagan, o'lgan bo'lsa kerak deb Naymandan xabar kutgan odam uchun kechasidagi xotiniga qilgan muomalasi hech gap emasdi. A'zamjon uzr so'raydigan ko'ngli bo'shlardan emasdi.

Mahbuba uyqusizlikdan garang bo'lib ishxonasida lanj bo'lib yurdi. Kommutatorga telefon qilgan abonentlarni yanglishib boshqa yoqqa ulab qo'yar, so'kish eshitardi. Telefon jiringlasa, erim deb hovliqib olar, boshqa odam ekanligini bilib o'tirib qolardi.

Shu alfozda kech kirdi. Mahbuba endi ishini tugatib uyiga ketmoqchi bo'lib turgan edi, telefon qattiq jiringladi. U cho'chib trubkani oldi.

Rayjrokom raisi uni so'rayotgan ekan.

– Ijrokomga bir kirib o'ting, qizim.

Raisning ovozi allaqanday mehribonlik bor edi. Bu qo'rs, hammavaqt zarda bilan gapiradigan odamning mehribon tovu-shidan hayron qolgan Mahbuba stansiyadan chiqib to'ppa-to'g'ri uning oldiga bordi.

Rais uni mehribonlik bilan o'rnidan turib kutib oldi. Stul qo'yib berdi. Oldidagi ventilyatorni unga to'g'rilab qo'ydi. Choy quyib uzatdi.

– Sog'liqlar qalay?

– Yomon emas, durust. – Mahbuba hayron edi.

Ana shundan keyin rais o'rnidan turib derazadan ko'chaga qaradi. Quvaning qoq o'rtasidagi ikki tup katta chinor uchida bir oyoqlab turgan laylakka tikilganicha papiros chekdi. Kabinetni ikki aylanib Mahbuba tepasida to'xtadi. Yo'taldi. Nari ketdi. Yana joyiga o'tirdi. U nimadir demoqchi bo'lardi-yu, aytolmasdi. Mahbubaning ko'nglidan ming xil gap o'tardi.

Mahbuba uning xotini bundan bir yarim yil oldin o'lganini bilardi. U hali uylanmagan. Bordi-yu, u kecha eri tashlab ketganini

eshitgan bo'lsa, ishqibozlik qilgani chaqirdimi? Bo'lmasa yolg'iz kabinetga chaqirib nega gap chaynaydi? Gapini aytolmaydi?

Mahbuba boshini ko'tarib unga qaradi. Uning bu qarashida, aytadigan gaping bo'lsa tezroq ayt, degan ma'no bor edi.

– Endi, singlim, og'ir bo'lasiz-da, – dedi jur'atsizlik bilan.
– Shunaqa ishlar ham bo'larkan-da. O'lim haq. Biz qolganlar omon bo'laylik.

Mahbuba hayron. Rais o'z xotinini aytyapti. Hozir daromadiga boshqa gap aytadi, menga teging, deydi. Mahbuba sapchib o'rnidan turib ketdi.

– Nima deyapsiz? Meni kim deb o'ylayapsiz?

– O'zingizni bosing. Muncha yengil bo'lmasangiz, og'ir bo'lish kerak. O'lim haq. Endi siz omon bo'ling.

Mahbubaning yuragini vahm bosdi.

– Nima? Nima deyapsiz?

– Endi, singlim. Aytadigan gapimni aytolmayapman. Men ham marhumni juda yaxshi ko'rardim. O'ziga o'zi qildi. Bo'shab ketmaganda, balki tirik qolarmidi. Banditlarga qo'shilgandan keyin nima bo'lardi.

– Kimni aytyapsiz? – dedi vahima-la Mahbuba.

– A'zamjon avariya bo'lib halok bo'пти. Mana, Oltiariqdan telefonogramma oldik.

Boya Oltiariqdan telefon qilishganda rayijrokom sekretariga o'zi ulab qo'ygan edi.

Mahbubaning qulog'i bitib, miyasi shang'illab ketdi. Rais uzatgan qog'oz qo'lidan tushib ketdi. Bir necha daqiqa suvga cho'kib ketayotgandek havoda suzib yurganga o'xshab qoldi. Engashib qog'ozni oldi. O'qidi.

«Oltiariqdan sakkiz kilometr naridagi Qopchig'ay to'g'oni oldida bugun kechasi soat to'rtlarda hali nomer olinmagan yengil mashina yo'l chetidagi qayrag'ochga urilgan. Shofyor halok bo'lgan. Hujjatlariga qaraganda bundan oldin Quva rayon ijroiya komitetida shofyorlikdan bo'shagan. Avariya ichkilik natijasida sodir bo'lgan. Halok bo'lgan A'zamjon Inoyatovning jasadida Farg'ona oblast med. ekspertizasiga jo'natildi. Mashina bagajnidagi topilgan uch yuz ellik to'rt ming so'm pul va qimmatbaho buyumlar Oltiariq militsiya bo'limida saqlanmoqda. Marhumning qarindosh-urug'lariga xabar qilishlaringizni so'raymiz».

Mahbubaning ichidan bir ingroq keldi-yu, stulga behol yiqildi.

Sentyabr oyoqlab Yozyovonga salqin tushdi. Oftobning tig'i ham qaytgan.

Xolmatjonlar jadal terimga tushib ketgan. Nayman avvalgi-cha paxtani kam ekanidan terimni oyoqlab qo'ydi. Ammo sholi o'rog'i avjida edi.

Oz emas, to'rt yuz gektar yerdagi sholini o'rib, yanchib olish oson emasdi. Havoyi jahonga ishonib bo'lmaydi. Agar bir sharros quyib bersa bormi, o'roq ham, yanchish ham qiyin bo'ladi. Bu joyda yanchish uchun pana joy yo'q. Qanchaki o'rilgan bo'lsa, bari maktab orqasidagi tekislikka to'kiladi.

Yangi kolxoz tuzilishi ham orqaga surildi. Oblast partiya komiteti avji yig'im-terim paytida kolxozni ikkiga bo'lib o'tirishi ishni orqaga surib yuboradi, bunaqa ishlarni yillik daromad taqsimotidan keyin o'tkazish kerak, deb maslahat berdi. Bu to'g'ri maslahat edi. Chunki yillik daromad taqsimoti paytida kolxozning nimasi bor, nimasi yo'q, ma'lum bo'ladi.

Aksiga olib shu tig'iz paytida Ikromjonning yog'och oyog'i sinib qoldi. Qo'ltiqtayoqqa osilib dalada qancha kezish mumkin. Tushgacha dala aylansa, kechgacha yelkasini uqalab yotadi. Tog'a uni qo'yarda-qo'ymay boshqa yog'och oyoq buyurtirish uchun Toshkentga jo'natib yubordi. Sholi o'rog'iga o'zi bosh bo'lishni bo'yniga oldi.

Mana, Ikromjonning ketganiga ham besh kun bo'ldi. Tog'a Naymanga yotib olgan. U bugun ertalab Zirillamaga tushib ketganicha kech payti mashinada soqoli ko'ksiga tushgan qop-qora kishi bilan qaytib keldi. Qora kishining qo'lida kalta sopli dutori ham bor edi.

Nizomjon o'roqda edi. To'lanboy otda yurib hammani kechqurun xirmonga borishini tayinlab, yana narigi o'roqchilar tomonga o'tib ketdi.

Maktab orqasidagi yalanglikka odam sig'may ketgan. Mash'alalar yoqilgan.

Farg'ona sholikorlarining bir odati bor. Sholi yanchish ularga bir to'y hisobi. Hamma xonadonlar qozonlarini sholi yanchadigan joyga olib chiqadilar. Uzoq-yaqin qishloqlardan odamlar kelishadi. Katta qozonlarda ovqat pishiriladi. Samovarlar vaqirlab qaynab turadi. Maydachining qo'shiqlarini eshitgani hatto kampirlar ham kelishadi.

Xirmon o'rtasiga mo'mig' qoqilib olti ho'kiz yo buqa yonma-yon qo'shiladi. Maydachi ho'kizlarga qamchi bosib mo'mig' atrofida aylantiraveradi. U har bir ho'kizga atab qo'shiq to'qishi kerak.

Nizomjon kelganda maydachi mash'ala tagidagi namatda Tog'a bilan choy ichib o'tirardi. Boya tog'a mashinada olib kelgan dutorli kishi maydachi ekan.

Tog'a fotiha bergandan keyin chol o'rnidan turib buqalar oldiga keldi. Hamma jim bo'lib qoldi. Kimdir iya, bu Bo'zlik Sattor maydachi-ku, deb yubordi.

Sattor maydachi sholikor qishloqlarda juda mashhur odam edi, u bormasa, hech kim sholisini yanchmasdi. U bir marta mayda aytib buqalarni mo'mig' atrofida aylantirgandan keyin birinchi yanchilgan sholi darrov oqlanib o'sha zahotiyuq qozonga tashlanardi.

Tog'a bugun sigir so'ydirib, shu yerning o'zida ikki katta qozonga sabzi-piyoz bostirib qo'yan. Olti azamat yigit olti kelini gulxan atrofiga qo'yib dastasiga suyanib kutib turibdi. Sholi yanchilishi bilanoq baravariga keliga solib, oqlashga tushib ketishadi.

Sattor maydachi buqalarning yag'riniga shapillatib urib aylanib chiqdi. Keyin dutorini qo'lga oldi-yu, qo'shiq boshladi.

Bo'z boloni bo'zlatodir bir yutim bo'zang sani,
Bo'z boloni yig'latodir bo'zalik ko'zang sani.
Bo'z boloni yig'latib, ham bo'zlatib qo'ysang agar,
Bitta nomardning qo'lida sinsin u ko'zang sani.

Maydachi goh ko'zlarini yumib, goh lovillab yonayotgan mash'alaga xayolchan tikilib kuyib-yonib kuylardi.

Uning qo'shiqlari yigitlar bag'riga o't solar, qizlarni xo'rsintirib, keksalar ko'ksida uxlagan birinchi muhabbat tuyg'ularini uyg'otardi.

Cho'l shamoli maydachining goh baland, goh yig'idek mungli ovozini olislarga olib ketar, yana qaytarib kelib o't-o'lanlar bag'riga singitib yuborardi.

Qo'lga tushgan g'ozmidi, o'rdakmidi, oqqushmidi,
Boshima tushgan bu savdo yozmidi yo qishmidi?
Qayrilib bir boqmading, ko'nglimga o'tlar yoqmading?
Bo'yningga qo'l solganim o'ngimmidi yo tushmidi?

Maydachi baytini tugatib dutorini o'tirganlarning oldiga qo'yib, yana buqalar yoniga keldi.

– Qani, jonivorlar, endi ishlaylik.

U mo'miqqa sirib boylangan buqani ko'rsatib dedi:

Buqami bu nimadi?

Nega meni suzadi?

G'unajinni ko'rganda

Arqonini uzadi. Ho'k, harom o'lgur!

– Arqonini mahkamroq boylash kerak bo'ydoqning.

Hamma gurr etib kulib yubordi. Shundan keyin unga yonma-yon boylangan buqaning qovurg'alariga shapillatib urib bayt aytdi:

Sichqonmisan, mushukmisan, nimasan?

Eshikmisan, tuynukmisan, nimasan?

To'rt oyog'ing gugurt cho'pdek ingichka

Buqamisan, kuchukmisan, nimasan? Ha, jonvor, ho'q!

Yana kulgi ko'tarildi. Maydachi uning bo'ynidagi arqonini sal bo'shatib qo'ydi.

– O'lar holatga yetib qopsan. Aslida seni qo'yvorib o'rningga podachini boylash kerak edi.

Endi maydachi yag'rinlari mash'alada yaltirab turgan chiroyli buqaga havas bilan tikilib qoldi-da, yig'lagan tovushda dedi:

– O, bechora, senga bayt aytib bo'lmaydi. Yaqinda o'ladigan narsa ekansan. Orqada qassob pichog'ini qayrab turibdi. Go'shtingdan tandir kabob, ichagingdan hasip qilishadi. Teringdan rais tog'am bilan boshbux etik tikdirishadi. Yaxshilab g'irchillagin, yaxshilab yiltiragin. Bo'lmasa, shundoqligicha tabelchiga po'stak bo'lasan. Achchiq ichagingdan o'zim dutorimga ip qilaman. Mugizingdan agronom mushtuk yasaydi. Suyagingni artel olib tugma qiladi. Dumingni hisobchiga yelpig'ich qilib beraman. Po'koningni uch yil seni qo'riqlagan olapar oladi. Ichingdan chiqqan uncha-munchani yerga solamiz, nosqovoq ekib hosilotga beramiz. Belbog'iga qistirib oladi. Ma'rashing o'zirniki, mayda aytganda avjiga ishlataman. Seni boqqan podachiga yo'lga tashlab kelganing ham bo'ladi. Qishda maza qilib isinadi...

Odamlar qarsillab kulib yuborganlaridan keyingi gaplarni eshitib bo'lmadi.

Maydachi endi oxirgi ozg'in, zo'rg'a oyoqda turgan buqa yoniga keldi.

— Sen bechoraga endi nima deyman. Ahvolingni qara. Ma'rashga ham darmoning qolmapti. Yaxshisi, seni bo'shatib yubora qolay, o'choq oldiga borib oshpazga qarashib yubor. Samovarchiga choy tashib yursang ham kuning o'tardi-ku, nima qilib mol bo'lib yuribsan.

Maydachi uning bo'ynidan arqonni yechib qo'yib yubordi. Buqa jindek yurib oldingi ikki oyog'i qaltirab munkib ketdi. To'rt kishi uni turg'izib olib chiqib ketishdi. Kulgi, qiyqiriq. Maydachi xalqqa qaradi:

— Qani, endi ishni boshlaylik. Yanchganimiz yaxshi to'ylarga buyursin. Qozonimizdan osh arimasin. Shu yanchgan sholimizning guruchi osh bo'lsin, oqshog'i bo'za bo'lsin, to'poni mollarimizni to'ydirsin. Urug'likka ham qolsin, omin!

Maydachi buqalarga beozor qamchi bosib mo'mig' atrofidan mayda aytgancha aylantira boshladi.

Marg'ilonning o'chog'i, o'chog'i,
Qo'lni kesar pichog'i, pichog'i.
Yorim qari demanglar, demanglar,
Kuydiradi quchog'i, quchog'i. Ha, jonvor, ho'k!

Papirosni yondirgan, Shahrixonning chaqmog'i
Juvonlarni ko'rsangiz, qiz bolaning qaymog'i.
Qaysi joydan olingan, zuvalasi tuprog'i,
Parilardan tarqalgan derlar urug'-aymog'i. Ha, jonvor!

Mayda aytdim maydani ham maydalab, maydalab,
Mayda demang, mayda tunar ertalab, ertalab.
Maydachilik oson ish deb kim aytdi, ko'raylik,
Qani, chiqib mayda aytsin uddalab, uddalab. Ha, jonvor xo'k!

Ot ketidan ergashganni toy deydilar.
Sholi ekan vallomatni boy deydilar.
To'qson uch kun botqoq kechib, loy tepkanni
Tizzasidan bo'ynigacha moy deydilar. Ha, jonvor, ho'k!

Qure, qure qo'y keladi, qirlar oshib
Chumoli ham ro'zg'or qilar ushoq tashib.
O'roqda yo'q, mashoqda yo'q azamatlar
Mana turar to'g'rimizda chakka qashib. Ha, jonivor, ho'k!

Maydachi choy ho'plagani to'xtadi. Olti yigit yanchilgan sholilarni choriga solib yelpiy boshlashdi. Shamol somon to'zonlarini uchirib odamlarning betiga urardi. Chollar qo'l cho'zib somonlarni tutishar, tabarruk qilib ko'zlariga surtishardi.

Yelpib xas-cho'pdan tozalangan sholilarni olti yigit keliga solib, do'qillatib yanchib ketdi.

Maydachi charchab qolgan edi. Tog'a o'rnidan turib davrani bir aylandi-da, To'lanboyni topib belbog'idan tortib chiqdi.

To'lanboy bayti g'azalga usta, gapiga maqol yo matal qo'shmasdan gapirmaydigan shoirtabiat kishi. Buni hamma biladi. Shuning uchun ham u o'rtaga chiqishi bilan hamma barobar chapak chalib yubordi.

Davrada bitta-yarimta kayf qilib qolganlar ham bor edi. Bir chol o'rnidan turib Tog'aga dedi:

— Bolam, bugun qutlug' kun. Bolalarga ayt, ichishmasin. Yomon bo'ladi.

Tog'a cholni ranjitmaslik uchun ichgan bolalarni tartibga chaqirgan bo'ldi.

Yigitlar yerni titratgudek bo'lib keli dastasini gup-gup qilib urishardi. To'lanboy davrani ikki aylanib buqalarga qamchi urdi.

— Boshlamaysanmi, To'lan, — dedi Tog'a.

— Hozir, hozir, ilhom kelmay turibdi.

— Yuzta otsin undan keyin ilhomi keladi, — dedi oldingi qatorda chordana qurib o'tirgan yigit.

To'lanboy unga o'qrayib qarab qo'ydi. Keyin ovozini baland qo'yib boshladi:

Tog'dan quyon qochirdim, iyagi yo'q, iyagi yo'q,
Qizlar ko'ylak kiyadi, jiyagi yo'q, jiyagi yo'q,
Jiyagi yo'q joylariga qo'lim solsam, qo'lim solsam...

— Buni aytma. Uyat baytni aytma-da, — dedi Tog'a. To'lanboy, bo'пти, uyatmasidan aytaman, deb sal o'ylanib turdi-da, boshladi:

Qarg'alar uchsa qaraylik Marg'ilonning yo'liga,
Hidi kelsa mast bo'laylik handalakning bo'yiga.
Handalak bo'ylikkinam, sen unda zor, men bunda zor,
To'tiqushning bolasidek ikkalamiz intizor. Ho'k, jonvor!

Intizorlik torta-torta tanda toqat qolmadi,
Yo'l chivindek sarg'ayib ucharga holat qolmadi.
Yo'l chivinning holini yo'lda yo'lovchidan so'rang,
Biz g'aribning holini aqli raso yordan so'rang. Ha, jonvor!

Juft danag-u, juft danag-u, juft danak,
Ne qilay yorim yo'qoldi bedarak.
Marg'ilon-u, Shahrixon-u, Chorterakni izladim,
Qolmadi men kirmagan kunji kavak. Ha, harom o'lgur, ho'k!

— Sholini qo'shib ayt, boplayapsan. Qoyil, To'lan. Maydachi o'zimizdan chiqib qopti. Ha, sholini qo'shib ayt.
Buqalar ikki aylanguncha To'lanboy o'ylab oldi.

Sholi eksang, baland ko'tar polini,
Kelin ayam qo'yvormasin molini.
Akam kelsa hammasini aytaman.
Sahar chog'i ko'rib qo'yay holini. Ha, to'ng'iz qo'pkur, ho'k!

— E, o'l-e, yana ayniyapsan-a, — dedi Tog'a kulib. Yaxshilaridan ayt.
To'lanboy xo'p, ishorasini qildi.

Qiz bolaning g'amzasi ko'p, nozi ko'p,
Maydachining ashulasi, sozi ko'p.
Zootexnik o'tiribdi kerilib
Fermasida tovug'idan g'ozi ko'p. Ha, harom o'lgur, ho'k!

Zootexnik qip-qizarib ketdi. Boplading, boplading, To'lan, Tog'ani ham ilib ket. Gap kelsa otangni ham ayama, degan tovushlar chiqdi.

Rais buva Rayimberdi tog'amiz
Aytolmayman, bir tug'ishgan og'amiz.
Tanqid qilsak, ishdan haydab yuborar
Bolalarni qandoq qilib boqamiz. Ha, jonvor, ho'k!

Tog'a ham qotib-qotib kuldi. Kulgi yoshlarini artib, unga do'q urdi:

— Kimni kolxozdan haydabman, ahmoq. To'g'risini bayt qilgin-da.

To‘lanboy qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib uzr aytdi.

— Xafa bo‘lmaysan, Tog‘a. O‘zi rost bo‘lmasa ham qofiyasi yaxshi chiqdi. Umuman, besh protsent rost bo‘lsa, bayt bo‘lave-radi.

— E, bayting qursin, — dedi Tog‘a unga tan berib.

Oqlangan guruchlarni ikkita katta tog‘oraga solib Tog‘aning oldiga qo‘yishdi. Tog‘a har ikki tog‘oradan bir siqimdan olib ko‘ziga surtdi-da, barakasini bersin, deb qaytarib joyiga tashladi.

Choy ichib damini olib bo‘lgan maydachi yana o‘rnidan tur-di. O‘yin-kulgi to osh suzilib kelguncha davom etdi.

Nizomjon uyiga qaytarkan, dadam bo‘lmadi-da, bo‘lganda bir dili yozilardi, deb quvonchini unga ilindi.

Zebixon bolani bag‘riga olib uxlab qolgan ekan. Birinchi ho-silning guruchidan damlangan oshning bir kosasini Nizomjon chambarakka ilib asta bolasining yoniga kirdi. Karavotning teb-ranib ketganidan Zebixon boshini ko‘tarib eriga qaradi.

— Karimjon degan o‘rtog‘ingiz armiyadan bo‘shab kelibdi. Asroradan xat keldi. Tokchada turibdi.

Nizomjon o‘rnidan turib, chiroqni yoqdi.

— Sekinroq, — dedi Zebixon. — Opangiz kelganlar.

Nizomjon xatni ushlagancha turib qoldi.

— Nega kepti? — Nizomjon hayron bo‘lib so‘radi.

— Ertalab aytarman. — Zebixon shunday dedi-yu, piqillab yig‘lab yubordi. — Yoting. Ertalab bilasiz. Hozir uyg‘otaman deb o‘ylamang. Qo‘ni-qo‘shnilar oldida shovqin qilmay qo‘ya qolinglar.

Nizomjon indamadi. Xatni ochib chiroqqa solib o‘qib chiq-di. O‘rtog‘ining kelganiga qanchalik quvongan bo‘lsa, opasining kelgani shuncha tashvishga solgandi.

Nizomjon yechinib o‘rniga yotdi-yu, uxlolmay to‘lg‘anib chiqdi. U ertalab qandaydir bir dilsiyohlik bo‘lishini kutardi. Nega keldi ekan?

Ertalab Nizomjon turganda opasi eshik oldida iyagiga qo‘lini tirab o‘tirardi. U ukasini ko‘rishi bilan, salom-alik qilib o‘tirmay:

— Ha, bemehr, — dedi, — Hamyoningga pulni solib qishloqi-ga yedirib o‘tiribsanmi. Shundoq boobro‘ dadang yettisi bo‘l-may, qirqi bo‘lmay, arvohi chirqillab yursin. Kecha taqsimotda tekkan sholi qani?

— Taqsim bo‘lgani yo‘q. Menga tegadigani bilan sening nima ishing bor?

Risolat o'rnidan turib ketdi.

– Senlarni hali sudga beraman. Men o'gay emasman. Dadamdan qolgan meros menga ham tegishi kerak. Akang u yoqda bitta manjalaqi deb yarim milyonni suvga oqizdi. Na o'ziga qildi, na birovga. Hukumat oldi-qo'ydi.

Nizomjon istehzo bilan kuldi.

– Mendagidan ham umidingni uz. Topshirganman.

Risolat bo'zarib ketdi.

– Meni laqillatmay qo'ya qol. Hammasini xotining bosib yotibdi. Manavunga nima deysan? – Risolat cho'ntagidan ikkita tilla bilaguzuk chiqazdi, – Bu nima? Qani topshirganing?

Risolat kecha Zebixonning qo'lini qayirib tilla bilaguzuklarni olib qo'yanidan Nizomjon bexabar edi.

– Qani, qaytib ber. Senga aytyapman.

Risolat bilaguzuklarni qaytarib cho'ntagiga soldi.

Bir chekkada bolasini ko'tarib turgan Zebixon erini chetga tortdi.

– Qo'ying, men bilaguzuk taqmayman. Opangiz shunga xursand bo'lsalar, ola qolsinlar.

Risolat endi Zebixonga tashlandi.

– Hammasini sandig'ingga bosib olgansan-da, shu bitta narsa bilan qutulmoqchisan. Qutulib bo'psan.

Nizomjonning ko'z oldi qorong'ilashib ketdi.

– Chiq uydan. Chiq deyapman! Jo'nab qol, hozir!

– Ketaman, to'ppa-to'g'ri melisaga boraman. Nachayligini boshlab kelaman. Qurtdek qilib undirib beradi.

– Qayoqqa borsang, boraver. Ikkinchi bu taraflarga qadam bosma.

Jahldan ko'karib Risolat chiqib ketdi. U tashqariga chiqib ham javrashdan to'xtamasdi.

– Otabezorining dastidan dod! Tekinxo'rning dastidan dod! Pastkashlarga qirg'in kelsin! Dadamdan qolgani senlarga buyurmasin! Bittanga buyurmadi-ku. Senga ham Xudo xohlasa buyurmaydi. Voy-dod!

Er-xotin ostonadan o'tolmay bir-birlariga ma'yus qarab turardilar. Risolat boshiga odam to'plab hamon dod solardi. Birov kuladi, birov uni so'kadi. Bilmaganlar Nizomni toshbag'irlikda ayblaydi.

Nizomjon kecha sholi to'yida qandoq xursand edi. Shu xursandlikni ham opasi tatitmadi. Onasidan qolgan birdan-bir yodgorlikni ham olib ketdi.

U, albatta, bilaguzuklarni bozorga opchiqib sotadi. Nizomjon opasining fe'lini biladi. Albatta, u shunaqa qiladi. Kechasi Risolat bilaguzukni tortib olayotganda Zebixonning qo'li lat yegan ekan. U hozir eriga rahmi kelib qarab turarkan, beixtiyor bilagini silardi.

XIII

Ikromjon bir haftagina Toshkentda yurib qishloqni sog'inib qoldi.

U xotini o'lgandan beri sira Naymandan uzoq ketmagan edi. Poyezdda kelayotganda ham, Zirillamadan ot olib qishloq yo'liga chiqqanda ham tezroq Naymanga yetib ola qolsam deb shoshardi.

Hozir Farg'ona bog'larida to'kin kuz. O'rikzorlar to'nini o'zgartirib boshiga olov rang qip-qizil durra bog'lagan. Tutzorlar boshida malla qalpoq. Shishadek tiniq, beg'ubor osmonda ipakdek buralib mezon uchadi.

Ikromjon bir vaqtlar qamish oralab, botqoq kechib yurgan yo'llarida endi imoratlar, bog'lar paydo bo'lgan. Tomlarda har biri qo'zichoqdek oshqovoqlar, devor oshgan jiyda shoxlarida yoqut marjon. Yozi bilan ayqirib oqqan bo'tana ariqlarda endi osmon aks etadi. Polizlar huvillab qolgan. Serraygan tanho qo'riqchining qo'liga hakka qo'ngan. Ko'zachadan yasalgan boshida yong'oq chaqib eydi.

Ikromjon qarddon qishlog'i ko'chalaridan borarkan, ko'p narsalarni ko'nglidan o'tkazdi. Bolaligi, ko'ksiga kelgan birinchi muhabbat, birinchi farzand, cho'lga birinchi yurish... Hamma-hammasi hozir ko'zi oldida.

U paytlarda oyoqlari butun edi. Bu tuproqlarga ikkala oyog'ining izlari tushardi. Endi sog' oyoqning yoniga sun'iy oyoqning tangadek izi tushadi.

To'qqiz bolaning hammasi tuproqda. To'qqiz bola tug'ib bittasining ham orzusiga yetmagan xotini bolalarining qabridan olisda, cho'lda tanho yotibdi. Butun bir uy vayron bo'lib ketdi. Ikromjon birovning bolasini bolam deb, birovning nevarasini nevaram deb uzoq shahardan o'yinchoqlar olib kelyapti.

Bu yorug' dunyoda insonga ermak ko'p. Inson ko'zini quvontiradigan, alam bilan qimtilgan lablariga tabassum chaqiradigan ranglar, jilolar ko'p.

Ikromjon Nizomga tayanib qolgandi. Ikki dilgir bir-biriga suyanib suv kelsa shimirishdi, tosh kelsa kemirishdi. Nizomjonning mushtdekkina boshiga ozmuncha tashvishlar tushmadi. Bir oy ichida ham otadan, ham akadan judo bo'ldi. Bukilmadi. Yiqilmadi. Endi toleimga shu bola omon bo'lsin, bolalariga bosh bo'lsin, deb niyat qilardi Ikromjon.

U otga qamchi bosib ildamlashga qistadi. Shu topda nevarasini juda-juda ko'rgisi kelgandi. Olib kelgan o'yinchoqlarni qo'liga berib, og'izlarini qiyshaytirib kulishini, ko'zlari yashnab unga tolpinishini tomosha qilishga entikdi. Ot og'irlashib qolgan kuz tuprog'ini to'zitib ko'priklardan yengil sakrab o'tar, egasi-ning xayollarini buzgisi kelmagandek lo'killamay bir maqomda yo'rtib borardi.

Yombi oltindek sap-sariq behilar, har biri choynakdek anorlar shoxini qayirgan bog'lar orqada qolib ketdi.

Ikromjon Qoratepa guzaridan o'tganda Nayman ustida qora tutun ko'rdi.

Melivoyning yigitlari to'qayga o't qo'ydimikan, degan o'y bilan uncha parvo qilmadi. Ammo dili bir yomonlik sezgandek yuragi orziqib tushdi. Oldinga og'ir engashib otni butun gavdasi bilan niqtab yurishga qistadi. Ot bir munkib ildamlab ketdi.

To'qay ustida qora tutun shoshilmay atrofni yalagandek juda past sudralardi. Ikromjon yaxshilab razm solgan edi, tutun Melivoyning yeridan emas, Zirillamaliklarga ajratilgan to'qaydan chiqyapti.

Ikromjonning ko'zlari tinib ketdi. Qamish yonyapti. Tursunboyning qabri yonyapti.

Ikromjonning ko'zlari tinib hech narsani ko'rmay qoldi. Bir narsa bo'g'ziga tiqilib, nafas olishga yo'l bermasdi. Ichidan qandaydir achchiq, chidab bo'lmaydigan og'riq keldi-yu, yuragini changallab ushlagancha qo'yib yubormay turib qoldi.

Nayman uylari oldidan Ikromjon ot choptirib o'tganini hamma ko'rdi. Avvaliga zarur ishi bo'lsa kerak deb parvo qilmanlar endi uning olov ichiga ot bilan kirib ketayotganini ko'rib hayron bo'lib qolishdi.

Nizomjon sholi g'aramlayotgan edi. Dadasining o't ichiga kirib ketayotganini ko'rib qoldi-yu, ishini tashlab orqasidan yugurdi.

Havo dim. G'ir etgan shamol yo'q. Qamishlar lovillab emas, shoshilmay, erinmay asta yonardi. Nizomjon shamdek yonayot-

gan qamishlarni qayirib, qo'llari, oyoqlari kuyishiga qaramay oldinga intilardi. Ana, uzoqdan, olov orasidan dadasining qorasi ko'rindi. Nazarida Ikromjondan ham tutun chiqayotganga o'xshadi. Ostidagi ot tutundan bezovtalanib o'zini har tarafga otar, old oyoqlarini balandga irg'itib, olovdan sakrab o'tmoqchi bo'lardi. Ammo mahkam ushlagan qo'llar tizginni qo'yib yubormasdi. Ikromjonning ustiga tutun yopirildi. Otning alamli kishnagani eshitildi. Tutun tarqalganda ot yo'q edi. Nizomjon kuchining boricha intilib tutun tarqagan joyga yetib keldi. Ot yo'q. Ikromjon yerda do'ngni quchoqlab qimirlamay yotardi. Uning to'nidan, belidagi qiyig'idan tutun chiqar, etagidagi o't o'rmalab ustiga yopirilmoqchi bo'lardi.

Nizomjon egnidagi fufaykasini yechib o'tni urib o'chirdi. Dadasining qo'ltig'idan olib, o'ziga qaratdi.

Ikromjon juda kuchsiz tovushda nimadir deb pichirlardi. Nizomjonning qulog'iga: «Tursunboy», degandek bo'lib eshitildi.

Nizomjon uni do'ngdan beri surdi. Ikromjon bosib yotgan do'ngdagi yarmi kuygan giyohlar shabada tegishi bilan lov etib o't olib ketdi.

Tursunboyning go'ri yonardi, Ikromjon endi o'g'lining mozori yonayotganini ko'rmas, ko'zlarini yumib, ingroq, alam, iztirob bilan to'lg'anardi.

Yigirma bir yil shamolni ravo ko'rmay boqqan bolasining qabri jizg'anak bo'lib yonyapti. Bunga qay ota chidaydi?! Qandoq chidaydi?! Ikromjon ingrar, o'rnidan turishga intilib, yana darmonsiz o'tirib qolardi.

Naymanliklar yopirilib kelishdi. Biri qo'ltig'idan, biri belidan olib, uni o't ichidan olib chiqishdi. Nizomjon turgan joyidan qimirlamay qoldi.

Dunyodagi eng pok, eng olijanob onani o'ldirgan, har bir aytgan gapini ibrat, har bir bosgan qadamini mardlik yo'li desa bo'ladigan mard otani o'tda kuydirgan xoinning qabrini tepkilagisi keldi. Yonayotgan qabr kullarini cho'l shamollariga sohib yuborgisi keldi. Qabr alangasi Nizomjonning ko'zlarida aks etib turardi. U qahr-g'azab bilan la'nat dedi-yu, keskin burilib odamlarga ergashdi.

Ikromjon yotib qoldi. U endi birov bilan gaplashmas, ba'zida o'zi bilan o'zi gaplashayotgandek nimalardir deb turishga intilardi.

Ikki kun o'tgandan keyin Ikromjon o'rnidan turdi. Odamlar ishga ketganda ostonaga o'tirib cho'lning olis-olislariga tikilib

o'y o'ylardi. Nizomjon ishga chiqmay yonidan jilmasdi. Hadeb o'zini o'zi qiynab o'y o'ylayverganidan Ikromjon ancha ozib, rangi so'lib qoldi. Bir kun Nizomjon unga:

– Qo'ying, dada, ko'p o'ylamang. Bunaqada dardga chalinib qolasiz, – dedi.

Ikromjon unga uzoq qarab turib boshini siladi.

– Yo'q, bolam, men dardga chalinmayman. Men o'lmayman. Tik bo'lsam yurib, yiqilsam emaklab, yotib qolsam surilib ho' o'sha ufqqa boraman. Ufqdan turib Yozyovonimga bir qayrilib qarayman. Ufqqa bormay o'lishim mumkin emas.

Ikromjon entikib, ta'sirlanib gapirardi.

– O'lish oson, o'lib ketish oson. Yashash qiyin. O'lish no-mardning ham qo'lidan keladi. Mard yashaydi. Ko'ryapsanmi, bolam. – U ufqqa, kun botayotgan olisga qo'lini cho'zdi. O'sha tarafda ufq qip-qizil, teparog'i sekin-sekin oltin rangdan asta moviylashib kelardi. – Ko'ryapsanmi. Tovlanishini, odam bolasini imlab chaqirishini ko'ryapsanmi. Yur, yur, o'shaqqa boramiz. Vaxliroq borib tong otishini kutib olamiz. Tong otishi qanaqaligini, kun botishi qanaqaligini sen bilmaysan. Bilmaysan, bolam. Sen hali yoshsan. Seni o'zim huv o'sha ufqqa olib boraman. Ufqni ko'rasan. Qo'ling bilan ushlab ko'rasan. Ufqni Naymanga olib kelamiz. Yo'q, yo'q, Naymanni ufqqa olib boramiz.

Nizomjon ufqdan ko'z uzmas, bir qizil, bir sariq, bir moviy tusga kirayotgan ufq Ikromjonning gaplaridan yana go'zallashib, yana serjilo bo'lib ko'rinardi.

Nizomjon ufqqa mahliyo bo'lib turar ekan, Ikromjonning ovozi tinganini bilmay qoldi. Boshi yelkasiga asta tekkandan keyingina o'girilib qaradi.

Ikromjon bolasining yelkasiga bosh qo'yganicha, ufqqa tikilib turib jon bergan edi...

Ikromjonni kanal ko'prigining berigi yog'idagi do'nglikka ko'mishdi. Qabr tepasidagi taxtachada shunday yozuv bor:

Ikromjon Usmonov

1889 – 1945

VKP (b) a'zosi.

Oradan ikki hafta o'tgandan keyin To'lanboy uch tup chinor ko'chati opkelib ekmoqchi bo'lib turgan edi, Nizomjon uni qaytardi. Nima uchun unday qilayotganini bilmay hardamxayol bo'lib turgan To'lanboy indamay ko'chatini qaytarib olib ketdi.

Nizomjon dadasining qabri oldida bironta daraxt bo'lishini istamasdi. Dadasi ufqni sevardi. Daraxt o'sib so'ngsiz osmonni, har kuni qizarib botadigan ufq yo'lini to'sib qo'yadi, deb o'ylardi.

Kanal ko'prigidan kech payti qaragan odam shu tepa orqasiga quyosh botishini, ufq butun tepalikni qip-qizil shafaqqa ko'mishini ko'rardi.

Nizomjon har kuni kech paytida shu tepaga kelib hali qotmagan tuprog'iga qo'ltiqtayoq sanchilgan qabr oldida ufqqa qarab uzoq o'tiradi. Atrofga o'ychan nazar tashlaydi. Oftob o'chib, osmonda birin-ketin yulduzlar ko'z ochguncha shu yerda qoladi. Turnalarning qaychidek ayri karvoni o'tib ketguncha osmondan ko'z uzmaydi.

SO'NGGI SO'Z

Kitobga so'nggi nuqta qo'yaman.

Shunday deb o'ylayman-u, birdan yuragim huvillab qoladi. Nahotki, ajralish payti keldi. Axir, men sizni o'n yil qalbmida ardoqladim. O'n yil izingizdan yurdim. Qahraton qish kechalari bo'ronning guvillashiga quloq solib sizni o'yladim. Saraton jaziralarida Yozyovon cho'llarini kezib sizni qidirdim. Odamlar orom uyqusida yotganda men tunni tongga ulab siz bilan gaplashdim. Quvonchingizga quvonib, dardingizga o'rtanib yozdim.

Qog'ozga tikilib, qalamni tishlab, tunning sokin bag'ridan shaddod Asroraning ovozini eshitardim. Tomirlari temir, tani po'lat Ikromjonning qomati sira yengilmaslik timsoli bo'lib qarshimda turardi.

Dildor! Erka Dildor! Shundoq keng cho'lga fayz kiritib turgan olovdek ko'zlaringni, saxiy qalbingni durust tasvirlay oldimmi?

Nizomjon, seni o'zim yaratdim. Yaratdim-u, boshingga kul-fatlar soldim. Olovlardan olib o'tdim. Toshqinlarga qarshi suzdirdim. Endi sen Ikromjon bo'lib yasha! Hayotdan Ikromjonning haqini ol!

So'nggi ayovsiz nuqtani qo'ydim.

1969-yil.
Yozyovon — Kuyganyor.

MUNDARIJA

BIRINCHI KITOB

Qirq besh kun 5

IKKINCHI KITOB

Hijron kunlari235

UCHINCHI KITOB

Ufq bo'sag'asida.....443

SAID AHMAD

UFQ

Trilogiya

Muharrir: A. Tilavov

Texnik muharrir: Y. O‘rinov

Sahifalovchi: O. Ismailov

Musahhiha: D. Kenjayeva

*«Sano-standart» nashriyoti —
Toshkent, 2016.*

Nashriyot litsenziyasi AI 177, 08.12.2010.

**Bichimi 60x90 1/16. Bosishga ruxsat etildi: 24.04.2016 y.
Shartli bosma tabog'i 40,0. Nashr bosma tabog'i 40,99
Adadi 10000 nusxa. Buyurtma №21/16-291.**

**O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi va
"Sano-standart" Ma'suliyati cheklangan jamiyati bilan
hamkorlikda chop etildi.**

**100129, Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 30-uy.
100069, Toshkent sh., Shiroq ko'chasi, 100-uy.**



“Sano-standart”
nashriyoti

ISBN 978-9943-4618-6-4



9 789943 461864